

UO'K: 821.512.133 – 3

KBK: 84(4Fr)

D-95

Dyuma Aleksandr. Graf Monte-Kristo. (If qal'asining mahbusi). Roman. Ruschadan T.Rustamov tarj. Birinchi kitob. –T.: «Yangi asr avlodi», 2013. – 748 b.

ISBN 978-9943-08-964-8

Bu kitob – ko'plar kutgan durdona. U jahon adabiyotidagi eng sara asarlar ro'yxatiga kiradi. Garchand “Graf Monte-Kristo” yaratilganiga bir necha asrlar o'tgan bo'lsa-da, undagi ulug'vor g'oyalar, o'lmas tuyg'ular, orzular va armonlar talqini sira-sira o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Asardagi qahramonlar, ularning hayoti, kechinma va kechmishlari, voqealar zanjiri o'quvchini kitobga ipsiz bog'lab qo'yadi. Ayniqsa, bosh qahramon Edmon Dantesning uzoq yillik uqubatlari, ana shu yillar samarasi o'laroq, o'zgacha inson bo'lib yetishishi, bir vaqtlardagi jabr-sitam uchun intiqom kurashiga kirishishi bugungi kun o'quvchisi uchun ham birdek maroqli.

“Graf Monte-Kristo”ni ko'plar intiq kutayotganining boisi shundaki, ushbu kitob o'zbek tilida chiqarilganiga qirq yildan oshdi. U dunyo adabiyoti xazinasidan o'rin olgan bo'lsa-da, ehtimol hajmi kattaligi bois, bizda boshqa chop etilmagan. Nashriyotimiz ko'p sonli kitobxonlarning talab-istaklarini inobatga olib, mazkur ishga qo'l urganining boisi ana shunda.

Marhamat, o'smirlik va ulug'vorlik, ezgulik va jaholat, nafs yo'lidagi taloto'plar, kimsasiz oroldagi nadomatlar, qasosga undagan turfa sarguzashtlar olamiga oshno bo'ling, muhtaram o'quvchi!

UO'K:821.512.133–3

KBK 84 (4Fr)

Rus tilidan
To'liq RUSTAMOV
tarjimasi

ISBN 978-9943-08-964-8

© Aleksandr Dyuma, «Graf Monte-Kristo» (If qal'asining mahbusi). Ikkinchi nashr. «Yangi asr avlodi», 2013 yil.

I. MARSEL. TASHRIF

1815 yilning yigirma yettinchi fevralida Nort-Dam de-la-Gard qal'asining soqchisi uch machtali «Faraon» nomli kema yaqinlashib kelayotganini xabar qildi. Bu kema Smirna, Triest va Neapoldan kelayotgan edi.

Port losmani har galgidek darhol gavandan chiqdi-da, If qal'asini yonlab o'tib, Morjion buruni bilan Rion oroli o'rtasida kelib kemaga chiqdi.

Muqaddas Ionna qal'asi maydoni bir zumda sinchkov tomoshabinlarga liq to'ldi. Bu odat bo'lib qolgan, chunki Marselga biror kema, xususan qadimiy Fokeyada qurilgan, jihozlangan va yuklangan, mahalliy armatorlardan¹ biriga tobe bo'lgan «Faraon»ga o'xshash kema kelib qolgudek bo'lsa, bas, bu bir kutilmagan hodisa hisoblanadiyu, olomonning butun diqqat-e'tiborini jalb etadi-qo'yadi.

Kema tobora yaqinlashib kelyapti, u bir zamonlar Kalasaren va Jaros o'rtasida vulqon larzasi oqibatida paydo bo'lgan bo'g'ozdan eson-omon o'tdi-da, Pometdan aylanib kelaverdi. U negadir yelkanlarini halpillatgancha juda sekin va g'amgin suzar, bu holdan ermaktalab odamlar, nima bo'ldiykin, kema biror baxtsizlikka uchradimikin, deb o'ylab, tashvishlanishardi. Biroq bilag'onlar kemaning o'ziga zarar-zahmat yetmaganini, tuppa-tuzuk suzib kelayotganini, langar tashlashga tayyor ekanini, «Faraon»ni tor yo'ldan Marsel gavaniga olib kirishga tayyorlanayotgan losman yonidagi yosh yigit kema harakatlaridan ko'zini uzmay, losmanning har bir buyrug'ini takrorlab, g'oz turganini aniq ko'rib turishardi.

Hammadan ham ko'proq o'rinsiz tashvishga tushgan

¹ Armator – kema egasi.

bir tomoshabin kemanding portga kirishini kutib o'tirmay, irg'ib qayiqqa tushdi-da, «hayda, «Faraon» tomonga», deb qichqirdi va Rezerv ko'rfazi qarshisida kemaqa yondashdi.

Buni ko'rgan haligi yosh dengizchi losman yonidan jilib, shapkasini boshidan oldi-da, kema chetiga kelib to'xtadi.

Bu o'n sakkiz-yigirma yoshga kirgan, qaddi-qomati suqsurday go'zal, qora ko'z va qora soch o'spirinning butun vujudida bolalik chog'laridanoq xavf-xatarlarga qarshi kurashga odatlangan kishilarga xos xotirjamlik va qat'iyat aks etib turardi.

– Iya! Siz ekansiz-ku, Dantes! – qichqirdi qayiqdagi kishi. – O'zi nima gap? Nechun kemadagilarning hamma xomush ko'rinadi?

– Baxtsizlik yuz berdi, janob Morrel, juda og'ir baxtsizlik! – javob qildi o'spirin, – ayniqsa men uchun juda katta baxtsizlik: Chivita-Vekki oldida mashhur yoqimtoy kapitanimiz Leklerden judo bo'ldik.

– Yuk-chi! Yuk nima bo'ldi? – so'radi korchalon.

– Yuklar bus-butun keldi, siz bundan albatta mamnun bo'lursiz, deb o'ylayman... Biroq bechora kapitan Lekler...

– Qanday baloga duch bo'ldi u? – so'radi korchalon ancha xotirjamlik bilan. – Nima bo'ldi shonli kapitanimizga?

– Dunyodan o'tdi u.

– Kemadan yiqilib tushdimi?

– Yo'q, asabi buzilib, nihoyatda qiynalib o'ldi, – dedi Dantes.

So'ng ekipajga o'girildi-da, qichqirdi:

– Hoy yigitlar! Hamma o'z joyida tursin! Langar tashlansin!

Sakkiz yoki o'n matrosdan iborat ekipaj itoat qilib, biri yelkanboqqa, ikkinchisi sim arqonga, uchinchisi yana boshqa narsaga yopisha ketdi.

Yosh dengizchi ularni bir zum ko'zdan o'tkazdi-da, buyruq bajarilayotganini ko'rib, yana hamsuhbatiga o'gi-

rildi.

– Qanday yuz berdi bu baxtsizlik? – so‘radi to‘xtab qolgan suhbatini davom ettirib armator.

– Qo‘qqisdan. Port kapitani bilan uzoq gaplashib, sanmanga bordi-da, Neapoldan darg‘azab chiqib ketdi, bir kecha-yu bir kunduz o‘tgach, bezgagi xuruj qilib, uch kundan so‘ng dunyodan o‘tdi... Biz uni izzat-hurmat bilan dafn etdik: bo‘z kafanga o‘radik-da, oyog‘i va boshi tomonga to‘p o‘qi bog‘lab, Deb-Jilo oroliga yaqin yerda suvga cho‘ktirib yubordik. Salb va shamshirini bevasiga topshirish uchun olib keldik, rosa o‘n yil inglizlar bilan jang qilib, kelib-kelib hamma qatori to‘shakda jon bersaya, bechora! – dedi yigitcha qayg‘uli ohangda.

– Choramiz qancha, Edmon! – dedi tobora ko‘ngli yumshab borayotgan korchalon. – Bu o‘lim hammamizning qismatimiz, xullas, keksalar o‘rnini yoshlarga bo‘shatib beraverishlari lozim, busiz butun hayot o‘rnidan qimirlamay qolgan bo‘lardi-da. Demak, gapingizdan ma‘lum bo‘ldiki, yuk...

– Men sizni yana ishontirib aytamanki, hamma yuk saqlanib, olib kelindi, janob Morrel. Agar yigirma besh ming frank foyda bilan qanoatlanib qo‘ya qolaman desangiz, haqingiz ketadi.

Yigitcha «Faraon»ning yumaloq minora yonidan o‘tganini ko‘rib, qichqirdi:

– Mars-gitovalarga! Kliver-niral! Bizan-shkotga! Langar tayyorlansin!

Buyruqlar xuddi harbiy kemalardagidek, tez bajo keltirildi.

– Shkotalar berilsin! Yelkanlar shtovalarga qo‘yilsin!

So‘nggi buyruq berilishi bilanoq hamma yelkanlar yig‘ishtirildi, kema esa endi sekin-asta siljib bormoqda.

– Janob Morrel, endi bu yoqqa chiqaversangiz bo‘lardi, – dedi Dantes, armatorning toqatsizlanayotganini ko‘rib. – Mana, buxgalteringiz janob Danglar ham xonasi-dan chiqib kelyapti. Siz istagan ma‘lumotlarning hammasini shu kishi aytib beradi. Men endi kemani pristanga

qo'yay, motam marosimini tayyorlay.

Armator yana bir bor taklif qilishlarini kutib turmadi-da, Dantes uloqtirgan arqonni tutib tajribali dengizchiga xos mohirlik bilan kemaga chiqib oldi. Dantes esa endigi suhbatni Morrelga peshvoz chiqib kelayotgan Danglarga qoldirib, ilgarigi joyiga qaytdi.

Danglar yoshi yigirma beshlarga borib qolgan, hami-sha qovog'idan qor yog'ib turadigan, ulug'larga xushomadgo'yu, qaramidagilarga dag'al, darg'azab bir kishi edi. U buxgalter bo'lgani uchun emas, ko'pincha yuqorida zikr etilgan fe'l-atvori uchun matroslar undan nafratlanishar, Dantesni esa yaxshi ko'rishardi.

– Janob Morrel, shunday qilib, baxtsizlikka uchraganinizni siz allaqachon bilib olibsiz-da? – dedi Danglar.

– Ha, xuddi shunday! Bechora kapitan Lekler! U juda yoqimtoy va vijdonli odam edi.

– Ajoyib mahoratli dengizchi ekanini aytmaysizmi?! Bu uning eng zo'r xislati edi. U butun umrini sochlari oqarib keksaygunga qadar suvda o'tkazdi. «Morrel va o'g'li» kabi ulkan firmaning manfaatlari yo'lida jonbozlik qiladigan odam mana shunday bo'lmog'i kerak-da, – dedi Danglar.

– Chamamda, – dedi armator kemaga joy tanlayotgan Dantesdan nazarini uzmay, – o'z ishining ustasi farangi bo'lmoq uchun, siz aytgandek keksa dengizchi bo'lish shart emas. Ana qarang, do'stimiz Edmonni. O'z vazifasini qanday mohirlik bilan bajo keltiryapti. Menimcha, u birovning maslahatiga muhtoj ham emas.

– To'g'ri, – javob qildi Danglar Dantesga xo'mrayib, uning ko'zlari nafratga to'la edi, – to'g'ri, yoshlik va kibr bu yigitchani ancha hovliqtirib qo'ydi. Kapitan olamdan o'tishi bilanoq, u hech kim bilan maslahatlashmay jamoani o'z qo'liga oldi-da, to'g'ri Marselga yo'l olish o'rniga Elba orolida bir yarim kun vaqtimizni behuda o'tkazishga majbur etdi.

– Jamoani qo'liga olib, – dedi armator, – to'g'ri qilibdi, kapitan yordamchisi sifatida o'z burchini bajaribdi. Keman ta'mirlashga ehtiyoj tug'ilmagani holda Elbada bir

yarim kunni bekorga o'tkazish xato, albatta.

– Kema bus-butun, hech shikastsiz edi, janob Morrel. Bu yigitchaning qirg'oqqa chiqamiz, deb injiqlik qilishi natijasida ana shu bir yarim kun bekor o'tib ketdi.

– Dantes! – dedi armator o'spiringa qarab. – Bu yoqqa kel.

– Kechiring, janob, – javob qildi Dantes, – bir daqiqada huzuringizda bo'laman. So'ng ekipajga qarab buyruq berdi: – Langar uzatilsin!

Shu zahoti langar tashlashdi, zanjir esa jaranglaganicha cho'zilib ketdi.

Losman shu yerda hozir bo'lishiga qaramay, Dantes ana shu oxirgi buyrug'i to'la bajarilmaguncha o'rnidan qimirlamadi.

U yana qichqirdi:

– Vimpel yarmigacha tushirilsin, bayroq tugunlansin, reyalar taxlansin!

– Ana, qarang, – dedi Danglar, – u endi kapitan o'ziman, deb gerdayyapti, ha, juda o'ziga bino qo'yib boryapti.

– To'g'ri, u chindan ham kapitan-da, – javob qildi armator.

– To'g'ri, janob Morrel, biroq uni kapitan qilib hech kim, siz ham, sherigingiz ham tasdiqlagani yo'q-ku.

– Uning o'zini kapitan qilib qoldirsak bo'lmaydimi? – dedi armator, – to'g'ri, u hali yosh, lekin chamasi, juda jon kuydirib ishlaydigan va tajribaga boy bo'lsa kerak.

Danglarning rangi o'chdi.

– Janob Morrel, uzr, – dedi Dantes yaqin kelib, – langar uzatildi, endi xizmatigingizga tayyorman. Siz meni chaqiringiz, chog'i?

Danglar bir qadam orqaga tisarildi.

– Men sizdan bir narsani so'ramoqchi edim: nechun Elba oroliga kirdingiz?

– Nimaga kirganimni o'zim ham bilmayman. Men kapitan Leklarning so'nggi topshirig'ini bajardim, xolos. U dunyodan ko'z yumayotib mendan bir paketni marshal Ber-

tranga yetkazib berishni iltimos qilgan edi.

– Demak, siz uni ko'zingiz bilan ko'rdingizmi?

– Kimni?

– Marshalni.

– Ha, ko'rdim.

Morrel atrofga alanglab oldi-da, Dantesni chetga tortdi.

– Imperator-chi? Uning ahvoli qalay ekan? – so'radi u qiziqsinib.

– Mening bilishimcha, soppa-sog'.

– Hali, imperatorning o'zini ham ko'rdim deng?

– Men marshalning uyidaligimda u ham kirib qoldi.

– Siz u bilan gaplashib ham oldingizmi?

– Yo'q, u men bilan gaplashdi, – javob berdi Dantes jilmayib.

– Nima dedi u sizga?

– Kemani, Marselga qachon va qaysi tomonda ketajagimizni, nima ortib borayotganimizni so'radi. Mabodo kema bo'sh va meniki bo'lganda, u sotib olishga ham tayyor edi shekilli; biroq men unga, kemaning xo'jayini «Morrel va o'g'li» savdo firmasi ekanini, men esa faqatgina kapitan vazifasini bajarayotganimni aytib, shashtini qaytardim. «Ha, bilaman, bilaman, – dedi u. – Morrellar urug'aymog'i bilan armatorlik qilishadi, ulardan biri hatto Valansdaligimda, polkimizda xizmat qilgan edi».

– Juda to'g'ri! – dedi quvonib armator. – U yerda tog'am Polikar Morrel xizmatda bo'lgan edi, to kapitanlik unvonini olguncha xizmat qildi. Dantes mabodo tog'amga, «Sizni imperator esladi», degudek bo'lsangiz, vaysaqi chol yig'lab yuboradi. Siz, Dantes, kapitan Leklarning buyrug'ini bajo keltirib, Elbada to'xtab juda savob ish qilibsiz. Lekin marshalga xat olib borganingizni va imperator bilan gaplashganingizni bilib qolishsa, sizga gap tegib qolishi mumkin.

– Nega menga gap tegarkan? – dedi Dantes. – Axir men paketda nima borligini bilmayman-ku! Imperator menga bergan savollarni istagan boshqa kishiga ham berishi

mumkin edi. Kechiring, ana bojxona vakillari va karantin xodimlari kelishyapti.

– Boring, azizim, boring...

Yigitcha ketishi bilan Danglar yaqinlashdi.

– Xo’sh? – so’radi u. – Axir u sizga nima uchun Porto-Ferrayoga kirganini aytgandir?

– Xuddi shunday, azizim Danglar.

– Aha! Juda soz, – dedi Danglar. – Do’st o’z burchini bajarmaganini ko’rsam tutunim chiqib ketadi-da.

– Dantes o’z burchini bajaribdi, bu sohada undan gina qilishga o’rin yo’q, – dedi armator. – Kapitan Lekler, Elbada to’xtagin, deb buyruq bergan ekan.

– Aytmoqchi, kapitan Leklarning xatini berdimi u sizga?

– Kim?

– Dantes.

– Menga?.. Yo’q, unda xat bormidi?

– Chamamda, paketdan bo’lak, kapitan unga bir xat ham berdi shekilli.

– Qanaqa paket u, Danglar?

– Dantes Porto-Ferrayoga olib borgan paket-da.

– Dantesning Porto-Ferrayoga paket olib borganini siz qayoqdan bilasiz?

Danglar qizarib ketdi.

– Men kapitanning xonasi oldidan o’tib borayotgandim, shunda u Dantesga paket va xat berayotganini ko’rib qoldim.

– U menga bu haqda hech nima degani yo’q, mabodo xat bo’lsa, beradi.

Danglar o’ylanib qoldi.

– Unday bo’lsa, janob Morrel, bu gapni Dantesga ayt-mang, iltimos qilaman. Men chamasi yanglishayotibman.

Shu payt yosh dengizchi qaytib keldi. Danglar yana o’zini chetga oldi.

– Xo’sh, azizim Dantes, endi bo’shadingizmi? – deb so’radi armator.

– Ha, bo’shadim, janob Morrel.

- Juda tez tugatdingiz-a?
- To‘g‘ri, bojxona vakillariga mollarimizning ro‘yxatini topshirdim, portdan losman bilan birga odam yuborishgan ekan, unga hujjatlarimizni berib yubordim.
- Bu yerda endi ishingiz yo‘qmi?
- Dantes atrofga bir nazar tashlab oldi.
- Yo‘q, hamma ish joyida, – dedi u.
- Yuring, biznikida ovqatlanamiz.
- Uzr so‘rayman, janob Morrel, men hammadan oldin otam huzurida bo‘lishim lozim. Iltifotingiz uchun rahmat.
- Bu gapingiz to‘g‘ri, Dantes, juda to‘g‘ri. Ibratli o‘g‘il ekaningizni bilaman.
- Mening otam qalay ekan? – so‘radi Dantes parishon holda, – siz bilasizmi, sog‘-salomatmikan?
- Men, azizim, otangizni ko‘rganim yo‘q, biroq o‘ylaymanki, u sog‘-salomat bo‘lsa kerak.
- Ha, u o‘z kulbasidan hech yoqqa jilmay o‘tiringandir.
- Demak, siz bo‘lmasangiz ham u hech narsaga muhtoj bo‘lmagan ekan-da.
- Dantes iljayib qo‘ydi.
- Otam juda mag‘rur; boshidan qanchalik muhtojlik kechirmasin, Xudodan boshqa hech kimdan yordam so‘ramaydi.
- Demak, otangiz huzurida bo‘lgach, biznikiga tashrif buyu-rasiz, shundaymi?
- Yana bir karra uzr, janob Morrel, mening yana bir burchim borki, uni ham bajo keltirish men uchun qarzi Qiyomatdir.
- E, shunday deng! Katalanida ham sizni xuddi otangiz kabi sabrsizlik bilan kutayotganlarini unutib qo‘yibman – u tengi yo‘q go‘zal Mercedes-da!
- Dantes jilmaydi.
- E, gap bu yoqda ekan-ku! – davom etdi armator. – «Faraon» qachon keladi, deb uch marta so‘rab kelgan edi. Buning boisini mana endi angladim. Edmon, malikangiz go‘zallarning go‘zali, juda baxtli ekansiz!
- U malikam emas, mening qaylig‘im, – dedi jiddiy tus-

da dengizchi.

– Baʼzan ikkisining farqi boʻlmaydi, – dedi kulib armator.

– Buning bizga daxli yoʻq, – javob berdi Dantes.

– Mayli, Edmon, sizga javob. Siz mening ishlarimni juda boplab bajo keltirdingiz, endi men ham sizga ishlaringizni bitirib olmoq uchun erkinlik bermogʻim lozim. Puldan qalaysiz? Kerak boʻlsa berayin?

– Yoʻq, ehtiyoj yoʻq. Safar vaqtidagi maoshlarim shunday taxi buzilmay turibdi. Bu deyarli uch oylik maosh.

– Juda batartib odam ekansiz, Edmon.

– Janob Morrel, bilasizki, otam kambagʻal odam.

– Bilaman, bilaman, siz ibratli oʻgʻilsiz. Boring, otangiz oldiga boring. Menim ham oʻgʻlim bor, uch oy ayriliqdan qaytgan oʻgʻlimning men bilan uchrashuviga biror kishi xalaqit berguday boʻlsa, men ham oʻsha kishidan juda xafa boʻlgan boʻlardim.

– Demak, menga ruxsatmi? – dedi yigitcha taʼzim qilib.

– Menga boshqa gapingiz boʻlmasa, boring.

– Boshqa gapim yoʻq.

– Kapitan Lekler oʻlish oldidan menga sizdan xat yoʻllamaganmidi?

– U xat yozishga ojjiz edi... Savolingiz yodimga bir narsani keltirdi. Sizdan ikki haftalik taʼtil soʻrayman.

– Toʻy uchunmi?

– Ham toʻy, ham Parijga borib kelish uchun.

– Boʻpti, mayli. Biz olti haftacha yuk tushirish bilan band boʻlamiz, uch oysiz dengizga chiqolmaymiz. Shunday boʻlsa-da, uch oy oʻtdi deganda shu yerda hozir boʻlmoqʻingiz kerak, – dedi soʻzini davom ettirib armator dengizchining yelkasiga qoqib, – «Faraon» oʻz kapitansiz sa-farga chiqolmaydi.

– Oʻz kapitansiz?! – qichqirib yubordi Dantes, uning quvonchdan koʻzlari chaqnab turardi. – Astaroq gapiring, janob Morrel, chunki hozir siz dilimdagi sirli tilagimni aytdingiz. Meni siz «Faraon»ning kapitani qilib tayinlamoqchimisiz?

– Agar yakka o‘zim xo‘jayin bo‘lganimda shu zahotiyoc qo‘limni berib, «Ish bitdi, tamom-vassalom!» deb qo‘ya qolardim. Afsuski, sherigim bor. Siz italyanlarning maqolini bilsangiz kerak: «Sherigi borning xo‘jayini ham bo‘ladi». Biroq ishning yarmi bitgan, chunki ikki ovozdand biri sizniki. Ikkinchisini ham sizga tobe etishni menga qo‘yib beravering.

– Oh, janob Morrel! – dedi qichqirib yigitcha ko‘zlari yoshga to‘lib, armatorning qo‘lini siqarkan, – sizga otam va Mercedes nomidan minnatdorchilik bildiraman.

– Bo‘pti, bo‘pti, Edmon! Otangiz huzurida ham, Mercedes huzurida ham bo‘lib, ularni xursand qiling, so‘ng qaytib keling.

– Istasangiz qirg‘oqqa o‘tkazib qo‘yay?

– Rahmat. Men bu yerda qolib, Danglar bilan hisob-kitoblarni ko‘zdan kechiray. Safarda undan mamnun bo‘lgandirsiz?

– Mamnun bo‘ldim ham, bo‘lmadim ham. Bir do‘st sifatida undan xursand emasman. Bir gal u bilan janjalla-shib qoldim-da, qiziqqonlik qilib Monte-Kristo orolida o‘n daqiqacha to‘xtashni va janjalni uzil-kesil hal etishni taklif qildim. Bu tentaklik edi, albatta, bunday demasligim kerak edi. U taklifni rad etib, aqlli ish qildi. Ana o‘shandan beri u meni juda yomon ko‘rib qoldi, chamamda. Buxgalter sifatida unga hech qanday e‘tiroz bildirish mumkin emas. Siz ham uning xizmatidan mamnun bo‘lursiz, albatta.

– Biroq Dantes, ochig‘ini ayting-chi, siz «Faraon»ga kapitan bo‘lsangiz, Danglar bilan birga ishlarmidingiz?

– Janob Morrel, kapitan bo‘lib ishlaymanmi, uning yordamchisi bo‘libmi, baribir, men xo‘jayinlarim ixlos qo‘ygan kishilarni hamisha hurmat qilaman.

– Juda to‘g‘ri, Dantes, siz juda ajoyib yigitsiz, juda ajoyib. Qani endi, jo‘nang: ko‘rib turibmanki, toqatingiz toq bo‘lib, tipirchilab turibsiz.

– Demak, men ta‘tildaman-a?

– Boravering deya pman-ku, axir.

- Qayig'ingizni olsam maylimi?
- Oling.
- Xayr, janob Morrel. Ming-ming rahmat sizga.
- Xayr, Edmon. Omadingizni bersin!

Yosh dengizchi irg'ib qayiqqa mindi, rulga o'tirdi-da, Kanneber ko'chasi tomon haydashni buyurdi. Ikki matros eshkakni zo'r berib esha boshladi. Qayiq zich-zich qayiqlar orasidan, ikki yonda saf tortgan kemalar o'rtasidagi tor joydan o'tib, Orlean qirg'og'iga jadal yo'l oldi.

Armator uni to qirg'oqqacha jilmayib kuzatdi va irg'ib tosh ko'chaga tushganini, saharbardonda to kech soat o'ngacha mashhur Kanneber ko'chasini to'ldirib sayr qiladigan olomon orasiga sho'ng'ib ketganini ko'rib turdi. Fokeyaliklar bu ko'chani juda ko'klarga ko'tarib: «Parijda ham Kanneber ko'chasi bo'lsaydi, Parij ham kichkina Marsel bo'lib qolardi», deb maqtashadi.

Armator alanglab, orqasida turgan Danglarni ko'rib qoldi. Danglar go'yo uning buyrug'iga muntazirday ko'rin-sa-da, ikki ko'zi yosh dengizchida edi. Lekin bir vaqtning o'zida yosh dengizchini kuzatib turgan bu ikki qarashda tamoman bir-biriga qarshi ikki xil ma'no bor edi.

II. OTA VA O'G'IL

Nafrat o'tida jizg'anak bo'layotgan Danglar armator oldida o'z o'rtog'ini balchiqqa bo'lg'ayversin, biz Dantesni kuzatib boraylik. U Kanneber ko'chasini boshidan oxirigacha bosib o'tdi-da, Noayl ko'chasini orqada qoldirib, Melyanski xiyobonining chap tomonidagi bir uyga kirdi, qop-qorong'i zinapoyadan chopqillab beshinchi qavatga ko'tarildi, bir qo'li bilan panjarani ushlab, ikkinchi qo'li bilan gupillab urayotgan yuragini bosib, yarim ochiq eshik oldida to'xtadi. Eshik tirqishidan kulbadagi hamma narsa ko'rinib turardi.

Uning otasi mana shu kulbada istiqomat qilardi.

«Faraon»ning kelganini hali chol eshitgani yo'q. U stulga chiqib, titroq qo'llari bilan deraza pardalarini tuzat-

yapti. Shu payt kimdir to'satdan uni orqasidan quchoqlab oldi. Tanish ovoz eshitildi:

– Ota!

Chol qichqirib orqasiga o'girildi-da, o'g'lini ko'rib, uning quchog'iga otildi. Cholning a'zoyi badanini titroq bosgan edi.

– Nima bo'ldi sizga, ota? – so'radi o'g'li tashvishga tushib. – Tobingiz qochganmi?

– Yo'q, yo'q, azizim Edmon, qo'zim, jigarbandim, sog'man, sog'! Biroq men sening kelishingni kutmagan edim... Sen meni shoshiltirib qo'yding... bu xursandchilikdan, ha, juda quvonib ketdim-da. E, Tangrim! Chamamda, o'layotganga o'xshayman.

– Tinchlaning, otajon, tinchlaning, qarshingizda men turibman, men – o'g'lingiz Edmon! Quvonch sog'liqqa zarar yetkazmaydi, deyishadi. Shuning uchun ham men to'g'ri kirib kelaverdim. Namuncha olayib qaraysiz, otajon, qo'ying, unday qilmang, es-hushingizni yig'ing, tabassumla qarang menga. Mana men uyga qaytib keldim, endi bizga faqat yaxshilik yor bo'ladi, faqat yaxshilik!

– Juda soz, – dedi chol, – ammo qanday qilib yaxshilik yor bo'ladi? Bundan keyin biz hijron azobini tortmaymizmi?.. Qani, o'g'lim, baxtingni hikoya qilib ber menga...

– Avvalo shuni aytayinki, men butun boshli bir oilaning musibatidan baxtiyor bo'lib quvonayotganim yo'q, aslo! Xudo saqlasin bunday baxtdan. Tangrimga ayonki, menga bunday baxtning keragi yo'q. Baxt qushi o'zi kelib qo'ndi boshimga, shu sababli qayg'urishdan ojizman. Kapitan Lekler vafot etdi, endilikda Morrelning homiyligi ostida uning o'rmini olishim ehtimoldan uzoq emas. Tushundingizmi, otajon! Yigirma yoshimda kapitan bo'laman, yigirma yoshimda-ya! Bir yuz luidor maosh, buning ustiga yana foydadan ulush! Axir, men kambag'al bir matros – shunday bo'lishini xayolimga keltira olarmidim?

– To'g'ri, o'g'lim, – dedi chol, – bu juda katta baxt.

– Men istardimki, dastlabki pulgayoq siz lomonoslaringiz, nastursiyalaringiz va dukcho'plaringiz uchun bog'

rog'li uy sotib olsangiz... Hoy, otajon, nima bo'ldi sizga? Behud bo'lyapsizmi?

– Hechqisi yo'q, o'g'lim... Hozir o'tib ketadi!

Chol holdan toydi-da, orqaga tashladi o'zini.

– Otajon, hozir! Bir stakan vino iching, quvvat beradi sizga. Vinongiz qaerda?

– Hojati yo'q, axtarma, keragi yo'q, – dedi chol o'g'lini to'xtatish uchun.

– Nega keragi yo'q!.. Vino qaerda, aytsangiz-chi?

Edmon shkafni tintiy boshladi.

– Ovora bo'lma... – dedi chol. – Vino yo'q.

– Nega yo'q? – qichqirib yubordi Dantes. U hayajonlangan cha goh cholning burishib ketgan yuzlariga, goh bo'm-bo'sh shkaf tokchalariga qarardi. – Nechun vino yo'q? Pul yetmadimi, otajon?

– Sen qoshimda ekansan, hamma narsa muhayyo, hech narsaga muhtoj emasman endi, – javob qildi chol.

– Chamamda, – dedi ohista Dantes yuzidagi terni artib, – bundan uch oy ilgari ketayotib men sizga ikki yuz frank qoldirib ketgandim.

– To'g'ri, Edmon, biroq sen qo'shnimiz Kadrusdan olgan qarzni qaytarishni unutgan ekansan: u buni mening esimga soldi-da, agar to'lamasang, janob Morrelga boraman, dedi. Bu sening ishingga shikast beradi, deb qo'rqdim...

– So'ng nima bo'ldi?

– To'ladim.

– Axir men Kadrusdan bir yuz qirq frank qarz edimku! – dedi qichqirib Dantes.

– To'g'ri, – dedi g'o'ldirab chol.

– Qarzni o'sha men qoldirgan ikki yuz frankdan to'ladingizmi?

Chol boshini irg'atdi.

– Qolgan oltmish frank bilan bir oy yashadingizmi?

– Menga shu ham yetib-ortadi, – javob qildi chol.

– E, Tangrim! – oh tortdi Edmon otasi oldida tiz cho'kib.

– Senga nima bo'ldi, o'g'lim?

– Bu gunohimni o‘zim asti kechirmayman.

– Qo‘y, bu noma‘qul gapni, – dedi chol iljayib. – Mana, sen qaytib kelding, endi hammasi esdan chiqadi-ketadi. Axir bundan keyin hamma ishimiz yaxshi bo‘ladi-ku.

– To‘g‘ri, men qaytib keldim, – dedi yigitcha, – yaxshi orzular bilan qaytdim, bir oz pul ham keltirdim... Mana otajon, oling bularni, oling va darrov ayting, biror narsa sotib olib kelishsin.

Dantes stolga o‘n ikkita oltin tanga, besh-olti besh franklik tanga va chaqalar tashladi.

Qari Dantes quvonib, yuziga qon yugurdi.

– Kimniki bu? – so‘radi u.

– O‘zirniki... meniki... bizniki, otajon! Oling, yemakliklar oldiring, pulni ayamay ko‘proq oldiravering, men ertaga yana keltiraman.

– To‘xta, o‘g‘lim, to‘xta, – dedi chol jilmayib, – men bularni oz-ozdan sarf qilaveraman, agar birdaniga ko‘p-ko‘p olsam, odamlar o‘g‘lini shuning uchun kutib o‘tirgan ekan, deb o‘ylashlari mumkin.

– Xohlaganingizni qiling, ota, biroq dastavval xizmatkor ayol toping, yakka turishingizga endi yo‘l qo‘ymayman. Kema-dagi xonamda bekiteqcha olib kelgan qahva va ajoyib tamaki bor, ertagayoq ularni ham olib kelib beraman. Jim! Kimdir kelyapti.

– Kadross bo‘lsa kerak. Kelganingni eshitgandir-da, eson-omon qaytib kelganingni so‘rab, tabriklamoqchidir.

– Bu odam tili boshqa-yu dili boshqa nusxalardan, – dedi shivirlab Edmon, – ha mayli, har qalay qo‘shnimiz-ku, bizga uncha-muncha yordam ham berdi. Uni, ota, navozish-la, kutib oling.

Edmon so‘zini tugatmasdanoq eshikdan Kadrossning qop-qora soqolli basharasi ko‘rindi. U yigirma besh-yigirma olti yoshlarga kirib qolgan. Kasbi tikuvchilik bo‘lganidan qo‘lida bir parcha movut, kiyim tikish taraddudida bo‘lsa kerak.

– O‘ho‘! Edmon, kelibsiz-da, – dedi u marselliklar ta-laffuzida, iljayib, oppoq tishlarini ko‘z-ko‘z qilib.

– Ha, qo‘shni, mana, qaytib keldim, agar ehtiyoj bo‘lsa xizmatigingizga hozirman, Kadruss, – javob qildi Dantes, bu odamni dilida yoqtirmasligini sezdirmay.

– Qulluq-qulluq. Xayriyatki, men hech narsaga muhtoj emasman, hatto ba‘zan boshqalar mening yordamimga muhtoj bo‘lib qolishadi. (Dantes seskanib ketdi.) Bu gapimning senga daxli yo‘q, Edmon. Men senga qarz bergandim, uni qaytarib berding. Yaxshi qo‘shnilar shunaqa bo‘ladi. Oramiz ochiq endi.

– Senga yordam bergan kishi bilan orang hech vaqt ochiq bo‘lmaydi, – dedi Dantes, – qarzga olingan pul qaytarilgani bilan hali minnatdorlik qarzi qoladi, tugamaydi.

– Bu haqda gapirib o‘tirishning nima hojati bor? O‘tgan gapga salovot. Ke, yaxshisi, safardan baxtiyor qaytganing to‘g‘risida gaplashaylik. Men jigarrang movut axtarib portga borgan edim. U yerda jo‘ram Danglarni uchratdim.

«Iya, Marselga kep qoldingmi?» – deb so‘radim undan.

«Ha, ko‘rib turibsanku».

«Sen Smirnadadirsan deb o‘ylagandim».

«U yerda bo‘lishim ham mumkin edi, chunki to‘g‘ri o‘sha Smirnadan kelayotirman».

«Bizning Edmon qaerda?»

«Otasinikida bo‘lsa kerak» – dedi u. Buni eshitib oq birodarimni tabrik qilgani keldim, – so‘zini davom ettirdi Kadruss.

– Kadruss juda yaxshi, bebaho odam-da, bizni juda yaxshi ko‘radi! – dedi chol.

– Albatta, albatta yaxshi ko‘raman va hurmat qilaman, chunki halol kishilar kam bu dunyoda... Birodar, juda bo‘yib ketgandirsan endi? – dedi mashinachi stolga Dantes tashlagan oltin va kumush pullar uyumini ko‘rib.

Qo‘shnisining qora ko‘zlarida ochko‘zlik alomatlarini ko‘rgan yigitcha:

– Bular mening pulim emas, – deb javob qildi. – Otamga, siz muhtojlik ko‘rgandirsiz deb xavotir olgandim, degan edim, u meni xotirjam qilish uchun hamyonida bor pulini stolga to‘kib soldi. Pullaringizni olib joyiga qo‘ying,

ota. Biroq qo'shnimizning pulga ehtiyoji bo'lsa, marhamat.

– Yo'q, do'stim, – dedi Kadruss, – menga keragi yo'q, Xudoga shukr, hunarim bor ekan, to'q-to'kinman. Bu pul-larni ehtiyot qil, ular hech mahal ortiqchalik qilmaydi. Tak-lifing uchun rahmat, olmasam ham olganday bo'ldim.

– Men buni chin yurakdan aytdim, – dedi Dantes.

– Ishonchim komil. Demak, Morrel bilan juda inoq ekan-san-da? Obbo, quv-e!

– Janob Morrel menga hamisha mehribonlik qildi, – dedi Dantes.

– Shunday ekan, mehmonga chaqirsa bormay, bekor qilibsana-da.

– Nega bormading? – so'radi chol Dantes. – U seni meh-monga chaqirganmidi?

– Ha, ota, ovqatga chaqirgandi, – javob berdi Dantes kulib. O'g'lini armator bunchalik hurmat qilganini eshi-tib otasi hayratda qolgandi.

– Nega bormading, o'g'lim? – so'radi chol.

– Tezroq huzuringizda bo'lay dedim-da, otajon, – dedi yigitcha, – juda sog'ingandim, sabr-toqat qilolmadim.

– Morrel xafa bo'lgandir, – dedi so'zini davom ettirib Kadruss. – Kapitan bo'lish orzusida ekansan, armatorning so'zini qaytarish yaramaydi.

– Men borolmasligimning sababini aytdim, u anglagan bo'lsa kerak.

– Kapitan bo'lmoq uchun xo'jayinlarga bir oz xusho-mad qilib turmoq lozim.

– Men busiz ham kapitan bo'larman, deb umid qila-man, – javob qildi Dantes.

– Juda soz, juda soz! Bundan barcha do'stlaring shod bo'ladi. Muqaddas Nikolay qal'asi orqasida bir zot borki, uning bundan boshi osmonga yetadi.

– Mercedesmi? – so'radi chol.

– Topdingiz, ota, – dedi Dantes. – Mana, sizni ko'rdim, Xudoga shukr, sog'salomat ekansiz, hech narsaga muhtoj emas ekansiz, endi ruxsat qiling, Katalaniga boray.

– Bora qol, bolam, bor, – javob berdi kekxa Dantes, –

Parvardigor, men bilan senga qilgandek, sen bilan xotiningga ham rahm-shafqat qilsin, o'zi madadkor bo'lsin.

– Xotiningga? – dedi Kadruss. – Nega shoshyapsiz, menimcha hali Dantes unga uylangani yo'q-ku!

– To'g'ri, hali uylanganim yo'q, biroq yaqinda uylanishim ehtimoldan uzoq emas.

– Har qalay, tezroq qaytib kelib, yaxshi qilding, – dedi Kadruss.

– Nega endi?

– Chunki Mercedes juda sohibjamol qiz, bunday go'zalarning xushtori ko'p bo'ladi. Ayniqsa, Mercedesning ko'yi-da girdikapalak bo'lib yurganlar sanoqsiz.

– Chindanmi? – dedi Dantes tabassum-la. Uning ko'zlarida tashvish sezilib turardi.

– Chindan, ha, chindan, – davom ettirdi so'zini Kadruss. – Buning ustiga yugurib yurganlar qizlarning havasi keladigan, husnda hech kimdan qolishmaydigan yigitlar. Biroq sen tezda kapitan bo'lib olasan, shuning uchun seni rad etmaslar, albatta. Bunga o'zingning ham fahming yetib turgandir.

– Demak, – dedi Dantes kulib, – demak, mabodo kapitan bo'lolmay qolsam...

– Hm!.. Hm! – ming'irladi Kadruss.

– Ammo men xotin-qizlar haqida, ayniqsa Mercedes haqida sizga qaraganda yaxshiroq fikrdaman, shu sababli ham, kapitan bo'lamanni, bo'lmaymanmi, baribir Mercedes menga sodiqligicha qoladi.

– Unday bo'lsa yana yaxshi, – dedi Kadruss, – yana yaxshi! Uylanar ekansan, albatta sodiqligiga ishonishing kerak. Biroq shunday bo'lsa-da, vaqtni o'tkazma, bor, kelganingni bilsin, orzularingni to'kib sol.

– Ketdim, – dedi Edmon.

U otasini o'pdi, Kadrussga bosh irg'atdi-da, chiqib ketdi.

Kadruss cholning oldida yana bir oz o'tirib, xayrlashib chiqdi-da, uni Senak ko'chasi burchagida kutib turgan Danglar oldiga bordi.

– Xo’sh, nima bo’ldi? – so’radi Danglar. – Ko’rdingmi uni?

– Ko’rdim, – javob berdi Kadruss.

– Kapitan bo’lmoqchi ekanini aytdimi senga?

– U xuddi hoziroq kapitan bo’lib qolgandek gaplashdi.

– Hali shunaqa degin? – dedi Danglar. – Juda hovliqib qopti-da!

– Chamamda Morrel va’da bergan, shekilli...

– U juda o’zida yo’q xursand degin?

– Hovliqishini aytmaysanmi?! Hatto kekkayib katta mansabdordek menga yordam berish niyati borligini aytdi, go’yo bankiru menga pul bermoqchi bo’ldi.

– Sen rad qildingmi?

– Rad qildim. Qarzga olsam bo’lardi, chunki birinchi bo’lib men unga umrida ko’rmagan pulni qarz berganman. Mana endi janob Dantes hech kimning yordamiga muhtoj emas: u yaqinda kapitan bo’ladi!

– Biroq hali uning kapitan bo’lishiga ancha bor!

– Ochig’ini aytsam, uning kapitan bo’lmagani yaxshi, – dedi so’zini davom ettirib Kadruss, – kapitan bo’lib qolsa bormi, biz bilan gaplashmay qo’ya qoladi.

– Agar biz istasak, – dedi Danglar, – u hozirgi holicha qoladi, hatto undan ham pasayib ketadi.

– Nima deyapsan o’zing?

– Hech nima, shunday o’zim. U haliyam go’zal katalankaga xushtormi?

– Juda shaydoyi: u allaqachon go’zalining huzuriga yugurib ketdi. Lekin yanglishmasam, shu ishi uchun uning dilini siyoh qilsalar kerak.

– Ochiqroq gapir!

– Nega?

– Bu sen o’ylagandan ham muhimroq. Uni, axir sen yoqtirmaysan-ku?

– Men dimog’dorlarni yoqtirmayman.

– Unday bo’lsa katalanka to’g’risida bilganlaringni aytib ber menga.

– Men hech nima bilmayman, biroq bo'lajak kapitan Eski Kasalxona ko'chasida biror kasofatga uchrashi mumkin.

– Nimani ko'rding u yerda? Gapir.

– Mercedes har gal shaharga kelganda uni katalanilik shirmon yuz, qora ko'z, qora soch, novcha bir yigit kuzatib yuradi. Yigitning qovog'idan hamisha qor yog'ib turadi. Mercedes uni amakivachcham deb tanishtiradi. Buni o'z ko'zim bilan ko'rdim.

– Rostdan-a!.. U o'sha amakivachcham degani uning ketiga tushgan deb o'ylaysanmi?

– Chamamda shunday, yo'qsa yigirma yoshlik barzangi yigit bilan o'n yetti yoshlik sohibjamol qiz o'rtasida bundan boshqa nima bo'lishi mumkin?

– Dantes Katalaniga ketdimi?

– Mening oldimda chiqib ketdi.

– Hozir o'sha yoqqa borib «Rezerv»ga kirib bir stakandan vino ichib o'tirsak, xo'b ajoyib yangiliklarni eshitiшимiz mumkin ekan-da.

– Bizga yangiliklarni kim aytib beradi?

– Biz Dantes keladigan yo'lda bo'lamiz va uning aftangoridan qanday voqea yuz berganini bilib olamiz.

– Ketdik, – dedi Kadruss, – faqat xarajat sendan.

– Albatta, – dedi Danglar.

Ikkisi ildam-ildam qadam tashlab belgilangan tomonga yo'l olishdi. Mayxonaga kirib o'tirishdi-da, bir shisha vino va ikkita stakan buyurishdi.

O'n daqiqa oldin mayxona yonidan Dantes o'tib ketgan ekan. Buni chol Pamfildan bilib olishdi.

Ikki og'ayni Dantesning Katalanidaligiga ishonchi komil bo'lgach, yosh chinorlar tagiga o'tirishdi. Chinorlarning shoxlaridagi son-sanoqsiz qushlar sho'x chug'urlashib navbahorning dastlabki ochiq kunlarini qutlamoqda edilar.

III. KATALANILIKLAR

Ikki og'ayni chaqrab turadigan malga vinosini simirib, quloqlarini ding qilib yo'lga tikilganicha o'tirgan yerdan yuz metrcha naridagi, quyosh kuydirgan, izg'irin yalagan taqir tepa orqasida Katalani qishlog'i joylashgan.

Kunlardan bir kun qandaydir sirli ko'chmanchilar Ispaniyadan kelib ana shu bir parcha yerga qo'nishdi va shu yerda muqim bo'lib qolishdi. Ularning qaerdan kelganini hech kim bilmas, tiliga ham hech kim tushunmasdi. Provansal tilini biladigan boshliqlardan biri Marsel shahri hokimidan bo'sh yotgan burunni so'rab oldi, so'ng ular qadimgi dengizchilar singari, kemalarini o'sha yerga chiqarib qo'yishdi. Shundan uch oy o'tgach, ana shu daydilarni olib kelgan o'nga yaqin kema atrofida kichkina qishloqcha barpo etildi. Bu ko'rkam, yarim mavritiancha, yarim ispancha qishloqda hali-hozirgacha o'sha odamlarning avlodlari yashaydi. Ular hozir ham ota-buvalari tilida gapirishadi. Uch-to'rt asr bo'ptiki, ular gala-gala qushdek qo'nganlari – shu burundan hech yoqqa jilishmaydi. Marsel aholisi bilan qayin-qudachilik ham qilishmaydi. Bir-birlariga qiz berib, bir-birlaridan qiz olishadi. O'z vatani tilini qanday saqlab kelayotgan bo'lsalar, urfodatlarini va kiyim-kechaklarini ham saqlab kelyaptilar.

Kitobxonni biz bilan birga qishloqning yakka-yu yagona ko'chasidan borib, uylardan biriga kirishga taklif etamiz. Uyning devorlari quyosh nuridan zarrin tusga kirgan; ichi esa Ispan mehmonxonalari kabi oppoq bo'yoq-la bezalgan. Qora soch va xumor ko'z suluv qiz parda devorga suyangancha, bag'oyat nozik va chiroyli barmoqlari bilan archagul shoxchasini hadeb ezg'ilayapti. Oyog'i ostiga to'kilgan gullar va yaproqlarning son-sanog'i yo'q. Quyoshda qoraygan qo'llari tirsagigacha ochiq. Venera Arlskaya qo'llarining nusxasiga o'xshash bu qo'llar hayajondan titrab turibdi. Qiz, sabr-toqati tugab, yengil oyoqlari bilan yer teparkan, guldor qizil paypog'i ostidan xushbichim, bejirim boldirlari ko'rinib turardi. Qizdan uch qadam narida yigirma-yigirma ikki qovun pishig'ini ko'rgan, qaddi-qomati kelishgan yigit kursida chayqalab

o'tiribdi. Uning o'kich va xavotirga to'la ko'zlari qizda. Uning qarashlarida surbetlik sezilib turardi, ammo qizning o'qrayib qarashlari yigitning popugini pasaytirib qo'yardi.

– Mercedes, bu yoqqa qara, – derdi yigit, – pasxa ham yaqinlashib qoldi, to'y uchun juda soz payt... Axir, mening savolimga javob bergin.

– Fernan, men senga yuz karra javob qildim. Hadeb so'rayverasanmi? Axir bu o'zingga jabr-ku.

– Yana qaytar, o'tinib so'rayman sendan, qaytar yana, toki men to'la ishonch hosil qilayin. Yuzinchi marta qaytarib bo'lsa ham yana ayt: ya'ni, sen o'z onang fotiha berib ketgan mening muhabbatimni rad etasan, baxti qaro qilasan meni, men o'likmanmi, tirikmanmi, buning sen uchun hech ahamiyati yo'q! E, Parvardigor! Mana, o'n yildirki, senga umr yo'ldoshi bo'laman deb umid qilib keldim. Mercedes, endilikda hayotimning yagona maqsadi ana shu umiddan judo bo'lamanmi, a?

– Sening bu orzu-tilagingni boshdanoq men qo'llab-quvvatlaganim yo'q, – javob qildi Mercedes, – seni maf-tun etishga jilla bo'lsa-da, uringanim ham yo'q, shu tu-fayli mendan o'pkalashga haqqing yo'q. Men hamisha senga: seni bir akam sifatida yaxshi ko'raman, ana shu qardoshlarcha do'stlikdan bo'lak hech narsa kutma mendan, chunki boshqaga ko'ngil qo'yanman, deb keldim. Axir shunday demaganmidim men senga, Fernan?

– Bilaman, Mercedes, bilaman, – dedi yigit qizning so'zini bo'lib... – Ha, sen hamma vaqt savolimga ana shunaqa shartta-shartta javob berib, dilimni pora-pora qilib kelyapsan, biroq katalaniliklar faqat o'z elatiga erga chiqishi kerak, bu muqaddas qonunni sen unutib qo'yyapsan.

– Fernan, bu gaping xato, bizning elatda o'zining kishisiga uylanish qonun emas, shunchaki bir odat bo'lib qolgan, sen bu odatni pesh qilib yurma, foydasi yo'q. Peshanangda bori shu ekan, buni unutma, Fernan. Hozircha seni erkatalib o'z erkingga tashlab qo'yishibdi: bu-gun bo'lmasa ertaga harbiy xizmatga chaqirishlari turgan gap. Ana o'shanda, soldat bo'lib qolganingda, men be-

chora baxtsiz, bir chaqasiz yetimchani nima qilasan? Axir mening otamdan onamga, onamdan menga meros qoldirilgan bir vayrona kulba-yu, uvada to'rdan boshqa hech narsam yo'q! Onamning qazo qilganiga bir yil bo'ldi, rosa bir yil! Men esa bir gadoy kabi yashab kelyapman, Fernan, buni ko'z oldingga bir keltirib ko'r! Ba'zan o'zingni mening yordamimga muhtojdek qilib ko'rsatasan, biroq tutilgan baliqqa sherik bo'lish uchun shunday qilayotganing bilinib turadi. Men bunga rozi bo'lib, indamayman, chunki ikkimizning otamiz aka-uka edi, chunki ikkimiz bolalikdan birga o'sib-undik, shuning uchun yordamingni rad etsam dilingni og'ritgan bo'lardim. Lekin sen tutgan baliqdan tushayotgan pul (garchi unga to'r uchun ip sotib olsam-da) sadaqaday gap.

– Baribir emasmi, Mercedes! Kambag'al va yolg'iz bechora qiz bo'lsang ham menga Marseldagi eng boy armaturning, eng badavlat bankirning qizidan azizsan! Biz bechora gadolarga vafodor xotin va epchil bekadan bo'lak nima ham kerak? Sendan yaxshi xotinni men qaerdan topdim, endi?

– Fernan, – dedi Mercedes boshini silkitib, – uncha epchil bo'lmasa-da, beka bo'lish mumkin, lekin erini emas, boshqani sevadigan ayol vafodor bo'lishiga hech kim kafil bo'lolmaydi-da. Samimiy do'st bo'laylik, shunga rozi bo'l, chunki senga shu do'stlikdan boshqa hech narsa hadya qilolmayman, tushundingmi, boshqa hech narsa!

– Tushunib turibman, – dedi Fernan, – sen o'z qashshoqligingga chidab kelyapsan, ammo mening qashshoqligim seni vahimaga solmoqda. Biroq shuni unutmaginki, Mercedes, agar sen meni sevsang, baxt qushini yelkamga qo'ndirib olishga qodirman. Sen mening ishinni olchi qilasan, ana shundagina men boyib ketaman. Baliqchilikni tashlayman; idora xodimi bo'lib ishlashim, savdogarlik qilishim mumkin.

– Bularning birontasini sen eplay olmaysan, Fernan. Sen soldatsan, xayriyatki urush yo'q, agar urush bosh-

lansa sen Katalanida bir daqiqa ham turolmaysan. Baliqchiligidan qolma. Haqiqiy hayot men uchun yanada og'irlashmasin desang, afsonaviy qasrlardan voz kech; men bilan esa do'stona aloqada bo'l, faqat do'stona. Mendan boshqa hech narsa ta'ma qilma.

– Bu gaping to'g'ri, Mercedes, men dengizchi bo'laman: buvamning kiyimlari (sen ulardan nafratlanasan) o'rniga laklangan shlyapa, ola-bula fufayka, tugmalari langar suratli ko'k kamzul kiyib olaman. Senga yaxshi ko'rinmoqchi bo'lgan odam ana shunday libosda bo'lishi kerak-da, Mercedes?

– Bu bilan nima demoqchisan? – so'radi Mercedes ko'zlarini Fernanga o'qday tikib, – nima demoqchisan?.. Tushunmadim gapingga.

– Men shuni demoqchimanki, Mercedes, sen xuddi men hozir aytgan kiyimdagi kishini kutyapsan, menga dag'allik va shafqatsizlik qilayotganingning sababi ham mana shunda. Biroq sen kutayotgan odam betayin, subutsiz bo'lishi ham mumkin, yoki dengiz unga vafo qilmas.

– Fernan! – qichqirib yubordi Mercedes. – Seni olijanob inson deb yurardim, ma'lum bo'ldiki, xato qilgan ekanman. Rashk qilib, birovga Xudoning g'azabini tilayotibsanmi, demak, sen yovuz ekansan, yovuz! To'g'ri, yashirmayman: men o'sha sen aytgan odamni kutyapman, chunki uni sevaman. Mabodo u qaytib kelmasa, subutsiz deb undan gina ham qilmayman, balki, aksincha, umri-ning oxirgi daqiqasigacha u meni sevib dunyodan o'tdi, deyman.

Katalanilik mushtlarini qisdi.

– Men seni sevmaganim uchun undan qasos olmoqchisan Fernan, buni vajohatingdan sezib turibman. Katalancha pichog'ingni uning xanjariga ro'baro' qilmoqchisan! Oqibatda nima bo'ladi? Mag'lubiyatga uchrasang, mening do'stligimdan ajralasan, g'olib chiqsang-chi, unda mening senga bo'lgan do'stligim nafratga aylanadi. Shuni yaxshi tushunib olginki, qiz sevgan kishi bilan qilichbozlik qilib qizning muhabbatiga muyassar bo'lish mahol.

Ammo men aminmanki, sen, Fernan, yomon fikrlarga berilib ketmaysan. Xotining bo'lolmas ekanman, demak, sen meni do'stim, singlim deb bilasan-da, shunga ko'nikib ketasan. Yana shunisi ham borki, – dedi ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan Mercedes, – hozir o'zing aytgandek, bu dengiz makkor, mana uning ketganiga rosa to'rt oy bo'ldi, daragi yo'q, shu to'rt oy ichida nechadan-necha bo'ronlar-to'fonlar yuz berdiki, men ularni sanab tinkam quridi!

Fernan beparvo edi. U hatto Mercedesning yuzlaridan oqib tushayotgan yoshlarni artib qo'yishga urinmadi ham, aslida u bu malikaning har bir tomchi ko'z yoshiga bir stakandan o'z qonini hadya qilishga tayyor edi. Biroq bu ko'z yoshlar boshqa kishi yo'lida to'kilyapti, ha boshqa kishi yo'lida.

Fernan o'rnidan turdi-da, kulbaning u yoq-bu yog'iga yurdi, so'ng Mercedes qoshida to'xtadi.

– Menga qara, Mercedes, – dedi u, – yana bir karra javob ber: qaror qat'iyimi?

– Men Edmon Dantesni sevaman, – dedi qiz ohistagina, – Edmondan bo'lak hech kim mening erim bo'lolmaydi.

– Hamisha faqat o'sha yigitni sevasanmi?

– Hayotimning oxirgi nafasigacha.

Orzu-umidi chilparchin bo'lib, tarvuzi qo'ltig'idan tushgan Fernan oh tortib boshini quyi tashladi. So'ng birdan boshini ko'tardi-da, tishlarini g'ijirlatib so'radi:

– Mabodo u o'lgan bo'lsa-chi?

– Unda men ham o'laman.

– Seni unutib yuborgan bo'lsa-chi?

– Mercedes! – tashqaridan sho'x ovoz eshitildi. – Mercedes!

– Oh!.. – deb qichqirib yubordi qiz, quvonch va sevgidan mast bo'lib. – Mana, ko'rdingmi, u keldi, meni unutmabdi, ha, unutmabdi!

Qiz eshikka otildi-da, uni ochib qichqirdi:

– Edmon, bu yoqqa kel! Men bu yerdaman!

Fernan rangi quv o'chib, dag'-dag' qaltiragancha, xuddi to'satdan ilonga ko'zi tushgan yo'lovchidek orqa-

sigat tisarildi va o'zi o'tirgan stulga qoqilib ketib, behol unga cho'kdi.

Edmon bilan Mercedes quchoqlashib ketishdi. Mercedesning jazirama oftobi ochiq eshikdan o'tib, ikki oshiq ustiga zarrin nurlarini sochdi. Dastlabki onlarda ularning ko'zlariga hech narsa ko'rinmasdi. Ikki benihoya baxtiyor, quvonch-la mast-alast bo'ldi-yu butun dunyoni unutdi-qo'ydi, shu onda so'zlari ham bir-biriga qovushmasdi.

Shu payt Fernanning qorong'ilikda g'ira-shira ko'rinib turgan badqovoq chehrasiga Edmonning ko'zi tushib qoldi. Katalanilik yigit beixtiyor kamarida osilib turgan pichog'ini ushlab olgan edi.

– Uzi, – dedi Dantes qoshlarini chimirib, – bu yerda uch kishi ekanmizu, ko'rmay qolibman.

So'ng Mercedesga qarab dedi:

– Bu janob kim bo'ladilar?

– Bu janob, Dantes, sizning eng yaqin do'stingiz bo'ldi, chunki bu yigit mening do'stim, akam Fernan, sizdan keyin mening eng yaxshi ko'rgan kishim shu, nahotki tanimayotgan bo'lsangiz?

– Ee... tanidim, tanidim – javob qildi Edmon va bir qo'lida Mercedesning qo'lini mahkam tutgan holda, ikkinchi qo'lini nazokat-la Fernanga uzatdi.

Ammo Fernan do'stona uzatilgan qo'lga qo'lini bermadi, churq etmadi, haykalday qotib turaverdi.

Bundan hayron bo'lgan Edmon titrab turgan Mercedesga va qovog'idan qor yog'ayotgan Fernanga sinovchan nazar tashladi.

Ana shu bir qarashdayoq hamma narsa unga ayon bo'ldi. Edmon g'azab-la yondi.

– Mercedes, sening qoshingga uchib kelayotganimda, bu yerda dushmani uchrataman, deb hech o'ylamagan edim.

– Dushman! – qichqirib yubordi Mercedes amakivachchasiga g'azab bilan tikilib. – Nahotki mening uyimda dushmaningni topgan bo'lsang! Agar men shunday bo'ldi, deb o'ylaganimda, bu uydan butunlay voz kechardimu,

seni qo'ltiqlab Marselga ketardim.

Fernanning ko'zlari chaqnab ketdi.

– Agar sen biror kasofatga uchragudek bo'lsang, menim Edmonim, men Morjion buruniga chiqardim-da, o'zimni pastga, tosh qoyaga otardim, – dedi Mercedes nihoyatda vazmin ohangda. Bu holdan Fernan mudhish fikrlarini Mercedes eng chuqur joyigacha anglab olganini fahmladi.

Fernan murdadek oqarib ketdi.

– Ammo, Edmon, sen xato qilasan, – deb davom etdi qiz, – bu yerda senga dushman yo'q, bu yerda akam Fernan bor, mana hozir u sodiq do'st kabi qo'llaringni qattiq qisib omonlashadi sen bilan.

Shunday dedi-yu, qiz katalanilik yigitga amirona tikildi, Fernan esa sehrlangan kishidek, asta yurib Edmon oldiga keldi-da, unga qo'lini uzatdi.

Butun irodasi qizning hukmida bo'lib qolgan Fernanning yonib turgan g'azab-nafrati dami chiqib ketgan pufak kabi bo'shashdi-ketdi shu daqiqada.

Biroq qo'li Edmonning qo'lga tegishi bilanoq, undan ortiq hech narsaga qodir emasligini angladi-da, uydan o'qday otilib chiqib ketdi.

– Qanday baloi azimga duchor qilding meni, e, zolim falak! – derdi Fernan butun vujudi g'amu g'ussadan titrab. – Bu odamdan meni kim xalos etarkin, kim?.. E... zolim falak!

– Hoy, katalanilik yigit! Hoy, Fernan! Qayoqqa ketyapsan, qayoqqa? – degan ovoz chiqdi shu yaqindan.

Fernan darhol to'xtadi-da, atrofga qaradi, daraxtlar ostidagi stolda Kadruss bilan Danglar o'tirardi.

– Nega bizning oldimizga kelmayapsan? – dedi Kadruss. – Yoki shoshib turibsanu do'stlaring bilan omonlashishga vaqtning yo'qmi?

– Ayniqsa, do'stlaring oldida liq to'la shisha turganda bunday qilishing insofdan emas-ku! – dedi gap qotib Danglar.

Fernan ularga ma'nosiz qaradi-da, hech nima demadi.

– U batamom aqldan ozibdi, – dedi Danglar oyogʻi bilan Kadrussni turtib. – Biz xato qilgan boʻlsagu Dantes gʻalaba qozonib tantana qilib oʻtirgan boʻlsa-ya, unda nima boʻladi?

– Hozir aniqlab olamiz, – javob qildi Kadruss va yigitga oʻgirilib dedi:

– Xoʻsh, katalanilik yigit, bizning taklifimizni qabul qilasanmi?

Fernan yuzidagi terni artirdi-da, ayvonchaga kirdi; soya-salqin ayvon uning hayajonini bir oz bosib, holdan toygan vujudiga tetiklik bagʻishladi.

– Salom, – dedi u, – meni chaqirdingiz shekilli?

Soʻng stullardan biriga shilq etib oʻzini tashladi.

– Es-hushini yoʻqotib qoʻygan kishidek chunon cho-pib ketayotganingni koʻrib, tagʻin bu oʻzini dengizga tashlab yurmasin deb chaqirdim-da, – dedi kulib Kadruss. – Tavba! Doʻstlarni faqat vino bilan ziyofat qilibgina qoʻya qolmay, yana tagʻin ularni suvga choʻkishdan ham saqlab qoladilar.

Fernan uh tortibmi, oʻksinibmi, har qalay, qandaydir boʻgʻiq bir tovush chiqardi-yu, boshi shilq etib qoʻliga tashladi.

– Fernan, men senga aytsam, – davom etdi soʻzida Kadruss har narsaga qiziqaveradigan va odob-andishani unutilib qoʻyadigan sodda kishilar kabi ochiqdan-ochiq maqsadga oʻtib, – sen oʻldim-kuydim deb, oh urib yuradigan kishilarga oʻxshab qolibsən.

Kadruss qah-qah urib kulib yubordi.

– Unday emas, – dedi Danglar, – shunday azamat yigit ishq-muhabbat borasida baxtsiz boʻlish uchun dunyoga kelmagan. Sen hazillashyapsan.

– Men hazillashayotganim yoʻq, yaxshisi, uning oh chekishiga nazar tashlagin. Qani, Fernan, boshingni koʻtarib savolimizga javob qil. Axir doʻstlar salomatligingni soʻraganda, javob bermay yerga qarab oʻtirishing odobdan emas-ku!

– Sogʻman, – dedi Fernan mushtlarini qisib, biroq bo-

shini ko'tarmadi.

– E, endi angladim, – dedi Kadruss jo'rasiga ko'zini qisib, – gap shundaki, Danglar, Marselning eng mohir baliqchilaridan biri, halol va xushfe'l bu katalanilik yigit Mercedes nomli ajoyib go'zal malikaga xushtor bo'lib qolgan, go'zal malika esa boshqaga – «Faraon» kemasi kapitanining yordamchisiga ko'ngil qo'ygan; «Faraon» esa bu gun portga kirib keldi... Mana gap qaerda, tushundingmi endi?

– Yo'q, tushunolmayapman, – javob qildi Danglar.

– Bechora Fernanning taklifini qiz rad etibdi, – dedi so'zini davom ettirib Kadruss.

– Xo'sh nima bo'пти? – dedi Fernan Kadrussga tikilib, – Mercedes mustaqil qiz, shunday emasmi? – davom etdi u alamini kimdan olishni bilmayotgan kishiday. – Uning erki o'zida – kimni istasa o'shani sevadi.

– Sen bu masalada shunday fikrda bo'lsang, boshqa gap! – dedi Kadruss. – Men esa, seni katalanilik deb yurardim; aytishlariga qaraganda, katalaniliklar o'z sevgilisini birov ilib ketishiga yo'l qo'yadiganlardan emas. Buning ustiga, ayniqsa Fernan qasos olishda juda battol deysingan edi.

Fernan zaharxanda qilib, jilmayib qo'ydi.

– Oshiq hech mahal battol bo'lolmaydi, – dedi u.

– Obbo, bechora-e! – dedi Danglar unga go'yo rahmdillik qilayotganday. – Iloji qancha? U, Dantes bunchalik tez aytadi, deb o'ylamagan edi, Dantes ehtimol o'lgandir yoki boshqaga ko'ngil qo'ygandir deb yurgan edi. Bu bechora bexosdan zarbaga uchradi. Bunday zarba ayniqsa og'ir, beomon bo'ladi.

Hech to'xtamay malga vinosini qult-qult yutayotgan va kayfi anchagina oshib qolgan Kadruss so'z qotdi:

– Har holda shuni e'tirof qilmoq kerakki, Dantesning omon-eson qaytib kelishidan faqat Fernanning bir o'zi xafa bo'layotgani yo'q, albatta, to'g'rimi Danglar?

– To'g'ri bu gaping, men yana shunga aminmanki, bu mojarolar uni ko'p kulfatlarga duchor etadi.

Kadruss Fernanga va sakkiz yoki to'qqizinchi gal o'ziga vino quyib, so'zini davom ettirdi:

– Shunga ham qaramay, u go'zal Mercedesga uylana-di. Axir u bu yoqqa qaytib kelishining boisi ham shu-da.

Vino to'la stakanini labiga tekkizib turgan Danglar si-novchan ko'zlarini Fernandan uzmas va Kadrussning so'zlari uning bag'rini cho'g' bo'lib yondirayotganini ko'rib turardi.

– To'y qachon? – so'radi Danglar.

– Eh!.. – dedi fig'on bo'lib Fernan, – hali to'y haqida gap bo'lgani yo'q!

– To'y bo'lishi turgan gap, – dedi Kadruss. – Dantes-ning «Faraon» kemasiga kapitan bo'lishiga hech shubha bo'lmaganidek, Mercedesning eri bo'lib olishiga ham hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas. To'g'rimi, Danglar?

Unga tekkizib aytilgan bu so'zdan Danglar seskanib tushdi-da, o'girilib Kadrussga tikildi; Danglar bu so'zlar menga g'arazgo'ylik bilan aytilyaptimikin, deb o'ylagan-di. Biroq Kadrussning kayfdan ko'pchigan yuzida hasad-dan boshqa hech narsa ko'rmadi.

– Qani, keling, – dedi u stakanlarni to'ldirayotib, – go'zal katalanilik malikaning eri kapitan Edmon Dantes uchun ichaylik!

Kadruss og'irlashib qolgan qo'llari bilan stakanni og'-ziga olib bordi-da, bir ko'tarishda bo'shatdi. Fernan esa stakanini chilparchin qilib tashladi.

– To'xtang! – dedi Kadruss. – Katalani yo'lida, tepalik-da bir narsa ko'riyaptimi? Fernan, sening ko'zing o'tkir, qaragin. Kayfim oshdi shekilli, ko'zim xiralashib ketyapti. O'zing bilasan-ku, vino dushman. Ikki oshiq qo'ltiqlashib borayotganga o'xshaydimi? Yo Tangrim! Bizning ko'z ol-dimizda quchoqlashib, o'pishyapti-ya!

Danglar ko'zini lo'q qilib, Fernanning bujmaygan yuz harakatlarini kuzatib turardi.

– Fernan, siz ularni taniysizmi? – so'radi u.

– Ha, taniyman, – javob berdi bo'g'iq ovoz bilan Fer-

nan. – Edmon bilan Mercedes.

– E! Ularmi! – dedi Kadruss. – Men tanimabman. Hoy, Dantes! Hoy, go‘zal malika! Bu yoqqa kelinglar! To‘y qachon, to‘y! Fernan qaysarlik qilib aytmayapti.

– Bas endi, ovozingni o‘chir! – dedi Danglar go‘yo kayfi oshib qolgan Kadrussni tartibga chaqirayotgan bo‘lib. – Oyog‘ingda turolmaysan-ku, oshiq'larga xalaqit berib nima qilasan. Qo‘y, Mana, Fernandan o‘rnak ol: u ancha farosatli yigit ekan.

Danglarning g‘alamisligi oqibatida quturgan yirtqich kabi g‘azabga mingan Fernan otilib borib raqibini tomo-g‘idan xippa bo‘g‘ish uchun o‘rnidan turgan ham edi, ammo quvnoq va erkin Mercedes boshini g‘oz ko‘tarib hammaga bir-bir nazar tashlab chiqdi. U qizning «Edmon o‘lsa, men ham o‘laman» degan tahdidini esladi-da, bo‘shashib stulga cho‘kdi.

Danglar hamrohlariga – vino yutaverib aqldan ozgan Kadruss va muhabbat o‘qidan dilpora bo‘lib, es-hushidan ajralgan Fernanga nazar tashladi-da, pichirladi:

– Bu tentaklardan biron ish chiqmaydiganga o‘xshaydi. Biri piyanista, ikkinchisi qo‘rroq bir maxluq. Bularga ishonishning o‘zi xavfli ham. Anavi hasadchi vino ichib qornini do‘ppaytirayapti, aslini olganda, u zahar-zaqqum yutishi vojib edi; manavi kallavaramning o‘lgudek sevgan jonajon qizini tumshug‘ining tagidan olib ketibdilar-u, u hech chora topolmay, ammamning buzog‘iga o‘xshab g‘iq etmay ko‘z yoshi qilib o‘tiribdi. Biroq uning ko‘zlari raqibidan qasos olishga juda mohir ispanlar, sissilyaliklar, kalabrislarning ko‘ziga o‘xshab yonib turibdi, mushtlari esa buqaning kallasini majaqlab tashlashda to‘qmoqdan qolishmaydi. Demak, baxt qushi Edmonning boshiga qo‘narkan-da, u go‘zalga uylanadi, kapitan bo‘lib oladi-yu bizning masxaramizni chiqaradi, – dedi Danglar zaharxanda iljayib.

– Hoy Edmon! – hamon qichqirardi Kadruss sal o‘rnidan turib, mushtini stolga tirab turib. – Hoy Edmon! Do‘stlaringni ko‘rmayapsanmi? Yoki juda kibrlanib, ko‘zin-

gni yog' bosib qoldimi?

– Azizim Kadruss, aslo unday emas, – javob qildi Dantes. – Men zarracha kibrlanganim yo'q, faqat baxtiyorman, baxtiyor! Kibrga qaraganda, baxt kishini ko'proq mastalast qilsa kerak.

– Mana, gap bunday bo'пти! – dedi Kadruss. – Juda boplab javob berdi! Salom, Dantes xonim!

Mersedes odob bilan egilib salom berdi.

– Meni hali bunday deb ataganlaricha yo'q, – dedi u. – Kuyov qizning eri bo'lmaguncha uni kim qalliqning familiyasi bilan atab chaqirsa, unga musibat tilagan bo'ladi, deyishadi bizda. Shuning uchun, sizdan iltimos qilaman, meni Mercedes deb chaqiravering.

– Qo'shnim Kadruss aybdor emas, desak ham bo'ladi, – dedi Dantes. – U ozgina xato qildi, xolos!

– Bundan chiqdiki, yaqinda to'y ham bo'larkan-da? – so'radi Danglar ikki yoshga ta'zim qilib.

– Mumkin qadar tezroq o'tkazishga harakat qilamiz. Maslahat bugun otamnikida bo'ladi. Ertaga, eng uzog'i bilan indinga unashtirish sharafiga shu yerda – «Rezerv»-da ziyofat beramiz. Hamma do'stlar kelishadi deb umid qilaman: demak, siz ham taklif etildingiz, janob Danglar; demak, Kadruss, seni ham kutamiz.

– Fernan-chi? – so'radi Kadruss mastona kulib. – Fernan ham bo'ladimi?

– Xotininimning akasi – mening ham akam, – dedi Edmon, – shunday quvonchli daqiqalarda u biz bilan birga bo'lmasa, men ham, Mercedes ham juda ranjigan bo'lamiz.

Fernan javob qilmoqchi bo'ldi-yu, biroq tomog'iga bir narsa tiqilib, lom-mim deyolmadi.

– Bugun unashtirish... Ertaga yoki indin nikoh... Obbo, juda shoshyapsiz-ku, kapitan!

– Danglar, – dedi javoban Edmon jilmayib. – Mercedes Kadrussga aytganidek, men ham sizga shuni aytib qo'yayinki, hali olmagan unvonni menga taqamang, bu boshimga bir falokatni keltirishi mumkin.

– Uzr, – dedi javoban Danglar. – Men faqat shoshilyapsiz, dedim. Vaqtimiz ham ko'p: «Faraon» kamida uch oydan keyin safarga chiqadi.

– Baxt ketidan quvganda, kishi hamisha mana shunaqa shoshiladi, janob Danglar, chunki ko'p iztirob chekkan kishi o'z baxtiga ham zo'rg'a ishonadi. Bu xudbinlik emas, men Parijga ketishim kerak.

– O'ho', shunday deng! Siz Parijda ilgari bo'lganmisiz yoki u yerga birinchi marta borishingizmi?

– Birinchi borishim.

– U yerda biror ishingiz bordir-da?..

– O'zimning ishim emas. Men marhum kapitanimiz Leklarning oxirgi topshirig'ini bajo keltirishim lozim. Bu muqaddas ish, Danglar. Siz xavotir olmang; boramanu izimga qaytaman.

– Tushundim, tushundim, – dedi Danglar. So'ng o'z-o'ziga dedi:

«Marshal bergan xatni egasiga yetkazish uchun Parijga boradi. Ajabo! Bu xat masalasida menda bir fikr tug'ildi, ajoyib fikr! E, mening do'stim Dantes! Sen hali «Faraon» ro'yxatidan birinchi o'rinni egallaganingcha yo'q, ha, bilib qo'y, egallaganingcha yo'q!»

So'ng u Edmonning ketidan qichqirdi:

– Oq yo'!

– Minnatdorman, – javob qildi Edmon o'girilib va boshini do'stona irg'atdi.

Ikki baxtli oshiq osmonda saylangan ikki yulduz kabi xotirjam yo'lida davom etdi.

IV. FITNA

Edmon va Mercedes to muqaddas Nikolay qo'rg'onidan o'tguncha Danglar ulardan ko'zini uzmadi. So'ng u ichkilikboz do'stlari yoniga qaytib keldi, rangi bo'zarib titroq bosgan Fernan qimir etmay o'tiribdi, Kadross esa qandaydir ashulani ming'illab aytyapti.

– Chamamda, – dedi Fernanga Danglar, – bu to'y ba'zi-

lar uchun azaga aylansa kerak.

– U mening dilimni siyoh qilib, g‘azablantiryapti, – dedi Fernan.

– Siz Mercedesni sevasizmi?

– Jonimdan ham yaxshi ko‘raman uni.

– Ko‘pdan buyonmi?

– Bir-birimizni tanigan kundan buyon sevib keldim Mercedesni.

– Shunday ekan, bu dard-alamga davo topish o‘rniga bu yerda suvga tushgan bo‘lkaga o‘xshab o‘tiribsiz! Obbo, shovvoz-e! Katalaniliklar bunaqa bo‘lmas, deb o‘ylagan-dim men.

– Sizningcha, nima qilishim kerak? – so‘radi Fernan.

– Men qayoqdan bilay? Bu mening ishim emas-ku? Go‘zal Mercedesning maftuni bo‘lib yurgan men emas, siz. Shuning uchun bu mushkulingizni oson qilish yo‘lini o‘zingiz topishingiz kerak.

– Topgandek bo‘luvdim.

– Xo‘sh, nima ekan u?

– Men unga xanjar urmoqchiydim, biroq Mercedes, agar Dantes falokatga uchragudek bo‘lsa, men ham o‘zimni o‘ldiraman, dedi.

– Qo‘ying bu bema‘ni gapni! Bunaqa narsalar faqat og‘izda aytiladi-yu, amalda bo‘lmaydi.

– Siz Mercedesning fe‘lini bilmaysiz-da. U bir narsaga ahd qildimi, albatta bajo keltiradi.

– E, kallavaram! – dedi asta Danglar. – Malika o‘zini o‘ldirsa o‘ldiraversin, menga nima, faqat Dantes kapitan bo‘lmasa bas.

– Avval Mercedes emas, – dedi qat‘iyat bilan Fernan, – men o‘laman!

– Ana oshiqliqu, mana oshiqlik! – qichqirib yubordi mast-alast Kadruss. – Oshiqu beqaror deb shuni aytadilar-da. Yoki men kaltabinlik qilyapmanmi-a?

– Menga qarang, – dedi Danglar, – azamat yigit, men ham sizga bu musibatdan qutulishga yordam bersammikin, deb o‘ylayapman, biroq...

– Xo’sh, – so’z qotdi Kadruss, – gapir.

– Hoy, jo’ra, – dedi uning so’zini bo’lib Danglar. – Sen mast bo’p qolding, shishada qolganini ham ich, tappa-tayyor bo’lasan. Bizga xalaqit berma, ichaver. Bizning ishimizni bajo keltirish uchun aql raso bo’lmog’i kerak.

– Men mastmanmi? – dedi qichqirib Kadruss. – Buning gapini qarang-a! Men mana bunaqangi shishalardan yana to’rttasini bo’shata olaman. Axir bu atir solingan mitti shishachalar-ku! Hoy, Pamfil ota, qani keltir vinoni! – dedi-da, Kadruss taq etib stakanni stolga urdi.

– Demak, gapingizga qaraganda... – dedi Fernan Danglarga, gapning xulosasini toqatsiz kutib.

– Nima deganimni ham unutib qo’ydim. Mana bu aroqxo’r fikrimni chuvalashtirib yubordi.

– Mayli, men aroqxo’r bo’lsam bo’la qolay, biroq bundan men emas, vinodan qo’rqadiganlar yutqazadi, aslida ularning fikri buzuq, vino oshkora qilib qo’ymasin tag’in, deb qo’rqishadi-da.

So’ng Kadruss o’sha zamonda juda rasm bo’p ketgan qo’shiqni ayta ketdi.

– Demak, gapingizga qaraganda, – davom etdi Fernan, – mushkulimni oson qilishda yordam bermoqchi bo’la-yapsiz, to’g’rimi? Biroq qo’shimcha qilib...

– Ha, shunday. Sizga yordam berish uchun Dantesning sevgilingizga uylanishiga yo’l qo’ymaslik kerak. Dantes tirik qolsayam, to’yini qoldirishning yo’li oson.

– Faqat o’lim ularni judo qilishi mumkin, – dedi Fernan.

– Azizim, nuqul yosh bolaning gapini qilasiz, – dedi suhbatga aralashib Kadruss. – Danglar esa oqil: quv, ustomon. Siz adashayotganingizni u isbotlab beradi, ha, sabr qiling, boplab isbotlab beradi. Danglar, ke, isbotlab bera qol. Men senga kafil bo’ldim. Ke, Dantesning o’lishi kerak emasligini isbotlab ber, buning ustiga mabodo Dantes o’lsa, hammasiz achinamiz, afsuslanamiz. U yaxshi, xushfe’l yigit, men uni yaxshi ko’raman. Dantes, sening sog’lig’ing uchun!

Fernan o'ksinib qo'lini siltadi-da, o'rmidan turdi.

– Qo'y uni, – dedi Danglar katalanilik yigitni to'xtatib, – mast bo'lsa-da, haqiqatga yaqin gapni aytyapti. Hijron ham ular uchun o'limdan og'ir bo'ladi. Dantes bilan Mercedesni qamoqxona devori ajratib qo'ysa-chi? Unda nima bo'ladi? Bu ham ularni xuddi qabr toshi kabi bir-biridan ajratib tashlaydi.

Kadruss es-hushini yig'ib olishga urinib suhbatga qo'shildi:

– To'g'ri, biroq qamoqdan ozod bo'lish ham bor. Edmon Dantes degan zot turmadan chiqqach boplab qasos olsa kerak.

– Mayli, qasos olsin! – dedi shivirlab Fernan.

– Buning ustiga, – dedi Kadruss so'zini davom ettirib, – Dantes qanaqa gunoh qilib qo'yibdiki, turmaga qamashadi? U o'g'rilik qilmagan, birovni o'ldirmagan, chavaqlamagan bo'lsa... Nega?

– O'chir ovozingni? – dedi uning so'zini kesib Danglar.

– Ovozimni o'chirmayman, bildingmi, o'chirmayman! – dedi Kadruss. – Men Dantesni nega qamashmoqchi ekanlarini aytib berishlarini istayman. Ha, men Dantesni yaxshi ko'raman. Dantesning salomatligi uchun. – U yana bir stakanni bo'shatdi.

Danglar ko'zlari suzilib, yumila boshlagan mashinachiga bir nazar tashladi-da, Fernanga o'girilib dedi:

– Uni o'ldirmaslik kerakligini endi tushundingizmi?

– Aytganingizdek, Dantesni turmaga tiqish uchun dalil topilsa, o'ldirishning hech hojati yo'q. Biroq bu dalil qaerda?

– Agar yaxshilab qidirsak topiladi, – dedi Danglar. – Aytmoqchi, – davom etdi u, – men nega bu ishga tumshug'imni suqib yuribman? Axir uning menga hech daxli yo'q-ku!

– Sizga daxli bormi, yo'qmi, bilmadimu, – dedi qichqirib Fernan Danglarning qo'lidan mahkam tutib, – ammo bilishimcha, qandaydir sabab bilan siz Dantesni yomon ko'rasiz. Bir kishini yomon ko'rgan odam, o'ziga o'xshash

boshqa odamning ham ko'nglida nima borligini hech xato qilmay anglay oladi.

– Dantesni yomon ko'rish uchun menda qanday sabab bo'lishi mumkin? Xudo haqi, hech qanday sabab yo'q. Men baxtsizlikka uchraganingizni ko'rib, rahmim keldi, xolos. Mabodo siz: meni o'zi uchun harakat qilyapti, deb o'ylayotgan bo'lsangiz, azizim, xayr, birodari aziz, bu balodan qutulish yo'lini o'zingiz toping.

Danglar o'zini o'rnidan turayotgandek qilib ko'rsatib, qimirlab qo'ydi.

– Yo'g'e, to'xtang! – dedi Fernan uni ushlab. – Siz Dantesni yomon ko'rdingiz nima-yu, yomon ko'rmadingiz nima, menga baribir emasmi?! Men uni yomon ko'raman, undan nafratlanaman. Siz o'sha dalil-da'voni toping, uni amalga oshirishni esa menga qo'yib bering. O'ldirishdan boshqasiga tayyorman, chunki uni o'ldirsalar men ham o'laman, – dedi u.

Kadruss toldan boshini ko'tardi-da, Fernanga va Danglarga bemalol va bema'ni nazar tashlab g'o'ldiradi:

– Dantesni o'ldirishadi deng? Kim uni o'ldirarkan? Uni o'ldirishlarini istamayman, ha, istamayman. U mening do'stim, bugun ertalab menga pul bermoqchi bo'ldi, men ham unga qarz bergandim. Dantesni o'ldirishlarini istamayman!

– Birov senga, uni o'ldirmoqchilar, deyaptimi, ahmoq! – dedi uning so'zini kesib Danglar. – Biz shunchaki hazillashyapmiz. Ol, ich uning sog'lig'i uchun, – davom etdi u Kadrussning stakanini to'ldirib. – Hadeb gapga aralashaverma.

– Ha, ha, Dantesning sog'lig'i uchun ichamiz! – dedi Kadruss vinoni simirib, – uning sog'lig'i uchun!.. Uning salomatligi uchun!..

– Xo'sh... haligi dalil qanday, ayting vositani? – so'radi

² Uzurpator – hokimiyatni yoki bironing huquqini qonunga xilof ravishda tortib olgan kishi.

Fernan.

– O‘zingiz uni haliyam topganingiz yo‘qmi?

– Yo‘q, axir siz topaman degan edingiz-ku!..

– To‘g‘ri, – dedi Danglar. – Fransuzlarning ispanlardan ortiqligi shundaki, ispanlar o‘yini o‘ylab bo‘lguncha fransuzlar chorai-tadbirni bajo keltirib qo‘ya qoladi.

– Shunday ekan, qani ayting chorai-tadbirni! – dedi sabr-toqati tugab borayotgan Fernan.

– Hoy, xizmatchi! – qichqirdi Danglar. – Qani, qalam, siyoh, qog‘oz keltir!

– Qalam, siyoh, qog‘oz? – dedi ajablanib Fernan.

– Xuddi shunday, axir hunarim buxgalterlik: qalam, siyoh va qog‘oz mening qurolim, ularsiz hech narsa qilolmayman.

– Qalam, siyoh, qog‘oz! – deb qichqirdi qo‘shimcha qilib Fernan.

– Narigi stolda turibdi, – dedi mayxona xizmatchisi qo‘li bilan stolni ko‘rsatib.

– Bu yoqqa keltir-chi.

Xizmatchi qalam, siyoh va qog‘ozni ayvonchaga keltirib berdi.

– O‘ylab qarasam, – dedi Kadruss qog‘oz ustiga urib, – odamni burchakda pusib turib o‘ldirgandan ko‘ra, mana bu bilan urib gumdon qilish oson, shekilli. Qilich va to‘pponchadan ko‘ra qalam, siyoh va qog‘ozdan ko‘proq qo‘rqishimning boisi ham shunda-da.

– Bu nayrangboz hali uncha mastga o‘xshamaydi, – dedi Danglar, – quying unga yana.

Fernan shishani ko‘tarib Kadrussning stakanini limmolim to‘ldirdi, Kadruss qog‘ozni qo‘ydi-da, xuddi haqiqiy aroxo‘rga o‘xshab stakanga qo‘l uzatdi.

Fernan so‘nggi vinodan mast-alast bo‘lgan Kadruss stakanni stol ustiga tushirib yuborguncha undan ko‘zini uz-madi.

– Xo‘sh, bu yog‘i nima bo‘ladi? – dedi katalanilik Kadruss es-hushining oxirgi zarralari ham so‘nggi stakanga cho‘kib ketganini ko‘rib.

– Bu yog'i shunday bo'ladiki, masalan, biror zot Dantesning Neapol va Elbada to'xtab, safardan qaytganidan so'ng qirollik prokuroriga uning bonapartchilar agenti deb maxfiy ma'lumot bersa...

– Ma'lumotni o'zim beraman! – dedi qizishib Fernan.

– Lekin shuni bilib qo'yingki, ma'lumotga siz qo'l qo' yasiz, so'ng kimning ustidan ma'lumot bersangiz, unga sizni yuzma-yuz qilib so'roq qiladilar. Aybnomani tasdiqlash uchun zarur narsalar bilan sizni men ta'min etaman, albatta. Biroq Dantes turmada abadiy qolib ketmaydi, qachon bo'lmasin u chiqadi; ana o'shanda uni qamatganning holiga voy!

– U men bilan janjal boshlasa bas, menga shunisi kerak.

– Mercedes-chi? Mabodo sevgilisiga qo'l ko'targudek bo'lsangiz, Mercedes sizga nafrat o'tini yog'diradi-ku!

– Bu gapingiz to'g'ri, – dedi Fernan.

– Yo'q, yo'q, – dedi so'zini davom ettirib Danglar, – basharti gap bir yerdan chiqqan ekan, endi kim yozganini bilmasinlar uchun qalamni mana bunday qilib chap qo'lga olib, quyidagi qisqa ma'lumotni yozish kerak.

Danglar pand-nasihatlarini misol bilan tasdiqlab, qalamni chap qo'lida tutib qiyshiq-qing'ir harflar bilan (bu uning odatdagi xatlariga aslo o'xshamasdi) quyidagi hujjatni yozib, Fernanga berdi.

Fernan ohista ovoz chiqarib o'qidi:

– *«Janob qirollik prokurori, taxt va din muxlisi sizga shuni ma'lum qiladiki, «Faraon» kemasi kapitanining yordamchisi Edmon Dantes Smiradan kelayotib Neapol va Porto-Ferrayoga kirib o'tdi, Myuratdan uzurpatorga² va uzurpatordan bonapartchilarning Parijdagi komitetiga xat olib keldi. Agar uni hibsga olishsa fosh qiluvchi xatni uning cho'ntagidan yoki otasinikidan, yo bo'lmasa «Faraon» kemasining kayutasidan topish mumkin».*

– Mana, – dedi Danglar, – buni amaliy ish desa bo'ladi, bunday maxfiy ma'lumot sizga aslo zarar yetkazmasligi

va hamma ish o'z yo'lida ketaverishi mumkin. Endi xatni mana bunday qilib buklab ustiga: «*Janobi qirollik prokuroriga*» deb yozilsa – olam guliston.

Danglar tirjayib manzilni yozdi.

– Ha, olam guliston, – dedi qichqirib Kadruss. U o'qilayotgan xat mazmunini anglab olish uchun zo'r berib hushyor bo'lishga urinar va bu maxfiy ma'lumotning oqibati nihoyatda dahshatli bo'lishini beixtiyor his etib turar edi. – Ha, olam gulistonu, biroq bu razillik-da.

Shuni deb u qo'lini uzatib xatni olmoqchi bo'ldi.

– Shunday bo'lishini bilib, – dedi Danglar xatni Kadrussdan chetga tortib, – men ham bu gaplarning hammasini hazil qilib aytyapman. Mabodo bizning shavkatli Dantesimizga biror shikast yetgudek bo'lsa, eng birinchi bo'lib, men qayg'urardim. Mana qara bunga!

U xatni oldi-da, g'ijimlab-g'ijimlab ayvonchanning burchagiga irg'itdi.

– Mana, ish bunday bo'пти! – dedi Kadruss. – Dantes mening do'stim, unga zarar yetkazishlarini aslo istamayman.

– Birov unga zarar yetkazaman deyaptimi? Men bilan Fernanning unga hech qanday xusumatimiz yo'q! – dedi Danglar o'midan turayotib. U burchakka irg'itilgan qog'ozga ko'z qirini tashlab o'tirgan Fernanga qarab-qarab qo'yardi.

– Unday bo'lsa, – dedi davom etib Kadruss, – yana vino keltiring! Men Edmonning va go'zal Mercedesning sog'lig'i uchun ichaman.

– Sen buningsizam juda ko'p ichding, – dedi Danglar, – yana ichgudek bo'lsang, oyog'ingda turolmaysan, u holda shu yerda yotib qolishingga to'g'ri keladi.

– Men-a? – dedi Kadruss aroqxo'rlar kabi maqtanib o'rnidan turar ekan. – Men oyog'imda turolmas ekanmanmi? Men-a? Garov boylab Akkul qo'ng'iroqxonasiga hech gandaraklamay chiqaman! Qani, garov o'ynaymizmi?

– Bo'пти, – dedi uning so'zini bo'lib Danglar, – garov o'ynaymiz, faqat bugun emas, ertaga. Endi vaqt ancha

bo'lib qoldi, qani, ketdik uyga. Qani, qo'lingni ber men-
ga, ketamiz.

– Ketdik, – javob qildi Kadruss, – biroq meni suyama,
keragi yo'q, o'zim boraveraman. Sen-chi, Fernan! Sen ham
ketasanmi? Biz bilan birga Marselga borasanmi?

– Yo'q, – dedi Fernan, – men Katalaniga, uyga bora-
man.

– Bekor qilasan-da. Yur biz bilan Marselga, yur.

– Marselga boradigan ishim yo'q, borishni istamayman
ham.

– Nima deding? Borishni istamayman, dedingmi?.. May-
li, bilganingni qil. Ixtiyor o'zingda. Qani, Danglar ketdik.
Bu janob Katalaniga bormoqchi ekan, boraversin.

Danglar Kadrussning bo'shangligidan foydalandi-da,
uni Marsel tomonga yetakladi. Biroq u Fernanning yo'lini
qisqartirish va qulaylashtirish maqsadida Riv-Nev daryo-
si bo'yidan yurmay, Sen-Viktor darvozasiga qarab yurdi.
Uning qo'lga osilib olgan Kadruss gandraklab borardi.

Yigirma qadamcha yurgach, Danglar orqasiga o'girilib,
Fernanning yugurib borib g'ijimlab tashlangan qog'ozni
olganini, shiypondan yugurib chiqib shahar tomonga
chopqillab ketganini ko'rdi.

– Nima qilyapti u? – dedi Kadruss. – U yolg'on gapirgan
ekan-da: Katalaniga boraman deb, shaharga ketyapti-ku.
Hoy, Fernan! Adashib ketding-ku, oshna!

– Ko'zingga shunaqa ko'rinyapti, – dedi uning so'zini
bo'lib Danglar. – U to'g'ri Eski Kasalxona ko'chasiga ke-
tyapti.

– Shundaymi? – dedi Kadruss. – Men o'ngga burildi deb
o'ylabman... Vino – dushman, deb to'g'ri aytishadi-da.

– Ish, chamasi, silliq ko'chdi, – shivirladi Danglar, – endi
bu yog'i o'z-o'zidan ketaveradi.

V. NIKOH

Subhidam. Havo ochiq va iliq, quyosh yorqin va por-

loq edi; uning qirmizi rang nurlari ko'pikli to'lqin qirralari ustida yoqutdek yaltirardi. Ziyofat hali ayvonchasi bilan tanishganimiz «Rezerv»ning ikkinchi qavatida tayyorlangan edi. Bu olti derazali katta zal bo'lib, har bir deraza tepasiga (nechukdir) Fransiyaning yirik shaharlaridan birining nomi chizib qo'yilgan edi.

Ana shu derazalar yonida boshqa hamma binolardagidek uzala ketgan yo'lka bor.

Ziyofat tushga tayinlangan bo'lsa-da, soat o'n birdan o'tmasdan sabrsiz mehmonlar yo'lkani to'ldirib sayr qilib yurishibdi. Bular «Faraon» kemasining dengizchilari, bir necha soldat, Dantesning do'stlari edi, mehmonlar kuyov bilan kelinga hurmat yuzasidan yangi kiyimlarini kiyib yasanib kelishgan.

Mehmonlar orasida, to'yga «Faraon»ning xo'jayinlari ham tashrif buyurarmish, degan gap tarqaldi. Dantes uchun ulug' sharaf bo'lgan bu mish-mishga hech kimning ishongisi kelmasdi.

Biroq Kadruss bilan birga kelgan Danglar bu gap to'g'ri deb tasdiqladi. Ertalab u janob Morrelni ko'ribdi, janob Morrel «Rezerv»ga ziyofatga boraman, debdi.

Chindan ham bir necha daqiqadan so'ng zalga Morrel kirib keldi. Uni matroslar baravariga qarsak chalib kutib olishdi. To'yga armatorning kelishidan, Dantes kapitan bo'ladi degan mish-mishlar to'g'ri ekan-da, degan xulosaga kelishdi matroslar. Ularning Dantesga ixloslari juda baland edi, shuning uchun matroslar kapitanlikka ular istagan kishini qo'yimoqchi bo'lgan xo'jayinga minnatdorchilik bildirishdi. Morrel janoblari kelishi bilan hammaning talabiga muvofiq tezdin borib armatorning kelganini, bundan hammaning boshi osmonga yetganini kuyovga xabar qilishni va ishni tezroq tamomlab kelish kerakligini uqtirishni Danglar va Kadrussga topshirdilar.

Danglar va Kadruss chopqillab ketishdi, biroq ular yuz qadam bosmasdanoq, kuyov bilan kelinga ro'baro' kelishdi.

Mersedesni katalanilik to'rtta dugonasi kuzatib kelyap-

ti, Edmon uni qo'ltiqlab olgan. Kelinning yonida chol Dantes, orqasida Fernan. Zaharxanda tabassum Fernanning lablarini qiyshaytirib yuborgan. Mercedes ham, Edmon ham buni sezmasdi; ularning ko'ziga o'zlari-yu, tip-tiniq osmondan bo'lak hech narsa ko'rinmasdi, chunki ikkisi baxt taxtiga minib olgan; go'yo musaffo osmoni-falak ham ularga yorqin istiqbol tilayotgandek tuyulardi.

Danglar va Kadross topshiriqni bajo keltirdilar, so'ng Edmon bilan qo'l siqishib do'stona tabrikladilar-da, o'z joylariga, ya'ni hammaning nazar-e'tiborida bo'ladigan joyga o'tirdilar: Danglar Fernan yoniga, Kadross esa chol Dantes yoniga o'tirdi.

Chol po'lat tugmali chakmonini kiyib kelibdi, ingichka, mushakdor oyog'ida inglizcha chiroyli paypoq, uning kontrabanda yo'li bilan keltirilganini kishi bir ko'rishdayoq darrov fahmlaydi. Uch burchakli shlyapasiga oq va havo rang tasmalar taqib olgan. Boshi qayirib qo'yilgan hassaga tayanib yuradi. Xullas, chol Dantesning Lyuksenburg va Tyuilriy saroylarining yangidan ochilgan bog'larida sayr etib yurgan 1796 yil oliftalaridan zarracha qolishadigan joyi yo'q.

Kadross cholning yoniga o'tirib olganini yuqorida aytgan edik. U dabdabali ziyofatga chaqirilishi bilanoq, Danteslar bilan tamom yarashib, apoq-chapoq bo'lib oldi; kechagi voqealar unga xuddi bezovta uyquda ko'rgan tushga o'xshardi.

Danglar Fernan yoniga keldi-da, ko'ngli ozor chekib ranjigan muhibiga sinchkov nazar tashladi. Bo'lajak er-xotin ketidan, o'z Edmonidan bo'lak hech narsani ko'rmayotgan Mercedes ketidan zo'rg'a qadam tashlayotgan Fernan goh qizarar, goh bo'zarardi. Ba'zan u Mercedes tomoniga qarab qo'yar va har gal ixtiyorsiz seskanib ketardi. Fernan aftidan qandaydir muhim hodisa yuz berishini kutayotganday yoki oldindan ko'rayotganday edi...

Dantes soddagina kiyingan. U savdo kemasida xizmat qilganidan ust-boshi harbiy mundirga ham, oddiy fuqaro kiyimiga ham o'xshardi. Quvonchdan ochilib ketgan

chehrasi nihoyat xushro'y edi.

Mersedes kibr yoki xios grek ayoliga o'xshab ketar, ko'zlari qop-qora, lablari qirmizi, chiroyda tengi yo'q zebo. U arlezianka va andaluzkalar kabi erkin, bemalol qadam tashlab kelardi. Odatda shahar qizi iymanib quvonchini sezdirmaslikka urinishi mumkin edi, biroq Mercedesning chehrasida tabassumi o'ynab, chaqnagan ko'zlarini mehmonlardan uzmasdi. Uning bu tabassumi, qarashlari xuddi: «Agar menga do'st bo'lsangiz, men bilan birga quvoning, axir men chindan ham benihoya baxtiyorman!» deyayotgandek edi.

Kuyov, kelin va ularning yo'ldoshlari «Rezerv»ga yaqinlashganda Morrel janoblari matroslar va soldatlar davrasida ularga peshvoz chiqdi (Morrel matros va soldatlarga marhum Lekler o'rniga Dantes kapitan bo'lishi muqarrarligini aytgandi). Dantes armatorni ko'rdi-yu, Mercedesning qo'ltig'idan qo'lini olib, o'rnini unga bo'shatdi. Morrel va kelin mehmonlarga namuna ko'rsatib zinapoyadan ko'tarildilar-da, oshxonaga yo'l oldilar; taxtadan yasalgan zina yana besh daqiqaga yaqin mehmonlarning vazmin qadamlari ostida g'ijirlab turdi.

– Dadajon, – dedi Mercedes stol o'rtasida to'xtab, – mening o'ng yonboshimga o'tiring, iltimos qilaman, chap yonimga akam o'rniga aka tutingan jigarbandimni o'tqazaman, – dedi u mehribonlik bilan. Mercedesning bu so'zlari Fernanning bag'riga nayza bo'lib sanchildi. Uning lablari ko'karib ketdi, yuzidan qon qochdi.

Dantes Morrel janoblarini o'ng yoniga va Danglarni chap yoniga o'tqazdi: so'ng qo'li bilan stolni ko'rsatib hammani o'tirishga taklif etdi.

Ajoyib chinni laganlarda xushbo'y kolbasalar, turli xil baliqlar, xullas, dengiz to'lqinlari qumli qirg'oqlarga uloqtirib tashlaydigan va bundan minnatdor baliqchilar «dengiz noz-ne'matlari» deb ataydigan laziz taomlar ketma-ket keltirilmoqda.

– Qanday og'ir sukunat cho'kdi bu yerga! – dedi kekxa Dantes xo'jayinning o'zi keltirib Mercedes oldiga qo'ygan

qirmizi rang tiniq vinodan ho'plab. – Bu yerda chaq-chaq-lashmoq uchun kelgan o'ttiz kishi o'ttiribdi, deb kim ayta oladi?

– Quyvon hamisha xushchaqchaq bo'lavermaydi, – dedi Kadruss.

– Haq gapni aytdingiz, – dedi uning so'zini ilib olib Edmon, – meni baxt shunday qamrab oldiki, xushchaqchaqlikni ham unutib qo'ydim. Qo'shni, mabodo siz shu ma'noda gapirayotgan bo'lsangiz, bu mutlaqo to'g'ri. Quvonch ba'zan kishiga juda g'alati ta'sir etadi, qayg'u singari azob beradi.

Danglar Fernanga qaradi, yigitning barcha ichki kechinmalari yuzida aks etib turardi.

– Qo'ying, behuda qayg'uravermang! Yoki biror narsadan qo'rqaysizmi? – so'radi u. – Chamamda, aksincha, hamma tilak-orzularingiz amalga oshyapti.

– Ana shu meni vahimaga solyapti, – dedi Dantes, – nazarimda, inson baxtga bunchalik oson erishmasligi kerak! Baxt – eshiklarini ajdaholar to'sib turadigan afsonaviy saroylarga o'xshaydi. Uni egallab olmoq uchun kurashmoq kerak, men esa nima qilib Mercedesga er bo'lishdek baxtni egallab olganimni o'zim ham bilmayman.

– Er bo'lishdek emish!.. – dedi kulib Kadruss. – Yo'q, kapitan, er bo'lganing yo'q hali; avvalo, erligingni ko'rsat, qani, seni qanday qabul qilisharkan!

Mersedes qizarib ketdi.

Fernan tipirchilab stolda tinch o'tirolmasdi, sal-pal shovqinga ham seskanib tushar, momaqaldiroqdan keyingi yomg'ir tomchilari singari peshonasidan munchoq-munchoq bo'lib oqayotgan terlarini tinmay artardi.

– Mayda-chuyda narsalar ustida tortishib-janjallashib o'tirishdan ne foyda, qo'shni, – dedi Kadrussning pichingiga javoban Edmon, – to'g'ri, Mercedes hali mening xotinim bo'lganicha yo'q...

U soatiga qaradi.

– Ammo bir yarim soatdan so'ng u mening xotinim bo'lishi muqarrar!

Hamma hayratdan qiy-chuv ko'tardi. Faqat kekxa Dantes hali mahkam tishlarini ko'rsatib tirjayib qo'ya qoldi. Mercedes endi uyalmay, kulib qo'ydi. Fernan esa titrab pichog'ining sopini mahkam ushlab oldi.

– Bir soat o'tgach-a! – dedi Danglar ham bo'zarib. – Bu qanaqasi?

– Ha, do'stlarim, – javob qildi Dantes, – Morrel janoblarining mehr-shafqati tufayli hamma g'ovlar uloqtirildi. Otamdan so'ng hammadan ham ko'proq men ana shu janob Morreldan minnatdorman. Biz pul to'lab qo'ydik, soat ikki yarimda bizni Marsel shahrining xonimi o'z qarorgohida kutib oladi. Mana hozir soat birdan chorak o'tdi, demak, bir soatu o'ttiz daqiqadan so'ng Mercedes hech shubhasiz Dantes xonim bo'lib qoladi, desam xato qilmagan bo'laman.

Fernan ko'zlarini yumdi: u gandarab stolga suyanib oldi-da, chidolmay oh tortib yubordi. Ammo u chekkan fig'on mehmonlarning shovqin-suroniga g'arq bo'lib ketdi.

– Mana ish bunday bo'пти, to'g'ri emasmi-a? – dedi kekxa Dantes. – Vaqtni mana shunday tejash kerak-da! O'zi kuni kecha keldi. Bugun soat uchda xotinlik bo'ladi! Bunaqasiga faqat dengizchilar qodir!

– Biroq bitim tuzish, turli rasmiy qog'ozlar yozish-chi? – dedi ikkilangan ohangda Danglar.

– Bitim! – dedi Dantes kulib. – Shartnoma tayyor: Mercedesning ham, mening ham hech narsam yo'q! Nima bo'lsa o'rtada... Bu arziyas narsalar birpasda ro'yxatga olinadi...

Bu hazil gaplardan hamma qah-qah urib, chapak chaldi.

– Demak, biz nikohda emas, – dedi Danglar, – to'yda o'tiribmiz ekan-da.

– Yo'q, – dedi e'tiroz bildirib Edmon, – xotirjam bo'ling, hammasi ham bo'ladi. Ertaga ertalab men Parijga ketaman. To'rt kun borish, to'rt kun qaytish, bir kun topshiriqni bajarishga ketadi, demak, to'qqizinchi martda shu

yerda bo'laman, o'ninchida esa haqiqiy to'y ziyofati bo'ladi.

Yana katta ziyofat bo'lishini eshitgach, mehmonlarning quvonchiga quvonch qo'shildi, ziyofat boshlanishida og'ir sukunatdan koyingan kekxa Dantes endilikda o'zida yo'q xursand. U shovqin-suron ichida, bo'lajak er-xotin uchun qadah ko'tarishni taklif qilaman, deb rosa qichqirardi.

Dantes otasining maqsadini payqadi-da, mehr va tabassum bilan unga tikildi. Mercedes devorga osig'liq soatga qarab Dantesga imladi.

Oddiy kishilar ziyofat oxirida hamisha zalni boshiga ko'tarib xushchaqchalik qilishadi. Mana hozir ham shunday bo'lyapti. O'tirgan joyidan norozilar o'rnidan turib, yoqimtoy suhbatchilar yoniga o'tirishdi. Hamma birdaniga gapirar, savollarga hech kim javob bermas, har kim o'zi bilan o'zi ovora edi.

Fernan kabi Danglarning rangi o'chib, qoni qochgan edi. Fernanning o'zi esa doshqozonga tushib jizg'anagi chiqayotgandek hansirab zo'rg'a nafas olardi. U hammadan oldin o'rnidan turdi-da, zalda u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. G'ala-g'ovur, jarang-jurunglar orasida qulog'ini ding qilib, qandaydir tovushni eshitishga urinardi.

Kadruss Fernan oldiga kelgan edi, shu ondayoq ular yonida Danglar paydo bo'ldi. Fernan undan o'zini olib qochib yurgan edi.

– Dantes azamat yigit, – dedi Kadruss. Edmonning iltifoti va kekxa Pamfilning mazali vinosi Dantesga nisbatan undagi hasad alangasini allaqachon o'chirib qo'ygan edi. – Bu haq gap. Qallig'ining o'tirishini qarang: qanday go'zal, qanday olijanob. Shunday holda siz kecha kechqurungi maslahatingizni amalga oshirgudek bo'lsangiz juda razillik bo'lardi-da.

– Axir biz u niyatimizdan qaytganimizni o'zing ko'rdingku, – dedi Danglar. – Bechora Fernan kecha shu qadar g'amgin va dilxasta ediki, dastlabki daqiqalarda unga juda rahmim keldi. Ammo u taqdiriga tan berib, hatto raqibiga

kuyov jo'ra bo'lishga rozilik bergandan so'ng, hech qanday gapga o'rni qolmadi.

Kadruss Fernanga qaradi. Uning avzoyi buzilib, murda bo'lib qolgan edi.

– Bu juda og'ir dilozorlik Fernanga, chunki qiz haqiqatan ham nihoyatda go'zal ekan, – dedi so'zini davom ettirib Danglar. – Buni qarang-a! Mening bo'lg'usi kapitanim – baxtiyor ekan! Qani endi men ham hech bo'lma-ganda bir kun Dantesning o'rnida bo'lsam.

– Ketaylik! – dedi Mercedes yoqimli, mayin ovozda, – ana soat ikkiga bong uryapti, bizni yana chorak soat o'tgach kutib turishadi.

– Ha, to'g'ri aytasan, ketdik, – dedi Dantes tez o'rnidan turib.

– Ketdik! – deyishdi bir ovozdan mehmonlar. Shu payt Fernanning ko'zlari olayib kosasidan chiqay deb ketdi: u o'rnidan bir ko'tarildi-da, yana qaytib deraza tokchasiga o'tirdi. Tashqaridan har xil tovushlar eshitildi: gurs-gurs etgan qadam tovushi, g'ala-g'ovur va qurollarning jaran-gi mehmonlarning quvonchli chaqchaqini bir zumda bosib qo'ydi, o'rtaga vahimali sukunat cho'kdi.

Tashqaridagi g'ala-g'ovur yaqinlashdi; eshikka uch mar-ta qarsillatib urildi, mehmonlar hayron bo'lib, bir-biriga qaradi.

– Oching, polisiya! – dedi kimdir baland ovoz bilan tash-qaridan; hech kim javob bermadi.

Shu zahoti eshik ochildi-da, qurolli to'rt soldat va kap-ral kuzatuvida polisiya komissari zalga kirib keldi.

Tashvish-xavotirga tushib qolgan mehmonlarni vahi-ma bosdi.

– Nima gap o'zi? – so'radi armator komissar yoniga bo-rib. (U ilgari tanish edi.) – Anglashilmovchilik yuz bergan bo'lsa kerak.

– Mabodo anglashilmovchilik yuz bergan bo'lsa, janob Morrel, tezda aniqlanadi. Hozircha menda qamoqqa olish haqida buyruq bor, afsuslanib bo'lsa ham men uni bajar-mog'im shart. Janoblar, orangizda Edmon Dantes degan

kishi kim?

Hamma Edmonga tikildi. U esa hayajon-la o'rnidan turib o'rtaga chiqdi va dedi:

– Men. Xo'sh xizmat?

– Edmon Dantes, – dedi komissar, – qonunga muvofiq men sizni qamoqqa olaman!

– Qamoqqa olaman? – so'radi qaytadan Edmon bir oz rangi o'chib. – Nima uchun meni qamoqqa olasiz? Sabab?

– Men bilmayman sababini, siz buni birinchi so'roq-dayoq bilib olasiz.

Morrel e'tiroz bildirib o'tirishning foydasiz ekanligini angladi: beliga sharf bog'lab olgan komissar odam emas, shunchaki hissiz boqibeg'am, toshyurak bir maxluq edi.

Ammo keksa Dantes birdan irg'ib turib komissar qoshiga keldi; chunki ota va ona bunday hollarda hech narsani anglashni istamaydi. Chol o'tindi, yalinib-yolvordi. Ko'z yoshi va iltijolar foyda bermadi. Ammo cholning qayg'u-alami shu qadar kuchli ediki, hatto unga komissarning ham rahmi keldi.

– Qayg'urmang, afandim! – dedi u. – Ehtimol o'g'lingiz karantin yoki bojxona qonun-qoidasini buzgandir; shunday bo'lsa u izoh berib, tushuntirar-u qutulib chiqar.

O'zini hech narsani bilmaganga solib o'tirgan Danglar yoniga borgan Kadruss xo'mrayib so'radi:

– O'zi nima gap?

– Men qayoqdan bilay! – javob qildi Danglar. – Men ham xuddi sendek bo'layotgan ishlarni ko'rib turibmanu, lekin tushunolmay garangman.

Kadruss alanglab Fernanni axtardi.

Biroq u allaqachon juftakni urgan edi.

Ana shundan so'ng kechagi voqea Kadrussning ko'zi oldida dahshatli manzara bo'lib gavdalandi. Hozirgi fojia kechagi shirakayf vaqtida niqobga o'ralgan razolatni yapyalang'och qilib, ochib tashladi.

– Bu kechagi gaplaringizning oqibati emasmikin? – dedi u bo'g'iq ovozda. – Agar shunday bo'lsa, bu fitnani

qo'zg'aganlarning holiga voy deyavering, chunki bu yaxshilikka olib bormaydi pirovardida.

– Aslo unday emas! – dedi javoban Danglar, – xatni yirtib tashlaganimizni ko'rding-ku o'zing.

– Sen xatni yirtib emas, shunchaki g'ijimlab burchakka tashlab qo'ya qolding.

– O'chir ovozingni, sen hech nima ko'rganing yo'q, mast eding.

– Ferman qayoqqa gumdon bo'ldi? – so'radi Kadruss.

– Men qayoqdan bilay? – dedi Danglar. – Biror ishi bor-dir-da. Bema'ni gaplardan ko'ra, bechora cholga dalda beraylik.

Dantes barcha do'stlari bilan jilmaygancha qo'l berib xayrlashdi-da, o'zini soldatlar ixtiyoriga topshirdi.

– Xotirjam bo'ling, do'stlar, xato aniqlanadi, men hatto turmagacha bormay qaytaman, – dedi u.

– Bu haq gap, ha, men bunga kafilman! Hech shubhasiz qaytasiz! – deb gap qotdi yaqinlashib kelgan Danglar.

Dantes zinapoyadan pastga tushdi. Oldida komissar, ikki yonboshida soldatlar. Dantes ko'chada kutib turgan eshigi ochiq faytunga tushdi, uning yoniga komissar va ikki soldat o'tirdi. Eshik yopilishi bilanoq faytun Marsel tomonga g'izillagancha ketdi.

– Xayr, Dantes! Xayr, Edmon! – qichqirdi Mercedes yugurib ayvonga chiqib.

Qallig'ining ming pora yuragidan chiqqan bu oxirgi fi-g'onni mahbus eshitdi-da, «ko'rishguncha xayr, Mercedes!» deb qichqirdi. Faytun muqaddas Nikolay qal'asi mu-yulishidan o'tib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Sizlar meni shu yerda kutib turing, – dedi armator, – men duch kelgan faytunga tushaman-da, Marselga borib hamma gapni bilib kelaman.

– Boring! Boring! – dedi hamma bir ovozdan, – tezroq qaytib keling!

Ikki kishi ketgandan so'ng, qolganlar o'rtasiga mudh-ish ma'yuslik cho'kdi. Edmonning otasi bilan Mercedes

har ikkisi o'z qayg'u-alamini alohida-alohida tortgancha anchagacha tik turib qolishdi. Nihoyat, ularning ko'zlari to'qnashdi. Bu zarba ikkisini bab-baravar dilpora etganini kekxa Dantes ham, Mercedes ham angladi-da, ikkovi o'zini bir-birining quchog'iga otdi.

Shu payt zalga Fernan qaytib keldi, stakanga suv quyib ichdi-da, stulga o'tirdi.

Uning yonidagi stulga bexosdan Mercedes o'tirdi.

Fernan beixtiyor stulni nari tortdi.

– Bu fojining aybdori mana shu! – dedi Danglarga Kad-russ ko'zlarini Fernandan uzmay.

– Menimcha bu emas, – javob qildi Danglar. – Fernan nihoyatda fahm-farosatsiz odam, qanday bo'lmasin, bu makrga qo'l urgan kishining jazosini Tangrim beradi.

– Sen unga maslahat bergan kimligini unutilib qo'yyap-san-a, – dedi Kad-russ.

– Og'zingga qarab gapir! – dedi Danglar, – bu gaplar uchun javob berishga to'g'ri keladi-ya!

– Bu gaplar bironing boshiga kulfatlar solayotgan ekan, javob berishga majbursan!

Bu orada mehmonlar orasida Dantesning qamoqqa olinishi to'g'risida har kim har xil fikr yurita boshladi.

– Aytmoqchi, bu haqda Danglar nima derkin? – deb so'radi kimdir.

– Chamamda, – dedi Danglar, – u biror taqiqlangan mol ortib kelmadimikin?

– Siz buxgaltersiz, Danglar, bundan xabardor bo'lishin-giz kerak-ku.

– To'g'ri, albatta, ammo buxgalter nimani ko'rsatishsa o'shani hisobga oladi. Paxtadan bo'lgan qog'oz ortib kel-ganimizdan xabardorman, xolos. Yukni Aleksandriyada Pastrdan va Smirnada Paskaldan oldik. Men shuni bila-man. Mendan boshqa hech narsani so'ramang.

– E! Endi esimga tushdi, – dedi shivirlab bechora ota najot izlab. – Kecha u menga, bir quti qahva va bir quti tamaki olib keldim sizga, degan edi.

– Mana, ko'rdingizmi, – dedi Danglar, – aytmadimmi!

Biz ketgach, «Faraon»ni bojxona xodimlari tintib, o'g'rincha o'tkazilayotgan mollarni topib olibdi-da, aftidan.

Mersedes bunga ishonmadi. Uzoq vaqtgacha ichida saqlab turgan g'am-alam o'ti lov etib tashqariga urdi-da, qiz nola chekib ho'ngrab yig'lab yubordi.

– Qo'y, qizim, yig'lama, umid qilamizki, Edmon tezda qaytib keladi, – dedi chol o'zi ham nima deyayotganini anglamay.

– Umid qilamiz! – dedi qaytarib Danglar.

Fernan ham «umid qilamiz!» demoqchi bo'ldi-yu, biroq so'zlari tomog'iga tiqilib qoldi, faqat lablari tovushsiz qimirladi.

– Janoblar! – deb qichqirdi ayvonda yo'lga ko'z tikib turgan bir mehmon, – janoblar! Faytun kelyapti! Morrel janoblari! U bizga xushxabar keltirayotgan bo'lsa kerak!

Mersedes va kekxa ota yugurib armator yo'lga peshvoz chiqishdi. Ular ostonada uchrashishdi. Morrelning rangi o'chgan edi.

– Xo'sh, nima gap? – so'radi ikkisi bir yo'la.

– Do'stlarim! – javob qildi armator boshini chayqab. – Ish biz o'ylagandan ham jiddiyroq ekan!

– Oh! Janob Morrel, – dedi qichqirib Mercedes. – Aybdor emas-ku, u!

– Bunga mening imonim komil, – javob berdi Morrel, – biroq uni shunda ayblaydilarki...

– Nimada ayblashadi? – so'radi chol Dantes.

– Uni bonapartchilar josusi deb ayblashyapti.

U davrda bunday ayb juda mudhish edi.

Mersedes qichqirib yubordi, chol stulga yiqilib tushdi.

– Demak, – shivirladi Kadruss, – siz meni boplab al-dabsiz-da, Danglar, mana fojia yuz berdi, ammo men bechora chol bilan kelinning g'am-hasratda qon yutib adoyi tamom bo'lishlarini istamayman, hozirning o'zidayoq hamma gapni ularga aytib beraman.

– Ovozingni o'chir, badbaxt, – qichqirdi Danglar uni qo'lidan tutib. – Joningdan to'yumagan bo'lsang jim bo'l. Senga birov Dantes aybdor emas, dedimi? Kema Elba oro-

liga kirib to'xtadi. Dantes qirg'oqqa chiqib, kun bo'yi Porto-Ferrayoda bo'ldi. Uning yonidan fosh qiladigan biror xat topib olishsa-chi? Unda nima bo'ladi? Unda Dantesni himoya qilayotganlarning hammasini, bularning tili bir, deb ayblaydilar.

Kadruss bu dalil-isbotlarning haq ekanini darhol fahmladi-da, dovdirab Danglarga qaradi va ikki qadam orqaga tisarildi.

– Unday bo'lsa, sabr qilib kutamiz, – dedi o'girilib.

– Ha, kutganimiz ma'qul, – dedi Danglar. – Agar u aybdor bo'lmasa bo'shatib yuborishadi; aybdor bo'lib chiqsa, unda fitnachilarni himoya qilaman, deb o'zingni xavf-xatarga duchor qilishingning keragi yo'q.

– Shunday ekan, ketaylik, men bu yerda endi turolmayman.

– To'g'ri aytasan, ketaylik, – dedi Danglar yo'ldosh topilganidan quvonib. – Ketdik, endi bular bilganini qilsin...

Hamma tarqalib ketdi. Mercedesning yana yagona himoyachisi bo'lib qolgan Fernan uni Katalaniga olib borib qo'ydi. Dantesning do'stlari esa o'z navbatida, batamom holdan toygan cholni Melyan xiyobonidagi uyiga olib borib qo'yishdi.

Dantesning bonapartchilar josusi deb qamalganligi haqidagi xabar butun shaharda duv-duv gap bo'lib ketdi.

– Kim shunday bo'ladi, deb o'ylagan edi, Danglar? – dedi Morrel o'z buxgalteri va Kadrussning ketidan yetib olib. Dantes haqida yangi gaplarni bilib kelish uchun u yana shoshilib shaharga ketayotgan edi. Qirollik prokurorining yordamchisi Vilfor janoblari bilan tanish, undan biror najot bo'larmikin degan umidda edi armator. – Shunday bo'lishi kimning xayoliga kepti?

– Janob Morrel, bu yerda hamma narsa ayon, – javob qildi Danglar. – Dantesning hech ehtiyoj bo'lmasa-da, Elba orolida kemani to'xtatganini men sizga aytgan edimku: men o'sha vaqtdayoq buning tagida bir gap bor, deb shubhalangan edim.

– Siz ana shu shubhangizni mendan boshqaga ham aytganmidingiz?

– Buni aytib bo‘ladimi, – dedi asta Danglar va qo‘shimcha qildi. – O‘sha davrda yashagan va o‘z fikrlarini hech kimdan yashirmaydigan buvangiz Polikar Morrel tufayli Napoleonga xayrixoh deb sizdan ham shubhalanib yurganlarini bilasiz... Men Edmonga va shuningdek, sizga zarar yetishidan qo‘rqdim. Shunday narsalar bo‘ladiki, ularni mutelar o‘z xo‘jayiniga aytishlari va boshqalardan chiqur sir saqlashlari kerak.

– To‘g‘ri, Danglar, juda to‘g‘ri, siz halol, vijdonli, pok odamsiz! Mabodo bechora Dantes «Faraon»da kapitanlik o‘rnini egallagudek bo‘lsa, siz nima qilishingiz to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilib qo‘yganman.

– Qanday qilib?

– Men Dantesdan sizning to‘g‘ringizda qanday fikrdaligini bilmoqchi bo‘lib, Danglarni o‘z o‘rnida qoldirishga rozimisiz, deb so‘ragandim. Biroq chamamda ikkingizning o‘rtangizga negadir sovuqlik tushgan.

– U sizga nima dedi?

– Oralaringda bir gap o‘tgan ekan, nima gapligini aytmadi, u chindan ham bir vaqt sizni ranjitgan ekan, ammo armator ishonch bildirgan kishiga hamma vaqt ishonch bildirishga tayyorman, dedi.

– Obbo, munofiq-e! – dedi Danglar.

– Bechora Dantes! – dedi Kadruss. – Juda azamat yigit edi-da.

– Bu gapingiz to‘g‘ri, biroq «Faraon» hozircha kapitan-siz qoldi, – dedi Morrel.

– Biz dengiz safariga uch oydan so‘ng chiqar ekanmiz, – dedi Danglar, – umid qilamizki, ungacha Edmonni bo‘shatadilar.

– Albatta, albatta, biroq u chiqquncha nima bo‘ladi?

– Ungacha, Morrel janoblari, xizimatingizga o‘zim tayyorman, – dedi Danglar, – siz mening kemani idora qilishda uzoq safarga chiqadigan kapitanlardan hech qolishmasligimni bilasiz. Meni shu ishga qo‘ysangiz o‘zingizga

foйда, chunki Edmon turmadan chiqquncha odam axtarib yurmaysiz, u kelsa o'z o'rmini oladi; men ham o'z o'rnimda ishlayveraman.

– Rahmat, Danglar, – dedi armator, – chindan ham bu to'g'ri fikr. Demak, qaror shu: kapitanlikni qabul qilib oling, men sizga vakolat beraman; yuklarni tushirish ustidan nazorat qiling; ayrim kishilar boshiga tushgan baxtsizlik ishga zarar yetkazmasligi kerak.

– Xotirjam bo'ling, Morrel janoblari! Biroq sho'rlik Edmonni hech bo'lmaganda, bir ko'rib chiqishning iloji bormikin?

– Men hoziroq borib bilib kelaman; harakat qilib de Vilfor janoblari bilan uchrashaman va undan mahbusga yordam berishini iltimos qilaman. Ma'lumki, u uchiga chiqqan royalist, biroq qirollik tarafdori va qirol prokurori bo'lgani bilan odam-ku, buning ustiga qahr-g'azabli emas, deyishadi.

– To'g'ri, qahrli emas, ammo shuhratparast deb eshitgandim, buning qahr-g'azabdan farqi yo'q.

– Xullas, omon bo'lsak ko'ramiz bu yog'ini, – dedi xo'rsinib Morrel. – Kemağa boring siz hozir, men tez qaytaman.

Shunday dedi-da, armator sud idorasiga yo'l oldi.

– Mana, ko'rdingmi, ish tamom boshqacha bo'lib ketdi, – dedi Danglar Kadrussga. – Sen hamon Dantesning ishiga aralashmoqchimisani?

– Yo'q, albatta, biroq shunchaki hazil gap bunaqangi oqibatga olib borgani yomon bo'ldi-da.

– Kim qildi bu hazilni? Senmi? Yo'q. Menmi? Yo'q. Bu Fernanning ishi. Men o'sha xatni uloqtirib tashlaganimni o'zing ko'rding, hatto uni yirtib ham tashladim, shekilli?

– Yo'q! Yirtganing yo'q! – dedi qichqirib Kadruss, – ayvoncha burchagida g'ijimlanib yotgan o'sha xat hozirgacha ko'z oldimdan ketmaydi. Qani endi, u hozir ham o'sha yerda g'ijimlanib yotgan bo'lsa!

– Nima qilish kerak? To'g'ri, xatni Fernan olgan edi, ko'chirgan yoki birovga ko'chirtirgandir, ehtimol, ko'chir-

tirib ovora bo'lmagandir... E, Parvardigor! Men yozgan xatning o'zini shundayicha yuborgan bo'lsa-chi? Unda nima bo'ladi? Xatimni o'zgartirib yozib yaxshi qilgan ekanman.

– Ie, hali sen Dantesning fitnachi ekanini bilar ekan-sanda?

– Men hech narsani bilmasdim. Faqat hazil-mazax qilmoqchi bo'lganimni aytdim-ku senga. Endi bunday qaragam, o'shanda avliyolik qilgan ekanman.

– Qanday bo'lmasin, – dedi Kadruss, – bu voqeaga baram berilsa, hech bo'lmaganda, meni unga aralastirmasalar yaxshi bo'lardi. Mana ko'rasan, Danglar, bu fojia bizni baxtsizlikka duchor qiladi.

– Bu fojia biror kishiga baxtsizlik keltirgudek bo'lsa, bizga emas, haqiqiy aybdorga keltiradi, haqiqiy aybdor biz emas, Fernan. Biz qanaqa baxtsizlikka uchrashimiz mumkin? Biz tinchgina o'tirishimiz, og'zimizga mahkam bo'lishimiz kerak, ana shunda balo-qazo bizni chetlab o'tib ketadi.

– Ilohim shunday bo'lsin, omin, – dedi Kadruss Danglarga boshini irg'itib; so'ng og'ir tashvishga tushgan holda, boshini sarak-sarak qilib, ming'irlagancha Melyan xiyo-boni tomon yo'l oldi.

«Xullasi kalom, – dedi ichida Danglar, – ish men o'ylagandek bo'lib chiqyapti; men endi vaqtincha kapitan bo'ldim, mabodo bu ahmoq Kadruss og'zidan gullab qo'ymasa bu o'rinda doim qolaman. Unda bitta xavf qoladi. Agar odil sud Dantesni o'z changalidan chiqarib yuborsa, unda holimga voy... Odil sud odil sudligini qiladi, – dedi iljayib, – men unga ishonaman».

U irg'ib qayiqqa tushdi-da, «Faraon» yoniga yo'l olishni buyurdi, bu yerda Danglar bilan armator uchrashmoqchi ekani bizga ma'lum.

VI. QIROLLIK PROKURORINING YORDAMCHISI

Xuddi o'sha kun, o'sha soatda Gran-Kur ko'chasida

Meduzalar favvorasi ro'baro'sidagi eski oqsuyaklarning arxitektor Pyuje qurgan uylaridan birida ham nikoh to'yi bo'layotgan edi. Lekin farqi shunda ediki, bu tantananing qahramonlari oddiy kishilar emas, matros va soldat ham emas. Marselning eng oliy tabaqalariga mansub kishilar edi. Bular uzurpator davr-davronida xizmatdan bo'shagan eski to'ralar, Fransuz armiyasidan qochib, Konde armiyasiga qo'shilgan harbiylar va yoshlardan iborat edi.

Garchi bu yoshlarning ota-onalari arzandalarining o'miga to'rt-besh soldat yollab armiyaga yuborgan bo'lsalar ham, ko'ngillari joyiga tushmay, arzandalaridan xavotir olishar va ularning yosh qalbiga odamlarni besh yil quvg'inda yurganda jabrdiyda qilib ko'rsatishar, Restavrasiya davridagi o'n besh yillik hayotida uni Xudo darajasiga ko'targan Napoleonga qarshi adovat urug'ini sochar edilar.

Hamma stol qoshiga o'tirib olgan, o'sha kunlarda hammani qiziqtiradigan dahshatli hodisalar to'g'risida suhbat, munozara juda qizigan edi, chunki Fransiyaning janubida siyosiy ziddiyat, besh yuz yildirki, qarama-qarshilik diniy adovat bilan qo'shilib, chuqurlashib bormoqda edi.

Yaqindagina butun bir qit'aning hokimi, o'n xil tilda bir yuz yigirma million fuqaroning «Yashasin, Napoleon!» degan olqishlariga ko'milib yurgan imperator endilikda besh-olti ming kishilik Elba orolining qiroli, hokimi, hozirgi bazmi-jamshidning qatnashchilari ko'zi oldida Fransiya va taxt uchun abadiy keraksiz bir shaxs bo'lib qolgan edi. To'ralar uning siyosiy xatolarini esga olishar, harbiylar Moskva va Leypsigga yurishlari haqida mulohaza yuritishar, ayollar esa Jozefina bilan ajrab ketganini tilga olishardi. Kishining tuban ketishi emas, prinsipning yo'q etilishidan quvonayotgan bu royalistlar guruhi nazarida go'yo ular dahshatli tush azobidan cho'chib uyg'onganlaru yangi hayot quchog'iga otilgan edilar...

Ko'kragiga muqaddas Lyudovik ordeni taqib olgan basavlat chol o'midan turdi-da, qiroli Lyudovik XVIII ning

sog'lig'i uchun qadah ko'tarishni taklif etdi. Bu markiz de Sen-Meran edi.

Gartvel quvg'ini va Fransiya tinchlik-osoyishtalik bag'ishlagan qirol hurmati uchun qadah ko'tarish taklifi qiy-qiriqlar bilan kutib olindi, inglizlar odatiga muvofiq hamma qadahini baland ko'tardi, ayollar ko'kraklariga taqqan guldastalarini yechib, dasturxon ustini bezadilar. Bu shodiyonada qandaydir poeziya borligi sezilardi.

Sovuq nazar, yupqa lab, zodagonlarga xos tantiq, ellikni urib qo'ysa-da, chiroyini yo'qotmagan markiza de Sen-Meran so'z qotdi:

– Biz quvg'inga solgan va endilikda Terror davrida o'zlari bir burda nonga sotib olgan qadimgi qasrlarimizda bizga choh qaziyotgan o'sha inqilobchilar hozir shu yerda bo'lsalar edi, asl fidokorlar biz ekanimizni e'tirof etishga majbur bo'lardilar, chunki barbod bo'layotgan monarxiyaga biz sodiq bo'lib qoldik, ular esa o'z Napoleonlarini qutlab chiqdilar va dunyo orttirishga mukkalaridan ketdilar, ayni vaqtda biz xonavayron bo'la boshladik. O'shanda ular haqiqiy qirolimiz sevikli Lyudovik ekaniga, la'nati Napoleon esa hamisha uzurpator – zo'rvon bo'lib qolganiga iqror bo'lardilar, to'g'rimi, de Vilfor?

– Buyursinlar, markiza, xizmat?.. Kechirasiz, men eshitmay qolibman gapingizni.

– Markiza, qo'ying, bolalarga gap uqtirib bo'larmidi, – dedi qadah taklif etgan chol. – Bugun ularning unashuv kuni, ularning qulog'iga siyosat kirarmidi hozir.

– Oyijon, kechiring, – dedi malla sochli, quralay ko'z suluv qiz, – Vilfor janoblarini men band qilib edim. Vilfor janoblari, oyim siz bilan gaplashmoqchi.

– Markiza savollarini qaytarsalar, javob berishga tayyorman. Hali eshitmagan edim u kishining so'zlarini, – dedi Vilfor.

– Men seni kechirdim, Rene, – dedi markiza mehribonona jilmayib. Bu sovuq chehrada tabassum o'xshovsiz tuyulardi kishiga: biroq xurofot, bid'atlar va odob-rasmiyat tartib-qoidalari iskanjasida qanchalik siqib qo'yilgan

bo'lmasin, ayol yuragida mehr-shafqat uchun hamisha joy topiladi. – Men, Vilfor, bonapartchilarda bizdagidek e'tiqod, biznikidek sadoqat va bizdagidek fidokorlik yo'q, dedim.

– Begoyim, shuni unutmangizki, inqilobchilarning bir fazilati borki, u bizning siz sanab chiqqan hamma fazilatlarimizning o'rnini bosib ketadi. Bu mutaassiblik. Napoleon g'arbning Muhammadi; o'zlari past tabaqalardan chiqqan bo'lsalar-da, o'ta shuhratparast bu odamlar uchun Napoleon faqat qonun yaratuvchigina bo'lib qolmay, shu bilan birga tenglik, teng huquqlik timsoli hamdir.

– Tenglik emish! – qichqirib yubordi markiza, – Napoleon teng huquqlik timsoli? Unda de Robesper janoblari kim bo'ladilar?.. Nazarimda, siz uning o'rnini o'g'irlab olib korsikanlikka hadya qilayotganga o'xshaysiz; menimcha, bitta uzurpasiyaning o'ziyoq yetib ortar bizga.

– Yo'q, begoyim, unday emas, – dedi e'tiroz bildirib Vilfor, – men har qaysisini o'z tag kursisidan jildirmayman; Robesper Lyudovik XV maydonidagi kunda ustida Napoleon Vandom maydonidagi kolonnada turaveradi. Ammo shunisi borki, bularning birisi odamni xo'rlaydigan tenglik joriy qildi, ikkinchisi insonning qadrini ko'taradigan tenglikni yaratdi. Birisi qirollarni gilotin pichog'iga ro'para qildi, biri esa xalqni toj-taxtga ko'tardi. Biroq, – dedi qo'shimcha qilib kulgi aralash Vilfor, – bu hol ikkovining ham razil inqilobchiligiga xalaqit bermaydi, to'qqizinchi termidor ham, bir ming sakkiz yuz o'n to'rtinchi yilning to'rtinchi apreli ham Fransiya uchun baxtli kun bo'lib, buni tartib muxlislari ham, monarxiya muxlislari ham bir xilda tantana bilan shodiyona kutib olishlari kerak. Hatto ag'darib tashlangan Napoleon sodiq muxlislari hamon saqlab kelayotganining boisi ham shunda. Chorangiz qancha, markiza? Kromvel Napoleonning soyasiga arziydigan shaxs edi, axir o'sha ham shunday tarafdorlarga ega edi!

– Shuni bilib qo'yingizki, Vilfor, bu gaplaringizdan inqilob anqib turibdi. Biroq men sizni afv etaman, axir jiron-

distning o'g'lida inqilobning ozgina sassiq-alafi bo'lmasligi mumkin emas-da.

Vilforning yuziga qon yugurdi.

– Otam chindan ham jirondist edi; ammo u qirolni qatl etishga ovoz bermagan. Terror kunlarida siz kabi quvg'inga uchragan, otangizning kallasi tanidan judo etilgan jallod kundasida u ham boshidan ajralishiga sal qolgan edi.

– Rost, – javob qildi markiza. Qonli fojialar haqidagi bu gaplar oyimbekaga jilla bo'lsa ham ta'sir etganini uning vajohatidan bilib bo'lmasdi, – aslida ular jallod kundasiga ham faqat pirinsiplarning butunlay qarama-qarshi bo'lishi uchungina boshlarini qo'yardilar; mana sizga bir misol: bizning oilamiz quvg'in etilgan Burbonlarga butunlayin sodiq bo'lib qolgan bir paytda, sizning otangiz yangi hukumatga qo'shildi; Nuarte jirondist edi, graf Nuarte esa senator bo'lib oldi.

– Oyjjon, – dedi Rene, – o'sha mudhish voqealarni aslo esga olmaymiz, deb ahd qilgan edik-ku ikkimiz, esingizda bo'lsa kerak.

– Begoyim, – dedi Vilfor, – men madmuazel de Sen-Meran taklifiga qo'shilaman va u bilan birga sizdan o'tmishdagi gaplarni unutishni o'tinib so'rayman. Tangrimning o'zi ham qahriga olishdan o'z bo'lgan narsani qoralab o'tirishdan na hojat? Kelajakni o'zgartib yuborish Parvardigorning ishi; lekin o'tgan ishni u ham o'zgartira olmaydi. Biz o'tmishdan voz kecha olmas ekanmiz, hech bo'lmasa uni xasp o'shlab ketishimiz lozim. Masalan, men otam g'oyalaridan yuz o'giribgina qolmay, hatto uning nomidan ham voz kechdim. Otam bonapartchi edi, ehtimol, hozir ham shunday bo'lib, nomi Nuartedir, men – royalistman, nomim ham Vilfor. Revolyusiya kekxa emanining tanasi qurib-qaqshashi mumkin, ammo siz undan

³ T o g a – qadimgi rimliklarning ustki kiyim o'rniga yelkaga tashlab o'ranib yuradigan yopinchig'i.

⁴ Qurolni toga yengadi. (*Lotin.*)

o'sib chetga chiqqan shoxga nazar tashlang, bu shox tanadan o'sib chetga chiqqan bo'lsa-da, undan batamom uzilib ajrala olmaydi, ajralishni istamaydi ham.

– Ofarin, Vilfor, – dedi markiz, – ofarin! Ajoyib gap bo'ldi-da! Men ham markizaga o'tmishni unutish kerakligini uqtira berib tinkam quridi, biroq natija chiqmadi; siz buning uddasidan chiqursiz deb umid qilaman.

– Bo'пти, – dedi markiza, – o'tmishni unutaylik, mening ham istagim shu. Ammo kelajakda Vilfor matonatli bo'lmo-g'i kerak. Oliy hazratlari oldida sizga kafil bo'lganimizni unutmag. Vilfor, oliy hazratlari biz kafolat berganimizdan so'ng, o'tgan gaplarni unutishga rozilik berdilar; mana men ham (qo'lini uzatdi), iltimosingizga muvofiq o'tgan ishga salavot, dedim. Lekin biror fitnachi qo'lingizga tushib qolgudek bo'lsa, shuni esda tutingki, o'zi ham o'sha fitnachilar bilan aloqada turishi mumkin bo'lgan oiladan, deb sizni juda qattiq nazorat ostiga oladilar.

– Hayhot, begoyim, – javob qildi Vilfor. – Mening ama-lim, xususan, siz bilan yashab turgan hozirgi zamon, mendan qattiqqo'l bo'lishni talab qiladi. Men, shubhasiz, ishni qattiqqo'llik bilan olib borishga harakat qilaman, albat-ta. Bir necha siyosiy ishlarni olib bordim va bu borada o'zimni ko'rsatib qo'ydim. Afsuski, siyosiy ishlar bu bilan tugamaydi.

– Nahotki hali ham xavf tugamagan bo'lsa? – so'radi markiza.

– Men shundan xavotirdaman. Elba oroli Fransiyaning shundaygina biqinida. Napoleon yashab turgan joy qir-g'og'imizdan ko'rinib turibdi. Bu hol uning tarafdorlarida umid-ishonchni mustahkamlayapti. Marsel yarim oylik maosh oluvchi harbiylar bilan liq to'la; ular royalistlar bilan qanday bo'lmasin biror janjal qo'zg'ash uchun bahona topishga urinishyapti. Oqsuyaklar o'rtasida bo'layotgan duellar, oddiy kishilar o'rtasidagi pichoqvozliliklarning sa-babi ham ana shunda.

– To'g'ri, – dedi markiza de Sen-Meranning eski do'sti va graf d'Artuaning kamergeri graf de Salvyo. – Ammo

Muqaddas Ittifoq uni ko'chirib yubormoqchi bo'layotganidan siz bexabar ekansiz chog'i?

– Parijdan qaytayotganimda shunday gap bo'lgan edi, – dedi markiz. – Biroq uni qayoqqa jo'natisharkin?

– Muqaddas Elenaga.

– Muqaddas Elenaga! Bu qanaqa joy o'zi? – so'radi markiza.

– Ekvatorning naryog'idagi, bu yerdan ikki ming mil naridagi orol, – javob qildi graf.

– Oq yo'l! Vilfor haq, bunday shaxsni o'zi tug'ilgan Korsika va kuyovi hukmronlik qilayotgan Neapol bilan o'g'lining toj-taxtiga aylantirmoqchi bo'lgan ana shu Italiya o'rtasida qoldirish tentaklik bo'lur edi.

– Afsuski, – dedi Vilfor, – bir ming sakkiz yuz o'n to'rtinchi yilda tuzilgan bir nechta shartnoma bor, o'sha shartnomalarni buzmay turib Napoleonga tegib bo'lmaydi.

– Ularni buzaverish kerak! – dedi graf de Salvyo. – Axir u bechora gersog Engienskiyni otib tashlash haqida buyruq berganda, hamma qonun-qoidalarni bir chekkaga yig'ishtirib qo'ygan edi-ku.

– Ko'chirib yuborishga qaror qilishgan bo'lsa juda to'g'ri qilishibdi, – dedi markiza, – Muqaddas Ittifoq Evropani Napoleondan xalos etadi, Volfor esa Marselni uning tarafdorlaridan qutqaradi. Qirol toj-taxtida qoladimi yoki yo'qmi – mana asosiy muammo. Mabodo u qoladigan bo'lsa, uning hukumati kuchli va ijrochilari qattiqqo'l, sabotli bo'lmog'i lozim. Shunday qilgandagina yovuzlikka barham beriladi.

– Bekam, afsuski, – dedi Vilfor iljayib, – qirollik prokurorining yordamchisi yovuzlikni faqat u sodir bo'lgandan keyin ko'radi.

– Shunday ekan, buni tuzatmog'i kerak.

– Bunga javoban men, biz yovuzlikni tuzatmaymiz, uning uchun qasos olamiz, xolos, deyishim mumkin.

– Oh, Vilfor janoblari, – xitob qildi mademuazel de Sen-Meranning dugonasi, graf de Salvyoning yosh, go'zal qizi, – bizlar Marseldan ketgunimizcha biror qiziqroq sud tash-

kil qiling, o'tinib so'rayman. Men sudni hech ko'rmaganman, aytishlariga qaraganda, bu juda qiziq bo'larmish.

– Ha, chindan ham qiziq bo'ladi sud, – javob qildi kuilib qirollik prokurorining yordamchisi. – Bu sun'iy fojia emas, haqiqiy drama, hiyla-nayrang emas, aksincha, haqiqatan ham azob-uqubat. Spektakl tamom bo'lgach, ko'z oldingizdagi odam o'z oilasi bilan oqshomgi taomni baham ko'rish va ertasi osoyishta ishlash uchun, tinchgina orom olish uchun uyga bormay, turmaga, uni kutib turgan jallod oldiga yo'l oladi. Kuchli hissiyotlarga bahona izlab yurgan asablari buzuq zotlarga bundan ham ajoyibroq tomosha bo'lmasa kerak. Agarda biror ish chiqib qolsa men darhol tashkil etaman, xotirjam bo'ling...

– Uning so'zlaridan mening a'zoyi badanimni titroq bosib ketyapti-yu... u esa kuladi! – dedi rangi o'chib Rene.

– Sizningcha, nima qilish kerak? Axir buni yakkama-yakka jang deydilar... Men sudlarda besh-olti marta siyosiy va boshqa ishlarda aybdorlarga o'lim jazosi talab qildim... Pastqam joylarda menga qarshi, kim bilsin, qanchadan-qancha xanjarlar charxlanib qo'yilgan ekan.

– E Xudo! – deb qichqirib yubordi Rene. – Nahotki rost gapirayotgan bo'lsangiz, Vilfor janoblari?

– Xuddi shunday, – javob qildi Vilfor iljayib. – Grafinya ishqiboz bo'lib qolgan ana shu sudlardan keyin mening uchun xavf-xatar oshsa oshadi-yu, kamaymaydi. Napoleonning dushmanga ko'r-ko'rona hamla qilishga odatlanib qolgan soldatlari qaerda o'q uzish keragu, qaerda qilich urish kerak deb o'ylab o'tirisharmidi? Umrda hech ko'rmagan, bilmagan ruslarni, avtriyaliklarni yoki vengrlarni o'ylab-netib o'tirmasdan otib tashlayotgan bu soldatlar, o'z dushmanimiz deb yurgan kishini o'ldirishdan nahotki tortinsalar? Buning ustiga xavf zarur hamdir, chunki bu bo'lmasa, hunarimizning qizig'i qolmasdi. O'zim ham aybdorning qahr-g'azabi oshib, ko'zlari chaqnayotganini ko'rganda yonib ketaman: bu hol kuchimga kuch qo'shadi. Axir bu bahsbozlik emas, haqiqiy jang. Men u bilan kurashib, hamla qilaman, u esa himoya qiladi

o'zini, men unga yana va yana zarba beraman, so'ng jang odatdagidek yo g'alaba, yoki mag'lubiyat bilan tugaydi. Ko'rib turibsizki, sudda va'zxonlik qilish bo'yoqchining nili emas! Xavf, vahima kishini gapga juda chechan qilib qo'yadi. Mabodo mening nutqimdan so'ng aybdor iljayib o'tiraversa, demak, gapni o'rniga qo'yolmabman, so'zlarim bo'sh, beta'sir bo'пти degan qarorga kelaman. Dalillar va alangali so'zlar aybdorni ezib, majaqlab tashlaganini, u g'ing deya olmay bo'zarib o'tirganini ko'rib jinoyatning to'g'riligiga imoni komil bo'lgan prokurorning yuragi g'olibona g'ururga to'lib-toshganini ko'rsangiz! Jinoyatchining kallasi egilib shilq etib tushadi-qo'yadi!

– Buning so'zga chechanligini qarang-a! – dedi mehmonlardan biri.

– Bizning zamonga mana shunaqa odamlar kerak, – dedi yana biri.

– So'nggi sudda, – dedi uchinchi bir mehmon so'z qotib. – Siz juda o'tkir nutq so'zladigiz, Vilfor, juda qoyil qildingiz. Esingizdami, o'z otasini chavaqlab tashlagan ablah? Jallodning qo'li tegmasdan burunoq siz uni tirik murda qilib qo'ygan edingiz.

– Eh, otabezori qotillar! Ularga shafqat yo'q menda! Bundaylarga jazolarning hamma xillari ham kamlik qiladi, – dedi Rene. – Ammo siyosiy jinoyatchi bechoralarga qiyin...

– Ammo shuni bilib qo'yingki, Rene, siyosiy jinoyatchilar battar bo'ladi, chunki xalqning otasi hisoblangan qirolni ag'darishga yoki o'ldirishga jur'at etish o'ttiz ikki million kishining otasini qatl qilish demakdir.

– Mayli, qanday bo'lsa-da, janob Vilfor, – dedi Rene. – Biror kishi to'g'risida iltimos qilganimda, muruvvat qilaman deb va'da bering menga...

– Xotirjam bo'ling, – javob berdi nazokat bilan jilmayib Vilfor, – aybnomani birga yozamiz.

– Azimim, – dedi markiza, – qushlaringiz, kuchuklarin-

giz va latta-puttalaringsizdan qolmang. Sizga o'shalar eng yaxshi ermak, qo'ying, xalaqit bermang, bo'lajak eringiz o'z ishlari bilan o'zi shug'ullansin. Qurollar endi yig'ishtirilib taxlab qo'yilgan. Togalarning³ esa qadri oshgan: bu haqda lotincha bir hikmatli ibora bor: Cedant arma togael!⁴ – dedi Vilfor.

– Men lotincha aytishga jur'at etolmadim, – dedi javoban markiza.

– Agar siz doktor bo'lsangiz, yanada ko'proq ko'ngil bergan bo'larmidim, – dedi Rene so'zini davom ettirib, – jazolovchi farishta farishta bo'lsa-da, meni hamisha vahimaga solib keladi.

– Mening dildor go'zalim, Rene! – deb shivirladi Vilfor yosh qizga xumor ko'zlarini tikib.

– Vilfor janoblari, – dedi markiz, – o'lkamizning ham ma'naviy, ham siyosiy doktori bo'ladi. Qizim, seni ishon-tirib aytamanki, bu juda faxrli vazifa.

– Bu otasining qilmishlarini unutishga ham yordam beradi, – suqildi suhbatga qitmir markiza.

– Begoyim, – javob qildi zaharxanda iljayib Vilfor. – Men kabi otam ham eski fikrlaridan qaytgan, bunga mening imonim komil, u dinga va tartib-qoidalarga qattiq berilib ketdi, mendan ham yaxshi royalist bo'lib qoldi, chunki u qilmishlaridan pushaymon yeb royalist bo'ldi, men havas qilib, ishqiboz bo'lib kirdim royalistlar safiga.

Vilfor shunday dedi-da, o'tirganlarga bir qarab chiqdi. U sudda tantanali nutqi yig'ilganlarga qanday ta'sir qildi ekan, deb yana shunday nazar tashlab qo'yardi.

– Haq gapni aytdingiz, Vilfor, – dedi graf de Salvyo, – bundan uch kun burun Tyuilrida Konde armiyasida xizmat qilgan ofiserning qizi jirondistning o'g'liga tegayotganini eshitib taajjublangan saroy ministriga men ham xuddi siz aytgan so'zlarni aytgandim. Ministr mening gaplarimga quloq soldi, masalani juda to'g'ri anglab oldi. Qirolimizning o'zlari birlashishning mana shunaqa usulini qo'llab-quvvatlaydi. Biz gaplarimizni eshitib turganini sezmagani ekanmiz, u to'satdan suhbatimizga aralashib

dedi: «Vilfor (koʻrdingizmi, qirol Nuarte demadi, aksincha, Vilforning nomini taʼkidladi), – dedi qirol, – istiqboli porloq yigit. Bu yosh yigit allaqachon pishib yetilgan boʻlib, bizning jamiyatimiz kishisi. Markiz va markiza de Sen-Meran qizini unga berayotganini eshitib juda xursand boʻldim. Ularning oʻzlari kelib bu haqda ruxsat soʻramaganlarida, oʻzim ularga buni tavsiya qilardim.

– Graf, qirol chindan ham shunday dedimi? – dedi hayajonlanib Vilfor.

– Men uning oʻz ogʻzidan eshitgan soʻzlarni aytib berapman sizga; agar markiz ochiqcha gapirishni istasa edi, bundan yarim yil ilgari sizga qizini bermoqchi boʻlganini qirolga aytganida, qirol unga ham xuddi shu soʻzlarni izhor qilganiga iqror boʻlardi.

– Toʻgʻri, – tasdiqladi markiz.

– Demak, bularning hammasi menga qirolning oliy himmati ekan-da? Endi uning – bu oliy janobning mehri-muhabbatini, ishonchini nima qilsam oqalay olarkanman?

– Mana endi oʻzingizga keldingiz, shunday qilsangiz mening sizga mehrim oshaveradi, – dedi markiza. – Endi qanday fitnachi tumshugʻini suqib kelmasin, hech shubhasiz jazosini tortadi!

– Oyijon, – dedi Rene, – men esa, ilohim bu soʻzlarinigiz Parvardigorning oʻziga yetib bormasin va u Vilfor janoblariga faqat mayda oʻgʻrilarni, ishiga putur yetkazgan landavurlarni, qoʻrqoq, yuraksiz muttahamlarni tutib bersin deb duo qilaman. Ana shundagina men tinch uxlay olaman.

– Toʻgʻri, – dedi Vilfor kulib, – bu doktorga faqat asabiy kasallar, sepkil toshganlar, ari chaqqanlar va hokazolar kelsin deb duo qilishdek gap. Biroq siz mening qirol prokurori boʻlib qolishimni istasangiz, menga, aksincha, dahshatli kasallarning kelishini tilangiz, chunki mana shunday ogʻir, murakkab ishlargina doktorning shuhratini oshiradi.

Shu daqiqada, xuddi taqdir Vilforning istagini kutib turgandek, qarol kirdi-da, uning qulogʻiga bir necha soʻz

aytdi.

Vilfor ruxsat so'rab tashqariga chiqdi, oradan bir oz vaqt o'tgach, kulib qaytib kirdi.

Rene qaylig'iga tikilib zavqlanib ketdi. Vilforning ko'k ko'zlari za'faron yuzida chaqnab turardi. Shu daqiqada u rostdan ham juda go'zal edi. Rene uning to'satdan chiqib ketganining sababini bilishga oshiqardi.

– Siz hozir erim doktor bo'lishini istardim, degan edingiz, – dedi Vilfor, – mening eskulap (bir ming sakkiz yuz o'n beshinchi yilda shunday derdilar)ning shogirdlari bilan o'xshashligim bor: mening ham ular singari o'z vaqtim o'z izmimda emas. Meni hatto shu yerda, sizning qoshingizda nikoh kuni ham topib olishdi.

– Sizni nega chaqirishibdi? – so'radi yosh qiz bir oz tashvishlanib.

– Og'ir bemorni ko'rish uchun. Uning holi, aytishlariga qaraganda, tang emish. Ish juda jiddiy, kasal jallod qo'lga tushishi ham ehtimoldan xoli emas.

– Oh, Parvardigor! – qichqirib yubordi Rene rangi oqarib.

– Chamamda, gap bonapartchilarning fitnasi to'g'risida borayotgan bo'lsa kerak.

– Nahotki shunday bo'lsa! – dedi qichqirib markiza.

– Maxfiy ma'lumotda shunday deyilgan.

Vilfor o'qidi.

– *«Janob qirollik prokurori, taxt va din muxlisi sizga shuni ma'lum qiladiki, «Faraon» kemasi kapitanining yordamchisi Edmon Dantes Smirnodan kelayotib Neapol va Porto-Ferrayoga kirib o'tdi. Myuratdan uzurpatorga va uzurpatordan bonapartchilarning Parijdagi komitetiga xat olib keldi. Agar uni hibsga olishsa, fosh qiluvchi xatni uning cho'ntagidan yoki otasinikidan, yo bo'lmasa «Faraon» kemasining kayutasidan topish mumkin».*

– Kechirasiz, – dedi Rene, – bu xatga imzo qo'yilma-

⁵ Karabonar – XIX asr boshlarida Italiyada fransuzlar hukmronligiga qarshi kurashgan yashirin revolyusion tashkilot a'zosi. (*Tarj.*)

⁶ Biz gunglarcha ashula aytamiz (lot.).

gan: buning ustiga, sizga emas, qirol prokuroriga yozilgan.

– To'g'ri, qirol prokurori hozir bu yerda yo'q; xatni uning kotibiga berganlar, unga xatlarni qabul qilib, ochib ko'rish vazifasi yuklangan. Kotibi xatni ochibdi-da, menga odam yuboribdi, uydan topolmagach, jinoyatchini qamoqqa olish haqida o'zi buyruq beribdi...

– Aybdorni allaqachon qamoqqa olibdilar deng? – dedi markiza.

– Aybdor emas, ayblanuvchi ham, – dedi Rene oyisining xatosini tuzatgan bo'lib.

– Ha, qamoqqa olinibdi, – javob qildi Vilfor, – hozirgina mademuazel Renega aytganimdek, mabodo uning yonidan xat topilgudek bo'lsa bormi, bechora bemorning holiga voy deyavering.

– U baxti qaro qaerda hozir? – so'radi Rene.

– Qabulxonamda kutib o'tiribdi meni.

– Boring, azizim, – dedi markiz, – vazifangizga e'tiborsizlik bilan qaramang. Qirollik xizmatidagi kishi bu ishda shaxsan ishtirok etmog'i shart. Boring, azizim, burchingizni ado eting.

– Oh, janob Vilfor! – dedi qichqirib Rene yalinib-yolvorib. – Rahm-shafqatli bo'ling, axir bugun bizning nikoh kunimiz-ku!

Vilfor stolni aylanib o'tib, qallig'i o'tirgan stul suyan-chig'iga tiranib egildi-da, dedi:

– Siz osoyishta, bamaylixotir o'tiravering, iltimosingizni bajo keltirish uchun qo'limdan nima kelsa, hammasini qilaman. Biroq jinoyatning dalillari, shubhasiz, bonapartchi deb qo'yilgan ayb haqqoniy bo'lsa, unda o'sha yovvoyi o'tni kesib tashlash kerak.

«Kesib tashlash kerak» degan so'zni eshitganda Rene seskanib ketdi, chunki Vilfor aytgan yovvoyi o'tning kalasi bor edi.

– Vilfor, siz uning gaplariga e'tibor beravermang, – dedi markiza, – go'daklik qilyapti u. Keyin ko'nikib ketadi.

Markiza shunday dedi-da, qoqsuyak qo'lini uzatdi, Vil-

for ko'zini Renedan uzmay markizaning qo'lini o'pdi. Uning ko'zlari: «Faraz qilingki, malikam, men sizning qo'lingizni o'pyapman yoki o'pish ishtiyoqidaman», deb turardi.

– Qayg'u-hasrat alomati bu! – dedi shivirlab Rene.

– Bas endi, Rene, – dedi markiza. – Go'dakcha qiliqlaringdan toqatim toq bo'lyapti. – Xo'sh, seningcha, davlatning taqdiri muhimmi yoki sening havoyi tuyg'ularingmi?

– Eh, oyijon, – dedi xo'rsinib Rene.

– Markiza, g'o'r royalist qizni afv eting, – dedi de Vilfor, – qirollik prokurori yordamchisi burchini butun aql-idrokimni sarf etib bajaraman, ya'ni beshafqat bo'laman.

Prokuror yordamchisi markizaga shu so'zlarni aytayotgan bir paytda, kuyov qallig'iga yer ostidan ko'z tashlab, «Rene, xotirjam bo'ling, sizning hurmatingiz haqi, rahmshafqatli bo'laman», derdi.

Rene ham unga nazokatli jilmayib qo'ydi, shu zaylda Vilfor quvonchga to'lib chiqib ketdi.

VII. SO'ROQ

Vilfor oshxonadan chiqiboq chehrasidagi quvnoqlik niqobini uloqtirib tashladi-da, gardaniga muhim vazifa – o'z yaqinining taqdirini hal etish vazifasi yuklangan kishiga munosib tusga kirib oldi. Biroq u mohir aktyor singari tez-tez o'zini oynaga solib mimika mashq qilib yurgan bo'lsa-da, bu gal qoshlarini chimira olmas va peshonasini tirishtirolmasdi. Agar uning mansab-martabasiga shikast yetkazishi mumkin bo'lgan otasining o'tmishdagi siyosiy ishlarini hisobga olmaganda, undan qat'iy yuz o'girmaganda edi, shu paytda Jerar de Vilfordan baxtiyor kishi yo'q edi bu dunyoda: katta boylik, mol-mulk egasi bo'lgan bu yigit yigirma yetti yoshida adliya olamida muhim o'rinni egallab olgan; qirol prokurori yordamchisiga xos zavq-shavq bilan va albatta aql-idrok

bilan sevgan yosh nozanin qizning qallic'i, mademuazel de Sen-Meran faqat go'zalgina bo'lib qolmay, shu bilan birga, qirol saroyida mehr-muhabbat, izzat-hurmatga sazovor oiladan. Bu oilaning yuqori tabaqalar bilan aloqasi zo'r, bu aloqalardan ular, boshqa bolalari bo'lmagach, kuyov manfaati uchun foydalanishlari shubhasiz; yana shunisini qo'shib qo'yaylikki, qayliq Vilforqa ellik ming ekyu pul ham olib keladi, bunga so'ngroq yarim millionlik meros ham qo'shilishi mumkin, degan umid ham bor. (Bu dahshatli so'zni sovchilar to'qigan). Bularning hammasi to'planib Vilfor oldida shunday ajoyib, huzur-halovatlariga liq to'la hayot kashf etardiki, prokuror yordamchisining ko'ziga hech narsa ko'rinmay qolardi.

Eshik oldida uni polisiya komissari kutib turardi. Bu shaxsning mudhish vajohatini ko'rib Vilfor yetti qavat osmondan bizlar yurgan yerga tushishga majbur bo'ldi. U o'zini sipo tutib, polisiya xodimi oldiga bordi.

– Men tayyorman! – dedi u. – Xatni o'qidim, u odamni qamoqqa olganingiz yaxshi bo'пти. Endi uning kimligini va fitnaga oid qanday hujjatlar to'plaganingizni aytib bering.

– Fitna to'g'risida hozircha biz hali hech nima bilmaymiz. Uning yonidan topib olingan hamma qog'ozlarni o'rab, stolingiz ustiga qo'ydik. Aybdorning o'ziga kelganda, maxfiy ma'lumotda o'zingiz o'qigan bo'lsangiz kerak, uning nomi Edmon Dantes bo'lib, «Faraon» kemasida kapitanning yordamchisi bo'lib ishlarkan, bu kema Aleksandriya va Smirnodan paxta tashirkan, Marseldagi «Morrel va o'g'li» degan savdo uyiga qarashli ekan.

– Savdo kemasiga ishga kirishdan oldin ham u flotda xizmat qilganmikin?

– Yo'q, yo'q! U juda yosh.

– Yoshi nechada ekan?

– O'n to'qqiz-yigirmadan oshmagan chamamda.

Vilfor Granryu ko'chasidan uyiga yaqinlashganida, aftidan, uni kutib turgan bir odam unga yaqinlashib keldi. Bu Morrel janoblari edi.

– Janob de Vilfor! – dedi u qichqirib. – Juda soz bo’ldi-da sizga ro’baro’ kelganim! Dahshatli bir xato yuz berdi: kapitanimning yordamchisi Edmon Dantesni qamoqqa olishdi.

– Xabarim bor, – javob qildi Vilfor. – Men hozir uni so’roq qilgani boryapman.

– Janob de Vilfor, – davom ettirdi so’zini Morrel qizishib, – siz ayblanuvchini bilmaysiz. Men bilaman. Bu yigit qo’yday yuvosh, mo’min-qobil, nihoyatda halol, butun savdo flotida o’z ishining eng mohir ustasi... Janob de Vilfor! Men chin ko’ngildan so’rayman, unga shafqat qiling.

Yuqorida ko’rganimizdek, Vilfor oqsuyaklar toifasidan, Morrel esa shaharning quyi tabaqalaridan; birinchisi o’ta royalist, ikkinchisidan esa maxfiy bonapartchi bo’lsa kerak, deb shubhalanishardi. Vilfor gerdayib Morrelga qaradi-da, sovuq javob berdi:

– Afandim, shuni unutmangki, kishi qavm-qarindoshlar o’rtasida yuvosh, savdo ishlarida halol va o’z ishini bilag’on bo’lishi mumkin, biroq shunga qaramay siyosat borasida jinoyatchi bo’lmog’i ham mumkin. Sizga bu ma’lum bo’lsa kerak, afandim?

Vilfor so’nggi so’zlarini ta’kidlabroq aytdiki, bu Morrelning o’ziga ishora edi. Prokuror yordamchisi o’zi ham shafqatga muhtoj bo’la turib, boshqani himoyasiga olayotgan bu kishining ichidagini bilishga urinib sinovchan nazar tashlab turdi, anchagacha.

Morrel qizarib ketdi, chunki siyosiy maslak masalasi-da uning ham vijdoni unchalik pok emasdi. Buning ustiga Dantesning marshal bilan uchrashgani va imperatorning unga aytgan sirli gaplari Morrelni xijolatga solib qo’ygani edi. Shunga qaramay, u samimiy rahmdillik bilan dedi:

– Janob de Vilfor, o’tinib so’rayman, hamishagidek adolatli bo’ling, hamishagidek rahm-shafqatli bo’ling va tezroq bizga Dantesni qaytarib bering!

«Bizga... qaytarib bering» so’zlari qirol prokurori yordam-

chisining nazarida inqilobiy ohang kashf etganday bo'ldi.

«Ha! – o'yladi u. – Bizga qaytib bering...» bu Dantes karbonar⁵ larning biror sektasiga tobe odam bo'lmasin tag'in? Homiysining «bizga» deyatganining boisi ham shunda emasmikin? Polisiya aybdorni qovoqxonada katta kompaniya ichida o'tirgan joyida tutib kelishdi, degan edi shekilli, bu kompaniya qandaydir maxfiy jamiyatdir, ehtimol».

So'ng eshittirib dedi:

– Siz mutlaqo xotirjam bo'ling, afandim; mabodo ayblanuvchi begunoh bo'lsa, iltimosingiz yerda qolmaydi, albatta, ammo aksincha, u aybdor bo'lib chiqsa, u holda, siz bilan biz yashab turgan hozirgi og'ir kunlarda uni jazosiz qoldirish halokatga olib borish uchun bir vaj rolini o'ynashi mumkin. Unda men o'z burchimni bajarishga majbur bo'laman.

Shunday deb sovuq xayrlashdi-da, gerdayib sud idorasiga tutash uyiga kirib ketdi, bechora armator ko'chada so'ppayib qoldi.

Oldingi xona jandamlar va polisiya xodimlari bilan liq to'lgan, o'rtada tinch, osoyishta mahbus qimir etmay turibdi. Hammaning nafratga to'la ko'zi unda.

Vilfor oldingi xonadan o'tayotib Dantesga ko'z qirini tashlab qo'ydi va polisiya xodimi qo'lidan bir tutam qog'ozni oldi-da «Mahbusni olib kiring» deb, ichkariga kirib ketdi.

Vilfor bir qarashdayoq so'roq qiladigan mahbusni qanday odam ekani haqida o'zida ma'lum fikr hosil qildi. Dantesning keng va ochiq chehrasidan – aqlli, o'qday tikilib turgan ko'zlari va chimirilgan qoshlaridan – jasoratli, ketida ikki qator ishi sadafday yaltirab turgan qalin lablaridan – dili pok inson ekani baralla ko'rinib turardi.

Prokuror yordamchisining bu birinchi taassuroti Dantes uchun nafli edi; ammo Vilfor, siyosat borasida oqil bo'lmoqni istagan kishi birinchi taassurotga berilib ketmasligi kerak, chunki bu hamisha faqat yurak nidosi, degan gaplarni juda ko'p eshitgan edi: shu sababli bu qoida-

ga rioya qilib, birinchi taassurotni uloqtirib tashladi.

U yuragiga joylashib olmoqchi bo'layotgan mehr tuyg'ularini yulib tashladi-da toshoyna qarshisida turib tantanali tusga kirdi va qovog'idan qor yog'ib, darg'azab qiyofada stoli yoniga o'tirdi.

Bir daqiqadan keyin Dantes kirdi.

U hamon bo'zargan, biroq vazmin va xushro'y edi, sudyaga izzat-hurmat-la, egilib salom berdi-da, xuddi armator Morrel mehmonxonasida turgandek atrofga alanglab stul axtardi.

Shu payt xo'mraygancha tikilib turgan Vilforga ko'zi tushdi. Adolatli qonun himoyachilari ichimdagi o'y-fikrlarimni birov bilib qo'ymasin deb, ana shunday xo'mrayib olishadi. Bu ularning odati. Dantes ham sud oldida turganini Vilforning ana shu qarashidan his etdi.

– Kimsiz, ismi familiyangiz? – so'radi Vilfor oldingi xonada polisiya xodimlaridan olgan qog'ozlarni titkilab. Bir soat o'tar-o'tmas ish kattagina bir daftar hajmiga borib qolgan edi. Qarang-a, ayg'oqchilik deb nom berilgan maraz, aybdor deb atalmish kishining tanasini naqadar tez chirita boshlar ekan-a!

– Mening ismi sharifim Edmon Dantes, – javob qildi ravon, jaranglagan ovoz bilan yigit. – «Morrel va o'g'li» firmasiga qarashli «Faraon» kemasida kapitan yordamchisi bo'lib ishlayman.

– Yoshingiz? – davom etdi Vilfor.

– O'n to'qqizda, – javob qildi Dantes.

– Qamoqqa olayotganlarida nima qilayotgan edingiz?

– Nikoh to'yim edi, do'stlarim bilan ziyofatda edim, – dedi Dantes bir oz seskanib, chunki yaqindagi quvonchlarga to'la to'y bilan shu daqiqada bo'layotgan so'roq-javob marosimi o'rtasida, Vilforning badburush yuzi bilan Mercedesning quvnoq, ko'hlik chehrasi o'rtasidagi farq nihoyatda uqublatli, dilozor edi.

– Nikoh to'yim edi? – qaytardi savolini prokuror yordamchisi ham beixtiyor seskanib.

– Ha, shunday, uch yildan buyon sevib yurgan qizga

uylanayapman.

Bunday vaqtda hamma narsaga befarq bo'lishga odatlangan Vilfor hozir to'y bilan qamoq bu qadar to'g'ri kelib qolganidan taajjublandi. Yigitning hayajonli ovozi uning yuragining bir chekkasida rahm tuyg'usini uyg'otdi. Vilfor ham o'z qaylig'ini sevar va baxtiyor edi. Mana endi Vilfor singari rohat va farog'at bo'sag'asida turgan kishining baxtini barbod etish uchun uni quvonchli daqiqalardan mahrum qilib, bu yoqqa jo'natdilar.

«Bu kabi falsafiy taqqoslash, – degan gapni ko'nglidan o'tkazdi Vilfor, – markiza de Sen-Meran mehmonxonasida zo'r muvaffaqiyat qozonishi mumkin». Vilfor Dantes keyingi savollarni kutib turganida fikran antitezislar to'qiy boshladi. Odatda, notiqlar bularga asoslanib, olqish olishga mo'ljallangan dabdabali jumlar yasaydilar. Ko'pincha, bunday tumtaroqli gaplarni odamlar samimiy deb qabul qiladilar.

Vilfor kallasida chiroyli, ta'sirchan jumalarni to'qib bo'ldi-da, kulib qo'ydi, so'ng Dantesga dedi:

– Davom ettiravering.

– Nimani davom ettiraverayin?

– Odil sudni xabardor qiling.

– Odil sud nimadan u kishini xabardor qilishim kerakligini aytsinlar, men bilganlarimning hammasini aytib beraman. Biroq, – iljayib qo'shimcha qildi Dantes, – ogohlantirib qo'yay, men uncha ko'p narsa bilmayman.

– Uzurpatorning davrida xizmatda bo'lganmidingiz?

– U ag'darilganda meni harbiy flotga olmoqchi bo'lishgan edi.

– Sizni siyosiy maslakda nihoyatda so'l kishi deyishadi, – dedi Vilfor, unga hech kim bu haqda hech nima demagan bo'lsa-da, har ehtimolga qarshi ayblovchiga shu savolni berib.

– Mening siyosiy maslagim emish!.. E voh, aytishga uyalaman: maslak deb ataladigan narsaning o'zi menda hech mahal bo'lgan emas, endigina o'n to'qqiz yoshga kirdim, deb aytdim-ku men siz janoblariga. Menda mas-

lak nima qilsin! Men hech nima bilmayman, biror muhim mavqega ega bo'lolmayman ham: umidvor bo'lganim – o'rinni bersalar ana o'shanda hozirgi va kelajak mavqelim uchun faqat janob Morreldan minnatdor bo'lardim. Shuning uchun mening siyosatga mutlaqo aloqasi bo'lmagan maslaklarim uch tuyg'udan iborat: o'z otamni sevaman, janob Morrelni hurmat qilaman va go'zalim Mer-sedesning maftuniman. Mana, janobi oliylari, odil sudga aytadigan hamma gapim shu: ko'rib turibsizki, bu gaplarning siz uchun unchalik ahamiyati yo'q.

Dantes gapirayotganida Vilfor uning pok va ochiq chehrasiga tikilib turdi-da, sevgilisining so'zini esladi: Rene ayblanuvchining kimligini bilmasa-da, unga rahm-shafqat qilishni so'ragan edi. Jinoiy ishlarni va jinoyatlarni ko'ra- verib ko'zi pishib qolgan prokuror yordamchisi Dantesning har bir so'zi uning gunohsiz ekanini tasdiqlaydigan yangidan-yangi dalil ekanini ko'rib turardi. Chindan ham, soddadil, ochiq ko'ngil bu o'spirin yigitcha shirin so'z edi. Bu istaganda topilmaydi va faqat yurak amri bilan yuzaga chiqadi. U o'z baxtiga erishgani tufayli hamma narsaga mehr-muhabbat bilan qarardi (baxt eng yovuzlarni ham marhamatli kishiga aylantirib yuboradi), mana hozir ham uni ayblayotgan sudga yuragida to'lib-toshayotgan nazokat va mehr-muhabbat tuyg'ularini to'kib-solyapti. Vilfor uni juda jiddiy so'roq qilar, Edmonning qarashlarida, ovozida, harakatlarida esa uni so'roq qilayotgan kishiga nazokat va yaxshi tilakdan bo'lak hech narsa ko'rinmasdi.

«Yo tavba, – dedi ichida Vilfor, – bu juda azamat yigit ekan-ku. Bu holda Renening birinchi iltimosini ado etish men uchun qiyin bo'lmas, bunga imonim komil: bu bilan go'zal malikamni nihoyatda xursand qilaman, u hamma- ning oldida qo'limni samimiy qisibgina qo'ymay, burchak- ka tortib bo'sa ham beradi».

Bu shirin orzu Vilforning chehrasini ochib yubordi, so'ng hamma o'y-xayollardan qutulib Dantesga qaragan edi, uning chehrasidagi hamma o'zgarishlarni ko'rib tur-

gan Dantes ham kulib qo'ydi.

– Dushmanlaringiz bormi? – so'radi Vilfor.

– Dushmanlarim? – dedi Dantes. – Shukrki, hali hayotdagi ko'p narsalardan bexabarman, shuning uchun hali dushman orttirishga ulgurганиm yo'q. Ehtimol bir oz qiziq-qondirman, ammo hamisha itoatimdagilar bilan xushmuomalada bo'lishga harakat qilaman. O'n-o'n ikki matros mening qo'limda janobi oliylari, ulardan so'rang, meni otasidek bo'lmasa-da, bir ukasidek sevajaklarini o'zlari ham aytib berishadi.

– Dushmaningiz bo'lmasa-da, ehtimol sizga hasad qilib yurgan biror kishi bordir? Endigina o'n to'qqizga kirganningizga qaramay sizni kapitanlikka tayinlashyapti, bu siz uchun juda katta lavozim. Yana sevganingiz – go'zal qizga uylanyapsiz, dunyoda bunday baxtga juda kam odam muharraf bo'ladi. Sizga hasad qiladiganlarning bo'lishi uchun shuning o'zi ham yetib ortadi.

– To'g'ri, siz haqsiz. Ehtimol hasadchi bordir. Siz ko'pni ko'rgansiz, odamlarni mendan ko'proq bilasiz. Agar ana shu hasadchi o'z do'stlarim orasida bo'lsa, men uni bilmaganim yaxshi, toki unga nisbatan nafrat tug'ilmasin menda.

– Bu ham haq gap. Mumkin qadar hamisha yon-verindagi odamlarni ravshan ko'ra bilmoq kerak. Rostini ayt-sam, siz juda ajoyib yigitga o'xshaysiz nazarimda, siz uchun odil sudning odatdagi tartib-qoidalaridan chekinishga va haqiqatni ochib tashlashda yordam berishga qaror qildim... Mana sizni ayblayotgan maxfiy ma'lumot, xatni taniysizmi?

Vilfor cho'ntagidan xat oldi-da, Dantesga uzatdi. Dantes xatni o'qib, peshonasini tirishtirdi-da, dedi:

– Yo'q, bu xatni tanimayman, juda buzib yozibdi. Har qalay, buni juda usta odam yozgan. Ishim sizdek olijanob kishining qo'liga tushgan ekan, men o'zimni baxtiyor hisoblayman, chunki bu hasadchi chindan ham haqiqiy dushman ekan!

Shu so'zlarni aytganda, Dantesning chaqnab ketgan

ko'zlariga tikilib turgan Vilfor sirtidan sodda ko'ringan bu o'smirning yuragida samimiy ma'naviy kuch yashirilib yotganini angladi.

– Endi, – dedi Vilfor, – sud kursisida o'tirgan aybdor sifatida emas, boshiga kulfat tushgan kishi sifatida, shu savolga javob bering: bu egasi noma'lum xatda biror haqiqat bormi? – deb Vilfor Dantes qaytargan xatni stol ustiga jirkanib uloqtirdi.

– Bu xatdagi gaplarning hammasi to'g'ri, biroq ayni vaqtda unda birorta haq so'z yo'q; dengizchining vijdoni haqi. Mercedesga bo'lgan muhabbatim haqi, o'z otamning hayoti haqi, ont ichib aytamanki, chin haqiqat mana bunda...

– Qani, gapiring, – dedi Vilfor va ichida o'z-o'ziga dedi: «Qani endi shu payt meni Rene ko'rganda, jallod deb atamasdi, aksincha, mendan mamnun bo'lardi».

– Haqiqiy gap shundaki, biz Neapoldan chiqqanimizda kapitan Lekler asab kasaliga duchor bo'lib qoldi; kemada doktor yo'q edi, uni qirg'oqda to'xtashga hech ko'ndira olmadik, chunki u Elba oroliga tezroq borishga harakat qildi. Shundan keyin uning kasali og'irlashdi, ikki kun o'tgach o'limi yaqinlashayotganini sezdi, shekilli, meni huzuriga chaqirdi.

«Dantes, mening topshirig'imni albatta bajaraman deb ont iching, bu ish juda jiddiy», dedi menga u.

«Kapitan, ont ichaman», dedim.

«Men o'lgach, kapitan yordamchisi bo'lganingiz sababli siz kapitan bo'lib qolasiz, kapitanlikni qo'lga olingiz-da, Elba tomonga yo'l oling va Porto-Ferrayoda to'xtab, marschal huzuriga borasiz-da, mana bu xatni unga berasiz; ehtimol u yerda sizga boshqa bir xat yoki topshiriq berishar, o'sha topshiriqni men olishim kerak edi; mening o'rnimga buni siz bajarasiz, butun xizmat sizniki bo'ladi».

«Kapitan, topshiriqni bajo keltiraman, biroq marshalning oldiga kirish oson bo'lmasa kerak?»

«Mana bu uzukni unga berishni iltimos qilasiz, shu bi-

lan hamma to'siqlar bartaraf bo'ladi», – dedi kapitan va menga uzukni berdi. Ikki soat o'tgach, u hushdan ketib, tildan qoldi, ertasi kuni qazo qildi.

– Xo'sh, siz nima qildingiz?

– Men uning topshirig'ini ado etdim. Mening o'rnimda boshqa kim bo'lmasin shunday qilardi, albatta. Bu dunyodan ko'z yumayotgan kishining iltimosi hamisha muqaddasdir; ammo biz dengizchilar o'rtasida boshliqning iltimosi buyruqdir, uni bajarmaslik mumkin emas. Shunday qilib, men kemani Elba tomonga burdim va ikkinchi kuni yetib bordim; hammani kemada qoldirdim-da, bir o'zim qirg'oqqa tushdim. Ish o'ylaganimday bo'lib chiqdi: meni marshal huzuriga kiritishmadi. Shunda unga haligi shartli belgini – uzukni jo'natgan edim, sal vaqt o'tmay qarshimdagi hamma eshiklar ochildi-ketdi. Marshal meni qabul qildi, sho'rlik Leklarning qanday qilib vafot etganini so'rab-surishtirdi, so'ng kapitan aytganidek, bir xat berdi-da, shaxsan Parijga olib borib berishni buyurdi. Bu ham kapitanning topshiriqlaridan biri bo'lgani sababli, bajarishga va'da berdim. Bu yerga yetib kelgach, kemada barcha ishlarni bajo keltirib bo'lgach, qaylig'im qoshiga yugurdim. Malikam ko'zimga ilgarigidan ham go'zalroq ko'rinib ketdi. Morrel janoblarining yordami bilan cherkov orqali bo'ladigan hamma rasmiyatlarni joyiga keltirdik. So'ng, sizga ma'lum bo'lganidek, ziyofatda o'tirgandim, bir soatdan so'ng nikoh bo'lishi kerak edi, ertaga Parijga jo'namoqchi bo'lib turgan edim, ana shu sizni ham, meni ham nafratlantirib turgan maxfiy ma'lumotga binoan, meni qamoqqa olishdi.

– To'g'ri, to'g'ri, – dedi Vilfor, – chamamda, bu gaplaringizning hammasi to'g'ri, lekin bir narsada xatoga yo'l qo'ygansiz, ya'ni ehtiyotsizlik qilib hushyorlikni unutgansiz. Mana shu ehtiyotsizlik ham kapitanning buyrug'idan kelib chiqqan. Elba orolida olgan xatni bizga bering; chaqirganda darhol shu yerda hozir bo'lishga qat'iy va'da bering-da, do'stlaringiz huzuriga qayting.

– Demak, men ozodmanmi? – dedi quvonib ketgan Dan-

tes qichqirib.

– Ha, ozodsiz, faqat xatni bersangiz bas.

– U xat sizda bo‘lishi kerak, uni boshqa qog‘ozlarim bilan birga xodimlaringiz olgan edi, anavi qog‘ozlar orasidadir.

– To‘xtang, – dedi Vilfor shlyapasi va qo‘lqopini olib ketishga tayyorlanayotgan Dantesga, – to‘xtang! Xat kimga yozilgan edi?

– Parijda, Kok-Eron ko‘chasida istiqomat qiluvchi Nuarte janoblariga.

Momaqaldiroq ham Vilforga bu kabi tez va bexosdan zarba bermagan bo‘lardi: u gup etib kursiga cho‘kdi-da, so‘ng yana irg‘ib turdi. Dantesdan olingan qog‘ozlar bog‘lamini titib, dahshatli xatni topdi va ko‘zlarini olaytirib o‘qiy boshladi:

– Nuarte janoblariga, Kok-Eron ko‘chasi, o‘n uchinchi raqam, – dedi shivirlab, uning rangi endi batamom bo‘zari ketgan.

– Xuddi shunday, – dedi taajjublanib Dantes. – Siz u kishini taniysizmi?

– Yo‘q, – dedi shosha-pisha Vilfor, – qirolning sodiq xizmatkori fitnachilarni tanimaydi.

– Demak, gap fitna ustida borayotgan ekan-da? – so‘radi Dantes, u endi ish boshqacha tus olayotganini sezdi. – Qanday bo‘lmasin, men bu xatning mazmunidan bexabarman.

– To‘g‘ri, – dedi bo‘g‘iq ovozda Vilfor. – Biroq siz xat yuborilgan kishining nomini bilarkansiz-ku!

– Xatni shaxsan topshirish uchun o‘sha kishining nomini bilishim shart edi.

– Xatni hech kimga ko‘rsatganingiz yo‘qmi? – dedi Vilfor xatni o‘qigan sari rangidan qoni qochib.

– Vijdonim haqi, ont ichamanki, hech kimga ko‘rsatganim yo‘q!

– Elba orolidan Nuarte janoblariga xat olib kelayotganingizni hech kim bilmaydimi?

– O‘sha xatni bergan kishidan boshqa hech kim bil-

maydi.

– Bunisi yana ortiqcha boʻlibdi-da, ortiqcha! – dedi zoʻrgʻa ovoz chiqarib Vilfor.

Xatni oʻqigan sari uning rangi boʻzarib, peshanasi tiri-shaverdi, lablari koʻkarib, qoʻllarini qaltiroq bosdi, koʻzlari yondi. Bu holni koʻrgan Dantes ish yomon tomonga aylana-diganga oʻxshaydi, deb vahimaga tushdi.

Vilfor shu holda xatni oʻqib boʻldi-yu, ikki qoʻli bilan boshini mahkam siqqancha turgan joyida qotib qoldi.

– Janob, nima boʻldi sizga? – soʻradi zoʻrgʻa botinib Dantes.

Vilfor javob bermadi, boshini asta koʻtardi-da, xatni yana oʻqidi.

– Chindan ham siz bu xatning mazmunidan butkul be-xabarmisiz? – dedi u.

– Xuddi shunday, ont ichamanki, oʻlimdan xabarim boru bu xat mazmunidan xabarim yoʻq! Biroq sizga nima boʻldi? Tobingiz qochdimi? Telefon qilaymi? Biror kishini chaqiraymi?

– Keragi yoʻq, – dedi Vilfor oʻrnidan irgʻib turib, – oʻrnin-gizdan qimirlamang, tek turing; bu yerda siz emas, men buyruq beraman.

– Kechiring, – dedi koyinib Dantes, – sizga yordam be-ray degandim, xolos.

– Menga hech narsaning keragi yoʻq. Bir daqiqa be-hushlik, vassalom. Menga gʻamxoʻrlik qilishdan koʻra, taq-diringizni oʻylang. Qani, javob bering.

Dantes savol berilishini kutdi, biroq Vilfor anchagacha savol bermay turdi, soʻng yana kursiga choʻkdi-da, xatni uchinchi marta oʻqib chiqdi.

– Bu yerda nimalar yozilganidan u mabodo xabardor boʻlsa, – dedi ohistagina ovoz chiqarib Vilfor, – va u qachondir Nuarte mening otam ekanini bilib qolsa, unda men xarob boʻlaman, batamom xarob boʻlaman!

Vilfor baʼzi-baʼzida Edmonga tikilib qoʻyar va shu bi-lan goʻyo yurakdan chuqur joy olgan va aslo tilga olin-maydigan sirlarni bilib olmoqchi boʻlardi.

– Shubhalanishga hojat yo‘q! – deb qichqirib yubordi to‘satdan Vilfor.

– Xudo haqi, – dedi sho‘rlik o‘spirin, – mendan shubhalanayotgan bo‘lsangiz, mabodo mendan gumon qilayotgan bo‘lsangiz, so‘roq qilavering. Men javob berishga tayyorman.

Vilfor zo‘r-bazo‘r o‘zini bosib oldi-da, ovozini salmoqdor qilib dedi:

– So‘roqlarga bergan ma‘lumotingiz oqibat-natijada gardaningizga juda og‘ir gunohlarni yuklayapti. Shu sababdan hali o‘ylaganimdek, sizni hoziroq bo‘shatib yubora olmayman. Bunday qilishdan oldin tergovchi bilan uchrashmog‘im darkor. Mening sizga qanday munosabatda ekanimni o‘zingiz ko‘rib turibsiz.

– To‘g‘ri, buning uchun men sizdan minnatdorman! – dedi ovozini baland ko‘tarib Dantes, – siz menga sudya sifatida emas, xuddi bir do‘st-birodar sifatida marhamat qildingiz.

– Xullas, men sizni yana bir oz vaqt bo‘shatmay tura-man, aminmanki, bu uzoqqa bormas. Sizga qarshi asosiy aybnoma shu qog‘oz, mana qarab turing...

Vilfor pechka oldiga bordi-da, xatni o‘tga tashladi va yonib tugamaguncha qarab turdi.

– Mana, ko‘rdingizmi, – davom ettirdi so‘zini Vilfor, – men bu hujjatni yo‘q qildim.

– Siz odil sudyalarning odili! – deb xitob qildi Dantes, – sizning turgan-bitganingiz rahm-shafqatning o‘zi!

– Biroq quloq soling gapimga, – davom etdi Vilfor. – Bu ishimi ko‘rib siz menga ishonaverishingiz mumkin ekaniga amindirsiz, albatta.

– Buyursinlar, men sizning buyrug‘ingizni bajarishga tayyorman.

– Yo‘q, – dedi Dantes qoshiga kelib Vilfor, – yo‘q, men sizga buyruq bermoqchi emasman, faqat maslahat bermoqchiman, tushudingizmi?

– Ayting, maslahatingizni, bir buyruq deb bilib, bajo keltiraman.

– Men sizni kech kirgancha shu yerda, sud binosida qoldirib ketaman. Ehtimol boshqa birov so‘roq qilar. Menga nima degan bo‘lsangiz, unga ham o‘sha gaplarning hammasini aytib bering, ammo xat to‘g‘risida aslo og‘iz ocha ko‘rmang!

– Janoblari, xotirjam bo‘ling, xuddi shunday qilaman.

Hozir go‘yo Vilfor yalinib-yolvorar, aybdor esa uni tinchlantirardi.

– Bilasizmi, – dedi Vilfor, hali ham xat shaklini yo‘qotgan kulga tikilib, – endi xat yo‘q qilindi. Shunday xat bo‘lganini faqat sizu men bilamiz. Uni pesh qilib sizni ayblay olmaydilar endi, mabodo xat to‘g‘risida og‘iz ochgudek bo‘lishsa, inkor eting, dadil turib inkor etavering, ana shunda, hamma xavf-xatardan qutulasiz.

– Xotirjam bo‘ling, inkor etaman, – dedi Dantes.

– Juda soz, – dedi Vilfor va qo‘ng‘iroqqa qo‘l uzatdi, so‘ng bir oz to‘xtadi-da, so‘radi: – Sizda faqat bittagina shu xatmidi?

– Faqat shu xat.

– Ont iching!

Dantes qo‘lini ko‘tardi.

– Ont ichaman! – dedi u.

Vilfor qo‘ng‘iroq chaldi.

Polisiya komissari kirdi.

Vilfor uning qulog‘iga bir necha so‘z aytdi: komissar unga javoban boshini bir necha karra irg‘atdi.

– Komissar ketidan boring, – dedi Vilfor Dantesga.

Dantes egilib xo‘p dedi-da, yana bir marta Vilforga ko‘zi bilan minnatdorchilik bildirib chiqib ketdi.

Eshik yopilishi bilanoq Vilfor oyoq-qo‘li bo‘shashib hushdan ketdi-da, stulga yiqildi.

Bir oz vaqt o‘tib, o‘ziga keldi-yu shivirlab, dedi:

– Yo Parvardigor! Kishining hayoti va baxti ba‘zan arzimagan bir narsaga bog‘liq bo‘lib, qil ustida turarkan-a!.. Qirollik prokurori Marselda bo‘lganda-chi? Yoki men emas, tergovchini chaqirganlarida-chi? Unda nima bo‘lardi? Butkul halok bo‘lardim, halok!.. Mana bu xat, bu la‘-

nati xat meni jahannamga uloqtirardi, qo'yardi!.. Eh... ota! Ota! Nahotki sen umr bo'yi mening baxtinga g'ov bo'lsang! Nahotki men sening o'tmishing bilan o'la- o'lguncha kurashsam?

Ammo, nima bo'ldi-yu, to'satdan uning chehrasi ochilib ketdi: qiyshayib borayotgan lablari jilmaydi, alanglab qolgan ko'zlari go'yo biror narsa ustida o'yga cho'mgan- day bir nuqtaga tikilib qoldi.

– Ha, ha, xuddi shunday! – dedi qichqirib u. – Meni halokat jariga uloqtirishi kerak bo'lgan bu xat men uchun baxt manbai bo'lishi ham mumkin... Qani, Vilfor, boshla ishni!

Qirolik prokurorining yordamchisi aybdor dahlizdan allaqachon chiqib ketganini bilib oldi-da, tashqariga chiq- di va tez odim tashlab qaylig'ining uyi tomonga yo'l oldi.

VIII. IF QAL'ASI

Polisiya komissari dahlizga chiqdi-da, ikki jandarmni imladi. Ulardan biri Dantesning o'ng tomoniga, ikkinchi- si esa chap tomoniga o'tdi. Sud binosiga kiradigan eshik ochildi-yu, aybdorni har qanday odamni ham vahimaga soladigan uzun va qorong'i dahlizdan olib ketdilar.

Vilforning kvartirasi sud binosiga yondosh bo'lganidek, sud binosi ham turmaga yondosh edi. Bu fayzsiz bir bino bo'lib, uning oldida Akkul qo'ng'iroqxonasi qad ko'tarib turibdi.

Bir necha marta burilgach, Dantes oynasiga temir pan- jara o'rnatilgan eshikka ro'baro' bo'ldi. Komissar temir to'qmoq bilan eshikni uch marta urdi; bu to'qmoq xuddi uning ko'kragiga urilgandek tuyuldi Dantesga. Eshik ochil- di, jandarmlar hayron bo'lib turgan mahbusni asta itarib yuborishdi. Dantes ostonadan o'tishi bilan eshik qarsillab yopildi. U endilikda boshqa havo bilan – dim va og'ir havo bilan nafas olardi – u turmada edi. Uni toza, lekin tamba- lari vazmin, derazalariga temir panjara qoqilgan xonaga

qo'yishgan edi. Dantesning bu yangi kulbasi uni uncha vahimaga solmagan edi. Buning ustiga qirollik prokurori yordamchisining hamdardlik bilan aytgan so'zlari hamon uning qulog'ida jaranglab, umidvorlik tuyg'usi bilan tassalli berib turardi.

Dantesni turmaning shu xonasiga keltirganlarida kunduz soat to'rtga borib qoldi. Bu voqea, boshda aytganimizdek, 28 fevralda yuz berdi; mahbus xonasini sal o'tmay zimiston bosdi.

Shu zahoti uning quloqlari ding bo'ldi. Salgina tovush eshitalishi bilan Dantes meni bo'shatib yuborgani kelyaptilar, deb o'ylab irg'ib o'rnidan turib eshik tomonga yugurardi; biroq tovush asta-sekin boshqa tomonga o'tib keltardi. Dantes esa yana o'rindiqda o'tirganicha qolardi.

Nihoyat kech soat o'nlarda, Dantes umidini uza boshlaganda, yana g'ala-g'ovur eshitildi; bu gal, shubhasiz, tovush uning xonasi tomonga qarab kelayotgan edi. So'ng dahlizda qadam tovushlari eshilib, uning eshigi yonida to'xtadi; qulf kaliti buraldi, tambalar g'ijirladi; so'ng qalin qayindan yasalgan og'ir eshik ochildi-da, ikki mash'ala turmaning zimiston xonasiga ko'zni qamashtiradigan yog'du sochib yubordi. Ana shu yog'duda jandamlarning yaltirab turgan quollariga va qilichlariga Dantesning ko'zi tushdi.

U oldinga otilmoqchi edi, ammo obdan qurollangan soqchilarni ko'rdi-yu tarvuzi qo'lidan tushib, joyidan qimir-lamay qoldi.

– Menga keldingizmi? – so'radi Dantes.

– Ha, – deb javob qildi jandamlardan biri.

– Qirollik prokurori yordamchisining buyrug'i bilanmi?

– Albatta.

– Juda soz, – dedi Dantes, – qani boshlang, men tay-yorman.

Vilforning buyrug'i bilan keldi bular, degan ishonch sho'rlik yigitchani hamma vahimalardan ozod etgan edi. U xotirjam, erkin qadam tashlab tashqari chiqdi-da, o'ziyoq jandamlar o'rtasidan o'rin oldi.

Turma eshigi oldida yopiq faytun turardi. Oldinda faytunchi, uning yonida polisiya boshlig'i o'tiribdi.

– Bu faytun menga kelganmi? – so'radi Dantes.

– Sizga, – deb javob qildi jandarlardan biri, – qani, o'tiring.

Dantes e'tiroz bildirmoqchi bo'ldi, biroq eshik ochilishi bilan uni itarib faytunga kiritib yuborishdi. U qarshilik ko'rsatolmadi va ko'rsatishni istamadi ham; bir dam o'tmay izvoshning orqa kursisiga, ikki jandarm o'rtasiga cho'kkanini o'zi ham bilmay qoldi; yana ikki jandarm ro'paraga o'tirdi, shu onda og'ir faytun dahshat bilan taraq-turuq qilib o'rnidan qo'zg'aldi.

Mahbus derazaga qaradi; ularga temir panjara qoqilgan. Demak, u birinchi turmadan chiqib, ikkinchisiga tushibdi, xolos. Yangi turmaning ilgarigisidan farqi shuki, u g'ildiraklar ustida bo'lib, noma'lum joyga yo'rg'alab kettyapti. Dantes zo'rg'a qo'l kiradigan panjaralar orasidan uni Kessari ko'chasidan, so'ng Sen-Loran va Taramis ko'chalaridan olib o'tib, daryo qirg'og'iga tushganlarini ko'rib turdi.

Sal o'tgach, yodgorlik oldidan o'tayotganda Dantesning ko'zi Port boshqarmasining binosiga tushdi. Unda chiroqlar charaqlab yonib turardi.

Faytun to'xtadi, polisiya boshlig'i tushdi-da, qorovulxona oldiga bordi; u yerdan o'nga yaqin soldat chiqib ikkita-ikkita bo'lib saf tortishdi. Qirg'oqdagi lampa chiroqlar yog'dusida soldatlarning qurollari yaltirab turibdi.

«Nahotki bularning hammasi men uchun qilinayotgan bo'lsa!» – o'yladi Dantes.

Polisiya boshlig'i kalit bilan eshikni ochdi va go'yo uning unsiz savoliga javob bergandek bo'ldi: Dantesga soldatlar o'rtasida faytundan qirg'oqqacha tor yo'lka ochib qo'yilgan edi.

Oldingi o'rindiqdagi ikki soldat birinchi bo'lib faytundan tushdi, ularning ketidan Dantes, so'ng uning ikki yonboshida o'tirgan soldatlar tushdi. Hamma bojxonaning xodimi kutib turgan qayiq tomonga yurdi. Soldatlar

hayron bo'lib Dantesga tikilishardi. Hash-pash deguncha uni rul oldiga, to'rt jandarm o'rtasiga o'tqazdilar, polisiya boshlig'i esa qayiq burniga o'tirdi. Bir siltab qayiqni qirg'oqdan ajratdilar, so'ng to'rt eshkakchi qayiqni Pilon to-monga jadal haydab ketdi. Qayiqdagilar qichqirgan edi, portni to'sib turgan zanjir pastga tushirildi-yu, Dantes portdan chiqib ketganini angladi.

Toza havoga chiqqanda mahbusning birinchi tuyg'u-si – quvonch tuyg'usi edi. Ochiq havo – erkinlik timsoli. U chuqur-chuqur nafas olib, o'z qanotida tun va dengiz-ning sirli hidini ko'tarib kelayotgan hayotbaxsh havoni huzur qilib yutardi. Biroq ko'p o'tmay, u qayg'uli uh tortdi; ertalab, qamoqqa olinmasidan sal oldin baxt nurlariga ko'milib o'tirgan «Rezerv» mayxonasi yonidan o'tib bora-yotgan edi. Yarqirab yoritilgan derazalar orqasidan o'yin-kulgilarning quvnoq ovozi eshitilardi Dantesga.

Dantes qo'llarini qovushtirib, osmonga ko'z tikdi-da, duo o'qiy boshladi.

Qayiq yo'lida davom etaverdi; u O'lik Kalla yonidan o'tdi, Faro ko'rfaziga yondashdi-da, batareyani aylanib o'ta boshladi. Dantes hech narsaga tushunmasdi...

– Meni qayoqqa olib borishyapti? – so'radi u jandarm-larning biridan.

– Hozir ko'rasiz.

– Har holda...

– Siz bilan gaplashish taqiqlangan.

Dantes soldatmijoz odam edi, shu sababli javob be-riish taqiq etilgan jandamlarga savol berishni o'ziga ep ko'rmadi-da, jim bo'ldi.

Ana shu payt uning miyasida g'alati fikrlar chuvalasha boshladi: bu omonatgina yasalgan qayiqda uzoqqa bo-rib bo'lmaydi, atrofdan birorta kema yo'q; Dantes meni qir-g'oqning uzoq bir joyiga olib borib, «siz ozodsiz» deb bo'shatib yuboradilar, deb o'yladi. Uning qo'l-oyog'ini bog'laganlari yo'q, qo'lga kishan solganlari ham yo'q. Bu-lardan u, ishning oxiri baxayr bo'ladi, degan xulosaga kel-gan edi. Buning ustiga marhamatli rahmdil prokuror

yordamchisi mash'um Nuarte nomini tilga olmasangiz bas, boshqa hech narsadan xavotir bo'lmang, degan ediku! Vilfor uning ko'zi oldida yagona ayblovchi hujjat hisoblanishi mumkin bo'lgan xatni yondirib tashladi-ku axir.

Dantes, zimiston vaqtlarda atrofda nimalar borligini bilib olish niyatida bo'shliqni o'lchashga o'rgangan dengizchining ko'zi bilan hamma yoqqa nazar tashlab, bu yog'i nima bo'larkan, deb indamay kutib turaverdi.

Minorasida mayoq yonib turgan Ratonno oroli o'ng tomonda qoldi, qayiq qirg'oqqa yaqinroq keldi-da, Katalan ko'rfazida to'xtadi. Mahbusning ko'zlari yanada charaqlab ketdi: Mercedes shu yerda edi, uning ko'ziga qirg'oqda g'ira-shira ayol gavdasi ko'rinayotgandek tuyuldi.

Mercedes, o'z oshig'i undan uch yuz qadamgina narida turganini his etayotganmikin-a?

Butun Katalaniyaning faqat bitta derzasida chiroq yonardi, Dantes diqqat bilan tikilib, bu qaylig'ining derzasi ekaniga ishonch hosil qildi. Qishloqda faqat Mercedes uxlamagan edi. Mabodo u qattiq qichqirsa, ovozini qaylig'i eshitardi, albatta... U esini yo'qotganga o'xshab qichqirsa, jandarmlar nima deyishi mumkin? Shuning uchun u og'zini ochmadi va derzadan ko'zini uzmay o'tib ketaverdi.

Qayiq esa to'xtamay olg'a borardi. Ammo mahbusning xayoli qayiqda emas, Mercedesda edi. Yorug' deraza bor-bora orqasiga yashirindi. Dantes orqasiga qaradi: qayiq tobora qirg'oqdan yiroqlashib borardi, u o'z o'y-xayollari bilan band bo'lib, eshkaklarni yelkanlarga almashtirishganini sezmay qolgan edi. Endilikda qayiqni shamol yurgazib borayotibdi.

Dantes jandarmdan so'rab-surishtirishni endi istamayotgan bo'lsa-da, biroq uning yoniga borib qo'ltig'idan tutib dedi:

– O'rtoqlar! Vijdoningiz va soldat degan unvoningiz haqi, o'tinib so'rayman, menga rahm-shafqat qilib, javob bering. Men bir soddadil, ko'ngli bo'sh, xushfe'l kapitan-

man, qandaydir xoinlikda ayblayotgan bo'lsalar-da, men vijdoni pok fransuzman. Meni qayoqqa olib boryapsiz, ayting axir? Men bir dengizchi sifatida o'z burchimni bajaraman va taqdirga tan beraman.

Jandarm ensasini qashib o'rtog'iga qaradi. U: «Endi ay-tish mumkin, chamamda», degandek imo qildi. Shundan so'ng jandarm Dantes tomonga o'girilib, dedi:

– O'zingiz marsellik va dengizchi bo'la turib qayoqqa borayotganimizni bilmaysizmi?

– Vijdonim haqi, bilmayman.

– Payqamayapsizmi?

– Yo'q.

– Rostdan-a?

– Xudo haqi, avliyo-anbiyolar haqi, bilmayman!

– Buyruqni-chi?

– Men, baribir, o'n daqiqadan keyin, yarim soatdan keyin, yoki ehtimol, bir soatdan keyin bilib oladigan narsani siz aytib bersangiz nima bo'пти? Buni axir buyruq taqiqlamagan-ku! Agar aytib bersangiz, meni turli shak-shubhalardan qutqaradingiz, xolos. Bir do'stim sifatida, iltimos qilaman sizdan. Ko'rib turibsizki, men qarshilik ko'rsatayotganim yo'q, qochmoqchi bo'layotganim ham yo'q. Bunday qilishga imkoniyatning o'zi ham yo'q. Xo'sh, qayoqqa boryapmiz!

– Siz yo ko'zdan qolgansiz yoki hech vaqt Marsel portidan chiqmagansiz. Bo'lmasa sizni qayoqqa olib borayotganlarini bilib olardingiz.

– Bilmayapman-da.

– Hech bo'lmasa atrofga bir qarang.

Dantes o'rnidan turdi-da, qayiq borayotgan tomonga qaradi va yuz sarjin narida qop-qora qoyani ko'rdi. Uning tepasida mudhish If qal'asi qad ko'tarib turardi. Kishini hadsiz vahimaga soluvchi beso'naqay, g'alati bu turma, mana uch yuz yildirki, bir-biridan dahshatli mish-mishlar bilan marselliklarni dahshatga solib keladi. Bu qal'a Dantes qarshisida to'satdan namoyon bo'ldi-yu, o'linga hukm qilingan shaxsga jallod kundasi qanday ta'sir qilsa,

Dantesga ham xuddi shunday ta'sir qildi.

– Yo Tangrim! – qichqirib yubordi u. – If qal'asimi bu? Nega biz bu qal'aga boryapmiz?

Jandarm iljaydi.

– Meni u yerga qamashlari mumkin emas-ku, axir! – so'zini davom ettirdi Dantes. – Og'ir siyosiy jinoyatchilargina davlat turmasi bo'lgan mana shu If qal'asiga qamaladilar. Men hech qanaqa jinoiy ish qilganim yo'q. Yoki If qal'asidayam biror tergovchi, birorta sudya bormi?

– Mening bilishimcha, – dedi jandarm, – u yerda faqat komendant, turma xodimlari, garnizon va mustahkam devorlardan boshqa hech kim, hech narsa yo'q. Bo'ldi, shunisi ham yetar, jo'ra, mug'ambirlik qilib o'zingizni go'llikka solavermang, meni masxara qilyapti bu deb o'ylashim mumkin.

Dantes jandarmning qo'lini sindirgudek qisdi.

– Hali meni If qal'asiga olib borib, o'sha yerda qoldirishadi, deng?

– Shunday bo'lsa kerak, – dedi jandarm, – lekin qo'limni bunchalik qattiq qisishning hojati yo'q edi.

– Hech qanday tergovsiz-a? Hech qanday rasmiyatsiz-a?

– Hamma rasmiy tartibotlar bajo keltirilgan, tergov ham tugagan.

– Vilfor janoblarining va'dalariga qaramay-a?

– Vilfor janoblari sizga nima va'da qilganidan bexabarman, – dedi jandarm, – faqat If qal'asiga borayotganimizni bilaman, xolos. O'h-o'! Hoy, nima qilyapsiz? Bu yoqqa, o'rtoqlar, bu yoqqa! Mahkam ushlang!

Dantes yashin tezligida harakat qilib, o'zini dengizga otmoqchi edi, biroq tajribali jandarm buni payqab qoldi. Yigitchaning oyoqlari qayiq tagidan uzilar-uzilmas to'rt jandarmning zabardast qo'llari mahkam tutib olgan edi.

U g'azab bilan qichqirdi-da, qayiq ichiga yiqilib tushdi.

– Eh-e, og'ayni, seni qara-ya! – dedi jandarm tizzasi bilan uning ko'kragini bosib. – Dengizchining ontini baja-

rish shunaqa bo'larkan-da. Mo'min-qobil deb ishonsang, boshing baloga qolarkan-ku! Endi sal qimirladingmi, peshonangdan otib tashlayman sen mo'ltonini! Buyruqning birinchi moddasiga xilof ish qilib qo'ydim: biroq bilib qo'yginki, ikkinchisi juda joyiga keltirib bajariladi.

Jandarm chindan ham qurolining og'zini Dantesning chakkasiga taqab turib oldi. Dastlabki daqiqalarda Dantes halokatli bir harakat qilib, bu kutilmagan holda boshiga tushgan va hozir kekirdagidan siqib turgan, falokatdan qutulmoqchi ham bo'ldi. Biroq bu falokat to'satdan kelgan ekan, uzoqqa bormasligi kerak deb o'ylab, Vilforning va'dasini esladi. Buning ustiga jandarmlar qo'lida mana shu qayiqda o'lib ketish pastkashlik va razillikdir.

U taxtaga o'tirdi-da, alamiga chidolmay qo'lini qattiq tishladi.

Qayiq qattiq zarbadan silkinib ketdi. Eshkakchilardan biri, irg'ib qayiq tumshug'i bilan urilgan qoyaga tushdi, arqonning g'iyqillab yechilayotgani eshitildi. Shunda Dantes qirg'oqqa yetib kelganlarini angladi.

Uning qo'llari-yu, yoqasidan tutib turgan jandarmlar, uni zo'rlab turg'izishdi, qirg'oqqa chiqarib, qal'a darvozasi tomon sudrab ketishdi: ularning ketidan nayza taqilgan miltiq ko'targan polisiya boshlig'i bormoqda edi.

Dantes qarshilik ko'rsatishning foydasi yo'qligini bilardi. Uning sekin sudralib borishi qarshilik ko'rsatayotganidan emas, loqaydligidan, hafsalasi pir bo'lganidan edi. Uning boshi aylandi, mast kishi singari gindirakladi. U yana ikki qator soldatni ko'rdi, ular qiyalikda saf tortib turishardi. Zinapoyalar oyog'ini ko'tarib borishga majbur qilayotgandek tuyulardi unga, darvozadan ichkariga kirganini, darvoza ketidan taqa-taq bekilganini sezdi. Biroq bularning hammasi uning ko'ziga go'yo tuman ichidagidek g'ira-shira chalinardi, u biror narsaning nimaligini ajratishdan ojiz edi. Dantes hatto mahbuslarni qiy-noqqa soluvchi dengizni ham ko'rmadi. Mahbuslar poyonsiz bu dengizga ko'z tashlaganlarida undan o'ta

olmasliklariga aqllari yetib dahshatga tushar edilar.

Bir daqiqa to'xtashganda, Dantes bir oz o'ziga keldida, atrofga qaradi. U chor atrofi baland devor bilan o'ralgan to'rt burchakli hovlida turardi. Soqchilarning bir tekis bosayotgan qadamlarini eshitdi. Ular chirog'i yonib turgan ikki-uch deraza yonidan o'tganda, qurollari yalt-yalt etib ketardi.

Dantes bir muddat joyidan qimir etmay turdi. Uning endi qochib ketishi mumkin emasligini bilgan jandarm-lar Dantesni qo'yib yuborishdi. Aftidan buyruq kutisha-yotgan edi; oxiri kimningdir ovozi eshitildi:

– Qani mahbus?

– Shu yerda, – deb javob berishdi jandarmlar.

– Qani, mening ketimdan yursin, men uni xonasiga olib borib qo'yaman.

– Boring, – deyishdi jandarmlar Dantesni itarib.

Dantes turma xodimi ketidan bordi. Xodim uni yerto'laga o'xshash xonaga olib kirdi: qip-yalang'och, zax devorlardan ko'z yoshi kabi suv tomchilab turardi. Piliqi qandaydir sassiq yog'da qalqib turgan qorachiroq dahshatli kulbaning yaltiroq devorlariga va mahbusni olib kelgan kishiga g'ira-shira yog'du tashlab turardi. Kiyimi nochor, yuzi beo'xshov bu shaxs turmaning eng past darajadagi xodimlaridan bo'lsa kerak.

– Bu kecha siz mana shu yerda yotasiz, – dedi u. – Kech bo'lib qoldi, komendant janoblari uxlab yotibdilar. Ertaga sizga doir farmoyishni o'qiganlaridan so'ng, u kishi sizga ehtimol boshqa xona berar. Hozircha mana non, suv; anavi burchakda poxol. Mahbusga tegadigani mana shular, bundan boshqa narsani u orzu qilolmaydi bu yerda. Xayrli kech...

Dantes unga javob berishga ulgurmasdan, xodim suv va nonni qayoqqa qo'yganini, ko'rpa-yostig'i hisoblangan poxol qaerdaligini ko'rib olishga ulgurmasdan, qorachiroqni oldi-da, eshikni berkitib ketdi-qoldi, zax devor-larni salgina yoritib turgan chiroqdan ham mahbusni mahrum etdi.

U sukunat va qorong'ilik qa'rida yolg'iz qoldi. Zindondan xunuk va fayzsiz bu yerda lovillab turgan vujudi muzlab qolayotganini sezdi.

Ertalab, quyoshning dastlabki nurlari bu g'urbatxonani g'ira-shira yorita boshlaganda, turma xodimi kelib, mahbusni shu yerda qoldirish haqida buyruq berilganini aytdi. Dantes qandaydir temir qo'l uni kecha turgan joyiga qoqib qo'yganday, hamon o'sha joyida tik turgan edi. Faqat ko'z yoshi to'kmasa ham ko'z-qovoqlari shishib ketgan edi. U qimir etmay, yerga tikilib turardi.

Dantes butun tunni tik turib, ko'z yummay o'tkazdi.

Turma xodimi unga yaqinlashib atrofidan aylanib o'tdi, ammo Dantes uni ko'rmadi, chog'i.

Xodim uni yelkasidan turti. Dantes seskanib ketdi va boshini chayqadi.

– Uxlamadingizmi? – so'radi turma xodimi.

– Bilmadim, – javob qildi Dantes.

Turma xodimi taajjub bilan tikildi unga.

– Qorningiz ochgani yo'qmi? – yana so'radi u.

– Bilmadim, – takrorladi Dantes.

– Hech nima kerak emasmi sizga?

– Komendantni ko'rmoqchiman.

Turma xodimi yelkasini qisdi-da, chiqib ketdi.

Dantes uning ketidan qarab qoldi, yarim ochiq eshik tomonga qo'lini uzatdi, ammo eshik taraqlab bekildi.

Shunda u o'krab yig'lab yubordi, to'lib-toshib yotgan yoshlari ko'zidan jilg'adek oqa ketdi. U tiz cho'kdi, Xudoga yalinib-yolvorib ibodat qildi, butun hayotini, qilmishlarini esladi va shu yoshimda bunday jazoga loyiq qanday gunoh qilib qo'ydim ekan, deb o'z-o'ziga savol berdi.

Shu holda bir kun o'tdi. Dantes bir necha ushoq nonni zo'r-bazo'r yutib, bir necha qultum suv ichdi, xolos. U goh xayolga cho'mib ketar, goh qafasga tushgan yirtqich hayvon kabi devor bo'ylab gir aylanardi.

Ayniqsa bir fikr uni qattiq jazavaga solardi: qayoqqa olib borayotganlarini bilmay qayiqda jim, beparvo o'tirganidan achchig'i chiqardi uning. Axir u shuncha vaqt

ichida o'n marta suvga sakrab tushib ketishi mumkin edi-ku. Mohirona suzish va suv tagiga sho'ng'ib ketishda butun Marselda tengi yo'q Dantes soqchilarga chap berib suv tagida gumdon bo'lishi, qirg'oqqa chiqib olib, qochishi, biror dasht-biyobon yoki bo'g'ozda yashirinib yotishi, keyin Genuya yoki Katalani kemasiga tushib Italiya yoki Ispaniyaga borishi va u yerdan xat yozib Mercedesni chaqirib olishi mumkin edi-ku! Och-yalang'och qolaman deb o'ylamasdi u, chunki taqdir uni qaysi mamlakatga uloqtirib tashlamasin, juda kam topiladigan mohir dengizchini hamma yerda qo'llashadi; u italyan tilida toskanlikdek, ispan tilida Kastiliya farzandidek gapirardi. U Mercedes va otasi bilan erkin va baxtiyor yashab yurardi. Mana endi esa buning aksi bo'lib, u If qal'asida, mana shu turmada mahbus bo'lib qamoqda o'tiribdi; bu yerdan qutulib chiqish amri mahol: u otasi qay ahvolda, Mercedesning taqdiri nima bo'ldi, bexabar. Vilforning so'zlariga ishonib mana shu balolarga uchradi u. Bu ahvolda jinni bo'p qolish ham hech gap emasdi, u darg'azab bo'lib turma xodimi keltirgan yangi poxol ustida dumalardi.

Ertasi xuddi shu soatda turma xodimi kirib keldi.

– Xo'sh, ahvol qalay? – dedi u, – bir oz es-hushingizni yig'ib oldingizmi?

Dantes javob bermadi.

– E, bas endi, hadeb diqqat bo'lavermang! Istagingiz nima, ayting. Ayting axir!

– Komendantni ko'rishni istayman.

– Buning iloji yo'q dedim-ku, sizga, – javob qildi turma xodimi o'kinch bilan.

– Nega iloji yo'q?

– Chunki turma ustavida mahbuslarning u bilan uchrashuvi taqiq qilingan.

– Bo'lmasa bu yerda nimaga ruxsat bor?

– Yaxshilab yemak-ichmakka, o'z pulingizga albatta; sayr qilmoq, ba'zan kitob o'qimoq mumkin.

– Kitob kerak emas menga, sayr qilishni istamayman, hozirgi ovqat yetadi menga. Men faqat bir narsani – ko-

mendantni ko'rishni istayman.

– Siz hadeb shu talab bilan menga yelimday yopishaversangiz, ovqatni keltirmay qo'yaman.

– Nima bo'пти? Shu bilan meni qo'rqitmoqchimisiz? Agar shunday qilsang, – dedi Dantes, – ochdan o'laman-qo'yaman, tamom-vassalom!

Bu so'zlarni Dantes shunday ohangda aytdiki, turma xodimi uning mahbusi o'limiga ham rozi ekanini angladi. Har qanday mahbus turma xodimiga o'n tanga daromad keltirardi, shuning uchun turma xodimi u o'lib qolgudek bo'lsa, qancha zarar ko'rajagini hisoblab ko'rida, mehribonona dedi:

– Hoy, menga qarang: sizning iltimosingizni bajarishning hech iloji yo'q; shunday bo'lgach, iltimos qilish foydasiz. Shu vaqtga qadar komendant birorta mahbusning iltimosiga binoan uning xonasiga kirgani yo'q, yaxshisi jimgina o'tiravering, sayr qilishga ruxsat berishadi, ana shunda komendantni uchratib qolishingiz mumkin. O'shanda unga murojaat qilsangiz bo'lar, agarda u lozim topsa, savollaringizga javob berar.

– Bunday uchrashuvni qancha vaqt kutish mumkin?

– Kim bilsin? – dedi turma xodimi. – Bir oy, uch oy, yarim yil, ehtimol bir yil o'tgach uchrasharsiz.

– Juda uzoq-da bu, – dedi Dantes, – men uni hozir, shu daqiqaning o'zida ko'rmoqchiman.

– Qaysarlik qilib hadeb bir gapni aytavermang, bu holda ikki hafta o'tar-o'tmay jinni bo'lib qolasiz.

– Nahotki? – dedi Dantes.

– Ha, jinni bo'lasiz; jinnilik hamisha mana shundan boshlanadi. Bizda shunaqa bir hol yuz berdi. Sizdan oldin shu yerda bir abbat turgan edi... U komendantga bo'shatib yuborsang million frank beraman deb hech to'xtamay aljiy berdi, oxiri aqldan ozib, jinni bo'lib qoldi.

– U bu yerdan qachon ketgan edi?

– Bundan ikki yil burun.

– Uni ozod qilib yuborishdimi?

– Yo'q, karserga tiqib qo'yishdi.

– Hoy, menga qara, – dedi Dantes, – men abbat emasman, jinni ham emasman. Ehtimol, keyin aqldan ozarman, biroq baxtga qarshi hozircha aql-hushim joyida. Men senga boshqa narsa va'da qilaman.

– Nima ekan u?

– Men senga millionlar va'da qilmayman, chunki mening bunaqa pulim yo'q. Lekin sen Marselga borganingda Katalaniga borib Mercedes degan qizga mening xatimni, hatto xat emas, ikki satr yozuvimni yetkazishga va'da qilsang yuz ekyu beraman.

– Agarda men bu ikki satr xatni olib borib bersamu, u yerda meni tutib olishsa, u taqdirda men yiliga ming livr oladigan o'rnimdan ajralaman, yana qo'shimcha daromadim va ovqat ham bor bu yoqda. Ko'rib turibsizki, uch yuzni olaman deb, o'zimni ming livrdan mahrum etadigan yo'lga yursam, ahmoqlik qilgan bo'lur edim.

– Mayli, sening aytganing bo'lsin, – dedi Dantes. – Lekin quloq sol va esingda tutginki, sen Mercedesga xatni olib bormasang yoki jilla bo'lmasa, mening shu yerdaligimni unga xabar qilmasang, bir emas, bir kun eshik orqasida poylab turaman-da, eshikdan kirishing hamon stulcha bilan qarsillatib solaman-da, kallangni majaq-majaq qilib tashlayman.

– Ha-ha! Bu po'pisa-ku! – dedi turma xodimi bir oz orqaga tisarilib va himoyaga tayyorlanib. – Darhaqiqat, miyangiz aynigani rostga o'xshaydi. Abbat ham shundan boshlagan edi, uch kundan so'ng siz ham unga o'xshab quturib to'polon ko'tarasiz. Xayriyatki, If qal'asida karserlar bor.

Dantes stulchani ko'tarib boshi ustida aylantirdi.

– Xo'p-xo'p, – dedi turma xodimi, – endi siz komendantni albatta ko'rmoqchi ekansiz, men unga aytaman.

– Boshda shunday desang bo'lardi-ku! – dedi Dantes, so'ng stulni yerga qo'ydi-da, chindan ham aqldan oza-yotgan kishi singari ko'zlarini olaytirib, boshini quyi solib o'tirdi.

Turma xodimi chiqib ketdi; bir necha daqiqadan so'ng

to'rt soldat va bir kapral hamrohligida qaytib keldi.

– Komendantning buyrug'iga binoan, – dedi u, – mahbusni bundan bir qavat pastga tushirib qo'ying.

– Ya'ni zindonga-da, – dedi kapral.

– Ha, zindonga, jinnini jinni bilan bir xonaga qamash kerak.

To'rt soldat mahbusni mahkam tutib oldi. Qandaydir bir parishon holga tushib qolgan Dantes hech qarshilik ko'rsatmay ular ketidan yurdi.

Ular o'n besh zina pastga tushishdi; qop-qorong'i kameraning eshigi ochildi. Dantes: «U haq gapni aytdi, jinnini jinni bilan birga qamash kerak», deb g'ong'illab kameraga kirib ketdi.

Eshik yopildi, Dantes devorga yetguncha qo'llarini uzatib bordi-da, burchakka cho'kib, uzoq vaqtgacha qimir etmay o'tirdi. Shu orada qorong'ilikka ko'nikib, xonadagi buyumlarni ko'ra boshladi.

Turma xodimi yanglishmagan edi: Dantes chindan ham aqldan ozayotgan edi.

IX. NIKOH KUNINING OQSHOMI

Vilfor yuqorida aytganimizdek, yana o'sha Gran-Kur ko'chasiga borib, janob Sen-Meran uyiga kirdi. Mehmonlar yemakxonada emas, mehmonxonada qahva ichib o'tirishgan edi.

Rene va mehmonlar uni sabrsizlik bilan kutishayotgan edi. Shu sababdan uni quvontirib-qichqirib kutib olishdi.

– Xo'sh, kallakesar, davlat posboni royalist Brut! – qichqirdi mehmonlardan biri. – Nima bo'ldi? Gapiring!

– Yana yangi terrorga tayyorlanayotgan ekanlarmi? – dedi yana biri.

– Korsikalik odamxo'r inidan chiqmadimikin? – so'radi uchinchisi.

– Markiza, – dedi Vilfor bo'lg'usi qaynanasi yoniga bo-

rib. – Kechiring meni, lekin menga javob bermasangiz bo'lmaydi... Markiz, faqat o'zingizga aytadigan ikki og'iz so'zim bor, ruxsat qilasizmi?

– Demak, haqiqatan ham jiddiy ish ekan-da? – dedi markiza, haqiqatan ham Vilforning kayfi nochoq ekanini ko'rib.

– Juda jiddiy ish, men bir necha kunga sizni tashlab ketishga majburman. Ishning naqadar muhimligini shundan ham bilib olishingiz mumkin.

– Siz ketyapsizmi? – qichqirib yubordi Rene dili siyoh bo'lganini bekitolmay.

– Ilojim yo'q! – javob qildi Vilfor. – Ish juda zarur.

– Qayoqqa ketyapsiz? – so'radi markiza.

– Sud siri bu. Biroq birortangizda Parijga topshiriq bo'lsa, bir jo'ram ketyapti, u bajonidil bajaradi.

Hamma bir-biriga qaradi.

– Siz men bilan gaplashmoqchimingiz? – so'radi markiz.

– Ha, ruxsat etsalar xonangizga kiraylik.

Markiz Vilforni qo'ltiqladi-da, ikkovi chiqib ketdi.

– Nima gap o'zi? – dedi markiz xonaga kira turib. – Qani, gapiring-chi.

– Masala juda muhim. Tezda men Parijga jo'nashim kerak. Beadablilik bo'lsa-da, kechiring, bir savol beraman. Davlat zayomi bormi?

– Mening butun boyligim shu zayomlarda, olti yoki yetti ming frank keladi o'ziam.

– Soting uni, tezroq sotib yuboring, aks holda xonavayron bo'lasiz.

– Bu yerda turib qanday qilib sotaman?

– Parijda dallolingiz bormi?

– Bor.

– Unga xat yozing, men olib borib beraman, tezda sotib

⁷ Podachi aravada olib kelayotgani... (lot.) (Gorasiy, Odalar. I,

yuborsin, ehtimol men ham kechikib qolarman.

– Obbo! – dedi markiz. – Keling, vaqt o'tmasin.

U stolga o'tirib hamma obligasiyalarni to'g'ri kelgan narxda sotib yuborish to'g'risida agentiga farmoyish yozdi.

– Bir xat tayyor, – dedi Vilfor xatni karmoniga asta so-lib, – menga yana bir xat kerak.

– Kimga?

– Qirolga.

– Qirolga?

– Ha, qirolga.

– Men u olijanoblarga to'g'ridan-to'g'ri qanday xat yoza olaman axir?

– Men o'zingiz yozing deyotganim yo'q, graf de Salv-yodan iltimos qiling, u kishi yozib bersin. Qimmatli vaqt-ni bekorga o'tkazmaslik uchun, shunday xat kerakki, u bilan men qabul qilishda bo'ladigan rasmiyatlarsiz to'g'ri qirol huzuriga kirib bora olayin.

– Adliya ministri-chi? U Tyuilriga kirish huquqiga ega, istagan vaqtda qirol huzuriga kirish uchun shu ministr orqali ruxsat olishingiz mumkin.

– To'g'ri. Biroq olib borayotgan muhim yangilikka bi-rovni sherik qilishning nima keragi bor?.. Tushundingiz-mi? Adliya ministri meni ikkinchi o'ringa surib qo'yib, men qilgan xizmatni o'ziniki qilib ko'rsatishi tabiiy. Sizga shuni aytib qo'yayinki, markiz, agarda Tyuilriga o'zim birinchi bo'lib kirsam, hech shubhasiz, katta mansabga ega bo'la-man, chunki men qirolga shunday yordam ko'rsataman-ki, buni hech kim hech mahal unutmaydi.

– Azizim, agar shunday bo'lsa, boring, safarga tayyor-laning; men Salvyoni chaqiraman, u xat yozib beradi, bu xat bilan siz to'g'ri qirol huzuriga kirib ketaverasiz.

15).

⁸ Achchiq qayg'uga eltyapsan meni... (lot.) (Gorasiy, Odalar, I,

15).

⁹ Sen ham harsillab chopasan... (lot.) (Gorasiy, Odalar, I. 15).

– Juda soz, biroq tez bo'ling, vaqt o'tmasin; chorak soatda men pochta faytonida bo'lishim kerak.

– Bizning uyimiz oldida to'xtashsin, ayting faytonchiga.

– Ming-ming afsuski, shunday baxtli paytda mademuazel de Sen-Merandan ajralayotirman, men uchun markizadan va mademuazeldan uzr so'rarsiz, deb umid qilaman.

– Sizni ular mening xonamda kutishadi, o'sha yerda xayrlashasiz.

– Benihoya minnatdorman sizdan. Xatni tayyorlang. Markiz qo'ng'iroq chaldi.

Xizmatkor kirdi.

– Graf de Salvyoni chaqiring bu yoqqa... Siz ketavering, – dedi markiz Vilfor.

– Men hademay qaytaman.

Vilfor shunday dedi-da, shoshilib chiqib ketdi; ammo eshik oldida, qirollik prokurorining yordamchisi qayoqqadir juda shoshilib borayotganini ko'rsalar butun shahar vahimaga tushib qolishi mumkin, deb o'yladi-da, odatdagicha salobatli, vazmin, osoyishta qadam tashlay ketdi.

Uyiga yaqinlashganda, qorong'ida uni kutib turgan oppoq sharpaga ko'zi tushdi.

Bu Mercedes edi. U Edmondan hech qanday darak bo'lmagach, uning nechun qamalganini o'zi bilmoqchi bo'lib kelgan edi.

U Vilforni ko'rdi-da, yo'lga chiqib uning oldini to'sdi. Dantes qaylig'i to'g'risida Vilforga aytib bergan edi, shuning uchun Mercedesning o'zini tanitishga ehtiyoj yo'q edi, Vilfor shusiz ham uni tanidi. Qizning beqiyos husn-jamoli, kelishgan qaddi-qomati uni maftun etdi va qiz undan qallig'ini so'raganida Vilfor o'zini aybdoru, Mercedesni sudya deb his etganday bo'ldi.

– Siz so'rayotgan odam nihoyatda og'ir jinoyatchi, – javob qildi Vilfor, – uning uchun biror narsa qilishdan ojimman.

Mersedes uvvos solib yig'lab yubordi; Vilfor yonidan o'tib ketmoqchi bo'lgan edi, qiz uni to'xtatdi.

– Hech bo'lmasa, uning qaerdaligini aytib bering, – dedi zo'rg'a ovoz chiqarib, – men uning tirigi yoki o'ligidan xabar olish imkoniyatiga ega bo'lay.

– Bilmayman uning qaerdaligini. Endi u mening ixtiyorimda emas, – javob qildi Vilfor.

Mersedesning sezgir, sinovchan qarashi va yolvorib turishi unga og'ir tuyuldi. U Mercedesni itarib yubordi-da, uyiga kirib, qizning dard-alamidan o'zini xalos qilmoqchi bo'lgandek, darrov eshikni bekitib oldi.

Ammo kishi dard-alamdan osonlikcha qutula olmaydi. Dard-alam bilan yaralangan kishi, Vergiliy aytganidek, uni halokatli nayza kabi o'zi bilan birga olib ketadi. Vilfor eshikni qulflab mehmonxonaga ko'tarildi, ammo shu payt oyoqlari titrab, bukildi: ko'ksidan yig'i singari fig'on otilib chiqdi-da, kursiga yiqilib tushdi.

Ana shunda xasta yurakda bedavo dardning birinchi belgilari paydo bo'ldi. O'z mansabparastligi yo'lida qurbon etgan begunoh o'smir, otasining gunohi uchun azob chekib yotgan inson uning ko'z oldida gavdalandi: rangi oqarib-bo'zargan Dantes sevgilisini qo'ltiqlab dahshat solib kelardi. Mercedesning ham rangi o'chib, qoni qochgan. Bu Vilforni og'ir vijdon azobiga solardi; yuragini ezib, kemirardi.

Vilfor yana bir karra ikkilandi, ammo bunisini ham yengdi. U bir marta emas, bir necha marta kurash jarayonida hayajondan bo'lak hech nima sezmay, aybdorlarga o'lim jazosi talab qilgan edi. Uning sud maslahatchilari va sudyalarni lol etuvchi dabdabali nutqlari natijasida yuz bergan bu o'lim jazolari salgina bo'lsa-da prokuror yordamchisining ko'nglini noxush etmagandi, chunki ayblanuvchilar Vilforning fikricha, gunohkor edilar.

Bu gal esa ish butkul boshqacha edi: u gunohsiz kishini – baxt qushi boshiga qo'nib turgan yosh yigitni bir umrlik qamoqqa hukm qildi; uning erkinligini emas, baxtini ham tortib oldi; binobarin, bu gal Vilfor sudya

emas, jallod rolini o'ynadi.

Mana shularni o'ylaganda yuragi sanchib, gurs-gurs urayotganini sezdi, shu damgacha hech bunday bo'lmagan edi. Qalbini vahima hislari butunlay qamrab oldi. Chidab bo'lmaydigan alam yaradorga mana shu kabi azob beradi, to yaraning ko'zi bitib, tuzalib ketmaguncha unga aslo barmoq uchini tekkizolmaydi yarador.

Biroq Vilforning yarasi tuzalmaydigan yoki tuzalganda ham ilgorigidan qattiqroq azob berib yana ochiladigan yaralardan edi.

Mabodo shu payt Renening rahm-shafqat tilagan mayin ovozi eshitilib, go'zal Mercedes kirsayu: «Tepamizda Parvardigor guvoh, duobad qilaman sizni: qaytarib bering qaylig'imni», deb yuborsa, Vilfor muqarrarlik oldida tiz cho'kib, unga butkul taslim bo'lgan va o'zini xavf-xatarlar jari yoqasiga olib borib bo'lsa-da, jonsiz qo'li bilan Dantesni ozod qilish to'g'risidagi buyruqqa qo'l qo'yardi. Ammo bu noxush sukunat cho'kkan xonada hech kimning ovozi eshitilmadi, faqat eshikni ochib xizmatkor kiridi-da, pochta otlari izvoshga qo'shilib, safarga tayyor ekanligini xabar qildi.

Vilfor o'rnidan turdi yoki to'g'risi, ichki ziddiyat kurasidan g'olib chiqqan kishi kabi sapchib turdi-da, yugurib yozuv stoli yoniga bordi, tortmalardan birida saqlanib yotgan hamma oltinlarni olib cho'ntagiga soldi. Parishon holda qo'li bilan peshonasini artib va nimalarnidir ming'irlab u yoq-bu yoqqa yurdi; axiri xizmatchi yelkasiga plashini tashlaganini sezib, tashqariga chiqdi, irg'ib faytungamindi va Gran-Kur ko'chasiga, markiz de Sen-Meran uyiga yurish haqida dona-dona qilib buyruq berdi. Xullas, baxti qaro etilgan Dantes hech chiqmaydigan qilib qamoqqa hukm etildi.

Markiz de Sen-Meranning va'dasiga muvofiq Vilfor kirganda xonada uning xotini va qizi o'tirgan edi. Yigit Reneni ko'rib seskanib ketdi: u yana Dantesga rahm-shafqat qilishni iltimos qilarmikan, deb qo'rqdi. Biroq yosh qiz faqat bir narsa bilan, qaylig'ining safari bilangina band

edi. Rene Vilforni sevardi; Vilfor ularning to'yi arafasida jo'nab ketyapti; qachon qaytishini Vilforning o'zi ham ay-tolmasdi, shu sababli, Rene Dantesga rahmdillik qilish o'rniga, aksincha, jinoyat qilib uni qallig'idan judo qila-yotgan kishiga la'nat o'qidi shu paytda.

Mersedes sho'rlikning holi na kechdiykin?

Mersedesning ketidan kelgan Fernan uni de-la-Loj ko'chasi burchagida kutib turgan edi. Sho'rlik qiz Katalaniyaga qaytib keldi-da, bag'ri qon bo'lib to'shakka o'zini tashladi. Fernan to'shak yonida tiz cho'kib behush qizning muzdek qo'lini ushlab issiq lablarini bosib o'pa boshladi. Mercedes qo'lini tortmas, hech narsani his etmas edi.

Shu ahvolda birinchi tun o'tdi. Jinchiroqning moyi tu-gab, o'chdi; Mercedes chiroq yog'dusini ham, qorong'ini ham sezmasdi. U hatto tong yorishganini ham sezmasdi.

Uning qayg'u-alam to'la ko'zlari Edmondan boshqa hech narsani ko'rmasdi.

– Shu yordamisan? – dedi u nihoyat Fernanga o'girilib.

– Kechadan buyon oldingdan bir qarich nari ketganim yo'q, – javob qildi Fernan g'amgin ovozda.

Morrel hamon o'zini mag'lubiyatga uchragan hisobla-masdi... So'roqdan so'ng Dantesni turmaga tashlaganla-rini bilardi. Shunda u yordam berishi mumkin bo'lgan hamma tanish-bilishlari, do'st-og'aynilari huzuriga kirib chiqdi, barchasiga murojaat qildi, biroq Dantes bonapartchilar agenti sifatida qamoqqa olindi, degan ovoza har yoqqa tarqab ketgan edi. O'sha mahallarda eng dovyurak kishilar ham Napoleonning taxtiga qaytish yo'li-dagi har qanday urinishini tentaklik deb o'ylardilar, shu sababli Morrelni hech kim qo'llamadi, hamma yerda uning iltimosini rad etishdi. U ish juda og'irlashganini va endi hech kim yordam bera olmasligini anglab, ko'ngli g'ash bo'lib uyiga qaytdi.

¹⁰ Arbob odil, azmu qarorida mustahkam... (lot.) (Gorasiy, Oda-

Kadruss ham zo'r tanishga tushib qolgan edi. Dantesga yordam berish uchun Morrel singari yelib-yugurib butun shaharni kezib chiqmadi, chunki bundan naf yo'q edi. Buning o'rniga u uyidan tashqariga chiqmay o'tirib oldi-da, ikki shisha vinoni oldiga qo'yib, butun alamini vinodan oldi. Biroq uning gangib qolgan kallasini bata-mom aynitib yuborish uchun ikki shisha vino kamlik qilardi. Shu sababli Kadruss oyoqlari qiyshayib ketgan stolga ikki bo'sh shisha o'rtasiga ko'kragini tiragancha o'tirib qoldi. Tashqariga chiqib vino keltirishga ham, yuz bergan voqeani unutishga ham madori yetmay, piligi tutab yotgan shamchiroqqa tikilardi, xolos.

Birgina Danglar bu voqealardan tashvishga tushmas va azob chekmasdi, aksincha, u quvonardi: u dushmanidan qasos oldi va «Faraon» kemasidagi lavozimni egalladi. Ilgari, Dantes ozod vaqtda bu lavozimdan ajralib qolamanmikin, deb qo'rqib yurardi. Danglar onasining qornidan qulog'iga qalam qistirib, yurak o'rniga siyohdon bilan tug'iladigan hisob-kitobli odamlardan bo'lib, dunyodagi hamma narsa uning ko'z oldida olish yoki ko'paytirishdan iborat edi. Bordi-yu, biron kishi shu raqamlarning kamayishiga sababchi bo'lgudek bo'lsa, Danglar unday odamning bahridan o'tib qo'ya qolardi. Chunki raqamlarni odamdan ustun qo'yardi.

Shu boisdan Danglar odatdagi vaqtda yotdi va xotirjam uyquni uraverdi.

Vilfor graf-de Salvyoning tavsianomasini olib, Reneni ikkala yuzidan o'pdi, markiza de Sen-Meran qo'liga lablarini bosdi, markizning qo'lini siqib xayrlashdi-da, pochta aravasiga chiqdi. Arava Eks yo'lidan yeldek uchib ketdi.

Og'ir musibat chekayotgan kekxa Dantes dahshatli tashvish-vahimalar girdobida qiynalib yotardi.

lar, III, 3).

¹¹ Djon Martin – ingliz rassomi (1789–1854).

Endi Edmonga kelsak, uning holi nima kechayotgani bizga ma'lum.

X. TYULBRIDAGI MO'BJAZ OROMGOH

Uch hissa ortiq yo'l kira to'lab Parij tomon uchib bora-yotgan Vilforni shu yerda qoldiraylik-da, ikki-uch mehmonxonadan o'tib borib, doira shakldagi derazali oromgohga nazar tashlaylik. Bu oromgohning dong'i ketganiga sabab shuki, u ilgari Napoleon va Lyudvik XVIII ning, hozir esa, Lui-Filippning eng sevgan joyi edi.

Lyudovik XVIII mana shu xonada Gartveldan olib kelgan va mashhur kishilarga xos ajib tabiati bilan juda yoqirib qolgan yong'oq stolda o'tirib olib oq soch, yaltiroq yuzli, olifta kiyingan ellik yoshli kishining hikoyasini parishon holda tinglardi. Shu bilan birga u Gorasiyning asari chetlariga qandaydir belgilar yozardi. Bu kitob Grifius tomonidan ancha xatolar bilan nashr etilgan bo'lsa-da, o'qimishli edi va oliy janoblarning filologiya borasidagi kuzatishlarida yordam berardi.

– Gapingizdan ma'lum bo'ldiki... – deb gap boshladi qirol.

– Men benihoya tashvishdaman, oliy janoblari.

– Rostdan-a? Tushingizda yettita semiz va yettita oriq sigir ko'rgan bo'lmang tag'in?

– Yo'q, oliy janoblari. Unday bo'lganda edi, xalq mataliga muvofiq, biz yetti yil mo'l-ko'llikda, so'ng yetti yil ochlikda yashagan bo'lur edik, biroq siz kabi tadbirkor qirol panohida yashaganda, hech narsadan xavfsirashning hojati yo'q.

– Xo'sh, ayting-chi, sizni nima tashvishga solyapti, janob Blakas?

– Janobi oliy, mening fikrimcha, janubda momaqaldiraq tayyorlanayapti, deb o'ylashga asos bor.

– Shunday deb o'ylasangiz, azizim gersog, – javob qildi Lyudovik XVIII, – demak, ko'p narsadan bexabar ekansiz.

Mening bilishimcha, u yerda havo ochiq.

Lyudovik XVIII ancha ma'rifatli odam bo'lsa-da, yengil-elpi hazilni yaxshi ko'rardi.

– Janobi oliy, – dedi deb Blakas, – hech bo'lmasa sodiq xizmatkoringizning ko'ngliga tasalli berish uchun Lange-dok, Provans va Dofine o'lkalaridagi oqillarning kayfiyatini, fikrini aniq bilib kelish uchun ishonchli kishilarni yuborishga ruxsat etingiz.

– Canimus surdis,⁶ – javob qildi qirol Gorasiy kitobi betlari chetiga belgilar qo'yishda davom etib.

– Janobi oliylari, – davom ettirdi so'zini saroy a'yoni o'zining venuzin shoirining yarim baytini tushunganini ko'rsatish uchun iljayib, – janobi oliy, Fransiyaning sodiqligiga ishonib, shunday deyatotgan bo'lsangiz, haq gapni aytyapsiz. Biroq qandaydir ashaddiy bir hujum bo'lishi mumkin deb xavotir olayotganim asossiz emasdir.

– Kim xuruj qilishi mumkin?

– Bonapart yoki uning partiyasi.

– Azizim Blakas, – dedi qirol, – sizning bu vahimangiz ishingga xalaqit beryapti.

– Sizning beparvoligingizdan mening uyqum qochadi tun bo'yi.

– To'xtang, azizim, to'xtang, menda bir fikr paydo bo'ldi: Pastor quum traheret⁷ to'g'risida, to'xtang, gapingizni so'ng aytasiz.

Jimjitlik cho'kdi, qirol mayda xat bilan Gorasiy asarining betlari chetiga bir necha satr yozdi.

– Mana endi davom ettiravering, azizim gersog, – dedi qirol birovning fikrini tahlil etib, o'zida ham fikr tug'ilgan kishi singari boshini baland ko'tarib, – davom ettiring so'zingizni, qulog'im sizda.

– Janobi oliylari, – deb boshladi hikoyasini Blakas, Vil-forming axborotidan avval o'z manfaati uchun foydalanmoqchi bo'lib, – sizga ma'lum bo'lsinki, meni quruq mish-mishlar tashvishga solayotgani yo'q. Mening to'la ishonchimga sazovor, Fransiya janubidan xabardor bo'lib turish to'g'risida mendan topshiriq olgan (gersog shu

so'nggi so'zlarini aytganda bir oz tutilib oldi) farosatli kishi pochta aravasida ot choptirib huzurimga keldi-da, qirolga katta xavf tahdid qilmoqda dedi. Huzuringizga shoshib kelishimning boisi ham shu!

– Mala ducis avi domum,⁸ – davom ettirdi qirol Gora-siy kitobiga belgilar qo'yib.

– Janobi oliylari, ehtimol bu boradagi gaplarni bas qilishimni istarsiz?

– Yo'q, yo'q, azizim gersog, biroq qo'lingizni cho'zing...

– Qaysinisini?

– Xohlaganingizni. Hu ana, u yoqda, chapda...

– Mana bu yerdami, janobi oliy?

– Men chapda deyapman, siz bo'lsa o'ngdan axtaryapsiz; mendan chap tomonda deyapman, ana shu yerda polisiya ministrining kechagi axboroti bo'lishi kerak... Dandrening o'zi ham kelgan ko'rinadi... Janob Dandre deb aytgandingiz shekilli? – dedi qirol polisiya ministri kelganini xabar berish uchun kirgan mahramga qarab.

– Xuddi shunday, janobi oliylari, baron Dandre keldi, – javob qildi mahram.

– Ha, baron, – dedi Lyudovik XVIII miyig'ida kulib, – kiring, baron, gersogga janob Bonapart haqidagi so'nggi ma'lumotlarni aytib bering. Ahvolning qanchalik og'ir bo'lishiga qaramay, hamma gapni ochiq ayting, hech nimanani yashirmang. Elba oroli vulqon va u dahshatli urush olovini otmoqchi deyayotganlari to'g'rimi?

Dandre ikki qo'li bilan stul suyanchig'iga tiralib turib dedi:

– Janobi oliylari, mening kechagi axborotimga nazar tashlagan bo'lsalar kerak?

– O'qidim, o'qidim. Gersog uni topolmayapti. Unda nimalar yozilganini o'zingiz o'qib bera qoling. 3o'ravon Bonapart o'z orolida nimalar bilan shug'ullanayotganini mu-fassal aytib bering.

– Oliy janoblariga sodiq kishilarning hammasi, – dedi gersogga qarab baron. – Elba orolidan olingan so'nggi xabarlardan xursand bo'lmoqlari kerak. Bonapart...

Dandre Lyudovik XVIII ga qaradi. Qirol nimagadir juda berilib ketib boshini ko'tarmadi ham.

– Bonapart, – davom etdi baron, – o'lgudek zerikib yotibdi. Har kuni ertalabdan kechgacha Porto-Langonda minerlarning ishini tomosha qilish bilan ovora.

– Ermak uchun qashinib o'tirarmish, – dedi qo'shimcha qilib qirol.

– Qashinib? – dedi gersog, – Bu nima deganingiz, janobi oliylari?

– U ulug' zot, o'sha qahramon qo'tir kasaliga muhtalo ekanini unutib qo'yingizmi?

– Bu ham oz, gersog, – davom etdi polisiya ministri, – yaqin kunlarda u zo'ravon aqldan ozadi, deb umid qilamiz.

– Aqldan ozadi?

– Hech shubhasiz, uning miyasi ayniyapti. U goh achchiq ko'z yozi to'kib yig'laydi, goh qah-qah urib kuladi. Ba'zan soatlab qirg'oqda suvga tosh otib o'tiradi, mabodo tosh suv ustida besh yoki olti marta sakrasa, xuddi Marengo yoki Austerlisdagi yana g'alaba qozongandek quvonadi. Ishonchingiz komil bo'lsinki, bu aqldan ozishning yorqin belgisidir.

– Yoki aqli oshib ketishining deng, janob baron, – dedi Lyudovik XVIII kulib, – qadimgi buyuk lashkarboshilar hordiq chiqarish damlarida suvga tosh otish bilan shug'ullanardilar. Plutarxning kitobini oching-da, Ssipion Afrikanskiyning hayotiga bir nazar tashlang.

Ministrlarning va qirolning bu kabi beparvoligini ko'rgan Blakas o'ylab qoldi. Vilfor, o'zimdand bo'lak hech kim foydalanmasin deb, unga hamma sirni aytib bermagan bo'lsa-da, biroq gersogning vahimaga soladigan darajada ma'lumot bergan edi.

– So'zingizni davom ettiring, Dandre, – dedi qirol, – Blakas haliyam ishongani yo'q. Uzurpator qanday qilib to'g'ri, haq yo'lga kirganini aytib bering.

Polisiya ministri ta'zim qildi.

– Haq yo'lga, – dedi ohista gersog Vergiliy asaridagi

podachilarga o'xshab biri qo'yib, biri vaysayotgan qirolga va Dandrega qarab. – Uzurpator haq yo'lga kiribdimi?

– Xuddi shunday, aziz gersog.

– Qanaqa haq yo'lga?

– Yaxshilik yo'lga, tushuntirib bering.

– Gap shundaki, gersog, – deb gap boshladi ministr chindan ham jiddiy ohangda, – yaqinda Napoleon ko'rik o'tkazgan. Uning eski vaysaqilaridan ikki yoki uchta Fransiyaga qaytish istagini bildirgan. Napoleon ularga javob bergan va marhamatli qirolga jon-dil bilan xizmat qiling, deb nasihat qilgan. Sizni ishontirib aytamanki, buni uning o'z og'zidan eshitganlar.

– Xo'sh, endi nima deysiz, Blakas? – so'radi qirol oldida ochiq turgan ulkan kitobdan boshini ko'tarib.

– Nima derdim, janobi oliylari, ikkimizdan birimiz – polisiya ministri yoki men xato qilyapmiz. Ammo siz janobi oliylarining tinch-osoyishta hayotingizni va shon-shuhratingizni saqlab-qo'riqlab turgan janob polisiya ministri xato qilishi mumkin emas, binobarin, men xato qilgan bo'lib chiqaman. Shunday bo'lsa-da, sizning o'ringizda bo'lganimda men nomini aytgan kishidan so'rab-surishtirgan bo'lardim. Men sizdan, lutf etib, uni qabul qilib, gaplarini eshitishingizni hatto talab etaman.

– Marhamat eting, gersog, sizning ko'rsatmangizga muvofiq kimni istasangiz qabul qilaman, biroq men uni qurollangan holda qabul qilmoqchiman. Janob ministr, sizda yangi ma'lumotlar yo'qmi? Mana bunisiga yigirmanchi fevral deb yozilgan, bugun axir uchinchi mart.

– Yo'q, janobi oliylari, ammo yangi ma'lumot yaqin fursatlarda kelishi kerak. Uydan ertalab chiqib ketgandim. Mendan keyin ehtimol olgandirlar.

– Idorangizga boring, mabodo hali kelmagan bo'lsa, u vaqtda... – Lyudovik kulib yubordi, – o'zingiz to'qib qo'ya qoling; axir, aslida buni shunday qiladilar-ku?

– Xudoga shukrki, janobi oliylari, hech qanday uydirma yasab o'tirishimizning hojati yo'q, – javob qildi ministr, – bizga har kun qop-qop ma'lumot yuborishadi; bu

ma'lumotlarni turli sho'rpeshona odamlar yordam ko'rsatib, shuning evaziga biror yordam olish niyatida yozadilar. Ular, baxtimizga to'g'ri chiqib qolar, kutilmagan biron voqea yuz berib, ma'lumotimizni tasdiqlar deb umid qiladilar.

– Juda soz, bo'пти, boring, – dedi qirol, – unutmang, men sizni kutib o'tiraman.

– Janobi oliy, o'n daqiqa ichida huzuringizda bo'lam...

– Men esa janobi oliy, – dedi de Blakas, – axborotchimni yetaklab kelaman.

– To'xtang, sabr qiling, – dedi qirol. – Bilasizmi, Blakas, gerbingizni o'zgartishga majburman. Sizga qanotlarini yozib, pitirlab yotgan o'ljasini tirnoqlari bilan changallab turgan burgutni beraman va tagiga «tirnog'i o'tkir» degan so'z yozib qo'yaman.

– Qulog'im sizda, janobi oliylari, – javob qildi gersog. U toqatsizlanib tirnoqlarini tishlardi.

– Men mana bu she'r to'g'risida siz bilan maslahatlashmoqchi edim: Molli fugiens anhelitu.⁹ Esingizdami, bu yerda so'z qashqir quvib borayotgan bug'u haqida bo'ryapti. Axir, siz ovchi va oberegermeystersiz-ku; mana shu Molli anhelitu yoqadimi sizga?

– Juda soz, janobi oliylari. Ammo mening axborotchim ana shu siz aytgan bug'uga o'xshaydi. Chunki u ikki yuz yigirma le yo'lni salkam uch kun ichida pochta aravasida bosib kelgan.

– Bu behuda mehnat va ortiqcha tashvish. Bizda telegraf mavjud, bu orqali haligi ishni uch yoki to'rt soatda hech qiynalмай bajo keltirish mumkin edi.

– Janobi oliy, sizni falokatdan saqlash uchun uzoq joydan ot choptirib kelgan sho'rlik yosh yigitning dilini siyoh qilasiz. Hech bo'lmasa menga o'sha yigitni tavsiya etgan graf Salvyo hurmati, axborotchini qabul qilishingizni iltimos qilaman.

– Graf, Salvyo? Akamning mahramimi?

– Xuddi o'sha.

- Ha, aytganday, u Marselda-ku.
- O’sha yerdan xat yozib yuboribdi menga.
- Fitna to’g’risidagi xatni o’sha graf yozibdimi?
- Yo’q, u janob de Vilforni tavsiya qilib, uni sizning huzuringizga olib kirishni topshiribdi.
- Vilfor! – qichqirib yubordi qirol. – Uning nomi Vilformi?
- Shunday, janobi oliy.
- Marseldan kelgan shu Vilformi?
- Ha.
- Boshdayoq uning nomini ayta qolmaysizmi menga?
- dedi qirol va uning yuzida tashvish alomati paydo bo’ldi.
- Janobi oliy, uning nomini siz bilmassiz deb o’ylagandim.
- Unday emas. Blakas, unday emas; bu kishi ishbilarmon, fikri ham yaxshi, eng muhimi mansabparast, shuhratparast. Otasining nomini siz bilasiz, ha, bilasiz...
- Otasini?..
- Ha, otasini, ya’ni Nuarteni.
- Jirondist? Senator-a, o’shami?
- Xuddi o’zi.
- Siz oliy janoblari shunday kishining o’g’liga davlat lavozimini ishonib topshirib qo’ydingizmi?
- Azizim Blakas, siz hech nimani tushunmaysiz-da, men sizga, Vilfor shuhratparast, dedim; u bizga yaxshi ko’rinish uchun hamma narsadan, hatto otasidan ham voz kechadigan kishi.
- Unday bo’lsa, men hozir uni olib kelay huzuringizga?
- Darhol, qaerda u?
- Pastda, mening faytunimda kutib o’tiribdi.
- Boring, tez olib keling bu yoqqa uni.
- Ketdim, – dedi-da, gersog yosh yigitday yugurib chiqib ketdi. Royalistik shijoati unga yoshlik g’ayrati bag’ishlar edi.
- Yakka qolgan Lyudovik XVIII yana Gorasiy kitobiga tikildi va shivirladi: *justum yet tenacem propositi virum...*¹⁰

De Blakas qanday shoshib chiqib ketgan bo'lsa, xuddi shunday shoshib-pishib qaytdi, ammo qabulxonada u qirolni ro'kach qilishga majbur bo'ldi: Vilforning chang bosib ketgan va saroy odob-qoidalariga nomunosib jo'n kiyimidan markiz de Breze norozi bo'ldi va shunday holda qirol huzuriga kirmoqchi bo'lgan yosh yigitning beadabligidan g'azablendi. Biroq gersog udaychining xo'jako'rsinga hamon vaysashiga qaramay «Oliy janoblarning hukm-farmoyishi» degan so'z bilan hamma g'ovlarni olib tashladi, Vilfor xonaga kirdi.

Qirol gersog chiqib ketganda qaerda o'tirgan bo'lsa, o'sha yerda o'tirgan edi. Vilfor eshikni ochganda qirolga ro'baro' bo'ldi. Yigit beixtiyor to'xtadi.

– Janob de Vilfor, kiravering, – dedi qirol. – Kiravering!

Vilfor ta'zim qildi-da, olg'a bir necha qadam tashlab, qirolning savollarini kutib to'xtadi.

– Janob de Vilfor, – deb gap boshladi Lyudovik XVIII, – gersogning gapiga qaraganda, bizga siz qandaydir muhim narsani ma'lum qilmoqchi ekansiz.

– Oliy janoblari, gersogning gapi to'g'ri, men oliy janoblari, mening gaplarimni tinglashga rozi bo'lursiz degan umiddaman.

– Avvalo shuni ayting-chi: u xavf-xatar chindan ham juda jiddiyimi?

– Oliy janoblari, bu ma'lumot menimcha, juda jiddiy. Ammo mening chaqqonligim tufayli, bu xavfning oldini olish mumkin, deb umid qilaman.

– Hech tortinmay mufassal gapirib bering, – dedi qirol. U ham hayajonga tusha boshlagan edi, – gapiring, ammo bir boshdan, tartib bilan hikoya qiling. Men hamma yerda, hamma narsada tartibot bo'lishini yoqtiraman.

– Men siz janobi oliylariga faqat haqiqatdan iborat ma'lumot beraman. Lekin iymanganim vajidan fikrim bir oz chalg'ib ketsa afv etishingizni iltimos qilaman.

Vilfor bu so'zlarni nihoyatda ehtiyotkorona aytdi-da, yer ostidan qirolga nazar tashladi va u muruvvat bilan qarayotganini ko'rib, so'zini dadil davom ettirdi:

– Men bir saroy xizmatkori sifatida burchimni ado etib sizning taxtingizga tahlika solayotgan haqiqiy fitnani fosh etganimdan oliy janoblarini xabardor qilish uchun Parijga nihoyatda shoshilib, o‘qday uchib keldim. Bu har kuni pastki tabaqa ichida va qo‘shinlarda yuz berib turadigan shunchaki oddiy bir to‘daning ig‘vosi emas, aksincha, jiddiy ravishda uyushtirilayotgan haqiqiy fitna. Oliy hazratlariga ma‘lum bo‘lsinki, uzurpator Bonapart uch kemani qurollantiryapti; u qandaydir bir dahshatli ishni rejalashtiryapti, bu tentaklik bo‘lsa-da, lekin nihoyatda xavflidir. Shu daqiqalarda u Elba orolidan chiqib ketgan bo‘lishi kerak; qayoqqa yo‘l oldi ekan, bundan xabarim yo‘q. Shubhasizki, u yo Neapolga, yoki Toskaniya qirg‘o-g‘iga, ehtimol, hatto Fransiyaning o‘ziga tushishga urinadi. Elba orolining hokimi Italiya bilan ham, Fransiya bilan ham aloqani uzgani yo‘q, bu janobi oliylariga ayon.

– To‘g‘ri, – javob qildi qirol qattiq hayajonlanib, – yaqindagina bonapartchilar Sen-Jak ko‘chasida yig‘ilishib turganlarini aniqlagan edik. Davom ettiravering so‘zingizni, iltimos qilaman. Bu ma‘lumotlarni siz qanday qilib oldingiz?

– Men, janobi oliylari, bir marsellik dengizchini so‘roq qilib, shu ma‘lumotlarni olishga muyassar bo‘ldim. Men uning yurish-turishini ko‘pdan buyon nazorat ostiga olib yurardim, bu yoqqa kelayotgan kuni uni qamoqqa olish to‘g‘risida buyruq berdim. Bu shaxs hech shubhasiz bonapartchi bo‘lib, yashirin holda Elba oroliga borgan, u yerda marshal bilan uchrashgan, marshal esa u orqali Parijdagi bonapartchilardan biriga og‘zaki topshiriq bergan: biroq bu odamning nomini u aytib bermayapti. Topshiriqda kazo-kazolarni qaytishga tayyorlash kerak, deyilgan (oliy janoblari, men bu yerda aybdorning ko‘zlarini takrorlayotganimni unutmasinlar), bu qaytish yaqinda, tez kunlarda yuz berishi kerak, deyilgan topshiriqda.

– U odam qaerda? – so‘radi qirol.

– Turmada, oliy hazratlari.

– Ishni siz jiddiy deb o‘ylayapsizmi?

– Juda jiddiy deb bilganim sababli buni nikoh to'yim kuni tantanali o'tirishda eshitdimu, hamma narsani tashlab, bu yoqqa jo'nadim. Qaylig'imni ham, do'stlarimni ham qoldirib oliy janoblarning huzuriga yo'l oldim. Xavfga tushayotganim sodiqligimning bir timsoli.

– Ha, – dedi Lyudovik. – Siz mademuazel de Sen-Meranga uylanayotgan edingiz-ku.

– Sizga butun jon-dili bilan sodiq kishilardan birining qiziga.

– To'g'ri, to'g'ri, biroq keling, Vilfor janoblari, haligi birlashma to'g'risidagi gapga o'taylik.

– Janobi oliy, bu birlashmadan kattaroq narsa, ya'ni fitna, deb qo'rqaman.

– Bizning zamonimizda, – javob qildi qirol kulib, – fitna boshlash mumkinu, biroq uni amalga oshirish og'ir, shuning uchunki, yaqindagina ota-bobolarimiz egallab kelgan taxtga minganimizda bir yo'la o'tmishni ham, hozirgi zamoni ham, kelajakni ham nazar-e'tiborga olganmiz... Mana o'n oydirki, mening ministrlarim O'rtaer dengizi qirg'oqlarini hushyorlik bilan qo'riqlash ustidan qattiq nazorat qilib turishibdi. Agarda Bonapart Neapol qirg'og'iga tushgudek bo'lsa – Pombinoga yetib kelmasidan unga qarshi butun koalisiya oyoqqa turadi. Agarda Toskanga qo'nsa, dushman yeriga qadam bosgan bo'ladi: Fransiya tuprog'iga u kichkina bir to'da bilan tushishi mumkin, u holda biz uni osongina bir yoqlik qilamiz-qo'yamiz, chunki aholi uni yomon ko'radi. Shu sababli xotirjam bo'ling, lekin amin bo'lingki, qirollik sizdan minnatdor.

– Ana, janob Dandre ham keldilar, – deb xitob qildi gersog Blakas.

Xona ostonasida rangi o'chib, qaltiroq bosgan poli-siya ministri paydo bo'ldi. Aqldan ozgan kishiga o'xshab uning ko'zlari olayib ketgandi. Vilfor chiqib ketmoqchi bo'lgan edi, biroq Blakas uni qo'lidan tutib qoldi.

XI. KORSIKA ODAMXO'RI

Polisiya ministrini vahima bosganini ko'rib Lyudovik XVIII oldidagi stolni itarib yubordi.

– Baron, nima bo'ldi sizga? – qichqirdi u. – Nega bunchalik esankirab qoldingiz? Nahotki gersog Blakasning gumoni va uni tasdiqlayotgan janob de Vilforning axboroti to'g'ri chiqqan bo'lsa?

Gersog lip etib baronning yoniga bordi, ammo saroy a'yonining vahimasi davlat arbobining badxohligini bosib ketdi! Darhaqiqat, ahvol shu qadar jiddiy ediki, shu onda polisiya ministridan ko'ra ko'proq gersog o'zining sharmanda bo'lishini afzal ko'rardi.

– Oliy janobni... – g'o'ldiradi baron.

– Gapiring! – dedi qirol.

Shu payt polisiya ministri kayfi uchib Lyudovik XVIII oldida tiz cho'kdi, qirol qoshlarini chimirib orqaga tisarildi.

– Gapirasizmi yoki miq etmay turaverasizmi?

– Oh, janobi oliylari! Qanday baxtsizlikka uhradik biz! Endi nima qilaman? Baloyi azimga duchor bo'ldim men!

– Muhtaram janob, – dedi Lyudovik XVIII, – buyuraman: gapiring, nima bo'ldi?

– Janobi oliylari, zo'ravon Napoleon yigirma sakkizinchi fevralda Elba orolini tashlab ketibdi va birinchi marta qirg'oqqa tushibdi.

– Qaerda?

– Fransiyada, oliy janob, Juan ko'rfazida, Antib yaqinidagi kichkina gavanda.

– Zo'ravon Parijdan ikki yuz ellik le masofadagi Juan ko'rfazidagi Antib yaqiniga birinchi marta tushibdi-yu, siz bundan faqat bugun – uchinchi marta xabardor bo'libsiz-da... Yo'q, muhtaram janob, bunday bo'lishi mumkin emas, yo sizni aldabdilar yoki siz aqldan ozibsiz.

– Janobi oliylari, baxtimizga qarshi, bu haqiqat! Chindan ham u Fransiya qirg'og'iga tushibdi!

Lyudovik XVIII ni qahr-g'azab va vahimadan titroq bos-

di, ko'ksi va yuzi to'satdan tarsaki yegandek sapchib o'rnidan turib ketdi.

– Fransiyada! – baqirib yubordi u. – 3o'rvon Fransiyada! Demak, shundan ma'lum bo'ldiki, uning izidan nazorat qilib turilmagan ekan-da? Kim bilsin, ehtimol nazorat qiladiganlar u bilan til biriktirgandir?

– Oliy hazratlari, – dedi gersog Blakas tovushini ko'tarib, – baron Dandreday odamni sotqinlikda ayblash mumkin emas! Janobi oliylari, hammamiz beg'am, beparvo bo'lib, burnimiz oldidagi narsani ham ko'rolmaydigan ko'rib bo'lib qolgan ekanmiz, polisiya ministri ham mana shu umumiy beparvolik botqog'iga botgan, xolos!

– Biroq... – dedi Vilfor so'z qotib, ammo birdan shash-tidan qaytdi, – marhamat qilib kechiring meni, oliy janoblari, – ta'zim qildi u, – men oshirib yubordim, shekilli; uzr so'rayman sizdan.

– Gapiravering, janob Vilfor, dadil gapiravering, – dedi qirol. – Faqat siz yuz berayotgan baxtsizlikdan bizni hammadan oldin xabardor etdingiz. Endi bu baxtsizlikdan qutulish vositasini topishda bizga yordam bering.

– Oliy hazratlari, janubda zo'rvon Napoleonni juda yomon ko'rishadi. U mabodo janub tomondan bosib keladigan bo'lsa, Provans va Langedok aholisini unga qarshi ko'tarish qiyin emas, deyishadi.

– To'g'ri, – dedi ministr, – biroq u Gap va Sisteron tomondan kelyapti.

– Kelyapti! – dedi ministrning so'zini bo'lib qirol. – Demak, u Parijga kelayotgan ekan-da?

Polisiya ministri indamadi, bu e'tirof etgani edi.

– Dofine-chi? – so'radi qirol Vilfordan, – Provans kabi bu o'lka aholisini ham zo'ravonga qarshi ko'tarsa bo'lar-mikin? Bu haqda nima deysiz?

– Men janobi oliylariga achchiq haqiqatni aytishga majburman. Dofineda aholining kayfiyati Provans va Langedokka qaraganda ancha buzuq. Tog'liklar – bonapartchilar, oliy hazratlari.

– U yaxshi xabardor ekan, – shivirladi qirol, – uning

qancha qo'shini bor?

– Oliy janoblari, qanchaligini bilmayman, – javob qildi polisiya ministri.

– Nega bilmaysiz? Buni aniqlashni unutib qo'yibsiz-da? Darvoqe, buning unchalik ahamiyati yo'q.

– Oliy janoblari, men buni so'rab-surishtirolganim yo'q; shoshilinch xabarda uzurpatorning qirg'oqqa chiqqani va qaysi tomondan kelayotgani aytilgan, xolos.

– Shoshilinch xabarni qanday qilib, qaerdan oldingiz? – so'radi qirol.

Ministr boshini quyi soldi-da, qizarib ketdi.

– Telegraf orqali, janobi oliylari.

Lyudovik XVIII oldinga bir qadam tashladi-da, Napoleonga o'xshab qo'llarini qovushtirib ko'ksiga qo'ydi.

– Xullas, – dedi g'azabdan bo'zarib, – bu shaxsni yetti ittifoqchi armiya ag'darib tashladi, bir mo'jiza yuz berdi-yu, men yigirma besh yil cho'zilgan quvg'indan so'ng qaytib kelib, bobolarim taxtiga o'tirdim. O'sha yigirma besh yil mobaynida menga va'da qilingan Fransiyani o'rgandim, fikr yuritdim, odamlarni tanidim, xo'sh, nima uchun? Orzum ushalib maqsadimga yetgan paytimda o'z izmimdagi kuch-quvvat momaqaldiroqqa aylansinu, o'zimni kunpayakun qilsin uchunmi?!

– Janobi oliylari, taqdir ekan, – dedi g'o'ng'illab og'ir bu kulfat, odamni ezib majaqlab tashlashi mumkin ekanini fahmlagan ministr.

– Binobarin, bizning haqimizda dushmanlar nima degan bo'lsa, hammasi haq gap ekan-da: ya'ni biz hech saboq olmabmiz, hech narsani unutmabmiz-da! Unga qilganlaridek, menga ham xoinlik qilib tutib berganlarida edi, o'zim o'zimga tasalli berib qo'ya qolardim. Biroq meni shuhratga ko'mib yuborgan odamlar orasida, meni o'zlaridan ham yaxshiroq saqlashi kerak bo'lgan odamlar orasida (chunki, men taxtga mingunimga qadar ular hech kim edilar, mendan keyin ham hech kim bo'lib qolishadi; bundan xulosa shuki, men baxtiyor bo'lsam, ular ham baxtiyor) tursamu, ana shu odamlarning no'noqligi,

ahmoqligi natijasida halokatga yuz tutsam! Ha, janob, siz to'g'ri aytardingiz: bu – taqdir!

Ministr boshini quyi solgan holda bu dahshatli raddiyani g'iq etmay tinglar, Blakas yuzidagi terni artar, Vilfor esa, nufuzi oshayotganini sezib ichidan qvonardi.

– Ag'darilsangu, – davom etdi so'zida Lyudovik XVIII, monarxiyaga qazilgan chuqurning nihoyatda chuqurligini birinchi qarashdayoq o'lchab olgandek, – ag'darilsangu, tanazzul jariga otilayotganingni telegrafdan bilsang! Bu sharmandagarchilikdan ko'ra, zaharxanda kulgilar ostida Tyuilri zinasidan pastga tushib borishdan ko'ra, akam Lyudovik XVI singari dorga bo'ynimni cho'zib bora qolganim yaxshi-ku! Fransiyada kulgi bo'lishning oqibati nima bo'lishini bilmaysiz-da, muhtaram janob! Aslida siz buni bilib olishingiz zarur.

– Janobi oliylari, – dedi ming'irlab ministr, – shafqat qiling!

– Janob Vilfor, yaqinroq keling, – dedi qirol butun bir davlatning taqdirini zilzilaga solayotgan suhbatni tek kuzatib turgan yigitga qarab, – yaqinroq keling-da, u shu kungacha bilolmagan narsalarning hammasini oldindan bilib olish mumkin ekanini aytib bering ministrga.

– Uzurpatorning hammadan sir saqlab kelgan rejalari ni oldindan bilib olishning imkoniyati bo'lmadi.

– Imkoniyat bo'lmadi emish! Buning topgan vajini qarang-a! Afsuski, har qanday asosli dalil kishining mavqeiga taqqosdir, men shundan ularning qadr-qimmatini bilib olaman. O'z ixtiyorida butun bir boshqarma, departamentlar, agentlar, izquvarlar, ayg'oqchilar va bir yarim million frank miqdorida maxfiy fondi bo'lgan ministr Fransiya qirg'og'idan atigi oltmish mil narida nima bo'layotganini bilish imkoniyatini topolmabdi-da? Ana shu vositalardan birontasiga ega bo'lmagan mana shu yigit, qarshingizda turgan mana shu oddiy sud xodimi butun boshli polisiyasi bo'lgan sizdek odamdan ko'proq sirlarni bilib olibdi, agar u siz singari telegrafga xo'jayinlik qilish huquqiga ega bo'lganda edi, mening toj-taxtimni qutqa-

rib qolgan bo'lur edi.

Polisiya ministrining xo'rliqi kelib Vilforqa qaradi, prokuror yordamchisi esa g'olibona kamtarlik bilan boshini egdi.

– Blakas, sizning haqingizda hech narsa deya olmayman, – davom etdi qirol, – biror narsani fosh etmagan bo'lsangiz-da, biroq oqillik qilib fitnadan gumonim bor, deb qattiq turib oldingiz. Boshqa kishi janob Vilforning axborotiga bo'lmag'ur gap deb e'tibor bermagan yoki o'z manfaatini ko'zlayotgan shuhratparastning uydirmasi bu, deb o'ylagan bo'lur edi.

Bu bir soat oldin polisiya ministrining juda gerdayib aytgan so'zlariga ishora edi.

Qirolning bu pichingini Vilfor tushundi. Prokuror yordamchisining o'rnida boshqa odam bo'lganda, maqtovlarga mahliyo bo'lib, esankirab qolgan bo'lardi. Biroq Vilfor polisiya ministrining beomon halokatga yuz tuta-yotganini fahmlagan bo'lsa-da, o'ziga qarshi yana bitta ashaddiy dushman orttirishni istamasdi. Shunisi ham borki, shuncha hokimiyat qo'lida bo'la turib, Napoleonning razil rejalarini bilib ololmagan ministr jon talvasasida Vilforning sirlarini fosh qilib qo'yishi mumkin, buning uchun u Dantesni so'roq qilsa kifoya. Shu sababdan Vilfor ministrning «yarasiga tuz sepish» o'rniga, malham qo'ydi:

– Janobi oliy, – dedi Vilfor, – voqea shu qadar tez yuz berdiki, buni faqat Parvardigorning o'zi to'xtata olishi mumkin edi. Siz janobi oliylari, mening matonatim nati-jasida uzurpatorning rejalari ayon bo'lganini aytyapsiz. Aslida buni men ham tasodifan bilib qoldimu sodiq xizmatkoringiz sifatida bu tasodifdan foydalanib, huzuringizga kelishga shoshildim. Janobi oliylari, so'ng ixlosingiz qaytib qolmasin uchun hozir, birinchi uchrashuv-dayoq birdan meni ortiqcha maqtab yubormasligingizni iltimos qilaman.

Polisiya ministri Vilforqa tabassum-la qarab, minnatdorchilik izhor etdi, Vilfor esa niyatiga erishganini va qirol-

ning marhamatidan mahrum bo'lmagan holda, zarur paytda tayanch bo'ladigan do'st orttirganini angladi.

– Mayli, siz aytgandek bo'lsin, – dedi qirol. – Janoblar, endi... – davom ettirdi so'zini qirol Blakasga va polisiya ministriga, – endi ikkingizga mening boshqa aytadigan gapim yo'q, javob sizlarga... Bundan keyin qilinadigan ishlar, harbiy ministrning vazifasi.

– Baxtimizga, – dedi gersog, – ishonsa bo'ladigan armiyamiz bor: janobi oliylariga ayonki, kelib turgan barcha ma'lumotlar armiyaning toj-taxtiga sodiqligidan dalolat beradi.

– Menga hadeb ma'lumotlar to'g'risida gapiravermang; ularga qanchalik ishonish mumkin ekanini endi bilib oldim. Darvoqe, baron, Sen-Jak ko'chasi to'g'risida qanday yangi ma'lumotlar bor?

– Sen-Jak ko'chasi to'g'risida! – qichqirib yubordi be-xosdan Vilfor, lekin darrov o'zini bosib oldi: – Janobi oliy, kechiring, ba'zan sizga maftun bo'lib ketaman-da, adab qoidalarini (sizga bo'lgan izzat-hurmatimni emas, aslo) unutib qo'yaman.

– Marhamat qiling, – dedi javoban qirol, – bugun siz so'rab-surishtirish huquqiga egasiz.

– Janobi oliy, – so'z qotdi polisiya ministri. – Men bugun siz janobi oliylariga shu masalaga oid yangi ma'lumotlar to'g'risida doklad qilmoqchi edim, ammo janobi oliylarining diqqat-e'tibori Duan ko'rfazida yuz bergan voqealar bilan band bo'lib qoldi, endilikda bu ma'lumotlarning siz uchun hech qanday ahamiyati yo'q.

– Aksincha, – javob qildi qirol, – menimcha, bu ish ham-mamizning diqqatimizni jalb etgan masala bilan bevosita aloqadordir, general Kenelning o'limi mamlakat ichidagi fitnaning izini bizga ayon etib berar.

Vilfor Kenelning nomini eshitib seskanib ketdi.

– Hamma faktlarni hisobga olganda, – davom etdi polisiya ministri, – bu aslida o'z-o'zini o'ldirish emas (boshda shunday deb o'ylashgan edi), qotillikdir. General Kenel bonapartchilar klubidan chiqqandan so'ng gumdon

bo'ldi. Qandaydir bir notanish odam o'sha tongda uning oldiga borib Sen-Jak ko'chasida uchrashishga va'dalashgan. Afsuski, generalning sochlarini tarab turgan mahram, noma'lum kishini olib kirishganda Sen-Jak ko'chasida uchrashishlari to'g'risidagi gapni eshitganu, uy raqamini eslab qolmagan.

Polisiya ministri qirolga bu ma'lumotlarni aytib bera-yotganda, quloqlarini ding qilib turgan Vilfor goh qizarar, goh bo'zarardi.

Qirol unga o'girildi-da, dedi:

– Janob Vilfor, hozirgacha uzurpatorning muxlisi deb atalgan general Kenel sizningcha, menga butunlayin sodiq bo'lgani uchun bonapartchilar tomonidan qatl etil-madimikin?

– Janobi oliy, shunday bo'lishi mumkin. Nahotki, bun-dan boshqa hech narsa ma'lum bo'lmasa?

– Uchrashuv to'g'risida va'dalashgan kishining allaqa-chon iziga tushganlar.

– Iziga tushganlarmi? – takrorladi Vilfor.

– Ha, tushganlar, mahram uning tashqi qiyofasidagi belgilari aytib beribdi: u ellik yoki ellik ikki yoshlarga borib qolgan, qora ko'z, qora soch, qalin qosh, mo'ylovli, tomog'iga tugma qadalgan ko'k kamzul kiygan, faxriy le-gion tasmasini taqqan kishi ekan. Kuni kecha xuddi mana shu belgilari bor kishining iziga tushganlar, biroq u la-Jyusen va Kok-Eron ko'chalari muyulishida ko'zdan g'oyib bo'lgan.

Ministrning dastlabki so'zlaridayoq Vilfor kursi suyan-chig'iga tayanib, o'zini zo'rg'a tutib olgan, oyoqlari chali-shib ketgan edi, biroq o'sha noma'lum kishi polisiyaga chap berib, qutulib ketganini eshitgach, yengil nafas oldi.

– O'sha odamni toping, – dedi qirol polisiya ministri-ga, – chunki shu paytlarda bizga juda asqatadigan general Kenel qotil qo'lida halok bo'lgan ekan, u bonapartchimi yoki boshqami, bundan qat'i nazar, men u qotilning qattiq jazoga duchor etilishini istayman.

Qirolning so'nggi so'zlari Vilforni nihoyatda vahimaga

solgan edi, biroq u zo'r-bazo'r o'zini bosib, bu holatini sezdirmedi.

– Ajabo! – davom etdi qirol afsuslanib. – Polisiya qotilik yuz bergan deganda, aytiladigan gaplarning hammasi aytildi deydi, yana qo'shimcha qilib: aybdorning iziga tushdik, deganda, hamma ish bajo etildi deydi.

– Bu gal, siz janobi oliylari, mamnun bo'lursiz, deb umid qilaman.

– Ha, mayli, bu yog'ini ko'rarmiz, baron, sizga ruxsat. Janob de Vilfor, uzoq safarda ancha toliqib qolgan bo'lsangiz kerak, boring, dam oling. Otangizning uyiga tushgandirsiz?

Vilforning kayfi uchdi.

– Yo'q, men, janobi oliy, Turnon ko'chasidagi «Madrid» mehmonxonasiga tushdim.

– Biroq siz uni ko'rgandirsiz?

– Janobi oliy, men to'g'ri gersog Blakas huzuriga bordim.

– Har holda siz otangizni ko'rgani borarsiz?

– Xayolinga keltirganim ham yo'q!

– Darvoqe, – dedi qirol, bu savollarni jo'rttaga berayotganligi uning sun'iy iljayishidan sezilib turardi. – Janob Nuarte bilan orangiz buzuqligini unutibman, shuni ham men toj-taxtim uchun bir qurbon deb bilaman va buning uchun sizni taqdirlashim lozim.

– Janobi oliy, menga ko'rsatgan marhamatingizning o'zi hamma orzularimni ortig'i bilan ushaltiradigan mukofot, bundan boshqa tilagim yo'q.

– Shunday bo'lsa-da, biz sizni unutmaymiz, xotirjam bo'ling; hozircha (qirol ko'k kamzuliga – muqaddas Lyudovik kresti yoniga Karmil Momosi va muqaddas Lazar yulduzi ustiga taqib yuradigan Faxriy legion krestini olib Vilforga uzatdi) hozircha mana shu krestni olib turing.

– Janobi oliy, adashyapsiz, – dedi Vilfor, – bu ofiser kresti.

– Hechqisi yo'q, oling buni; boshqasini oldirib kelishga vaqtim yo'q. Blakas, janob de Vilforga yorliq olib be-

rishni sizga topshiraman.

Vilforning ko'zlarida g'urur, quvonch yoshlari paydo bo'ldi. U krestni qabul qildi va o'pdi.

– Oliy janoblarining menga yana qanday farmoyishlari bor? – so'radi Vilfor.

– Dam oling, so'ngra shuni unutmangki, mabodo Parijda menga xizmat qilishga qurbingiz yetmay qolgudek bo'lsa, Marselda menga yordam berishingiz mumkin.

– Oliy janoblari, – javob qildi ta'zim etib Vilfor, – bir soatdan keyin Parijdan chiqib ketaman.

– Boring, – dedi qirol, – agarda men sizni unutilib qo'ygudek bo'lsam, hech tortinmay o'zingiz esimga solib turing... (Qirollar parishonxotir bo'ladilar). Baron, buyuring, menga harbiy ministri chaqirib bersinlar. Blakas, ketmay turing.

– Bopladingiz, janob, – dedi polisiya ministri Vilfora Tyuilridan chiqayotib. – Qaysi eshikka bosh suqish kerakligini bilarkansiz, endi mansab pog'onalaridan yuqoriga chiqib boraverasiz.

– Qachongacha? – dedi ohista ovoz bilan Vilfor mansabiga zil ketgan ministr bilan xayrlashayotib va atrofga alanglab faytun axtardi.

Qirg'oqdan faytun o'tib borayotgan edi. Vilfor uni chaqirdi, manzilni aytib, faytunga irg'ib mindi-da, shuhrat qozonish borasida shirin xayollarga cho'mdi. O'n daqiqa o'tar-o'tmas uyiga keldi, ikki soatdan so'ng otlar qo'shilsin, dedi-da, nonushta keltirishni buyurdi.

Stolga o'tirishi bilan kimdir dadillik bilan eshik qo'ng'irog'ining ipini tortdi, xizmatkor borib eshikni ochishi bilan kimdir uning nomini aytdi. «Parijga kelganimni kim bildi ekan?» o'yladi qirol prokurorining yordamchisi.

Xizmatkor qaytib kirdi.

– Kim u? – so'radi Vilfor. – Qo'ng'iroq chalgan kim ekan? Meni kim so'rayapti?

– Notanish janob, nomini aytmayapti.

– Nechun? O'z nomini aytishni istamayaptimi? Menda uning nima ishi bor ekan?

- U siz bilan gaplashmoqchi ekan.
- Men bilan?
- Ha, siz bilan.
- Ko‘rinishi qanaqa?
- Ellik yoshlarga borib qolgan.
- Pakanami? Yoki novchami?
- Bo‘yi sizdek.
- Rangi qorami, mallami?
- Qorachadan kelgan, sochlari, mo‘ylovi qop-qora, qo‘llari ham qora.
- Kiyimi-chi? – so‘radi qiziqib Vilfor. – Ustidagi kiyimi qanaqa?
- Tomog‘igacha tugmasi solingan ko‘k kamzil kiyib, Faxriy legion tasmasi taqib olgan.
- O‘shaning o‘zi! – shivirladi bo‘zarib Vilfor.
- Tavba! – dedi tashqi qiyofasi yuqorida ikki marta tasvir etilgan odam bo‘sag‘ada paydo bo‘lib. – Marosimning oxiri bormi? Yoki Marselda yashovchi o‘g‘illar otalarini eshik oldida kuttirib qo‘yishni odat qilib olganlarmi?
- Ota! – qichqirib yubordi Vilfor. – O‘zim ham siz bo‘lsangiz kerak deb o‘ylagan edim, to‘g‘ri chiqdi.
- Shunday deb o‘ylagan ekansan, – davom etdi mehmon burchakka hassasini va stulga shlyapasini qo‘yib, – meni eshik oldida kuttirib qo‘yishing odobdan emas-da, azizim Jerar.
- Jerman, sizga ruxsat, – dedi Vilfor.
- Xizmatkor taajjublelanib chiqib ketdi.

XII. OTA VA O‘G‘IL

Janob Nuarte (chindan ham haligi odam Nuarte edi) xizmatkor eshikni yopib chiqib ketmaguncha, undan ko‘zini uzmani; so‘ng dahlizdan quloq solmasin deb eshikni sal ochib qaradi: ehtiyotkorlik behuda ketmadi, Jerarning makkorlik bilan tuyog‘ini shiqillatishidan ma‘lum bo‘ldiki, u ham ko‘plarni halok etgan rasvo qiliqdan xalos emas ekan. Nuarte o‘z qo‘li bilan birinchi xonaning

eshigini ham mahkam bekitti va shundan keyingina anqayib qolgan Vilforqa qo'lini uzatdi.

– Bilasanmi, Jerar, – dedi u o'g'liga iljayib, buning tagida qanday ma'no borligini bilishi qiyin edi, – men bilan uchrashuvdan seni juda xursand bo'ldi, deyish mumkin emas, albatta.

– Ota, nega bunday deysiz, aksincha, men nihoyatda shodman: to'g'ri, siz kelasiz deb o'ylamagan edim, shuning uchun hayratda qoldim.

– Ammo, azizim, – davom etdi janob Nuarte kursiga o'tirib, – men ham sizga xuddi shunday deyishim mumkin edi. Nechun? Siz menga yozgan xatingizda nikoh to'yimiz yigirma sakkizinchi fevralda Marselda bo'ladi, degan edingiz, ammo uchinchi martda Parijda yuribsiz.

– To'g'ri, men bu yerdaman, – dedi Jerar janob Nuartega yaqin borib, – lekin buning uchun mendan koyinmang; bu yerga sizni deb keldim, ehtimol, mening bu yerga kelishim sizni halokatdan xalos etar.

– O'h-ho', hali shunday deng! – javob qildi janob Nuarte kursida taltayib. – Qani, janob prokuror, o'zi nima gap, ayting-chi, eshitaylik; juda qiziq gap bo'lsa kerak.

– Sen-Jak ko'chasida bonapartchilarning qandaydir klubi bor deyishadi, buni eshitganmisiz?

– Elik uchinchi uydami? Ha, bor, men o'sha klubning vise-prezidentiman.

– Ota, beparvoligingiz meni vahimaga solyapti.

– Xo'sh, nima demoqchisan o'zing, azizim? Shuni bilib qo'yginki, montanyarlar o'linga hukm qilgan, poxol ortilgan aravada yashirinib Parijdan qochgan, Robesper iskovuchlaridan bekinib, Bordos dalalarini kezman bu boshim ko'p narsalarga ko'nikib qolgan. Qani, ayt-chi, o'sha Sen-Jak ko'chasidagi klubda qanday voqea yuz beribdi?..

– Yuz bergan voqea shundan iboratki, o'sha klubga general Kenelni taklif qilishibdi, general soat to'qqizda uyidan chiqib ketgan, ikki kecha-yu, ikki kunduzdan so'ng Senadan uning o'ligini topib olishgan.

– Bu qiziq hodisani sizga kim aytdi?

– Qirolning o‘zi.

– O‘h-ho‘, – dedi Nuarte. – Men esa bu hikoyangizga javoban sizga bir yangilikni aytib beraman.

– Chamamda, bu yangilikdan xabardor bo‘lsam kerak.

– Hali siz oliy hazrat imperatorning qirg‘oqqa tushganidan xabardormisiz?

– Ota, iltimos qilaman, o‘chiring ovozingizni; avvalo bu o‘zingiz uchun foyda, so‘ng men uchun ham. Ha, bu voqeadan xabarim bor, hatto sizdan ilgariroq xabardor bo‘lib ot choptirdim-da, uch kun deganda Marseldan Parijga yetib keldim, chunki aqldan ozdirayozgan fikrni ikki yuz lega yetkazib borolmasman, deb sochlarimni yuldim.

– Uch kun? Aqlingizni yeb qo‘ydingizmi? Uch kun ilgari imperator hali qirg‘oqqa tushgani yo‘q edi-ku.

– To‘g‘ri, ammo men uning bu niyatini bilgan edim.

– Qanday qilib?

– Elba orolidan sizga yozilgan xatdan.

– Menga?

– Ha, sizga. Men xatni chopardan tortib oldim. Bu xat agar boshqa birovning qo‘liga tushib qolganda, sizni alqachon otib tashlardilar.

Vilforning otasi qah-qah urib kulib yubordi.

– Aftidan, – dedi u. – Burbonlar simsiz ish yuritishni imperatordan o‘rganib olganga o‘xshaydilar... Otib tashlardilar emish! Azizim, nihoyatda shoshilyapsiz! Qani xat? Men sizni bilaman, shuning uchun uni juda mahkam joyga yashirib qo‘ygan bo‘lsangiz kerak.

– Uni, bir parchasini ham qodirmay yondirib yubordim, chunki bu xat sizni o‘limga mahkum qilardi.

– Sizni mansabdan mahrum etardi, – dedi beparvolik bilan Nuarte, – to‘g‘ri aytasiz, biroq sizdek himoyachim bor ekan, men nimadan ham qo‘rqardim.

– Bugina emas, men sizni o‘lim xavfidan xalos etyapman.

– O‘h-ho‘, hali shundaymi? Bunisi yana qiziq-ku! Qani, tushuntirib bering-chi?

– Sen-Jak ko‘chasidagi klub masalasiga o‘taylik.

– Bu klub polisiyachi janoblarini rosa tashvishga solib qoʻygan, shekilli. Nechun ular bu klubni shu vaqtgacha topolmay yurishibdi? Agar yaxshilab axtarganlarida allaqachon topib olishardi!

– Topmagan boʻlsalar-da, iziga tushganlar.

– Bu mavhum bir gap; polisiya oʻqib qolsa, iziga tushdik deb bahona topishadi, shundan soʻng polisiya boshligʻi moʻltayib kelib, izni yoʻqotib qoʻydim, kechiring bizni deguncha, hukumat kutib oʻtiraveradi.

– Toʻgʻri-ya, lekin jasad topilgan, general Kenelning jasi. Barcha mamlakatlarda buni qotillik deb atashadi.

– Qotillik? Biroq generalning oʻldirilganligi haqida hech qanday dalil yoʻq. Jonidan toʻyib oʻzini suvga tashlagan yoki suzishni boʻlmay choʻkib ketgan kishilarning oʻligini Sena daryosidan har kun topib turishadi.

– General jonidan toʻyib oʻzini daryoga otmaganini va yanvar oyida Senada choʻmilib boʻlmasligini siz yaxshi bilasiz. Qoʻying, bekorga dalda bermang oʻzingizga; uni oʻldirganlar, ha, buni qotillik deb ataydilar.

– Kim shunday deb ataydi?

– Qirolning oʻzi.

– Qirolning oʻzi? Men uni faylasuf va siyosatda qotillik degan narsaning oʻzi yoʻqligini biladi, deb yurardim. Chirogʻim, menga ham, sizga ham ayonki, siyosatda odamlar emas, gʻoyalar nazarda tutiladi, hissiyotlar emas, manfaatlar toʻqnashadi. Siyosatda odamlarni oʻldirmaydilar. Bu qanday yuz berganini bilmoqchimisiz? Men hikoya qilib berishim mumkin. Biz general Kenelga ishonsa boʻladi, deb oʻylagan edik, uni bizga Elba orolidan tavsiya qilgan edilar. Oʻrtoqlarimizdan biri uning huzuriga borib, Sen-Jak koʻchasida boʻladigan majlisga taklif qiladi, u keladi, unga Elba orolidan joʻnash va Fransiya qirgʻogʻiga tushish toʻgʻrisidagi barcha rejalarni ochiq aytib berishadi. Bu gaplarning hammasini eshitib, bilib olgandan keyin, u men royalistman, deydi. Hamma hayron boʻlib, bir-biriga qarab qoladi. Uni qasam ichishga majbur etadilar, u boʻyni yor bermay, zoʻr-bazoʻr Xudoni tilga olib qasamyod qiladi.

Shunday bo'lsa-da, generalga tegmaydilar, u majlisdan osoyishta chiqib ketadi. Ammo uyiga qaytib kelmaydi. Xo'sh, endi nima deysiz? Bizdan chiqqach, u yo'ldan adashibdi, vassalom. Qotillik emish! Siz meni taajjubga solyapsiz, Vilfor, qirollik prokurorining yordamchisi mana shunaqangi asossiz dalillarga asoslanib aybnoma yozmoqchi. Bundoq o'ylab ko'ring-chi: mabodo siz sodiq royalist sifatida qachon bo'lmasin bizlardan birontamizni narigi dunyoga jo'natsangiz, men: «O'g'lim, siz odam o'ldirdingiz!» dermidim; bunday deyishni xayolimga ham keltirmasdim, aslo. Aksincha, «Marhamatli janob, boplad-ingiz, qoyil qildingiz, g'alaba qozondingiz, endi navbat bizniki», derdim.

– Ota, ehtiyot bo'ling, navbat bizga kelganda, rahm-shafqat degan narsa bo'lmaydi.

– Gapingizga tushunmadim.

– Uzurpator qaytadi, deb umid qilyapsizmi?

– Ha, umid qilaman, buni sir saqlamayman ham.

– Adashyapsiz, u Fransiya tuprog'iga bir qadam ham bosib kirolmaydi, poylab turib, uni yirtqich hayvondek tutib olishadi.

– Azizim, imperator allaqachon Fransiya tuprog'iga tushib olib, Grenobl tomon kelyapti. To'qqizinchi yoki o'n ikkinchida u Lionda bo'ladi, yigirmanchi yoki yigirma beshinchida Parijga kelib kiradi. Tushunarlimi?

– Aholi qo'zg'aladi...

– To'g'ri, uni tabriklab kutib olish uchun...

– Uning barmoq bilan sanarli odamlari bor, xolos, unga qarshi butun-butun armiyalarni yuborishadi.

– Bu armiyalar ham uni tantana bilan poytaxtgacha kuzatib kelishadi. Siz hali go'daksiz: imperator qirg'oqqa tushganidan uch kun o'tgach, telegraf sizga, «Uzurpator bir qism odamlari bilan Kanniga qo'nibdi, uni tutib olish uchun askar yuborildi», deb xabar qilsa bas, hamma voqeadan xabardorman, deb hovliqasiz. Biroq u qaerda? Nima qilyapti? Bundan mutlaqo bexabarsiz. Tutib olish uchun askar yuborilganinigina bilasiz. Tutib kelish uchun

yuborilgan kishilar Parijgacha uning ketidan bitta ham o'q uzmay quvib kelaverishadi, mana bo'ladigan gap shu.

– Grenobl va Lion – royalistlar shahri, u shaharlardagi royalistlar zo'rvonning yo'lini o'tib bo'lmaydigan g'ovlar bilan to'sadilar.

– Grenobl qulochini ochib, quvonch bilan kutib oladi uni; butun Lion aholisi peshvoz chiqadi uning istiqboliga. Amin bo'ling, bu narsalardan biz ham yaxshi xabardormiz, bizning polisiyamiz siznikidan qolishmaydi. Mana sizga bir dalil: siz bu yerga kelganingizni mendan sir saqlamoqchi edingiz, men esa siz zastavadan o'tgandan yarim soat o'tar-o'tmas kelganingizni bildim. Manzilingizni faqat pochta faytunchisiga aytgan ekansiz, siz stolga o'tirishingiz bilan men keldim, binobarin, bu manzil menga ma'lum edi. Shuning uchun ham yana bir ovqat chaqiring, birga ovqatlanamiz.

– Darhaqiqat, – dedi Vilfor, taajjub-la otasiga tikilib, – siz juda aniq ma'lumot olarkansiz, tavba.

– Buning yo'li juda oson, siz ya'ni hukumat tepasida turuvchilar faqat pulga sotib olish mumkin bo'lgan vositalarga egasizlar, biz esa, ya'ni hukumat tepasiga intilayotganlar sodiqlik va fidokorlik natijasida vujudga keladigan hamma vositalarga egamiz.

– Sodiqlik? – takrorladi Vilfor iljayib.

– Ha, sodiqlik. Kelajakka umid tutadigan shuhratparastlikni odob yuzasidan shunday deb atashadi.

Chol o'g'li xizmatkorini chaqirmayotganini ko'rib, qo'ng'iroqqa o'zi qo'l uzatdi.

Vilfor uni to'xtatdi.

– Sabr qiling, ota, yana bir so'zim bor.

– Gapiring.

– Bizning polisiyamiz qanchalik no'noq bo'lmasin, bir dahshatli sirni biladi.

– Qanaqa sir ekan?

– General Kenel yo'qolgan kuni uni chaqirib kelgan kishining tashqi ko'rinishidagi belgilarni.

– Shundaymi hali?! Polisiya uni bilarkanmi? Nahotki?

Qanaqa belgilar ekan u?

– Qorachadan kelgan, sochlari va koʻzlari qop-qora, ustida yoqasigacha tugmasi solingan koʻk kamzul, petli-sasida Faxriy legionning tasmasi, keng shlyapa va qoʻlida qamish hassa.

– A-ha!.. Polisiya bilarkan-da? – dedi Nuarte. – Shunday ekan, nega endi polisiya u odamni tutib olmabdi?

– Chunki, kecha yoki oʻtgan kuni u Kok-Eron koʻchasi muyulishida polisiyaga chap berib ketibdi.

– Polisiyangiz kaltafahm deb bejiz aytmadim-da, men sizga.

– Toʻgʻri, ammo uni istagan paytda polisiya topib oladi.

– Albatta, – dedi Nuarte parvoyi palak atrofga alanglab. – Mabodo u odamni ogohlantirmaganlarida, tutishlari mumkin edi, biroq uni ogohlantirib qoʻyishgan. Demak, – dedi u iljayib, – u yuzini va kiyimini oʻzgartib oladi.

Shu soʻzlarni aytib u oʻrnidan turdi, kamzulini va gals-tugini yechdi, Vilforning safar buyumlari turgan stol oldiga bordi-da, ustarani oldi, yuzlarini sovunlab, hammaga tanish uzun bakenbardlarini qirib tashladi; bu bakenbardlarning, polisiya uchun ahamiyati katta edi.

Buni koʻrgan Vilforni vahima bosdi.

Nuarte bakenbardlarini olib boʻlgach, sochlarini boshqacha shaklga solib taradi; qora galstuk oʻrniga ochiq chamadondan rangdorini olib taqdi; ustidagi koʻk kamzulini yechdi-da, Vilforning jigarrang kamzulini kiydi: uning cheti qayrilgan shlyapasini oyna oldiga borib kiyib koʻrdi, aftidan, yoqib qoldi shekilli, yechmadi; oʻzining hassasini tosh pechkaning burchagiga qoʻydi-da, qirollik prokurori yordamchisining yurishiga erk va nazokat bagʻishlovchi bambukdan yasalgan yengil tayoqni oldi.

– Xoʻsh, qalay? – dedi u anqayib joyida qotib qolgan oʻgʻliga oʻgʻirilib. – Xoʻsh, endi seningcha, polisiya meni tanib olarmikin?

– Yoʻq, ota, – dedi mingʻirlab Vilfor, – men aminmanki, tanib ololmas.

– Senga tashlab ketayotgan mana bu buyumlar masalasiga kelganda, senday hushyor odam ularni hech kim topolmaydigan joyga bekitib qo‘ya olishiga imonim komil.

– Xotirjam bo‘ling! – dedi Vilfor.

– Rostini aytganda, sen haqsan; ehtimol chindan ham meni halokatdan qutqargandirsan, biroq tashvishlanma, yaqinda men ham seni qutqaraman baloyi azimdan.

Vilfor boshini chayqadi.

– Ishonmayapsanmi?

– Har holda xato qilyapsiz, degan umiddaman.

– Sen qirolni yana ko‘rsanmi?

– Ehtimol.

– Uning ko‘z oldida o‘zingni avliyo qilib ko‘rsatmoqchimsan?

– Baxtsizlikni karomat qiladigan avliyolarni saroyda xush ko‘rmaydilar.

– To‘g‘ri-ya, biroq bugun emas, erta ana shu avliyolarga sig‘inishga majbur bo‘lishadi: ikkinchi tiklanish davri bo‘ladi deb faraz qilaylik, u vaqtda sen ulug‘ zot degan shuhrat qozongan bo‘lur eding.

– Men qirolga nima deyishim kerak?

– Unga shunday degin: «Janobi oliylari, Fransiyaning ahvoli, shaharlardagi aholining ahvoli-ruhiyati, fe‘l-atvori, armiyaning ruhi to‘g‘risida sizga yolg‘on gaplarni aytihib, aldashyapti, siz Parijda o‘tirib olib, Korsika odamxo‘ri, Neveradagi uzurpator degan odamni endilikda Lionda Bonapart deb, Grenoblda imperator deb atayaptilar. Siz, uni tahqir etib quvyaptilar, u qochib yuribdi deb o‘ylaysizku, aslida u tog‘ burguti kabi uchib, qaytib kelyapti biz tomonga: siz uning armiyasi ochlikdan qirilyapti, yo‘l bosa-bosa holdan toygach, tumtaraqay bo‘lishga tayyor deysizu haqiqatda esa uning armiyasi lolaqizg‘aldoqdek hamma yoqni bosib boryapti. Janobi oliy, Fransiyani uning jang qilib olgan egasiga topshirib, jo‘nang bu yerdan: siz xavf-xatarga qolayotganingiz uchun jo‘nang deyayotganim yo‘q, raqibingiz sizga marhamat

qilarli kuch-qudratga ega: Arkoli, Marengo va Austerlis qahramoni oldida muqaddas Lyudovik avlodining qo‘l qovushtirib bosh egib turishi uyat». Jerar, mana shularning hammasini ayt qiroлга, yoki, qo‘y, yaxshisi unga hech nima dema. Parijda bo‘lganingni hammadan sir tut, bu yerga nima uchun kelganingni va nima qilganingni hech kimga aytma: ot kira qilgin-da, orqaga uch. Marselga tunda qaytib bor, uyingga orqa eshikdan kirgin-da, hech yoqqa chiqmay, hech kimga ko‘rinmay, qimir etmay o‘tir, eng muhimi jim o‘tir, chunki bu gal biz dushmanlarimizni bilib olgan, kuch-g‘ayratga to‘lgan holda hujum qilamiz. O‘g‘lim, jo‘nang bu yerdan, shunday qilsangiz, ota nasihatlariga quloq solganingiz uchun yoki do‘stning maslahatlarini hurmat qilganingiz uchun, biz sizni o‘z o‘rninigizda qoldiramiz. Bu, – qo‘shimcha qildi Nuarte kulib, – vaqti-soati kelib siz siyosat zinasining tepasiga chiqib, men pastga tushib qolgundek bo‘lsam – meni xavf-xatarlardan o‘shanda xalos qilish uchun sizga imkoniyat tug‘dirib beradi. Xayr, Jerar, kelasi gal menikiga tushing.

Nuarte shunday dedi-da, butun og‘ir suhbat davomida o‘zini qanday vazmin, xotirjam tutgan bo‘lsa, xuddi shunday holda chiqib ketdi.

Rangi o‘chib, qoni qochgan Vilfor yugurib deraza oldiga borib darpardani ikki tomonga surdi-da, ko‘chaga qaradi: otasi hech narsani nazar-pisand qilmay, ikki-uch shubhali kishi oldidan o‘tib ketdi, haligi odamlar, aftidan, qora bakenbardli, ko‘k kamzul va keng shlyapa kiygan kishini tutib olish uchun poylab turgan bo‘lsalar kerak.

Vilfor titrab-qaqshab, otasi muyulishdan o‘tib ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha deraza oldidan ketmadi. So‘ng otasi qoldirgan buyumlarni apil-tapil yig‘ishtirib oldi, qora galstukni, ko‘k kamzulni chamadonning tagiga tiqdi, shlyapani g‘ijimlab shkafning eng pastki tortmasiga soldi, hasani mayda-mayda qilib sindirdi-da, pechkaga uloqtirdi, yo‘l shapkasini kiyib, xizmatkorni chaqirdi, bir nigoh tashlashning o‘zidayoq hamma savollarni bartaraf etdi, ijara haqini to‘ladi, uni kutib turgan faytungga mindi. Bonapart-

ning Grenobliga kirganini Lionda bildi va butun yo'l bo'yi hayajonga tushgan holda, ming azob-uqubatda Marselga yetib keldi. Zero, shuhratparastlik va birinchi yutuqlar kishi qalbiga iztirob bilan birga kirib keladi.

XIII. YU3 KUN

Nuarte chindan ham ajoyib avliyo ekan, u nima degan bo'lsa, hammasi ro'yobga chiqdi. Bonapartning hech kutilmagan holda qoyilmaqom qilib Elba orolidan qaytib kelishi hammaga ayon. Toj-taxtga bunaqa qaytish o'tmishda bo'lmagan va kelajakda ham bo'lmasa kerak.

Lyudovik XVIII qaqshatqich zarbani qaytarish uchun o'jizona bir harakat qilib ko'rdi; qirol odamlarga ishonmaganidek yuz berayotgan voqealarga ham ishonmasdi. U endigina qayta tiklagan qirollik hokimiyatining, to'g'rirog'i, monarxiya hokimiyatining hali mustahkamlanib olishga ulgurmagani turgaklariga zil ketdi va imperatorning birinchi zarbi bilanoq eski an'analar bilan yangi g'oyalarning bu omonat binosi kunpayakun bo'ldi. Shu sababli Vilforning o'z qirolidan olgan mukofoti keraksiz bo'libgina qolmay, xavfli ham edi; shuning uchun gersog Blakas qirolning buyrug'ini bajo keltirib unga yorliq yuborgan bo'lsa-da, Vilfor Faxrli legion ordenini hech kimga ko'rsatmadi.

Lyudovik XVIII davrida sarson-sargardonlikda azob chekkani va fidokorona xizmatlari uchun imperator saroyida katta mansabni egallab olgan Nuarte himoya qilmaganda, Napoleon Vilforni ishdan chetlashtirgan bo'lur edi. 1793 yilgi jirondist va 1806 yilgi senator so'zining ustidan chiqdi va kuni kecha yordam qo'lini cho'zgan kimsaga yordam qildi.

Yanada yiqilishi ko'rinib turgan Imperatorni tiklash vaqtida Vilfor butun haq-huquqidan foydalanib, naq bo'lmasa Dantes ochib yuborayozgan sirni qattiq saqladi.

Qirollik prokurori esa yetarli darajada bonapartchi

emas, degan shubha bilan ishdan chetlashtirildi.

Imperator hokimiyati endigina tiklangan, ya'ni bundan bir necha daqiqa muqaddam Lyudovik XVIII tashlab chiqqan Tyuilri saroyiga Napoleon kirib kelgan, Vilfor ketidan kitobxonlarimizni ham tanishtirganimiz xonadan – yong'oq daraxtidan yasalgan stol ustida hamon Lyudovik XVIIIning tamaki to'la tamakidoni og'zi ochilganicha qolgan xonadan imperator turli-tuman buyruqlar, farmoyishlarini endigina jo'nata boshlagan bir paytda, Marselda, mahalliy boshliqlarning qarshiliklariga qaramay, janubda hamisha bo'lib turadigan o'zaro jang boshlandi; ish xavfli tus olib borar, uyida tuxum bosib o'tirgan royalistlarga qarata dandonbozlik ko'chaga chiqishga jur'at etganlarni jamoat oldida haqorat qilish bilangina cheklanib qolmaydiganga o'xshardi.

Sharoit o'zgarib ketdi, oqibatda plebeylar lageriga mansub hurmatli armator – savdo-sotiq ishlari pog'onasidan sekin-asta qiynalib ko'tarilgan hamma korchalonlar singari ehtiyotkor va bir oz tortinchoq janob Morrel har narsaga qodir hukmdor bo'lib olmasa-da, ashaddiy bonapartchilar uni orqada qoldirib ketgan bo'lsalar-da, har holda qaddini ko'tarib, arz-dodini dalillik bilan aytib, o'z so'zini o'tkaza oladigan nufuzga ega bo'lib oldi. Uning arz-dodi Dantesga taalluqli ekani bizga ma'lum.

Vilfor boshlig'i qiya bo'lib ketganiga qaramay o'rnida qoldi. To'y buzilib ketmadi, faqat keyinroqqa, tinch vaqtga surildi. Imperator hokimiyatni qo'lida saqlab qolgan-da edi, Jerar boshqa bir partiyani topishga majbur bo'lar edi va Nuarte unga boshqa qalliq topib berardi. Mabodo Lyudovik XVIII yana qaytib taxtga mingudek bo'lsa, markiz de Sen-Meranning ham, Vilforning ham mavqei ikki baravar ortardi, binobarin, mademuazelga uylanish, ayniqsa, Vilforning niyatiga juda mos kelib tushardi.

Shunday qilib, qirollik prokurorining yordamchisi Marsel sudyalari doirasida birinchi o'rinni egallab olgandi.

Ana shu kunlarning birida ertalab unga janob Morrelning tashrif buyurishini xabar qildilar.

Boshqa odam bo'lganda, shoshib armatorga peshvoz chiqib, qo'rqoqligini, irodasi zaifligini ko'rsatib qo'ygan bo'lur edi; Vilfor esa oqil va ziyrak odamlar xilidan edi. U ish bilan band bo'lganidan emas, shunchaki prokuror yordamchisi qabulxonada kuttirishi odat tusiga kirib qolganidan, Morrelni kutib o'tirishga majbur etdi. Turli oqimlardagi bir necha gazetalarni ko'rib chiqqach, chorak soatdan so'ng u janob Morrelni chaqirishni buyurdi.

Morrel, Vilfor meni ko'rib o'zini yo'qotib qo'yar, deb o'ylagan edi, biroq prokuror yordamchisi bundan bir yarim oy ilgari qanday mag'rur, xotirjam, qat'iy va yasama nazokatli bo'lgan bo'lsa, hozir ham xuddi shunday edi, mana shu sovuq, yasama nazokatli muomala mansabdor bilan oddiy kishi o'rtasidagi hamma g'ovlardan kuchli, o'tib bo'lmaydigan to'siq hisoblanadi. Morrel, meni ko'rib Vilforni qaltiroq bossa kerak, deb xonaga qadam tashlagan edi, buning o'rniga o'zi sarosimaga tushdi va yozuv stoli orqasida uni gerdayib kutib o'tirgan prokuror yordamchisini ko'rganda o'zini titroq bosdi.

Morrel bo'sag'ada to'xtadi. Vilfor tanimayotgan kishiga o'xshab unga qaradi. Axiri, bir necha daqiqa hukm surgan sukunatdan so'ng (shu vaqt ichida muhtaram armator shlyapasini qo'lida aylantirgancha qimir etmay turaverdi) prokuror yordamchisining ovozi chiqdi:

– Siz, yanglishmasam, janob Morrel bo'lsangiz kerak?

– Ha, janob, bu men, – javob qildi armator.

– Marhamat, kiravering, – dedi Vilfor kalondimog'lik bilan, – xizmat, menga biror ishingiz bor chog'i, huzurimga tashrif buyuribsiz.

– Nahotki tashrifimning sababini o'zingiz anglab olmagan bo'lsangiz?

– Yo'q, anglay olmayapman, mutlaqo; biroq shunga qaramay, qo'limdan kelsa yordam berishga tayyorman.

– Bu faqat sizning qo'lingizdan keladi, – dedi Morrel.

– Xo'sh, ayting-chi, nima gap?

– Janob, – deb gap boshladi Morrel asta-sekin o‘ziga kelib. Talabi adolatli ekani va maqsadining aniqligi unga dalda berardi. – Esingizda bo‘lsa kerak, imperator oliy hazratlarining qaytishi ma‘lum bo‘lishidan bir necha kun ilgari men huzuringizga kelib, mening kemam kapitani-ning yordamchisi yosh dengizchiga rahm-shafqat qilishin-gizni iltimos qilgan edim. Sizga ma‘lumki, uni Elba oroli bilan aloqada ayblagan edilar. Ilgari bunday aloqada bo‘lgan kishi jinoyatchi hisoblangan bo‘lsa, endilikda u taqdirlanishga va mukofot olishga haqli. U vaqtda siz Lyu-dovik XVIIIga xizmat qilardingiz, shu sababli burchingiz-ni ado etib, aybdorga rahm-shafqat qilmagan edingiz. En-dilikda Napoleonga xizmat qilyapsiz, demak, yana bur-chingizni ado etib, u begunohni himoya qilishingiz shart. Shularni hisobga olib, men u bechoraning holi nima kech-ganini sizdan so‘rab bilmoqchi bo‘lib keldim huzuringiz-ga.

Vilfor zo‘rg‘a o‘zini tutib oldi.

– Uning nomi nima edi? – so‘radi u. – Marhamat qilib, uning nomini aytib bering.

– Edmon Dantes.

Vilforgia ro‘yi-rost aytilgan bu nomni eshitgandan ko‘ra, duelda yigirma besh qadam narida turib dushman o‘qiga peshonasini tutib berish yaxshiroq edi, deb o‘ylashi mum-kin kishi. Ammo Vilfor pinagini ham buzmay bezrayib tu-raverdi.

«U yigitni o‘zining shaxsiy manfaatlarini ko‘zda tutib qamadi, deb meni hech kim ayblay olmaydi», ko‘nglidan o‘tkazdi Vilfor.

– Dantes? – takrorladi u. – Edmon Dantes dedingizmi?

– Shunday, janob.

Vilfor kontorkadagi katta ro‘yxat daftarini ochdi, so‘ng boshqa stol yoniga bordi, undan papkalar taxlab qo‘yil-gan javonlar oldiga o‘tdi-da, armatorga qarab nihoyatda tabiiy ovoz bilan so‘radi:

– Janob, adashmayapsizmi?

Morrelning zehni o‘tkirroq bo‘lib, bu ishning qanday

vaziyatda hal etilganidan yaxshiroq xabardor bo'lganda edi, prokuror yordamchisi gapni nega boshqa yoqqa burishga urinayotganidan taajjublanib, «Nega Vilfor meni mahbuslar ro'yxatiga, turma boshlig'iga, departament boshlig'iga yubormayapti?» deb o'z-o'ziga savol bergan bo'lar edi. Biroq Vilforning qiyofasida hamon vahima alomatlarini axtarayotgan Morrel prokuror yordamchisining bu harakatlarini yaxshilik belgisi, muruvvat alomati deb fahmladi, Vilfor xuddi shunday bo'lishini kutgan edi.

– Yo'q, – javob qildi Morrel, – adashayotganim yo'q: sho'rlikni o'n yildan buyon bilaman, menda esa to'rt yil xizmat qildi. Bundan bir yarim oy muqaddam men sizdan shafqatli bo'lishni iltimos qilgan edim, esingizdami? Endi adolatli bo'lishingizni iltimos qilaman. Meni ancha noxush, sovuq qabul qilib, so'rovlarimga zarfa bilan javob bergan edingiz. O'sha vaqtlarda royalistlar bonapartchilarga berahm edilar.

– Hurmatli janob, – deb e'tiroz bildirdi Vilfor zarbani o'ziga xos sovuqqonlik va epchillik bilan bartaraf qilib. – Men Burbonlar taxtining qonuniy vorisigina emas, shuning bilan birga, xalqning o'zi saylagan vakillari deb o'ylab yurganimda royalistlar safiga kirgan edim. Ammo imperatorning saroyga g'olibona qaytib kelishi mening adashganimni tasdiqlab berdi. Napoleonning geniysi g'olib chiqdi: sevimli monarxgina – qonuniy monarx bo'la oladi.

– Balli! – dedi Morrel dag'alroq ohangda, ochiq gapirib. – Sizdan binday gaplarni eshitish biz uchun quvonchli albatta, men bundan sho'rlik Edmonning ishi ham yaxshi bo'ladi degan xulosa chiqardim.

– Sabr qiling, – dedi Vilfor yangi ro'yxatni varaqlatib, – esimga tushyapti: dengizchi edi, shekilli? Katalaniyalik qizga uylanmoqchi ham edi, chamamda? Ha, ha, esga tushdi; bu juda jiddiy ish edi.

– Rostdan-a?

– Siz yaxshi bilasizki, uni sud zalidan to'g'ri turmaga olib ketishdi.

– Bilaman, xo'sh, keyin-chi?

– Keyin axborot yozib, uning yonidan topilgan xatlarni qoʻshib Parijga yubordim. Shunday qilishga majbur edim men... Bir haftadan soʻng mahbusni olib ketishdi.

– Olib ketishdi? – qichqirib yubordi Morrel. – Shoʻrlik yigitni nima qilishdi ekan?

– Xavotir olmang! Uni, aftidan, Fenestrelga, Pinerolga yo boʻlmasa Margarita oroliga surgun qilgan boʻlsalar kerak. Goʻzal tonglarning birida u qaytib huzuringizga keladi-da, oʻz kemasining qoʻmondonligini qabul qiladi.

– Qachon kelmasin, qoʻmondonlik uning uchun tayyor... Biroq nega shu paytgacha qaytib kelmadi? Axir, Napoleon yustisiyasi birinchi galda royalistlar yustisiyasi qamagan kishilarni ozod qilishi zarur edi-ku.

– Janob Morrel, kishini darrov gunohkor etish yaramaydi, – javob qildi Vilfor, – har qanday ishni qonun asosida hal etish kerak. Qamoqqa olish toʻgʻrisida eng yuqori lavozimdagi boshliqdan buyruq olingan edi; ozod qilish toʻgʻrisidagi buyruqni ham ana oʻsha boshliqdan olish kerak. Napoleonning qaytib kelganiga atigi ikki hafta boʻldi. Qamalganlarni ozod etish toʻgʻrisidagi farmoyishlarni endigina yozishyapti.

– Axir, – dedi Morrel, – bu rasmiyatchilikni tezlashtirsa boʻlmaydimi? Biz gʻolib chiqdik. Mening doʻstlarim bor, yuqori martabalilar bilan aloqam yaxshi; hukmni bekor qildirishim mumkin.

– Hukm boʻlgani yoʻq.

– Qamoqqa olish toʻgʻrisida qaror boʻlishi kerak-ku, uni bekor qildiraman.

– Siyosiy ishlarda mahbuslarning roʻyxati boʻlmaydi; ayrim hollarda odamning bedarak yoʻqolib ketishidan hukumat manfaatdor boʻladi. Roʻyxat boʻlganda, axtarib topish mumkin edi uni.

– Burbonlar davrida shunday edi, biroq endilikda...

– Hamisha shunday boʻladi, qadrli janob Morrel. Hukumatlar bir-biri bilan oʻrin almashadi va biri ikkinchisiga oʻxshaydi. Lyudovik XVI zamonida joriy etilgan jazo mashinalari hozirgacha ishlab kelyapti. Faqat Bastiliya yoʻq.

Turma ustavlariga amal qilishda Lyudovik XVI ga nisbatan imperator qattiqqo'l edi, ro'yxatga olinmagan mahbuslar esa son-sanoqsiz.

Vilforning ochiq ko'ngil bilan aytgan bu so'zlari har qanday ishonch-umidni puchga chiqarib tashlashi mumkin edi. Morrelda esa zarracha bo'lsin shubha-gumon yo'q edi.

– Janob Vilfor, menga maslahat bering: sho'rlik Dantesning qaytishini tezlatish uchun nima qilsam ekan?

– Birgina maslahat berishim mumkin: adliya ministriga iltimosnoma yozing.

– Eh, janob Vilfor! Iltimosnomaning taqdiri nima bo'ljagini bilasiz-ku; ministr bulardan har kuni ikki yuztasini oladi va shundan to'rttasini o'qisa o'qiydi, o'qimasa yo'q.

– Bu gapingiz to'g'ri, – dedi Vilfor, – biroq mening xatim bilan bevosita yuborilgan iltimosnomani ministr albatta o'qiydi.

– Mening iltimosnomamni o'zingiz xat yozib qo'shib yuborishni gardaningizga olasizmi?

– Jonim bilan. Ilgari Dantes aybdor bo'lishi mumkin edi, endi u aybdor emas. Men uni ilgari qamoqqa olishga majbur bo'lganim kabi, endi ozod qilishga ham majburman.

Vilfor bu gaplari bilan o'zi uchun xavfli bo'lgan va uni batamom halokatga duchor etadigan tergovning oldini oldi.

– Iltimosnomani ministrga qanaqa qilib yozish kerak?

– Qani janob Morrel mana bu yerga o'tiring, – dedi Vilfor o'z joyini unga bo'shatib. – Men aytib turaman, siz yozasiz.

– Marhamat etib, aytib turasizmi?..

– Xuddi shunday! Qani, behudaga vaqtни o'tkazmaylik, ancha vaqt bekorga o'tib ketdi.

– To'g'ri, juda to'g'ri! Bechora Dantes ming azob chekib, ehtimol jonidan to'yib, sabr-toqati tugab kutyapti. Axir uni unutmazlik kerak, aslo unutmazlik kerak.

3imiston turmada unga la'natlar o'qib yotgan mahbus

yodiga tushdi-da, Vilfor seskanib ketdi. U ishni juda chuqurlashtirib yuborgan edi, endi orqaga qaytishning iloji yo'q, aslo, uning shuhrat orttirish yo'lida bosayotgan qadamlari ostida Dantes majaqlanib ketmog'i shart.

– Men tayyorman, – dedi Morrel Vilforning kursisiga cho'kib qo'liga qalam olarkan.

– Vilfor iltimosnomaning matnini aytib berdi. Unda, shubhasiz, eng yaxshi niyatlar bilan Dantesning vatanparvarligi va bonapartchilarga qilgan xizmatlarini juda oshirib ko'rsatdi. Shu iltimosnomada Dantes Napoleonning qaytishida jonbozlik ko'rsatgan kishilardan biri qilib tasvirlandi. Ministr mabodo haligacha adolatni tiklab Dantesni bo'shatmagan bo'lsa, bu xatni o'qib, darhol shunday qilishi, ya'ni adolatni tiklab, Dantesni ozod qilishi muqarrar edi.

Iltimosnoma yozilib bo'lgach, Vilfor uni baland ovoz bilan o'qidi.

– Juda soz, – dedi u, – endi bu yog'ini menga qo'yib berasiz.

– Buni qachon jo'natasiz?

– Shu bugunoq.

– Yoniga o'z xatingizni ham qo'shib-a?

– Yaxshisi, men shu iltimosnomaning o'ziga, bunda yozilganlarning hammasi juda to'g'ri, deb tasdiqlab imzo qo'ysam yuzta xatdan kuchliroq bo'lur.

Vilfor kursiga o'tirdi-da, xatning burchagiga haligi so'zlarni yozib qo'ydi.

– Endi men nima qilmog'im kerak?

– Kuting, – javob qildi Vilfor, – qolgan ishlarning hammasini men o'z gardanimga olaman.

Komil ishonch bilan aytilgan bu so'zlar Morrelni yanada umidvor etdi. U qirollik prokurori yordamchisidan nihoyatda mamnun bo'lib chiqdi va o'g'lini tez ko'rajagini xabar qilish uchun keksa Dantesning uyi tomonga jo'nadi.

Vilfor esa iltimosnomani Parijga yubormay, o'zida ehtiyot qilib saqladi. Dantesni qutqazish kerak bo'lgan bu xat, mabodo Evropadagi ahvolga va voqealarning

o'zgarib borayotganiga qarab kutilgan hol yuz bergudek bo'lsa, ya'ni qayta restavratsiya boshlansa, bu iltimosnomada pirovard-natijada uni halokatga mahkum etishi mumkin edi.

Shunday qilib, Dantes mahbusligicha qoldi. Zindonda, butun dunyodan badarg'a bo'lgan Dantes Lyudovik XVIIIning ag'darilishidagi momaqaldiroqlarni va Imperiyaning qulashidagi dahshatli gumbur-gumburlarini eshitmadi.

Vilfor esa atrofda yuz berayotgan hamma voqealar, hodisalarga ko'z-quloq bo'lib turdi. Napoleonning qaytganidan buyon Yuz kun deb ataladigan qisqa muddat mobaynida Morrel yana ikki marta kelib, Dantesni bo'shattirib ber, deb g'alva ko'tardi, biroq ikki safar ham Vilfor va'dalar va umid-orzular bilan uni ortiga qaytarib yubordi. Pirovardida Vaterloo voqeasi yuz berdi. Shundan so'ng Morrel Vilfor kabinetiga qadam bosmay qo'ya qoldi: u yosh do'stini xalos etish uchun qo'lidan kelgan hamma chora-tadbirlarni ishlatib ko'rdi, endilikda, ikkinchi restavratsiya davrida bu borada yana urinishi uning mavqeiga putur yetkazishi mumkin edi.

Lyudovik XVIII taxtga qaytdi. Marselda turli xil qilmishlari ko'z oldiga kelib, vijdon azobida qiynalayotgan Vilfor Tuluza shahrida qirollik prokurori lavozimini egallashga muvaffaq bo'ldi. Bu shaharga ko'chib kelganidan ikki hafta o'tgach, u markiza Rene de Sen-Meranga uylandi. Go'zal qallig'ining otasi esa endilikda saroyning eng nufuzli zodagonlaridan bo'lib olgan edi.

Shu sababli Dantes Yuz kun mobaynida ham, Vaterloo voqeadan so'ng ham odamlarning yodidan ko'tarildi-da, turmada qolaverdi.

Napoleonning Fransiyaga qaytganini eshitgan Danglar Dantesga qanday qaqshatqich zarba berganini angladi; uning yashirin ma'lumoti mo'ljalga borib tekkan edi; jinoiy ishlarda ma'lum darajada hunar orttirgan va oddiy turmushda o'rta qobiliyatga ega kishilar singari Danglar ishning bunchalik o'ngidan kelishini «taqdir taqozosi» deb

atadi.

Biroq Napoleon Parijga kirib kelganida va uning kuchli, hukmron ovozi yana jaranglaganda, Danglarni vahima bosdi. Har daqiqa u Dantesning hamma narsadan xabardor, har qanday qasos olishga tayyor bo'lib, darg'azab kirib kelishini ming hadik-la kutardi. Shu vaqtda u janob Morrelga dengizda xizmat qilishdan voz kechmoqchi ekanini aytdi va undan ispaniyalik bir katta savdogarga o'z lavozimini tavsiya etishni iltimos qildi. Mart oyining oxirida, ya'ni Napoleon Tyuilriga qaytganidan o'n yoki o'n ikki kun o'tganda, ana shu ispanga idora xizmatchisi bo'lib ishga kirdi-da, Madridga ketdi, shundan keyin u domdaksiz yo'qoldi.

Fernan esa hech narsani tushunmadi. Dantes g'oyib bo'lgani uning uchun ayni muddao edi. Dantesning holi nima kechayotganini bilishni u istamadi ham. Fernan butun kuchini, aql-idrokini Mercedesni aldashga, qaylig'ining kelmayotganiga uydirma sabablar to'qishga yoki qizni olib qochishga qaratdi. Ahyon-ahyonda u Marsel va Katalaniya aniq ko'rinib turadigan Faro cho'qqisiga chiqib o'tirib olar va qasos olish uchun kelayotgan go'zal dengizchining qorasi ko'rinmaydimi, deb ikki tomondagi yo'lga burgutdek ko'z tikar edi. Fernan albatta Dantesni otib tashlashga va bu qotilligini oqlash uchun o'zini o'ldirishga qaror qildi. Biroq Fernan o'zini-o'zi aldardi: u hech vaqt o'z joniga o'zi qasd qilmas, chunki hali ko'p narsadan umidvor edi.

Ana shu tashvish-hayajonlar orasida imperator jar sohib, hamma rekrutlarni bitta qolmay qurollanishga chaqirdi. Qo'lida qurol ushlagan qodir kishilarning barchasi Fransiya chegarasidan tashqarida jangga otlandi.

Fernan ham kulbasini va Mercedesni tashlab, boshqalar bilan birga jangga jo'nadi. Men yo'g'imda, ehtimol, raqibim kelib sevgilimga uylanib olar, degan xayol uning bag'rini qonga to'ldirardi.

Agar Fernan o'z joniga o'zi qasd qilishga qodir bo'lganda edi, Mercedesdan ajragan zamonAQ hijron o'tida

yonib, o'zini-o'zi otib tashlagan bo'lur edi.

Fernan o'zini Mercedesga hamdard qilib ko'rsatib uning qayg'usiga hamdam bo'lgandek oh tortib qo'yar, arzimagani talab-tilagini bajo keltirish uchun o'lib-tirilib harakat qilardi. Sadoqat pokiza, oq ko'ngillilarga ta'sir etmay qolmaydi, shu boisdan Fernanning bu harakatlari ham zoe ketmadi. Mercedes Fernanni bir do'sti sifatida sevardi; bu do'stlik minnatdorchilik hissiyotlari qo'shib yanada mustahkamlandi, teranlashdi.

– Mening qadrdon akam, – dedi Mercedes katalaniyalik yigitning yelkasiga safar xaltasini bog'layotib, – sen mening bitta-yu bitta do'stimsan; o'zingni ehtiyot qil, men sho'rlikni qon yig'latib yakka qoldirib ketma, mening sendan bo'lak hech kimim yo'q bu dunyoda endi.

Hijron daqiqalarida aytilgan bu so'zlar Fernanga umid bag'ishladi. Mabodo Dantes qaytib kelmaydigandek bo'lsa, ehtimol, kunlardan bir kun Mercedes uning xotini bo'lib qolar.

Mercedes yap-yalang'och qoya ustida yakka o'zi so'ppayib qoldi. Bu poyonsiz dengiz shu kungacha hozirgidek befayz ko'rinmagan edi unga. Ko'zlari jiqqa yoshga to'la Mercedes tinmay Katalan atrofida gir aylanar, ba'zan janub oftobining jazirama tig'lari ostida xuddi haykal kabi uzoq to'xtab Marsel tomonga ko'z tikardi, ba'zan qirg'oqqa borib, o'z dard-alami singari abadiy to'lqinlarning ovozigacha qimir etmay quloq solib o'tirar va o'z-o'ziga savol berardi; bu foydasiz intizorlik jabrini chekkandan ko'ra olg'a egilib, yiqilsamu mana shu dengiz girdobida g'arq bo'lib ketganim yaxshimasmi? Mercedes o'limdan qo'rqmasdi. U joniga qasd qilishga qodir edi, biroq din uning yo'lini to'sdi, saqlab qoldi.

Kadrussni ham Fernan kabi armiyaga olishdi, biroq u katalanilikdan sakkiz yosh katta va uylangan edi, shuning uchun uni uchinchi guruhda qirg'oqni qo'riqlovchilar qatorida qoldirishdi.

Orzu-umid bilan yashab kelayotgan keksha Dantes imperator ag'darilgandan so'ng umidini batamom uzib qo'ya

qoldi.

O'g'lidan judo bo'lganidan besh oy o'tgach, xuddi Edmon qamoqqa olingan soatda Mercedesning qo'lida jon berdi.

Morrel cholni ko'mish tashvishlarini o'z zimmasiga oldi va kasal vaqtida olgan mayda qarzlarini to'ladi. Bu insonparvarlikkina bo'lmay, mardlik ham edi. Butun janubda o'zaro urushlar qizigandan qizib ketgan bir paytda, Dantesdek xavfli bonapartchining otasiga, u hatto o'lim to'shagida yotganida ham yordam berish jinoyat hisoblanardi.

XVI. TELBA MAHBUS BILAN DARG'AZAB MAHBUS

Lyudovik XVIII taxtga qaytganidan taxminan bir yil o'tgach, turmaning bosh inspektori taftish o'tkazdi.

Dantes yerto'ladagi xonasida nimadir taqillaganini, nimadir g'iyqillaganini eshitdi; bu ovoz yuqorida qattiq eshitilsa-da, pastda uni tungi jimjitlikda to'r to'qiyotgan o'rgimchakning shitir-shitirini-yu, bu zax zindonning shiftida rop-pa-rosa bir soatda yig'iladigan suvning chak-chak tomi-shini eshitishga o'rganib qolgan mahbusgina farq qila oladi.

U tiriklar orasida biror hodisa yuz berayotganini fahmladi: chunki bu qabristonda ko'pdan-ko'p yashagani uchun o'zini murda deb hisoblashga haqli edi.

Inspektor hamma xonalarni birma-bir qarab chiqayotgan edi. Ayrim mahbuslar soddadilligi va kaltabinligi sababli boshliqlarning marhamatiga sazovor edilar, binobarin, inspektor ulardan hol-ahvol so'rab-surishtirdi, ovqat durustmi, birorta iltimoslaring bormi, deb so'radi. Haligidek mahbuslarning barisi bir ovozdan ovqatning nihoyatda yomonligini aytishdi va ozod etib yuborishni iltimos qilishdi. Shunda inspektor, yana boshqa gaplaring bo'lsa aytinglar, dedi. Mahbuslar boshlarini chayqadilar. Mahbus ozodlikdan bo'lak nimani ham so'rashi

mumkin?

Inspektor iljayib komendantga qaradi-da, dedi:

– Ajabo, bu foydasiz reviziyalar kimga kerak ekan? Bir turmani koʻrgan kishi yuztasini koʻrgan, bir mahbusning arzini eshitgan kishi mingtasining arzini eshitgan. Hamma yerda bir xil gap, mahbuslarga beriladigan ovqat yomon, mahbuslar – gunohsiz. Boshqa xil mahbuslaringiz yoʻqmi?

– Bor, xavflilari yoki jinnilari bor, ularni biz yertoʻladagi xonalarga qamab qoʻyganmiz.

– Boʻpti, — dedi inspektor juda charchab holdan toygan kishidek, – burchimizni oxirigacha bajaraylik-da, pastga ham tushaylik.

– Ruxsat qiling, – dedi komendant, – hech boʻlmasa ikki soldat olaylik, baʼzida mahbuslar jonidan toʻyib, oʻlimga hukm eta qolsinlar tezroq meni deb, kirgan kishiga hujum qilishadi. Siz suiqasd qurboni boʻlishingiz mumkin.

– Unday boʻlsa ehtiyot choralarini koʻring, – dedi inspektor.

Ikki soldat kirib keldi-yu, hamma chidab boʻlmaydigan darajada sassiq, iflos va nam zinadan pastga tusha boshladi.

– Tavba! – dedi inspektor toʻxtab, – bu yerda qanday odam yashaydi?

– Juda xavfli fitnachi, bu odamning qoʻlidan har balo keladi, deb ogohlantirib qoʻyishdi bizni.

– Bir oʻzimi?

– Albatta.

– Koʻpdan buyon shu yerdami?

– Bir yilcha boʻldi.

– Buni birdaniga yertoʻlaga qamashdimi?

– Yoʻq uni ovqat olib kirgan soqchini oʻldirmoqchi boʻlganidan soʻng shu yerga qamashdi.

– Soqchini oʻldirmoqchi boʻldimi u?

– Shunday, mana hozir oʻsha soqchi bizga chiroq tutib turibdi. – Toʻgʻrimi, Antuan? – soʻradi komendant.

– Xuddi shunday, u meni oʻldirmoqchi boʻldi, – javob

qildi soqchi.

– Bu jinni ekan-da bo'lmasa!

– Undan ham battarroq, – dedi soqchi, – bu xuddi iblisning o'zi!

– Agar istasangiz, men uning ustidan arznoma yoza-man, – dedi inspektor komendantga.

– Keragi yo'q, busiz ham u yetarli darajada jazo olgan; buning ustiga yaqinda batamom aqldan ozadi, uzog'i bilan bir yilda, buni tajribada ko'rganmiz.

– Bu o'zi uchun ham yaxshi, – dedi inspektor, – aqldan ozgach, ruhiy azobdan qutuladi-qo'yadi.

Mana ko'rib turibsizki, inspektor insonparvar va o'zi-ning filantropik lavozimiga juda mos kelib tushgan odam.

– Siz juda haq gapni aytdingiz, – dedi komendant, – bu so'zlaringizdan ko'rinib turibdiki, mahbuslarni juda yaxshi bilarkansiz. Bizda, boshqa zinadan tushadigan yer-to'lada bir kekxa abbat o'tiribdi. U Italiyada qandaydir partiyaning boshlig'i bo'lgan ekan, uni bu yerga bir ming sakkiz yuz o'n birinchi yili qamaganlar, bir ming sakkiz yuz o'n uchinchi yilning oxiriga kelib jinni bo'lib qolgan; o'shandan buyon uni tanib bo'lmaydi. Ilgarilari u yig'idan to'xtamasdi, endi kulgani-kulgan; ilgari juda oriqlab ketgan edi, endi semirib boryapti. Mana buning o'rniga o'shani ko'rib qo'ya qolarsiz? U jinni bo'lganda ham juda xushchaqchaq jinni, ko'nglingizni buzmaydi.

– Ikkalasin ham ko'raman, – dedi inspektor, – vazifamni halollik bilan bajarishim kerak.

Turmalarni inspektor birinchi marta ko'zdan kechirayotgan edi, shuning uchun boshliqlar mamnun bo'lsin, deb harakat qilardi.

– Qani, yuring, avval mana shuni ko'raylik, – dedi inspektor.

– Marhamat qilsinlar, – dedi komendant va soqchiga imlab qo'ydi.

Sim to'r irqishidan xonaga tushgan tangadek oftob nuriga nechundir quvonib ko'z tikib o'tirgan Dantes og'ir lo'kidonlarning va zang bosgan oshiq-ma'shuqlarning

g'ijirlashini eshitib, boshini ko'tardi.

Dantes noma'lum bir shaxsni, mash'al ko'targan ikki soqchini, ikki soldatni va qo'lida shlyapa tutgan komendantni ko'rib, bularning nima uchun tashrif etganini angladi va eng yuqoridagi amaldorlarga dardini aytish payti kelganini fahmlab yugurib bordi-da, ta'zim etib qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

Soldatlar mahbusning avzoyi buzuq shekilli, tag'in inspektorga tashlanmasin, deb darrov miltiq nayzalarini unga o'qtalishdi.

Inspektor beixtiyor orqaga bir qadam tisarildi.

Uni bu odamga juda xavfli kishi deb rosa uqtirganlarini Dantes angladi-da, butun vujudi bilan chorasiz bir g'arib tusiga kirib rahm-shafqat tiladi, uning xonasiga tashrif buyurgan amaldorning yuragini yumshatishga intildi. Bundan hamma taajjublandi.

Inspektor Dantesning arz-dodini oxirigacha tingladi, so'ng komendantga qaradi:

– Bu – sabr-qanoat, tavfiq bilan tamom bo'ladi, – dedi u ohista. – Hozirning o'zidayoq muloyim bo'lib, faqat tinchlikni istab qolibdi, qilichlarni ko'rib chekindi, aslida jinni hech narsadan qo'rqmaydi. Men Sharontonda bu borada juda ko'p qiziq-qiziq hollarni ko'rganman.

So'ng u mahbusga qarab dedi:

– Qisqasi, talabingiz nima?

– Men aybimning nimadaligini aytib berishlarini iltimos qilaman, suddan ham, tergovchidan ham iltimos qilaman: agar men aybdor bo'lsam otib tashlasinlar, agarda aybim bo'lmasa ozod etishsin.

– Berayotgan ovqatlari yaxshimi? – so'radi inspektor.

– Yaxshidir balki. Bilmadim. Biroq ovqatning yaxshimi, yomonmi, ahamiyati yo'q. Faqat men uchun emas, odil sudni joriy etgan hukumat uchun ham, bizni boshqarayotgan qirol uchun ham begunoh kishi qabih ig'vo-ning qurboni bo'lmasligi va qamoqda o'z qotillariga la'natlar o'qib o'lib ketmasligi lozim.

– Bugun siz juda yuvosh bo'lib qolibsiz, – dedi komen-

dant, – ilgari bunday emas edingiz. Soqchini o'ldirmoqchi bo'lganingizda gaplaringiz boshqacha edi.

– To'g'ri, – dedi Dantes, – menga juda yaxshi qarayotgan bu kishidan o'tinib uzr so'rayman. Axir o'zingiz bir o'ylab ko'ring, o'sha paytdagi ahvolimni? Unda nihoyatda yonib, g'azabnok bo'lib aqlimni yo'qotgan edim.

– Hozir unday emasmi?

– Yo'q, turma meni bukib, adoyi tamom etdi. Axir bu yerda qachonlardan beri yotibman!

– Juda ko'p vaqt o'tdimi?.. Sizni qachon qamoqqa olishgandi? – so'radi inspektor.

– Bir ming sakkiz yuz o'n beshinchi yilning yigirma sakkizinchi fevralida tushki soat ikkida.

– Bugun bir ming sakkiz yuz o'n oltinchi yil o'ttizinchi iyul. Nega vahima qilasiz? Turmada o'tirganingizga atigi o'n yetti oy bo'пти.

– Atigi o'n yetti oy! – takrorladi Dantes. – Axir siz turmada o'n yetti oy yotish naqadar mushkul ekanini, bu o'n yetti oy – o'n yetti yil, o'n yetti asrga barobar ekanini nahotki bilmasangiz! Ayniqsa, baxt qushi endigina boshiga qo'nayotgan, sevimli qiziga uylanayotgan va faxrli lavozimni egallayotgan men uchun bu turma do'zax bilan teng, chunki men bu zindonga tushdimu hamma narsadan mahrum bo'ldim, men uchun quyoshning oltin nurlariga to'la kun zim-ziyo tunga aylandi; istiqbolim barbod bo'layotir, sevgilim mendan yuz o'girdimi, yo'qmi, keksa otajonim tirikmi, yo'qmi, men g'arib bilolmay bag'rim kabob bo'lyapti. Dengiz havosiga o'rgangan, bepoyon, keng dengizda erkin nafas olib yurgan kishi uchun o'n yetti oy turmada o'tirishning o'limdan ham og'ir ekanini nahotki anglamasangiz! O'n yetti oy turmada yotish inson tilida eng qabih nom bilan aytiladigan og'ir jinoyat qilgan kishi uchun ham ko'plik qiladi! Shunday ekan, rahmingiz kelsin menga, men uchun kechirishni emas, qat'iy qonuniyatni, afv emas, sud qilishlarini tilang; men sudni, sudyalarni talab qilaman, axir aybdorga sudyalarni yo'q deyish mumkin emas-ku.

- Yaxshi, – dedi inspektor, – o‘ylab ko‘ramiz.
So‘ng komendantga qarab dedi:
- Haqiqatan ham bu sho‘rlikning ahvoli og‘ir ekan, rahmim kelyapti unga. Tepaga chiqqanda delosini ko‘rsatasiz menga.
- Yaxshi, – javob qildi komendant, – biroq u yerda siz bu mahbus to‘g‘risida juda ko‘ngilsiz ma‘lumotlarni ko‘rarmikinsiz deb qo‘rqaman.
- Bilaman, – dedi Dantes, – siz meni ozod qila olmay-siz; bunga qurbingiz yetmaydi; biroq mening arz-dodim-ni yuqori martabali boshliqlarga yetkaza olasiz, mening ishimni taftish qila olasiz, pirovardida ishimni sudga o‘tkaza olasiz. Sud! Men faqat mana shu, sud qilishlarini iltimos qilaman. Ana shu sud aybim nima va qanday jazoga sazovorman aytib berishsin. Nima uchun, qanaqa gunohlaring uchun qamoqda o‘tirganingni bilmaslikdan ham og‘ir jazo bormi bu dunyoda!
- Men ishni tekshirib, aniqlayman, – dedi inspektor.
- Rahmingiz kelayotganini ovozingizdan bilib turibman! – dedi quvonib Dantes, – marhamat qilib ayting, umid qilsam bo‘ladimi?
- Men sizga umidvor bo‘ling deya olmayman, – javob qildi inspektor, – ishingizni tekshirib ko‘raman, deb va‘da berishim mumkin.
- U holda meni ozod bo‘ldi, meni qutuldi deyavering!
- Sizni qamoqqa olishga kim buyruq bergandi?
- Janob de Vilfor, – javob berdi Dantes, – undan so‘rang.
- Janob de Vilfor allaqachon Marseldan ketib qolgan, u bir yildan buyon Tuluzada ishlayapti.
- Demak, taajjublanib o‘tirishimning hojati yo‘q ekan-da! – dedi ohistagina Dantes, – yakka-yu yagona himoyachim bu yerdan ketib qolibdi-da!
- Janob de Vilfor biror sabab bilan sizni yomon ko‘rib qolmaganmidi? – so‘radi inspektor.
- Bunga hech qanday sabab bo‘lishi mumkin emas, aksincha, u menga ko‘p mehribonlik ko‘rsatdi.

– Demak, sizning haqingizda u bergan yoki bayon etgan ma’lumotlarga to’la ishonsam bo’ladimi?

– Hech shubha qilmay ishonsangiz bo’ladi.

– Bo’pti. Kuting.

Dantes tiz cho’kib qo’llarini ko’tardi-da, kishi jonini olib chiqqani do’zaxga tushgan xaloskordek uning zindoni-ga kelgan inspektor haqiga ko’pdan-ko’p duolar qildi.

Inspektor ketidan eshik berkildi, biroq u keltirgan umid Dantes xonasida qoldi.

– Mahbuslar ro’yxatini hozir ko’rasizmi? – so’radi komendant. – Yoki abbatning yerto’lasiga kirib chiqasizmi?

– Avval hamma xonalarni ko’zdan kechirib chiqaylik, – javob qildi inspektor. – Hozir yuqoriga chiqsam yana qaytib pastga tushishga qurbim yetmay qolishi mumkin.

– Abbat bunga o’xshamaydi mutlaqo; u jinni bo’lsa-da, juda xushchaqchaq.

– U nimadan jinni bo’lib qoldi?

– G’alati bir fikr uni aqldan ozdirdi: men hech hisobi yo’q boylilikning egasiman, deb vaysagani-vaysagan. Qamalgan yili hukumatga bir million beraman meni ozod qilsalaring, deb va’da berdi, ikkinchi yili ikki million, uchinchi yili uch million... Har yili bir milliondan qo’shaverdi. Mana endi uning turmada yotganiga besh yil bo’ldi; u albatta siz bilan yakkama-yakka gaplashishni iltimos etadi va shubhasiz, sizga besh million taklif etadi.

– Rostdan ham bu juda qiziqarli gaplar-ku, – dedi inspektor, – bu millionerning oti nima?

– Abbat Faria. Yigirma yettinchi raqam! – dedi inspektor.

– Ha, u mana shu yerda. Antuan, oching.

Soqchi itoat qilib eshikni ochdi, inspektor qiziqsinib hamma «jinni Abbat» deb ataydigan mahbusning yerto’lasiga qaradi.

¹² «Hisoblangan, tortilgan, bo’lingan» (Tavrot.)

¹³ Uenturiya – qadimga Rim qo’shinida yuz askardan iborat

Erto'laning o'rtasida, ust-boshi dabdala bo'lib ketgan yarim yalang'och kishi yotibdi. U devordan ko'chirib olingan ohak parchasi bilan doira chizib, unga juda aniq geometrik chiziqalar chizdi. Soldat Marsella joniga qasd qilgan paytda Arximed o'z ishiga qanday berilib ketgan bo'lsa, abbat ham shu daqiqada geometrik masalani yechishga butun vujudi bilan berilib ketgan edi. Shuning uchun ham u eshik g'iyqillab ochilganda qimir etmadi, faqat mash'allar yog'dusi u yotgan zax polni odatdan tashqari yoritib yuborgandan so'nggina hushiga keldi-da, eshik tomonga qaradi; yerto'lasiga bunchalik ko'p mehmon tashrif buyurganini ko'rib, hang-mang bo'lib qoldi.

So'ng o'rnidan irg'ib turdi-da, kirgan odamlar uyat qilmasin deb oyoq tomonida yotgan ko'rpani olib ustiga yopib oldi.

– Qanday talabingiz bor? – dedi inspektor doimgi rasmiy vaziyatini o'zgartirmay.

– Mening talabim? – takrorladi savolini abbat ajablanib. – Hech qanday talabim yo'q.

– Siz mening gapimga tushunmayapsiz, shekilli, – so'zida davom etdi inspektor, – meni hukumat turmani nazardan o'tkazish va mahbuslarning arz-dodini eshitish uchun yubordi.

– E-e, gap bunday deng! – dedi jonlanib abbat, – unday bo'lsa, aminmanki, ikkimizning gapimiz bir yerdan chiqadi.

– Ana, ko'rdingizmi, – dedi komendant, – gapni xuddi men aytgandek boshladi.

– Marhamatli janob, – davom etdi mahbus. – Men abbat Faria bo'laman, tug'ilgan joyim Rim, yigirma yil kardinal Rospilozining kotibi bo'lib ishladim; meni bir ming sakkiz yuz o'n birinchi yilning boshlarida noma'lum sabablar bilan qamoqqa olishdi; o'shandan beri Italiya va Fransiya hukumatlaridan ozod qilishlarini so'rab ko'pdan-ko'p talab qildim, natija bo'lmadi.

– Nechun Fransiya hukumatidan? – deb so'radi komendant.

– Chunki meni Pombinoda tutib olishdi, menga ayonki, bu shahar ham Milan, Florensiya kabi Fransiyaning biror departamentining markaziy shahri bo‘lib qolgan.

Inspektor va komendant bir-biriga iljayib qarab qo‘ydi.

– Azizim, – dedi inspektor, – Italiya to‘g‘risidagi ma‘lumotlaringiz yangi emas.

– Bu ma‘lumotlar o‘sha men qamalgan kunga taalluqli, – javob qildi abbat Faria, – o‘sha vaqtda hazrati oliylari imperator Parvardigor ato qilgan o‘g‘liga Rim qirolligini barpo etib berganida, u oliy hazratlari g‘alabalarga mahliyo bo‘lib Makiavelli va Uezar Bordjining orzularini ro‘yobga chiqarib butun Italiyani yagona, bo‘linmas bir davlat qilib birlashtirdi deb faraz qilgan edim.

– Baxtimizga, – dedi e‘tiroz bildirib inspektor, – taqdir taqozosi bilan u ulkan rejalar o‘zgarib ketdi. Turgan gapki, bu sizni taassufga solgusidir.

– Italiyani kuchli mustaqil va baxtiyor davlatga aylantirishning yagona yo‘li shu, – dedi abbat.

– Ehtimol, – dedi javoban inspektor, – biroq men bu yerga Italiya siyosatini muhokama qilgani kelganim yo‘q, faqat sizdan bu xona va ovqat sizni qanoatlantiradimi yoki yo‘qmi, shuni so‘ragani keldim.

– Ovqat boshqa hamma turmalardagi singari bu yerda ham bemaza, – dedi abbat, – xonani o‘zingiz ko‘rib turib-siz, zax, sog‘liqqa koni zarar, biroq umuman olganda, yer osti turmasi uchun durust. Hozir gap bunda emas, gap shundaki, men hukumatga nihoyatda muhim bir sirni ma‘lum qilmoqchiman.

– Ana, boshlandi, – dedi komendant inspektorning qulog‘iga shivirlab.

– Sizni ko‘rib xursand bo‘lganimning boisi ham shunda, – dedi so‘zida davom etib abbat, – men juda muhim bir masalani yechayotgan edim, mabodo muvaffaqiyat bilan hal etsam Nyutonning butun sistemasini o‘zgartirib yuborishim mumkin, siz ana shunday muhim ishimga xalaqit bersangiz ham, xafa bo‘lganim yo‘q. Siz bilan yakka gaplashishga ruxsat qila olasizmi?

– Mana, aytmadimmi sizga, – shivirladi inspektorga komendant.

– O‘z mahbuslaringizni yaxshi bilarkansiz, – dedi iljayib inspektor, so‘ng abbatga qarab dedi: – Men bu iltimosingizni bajara olmayman.

– Mabodo bu gapimiz hukumatning xazinasiga besh milliondan iborat ulkan summa tushishi ustida ketsa-chi?

– Ajabo, – dedi inspektor komendantga qarab, – siz hatto oldindanoq summani ham aytib bergan edingiz. Tavba.

– Mayli, – dedi abbat inspektor chiqib ketmoqchi bo‘layotganini ko‘rib, – yakkama-yakka bo‘lmasa ham gaplashaveraylik; suhbatimizda janob komendant ham ishtirok etishi mumkin.

– Azizim, – dedi uning so‘zini bo‘lib komendant, – afsuski, siz aytmoqchi bo‘lgan gaplarning hammasini biz allaqachon ipidan-ignasigacha bilib olganmiz. Xazinangiz ustida borsa kerak-da gap, shundaymi?

Faria uni mazax qilayotgan komendantga shunday bir nazar tashladiki, chetdan kelgan kishi abbatning bu qarashidan u oqil va dili pok odam ekanini darrov payqab olardi.

– Ha, shunday albatta, – dedi abbat, – bundan boshqa nima haqida gapirishim mumkin?

– Janob inspektor, – davom etdi komendant, – bu voqeani sizga abbatdan qolishmay hikoya qilib berishim mumkin: mana besh yil bo‘ldiki, bu gaplarni qayta-qayta aytaverib miyamni qoqib qo‘limga berdi bu mahbus.

– Bu, janob komendant, shundan dalolat beradiki, – dedi abbat, – siz, rivoyatlarda yozilganidek, ko‘zi bo‘lsayam ko‘rmaydigan, qulog‘i bo‘lsayam eshitmaydiganlar toifasidan ekansiz.

– Muhtaram janob, – dedi inspektor, – hukumat boy, Xudoga shukrki, u sizning pulingizga muhtoj emas, u pularingizni turmadan chiqqanga qadar ehtiyot qilib saqlab qo‘ying, keyin o‘zingizga asqatadi.

Abbatning ko‘zlari olayib ketdi; u inspektorni qo‘lidan

mahkam tutib oldi.

– Agar men turmadan chiqolmay qolib ketsam-chi, – dedi u, – agar adolatga xilof ravishda meni shu yerto'landa butunlayin qoldirsalar-chi, agar men sirlarni hech kimga vasiyat qilolmay o'lib ketsam-chi, unda nima bo'ladi? Unda o'sha oltin xazina bekorga yo'q bo'lib ketarkan-da? Axir ulardan davlat va uning bilan birga men foydalanganim yaxshi emasmi? Men olti million berishga ham roziman, agar meni ozod etib turmadan chiqarib yuborsalar, olti million beraman, qolgani menga yetadi.

– Chindan ham, – dedi inspektor ohista, – men bu odamning jinniligini oldindan eshitmaganimda, bu gaplarining hammasi to'g'ri deb o'ylagan bo'lur edim, chunki u juda ishonadigan qilib gapiryapti.

– Men jinni emasman, faqat haq gapni aytyapman, – dedi Faria mahbuslarga xos ziyraklik bilan inspektorning hamma so'zlarini eshitib. – Men hikoya qilayotgan oltin xazina chindan ham bor, men bilan shartnoma tuzing, bu shartnomaga muvofiq, siz meni aytgan joyimga olib borasiz, bizning ko'z oldimizda uni kavlab olishadi, bosharti gapim yolg'on chiqsa, hech narsa topishmasa, agar men siz aytgandek jinni bo'lib chiqsam, u vaqtda meni ana shu yerga – yerto'laga olib kelib tashlashadi qo'yi-shadi, so'ng bu yerda abadiy qolaman va hech kimning miyasini achitmay, hech kimni xit qilmay o'laman-ketaman.

Komendant kulib yubordi.

– Oltinlaringizni ko'mgan joy bu yerdan uzoqmi? – so'radi u.

– Bu yerdan yuz milcha narida, – dedi Faria.

– Buning topgan gapini qarang-a, – dedi komendant, – agar barcha mahbuslar turma xodimlarini mana shunaqa yuz mil-yuz mil sayrga taklif etsa-yu, turma xodimlari xo'p deb jo'nayverishsa, u vaqtda mahbuslar salgina imkoniyat tug'ilishi bilan juftakni urib qochaverishadi-da. Bunaqangi uzoq sayr vaqtida qochish imkoniyati oz bo'lmasa kerak.

– Mahbuslarning bu usuli bizga ma'lum, – dedi inspektor, – buni janob abbat birinchi o'ylab chiqqan emas.

So'ng u abbatga qarab dedi:

– Men sizdan, ovqatlar qalay, deb so'rayapman, xo'sh, gapiring?

– Muhtaram janob, – dedi Faria, – Iso payg'ambar haqi, bo'shatib yuboraman deb qasam ichsangiz, men sizga oltin ko'milgan joyni aytib beraman.

– Ovqat durustmi? – takrorladi inspektor.

– Bunday sharoitda siz aslo xavflanmasangiz bo'ladi, o'zingiz ko'rib turibsizki, men qochish yo'lini axtarayotganim yo'q; oltinni topgunlariga qadar men turmada qolaman.

– Mening savollarimga javob bermayapsiz, – abbatning so'zini kesdi ensasi qotib inspektor.

– Siz ham mening iltimosimga javob bermayapsiz-ku! – dedi qichqirib abbat. – Boshqa tentaklar singari siz ham mening so'zlarimga ishonmadingiz, la'nat-e sizga! Mening oltinlarimni olishni xohlamayapsiz, mayli, o'zimga qoladi; meni ozod etishni xohlamayapsiz, mayli, meni Yaratganning o'zi ozod etadi. Tuyog'ingizni shiqillating, mening sizga boshqa so'zim yo'q.

Abbat shunday dedi-da, yelkasidan ko'rpani uloqtirib tashladi, yerdan bir parcha ohakni olib chizmalari va riyoziyoti bilan shug'ullana ketdi.

– U nima bilan shug'ullanyapti? – so'radi inspektor yer-to'ladan chiqayotib.

– Oltinlarini hisoblayapti, – dedi komendant.

Faria komendantning mazax qilib aytgan bu so'zlarini eshitib qattiq nafrat bilan qarab qo'ydi.

Ular chiqib ketishdi, soqchi eshikni qulfladi.

– Chindan ham uning yashirib qo'ygan oltini bormikan-a? – dedi inspektor zinadan yuqoriga ko'tarilayotib.

– U oltinlarni tushida ko'rganu, uyg'onib aqldan ozgan, – so'z qotdi komendant.

– Haqiqatan ham shunday bo'lsa kerak, – dedi inspektor oddiy poraxo'ring gapini qilib, – u rostakamiga boy

bo'lganda, turmaga tusharmidi?!

Abbat Faria haqidagi mashmasha shu bilan tugadi. U turmada qoldi, biroq bu tashrifdan so'ng uning juda qiziq jinniligi to'g'risidagi gaplar hamma yoqqa tarqalib ketdi.

Xoriji imkondagi behisob boyliklarni axtargan buyuk xazina qidiruvchilar Kaligula va Neron bu baxti qaro zotning gaplariga quloq solgan, unga ishongan, u istagan havoni, kenglikni va ozodlikni bergan bo'lur edilar. Biroq zamonamizning burnidan naridagini ko'rishga noqobil zodagonlarida jasorat degan narsa yo'q, ular buyruq berishadi-da, ammo shu buyruqni eshitgan quloqlardan o'lgudek qo'rqishadi, xatti-harakatlarini ko'rib turgan ko'zlarni ko'rganda, o'takalari yoriladi. Ular o'zlarini Xudoning vakillari ekaniga ham ishonmay qo'yishgan, endilikda ular boshiga toj kiyib olgan shaxslar, xolos. Bir zamonlar o'zlarini Yupiterning farzandi deb hisoblagan yoki o'zlariga shunday deb nom bergan bu zotlar ba'zida o'z otalariga o'xshab qolishadi ham; ammo bulutlar ortida nimalar bo'layotganini tekshirish murakkab ish; hozirgi zamonda yerdagi hokimlar qo'l uzatsa yetadigan joyda. Qamoqxonalar va ulardagi nihoyasiz jazolar oqibatini oshkora qilishdan hamisha qo'rqadi, har qanday zulm qurbonlarining majaqlangan suyaklarini va qoni oqib yotgan yaralarini jumlai jahonga juda kamdan-kam ayon etadi, turmalardagi zindonlarda vijdon azobi – ruhiy qiy-noqlar oqibatida aqldan ozgan kishilarni ham o'sha yer-ning o'zida yashirin saqlaydi, bordi-yu bunday kishilar u yerdan chiqib qolgudek bo'lsa, uni qandaydir mudhish kasalxonaga tiqadilar, doktorlar esa turmachi xodimlar tashlab ketgan murdalardan inson qiyofasiga oid biron belgi topolmay garang bo'ladilar.

Abbat Faria turmada es-hushini yo'qotib qo'ygach, umr bo'yi qamoqqa hukm qilindi.

Dantes masalasiga kelganda, inspektor unga bergan so'zining ustidan chiqdi. U komendant kabinetiga qaytib kelib mahbuslar ro'yxatini ko'rsatishni talab etdi. Mahbuslar ro'yxatida Dantes to'g'risida quyidagilar yozilgan

edi:

Edmon Dantes. Ashaddiy bonapartchi: uzurpatorning Elba orolidan qaytishida faol qatnashgan. Qattiq sir saqlansin, doimiy nazorat ostida tutilsin.

Bu izohlar boshqalardagiga hech o'xshamaydigan qo'l va siyoh bilan yozilgan edi. Demak, bu izohlar Dantes qamalganidan keyin yozilgan.

Aybnoma nihoyatda qat'iy bo'lganidan unga qarshi bi-
ror e'tiroz bildirish mumkin emasdi. Shu sababdan ins-
pektor uning yoniga yozib qo'ydi: *«Hech nima qilish
mumkin emas»*.

Inspektorning tashrifi Dantesga ancha jon kirgizdi. U
turmaga tushgan daqiqadanoq kunlar hisobini unutgan
edi, biroq inspektor aytgan oy va kunni u unutmadi. Shift-
dan o'zilib tushgan ohak parchasi bilan u devorga yozib
qo'ydi: 1816 yil 30 iyul. O'shandan boshlab vaqt
hisobidan adashmaslik uchun har kuni belgi qo'yib bordi.

Kunlar, haftalar, oylar o'tdi. Dantes hamon kutar edi:
dastavval u ikki hafta kutishga qaror qildi. Inspektor uning
ishiga ozgina ahamiyat berib qaraganda edi, shu ikki hafta
ham yetib ortardi. Bu ikki hafta o'tgandan so'ng Dantes,
inspektor Parijga qaytib bormaguncha mening ishim bilan
shug'ullanadi deb o'ylash xomxayol, dedi o'z-o'ziga. Pa-
rijga esa u topshirilgan taftish ishlarini batamom tugat-
gach qaytadi, bu reviziya esa bir oyga, hatto ikki oyga
cho'zilishi mumkin. Shu sababli u yangi muddat belgila-
di: ikki hafta o'rniga uch oy. Uch oy ham o'tgach, u yana
bir mulohaza qilib, o'zicha yarim yil muddat berdi. Bu
yarim yil o'tgandan keyin kunlarni hisoblab chiqsa, rosa
to'qqiz yarim oy kutibdi.

Bu oylar mobaynida uning ahvolidagi hech qanday o'zga-
rish yuz bermadi. U ko'ngliga tasalli beradigan birorta
xabar olmadi. Turma xodimi ilgari gidek gung edi. Dantes
hissiyotlariga ishonmay qo'ydi, xayolni chin deb o'ylab
yurgan ekan, turmada paydo bo'lgan yupatuvchi farishta

tushida kelib ketgan ekan...

Shundan bir yil o'tgach, komendantni o'zgartirishdi; unga Gam qal'asini topshirishdi. U o'zi bilan itoatidagi ba'zi bir xodimlarni, shu jumladan, Dantesning qorovulini ham olib ketdi.

Yangi komendant keldi: mahbuslarning familiyalarini esda saqlash qiyin tuyuldi shekilli, u qamoqdagilarni raqamlarini aytib tanishtirishni talab qildi. Bu dahshatli dargohning ellikta xonasi bor edi; mahbusni raqamlar bilan ataydigan bo'lishdi. Shunda sho'rpehona yigit Edmon degan ismidan va Dantes degan familiyasidan ajralib, o'ttiz to'rtinchi raqam bo'lib qoldi.

XV. 34-RAQAM BILAN 27-RAQAM

Turmada hammaning yodidan ko'tarilib, yakka qolib ketgan mahbus qanday og'ir azob-uqubat cheksa, shularning hammasini Dantes ham boshidan kechirdi.

Dastavval u begunoh ekanini anglab, yaxshi umidlar og'ushida g'ururlanib yurdi, so'ng gunohsiz ekanligiga o'zi ham ishonmay qo'ydi, bu esa uni jinniga chiqarib qo'ygan komendantning nazariyasini ma'lum darajada tasdiqladi ham. Pirovardida u g'ururidan bir pog'ona pastga tushib, hali-hozircha Xudoga emas, odamlarga sig'inib, yalinib-yolvora boshladi.

Inson boshiga musibat tushsa Xudoga iltijo qilishi kerak, lekin u hech kimdan, hech qaerdan najot topolmaganigina Xudoga murojaat qiladi.

Dantes uni bundan qorong'iroq va zaxroq bo'lsa-da, boshqa yerto'laga ko'chirishlarini iltimos qildi. Bu o'zgarish, nechog'li yomon bo'lsa-da, muhitni yangilab, uni ancha ovuntirishi mumkin. Hovliga chiqib, havoda yurishga, kitob va asbob-uskunalar olishga ruxsat berishlarini so'radi. Unga hech narsa berishmadi, biroq u hadeb so'rayverdi. U o'ziga biriktirilgan turma xodimi bilan til topdi; yangi soqchi ilgarigisidan ham battarroq gung

edi. Ammo Dantes uchun biror kishi bilan, hatto u gungsoqov bo'lsa-da, gaplashish ko'ngilli ish edi. Dantes o'zining ovozi eshitish uchun gapirardi soqchiga, u tanho o'zi bilan o'zi ham gaplashib ko'rdi, biroq bunday vaqtlarda uni vahima bosardi.

Qamalishdan burun ozod kunlarida Dantesning o'yayolini ba'zan beixtiyor dahshatli turma xonalari, ular-dagi daydilar, qaroqchilar va qotillarning razil o'yin-kulgilari, vahshiyona qiyqiriqlari chulg'ab olardi-da, ko'nglini noxush etardi. Endilikda esa u mana shunday bazmlardan birontasida bo'lishni va bezbet, gung soqchidan boshqa biron-bir kishining hech bo'lmasa aft-basharasini ko'rishni istardi. U oyog'ida zanjir va yelkasida tavqi la'nat tamg'asi bilan sharmanda-yu sharmisor bo'lib yuradigan juldurvoqi katorjnik bo'lmaganidan afsuslanardi. Katorjniklar o'ziga o'xshashlar guruhida bo'ladi, ochiq havoda nafas olib, moviy samoni ko'radi. Ular baxtli kishilardan.

U turma xodimidan kim bo'lmasin biror odamni yoniga qo'yishlarini so'rab, ta'rifini eshitgan o'sha jinni abbat bo'lsa ham mayli, deb yalinib-yolvordi. Turma xodimi qanchalik bag'ri tosh ko'rinmasin, yuragining chuqur bir joyida insoniy his yashirinib yotardi. Dantesning soqchisi o'lim qafasida juda og'ir azob chekayotgan sho'rlik yigitga ich-ichidan achinayotgan bo'lsa-da, buni bildirmaslikka urinardi. U 34-raqamning iltimosini komendantga yetkazdi: biroq komendant siyosiy arbobga xos ehtiyotkorlik ko'rsatib, bu Dantes mahbuslarni oyoqqa ko'tarmoqchi yoki o'rtog'ining ko'magi bilan qochib ketmoqchi, deb o'ylab, iltimosni rad etdi.

Dantes inson qo'lidan keladigan hamma vositalarni ishga solib ko'rdi. Najot bo'lmadi. Shuning uchun u endi Xudoga murojaat qildi. Shunda Dantesning barcha tavfiqli fikri-xayollari (taqdir ezib-bukib tashlagan baxti qarolar hamisha orzu-umid bilan yashaydilar) unga dalda berdi: u onasi o'rgatgan duolarni esladi va ulardan o'ziga shu paytgacha ma'lum bo'lmagan ma'no topdi. Chunki

duo baxtsiz kishi g'am-g'ussada Xudoga iltijo qilib, ularga chuqur ma'no bag'ishlamaguncha, baxtlilar uchun bir xildagi quruq so'zlar yig'indisi bo'lib qolaveradi. U jonjahdi bilan tovushini barala chiqarib ibodat qilsa-da, o'z ovozidan endi qo'rqmasdi. Har bir so'zini jazavasi qo'zg'ab, titroq bosib izhor etar, shunda uning ko'z oldida Xudo namoyon bo'lardi. Osoyishta o'tgan va pirovardida poymol etilgan hayotida nimaiki bo'lgan bo'lsa, buni Xudodan ko'rar, ulardan o'zi uchun xulosa chiqarar, ahd qilar, hamisha duolarni kishi Xudoga emas, odamlarga murojaat qilganda aytadigandek: «E Xudo, o'zing gunohimdan o't, axir biz ham qarzdorlarimizning gunohidan o'tamiz-ku», – degan ta'nali so'zlar bilan tugatardi.

Xudoga zo'r ixlos bilan iltijo qilib sig'insa-da, najot bo'lmadi. Dantes turmadan chiqolmadi.

Shundan keyin u ruhiy tushkunlikka tushib qoldi. Dantes oddiy ilmsiz kishi bo'lib, uning uchun o'tmishni sir saqlaydigan fanning eshiklari berk edi. U turmada yolg'iz yotib, quruq xayol bilan o'tgan asrlarni qayta tiklay olmas, yoshini yashab o'tgan xalqlarni tiriltirib ko'z o'ngida gavdalantirolmas, tasavvurlarda ulug'vor va go'zal bo'lib kelgan Martinning¹¹ vavilon kartinalari singari dillarga zavq bag'ishlagan qadimiy shaharlarni jonlantira olmasdi, albatta. Dantesning faqat qisqa o'tmishi, zimiston hoziri va noma'lum kelajagi bor edi. Atigi o'n to'qqiz bahorni ko'rgan bu yigit endilikda ehtimol oxiri yo'q tim qorong'i tunlarda faqat o'tgan kunlarinigina o'ylay olishi mumkin edi. Mana shu sababdan u o'zini hech narsa bilan ovuntira olmas, uning asrlar osha qanot qoqib uchishi mumkin bo'lgan aql-idroki xuddi burgutdek tor qafasga tiqib qo'yilgan edi. Shundan so'ng u bir fikrga – ya'ni xavfli falokat oqibatida, sababsiz sarob etilgan baxt to'g'risidagi fikrga mahkam yopishib oldi, shu fikr ustida rosa bosh qotirdi, uni har maqomga solib ko'rди va ta'bir joiz bo'lsa, Dantesning do'zaxida berahm, Ugolino arxiepiskop Rudjinerining kalla suyagini g'ajigani kabi tishlari orasiga olib g'ajidi. Dantesning Xudoga ishonchi shunchaki o'tkinchi,

bir zumda unutiladigan, hamma narsaga qodirlik to'g'ri-sidagi fikrga asoslangan ishonch edi. Boshqalar murodi hosil bo'lgach, dinga ishonchidan voz kechganidek, Dantes ham ilohiy karomatlariga bo'lgan ishonchini yo'qotdi. Ammo u murodiga yetolmadi.

Oqibat shunga olib keldiki, Xudoning mo'min, itoatli bandasi shakkokka aylandi-ko'ydiki. U Xudodan nolib, uni haqorat qilar, buni eshitgan turma xodimining kayfi uchar edi; Dantes boshini turma devoriga urib dod solardi. O'z ko'zi bilan ko'rgan, Vilfor ko'rsatgan, o'zi qo'li bilan ushlagan o'sha yashirin ma'lumot xayolidan hech nari ketmasdi. Uning har bir satri Valtasarning «Mene, Tekel, Fares»¹² i kabi devorda cho'g'day yonib turardi. «Meni halokat jariga itarib tashlagan Xudoning qahri emas, odamlarning g'azabi-nafrati» derdi u o'z-o'ziga. O'sha noma'lum odamlarni og'ziga nima kelsa qaytarmay haqorat qilar, qarg'ar, ularga jo'shqin yosh tasavvuri bovar eta oladigan turli xil o'limlarni tilardi; lekin bularga ko'ngli to'lmas, chunki bu qisqa muddatda o'tib ketadigan azob, chunki qatl etilgach, odam murdaga aylanadi, murda esa hamma hissiyotlardan mahrum bo'lib, hech narsani sezmaydi, derdi.

Dantesning butun fikr-xayoli dushmanlarida, u, «o'lim – halovat, shuning uchun dushmanni qattiq qiynash uchun o'ldirish shart emas», degan so'zlarni hadeb ichida qaytaraverdi: natijada o'zini o'ldirish fikriga o'tdi, bu esa Dantesni ruhiy tushkunlikka olib keldi. G'am-g'ussaga to'la hayot yo'lida ana shunday mudhish fikrga kelib to'xtagan kishining holiga voy! Bu fikr tiniq suvli, sokin dengizga o'xshar, lekin unda suzuvchi oyog'ini chirmo-vaqlar o'rab pastga tortayotganini, dafn etayotganini his etadi. Agarda shu payt unga osmonu falakdan madad bo'lmasa, bu dunyo bilan xayr-ma'zur qilish hech gap emas, u o'zini bu balodan xalos etaman deb qancha urinsa, bu dengiz uni shuncha tez ajal girdobiga tortaveradi.

Har nechuk bu ruhiy vasvasa ilgari gi jabr-zulmlarga va

bundan so'ng keladigan jazolarga qaraganda unchalik dahshatli emas; bu ruhiy vasvasa kishini ancha ovuntiradi, u jahannam sari undaydi, biroq jahannam – yo'qlik degan gap. Edmon bu fikr bilan o'zini ovuntirardi, uning butun dardi-alami, iztiroblari, vahimaga solgan sharpalar, Azroil asta qadam qo'ymoqchi bo'layotgan mana shu turma kulbasidan uchib chiqib, gumdon bo'lardi. Go'yo Dantes o'z hayotining o'tmishiga xotirjam nazar tashlar, ammo kelajagini ko'z o'ngiga keltirganda dahshatga tushardi, xullas, u o'z tasavvurida bu turmush g'avg'olaridan qochib qutulsa bo'ladigan haligi makonga yo'l olishga qaror qildi.

– Uzoq safar vaqtlarida, – dedi u o'z-o'ziga, – ya'ni men haqiqiy odam ekanimda va erkin, kuch-g'ayratga to'la odam sifatida boshqa odamlarga buyruqlar berganimda va buyruqlarim darhol bajo etilgan paytlarda, ko'pincha osmonni bulutlar qoplab olayotganini, to'lqinlar junbishga kelganini, osmonning bir chekkasidan bo'ron ko'tarilib ulkan burgut kabi qanotlarini qoqayotganini ko'rardim. Ana shunda kemam zaif bir kulba ekanini his etardim, u xuddi devning kaftidagi pat kabi pirpirar, titrardi. To'lqinlarning dahshatli gumburlari orasidan ko'zimga o'limdan darak beruvchi tik qoyalar ko'rinardi: o'shanda men o'limdan qo'rqardim va qanday bo'lmasin uni daf qilishga tiri-shardim, butun insoniy kuch-qudratni va dengizchiga xos mahoratni ishga solib Xudo bilan yakkama-yakka jang qilardim!.. Ammo u vaqtda men baxtiyor edim; chunki tirik qolish baxtli hayotga qaytish demak edi. U vaqtda o'limni aslo istamasdim; jonimga qasd qilishni, suvdagi giyohlar va toshlar ustida bu dunyodan abadiy ko'z yumishni mutlaqo xohlamasdim; Parvardigorning shakli shamoyilida yaratilgan bir zot bo'la turib, qirg'iyalar va baliqchi qushlarga yem bo'lsam yaxshimi axir, deb g'azablanardim. Hozir esa ahvol tamomila boshqacha; men yashashga da'vat etadigan hamma narsalardan mahrum bo'ldim. Endilikda, o'lim go'dagini allalayotgan ona kabi menga iljayib tikilib turibdi, endi men o'z ixtiyorim bilan

o'lyapman, bu zindonda kuniga uch ming marta gir aylanib o'ttiz ming qadam tashlab, aqldan ozib, holdan toygach, abadiy ko'z yumayapman.

Mana shu fikr uning dilidan chuqur joy olganidan keyin Dantes mo'min-qobil, ancha xushchaqchaq bo'lib qoldi. To'shakning qattiqligidan va qora nondan uncha nolimay qo'ydi. Ovqatni ham kam yer, mutlaqo uxlamadi, shunday hayotni har daqiqada eski ko'ylakni uloqtirib tashlagandek bo'ynidan soqit qilishi mumkin ekanligiga tushungach, o'z hayoti ko'ziga haddan tashqari yomon ko'rinmay qoldi.

O'lishning ikki usuli bor edi: birisi juda jo'n – dastro'molchani deraza panjarasiga bog'lab o'zini osish; ikkinchisi, ovqat yeyayotgan bo'lib ko'rinish, lekin ovqat yemay ochdan o'lish; birinchi usuldan Dantes jirkanardi, u kema doriga osib o'ldiriladigan qaroqchilarga nafrat ruhida tarbiyalangan edi; shu sababdan, sirtmoqda o'lishni sharmandalik deb o'ylardi u, binobarin, bu usulni rad etib, ikkinchi usulni qabul qildi-da, uni shu kunning o'zidan amalga oshira boshladi.

Dantes mana shu azob-uqubatda to'rt yilni o'tkazdi. Ikkinchi yilning oxirida u devorga chizishni to'xtatdi va inspektor kelib ketganidan oldingi paytlardagi kabi kunlar hisobidan yana adashdi.

U o'z-o'ziga: «Men o'lishni istayman», – dedi-da, o'lish usulini o'zi tanladi, so'ng hamma tomonini mufassal hisobga olib chiqdi va bu yo'ldan qaytmaslik uchun, albatta ochlikdan o'lamen, deb qasam ichdi. «Menga tushki yoki kechqurungi ovqatni keltirganlarida, – dedi u, – ovqatni derazadan tashqariga tashlab yuboraman; shunday qilsam, ovqatning hammasini yebdi, deb o'ylashadi».

U xuddi shunday qildi. Bir parcha yorug'lik tushib turadigan derazadan kuniga ikki marta keltirilgan ovqatni uloqtirib tashlayverdi; avvallari xursand bo'lib, so'ng o'ylanib-o'ylanib, oxiri afsuslanib tashlardi ovqatni; qasami yodiga tushgandagina bu dahshatli qarorini amalga

oshirishda kuch-g'ayrat paydo bo'lardi. Dastlabki vaqtlarda ko'rganda jirkanadigan ana shu ovqat endi ochlik paytlarida uning ko'ziga jozibali va xushbo'y bo'lib ko'rinardi. Ba'zida u likopchadagi sassiq mol go'shtini yoki bir parcha baliqni va mog'orlagan bir burda qop-qora nonni qo'lida tutgan holda soatlab suqlanib tikilib o'tirardi. Ana shunday paytlarda undagi jon asari o'z-o'zidan qarshilik ko'rsatar, ahyon-ahyonda dahshatli qaroridan ustun chiqar edi, shunda turma uning ko'ziga ancha durust joy bo'lib ko'rinardi, qismati unchalik achchiq tuyulmas edi. U hali yosh, endigina yigirma besh yo yigirma oltiga borgan, yana ellik yil yashashi mumkin, bu o'tgan umridan ikki barobar ortiq. Ana shu uzoq muddatda har qanday voqea turma eshiklarini parchalab tashlashi, If qal'asi-ning devorlarini teshib, uni ozod etishi mumkin edi. Mana shu o'y-xayollar girdobida u ovqatni og'ziga olib kelardi, ammo shu on qasami yodiga tushardi-da, subutsiz bo'lishdan qo'rqib, bor kuchini yig'ib nafsini tiyardi; o'zidagi hayot uchqunlarini hech ikkilanmay rahmsizlik bilan o'chirib tashlardi. Oxiri o'rnidan turishga ham madori kelmay, kechki ovqatni derazadan uloqtirib tashlay olmay qoldi.

Ertasi kuni u hech narsa ko'rmay, qulog'i ham og'irlashib qoldi. Turma nazoratchisi uni kasalga – og'ir kasalga yo'ydi. Edmon ajali tezroq yetib kelishiga umid bog'lardi.

Shu taxlit bir kun o'tdi, Edmon uni qandaydir noxush mudroq bosayotganini sezdi, bu unga yoqimli tuyuldi. Qorin og'rig'i deyarli to'xtadi; chanqog'i bosildi, u ko'zini yumganda, qarshisida tunlari botqoqliklar ustida parpirab turgan chiroqchalarga o'xshagan yorqin nuqtalar paydo bo'lardi, bu o'lim deb nom berilgan o'sha noma'lum dunyoning tongi edi.

Kechqurun, soat to'qqizlarda, karavoti turgan devor orqasidan nogahon taq-tuq etgan ovoz eshitildi.

Bu turmada jirkanchli qurt-qumursqalarning son-sanog'i yo'q bo'lib, Edmon bunday arzimmas hodisalardan ta-

ajjublanmay, bemalol uyquni uraverishga asta-sekin odatlanib qolgan edi. Bu gal esa, ochlik zehni juda o'tkir lashtirib yuborganidanmi yoki u shovqin ilgarilaridan kuchliroq bo'lganidanmi, hayotning so'nggi daqiqalarida hamma narsa ahamiyat kasb etib qolganidanmi, Edmon boshini ko'tarib, quloq soldi.

Kimdir o'siq tirnog'i bilan yoki tyanikidek tishlari bilan, yo bo'lmasa, birorta asbob bilan bir maqomda toshni sindirardi.

Mahbuslar ozodlikka chiqish to'g'risidagi fikr-xayolini hech yerda, hech qachon unutmaydi, shu daqiqada bu muqaddas fikr Dantesning tuman bosgan miyasiga ham yorib kirdi.

Dantes hamma tovushlarni eshitishdan abadiy mahrum bo'layotgan bir damda bu ovoz eshilib qoldi-yu, u Xudo, azob-uqubatda qolgan men bandasiga rahm qilib, qabr oldida to'xtatib qolish uchun mana shu ovozni yubordi, deb o'yladi. Kim bilsin, do'stlaridan, kechayu kunduz ko'z o'ngidan ketmagan qarddon kishilaridan birortasi uni qutqarish uchun, hijron muddatini qisqartirish uchun tirishib harakat qilayotgandir.

Bunday bo'lishi mahol, shunchaki unga tuyulgan bu o'lim oldidagi tush, xolos. Ammo Edmon hamon quloq solardi. Toshni qirtillatish uch soat cho'zildi. Edmon, nimadir shuv etib tushganini eshitdi, so'ng sukunat cho'kdi.

Bir necha soat o'tgach, tovush yana qattiqroq va juda yaqindan eshitildi. Edmon bu ishga fikran qatnashib turdi va endi yolg'izlikni unchalik his etmay qo'ydi. Shu payt to'satdan turma nazoratchisi kirib keldi.

Dantes o'zini o'limga hukm qilganidan buyon bir hafta o'tdi, tuz totimaganiga to'rt kun bo'ldi. Shu vaqt ichida u turma nazoratchisi bilan biron marta gaplashmadi, u qaeringiz og'riyapti deb so'ragandi, javob qaytarmadi, nazoratchi uzoq tikilgudek bo'lsa devor tomonga o'girilib olardi. Endi esa hammasi o'zgarib ketdi, nazoratchi haligi tovushni eshitib qolishi, uni to'xtatib qo'yishi, o'lib borayotgan Dantesning oxirgi umidini puchga chiqarishi

mumkin edi.

Turma nazoratchisi nonushta keltirgan edi.

Dantes to'shak ustida boshini ko'tardi-da, og'ziga nima kelsa hammasini gapiraverdi; ovqatning rasvoligi, xonaning nihoyatda zaxligi to'g'risida tinmay vaysab, so'kinib baqiraverdi; bemor mahbus uchun bir kosa sho'rva va yumshoq non so'rab olib kelgan nazoratchi juda afsuslandi. Xayriyatki u, Dantes vasvasaga tushib qopti, deb o'ylab, ovqatni siniq stolga qo'ydi-da tezda chiqib ketdi. Dantes yengil nafas olib, quvonch-la yana quloq sola boshladi.

Tovush juda aniq eshitila boshladi.

– Shubhasiz, – dedi o'z-o'ziga u, – bu taqillatish kunduzi ham davom etayotganidan ma'lum bo'ladiki, baxti qaro mahbuslardan kimdir bu jabr-zulmdan qutulish uchun o'lib-tirilib mehnat qilyapti. Agar men hozir uning yonida bo'lsam, jonimning boricha yordam qilardim!

So'ng to'satdan kelgan bir fikr uning umid tongini qopqora bulutlar bilan qoplab qo'ydi. Baxtsizlikka ko'nikib qolgan kishi quvonchiga zo'rg'a ishonadi. Dantes ham boyagi taxminidan qaytib, komendant qo'shni xonada biror narsani ta'mir qilishga yuborgan ishchilar taqillatayotgan bo'lsa kerak, degan fikrga keldi.

Buni aniqlab olish qiyin emas, albatta, biroq qanday qilib nazoratchidan so'raydi? Turma nazoratchisining kelishini kutib unga taqillayotgan tomonni ko'rsatish va shu payt uning vajohatidagi o'zgarishni ko'rib, haligi jumboqni yechish oson gap, ammo bir lahza qanoat hosil qilaman deb shu ovoz keltirayotgan ozodlikdan mahrum bo'lib qolish ham hech gap emas-ku?.. Edmonning boshi qotdi. U nihoyatda tinkasi qurib, fikrlari chuvalashib ketdi, u endi fikrini bir nuqtaga qarata olmay qoldi. O'z fikr-xayolini oydinlashtirishga bittagina vosita ko'rinar edi uning ko'ziga, u ham bo'lsa nazoratchi stolga qo'yib ketgan ovqat edi. Dantes ko'zlarini tikdi-da, o'rnidan turdi, gandraklab stol oldiga bordi, kosani qo'lga oldi, lablariga olib borib, zavq bilan sho'rvani ichdi.

Dantes shuning o'zi bilan qanoat etishga o'zini majbur etdi, u kema halokatidan keyin dengizdan qutqarib olingan dengizchilar ochko'zlik qilib ovqatni ko'p yeb, bo'kib o'lganlarini eshitgan edi. Edmon og'ziga olib borayotgan nonni qaytarib stol ustiga qo'ydi-da, yana yotdi. Endi u o'lishni istamasdi.

Ko'p o'tmay u es-hushi joyiga kelib, fikri ravshanlanayotganini sezdi. U endi fikr yuritishga va fikrlarni bir-biriga mantiqiy bog'lashga qodir edi.

Xullas, u o'z-o'ziga shunday dedi:

– Hech kimning sirini oshkora qilmasdan, bu ovozni aniqlash zarur. Toshni qirib-teshayotgan oddiy bir ishchi bo'lsa, devorni taqillatsam bas, u darhol ishni to'xtatadi-da, kim va nega taqillatayapti, deb o'ylab qoladi. Mabodo bu mahbus bo'lsa, mening taqillatganimni eshitib qo'rqib ketadi va tag'in tutib olmasinlar, deb ishni to'xtatadi; faqat kechqurun, hamma uxlagandan keyingina davom ettiradi.

Edmon shu zahoti o'rnidan turdi. Endi oyoqlari qaltiramas, bukilmasdi. Burchakka borib, devordan tosh oldida, haligi tovush juda aniq eshitalayotgan joyni taqillatdi.

Birinchi taqillatishdayoq naryoqdan kelayotgan tovush to'xtadi.

Edmon butun diqqat-e'tiborini berib quloq solardi. Bir soat o'tdi, ikki soat o'tdi. Bitta ham tovush eshitilmadi. Edmon devorni bir taqillatishi bilan naryoq jim bo'ldi-qo'ydi.

Edmon orzulari ushalishiga ishonib quvondi-da, bir oz non yedi, bir qultum suv ichdi va tabiat ato etgan baquvatliligi tufayli ancha kuchga kirib oldi.

Butun kun bo'yi jimlik hukm surdi.

Kech kirdi, biroq tovushdan darak yo'q.

«Bu mahbusning ishi», – o'yladi Edmon o'zida yo'q quvonib. Dunyo endi ko'ziga qorong'i ko'rinmay qoldi. U yashash uchun yana kurasha boshladi.

Butun tun bo'yi tiq etgan tovush eshitilmadi.

Bu kechani Edmon bir daqiqa ham ko'z yummay

o'tkazdi.

Tong otdi, turma nazoratchisi ovqat keltirdi. Dantes kechagidan qolgan ovqatni yeb bo'lgan edi, hozir keltirilgan ovqatni ham zo'r ishtaha bilan yeya boshladi. U taqillash yana qaytarilmasmikin, deb diqqat bilan quloq solar, butunlay to'xtab qolsa-ya, deb tashvishlanar, zindonda gir aylanib chiqar, soatlab derazaning panjarasini siltab-silkib ko'p vaqtdan buyon unutilib qo'ygan badan tarbiya bilan shug'ullanar va shu bilan yana kuch to'plab, maydonga badaniga moy surtib, qo'llarini uqalab chiqadigan polvon singari, bo'lajak kurashga tayyorlanardi. U ba'zan to'xtab, yana quloq solar va mahbusning ehtiyotkorlik qilayotganidan xafa bo'lardi. Axir uning ishiga ozodlikni jon-dili bilan qo'msab yotgan o'zi kabi boshqa mahbus xalal berdi-ku.

Shu zaylda uch kecha-yu, uch kunduz – uqubatli yetmish ikki soat o'tib ketdi!

Axiri bir kun oqshom paytida, turma nazoratchisi ketgach, Dantes yuzinchi marta qulog'ini devorga tutganda, devor naryog'ida nimadir larzaga kelib, Dantesning miyasiga urilgandek bo'ldi.

Hayajonga tushgan Dantes es-hushini yig'ib olish uchun orqasiga qaytdi, bir necha bor xonani gir aylanib chiqdi, so'ng haligi joyga yana qulog'ini bosdi.

Shubhasiz, devor orqasida biror hodisa yuz berayotibdi: aftidan, mahbus ilgarigi usulini xavfli deb bilib, boshqasini ishlatyapti, bamaylixotir ishlash uchun u iskanani richagga almashtirdi, shekilli.

Edmon o'zining bu xulosasidan o'zi ilhomlanib, tolmas mahbusga yordam qilishga qaror qildi. U karavotini bir chetga surib qo'ydi, chunki chamasida, ozodlik yo'lidagi ish ana shu karavot orqasida olib borilayotgan edi; devorni kavlash uchun, nam ohakni sidirib tashlab, toshni sug'urib olish uchun birorta asbob axtarib, atrofni qarab chiqdi.

Biroq unda bu ishga yaraydigan hech nima – pichoq ham, boshqa biror o'tkir asbob ham yo'q edi. Faqat pan-

jaraning yo'g'on temir simlari bor, ammo ular juda puxta o'rnatilganini Dantesning o'zi bir necha bor sinab ko'rgan.

Uning xonasidagi ro'zg'or bitta karavot, bitta stul, bit-ta stol, chelak va xumchadan iborat edi.

Karavotning temir tirgaklari bor, biroq ular taxtaga vint bilan burab tashlangan. Vintlarni bo'shatib, tirgaklarni olish uchun buragich kerak.

Stol va stulda bu ishga yaroqli hech nima yo'q, che-lakning dastasini ham sug'urib olib qo'yishgan.

Dantes uchun yagona bir yo'l qoldi, u ham bo'lsa xum-chani sindirib, uning o'tkir qirralari bilan kavlash.

U xumchani ko'tarib yerga urdi, xumcha chilparchin bo'ldi.

Dantes ikki-uch o'tkir qirrali sopol bo'lagini oldi-da; paxtali to'shak ichiga yashirib qo'ydi, boshqa bo'laklari-ni yerda qoldirdi. Xumni sindirish turmada oddiy voqea, u hech qanday shubhaga olib bormaydi.

Edmon butun tun bo'yi ishlashi mumkin, biroq qoron-g'ida ish uncha yurishmadi; timirskilab ishlashga to'g'ri keldi; nozik asbobi qattiq toshga tegib, o'tmaslashib bo-rayotganini bilib qoldi. U karavotini joyiga qaytarib surib qo'ydi-da, tong yorishishini kutdi. Umid ketidan sabr-to-qat, matonat paydo bo'ldi unda yana.

Tuni bilan ko'z yummay qazuvchining ishiga quloq so-lib chiqdi. Qo'shni ishni tong otguncha bir zum ham to'xtatmadi.

Tong yorishdi. Turma nazoratchisi kirganda Dantes, oqshom paytida suv ichmoqchi bo'lgan edim, xumcha qo'limdan tushib ketdi va sinib qoldi, dedi. Soqchi allanima deb to'ng'illadi-da, sopol siniqlarni yig'ib olmay, boshqa xumcha keltirgani chiqib ketdi.

Ko'p o'tmay u qaytib keldi va ehtiyot bo'lish kerak, deb tanbeh berib ketdi.

Dantes qulfning shiqirlaganini eshitib, o'zida yo'q quvonib ketdi; ilgarilari qulf-kalit tovushini eshitganda har safar yuragi orqasiga tortib ketardi. Nazoratchining oyoq tovushi tinishi bilan u yugurib borib, karavotni surib

tashladi-da, zindondagi g'ira-shira quyosh yog'dusida devorga qaradi; u yarim kechada behudaga mehnat qilgan ekan; toshning atrofini qirib kavlash o'rniga toshning o'zini uravergan ekan.

3ax ohakni ivitib, yumshatib qo'ygan edi.

Oq shuvoq osongina ko'chayotganini ko'rib Dantes yana quvondi, shuvoq juda mayda-mayda ko'chayotgan bo'lsa-da, Dantes umidsizlanmasdi, chunki chorak soatda u bir qism ohakni kavlab oldi. Matematik bo'lganda, ish shu tariqa ketsa, ikki yil mobaynida, mabodo biror xarsang to'g'ri kelib qolmasa, uzunligi yigirma fut keladigan ikki kvadrat futli tuynuk qazib chiqish mumkinligini hisoblab bera olardi.

Orzu-umidlar, duo-sig'inishlar, qayg'u-hasratlarga behuda sarf etilgan ilgariqi son-sanoqsiz soatlarni shu ishga sarflamaganidan juda afsuslandi.

Shu yerto'lada o'tkazgan olti yil mobaynida u har qanday ishni hech so'zsiz bajarib qo'ygan bo'lur edi.

Bu so'zlar uning g'ayratiga g'ayrat qo'shdi.

Uch kun ichida juda ehtiyotkorlik bilan ishlab, hamma shuvoqni ko'chirib tashlab, toshni qip-yalang'och qilib tashladi. Devor juda qattiq toshdan tiklangan va ba'zi joylariga mahkam bo'lsin uchun tosh taxtalar qo'yilgandi. Dantes yalang'ochlagan tosh ana shu tosh taxtalardan biri edi. Endi uni bo'shatib olish kerak.

Dantes tirnoqlarini ishga solib ko'rdi, biroq naf bo'lma-di.

U sopol bo'laklarini tirqishga qo'yib, bosib ko'rgan edi, sopol sinib ketdi.

Shu tarzda Dantes rosa qiynaldi-da, hafsalasi pir bo'lib, ishni to'xtatdi.

Nahotki, qo'shnisining bir o'zi ishni tugatgunga qadar u ikki qo'lini qovushtirib bekor o'tiraversa?

Uning kallasiga to'satdan bir fikr keldi; peshona terini artdi-da, iljayib o'midan turdi.

Turma nazoratchisi har kuni unga tunuka kastryulda sho'rva keltiradi. Shu kastryulda boshqa mahbusga

sho'rva olib borsalar kerak. Nazoratchi kimdan boshlaganiga qarab, kastryul ba'zan to'la, ba'zida yarim bo'lardi, buni Dantes ko'rgan edi.

Kastryulning temir dastasi bor; ana shu temir dasta kerak Dantesga: uning evaziga u o'n yillik hayotini berishga tayyor!

Turma nazoratchisi har galgidek kastryuldagi sho'rva-ni Dantesning likopchasiga to'kar, likopchani Dantesning o'zi har kuni yuvib qo'yardi.

Kechqurun Dantes likopchani eshik bilan stol o'rtasiga yerga tashlab qo'ydi. Turma nazoratchisi kirib kelaytib likopchani bosib oldi, likopcha chil-chil bo'lib ketdi.

Bu gal Dantesga ta'na qilish uchun hech qanday asos yo'q edi; likopchani yerga jo'rttaga tashlab qo'ygani to'g'ri, biroq nazoratchi oyog'i ostiga qaramay so'ppayib kelib idishni sindirdi; demak, ayb nazoratchining o'zida.

Turma nazoratchisi to'ng'illab qo'ya qoldi; so'ng sho'rvani nimaga quysam ekan, deb u yoq-bu yoqqa alangladi, biroq Dantesning xonasida boshqa hech qanaqa idish yo'q edi.

– Kastryulkani qoldiravering, – dedi Dantes, – ertaga ertalab ovqat keltirganda olib ketarsiz.

Bu maslahat nazoratchiga yoqib tushdi, u yuqori chiqib, pastga tushishdan va yana yuqoriga chiqishdan xalos bo'ldi.

U kastryulkani qoldirib chiqib ketdi.

Dantes quvonchdan terisiga sig'may ketdi.

Sho'rvani apil-tapil ichib, go'shtini yedi. So'ng, turma nazoratchisi kastryulni olib ketaman deb qaytib kelib qolmasin tag'in, deb rosa bir soat kutdi. So'ng kelmasligiga qanoat hosil qilgach, karavotni yana surib tashladi; kastryulni olib, dastasini plita bilan tosh o'rtasida o'zi kavlab qo'ygan tirqishga tiqdi-da, richag kabi bosa boshladi. Devor sal qimirlagach, Dantes ish joyida bo'lyapti, deb o'yladi.

Chindan ham bir soatdan so'ng toshni sug'urib oldi: devorda bir yarim fut diametr teshik paydo bo'ldi.

Dantes ohak parchalarini bitta qo'ymay terib burchakka olib bordi, sopol bilan nam tuproq kavlab olib ohakning ustini bekitib qo'ydi.

Shu tunning – kutilmagan bir holda, o'z aql-idroki bilan eng qimmatli asbobdan foydalana boshlagan tunning bir lahzasini ham behuda o'tkazib yubormaslik uchun u jon-jahdi bilan ishni davom ettirdi.

Tong yorishi bilan toshni qaytarib teshikka qo'ydi, karavotni devor tagiga surdi-da, yotib uxladi.

Ertalabki ovqat bir burda nondan iborat edi. Nazoratchi kirib nonni stolga qo'ydi.

– Menga boshqa likopcha keltirmadingizmi? – so'radi Dantes.

– Yo'q, keltirmadim, – javob berdi turma soqchisi, – siz hammasini sindiryapsiz; xumchani sindirdingiz, sizning aybingiz bilan men likopchani bosib sindirdim. Agar hamma mahbuslar shunchadan idish sindirsa, ularni ta'min etishga hukumatning qurbi yetmasdi. Sizga kastryulni qoldirishdi, sho'rvani shunga quyib beraveraman, ehtimol shunda idish sindirishni bas qilarsiz.

Dantes ko'zlarini osmonga tikib qo'llarini ko'rpa ostida ko'ksiga bosdi-da, Xudoga ming karra shukur qildi.

Uning qo'lida paydo bo'lib qolgan bu bir parcha temir ko'nglini shu qadar shod etdiki, umrida hech mahal, hatto baxtning eng yuqori cho'qqisiga minib olgan paytida ham bunchalik shodlanmagan, quvonchlarga to'lmagan edi.

Faqat bir narsadan ko'ngli g'ash edi uning. U ishlay boshlagan kundan buyon qo'shnisidan sado chiqmasdi.

Biroq bundan, niyatimdan qaytishim kerak endi, degan xulosa chiqarmadi Dantes. Qo'shnisi unikiga chiqmayotgan ekan, o'zi qo'shnisinikiga chiqadi.

Kun bo'yi u tinmay ishladi; kechqurunga kelib, haligi asbob bilan devordan o'ndan ortiq mayda tosh va ohak bo'laklarini kavlab oldi.

Tushki ovqat payti kelganda ancha bukilib ketgan dastani to'g'riladi-da, kastryulni joyiga qo'ydi. Turma nazoratchisi unga mol go'shti, to'g'rirog'i, baliq solingan

sho'rvani qo'ydi. (Mahbuslarga haftada uch marta go'sht yegizmasdilar; bugun sho'rvaga go'sht emas, baliq solinganining boisi shunda, agar Dantes allaqachon kunlarni sanashni tashlamaganida bu unga kalendar bo'lib xizmat qilardi.)

Nazoratchi sho'rvani qo'yib chiqib ketdi.

Bu gal Dantes qo'shnisi rostdan ham ishlamay qo'yganini aniq bilib olishga qaror qildi.

U quloq sola boshladi.

O'tgan uch kundagidek jimjitlik hukm surardi hamon.

Dantes xo'rsinib qo'ydi, qo'shnisi undan hadiksirayotganga o'xshaydi.

Shunday bo'lsa-da, u xomush bo'lmadi, o'zini dadil tutib, ishni davom ettirdi; biroq uch soat ishlab to'siqqa duch keldi.

Temir dasta endi ohakni ko'chirolmay, silliq narsa ustida sidirilaverdi.

Dantes paypaslanib devorni ushlab ko'rdi va sinchga to'g'ri kelib qolganini fahmladi.

Sinch u teshikni to'sib turardi.

Endi sinchdan balandroq yoki pastroqdan kavlash kerak.

Sho'rlik yigit bunday to'siqqa uchrashi mumkinligini xayoliga ham keltirmagan edi.

– E-e, Parvardigori olam! – dedi qichqirib u. – Ohu fig'onimni eshitarsan, deb kecha-kunduz iltijo qildim, rahm-shafqat qilib, madad berasan deb ishongandim senga! Sen meni erkin hayotimdan judo etding, tinch o'limdan ham mahrum qilding, meni yashashga ham o'zing da'vat etding, endilikda karam qil; jondan to'yib o'lib ketishdan xalos et meni, e Xudoyim!

– Jonidan to'yib, Xudoga nola qilayotgan g'arib kim o'zi? – degan tovush xuddi yer tagidan chiqqandek bo'ldi. Qalin devor orasidan bo'g'ilib chiqayotgan bu tovush mahbus qulog'iga go'yo uni qabrdan chaqirayotgandek eshitildi.

Dantesga sochlari tik bo'lib ketayotgandek tuyuldi.

O'rnidan turmay, cho'kkalagancha devordan orqaga tisharildi.

– Men odam ovozini eshityapman, odam ovozini! – dedi shivirlab.

To'rt-besh yil mobaynida Edmon faqat turma nazorat-chisining ovozinigina eshitgan edi, mahbus turma xodimini odam qatoriga qo'shmaydi; mahbus uchun u qalin eshikka qo'shimcha jonli bir eshik, u temir panjaraga qo'shimcha jonli panjara, xolos.

– Xudo haqi! – qichqirdi Dantes, – iltimos qilaman, gapiring, o'tinaman, gapiring yana! Kimsiz?

– O'zingiz kimsiz? – so'radi haligi ovoz.

– Baxtsiz bir mahbusman, – javob berdi o'ylab o'tirmay Dantes.

– Qaysi millatdansiz?

– Fransuzman.

– Nomingiz?

– Edmon Dantes.

– Kasb-koringiz?

– Dengizchi.

– Ko'pdan bu yerdamisiz?

– Bir ming sakkiz yuz o'n beshinchi yilning yigirma sakkizinchi fevralidan.

– Nima uchun qamashdi sizni?

– Begunohman.

– Sizni nimada ayblashyapti?

– Imperatorni qaytarib kelish maqsadidagi fitnada qatnashding deb.

– Nima? Imperatorning qaytishi? Hali imperator taxtda emasmi?

– Bir ming sakkiz yuz o'n to'rtinchi yili Fontenebloda taxtdan tushirilib, Elba oroliga yuborilgan edi. Siz-chi? O'zingiz bu yerda qachondan buyon yotibsiz? Bu voqeadan xabardor bo'lmasangiz, ko'pdan beri yotibsiz ekan-da?

– Bir ming sakkiz yuz o'n birinchi yildan buyon.

Dantes seskanib ketdi. Bu odam unga qaraganda to'rt

yil ilgari turmaga tushgan ekan.

- To'xtang, kavlamay turing, - dedi shoshib haligi ovoz.
- Siz kavlagan teshik yerdan qancha balandda?
 - Er bilan bir tekisda.
 - Uni nima bilan yashirgansiz?
 - O'z karavotim bilan.
 - Turmaga tushganingizdan beri karavotingizning joyi-
ni o'zgartishgani yo'qmi?
 - Bir martayam o'zgartirishmadi.
 - Xonangizning eshigi qayoqqa qaragan?
 - Dahlizga.
 - Dahlizniki-chi?
 - Hovliga.
 - Qanday baxtsizlik bu? Butun ishim chippakka chiqibdi-da! - dedi ovoz.
 - E, Xudo! Tag'in nima balo bo'ldi? - so'radi Dantes.
 - Men yanglishibman: rejam mukammal emas ekan, adashibman. Uirkul bo'lmaganining kasofati bu; rejadagi kichik bir xato amalda o'n besh fut bo'lib chiqibdi; men sizning devoringizni qal'aning tashqi devori deb bilibman!
 - Axir siz dengiz tomonga kavlab chiqayotgan edingiz-ku!
 - Xuddi shunday niyatda edim.
 - Niyatingizga yetganingizda nima qilardingiz?
 - Dengizda suzib If qal'asi atrofidagi orollardan biriga
 - Dom orologami, yoki Tibulenga, yo bo'lmasa qirg'oqqami - chiqib olardim-da, qutulardim.
 - Bunday uzoq masofaga suzib bora olarmidingiz?
 - Xudo poshsho, o'zi madad berardi menga. Endi esa hammasi barbod bo'ldi.
 - Hammasi?
 - Ha, hammasi. Teshikni juda ehtiyotlik bilan bekitib qo'ying, kavlashni bas qiling, hech nima qilmang, o'zim xabar beraman, kuting.
 - Axir, aytsangiz-chi, kimsiz?...
 - Men... men - yigirma yettinchi raqam.

– Siz menga ishonmayapsizmi? – so‘radi Dantes.

3aharxanda kulgi eshitildi Dantesga.

– Men Xudoning bir mo‘min bandasiman! – dedi tovu-shining boricha Dantes, noma‘lum suhbatchi uni tash-lab ketayotganini his etib, – sizning va o‘zinning jallod-laringa bu sirni aslo oshkora etmayman deb qasamyod qilaman. Xudo haqi, meni tashlab ketmang, ovozingiz-dan mahrum etmang. Mabodo shunday qilgudek bo‘lsan-giz, boshimni devorga urib majaqlab tashlayman yoki tin-kam quriydi-yu, sizni vijdon azobiga solib dunyoni tark etaman.

– Yoshingiz nechada? Ovozingizdan yoshga o‘xshaysiz.

– Nechaga kirganimni ham bilmayman, chunki bu tur-mada vaqt hisobidan adashib ketdim. Bir ming sakkiz yuz o‘n beshinchi yilning yigirma sakkizinchi fevralida meni qamoqqa olganlarida yoshim endigina o‘n to‘qqizga to‘la-yotgan edi.

– Demak, siz hali yigirma oltiga ham kirmabsiz-da, – dedi ovoz. – Bu yoshlarda kishi sotqinlik qilishi amri mahol.

– Yo‘q! Yo‘q! – dedi Dantes, – ont ichaman deb ayt-dim-ku sizga. Yana bir karra qaytarib aytamanki, meni qiy-malab tashlaganlarida ham sizga xoinlik qilmayman. Aslo!

– Meni chaqirib gaplashganingiz juda yaxshi bo‘ldi. Aks holda men boshqa reja tuzib, o‘zimni sizdan uzoqroqqa olmoqchi edim. Yoshingizni eshitib xotirjam bo‘ldim. Men oldingizga kiraman, kuting.

– Qachon?

– Buni hisoblab chiqish kerak, men sizga signal bera-man.

– Lekin siz meni yolg‘iz qoldirib tashlab ketmaysizmi? O‘zingiz chiqasizmi menikiga yoki menga ruxsat etasiz-mi chiqishga? Qochsak birga qochamiz, mabodo qochishning iloji bo‘lmasa men sevgan kishilarim haqida gapirib, siz ham o‘zingiz sevgan kishilar to‘g‘risida gapi-rib otamlashamiz. Siz ham kimnidir sevarsiz?

– Men bu jahonda so‘qqaboshman.

– Unday bo'lsa meni seva qoling. Yosh bo'lsangiz men sizning o'rtog'ingiz bo'laman; keksa bo'lsangiz o'g'lingiz bo'laman. Mening otam bor, agar u tirik bo'lsa yetmish yoshga kiradi. Men faqat ana shu otamni va Mercedes degan qizni sevardim, otam meni hech yodidan chiqarmaydi, bunga men aminman; qiz bo'lsa... Bilmadim, u meni esiga olarmikin? Men sizni xuddi otamni sevganday sevaman.

– Yaxshi, – dedi mahbus, – ertagacha xayr.

Bu so'zlar shunday aytildiki, Dantes ularga darrov ishondi. Unga endi bundan boshqa hech narsaning keragi yo'q. Dantes o'rnidan turib, har galgidek devordan kavlab olgan shuvoqni yashirdi-da, karavotni devor tagiga surib qo'ydi. So'ngra o'z baxt-quvonchi haqida o'yga cho'mib ketdi. Endi u yolg'iz emas, ehtimol qochib keta olishar. U hatto turmada qolib ketsa-da, endi hamrohi bor. G'am-g'ussa baham ko'rilsa turma ham chidamli. Ko'plashib aytilgan arzdod – ibodat, ikkovlashib aytilgan iltijo – halovat.

Dantes kun bo'yi yerto'lada yurib chiqdi. Quvonchi ichiga sig'masdi uning. Ba'zan qo'llarini ko'kragiga bosib, karavotida o'tirib qolardi. Dahlizda salgina tovush eshiltilsa, eshikka yugurardi. Notanish, lekin aziz do'stidek sevib qolgan haligi kishidan meni ajratib qo'ymasinlar tag'in, deb tez-tez vahimaga tushardi. Mabodo turma nazoratchisi karavotni surib, engashgudek bo'lsa suv to'la xumcha ostidagi tosh bilan uning kallasini majaqlab tashlayman, deb ahd qilardi.

Uni o'limga hukm qilishlarini Dantes bilardi. Lekin u mo'jizali tovushni eshitgunga qadar bir karra o'lib bo'lgan emasmidi axir? Faqat ana shu taqillagan tovush unga yana jon kiritdi-ku!

Kechqurun turma nazoratchisi keldi. Dantes karavotda yotgan holicha kavlab tamomlanmagan teshikni juda mahkam muhofaza qilaman yot ko'zlardan, deb faraz qilardi: Dantes hadeb kelaverib me'dasiga tekkan kishiga bu gal g'alati tikildi shekilli, nazoratchi dedi:

– Nima bo'ldi? Yana aqldan ozyapsizmi?

Dantes indamadi. Titroq ovozimni eshitib shubhalanmasin deb qo'rqdi. Nazoratchi boshini chayqab chiqib ketdi.

Qosh qoraydi. Dantes tungi zimiston va sukunatdan foydalanib qo'shnim suhbatni davom ettirar, deb umid qilgandi. Biroq u aytganday bo'lmadi. Tun bo'yi yuragi hovliqib, mijja qoqmay chiqqan Dantesni tinchitish uchun birorta ovoz eshitilmadi. Biroq tong paytida, nazoratchi kelib ketgach, karavotni surib qo'yib quloq soldi; uchta bir xildagi taqillash eshitildi. Dantes darhol cho'kka tushdi.

– Sizmisiz? – so'radi u. – Bu men.

– Turma nazoratchisi ketdimi? – so'radi haligi ovoz.

– Ketdi, – javob berdi Dantes, – endi faqat oqshom paytida keladi. O'n ikki soat vaqtimiz bor.

– Ishga kirishaverayinmi? – so'radi ovoz.

– Albatta, albatta, shu daqiqaning o'zidayoq, o'tinib so'rayman.

Shu zahotiy oq Dantes ikki qo'lini tirab turgan tuproq uning tomoniga ag'darila boshladi, u cho'chib ketdi, sal o'tmay bir uyum tuproq va tosh Dantes kavlab qo'ygan teshik tagidagi chuqurga to'kilib tushdi. So'ng chuqurli-gi noma'lum qop-qorong'i o'radan avval kalla, so'ng yelka, pirovardida bus-butun odam paydo bo'ldi-da, lip etib teshikdan o'tib oldi.

XVI. ITALIYA OLIMI

Dantes ko'pdan buyon zor-intizor bo'lib, sabrsiz kutib yotgan yangi do'stini quchog'iga mahkam bosdi-da, g'ira-shira yorug'da uni yaxshilab ko'rib olayin deb, deraza yoniga yetaklab keldi.

Bu o'rta bo'yli, sochlari qarilikdan emas, g'am-g'ussadan oqarib ketgan, o'tkir ko'zli, qalin qoshlariga oq tushgan, ko'ksigacha tushgan soqoli hali qop-qora bir zot edi.

Oriq yuzlaridagi chuqur-chuqur ajinlar, chehrasidagi dardillik va joziba bu odam jismoniy kuchga emas, ko'proq ruhiy kuchga e'tibor beradigan kishilar toifasidan ekanidan darak berardi. Uning peshonasidan ter oqib turardi. Ust-boshining boshda qanaqa ekanini aniqlash qiyin, dabdala bo'lib ketgan.

U oltmish besh yoshlarga borib qolganga o'xshardi, harakatlari chaqqon edi. Binobarin, uning bunchalik qiltillab qolishi qariligidan emas, u uncha qariga o'xshamaydi, faqat uzoq qamoqda jabrlanib shunday holga kelib qolgan.

U aftidan, yosh yigitning hayajonga tushib quvonganidan nihoyatda mamnun edi. Uning so'lib, so'nib qolgan ko'ngli Dantesning yosh, jo'shqin ko'nglidan harorat olib, ilidi. Abbat shuncha mehnat qilib qutulish o'rniga, ikkinchi zindonga tushib qolganidan g'oyat qayg'urgan bo'lsa-da, quloch yozib qabul qilgani uchun Dantesga minnatdorchilik bildirdi.

– Dastavval, – dedi u, – soqchilardan men kavlab o'tgan teshikni bekitish yo'lini axtaraylik. Bizning bundan keyingi xotirjam bo'lib ish yuritishimiz ko'p jihatdan shunga bog'liq.

U teshikka egilib, toshni og'ir bo'lishiga qaramay ko'tarib oldi-da, ilgarigi joyiga qo'ydi.

– Siz bu toshni juda ehtiyotsizlik bilan olibsiz, – dedi boshini chayqab u. – Asbob yo'qmidi sizda?

– Sizda bormi? – so'radi Dantes ajablanib.

– Men ba'zi asboblarni o'zim yasab oldim. Menda arradan bo'lak hamma narsa: iskana, qisqich, richag bor.

– Sabr-toqat, matonat va mahoratingiz bilan yaratilgan o'sha narsalarni bir ko'rsam, agar mumkin bo'lsa, – dedi Dantes.

– Marhamat, mana iskana, – deb temirdan juda mahkam va o'tkir qilib yasalgan yog'och dastali iskanani ko'rsatdi abbat.

– Nimadan yasadingiz buni? – so'radi Dantes.

– Karavotimning tirgagidan. Mana shu asbob bilan de-

yarli ellik fut yo'lni kavlab shu yerga keldim.

– Ellik fut? – qichqirib yubordi Dantes hayajonlanib.

– Sekinroq gapiring, yigitcha, sekinroq; ko'p vaqt mahbuslarning eshigi oldida uzunquloqlar qo'yilgan bo'ladi.

– Axir yolg'izligimizni bilishadi-ku.

– Baribir.

– Ellik fut yo'lni teshib keldim dedingizmi?

– Ha, mening xonam bilan sizning xonangiz o'rtasidagi masofa taxminan ellik futga boradi. Geometrik asboblarim bo'lmaganidan masshtabni aniqlay olmadim, natijada qiyshiq chiziqni tortishda adashdim. Ellips bo'yicha qirq o'rniga ellik fut chiqib qoldi. Boya sizga aytganimdek, tashqi devorga chiqib, uni teshaman-da, dengizga sakrayman, deb o'ylagan edim. Xonangizning eshigi chiqadigan dahlizning tagidan kavlab borish o'rniga, yonidan kavlab o'tibman; shunday qilib, butun mehnatim zoe ketdi, chunki dahliz to'g'ri hovliga chiqadi, hovli soqchilar bilan liq to'la.

– Bu gapingiz to'g'ri, – dedi Dantes, – biroq dahliz mening xonamning faqat bir tomonidan o'tadi, xonamning yana uch tomoni bor.

– Shunday, albatta, biroq devorning mana shu tomonida qoya tosh bor, barcha kerakli asbob-uskunalar bilan to'la-to'kis qurollangan o'nta kon qazuvchi o'n yilda ham bu qoya toshni oxirigacha kavlab chiqa olmaydi. Anavi tomoni esa komendant xonasining fundamentiga taqalgan; mabodo shu tomondan kavlab borsak, qulflab qo'yiladigan yerto'laga kirib qolamiz, u vaqtda bizni osongina tutib olishadi; endi, devorning bu tomoniga kelsak... To'xtang-chi... Bunisi qayoqqa chiqadi?

Devorning bu tomonida shinak ochilgan bo'lib, undan yorug' tushib turardi. Bu shinak qalin devordan toraytirib chiqarilgan, undan mushtdek go'dak ham o'tolmaydi. Shunga qaramay, uch qator temir panjara bilan to'sib qo'yilgan, binobarin, turmaning eng badgumon nazoratchisi ham mahbus bu tomondan qochadi deb hadiksira-masdi. Mehmon haligi savolini berdi-da, stolni deraza ol-

diga surdi.

– Stolga chiqing, – dedi u Dantesga.

Dantes xo'p deb stolga chiqdi va hamrohining maqsadini anglab, yelkasi bilan devorga suyandi-da, ikki kaf-tini tutdi.

Ana shunda nomi o'rniga xonasining raqamini aytgan va Dantesga asl nomi noma'lum chol mushuk kabi irg'ib avval stolga, so'ng stoldan Dantesning kaftlariga va so'ngra yelkasiga chiqib oldi; past shiftdan sal egildi-da, boshini panjaralar orasiga suqib pastga qaradi.

U bir daqiqa o'tar-o'tmay boshini sug'urib oldi.

– Oh-ho! – dedi u, – o'ylaganimdek bo'lib chiqdi.

So'ng u Dantesning yelkasidan stolga, stoldan yerga irg'ib tushdi.

– Nima gap o'zi? – so'radi Dantes tashvishlangan holda stoldan tushib.

Chol o'ylanib qoldi.

– To'g'ri, – dedi u, – xuddi shunday: yerto'langizning to'rtinchi devori gir aylangan xiyobonga tutashgan ekan; u yerda kechayu kunduz qorovullar tinmay yurib chiqadi va soqchilar turadi.

– Shunga imoningiz komilmi?

– Men soldatning shapkasini va qurolining uchini ko'rdim. Ko'rib qolmasin deb boshimni darhol tortib oldim.

– Xo'sh, endi nima qildik? – dedi Dantes.

– O'zingiz ko'rib turibsizki, sizning bu zindoningizdan qochib ketishning iloji yo'q.

– Bu yog'i nima bo'ladi? – davom etdi Dantes.

– Bu yog'iga, – dedi chol, – Xudo poshsho! – uning chehrasida to'la itoatkorlik belgilari paydo bo'ldi.

Shuncha yillardan buyon qo'msab-intilib kelgan orzu-umidlaridan shu qadar osonlik bilan nihoyatda bamayli-xotir voz kechayotgan abbatga Dantes zavq bilan tikilardi.

– Endi ayting, kimsiz? – so'radi Dantes.

– Endilikda, mening sizga hech nafim tegmaydi, shun-

day bo'lsa-da, siz mening kimligimni bilmoqchi ekansiz, aytib berayin.

– Siz meni yupatishingiz va qo'llab turishingiz mumkin, chunki mening nazarimda dunyoda sizdan kuchli kishi bo'lmasa kerak.

Mahbus iljayib qo'ydi.

– Men abbat Fariaman, – dedi u. – If qal'asida bir ming sakkiz yuz o'n birinchi yildan beri o'tiribman. Buni aytgandim sizga, biroq bundan burun Fenestrel qo'rg'onida uch yil yotdim. Bir ming sakkiz yuz o'n birinchi yili meni Pemontdan Fransiyaga olib kelishdi. Bu yerda, taqdir go'yo Napoleonga bo'yin egib, unga o'g'il ato etganini va o'g'il beshikda yotgan chog'idayoq Rim qiroli qilib tayinlanganini bildim. O'shanda sizdan eshitgan hodisalar yuz beradi deb o'ylamagan edim; to'rt yildan so'ng jahongir ag'darib tashlanadi deb tasavvur etolmagandim. Hozir Fransiya taxtida kim o'tiribdi? Napoleon II mi?

– Yo'q, Lyudovik XVIII.

– Lyudovik XVIning ukasi Lyudovik XVIII! Taqdirning taqozosini qarang-a! Toj-taxtga o'zi ko'targanni u nima maqsad bilan yerga urdi-yu, o'zi yerga urgan zotni qanday maqsad bilan yana ko'tardi?

O'z tashvishlarini unutib qo'yib, dunyo tashvishlari to'g'risida fikr yuritayotgan bu ajoyib odamdan Dantes ko'zini uzmasdi.

– Xuddi Angliyadagidek bo'пти, – dedi so'zini davom ettirib abbat.

– Karl I dan keyin – Kromvel; Kromveldan keyin Karl II, ehtimol Yakov II dan so'ng yana bironta urug'-aymog'i, qandaydir shahzoda Oranskiymi, sobiq shtatgaltermi qirol bo'lib qolar, shundan keyin yana xalqqa imtiyozlar, konstitutsiya, ozodlik va'da qilinar! Siz bularni o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz hali, yigitcha, ha, ko'rasiz, – dedi abbat Dantesga avliyolarcha tikilib. – Siz yoshsiz hali, hammasini ko'rasiz!

– Agar bu zindondan qutulib chiqa olsam.

– Darvoqe, – dedi abbat Feria. – Biz qamoqdamiz-a.

Shunday daqiqalar bo'ladiki, men buni unutib, o'zimni ozodlikda deb his etaman. Chunki ko'zlarim turma devorlarini yorib, narigi yoqda bo'layotgan voqealarga tiki-ladi.

– Sizni nima uchun qamadilar?

– Menimi? Shuning uchunki, Napoleon bir ming sakkiz yuz o'n birinchi yilda amalga oshirmoqchi bo'lgan rejasini men bir ming sakkiz yuz yettinchi yilda orzu qilgan edim; shuning uchunki, Italiyada in qurib olgan va lapashang, zaif johillar idora qilayotgan mayda-chuyda knyazliklar o'rniga men, Makiavelli kabi, yagona bir butun va qudratli ulug' davlat bo'lishini istagan edim; qarangki men toj kiygan nodon qiyofasida o'z Uezar Bordjiamni topdim deb o'ylasam, u meni osongina sotish uchun yolg'ondan fikrimga qo'shilgan ekan. Bu Aleksandr VI va Kliment VII ning rejasi edi; bu reja barbod bo'ldi, ularning urinishlari behuda ketdi; hatto Napoleon ham buni tugal bajarolmadi. Chindan ham Italiya qarq'ishga uchragan ekan!

Chol boshini egib, jimib qoldi.

Kishi shunday maslak yo'lida o'zini qurbon qilishi mumkin ekanligiga Dantes tushunolmasdi. To'g'ri, u Napole-onni bilardi, uni ko'rgandi va gaplashgandi ham; biroq Kliment VII va Aleksandr VI to'g'risida hech qanday tasavvurga ega emas edi.

If qal'asida ko'pchilikning fikriga qo'shila boshlagan Dantes so'radi:

– Kasal deb aytishgan dindor sizmi?

– Jinni deb aytgan demoqchisiz-a?

– Men bunday deyishga jur'at etolmadim, – dedi Dan-tes iljayib.

– To'g'ri, – dedi asta Faria zaharxanda qilib, – to'g'ri, meni aqldan ozgan – jinniga chiqarib qo'yishgan. Men bu qal'adagilarga allaqachondan buyon kulgi-mazax bo'lib qolganman; agar bu g'amxonada go'daklar bo'lganda, ularga ermak bo'lardim.

Dantes qimir etmay jim turardi.

– Demak, endi siz qochishdan voz kechasizmi? – soʻradi u.

– Qochishning imkoni yoʻqligiga imonim komil boʻldi; imkoni yoʻq narsaga urinish – Xudoga qarshi bosh koʻtarish demakdir.

– Umidsizlikka berilishdan na foyda? Ish darrov unadi deb oʻylashning oʻzi ham Parvardigordan keragidan ortigʻini tilash, demakdir. Boshqa tomondan kavlashning iloji yoʻqmikin?

– Axir, bilasizmi, buni qazishga qancha mehnatim ketdi mening? Asbob-uskunalarni yasashning oʻziga toʻrt yillik umrim ketdi, tushundingizmi? Bilasizmi, men tinmay ikki yil metinday yerni qazib chiqdim. Ilgarigi vaqtlarda hatto oʻrnidan qoʻzgʻatolmaydigan toshlarni koʻchirib oldim: butun-butun kunlarimni va tunlarimni mana shu ogʻir va mashaqqatli mehnat bilan oʻtkazdim. Baʼzan kechgga borib toshday qotib qolgan mana shu ohakdan zoʻrgʻa yongʻoqday bir parchasini koʻchirib olardim xolos, shunga oʻzimda yoʻq xursand boʻlardim. Bilasizmi, kavlab olgan tuproq va toshlarni yashirish uchun devorni teshib, ularni zinapoya ostiga tashlashga majbur boʻldim, endi esa u yer tepacha boʻlib yotibdi; binobarin endilikda men bir siqim tuproq qoʻyadigan joy topolmayman. Men qilgan shuncha mehnatim bekorga ketmadi, niyatimga erishdim, ishning qolganini tugatishga kuch-quvvatim yetadi endi, deb oʻylagan edim, biroq toʻsatdan Xudo orzumning ushalishini keyinga suribgina qolmay, uni chippakka chiqardi. Yoʻq, yetar shunisi ham. Men sizga aytdim, yana qaytarib aytamanki, bu ishga endi jinjalogʻimni ham tekkizmayman, chunki ozodlikdan abadiy mahrumlikni Tangrining oʻzi peshonamga yozib qoʻygan ekan.

Edmon, qochishning uddasidan chiqolmagan bunday odam bilan oʻrtoq tutinganidan quvonib ketgani unga hamdard boʻlishga xalaqit berayotganini cholga bildirmaslik uchun boshini quyi soldi.

Abbat Faria toʻshakka choʻkdi.

Edmon qochishni xayoliga ham keltirmagan edi. Bu boradagi ba'zi tadbirlar amalga hech oshadiganga o'xshamas, shu sababli ularga qo'l urishni xayoliga ham keltirmasdi. Qandaydir tuyg'u ulardan voz kechishga majbur etardi. Uch yil kunu tun mashaqqatli mehnat qilib yer tagini o'yib, dengiz ustidagi jar yoqasiga borilsa, ellik, oltmish, ehtimol yuz fut balandlikdan sakrab kallani (agar shu vaqtgacha soqchining o'qi kunini kalta qilib qo'ymagan bo'lsa) majaqlasa, yoki bu xavf-xatarlardan qutulib, bir mil masofani suzib o'tilsa – unda nima bo'ladi? Mana shuning o'zi taqdirga tan berish uchun Dantesga yetib ortardi; biz yuqorida taqdirga tan berish: «Peshonamga yozilgani shu ekan-da», deb o'tirish Dantesni o'lim jari yoqasiga olib borib qo'rganini ko'rgan edik.

Butun kuch-qudrati bilan yashash uchun kurashayotgan va bu borada tirishqoqlik, jonbozlik namunasini namoyish qilayotgan cholni ko'rgach, o'ylarga tushib qoldi va o'z kuch-quvvatini, sabot-matonatini o'lchovga solib ko'ra boshladi. Anavi chol u xayoliga keltirmagan ishlarni qilishga urinibdi: undan qari, undan kuchsiz, epchillikda ham uning oldiga tusholmaydigan bu kishi sabr-toqat, mashaqqatli mehnat qilib, hisobda adashganidan amalga oshmay qolgan bu ulkan ishga zarur asbob-uskunalarni o'zi yasab olibdi. Abbat shu ishlarning hammasini qilgan ekan, binobarin, uning uchun ham ilojisiz hech nima yo'q, bajarib bo'lmaydigan narsa yo'q. Faria ellik fut masofani kavlagan ekan, u yuz futni kavlaydi; ellik yoshli Faria uch yil mehnat qilgan bo'lsa, undan ikki marta yosh Dantes olti yil ishlaydi; abbat, olim, dindor Faria If qal'asidan Dom, Rotano yoki Lemer orollarigacha suzib borishga qaror qilgan ekan, dengizchi, botir g'avvos, korall xivchinlari olib chiqish uchun tez-tez suv tagiga sho'ng'ib yurgan Dantes nahotki bir milli masofani suzib o'tolmasa? Bu masofani suzib o'tish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi? Bir soatmi? Axir uning soatlab qirg'oqqa chiqmay, to'lqinlar ustida chayqalib yurgan paytlari kam bo'lganmi?! Yo'q, yo'q! Unga dalda

beradigan namuna kerak edi, ha, ana shunday namuna kerak edi! Abbat qilgan yoki qila oladigan ishlarning hammasini Dantes ham qila oladi.

U o'ylanib turdi-da, dedi:

– Siz axtargan narsani men topdim.

Faria seskanib ketdi.

– Siz? – so'radi abbat boshini ko'tarib; agar Dantesning gapi rost bo'lsa, hamrohi ham tez kunda umidsizlikdan qutulishi mumkinligini o'ylab: – Xo'sh, nimani topdingiz?

– Siz kesib o'tgan dahliz tashqi xiyobon tomonga cho'zilib borsa kerak, chamamda.

– Xuddi shunday.

– Bularning orasi o'n besh qadam bo'lsa kerak.

– Bundan ko'p emas.

– Binobarin, dahlizning o'rtasidan to'g'ri burchak yo'l kavlaymiz. Bu gal aniqroq hisoblab chiqasiz. Shunda tashqi xiyobonga chiqamiz-da, soqchini o'ldirib qochamiz. Buning uchun shijoat kerak, sizda kuch ham, shijoat ham bor, menda esa kuch-g'ayrat yetarli. Sabr-toqat, sabotmatonat to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas, buni siz amalda ko'rsatdingiz, men ham ko'rsatishga harakat qilaman.

– Sabr qiling, – dedi abbat, – mening kuch-g'ayratim qanchaligini va bu kuchimni nimaga ishlatmoqchi ekanimni siz hali bilmaysiz-ku. Sabr-toqatim yetarlidir ehtimol; chunki har kun ertalab – tungi ishimni, tunda – kunduzgi ishimni davom ettirib keldim. O'sha vaqtlarda men... yigit, gapimga diqqat bilan quloq soling, o'sha vaqtlarda men Xudo yo'lida u yaratgan begunoh jazoga mustahiq etilgan zotni xalos etish uchun jonimni jabborga berib ishlayapman, deb o'ylagan edim.

– Endi-chi? Hozir ham shunday emasmi? – so'radi Dantes. – Yoki ikkimiz uchrashganimizdan keyin o'zingizni aybdor deb bildingizmi?

– Yo'q, ammo aybdor bo'lmoqchiman endi. Hozirgacha men buyumlarni teshib, sindirib kelgan edim. Endi

siz meni odam bilan to'qnashtirmoqchisiz. Devorni teshib tashlashim va zinapoyani sindirishim mumkin, biroq ko'krakni teshib, kimningdir hayotini poymol qilish qo'limdan kelmaydi.

Dantes taajjublanib tikilib qoldi abbatga.

– Nechun? – dedi u. – Qochib qutulib ketishimiz mumkin bo'lgan bir holda shu mulohazalar sizni yo'ldan qaytardimi?

– Gap bunda emas! – dedi Faria, – nega o'zingiz stol oyog'i bilan nazoratchini o'ldirib, uning kiyimlarini kiyib qochmadingiz?

– Shuning uchunki, bunday fikr xayolimga kelgani yo'q, – javob berdi Dantes.

– Buning boisi shuki, tabiat sizga odam o'ldirishdek qabih ishdan jirkanish xislatini ato etgan. Buni xayolingizga ham keltirmaganingizning vaji shunda, – dedi so'zini davom ettirib chol, – oddiy va yo'l qo'yilgan ishlarda tabiiy tuyg'ularimiz bizni to'g'ri yo'ldan boshlab boraveradi. Qon to'kish uchun yaratilgan sher uchun o'ldirish kasb, burch, u o'lja yaqinligini his etsa bo'ldi – unga shunisi yetarli. Shu zahoti otilib boradi-da, qo'lga tushgan jonivorni burdalab tashlaydi. Uning odati shu, shunga bo'ysunishga majbur. Inson esa qondan hazar qiladi. Jamiyat qonunlari emas, tabiat qonunlari bizga qon to'kishni, odam o'ldirishni taqiqlab qo'ygan.

Dantes o'ng'aysiz holga tushib qoldi. Abbatning bu so'zlari uning miyasida, to'g'risi yuragida (chunki ba'zi fikrlar kishining miyasida, ba'zilari yuragida paydo bo'ladi) ongsiz ravishda paydo bo'lgan fikrlarning ma'nosini anglatib bergan edi.

– Bundan tashqari, – davom etdi Faria, – turmada o'n ikki yil o'tirib olamga mashhur turmadan qochishlarning hammasini birma-bir ko'z oldidan o'tkazib chiqdim. Ulardan juda kamdan-kami muvaffaqiyatli chiqqan ekan. Faqat uzoq o'ylab, asta-sekin tayyorgarlik ko'rib qochgan kishilar maqsadiga erishgan ekan. Ana shunday tarzda Vensen qal'asidan gersog Bofor, Fol-Levekdan abbat Dyu-

byukua, Bastiliyadan Latyud qochib chiqqan ekan. Yana bir nechta odam favqulodda sharoit tugʻilib qolganda qochib chiqishgan turmadan. Mana shu keyingisi eng qulayi, yaxshisi ana shunday qulay paytni kutaylik, toʻgʻri kelganda undan foydalanib, osongina qochamiz-ketamiz.

– Siz, – dedi abbatning soʻzini boʻlib Dantes, – uzoq vaqt tinimsiz mehnat bilan band boʻlib kutgansiz, mehnat bilan band boʻlmagan vaqtda orzu-umid bilan yupanib kelgansiz.

– Men shu bilan shugʻullanibgina qolganim yoʻq, – dedi abbat.

– Tagʻin nima bilan shugʻullandingiz?

– Yozdim, mashgʻulot bilan band boʻldim.

– Demak, sizga qogʻoz, qalam, siyoh berarkanlar-da?

– Yoʻq, berishmaydi, – dedi abbat, – oʻzim yasab olaman ularni.

– Qogʻoz, qalam va siyohni ham oʻzingiz yasaysizmi? – dedi hayron boʻlib Dantes.

– Ha, oʻzim yasayman.

Dantes kekxa abbatga zavq, havas bilan koʻz tikardiyu, hamon uning soʻzlariga unchalik ishonmasdi. Faria uning shubhalanayotganini sezdi.

– Menikiga chiqqaningizda, – dedi abbat, – Rimdagi Kolizey soyaboni ostida, Venesiyadagi muqaddas Maria koloniyalari tagida, Florensiyadagi Ario daryosi qirgʻoqlarida umr boʻyi oʻylarim, mulohazalarim, fikrlarim mahsuli sifatida yozgan asarlarimni koʻrsataman. Mening turma nazoratchilarim buni If qalʼasining devorlariga yozishimga monelik qilmasalar kerak, deb ishongandim. Bu «Butun Italiyada yakka-yagona monarxiya barpo etish mumkinligi toʻgʻrisida traktat» degan katta asar.

– Bu asarni yozib tugatdingizmi?

– Ikki koʻylakka yozib boʻldim. Men boʻz matoni silliq qilib qoʻyadigan bir dori oʻylab topdim; boʻz xuddi qalin qogʻozga oʻxshab qoladi.

– Hali siz ximik ekansiz-da?

– Qisman. Men Lavuaze bilan bir oz tanish va Kabanis

bilan do'st edim.

– Biroq bunday asar yozish uchun sizga tarixiy materiallar kerak bo'lgandir. Kitoblaringiz bormidi?

– Rimda besh ming kitoblik kutubxonam bor edi. Ularni qayta-qayta o'qib shunday qarorga keldimki, yaxshilab tanlab olingan bir yuz ellik asar butun insoniyat yaratgan bilimlarning hammasi bo'lmasa-da, har holda kishi uchun foydali bo'lgan hamma ilmlarni bera olarkan. Hayotimning uch yilini ana shu bir yuz ellik tomni o'rganishga bag'ishladim, meni qamoqqa olganlarida o'sha tomlarni deyarli yoddan bilardim. Burmada zehnimga bir oz zo'r berib, ularning hammasini yana esiga solib oldim. Sizga Fukididning, Ksenofontning, Plutarxning, Titning, Liviyning, Tasitning, Straduning, Iornandning, Dantening, Montening, Shekspirning, Spinozaning, Makiavellining, Bossyuening asarlarini yoddan o'qib berishim mumkin. Men sizga faqat birinchi darajadagilarining nomlarini aytdim.

– Siz bir nechta tilni bilasizmi?

– Men beshta jonli tilda gapira olaman: nemischa, fransuzcha, italyancha, inglizcha, ispancha, qadimiy grekcha yordamida hozirgi grek tilini ham tushunaman, to'g'ri, hozircha bu tilda ravon gapira olmayman, ammo o'rganyapman uni.

– Grek tilini o'rganyapsizmi? – so'radi Dantes.

– O'rganyapman, o'zim bilgan so'zlarning lug'atini tuzib chiqdim; fikrlarimni grekcha bermalol ifoda qila olaman. Mingga yaqin so'z bilaman; menga shunisi ham kifoya qiladi. Lug'atlarda esa yuz mingga yaqin grek so'zi bor.

Edmonning zavqi tobora oshib borardi; bu ajoyib odamda qandaydir g'ayri tabiiy xislat bordek tuyulardi unga. Dantes cholning sirini bilib olish niyatida savollari ni davom ettirdi.

– Sizga qalam bermagan ekanlar, shunday katta asarni nima bilan yozib chiqdingiz?

– Men yovg'on ovqat vaqtida beriladigan baliqning ke-

mirchagidan juda soz qalamlar yasab oldim o'zimga, bu boshqa qalamlardan yaxshiroq bo'lib chiqdi. Men seshanba, juma va shanba kunlarni juda yaxshi ko'raman, shuning uchunki, shu kunlari zaxira qalamlarim ko'payib ketadi, ochig'ini aytsam, tarix borasidagi ishlarim eng sevimli mashg'ulot men uchun. O'tmish to'g'risida o'y-xayollarga sho'ng'ib ketganda hozirgi zamonni yodimdan chiqarib tashlayman; tarix bo'ylab erkin va mustaqil sayr qilib yurganda, turmadaligimni ham sezmay qolaman.

– Siyoh-chi? – so'radi Dantes, – siyohni nimadan yasadingiz?

– Mening xonamda ilgari vaqtlarda pechka bo'lgan ekan, – javob qildi Faria. – Men kelmasdan sal oldin unga truba qo'yan bo'lsalar kerak, biroq ungacha uzoq yillar pechkani shunday yoqaverganlar, natijada uning devorlarini qurum bosib ketgan ekan. Ana shu qurumlarni yakshanba kuni beriladigan musallasga aralastiraverdim, natijada bundan ajoyib siyoh paydo bo'ldi. Ko'zga tashlanib turishi kerak bo'lgan ayrim so'zlarni barmog'imni teshib qon bilan yozdim.

– Bularning hammasini men qachon ko'rsam bo'ladi? – so'radi Dantes.

– Xohlagan vaqtingizda, – javob qildi Faria.

– Hoziroq!

– Bo'lmasa, yuring mening ketimdan, – dedi abbat.

U tuynukka kirdi-da, g'oyib bo'ldi. Dantes ham unga ergashdi.

XVII. ABBATNING XONASI

Dantes, egilib-bukilib bo'lsa-da, abbat kavlab kelgan lahmning oxiriga yetib oldi. Shu yerga kelib lahm torayib ketgan, undan faqat emaklab o'tish mumkin edi. Abbat xonasining tagi plitadan ishlangan ekan. Mana shu plitalardan birini abbat ko'chirib olib kavlay boshlagan ekan. Ish nima bilan tugagani Dantesga ma'lum edi.

Edmon abbatning xonasiga kirdi-da, qaddini rostlab, atrofga nazar tashlab chiqdi. Birinchi qarashda bu zindonda kishini ajablantiradigan hech narsa ko'zga tashlanmasdi.

– Xo'sh, – dedi abbat, – endigina soat o'n ikkidan o'n besh daqiqa o'tibdi. Yana bir necha soat vaqtimiz bor.

Abbat qaysi soatga qarab vaqtни bunchalik aniq belgilayapti ekan, deb Dantes xonaning hamma yog'ini qarab chiqdi.

– Derazamdan kirgan quyosh nuriga, – dedi abbat, – devorga chizib qo'ygan chizig'imga qarang. Mana shu chiziq'larga qarab men vaqtни soatdagidan to'g'riroq aniq layman, chunki soat buzilib qolishi mumkin, quyosh va yer hamma vaqt to'g'ri ishlaydi.

Dantes bu izohdan hech narsa tushunmadi. Quyoshning tog'lar orasidan ko'tarilib chiqishini va O'rta yer dengiziga tushib ketishini ko'rib u yer emas, quyosh aylanib yuradi deb o'ylardi. O'zi yashab turgan yer kurrasining unga sezdirmay ikki turda aylanishi to'g'risidagi gaplarga u ishonmasdi, hamsuhbatining har bir so'zida u fanning sirlari bor deb bilardi, bular yoshlik chog'ida Guzerat va Golkondga sayohat vaqtida ko'rgan mo'jizador oltin va olmos o'q yoylarga o'xshardi.

– Men, – dedi u abbatga, – boyliklaringizni qachon ko'rarkanman, deb toqatim toq bo'lyapti.

Abbat o'choq oldiga bordi-da, qo'lidan tashlamay yurgan parma bilan toshni sug'urib oldi. Bu toshni qopqoq o'rnida ishlatib kattagina chuqurni bекitib kelgan edi, abbatning Dantesga aytgan buyumlari ana shu chuqurda saqlanardi.

– Dastlab nimani ko'rsatay sizga? – so'radi u.

– Italiyada monarxiya to'g'risidagi asaringizni ko'rsating.

Faria chuqurdan qog'oz varaqlariga o'xshatib o'ralgan to'rtta yumaloq narsani oldi. Bu o'ramlar kengligi to'rt dyuym va uzunligi o'n sakkiz dyuym bo'zdan iborat bo'lib, hammasiga raqam qo'yilgandi. Dantes bir qancha satrni

hech qiynalмай o'qidi. Asar abbatning o'z ona tilida, ya'ni italyan tilida yozilgan edi. Dantes Provansda tug'ilgan bo'lib, bu tilni juda yaxshi bilardi.

– Mana, ko'rdingizmi, butun asar mana shu yerda, bir hafta burun oltmish sakkizinchi sahifaga asarning oxirini yozgan edim. Ikki ko'ylagim va barcha dastro'mollarimni ishlatdim bunga. Qachon bo'lmasin ozodlikka chiqib qolgudek bo'lsam va Italiyada shu kitobni bosib chiqarishga jur'at qiladigan biror bosmaxona topilib qolsa, shuhrat qozonishim turgan gap.

– To'g'ri, – dedi Dantes, – ko'rib turibman. Endi bularni yozgan qalamni ko'rsatishingizni iltimos qilaman.

– Mana u qalam, – dedi Faria va uzunligi olti dyuym, qalinligi yarim dyuym cho'pni ko'rsatdi. Unga baliq chandiri ip bilan bog'langan, uchi siyohga bo'yalgan oddiy pichoq o'xshatib o'tkir qilib tarashlangan edi.

Dantes peroni sinchiklab ko'zdan kechirdi-da, uning uchini o'tkirlashda ishlatilgan asbobni axtarib, atrofga alangladi.

– Siz qalamtaroshni axtaryapsizmi? – dedi Faria, – u mening faxrim. Men uni ham o'z qo'lim bilan yasadim. Mana bu katta pichoq eski temir shamdondan yasaldi.

Qalamtarosh xuddi ustaradek kesardi, pichoq esa ham pichoq, ham xanjar rolini o'ynardi.

Dantes ilgarilari Marseldagi nodir buyumlar magazinlarida yovvoyi odamlar yasagan va uzoq dengiz safari kapitanlari janubiy orollardan keltiradigan yarog'aslahalarni qanday zavq bilan tomosha qilgan bo'lsa, abbatning bu buyumlarini ham xuddi shunday zo'r qiziqish bilan ko'zdan kechirardi.

– Siyohni, – dedi Faria, – qanday qilib tayyorlaganimni siz bilasiz. Men uni ehtiyojga qarab, kunligini kunda tayyorlayman.

– Endi meni faqat bir narsa hayratda qoldiryapti: bu ishlarga qanday qilib vaqt topdingiz?

– Men tunlari ham ishlab chiqdim, – dedi Faria.

– Tunlari? Axir siz mushuk emassiz-ku kechasi qoron-

g'ida ham ko'zingiz ko'rsa?

– To'g'ri, ko'zim mushuknikiga o'xshab zimistonda ko'rmaydi, lekin Xudo insonga hissiyot kamchiligini to'ldira oladigan aql ato etgan. Chirog'imni ham o'zim ishlab yasadim.

– Qanday qilib?

– Menga beriladigan mol go'shtidan yog'ini kesib olib eritib olaman. Mana mening chirog'im.

Abbat Dantesga idishni ko'rsatdi. U tantanali kunlarda ko'chalarda yoqiladigan jinchiroqqa o'xshardi.

– Nima bilan yoqiladi?

– Mana ikkita chaqmoq tosh va ko'ylakning qiyqimidan ishlangan pilik.

– Gugurt-chi?

– Teri kasalim bor, deb bahona qildim-da, oltingugurt so'radim, olib kelib berishdi.

Dantes barcha buyumlarni stol ustiga terib qo'ydi-da, bu zotning kuchi va sabot-matonatidan hayratga tushib boshini quyi soldi.

– Bular hali hammasi emas, – dedi Faria. – Hamma narsani bir joyga yashirish yaramaydi. Bu yerni bekitaylik oldin.

Ikkovlashib toshni joyiga surib qo'yishdi, abbat u joyni tuproq sepib yashirdi va tosh o'rnidan qo'zg'atilgani bilinmasin, deb oyog'i bilan tekislab qo'ydi. So'ng karavot oldiga borib, uni nari surib qo'ydi.

Karavotning bosh tomonida tosh bilan mahkam bekitilgan teshik bo'lib, unda arqondan yasalgan o'ttiz metr chamali narvon yashirilgan edi. Dantes uni sinab ko'rdi, u har qanday og'irlikni ham ko'tara oladigan darajada mahkam edi.

– Bunday ajoyib zinapoya uchun arqonni qaerdan topdingiz? – so'radi Dantes.

– Avvalo ko'ylaklarimdan, so'ng Fenestrelida uch yil qamoqda yotgan vaqtimda choyshablardan sug'urib olgan iplardan. Meni bu yoqqa ko'chirganlarida bu materialarni yashirib olib keldim, bu yerga kelgach, ishni da-

vom ettirdim.

– Choysablaringiz yirtig'idan hech kim sezib qolmadimi bu ishni?

– Men tikib qo'yardim ularni.

– Nima bilan?

– Mana bu igna bilan.

Abbat ko'ylagi uvadalarini ichidan uzun va o'tkir baliq suyagini olib ko'rsatdi. Suyakdagi teshikdan ip o'tkazib qo'yilgan edi.

– Gap shundaki, – davom ettirdi so'zini Faria, – avval-lari temir panjarani kesib, derazadan qochmoqchi edim. O'zingiz ko'rib turibsizki, bu deraza siznikidan sal keng, qochish oldida men uni yana kengaytirardim, biroq u ichki hovliga qaragan ekan, binobarin, bu niyatimdan qaytdim. Shunga qaramay narvonni biror qochish imkoni tug'ilib qolsa, kerak bo'lur, deb saqlab qo'ydim.

Narvonga qarab turgan Dantesning xayoli tamoman boshqa yoqda edi. Unda yangi bir fikr paydo bo'ldi. Ehtimol bu oqil, uddaburon olim bu zot uning o'zi uchun qorong'i bo'lgan baxtsizligining sababini aytib berishi mumkin.

– Nimani o'ylab qoldingiz? – so'radi kulib abbat, Dantesning xayolga berilib ketganini kuchli darajada zavqlanish oqibati deb fahmlab.

– Birinchidan, maqsadga erishish yo'lida sizning naqadar ko'p kuch sarf qilganingiz haqida o'ylayapman. Erkinlikda qanday ajoyib, ulug' ishlar qilishingiz mumkin edi!

– Hech nima qilmagan bo'lishim ham mumkin edi. Men aql-idrokimni mayda-chuyda narsalarga sarf qilib qo'ygan bo'lur edim. Faqat baxtsizlik kishi aqlining yashirinib yotgan boyluklarini ochib tashlaydi, harakatga solib yuboradi. Poroxni portlatish uchun siqish kerak. Turma har tomonga yo'nalgan tafakkurimni mujassamlashtirdi, ular tor makonda to'qnashdi, siz bilasizki, bulutlar to'qnashsa elektr hosil bo'ladi, elektrdan chaqmoq hosil bo'ladi, chaqmoqdan esa yorug'lik hosil bo'ladi.

– Yo‘q, men hech nima bilmayman, – dedi Dantes bu narsalardan xabarsiz ekanidan xo‘rsinib. – Ba‘zi so‘zlar-ingizning ma‘nosiga mutlaqo tushunmayman. Sizdek olim bo‘lishdan ham baxtli narsa bormi dunyoda?!

Abbat kulib qo‘ydi.

– Siz yana allanima to‘g‘risida o‘ylayotgan edingiz, she-killi?

– Shunday.

– Birini aytdingiz, ikkinchisi nima edi?

– Ikkinchisi shuki, siz o‘z hayotingizni menga aytib ber-dingizu, biroq menikini bilib olmadingiz.

– Siz shu qadar oz yashagansizki dunyoda, unda muhim voqealarning bo‘lishi mumkin emas.

– Axir hayotimda ulkan baxtsizlik yuz berdi, – dedi Dan-tes, – taajjublisi shundaki, men shunday baxtsizlikka du-chor etadigan gunoh ish qilganim yo‘q. Endilikda men Xudodan nolishni qo‘yib, meni baxti qaro qilgan odamlar ekaniga ishonch hosil qilmoqchiman.

– Binobarin, siz gardaningizga yuklangan aybni nohaq deb, o‘zingizni begunoh hisoblaysizmi?

– Men uchun dunyoda eng aziz kishilar – otam va Mer-sedes haqi, qasamyod qilamanki, mutlaqo begunohman.

– Unday bo‘lsa, – dedi abbat teshikni bekitib, karavoti-ni joyiga sura turib. – Qani, tarixingizni hikoya qilib bering menga.

Dantes, abbat tarix deb atagan sarguzashtini hikoya qilib berdi. U qisqa qilib, Hindistonga qilgan sayohatini, ikki-uch marta Sharqqa borganini, so‘nggi safarini, kapitan Leklarning o‘limini, marshalga xat berganini, marshal bilan uchrashganini, undan janob Nuartega xat olib kelganini aytib berdi. Marselga qaytib otasi huzurida bo‘lganini, Mer-sedesga muhabbatini, nikoh to‘yi, qamalishi, so‘roq qili-nishi, vaqtincha sud binosida qamoqqa bo‘lganini, oxiri-ga kelib If qal‘asiga tushganini so‘zladi.

Abbat uning hikoyasini tinglab bo‘lgach, chuqur o‘yga cho‘mdi.

– Huquq fanida, – dedi u sukutga botib, – oqilona bir

aksioma bor, buni sizga aytib bergan edim. Mudhish niyatlar buzuc xulqdan kelib chiqadi, boshqa vaqtlarda inson jinoyatdan o'zini chetga tortadi. Biroq sivilizasiya insonda yaxshilik tuyg'ularini bo'g'ib yomonlikka olib boradigan sun'iy talab, illat va istak borligini oshkora etib tashladi. Bundan shunday qoida kelib chiqadi: jinoyatchini topmoqchi bo'lsang qilinadigan jinoyatdan naf ko'radigan kishini axtar, sizning gumdon bo'lib ketishingizdan manfaatdor biror kishi bormi?

– Yo'q, unaqa manfaatdor kishi yo'q. Menday bir oddiy kishining yo'qolib ketishidan kim ham manfaat ko'rishini mumkin.

– O'ylamay javob bermang, javobingizda na mantiq, na falsafa bor. Aziz do'stim, shuni bilib qo'yingki, dunyoda hamma narsa, o'z merosxo'ri – o'rinbosariga yo'l bermaydigan qiroldan tortib, to shtatdan tashqari mirzaga yo'l bermaydigan idora xizmatchisigacha – hammasi nisbiy. Qirol dunyodan o'tsa, uning nasldoshi taxtni egalaydi, idora xizmatchisi dunyodan o'tsa, o'rmini mirza egalaydi-yu, ming ikki yuz livr maoshini sanab olaveradi. Qirolga yigirma million kerak bo'lganidek, u ana shu ming ikki yuzga muhtoj. Har bir kishi ijtimoiy hayot zinapoyasining boshidan tagigacha o'z shaxsiy manfaatlari doirasida yashaydi. Uning Dekart olamidagi singari bo'ronlari va atomlari bo'ladi. Yuqori pog'onaga yaqinlashgan sari bu doira kengayib boraveradi. Keling, sizning hayot olamingiz haqida gaplashaylik. Sizni «Faraon»ning kapitani qilib tayinlamoqchimidilar?

– Shunday.

– Siz go'zal qizga uylanmoqchimidingiz?

– Shunday.

– Sizning kapitanlikka tayinlanmasligingizdan manfaatdor biron kishi bormidi? Mercedesga uylanmasligingizdan manfaatdor kishi bormidi? Avval birinchi savolga javob bering, chunki tartibot – barcha jumboqlarning kalitini. «Faraon»ga kapitan bo'lishingizni istamagan kishi bormidi?

– Bunday kishi yo‘q edi, kemada meni juda sevib, hurmat qilishardi. Matroslarga boshliqni saylab qo‘yishga ruxsat etgudek bo‘lsalar, ular, shubhasiz, meni saylardilar. Faqat bir kishi menga g‘ayirlik qilishi mumkin: men u bilan «san-manga» borgandim.

– Xo‘sh, xo‘sh! Uning nomi?

– Danglar.

– Kemada kim bo‘lib ishlardi u?

– Buxgalter bo‘lib.

– Kapitan lavozimini egallagach, siz uni o‘z o‘rnida qoldirarmidingiz?

– Agar bu mening izmimda bo‘lsa, qoldirmasdim, uning hisob-kitoblarida qandaydir chatoqliklar borligini sezgan edim.

– Joyida. Kapitan Lekler bilan oxirgi marta suhbat qilganingizda biror kim bormidi?

– Yo‘q, faqat ikkimiz edik.

– Suhbatingizni biror kishi eshitmaganmikin?

– Eshitgan bo‘lishi mumkin, chunki eshik ochiq edi... Ha, aytgancha, kapitan Lekler marshalga yozgan xatini berayotganda Danglar o‘tib ketayotgan edi.

– Juda soz, mana kalavanning uchini topdik. Elba oroliga tushganingizda biror kishini o‘zingiz bilan birga olib borganmidingiz?

– Hech kimni olib borganim yo‘q.

– U yerda sizga xat berishdimi?

– Ha, xatni marshal berdi.

– Nima qildingiz xatni?

– Katmonimga solib qo‘ydim.

– Katmonni yoningizda olib yurdingizmi doim? Rasmiy xat solingan katmon dengizchining cho‘ntagiga qanday qilib sig‘ar ekan?

– Gapingiz to‘g‘ri, katmon yotog‘imda qolgan edi.

– Demak, xatni faqat yotog‘ingizga kelgach, katmonga solganmidingiz?

– Shunday.

– Porto-Ferrayodan kemaga kelguncha xat qaerda edi?

– Mening qo‘limda.
– «Faraon»ga chiqayotganingizda qo‘lingizdagi xatni har bir odam ko‘rishi mumkin edimi?

– Ko‘rishi mumkin edi.

– Danglar ham ko‘rishi mumkinmidi?

– Ha. Danglar ham ko‘rishi mumkin edi.

– Endi diqqat qilib quloq soling va zo‘r berib esga oling: sizning haqingizdagi maxfiy ma‘lumot qanday yozilgani esingizdami?

– Albatta, esimda, men uni uch marta o‘qib chiqqan edim, undagi har bir so‘z miyamga qattiq o‘rnashib qolgan.

– Uni menga qaytarib o‘qib bering-chi.

Dantes o‘ylab qoldi.

– Mana, eshiting: «Janob qirollik prokurori, taxt va din muxlisi sizga shuni ma‘lum qiladiki, «Faraon» keması kapitanining yordamchisi Edmon Dantes Smirnadın kelayotib Neapol va Porto-Ferrayoga kirib o‘tdi, Myuratdan uzurpatorga va uzurpatordan bonapartchılarning Parijdagi komitetiga xat olib keldi. Agar uni hibsga olishsa, xatni uning cho‘ntagidan yoki otasinikidan, yo bo‘lmasa, «Faraon» kemasining kayutasidan topish mumkin».

Abbat yelkasini qisib qo‘ydi.

– Mana endi hammasi ayon bo‘ldi, – dedi u, – juda ko‘ngilchanlik qilibsiz-da, yigit, o‘sha zahotiyuq bu sirning tagiga yetib olishingiz mumkin edi.

– Siz shunday deb o‘ylaysizmi? – dedi qichqirib Dantes. – Qanday razolat bu!

– Danglarning xati qanaqa edi?

– Juda ravshan va go‘zal, sal o‘ng tomonga qiyshaytirib yozardi.

– Ma‘lumot qanaqa yozilgandi?

– Chap tomonga qiyshaytirib.

Abbat iljayib qo‘ydi:

– Boshqacha qilib yozibdi-da!

– Uning qo‘li juda ham o‘rganib qolgan, boshqacha yozolmagan bo‘lsa kerak.

- To‘xtang, – dedi abbat.
- So‘ng u qalamni, to‘g‘risi qalamnamo cho‘pni oldi-da, siyohga botirib olib, haligi maxfiy ma‘lumotning birinchi satrini qog‘oz o‘rniga ishlayotgan bo‘zga yozdi.
- Dantes seskanib tushdi-da, ko‘zlarini vahima bosib abbatga qaradi.
- Yo, tavba! – qichqirdi u, – bu xatingiz o‘sha xatning xuddi o‘zi-ya!
- U maxfiy ma‘lumot chap qo‘li bilan yozilgan. Men qiziq narsani aniqladim, – dedi davom etib abbat.
- Nimani?
- O‘ng qo‘l bilan yozilgan xatlarning hammasi turli bo‘ladi, chap qo‘l bilan yozilgan xatlar esa hammasi bir xil shaklda bo‘ladi.
- Hamma narsani o‘rgangansiz-a, hammasini bilasiz!
- Suhbatni davom ettiramiz.
- Ha, davom ettiramiz.
- Ikkinchi savolga o‘taylik.
- Qulog‘im sizda.
- Mercedesga uylanmasligingizdan manfaatdor biror kishi bormidi?
- Bor edi, qizning bir xushtori – yosh yigit raqib edi menga.
- Uning nomi?
- Fernan.
- Ismi ispancha ekan.
- U katalanilik.
- Sizningcha, maxfiy ma‘lumotni o‘sha yozmaganmi-kin?
- Menimcha, u yozmagan bo‘lishi kerak. U g‘azablansa, menga shartta pichoq urardi-qo‘yardi.
- To‘g‘ri aytasiz, ispanlarning odati shu: g‘alamislik emas, o‘ldirish.
- Buning ustiga u ma‘lumotda yozilgan tafsilotlardan mutlaqo bexabar.
- Siz buni hech kimga aytganingiz yo‘qmi?
- Hech kimga aytganim yo‘q.

- Qallig'ingizga-chi?
- Qallig'imgayam.
- Demak, uni Danglar yozgan.
- Endi bunga mening imonim komil.
- Sabr qiling... Fernanni Danglar tanirmidi?
- Yo'q. Ha, esimga tushdi!
- Nima?
- Mening to'yimdan bir kun oldin ikkisi chol Pamfilning qovoqxonasida o'tirgan edi. Danglar juda mehribon va xursand, Fernan esa bo'zargan va xijolatda edi.
- Ular faqat ikkisi o'tirib edimi?
- Yo'q, ular yonida yana bir kishi, mening yaxshi bir tanishim ham bor edi: mashinachi Kadruss. Ularni men ga o'sha tanishtirgan edi. Biroq mast edi... To'xtang... To'xtang... Endi esimga tushdi-ya! Ular ichib o'tirgan stol ustida siyohdon, qog'oz, qalam turuvdi. (Dantes peshanasiga urdi.) Obbo, ablahlar-a! Ablahlar!
- Yana bir narsa bilishni istaysizmi? – so'radi kulib abbat.
- Albatta, albatta, siz hamma gaplarni juda sinchiklab, aniqlayapsiz. Meni faqat bir martagina so'roq qilganlari ning, bo'yninga sudsiz ayb qo'rganlarining sababi nima ekan? Shuni bilmoqchiman.
- Bu juda murakkab ish, – dedi abbat. – Adliya ishlari shu qadar tumanli va chigalki, unda biror narsani aniqlab olish o'limdan qiyin ba'zan. Ikkala dushmaningizning qilmish-qidirmishlarini boshdan-oyoq nazardan o'tkazib chiqish o'yinchoqday gap edi. Endigi masalada esa siz mening so'roqlaringa juda aniq javob berishingiz shart.
- Marhamat, so'rayvering. Tariximni siz chindan ham mening o'zimdanda yaxshiroq bilarkansiz.
- Sizni kim so'roq qildi? Qirollik prokurorimi yoki uning yordamchisimi? Yo bo'lmasa tergovchimi?
- Yordamchisi.
- Yoshmi, qarimi?
- Yosh, yigirma yettilarda bo'lsa kerak.
- Xo'sh, hali buzilmagan, ammo shuhratparast, – dedi

- abbat. – U siz bilan qanday muomalada bo'ldi?
- Ancha durust, har holda dag'allik qilgani yo'q.
 - Unga siz hamma narsani oqizmay-tomizmay aytib berdingizmi?
 - Hammasini.
 - So'roq vaqtida uning muomalasi o'zgardimi?
 - Bir zum, meni ayblashga dastak bo'lgan xatni o'qiganda mening baxtsizlikka duchor bo'lganimdan shekilli, titrab ketdi.
 - Sizning baxtsizlikka uchrashingizdan?
 - Shunday.
 - Menga rahmi kelib qayg'urdi u, deb rostdan ishonдингizmi?
 - Har qalay u menga hamdard bo'lganini tasdiqladi.
 - Qanday qilib?
 - U haligi meni ayblashga dastak bo'lgan xatni kuydirib tashladi.
 - Qaysi xatni? Maxfiy ma'lumotnimi?
 - Yo'q, men olib kelgan xatni?
 - Bunga imoningiz komilmi?
 - U xatni mening ko'z oldimda kuydirdi.
 - Bu yerda bir gap bor. Menimcha, o'sha prokuror yordamchisi siz o'ylagan odam emas, aksincha, ablah, iflos bir maxluq bo'lsa kerak.
 - Xudo haqi, titroq bosyapti meni, – dedi Dantes, – nahotki jahonni inson emas, faqat sher va timsoh kabi vahshiy hayvonlar bosib ketgan bo'lsa?!
 - Xuddi shunday, ammo ikki oyoqli sher va timsohlar hamma hayvonlardan ham xavfli bo'ladi.
 - Marhamat qiling, davom ettiraylik suhbatni.
 - Xo'p bo'ladi. Xatni kuydirdi dedingiz-a?
 - Ha, kuydirdi va: «Ko'rdingizmi, sizni ayblashning yagona dalili mana shu xat edi, men uni kuydirib tashladim», – dedi.
 - Bu juda ortiqcha muruvvat, shuning uchun g'ayri tabiiy.
 - Siz shunday deb o'ylaysizmi?

– Bunga mening imonim komil. Xat kimga yozilgan edi?

– Parijda, Kok-Eron ko'chasi o'n uchinchi uyda yashovchi Nuarte janoblariga.

– Bu xatning yo'qotilishidan prokuror yordamchisining o'zi manfaatdor emasmikin?

– Ehtimol, bu xat to'g'risida hech kimga hech nima demaslik kerak, deb meni bir necha marta va'da berishga majbur etdi, konvert ustiga yozilgan ismni hech qachon, hech yerda og'izga olmaysiz, deb qasam ichirdi va bu o'zingizga naf keltiradi, dedi.

– Nuarte! – dedi abbat. – Nuarte! Sobiq qirolicha Etruriyaning saroyida Nuarte degan odam bo'lganidan xabarim bor. O'sha Nuarte revolyusiya vaqtida jirondist edi. Prokuror yordamchisining nomi nima?

– De Vilfor.

Abbat qah-qah urib kuldi.

Dantes hayron bo'lib tikilib qoldi unga.

– Nima bo'ldi sizga? – dedi u.

– Mana bu quyosh nurini ko'rib turibsizmi?

– Ko'rib turibman.

– Mana endilikda sizning ishingiz menga ana shu nurdan ham ravshan. E-e, bola bechora! U men bilan juda xushmuomalada bo'ldi deng?

– Ha, juda mehribonlik ko'rsatdi.

– Xatni yo'q qilib tashlagan ham ana shu mehribon deng?

– Ha, o'sha.

– Nuarte nomini hech qachon, hech qaerda og'izga olmaysiz deb sizni qasam ichirgan ham o'sha jallodga qurbon yetkazib beruvchi murtadmi?

– Ha.

– E-e-e, g'ofil banda, bilasizmi, Nuarte deb atalgan maxluq kim o'zi? Axir Nuarte o'sha prokuror yordamchisining otasi-ku!

Abbatning bu so'zlari Dantesni shu qadar esankiratib qo'ydi, agar shu payt uning oyog'i ostida chaqmoq urilib yer yorilsa-yu, tagida do'zax ko'rinsa u bunchalik

hayajonga tushmagan bo'lgur edi... Dantes o'rnidan sapchib turdi-da, ikki qo'li bilan boshini changallab oldi.

– Uning otasimi? Otasi deng! – qichqirib yubordi Dantes.

– Ha, xuddi shunday, uning otasi, nomi Nuarte de Vilfor, – dedi abbat.

Shu payt Dantesning fikri birdan ravshanlashib, hozirgacha unga qorong'i bo'lib kelgan narsalarning hammasi to'satdan yalt etib yorishib ketdi. Vilforning so'roq vaqtida ikkilanib, sarosimaga tushib qolgani, xatning kuydirilishi, ont ichishni talab qilishi, sudyaning xushmuomalada bo'lishi – dag'allik qilmay, hatto iltimosomuz gapirishi – hammasi birin-ketin uning ko'z oldidan o'tdi. U qichqirib mast-alastday gandiraklab ketdi. So'ng abbat kamerasidan o'zinikiga boradigan teshik tomon otildi.

– Men o'zim yakka bo'lishim kerak hozir! – dedi xitob qilib. – Bularning hammasini o'ylab o'yimga yetishim kerak.

U kamerasiga chiqib o'zini karavotga otdi. Kechqurun turma nazoratchisi kelganda Dantes avzoyi buzilib bir nuqtaga tikilgancha churq etmay karavotda o'tirgan edi.

Bir daqiqadek o'tib ketgan uzoq vaqt ichida fikr-xayolga cho'mib ketgan Dantes dahshatli qaror qabul qildi va buni amalga oshirish uchun qat'iyon ont ichdi.

Turma nazoratchisi kelib ketgach, abbat Faria kechki ovqatga chaqirgani kelib Dantesning xayolini qochirib yubordi. Jinni degan (buning ustiga jinnilarning qizig'i degan) unvon keksa mahbusga ba'zi imtiyozlar berilishiga sabab bo'lgan edi, unga nonning oqrog'ini berishardi va yakshanba kunlari bir grafin vino keltirib qo'yishardi. Shu kun yakshanba edi, abbat yosh do'stini yana shu non va vinoni birga baham ko'rishga chaqirgani keldi.

Dantes cholning ketidan chiqdi. Uning chehrasi ochilib, ilgari tusga kirgan edi, biroq ko'zlari hamon qat'iyat va g'azab bilan yonib turardi. Bu yigitning nimagadir ahd etganidan dalolat berib turardi. Abbat unga diqqat bilan tikildi.

– Men haqiqatni bilishda sizga yordam berganimdan afsuslanyapman endi.

– Nechun? – so‘radi Dantes.

– Shuning uchunki, dilingizda yo‘q bir tuyg‘uni, ya‘ni qasos olish tuyg‘usini paydo qilib qo‘ydim.

Dantes iljaydi.

– Keling, boshqa narsalar to‘g‘risida gaplashaylik, – dedi u.

Abbat unga bir nazar tashladi-da, ko‘ngli g‘ash bo‘lib boshini chayqadi. Biroq Dantesning iltimosini yerda qoldirmaslik uchun boshqa narsa to‘g‘risida gap boshladi. Boshidan ko‘p azob-uqubatlarni kechirgan, ko‘pni ko‘rgan kishilar bilan so‘zlashish jozibali va ibratli bo‘lganidek, abbat bilan suhbat ham juda qiziqarli va ibratli edi, biroq bu sho‘rlik cholning so‘zlarida xudbinlikdan asar ham yo‘q edi, u o‘z dard-alamidan hech so‘z ochmasdi.

Dantes uning har bir so‘zini zavq bilan ilib olar, abbat ba‘zan unga allaqachon ma‘lum fikrlar va dengizchiga ma‘lum bilimlar to‘g‘risida gapirar, ba‘zan unga noma‘lum narsalarni bayon etib, yarim kecha dengizchining yo‘lini yoritadigan shimol yog‘dusi kabi uning hayot yo‘liga nur bag‘ishlardi. Dantes axloq, falsafa va ijtimoiy g‘oyalar cho‘qqisida bu zotga hamroh bo‘lish bilimdon kishi uchun katta baxt ekanini angladi.

– O‘zingiz bilgan narsalardan birortasini menga ham o‘rgating, – dedi Dantes, – yo‘qsa zerikib qolasiz. Mendek savodsiz, arzimagan odam bilan mashmashalashib o‘tirgandan ko‘ra, yolg‘iz bo‘lganim yaxshi edi, deb o‘zingizni olib qochasiz. Meni ana shu vahimaga solyapti. Agar mening shu iltimosimni bajarishga rozilik bildirsangiz, qochish to‘g‘risida endi mutlaqo gapirmaslikka va‘da beraman.

Abbat jilmayib qo‘ydi.

bo‘lgan otryad. (Tarj.)

¹⁴ Rona daryosining tez-tez toshib turadigan irmog‘i.

– Ammo shuni yaxshi bilib qo‘yingki, azizim, – dedi Faria, – insonning bilimi nihoyatda chegaralangan, men sizga matematika, fizika, tarixni va o‘zimga gapiradigan uch-to‘rt tilni o‘rgatganim bilan, baribir men bilgandan ortiq ilm ololmaysiz, men o‘z bilganlarimni sizga uzog‘i bilan ikki yil ichidayoq o‘rgatib qo‘yaman.

– Ikki yil ichida! Shuncha fanni ikki yilda o‘rganib olishimga ishonasizmi?

– Juda chuqur bo‘lmasa-da, asosan o‘rganib olasiz. O‘rganish – bilib olish, degan gap emas, albatta. Biladiganlar bor, olimlar or, birinchilari – yod oluvchilar, ikkinchilari – faylasuflar.

– Falsafani o‘rganish mumkin emasmi?

– Falsafani o‘rganmaydilar, falsafa – orttirgan bilimlar bilan yuksak aqlning majmuasi, falsafa – Iso payg‘ambar osmonga ko‘tarilib oyoq bosgan yorqin bulut.

– Men ilmga shu qadar chanqoqmanki, sabr-toqatim tugab boryapti, ertaroq boshlashingizni iltimos qilaman. Siz dastlab menga nimani o‘rgatasiz? – deb so‘radi Dantes.

– Hammasini! – dedi abbat.

Mahbuslar shu kuniyoq o‘qish rejasini tuzib chiqishdi va ertasi kuni uni amalga oshira boshlashdi. Dantesning xotirasi nihoyatda o‘tkir va zehni baland edi. Bu xislat matematikada juda kerakli bo‘lib, hamma darslarni yaxshi o‘zlashtirib olardi, dengizchining romantikasi jonsiz-quruq raqamlar va to‘g‘ri chiziqlardan iborat zerikarli yakunlar, dalillarga ancha jon kiritib yuborardi. Buning ustiga u italyan tilini bilardi. Sharqqa qilgan safarlarida yangi grek tilini ham ancha o‘rganib olgandi, mana shu ikki tilning yordami bilan boshqa tillarning tuzilishini ham tezda anglab oldi va yarim yil o‘tar-o‘tmas ispan, ingliz va nemis tillarida gaplasha boshladi.

Fanga juda berilib ketganidanmi yoki o‘z va‘dasining ustidan chiqadigan tantiligidanmi har nechuk, Dantes abbatga bergan va‘dasiga vafo qilib qochish to‘g‘risida g‘iq etmay qo‘ydi, shu zaylda uning kunlari tez va mazmunli

o'taverdi. Bir yil o'tgach, u tamoman boshqacha odam bo'lib qoldi.

Abbat Fariaga kelganda shuni aytish kerakki, Dantes bilan ancha ovunib qolgan bo'lsa-da, kundan-kunga cholning ruhi tushib boraverdi. Uning o'y-xayolini qandaydir fikr mahkam chulg'ab olgandek ko'rinardi. U goh chuqur xayolga cho'mib, uh tortib qo'yar, goh irg'ib o'rnidan turardi-da, ikki qo'lini ko'ksiga bosib, soatlab xonada yurib chiqardi.

Kunlardan bir kuni u to'satdan turgan joyida tik turib qoldi-da, xitob qildi:

– Qani endi, soqchi bo'lmasa edi!

– Soqchining bo'lish-bo'lmasligi o'zingizga bog'liq, – dedi Dantes abbatning fikrini fahmlab.

– Men sizga hali aytdim-ku, odam o'ldirishdan jirkana-man, deb.

– Ammo biz o'zimizni muhofaza qilish uchun, o'zimizni saqlab qolish uchun o'ldiramiz-ku.

– Bari bir, men buni qilolmayman.

– Biroq doim shu haqda o'ylasangiz kerak?

– Tinmay o'ylayman, – dedi asta abbat.

– Buning yo'lini topdingizmi? – so'radi qiziqib Dantes.

– Topdim, agar xiyobonga ko'r, kar soqchini qo'yganlarida edi.

– U ham ko'r, ham kar bo'ladi, – dedi qat'iy qilib Dantes, abbat cho'chib ketdi.

– Yo'q, yo'q, – qichqirdi u, – bunday qilish yaramaydi!

Dantes gapini davom ettirmoqchi edi, lekin abbat boshini chayqadi-da, javob qaytarmay qo'ydi.

Uch oy o'tdi.

– Baquvvatmisiz? – so'radi abbat bir kuni Dantesdan. Dantes javob berish o'rniga iskanani oldi-da, qayirdi, so'ng yana to'g'rilab qo'ydi.

– Soqchini boshqa iloj qolmagan taqdirdagina o'ldiraman, deb so'z berasizmi?

– Chin yurakdan so'z beraman.

– Istagingizni ana shu shart bilan amalga oshiramiz, –

dedi abbat.

- Bunga qancha vaqt kerak bo'ladi?
- Kamida bir yil.
- Ishga kirishaverish mumkinmi?
- Hozirdanoq boshlash mumkin.
- Axiyri kelib shunday bo'larkanu, bir yil vaqtimiz behuda ketdi-ya! – dedi qichqirib Dantes.
- Sizningcha, behuda ketdimi?
- Xudo haqi, kechiring meni! – xitob qildi Dantes qizarib.

– Bo'ldi! – dedi abbat. – Inson hamisha faqat inson, siz esa men bilgan yaxshi insonlarning birisiz. Endi quloq soling, mana mening rejam.

Abbat o'zi ishlagan chizmani ko'rsatdi. Bu o'zi bilan Dantesning kamerasi bo'lib, ikki kamera o'rtasidagi yo'lkaning loyihasi edi. Ana shu yo'lkaning o'rtasidan yonboshga qarab xuddi konlardagiga o'xshatilib yo'l o'tkazilgan, uning oxiri soqchi turgan xiyobon tagida tugardi. Ana shu yerga yetib borib keng chuqur kavlab, tashqaridan xiyobonga yotqizilgan plitaning tagini bo'shatib omonat qilib qo'yish rejalashtirilgan edi: zarur paytda haligi plita soldatni ko'tarolmay cho'kadi-da, u chuqurga yiqilib tushadi, soldat o'zini yo'qotib qo'yib qarshilik ko'rsatolmaydi, shu daqiqada Dantes uni bosib, oyoq-qo'lini bog'laydi, og'ziga latta tiqadi, so'ng ikki mahbus xiyobon derazasidan chiqadi-da, arqondan yasalgan narvondan pastga tushib qochadi.

Dantes chapak chalib yubordi, quvonchdan ko'zlari yondi, reja juda juda jo'n bo'lib, uning bajarilishi hech gap emasday tuyuldi unga.

Er qazuvchilarimiz o'sha kundanoq ish boshlashdi, ancha vaqt hordiq chiqarishgani va hozirgi tadbir ikkisi-ning ham ezgu orzulariga mos kelgani sababli bo'lsa kerak, jon-jahdlari bilan ishlashardi.

Ular hormay-tolmay tinimsiz ishlashdi, faqat ikkisi kamerasiga chiqib turma nazoratchisining kelishini kutishga majbur bo'lgan vaqtdagina ishni to'xtatishardi. Nazo-

ratchining qadamini ancha uzoqdan bilib oladigan bo'lib qolishganidan ularning hech birini qo'lga tushira olishmadi. Yangidan qazib olingan tuproq ilgari teshikni bekitib qo'ymasini uchun uni oz-ozdan va nihoyatda ehtiyotlik bilan Dantesning yoki Farianing derazasidan tashqariga otib yuborishardi. Avval kukun qilib maydalardilar-da, so'ng otib yuborardilar, tungi shamol uni uchirib ketardi.

Iskana, pichoq va richag bilan qilingan bu ish bir yildan ko'proq davom etdi, shu davr ichida abbat Dantesni o'qitishni ham davom ettirdi, u bilan har xil tillarda gaplashdi, xalqlar tarixini, shon-sharaf qozonib tarixda iz qoldirgan ulug' insonlar tarixini hikoya qilib berdi. Shu bilan birga oliy tabaqaga mansub oqsuyaklardan bo'lгани tufayli abbat o'zini qandaydir ulug'vor tutardi ham, Dantes esa hozircha o'z xulq-atvorida bo'lmagan go'zal nazokat, xushmuomalalik, yuqori tabaqasi sinfga mansub zotlar yoki bilimdon kishilar gurungidagina orttiriladigan aristokratik qiliqlarni o'ziga xos o'tkir tug'ma zehn bilan egallab olardi.

Rosa o'n besh oy deganda, yo'lkani kavlab bitirishdi. Xiyobon tagidagi o'rani ham tugatishdi. Endi soqchining u yoqdan-bu yoqqa gurs-gurs qadam tashlab yurgani bemalol eshitilib turardi. Osonlik bilan qochish uchun qorong'i tushishini kutishga majbur mahbuslar bir narsadan xavfsirashardi: yer bo'shlik qilib, soldatni ko'tarolmay, vaqtdan ilgari o'pirilib tushishi mumkin, unda ish xarob bo'ladi. Ana shu xavfning oldini olish uchun mahbuslar tirgak qo'yishdi, buni fundamentdan topib olgandilar.

Dantes ana shu ish bilan band edi, o'z xonasida arqon narvonni qoqish uchun mixni qayirib turganda, abbat Farianing vahimali ovozi eshitildi, u o'takasi yorilgudek bo'lib Dantesni chaqirar edi. Dantes yugurib bordi, abbat xonaning o'rtasida rangi o'chib ter bosib, qaltirab turardi.

– E-e, Parvardigor! – dedi Dantes. – Nima gap? Sizga

nima bo'ldi?

– Tez keling! Tez! –dedi abbat. – Quloq soling!

Dantes abbatning bo'zarib ketgan yuzi, chaqchayib ketgan ko'zlari, qonsiz lablari, to'zigan sochlarini ko'rib kayfi uchib qo'lidan iskanani tushirib yubordi.

– Nima bo'ldi? – xitob qildi u.

– Men halok bo'ldim, halok! – dedi abbat. – Mana, quloq soling! Meni dahshatli bir kasal chulg'ab olyapti, bu kasal o'limga duchor qilishi mumkin, ana tutqanoq boshlanyapti, sezib turibman. Qamoqdan bir yil oldin bu kasalni boshimdan kechirgan edim. Buning faqat birgina davosi bor, hozir aytaman sizga, yugurib mening xonamga boring, karavotning oyog'ini ko'taring. Uning ichi havol, kovakda suyuq qizil dori solingan shishacha bor, o'sha shishachani olib keling... yoki... yo'q, yo'q, to'xtang! Bu yerda meni ko'rib qolishlari mumkin. Meni quvvatim borida suyab o'z xonamga olib boring, kim bilsin, biror kori hol yuz berishi ham mumkin, tutqanoqning qancha davom etishi noma'lum.

Dantes dahshatli baxtsizlik yuz berayotganiga qaramay, sarosimaga tushmadi, u sho'rlik abbatni sudrab g'orga tushdi, uni zo'r-bazo'r o'z xonasiga olib borib to'shakka yotqizdi.

– Rahmat, minnatdorman, – dedi abbat xuddi hozirgina muzdek suvdan chiqqan kishiga o'xshab dir-dir titrarkan. – Tutqanoq ehtimol hozir boshlanar, men qotib qolarman. Ehtimol, unsiz, qimir etmay yotarman, ehtimol, og'zimda ko'pik paydo bo'lar, ag'anab qichqirarman ham. Shunday qilingki, mening qichqiranimni hech kim eshitmasin. Bu juda muhim. Agar shunday qilmasangiz, meni boshqa xonaga ko'chirib qo'yishlari mumkin, unda ikkimizni bir-birimizdan batamom ajratib qo'yishadi. Men xuddi murda singari qotib, sovib qolganimdan so'ng – ana o'shanda, faqat o'shanda eshitdingizmi, pichoq bilan tishlarimni yiring-da, haligi suyuq doridan o'n tomchi tomizing, shundan so'ng ehtimol hushimga kelarman.

– Bu dargumonmi hali? – dedi qayg'urib Dantes.

– Yordam bering! Yordam bering! – qichqirdi abbat. – Men... men... o‘l...

Tutqanoq to‘satdan, shu qadar tez boshlandiki, bechora mahbus boshlagan ikki og‘iz so‘zini ham tamomlay olmadi, peshanasini qora ter bosdi, ko‘zlari olayib, xira tortdi, og‘zi qiyshayib, yuzlari qizarib ketdi, u o‘zini har tomonga urib, baqira boshladi, og‘zida ko‘pik paydo bo‘ldi. Dantes uning buyrug‘ini bajo keltirib, ko‘rpa bilan og‘zini bekitdi. Tutqanoq ikki soat davom etdi. Axiri toshdek hissiz, marmardek sovuq va oppoq tortib, ezib tashlangan xas-cho‘pdek holsiz abbat so‘nggi marta talvasalandi-da, oyoqlarini shartta uzatib cho‘zilgancha, qimir etmay qoldi.

Edmon mana shu xayoliy, soxta ajal cholning a‘zoyi badanini bo‘g‘ib olguncha, uni muzga aylantirguncha kutib turdi, shundan so‘ng pichoq olib, abbatning tishlari orasiga suqdi-da, zo‘r berib uning jag‘larini ayirdi va qizil doridan birin-ketin o‘n tomchi quydi, so‘ng kutib turdi.

Bir soat o‘tdi, chol qimir etmadi. Dantes shuncha kut-sam ham hushiga kelmadi, deb qo‘rqib ketdi, ikki qo‘li bilan boshini changallaganicha vahima bosgan ko‘zlari-ni choldan uzmasdi. Bora-bora cholning yuziga sal qon yugurdi, baqraygan ko‘zlarida jon asari ko‘rindi, og‘zidan yengil nafas chiqdi. Chol qimirladi.

– Qutuldi! Qutuldi ajaldan! – qichqirib yubordi Dantes.

Bemor hali gapirishga madori yo‘q edi, shunga qaramay, u tashvishga tushib to‘lg‘andi-da, qo‘lini eshik tomonga uzatdi. Dantes qulog‘ini ding qilib turma nazoratchisining oyoq tovushlarini eshitdi. Soat allaqachon yettiga borib qolgan. Dantes esa vaqtga qarab turishni butkul unutib qo‘ygan edi.

Edmon yugurib borib o‘raga kirdi-da, toshni joyiga o‘rnatib, o‘z kamerasiga o‘tdi.

Bir necha daqiqadan so‘ng nazoratchi eshikni ochib ichkari kirdi, mahbus har galgidek to‘shagida o‘tirgan edi.

Nazoratchi chiqib ketishi bilan, uning qadam tovush-

lari yo'qolishi hamonoq toqati toq bo'lgan Dantes, ovqatlanishni ham unutilib shoshib orqaga yugurdi, toshni olib qo'yib, abbat kamerasiga kirib bordi.

Abbat hushiga kelib qolgan bo'lsa-da, hali cho'zilganicha qimir etmay yotgan edi.

– Men endi sizdan judo bo'ldim, deb o'ylagan edim, – dedi chol Edmonga.

– Nechun? – so'radi Dantes, – nahotki o'lib qolaman deb qo'rqqan bo'lsangiz?

– Yo'q, unday emas. Hamma narsa tayyor, bir o'zingiz qochib ketib qolasizmi degan xayolga bordim.

Dantes ko'ngli og'rinib, qizarib ketdi.

– Sizni qoldirib-a? – qichqirdi u. – Nahotki, siz meni shunday bevafo odam deb o'ylaysiz?

– Yanglishganimni o'zim ham bildim endi, – dedi bemor. – Mening, afsuski, hech hol-jonim yo'q. Bu kasal batamom ezib tashladi.

– Ko'ngilni to'q tuting, sabr qiling, bardam bo'ling, Xudo xohlasa, kuch ham kirib qoladi qaytadan, – dedi Dantes abbat to'shagi yoniga o'tirib. U cholning qo'lini ushladi.

Abbat boshini chayqadi.

– Ilgarigi safar, – dedi u, – tutqanoq yarim soat davom etgan edi, tamom bo'lgach, ovqat yegim kelib, o'zim o'rnimdan turgandim, bugun esa, na o'ng oyog'imni qimir-lata olaman, na o'ng qo'limni, boshim nihoyat og'irlashib qoldi, demak, miyamga qon quyilgan bo'lsa kerak. Uchinchi tutqanoq meni falajga muhtalo qiladi yoki kunimni kalta qiladi-qo'yadi.

– Yo'q, yo'q, tinchlaning, xotirjam bo'ling, siz o'lmaysiz, uchinchi tutqanoq mabodo yuz bergudek bo'lsa, sizning erkin yurgan paytingizda bo'ladi, u vaqtda biz sizni bugungidek, hatto bundan ham yaxshiroq tuzatib, sog'aytirib olamiz. Axir u vaqtda hamma zarur narsalar muhayyo bo'ladi-ku!

– Azizim, – dedi javoban chol, – o'zingizni o'zingiz behuda aldamang, bugungi tutqanoq meni to'shakka aba-

diy mixlab qo'ydi: qochish uchun yura bilmoq kerak.

– Nima bo'пти? Bir hafta kutamiz, bir oy, kerak bo'lsa, ikki oy sabr qilamiz, bu vaqt ichida qayta kuchga kirasiz. Qochishimiz uchun hamma narsa tayyor, qochishning kuni, soatini o'zimiz belgilab olishimiz mumkin, siz, suzishga kuchim yetadi endi, desangiz bas, o'sha zahoti qochamiz.

– Men endi hech suza olmayman, – dedi Faria, – mana, qo'lim shol bo'ldi, bir kunga emas, abadiylikka. Ko'tarib ko'rsangiz bilasiz.

Dantes bemorning qo'lini ko'tardi, qo'yib yuborgan edi, qo'l quruq tayoqday shilq etib tushdi. U o'ksinib, og'ir nafas oldi.

– Endi ishondingizmi, Edmon? – dedi Faria. – Ishoning menga, men bilib gapiryapman. Bu kasalim birinchi tutgandan buyon shu haqda o'ylayman, kutaman, chunki bu menga ota meros, otam uchinchi tutqanoqqa dunyodan o'tgan, buvam ham. Menga haligi dorini bergan doktor mashhur Kabanis bo'lib, u menga ham tutqanoq'ingiz uchinchi tutishda tamom bo'lasiz, degan edi.

– Doktor xato qiladi, – dedi xitob bilan Dantes, – kasalingiz xalaqit bermaydi bizga: men sizni opichib olib, suzib ketaveraman.

– Bolam, – dedi abbat, – siz dengizchi, tajribali suzuvchisiz, bilasizki, bunday yuk bilan uzoqqa borolmaysiz dengizda. Qo'ying, qo'yningizni puch yong'oqqa to'ldirib o'tirmang, bu gaplaringizga muruvvatli o'z yuragingiz ham ishonmaydi. Men oxirgi damgacha, umrimning so'nggi daqiqasigacha shu yerda qolaman. Siz qoching, qutuling bu azoblardan! Yosh, epchil va baquvvatsiz. Meni deb qarib o'tirmang.

– Bo'пти, – dedi Dantes, – unday bo'lsa men ham qolaman. – U o'rmidan turdi-da, qo'llarini chol ustida cho'zib dedi: – Parvardigor oldida qasamyod qilamanki, oxirgi daqiqangizgacha siz bilan birga bo'laman.

Faria olijanob, oliyhimmat, samimiy yigitchaga qaradi-da, uning chehrasida sadoqat, chin mehr-muhabbat

va vafodorlik alomatlari barq urib turganini ko'rdi.

– Mayli, – dedi bemor, – men fidokorligingizni qabul qilaman. Rahmat.

Shunday deb chol qo'lini Edmonga cho'zdi.

– Sizning bu samimiy sadoqatingiz ehtimol yaxshi tuh-falar ato etar sizga, – dedi chol, – biroq bu yerdan endi men ketolmas ekanman, siz esa ketishni istamas ekansiz, unday bo'lsa, keling, yo'lak tagidan yo'l ochaylik. Soqchi guvillayotgan joyga e'tibor berib nazoratchini chaqirib qolishi mumkin, unda sirimiz ochilib, bizni bir-birimizdan judo qilishlari turgan gap. Boring, bu ish bilan shug'ulla-ning, afsuski, men sizga endi yordam berolmayman. Bu-tun tun bo'yi shu ish bilan band bo'ling, ertaga ertalab tekshirish tugagandan so'ng qaytib keling. Sizga aytadi-gan juda muhim gapim bor.

Dantes kulib, uni xotirjam etgan abbatning qo'lini qisdi-da, chol buyrug'iga itoat qilib, izzat bilan kekxa do'sti oldidan chiqib ketdi.

XVIII. ABBAT FARIANING XAZINASI

Dantes ertalab do'stining xonasiga kirganda abbat to'shakda o'tirgan edi. Uning chehrasi xotirjam, chap qo'li-dagi bir parcha qog'oz ustiga derazadan quyosh nuri tu-shib turardi. Bemorning o'ng qo'li ishlamay qolgani o'quv-chiga ma'lum, bu qog'oz ko'pdan beri nay singari o'ralib yotgan bo'lsa kerak, uni yozishi ancha qiyin bo'ldi.

Abbat un chiqarmay Dantesga qog'ozni ko'rsatdi.

– Nima bu? – so'radi Dantes.

– Yaxshiroq qarang, – javob berdi abbat iljayib.

– Yaxshi qarayapman, – dedi Dantes, – bu g'alati siyoh bilan yozilgan gotik harflar va yarmi kuygan bir parcha qog'ozdan boshqa hech narsa emas-ku.

– Do'stim, bu qog'oz, – dedi Faria, – men sinab ko'rdim sizni, endi sirni aytishim mumkin, bu qog'oz – mening oltin xazinam, shu ondan boshlab buning yarmi sizniki.

Dantesning peshanasidan sovuq ter chiqib ketdi. Baxti qaro cholning jinni deb nom olishiga sabab bo'lgan bu xazina to'g'risida Edmon shu kungacha og'iz ochmay kelgan edi. Yoshligidan odob qoidalariga odatlanib kelgan Edmon abbat hayotidagi bu yaraga tuz sepishni istamasdi, Farianing o'zi esa bu haqda hech nima demay kelganidan cholning es-hushi joyiga tushganidan nishona, deb o'ylab quvongan edi. Mana endi og'ir tutqanoqdan so'ng cholning og'zidan chiqib ketgan bu so'zlar, abbatning yana aqlidan ozayotganidan darak berayotgandek tuyuldi unga.

– Sizning xazinangizmi bu? – dedi zo'rg'a ovoz chiqarib Dantes.

– Ha, mening xazinam, – javob qildi abbat, – siz juda olijanob yigit ekansiz. Edmon, rangingiz o'chib ketganidan va ovozingizning qaltirashidan qanday holga tushganingizni fahmlab turibman. Tinchlaning, men jinni emasman. Bu xazina chindan ham bor, endilikda men u xazinaga ega bo'lolmagan ekanman, siz ega bo'lasiz unga. Hamma meni jinni deb gapimga ishonmadi, ammo siz aql-hushim joyida ekanini bilasiz, mening gaplarimni yaxshilab tinglang, so'ng ishonasizmi-yo'qmi sizning ishingiz.

«Yo tavba! – o'yladi Dantes. – U yana aqlidan ozdi, endi shunisi yetmaganmidi men baxtsizga!»

So'ng abbatga qarab dedi:

– Do'stim, tutqanoq juda tinkangizni quritib qo'ydi. Dam olsangiz yaxshi bo'lardi. Istasangiz, ertaga hikoya qilib berarsiz, bugun esa men faqat sizga yordam bersam deyman. Buning ustiga, – qo'shib qo'ydi u kulib, – bu xazina masalasi hozir juda qistov emas-ku!

– Nihoyatda qistov ish bu! – javob qildi chol. – Kim bilsin, ertaga yoki indinga uchinchi tutqanoq tutib qolishi mumkin. Unda tamom-vassalom! Ba'zan men bu xazina o'nlab oilaga baxt-saodat keltiradi deb o'ylab, ichdan kuyinardim. Meni ta'qib qilib yurganlar endi bu boyliklardan mahrum bo'ldi. Men ulardan shu bilan qasos

oldim deb, zimiston zindonda o'zimga dalda berib keldim. Mana endilikda sizga mehr-muhabbatim haqi, taqdirga tan berib, yigitlik chog'ingizni va kelajagingizni ko'rib va mening xazinam sizni qanday baxtiyor etishini ko'z oldimga keltirib turgan bir paytda kechikib, ulgurmay qolaman deb, sizdek munosib kishini bu boylikdan mahrum qilib qo'yaman, deb qo'rqayapman.

Edmon xo'rsinib orqasini o'girdi.

– Siz hamon ishonmayapsizmi menga, Edmon? – davom ettirdi so'zini Faria, – mening so'zlarim sizni ishontirolmadi, shekilli. Sizga dalil kerakligini sezib turibman. Mana dalil, marhamat qilib, o'qib chiqing bu satrlarni. Men buni shu vaqtgacha hech kimga ko'rsatmagan edim.

– Ertaga do'stim, ertaga, – javob berdi Edmon cholning aqlidan ozayotganini inkor etishga oqizlik qilib. – Ertaga bu haqda gaplashamiz deb ahd qilgan edik-ku.

– Mayli, ertaga gaplashamiz, biroq xatni bugun o'qing. «Cholni xafa qilmaslik kerak» deb o'yladi Dantes.

U yarmi kuygan qog'ozni oldi-da, o'qidi:

Mana shu g'orlarda, xazina eng to'rdagi bu xazinani unga vasiyat qilib yagona merosxo'rimga beraman.

25 aprel 149. Chez.

– Xo'sh, endi nima deysiz? – so'radi Faria, Dantes xatni o'qib tamomlagach...

– Bu yerda faqat jumalarning boshi, – javob qildi Dantes, – so'zlar bir-biriga qovushmaydi: yarmi kuyib ketibdi, ma'nisiga tushunib bo'lmaydi.

– Siz tushunmayapsiz faqat, birinchi marta o'qiyapsizda, menga esa hamma so'zlari ayon, chunki buning har bir jumlasini, har bir fikrini qayta tiklaguncha shu bir parcha qog'oz ustida qanchadan-qancha tunlarni bedor o'tkazdim.

– Kuygan joydagi ma'noni ham tikladim deb o'ylaysizmi?

– Mening bunga imonim komil, o'zingiz faraz qilib

ko'ring, dastlab bu hujjatning tarixini eshiting.

– Jim! – dedi Dantes. – Oyoq tovushi! Men ketdim!..
Xayr!

Do'stining aqldan ozganini tasdiqlayotgan bu hikoyadan qutulish imkoniyati tug'ilganidan shodlanib, lahm-dan ilondek o'rmalab ketdi. Faria esa oxirgi kuchini to'plab oyog'i bilan tosh taxtani itarib joyiga surdi-da, tuproq sepishga ulgurolmay, yoriqlari ko'rinmasin deb chipta yopib qo'ydi.

Komendant kirdi, u soqchidan abbatning kasal bo'lib qolganini eshitib, o'zi ko'rib chiqmoqchi bo'lib kelgan edi.

Faria gavdasining o'ng tomoni falaj bo'lib qolganini komendantdan yashirish uchun uni har qanday shubhali harakatdan o'zini tiyib o'tirgan holda kutib oldi. Abbat, komendant menga rahm qilib boshqa xonaga ko'chirib, meni yosh do'stimdan ajratib qo'ymasin, degan vahimaga tushgan edi. Yaxshiyamki, bunday bo'lmadi. Komendant yuragi achishib, sho'rlik jinni bir oz betob bo'p qopti, degan fikrga kelib, chiqib ketdi.

Ayni vaqtda Dantes karavotda boshini quyi solib o'tirib o'yga tushib ketgan edi. Abbat bilan tanishganidan buyon uning aqli rasoligini, ravshanligini, mulohazalari chuqur va mantiqli ekanini tasdiqlaydigan juda ko'p dailarning guvohi bo'ldi, ammo ana shunday dono, yuksak aql egasining birgina masalada aqlini yo'qotib o'tirganiga hech tushunolmasdi Dantes. Kim yanglishyapti: hadeb oltin xazinasi to'g'risida gapirayotgan Fariami yoki Fariani jinniga chiqarib qo'yganlarmi?

Dantes do'stining yoniga chiqishga yuragi dov bermay, kuni bilan o'z xonasida o'tirdi. U Farianing chindan ham jinniligiga imoni komil bo'ladigan damlarni orqaga surishga urinardi.

Kechqurun odatdagi tekshirishdan keyin Edmonni kuta-kuta toqati toq bo'lgan Faria o'rtadagi masofani o'zi bosib o'tishga urinib ko'rdi. Edmon shitir-shitir tovush eshitib falaj majaqlab tashlagan cholning zo'r mashaq-

qatlar bilan emaklab kelayotganini ko'z oldiga keltirdida, seskanib ketdi. U abbatni xonasiga tortib chiqarishga majbur bo'ldi, chunki Dantes xonasiga tor teshikdan Farianing o'tishi qiyin edi.

– Mana, ko'rdingizmi, men sizni jon-jahdim bilan ta'qib qilyapman, – dedi Faria mehribon tabassum bilan, – siz mening hotamtoyligimni rad etmoqchi bo'lasiz, biroq buni uddalay olmaysiz. Qani, quloq soling.

Edmon noiloj cholni karavotiga o'tqazdi-da, o'zi uning yonidagi stulga cho'kdi.

– Sizga ma'lumki, – dedi abbat, – men qadimiy urug'ning oxirgi vakili kardinal Spadaning kotibi, ishonchli do'sti edim. Hayotimda qanday baxtiyor damlar o'tgan bo'lsa, hammasi uning sharofati bilan bo'lgan, undan minnatdorman. Uning urug'-aymog'ining mol-dunyosi to'g'risida hamma joyda duv-duv gap tarqalgan edi, hatto ko'p vaqt «Spadadek boy» degan iboralarni o'z qulog'im bilan eshitar edim, shunga qaramay, bu kardinal boy emasdi. Faqat ana shu mishmishlarga mahliyo bo'lib yurardi. Uning saroyi men uchun jannat edi. Men uning jiyanlarini o'qitardim (so'ng ular o'lib ketdi), u dunyoda yolg'iz o'zi qolganda, o'n yillik davr ichida qilgan hamma yaxshiliklari uchun men unga cheksiz sadoqat bilan xizmat qildim.

Kardinal oilasida hech narsa mendan sir saqlanmasdi, u bir necha marta qadimiy kitoblarni zo'r diqqat-e'tibor bilan varaqlab va meros qolgan yozuvlarni titib o'tirganini ko'rganman. Bir gal u holdan toyib, hafsalasi pir bo'lib o'tirganida, men unga, kechalari ko'z yummay, bu qog'ozlarni titib o'tirishdan na foyda, deb ta'na qilgan edim, kardinal menga zaharxanda nazar tashladi-da, oldimga Rim tarixi kitobini qo'ydi. Ana shu kitobning papa Aleksandr VIning turish-turmushlari tasvir etilgan yigirmanchi bobida abadiy esimda qolgan quyidagi satrlarni o'qidim.

Romanega yurishlar tugadi. Uezar Bordjia bosqinchi-likni oxiriga yetkaza borib, Italiyani butkul sotib olish

uchun pulga muhtoj bo'lib qoldi. Papaga ham mag'lubi-yatga uchrasi-da «egardan tushmayotgan» fransuz qiroli Lyudovik XIIga barham berish uchun pul kerak edi. Vayron etilgan Italiyada biror qulay ish o'ylab topish kerak edi.

Hazratlarining kallasiga bir fikr keldi. U ikkita yangi kardinal tayinlashga qaror qildi.

Albatta, boy ikki rim mansabdorini tayinlashda muqad-das avliyoga ikki tomonlama foyda kelardi: birinchidan, u bo'lg'usi ikki kardinal egallaydigan yuksak mansabni va daromadli o'rinni sota olardi, ikkinchidan, u ikki kar-dinal shapkasi uchun ancha mukofot ham olishi mumkin edi.

Bu ishning yana uchinchi tomoni ham borki, biz uning tafsilotini tezda bilib olamiz.

Papa va Uezar Bordjia kardinallikka ikki kishini, mu-qaddas saroyda to'rta muhim lavozimni egallab kelgan Jovanni Rospilozni bilan Rimning eng oliy himmatli va eng boylaridan biri Chezari Spadani belgilashdi. Ikkalasi ham papaning bu himmatiga katta haq to'lashdi. Ikkisi ham mansabparast edi. So'ng Uezar Bordjia ularning o'rinlari-ga xaridor topdi.

Shunday qilib, Rospilozni bilan Spada kardinallikka haq to'lagan bo'lsa, bu ikki yangi kardinalning ilgari o'rni uchun yana sakkiz kishi haq to'ladi. Bu olg'ir korchalon-ning sandig'iga sakkiz ming skudo naqdgina tushdi.

Ishning uchinchi tomoniga o'taylik. Papa bilan Uezar Bordjia gapni bir joyga qo'yib Rospilozni bilan Spadani e'zozlab, ularga kardinallik lavozimini berib, ulkan qarzni to'lash va Rimga ko'chib kelish uchun ikkisi bor du-nyosini pulga aylantirishga majbur bo'lajagini fahmlab, ikkala kardinalni mehmonga chaqirishdi.

Shu masalada papa bilan Bordjia o'rtasida kelishmov-chilik yuz berdi. Uezar makkor edi, nazaridan qolgan ki-shilarni makr-hiyla bilan o'ldirib yuborardi. Rasvo bir ka-litni berardi-da, shu kalit bilan allaqanday bir shkafni ochishni birontasidan iltimos qilardi. Chilangarning «xa-tosi» bilan kalitda tirnoqday igna bor edi. Kimki ana shu

kalit bilan qulfni ochaman deb urinsa, haligi igna qo'liga sanchilardi va ertasiga u joyi rastoniga jo'nardi. Yana sher kallasiga o'xshash ko'zli bir uzuk bo'lib, uni Uezar biror zotning qo'lini qisib so'rashmoqchi bo'lganida taqib olardi. Haligi sher kallasi o'sha zodagonning qo'liga botib ketardi va bir kun o'tgach, u o'lardi.

Shuning uchun Uezar papaga ikkala kardinalni shkafni ochishga majbur etishni yoki qo'llarini do'stona qattiq siqishni taklif etdi. Ammo Aleksandr VI unga bunday deb javob qildi: «Munosabatlardan ham munosib kardinallar – Spada va Rospilozini siylashda xasislikka yo'l qo'ymaylik. Chamamda, bunga ketadigan xarajatni qaytarib olarmiz. Buning ustiga Uezar, sen shuni unutmaginki, oshqozonning buzilishi darhol ta'sir etadi, sanchish va chaqish bir-ikki kun o'tgach ta'sir etadi».

Uezar bu fikrga qo'shildi. Ikki kardinalni mehmonga chaqirishning boisi ham ana shunda edi.

San-Petro-in-Vinkoli yaqinidagi papaning uzumzorida dasturxon bezashdi. Bu go'zal joy ekanini kardinallar orqavarotdan eshitib yurishardi.

Rospilozni yangi unvondan va ziyofatning juda zo'r bo'lishidan o'zida yo'q shod bo'lib keldi. Nihoyatda ehtiyotkor va kelajagi umidli yosh ofiser jiyaniga muhabbati cheksiz Spada esa bir parcha qog'oz va qalam oldi-da, o'z vasiyatnomasini yozdi. So'ng jiyaniga odam yuborib uzumzorda kutishini so'radi. Ammo chopar borganda jiyanini uyida yo'q ekan.

Spada mehmonga chaqirishlarining boisi nima ekani bilardi. Taraqqiyot kuch-qudrati hisoblangan xristian dini Rimda tantana qilganidan buyon zolim nomidan senturiya¹³ boshlig'i kelib «Uezar sening o'lishingni istaydi» deb e'lon qilmay qo'ygan edi, endilikda saroyning marhamatli arbobi kelib tabassum-la: «Hazratlari siz bilan ovqatni baham ko'rishni orzu qiladilar», deydigan bo'lib qoldi.

Spada kunduz naq soat ikki deganda, San-Petro-in-Vinkolidagi uzumzorga yo'l oldi. Papa allaqachon uni kutib turgan edi. Spadaning dastlab ko'zi juda yasanib, shod-

xurram o'tirgan jiyaniga tushdi. Uezar Bordjia uni juda siylab-suyib o'tirardi. Spada bo'zarib ketdi. Uezar unga masxaraomuz nazar tashladi-da, hammasini ilgaridan bilib, qo'lga tushirish choralarini ko'rib qo'yganini anglatdi.

Ovqatga o'tirishdi, Spada jiyanidan faqat «Mening cho-parimni ko'rdingizmi?» deb so'rashga ulgurdi, xolos. Bu savolning ma'nosini juda yaxshi anglagan jiyani «yo'q», deb javob berdi. Endi vaqt o'tgan edi: u allaqachon papaning xizmatkori qo'ygan ajoyib vinoni ichib qo'ygan edi. Shu on yana bir shisha vino keltirishdi-da, Spadaga boplab ichirishdi. Bir soatdan so'ng doktor ikkisining zaharlanganini xabar qildi. Spada uzumzordan chiqaverishda dunyodan o'tdi, jiyani esa, o'z uyi darvozasi ostonasida xotiniga nimanidir aytaman, deb urinib, biroq aniq ayto olmay, til tortmay o'ldi, xotini uning so'zlariga tushunmadi.

Uezar va papa shu soatdayoq, marhumlarning yozuvlarini ko'rib chiqishni bahona qilib, ularning mol-mulkini egallab olishdi. Biroq bu meros faqat bir parcha qog'ozdangina iborat bo'lib, unda quyidagilar yozilgan edi: «Men ardoqli jiyanimga sandiqlarimni va kitoblarimni vasiyat qilib qoldiraman, ular orasida mening duolar to'plamim ham bor. Bu kitobni u sevimli tog'amdan yodgorlik deb saqlab qo'ysin».

Merosxo'rlar hamma yoqni tintishdi; kitobni varaqlab ko'rishdi, uy jihozlarini ko'zdan kechirishdi, boy deb dong chiqargan Spada eng kambag'al tog'alardan ekanini ko'rib g'oyat taajjublanishdi. Kutubxonadagi bilim boyligini aytmaganda, bu yerda hech qanday boylıkdan asar yo'q edi.

Boshqa hech narsa topilmadi. Uezar va uning otasi rosa axtarib tintib, surishtirib ko'rishdi, biroq ming skudaga ham zo'rg'a yetadigan oltin va kumush buyumlar hamda shunga yaqin naqd pul topishdi, xolos, biroq jiyani eshigiga qaytganida xotiniga quyidagi so'zlarni aytishga ulgurgan edi: «Tog'amning qog'ozlarini tintib ko'ring,

haqiqiy vasiyatnoma o'sha yerda bo'lishi kerak».

Hukumat tepasidagi merosxo'rlarga nisbatan qavm-qarindoshlar hovliqmay, asta-sekin sinchiklab tekshira boshlashdi. Biroq bular ham hech nima topisholmadi; ular ikki hovliyu va Palatin orqasidagi uzumzorlarga ega bo'lishdi. O'sha vaqtlarda uy-joy, hovli juda arzon edi. Ikkala hovli va uzumzorlar hech narsaga arzimaydigan mulk bo'lgani sababli ochko'z papa va uning sherigi bularni marhumning oilasiga qoldirishdi.

Oylar, yillar o'tdi, Aleksandr VI adashib zahar ichib o'lib ketdi, uning bilan birga zaharlangan Uezar esa hiylayu nayrang bilan ilon kabi po'stini tashlab, boshqa qiyofaga kirib qoldi. Pirovardida Rimdan chiqib ketishga majbur bo'ldi, qandaydir tungi to'qnashuvda o'lib ketdi, tarixda nomi ham qolmadi.

Papaning o'limidan, uning sherigi haydalganidan keyin hamma Spadalar oilasi yana ilgaridek bek-xonlarcha yashab ketsa kerak, deb o'ylagan edi. Aslo shunday bo'lmadi. Spada oilasi shubhali hayot kechirardi, abadiy sir bu shubhali ishga hammani tortardi. Papadan quvroc Uezar ikkala kardinalning mol-mulkini o'g'irlab ketdi, degan mishmishlar tarqaldi. Ikkala kardinalning deyayotganimning sababi shuki, kardinal Rospilozi, hech qanday ehtiyot chorasi ko'rmay, shipshiydam qilingan edi.

– Hozirgacha, – dedi Faria jilmayib, – siz mening so'zlarimdan birorta chalg'ish sezmadingiz shekilli, to'g'rimi?

– Aksincha, – dedi Dantes, – men xuddi ajoyib solnoma o'qiyotganga o'xshayman. Iltimos qilaman, davom eting.

– Xo'p, davom etaman.

Spadalar oilasi bu jumboqqa ko'nikib, ahamiyat bermay qo'yishdi. Yillar o'tdi. Bu oila avlodida harbiylar, diplomatlar bor edi, ayrimlari diniy mansab qabul qildi, ba'zilar bankka xo'jayin bo'lib qoldi, biri boyib ketib, ikkinchisi tamoman xonavayron bo'ldi. Endi bu urug'ning eng oxirgi a'zosi – men kotib bo'lib ishlagan graf Spadaga

o'taman.

U ko'pincha uning boyligi mavqeiga mos kelmayotganidan nolirdi, men unga qolgan hamma mulkini doimiy rentaga aylantirishni maslahat berdim. Spada maslahatimga amal qilib, daromadini ikki barobar ko'paytirib oldi.

Mashhur duolar kitobi oilada graf Spadaniki bo'lib qoldi, bu kitob otadan o'g'ilga o'tib, boyagi vasiyat tufayli qandaydir muqaddas buyum sifatida saqlanib kelindi. Kitob gotik uslubdagi nafis suratlar, zarrin bezaklar bilan bezalgan bo'lib, tantanali kunlarda xizmatkor kardinal oldida uni ko'tarib borardi.

Zahar ichib o'lgan kardinaldan so'ng qolgan va oilaviy arxivda saqlanib yotgan turli hujjatlarni, shartnoma-bitimlarni, charm xatlarni ko'rib, men ham mendan oldin yigirmaga xizmatkor tintigan bu ulkan qog'oz to'plamini tintib-tekshira boshladim. Sabr-toqat qilib rosa titkilashimga qaramay, hech nima topmadim. Shu davr ichida Bordjialar oilasining tarixiga doir yozuvlarni sinchiklab rosa o'qidim, hatto deyarli kunma-kun mufassal yozib chiqdim, bundan maqsadim mening Chezare Spadam o'lganidan so'ng ularning boyligi oshgan yoki oshmaganini bilish edi. Bildimki, Bordjialar oilasining boyligi faqat baxti qaro Spadaning jabrdiyda do'sti kardinal Rospilozining mulki hisobigagina ko'paygan, xolos.

Spadaning merosini hech kim egallab olmaganiga – oilasi ham, Bordjia ham topolmaganiga ishonib, bu dunyo xuddi arab ertaklaridagi kabi egasiz, ruhlar muhofazasida yer ostida ko'milib yotgan bo'lsa kerak, deb o'ylardim. Uch yuz yil mobaynida Spadalar oilasining daromad va xarajatlarini ming-ming marta o'rganib, hisob-kitobdan o'tkazib chiqdim, ammo shunchalik mehnatim behuda ketdi, hech narsa topolmadim. Graf Spada esa qashshoqlikka yuz tutdi.

Mening himoyachim vafot etdi. U mol-mulkini doimiy rentaga aylantirib, o'ziga faqat oilaviy arxivni, besh ming tomlik kutubxonani va mashhur duolar kitobini qoldirgan edi. Shularning hammasini, yana bir ming rim sku-

dosini menga vasiyat qilib qoldirdi-da, har yili unga xudoyi o'tkazishimni va avlodining tarixini tuzishimni shart qilib qo'ydi. Men buni aytganidek qilib bajo keltirdim...

– Sabr qiling, azizim Edmon, oxiriga yaqinlashyapmiz.

Ming sakkiz yuz yettinchi yili, meni qamashlaridan bir oy oldin va grafning vafotidan ikki hafta o'tgach, yigirma beshinchi dekabrda (bu sananing nechun esimda qolganining sababini hozir bilasiz) men minginchi marta qog'ozlarni o'qib, tartibga solayotgan edim. Saroy sotib yuborilgan edi, men hamma buyumlarimni (bularning bahosi o'n ikki ming livr edi), kutubxonadagi kitoblarni va mashhur duolar kitobini olib Rimdan Florensiyaga ko'chmoqchi bo'lib yurgan edim. Ko'p charchab, to'yib ovqat yeb bo'shashgan holda boshimni qo'llarimga qo'yib uxlab qolibman. Kunduz soat uchlar edi.

Uyg'onganimda soat oltiga borgan ekan.

Boshimni ko'tardim, atrofga qorong'ilik cho'kkandi. Chiroq so'rash niyatida qo'ng'iroq chaldim. Hech kim kelmadi. Shundan so'ng chiroqni o'zim yoqishga qaror qildim. Buning ustiga men falsafachilarga xos yashashga odatlanmog'im zarur edi. Bir qo'limga sham oldim-da, gugurt yo'qligidan, pechdan yondirib olish uchun biror parcha qog'oz axtardim. Keraksiz qog'oz o'rniga birorta qimmatli hujjatni yondirib qo'ymayin tag'in deb qo'rqdim, shu payt shu yerda, stol ustida yotgan boyagi duolar kitobi ichiga xatcho'p o'rnida sarg'ayib ketgan bir parcha qog'oz yotgani esimga tushib qoldi. Bu qog'ozni merosxo'rlar juda avaylab saqlab kelardilar. Men ana shu keraksiz qog'ozni topib oldim-da, buklab-buklab, o't oldiga olib bordim.

To'satdan, xuddi sehrgarning amri vojib bo'layotganday, haligi qog'oz yongan sari, uning oppoq betidan sapsariq harflar paydo bo'la boshladi, meni vahima bosdi, qog'ozni darhol kaftimga bosib, o'tni o'chirdim, naq pech oldida sham yoqdim, qandaydir kuchli hayajon bilan mijig'langan qog'ozni tekisladim, so'ng angladimki, bu harflar faqat qizitilganda rangsiz siyoh bilan yozilgan ekan.

Xatning to'rtidan uch qismi yonib kul bo'lgan edi. Bugun ertalab siz o'qigan xat xuddi ana shu xat edi. Dantes, xatni yana bir o'qib chiqing, o'qib bo'lganingizdan keyin men o'sha kuyib yo'q bo'lib ketgan joylarini to'ldirib aytib beraman.

Faria shunday dedi-da, g'urur-la qog'ozni Dantesga uzatdi, Dantes esa bu gal zo'r hayajon bilan sariq siyoh bilan yozilgan quyidagi so'zlarni o'qidi:

*«1498 yil 25 aprelda haz
chaqirilganimda, u kardinal
lanib qolmay, merosimga ega
Kaprar va Bentivolyu
yagona merosxo'rim Gvido
borib ko'rgan Monte-Kristo
ni, tangalarimni, qimmatbaho asl
qo'rganman, faqat menga ma'lum ikki million
boylikni jiyanim sharq tomondagi kichik
qoya tagidan topib oladi. Mana shu g'orda
to'rdagi ikkinchi o'raga qo'milgan, bu xaz
ga vasiyat qilib qoldiraman va unga shax*

149... 25 aprel Chez...

– Mana endi buni o'qing, – dedi abbat va Dantesga yana bir xatni uzatdi. Dantes xatni oldi-da, o'qidi.

*rat Aleksandr VI tomonidan mehmonga
shapkasi uchun oladigan haq bilan kifoya-
chiqish niyatida meni ham kardinal
zaharlab o'ldirsa kerak deb xavotirlanib
Spadaga ma'lum qilamanki, uning o'zi birga
orolidagi g'orga hamma oltin, yombilarim-
toshlarimni, olmoslarimni ko'mib
rim skudosiga barobar bu
ko'rfazdan borganda yigirmanchi
ikki o'ra bor, oltinlar eng*

*inani yagona merosxo'r jiyanim-
siy mulki qilib, ato etaman.*

8 yil are Spada».

Faria ko'zlari yonib unga tikilib turdi.

– Endi, – dedi u Dantesning oxirgi satrga yetganini ko'rib, – ikki bo'lakni ulab ko'ring-chi.

Dantes abbatning aytganini qildi, natijada ikki bo'lak qog'oz ulangach, quyidagi so'zlar hosil bo'ldi: «1498 yil 25 aprelda, hazrat Aleksandr VI tomonidan mehmonga chaqirilganimda, u kardinal shapkasi uchun oladigan haq bilan kifoyalaniq qolmay, merosimga ega chiqish niyatida meni ham kardinal Kaprar va Bentivolyu kabi zaharlab o'ldirsa kerak deb xavotirlanib, yagona merosxo'rim Gvido Spadaga ma'lum qilamanki, uning o'zi birga borib ko'rgan Monte-Kristo orolidagi g'orga hamma oltin, yombilarimni, tangalarimni, qimmatbaho asl toshlarimni, olmoslarimni ko'mib qo'yganman, faqat menga ma'lum bu ikki million rim skudosiga barobar bu boylikni jiyanim sharq tomondagi kichik ko'rfazdan borganda yigirmanchi qoya tagidan topib oladi. Mana shu g'orlarda ikki o'ra bor, oltinlar eng to'rdagi ikkinchi o'raga ko'milgan, bu xazinani yagona merosxo'r jiyanimga vasiyat qilib qoldiraman va unga shaxsiy mulki qilib ato etaman.

149... 8 yil, 25 aprel

Chez... are Spada».

– Tushudingizmi endi? – so'radi Faria.

– Kardinal Spadaning arizasi va hamma axtargan vasiyatnoma shumi? – dedi Edmon hamon ishonmay.

– Ha, xuddi o'zi!

– Kim tikladi buni?

– Men. Saqlanib qolgan qog'ozning eniga qarab satrlarni o'lchab, g'orda yo'l topgandek bor so'zlardan ma'no yasab uni tikladim.

– Batamom shak-shubhangiz qolmagandan keyin nima

qildingiz?

– Men yagona italyan qirolligi tuzish to‘g‘risida boshlangan asarimni oldim-da, darhol yo‘lga chiqdim. Ammo imperator polisiyasi allaqachon meni poylab yurgan ekan. U vaqtda Napoleon viloyatni bo‘lak-bo‘lak qilib tashlashga urinayotgan edi (o‘g‘il ko‘rgandan so‘ng bu fikridan qaytdi). Hech kimga bildirmay shoshilib yo‘lga chiqqanimdan shubhalanganlar. Pombinoda kemaga tushayotganimda qamoqqa olishdi.

– Endilikda, – davom etdi so‘zida Faria Dantesga otalarcha mehr bilan tikilib, – endilikda, azizim, men bilgani ni siz ham bilasiz. Mabodo ikkimiz qachon bo‘lmasin bu yerdan qochib qutulgudek bo‘lsak, ana shu xazinaning teng yarmi sizniki bo‘ladi. Mabodo men shu yerda dunyodan o‘tsamu bir o‘zingiz qutulib chiqsangiz xazina butunlayin sizga qoladi.

– Ammo, – dedi Dantes dudmol ohangda, – bu xazinaning bizdan boshqa haqiqiy egasi yo‘qmikin?

– Yo‘q, xotirjam bo‘ling, yo‘q, u oilaning hammasi qirilib ketgan. Buning ustiga so‘nggi graf Spada meni o‘zining merosxo‘ri qilib tayinlagan. U ana shu mashhur duolar kitobini vasiyat qilib qoldirish bilan birga, undagi narsalarning hammasini vasiyat qilib qoldirdi. Agarda bu boy xazinani qo‘lga kiritolsak, undan bamaylixotir foydalana veramiz.

– Siz bu xazinaning qimmati...

– Ikki million Rim skudosiga baravar, bizning pulimizda o‘n uch millionga yaqin.

– Nahotki shunday bo‘lsa? – qichqirib yubordi bu ulkan raqamni eshitib qo‘rqib ketgan Dantes.

– Ha, xuddi shunday, – dedi chol. – Spadalar urug‘i juda qadimgi bo‘lib, o‘n beshinchi asrning eng baquvvat, badavlat urug‘i edi. Shu bilan birga, u vaqtlarda yirik pul muomalasi, yirik sanoat yo‘q edi, oltin va boshqa qimmatbaho toshlarni to‘playdiganlar ko‘p bo‘lardi. Rimda hali hozirgacha meros qolgan bir necha million so‘mlik olmos va boshqa qimmatbaho toshlarga ega bo‘lib olgan,

biroq unga qo'l tekkizish huquqidan mahrum bo'lgani vajidan muhtojlikda yashayotgan oilalar bor.

Edmonga bularning hammasi tushdek tuyulardi, u bunga dam ishonmay shubhalanar, dam ishonib quvonar edi.

– Men bu sirni anchagacha sizdan yashirib keldim, – deb davom etdi Faria, – shuning uchunki, birinchidan, sinab ko'rmoqchi bo'ldim, ikkinchidan, sizni hayratda qoldirmoqchi edim. Agar biz tutqanog'imdan oldin qochganimizda sizni o'sha Monte-Kristoga olib borgan bo'lur edim. Endi, – dedi qo'shimcha qilib chol, – siz meni olib borasiz. Xo'sh, Dantes, nega menga minnatdorchilik bildirmayapsiz?

– U xazina sizniki, azizim, – dedi Dantes, – faqat bir o'zingiz egasiz unga, mening unda hech qancha haqqim yo'q. Mening sizga hech qanaqa qarindoshchiligim yo'q.

– Siz, Dantes, mening o'g'limsiz! – xitob qildi chol. – Mening qullikdagi farzandimsiz! Mening unvonim nikohsiz umr o'tkazishga majbur etdi. Ota bo'lolmay qolgan va ozodlikka erisholmagan kishini yupatish uchun menga sizni Xudoning o'zi yubordi.

Faria shunday dedi-yu, Dantesga sog'lom qo'lini uzatdi, Dantes esa ko'zlari jiqqa yoshga to'lib cholni quchoqladi.

XIX. UCHINCHI TUTQANOQ

Abbat Farianing fikr-xayolini ko'p vaqtdan buyon band etib kelgan, endilikda o'z o'g'li singari sevib qolgan Edmonni baxtiyor eta oladigan bu xazina, cholga o'z jonidan ham aziz bo'lib qoldi. Sanab sanog'iga yetib bo'lmaydigan bu boylik to'g'risida u har kuni tinmay gapirar, Dantes mana shu o'n uch-o'n to'rt million boylikni egallab olgach, hozirgi zamonda yor-do'stlariga qanchadan-qancha yaxshiliklar qilishi mumkinligini tasvirlab berardi. Shunda Dantesning ko'ngli g'ash bo'ldi, u dahshatli qasamini esladi, o'n uch yoki o'n to'rt million skudoga

ega bo'lib olib, dushmanlarini behisob azob-uqubatlar-ga duchor qilishi mumkin ekanini xayolidan o'tkazdi.

Monte-Kristo orolini abbat bilmasdi, ammo Dantes bi-lardi. Korsika bilan Elba o'rtasida. Pianozadan yigirma besh mil naridagi bu orol yonidan ko'p marta o'tgan, hatto kunlarning birida u yerda to'xtagan ham edi. Monte-Kristo oroli shu paytga qadar va hozir ham inson qadami teg-magan, xilvat joy. Bu orol vulqon otilishi natijasida deng-iz tagidan ko'tarilib qolgan. Dantes abbatga orolning loy-ihisini chizib berdi, Faria esa xazinani qanday qilib topib olish yo'lini ko'rsatdi.

Biroq Dantes haliyam bunga abbat kabi juda mahliyo bo'lib va eng muhimi, unga o'xshab ishonib ketmadi. Endi u abbatning jinni emasligini bilgan va abbatning jinni deb nom chiqarishiga sabab bo'lgan kashfiyoti yo'lidagi aql-zakovatiga juda qoyil qolgan edi. Lekin shu bilan bir vaq-tda bu xazina bir vaqtlar yashirib qo'yilgani bilan hozir bormi-yo'qmi, ma'lum emas, deb o'ylardi Dantes, xazina-ning ko'milganini haqiqat deb o'ylasa-da, har holda yo'qo-lib ketgan bo'lishi ham mumkin, deb o'ylardi u.

Shu orada, taqdir go'yo bu ikki mahbusni oxirgi orzu-umidlardan ham mahrum etishga ahd qilgandek va ular bir umrga turmada qolajaklarini anglatib qo'yayotgandek, ularning boshiga yana bir baxtsizlik keltirdi: ko'pdan buyon qulay deb turgan tashqi yo'lkani qaytadan ishlab chiqdilar: poydevorni ta'mir qilishdi, yarmini – Dantes bekitib qo'ygan teshikni – xarsang toshlar bilan to'sib qo'yishdi. Yaxshiyamki, abbatning nasihati bilan Dantes teshikning yarmini bekitib qo'ygan ekan, bo'lmasa ular bundan ham battarroq falokatga uchragan bo'lishardi, ya'ni qochishga tayyorlanayotganlari oshkora bo'lib qolib, ikkisini bir-biridan ajratib qo'yishardi. Shunday qilib, ularni ilgarigisidan mahkamroq va mutlaqo ochib bo'lmaydigan yangi eshik to'sib qo'ydi.

– Mana, ko'rdingizmi, – dedi Dantes, g'amgin ohangda abbatga, – mening sizga cheksiz sadoqatim Parvardigorga ham xush keldi. Men siz bilan abadiy birga bo'lishni va'

da qilgan edim, mana endi shu va'damni noiloj bajarishga majburman. Xazina menga ham, sizga ham nasib bo'lmadi, bu yerdan endi mutlaqo chiqolmaydigan bo'ldik. Aslini olganda, azizim, haqiqiy boylik Monte-Kristo qoyalari tagida ko'milib yotgan boylik emas, haqiqiy boylik – sizning menikida hozir bo'lishingiz, siz bilan mening har kun nazoratchidan qo'rqmay besh-olti soat suhbat qurganimiz, haqiqiy boylik – sizning menga bag'ishlagan bilim charog'lari, esimga siz solgan chet shevalar, ular filologik shoxchalarini tobora yozib o'sib boryapti. Haqiqiy boylik bu – sizning chuqur bilimingiz va yorqin fikrlaringiz tufayli menga ayon bo'lgan ilmlar. Mening boyligim mana shular, azizim, mana shular natijasida siz menga ham boylik, ham baxt ato etdingiz. Ishoning va xotirjam bo'ling: men uchun bu boylik o'sha oltin to'la xumlardan va olmos limmo-lim sandiqlardan aziz va qimmatdir. U xumlar va sandiqlar sahar mardon-da dengiz ustida qattiq tuproqqa o'xshab qalqib yuradigan va lekin dengizga yaqinlashgan sari bug'ga aylanib yo'qolib ketadigan bulutlarga o'xshaydi. Nazarimda iloji boricha ko'proq sizning yoningizda bo'lish, sizning yoqimli va jozibali ovozingizni eshitib o'tirish, aqlimni boyitish, yuragimni chiniqtirib va (mabodo qachon bo'lmasin ozodlikka chiqish, meni siz bilan tanishishdan ilgari qamrab olgan umidsizlikdan qutulish nasib etgudek bo'lsa) kelajakda qiladigan ulug' va dahshatli ishlar-ga o'zni tayyorlash – mana shular mening haqiqiy boyligim, azizim, bu boylik yaltirab turadigan boylik emas, ammo chindan ham haqiqiy boylik! Mana shu haqiqiy boylik uchun men sizdan ming karra minnatdorman, bu boyligimni dunyo hokimlaridan hech qaysisi, shu jumladan, Uezar Bordjia ham mendan tortib ololmaydi, ha, aslo tortib ololmaydi.

Xullas, vaqt ikki baxti qaro mahbus uchun quvonch-siz va juda tez o'ta boshladi. Shuncha yillardan buyon xazinasini to'g'risida og'iz ochmay kelgan Faria endilikda bu haqda tinmay gapirardi. O'zi karomat qilganidek, uning

o'ng qo'li va o'ng oyog'i falaj bo'lib qoldi va xazinadan bahramand bo'lish umididan deyarli voz kechdi, ammo u hamon yosh do'stim turmadan ozod etiladi yoki qochib ketadi, deb umid qilib quvonardi. Xat yo'qolib qolmasin tag'in deb xavotirlanib Dantesni uni yaxshilab yodlab olishga majbur etdi. Dantes ham xatning biror so'zini qoldirmay yodlab oldi. Shundan so'ng, u xatning ikkinchi yarmini yo'q qilib tashladi, birinchi yarmini olganlarida ham uning mazmunini anglab olisholmaydi, deb o'ylardi chol. Ba'zida Faria soatlab Dantesga u ozodlikka chiqqudek bo'lsa, zarur bo'ladigan ko'p maslahatlar berardi. Uning maslahatiga ko'ra, Dantes ozodlikka chiqqani zamanoq qanday bo'lmasin, hech kimni shubhaga solmay Monte-Kristoga yetib olishning, biror bahona topib u yerda yolg'iz qolishning, afsonaviy g'orni topishning va aytilgan joyni kavlashning payiga tushmog'i kerak. Xazina, bizga ma'lum bo'lishicha, ikkinchi g'orning eng chekka burchagida.

Shundan so'ng vaqt har qalay chidasa bo'ladigan darajada o'ta bordi. Hali aytganimizdek, Fariani falaj ishdan chiqarib qo'ygan bo'lsa-da, biroq uning aqli yana ilgari-gidek ravshanlashdi, u o'z do'stiga umumiy bilimlardan tashqari mahbusning sabr-matonati va yuksak san'atini ham o'rgatdi. Shundagina u yo'qni bor qilishi mumkin. Ikkisi hamma vaqt biror ish bilan band bo'lishardi, buning sababi – Fariani qarilik vahimaga solardi, Dantes esa tim qorong'i o'tmishini esiga keltirmaslik uchun tinmay to'g'ri kelgan narsa bilan shug'ullanardi. Ikki baxti qaroning hayoti ko'pdan-ko'p baxtsizliklarga bardosh berib kelayotgan kishilarning hayotiga o'xshardi.

Bu xotirjamlik faqat yuzaki edi, yigitning yuragida esa (ehtimol, cholning yuragida ham) zo'r-bazo'r bosilib turgan jo'shqinlik, g'ayrat-shijoat yashirinib yotardi. Bo'g'ilib yotgan nola-fig'on ehtimol Faria yakka qolganda va Edmon o'z xonasiga qaytganda ikkisining ham ko'ksidan otilib chiqqandir.

Kunlardan bir kun Edmon to'satdan cho'chib uyg'onib

ketdi, nazarida uni birov chaqirayotgandek bo'ldi. U ko'zlarini zimistonga o'qday tikib qaradi.

Edmon kimdir chaqirayotganini, to'g'rirog'i, uning nomini tilga olaman deb kuchanib ingrayotganini eshitdi.

U karavotdan boshini ko'tarib, titrab quloq soldi. Ovoz shubhasiz abbatning kamerasidan kelayotgan edi.

– E Parvardigor! – dedi zo'rg'a tovush chiqarib Dantes.
– Nahotki?

Edmon karavotni surdi-da, toshni olib tashladi, g'orga otilib, emaklab oxirigacha bordi. Abbat kamerasidagi toshtaxta olib qo'yilgan edi.

Abbat jinchiroqning g'ira-shira yog'dusida karavotga zo'rg'a suyanib turardi. U murdaga o'xshab qolgan edi, cholning basharasi o'tgan safardagidek tamoman o'zgarib, xunuklashib ketgan edi. Uni birinchi marta shu ahvolga ko'rganida Edmon qo'rqib ketgan edi.

– Bilasizmi, azizim, – dedi zo'rg'a tovush chiqarib Faria. – Men sizga hamma gapni aytib o'tirmayman.

Edmon ingrab yubordi va falokatdan es-hushini yo'qotib eshik tomon yugurdi-da, qichqira boshladi:

– Yordam bering! Yordam bering!

Faria butun kuchini sarflab Edmonni qo'lidan ushlab to'xtatdi.

– Ovozingizni o'chiring! – dedi u, – aks holda halok bo'lasiz. Endi, azizim, faqat sizni o'ylashimiz, qamoqdagi hayotingiz chidasa bo'ladigan holda o'tishi yo'llarini yoki qochib qutulib ketishingiz choralari izlashimiz kerak. Mabodo turma xodimlari ikkimizning aloqada ekanimizni bilib qolishsa, unda butun mehnatim samarasini bir zumdayoq chippakka chiqarib tashlashadi va bu ishlarni qayta tiklash uchun siz yana bir necha yillar zahmat chekishga majbur bo'lasiz. Yana shuni ham unutmangki, azizim, men gumdon bo'lib, tashlab ketadigan bu xona uzoq bo'sh turmaydi, yana bir baxtsiz mahbus egallaydi mening o'rnimni. Ana o'sha yangi mahbus huzuriga siz xaloskor farishta bo'lib tashrif buyurasiz. Ehtimol, u ham siz kabi yosh, baquvvat, sabr-toqatli bo'lur,

qochishingizda yordam qilur, men esa faqat xalaqit berib keldim. U vaqtda hamma harakatlaringizga g'ov bo'layotgan yarim murdadan qutulasiz. Xudoning o'zi qo'lladi sizni, u sizga iltifot ko'rsatdi, men esa allaqachon bu dunyodan ko'z yummog'im kerak edi.

Bunga javoban Dantes qo'llarini ko'ksiga bosdi-da, xitob qildi:

– Aziz do'stim, bas qiling, o'tinib so'rayman, bas qiling bu gaplarni!

So'ng kutilmagan zarbadan yo'qotib qo'ygan es-hushini yig'ib, dadillanib oldi-da, dedi:

– Men sizni bir marta qutqarib olgan edim, bu gal ham qutqaraman!

U karavotning oyog'ini ko'tardi-da, tagidan hamon qizil suyuq dori bor shishani oldi.

– Mana shifobaxsh dori, – dedi u, – mana, ko'rdingizmi! Qani, tez ayting, nima qilay? Yo'lini ko'rsating! Gaping, azizim, qulog'im sizda, gaping!

– Foydasi yo'q, – dedi Faria bosh chayqab, – biroq mayli, qabul qilay bu shifobaxsh dorini, Xudoyim o'zi yaratgan insonga hayot va yashashga cheksiz muhabbatni ham ato etgan ekan, inson ana shu aziz hayotni saqlash uchun qo'lidan kelgan hamma choralari ko'rmog'i kerak, bu Xudoning amri.

– To'g'ri, to'g'ri, – xitob qildi Dantes, – men sizni qutqaraman, albatta, qutqaraman!

– Bo'pti! Biroq a'zoyi badanim muz bo'lib boryapti, miyamga qon quyilyapti, tishlarimni takillatayotgan titroq butun vujudimga tarqab boryapti, demak besh daqiqadan so'ng tutqanoq boshlanadi, yarim soat o'tgach, murdaga aylanaman.

– Yo Tangrim! – qichqirdi Dantes iztirob chekib.

– Avvalgi safar qanday qilgan bo'lsangiz, xuddi shunday qiling, zinhor uzoq kutib turmang. Butun kuch-quvvatim adoyi tamom bo'lgan allaqachon, – dedi u shol bo'lib qolgan qo'li va oyog'iga ishora qilib. – Ajal meni endi osongina oladi, qo'yadi. Mana bu suyuq dorini bu

gal o'n marta emas, o'n ikki marta tomizing, mabodo hushimga kelmagudek bo'lsam, qolgan hamma dorini quy-ing. Endi yordam bering, men yotay, tik turishga holim yo'q.

Edmon cholni dast ko'tarib karavotiga yotqizdi.

– Azizim, – dedi Faria, – men xarob etilgan hayotimda birgina quvonch ko'rdim, u ham bo'lsa siz, sizni menga Tangrimning o'zi yubordi, kechikib bo'lsa-da, yubordi, bu bebaho tuhfa uchun undan minnatdorman. Siz bilan abadiy vidolasharkanman, sizga, siz olijanob zotga – o'z fazilatlaringizga munosib baxt va tan-sihatlik, xotirjamlik tilayman. O'g'lim, sizga oq fotiha berdim: ilohim umrin-giz uzoq, baxtingiz yor bo'lsin!

Dantes tiz cho'kib boshini cholning to'shagiga qo'ydi.

– Sabr qiling, azizim, oxirgi daqiqalardagi so'zlarimni yaxshilab uqib oling: kardinal Spadaning xazinasini chindan ham bor. Tangrim marhamat qilib uzoqni yaqinlashtir-di menga, oltinlarni men shu yerdanoq ko'rib turibman: ikkinchi g'or tagida yotibdi. Bordi-yu qochib qutulgudek bo'lsangiz, shuni unutmangki, hamma jinniga chiqarib qo'ygani abbat soppa-sog' odam edi. Qutulganin-giz hamono Monte-Kristoga yo'l oling, boyligimizning egasi bo'ling, ko'p aziyat chekdingiz, endi davr-davron surib, rohatda yashang.

Cholning tomirlari tortishib, tildan qoldi, Dantes bo-shini ko'tarib abbatga qaradi. Abbatning ko'zlariga qon quyilayotgan edi. Go'yo yuragidagi qon boshiga otilib chi-qayotgandek edi.

– Alvido, azizim! Alvido! – dedi bo'g'iq ovoz bilan chol Edmonning qo'lidan tutib. – Alvido!

– Yo'q! Yo'q! – deb xitob qildi Dantes. – E, Parvardigo-rim, bizni bir-birimizdan judo etma, qutqar buni o'lim-dan, qutqar!.. Yordam bering! Yordam!

– Sekin, do'stim! Sekin! – shivirladi jon berayotgan chol. – Jim bo'ling, aks holda, meni qutqarib qolgudek bo'lsangiz, ikkimizni bir-birimizdan ajratib qo'yishadi!..

– Haq gapni aytdingiz. Xotirjam bo'ling, azizim, men

sizni qutqaraman, albatta! Bu gal kasal og'rig'i o'tgan sa-fardagidan ozroq bo'lyapti, chamamda.

– Unday emas, do'stim, buning sababi holdan toyib, ingrashga ham madorim yo'q. Sizning yoshingizda odam ishonch bilan yashaydi, ishonch va umidvorlik – yoshlik timsoli. Keksalikda esa kishining ko'ziga ko'proq o'lim ko'rinadi. Mana o'lim! Kelyapti!.. Tugadim!.. Ko'zlarimni qorong'ilik bosyapti... Es-hushim ham xiralashyapti! Dan-tes, uzating menga qo'lingizni! Uzating menga, uzating! Alvido!.. Alvido!..

Chol so'nggi kuchlarini to'plab oxirgi marta qaddini ko'tardi.

– Monte-Kristo! – dedi u, – esingizdami, Monte-Kristo!

Shunday dedi-yu, oxirgi marta og'ir nafas olib karavot-ga shilq etib tushdi.

Tutqanoq nihoyatda og'ir bo'ldi bu gal. Faria changak bo'lib, a'zoyi badani toshdek qotib qoldi, qovoqlari shi-shib, qavardi, og'zidan qon aralash ko'pik chiqdi, butun vujudi shol bo'lib qoldi. Bundan bir daqiqa burun aqli raso bir zot endi o'lim to'shaqida ana shunday holda yotar edi.

Dantes qora chiroqni to'shakning bosh tomonida de-vordan chiqib turgan tosh ustiga olib qo'ydi; pirpirab turgan shu'la cholning burishib-tirishib ketgan yuziga va jonsiz qotib qolgan tanasiga ajoyib yallig' tashlab turardi.

Dantes bemordan ko'zini uzmay, nafasini ichiga yutib, shifobaxsh dorini tomizish onlarini kutardi.

Nihoyat u pichoqni oldi-da, bemorning tishlarini yirdi (bu gal tishlar ilgaridan osonroq yirildi), doridan o'n ikki tomchi tomizdi, cholning hushiga kelishini kutdi. Shisha-da tomizganidan ikki baravar ko'p dori qolgandi.

Dantes o'n daqiqa kutdi, chorak soat kutdi, yarim soat kutdi, ammo Faria qimir etmadi. Butun vujudi titrab, so-chlari tik bo'lib, peshanasidan duv ter chiqib ketgan Dan-tes yuragi dukillab soniyalami sanab chiqdi. Najot bo'lma-di.

So'ng u oxirgi vositani ishlatishga qaror qildi, abbat-

ning ko'karib ketgan lablariga shisha idishni olib bordida, qoldiq dorining barisini og'ziga quyib yubordi.

Dorining kuchi elektr quvvatiday ta'sir qildi; cholning butun gavdasini dahshatli qaltiroq bosdi, ko'zlari olayib ketdi, nidoga o'xshash oh tortdi, so'ng titroq sekin-asta pasaydi-yu, yana qimir etmay qoldi.

Faqat ko'zlari ochilganicha turaverdi.

Yarim soat o'tdi, bir yarim soat o'tdi. Shu vaqt ichida do'sti ustida enkayib qo'lini uning yuragiga bosib turgan Dantes abbatning tani sovib, yuragi tobora urishdan to'xtab borayotganini sezib turdi.

Axiri cholning yuragi oxirgi marta bir sapchib tushdida, tindi, yuzlari ko'kardi, ko'zlari ochiq holida nurdan qoldi.

Soat ertalab olti, tong yorishib kelyapti, yerto'laga tushgan quyoshning xira nurlari qora chiroqning kuchsiz shulasi bilan kurash tushayotgandek tuyulardi. Quyosh nuri murda yuzida pирpirab turar va u ba'zan xuddi tirikka o'xshab ko'rinardi. Nur bilan zulmat kurashi davom etarkan, Dantes hamon ishonmay turdi, biroq nur g'olib chiqqandan so'ng, oldida murda yotganiga imoni komil bo'ldi.

Ana shundan so'ng uni beomon vahima bosdi, endi u to'shakdan pastga osilib yotgan bu qo'lni siqolmas, uning urinib bekitolmayotgan bu nursiz ko'zlariga tikilolmasdi. U qora chiroqni o'chirib mahkam qilib yashirib qo'ydi-da, tosh taxtani boshi bilan surib, teshikni bekitdi va o'z xonasiga ketdi.

Buning ustiga vaqtni o'tkazish yaramasdi: turma nazoratchisi keladigan vaqt yaqinlashib qolgan edi.

Bu gal u tekshirishni Dantesdan boshladi. Undan o'tib abbatnikiga ovqat va ichki kiyim olib kirmoqchi bo'ldi.

Yuz bergan voqeadan u hali bexabar ekani vajohatidan ko'rinib turardi. U Dantesning kamerasidan chiqib ketdi.

Shu payt Dantes do'sti kamerasida nima bo'lishini bilish ishtiyoqida edi. U yana yer osti yo'lkasiga tushib, abbatning kamerasiga yaqin bordi. Birdan turma nazorat-

chisining qichqirib yordamga chaqirayotgani qulog'iga urildi. Sal o'tmay boshqa nazoratchilar kelishdi. So'ng soldatlarning vazmin va bir tekis qadamlari eshitildi. Ular ketidan komendant kirdi.

Edmon jasadni ag'darganlarini, karavotning g'ijirlaganini, komendantning: «Murda yuziga suv purkang» deganini va mahbus hushiga kelmagach, doktor chaqiring, deb buyurganini eshitdi.

Komendant chiqib ketdi, Edmonning qulog'iga afsus, mazax, kulgi chalindi.

– Mana, – dedi kimdir, – jinni o'z xazinasini tomonga juf-takni uribdi, oq yo'!

– Million-million pul egasi bo'la turib, endi kafangado ketadigan bo'ldi shu sho'rlik, – dedi ikkinchisi.

– If qal'asida kafan juda arzon-ku, – dedi e'tiroz bildirib uchinchisi.

– Ehtimol unga rahm qilib, bir oz sarf-xarajatga yo'l qo'yishar, har holda bu ulamolardan-ku.

– Unday bo'lsa bunga bitta qop hadya qilishlari turgan gap.

Edmon biror so'zni o'tkazmay quloq soldi, biroq ularning ko'piga tushunolmadi. Ko'p o'tmay tovushlar tindi, u, hamma cholning kamerasidan chiqib ketdi, shekilli, deb o'yladi.

Shunday bo'lsa-da, u abbatning kamerasiga kirishga jur'at etolmadi, ehtimol, murda tepasida qorovul qoldirib ketishgandir.

Shuning uchun u joyidan qo'zg'almas, nafasini ichiga yutib quloq solib turaverdi.

Bir soatdan so'ng yana shov-shuv boshlandi. Cholning kamerasiga komendant qaytib keldi, uning yonida doktor va bir necha ofiser bor edi.

Hamma bir daqiqaga jim turdi. Aftidan, doktor to'shak yoniga borib murdani tekshirayotgan bo'lsa kerak.

So'ng so'rab-surishtirish boshlandi.

Vrach mahbusni sinchiklab tekshirib bo'lgach, o'lganligini tasdiqladi.

Savol-javoblarda toshbag'irlik, beparvolik sezilib turardi. Bu Dantesni g'azablantirdi. Hamma sho'rlik abbatga ozgina bo'lsa-da achinishi kerak, deb o'ylardi Dantes.

– Men juda xafa bo'ldim, – dedi komendant doktorning chol jon beribdi deganiga javoban, – bu yuvosh va beozor maxluq edi, tentak qiliqlari bilan hammani kuldirib turardi, biroq eng muhimi – bu mahbusni kuzatish oson edi.

– Uni kuzatib o'tirishga hojat ham yo'q edi, – gap qotdi turma nazoratchisi. – Bu bechora turmada ellik yil yotsada, qochishni aslo xayoliga keltirmagan bo'lur edi. Men bunga kafilman.

– Ammo, – dedi komendant, – siz kafillik bersangiz-da, (bundan, menga ishonmayapti deb o'ylamang tag'in) javobgar bo'lib qolmaslik uchun mahbusning chindan va-fot etganini yaxshilab tekshirib aniqlashimiz zarur.

Oraga chuqur sukunat cho'kdi, quloq solib turgan Dantes, doktor murdani yana tekshirib ko'ryapti, deb faraz qildi.

– Xotirjam bo'lavering, – dedi doktor, – chol o'lgan, mening bunga imonim komil.

– Ammo siz bilasizki, – e'tiroz bildirdi komendant, – bunday hollarda biz shunchaki yuzaki tekshirish bilan kifoyalanolmaymiz, shuning uchun yuzaki belgilardan qat'i nazar, qonun talabiga muvofiq rasmiy tartibotlarni ham bajarmog'ingiz shart.

– Mayli, bo'lmasa temirni qizdiring, – dedi doktor, – lekin menimcha, siz ortiqcha ehtiyotkorlik ko'rsatyapsiz.

Temirni qizdirish to'g'risidagi gaplarni eshitgan Dantes seskanib ketdi.

Shoshilinch qadamlar ovozi eshitildi, eshik g'ichirladi, yana oyoq tovushi keldi. Bir necha daqiqadan so'ng nazoratchining ovozi eshitildi:

– Mana manqal va temir.

Yana sukunat cho'kdi, so'ng kuydirilgan badanning jizillagani eshitildi, qo'lansa hid devor yorig'idan ham o'tib, Dantes dimog'iga urildi. Odam go'shtining hidi dimog'iga

urganda Dantesni qora ter bosdi, u hushidan ketishiga sal qoldi.

– Mana, koʻrdingizmi endi, – dedi doktor, – bu allaqachon dunyodan oʻtgan. Oʻlikni aniqlash uchun tovonni kuydirish kifoya. Eng zoʻr dalil shu. Shoʻrlik chol jinnilikdan ham, zindondan ham qutulibdi endi.

– Nomi Fariamidi? – soʻradi komendantni kuzatib kirgan ofiserlardan biri.

– Ha, Faria, cholning oʻzi, bu qadimiy avlod deb uqtirardi bizga. Bu chol xazinasi haqida gapirganda juda oqil va bamaʼni odamga oʻxshab qolar va aytgan gapida turib olib, qaysarlik qilaverardi.

– Bu shunday bir kasalki, uning nomi bizda monomaniya deyiladi, – soʻz qotdi doktor.

– Siz buning ustidan hech shikoyat qilganingiz yoʻqmi, – soʻradi komendant abbatga ovqat tashiydigan nazoratchidan.

– Yoʻq, biror marta ham shikoyat qilganim yoʻq. – Javob berdi nazoratchi, – aksincha, u dastlabki vaqtlarda juda ajoyib tarixiy voqealarni hikoya qilib, meni zavqlantirardi, xotinim kasal boʻlganda, bir dori yozib berib, soʻgʻaytirib yuborgan.

– Shundaymi hali! – dedi doktor. – Men bu zot hamkasb ekanini bilmagan ekanman-da. Umid qilamanki, janob komendant, – qoʻshimcha qildi u kulib, – bunga endi rahm-shafqat qilarsiz.

– Xuddi shunday qilamiz, xotirjam boʻling bu zot yangi bir qopga solinadi-da, ogʻzi mahkam tikilib qoʻyiladi. Shunga rozimisiz?

– Hozir, sizning huzuringizda bajo keltiraylikmi bu ishni, janob komendant? – soʻradi nazoratchi.

– Albatta, faqat tez boʻling, kun boʻyi bu zindonda mahalt boʻlib oʻtirishga toqatim yoʻq.

Yana u yoq-bu yoqqa yurishdi, koʻp oʻtmay chiptaning shitirlagani, karavotning gʻijirlagani, ogʻir narsa koʻtargan kishining vazmin qadami eshitildi Dantesga. Soʻng karavot yana gʻijirladi.

– Kechgacha shunday turaversin, – dedi komendant.
– Janoza o‘qiladimi? – so‘radi ofiserlardan biri.
– Buning iloji yo‘q, – javob qildi komendant. – Turmadagi pop bir haftaga javob olib, kecha Gerga jo‘nab ketdi. Men, kelganingizga qadar mahbuslarimiz sog‘-salomat turadi, deb uni ishontirgandim. Bechora abbat bir necha kun sabr qilganida unga juda yaxshilab janoza o‘qishardi.

– Hechqisi yo‘q, – dedi vrach bu kasb egalariiga xos shiddat bilan, – bu xudojo‘ylarning boshqacha xili. Parvardigor uning diniy mansabini hisobga olib, do‘zaxga pop qilib saylamas.

Bu razil hazildan hamma qah-qah urib kulib yubordi.

Ayni bir vaqtda murdani qopga solib qo‘yishgan edi.

– Kechqurun ko‘rishguncha, – dedi komendant.

– Soat nechada? – so‘radi nazoratchi.

– Soat o‘n, o‘n birlarda.

– Murda oldida soqchi qoldiraylikmi?

– Nega? Uni xuddi tirik mahbusdek ustidan qulflab qo‘yavering.

So‘ng oyoq tovushlari uzoqlashdi, ovozlari tina boshladi, yopilayotgan eshik va lo‘kidonlarning shaqir-shuquri eshitildi. Hamma yoqni, hatto Edmonning muzga aylangan yuragini ham yolg‘izlik sukunati emas, o‘lim sukunati qopladi.

Ana shundan so‘ng Dantes boshi bilan tosh taxtani asta-sekin ko‘tardi-da, abbatning kamerasiga sinovchan nazar tashladi.

Kamera bo‘m-bo‘sh, hech kim yo‘q edi. Dantes yer osti yo‘lkadan abbatning yoniga chiqdi.

XX. IF QALBASINING GO‘RISTONI

Derazadan tumanli tongning xira yog‘dusi tushib turgan karavot ustida buklanib yotgan chipta qopda uzun gavda qimir etmay yotibdi. Bu abbatning, turma nazoratchisi aytganidek, arzoniga tushgan kafani edi.

Xullas, hammasi tamomatiga yetdi, Dantes o'z do'stidan judo bo'ldi. Endi u aziz birodarining go'yo u dunyoga nazar tashlamoqchi bo'layotgandek ochilib qolgan ko'zlarini ko'rolmaydi, dunyoning ajoyib tilsimotlari pardasini unga ochib bergan tolmas qo'llarini siqolmaydi. Qadrdon do'sti, rahmdil, tajribali Faria endi uning xotirasida yashaydi. Edmon karavotning bosh tomoniga cho'kdi-da, dard-alam girdobiga g'arq bo'ldi.

Yolg'izman! Yana yolg'iz qoldim! Yana dahshatli sultanat, tutqunlik!

Yana yakka o'zim qoldim! Uning yuragida hayotga muhabbat uyg'otgan yagona kishini endi ko'rishdan, so'zlarini eshitishdan abadiy mahrum bo'ldi. Bunday judolikdan ko'ra Fariaga taqlid qilib, Xudodan ajal so'ragan yaxshi emasmi?

Do'sti rad etgan, o'z-o'zini o'ldirish fikri Faria jasadidida yana Dantesning miyasiga urdi.

– Men ham o'lishning ilojini qilolsam, albatta uning ketidan borgan, unga yana hamroh bo'lib olgan bo'lur edim. Biroq bu yerda qanday qilib o'lish mumkin?.. Topdim, buning yo'li juda oson, – dedi u kulimsirab. – Mana shu yerda qolaman, birinchi bo'lib kim kirsayopishib, tomog'idan xippa bo'g'aman-da, kunini kalta qilaman, ana shunda meni osib o'ldirishadi.

Ammo kuchli bo'ronlar oralig'ida bo'lganidek, kuchli dard-alamlar o'rtasida ham najot yo'li bo'ladi. Dantes sharmanda bo'lib, gunohga botib o'lishdan qo'rqib voz kechdi bu xayoldan va birdan hur yashash ishtiyoqi uning butun vujudini zabt etib oldi.

– O'lish? Yo'q! Aslo yo'q! – xitob qildi u. – Shuncha yil yashab, qanchadan-qancha azob chekib, endilikda jimgina o'lib ketishdan na foyda! O'lish? Axir, bundan bir necha yil ilgari o'z jonimga qasd qilaman deb ahd qilganimda o'lib ketaverishim mumkin edi-ku! Etar! Endi be-rahm taqdir qo'lida qo'g'irchoq bo'lishni istamayman! Aslo! Yashashni, oxirigacha kurashishni istayman, mening baxtimni tortib olishdi, endi men ana shu baxtimni qay-

tarib olish uchun kurashmog'im kerak, ha, kurashmog'im kerak!

O'lishdan oldin, jallodlarimni jazolashim va iloji bo'lsa, ozgina do'stlarimni rag'batlantirishim kerak. Biroq meni bu turmada unutilib yuborishdi, demak, bu yerdan mening ham xuddi Fariaga o'xshab o'ligim chiqadi, xolos.

Dantes shunday dedi-yu, kallasiga to'satdan dahshatli, allaqanday fikr kelgan kishidek to'g'risiga ko'z tikkancha qotib qoldi. U irg'ib turdi-da, boshi aylangan kishiga o'xshab qo'li bilan peshanasini qisdi, xonani gir aylanib chiqib, yana karavot oldida to'xtadi.

– Bu fikrni kim uqtirdi menga? – shivirladi u. – O'zingmi, Tangrim? Bu yerdan faqat o'liklar chiqishi vojib bo'lsa, biz ham ana shu murda o'rnini egallab ola qolamiz.

Dantes shunday dedi-da, xayoliga boshqa hech narsani keltirmaslikka urinib egildi, abbat yasagan pichoq bilan qo'rqinchli qopning iplarini kesdi, murdani chiqarib o'z xonasiga olib bordi va o'z karavotiga yotqizib, o'zi o'ranib yotadigan latta bilan uning kallasini o'radi, ko'rpasini Faria ustiga yopdi, muzdek yuzidan oxirgi marta o'pdi, baqrayib olayib yotgan ko'zlarini yopay deb yana bir marta urinib ko'rdi, nazoratchi kirganida mahbus uxlab yotibdi, deb o'ylasin uchun murdaning yuzini devor tomonga o'girib qo'ydi, so'ng yer osti yo'lkaga tushib, karavotni devorga tortib qo'ydi, abbat kamerasiga qaytib kelgach, yashirib qo'yilgan igna bilan ipni oldi, qop ichida yalang'och jasad yotgandek bo'lsin deb ko'ylagini yechib tashladi, qopga kirib xuddi avvalgi murdadek o'rnashdida, ichidan tikib oldi.

Shu paytda falokat yuz berib, biror kishi kirib qolsa bormi, Dantesning yuragi gupillashini eshitib, sirini fosh qilishi hech gap emasdi.

U sabr qilishi va bu ishlarni kechki tekshirish o'tgandan so'ng bajo keltirishi mumkin edi. Ammo u, komehdant fikridan aynib murdani aytgan muddatidan oldin chiqarib tashlatmasin, deb qo'rqdi. Unda Edmonning oxirgi umidi ham puchga chiqqan bo'lor edi.

Qanday bo'lmasin, xullas, u shunga ahd qildi.

Dantesning rejasi shunday edi:

Go'ristonga borayotganda go'rkovlar qopda tirik odam borligini payqab qolishsa, Dantes, hash-pash deguncha qopni pichoq bilan shartta yorib tashlaydi-da, odamlar sarosimaga tushib qolganidan foydalanib qochadi. Ma'bodo ular uni tutmoqchi bo'lishsa, pichoqni ishga soladi.

Agar ular Dantesni go'ristonga olib borib, go'rga tashlasalar, ko'mgunlaricha indamay turadi, bu ish tunda bajariladi, shu sababli go'rkovlar ketishi bilan u ustidagi yumshoq tuproqni kavlab qochadi. Tuproq unchalik og'ir bo'lmas, deb umid qildi. Bordi-yu tuproq og'irlik qilib, kavlab chiqishga kuchi yetmasa, nafasi bo'g'ilib o'ladi-da, bu azoblardan qutulib qo'ya qoladi.

Dantes kechadan buyon tuz tatigani yo'q, biroq ochlik, tashnalik sezmedi, endi esa ovqat esiga ham kelmasdi. U hozir nihoyatda xavfli holatga tushib qolib, hech nima ko'ngliga sig'mas, hech narsani xayoliga keltirmasdi.

Uni xavfga solayotgan narsa shu ediki, nazoratchi kechqurun soat yettida kechki ovqat keltirganda mahbus almashtirilganini bilib qolishi mumkin edi. Ammo Dantes ko'pincha zerikkanidan yoki charchaganidan kechki ovqat keltirilganda devorga qarab yotar, nazoratchi esa odatdagidek ovqatni va nonni stol ustiga qo'yib, churq etmay chiqib ketardi.

Lekin bu gal nazoratchi odatini tark etib, Dantesga gap qotishi, u javob bermagach, karavot yoniga borib sirni fosh qilishi mumkin.

Soat yettiga yaqinlashgan sari Dantesning vahimasi kuchaya bordi. Qinidan chiqib ketayotgan yuragini tinchitish uchun qo'lini ko'ksiga bosar, ikkinchi qo'li bilan betidagi munchoq-munchoq oqayotgan terni artardi. Ba'zan uning butun vujudini titroq bosib, yuragi to'xtab qalayotgandek tuyulardi. Ammo vaqt o'tsa-da, turmada jimjitlik hukm surdi, demak, birinchi xavf-xatar o'tib ketdi. Bu yaxshilik alomati edi. Pirovardida komendant belgila-

gan soatda oyoq tovushlari eshitildi. Edmon uzoq kutgan daqiqa kelganini angladi, u butun kuch-irodasini to'plab, nafas chiqarmay yotdi, yuragining urishini to'xtatolmaganidan qattiq koyidi ichida.

Qadamlar eshik oldida to'xtadi. Dantes ikki juft oyoq tovushi eshitalayotganini angladi: demak, uni olib ketish uchun ikki go'rkov kelayotgan bo'lsa kerak. Ha, xuddi shunday, ana ikkisi yerga dukillatib zambil qo'yishdi.

Eshik ochildi. Dantes karavot yoniga ikki odam soyasi kelganini ko'rdi. Uchinchisi eshik oldida fonus tutib qoldi. Go'rkovlar qopning ikki tomonidan ushlab ko'tarib ko'rishdi.

– Qoq suyak chol edi-yu, og'irligini qara-ya, – dedi go'rkovlardan biri Dantesni bosh tomonidan ko'tarayotib.

– Aytishlariga qaraganda, har yil kishi suyaklari yarim qadoqdan og'irlashib borarmish, – dedi ikkinchisi Dantesni oyog'i tomonidan ko'tarayotib.

– Tugunni tayyorlab qo'yingmi? – so'radi birinchisi.

– Ortiqcha yukning nima keragi bor, – javob qildi ikkinchisi, – o'sha yerda tayyorlayman.

– Bu gaping to'g'ri, qani, ketdik.

«Tuguni nimasi ekan tag'in?» o'yladi Dantes. Soxta o'likni karavotdan zambil tomonga olib borishdi. Edmon qotib qolgan gavdaga o'xshash uchun tomirlarini tarang qilib boraverdi. Uni zambilga solib soqchi tutib turgan fonus yog'dusida zinapoyadan ko'tarib chiqa boshlashdi.

Birdan dimog'iga tunning toza havosi urganini his etdi Dantes. Yillab sassiq havoda aziyat chekkan taniga bu toza havo orom bag'ishladi.

Go'rkovlar yigirma qadamcha yurib to'xtashdi-da, zambilni yerga qo'yishdi. Biri nariroqqa bordi va Dantes uning tosh taxtalar ustida qadam tashlayotganini eshitdi. «Qaerga olib kelishdi meni?» o'yladi Edmon.

– Juda og'ir-a, sezyapsanmi? – dedi Dantesning oldida qolgan go'rkov zambilning chetiga o'tirib.

Shu on Dantes shartta qopni yorib chiqmoqchi bo'ldi,

biroq shashtidan qaytdi.

– Hoy, betamiz, chiroq tutsang-chi axir, bu zimistonda hech nima topolmayapman, – dedi nari ketgan go'rkov.

Fonus ko'targan kishi buyruq juda qo'pollik bilan aytilgan bo'lsa-da, uzr so'rab chiroq tutdi.

«U nimani axtaryapti? – o'yladi Dantes. – Belkurak bo'lsa kerak».

Go'rkovning quvonchli ovozidan axtarganini topgani ma'lum bo'lib turardi.

– Xayriyat, topdi, – dedi ikkinchisi.

– Bu endi qayoqqayam shoshilardi? – dedi birinchisi.

Shunday dedi-da, Edmon oldiga qandaydir og'ir bir nar-sani taq etkazib tashladi. Shu zahoti uning oyoqlarini qattiq og'ritib chandib bog'lashdi.

– Bog'lab bo'ldingmi? – so'radi ikkinchi go'rkov.

– Juda boplab bog'ladim! – javob qildi boshqasi.

– Qani, ketdik!

3ambilni ko'tarib jo'nashdi.

Ellik qadamcha yo'l bosishdi, so'ng to'xtab qandaydir darvozani ochishdi-da, yana yurib ketishdi. Dantes qal'a tagida qoya qirg'oqlariga urilayotgan to'lqinlar shov-shu-vini eshitdi.

– Osmonning qovog'ini solib olganini qara-ya! – dedi go'rkovlardan biri, – bunday zimiston tunda dengizda yurish jonga jabr!

– To'g'ri gaping! Bu sho'rlik abbat ivib qolmasa, dey-man, – dedi narigisi.

Ikkisi qah-qah urib kuldi.

Dantes hazil gaplarga tushunmay, sochlari tik bo'lib ketdi.

– Mana, yetib keldik, – dedi birinchi go'rkov.

– Sal nariroqda, sal narida, – dedi e'tiroz bildirib ikkin-chisi, – o'tgan safar irg'itganimizda joyiga borib tushmay, toshga tegib abjag'i chiqqanini unutilib qo'ydingmi. Ko-mendant ertanisi bizni dangasalar, deb so'kkan edi o'shanda.

Ular yana besh-olti qadam bosib, yuqori ko'tarilishdi.

So'ng Dantes uni boshi va oyog'idan ushlab silkitayotganlarini sezdi.

– Bir! – dedi go'rkov.

– Ikki!

– Uch!

Shu daqiqa Dantes uni bepoyon bo'shliqqa otib yuborganlarini, u xuddi yarador qush kabi havoni kesib tushayotganini sezdi-da, butun vujudi muzlab ketdi. Allaqanday og'ir narsa uni pastga tortib borayotgan bo'lsa-da, bu uchishning oxiri yo'qdek sezilardi unga. Oxiri, u «shalop» etib muzdek suvga tushdi. Edmon qichqirib yubormoqchi bo'lgan edi, biroq og'ziga suv tiqilib dami chiqmay qoldi.

Dantesni olib kelib dengizga tashlashdi, uning oyog'iga bog'lab qo'yilgan o'ttiz olti qadoqli yadro mahbusni dengiz tagiga torta ketdi.

Dengiz – If qal'asining go'ristoni edi...

XXI. TIBULEN OROLI

Dantes, quloqlari bitib, nafasi bo'g'ilib ketgan bo'lsa-da, damini ichida saqlab turdi, o'ng qo'lida taxt qilib turgan pichoq bilan bir zumda qopni yorib, avval qo'lini, so'ng boshini chiqardi. U zo'r berib yadroni ko'tarmoqchi bo'ldi, ammo kuchi yetmadi, yadro pastga tortib ketaverdi. So'ng oyog'iga bog'lab qo'yilgan arqonni topib, kesib tashladi-da, deysinib suv yuziga chiqib oldi, yadro esa naq bo'lmasa uning kafaniga aylanib qolgan bo'sh qopni dengiz tagiga tortib ketdi.

Dantes bir martagina nafasini rostlab oldi-da, meni ko'rib qolmasinlar tag'in, deb yana suv tagiga sho'ng'idi.

Otib yuborilgan yerdan ellik qadam nariga borib yana suv yuziga chiqdi-da, osmonga qaradi. Tepada momaqaldiroq jarchisi – o'rkach-o'rkach bulutlar sayr etib yurar, ular orasida charog'on yulduzlar piri-pirab ko'rinar, pastda esa zimiston va to'fonli bo'shliq yastanib yotar, orqada dengizdan ham, osmondan ham qora qal'a tosh devorlari

dev kabi qad ko'tarib turardi, uning tepasidagi ikki nayza xuddi qochib ketayotgan mahbusni tutib olish uchun uzatilayotgan qo'lga o'xshardi. Eng baland qoya ustida – fonus yog'dusida ikki odamning qorasi ko'rinib turardi.

Dantes nazarida ikki odam xavotir olgandek hadeb dengizga egilib qarayotgandek tuyulardi. Bu g'alati go'rkovlar uning qichqirganini eshitib qarayotgandek tuyulardi. Shu sababdan Edmon yana sho'ng'ib suv tagida suza ketdi. Suzishning bu usulini juda yaxshi egallab olgan edi, shunday qilib suzgan paytlarida Faro ko'rfaziga ko'pdan-ko'p muxlislari to'planib, qoyil qolishar va uni Marselning eng o'tkir suzuvchisi, deyishardi.

U ikkinchi marta suv yuziga qalqib chiqqanida fonus g'oyib bo'lgan edi. U atrofiga nazar tashlay boshladi. If qal'asiga eng yaqin orol Ratonno va Pomeg. Ammo bu ikki orolda aholi yashaydi, ular yaqinidagi Dom ham shunday orollardan. Demak, eng xavfsizi Tibulen va Lemer orollari, ikkisi If qal'asidan bir mil narida.

Dantes ana shu orollardan biriga suzib borishga qaror qildi. Biroq bu zimiston tunda uni qanday topib boradi?

Shu payt yulduz kabi miltillab turgan Plane mayagiga Dantesning ko'zi tushdi-yu, o'sha tomonga tikka suza bordi. Shunda Tibulen oroli chap tomonda qolgan bo'lishi kerak. Demak, sal chapga burilsa, u ana shu orolga ro'baro' bo'ladi.

Lekin hali aytganimizdek, If qal'asi bilan bu orol o'rtasidagi masofa to'la bir mil.

Turmada Faria Edmonga quyidagi nasihatini bir necha marta takrorlagan edi: «Eng xavfli narsa harakatsizlik, hafsalasizlik. Tinmay mashq qilib kuchingizga kuch qo'shib, o'zingizni o'zingiz chiniqtirmasangiz, qochayotganda halok bo'lishingiz hech gap emas».

Mana hozir dengizning dahshatli quchog'ida Dantes cholning ana shu nasihatini esladi. U darhol suvning yuziga otilib chiqdi-da, kuchini sinab ko'rish uchun quloch yozib suza boshladi. Majburiy harakatsizlik uning chidami va mahoratiga hecham zarar yetkazmaganiga

ishonch hosil qilib quvondi, yoshligidan o'rgangan suzishda hamon mohir ekanini his etdi.

Buning ustiga qo'rquv, vahima ham uning kuchiga kuch qo'shdi. Dantes to'lqinlarni yorib borayotib, birovlar quvib kelmayotganmikin, deb har bir shubhali shovshuvga quloq solardi, har gal to'lqin yelkasiga ko'tarib chiqqanda u zimistonda biror narsani ko'rishga urinib, atrofga nazar tashlab chiqardi. Boshqalaridan balandroq ko'tarilgan to'lqin uning ko'ziga quvib kelayotgan qayiq bo'lib ko'rinar, shunda u yanada tez suzar, bu esa manzilni yaqinlashtirar, shu bilan birga darmonini ham quritardi.

U tinmay suzar, dahshatli qal'a esa tobora zimistonga cho'mib, ko'zdan yo'qola borardi. Qal'a endi uning ko'zidan g'oyib bo'lgan, ammo hissiyotida hamon saqlanib turardi.

Shu tarzda bir soat vaqt o'tdi, Dantes ko'zlagan manzili tomon suzishda davom etdi. «Suza boshlaganimga bir soat bo'ldi, – dedi u o'z-o'ziga, – shamol ro'baro'dan urib, suzish sur'atini ancha pasaytirib qo'ydi. Lekin adashmagan bo'lsam Tibulen oroli yaqiniga kelib qolgan-dirman. Ammo yo'ldan adashgan bo'lsam-chi? Unda nima bo'ladi?»

Dantesning badani jimirlab ketdi. U bir oz hordiq chiqarish uchun suv betida chalqancha tushib yotdi, biroq dengiz borgan sari to'lqinlana berdi, demak, dam olishning iloji yo'q.

– Nima bo'пти? – dedi u, – kuchim boricha, to tomirlarim tortishib qimir etolmay qolgumicha suzaveraman, shunda ham manzilinga yetolmasam, ilojim qancha! Dengiz yutadi-yu, gumdon qiladi-ketadi-da!

U butun jon-jahdi bilan suzishda davom etdi.

Shu payt uning ko'ziga osmon birdan yana qorong'lashib borayotganday, quyuyq qop-qora bulut ustiga bosib kelayotgandek bo'lib ko'rindi. Uning tizzalari zirqirab og'rib ketdi. U menga o'q tegdi, hozir yana o'q otiladi, deb o'yladi. Ammo o'q tovushi eshitilmadi. Dantes qo'lini

uzatib, qattiq bir narsani ushladi. Oyog'ini bukkani edi, yerga tegdi. Hali bulut deb faraz qilgani tepalik ekanini fahmladi.

Yigirma qadam narida lovillab yonib turgan paytda birdan toshga aylanib qolgan gulxanga o'xshash ajoyib qator qoyalar qad ko'tarib turardi. Bu Tibulen oroli edi. Dantes bir necha qadam yurdi-da, Xudoga ming-ming shukr qilib, metin qoyaga uzala tushib yotib oldi. Shu payt tosh uning nazarida eng yumshoq, hatto ko'rpadan ham yumshoq tuyuldi.

So'ng shamolni, bo'ronni, yomg'irni pisand qilmay, baxtiyor kishi singari qotib uxladi.

Bir soat o'tgach, kuchli momaqaldiroq Edmonni uyg'otib yubordi. Bo'ron kuchayib qanotlari bilan osmonni ham, dengizni ham rosa shartillatib savalay berdi. Chaqmoq cho'g' ilon kabi yonib, to'lqinlarni va bir-birini quvib borayotgan bulutlarni yarqiratib yubordi.

Tajribali dengizchining ko'zlari yanglishmagan edi. Dantes o'zi mo'ljallagan orollardan biriga – Tibulen oroliga chiqib oldi. Bu hecham yashirinadigan joyi yo'q, to'rt tomoni ochiq orol ekanini Dantes bilardi. Ammo u bo'ron to'xtashi bilanoq yana dengizda suzib Tibulenga o'xshasa-da, lekin ancha keng va «mehmondo'st» Lemer oroliga borib olmoqchi edi.

Qad ko'tarib turgan qoya Dantesga vaqtli boshpana bo'lib qoldi. Edmon uning tagiga kirib bekinib oldi. Sal vaqt o'tmay to'fon ko'tarilib hamma yoqni alg'ov-dalg'ov qilib larzaga keltira boshladi.

Tagida Dantes yotgan qoya tebranib-titrar, bu ulkan tepa tagiga urilayotgan to'lqinlardan otilib chiqayotgan tomchilar Edmonning yuziga sachrardi. U xavfsiz pana yerga joylashib olgan bo'lsa-da, dahshatli guldurosalar, ko'zni qamashtiradigan chaqmoqlarda boshi aylanib, quloqlari bitdi, uning nazarida oyog'i ostidagi butun bir orol titrayotgandek va xuddi kema kabi langardan uzilib chiqib uni bahaybat suv girdobiga olib ketayotgandek bo'lardi.

Shu vaqt bir kechayu kunduz hech narsa tatimagani esiga tushdi. Ochlik va tashnalik azob bera boshladi. Dantes egildi-da, hovuchlab yomg'ir suvidan ichdi.

Dantes boshini ko'targanda, yetti qavat osmonni ag'dar-to'ntar qilib tashlagan chaqmoq atrofni sutdek yoritib yubordi. Ana shu nur ichida Lemer oroli bilan Kruavil buruni o'rtasida baliq ovlovchilarning kichkina kemasi-ning sharpasi ko'rindi, uni shamol va to'lqinlar qayoqqadir olib ketayotgan edi. Bir lahza o'tar-o'tmay sharpa juda tez yaqinlashib kela boshladi. Dantes qichqirmoqchi, biror parcha latta topsa, signal berib, halokat qarshisiga ketishayotganini xabar qilmoqchi bo'ldi, biroq kemadagilar bundan o'zlari xabardor edi. Yana chaqmoq chaq-qanda Dantes kemada machtani va shtagalarni mahkam ushlab turgan to'rt kishining qorasini ko'rdi, beshinchisi sinib ketgan rul oldida turardi. Ular ham chamasi Edmonni ko'rishdi, chunki kemadagilarning zo'r berib qichqirishlari shamol shovqini aralash eshitilib turardi Ed-monga. Dabdalasi chiqib ketgan yelkan machta tagida osilib yotibdi, to'satdan kemani ushlab turgan arqonlar uzildi-yu, shamol kemani ilib, zimiston ichiga tortib ketdi.

Shu zahotiy oq qars-qurs etgan ovozlari, uning ketidan cho'kib borayotgan odamlarning dod-faryodi eshitildi. Dantes qoyaga siqilib olib dengiz qa'riga tikilib qoldi, yana momaqaldir oq guldurab, chaqmoq olamni yoritib yubordi, majaqlangan kema, talvasaga tushgan chehralar, osmonga ko'tarilgan qo'llar ko'rindi.

So'ngra chaqmoq o'chishi bilanoq bularning hammasi tun zimistoni ichida yo'q bo'lib ketdi.

Dantes xavf-xatarga qaramay turtinib-sirg'anib pastga yugurdi, u atrofqa qaradi, quloq soldi, biroq hech qanday ovoz eshitilmadi, hech kim ko'rinmadi. Faqat bo'ron hamma yoqni alg'ov-dalg'ov qilib, to'lqinlarni ko'pirtirardi.

Asta-sekin bo'ron tinchib, shamol to'xtadi, momaqaldir oqda rangi o'chib ketgan kulrang bulutlar karvoni g'arbga yo'l oldi, osmon yana lojuvard tus olib, yulduzlar cha-

raqlab ketdi. Ko'p o'tmay sharqdan ufqqa keng shafaq ko'tarildi, yalt etib otilgan nur ichiga botib, oltin tusiga kirdi.

Tong ota boshladi.

Dantes bu ajoyib dabdabali manzaraga, go'yo birinchi marta ko'rgandek, tikildi-yu, mahliyo bo'lib qotib qoldi. Chindan ham If qal'asida yotganida qanday tong otishi, quyoshning dengiz tagidan ko'tarilib chiqishi naqadar ulug'vor, go'zal bo'lishi Dantesning yodidan ko'tarilib ketgan edi. U qal'a tomonga o'girildi-da, yerga va dengizga uzoq tikildi.

Bu posbon va hokim mudhish bino dengiz to'lqinlari orqasida qad ko'tarib, dahshat solib turardi.

Ertalabki soat beshlar edi, dengiz asta-sekin tinchlan-yapti.

«Ikki-uch soatdan so'ng turma soqchilari mening kameramga kirishadi, – dedi o'z-o'ziga Edmon, – sho'rlik do'stimning jasadini ko'rib, meni axtarishadi, topolmay bong urishadi, yer ostidagi yo'lkani topib olishadi, meni dengizga uloqtirgan va ehtimol mening qichqirig'imni eshitgan kishilardan so'rab-surishtirishadi. Qochoq uzoqqa ketolmagan bo'lsa kerak deb, shu zahoti qurol-langan soldatlarni qayiq'larga o'tqazib jo'natishadi. Zam-baraklardan o'q otishib, och-yalang'och darbadarni qaer-da uchratilsa tutib olinsin deb buyruq berishadi. Marsel polisiyasi ham xabardor qilinadi, u hamma qirg'oqlarni o'rab oladi, If qal'asining komendanti esa dengizni titib-tintuvga soladi. Unda nima bo'ladi? Atrofini suv o'rab ol-gan, orolda esa ta'qib ostida qolgan bechora o'zini qayoqqa uradi? Qornim och, sovuq qotib qaltirab ketyapman, suzishga xalaqit beradi deb pichoqni ham tashlab yubordim, birinchi bo'lib uchragan kishi meni tutib berib, yigirma frank ishlab olishi hech gap emas. Menda kuchdan ham, aqlidan ham, jasoratdan ham asar qolgani yo'q! E, Parvardigor! Faqat senga ayon mening dardu alamlarim! Madad ber menga! Nochorman! Madad ber!»

Madori qurib, aqldan ozayotgan Edmon If qal'asiga xavf-xatar-la ko'z tikib shu alangali so'zlar bilan Xudodan madad tilab turgan bir paytda Pomeg oroli yaqinida suvning naq ustida uchib yurgan baliqchi qush kabi kichkina kema ko'rindi. Hamon nim qorong'i dengizda yurgan bu kema Genuya tartanasi ekanini tajribali Edmonning ko'zlarigina ilg'ab olishi mumkin edi. Kema Marsel portidan ochiq dengizga chiqib, tumshug'i bilan suvni yorib kelyapti.

– So'rab-surishtirib kimligimni bilib olishadi-da, Marselga olib borib yana polisiyaga topshirishadi, deb qo'rqib turibman! – dedi o'ksinib Edmon, – bo'lmasa yarim soatda bu kema yetib, tushib olardim. Nima qilsam ekan? Mabodo borgudek bo'lsam, nima deyman? Ularni aldash uchun qanaqa bahona topsam ekan? Bu odamlar chegaradan o'g'rincha mol o'tkazib sotuvchi kontrabandist yoki qaroqchilardir, savdogar niqobida bosqinchilik bilan shug'ullanishadi muttahamlar, yaxshilik kutib bo'lmaydi ulardan, meni darhol tutib pul ishlash payida bo'lishadi.

Yaxshisi, sabr qilayin...

Ammo sabr qilish mumkin emas, ochdan o'lib bora-yotibman, bir necha soat o'tgach, butunlay holdan toyib adoyi-tamom bo'laman, buning ustiga turmada kameralarni tekshirish soati ham yaqinlashib kelyapti, hali bong urganlaricha yo'q, ehtimol kemadagilar mendan shubhalanmaslar, tunda halok bo'lgan kemaning matrosiman deyishim mumkin, bunga ishonadilar, gapim yolg'onligini ochib beradigan hech kimsa yo'q, halok bo'lgan kemaning barcha matroslari cho'kib ketdi. Qani, bos olg'a, Edmon!..

Dantes kichkina kema halok bo'lgan joyga qaradi-da, seskanib ketdi. Qoya ustidagi do'ngda cho'kib ketgan matroslardan birining qalpog'i osilib turibdi, uning yonida kema siniqlari, yo'g'on-yo'g'on xodalar orol chetiga urilib, suv to'lqinlari ustida qalqib yuribdi.

Dantes oxirgi shubhani ham uloqtirib tashladi-da, hali-

gi qalpoq yoniga suzib bordi, uni boshiga kiyib olib, xodalardan birini tutdi va kema tomon yo'l oldi.

– Endi qutuldim, – shivirladi u.

Bu ishonch unga kuch-quvvat ato etdi. Sal vaqt o'tmay u If qal'asi bilan Klane minorasi o'rtasida goh u yoq, goh bu yoqqa burilib shamol qarshisiga suzib borayotgan kemani ko'rdi. Dastlab Dantes kema qirg'oqqa yaqinlashib suzmay, dengizning o'rtasiga chiqib, Korsika va Sardiniya tomon jo'nab qoladimi hali deb qo'rqqan edi. Biroq kemanding yurishidan, u Italiyaga boradigan kemalar kabi, Jaros va Kalasaren orollari oralig'idan o'tib ketishga tayyorlanayotganini fahmlab oldi.

Shu orada kema bilan Dantes tobora bir-biriga yaqinlashib kelaverdi. Kema shamolga qarab bir harakat qilgan edi, Dantesdan chorak mil yaqinga kelib qoldi. Edmon boshini ko'tarib, qalpog'i bilan signal bera boshladi, ammo uni kemadagilardan hech kim ko'rmadi. Kema yo'lini o'zgartirib tikka suza ketdi. Dantes qichqirmoqchi bo'ldi-yu, biroq ko'zi bilan masofani o'lchab, tovushi yetib bormasligini, shamol va to'lqinlar shovqinga g'arq bo'lib ketishini fahmladi.

Shu payt xodani ushlab olganiga ming marta shukr qildi. U shunchalik holdan toygan ediki, agar ana shu xoda bo'lmasa kemaga yetib olishi yoki kema ko'rmay o'tib ketgundek bo'lsa, qirg'oqqa qaytib kela olishi amri mahol edi.

Kemanding qaysi tomonga suzayotganini yaxshi bilib olgan bo'lsa-da, Dantes tashvishlanib undan ko'zini uzmas, u yana Edmon tomonga burilganidan so'nggina ko'ngli tinchidi.

Dantes kemanding yo'lga chiqdi, ammo yaqinlashganda kema yana boshqa yoqqa burildi.

Dantes bor kuchini yig'ib suv ustiga ko'tarildi-da, shapkasini ko'tarib, xuddi cho'kayotgan odamdek dod-voy solib qichqirdi. Bu gal uni ko'rib, ovozini eshitishdi. Kema yo'lini o'zgartirib Edmon tomonga burildi. Ayni vaqtda, kemadagilar suvga qayiq tushirishga tayyorlana boshladilar.

Bir daqiqa o'tar-o'tmas ikki eshkakchi tushgan qayiq Dantes tomon suzdi. Shundan keyin Edmon endi keragi yo'q deb xodani qo'yib yubordi-da, qayiq tomon tez suzib ketdi. Ammo u holdan toyganini unutib qo'ygan edi, xodani qo'yib yuborganiga ming pushaymon yedi, qo'llari uvishib, oyoqlari harakatdan qola boshladi, nafasi tomo-g'iga tiqildi.

U yana qichqirdi, eshkakchilar harakatni kuchaytirish-di, ulardan biri italyan tilida Dantesga qarab qichqirdi:

– Bo'shashma!

Bemajol Dantes bu ovozni to'lqin girdobiga olib, ko'pi-gi bilan ko'mib tashlagan paytda eshitdi. U suvda sha-loplab, yuzaga otilib chiqdi-da, xuddi oyog'idan hamon yadro tortib ketayotganday yana uchinchi marta qichqirdi.

Dengiz uni tortib, ko'mib ketdi, suv tagidan osmon qop-qora dog'lar ichida bo'zarib ko'rindi uning ko'ziga.

U yana haddan tashqari zo'r berib suv yuziga qalqib chiqdi, sochidan biron tortayotganday tuyuldi, shundan keyin hech nimani ko'rmadi, hech narsani eshitmadi. U hushidan ketib qolgan edi.

Dantes hushiga kelib, ko'zini ochganda suzib borayot-gan kema sahnida uzala tushib yotgan edi. U darhol bo-shini ko'tarib, kemanding qaysi tomonga ketayotganini bilib olmoqchi bo'ldi, kema If qal'asidan yiroqlashib bormoqda edi.

Dantes nihoyatda holdan toygan, madorsiz edi, shu-ning uchun ham uning shodiyona ovozi bemorning ing-rashiga o'xshab chiqdi.

Shunday qilib, Dantes kemada yotibdi. Matroslardan biri uni jun ko'rpa bilan ishqalar, ikkinchisi (boyagi «bo'shashma!» degani) og'ziga suvdonni suqar, kemanding ham xo'jayini, ham komandiri keksa dengizchi esa xud-binlarcha achinib tikilib turardi. Baxtsizlik kechagina chetlab o'tib ketgan bo'lsa-da, biroq ertaga lop etib ro'ba-ro'sidan chiqishi mumkin bo'lgan kishilar baxtsizlikka uchraganlarga ana shunday nazar tashlaydilar.

Suvdondan bir necha bor tomizilgan rom Dantesga

ancha quvvat berdi. Oldida tiz cho'kib olgan matrosning ishqalashlari esa Edmonning uvushib, qotib qolgan tanasiga jon kiritdi.

– Kimsiz? – so'radi kema xo'jayini fransuz tilini buzib gapirib.

– Malta matrosiman, – dedi Dantes italyan tilini buzib gapirib. – Sirakuzdan vino va mato yuklab kelayotgan edik. Kecha Morjion buruniga yaqinlashganimizda to'fon ko'tarilib, kemamizni huv anavi qoyaga olib borib urib, majaqlab tashladi.

– Siz qaerdan suzib keldingiz?

– Men qoyaga mahkam yopishib oldim, bechora kapitanimiz kallasi bilan urilib halok bo'ldi. Qolgan uch kishi cho'kib ketdi. Faqat bir o'zim tirik qolgan bo'lsam kerak, sizning kemangizni ko'rdimu, bu inson yashamaydigan orolda uzoq qolib ketishdan qo'rqib, kemamizdan qolgan xodada siz tomonga suzib keldim. Sizdan nihoyatda minnatdorman, – so'zini davom ettirdi Dantes, – siz meni o'limdan qutqarib qoldingiz. Matroselingizdan biri sochimdan ushlab tortmaganda, men cho'kib, halok bo'lar edim.

– Sochingizdan tortgan men edim, – dedi ochiq chehrali, yulduzi issiq bir matros, – siz cho'kib ketayotgan edingiz, o'sha daqiqada men boshqa iloj topolmadim.

– To'g'ri, – dedi Dantes unga qo'lini uzatib, – juda to'g'ri, minnatdorman sizdan, do'stim.

– Rostini aytsam, – dedi matros, – sochlaringiz alvastinikiga o'xshab o'sib ketganini ko'rib qaroqchi deb o'yladim sizni.

Dantes If qal'asida qamoqqa olinganidan boshlab hozirgacha biror marta sochini, soqol-mo'ylovini oldirmagan edi.

– To'g'ri, – dedi u, – xavfli daqiqada soch-soqolimni o'n yil qirdirmayman deb momo Pe de la Grottaga va'da bergan edim. Bugun o'sha va'damning muddati tugadi, men naq bo'lmasa shu tantanali kunda cho'kib ketayozdim.

- Xo’sh, endi sizni nima qilaylik? – so’radi xo’jayin.
- Istaganingizni qilavering, – dedi Dantes, – men xizmat qilib yurgan kema halok bo’ldi, kapitanim cho’kib ketdi, men esa mana, qutulib qip-yalang’och qoldim. Baxtinga ancha durust matrosman, birinchi to’xtagan portga meni tushirib yuboring, har qanday savdo kemasidan ish topib olaman.
- O’rta yer dengizini yaxshi bilasizmi?
- Bu yerda bolaligimdan buyon suzaman.
- Kemalarning to’xtashi uchun qulay joylarni bilasizmi?
- Men kirib-chiqmagan port bu dengiz qirg’oqlarida qolmagan bo’lsa kerak. Hammasiga ko’zimni bog’lab ham kirib chiqaveraman.
- Xo’jayin, – dedi boya «Bo’shashma!» degan matros gap qotib, – bu o’rtoq rost gapirayotgan bo’lsa, o’zimizda qolaversa bo’lmaydimi?
- Agar rost gapirayotgan bo’lsa, – javob qildi xo’jayin gumonsirab, – har kim ham bu sho’rlikning kuniga tushsa qop-qop va’da beraveradi, ammo ishga kelganda bilgani qiladi.
- Men va’damdagidan ko’proq ishlab beraman, – dedi Dantes.
- Obbo! – dedi xo’jayin kulib. – Qani, ko’ramiz.
- Marhamat qilib ko’ravering, – dedi Dantes o’rnidan turayotib, – qayoqqa borayotgan edingiz?
- Livornoga.
- Shunday ekan, u yoqqa-bu yoqqa burilib, vaqtni behuda o’tkazgandan ko’ra, shamol yurgan tomonga suzib borsangiz qulay emasmi?
- Unda biz Rionga to’qnash kelib qolamiz.
- Unday emas, Rion qirq metr narida qoladi.
- Shunday ekan, rulga o’zingiz o’ta qoling, – dedi xo’jayin, – ko’ramiz, uddalay olishingizni.
- Edmon rumpel oldiga o’tirib, kema rulga yaxshi itoat qilish yoki qilmasligini bilish uchun uni sal bosib sinab ko’rdi, so’ng kema har qalay itoat qilayotganini ko’rib,

buyruq berdi:

– Hamma o‘z joyida tursin!

Ekipajdagi to‘rt matros to‘rt tomonga yugurib ketdi. Xo‘jayini esa hammani ko‘zdan kechirib turardi.

– Braslar mahkam o‘ralsin! Bulinyalar tutilsin! – davom etdi Dantes.

Matroslar buyruqni nihoyatda epchillik bilan bajo keltirishdi.

– Endi, bursin!

Bu buyruq ham ilgariyidek chaqqon bajarildi. So‘ng kema to‘ppa-to‘g‘ri Rion oroli tomon yo‘l oldi-da, Dantes oldindan aytganidek, uni o‘ng tomonda qirq metrcha narida qoldirib o‘tib ketdi.

– Ofarin! – dedi xo‘jayin.

– Ofarin! – takrorladi matroslar.

Kemadagilar qarashlarida aql, tanida kuch hosil bo‘lgan Dantesga taajjublanib tikilgan edi.

– Mana, ko‘rdingizmi, – dedi Dantes rulni qoldirib, – men sizga har qalay mana shu safaringiz vaqtida yordam berishim mumkin. Agar Livornada keragim bo‘lmay qolsa, u yerda qoldirib ketavering, bergan ovqatingiz va kiyimingizning haqini birinchi oyligimdanoq to‘layman.

– Bo‘pti, – dedi xo‘jayin. – Bunisini bir gap qilarmiz, mabodo siz ortiqcha talab qilmasangiz.

– Hamma matrosning haqi bab-baravar bo‘ladi, – dedi Dantes. – O‘rtoqlarga qancha to‘layotgan bo‘lsangiz, menga ham shuncha to‘lay bering.

– Bu adolatsizlik bo‘ladi, – dedi Edmonni suvdan olib chiqqan matros, – siz bizdan ko‘proq bilasiz-ku.

– Djakopo, sening bunga nima dahling bor? – dedi xo‘jayin. – Har kim o‘zi istaganicha haq olib ishlashi mumkin.

– Bu ham to‘g‘ri, – dedi Djakopo, – men shunchaki aytdim- qo‘ydim-da.

– Yaxshisi, ortiqcha kamzuling va ishtoning bo‘lsa qarzga ber bunga.

– Ortiqcha kamzulim yo‘q, – dedi javoban Djakopo, – ko‘ylak-ishton bor.

– Menga keragi ham ana shu ko'ylak bilan ishton, – dedi Dantes. – Rahmat, do'stim.

Djakopo yotog'iga tushib bir zum o'tmay kiyim olib chiqdi. Dantes benihoya xursand bo'lib kiyib oldi.

– Yana nima kerak sizga? – so'radi xo'jayin.

– Bir burda non, men hali tatib ko'rgan ajoyib romingizdan yana bir qultum bo'lsa bas, men ko'pdan buyon hech nima yeganim yo'q.

Chindan ham Edmon ikki kecha-kunduz mobaynida tuz tatigani yo'q edi.

Dantesga bir burda non keltirib berishdi. Djakopo esa suvdonni tutdi.

– Rul chapga burilsin! – deb qichqirdi kapitan ruldagi matrosga.

Dantes suvdonni lablariga endi olib borayotganda, birdan toshdek qotib qoldi.

– Uni qarang, – dedi xo'jayin, – If qal'asida biror hodi-sa yuz berganmikin?

If qal'asining janubiy istehkomi ustida oq tutun ko'tarildi.

Lahza o'tmay zambarak ovozi eshitildi.

Matroslar boshini ko'tarib bir-biriga qarashdi.

– Bu nimasi? – so'radi xo'jayin.

– Ehtimol bu kecha birorta mahbus qochgandir, – dedi Dantes, – shunga bong urib g'avg'o ko'tarishyapti.

Kema xo'jayini suvdonni lablariga olib borayotgan yot yigitga tikilib qarab qo'ydi. Ammo Dantes romni shunday xotirjam ichdiki, kema xo'jayinida paydo bo'lgan jindak shubha bir zumda izsiz yo'q bo'ldi ketdi.

– Zap o'tkir rom ekanmi! – dedi Dantes peshana terini yengi bilan artib.

– Mabodo qochgan mahbus shu bo'lsa, – dedi to'ng'il-lab Dantesga tikilib turgan xo'jayin, – juda soz: u mohir, epchil yigit o'lja bo'ldi menga.

Dantes rulni olishga ruxsat so'radi, smenadan shod bo'lgan ruldagi matros xo'jayiniga qaradi, xo'jayin esa unga imo qilib, ber, dedi.

Dantes rulda Marsel tomonga qarab o'tirsa, hech kimda shubha tug'ilmasdi.

If qal'asi ko'zdan g'oyib bo'lgach, Dantes oldiga kelgan Djakopodan so'radi:

– Bugun oyning nechanchi kuni?

– Yigirma sakkizinchi fevral, – javob berdi matros.

– Qaysi yilning fevrali? – so'radi Dantes.

– Qaysi yilning bo'lardi. Siz qaysi yilning fevrali deb so'rayapsizmi?

– Ha, – dedi Dantes, – men qaysi yil deb so'rayapman.

– Qaysi yilda yashayotganimizni unutib qo'ydingizmi?

– Shunday! – dedi Dantes kulib. – Shu kechasi juda qattiq qo'rqib, aqldan ozayozdim, esimni tamoman yo'qotib qo'ydim. Shuning uchun qaysi yilning yigirma sakkizinchi fevrali deb so'rayapman.

– Bir ming sakkiz yuz yigirma to'qqizinchi yilning, – dedi Djakopo.

Dantesning qamoqqa tushganiga rosa o'n to'rt yil bo'пти. U If qal'asining ostonasiga o'n to'qqiz yoshida qadam qo'ygan edi, undan o'ttiz uch yoshida chiqdi.

U g'amgin iljayib qo'ydi. Edmon Mercedesning holi nechuk ekan, deb o'ziga savol berdi shu on. Mercedes uni o'lgan, deb o'ylagandir.

So'ng ko'zlarida nafrat, g'azab o'tlari yondi. Edmon uni uzoq zindon azobiga duchor qilgan uch ablahni esga oldi.

Bir gal turmada qasam ichganidek Dantes yana Danglardan, Fernandan va Vilfordan shafqatsiz o'ch olishga ont ichdi.

Hozirgi qasam quruq po'pisa emasdi, chunki hamma yelkanlarini keng yozib Livornoga uchib borayotgan kichkina kemachani endi O'rta yer dengizining eng tezyurar yelkanli kemasi ham quvib yetolmasdi.

Ўзбекистон
Қисм



1. KONTRABANDISTLAR

Dantes bir kun o'tmay kemadagilar qanday odamlar ekanini bilib olgandi. «Yosh Ameliya» (Genez kemachasining nomi)ning munosib xo'jayini abbat Fariadan saboq olmagan bo'lsa-da, O'rta yer dengizi deb ataladigan poyoni yo'q ko'l qirg'oqlarida yashovchi hamma xalqlar tilida – arabchadan tortib to provansal tiligacha gaplasha olar edi. Bu uni diqqinapas, havosi baland tarjimonlardan qutqargan, safarda uchraydigan kemalar va mayda qirg'oq kemachalari bilan aloqasini osonlashtirgan, dengiz portlarida bekasb, bemakon, bepul, ammo sirli sarmoya hisobiga kun kechirib yuradigan daydilar bilan til topishini qulaylashtirgan edi. Xullas, Dantes kontrabandistlar qo'liga tushib qolganini o'quvchi fahmlab olgan bo'lsa kerak.

Xo'jayin boshda Dantesdan xavfsiragan edi. Bu kontrabandist qirg'oqlardagi boj soqchilariga otning qashqasidek taniqli edi, soqchilar va kema xo'jayini bir-birini aldash uchun ming turli hiyla-nayranglar ishlatib kelishdi. Shu sababli boshda xo'jayin Dantesni shu yo'l bilan mening sirlarimni bilib olmoqchi bo'lgan boj idorasining xodimi deb o'ylagan edi. Biroq Dantes rulni qattiq shamol tomonga burib, sinovdan o'tgach, xo'jayin xotirjam bo'ldi. So'ngra u If qal'asi istehkomi ustida tutun ko'tarilganini ko'rgach va to'p ovozi eshitgach, uning miyasida qochgan mahbuslardan biri emasmikin bu, degan fikr tug'ildi. To'g'risi, bu boj xodimidan xavfsizroq edi kontrabandist uchun. Lekin bu ikkinchi gumon ham Dantesning hech pisand qilmay ishlayotganini ko'rgach, puchga chiqdi.

Xullas, Edmon yangi xo'jayini qanday ekanini bilib olgan edi, ammo xo'jayini esa yangi matrosi kimligini bilmasdi. Dantes mana shu jihatdan xo'jayinidan ustun edi. Keksa dengizchi va o'rtoqlari qanchalik so'rab-surishtirishmasin, Dantes hech sir bermay, nuqul Neapol va Malta to'g'risida uzundan-uzoq gap sotar, hamma

koʻrgan-bilganlarini birma-bir aytib berardi. Shunday qilib, shumquv genuyalik dengizchi yuvosh, tajribali dengizchi va ayniqsa sir boy bermaydigan Edmon oldida ip esholmay qoldi.

Buning ustiga genuyalik zot ehtimol donolik qilib, oʻzi bilishi keragini bilishni va oʻzi uchun manfaatli narsaga ishonishni afzal koʻrgan boʻlsa kerak.

Livornoga yetib kelishganda, ahvol ana shunday edi.

Bu yerda Edmon yana bir sinovdan oʻtishi kerak edi, yangi oʻn toʻrt yillik qamoqdan soʻng u oʻzini taniy oladimi yo yoʻqmi – shuni tekshirib olishi kerak, u yoshligida qanday ekanini juda yaxshi eslaydi, endi esa yoshi oʻtib qolganida qanaqa boʻlib qolganini oʻzi koʻrib bilishi lozim. U oʻrtoqlari oldida bergan vaʼdasining ustidan chiqdi. Livornoda koʻp marta boʻlgan edi va San-Fernando koʻchasida bir sartaroshni tanirdi. Dantes oʻsha sartaroshning uyiga borib, sochini va soqolini qirib tashlashni soʻradi.

Sartarosh uzun soch, paxmoq qora soqolli kishiga taajjublanib tikilib qoldi. U zamonlarda uzun soch va uzun soqol rasm emasdi. Hozir esa tabiat ato etgan bu bezakdan voz kechayotgan kishini koʻrsa sartaroshlar hayratda qolgan boʻlur edilar.

Sartarosh ortiqcha gap sotib oʻtirmay ishga kirishdi.

U ishni tugatgach, Edmon soqollari silliq qilib qirilganini va sochi bir meʼyorga keltirilganini sezdi-da, oyna soʻradi.

Boya aytganimizdek, Dantes oʻttiz uch yoshga kirgan, oʻn toʻrt yillik zindon azobi uning aft-angorini oʻzgartirib yuborgan edi.

If qalʼasi ostonasiga birinchi qadamini tashlaganda, Dantes yuzi naqsh olmadek qizil, xushchaqchaq, navqiron, baxtiyor oʻsmir yigitcha boʻlib, hayot yoʻlidagi birinchi qadamlarni osongina tashlagan va kelajakdan umidvor edi. Endilikda ulardan asar ham qolmadi.

Yuzi ancha choʻzilib ketibdi, hamisha jilmayib turadigan ogʻzi jiddiylashib qolibdi, qoshlari qayrilibdi, mang-

layida ajinlar tizilibdi, chuqur g'ussa yashiringan ko'zlari ba'zan nafrat o'ti bilan yonib turadi, uzoq yillar yorug'lik va quyosh nuridan bahra ololmay kelgan yuzlarida jilodan iz ham qolmagandi, bularning ustiga orttirgan bilimi chehrasiga donolik, oqillik va dadillik belgilari ato etibdi. Tabiat aslida uni bo'ydan kamsitmagan bo'lsa-da, qomati asta-sekin kuchga to'lib borib, chayir bo'lib qolibdi.

Bejirim, chaqqon jussa o'rnida yumaloq muskullari bo'liq qomat paydo bo'libdi. Nolalar, yig'ilar, la'nat o'qib fig'on urishlar ovozini ham mutlaqo o'zgartirib yuboribdi, endi u goh nozik, goh qo'pol, goh bo'g'iq ovoz chiqarib gapirardi.

Hamisha nim qorong'i yoki zimistonga tikilib kelgan ko'zlari endilikda, sirtlon yoki bo'ri ko'zi kabi tunda ham ko'rish, tanish qobiliyatiga ega bo'libdi.

Edmon oynada o'zini ko'rib, kuldi, eng yaqin do'sti ham (mabodo do'stlaridan birortasi tirik qolgan bo'lsa) hozir uni tanimasdi, o'zi ham o'zini tanimadi.

«Yosh Ameliya»ning xo'jayini Edmonday matrosni o'z kemasida olib qolishni juda istardi, shuning uchun u kelajakdagi foydadan, tegadigan ulushi ustidan bir oz beray, dedi. Edmon rozi bo'ldi. Edmon uni tamom boshqa tusga kiritib qo'ygan sartarosh oldidan chiqdi-da, dastavval magazinga kirib, to'la matros kiyimini sotib oldi. Bu kostyum juda oddiy bo'lib, oq cholvor, ola-bula issiq ko'ylak va qalpoqdan iborat edi.

Edmon kemachaga keldi-da, Djakopoga ko'ylak-ishtonni qaytarib berdi va «Yosh Ameliya» kapitani huzuriga kirib, yana tarixini hikoya qilib berishga majbur bo'ldi. Kapitan paxmoq soqol, alvasti soch, ivib tartanaga qip-yalang'och chiqqan chalajon kishining go'zal matros bo'lib ketganini ko'rib, ko'ziga ishonmay hayron bo'ldi.

Kelishgan qaddi-qomatiga maftun bo'ldi-da, Dantesni xizmat qilishga taklif etdi. Ammo boshqa rejalar chizib qo'ygan Dantes, «Yosh Ameliya»da faqat uch oy xizmat qilishga rozilik berdi.

«Yosh Ameliya»ning ekipajidagi odamlar harakatchan,

uning kapitani vaqtini behuda o'tkazmaydigan komandir edi. Bir hafta o'tar-o'tmay kemaning tagxonlari doklar, yupqa gazlama, xorijga chiqarish taqiqlangan chitlar, ingliz o'q-dorisi va boshqa ruxsatsiz mollar bilan to'ldi. Bularning hammasini Livornodan Korsika qirg'oqlariga olib borib tushirish kerak, u yerda qandaydir korchalonlar bu yuklarni Fransiyaga yetkazib berishni gardaniga olgan.

Shu zaylda tartana yo'lga chiqdi. Edmon yana beshigi bo'lib allalagan va qamoqda tez-tez tushiga kirgan dengiz qirg'og'iga otildi. U Gorgonani o'ngda, Pianozani chapda qoldirib, Paoli va Napoleon vataniga qarab yurdi.

Ertanisi kapitan odati bo'yicha ertalab kema sahniga chiqqanda Dantes bortga tirsagini tiragancha qoya toshlar tizmasiga qattiq ko'z tutgan edi. Uning qarashlari juda g'alati edi; u nimaga bunchalik ko'z tikyapti ekan, deb o'yladi kapitan. Edmon suqlanib tikilayotgan qirg'oq Monte-Kristo oroli edi.

«Yosh Ameliya» orolni chorak kam bir mil narida – o'ng tomonda qoldirib o'tib ketdi va Korsikaga safarini davom ettirdi.

Nomi uning uchun aziz orol yonidan o'tayotganda Dantes, dengizga iring'ib tushsam bas, yarim soat o'tar-o'tmay o'sha va'da qilingan yerda bo'lardim, deb o'yladi. Ammo xazinani kavlab olish uchun biror asbobi, o'zini himoya qilish uchun bironta quroli bo'lmay turib, u nima ham qila olardi? Matroslar nima deydi? Kapitan nima deb o'ylashi mumkin? Sabr qilishdan boshqa chora yo'q.

Baxtiga Dantes sabr-toqatli yigit. U o'n to'rt yil ozodlikni kutib sabr qildi. Mana endi ozodlikka chiqqanda xazina yarim yil yoki bir yil kutsa hech nima bo'lmas.

Biroq bu xazina, bu boyluk bo'lmasa ham ozod qilсалar jon demasmidi?

Oltin xazina to'g'risidagi gaplar xom xayol bo'lmasin tag'in? Sho'rlik abbat Farianing aynigan kallasida paydo bo'lgan bu xayol uning ruhi bilan birga uchib ketmadimikin?

Ammo kardinal Spadaning xati juda aniq edi. Dantes

har bir soʻzini esida saqlab qolgan bu xatni fikran takrorlardi.

Kech kirdi. Edmon orolni asta-sekin tun chodiri oʻrab olayotganini koʻrib turdi, koʻp oʻtmay orol koʻzdan gʻoyib boʻldi. Turma xonasida koʻzi qorongʻiga oʻrganib qolgan Edmon, aftidan orolni hamon koʻrib turardi, kema sahnida hammadan keyin turib qolganining boisi ham shu edi.

Ertalab ular Aleriyaga roʻbaroʻ kelishdi. Butun kun boʻyi shu atrofda aylanib yurishdi. Kechqurun qirgʻoq chiroqlari yarqirab yondi, chiroqlarning oʻmashtirilishi, chamasi yuklarni tushirish mumkin, deb koʻrsatma berdi, chunki gafelda bayroq oʻrniga chiroq koʻtarib signal berishdi-yu, ular qirgʻoqqa yaqin kelishdi.

Dantes bu tantanali vaziyat tufayli kapitan «Yosh Ameliya» sahniga ikkita qurol qoʻydirganini koʻrdi. Bu qurollar toʻrt qadoqli oʻqlarni unchalik ovoz chiqarmay bemalol ming qadam joyga ota olardi.

Ammo bu gal ehtiyotkorlikka zarurat yoʻq ekani aniqlandi. Hamma ish tinch va osoyishtalik bilan bajo etildi: toʻrt eshkakli qayiq ohistagina «Ameliya» yoniga keldi, tartana ham, odob yuzasidan shekilli, oʻzining qayiqclarini ham pastga tushirdi. Bu besh qayiqdagilar epchillik bilan ishlab, kechasi soat ikkigacha «Yosh Ameliya»dagi yukning hammasini qirgʻoqqa tushirib olishdi.

«Yosh Ameliya» kapitani tartib-qoidaga mukkasidan tushgan odam, shu sababli foydani shu kechaning oʻzidayoq ekipaj oʻrtasida taqsimlab berdi. Har bir matrosga bir yuz toskan livridan tegdi, bu qariyb sakson frankka teng edi.

Espedisiya bu bilan tamom boʻlgani yoʻq: ular Sardinia tomon yoʻl olishdi. Boʻsh kemaga yana yuk ortish zarur edi.

Bu ikkinchi ish ham birinchisidek silliq bitdi, aftidan, «Yosh Ameliya»ning ishlari oʻngidan keldi, shekilli.

Aksari Gavana sigaralari, xeres va malaga vinolaridan iborat bu yangi yuklar Lukka gersogligiga atalgan edi.

Bu yerda «Yosh Ameliya» kapitanining doimiy dushma-

ni bojxona bilan to'qnashuv yuz berdi. Bir soqchi asfalasofilinga ketdi, ikki matros yarador bo'ldi, bulardan biri Dantes edi, o'q Edmonning chap yelkasiga tegdi, ammo suyakka zarar yetkizmadi.

Dantesni bu to'qnashuv mamnun etdi va o'q tekkani-ga xursand bo'ldi, bu achchiq saboqdan Edmon har qanday xavf-xatardan qo'rqmaslik va har qanday azob-uqubatlarga bardosh berish qobiliyatiga ega ekanini bilib oldi. Xavfni u jilmayib kutib oldi, yarador bo'lganida grek faylasufi singari «Og'riq, sen yovuzlik emassan» dedi.

Buning ustiga u qattiq yarador bo'lgan soqchining o'lim talvasasida yotganini ko'rdi, to'qnashish vaqtida qizishib ketganidanmi yoki hissiyotlari o'tmaslashib qolganidanmi, ishqilib, bu manzarani ko'rib ko'ngli buzilmadi. Dantes o'zi belgilab olgan yo'lga allaqachon tushib olgan va maqsadiga yetish uchun tik qadam tashlab borayotgan edi. Endi uning bag'ri toshga aylangan edi.

Dantesning o'q yeb yiqilganini ko'rgan Djakopo yugurib kelib, uni ko'tarib oldi, keyinchalik uni parvarish qilib, oldidan jilmadi.

Bordi-yu, Djakopo Dantes o'lsa foydadan olgan ulushi menga qoladi deb tama qilmay, Edmon o'lib qoldi deb shu qadar qayg'urgan ekan, demak, dunyo doktor Pangloses o'ylaganidek, shafqatli bo'lmasa-da, Dantes o'ylaganidek, bevafo, bemehr emas ekan.

Baxtimizga Edmon faqat yengil yarador bo'lgan edi. Sardiniya kampirlari faqat o'zlariga ayon sirli kunlar va soatlarda topib keladigan shifobaxsh giyohlar yordamida yara tez bitib ketdi. Shundan keyin Dantes o'rtog'i Djakoponi sinab ko'rmoqchi bo'ldi. U qilgan g'amxo'rligi uchun unga foydadan tekkan o'z ulushini berdi, ammo Djakopo juda xafa bo'ldi va pulni olmadi.

Djakopo birinchi soatlardan oq Edmonni hurmat qilib, unga sodiq do'st bo'lib qoldi, bu o'z navbatida Edmonda ham Djakopoga nisbatan do'stlik tuyg'ularini uyg'otdi. Djakopoga esa bundan boshqa hech narsaning keragi yo'q edi. Edmon boshqalardan ustun ekanini hech yerda, hech

qachon sezdirmaslikka urinsa-da, Djakopo Edmon hozirgi tutgan o'rnidan yuksakroq o'rinda bo'lishi, yuqoriroq mavqeni egallashi kerakligini beixtiyor his etardi. Sodda-dil yigit Dantes u bilan o'z tengidek muomala qilganidan xursand edi.

«Yosh Ameliya» moviy dengiz betida uzoq vaqt tinch suzayotgan va yo'ldosh shamol yelkanlarni shishirgani tufayli rulchidan boshqa hech kimning ishi bo'lmay qolgan paytlarda Edmon, o'z muallimi abbat Fariaga o'xshab, qo'liga dengiz kartasi tutib, Djakopoga dars bera boshlardi. Unga qirg'oqlarning holatini ko'rsatib tushuntirar, kompasni ishlatishni, yulduzlar tuzilishini o'rgatar edi.

Djakopo bir kuni undan:

– Sho'rlik matrosga bularni o'rgatishdan na foyda? – deb so'ragan edi. Edmon javob qildi:

– Kim bilsin? Ehtimol, sen bir kun emas, bir kun kema kapitani bo'lib qolarsan. Axir hamshaharing Bonapart imperator bo'ldi-ku!

Aytmoqchi, Djakopo korsikalik ekanini aytishni unutgan ekanmiz. «Yosh Ameliya» beto'xtov ikki yarim oy suzdi. Ilgarigi mohir, botir dengizchi Edmon, endilikda epchil qirg'oq sanoatchisi ham bo'lib qoldi. Dantes qirg'oqdagi hamma kontrabandistlar bilan aloqani mustahkamladi, barcha mason belgilarini o'rganib oldi, bu qaroqchilar bir-birini mana shu belgilar vositasi bilan qaerda bo'lmasin, tanib oladi.

Dantes o'z oroli Monte-Kristo yonidan yigirma marta o'tib ketdi, lekin biror marta unga tushish imkoniga ega bo'lolmadi.

Shu sababli u quyidagi tadbirni ko'rmoqchi bo'ldi:

«Yosh Ameliya»da xizmat muddati tugagach, o'z hisobiga kichkina qayiqni ijaraga oladi-da (uning bunga qurbi yetadi, chunki xizmat vaqtida bir yuz piastr pul jamg'ardi), biror bahona topib Monte-Kristo oroliga boradi.

U yerda erkin holda xazinani axtaradi.

Albatta u to'la erkin bo'lolmaydi, chunki u yerga olib

borib tashlaganlar ko'z tashlab yurishlari turgan gap. Ammo hayotda ba'zan kishi tavakkal qilishga majbur bo'ladi.

Turma Edmonni ehtiyotkorlikka o'rgatdi, shuning uchun bu ishni xavf-xatarsiz bajarish yo'lini axtardi, biroq bo'lmadi.

Dantes ikkilanib yurgan kunlardan birida, unga juda ishonib qolgan va o'z kemasida qoldirishni istagan kapitani kelib qo'ltig'idan oldi-da, uni odatda livornoning mashhur kontrabandistlari to'planadigan Olo mayxonasiga olib bordi. Savdo bitimlari ham ana shu yerda tuzilardi. Dantes bu dengiz birjasida ikki-uch marta bo'lgan edi. Ikki ming le uzunlikdagi qirg'oqda to'plangan bu dovyuraklarni ko'rib, agar inson mana shu birlashgan yoki tarqoq kuchlarni o'ziga itoat ettirolsa, naqadar zo'r qudratga ega bo'lur edi, deb o'yladi.

Bu gal gap yillik ish ustida borayotgan edi, kemandagi turk gilamlarini, sharq gazmollari va jun matolarini xavfsiz joyga tushirish, so'ng fransuz bozoriga o'tkazish kerak edi.

Mabodo bu ish muvaffaqiyatli chiqsa, katta mukofot – har bir kishiga ellik piastrdan berilardi.

«Yosh Ameliya» xo'jayini yukni Monte-Kristo oroliga tushirishni taklif etdi. Bu orol majoziy ma'noda aytganda, odam oyog'i yetmagan, soldat va boj xodimlaridan xalos, xilvat joy bo'lib, uni savdogarlar va qaroqchilarning xudosi Merkuriy ma'jusiylar Olimpi davrida go'yo atayin dengiz o'rtasiga o'rnatib qo'ygandek edi.

«Monte-Kristo» so'zini eshitganda Dantes quvongani-dan sapchib tushdi, hayajonga tushganini sezdirmaslik uchun u o'rnidan turdi-da, tutun bosib ketgan va dunyodagi barcha tillar frank tiliga qorishtirib yuborilayotgan govoqxonani aylanib chiqdi.

U hamsuhbatlari yoniga qaytib kelganda, yukni Monte-Kristo oroliga tushirishga qaror qilingan edi. Yo'lga er-taga kechasi chiqadigan bo'lishdi.

Bu haqda Edmonning fikrini so'rganlarida u orol ni-

hoyatda xavfsiz joy ekanini va bu foydali ishni aslo keyinga surmay amalga oshirish zarurligini aytdi.

Shunday qilib, reja o'zgarmadi. Ertasi kuni kechqurun yo'lga chiqib, qulay ob-havo va yo'ldosh shamoldan foydalanib, bir kecha-kunduzda orolga yetib olishga ahd qilishdi.

II. MONTE-KRISTO OROLI

Nihoyat, Dantesning ishi o'ngidan keldi (ba'zida taqdir uzoq vaqt jabrlab kelgan kishilarning omadi kelib qoladi), endi u osongina, hech kimni shubhaga solmay niyatiga yetishi mumkin.

Bir kechadan so'ng Dantes uzoq vaqt orzu qilib kelgan safarga otlandi, bir kechadan so'ng!

Bu kecha Dantes o'tkazgan beorom kechalardan biri bo'ldi. Butun tun bo'yi hayotidagi barcha omadi kelgan va kelmagan damlari birin-ketin ko'z oldidan o'tdi, ko'zini yumgan edi, qarshisida kardinal Spadaning devoriga zar bilan yozgan xatlari paydo bo'ldi, jindek mizg'ishi bilan atrofida turli xil ajina-arvohlar girdikapalak bo'lishardi, u go'yo yeri zumrad, devorlari yoqut va olmosdan yasalgan g'orga kirib borayotgandek, marvarid donalari yer osti suvidek tinimsiz tomchilab tushayotgandek bo'lardi...

...Quvonib maftun bo'lgan Edmon cho'ntagini qimmatbaho toshlar bilan to'ldirib oldi, u tashqariga chiqqanda haligi qimmatbaho toshlar oddiy qayroqqa aylanib qoldi. Shundan so'ng hali ko'z oldidan milt etib o'tib ketgan mo'jizador g'orga yana qaytib kirmoqchi bo'ldi, ammo yo'l qiyshayib-buralib ketaverdi-da, Dantes eshikni topolmay qoldi. Arab baliqchisi Ali Bobo g'orning eshigini ochish oldidan aytgan rivoyatlarini esga olaman deb rosa urinsa-da, ish chiqmadi. Dantes endigina o'g'irlab olaman deb turgan xazina ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Yorisha boshlayotgan tong paytida ham Dantes tundagi kabi to'lg'anib yotgan edi. Nihoyat mantiq ustunlik

qilib, miyasidagi g'ira-shira rejalar oydinlashdi.

Kech kirdi, yo'lga chiqish payti ham keldi. Dantes hayajonda ekanini sezdirmaslik imkoniyatiga ega bo'ldi. U asta-sekin o'rtoqlarini o'z amri-itoatiga bo'ysundirib, ularga xuddi kapitandek buyruq bera boshladi. Uning buyruqlari hamisha aniq, ravshan, osonlik bilan bajariladigan buyruqlar bo'lib, o'rtoqlari ularni tezlik bilangina emas, jon-dil bilan bajo keltirishardi.

Keksa dengizchi Edmonga xalaqit bermadi, zero, Dantesning boshqa matroslardan va hatto o'zidan ham ustunligini e'tirof etardi. U bu yosh matros so'zsiz mening vorisim, izdoshim deb hisoblar va qizim bo'lganda Edmonga berib, uni o'zimga kuyov qilib olardim, deb o'ylardi.

Kechqurun soat yettida hamma narsa taxt etildi. Ettidan o'n daqiqa o'tganda, kema chirog'i lop etib yongan mayak oldidan burilayotgan edi.

Dengiz sokin, sharqi-janub tomondan mayin shamol esyapti. Kema Xudo ham o'z mayaklarini yoqib qo'yan samo gumbazi ostida suzib boryapti. Xudoning har bir mayagi ham o'ziga xos bir dunyo!

Dantes, hamma uxlay bersin, rulda o'zim bo'laman, dedi.

Maltalikning (Dantesga shunday nom bergan edilar) bu so'zlariga hech kim e'tiroz bildirmadi va hamma xotirjam bo'lib, yotoqqa kirib ketdi.

Ko'pincha shunday bo'lardi. Yolg'izlikdan to'satdan jamiyat ichiga qaytib kelgan Dantes, ba'zan yolg'izlikni juda qo'msab qolardi. Tim qorong'i tun chodiri ostida bepoyon dengiz bo'ylab yugurib borayotgan va faqat Tangrining nazari tushib turgan kemadagi yolg'izlikdan ham benihoya go'zal, sirli yolg'izlik bo'larmikin?

Ammo o'sha kechasidagi yolg'izlik daqiqalarini Dantes o'y-xayol va yorqin orzu-umidlar bilan o'tkazdi.

Kapitan uyg'onganida «Ameliya» barcha yelkanlarini shamolda hilpiratib uchib borayotgan edi. Kema soatiga ikki yarim mil yo'l bosyapti.

Ufqda Monte-Kristo oroli ko'rindi.

Edmon vaxtani kapitanga topshirdi-da, o'z navbatida borib karavotga otildi. Tuni bilan mijja qoqmaganiga qaramay, bir daqiqa ham ko'z yummedi.

Ikki soat o'tkazib, u yana kema sahniga chiqdi. «Yosh Ameliya» Elba orolini aylanib o'tib, Merechana ro'parasida, ko'm-ko'k Pianoza oroli oldida borayotgan edi. Monte-Kristo orolining yaltiroq cho'qqisi moviy osmonga ko'tarilib turibdi.

Dantes ruldagi matrosga Pianoza orolini o'ng tomonda qoldirib ketish uchun rulni chapga burishni taklif etdi. U shunday qilinsa, yo'l ikki-uch uzelga qisqarar deb hisoblagan edi.

Kech soat beshlarda butun orol kaftdagidek yaqqol ko'rinib turardi. Botib borayotgan quyoshning nuri yoritib turgan oqshom havosida atrofdagi hamma narsalarni ipidan-ignasigacha ko'rib tanib olish mumkin edi.

Edmon rango-rang tovlanib turgan ulkan qoyaga tikiilib qoldi. Uning yuzlariga qon yugurib, lablari qizarib, ko'zlari qamashib ketdi.

O'zining butun bor-yo'g'ini tavakkal deb qimorga tikkan qartaboz ham shu paytda Dantesdek hayajonga tushmasdi.

Tun qora chodirini yoydi. Soat o'nda qirg'oqqa taqalishdi. «Yosh Ameliya» belgilangan joyga birinchi bo'lib keldi.

Dantes o'zini tuta bilishga odatlanib qolganiga qaramay, sabr qilolmadi va qirg'oqqa hammadan oldin irg'ib tushdi. Agar iloji bo'lsa, Brut singari, tappa tashlab yerni o'pib olardi.

3imiston tun. Biroq soat o'n bir deganda tepada oy paydo bo'ldi-da, titrab turgan dengiz yuzini kumushdek yaltiratib yubordi. Oy ko'tarilib, borgan sari uning kumush nurlari bu ikkinchi Pelion qoyalarini sutdek yoritaverdi.

Monte-Kristo «Yosh Ameliya» ekipajiga tanish orol edi, bu yerda u ko'p to'xtardi. Dantes esa sharqqa safar qilganda, bu orolni uzoqdan ko'rardi, ammo biror marta

unga tushmagan edi.

U Djakopodan so'radi:

– Tunni qaerda o'tkazamiz?

– Tartanada-da, – javob qildi matros.

– G'orlarda o'tkazsak durust bo'lmasmikin?

– Qanaqangi g'orlarda?

– Oroldagi g'orlarda-da.

– U yerdagi g'orlarni men ko'rmaganman, – dedi Djakopo.

Dantesning a'zoyi badanidan qora ter chiqib ketdi.

– Hali Monte-Kristoda g'or yo'qmi? – so'radi u.

– Yo'q.

Djakoponing javobi Dantesning boshiga to'qmoq urgandek bo'ldi; so'ng u, ehtimol, g'orlarni qoyalardan o'pirilib tushgan tuproqlar ko'mib qo'ygandir, yoki Spadaning o'zi ehtiyot qilib jo'rttaga yopdirib qo'ygandir, deb o'yladi.

Agar shunday bo'lsa bekilib ketgan teshikni izlab topmoq kerak. Uni tunda izlab topib bo'lmaydi. Shu sababdan Dantes bu ishni ertaga qoldirdi. Buning ustiga qirg'oqdan yarim mil narida dengizdan ish boshlansin deb signal berishdi.

Kechikkan kema, yo'l ochiq deb berilgan signaldan so'ng xotirjam bo'lib, un chiqarmay oppoq kafanga o'ralgan arvoh kabi qirg'oq yonida paydo bo'ldi-da, langar tashladi.

Shu zahoti yukni tushira boshlashdi.

Dantes ham ishga tushdi, biroq uning xayoli butunlay boshqa fikr bilan band edi: u quvonchli damlarni o'ylar va bu haqda o'rtoqlariga hech narsa demasdi, u sir boy bermagan bo'lsa-da, biroq juda ortiqcha gap sotib qo'ydi va endi, o'z xatti-harakatim, so'roqlarim, suqlanib tikilishlarim, tashvishlarim bilan kishilarni shubhaga solib qo'yishim mumkin, deb xavotirlana boshladi. Xayriyatki, o'tmishdagi og'ir mashaqqatli damlar uning chehrasiga g'am-alam dog'larini sepib tashlagan edi, ahyon-ahyondagi quvonch momaqaldiroq vaqtidagi qora bulutlar us-

tida yaraqlab otiladigan yashinga o'xshardi.

Xullas, hech kim Dantesning vajohatida o'zgarish sez-madi, ertalab u tikka-tikka tog'larda sakrab yurgan echki-larni ovlayman deb miltiq, o'q-dori olib yo'lga chiqqan-da, yakka ovga o'ch ekan bu yigit, deb qo'ya qolishdi. Faqat Djakopo birga borishga istak bildirdi. Dantes bu tag'in gumonsiramasin, deb qarshilik ko'rsatmadi. Ammo ular bir necha qadam tashlashga ulgurmagani ham edi, Dantes bitta echki otib yiqitdi-da, Djakopodan buni darhol o'rtoqlar oldiga olib borib, qovurishni va ovqat tayyor bo'lganda, o'q uzib, signal berishni iltimos qildi. Meva qoqilari va mote-pulchan vinolari ziyofatga sho'xlik, quvonch bag'ishlar, dedi.

Dantes goh-goh orqasiga qarab, yo'lida davom etdi. Qoya ustiga chiqib ming fut narida do'stlarini ko'rdi. Djakopo allaqachon yetib borib ovqat tayyorlayotgan edi.

– Ikki soatdan so'ng, – dedi o'z-o'zicha Edmon, – cho'ntagiga ellik piastrdan solib olgan bu badnafs zotlar yana ellik piastri qo'lga kiritish uchun xatarli yo'lga tu-shadilar, so'ngra olti yuz livrdan yig'adilar-da, biror sha-harda beparvolik va g'urur bilan sovuradilar. Men esa hozir ezgu niyatlar bilan yashab, ularning boyligini arziyas bir narsa, qashshoqlik deb mensimay, jirkanyapman. Biroq ertaga hamma orzu-umidlarim puchga chiqqudek bo'lsa, bu zotlarning qashshoqligini buyuk baxt deb hisoblashim ham mumkin. Yo'q, – dedi xitob qilib Edmon, – bunday bo'lmaydi, dono, beayb Faria xato qilishi mumkin emas! Aslo! Bu maxluqlar kabi g'arib, jaholatda hayot kechir-gandan ko'ra, bu dunyo bilan xayrlashgan ming karra yaxshi!

Xullas, bundan uch oy muqaddam faqat ozodlikka chi-qishni orzu qilgan Dantes, endi bu bilan qanoatlanmay boyligni qo'msab qoldi. Dantes aslo odam oyog'i tegmagan jar, o'rlar bo'ylab borib, tasavvuridagi g'orlar bo'lgan joyga yaqinlashdi. U qirg'oq bo'ylab qadam tashlar ekan, hamma mayda-chuyda narsalarni nazardan qochir-masdi. Shu on ba'zi tepaliklarda odam qo'li bilan qilingan

kertik belgilarga ko'zi tushdi.

Botinan va zohiran barcha narsalarni unutib, yo'q qilib yuboradigan vaqt, qayoqqadir yo'l ko'rsatib turgan bu belgilarga rahm qilibdi. Ba'zida bu belgilar changalzorlar, turli giyohlar orasida yo'q bo'lib ketgan edi. Dantes novdalar va giyohlarni ko'tarib uning umidlariga qanot bag'ishlayotgan belgilarni topib olardi. Kim bilsin, ehtimol oilasining bunday baxtsizlik girdobiga duchor bo'lishini kutmagan kardinal Spadaning o'zi, jiyaniga yo'l ko'rsatish uchun chizib ketgandir bu belgilarni? Odamlardan yiroq bu pastqam joy boylikni yashirish uchun juda bop edi. Biroq bu belgilarga begonalarning ko'zi tushmaganmikin? Mudhish mo'jizalarga to'la bu orol o'zining ajoyib sirini muqaddas saqlay oldimikin?

O'rtoqlari ko'zidan ancha yiroqda, qoyalar orqasida yurgan Dantes kertik belgilar oxiriga yetganini bildi, biroq g'ordan hamon darak yo'q edi. U yirik, yumaloq qoyaga duch keldi. U haligi yo'lchi belgilarning oxiriga emas, boshiga kelib qoldim, shekilli, deb kelgan yo'lidan orqasiga qaytdi.

Ayni vaqtda, uning do'stlari ovqat pishirish bilan ovo-ra edi: buloqdan suv keltirishdi, non va mevalarni qirg'oqqa olib chiqishdi va echki go'shtini qovura boshlashdi. O'rtoqlari o'zlari yasagan sixdan go'shtlarni olayotgan-da, qoyadan-qoyaga epchillik bilan irg'ib yurgan Edmonni ko'rib qolishdi, o'q uzib signal berishdi. U darhol orqaga burilib do'stlari yoniga yugurdi. Matroslar dadil sakrayotgan Dantesdan ko'z uzmay, ehtiyotsizlik qilyapti, deb koyinishdi, shu payt Dantes qoya cho'qqisida qoqilib, gandarakladi-da, qichqirib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Hamma birdan irg'ib turdi, chunki o'zlaridan ustunligiga qaramay, Edmonni hamma yaxshi ko'rardi. Uning oldiga birinchi bo'lib Djakopo yugurib keldi.

Edmon hushsiz, qonga belanib yotardi. Aftidan, u o'n ikki, o'n besh fut balandlikdan yiqilgan bo'lsa kerak. Og'ziga rom tomizishdi, o'tgan safar ham yordam bergan bu shifobaxsh dori bu gal ham yaxshi ta'sir etdi.

Edmon ko'zini ochdi, tizzam, belim qattiq og'riyapti, boshim aylanyapti, dedi. Uni qirg'oqqa olib bormoqchi bo'lishdi. Djakopo buyrug'i bilan uni ko'tara boshlagan edilar, Dantes ingrab, qichqirib yubordi va ko'tarsangiz og'riqqa chidolmayman, dedi.

Ravshanki, echki go'shtini baham ko'rishga Dantesning holi yo'q edi, ammo boshqalardan qirg'oqqa qaytishni talab etdi. «Men dam olishim kerak, sizlar qaytguncha ancha o'zinga kelib qolaman», deb ishontirdi.

Matroslar uzoq yalintirib o'tirishmadi, chunki hamma och edi, o'tda pishayotgan go'shtning hidi dimoqqa urib turardi, odatda bular kabi dengiz qashqirlari o'zaro «olol» deb o'tiradiganlar xilidan emas.

Ular bir soatdan so'ng qaytib kelishdi. Shu orada Dantes bir necha qadam emaklab borib, o't bosib ketgan qoyaga suyanib oldi.

Og'riq pasaymadi, aksincha kuchaydi. Pemont bilan Fransiya chegarasida, Nissa bilan Frejyus o'rtasida yuklarni tushirishi shart bo'lgan keksa kapitan shu kun ertalab jo'nab ketishi kerak edi. Shuning uchun u Dantesdan oyoqqa turib olishni talab etdi. Dantes, nihoyatda og'ir bo'lsa-da, kapitanning talabini bajo keltirib, bir necha bor o'rnidan turishga urinib ko'rdi, biroq har gal rangidan qoni qochib yiqilib tushaverdi.

– Qovurg'asi singan, – dedi ohista kapitan, – shunday bo'lsa-da, bu azamat yigitni tashlab ketib bo'lmaydi. Uni tartanaga olib borishga urinib ko'ramiz. Ammo Dantes, salgina qimirlasam a'zoyi badanim qaqshab, shunday azob beryaptiki, aslo chidab bo'lmaydi bu og'riqqa, bundan ko'ra, shu yerda qimirlamay o'lganim yaxshi, dedi.

– Bo'пти, – dedi kapitan, – boshga tushganni ko'z ko'radi. Sizdek azamat yigitga yordam bermay tashlab ketishib-

¹⁵ Revolyusiyadan burungi Fransiya sudi.

¹⁶ Cocles (lot.) – Bir ko'zli, qadimgi rim bahodiri Gorasiy Kokles-

di, deb malomat qilmasalar bas. Kechqurungacha jo'namay turamiz.

Bu taklif matroslarni juda taajjubga solgan bo'lsa-da, birortasi qarshi so'z aytmadi. Kapitan qattiqqo'l, cho'rtkesar odam, uning bu fe'lini hamma bilardi, u biror marta ham aytganidan qaytmagan va uni bajarishni keyinga surmagan. Shuning uchun Dantes kemada yillab bajo etib kelinayotgan tartib-qoidani buzishga yo'l qo'ymaslikni kapitandan o'zi iltimos qildi.

– Yo'q, – dedi u kapitanga, – bunday holga tushishimga aybdor o'zim, azobini ham o'zim tortishim kerak: menga bir oz qotgan non berib, miltiq, o'q-dori tashlab ketsangiz bas, echki otib tirikchilik qilaman, mabodo siz kechikib qolgudek bo'lsangiz, o'zimga jo'ngina kulba qurib olishim kerak, buning uchun cho'kich tashlab ketsangiz bo'ldi.

– Axir, ochdan o'lasan-ku, bu holda, – dedi kapitan.

– Chidab bo'lmaydigan og'riq azobini chekkandan ko'ra, – dedi Edmon, – o'lib qutulganim yaxshi.

Kapitan dengizga chiqishga taxt bo'lib, suv to'lqinlari ustida chayqalib turgan «Yosh Ameliya»ga qarab qo'ydi-da, dedi:

– Eh, azamat, seni nima qilsak ekan-a? Bir tomondan seni tashlab ketolmaymiz, ikkinchi tomondan bu yerda to'xtab turaverish ham mumkin emas bizga.

– Jo'nab ketavering! – dedi Dantes.

– Biz kamida bir hafta g'oyib bo'lib ketamiz, – dedi kapitan, – buning ustiga seni olib ketish uchun to'g'ri yo'ldan burilib bu gavanga kirishga majbur bo'lamiz.

– Bo'lmasa bunday qila qoling, – dedi, Dantes, – mabodo shu ikki-uch kun ichida shu tomonga kelayotgan baliqchilarning yoki boshqa biron bir qayiqni uchratgudek bo'lsangiz, ayting, meni olib ketishsin. Livornoga olib borib qo'yishsa, yigirma besh piastr to'layman. Agar hech kimni uchratmasangiz, o'zingiz qaytib kelarsiz.

Kapitan bosh chayqadi.

– Kapitan Baldi, menga qarang, – dedi Djakopo, – bu-

ning bitta yo'li bor: siz ketavering, xasta yonida men qolaman, vassalom.

– Meni deb taqsimotdan tegadigan ulushingdan ham kechasanmi? – so'radi Edmon.

– Ha, kechaman, – javob qildi Djakopo, – hecham achinmay, attang demay kechaman.

– Olijanob yigit ekansan, Djakopo, – dedi Dantes, – Xudoning o'zi yorlaqasin seni bu muruvvating uchun, ming rahmat senga, ammo men hech kimning yordamiga muhtoj emasman. Bir-ikki kun dam olsam, sog'ayib o'zimga kelaman, axir mana shu qoyalar orasida yaraga malham bo'ladigan birorta giyoh topilib qolar.

Dantesning lablarida sirli jilmayish paydo bo'ldi. U Djakoponing qo'lini mahkam siqib xayrlashdi. Edmon orolda faqat yakka o'zi qolishga qat'iy qaror qilgan edi.

Kontrabandistlar Edmon so'ragan narsalarning hammasini qoldirib, orqaga qaytishdi, ular yo'l-yo'lakay orolga qarab u bilan do'stona xayrlashishar, Edmon esa qimirlashga madori yo'qdek, faqat bir qo'lini ko'tarib javob qilardi.

Ular ko'zdan g'oyib bo'lgach, Dantes kulib yubordi.

– Tavba, – dedi shivirlab u, – shunaqangi kishilar o'rtasidan sodiq do'st topadi kishi ko'pincha!..

So'ngra u dengizni to'sib turgan qoyaga emaklab chiqdi, tepadan tartananing safar tayyorligini tugatib langarni ko'targani va baliqchi qush kabi yengil chayqalib o'rnidan qo'zg'alganini ko'rdi.

Bir soat o'tgach, kema ko'zdan g'oyib bo'ldi, har qalay yarador yotgan yerdan u ko'rinmasdi.

Shundan so'ng Dantes bu bo'm-bo'sh qoyalar ustida doimo yam-yashil o'simliklar, daraxtlar orasida sakrab yuradigan tog' echkisidan epchilroq dik etib turdi-da, bir qo'lga miltiqni, ikkinchi qo'lga cho'kichni olib hali belgilar tugagan tepa tomon yugurdi.

– Qani, – dedi qichqirib Dantes, Faria aytib bergan arab ertagini esga olib, – qani, Sezam, ochil!

III. SEHRLI JILVA

Kun og'di, may oyi quyoshning hayotbaxsh nurlari qoyalar ustida yarqirab, ularga harorat bag'ishlayapti, archa gullar tagida yashirinib yotgan minglab chigirtkalar tinmay chirillab, osmonni boshiga ko'taryapti. Daraxtlarning yaproqlari titrab shitirayapti. Edmon bosgan har qadamida zumrad kabi yam-yashil kaltakesaklarning o'takasini yoryapti. Uzoq tog'lar cho'qqilarida ovchilarni maf-tun etadigan sho'x o'ynoqi echkilar quloqlarini dingillatib sakrab yuribdi, xullas, orol odam yashaydigan yerga o'xshardi, biroq shunga qaramay Edmon o'zini bu yerda yakka-yu yagona deb his etardi.

Uni vahimaga o'xshash qandaydir bir his-tuyg'u zabt etib oldi, shu paytda bunga sabab, kunning nihoyatda yorqinligi edi. Bunday hollarda cho'lda kimdir ta'qib qilayotgandek tuyuladi kishiga.

Bu tuyg'u shu qadar kuchli ediki, Edmon ishni to'xtatishga majbur bo'ldi-da, cho'kichni qo'yib, miltiqni qo'lga oldi va yana eng baland dovonga tarmashib chiqib, atrofni diqqat bilan ko'zdan kechirdi.

Ammo shuni e'tirof etish kerakki, bu qarashda uni go'zal Korsika ham, notanish Sardiniya ham, ulug' voqealarni eslatuvchi Elba ham, ajoyib Genuya ham, savdo makoni Livorno ham qiziqtirmasdi, uning javdiragan ko'zlari saharmardonda yo'lga chiqqan birgantina (kichkina yelkanli kema) va hozirgina joyidan qo'zg'algan tar-tanani axtarardi.

Ulardan birinchisi Bonifas bo'g'oziga kirib gumdon bo'lgan edi, ikkinchisi esa orqa tomonga burilib, Korsika orolini aylanib o'tib ketish uchun, uning qirg'oqlari yonidan suzib borardi.

Edmon buni ko'rib ko'ngli tinchidi.

Keyin u yaqindagi narsalarga ko'z tashladi, cho'qqili orolning eng baland nuqtasiga chiqib, ulkan shohsupaga o'rnatilgan nozik haykal singari tik turib olgan edi. Pa-stda hech kim ko'rinmas, atrofda birorta qayiq soyasi ham

yo'q. Qoyalar poyiga gumburlab urilib, kumush kabi ko'piklarini qirg'oqdagi xarsang toshlarga urib ketayotgan shisha rang bepoyon dengizdan boshqa hech nima ko'rinmasdi.

Shundan so'ng u shoshilib, ammo ehtiyot bilan pastga tusha boshladi, ertalab Dantes orolda qolishga bahona topish uchun jo'rttaga yiqilib o'zini-o'zi yarador etgan edi, hozir esa chinakamiga yiqilib xarob bo'lmayin tag'in deb xavfsirardi.

Hali aytganimizdek, Dantes kertik belgilar izidan orqasiga qaytdi. Belgilar qadimiy suv parilari cho'miladigan hovuzcha singari pastqam bir ko'rfazga olib borayotganini ko'rdi. Ko'rfazga kiradigan joy juda keng va chuqur bo'lib, kemalar bemalol kirib, bekinib olsa bo'lardi. Demak, abbat Farianing dono so'zlarini davom ettirganda shu kelib chiqadiki, kardinal Spada yot ko'zlardan chetda bo'lishi uchun mana shu ko'rfazga kirib, kichkina kemasini yashirganu, belgilar ko'rsatib turgan yo'ldan borib, eng oxiriga xazinasini ko'mib ketgan, degan fikrga keldi Dantes. Mana shu taxmin bilan Edmon yana yumaloq tosh oldiga keldi.

Faqat bir mulohaza uni tashvishga solar va dinamika haqidagi tasavvurlarini chippakka chiqarib yuborardi: axir besh yoki olti ming fut og'irlikdagi bu xarsang toshni qanday qilib o'rnatgan ekanlar bu yerga?

To'satdan unda boshqa fikr tug'ildi.

– Ehtimol, bu toshni ko'tarib kelmagandirlar, – dedi Dantes o'ziga-o'zi, – yuqoridan pastga yumalatib olib kelishgandir.

Shunday dedi-yu, irg'ib toshdan yuqoriroq ko'tarilib, toshning dastlabki joyini axtardi. Chindan ham, tog'dan pastga cho'zilib ketgan qiyalikni ko'rdi, toshni o'sha yerdan dumalatib yuborishgan. Qoya bo'laklaridan biri esa uning yo'lini to'sgan, atrofda mayda toshlar sochilib yotar, uning ustiga tuproq sepilgan bo'lib, butun maydon ko'kalamzorga aylanib ketgan edi. Ko'm-ko'k o'tlar, changallar bilan qoplangan xarsang toshni qoyalardan ajratib

bo'lmasdi.

Dantes yerni asta kavlati-da, Spada g'oyatda ustalik bilan yashirgan, yildan-yilga mahkamlanib kelgan o'rta devorni cho'kich bilan buzishga kirishdi.

O'n daqiqa o'tmas, devor yorilib, unda qo'l sig'adigan teshik paydo bo'ldi.

Dantes qo'liga ilingan zaytun daraxtini yiqitib, bitta shoxini kesdi-da, uni teshikka suqdi, so'ng shuni richag sifatida ishlatib harakat qilaverdi.

Ammo xarsang tosh nihoyatda og'ir va tagidagi toshlarga juda maham yopishib ketgan edi, uni afsonaviy kuchga ega bahodir ham o'rnidan qo'zg'ata olmasdi.

Dantes o'ylab-o'ylab shunday fikrga keldi: dastavval goya toshini olib tashlash kerak. Biroq qanday qilib? Edmon sarosimaga tushib, atrofga alangladi va o'qdori to'la qo'chqor shoxini ko'rib qoldi. Uni Djakopo qoldirib ketgan edi.

Dantesning chehrasi ochilib ketdi: Xudoning o'zi yaratib qo'ygan bu shox uning mushkulini oson etadi.

Dantes cho'kichni oldi-da, uzoq va og'ir mehnatdan qochish yo'lini axtargan yer qazuvchilar singari ustki tosh bilan pastki tosh o'rtasida mina qo'yadigan teshik qazidi va uni o'q-doriga to'lg'azdi, ro'molchasini yirtib, selitra yordamida undan pilik yasadi.

So'ng pilikni yondirdi-da, o'zini chetga oldi.

Ko'p o'tmay dori portladi, uning beqiyos kuchi bilan ustki tosh bir damda ko'tarildi, pastkisi mayda-mayda bo'lib to'rt tomonga sochilib ketdi. Dantes ochgan kichkina teshikdan guv etib turli qurt-qumursqalar chiqib turtaraqay qochdi, kulcha bo'lib yotgan bu sirli yo'lkaning soqchisi – katta ilon cho'zildi-da, gumdon bo'ldi.

Dantes yaqinlashib keldi, tirgaksiz qolgan ustki tosh jar tepasida osilib qolgan edi. Qo'rqmas qidiruvchi toshning atrofini aylanib chiqdi, eng omonat joyini tanlab jonjahdi bilan richagni bosdi.

Portlash natijasida ancha liqillab qolgan tosh tebrandi. Dantes yana zo'r berib bosdi, u tog'ni talqon qiladi-

gan pahlavonga o'xshardi shu paytda, oxiri tosh o'rnidan qo'zg'alib pastga yumalab ketdi va dengiz tagiga tushib, ko'zdan yo'qoldi.

Toshning tagi yumaloq maydoncha bo'lib, uning o'rtasida chor qirra tosh plitaga temir halqa o'rnatib qo'yilgan ekan.

Dantes dastlabki harakati muvaffaqiyatli chiqqanidan ham quvonib, ham taajjulanib qichqirib yubordi.

U axtarishni davom ettirmoqchi bo'ldi-yu, biroq holdan toyib, oyoqlari titrab, yuragi qattiq urib, ko'zlari tina boshladi. U ishni to'xtatishga majbur bo'ldi.

Ammo dam olish uzoqqa cho'zilmadi. Edmon richagni halqadan o'tkazdi-da, zo'r berib ko'tardi, tosh taxta ko'tarildi. Uning tagida tim qorong'i g'orga olib tushadigan zina nusxa yo'l bor edi.

Edmonning o'rnida boshqa birov bo'lganda, shu zahoti quvonchidan qichqirib g'orga o'zini otardi. Dantes bo'zarib ketdi va to'xtab, o'ylab qoldi. So'ng o'ziga-o'zi dedi:

– To'xta! Mard bo'lish kerak, mard! Men boshimdan ne-ne baxtsizliklarni kechirib keldim, hammasiga chidadim, endi hech qanday umidsizlik meni bukolmaydi, ha, bukolmaydi, aslo! Qanchadan-qancha azob-uqubatlar nahotki menga saboq bo'lmasa? Yurak shunday bir narsaki, u orzu-umidlarning ilk shabadasi esishi bilan darhol ortiq shishib, kengayib ketadi, voqelikning sovuq shamoli esgudek bo'lsa, birdan siqilib kichrayib qoladi. Faria uydirma to'qigandir balki: kardinal Spada, g'orga hech narsa ko'mgan emasdir, hatto qadam ham bosmagan bo'lishi mumkin, bu yerga mabodo kelgan bo'lsa, hech balodan qo'rqmaydigan avanturist, abjir va qo'rqinchli qaroqchi Uezar Bordjia undan keyin kelib, uning izini topgandir, men ko'rgan belgilarga qarab g'orga kirgandir, shu toshni ko'tarib mendan oldin pastga tushgandir va menga hech narsa qoldirmay xazinani shipshiydam qilib ketgandir, deb o'yladi.

Dantes chuqur, zimiston teshikka tikilganicha bir

necha daqiqa tik turib qoldi.

– Darvoqe, qaroqchilar shohi Bordjining qabih qil-mishlarga to'la ola-chipor hayotida bu kabi sarguzasht-larning bo'lishi hech gap emas. Bu ajoyib sarguzasht uning jasoratli xatti-harakatlarining zarur bir qismi edi. Chindan ham Bordjia qachondir, bir qo'lida mash'ala bir qo'lida shamshir tutib bu yerga kelgandir, bundan yigir-ma qadam narida, ehtimol, xuddi mana shu qoya oldida ikki baddurush, dahshatli soqchi shoyon diqqat bilan yerni ham, osmonni ham, dengizni ham nazorat ostiga olib turgandir, ularning xo'jayini esa, xuddi menga o'xshab, g'orga kirgandir.

«Xo'sh, uning siridan xabardor soqchilarni nima qildi ekan Bordjia?» – so'radi o'zidan Dantes.

«Alarix go'rkovlarini qanday qilib murda bilan birga dafn etgan bo'lsalar, Bordjia ham soqchilarni shunday qilgandir», – javob qildi o'ziga-o'zi Dantes kulib.

«Biroq Bordjia bu yerga kelgan bo'lsa, – davom etdi Dantes, – xazinani topib olib ketgan bo'lur edi. Lekin Italiyani artishokka o'xshatib, barglarini bitta-bittalab yulib, yalang'ochlab kelgan Bordjia vaqtning qadr-qim-matini biladigan bir zot bo'lib, bu toshni yana qayta o'rniga qo'yish uchun behuda ovora bo'lib o'tirmasdi.

Bas, yetar, endi g'orga tushaylik».

Dantes inson zakovatining so'nggi so'zi «yana kim bilsin»ni ohistagina tilga olib zinaga qadam qo'ydi.

Dantes g'or qop-qorong'i zimiston, havosi buzuq bo'lsa kerak, deb o'ylagan edi dastavval, biroq hozir tush-ganda g'or g'ira-shira yorug' edi. G'orga havo va yorug' teshikdangina emas, qoyalarning ko'zga ko'rinmas tirq-ishlaridan kirardi, hatto teshik va tirqishlaridan ko'm-ko'k osmon, qayin daraxtlarining zangori yaproqlari, tog'olcha-ning tikanli shoxlari ko'rinib turardi.

Havosi nam va qo'lansa emas, aksincha, tashqarida-gidek mayin edi. G'ira-shira yorug' g'orda qorong'ida ko'rishga o'rgangan Dantes birpasda g'orning hamma bur-chaklarini ko'zdan kechirib chiqdi. G'orning devorlari xar-

sang toshlardan yasalgan bo'lib, ularning mayda-chuyda bezaklari olmos singari yaltirab turardi. «– Hayhot! – dedi Dantes iljayib. – Kardinal qoldirgan xazina shu ekan-da, olijanob abbat esa yaltiroq devorlarni tushida ko'rib, ulkan orzu-umidlarga to'lib yurgan ekan-da». Ammo Dantes va-siyatnomaning yodida qolgan quyidagi so'zlarini esladi: «Ikkinchi teshikning eng to'ridagi burchakda...»

Dantes esa hozir faqat birinchi g'orga kirdi, ikkinchisi-ga kiradigan yo'lni topish kerak.

U atrofga qaradi. Ikkinchi g'or faqat orolning to'rida bo'lishi kerak. Edmon tosh taxtalarni ko'zdan kechirib chiqdi va g'orning teshigi shu yerda bo'lsa kerak, deb o'ylagan devorini taqillata boshladi. Bu teshikni juda ehti-yotkorlik bilan bekitgan bo'lsalar kerak.

Edmon bir necha daqiqa tosh devorni cho'kich bilan urdi, tosh devor nihoyatda qattiq edi, Dantesni ter bosdi. Axiri borib tosh devorning bir joyidan bo'g'iq past ovoz chiqdi. U ko'zlarini javdiratib devorga tikildi va mahbus-likda charxlangan zehni bilan teshik mana shu yerda eka-nini angladi.

Biroq vaqtni qadrlashda Uezar Bordjiadan bir enlik ham qolishmaydigan Dantes g'orning boshqa devorlarini ham cho'kich, yerni miltiq qo'ndog'i bilan urib sinab ko'rdi, shubhali joylarning qumini ag'dardi, hech nima topilma-gach, haligi devor yoniga qaytdi.

U yana qattiqroq urdi.

Shu payt cho'kich zarbidan devordan bo'lak-bo'lak shuvoqlar ajralib tusha boshladi va oddiy qurilishda ish-latiladigan oppoq tosh ko'rindi, qoyadagi haligi teshik mana shu toshlar bilan bekilgan bo'lib, ustidan shuvab tashlangan edi.

So'ng Dantes cho'kichning ingichka o'tkir uchi bilan urgan edi, u devorga bir dyuym kirib ketdi. Izlashni shu yerdan boshlash kerak ekan aslida.

Farianing haq ekaniga qancha ko'p dalil topgan sari Dantesni shubha qiynoqqa solar, umidsizlik tuyg'usi osha borardi. Bu inson tabiatining taajjublanarli xususiyati.

Hozirgi kashfiyoti unga dalda berib, jasorat bag'ishlashi kerak edi, biroq aksincha, tinkasini quritdi. Cho'kich devorga surkalib, ko'lidan tushib ketgan edi, Edmon cho'kichni yerga qo'yib, peshanasini artdi-da, o'z-o'ziga, biror begona kishi poylab turmayaptimikan, qaray-chi, deb g'ordan tashqari chiqdi, aslida maqsadi toza havodan nafas olish edi. U hushidan ketishiga sal qolgan edi.

Orolda odam bolasidan asar yo'q edi, quyosh osmoni-falakdan o'zining jazirama nurlarini to'kyapti. Uzoqda ko'm-ko'k dengiz ustida baliqchilarning qayiqdari qanot yozyapti.

Ertalabdan buyon Dantes hech nima yegani yo'q, chunki ovqatlanishga vaqti bo'lmadi, u bir qultum rom ichdi-da, qaytib g'orga tushdi.

Sal ilgari zildek ko'ringan cho'kich endi yana yengil tuyuldi. Dantes uni dast ko'tarib g'ayrat bilan ishga kirishib ketdi.

Cho'kichni bir necha bor urganidan keyin ma'lum bo'ldiki, toshlar bir-biriga hech narsa bilan yopishtirilmagan ekan, shunchaki ust-ustiga terib, shuvab qo'yilgan ekan. Edmon kavaklardan biriga cho'kichning uchini tiqdi-da, dastasini gavdasi bilan bosdi, tosh oyog'i ostiga ko'chib tushdi.

Ana shundan so'ng Dantesning ishi osonlashdi. U cho'kichning uchi bilan toshlarni ag'darib tashlay berdi.

Dantes o'zi o'ygan teshikka allaqachon kirsam bo'lardi, biroq u ishonchi va orzu-umidlarining to'satdan puchga chiqib qolishidan qo'rqib, bu ishni keyinga surib kelayotgan edi.

Axiri borib, Dantes beqarorlikni, shubhani uloqtirib tashladi-da, birinchi g'ordan ikkinchisiga qadam qo'ydi. Ikkinchi g'or birinchisidan past, qorong'i va mudhish edi. Hozirgina o'yilgan teshikdan kirgan havo qo'lansa va rutubatli edi, birinchisida bunday emas edi-ku, deb taajjublandi Dantes. Edmon tashqaridan havo kirib, g'orni bir oz shamollatguncha to'xtab turdi-da, so'ng ichkari kirdi. Kiraverishdan o'ng tomonda uzoqqa cho'zilgan qop-

qorong'i burchak bor edi. Biroq biz Dantes qorong'iga ko'nikib qolganini aytgan edik.

U g'orni ko'zdan kechirib chiqdi. Bunisi ham birinchi-si singari bo'm-bo'sh edi.

Xazina, u haqiqatan bor bo'lsa, mana shu burchakka ko'milgan bo'lishi kerak.

Mana, uqubatli daqiqalar keldi endi. Ikki fut yer qazib olinsa bas – Dantes yo misli yo'q baxtga ega bo'ladi yoki umidlari puchga chiqib, butunlayin baxti qarolikka duchor etiladi.

U burchakka bordi-da, birdan g'ayratga minib yerni kavlay boshladi. Beshinchi yoki oltinchi marta urilganda cho'kich qandaydir temirga tegdi.

Dafn qo'ng'iroqlarining ovozi ham, tashvishli bonglar ham hech vaqt Dantesga hozirgi temir tovushidek kuchli ta'sir etmagan edi.

Dantes, mabodo hech narsa topmaganida ham bunchalik vahimaga tushib, rangi o'chib ketmagan bo'lur edi.

U cho'kichni yana boshqa yerga urib ko'rdi, u yerdan ham temir ovozi eshitildi, ammo bu galgi ovoz boshqacha edi.

– Bu temir qoplangan yog'och sandiqning ovozi, – dedi o'z-o'ziga u.

Shu payt teshikdan kimningdir soyasi ko'rindi.

Dantes darhol cho'kichni qo'yib, miltiqni qo'lga oldida, yugurib g'ordan tashqariga chiqdi.

G'or yonidan bir yovvoyi echki yugurib o'tdi-da, bir necha qadam narida to'xtab, o't chimdiy boshladi.

Tushki ovqat ham ta'min bo'ldi, deb o'yladi shu on Dantes, biroq miltiq ovozini birov eshitib qoladi, deb qo'rqdi.

U bir oz o'ylab turdi-da, bir daraxtni kesib olib, kontra-bandistlardan qolgan cho'g'da yondirib olib, g'orga qaytdi.

Edmon ko'zdan kechirishi kerak bo'lgan mayda-chuyda narsalarning birontasini ham qo'ymay qarab chiqmoqchi bo'ldi. O'zi kavlagan chuqurga mash'alani tutib qara-

di, o'ylagani to'g'ri chiqdi: cho'kich rostdanam goh temirga, goh yog'ochga tegayotgan ekan.

Dantes mash'alani yerga suqib qo'ydi-da, yana ishga kirishib ketdi.

Bir necha daqiqa ichida yerni uzunasiga uch fut va eniga ikki fut qazib ochdi, uning ko'z oldida qayindan yasalgan va zarbli tunuka qoplangan sandiq paydo bo'ldi. Sandiqning qopqog'i ustida Spadalar qavmining kumushdan yasalgan tamg'asi – italyancha qalqon ustida tikka qo'yilgan qilichning surati o'ymakorning mohir qo'llari bilan yasab qo'yilgan edi.

Dantes bu tamg'ani darrov tanidi, chunki abbat Faria bir necha marta bu tamg'aning suratini chizib bergan edi.

Endi hech qanday shubhaga o'rin qolmadi. Xazina mana shu sandiqda, bo'lmasa bo'sh sandiqni kim ham bunchalik mahkam yashirardi.

Dantes bir zumda sandiqning atrofini tuproqdan tozaladi. Dastlab yuqori halqa, keyin ikki osma qulf, so'ngra ikkala yonidagi dastalari ko'rindi. Metallni gulga aylantirib yuborish san'ati avj olgan davrning ajoyib hunarmandlari bularning hammasini zo'r mohirlik bilan yo'nib yasashgan edi.

Dantes sandiqni dastalaridan ushlab sal ko'tarmoqchi bo'ldi, biroq joyidan qo'zg'atolmadi. So'ng u sandiqni ochaman deb urinib ko'rdi, ammo u juda mahkam qulf lab qo'yilgan edi, bu sodiq soqchilar o'zlariga topshirib qo'yilgan boylikni go'yo hech kimga berishni istamasdilar.

Dantes cho'kichning o'tkir uchini sandiqning qopqog'i tagiga suqdi-da, dastasini ko'ksi bilan bosdi, qopqog'iyqillab yorildi, temir tasmalar bo'shashib ajralib ketdi, shundan so'ng sandiq ochildi.

Dantesning a'zoyi badani titrab ketdi. U miltiqni olib, tepkisini ko'tardi-da, yoniga qo'ydi. Dastlab u osmonda ko'proq yulduz ko'rish niyatida ko'zlarini yumadigan bolaga o'xshab, ko'zini yumdi, so'ng ochdi va ko'zlari qamashib nafasi ichiga tushib ketdi.

Sandiqning ichi uch bo'lakka bo'lingan edi.

Birinchi bo'limda qizg'ish oltin chervonlar yaltirab turibdi.

Ikkinchisida hali ishlanmagan, biroq qiymati oltinga teng yombilar qator terib qo'yilgan.

Uchinchisi esa olmoslar, marvaridlar, yoqutlarga liq to'la edi. Edmon hovuchini to'ldirib-to'ldirib sovura boshladi, qimmatbaho toshlar bir-birining ustiga sharshara kabi yaltirab to'kilar, oynaga urilgan do'l kabi tiqirlab ovoz chiqarardi.

Bu ajoyib manzaraga ko'zi to'ygan va titroq bosgan qo'llarini oltin va dur-gavharlarga suqa-suqa ko'ngli to'q bo'lgan Edmon o'rnidan irg'ib turdi-da, aqldan ozayotgan kishiga o'xshab, g'ordan tashqariga otildi. Dengiz kaftday ko'rinib turadigan qoya cho'qqisiga chopqillab chiqdi. Atrofda biror inson qorasi ko'rinmasdi. Bu behisob beqiyos boylik yonida uning bir o'zi edi. Bu boylik uniki bo'lib qoldi endi. Biroq, bu tushimi yoki o'ngimi? Tushiga kirdimikin yoki haqiqatan mavjudmikin bu xazina?

Dantes oltinlarni yana ko'rgisi kelar, biroq o'sha manzaraga bardosh berib qarab tura olarmikinman deb qo'rqardi. U es-hushini yig'ishga urinayotgandek, ikki qo'li bilan boshini mahkam ushlab oldi-da, boshi oqqan to-monga yugurdi. So'ng gir aylanib, orqasiga qaytdi. Hamon ishonchi komil bo'lmay birinchi g'orga otilib kirdi, undan ikkinchisiga o'tdi, ko'z oldida yana o'sha oltin va olmos koni paydo bo'ldi.

Bu gal u tiz cho'kib qaltiroq qo'llarini titrab turgan yuragiga bosdi-da, faqat Xudoga ayon duolar o'qib ibodat qildi.

Bir oz vaqt o'tgach, Edmon o'zini ancha bosib oldi va yelkasiga baxt qushi chindan ham qo'nganiga ishonib, boshi ko'kka yetdi. Shundan so'ng boyligini hisoblay boshladi. Sandiqda har biri ikki funt va uch funtdan mingta oltin yombi, yigirma besh ming oltin chervon (bularning har biri sakson frankka teng edi) bor ekan. Bu

oltin pullarga papa Aleksandr VI va undan oldingi papalarning suratlari solingan edi, Dantes oltin pullarning faqat yarmini sanab chiqdi. Pirovardida ikki qo'li bilan olmos, marvarid va boshqa qimmatbaho toshlarni o'lchab chiqdi, bu toshlarni zamonasining eng mohir hunarmandlari ajoyib jimjimador naqshlar bilan bezashgan va endilikda bular badiiy jihatdan bebaho buyumga aylanib qolgan edi.

Qosh qorayib bormoqda. Dantes qorong'ilik bosayotganini angladi. Tunda g'orda qolib ketmayin tag'in, dedi-da, miltilg'ini olib tashqariga chiqdi. Bir necha qotgan non va uch-to'rt qultum vino bilan kechki ovqatni tanovvul qilib oldi. So'ng u tosh taxtani eski o'rniga qo'ydi-da, uning ustiga cho'zildi va gavdasi bilan g'orning og'zini yashirib bir necha soat uxlab oldi.

Butun vujudini zavq-havas qamrab olgan bu yigit uchun bu kecha ham nash'ali, ham dahshatli bo'lib o'tdi.

IV. NOTANISH ODAM

Tong otdi. Dantes anchadan buyon ko'z yummay yotgan edi. Quyosh ko'tarilishi bilan o'rnidan turdi-da, kechagidek atrofini ko'zdan kechirish uchun orolning eng baland cho'qqisiga chiqdi. Hech kimning qorasi ko'rinmasdi. Edmon pastga – g'or oldiga bordi, tosh taxtani chetga surib qo'yib, ichkari kirdi, cho'ntaklarini qimmatbaho toshlarga to'ldirdi, sandiqning eshigini mahkam bekitdi, yerni tekislab, kavlangani bilinmasin, deb qum sepdi, g'or og'zini tosh taxta bilan bekitib, ustiga toshlarni uyib qo'ydi-da ularning orasiga tuproq sepdi, ko'm-ko'k daraxtlar o'tqazib, ular ko'karib ko'pdan beri o'sib yotgan daraxtga o'xshasin, deb suv ham sepib qo'ydi: oyog'i izarini tekislab tashladi. So'ng o'rtoqlarining kelishini toqatsizlanib kutdi.

Endilikda oltin va olmoslarga tikilib o'tirishga mutlaqo hojat qolmadi. Endi hayotga, odamlar orasiga qaytib

borib, mavqe, obro' va hukmronlikni egallashi kerak, ha, egallab olishi darkor! Ma'lumki, bularni hozirgi zamon-da, inson qo'lida eng zo'r, eng ulug' kuch hisoblangan boylik bilan, oltin bilangina qo'lga kiritish mumkin.

Kontrabandistlar olti kundan keyin qaytishdi. Dantes uzoqda ko'ringan «Yosh Ameliya»ni yurishi va ko'rinishidan tanib oldi. U yarador Filoktet singari, kema to'xtagan yerga oqsoqlanib bordi. O'rtoqlari qirg'oqqa tushganda, hali ham og'riq borligidan zorlanib, har holda ilgariidan holi durust ekanini aytdi. So'ng ularning hikoyalarini tingladi. Ekipajning ishi boshda o'ngidan kelibdi. Biroq ular yuklarni endigina tushirib bo'lganda, soqchilar kemasi Tulondan chiqib, ular tomonga yo'l olganini bilib qolibdi. Shundan keyin ular shoshilib yo'lga chiqishibdi. Matroslar, attang, qani hozir kemani juda mohirlik bilan tez yurgizadigan Dantes bo'lsa edi, deb uni esga olib, ko'p afsuslanibdilar. Ko'p o'tmay ularni quvib kelayotgan soqchi kemani ko'rib qolishibdi. Biroq «Yosh Ameliya» ekipaji qorong'idan foydalanib, Kors burunini aylanib o'tib, soqchilar ko'zidan g'oyib bo'libdi.

Umuman olganda, safar muvaffaqiyatli o'tibdi. Hamma, ayniqsa, Djakopo Dantesning bu galgi safarda bo'lmaganiga va foydadan o'z ulushi – ellik piastri ni ololmaganiga achindi.

Edmon o'zini vazmin tutdi, orolni tashlab ketganda olishi mumkin bo'lgan aqchani aytganlarida, u hatto ti-shining oqini ham ko'rsatmadi. «Yosh Ameliya» faqat uni olib ketish uchun Monte-Kristo oroliga kelgan edi, shu sababdan o'sha kech Dantes buyumlarini yig'ishtirib ke-maga chiqib oldi va kapitan bilan Livornoga jo'nadi.

Livornoga kelgach, u sarrof yahudiylikiga borib, eng mayda toshlaridan beshtasining har birini besh ming frankdan sotdi, yahudiy matrosdan bu qimmatbaho tosh-larni qaerdan olding, deb so'rashi mumkin edi, biroq har bir toshdan ming frankdan foyda ko'rishini bilib, g'iq etmay qo'ya qoldi.

Ertanisi Dantes yangi baliqchilar qayig'i sotib olib, Dja-

kopoga hadya qildi, buning ustiga, matros yollash uchun deb yuz piastr aqcha ham berdi, bularning evaziga Djakopodan Marselga borib Melyan xiyobonida yashovchi Lui Dantes degan choldan va Katalani qishlog'ida turuvchi Mercedes degan qizdan xabar olib kelishini so'radi.

Bu gal Djakopo tush ko'ryapman, shekilli, deb o'yladi. Ammo Edmon matroslikka ota-onasi pul bermaganiga achchiq qilib kirganini, Livornoga kelib tog'asining vasiyat qilib qoldirgan merosiga ega bo'lib qolganini aytdi. Dantes oq-qorani tanigan odam, bundaylar yolg'on gapirmaydi, bunga Djakopo zarracha shubha qilmas edi.

Dantesning «Yosh Ameliya»da xizmat muddati tugadi, u kapitan bilan xayrlashdi, kapitan unga javob bermoqchi emasdi, biroq meros olganini eshitib, shashtidan qaytdi.

Ertasi kuni Djakopo Marselga jo'nadi. Dantes bilan Monte-Kristo orolida uchrashadigan bo'lishdi.

Shu kuni Dantes ham «Yosh Ameliya» ekipajiga katta-katta mukofot berib, hech kimga qayoqqa ketayotganini aytmay, biror kun kelib, sizni xabardor qilarman, deb kapitanga va'da berib jo'nab ketdi. U Genuyaga yo'l oldi.

Shu vaqt Genuya gavanida kichkina kemani sinovdan o'tkazishayotgan edi. Uni bir ingliz genuyaliklarni O'rta yer dengizida kemasozlikda «ustasi farang» deb eshitib, buyurtma bergan edi. Ingliz kemaga qirq ming frank to'lashga shartlashgan edi. Dantes esa oltmish ming beraman, ammo kema shu bugunoq menga topshirilishi shart, dedi. Kemasi bitguncha ingliz Shveysariya bo'ylab sayr qilib ketdi. U bir oydan berida yetib kelmasdi. Kemasoz u kelguncha yana birini yasab qo'yarman deb, Dantesning shartiga ko'ndi. Edmon kemasozni yahudiyning do'koniga olib borib orqa xonaga o'tdi va yahudiy shu zahoti kemasozga oltmish ming frank sanab berdi.

Kemasoz Dantesga ekipaj a'zolarini yollab bermoqchi bo'lgan edi, Dantes, bir o'zim yurishga odatlanib qolganman, dedi-da, kayutasidagi karavotining bosh tomoniga ichi uchga bo'lingan va har bir bo'limga alohida kalit tu-

shadigan maxfiy qulflı sandıq yasab berishni iltimos qildi. U sandıq ichidagi bo'linmalarning hajmini o'lchab berdi, bu iltimos ertasi kuniyoq bajo keltirildi.

Ikki soatdan so'ng Dantes Genuya portidan yo'lga chiqdi. Yakka o'zi suzishga odatlangan ispaniyalik to'rani qiziqib kuzatganlar ko'p edi portda.

Dantes kemani zo'r mahorat bilan haydab ketdi. Birgina rul vositasi bilan kemani u istagan tomoniga burib borardi, kema nihoyatda itoatkor chiqib qoldi, Dantes ham, genuya kemasozlarining chindan ham ajoyib ustalar ekaniga ishondi.

Odamlar kema ko'zdan g'oyib bo'lguncha kuzatib turishdi, so'ng uning qayoqqa ketayotgani to'g'risida jumboqlar ayta boshlashdi: biri Korsikaga ketdi desa, ikkinchisi Elbaga yo'l oldi, derdi. Ba'zilar u Ispaniyaga ketdi deb o'zining gapini ma'qul qilardi. Yana biri, Afrikaga ketdi bu, deb gap ma'qullamoqchi bo'lardi. Lekin biror kishi Monte-Kristo orolini tilga olmadi.

Dantes esa xuddi o'sha orolga yo'l olgandi.

U ikkinchi kunning oxirida orolga yetib keldi. Kema juda yengil, tez yurar qilib ishlangan ekan, orolgacha bo'lgan masofani o'ttiz besh soatda bosib o'tdi. Dantes orolning qirg'oqlarini juda puxta o'rganib oldi, shuning uchun ham gavanga kirmay, kichkina bir ko'rfazga kirib to'xtadi.

Orol bo'm-bo'sh, Dantes ketgandan buyon orolga hech kim kelmagan bo'lsa kerak. U g'orga kirdi, sandıq Dantes qanday qilib qo'yib ketgan bo'lsa shundayligicha turgan edi.

Shu kunning ertasi Dantes behisob boyligini qayiqqa olib chiqdi-da, yashirin sandiqning uchala bo'limiga solib qulflab qo'ydi.

Dantes yana bir hafta sabr qildi. Shu yetti kun mobaynida u, otini sovitib yurgan chavandoz singari, qayig'i bilan orol atrofini bir necha bor aylanib chiqdi, kemasining yaxshi va yomon tomonlarini, kamchiliklarini bilib oldi, yaxshisini takomillashtirib, kamchiliklarini tuzatishga

qaror qildi.

Sakkizinchi kun barcha yelkanlarini yoyib kelayotgan qayiqni ko'rdi, bu Djakopo edi. U signal berdi, Djakopo javob qaytardi, ikki soat deganda qayiq ko'rfazga kirdi.

Edmon ikkala savolga ham noxush xabar oldi.

Keksa Dantes dunyodan o'tgan, Mercedes g'oyib bo'lgan edi.

Edmon bu xabarni vazminlik bilan tingladi, biroq shu zahoti qirg'oqqa chiqib ketdi, Djakopoga tushishni man etdi.

Ikki soatdan so'ng u qaytib keldi, Djakoponing qayig'idagi ikki matros Dantesning kemasiga o'tib, yelkanlarni ishga soldi. U, Marsel tomonga yurilsin, deb buyruq berdi. Otasining vafotini u oldindan bilardi, ammo Mercedesga nima bo'ldi ekan?

Edmon o'z sirini oshkor etmay, biror agentga topshiriq berolmasdi, buning ustiga yana bir qancha ma'lumotlar olmog'i kerak, buni faqat o'zi bajo keltirishi mumkin. Livornodagi sartaroshning oynasiga qarab o'tirganda, juda o'zgarib ketganini ko'rgan edi, demak, tanib qolishadi, deb xavotirlanishga asos yo'q. Yana o'z aftangorini o'zgartirib yuboradigan vositalarning hammasi o'z qo'lida. Xullas, kunlardan bir kun ertalab Dantesning yelkanli kemasi baliqchilar qayig'i kuzatuvida Marsel portiga kirdi-da, mash'um oqshomlardan birida Edmonni qayiqqa solib, If qal'asiga olib ketgan joyga kelib to'xtadi.

Dantes jandamlarning eshkakli karantin qayig'i yaqinlashib kelayotganini ko'rib, yuragi shig' etib ketdi. Ammo u o'zini bosib oldi-da, hech xavotir olmay Livornoda sotib olgan ingliz pasportini ko'rsatdi va Fransiyada mahalliy fransuz pasportidan obro'lroq hisoblangan ana shu pasporti bilan qirg'oqqa tushib ketaverdi.

Kanneber ko'chasida uchratgan birinchi tanishi «Faraon» kemasining matrosi bo'ldi. Bu odam bir vaqtlar Dantesning ko'lida xizmat qilgandi, Dantes bu qulay paytdan foydalanib, o'z vajohati chindan ham o'zgartganmi, yo'qmi

ekanini sinab olmoqchi bo'ldi. Edmon matros oldiga to'g'ri bordi-da, unga bir necha savol berdi, matros ham birinchi marta ko'rgan kishi bilan qanday gaplashilsa, xuddi shu tarzda javob berdi.

Dantes kerakli ma'lumotlar bergani uchun matrosga tanga uzatdi: bir daqiqa o'tar-o'tmay haligi azamat matros yugurib qaytib keldi.

Dantes uni tabassam-la, kutib oldi.

– Janob, kechiring meni, – dedi matros, – siz menga ikki frankli tanga bermoqchi bo'lib adashib, ikki hissa ortiq Napoleondor berib yuboribsiz.

– Azizim, haq gapni aytding, men adashibman, – dedi Dantes, – biroq sening bu sofdilliging mukofotga sazovordir, shuning uchun mana bu ikkinchisini ham olginda mening sog'lig'im uchun o'rtoqlaring bilan ichgin.

Matros hang-mang bo'lib, Edmonga rahmat aytishni ham unutib qo'ydi. U Dantesning orqasidan qarab turib:

– Hindistondan kelgan naboblardan bo'lsa kerak, – deb qo'ydi.

Dantes yo'lida davom etdi. Har qadamda yurak tepishi kuchayib borardi uning. Fikr-xayolimizdan hech qachon arimaydigan yoshlik davri har bir muyulishda, har bir burilishda Dantes ko'z oldida gavdalanib turardi. No-ayl ko'chasi oxiriga borib Melyan ko'chasini ko'rdi-yu, oyoqlari titrab, gandiraklab ketdi va naq bo'lmasa, o'tib borayotgan izvosh tagida qolayozdi. Bir vaqtlar otasi istiqomat qilgan uyga yaqinlashdi. Chol mehr qo'yib o'stirib kelgan derazadagi gullardan asar ham qolmabdi.

Dantes daraxtga suyandi-da, eski uyning yuqori qavatlariga tikilib o'yga botdi. So'ng eshik oldiga keldi, ichkariga kirib, bo'sh xonadon bormi, deb so'radi. Beshinchi qavatdagi uylar band deyilsa-da, u o'sha qavatni ko'rishga nihoyatda ishtiyoqi zo'r ekanini izhor etgach, qorovul yuqoriga chiqib, turganlardan xorijiy mehmonga uylarini ko'rishga ruxsat etishlarini iltimos qildi. Ikki xonadan iborat bu xonadonda yosh kelin-kuyov istiqomat qilardi. Bularning to'yi ham yaqinida, ikki hafta burun o'tgan

edi. Baxtiyor yoshlarni ko'rib Dantes o'ksinib qo'ydi.

Dantesning otasi turgan xonadonda undan hech qanday iz qolmagan edi. Devorga boshqa gulqog'oz yopishtirilgan, yoshligini eslatadigan hamma eski buyumlardan bironyasi yo'q. Faqat devorlar ilgarigicha turibdi.

Dantes karavotga ko'z tashladi: karavot otasi yotgan joyda edi.

Edmonning ko'zlari beixtiyor jiqqa yoshga to'ldi: axir uning bechora g'arib otasi mana shu yerda oxirgi marta o'g'lini tilga olib dunyodan o'tgan edi-da.

Yosh kelin-kuyov bu jiddiy kishining yuzlaridan munchoq-munchoq yosh oqayotganini ko'rib hayron bo'lib qolishdi. Ammo qayg'u-alam oldida hamma lol qoladi, shuning uchun notanish kimsani savolga tutmadilar. Edmonga xalaqit bermaylik, deb o'zlarini chetga oldilar, faqat u xayrlasha boshlagach, yoniga kelib, istagan vaqtida kelishi mumkinligini va uyning eshigi uning uchun hamisha ochiq ekanini izhor etib, kuzatib qo'ydilar.

Bir qavat pastga tushgach, Edmon yana bir eshik oldida to'xtadi-da, mashinachi Kadruss haliyam shu yerda turadimi, deb so'radi. Qorovul, siz so'ragan odamning ishlari kasodga uchrab xonavayron bo'ldi, hozir u Belgraddan Bokerga boradigan yo'l ustida qovoqxona ochib tirikchilik qilib yuribdi, dedi.

Dantes tashqariga chiqib, uy xo'jayinining manzilini so'rab olib, o'sha tomonga yo'l oldi. O'zini lord Uilmor deb tanishtirdi (sotib olgan ingliz pasportida shunday yozilgandi). Otasi yashagan haligi uyni yigirma besh ming frankka sotib oldi. Bu – uyning haqiqiy narxidan o'n ming frank oshiq edi. Lekin xo'jayin yarim million talab qilganda ham Dantes churq etmay sanab berardi.

Notarius uy sotilganini beshinchi qavatdagi haligi yosh oilaga xabar qildi va yangi xo'jayin agar yoshlar hozir turgan ikki xonani unga bo'shatib berishsa istagan boshqa xonadonni olishlari mumkin, deganini yetkazdi.

Bu kutilmagan voqea Melyan aholisi o'rtasida turli mish-mishlarga sabab bo'ldi.

Ammo bugun Melyan xiyobonidagi uyga kelgan ajnabiyni kechqurun Katalani qishlog'ida sayr qilib yurib, kambag'al baliqchining uyida rosa bir soat bo'lib o'n besh yil bundan muqaddam vafot etgan odamlarni so'rab-surish-tirib yurgani hammani hayratga solib qo'ydi.

Ertasi kuni baliqchilar uylariga qadam ranjida qilgan kishidan to'rlar bilan birga katalan qayig'ini tuhfa sifatida oldilar.

Baliqchilar himmatli janobga minnatdorchilik bildirmoq uchun borganlarida, u allaqanday matroslar bilan gaplashib, otga minib Marselning Eks darvozasidan chiqib ketgan edi.

V. «GAR KO'PRIGI» QOVOQXONASI

Kimki men singari janubiy Fransiya bo'ylab sayohat qilgan bo'lsa, Belgard bilan Boker o'rtasida, qishloqdan shaharga boradigan yo'lning taxminan yarmida, lekin har holda Belgardga qaraganda, Bokerga yaqinroq joydagi kichkina qovoqxonani ko'rgan bo'lsa kerak. Qovoqxonaning sal shamol tursa tebranib g'iyqillab turadigan tunuka lavhasida Gar ko'prigining g'alati surati solib qo'yilgan. Rona daryosining oqimiga qarab borilsa, qovoqxonaga katta yo'lning chap tomonida daryoga orqasini o'girib qad ko'tarib turibdi. Orqa hovlisida pastqam hovlisi bor, unda bir necha atirgul va yana boshqa meva daraxtlari so'lib, chang bosib yotibdi, daraxtlar oralig'ida sabzavot, aksari, sarimsoqpiyoz, garmdori va piyoz ekiladi. Burchakda italyan qarag'ayi gumbaznusxa baland shoxlarini jazirama oftobga tutib, unutilgan soqchi singari serrayib turibdi.

Bu daraxtlarning hammasini kattasidan tortib kichigacha tabiatning o'zi egri-bugri qilib yaratgan va Provan-sdagi uch ofatning biri hisoblangan mistral (Fransiyaning ana shu rayonlarida bo'ladigan sovuq va quruq shamol) esgan tomon egilib turadi. Qolgan ikki ofat Dyurans¹⁴ va

parlament¹⁵ hisoblanadi.

Atrofda, chang bosib yotgan keng maydonda, onda-sonda bug'doy boshloqlari so'lib salom berib turibdi, aftidan, mahalliy bog'bonlar bug'doyni havasga o'stirishgan bo'lib, bu ovloq yerga kelib qolgan sayohatchilarning quloq-miyasini qoqib qo'liga beradigan chirildoq chigirtkalarga qo'noq bo'lib xizmat qilar edi.

Bu qovoqxona er-xotinning qo'liga o'tganiga rosa yetti yil bo'ldi. Ularning faqat ikkitagina xizmatchisi – Trinetta nomli ayol va Pako nomli otboqari bor edi, aslida ikki xizmatchi kifoya edi kovoqxonaga, chunki Boker bilan Eg-Mort o'rtasida kanal kazilgach, pochtani otlarda emas, yuk kemasida, yo'lovchilarni izvoshda emas, kemada tashiydigan bo'lib qoldi.

Bu kanal, sho'rlik qovoqxona xo'jayinining yarasiga tuz sepib, u suv ichidagi Rona daryosi bilan yo'l o'rtasida, qovoqxonadan atigi yuz qadamcha naridan o'tardi.

Bu faqirona qovoqxonaning xo'jayini qotma, novcha, qing'ir burun, tishlari oppoq, haqiqiy janub kishisi edi.

Ich-ichiga tushib ketgan ko'zlari hamisha chaqnab turardi. Qarilik eshigini qoqib kelayotganiga qaramay, sochlari qalin, baroq soqoli qora, onda-sonda oq tusha boshlagan. Azaldan sariq mag'iz yuzlari ertadan kechgacha eshik oldida xo'randa kutib, tamom qorayib ketgan edi, bu kutishlar ko'pincha behudaga chiqardi. Bu bizning eski tanishimiz Gaspar Kadruss edi. Uning qiz chog'ida Madlen Radel deb atalgan xotini rangpar, ozg'in, dardchil ayol edi. U Arl yaqinida tug'ilgan bo'lib, o'sha o'lkaning ayollari kabi suluv edi, biroq Eg-Mart ko'llari, Kamarg balchiqzorlari yaqinida yashovchilar o'rtasida tarqalgan ich bezgagi kasali tufayli uning yuzlari so'lib qolgan edi. Mana shu sababli u ikkinchi qavatdagi xonasidan tashqariga kamdan-kam chiqar, kun bo'yi bezgagi xuruj qilib, karavotidan yoki yumshoq kursidan turmasdi, tashqari eshik ostonasida uzzukun sarg'ayib o'tirib, kechqurun qaytganida, taqdiridan noliyverib erining joni-ga tegib, bezor qilardi. Eri esa unga falsafiy javob qilardi:

– Bas qil, Karkonta! Xudoyimning yozgani shu.

Xotiniga «Karkonta» degan laqab qo'yishining sababi shuki, Madlena Radel Salon bilan Lambeks o'rtasidagi Karkonta qishlog'ida tug'ilgan. O'sha rayonlarda odamlarning laqabini aytib chaqirish odat bo'lib qolganidan xotinini Madlena deb emas, o'z qo'pol ovozigina joziba berish uchun bo'lsa kerak, uni Karkonta deb chaqiradigan bo'lib qolgandi Kadruss.

Qovoqxonachi til uchida ilohiy taqdirga tan berdi-yu, ammo o'zi ham kanalning kasofati bilan ishlari yurishmay, mushkul holga tushib qolganidan ichida xo'p nolir, kuyib jizg'anak bo'lib yurardi... Shuning uchun xotinini bu borada koyishi shunchaki yuzaki gap edi. Barcha janub kishilaridek, u ham nafsini tiya oladigan, injiqlik, tantilikni bilmaydigan zot bo'lib, hamma yerda kekkayib, hech kimdan keyinda qolgisi kelmasdi. Farog'atda yashagan kunlarida bironta sayr-tomoshga, o'yin-kulgidan qolmas, Karkontasini qo'ltiqlab, hozir bo'lar edi. Ikkisining kiyimi bashang bo'lur edi. Kadrussning ustida bichimi ham katalancha, ham andaluzcha go'zal kostyum, xotining ustida arlezin xonimlarining greklar va arablarnikiga o'xshash go'zal libos bo'lardi. Lekin bora-bora soatlarining oltin zanjirlari, marvarid-marjonlar, rango-rang kammarlar, baxmal kamzullar, shoyi paypoqlar, kumush to'qali kavushlar birin-ketin qo'ldan ketaverdi. Gaspar Kadruss esa odamlar oldiga ilgarigidek bashang kiyinib chiqish imkoniyatidan mahrum bo'lib, qovoqxonaga atrofida bo'layotgan va sho'x, shovqin-suronlari bilan yuraklarni pora-pora qilayotgan bayramlarga o'zi ham, xotini ham mutlaqo qatnashmay qo'ydi. Qovoqxonani esa faqat foyda ketidan yugurib emas, biror boshpanaga ega bo'lish uchun ham saqlab turardi.

Kadruss odatdagicha tong otishi bilan qovoqxonaga eshigi ostonasiga chiqib olib, goh tovuqlar izg'ib yurgan ko'lobga, goh ikki tomonga – janubga va shimolga cho'zilib ketadigan bo'm-bo'sh yo'lining to'riga qayg'uli ko'zlarini tikib o'tirardi. Shu payt dabdurustdan xotining

chinqirgan ovozi eshitildi, u darhol postini tashladi-da, vaysab-vaysab ikkinchi qavatga ko'tarildi. Birov kelib qolsa, marhamat qilib kiraversin, degandek eshikni lang ochiq qoldirib ketdi.

Kadruss ichkariga kirgan paytda, hali biz tasvir etgan va boya qovoqxona xo'jayinining ko'zlari nigoron bo'lgan katta yo'lda hamon inson zotining qorasi ham ko'rinmasdi. Yo'l ikki tomonda qatorlashib so'ppayib turgan daraxtlar o'rtasida oxiri yo'q oppoq tasma kabi cho'zilib yotar-di. Bu sahroda shu payt o'z ixtiyori bilan kimning yurgisi kelardi, deysiz.

Ammo shunga qaramay, har ehtimolga qarshi agar Kad-russ o'rnidan qo'zg'almay turganda, Belgard tomonidan otiga ozor bermay asta yo'rttirib kelayotgan kishi qovoq-xonaga yaqinlashib kelayotganini ko'rib o'zida yo'q quvongan bo'lur edi. Otliq, jazirama oftobga qaramay, ustiga uzun qora sutana, boshiga uch burchakli qalpoq kiyib olgan kashish edi. Yo'rg'a asta yelib-yugurib kelardi.

Kashish qovoqxona eshigi oldida to'xtadi, ot xo'jayi-nini to'xtatdimi yoki xo'jayin otnimi – bilib bo'lmasdi. Bun-dan qat'i nazar kashish otdan tushdi-da, jilovini omonat deraza eshigi halqasiga bog'lab qo'ydi, eshik oldiga kel-di va qizil chit ro'molchasi bilan yuzidan marjon bo'lib oqayotgan terni artdi, so'ng qo'lidagi hassasining temir dastasi bilan eshikni uch marta qoqdi.

Buzoqdek qora ko'ppak irg'ib turib, bir necha qadam yugurib tovushining boricha vovilladi. Bu ham qovoqxo-naga odam juda kamdan-kam kelayotganining dalili edi. Devorga yopishtirib yasalgan taxta zina shu zahoti bu faqir kulba egasining qadamlari ostida qisirlay boshladi, u egi-lib-bukilib, orqasi bilan eshik oldida turgan kashish oldiga tushib keldi.

– Tushyapman, hozir, – derdi hayratda qolgan Kadruss. – O'chir ovozingni, Margo! Janob, qo'rqmang, vovillaydi-yu, qopmaydi. Vino ichishni istab qolgan bo'lsalar kerak, shundaymi? Oftob rosa jazillatyapti-da... Ah, kechiring

meni, – davom etdi Kadruss yo'lovchining qay toifa odamlardan ekanini fahmlab qolib. – Afv eting, mehmonim kimligini bilmay qolibman. Marhamat qilib ayting, nima bilan mehmon qilay, istaganingizni ayting, janob abbat?

Abbat bir necha daqiqa Kadrussga diqqat bilan tikilib turdi, u hatto o'ziga uning e'tiborini jalb qilmoqqa urinayotgandek bo'lardi. Qovoqxonachi kashish savoliga javob bermayotganidan taajublanib hang-mang bo'lib qolganini ko'rgan abbat bu holatga barham berishga qaror qildi-da, italyan talaffuzida dedi:

– Siz janob Kadruss emasmisiz?

– Ha, men, – dedi xo'jayin yana taajublanib, – men kaminangiz Gaspar Kadrussning xuddi o'ziman.

– Gaspar Kadruss? Ha, demak, xuddi o'shaning o'zi. Bir vaqtlari Melyan xiyobonida to'rtinchi qavatda istiqomat qilardilar, shekilli?

– Xuddi shunday.

– Mashinachilik hunari bilan shug'ullanarmidilar o'shanda?

– Shunday, biroq ishim yurishmadi. Bu la'nati Marsel-da havo shu qadar isib ketdiki, ko'p o'tmay hamma qipyalang'och bo'lib olsa kerak. Siz ham issiqda ancha dimiqqandirsiz, bir oz chanqoqni bostirib olarsiz?

– To'g'ri. Eng yaxshi vinongizdan bir shisha keltiring, so'ng suhbatni davom ettiramiz.

– Xo'p bo'ladi, janob abbat, – dedi Kadruss.

So'ng Kadruss oxirgi kagor vinosidan bir shishasini pulab olish uchun uy taxta poli ostidagi yerto'laning eshigini ochdi-da, pastga tushib ketdi.

Besh daqiqadan so'ng, u qaytganida, abbat stulda stolga tiranib o'tirgandi. Shu vaqt jazavasi bosilgan Margo mehmon vino so'raganini eshitib uning tizzasiga ingichka bo'ynini qo'ydi-da, ko'zlarini mo'ltillatib tikilganicha qoldi.

– Bu yerda yakka o'zingiz turasizmi? – so'radi abbat xo'jayindan vinoni stolga qo'yayotganda.

– Ha, yakka o'zim, janob abbat, yakka o'zim desam bo'ladi, chunki xotinim, sho'rlik Karkontamning yordami

tegmaydi.

– Uylanganman deng! – dedi hamdardlik ohangida abbat, so'ng bechora oilaning ro'zg'orini baholab ko'rayotgandek atrofga nazar tashlab chiqdi.

– Meni juda kambag'al odam ekan deb o'ylayotgan bo'lsangiz kerak, janob abbat? – dedi Kadruss xo'rsinib, – nima qila olardim, ilojim qancha? Bu dunyoda farog'atda yashash uchun halol bo'lishgina kamlik qiladi, shekilli.

Abbat unga sinovchan nazar tashladi.

– Ha, xuddi shunday, halollik bilan kun kechiryapman deb maqtansam bo'ladi, janob abbat, – dedi abbatning ko'zlariga tik qarab va qo'llarini ko'ksiga bosib xo'jayin, – bizning hozirgi zamonda bunday deyishga hamma ham jur'at qilolmaydi.

– Gaplaringiz haq bo'lsa, bu juda ajoyib fazilat, – dedi abbat, bir kun borib halol, vijdoni pok kishilar, so'zsiz murodiga yetadi, yovuz, vijdonsizlar jazolanadi, mening bunga imonim komil.

– Kasb-koringiz shunday deyishni taqozo qiladi sizga, janob abbat, – dedi e'tiroz bildirib Kadruss, – lekin so'zingizga ishonish-ishonmaslik har kimning o'z ishi.

– Shunday deb chakki o'ylaysiz, janob, – dedi abbat, – so'zlarim haq ekanini ehtimol hali o'zim ham dalillab berurman.

– Qanday qilib? – so'radi ajablanib Kadruss.

– Mana bunday qilib: avvalo menga kerak kishi chindan ham siz ekaningizga ishonchim bo'lmog'i kerak.

– Sizga qanday dalillar kerak?

– Bir ming sakkiz yuz o'n to'rtinchi yili yoki bir ming sakkiz yuz o'n beshinchi yili Dantes degan dengizchini tanirmidingiz?

– Dantes! Sho'rlik Edmonni juda yaxshi tanirdim! Nega endi uni tanimas ekanman! U mening eng yaqin do'stim edi! – xitob qildi Kadruss rangiga qon yugurib. Abbatning charog'on va osoyishta ko'zlari olayib hamsuhbatiga tikilgan edi shu payt.

– To'g'ri, uning nomi Edmon edi, shekilli.

– Ha, uning nomi Edmon edi! Bunda hech shubha bo‘lishi mumkin emas! Mening ismi-sharifim Gaspar Kadruss ekani qanchalik haq bo‘lsa, uning nomi Edmon ekani ham shunchalik haq! Janob abbat, bechora Edmonning taqdiridan xabaringiz bormi? – davom ettirdi so‘zini qovoqxonachi, – Siz uni tanirmidingiz? Hayotmikin? Ozodmikin? Baxtiyormikin?

– U Tulon surgunlarida umri yadro sudrab o‘tayotgan mahbuslardan battarroq azob chekib turmada o‘lib ketdi. Kadrussning qip-qizil yuzlari bir zumda murda kabi oqarib ketdi, u orqaga o‘girildi-da, boshidagi alvon ro‘mol-chasining uchi bilan ko‘z yoshlarini artidi.

– Sho‘rlik, Edmon! – dedi Kadruss. – Mana sizga janob abbat, boyagi mening so‘zlarimga yana bir dalil. Tangrim, faqat yaramas odamlarga mehr-shafqat ko‘rsatadi. – Mana shunday, – davom etdi Kadruss, – bu dunyoda yovuzlik kundan-kunga kuchayib boryapti, qani endi osmondan avval oltingugurt, uning ketidan olov yog‘sa-da, qiyomat qoyim bo‘la qolsa! Bu azob-uqubatlardan bira to‘la qutulib qo‘ya qolardik.

– Chamasi, siz u yigitni astoydil yaxshi ko‘rarkansiz-da, – dedi abbat.

– Haq gap, men uni juda yaxshi ko‘rardim, – dedi Kadruss, – ammo bir safar men uning baxtiyor bo‘lganini ko‘rib hasadim kelgan edi. O‘sha qilmishimdan haliyam pushaymonman, so‘ng uning baxtsizlikka duchor bo‘lganini eshitib qattiq achindim, qayg‘urdim.

Bir daqiqa sukunat cho‘mda, abbat sinovchan ko‘zlarini qovoqxonachining ma‘nodor chehrasiga tikkancha jim bo‘lib qoldi.

– Siz ham u sho‘rlikni tanirmidingiz? – so‘radi Kadruss.

– U o‘lim to‘shagida jon berayotganida meni janoza o‘qish uchun chaqirtirgan edi, – dedi abbat.

– Qanday kasalga chalinibdi? – so‘radi bo‘g‘iq ovozda Kadruss.

– Kishi o‘ttiz yoshga kirganda turmada shu turmaning benihoya azob-uqubatidan bo‘lak nimadan o‘lishi

mumkin?

Kadruss yuzidan sharillab oqayotgan terni artdi.

– Bir narsa meni hayratda qoldirdi, – davom etdi abbat, – Dantes dunyodan ko‘z yumayotib, hali-hozirgacha nima uchun qamoqqa olinganimni, Xudo haq, bilmayman, deb mening oldimda ont ichdi.

– To‘g‘ri, juda to‘g‘ri, – dedi ohista ovoz chiqarib Kadruss, – u bilolmasdi ham. Ha, janob abbat, sho‘rlik yigit to‘g‘ri aytibdi.

– Shuning uchun u baxtsizlikka duchor bo‘lishining sababini aniqlashni, mabodo uning sha‘niga nohaq qora dog‘ tushirilgan bo‘lsa, u dog‘ni yuvib tashlab, nomini qayta oqlashni topshirdi menga.

Abbat shu payt ko‘zlarini Kadrussning g‘am-alamga to‘la yuziga yanada qattiqroq tikdi.

– Bir boy ingliz, – davom ettirdi so‘zini abbat, – u bilan turmada birga bo‘lib, birga kulfat chekib, inoqlashib qolgan ekan. Ingliz restavrasiya davrida turmadan ozod bo‘lib chiqibdi. Uning juda qimmatbaho olmosi bor ekan. Turmadan bo‘shayotib u olmosni kasal yotganida xuddi jigaridek parvarish qilgani uchun Dantesga tuhfa qilibdi. Dantes esa turma soqchilariga buni poraga berishdan naf bo‘lmasligini bilib (chunki, ular pora berdi, deb uni tutib berishardi) ozod bo‘lsam asqatadi, deb ehtiyot qilib saqlab kelgan ekan. Agar u turmadan qutulib chiqqanda edi, o‘sha olmosni sotib darrov boyib qolardi.

– Olmos? – so‘radi ko‘zlari yonib Kadruss, – juda qimmat turardi deng?

– Dunyoda hamma narsa nisbatli, – dedi abbat. – Edmon uchun olmos katta boylik edi, uni ellik ming frank turadi deyishadi.

– Ellik ming frank! – qichqirib yubordi Kadruss. – Demak, yong‘oqday ekan-da?

– Sal kichikroq, – dedi abbat, – o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rib aniqlashingiz mumkin, chunki olmos menda.

Kadrussning ko‘zlari alang-jalang qilib olmosni axtarayotgandek, abbatning qo‘yin cho‘ntagiga tikila boshla-

di.

Abbat mayin charm qoplangan qutichani cho'ntagidan chiqarib ochdi-da, uzukka o'rnatilgan ajoyib olmosni anqayib qolgan Kadrussga ko'rsatdi.

– Shu ellik ming frank turadimi?

– Uzukdan tashqari, uzukning o'zi ham juda qimmat, – javob qildi abbat.

U qutichani bekitib, cho'ntagiga soldi. Kadrussning ko'z oldida olmos hamon yarqirab turardi.

– Bu olmos qanday qilib sizning qo'lingizga tushib qoldi? – so'radi Kadruss. – Nahotki, Edmon sizni o'zining merosxo'ri etib e'lon qilgan bo'lsa?

– Merosxo'ri emas, ruhining hokimi qilib tayinladi. U menga shunday dedi: «Mening uchta mehribon do'stim va qaylig'im bor edi, aminmanki, to'rttovi ham menga ich-ichidan achingandir. Ulardan biri Kadruss edi. – Kadruss seskanib ketdi. Abbat Kadrussning bu holatini ko'rma-ganga solib, davom etdi. – Ikkinchisining nomi Danglar, uchinchisi mening raqibim edi, ammo u ham meni se-vardi».

Kadrussning lablari titrab, ko'zlarida g'azab alangasi yondi, u abbatning so'zini kesmoqchi bo'ldi.

– To'xtang, sabr qiling, – dedi abbat, – men so'zimni tugatay, biror nima demoqchi bo'lsangiz, so'ng aytarsiz. «Uchinchisi mening raqibim edi, ammo u ham meni se-vardi, uning nomi Fernan, qaylig'imning, qaylig'imning nomi... nomi...» qaylig'ining nomini unutilibman.

– Mercedes, – dedi Kadruss.

– Ha, xuddi shunday, – dedi xo'rsinib abbat, – Merse-des.

– Xo'sh, so'ng nima bo'ldi? – so'radi Kadruss.

– Menga bir grafin suv keltiring, – dedi abbat. Kadruss yugurib borib suv keltirdi.

Abbat suvni stakanga quydi-da, bir necha qultum yutdi.

– Nimada to'xtagan edik? – so'radi u stakanni stolga qo'yib.

– Qaylig'ining nomi Mercedes edi.

– Ha. «Siz Marselga borasiz...» Bu soʻzlarni Dantesning oʻzi aytdi, tushunyapsizmi?

– Tushunib turibman.

– «Mana shu olmosni sotib, sevimli besh doʻstimga taqsimlab berasiz».

– Nega beshta boʻlib qoldi? – dedi Kadruss. – Siz meniga faqat toʻrttasini aytgan edingiz-ku.

– Chunki, beshinchisi dunyodan oʻtdi, deyishdi meniga... Beshinchisi Dantesning otasi edi.

– Hayhot, toʻgʻri gap, – dedi qarama-qarshi hissiyotlar dilini chilparchin qilayotgan Kadruss, – shoʻrlik chol vafot etdi.

– Men buni Marselda eshitdim, – dedi abbat, oʻzini beparvo tutishga urinib, – uning vafot etganiga koʻp vaqt boʻpti, shu sababli men tafsilotini bilolmadim... Ehtimol cholning oʻlimi tafsiloti toʻgʻrisida siz biror narsa bilarsiz?

– Men bilmay kim bilardi?... – dedi Kadruss. – Men unga qoʻshni edim... E, Parvardigor! Oʻzingga ayonki, chol oʻgʻli gʻoyib boʻlgandan bir yil oʻtar-oʻtmas qazo qildi!

– Qanaqa kasaldan oʻldi u?

– Doktorlar, yanglishmasam, oshqozon yalligʻlangan, deyishdi... Tanish-bilishlari esa uni qaygʻu-alam adoyi tamom etdi, deyishdi... Ammo uning qanday qilib oʻlganini oʻz koʻzim bilan koʻrib turganman... u...

Kadrussning tili kalimaga kelmay qoldi.

– Nimadan? – soʻradi tashvishga tushib abbat.

– Ochlikdan oʻldi!

– Ochlikdan? – qichqirib yubordi abbat oʻrnidan irgʻib turib. – Ochlikdan? Eng pastkash maxluq ham ochdan oʻlmaydi. Koʻchama-koʻcha daydib yuradigan itga ham bir burda non tashlaydigan rahmdillar topiladi, ammo Xudoning bir moʻmin bandasi, xristian dinining quli oʻzlari ni xristian deb atovchi kishilar orasida ochlikdan oʻlib ketibdi-a! Bunga chidab boʻladimi? A, qanday qilib chidab boʻladi!

– Men sizga boʻlgan gapni aytyapman, – dedi Kadruss.

– Bekor aytibsan, – degan tovush eshitildi zinadan, – nima qilasan birovning ishiga aralashib?..

Suhbatchilar orqaga o'girilib, zinada Karkontaning za'faron yuzini ko'rdilar, u kulbasidan sudralib chiqib abbat bilan erining so'zlariga quloq solib o'tirgan edi.

– Sen o'zing nechuk suqulyapsan birovning ishiga, a, xotin? – dedi Kadruss. – Janob abbat mendan bilgan narsalarimni aytib berishni so'rayapti, odob yuzasidan men unga so'raganlarini aytib beryapman.

– Aql-idrokli kishi indamay o'tiraveradi. Axir, tentak, sendan nima niyatda so'rayotganlarini bilmaysan-ku!

– Eng yaxshi niyat bilan so'rayapman, bekam, – dedi abbat, – ishontirib aytamanki, eng yaxshi niyatlar bilan. Eringiz aslo xavotir olmasin, faqat haqiqatni aytib bersa bas, menga.

– Bunaqalarning ko'pini ko'rganmiz... Dastlab qop-qop va'da berishadi-da, va'dalarining ustidan chiqmay «xavotirlanmang» deb jo'nab qolishadi, so'ng kunlardan bir kun baloyi azim qayoqdan kelib giriboningdan tutganini bilmay qolasan.

– Xotirjam bo'ling, – dedi abbat, – mening sizga zararim tegmaydi.

Karkonta tag'in allanimalarni valdirab boshini qo'llariga qo'yib yonboshladi va gapni eriga qo'yib berdi, o'zi yana diqqat bilan tinglay boshladi.

Shu orada abbat bir oz suv ichib, o'zini bosib oldi.

– Rostdan ham, – dedi yana so'z boshlab abbat, – u bechora chol kimsasiz qolib, ochdan o'ldimi?...

– Yo'q, yo'q! – javob berdi Kadruss, – katalanilik Mercedes va janob Morrel uni tashlab qo'ymadilar, tez-tez kelib turdilar, biroq chol Fernanni juda yomon ko'rib qoldi, o'sha Dantes mening do'stim degan Fernanni.

– Axir u Dantesning do'sti emas ekanmi? – so'radi abbat.

– Gaspar! Gaspar! – qichqirdi zinapoyada yonboshlab yotgan bemor Karkonta. – O'ylamay gapirgan og'rimay o'lar, degan maqolni unutma!

Kadruss, vag'illayverma, degandek qo'lini siltab qo'ya qoldi.

– Sevgan qaylig'ingni tortib olgan kishi do'st bo'larmidi! – dedi u abbatga. – Dantes soddadillik bilan ularning hammasini do'stim deb aytgandir... Sho'rlik Edmon! U bu voqealarni bilmagani yaxshi bo'пти, o'lim to'shagida bularning gunohidan o'tolmay qiynalardi bechora... bo-shqalar nima desa deyaversin, ammo men tiriklarning nafratidan ko'ra o'liklarning qarg'ishidan ko'proq qo'rqaman.

– Ahmoq! – dedi Karkonta.

– Haligi Fernan nima qilganini siz bilasizmi? – dedi abbat.

– Bilasizmi emish! Albatta bilaman!

– Ayting bo'lmasa.

– Ixtiyor o'zingda, Gaspar, – dedi xotini, – bilganingni qil, biroq «tuya ko'rdingmi, yo'q, biya ko'rdingmi yo'q» deb jim o'tirganing yaxshi edi-da.

– Bu gal sen haqsan, – dedi Kadruss.

– Demak, siz aytib bermaysizmi? – davom etdi abbat.

– Buning nima keragi bor endi? – javob qildi Kadruss.

– Edmon tirik bo'lsa-yu, yonimga kelib mendan do'sti kim, dushmani kim ekanini so'rasa mayli edi, hamma gapni to'kib solardim, biroq siz uni go'rda yotibdi dedingiz, endi u nafratlana olmaydi, qasos ham ololmaydi, shunday ekan, keling, bas qilaylik bu gaplarni.

– Demak, – dedi abbat, – o'zingiz xoin va soxta do'stlar deb atagan kishilar boyagi tuhfalarni olaversin demoqchimisiz?

– Haq gapni aytdingiz! – dedi Kadruss. – Biroq Dantesning tuhfasini nima bo'lardi, ularga? Dengizdan bir tomchi!

– Buning ustiga u zotlar kichkina jinjiloqchasi bilan seni yer bilan yakson qilib qo'ya qolishi mumkin, – dedi xotini.

– Shundaymi hali! U odamlar shunaqa kuchli va baddavlatmi?

- Nahotki, siz ular to'g'risida hech nima bilmasangiz?
- Bilmayman. Aytib bering menga.
- Kadruss o'ylanib qoldi.
- Yo'q, bo'lmaydi, bu juda uzoqqa cho'ziladigan gap.
- Mayli, aytasizmi-yo'qmi – o'zingiz bilasiz, – dedi abbat o'zini beparvo ko'rsatib. – Ikkilanishga haqlisiz. Bo'ldi, endi bu haqdagi gaplarni yig'ishtirdik. Menga nima topshiriq bergan edi? Rahmatlining oxirgi orzusini bajari-shim kerak endi. Bo'пти, bu olmosni sotaman.
- Abbat shunday dedi-da, cho'ntagidan yana qutichani olib ochdi, qimmatbaho tosh Kadrussning zavqqa to'la ko'zlari oldida jilvalanib yondi.
- Ey, xotin bu yoqqa kel, bunga qara, – dedi u bo'g'iq ovozda.
- Olmos dedingmi? – so'radi Karkonta o'rnidan tura-yotib. Zinadan sog' kishiga o'xshab tushib keldi. – Bu qanaqa olmos ekan o'zi?
- Hali eshitmovdingmi? – dedi Kadruss, – bu olmosni Edmon bizga vasiyat qilib qoldiribdi: avvalo otasiga, so'ng uchala do'sti – Fernanga, Danglarga va menga hamda qal-lig'i Mercedesga. Olmos ellik ming frank turadi.
- Oh, qanday ajoyib olmos ekan bu! – dedi xotini.
- Demak, bu pulning beshdan bir qismi bizga tegadi-da, shundaymi, janob abbat? – so'radi Kadruss.
- Ha, sizga tegadi, – javob qildi abbat. – Dantesning otasiga tegishi kerak bo'lgan ulushni ham qo'shib olasiz. Buni to'rttovlaringga bo'lib beraman.
- Nega endi to'rt kishiga bo'lasiz? – so'radi Karkonta.
- Chunki Edmonning do'stlari to'rtta-da.
- Do'st emas, xoin ular! – dedi g'o'ng'illab Karkonta.
- Men ham xuddi shunday degan edim, – gapga qo'shildi Kadruss. – Xoinni, to'g'rirog'i, jinoyatchini mukofotlash – bu og'ir gunoh, hatto pastkashlik.
- O'zingiz shunga xohish bildiriyapsiz-ku, – dedi osoy-ishtalik bilan abbat olmosni cho'ntagiga solib. – Qani menga Edmon do'stlarining manzilini bering, marhumning so'nggi iltimosini bajo keltiray.

Kadrussdan qora ter chiqib ketdi. Abbat o'rnidan tur-di-da, eshik oldiga borib otga qarab qo'ydi, so'ng yana joyiga qaytdi. Kadross bilan xotini bir-biriga alanglab hang-mang bo'lib qolgan edi.

– Olmos butunlay bizga tegishi mumkin edi, – dedi Kad-russ.

– Rostdanmi? – dedi xotini.

– Din sohibi aldamaydi kishini.

– Unday bo'lsa, – dedi Karkonta, – bilganingni qil. Men aralashmayman.

Karkonta yana zina tomonga jo'nadi. Jazirama oftob-ga qaramay bezgak titratib tishlarini shaqillatardi becho-ra ayolning.

Karkonta oxirgi zinapoyada to'xtab dedi:

– Gaspar, o'zing yana yaxshilab o'ylab ko'r.

– Bo'ldi, qaror qildim, – dedi Kadross.

Karkonta og'ir nafas oldi-da, kulbasiga kirib ketdi, uning oyog'i ostida taxta pol g'iyqillagani va so'ng gav-dasi tushgan kursining g'ijirlagani eshitilib turardi.

– Nimaga qaror qildingiz? – so'radi abbat.

– Hammasini sizga aytib berishga qaror qildim, – dedi Kadross.

– Ochig'ini aytganda, yaxshisi shunday qilganingiz ma'qul, – dedi abbat. – Bu sir saqlamoqchi bo'lgan narsala-rimni bilib olish uchun shunday deyapti deb o'ylamang, faqat marhumning xohishi asosida merosni taqsimlash-ga yordam berasiz, deb shunday deyapman.

– Men sizga ishonaman, – dedi Kadross. Uning yuzlari umid va tamagirlik-la yonib turardi.

– Qulog'im sizda, – dedi abbat.

– Bir zum sabr qiling, – dedi Kadross, – odamning g'ashi-ni keltirib suhbatimizni qizigan joyda bo'lib qo'yishlari mumkin. Yana sizning bu yerga tashrif buyurganingizni boshqalar bilmagani ma'qul.

U borib eshikni qulfladi va xavf-xatardan batamom so-qit bo'lib olish uchun tungi lo'kidonni ham solib qo'ydi. Shu orada abbat ham o'ziga qulay o'rin topib oldi, o'zini

qorong'iga olib, burchakka o'tirdi, yorug' faqat hamsuhbatining yuziga tushib turardi. Abbat boshini quyi solib, qo'llarini qovushtirdi-da, butun vujudi bilan hikoyani tinglashga taxt bo'lib turdi.

Kadruss stulni yaqinroq tortib abbatning ro'baro'siga o'tirdi.

– Shuni unutmaginki, seni men majbur qilganim yo'q!
– Karkontaning titroq ovozi edi bu. Ayol pastda nima bo'layotganini go'yo devor orqasidan ko'rib turgandek edi.

– Ha, bo'ldi, bo'ldi, – dedi Kadruss, – bas qil, hammasini o'z gardanimga olaman, hammasini!

So'ng hikoyani boshladi.

VI. KADRUSNING HIKOYASI

– Dastlab, – dedi Kadruss, – sen sizdan bir narsada va'da berishingizni iltimos qilaman.

– Qanaqa va'da? – so'radi abbat.

– Men aytib bergan ma'lumotlardan qachon bo'lmasin foydalansangiz, bularni mendan eshitganingizni hech kim bilmasligi kerak, men tilga oladigan odamlar juda katta kuchga va boylikka ega bo'lib, meni bir chertishda chilparchin qilib yuborishlari hech gap emas.

– Azizim, xotirjam bo'ling, – dedi abbat, – men ruhoniy, din mansabdoriman, bu sir go'rga kirgunimcha ichimda saqlanadi. Shuni esda tutingki, siz bilan mening yagona maqsadimiz – marhumning so'nggi daqiqadagi istagini bajo keltirishdir. Hech kimni ra'y-andisha qilmay, ammo o'zingizni bosib olib gapiravering. Rostini, faqat rost gapni ayting... Siz hozir tilga oladigan kishilarni men tanimayman va ehtimol bundan so'ng ham hech vaqt tanimay o'tarman. Buning ustiga men fransuz emas, italyanman, Xudoning bir quliman. Marhumning oxirgi istagini bajo keltirish maqsadida – faqat shu maqsadda monastirdan chiqib bu yoqqa keldim, burchimni ado etgach, yana mo-

nastirga qaytaman.

Bu ishonchli dalillar, aftidan, Kadrussning ishonchini komil etdi, shekilli, u chehrasi ochilib dedi:

– Unday bo'lsa, sizga sho'rlik Edmon o'ylagan do'stlari haqiqiy do'st emas, tilyog'machilar ekanini aytib berishim kerak.

– Hikoyani otasidan boshlashingizni iltimos qilaman, – dedi abbat. – Edmon otasi to'g'risida juda ko'p gapirgan edi, otasiga mehr-muhabbati benihoya edi uning.

– Otasining tarixi juda qayg'uli, – dedi Kadruss boshini chayqab, – bu tarixning boshi sizga ayon bo'lsa kerak.

– Ha, ayon, – javob qildi abbat. – Edmon Marsel yonidagi kichik bir restoranda uni qamoqqa olganlariga qadar bo'lgan gaplarning hammasini menga hikoya qilib bergan edi.

– «Rezerv» nomli restoranda! O'sha paytda yuz bergan voqea hali-hozirgacha ko'z oldimda gavdalanib turibdi.

– O'sha kuni ularning nikoh to'yi bo'lgan, shekilli?

– To'y sharafiga berilgan ziyofat juda zo'r xursandchilik bilan boshlangan edi, ammo g'am-g'ussa bilan tugadi: restoranga polisiya komissari to'rt soldat bilan kirib keldi-da, Dantesni qamoqqa olib ketdi.

– Men voqeani faqat ana shu yerigacha bilaman, – dedi abbat. – Dantes faqat shaxsan o'ziga taalluqli bo'lgan narsani bilardi, chunki u o'sha daqiqadan so'ng men sizga nomlarini aytgan kishilarning birontasini ko'rmagan va ular haqida hech nima eshitmagan.

– Ana o'shandan keyin, ya'ni Dantes qamoqqa olingach, janob Morrel nima gapligini bilish uchun Marselga bordi va juda qayg'uli xabar keltirdi. Dantesning otasi uyiga yakka qaytib keldi-da, zor yig'lab to'yda kiygan kiyimlarini yechib tashlab, kun bo'yi xonasida yurib chiqdi va tunni mijja qoqmay o'tkazdi. Men u vaqtda cholning xonasi tagidagi uyda turardim, tun bo'yi yer tepib chiqqani o'z qulog'im bilan eshitganman, o'shanda o'zim ham bir zum ko'z yummay tong ottirganman: cholning boshiga tushgan og'ir kulfatdan men ham qayg'urdim, aziyat

chekdim, uning har bir qadam tovushi yuragingga xanjar bo'lib sanchilardi.

Ertasi kuni Mercedes kelib Vilfor janoblaridan rahmshafqat qilishni, homiy bo'lishni iltimos qilgan, ammo hech nima qilolmay qaytib cholning huzuriga kirdi, g'amgin va noumid sho'rlikning tun bo'yi mijja qoqmagani va kechadan buyon tuz totmaganini bilib, cholni uyiga olib ketmoqchi bo'ldi, lekin chol bormayman deb, oyog'ini tirab turib oldi.

«Yo'q, – dedi chol, – kulbamni tashlab ketmayman. Bechora o'g'lim meni o'z jonidan ham yaxshi ko'radi, mabodo uni turmadan ozod qilgudek bo'lsalar, u to'ppato'g'ri yugurib uyga keladi. Kelsa-yu, bu yerdan meni topolmasa nima bo'ladi? Turli o'y-xayollarga tushishi mumkin-ku?» Men zinapoya sahnida bu gaplarning hammasini eshitib turgan edim, men ham, Mercedes ham cholni ko'ndirib olib ketishini istardim. Tepamda do'p-do'p etib yurgan tashvishli qadamlari menga orom bermasdi.

– Nahotki cholga taskin berish uchun uning oldiga kirmagan bo'lsangiz?

– Oh, janob abbat? – javob berdi Kadruss. – Taskinga muhtojlik izhor etgan kishiga taskin bermoq joizdir. Chol buni istamadi, yana nechundir, u meni ko'rishni xohlamaganday sezilardi. Kunlarning birida uning yig'lab, ingraganini eshitib chiqib bordim, biroq eshikka yaqin kelganimda, yig'ini qo'yib duo o'qiyotgan ekan. U shunday o'tkir, go'zal so'zlar bilan ibodat qildiki, sizga aytib bera olmayman, janob abbat, uning so'zlari, Tangridan qilgan iltijo-iltimoslari har qanday duo-ibodatdan ham kuchli edi. Axir men xudojo'y emasman, munofiq katoliklarni jinim suymaydi, shuning uchun o'shanda o'z-o'zimga dedim: «Xayriyatki, yakkaman, Tangrim menga farzand ato etmagan, mabodo farzandim bo'lib, so'ng shu baxti qaro chol

ning laqabi.

¹⁷ Mashhur oliyhimmat Edma Shamponning laqabi (1764 – 1852).

kabi dard-alam o'tida yonsam, Tangriga iltijo qilish uchun bunchalik so'zlar topolmagan va bu azob-uqubatlarga bardosh berolmasdim-da, shartta borib o'zimni dengizga uloqtirardim qo'yardim».

– Sho'rlik, ota! – dedi salgina ovoz chiqarib abbat.

– Kundan-kunga odamovi bo'laverdi chol, uni janob Morrel va Mercedes tez-tez ko'rgani kelishar, biroq eshik qulf bo'lardi. Ular taqillatsa ham ochmasdi. Bir safar u odatini buzib, Mercedesni qabul qildi. O'zi g'am-g'ussa bilan yuragi qonga to'lib yurgan bechora qiz unga dalda bermoqchi bo'lganida, chol bunga javoban shunday dedi: «Qizim, senga rostini aytyapman, Edmon dunyodan o'tdi, endi biz uni emas, u bizni kutyapti. Bu men uchun yaxshi, chunki men yoshimni yashab bo'lganman, u bilan oxiratda birinchi bo'lib men uchrashaman».

Kishi naqadar mehr-shafqatli bo'lmasin, har ko'rgan-da dilini pora qilib tashlaydigan odamnikiga borishdan yuragi bezillab qoladi. Pirovard natijada kekxa Dantes butunlay yolg'izlikka mahkum bo'ldi. Shundan keyin uning xonasiga biron kishining kirganini ko'rganim yo'q. Ahyon-ahyon qandaydir notanish kishilar kirib, qo'lida tugun ko'tarib asta chiqib ketib yurishdi. Ko'p o'tmay bu tugunlarda nimalar borligini fahmlab oldim: u bisotidagi bor narsalarini oz-ozdan nonga almashtirgan ekan. Oxirida qolgan mayda-chuyda ashqol-dashqollarini uy haqiga to'ladi.

O'shandan keyin men yana uch kun uyni gir aylanib yurganini eshitdim, biroq to'rtinchi kuni cholning xonasidan hech qanday tovush chiqmadi. Xabar olmoqchi bo'lib borgan edim, eshik qulf ekan. Qulf tirqishidan qarab uning rangida qon yo'q behol yotganini ko'rdim, tobi qochibdi, deb o'ylab janob Morrelga va Mercedesga xabar qildim. Ular darhol yetib kelishdi. Janob Morrel doktor olib keldi. Doktor oshqozoni, ichagi yallig'lanibdi, deb parhez ovqatlar buyurdi. O'sha paytda men uning yonida edim, doktorning gapini eshitib, cholning iljayib qo'ygan hali-hali esimda. Shundan keyin u eshikni qulflamay

qo'ydi: endi uning ovqat yemaslikka haqi bor edi, chunki doktor parhez buyurdi-da!

Abbat oh tortib yubordi bexosdan.

– Mening hikoyam sizga yoqmayaptimi, janob abbat?
– so'radi Kadruss.

– Ha, – dedi abbat, – juda ta'sirli hikoyangiz.

– Mercedes yana ikkinchi marta keldi, uning holi juda og'irlashganini ko'rib, uyiga olib ketmoqchi bo'ldi. Janob Morrel ham bu fikrga qo'shilib, uni hatto zo'rlab olib ketmoqchi bo'lishdi. Ammo chol dahshat solib qichqirib yubordi, ular qo'rqib ketishdi. Mercedes cholning yonida qoldi. Morrel janoblari, pul pech ustidagi katmonda, deb imo qilib chiqib ketdi. Lekin chol doktorning buyrug'ini pesh qilib, hech nima yemasdi. Chol to'qqiz kun tuz tati may yotib, uni baxti qaro etganlarga ming-ming la'natlar o'qib dunyodan o'tdi. U Mercedesga: «Mabodo qachon bo'lmasin Edmonni uchratib qolsangiz, dadang sendan rozi bo'lib o'ldi, deng», – deb tayinlagandi.

Abbat o'rnidan turdi-da, qaltirab turgan qo'lini qaqrab borayotgan tomog'iga bosib, xonani ikki bor aylanib chiqdi.

– Siz uni ochlikdan o'ldi, deb o'ylaysizmi?

– Ochlikdan, janob abbat, ochlikdan! – dedi javoban Kadruss. – Mening bunga imonim komil, ha, komil!

Abbat yarim stakan suvni qaltiroq qo'llari bilan oldida, dast ko'tarib ichib yubordi va joyiga o'tirdi. Uning ko'zlari qizarib, rangi o'chib ketgan edi.

– Bu nihoyatda og'ir baxtsizlik, tushudingizmi, katta baxtsizlik, – dedi u bo'g'iq ovozda.

– Bu Tangrining qahr-g'azabdan emas, nopok, iflos, vijdonsiz kishilarning qilmishidan, shunisi kishini g'azablantiradi.

– Qani, endi o'sha kishilar masalasiga o'taylik, – dedi abbat. – Hammasini oqizmay-tomizmay to'kib solaman, deb va'da berganingizni unutmang, – dedi u po'pisao-muz. – O'g'lini dilxastalik, otasini esa ochlik bilan go'rga tiqqan bu zotlar kim o'zi?

– Ikkitasi unga hasadi kelib, ichqoralik qilib yurardi: biri ishq-muhabbat yo'lida, ikkinchisi shuhratparastlik qilib. Buning birinchisi Fernan, ikkinchisi Danglar.

– Hasad ularni qanday yomon yo'llarga sudradi? Qani, ayting!

– Ular, bu bonapartchilar agenti, deb Edmon ustidan ma'lumot yozishdi.

– Ma'lumotni qaysinisi bergan edi? Haqiqiy aybdor kim?

– Ikkovi, janob abbat, ikkovi, biri ma'lumotni berdi, ikkinchisi olib borib pochtaga tashladi.

– Bu xat qaerda yozilgan edi?

– Xuddi «Rezerv»ning o'zida, to'ydan bir kun oldin.

– Xuddi aytganidek bo'lib chiqdi-a, – dedi shivirlab abbat. – Oh, azizim Faria, Faria! Odamlar va ularning kirdikorlarini sendan ham yaxshi biladigan inson bo'lmasa kerak bu dunyoda!

– Nimalar deyapsiz? – so'radi Kadruss.

– Hech nima, – javob qildi abbat, – davom etavering hikoyangizni.

– Danglar, xatimni tanib qolmasinlar, deb ma'lumotni chap qo'li bilan yozdi, Fernan olib borib pochtaga tashladi.

– Siz ham ularning oldida edingiz-da o'sha vaqtda! – xitob qildi dabdurustdan abbat.

– Men? – dedi taajjublanib Kadruss. – Birov sizga meni o'sha yerda edi, deb aytdimi?

Abbat haddan oshib ketganini sezib qoldi.

– Hech kim aytgani yo'q, – dedi u, – biroq bu kabi tafsi-lotlarni bilgan kishi voqeaning tepasida bo'lishi kerak-da.

– Haq gapni aytdingiz, – dedi bosiq ovoz bilan Kadruss, – men tepasida edim.

– Shunday ekan, siz nega ularning bu razil ishiga qarshilik ko'rsatmadingiz? – dedi abbat. – Demak, siz sherik ekansiz-da, ular bilan.

– Janob abbat, – javob qildi Kadruss, – ular meni ob-

dan ichirib mast qilib qo'yishdi, aqlimni yo'qotib qo'yib, ko'zim xira tortib ularni zo'rg'a ko'radigan bo'lib qoldim. Shunday ahvolda bo'lsam ham men ularni yo'ldan qaytarishga harakat qilib ko'rdim, biroq ular hazillashyapmiz, buning hech qanday oqibati bo'lmaydi, deb meni ishon-tirishdi.

– Ertasiga-chi? O'sha kunning ertasi kuni ularning bu razil qilmishi yomon oqibatga olib borganini ko'rganin-gizdan keyin-chi? Dantesni qamoqqa olganlarida ham o'sha yerda bo'la turib g'iq etmay turaveribsiz-da?

– To'g'ri, qamoqqa olayotganlarida bor edim, gapirmoq-chi bo'ldim, hammasini aytib bermoqchi edim, ammo Danglar shashtimni qaytarib qo'ydi.

«U chindan ham aybdor bo'lsa-chi, – dedi menga, – chindan ham Elba oroliga borgan bo'lsa, unga Parijdagi bonapartchilar uyushmasiga xat berib yuborishgan bo'lsa, mabodo shu xatni uning cho'ntagidan topib olishsa, u vaqtda uni himoya qiluvchilarni sherigi deb ayblashlari turgan gap».

– Men og'ir zamonda siyosat ishlariga aralashib qolma-yin, deb qo'rqdim-da, jim bo'lib qoldim. Bu yerda men qo'rqqoqlik, nomardlik qildim, bunga iqror bo'laman o'zim, biroq qo'rqqoqlik – jinoyat emas.

– Tushunib turibman, siz qo'lingizni yuvib qo'ltig'in-gizga urib qo'ya qolgansiz.

– To'g'ri, janob abbat, – javob qildi Kadruss, – o'shan-dan buyon vijdon azobida kechayu kunduz iztirob chekib kelyapman. Sizga ont ichib aytamanki, bu gunohimni ke-chirishini so'rab Parvardigorga juda ko'p marta yalinib-yolvordim. Axir hayotimda yo'l qo'rgan ana shu bittayu bitta gunoh boshimga tushgan hamma kulfatlarning sa-babchisi-ku! Gunohimni yuvishga hamisha harakat qila-man... Shuning uchun ham, Karkonta taqdiridan nolib val-diraganida: «Ovozingni o'chir, Xudoyimning o'zi peshana-mizga yozgani shu», deyman har gal.

Kadruss chindan ham tavba-tazarru qilib bosh egdi.

– Bu samimiyligingiz maqtovga sazovordir, – dedi ab-

bat, – aybini bo‘yniga olib, afsuslangan kishining gunohini kechirmoq kerak, albatta.

– Baxtga qarshi, – dedi Kadruss, – Edmon mening gunohimni kechirishga ulgurmay dunyodan o‘tdi.

– Bu gaplarni u bilmasdi... – dedi abbat.

– Ehtimol, endi bilib olgandir, – dedi e‘tiroz bildirib Kadruss, – o‘liklar hamma narsadan xabardor, deyishadi.

O‘rtaga sukunat cho‘kdi. Abbat o‘rmidan turdi-da, xayol surgan holda xonada bir oz yurdi, so‘ng yana qaytib kelib joyiga o‘tirdi.

– Siz bir necha marta Morrel degan kishining nomini tilga oldingiz, – dedi abbat. – Kim u?

– «Faraon» kemasining egasi, Dantesning xo‘jayini.

– Bu qayg‘uli ishlarda u odamning ishtiroki qanaqa? – so‘radi abbat.

– U vijdoni pok, dadil va mehribon odam ekanligini ko‘rsatdi bu ishda. Yigirma marta Dantesni ozod qilishlarini iltimos qilib bordi qirollik prokuraturasiga. Imperator taxtga qaytganda xat yozib iltimoslar qildi, po‘pisa ham qilib ko‘rdi, so‘ng ikkinchi restavratsiya davrida uning o‘zini, bonapartchi deb rosa ta‘qib ostiga olishdi. U o‘n marta Dantesning otasi huzuriga kelib, uyiga olib ketmoqchi bo‘ldi, u chol vafot etishidan bir kun yoki ikki kun oldin pechka ustiga pul qo‘yib ketganini hali aytgandim sizga, cholning qarzlarini ana shu puldan to‘lashdi, ko‘mish xarajatlariga sarf qilishdi, natijada chol hech kimga og‘irligi tushmay, hamma qarzlaridan xalos bo‘lib dunyodan o‘tdi. Morrel pul solib tashlab ketgan o‘sha katmon menda; qo‘lda to‘qilgan bejirim qizil katmon.

– O‘sha janob Morrel hayotmi hoziram? – so‘radi abbat.

– Hayot, – dedi Kadruss.

– Xudoning o‘zi yorlaqabdi-da uni. Boy, o‘ziga to‘q, baxtiyormi u odam?

Kadruss zaharxanda qildi:

– Baxtiyor bo‘lganda ham menga o‘xshash baxtiyor, – dedi u.

- Janob Morrel baxtsizmi hali? – xitob qildi abbat.
- U hozir qashshoqlik jari yoqasida turibdi, janob abbat, buning ustiga u begunohni ayblab, sharmanda qilmoqchilar.
- Nechun?
- Shuning uchunki, yigirma besh yil mehnat evaziga Marsel savdogarlari oʻrtasida endigina faxrli oʻrinni egalagan janob Morrelning ishlari kasodga uchrab, shipshiydam boʻldi. Ikki oy mobaynida beshta kemadan ajraldi, uch marta kasofatga uchrab, mollari oʻtmay qoldi, endi uning butun umidi bir vaqtlar shoʻrlik Dantes qoʻmondonlik qilgan «Faraon»dan. Yaqinda u Hindistondan yuk olib qaytadi. Agar bu kema ham ilgariqilaridek choʻkib ketsa, janob Morrel batamom halok boʻladi.
- U shoʻrlikning xotini, bolalari bormi?
- Hamma narsaga chidash beradigan xotini bor, qizi erga tegmoqchi edi, biroq yigitning ota-onasi kambagʻalning qiziga uylanishga yoʻl bermadi oʻgʻliga. Yana bir ofiser oʻgʻli bor, biroq bularning hammasi bechora Morrelning koʻngliga tasalli berolmaydi, aksincha, qaygʻusiga qaygʻu qoʻshadi. Yakka oʻzi boʻlganda allaqachon oʻzini chakkasidan otib yorugʻ dunyo bilan xayrlashardi.
- Dahshat! Dahshat! – dedi shivirlab abbat.
- Mana, koʻrdingizmi janob abbat, – dedi Kadruss, – Tangri oʻktam, dilkash kishilarni ana shunday ahvolga solib qoʻyadi. Mana, meni misolga olishingiz mumkin, umrimda inson bolasiga yomonlik qilganim yoʻq, shunga qaramay, qashshoqlikka mahkum boʻlib oʻtiribman. Xotinim bechorani bezgak qiynoqqa solgani solgan, men unga hech qanday yordam berolmayman, yordam berishga qodir emasman, oʻzim ham Dantesning otasi kabi ochdan oʻlaman. Fernan va Danglar esa oltinga botib yotibdi.
- Qanday qilib?
- Ularning oshigʻi olchi hozir, vijdoni pok kishilar esa ishi oʻngidan kelmay xarob boʻlyapti.
- Danglarning ahvoli qalay? Axir, asosiy aybdor, birin-

chi bo'lib fitnani boshlagan o'sha Danglar-ku, to'g'rimi?

– U Marseldan ko'chib ketdi, uning jinoyatlaridan be-xabar Morrel janoblarining tavsiyasi bilan bir ispan banka-ga ishga joylashib oldi. Ispan urushi vaqtida Fransiya armiyasiga qurol-aslaha yetishtirib berish ishi bilan shu-g'ullanib, boyib ketdi. So'ng birjada nayrang ishlatib boy-ligini uch baravar oshirib oldi, o'z bankirining qizi bo'lgan xotini bilan ajralib, hozirgi qirol kamergeri janob de Serv-yoning qizi beva Nargoni xonimga uylandi. Bu kamerger hozir qirolning eng sevimli saroy xodimlaridan hisobla-nadi. U millionlab boylikka ega bo'lib oldi, baron unvoni-ga sazovor, endi uni baron Danglar, deb ulug'lashadi. Uning Monblan ko'chasida ajoyib saroyi, o'nta duldul oti bor, birgina tashqari hovlisida oltita xizmatkor ishlaydi. Sandig'ida necha milioni bor ekan, Xudo biladi.

– O'h-ho', shunday deng hali, – dedi abbat g'alati ohan-gda. – Demak, juda baxtiyor ekan-da janob Danglar?

– Baxtli deysizmi? Kim bilsin? Baxtlimi, baxtsizmi buni o'sha koshonaning to'rt devori ichidagilar biladi, devor-lar biladi, devorlarning faqat qulog'i boru, tili yo'q-da. En-digisini aytganda mabodo boyluk baxtiyorlik bo'lsa, unda Danglarning baxtiyor ekaniga shubha yo'q.

– Fernan-chi! U qalay?

– Fernanning ishi yana zo'r, juda omadi kelgan.

– Savodsiz, aqchasiz kambag'al katalan baliqchisi qanaqa qilib boyib ketdi ekan? Ochig'i, men bunga tu-shunolmay hayron bo'lyapman.

– Bunga hamma hayron, aftidan uning qilmish-qidir-mishlarida hech kim bilmaydigan bir sir bo'lsa kerak.

– U qanday yo'l bilan katta boylikka va yuksak man-sabga ega bo'lib oldi ekan?

– U buning ikkisiga: boylikka ham, yuksak mansabga ham ega.

– Faqat cho'pchaklarda bo'ladi bunaqasi!

– To'g'ri, bu chindan ham cho'pchakka o'xshaydi, lekin quloq soling, so'ng hammasi ayon bo'ladi sizga.

Imperator kelishidan bir necha kun oldin Fernan sol-

datlikka chaqirilganlar ro'yxatiga tushib qoldi. Burbonlar unga tegmadilar. Biroq Napoleon qaytishi bilan armiyaga favqulodda chaqirish to'g'risida buyruq chiqib, Fernan armiyaga borishga majbur bo'ldi. Men ham bordim, biroq Fernandan yoshim kattaligi va yaqindagina baxti qaro xotinimga uylanganim sababli meni qirg'oq soqchisi qilib tayinlashdi. Fernan esa harakatdagi armiya safiga tushib, polk bilan chegaraga jo'nadi va u yerda Linyadagi janglarda qatnashdi.

Jangdan keyingi tunda u dushman bilan aloqada bo'lgan bir generalda ordinares bo'lib turgan, xuddi shu kechasi haligi general inglizlar tomoniga qochib o'tmoqchi ekan, u Fernanga kuzatib borishni taklif etgan. Fernan bunga rozi bo'lib, postini tashlagan-da, general ketidan jo'nagan.

Napoleon taxtda qolganida Fernan bu qilmishi uchun harbiy sudga berilardi, biroq Burbonlar buni uning katta xizmati, deb bilishdi. U Fransiyaga podporuchik unvoni bilan qaytdi, boyagi general qirolning marhamatiga sazovor zot bo'lib, Fernanni o'z qanoti ostiga oldi, bir ming sakkiz yuz yigirma uchinchi yili, ispan urushi vaqtida, ya'ni Danglar endigina savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullana boshlagan paytlarda unga kapitan unvonini berishdi. Fernan aslida ispan qabilasidan, shuning uchun uni kayfiyatni bilib kelish uchun Madridga yuborishdi. Madridda u Danglar bilan uchrashib til biriktirgan, o'z generaliga poytaxtda, chet viloyatlarda royalistlarning yordamini uyushtirishga va'dalar berib, undan ham va'dalar olib polkini faqat o'ziga ma'lum va royalistlar saqlab turgan daradan olib o'tgan, xullas, o'sha qisqa muddatli harbiy jangda durustgina xizmat ko'rsatib, Trokadero ishg'ol qilingandan so'ng unga polkovnik unvonini berishdi. Faxriy legion kresti va graf degan unvon bilan mukofotlashdi.

– Yo alhazar! Yo alhazar! – dedi ohista abbat.

– Sabr qiling, hali davomi bor. Ispan urushi tugadi. Evropada uzoq tinchlik bo'lishi kutilayotgan edi, bu esa Fernanning mansab-martabasiga putur yetkazishi mumkin

edi. Ammo shu payt Gresiya Turkiyaga qarshi qo'zg'olon ko'tardi, mustaqillik uchun urush boshlandi. Umumning diqqat-e'tibori Afinaga qaratildi. U vaqtlari greklarga rahm qilish va ularni qo'llab-qo'ltiqlash rasm bo'lib qolgan edi. Fransiya hukumati greklarga ochiq ko'maklashmasa-da, ularga yordam berishga ruxsat etgan edi. Fernan armiya safida turib Gresiyaga borishga ruxsat oldi.

Bir oz vaqt o'tgach ma'lum bo'ldiki, graf de Morser (u o'ziga shunday nom qo'yib olgandi) general-instruktor unvonida Ali poshshoga xizmatga o'tdi. Sizga ham ma'lum bo'lsa kerak, Ali poshshoni o'ldirdilar, o'lim to'shagida u Fernanga juda katta tuhfa beribdi. Fransiya qaytgach, Fernanga general-leytenant unvonini berishdi.

– Hozir-chi? Hozir qalay?.. – so'radi abbat.

– Hozir ham, – dedi Kadruss. – Parijda, Elder ko'chasi-dagi yigirma yettinchi raqamli ajoyib koshonada rohat-farog'atda yashayapti.

Abbat bir narsa demoqchi bo'ldi, jur'at etolmadi, shekilli, jim bo'lib o'ylab qoldi. Axiri o'ziga dalda berdi-da, so'radi:

– Mercedes-chi? Aytishlariga qaraganda, u yashirinib olganmishmi?

– Yashirinib bo'pti! – dedi Kadruss. – Har kuni ertalab yana-da kuchliroq nurlanib chiqadigan quyosh qanday yashirinsa u ham shunday yashirinadi-da.

– Uning boshiga ham baxt qushi qo'nmaganmikin? – so'radi abbat kinoyali iljayib.

– Parij oqsuyaklari guruhidagi mashhur xonimlardan biri hozir Mercedes, – dedi Kadruss.

– Davom ettiring hikoyangizni, – dedi abbat, – men bir ajoyib ertak eshitayotgandek bo'lyapman. Biroq bunaqangi favqulodda voqealarni o'zim ham uchratganman, shu sababli hikoyangiz uncha taajjubga solayotgani yo'q meni.

– Mercedes dastlabki chog'larda Edmondan ajralib hijron o'tida kuyib yondi. U janob Vilfora yalinib-yolvorganini va Dantesning otasiga sadoqat bilan g'amxo'rlik qil-

ganini boshda aytgandim sizga. Fernan polkka ketgandan so'ng Mercedesning dard-alami yana oshdi, bechora qiz uning jinoyatlaridan bexabar edi va uni akasi sifatida hurmat qilardi...

Fernan ketib, Mercedes yolg'iz qoldi.

Uch oy qon yig'ladi. Na Edmondan, na Fernandan darak bor, qayg'u-alamda kuyib tamom bo'layotgan choldan boshqa hech kim qolmadi.

Kunlardan bir kun Mercedes Marseldan Katalaniga boradigan ikki yo'l oralig'ida har galgidek kun bo'yi intizor bo'lib o'tira-o'tira g'am-g'ussaga to'lib qaytdi. Bu yo'llarning birortasidan sevgilisi ham, do'sti ham qaytib kelmadidi, ular to'g'risida jindek xabar ham ololmadi.

Shu payt to'satdan tanish qadam tovushi eshitildi. Mercedes hayajonlanib orqasiga o'girildi, eshik ochildi-da, ro'baro'da podporuchik libosida Fernan paydo bo'ldi.

Mercedes uni sog'inib qon yig'lamagan bo'lsa-da, biroq o'tmish totli damlarining hech deganda yarmi qaytib kelgandek tuyuldi. Mercedes quvonchga to'lib Fernanning qo'lidan tutdi, podporuchik esa buni ishq-muhabbat ramzi deb tushundi. Ammo aslida bu yolg'izlik azobida toqati toq bo'lgan qizning, endi yolg'iz emasman, hammadard do'stim yonimda, deb shodlanishi edi, xolos, shuni ham e'tirof etish kerakki, Fernan Mercedesni nafratlantiradigan, jirkantiradigan biror qiliq ko'rsatgani yo'q, ammo qizning muhabbatiga sazovor bo'lolmadi ham. Mercedesning yuragidan mahkam joy olgan boshqa odam edi, bu odam esa uzoqda, juda uzoqda... gumdon bo'lib ketdi... Ehtimol dunyodan o'tgandir. Xayolidan shu fikr o'tganda Mercedes fig'on chekib yig'lar edi. Ammo ilgari birovlar shunday deganda rad etib yurgan Mercedesning o'zi endi beixtiyor, shunga ishona boshladi. Keksa Dantes unga tinmay: «Edmonimiz o'lgan, tirik bo'lsa allaqachon qaytib kelardi», derdi.

Cholning vafot etganini yuqorida aytgan edim sizga. U o'lmaganda, ehtimol Mercedes boshqa hech kimga erga chiqmagan bo'lur edi. Chol unga, bevafoqlik qilding, deb

ta'na qilgan bo'lur edi. Fernan buni tushunardi. U chol vafot etganini eshitib, qaytib keldi. Bu gal u poruchik bo'lib keldi. Birinchi safar kelganida u Mercedesga muhabbat to'g'risida hech nima demagan edi. Ikkinchi gal kelganida, muhabbatini izhor etdi. Mercedes yana yarim yil Edmonni zor yig'lab kutmoqchi ekanini aytdi.

– Rostanam, – dedi abbat zaharxanda qilib, – axir bir yarim yil chidash hazilakam gap emas! O'lgudek yaxshi ko'radigan oshiq ham bundan ortiq nimani talab qilishi mumkin? – so'ng u ingliz shoirining quyidagi so'zlarini asta qo'shib qo'ydi: «Sening noming, e xotin, beqarorlik!»

– Yarim yil o'tgach, – davom ettirdi hikoyasini Kadruss.
– Akkul cherkovida nikohlari bo'ldi.

– Mercedes Edmon bilan ham ana shu cherkovda nikoh qilmoqchi edi, – dedi shivirlab abbat, – qayliqni o'zgartiribdi, xolos.

– Shunday qilib, Mercedes erga chiqdi, – dedi Kadruss hikoyasini davom ettirib, – u sirtidan osoyishta ko'rinsada, ishq o'ti yuragining eng to'rida hamon yonib turgan kishi bilan bundan bir yarim yil muqaddam unashtirish marosimi o'tgan «Rezerv» yoniga kelganda, Mercedes hushidan ketib qoldi.

Fernan baxtga muyassar bo'ldi-yu, ammo ko'ngli orom topmadi. O'sha vaqtlari uni ko'rib turardim. Edmon kelib qoladi, deb hamisha vahimaga tushib yurardi. Shuning uchun Fernan xotinini olib uzoqroq joyga ko'chib ketishga harakat qildi. Katalani xavf-xatarli va ko'p voqealarni esga solib turadigan joy edi.

To'ydan ikki hafta o'tgach, ular jo'nab ketishdi.

– Shundan keyin siz Mercedesni biror marta uchratdingizmi? – so'radi abbat.

– Uchratdim, ispan urushi vaqtida Perpinyanda, Fernan uni shu shaharga qo'yib ketgan edi, Mercedes o'g'lini tarbiyalash bilan band ekan.

Abbat titrab ketdi.

– O'g'lini dedingizmi?

- Ha, – javob qildi Kadruss, – kichkina Alberni.
- O‘g‘lini o‘qitayotgan bo‘lsa, – dedi abbat, – demak, o‘zi o‘qib ma‘lumotli bo‘lib olgan ekan-da? Edmon menga, Mercedes oddiy baliqchining qizi, go‘zal, ammo savodsiz, degan edi, adashmasam.
- Demak, Edmon o‘z qallig‘ini yaxshi bilmas ekan-da?
- dedi Kadruss, – janob abbat, agarda taxtga hamisha faqat eng go‘zal va oqillarni o‘tqazishganda Mercedes, shubhasiz, qirolicha bo‘lardi. Taqdir taqozosi bilan u yuqori pog‘onaga ko‘tarildi, uning o‘zi ham har jihatdan tobora qaddini rostlab, nufuz qozona berdi. Rassomlikka o‘qidi, ko‘p narsani o‘rgandi. Gap oramizda qolsin: chamamda u fikri xayolini qochirish, ovunish niyatida shug‘ullanib yurdi bu ishlar bilan. Endilikda bularning hammasi barham yedi, boylik va izzat-hurmatlar bilan ovunib qolgan Mercedes taqdiriga tan berib qo‘ya qoldi. U boy, asilzoda, ammo shunga qaramay...
- Kadruss to‘xtab qoldi.
- Xo‘sh? – so‘radi abbat.
- Shunga qaramay Mercedes baxtli emas, bunga imonim komil.
- Nimaga asoslanib shunday deyapsiz?
- Shunga asoslanibki, men qashshoqlashib og‘ir ahvolga tushib qolganimda ilgari do‘stlarim yordam qilmasmikin, degan umidda Danglarning oldiga bordim, biroq u meni hatto qabul qilmadi. So‘ngra Fernan huzuriga bordim, u malayidan menga yuz frank berib yubordi.
- Demak, ikkoviniyam ko‘rolmabsiz-da?
- Ko‘rolmadim, biroq grafinya de Morser meni ko‘rdi.
- Qanday qilib?
- Qaytib chiqayotganimda oyog‘im ostiga «shalp» etib bir karmon kelib tushdi, unda yigirma besh luidor bor ekan. Darhol boshimni ko‘tarsam ro‘paramda Mercedes turardi. U derazani bekitib oldi.
- Janob de Vilfor-chi? – so‘radi abbat.
- U bilan hech mahal do‘stona munosabatda bo‘lgan emasman, uni tanimasdim ham, shuning uchun undan

yordam so'rab borishim mumkin emasdi.

– Uning ahvoli qalay ekan hozir? Edmonni kulfatga so'lgan ishga u qanday qilib qatnashgan ekan? Bundan xabaringiz bormi?

– Xabarim yo'q, Edmon qamoqqa olinganidan so'ng bir oz vaqt o'tgach, u mademuazel de Sen-Meranga uylandi-da, Marseldan ko'chib ketdi. U ham boshqalar singari baxtiyor bo'lsa kerak, Danglar kabi boy, Fernan kabi martabasi ulug' bo'lsa kerak. Faqat mengina qashshoqlikka mahkum bo'lib, Xudoning marhamatidan mahrum, nochor holga tushib qoldim, mana buni o'zingiz ko'rib turibsiz.

– Bu gapingiz to'g'ri emas, azizim, – dedi abbat. – Xudoning oliy, odil sudi kechikyapti bir oz, shuning uchun uning marhamatidan chetda qolayotgandek sezamiz o'zimizni. Biroq vaqt-soati kelib Tangrim bizni ham yorlaqaydi, mana uning dalili.

Abbat shunday dedi-da, cho'ntagidan olmosni olib Kadrusga uzatdi.

– Azizim, mana, – dedi u, – oling buni, bu olmos sizniki bo'ldi.

– Mengami? Bir o'zimgami? – qichqirib yubordi Kadrus. – Qo'ying-e, janob abbat! Mazax qilyapsizmi meni!

– Bu olmosni Edmonning do'stlari o'rtasida taqsimlab berish kerak edi. Ma'lum bo'ldiki, Edmonning bittagina do'sti bor ekan. Demak, taqsimlashga hojat qolmadi. Bu olmosni soting. Ilgari sizga aytganidek, bu ellik ming frank turadi, bu pul sizni qashshoqlikdan qutqarsa kerak, men bunga aminman.

– Janob abbat, – Kadrus bir qo'lini asta olmosga uzatib, ikkinchi qo'li yuzidan sharillab oqib turgan terni artib. – Janob abbat, qo'ying bu hazilingizni, iltimos qilaman, nima qilasiz men baxti qaroning yarasiga tuz sepib.

– Menga baxtiyorlik shavqi-zavqi ham, baxti qarolik musibatlari ham juda tanish, hayot ekanman, hech vaqt, hech qaerda bunday tuyg'ularni hazilga yo'ymayman. Oling axir buni... Faqat buning evaziga...

Kadruss olmosga tegib turgan qo'lini birdan tortib oldi.
Abbat kulib dedi:

– Evaziga janob Morrel keksa Dantes pechining ustida qoldirib ketgan katmonni bering, u menda turibdi, degan edingiz.

Kadruss taajjub-la o'rnidan turdi va eman daraxtidan yasalgan shkaf yoniga borib, ochdi-da, qizil qalin shoyi katmonni olib abbatga uzatdi.

Abbat katmonni olib, olmosni Kadrussga berdi.

– Siz haqiqatan avliyo ekansiz, janob abbat, – dedi Kadruss. – Edmon bu olmosni sizga berganini hech kim ko'rganiyam, bilganiyam yo'q, buni o'zingiz olib qolsangiz hech kim bilmasdi.

«Ha-ha, – dedi ichida abbat, – bu gapingdan, men sizning o'rningizda bo'lsam shunday qilardim, demoqchi bo'layotganing sezilib turibdi».

Abbat o'rnidan turib qalpog'ini va qo'lqopini oldi.

– Menga qarang! – dedi u. – Men aytganlaringizning hammasi haqiqat deb ishonsam bo'ladimi?

– Janob abbat? – dedi Kadruss. – Men Xudo oldida, avliyo-anbiyolar oldida tiz cho'kib qasamyod qilamanki, aytgan so'zlarimdan birortasi yolg'on emas.

– Juda soz, unday bo'lsa, – dedi abbat Kadrussning yurakdan aytgan so'zlariga ishonib, – juda soz. Bu aqcha sizning mushkulingizni oson qilsin! Xayr. Men qilmishi bir-biriga go'r qazishdangina iborat kishilardan o'zimni uzoqqa olib ketdim yana.

Abbat qovoqxonachi Kadrussning to'lib-toshib aytayotgan gaplarini beoqibat qoldirib, eshik tomon zo'rg'a yurib bordi va eshikni o'zi ochib, tashqariga chiqdi, keyin otiga mindi-da, hamdu sano o'qiyotgan qovoqxonachi bilan yana engashib xayrlashdi va kelgan tomoniga otini yo'rttirib ketdi.

Kadruss orqasiga o'girilganda ketidan Karkonta titrab turardi, ayol ilgarigidan battarroq bo'zarib ketgan edi.

– O'z qulog'imga o'zim ishonmayapman, Kadruss! Rostdanmi? – dedi u.

– Nima rostdanmi? Olmos butunlayin bizga qolgani rostdanmi deyapsanmi? – dedi Kadruss terisiga sig‘may shodlanib.

– Ha.

– Rostdan! Mana olmos menda.

Xotini bir tikilib qaradi-da, nafasi bo‘g‘ilib, dedi:

– Bu olmos qalbaki emasmikan?

Kadruss bo‘zarib, gandiraklab ketdi.

– Qalbaki! – dedi u ovozini zo‘rg‘a chiqarib. – Qalbaki. Axir u, qalbaki olmos berib biror naf ko‘rarmidi?

– Sirlarni tekinga bilib olish uchun-da, ey kallavaram, shungayam tushunmaysanmi?!

Bu gapdan Kadruss turgan joyida toshdek qotib qoldi. Bir dam g‘iq etmay turdi-da, so‘ng qalpog‘ini oldi va boshiga o‘rog‘liq qizil ro‘moli ustidan kiyib, eshik tomonga yugurdi.

– Biz buni hozir aniqlab olamiz, – dedi u.

– Qanday qilib?

– Bokerda yarmarka bor, u yerga Parijdan zargarlar kelib turadi. Borib olmosni ularga ko‘rsataman. Sen uyga qarab tur, ikki soatda qaytib kelaman.

Kadruss shunday dedi-da, yo‘lga chiqib noma‘lum abbat ketgan tomonga emas, unga qarshi tomonga jo‘nadi.

– Ellik ming frank! – dedi ming‘illab yakka qolgan Kar-konta. – Bu pul... ammo boylik emas.

VII. TURMA RO‘YXATI

Belgard bilan Boker o‘rtasidagi yo‘l ustida biz tasvir etgan suhbatdan bir kun o‘tgach, to‘q zangori frak, malla rang shim va oq nimcha kiygan, yurish-turishi talaffuzidan inglizni eslatuvchi o‘ttiz yoshga borgan bir kishi Marsel shahri hokimining huzuriga keldi.

– Muhtaram janob, – dedi u, – men Rimdagi Tomson va French bankirlar xonadonining bosh agentiman. Rosa o‘n yildirki, biz Marseldagi «Morrel va o‘g‘li» savdo xona-

doni bilan aloqadamiz, bu firma bilan sarmoyamiz yuz ming frankka boradi, yaqinda ana shu firma sinib, tanaz-zulga yuz tutyapti, degan xabarni eshitib, tashvishga tushib qoldik... Rimdan shaxsan kelishimning boisi ham shu, o'sha savdo xonadoni to'g'risida ma'lumot olishdir.

– Muhtaram janob, – dedi shahar hokimi, – menga ma'lum bo'lishicha, chindan ham so'nggi yillarda janob Morrelning ishlari chappa ketib, ko'p baxtsizliklarga uchrayapti, u birin-ketin to'rt-besh kemasidan ajraldi va bir necha bor savdo-sotiq ishida sinib, zarar ko'rdi. Ammo u mening o'zimdandan ham o'n ming frank qarz bo'lsa-da, uning moliyaviy ahvoli to'g'risida sizga biror ma'lumot berishni ep ko'rmayman o'zimga. Mabodo siz mendan, shahar hokimi sifatida janob Morrel qanday odam o'zi, deb so'rasangiz, javob berishim mumkin: u vijdoni pok, juda halol, o'z gardanidagi burchlarini hozirgacha sidqidildan bajarib kelayotgan zotlardan biri. Mana, uning to'g'risida sizga mening aytadigan so'zim shu. Agar bu sizga kamlik qilsa, turmalar inspektori janob de Vovilga murojaat qiling, u Noayl ko'chasidagi o'n beshinchi uyda turadi. Janob de Bovil, yanglishmasam, bu firmaga ikki yuz ming frank qo'ygan, bu menikidan yigirma barobar ortiq, firmadan xavflanishga biror asos bo'lsa, o'sha odam sizga batafsil ma'lumot berishi mumkin.

Ingliz, shahar hokimining nazokatli so'zlaridan mamnun bo'ldi shekilli, ta'zim qilib xayrlashdi-da, ko'chaga chiqib, rostdan ham bank da'vogari singari gerdayib turmalar inspektorining uyi tomon yo'l oldi.

Janob de Bovil xonasida o'tirgan edi. Ingliz uni ko'rdida, go'yo tanish odamini uchratgandek ajablanib, turgan joyida taqa-taq to'xtab qoldi. Biroq janob de Bovilning butun fikr-xayoli yagona bir narsa bilan band bo'lib, shu qadar dilxasta ediki, o'tmishni esga oladigan holi yo'q edi uning. Ingliz, o'z millatiga xos odat bilan pinagini buzmay, turmalar inspektoriga ham shahar hokimiga bergan savollarini berdi.

– Oh, janob! – dedi xitob qilib janob de Bovil, – baxtga

qarshi xavflanishingizga to'la asos bor, mana ko'rib turibsiz mening ham umidlarimni puchga chiqarib, boshimni qotirib qo'ygan o'sha firma. Janob Morrel mening ham ikki yuz ming frank dastmoyamni ishlatib turib edi. Bu ikki yuz mingni qizimning to'yiga atab qo'ygan edim, to'yga ikki hafta qoldi. Janob Morrel mening o'sha pulimni ikkiga bo'lib to'lashi kerak edi, shu oyning o'n beshida yuz mingini, kelasi oyning o'n beshida qolgan yuz mingini. Janob Morrelga pulni albatta belgilangan muddatda olishim shart, deb xabar qildim, yarim soat oldin u kelib, agar kemam «Faraon» o'n beshinchi sanada yetib kelmasa pulingizni to'lay olmayman, deb ketdi.

– Bu uning, to'lash muddatini keyinga surish kerak, degani bo'lsa kerak, – so'z qotdi ingliz.

– Yo'q, ochig'i men tanazzulga yuz tutdim, degani uning! – qichqirdi janob de Bovil ikki qo'li bilan boshini changallab.

Ingliz bir oz o'ylab turdi-da, dedi:

– Bu qarz majburiyati sizni xavfga solayapti, shekilli, shundaymi?

– Men undan umidimni o'zib qo'ya qoldim endi.

– Men sotib olaman uni.

– Siz-a?

– Ha, men.

– Albatta katta chegirma bilan olarsiz-da?

– Yo'q, ikki yuz ming frankka, bizning savdo xonodimiz bunaqa oldi-sotdi bilan shug'ullanmaydi.

– Siz menga qay xilda to'laysiz uni?

– Naqd pul bilan.

Ingliz cho'ntagidan bir dasta pul chiqardi, bu janob de Bovil mahrum bo'lib qolishdan qo'rqqan summadan ikki barobar ko'p edi, chamasi.

Janob de Bovil quvonib ketdi, biroq u o'zini bosib, dedi:

– Muhtaram janob, men sizni ogohlantirib qo'yayki, bu summaning olti foizini ham qaytarib ololmaysiz so'ng.

– Mening bu bilan ishim yo'q, – javob qildi ingliz, – bu

bankir Tomson va French xonadonining ishi. Men ularning vakili sifatida ish olib boryapman. Ehtimol, bank xo'jayini raqib firmaning sinib, halok bo'lishidan manfa'atdordir. Qanday bo'lmasin, men o'sha pulni hozir sizdan oldi-berdi haqidagi akti olib naqd sanab berishga tayyorman. Faqat menga shirinkoma bersangiz bo'lgani.

– Albatta, albatta! Bunga siz haqlisiz! – dedi janob de Bovil. – Odatda shirinkoma bir yarim foiz bo'ladi. Ammo undan ko'proq berishga tayyorman. Qancha bo'lgan: ikki foizmi, uch yoki beshmi? Yoki bundan ham ko'pmi? Ayting!

– Muhtaram janob! – dedi e'tiroz bildirib ingliz, – men, firmamiz singari bunaqangi ishlar bilan shug'ullanmayman, men boshqacha shirinkoma olishni istardim.

– Xo'sh, qanaqa ekan u, ayting, qulog'im sizda.

– Siz turma inspektori bo'lib ishlaysizmi?

– O'n besh yildan buyon.

– Sizda turma ro'yxatlari bo'lsa kerak?

– Albatta.

– U ro'yxatlarda mahbuslar haqida ma'lumotlar bo'lar?

– Har bir mahbusning ish jildi bor.

– Muhtaram janob, mening Rimda bir abbat murabbiyim bor edi, u to'satdan g'oyib bo'ldi ketdi. Keyinroq u If qal'asida qamoqda deb eshitdim. Ana shu abbatning o'limi to'g'risida ba'zi ma'lumotlar kerak edi menga.

– Oti nima edi?

– Abbat Faria.

– E-e, men uni juda yaxshi taniyman, – dedi janob de Bovil, – u jinni edi.

– Ha, men ham shunday deb eshitgan edim.

– U rostdan ham jinni edi.

– Ehtimol, biroq nimasi uchun uni jinniga chiqarib qo'yishgan edi?

– U tinmay, allaqanday xazina to'g'risida, behisob boylik to'g'risida vaysar va ozod etishsa hukumatga juda ko'p mablag' beraman, deb javrardi.

– Obbo, sho'rlik-e! U vafot etdimi?

– Ha, o’ldi, bundan yarim yil ilgari, fevralda.

– Behningiz juda o’tkir ekan.

– Mening esimda qolganining boisi shuki, abbat vafoti vaqtida g’alati voqealar yuz berdi.

– Qanaqa voqealar ekan u? Men ham bilsam bo’ladimi? – so’radi ingliz qiziqib, sinchkov kishi shu payt uning bezrayib turgan yuzida birdan qiziquvchanlik belgilari paydo bo’lganini sezib olardi.

– Aytib berishim mumkin, abbat xonasi sobiq bonapartchilar agenti qamalgan xonadan ellik fut narida edi, bu agent uzurpatorning bir ming sakkiz yuz o’n beshinchi yilda taxtga qaytib kelishiga ko’maklashganlardan biri edi, u juda cho’rtkesar va nihoyatda xavfli shaxs edi.

– Rostdanmi? – dedi ingliz.

– Rostdan, – javob qildi janob de Bovil, – bir ming sakkiz yuz o’n oltinchi yoki bir ming sakkiz yuz o’n yettinchi yili uni shaxsan ko’rganman, uning xonasiga bir vzvod soldat bilan kirilardi. U odam menda juda katta ta’sir qoldirdi. Men uning yuzini hech unutmayman.

Ingliz miyig’ida kuldi.

– Demak, – dedi u, – sizningcha bu ikki xona...

– ...Bir-biridan ellik fut uzoqda edi. Biroq, aftidan, haligi Edmon Dantes...

– O’sha qo’rqinchli odamning nomi...

– Edmon Dantes edi. Ha, janob, aftidan o’sha Edmon Dantes qaerdandir asbob-uskunalar topgan yoki o’zi yasab olgan, ular vositasi bilan abbat tomonga yer ostidan yo’l qazib kelgan ekan, ular shu yo’l orqali aloqa bog’lashar ekan.

– Bu yo’lni ular qochib ketish uchun qazishgandir-da?

– Shunday. Biroq ularning baxtiga abbat Farianing tutqanog’i tutib vafot etdi.

– Tushunarli, shuning uchun ular qocholmagan.

– Faqat murda qocholmay qoldi, – dedi janob de Bovil. – Dantes esa abbatning o’limi mening qochishimni tezlatadi deb bilgan. Aftidan u If qal’asida o’lganlarni oddiy qabristonga ko’msalar kerak deb o’ylab, murdani

o'z xonasiga olib borib tashlagan-da, o'lik solingan qopga o'zi tushib olgan va qabristonga olib borishlarini kutib yotgan...

– Qo'rqmasdan dadil harakat qilishibdi-da, azamatlar, – dedi ingliz.

– Ha, boya sizga aytgan edim-ku, juda xavfli odam edi deb, xayriyatki, uning o'zi hukumatni tashvishlardan xalos etib qo'ya qoldi.

– Qanday qilib?

– Nahotki fahmlamagan bo'lsangiz?

– Yo'q.

– If qal'asida qabriston yo'q, o'lganlarni to'g'ri olib chiqib oyoqlariga o'ttiz olti qadoqlik tosh bog'laydilar-da, dengizga uloqtiradilar.

– Xo'sh, so'ng! – dedi o'zini go'llikka solib ingliz.

– Uning ham oyog'iga o'ttiz olti qadoqli tosh bog'lab dengizga tashlab yuborishdi.

– Shunday deng! – xitob qildi ingliz.

– Shunday, janob, – davom etdi inspektor. – Uni tepadan dengizga uloqtirayotganlarida qochoqning qanchalik hayratda qolganini ko'z oldingizga keltirib ko'ring, qani endi o'sha paytda uning afti-basharasini ko'rib tura olsaydim.

– Bu mahol edi.

– Baribir, – dedi, ikki yuz ming frank aqchasini qaytarib olishga ishonchi komil bo'lib, juda taltayib, jag'i ochilib ketgan janob de Bovil, – baribir uning o'shanda holi nima kechganini aniq tasavvur qilaman men.

U qah-qah urib kulib yubordi.

– Men ham shunday tasavvur etib turibman, uning vazohatini, – dedi ingliz.

U ham inglizlarga o'xshab labining bir burchagini burib kula boshladi.

– Shunday qilib, – dedi ingliz o'zini kulgidan bosib, – shunday qilib qochoq dengiz tagiga cho'kib ketdi deng.

– Ha, toshdek cho'kdi-ketdi.

– If komendanti bir yo'la jinnidan ham, quturgandan

ham qutulib qo'ya qolibdi-da?

Xuddi shunday.

– Bu voqea to'g'risida akt yozilgan bo'lsa kerak, albatta? – so'radi ingliz.

– Albatta, albatta, o'lgani to'g'risida guvohlik beradigan hujjat yozilgan. Axir Dantesning ota-onasi, qarindoshlari uning tirikmi, o'likmi ekanini bilmoqchi bo'lib surishtirib qolishlari mumkin-da.

– Mabodo uning merosini egallash niyatida bo'lsalar, endi xotirjam bo'lishlari mumkin. U butkul xarob bo'ldi deng?

– Shubhasiz. Qarindoshlari istagan vaqtda haligi hujjatni olishlari mumkin.

– Xudo rahmat qilsin uni, – dedi ingliz, – keling, ro'yxatga o'taylik.

– Haq gap aytdingiz. Mening hikoyam fikringizni chetga burib yubordi, buning uchun kechiring meni.

– Nechun? Hikoya uchunmi? Uni men juda qiziqib tingladim.

– Chindan ham juda qiziqarli hikoya bu. Xullas, sho'rlik abbatingiz haqida mufassal ma'lumot olmoqchi bo'lsangiz kerak-da.

– Katta marhamat qilgan bo'lasiz menga.

– Yuring, idoramga o'taylik, u yerda sizga hammasini ko'rsataman.

Janob de Bovil ikkovi xonaga yo'l olishdi. Inspektor haq gapni aytgan edi: hamma narsa batartib edi, har bir ro'yxatga maxsus qo'yilgan, har bir ish o'z joyida turibdi. Inspektor inglizni o'zining yumshoq kursisiga o'tqazdida, If qal'asiga taalluqli jildni oldiga qo'ydi va xohlaganingizcha titib ko'ravering, degandek, o'zi burchakdagi stulga o'tirib gazetalarni o'qiy boshladi.

Ingliz abbat Fariaga taalluqli qog'ozlarni osongina topib oldi, de Bovil aytib bergan hodisa haqiqatan uni juda qiziqitirdi, shekilli, u qog'ozlarni ko'zdan kechirdi-da, ishni yana varaqlay berdi. Axiyri Edmon Dantes to'g'risidagi hujjatni topdi. Bu yerda hamma narsa – maxfiy ma'lumot,

tergov protokoli, Morrelning prokuror yordamchisiga yozgan iltimosnomasi muhayyo edi. Iltimosnomaning ayrim joylarini Vilfor chizib qoʻygan edi. U maxfiy maʼlumotni oʻrab choʻntagiga yashirib qoʻydi, tergovdagi soʻroq protokolini oʻqib chiqdi, unda Nuartening nomi tilga olinmagan edi, 1815 yil 10 aprelda yozilgan iltimosnomaga ham koʻz yugurtib chiqdi. Unda Morrel qirollik prokurori yordamchisining maslahatiga binoan, Dantesning Impe-riyaga xizmatini juda boʻrttirib koʻrsatgan edi. Bu ezgu niyatlar bilan shunday qilingan edi, chunki u paytda Napoleon taxtga qaytgan edi. Shundan keyin ingliz gap nimada ekanini angladi. Napoleon vaqtidagi bu iltimosnoma ikkinchi restavratsiya davrida qirollik prokurori qoʻlida dahshatli dastak boʻlib qoldi. Shu sababli maʼlumotda quyidagi izohni oʻqiganda u taajjublanmadi:

Edmon Dantes. Uchiga chiqqan bonapartchi. Elba orolidan uzurpatorning qaytib kelishida faol qatnashgan.

Buning ishi qattiq sir saqlansin, tinmay nazorat ostiga olinsin.

Bu satrlar ostida yana boshqacha yozuv bor edi:

«Hech nima qilib boʻlmaydi».

Ingliz bu yozuv bilan Morrelning afvnomasiga yozilgan izohni solishtirib koʻrib, bu ikkalasini bir kishi, yaʼni Vilforning oʻzi yozganini angladi.

Izohga yozilgan qoʻshimcha soʻzlarini esa Dantesning taqdirini hal etishda sal-pal qatnashgan va yuqoridagi izohlarni koʻrib yordam berishga iloj topolmagan turma inspektori yozganini fahmladi.

Janob de Bovil odob-nazokat qoidalariga amal qilib va abbat Farianing shogirdiga xalaqit bermaslik uchun burchakda oʻtirib «Oq bayroq» gazetasini oʻqirdi.

Shuning uchun ham Danglar tomonidan «Rezerv» res-

toranida yozilgan va pochtaning 27 fevral soat oltida yashikdan olinganligi haqida shtamp bosilgan maxfiy ma'lumotini ingliz yashirib cho'ntagiga solib olganini de Bovil ko'rgani yo'q.

Mabodo ko'rganda ham o'zini ko'rmaganga solib tu-raverardi, chunki bu qog'ozga u unchalik ahamiyat ber-masdi, uning butun xayoli ikki yuz ming frankda edi, qoidani buzayotgan inglizga hecham xalaqit bergisi kel-masdi.

– Rahmat, sizga, – dedi ingliz jildni qarsillatib yopib. – Menga kerak narsalarning hammasini topdim. Endi men ham va'damni bajo keltirishim kerak. Menga bitta tilxat yozib bersangiz bo'ldi, unda pulning hammasini oldim, deb yozing, men hozirning o'zidayoq hammasini naqd sanab beraman.

So'ng u o'rnidan turib, joyni de Bovilga bo'shatib ber-di. De Bovil, darhol o'tirib olib, tilxat yoza boshladi. Shu orada ingliz stolning ikkinchi chetida pulni sanab turar-di.

VIII. MORREL SAVDO XONADONI

Bordi-yu, Morrel savdo xonadoni bilan tanish kishilar-dan birontasi Marseldan ketib, bir necha yildan so'ng biz tasvir etayotgan vaqtda qaytib kelsa, bu yerda katta o'zga-rishlar yuz berganini ko'rardi.

Ilgarigi vaqtlarda bu uyga fayz kiritib turadigan gav-jumlik, farovonlik, darpardalar orqasidan shod kulib tu-radigan chehralar o'rnida, yo'lak-dahlizlarda qalamlarini qulog'iga qistirib yugurib yuradigan sertashvish idora xo-dimlari o'rnida, turli-tuman yuklarga to'la hovlida yukchi-larning shov-shuvlariyu, qiyqiriqlari o'rnida kimsasiz huvillab yotgan vayronani ko'rgan bo'lardi endi u. Bu ido-rani to'ldirib yurgan ko'pdan-ko'p xodimlardan endilik-da faqat ikkitasi – yigirma uch bahorni ko'rgan. Morrel-ning qiziga shaydo bo'lib, firmadan ketolmay yurgan Em-

manyuel Erbo bilan bir ko'zi so'qirligi tufayli Kokles¹⁶ deb laqab olgan g'aznachi yordamchisi qolgan edi, xolos. Unga bu laqabni bir vaqtlar bu ulkan, gavjum, sershovqin hovlini boshlariga ko'taradigan yoshlar bergan edilar. Bu laqab uning suyak-suyagiga singib ketganidan bo'lsa kerak, uni o'z nomi bilan chaqirishsa, o'girilib boqmasdi ham.

Kokles janob Morrel idorasida qoldi, bu halol kimsaning hayotida o'ziga xos o'zgarish yuz berdi: mansabda bir pog'ona ko'tarilib, g'aznachi bo'lib oldi.

Ammo shunday bo'lsa-da, u hech o'zgar olmay, o'sha ilgari xushfe'l, mehribon, ishchan, sadoqatli Koklesligicha qoldi, faqat hisob-kitobda hech kimga yon bermas, hech kimni, hatto janob Morrelni ham ayammasdi, yoddan biladigan ko'paytirish jadvaliga ishonarli, jadvalni ming tomonga burib, uni chalg'itishga urinishdan foyda chiqmasdi.

Morrelning dard-alamga to'la xonadonida faqat birgina Kokles vazmin, sovuqqon edi. Biroq bu uning shu xonadonga ko'ngil qo'yganligidan emas, aksincha, unga, uning kelajagiga ishonchi nihoyatda komil ekanidan edi. Halokatga yuz tutgan kemadan kalamushlar har tomonga tarvaqaylab qochganidek, taqdiri armator firmasining qo'lida bo'lgan xizmatchilarning hammasi asta-sekin idorani va omborlarni tashlab juftakni urishdi. Buni ko'rgan Kokles esa, bular nega qochyapti, deb o'ylamadi ham. U, hamma gap raqamlarda, derdi. Morrel savdo xonadonida yigirma yildan buyon ishlab, to'lovlar o'z mudatida bajo keltirilayotganini ko'rib, o'rganib qolganidan endilikda bularning kuni bityapti va bu to'lovlar taqa-taq to'xtaydi, degan gaplarga ishonmasdi. Chindan hali-hozirgacha hech narsa uning ishonchiga rahna solgani yo'q. Oxirgi safargi oylik to'lovlar naq vaqtida bajarildi. Janob Morrel o'z zarariga yetmish santim xato qilganini Kokles topib, shu kunning o'zidayoq tuzatdi va o'n to'rt so'm aqchani qaytarib berdi. Janob Morrel g'amgin jilmaydida, pulni olib, bo'sh kassaga solib qo'ydi.

– Juda soz, Kokles, dunyoda agar bitta halol g’aznachi bo’lsa, o’sha sizsiz, –dedi.

Kokles o’zida yo’q xursand bo’lib, chiqib ketdi, chunki Marselda eng vijdonli, pok odam janob Morrelning bir og’iz yaxshi so’zi – maqtovi uning uchun ellik ekyu mukofotdan ham aziz edi.

Bejanjal o’tgan ana shu so’nggi to’lovdan so’ng janob Morrel uchun og’ir kunlar boshlandi, u qarzlardan qutulib olish uchun bor-budini yig’ishtirib, sotishga qaror qildi, bunday ilojsiz holga tushganimni ko’rib odamlar Marselda «bu firma xonavayron bo’pti» degan gap tarqatib yuborishmasin tag’in deb, Bokar yarmarkasiga o’zi borib xotini bilan qizining ba’zi qimmatbaho buyumlarini va kumushlarini pulladi-da, ishini bir oz o’nglab oldi, biroq Morrel savdo xonadonining kassasi bo’m-bo’sh bo’lib qoldi. Endi janob de Bovilga shu oyning o’n beshinchi kuni yuz ming frank, kelasi oyning o’n beshinchisida qolgan yuz ming frank qarzini to’lashi kerak, buni u faqat «Faraon» qaytib kelsagina to’lashi mumkin, chunki butun umidi shu kemada edi. «Faraon» bilan birga bo’lgan va Marsel portiga omon-esson qaytib kelgan kema Morrel kemasining ham yo’lga chiqqanidan darak bergan edi.

Biroq shunisi taajjubliki, Kalkuttadan «Faraon» bilan bir vaqtda yo’lga chiqqan haligi kemanding kelganiga ikki hafta bo’lsa-da, «Faraon»dan dom-darak yo’q edi.

Rimlik Tomson va French xonadonining vakili janob de Bovil huzuridan chiqib ertanisi janob Morrel huzuriga tashrif buyurganda ahvol ana shunday edi.

Uni Emmanyuel kutib oldi. Kim eshik qoqib kelsa, yana qarzdor keldi shekilli, deb o’takasi yoriladigan bu yigit xo’jayinini noxush suhbatdan xalos etish niyatida mehmonni so’rab-surishtira boshladi, biroq mehmon janob Emmanyuelga hech narsa aytmasligini, shaxsan janob Morrel bilan gaplasmochi ekanini izhor etdi.

Emmanyuel nafasi ichiga tushib, Koklesni chaqirdi, Kokles keldi, yigit notanish kishini janob Morrelning huzuriga olib borishni buyurdi.

Kokles oldinda, notanish uning ketidan jo'nashdi.

3inada ular o'n olti-o'n yetti yoshga kirgan go'zal qizga duch kelishdi, qiz notanish mehmonga tashvishlarga to'la nazar tashlab qo'ydi.

Kokles qizning chehrasidagi g'amgin holatni ko'rma-di, ammo bu notanish kishining nazar-e'tiboridan chet-da qolmagan edi.

– Mademuazel Jyuli, janob Morrel o'z xonasidami? – so'radi g'aznachi.

– Xonasida bo'lsa kerak, – javob qildi qiz, – qarab bo-qing-chi, agar otam u yerda bo'lsalar, mehmon kelganini xabar qiling.

– Mening kelganimni xabar qilish foydasiz bo'lur, – dedi ingliz. – Janob Morrel mening ismi sharifimni bilmaydi. Men Tomson va French firmasining bosh agentiman, otan-gizning savdo xonadoni u bilan aloqada. Shuni u kishiga xabar qilsangiz kifoya.

Yosh qiz rangi o'chdi-yu, zinadan yugurib tushib ket-di, Kokles bilan notanish kishi esa yuqori ko'tarildi.

Jyuli idoraga – Emmanyuel xonasiga kirdi, Kokles uchinchi qavatning burchagidagi eshikka kalit solib ochdi, notanish kishini qabulxonaga kiritib, ichkarigi xonaning eshigini ochdi. Tomson va French firmasining vakilini qol-dirib, o'zi ichkariga kirib ketdi. Ko'p o'tmay qaytib chi-qib, kiravering, deb imo qildi mehmonga.

Ingliz kirdi, janob Morrel yozuv stoli orqasida rangi za'-faron bo'lib hisob-kitob daftariga tikilib o'tirgan edi.

Notanish kishini ko'rgan zahoti janob Morrel daftarini bekitdi, o'rnidan turib, mehmonga stul qo'ydi, notanish kishi o'tirgach, kursiga cho'kdi.

O'tgan o'n to'rt yil mobaynida katta bu savdogar juda o'zgarib ketgan edi. Asrimizning boshida u endigina o'ttiz olti bahorni o'tkazgan navqiron yigit edi, endilikda ellik-ka yaqinlashib qolgan, sochlari oqarib, tashvishlar pe-shanasini tirishtirib qo'ygan edi. Qarashlarida ilgari qat'-iyat va dadillik yo'q, yurak oldirib qo'ygan kishidek hadik-sirab qadam tashlardi.

Ingliz unga qarab ham taajjublanar, ham rahmi kelardi.

– Muhtaram janob, – dedi janob Morrel mehmonning diqqat qilib tikilishidan o'ng'aysizlanib, – menda biror gapingiz bo'lsa kerak?

– Shunday, janob. Kimdan vakil bo'lib kelganimni sizga aytgandirlar.

– Bankir Tomson va French firmasidan, g'aznachim shunday dedi menga.

– Xuddi shunday. Tomson va French firmasi shu yaqin ikki oy ichida Fransiyada uch yuzdan to'rt yuz ming frankkacha to'lov operatsiyasi o'tkazishi kerak. Sizning qarzlarni juda vaqtida to'lab yurganingizni hisobga olib, siz qo'ygan barcha majburiyatlarni yig'ib, menga ularni mudatiga qarab, sizdan undirishni topshirdi.

Morrel xo'rsinib nafas oldi, qo'llari bilan peshana terini artdi.

– Demak, – dedi Morrel, – men qo'l qo'ygan vekselar qo'lingizda bo'lsa kerak?

– Shunday, buning ustiga veksellarga katta-katta summalar yozilgan.

– Qanchaga? – so'radi Morrel xotirjam gapirishga urinib.

– Birinchidan, – dedi ingliz cho'ntagidan bir bog'lam qog'oz chiqarib, – mana ikki yuz ming frankka o'tkazma xat, sizning firmangiz ustidan turmalar inspektori janob de Bovil yozib berdi. Bu qarzingizni tan olasizmi?

– Tan olaman, bu summani u besh yil muqaddam to'rt yarim foiz foydasiga o'tkazgan edi.

– Siz buni qaytarib berishingiz kerak edi...

– Yarmi shu oyning o'n beshinchisida, qolgan yarmi ni kelasi oyning o'n beshinchisida.

– Xuddi shunday. Mana tag'in o'ttiz ikki ming frankli vekselar, bularning muddati ham shu oyning oxirida tugaydi. Bularda ham sizning imzotingiz bor, bularni qarzdorlar berdi bizga.

– Tan olaman, – dedi Morrel, biroq birinchi marta bu

qarzlarni to'lashga qodir emasligini anglab qizarib ketdi.
– Shumi hammasi?

– Yo'q, janob, bu hali hammasi emas. Menda Paskal, Uayld hamda Turner savdo xonadonlari bergan veksellar bor, bular ellik besh ming frankka boradi, bularning mud-dati kelasi oyning oxirida tugaydi. Hammasi ikki yuz sak-son yetti ming besh yuz frank.

Bularni eshitib sho'rlik Morrel do'zax azobiga muhtalo bo'lgandek sezardi o'zini.

– Ikki yuz sakson yetti ming besh yuz frank, – takrorla-di u beixtiyor.

– Ha, janob, – dedi ingliz va bir oz sukunatdan so'ng so'zini davom ettirdi. – Biroq, janob Morrel, sizni vijdoni pok inson sifatida hurmat qilsam-da, shuni ochiq ayti-shim kerak: Marselda, bu firma yaqinda qarzlarni ham to'lolmaydigan holga tushib qoladi, degan mish-mishlar yuribdi.

Qo'pollik bilan aytilgan bu so'zlarni eshitib Morrel mur-dadek oqarib ketdi.

– Muhtaram janob, – dedi u, – firmamizni otam menga topshirganigayam yigirma to'rt yildan ko'proq vaqt o'tdi, otamning o'zi firmaga o'ttiz besh yil boshchilik qilib kel-di. Mana shuncha yil mobaynida Morrel va o'g'li qo'ygan birorta qarz majburiyati bajarilmay qolgani yo'q.

– To'g'ri, men bilaman, – javob qildi ingliz, – sof kishi-larga xos ravishda ochiqchasi-ga gaplashaylik, qani ay-ting-chi, mana shu qarzlaringizni o'z vaqtida to'lay ola-sizmi?

Morrel bir seskanib tushdi-yu, so'ng o'nnglanib olib suh-batdoshiga dadil nazar tashladi.

– Bunday dangal savolga dangal javob bermoq kerak, – dedi u. – Ha, janob, kemam omon-eson qaytib kelsa bas, hammasini to'layman. Chunki u kelishi bilan ishim-ga putur yetib, ajrab qolgan mablag' yana qaytib kiradi qo'limga. Lekin «Faraon» halokatga uchrasa, u vaqtda eng so'nggi umidlarim puchga chiqishi mumkin.

Baxtsizlik armatorning ko'zlarini jiqqa yoshga to'ldir-

di.

– Demak, – dedi ingliz, – oxirgi umidingiz chippakka chiqsa, unda nima bo'ladi?

– Unda, – davom etdi Morrel – ... aytishga og'ir... Lekin baxtsizlikka mahkum bo'lgach, uyatni ham yig'ishtirib qo'yish kerak... Unda, men to'lovlarni to'xtatib qo'yishga majbur bo'laman.

– Yordam bera oladigan birorta yori birodarlaringiz yo'qmi?

Morrel g'amgin holatda iljayib qo'ydi.

– Janob, siz bilasizki, bunday ishlarda kishining do'sti bo'lmaydi, faqat gumashtalar bor, xolos.

– Bu haq gap, – dedi ingliz. – Xullas, butun umidingiz faqat o'sha «Faraon»da ekan-da?

– Faqat o'shanda.

– Eng oxirgisimi?

– Oxirgisi.

– Bu umidga yetolmasangiz-chi?

– Unda men batamom xarob bo'laman.

– Men siznikiga kelayotganimda portga qandaydir kema kirib kelayotgan edi.

– Xabarim bor bundan, boshimga kulfat tushganda ham menga yelkadosh bo'lib qolgan sodiq xizmatchim menga hammadan oldin xushxabar keltirayin, deb kun bo'yi umrini portda, tomlar ustida o'tkazyapti. U haligi kemanding kelganini menga xabar qilgan edi.

– U sizning kemangiz emasmi?

– Yo'q, u Bordodan kelgan «Jironda» kemasi. U ham Hindistondan keldi, lekin meniki emas.

– U, ehtimol, «Faraon» qaerdaligini bilar, sizga biror xabar keltirgandir?

– Ochig'ini aytaymi sizga? Kemanding bedarakligi meni qanchalik vahimaga solayotgan bo'lsa, uning to'g'risida keladigan xabar ham meni shunchalik vahimaga solayotir. Bedaraklik – har qalay umid-ku.

Janob Morrel bir oz o'yga cho'mib, so'ng bo'g'iq to'vushda dedi:

– Bilmadim, bunchalik kechikmasdi «Faraon», u Kalkuttadan beshinchi fevralda chiqqan ekan. Bu yerga bir oy ilgari yetib kelishi kerak edi.

– Nima gap o'zi? – dedi to'satdan ingliz qulog'ini ding qilib, nega shovqin ko'tarishyapti?

– Yo Parvardigor! Yo Parvardigor! – dedi murda kabi bo'zarib ketgan Morrel. – Nima bo'ldi?

Chindan zinada shov-shuv ko'tarilib, odamlar u yoqdan-bu yoqqa yugurishardi, kimdir hatto fig'on chekdi.

Morrel eshikni ochish uchun o'rnidan turmoqchi bo'ldi-yu, biroq oyoqlari qaltirab, yana kursiga o'tirib oldi.

Ikkisi bir-biriga tikilganicha o'tirib qoldi. Morrelning butun vujudini titroq bosgan edi, notanish mehmon esa unga rahmi kelib achinardi. Shovqin to'xtadi, lekin Morrel nimanidir kutardi: chunki bu shovqinda bir sir bor, ana shu sir oshkora bo'lishi kerak.

Notanish quloq soldi: kimdir zinadan asta chiqib kelayotganga va maydonda bir necha kishi to'planganga o'xshadi.

So'ng u birinchi eshik kalit solinib ochilganini eshitdi.

– Bu eshikning kaliti ikki kishida bor: bittasi Koklesda, ikkinchisi Jyulida, – deb shivirladi Morrel.

Shu daqiqaning o'zida ikkinchi eshik ham ochilib ostonada Jyuli paydo bo'ldi. Uning rangi o'chgan, ko'zlari jiqqa yosh.

Morrel qaltirab o'rnidan turdi va gandraklab kursining dastasiga suyanib qoldi. U gapirmoqchi bo'ldi, biroq tili aylanmay qoldi.

– Dada, – dedi qiz yalingansimon qo'lini ko'ksiga qo'yib, – sizga xunuk xabar keltirganim uchun kechiring meni!

Morrelning ko'zlari olayib, nihoyatda bo'zarib ketdi, Jyuli o'zini uning quchog'iga otdi.

– Dada, dadajon! – dedi qiz. – O'zingizni qo'lga oling!

– «Faraon» halokatga uchrabdimi? – so'radi Morrel bo'g'iq ovozda.

Jyuli hech nima demadi, faqat boshi bilan ishora qilib «ha» dedi.

– Ekipaj-chi? – so‘radi Morrel.

– Qutqarib qolishibdi, – dedi Jyuli, – Bordo kemasi qutqarib olibdi, bu kema hozirgina portga kirib kelgan.

Morrel shu payt Xudoning eng sodiq mo‘min bandasi bo‘ldi-yu, qo‘llarini ko‘tarib nola qildi:

– Ming karra shukr o‘zingga, Tangrim, ming karra! – dedi u. – Shukrki, faqat mening bir o‘zimni qahringga olibsan!

Ingliz o‘zini vazmin, sovuqqon tutishga qancha urin-da-da, bo‘lmadi, uning ham ko‘zlari jiqqa yoshga to‘ldi...

– Kiringlar, ichkariga, – dedi Morrel, – kiraveringlar ham-malaring, eshik orqasida turganingizni sezib turibman.

Shu so‘zlar uning og‘zidan chiqishi bilan xotini yig‘lab kirdi, uning ketidan Emmanyuel paydo bo‘ldi. Dahliz-da jigar-bag‘ri qon, yarim yalang‘och yetti-sakkiz matros turardi. Ingliz ularni ko‘rib seskanib ketdi, so‘ng yonlari-ga bormoqchi bo‘ldi-yu, lekin shashtidan qaytib, aksincha, o‘zini xonaning eng to‘ridagi qorong‘i burchak-ka oldi.

Morrel xonim kursiga cho‘kdi-da, erining qo‘lini tutdi. Jyuli esa boyagidek boshini dadasining ko‘ksiga qo‘ygan-cha qimir etmay turardi. Emmanyuel xonaning o‘rtasida Morrel oilasi bilan eshik oldida to‘planib turgan matros-lar orasida qaqqayib qoldi.

– «Faraon»ga nima bo‘ldi o‘zi? – so‘radi Morrel.

– Yaqinroq keling, Penelon, – dedi Emmanyuel, – bo‘lgan voqeani hikoya qilib bering.

Sahro oftobida kuyib, qorayib ketgan keksa matros shlyapasidan qolgan laxtakni qo‘lida o‘ynatib keldi.

– Salom, janob Morrel, – dedi go‘yo kechagina Morsel-dan chiqib ketib Eks yoki Tulon safaridan bugun qayt-gandek.

– Salom, do‘stim, – dedi ko‘zi yoshga to‘lgan xo‘jayin beixtiyor iljayib, – kapitan qaerda?

– Janob Morrel, kapitan tobi qochib Palmada qoldi, Xudo poshsho, u tez sog‘ayib siz bilan men singari otday

bo'lib ketadi.

– Yaxshi... Qani, Penelon, hikoya qilib bering, nima bo'ldi, – dedi janob Morrel.

Penelon og'zidagi saqichni lunjining o'ng tomoniga olib, qo'li bilan og'zini yopdi-da, orqasiga o'girilib dahlizga tupurdi, so'ng chayqalib so'z boshladi:

– Gap bunday, janob Morrel, biz shunday Blanko buruni bilan Boyador buruni o'rtasida janubi-g'arb tomondan esayotgan shamol bo'ylab kelayotgan edik, shu payt kapitan Gomar oldimga kelib (shunisini ham aytib qo'yayki, men bu vaqt rulda edim) dedi:

«Penelon amaki, huv anavi ufqdan ko'tarilib kelayotgan bulutlarni ko'rdingizmi? Bu to'g'rida fikringiz qalay?»

O'zimning ham ikki ko'zim o'sha bulutlarda edi.

«Mening fikrimmi, kapitan? Fikrim shuki, bu bulutlar odatdagidan sal tezroq ko'tariyapti va boshqalariga qaraganda, judayam qora-ya, ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin».

«Mening ham fikrim xuddi shunaqa, – dedi kapitan. – Har ehtimolga qarshi chora-tadbirlar ko'raman. Yelkanlarni juda ko'paytirib yuboribmiz, hozir esadigan shamolda bunday qilish yaramaydi. Hoy, yigitlar! Bombramsel va bom-kliver olib tashlansin!»

Buyruqni bajo keltirishga ulgurmay qoldik: birdan dahshatli shamol ko'tarildi, kema chayqalib qiyshaya boshladi.

«Haliyam yelkan ko'p, – dedi kapitan. – Grot ham olin-sin!»

Besh daqiqada bu buyruq ham bajo etildi, biz qolgan yelkanlarda yo'l bosaverdik.

«Xo'sh, Penelon amaki, – dedi menga kapitan, – nechun boshingizni chayqayapsiz?»

«Shuning uchunki, agar men sizning o'rningizda bo'lsam yelkanlardan yana olib tashlatardim».

«Chol, haq gapni aytayapsan, – dedi u, – salqinroq shamol esadiganga o'xshaydi».

«Shamol emas, kapitan, dovul ko'tariladiganga o'xshaydi, juda kuchli po'rtana».

Shunisini ham sizga aytib qo'yayki, shamol xuddi katta yo'ldagi chang-to'zon kabi biz tomonga bostirib kelaveradi. Xayriyatki, kapitanimiz ishbilag'on.

«Ikki rif va marsellar olinsin! – qichqirdi kapitan. – Buning bo'shatilsin, brasopit shamolga to'g'rilansin! Marsellar olib tashlansin, talilar reyalariga ko'tarilsin!»

– O'sha kengliklarda bu ham kam, – dedi to'satdan ingliz. – Men to'rt rifni olib, fokni chiqarib tashlardim kapitanning o'rnida bo'lsam.

Bu qat'iy va jarangdor ovozni eshitib hamma cho'chib tushdi. Penelon qo'li bilan ko'zini to'sdi-da, kapitanning farmoyishini dadil turib tanqid qilgan kim ekan, deb burchakka qaradi.

– Biz, janob, bundan ham ko'proq ish qildik, – dedi keksa dengizchi bir oz hurmat bilan, – biz dovul bilan birga borish uchun kontrbizanni arqonga o'rab fordevindan o'tkazib burab qo'ydik. O'n daqiqadan keyin marselni ham arqonga o'rab oldik.

– Eski kemada bunday qilish xavfli-ku, – dedi ingliz.

– Ha, balli, topdingiz! Bizni ana shu halok etdi. O'n ikki soat davom etgan ag'dar-to'ntardan so'ng (bunga iblisning o'zi ham chidolmasdi!) kema teshildi.

«Penelon, – dedi kapitan, – chamamda, bizlar cho'kib ketyapmiz, qani rulni menga ber, o'zing tryumga tush».

Men unga rulni topshirib pastga tushdim. U yerga otilib kirayotgan suv uch futga borib qolgan edi. Men yuqoriga chiqib: «Tortib chiqarib tashlanglar suvni!» deb qichqirdim. Lekin qayoqda, fursat o'tgan edi. Rosa harakat qildik, biroq suvni qancha chiqarib tashlasak, shuncha ko'tarilaverdi.

«Ey, yigitlar, – dedim to'rt soat jonimni jabborga berib ishlagach, – foyda yo'q bu urinishdan: cho'ksak cho'ka qolaylik, ajalimiz yetgan ekan».

«Hoy, Penelon amaki, sen boshqalarga shunaqa namuna ko'rsatmoqchimisani? – dedi kapitan, – to'xtab tur hali, seni adabingni berib qo'yay!»

Kapitan shunday dedi-yu, o'z kayutasiga tushib ikkita

to'pponcha olib chiqdi.

«Kimki nasosni tashlasa, – dedi u, – miyasining qatig'ini chiqarib tashlayman!»

– Juda to'g'ri, – dedi ingliz.

– Bama'ni gapdek kishini g'ayratga kiritadigan narsa bo'lmasa kerak dunyoda, – davom etdi so'zini dengizchi, – buning ustiga havo ochila boshladi va shamol to'xtadi, biroq teshikdan hamon suv kirib turardi, soatiga ikki dyuym juda kamga o'xshaydi-yu, ammo o'n ikki soatda kam deganda yigirma to'rt dyuymni tashkil qiladi, bu ikki fut demakdir. Ikki futga ilgarigi uch futni qo'shsangiz besh fut bo'ladi. Qorniga besh fut suv kirgach, kema bo'kib qoldi deyavering.

«Endi, – dedi kapitan, – bas qiling, shunisi ham yetar, janob Morrelning bizdan koyinadigan joyi qolgani yo'q: kemani saqlab qolish uchun qo'limizdan kelgan hamma choralarni ko'rdik, endilikda odamlarni halokatdan qutqarib qolish kerak. Yigitlar, qayiqlarni tushiringlar, qani chaqqon-chaqqon harakat qilinglar!»

– Menga qarang, janob Morrel – davom etdi Penelon, – biz «Faraon»ni juda sevib qolgan edik, ammo dengizchiga birinchi galda jon kerak, shuning uchun ham o'z joni-mizga o'zimiz jabr qilishni istamadik. Buning ustiga kema ham «Tuyog'ingni shiqillatib qol tezroq!» degandek «g'iyq-g'iyq, qars-qurs» etardi tinmay. Sho'rlik «Faraon» haq gapni aytardi. Oyog'imiz ostida cho'kib borayotganini sezib turardik. Xullas, hash-pash deguncha kemadagi qayiq tushirildi-yu, hammamiz unga o'tirib oldik.

Kapitan hammadan keyin tushdi, to'g'risi, u tushmadi, chunki kemani tashlab ketishni istamadi, men uni quchoqlab dast ko'tarib qayiqdagilarga uzatdim, so'ng o'zim tushdim. Juda vaqtida tushgan ekanman, zum o'tmay kema xuddi zambarak o'qi otilgandek qarsillab sinib ketdi.

O'n daqiqa o'tmay kema avval tumshug'i, so'ng quyrug'i bilan suvga sho'ng'idi, keyin bir oz lopillab turdi-da, xayr-ma'zurni nasiya qilib gumdon bo'ldi, sho'rlik «Fara-

on!»

Endi bizdan so'rasangiz, uch kechayu uch kunduz hech nima tatimay och bo'riga aylanib, qani qaysimizni jizza qilamiz deb turgan edik, «Jironda» kemasini ko'rib qoldik, unga signal berdik, bizni ko'rib burildi, qayiqlar yuborib hammamizni yig'ib oldi. Janob Morrel, gapning po'stkallasi shu. Dengizchining gapiga ishonavering! Shundaymi o'rtoqlar?

Boshqa matroslar «To'g'ri!», «To'g'ri!» deb kekxa dengizchining gaplarini tasdiqladi.

– Aziz, do'stlarim, – dedi janob Morrel, – yaxshi qilib-siz, azamat yig'itlarning ishi bu, baxtsizlikni taqdir peshanamga yozib qo'yganini allaqachon bilgan edim. Bu Xudoning amri, kishilarda gunoh yo'q aslo. Biz bandalarga Xudoning amri vojib. Endi bu yog'ini ayting: sizga qancha maosh to'lashim kerak?

– Bu gapni qo'ying, janob Morrel, maosh to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas, hozir.

– Yo'q, azizlar, gap bo'lishi kerak, – dedi armator g'amgin iljayib.

– Unday bo'lsa aytib qo'ya qolaylik: uch oylik haq to'lashingiz kerak... – dedi Penelon.

– Kokles, bularning har qaysisiga ikki yuz frankdan to'lang. Boshqa vaqtda, – davom etdi janob Morrel, – har qaysisiga ikki yuz frankdan mukofot bering derdim, biroq hozir ahvol chatoq, do'stlarim, qolgan ozgina aqchamga ham o'zim xo'jayin emasman. Shuning uchun mendan xafa bo'lmang, uzr.

Penelon achingan bo'lib yuzini burishtirdi, o'rtoqlariga o'girilib nima to'g'risidadir maslahatlashdi-da, yana xo'jayiniga qaradi.

– Demak, janob Morrel, – dedi u saqichini u lunjidan-bu lunjiga olib, – haligi... haligi...

– Nima haligi?

– Pulni...

– Xo'sh, nima?

– Janob Morrel, o'rtoqlarim, bizga hozircha ellik frank-

dan yetadi, qolganini keyin bersalar ham bo'ladi, deyshyapti.

– Rahmat, do'stlarim, rahmat! – dedi chin yurakdan minnatdor bo'lib, janob Morrel. – Hammangiz ham o'ktam tanti kishilar ekansiz. Buning uchun sizdan minnatdorman, biroq pulingizni oling. Mabodo biror ish topilib qolgudek bo'lsa, yollanib ishlayvering, ozodsiz.

Armatorning so'nggi so'zlari dengizchilarga juda qattiq ta'sir etdi. Ular vahimaga tushib bir-birlariga qaradilar. Penelonning nafasi bo'g'ildi, u naq bo'lmasa saqichini yutib yuboray dedi, xayriyatki, vaqtida tomog'ini ushlab qoldi.

– Janob Morrel, nima dedingiz? – dedi u bo'g'iq ovozdada. – Siz bizni ishdan bo'shatyapsizmi? Yoqmay qoldikmi sizga?

– Yo'q, aslo unday emas, – javob qildi armator, – aksincha, men sizlardan juda roziman. Ishdan bo'shatayotganim yo'q. Ammo ilojim qancha? Endilikda birorta kemam yo'q, hammasidan ajraldim, shuning uchun matroslarga muhtojligim yo'q.

– Nega kemangiz yo'q ekan? – dedi Penelon. – Buyuring, yangisini yasab berishsin, biz u bitguncha sabr qilib turamiz, sabr-toqatni ham bizga dengiz o'rgatib qo'ydi.

– Penelon, kema qurishga endi pulim yo'q, – dedi armator qayg'uli iljayib, – taklifingiz menga manzur, biroq uni qabul qilolmayman, sababini aytdim.

– Pulingiz yo'q ekan, bizga ham to'lamay qo'ya qoling. «Faraon» kemamiz singari birgina asbob-uskunalarimiz bilan ketaveramiz, vassalom!

– Bas qiling, do'stlarim, bas! – dedi hayajon-la nafasi bo'g'ilib Morrel. – Boring, iltimos qilaman, boring. Yaxshi kunlarda diydor ko'rishaylik, ilohim. Emmanyuel, – dedi qo'shimcha qilib Morrel, – Boring ular bilan birga, mening farmonim to'la bajo keltirilishi ustidan nazorat qilib turing.

– Janob Morrel, biz batamom xayrlashmaymiz, faqat «ko'rishguncha xayr» deymiz, xo'pmi? – dedi Penelon.

– To'g'ri, do'stlarim, to'g'ri, shunday bo'lur, deb umid

qilaman. Boringlar.

Morrel Koklesga imo qildi. Kokles oldinga tushib jo'na-di, uning ketidan dengizchilar qadam tashlashdi, Emma-nyu-el hammadan keyin chiqdi.

– Endi, – dedi armator xotini va qiziga, – sizlar ham boringlar, men mana bu janob bilan xoli gaplashmoq-chiman.

U shunday deb Tomson va French firmasining ishon-chli vakiliga ko'z tashlab qo'ydi. Ingliz esa matroslar bilan bo'lgan suhbat vaqtida burchakda qimir etmay turgan edi. Ikkala ayol tamom unutib qo'yilgan notanishga yalt etib qarashdi-da, chiqib ketishdi. Biroq Jyuli eshik oldida orqaga o'girilib unga iltijo bilan nazar tashladi, notanish esa bunga javoban iljayib qo'ydi. Xonada ikki erkak qoldi.

– Mana, – dedi Morrel kursiga cho'kib, – hammasini o'z ko'zingiz bilan ko'rib, o'z qulog'ingiz bilan eshitdingiz, mening bunga qo'shadigan boshqa gapim yo'q.

– To'g'ri, – dedi ingliz. – Haqiqatan ham siz juda og'ir musibatga uchrabsiz, ilgariGISidek nohaq musibat tushib-di boshingizga, endi men sizga albatta yordam qilishim zarurligiga aslo shubha bo'lishi mumkin emas.

– Oh, muhtaram janob! – dedi Morrel.

– Menga qarang, – davom etdi notanish. – Axir men sizga asosiy qarz beruvchilardan biriman-ku, to'g'rimi?

– Har holda muddati hammadan oldin tugaydigan maj-buriyatlar sizning qo'lingizda.

– Muddatini cho'zishni istaysizmi bu to'lovlarning?

– Qani endi iloji bo'lsa, unda men sha'ni-shavkatimni, demak, hayotimni muhofaza qilib qolgan bo'lur edim.

– Qancha vaqt kerak sizga?

Morrel o'ylanib qoldi.

– Ikki oy, – dedi u.

– Bo'пти, – dedi notanish, – uch oy muddat beraman sizga.

– Bunga Tomson va French firmasi ko'narmikin...

– Xotirjam bo'ling, bu yog'ini men o'z zimmamga ola-man. Bugun beshinchi iyunmi?

– Ha, beshinchi iyun.

– Unday bo'lsa mana bu veksellarning muddatini beshinchi sentyabrga deb qaytadan yozib bering, men beshinchi sentyabr ertalab soat o'n birda (shu payt soat naq o'n bir edi) huzuringizda hozir bo'laman.

– Men sizni kutaman, – dedi Morrel, – yo siz pulingizni naqd olasiz... yoki... men go'rda bo'laman.

Morrel so'nggi so'zlarini juda asta aytdi, notanish uni eshitmadi.

Veksellar qaytadan yozildi, eskilari yirtib tashlandi, sho'rlik armator so'nggi mablag'larini yig'ish uchun uch oy muddat oldi.

Ingliz uning minnatdorligidan mamnun bo'ldi-da, o'z millatiga xos loqaydlik bilan xayrlashib jo'nadi. Morrel notanish haqiga ming duo-fotiha o'qib, uni eshikkacha kuzatib qo'ydi.

3inada notanish Jyuliga duch keldi.

Qiz o'zini shunchaki zinadan tushib borayotganga soldi, u aslida mehmonning chiqishini kutib turgan edi.

– Oh, muhtaram janob, – dedi u yalingansimon qo'llarini qovushtirib.

– Mademuazel, – dedi notanish, – kunlardan bir kun Sindbod-Dengiz sayyohi... imzosi bilan xat olasiz. Xatda nima deyilgan bo'lsa, g'alati tuyulishiga qaramay hammasini aynan bajarasiz.

– Xo'p bo'ladi, – javob qildi Jyuli.

– Aytganingizni bajo keltiraman albatta, deb va'da berasizmi?

– Ont ichaman!

– Juda soz. Xayr, mademuazel. Hamisha mana shunday otaga mehrli, muruvvatli qiz bo'ling! Ana shunda Tangrim sizga Emmanyuel kabi ajoyib er ato etgay.

Jyuli asta ingradi, yuzlari qizarib ketdi, panjaraga suyanib qoldi. Notanish qo'llarini ko'tarib xayrlashdi-da, yo'lida davom etdi...

Hovlida u ikki qo'lida yuz frankdan aqcha tutgan holda, olib ketsammikin yoki yo'qmi deb ikkilanib turgan Pene-

lonni uchratdi.

– Do‘stim, bu yoqqa yuring, – dedi unga ingliz, – siz bilan gaplashib olishim kerak.

IX. BESHINCHI SENTYABR

Morrel shu daqiqada bankir Tomson va French firmasining ishonchli vakili to‘lov muddatini kechiktiradi, deb aslo o‘ylamagan edi. Bechora armatorga baxt qushi yana qaytib kelib, yelkasiga qo‘ngandek bo‘ldi. O‘sha kuniyoq u bo‘lgan hamma gapni oqizmay-tomizmay qiziga, xotiniga va Emmanyuelga aytib berdi. Shundan keyin oilaning ruhi bir oz ko‘tarildi, umidsizlik o‘rnini umidvorlik oldi. Lekin ming afsuski, Morrel faqat olijanoblik ko‘rsatgan Tomson va French firmasi bilangina emas, boshqalar bilan ham aloqa bog‘lagan edi. Uning o‘zi aytganidek, savdo-sotiq ishlarida do‘st bo‘lmaydi, faqat gumashtalar bo‘ladi. Tomson va French firmasi oliyhimmat chiqib qoldi, biroq bu juda o‘ylab xudbinlarcha qilingan ish, faqat, deb o‘ylardi u. Firmaning maqsadi aniq: Morrelning xonavayron bo‘lishini tezlatib olti va sakkiz foiz olgandan ko‘ra, uch oydan so‘ng o‘sha uch yuz ming frankka yaqin qarzni undirib olmoq uchun uni qo‘llab-qo‘ltiqlagani yaxshi-ku.

Morrelga qarz bergan boshqa firmalarning fikri esa baxtga qarshi, bunday emasdi, ular armatordan hamma qarzlarini muddatida undirib olish kerak, uning xonavayron bo‘lishi va bo‘lmasligi bilan bizning nima ishimiz bor, degan fikrda edi. Shuning uchun Morrel qo‘l qo‘ygan veksellar belgilangan muddatning naq o‘zida kassaga tutqazildi, xayriyatki, ingliz muddatni kechiktirgan ekan, ana shu tufayligina bu veksellardagi qarzlarni Kokles darhol to‘lab qo‘ya qoldi. Shu bilan Kokles g‘alvalardan qutulib, yana xotirjam bo‘lib oldi. Faqat janob Morrel hamon «Agar o‘n beshinchida de Bovilga yuz ming frank, o‘ttizinchida muddati cho‘zilgan yana boshqa veksellar bo‘yicha o‘ttiz

ikki ming besh yuz frank to'lashga majbur etganlarida shu o'yingning o'zidayoq xonavayron bo'lardim», deb vahimaga tushib yurardi.

Butun iyul oyi zarur summani to'plash uchun Morrel jonining boricha harakat qildi. Uning majburiyatlari qanday muddatga bo'lmasin, zo'r ishonch bilan qabul qilinarkan va umuman bunda uning bozori chaqqon edi. Morrel uch oylik veksellar berishga ham urinib ko'rdi, biroq birtorta bank uni qabul etmadi. Xayriyatki, Morrel, umid qilgan kirimlar kassasiga tushdi, shunday qilib o'yingning oxirida Morrel qarz berganlarning talabini yana qondirdi.

Tomson va French firmasining ishonchli vakilini o'shandan buyon Marselda uchratishmadi. Morrel janoblari huzurida bo'lgan kunining ertasigami yoki indinigami, u gumdon bo'ldi. Marselda u shahar hokimi bilan turmalar inspektori va armator bilangina uchrashib ishini bitirib tez ketdi. Shu sababli bu uchala zotdan boshqa hech kim uni ko'rgani yo'q. «Faraon» kemasining matroslariga kelganda, ular ham g'oyib bo'lishdi, aftidan boshqa ishga joylashib olishdi.

Bemorligi tufayli Palmada ancha vaqt ushlanib qolgan kapitan Gomar Marselga qaytib keldi. U janob Morrel huzuriga borishga jur'at etolmay yurdi. Morrelning o'zi uning kelganini eshitib kapitannikiga jo'nadi. Vijdoni pok armator kemasi halokatga uchragan vaqtda kapitanning jasorat ko'rsatganini Penelonning hikoyasidan bilib olgandi, shu vajdan o'zi borib, uning ko'ngliga taskin berishga qaror qildi. Kapitan maoshini olishga ham iymonib yurgandi, armatorning o'zi uning oyligini keltirib berdi.

Janob Morrel kapitannikidan chiqayotib, zinada Penelonga duch keldi. Penelon olgan pullarini eplab sarflagan chog'i, juda bashang kiyinib olgan edi. Soddadil matros armatorni ko'rib sarosimaga tushib qoldi. U burchakka siqilib, saqichini avval chap lunjiga, so'ng o'ng lunjiga oldi, ko'zlarining paxtasini chiqarib janob Morrelga asta qo'l uzatdi. Janob Morrel bashang kiyinganidan uyali b shunday qilayapti, deb o'yladi, aftidan, keksa matros fa-

qat o'z puliga bunchalik ortiqcha yasanmagan bo'lsa kerak, u boshqa kemaga ishga kirib olgan bo'lsa kerak, «Faraon» ni juda tez unutib qo'ygandan xijolat tortayotgan bo'lsa kerak. Ehtimol, u kapitan Gomarga ishi o'ngidan kelganini, yangi xo'jayinni uni ham ishga taklif etayotgani xabar qilgani kelgandir.

– Sizlardek yoqimtoy odam yo'q bu dunyoda! – dedi armator ketayotib. – Ilohim yangi xo'jayiningiz sizga men singari mehribon bo'lsin.

Morrel avgust oyi ichida eski qarzlarini yana tiklashga yoki yangi qarzlar olishga rosa urindi. Yigirmanchi avgustda Marsel Morrel pochta izvoshi buyurtma qilibdi degan gap tarqaldi, hamma bundan, demak Morrel oynning oxiriga borib, qarzlarini to'lashga qodir emasligiga ko'zi yetib sharmanda bo'lmaslik uchun jo'rttaga jo'nab ketyapti, bu ishni sarkori Emmanuyel va g'aznachisi Kokles zimmasiga yuklagan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Ammo bu gap-so'zlarning hammasi puchga chiqib, avgust oynning naq o'ttiz birida kassa lang ochildi. Kokles esa «taqvodor» Gorasiy kabi gerdayib, uzatilgan veksellarni diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqdi-da, odatdagidek hammasini to'ladi... Hatto ikkita begona vekselni ham qabul qilib, xuddi armatorning veksellerini to'lagandek, naqd to'lab qo'ydi. Hamma bunga tushunolmay garang edi: ko'plar folbinlarga o'xshab, u singanini bo'yniga olganini sentyabrning oxirida e'lon etadi, deb karomat qildi.

Morrel birinchi sentyabrda qaytib keldi. Butun oila uni vahimaga tushib kutardi, sharmandagarchilikdan qutulishda eng so'nggi najotni ular Morrelning Parij safaridan kutayotgan edi. Kunlarning birida Morrel bir vaqtlar ko'p yaxshilik qilgan kishisi Danglarning hozir juda boyib, millioner bo'lib ketganini esga olib qoldi. Axir Morrelning tavsiyasi bilan Danglar ispan bankiga ishga kirdi va u yerda tez boylik orttira boshladi-da. Aytishlariga qaraganda, Danglarning olti yoki sakkiz million frank sarmoyasi va behisob veksellari bor ekan. Danglar cho'ntagidan bir chervon chiqarmasdanam Morrelni falokatdan qutqarib olishi hech

gap emas edi. U armatorni kafillikka olsa bas, Morrel qutuliq qolardi. Danglar to'g'risida Morrel anchadan buyon o'ylab yurardi, ammo o'ziga ham noma'lum jirkanish va nafrat hissi uning shashtini oxirgi daqiqagacha qaytarib turardi. Mana endi u haq ekani tasdiqlandi. Morrel umidlari puchga chiqib, dilxasta bo'lib qaytdi. Danglar xudbinlik qilib, armatorning iltimosini rad etibdi.

Morrel eshikdan churq etmay kirdi-da, Danglardan zaracha arz-dod qilmadi, o'pkalanmadi ham, ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, xotini va qizini quchoqladi, Emmanyuelga qo'l berib, do'stona so'rashdi, so'ng uchinchi qavatga – xonasiga kirib ketdi. Sal o'tmay Koklesni chaqirtirdi.

– Bu gal, – deyishdi ikkala ayol Emmanyuelga, – xonavayron bo'lishimiz muqarrar.

Bir oz kengashib olgach, ular Jyulining Nim shahridagi polkda xizmat qilayotgan akasi Maksimilianni chaqirishga qaror qilishdi. Jyuli unga tez kelishini iltimos qilib xat yozadigan bo'ldi.

Sho'rlik ayollar xavf solib kelayotgan zarbaga bardosh berish uchun bor kuchlarining hammasini to'plash zarurligini his etishardi.

Buning ustiga endigina yigirma ikki yoshga kirganiga qaramay, Maksimilian Morrelning otasiga ta'siri kuchli edi.

U rostgo'y va cho'rtkesar odam. U kasb-kor tanlayotganida otasi uni biror sohaga o'tishga majbur etmadi, o'z mayliga qo'yib berdi. O'shanda Maksimilian harbiy xizmatga kirmoqchi ekanini aytdi. Shu qarorda to'xtab, u qunt qilib o'qidi. Politexnika maktabiga kirish tanlovidan o'tdi va 53-polkka podporuchik qilib tayinlandi. Bir yildan buyon ana shu unvonda xizmat qilar va poruchik unvoni olish niyatida edi. Polkda Maksimilian Morrel soldatlik burchinigina emas, shu bilan birga insoniy burchini ham aniq bajo keltirar va shuning uchun unga «mustaqil» deb laqab qo'yishgan edi. Albatta, ko'plar bu so'zning tagida qanday ma'no yotganini bilmasa-da, boshqalar og'zidan ilib olib gap ma'qullashardi.

Yosh ofiserni shu qora kunlarda yelkadosh bo'lish

uchun onasi va singlisi yordamga chaqirayotgan edilar.

Ayollarning hadiksirashi to'g'ri bo'lib chiqdi; chunki bir necha daqiqadan so'ng Jyuli otasining xonasidan Kokles bo'zarib, gandraklab chiqqanini ko'rdi. Qiz Kokles yonidan o'tib ketayotganda uni to'xtatmoqchi va nima gapligini so'rab-surishtirmoqchi bo'ldi, ammo sho'rlik g'aznachi o'z odatiga xilof ravishda zinadan shoshib tushayotib, qo'llarini osmonga ko'tardi-da, xitob qildi:

– Oh, mademuazel Jyuli! Ne kulfatlar tushdi boshimizga! Kim shunday bo'ladi deb o'ylagan edi!

Xiyla vaqtdan keyin u hisob-kitob daftarlari, pul solingan hamyon va qopcha ko'tarib keldi.

Morrel hisob-kitob daftarini varaqlab-varaqlab ko'rdi, hamyonni va qopchani ochib, pullarini sanab chiqdi.

Qolgan hamma sarmoyasi sakkiz ming frankdan oshmasdi.

Beshinchi sentyabrgacha to'rt-besh ming frank tushishi mumkin, demak, o'n to'rt ming frankka yaqin boradi hamma puli, holbuki, u shartnomalardagi majburiyati bo'yicha ikki yuz sakson yetti ming besh yuz frank to'lashi kerak. Bunday summani to'lashga mutlaqo kodir emasdi Morrel.

Shunga qaramay, tushki ovqatga chiqqanida Morrel osoyishta, xotirjam edi. Ikki ayol bu xotirjamlikni ko'rib yanada battarroq vahimaga tushdi.

Ovqatdan keyin Morrel odatda uydan chiqib «Fokeys-lar klubi»ga borar va «Semafor»ni o'qib, qahva ichib o'tirardi, bu gal tashqariga chiqmay, qaytib xonasiga kirib ketdi.

Kokles juda sarosimaga tushib, gangib qolgan edi. U deyarli kun bo'yi hovlida, tosh ustida harorat o'ttiz darajaga ko'tarilganiga qaramay, bosh yalang g'iq etmay o'tirdi.

Emmanyuel beka Morrelga va Jyuliga dalda berishga urinardi, biroq u ham ilgarigi so'zamollikdan mahrum bo'lib qolgandi. Emmanyuel firma ishlaridan juda yaxshi xabardor bo'lib, Morrel oilasi dahshatli halokatga mah-

kum ekanini oldindan ko'rib turardi.

Tun chodirini yozdi, onasi bilan Jyuli hozir Morrel xonasidan chiqib bizning xonamizga kiradi, deb mijja qoqmay o'tirishdi. Biroq Morrel ularning eshigi yonidan asta-sekin qadam tashlab o'tib ketdi-da, yotog'iga kirib, eshigini ichidan qulflab oldi.

Ona qizini o'z yotog'iga jo'natdi-da, kavushini yechib qo'yib sarpoychan dahlizga chiqdi va erim nima qilyapti ekan, deb qulf teshigidan mo'ralab qaramoqchi bo'ldi. Dahlizda kimningdir soyasi ko'rindi. Bu Jyuli edi, u ham onasidan ilgariyoq otasidan xabar olgani chiqqan edi.

Qizi onasi yoniga kelib:

– Xat yozyapti, – dedi.

Ona-bola so'zsiz bir-birining fikrini anglab olishdi.

Morrel xonim qulf teshigidan mo'raladi. Morrel xat bi-tyapti. Ammo ona qizi ko'rmagan bir narsani ko'rib qoldi: eri xatni gerbli qog'ozga yozayotgan edi.

Demak, janob Morrel vasiyatnoma yozyapti. Bekani bezgak titrog'i bosdi, biroq o'zini tutib olib, qiziga hech nima demadi.

Ertasi kuni janob Morrel butkul xotirjam ko'rindi. Odatdagidek idorada o'z ishlari bilan mashg'ul bo'ldi, har vaqtdagidek nonushtaga chiqdi. Faqat ovqatdan so'ng Morrel qizini yoniga o'tqazib uning boshini tutib, bag'riga bosdi.

Kechqurun Jyuli onasiga, otam xotirjam ko'rinsa-da, yuragi juda qattiq urib turgan edi, dedi.

Yana ikki kun vahima bilan o'tdi. To'rtinchi sentyabr kuni kechqurun Morrel qizidan ish xonasining kalitini topshirishni talab etdi.

Jyuli bu so'zni eshitib seskanib ketdi. Nechun? Shu vaqtgacha uning qo'lida bo'lib kelgan, faqat bolaligida sho'xlik qilsa jazo tarzida olib qo'yishadigan bu kalitni nechun olib qo'yyapti otasi?

Jyuli iltijo bilan tikildi otasiga.

– Qanday aybim uchun, – dedi u, – mendan kalitni olib qo'yyapsiz?

– Qizginam, senga hech qanday ayb qo‘yayotganim yo‘q, – javob qildi Morrel qizining bu soddadil savolidan ko‘ngli buzilib, – kalit menga kerak bo‘lib qoldi.

– Kalitni xonamda qoldirgan bo‘lsam kerak, – dedi qiz o‘rnidan turib va dahlizga chiqdi-da, o‘z xonasiga emas, maslahatlashib olish uchun Emmanyuel yoniga yugurdi.

– Kalitni bermang zinhor, – dedi yigit, – otangizni ertalab ham yolg‘iz qoldirmang.

Qiz Emmanyueldan nima gapligini so‘rab-surishtirmoqchi bo‘ldi, ammo yigitning hech nimadan xabari yo‘q edi va bu haqda biror narsa deyishni istamasdi.

Morrel beka to‘rtinchidan beshinchiga o‘tar kechasi ko‘z yummay devorga suyanib erining xonasiga quloq solib chiqdi. Ertalab soat uchgacha erining yotoqda og‘ir nafas olib yurib chiqqanini eshitib turdi.

Soat uchdagina Morrel o‘zini karavotga tashladi.

Ona va qiz tunni birga o‘tkazishdi. Ular kecha kechqurundan buyon Maksimilianning kelishini kutishardi.

Ertalab soat sakkizda ayollar xonasiga janob Morrel kirib keldi. U xotirjam ko‘rinardi, biroq rangi-ro‘yidan tunni mijja qoqmay o‘tkazgani bilinib turardi.

Ayollar jur‘at qilib, uyqungiz oromli bo‘ldimi, deb so‘rashdi.

Morrel xotini va qiziga shu payt har qachongidan ham dilkash, mehribon edi. U Jyulidan ko‘zlarini uzolmay, uzoq bag‘riga bosib o‘pdi.

Qizi Emmanyuelning maslahatini esiga oldi-da, otasi-ni kuzatib qo‘ymoqchi bo‘ldi, biroq armator qizini to‘xtatib:

– Onangning yonida bo‘lgin, – dedi.

Jyuli, yo‘q, kuzatib qo‘yaman sizni, deb turib oldi.

– Men talab qilaman qolishingni! – dedi Morrel.

Morrel umrida birinchi marta qiziga «Talab qilaman!» degan so‘zni aytishi, ammo u buni otalik mehri bilan aytdi, shu sababli Jyuli o‘rnidan qimirlay olmadi.

Jyuli churq etmay turgan joyida qoldi. Ko‘p o‘tmay eshik yana ochildi, kimdir uni quchib o‘pdi.

Jyuli boshini ko'tardi-yu, shodlanib qichqirib yubordi:
– Maksimilian! Akajon!

Buni eshitgan Morrel xonim uchib kelib, o'zini o'g'li quchog'iga otdi.

– Onajon! – dedi Maksimilian goh onasiga, goh singlisiga qarab. – Nima gap o'zi? Maktubingiz meni juda vahimaga solib yubordi, shu sababli shoshilib yo'lga chiqdim.

– Jyuli, – dedi onasi, – bor, Maksimilian keldi deb otangga ayt. Jyuli yugurib tashqari chiqdi va birinchi zinapoyada qo'lida xat ushlab kelayotgan kishiga duch keldi.

– Mademuazel Jyuli Morrel siz bo'lasizmi? – so'radi haligiki kishi italyan talaffuzida.

– Ha, janob, men, – dedi duduqlanib Jyuli, – menda biror ishingiz bormi? Men sizni tanimayapman.

– Mana bu xatni o'qing, – dedi italyan xatni uzatib.

Jyuli ikkilanib qoldi.

– Bu yerda gap otangizni halokatdan saqlab qolish ustida boradi, – dedi notanish kishi. Buni eshitib Jyuli uning qo'lidagi xatni shartta tortib oldi-da, darhol ochib o'qidi. Xatda quyidagilar yozilgandi:

«Tezdan Melyan xiyoboniga boring-da, 15-raqamli uyga kiring va qorovuldan kalitni olib beshinchi qavatdagi xonaga chiqing, tosh pechka ustidagi qizil shoyi hamyonni olingu otangizga keltirib bering.

U bu katmonni albatta ertalab soat o'n birgacha olishi shart.

Siz mening buyruqlarimni hech so'zsiz bajarishga va'da bergan edingiz. Ana shu va'dangizni xotiringizga solib qo'yyapman.

Sindbod-Dengiz sayyohi».

Qiz quvonchdan qichqirib yubordi, so'rab-surishtirmoqchi bo'lib xat keltirgan kishini axtardi, biroq u allaqachon ko'zdan g'oyib bo'lgandi.

Jyuli xatni yana qaytadan o'qidi va quyidagi ilovasiga

ko'zi tushdi:

«Bu topshiriqni shaxsan va yakka o'zingiz bajarmog'in-giz zarur, mabodo biror kishini ergashtirib kelsangiz yoki o'rminizga boshqa birov kelsa, qorovul «o'zi nima gap, tushunmayapman» deb javob beradi».

Xatdagi bu ilova so'zlar darrov qizning ko'nglini sovu-tib vahimaga soldi. Bu xat bir falokat keltirmasin tag'in! Aldab tuzoqqa tushirmasmikin? Soddadil Jyuli bunday yosh chog'ida iffatli qiz qanday xavfga uchrashi mum-kinligini bilmasdi ham. Kishi duchor bo'ladigan xavfni bilganda emas, aksincha bilmaganda ko'proq vahimaga tushadi.

Jyuli taraddudlanib qoldi. U kimdandir maslahat so'ra-moqchi bo'ldi. U qandaydir noma'lum maqsadda onasi-dan emas, akasidan emas, Emmanyueldan yordam so'rashga qaror qildi-da, pastga tushib, otasi qoshiga Tomson va French banki vakili kelgan kun yuz bergan voqealarni va zinada uchrashganida bo'lgan gaplarni aytib berdi. So'ng xatni ko'rsatdi.

– Albatta borishingiz kerak, – dedi Emmanyuel.

– O'sha uyga-ya?

– Ha, men sizni kuzatib boraman.

– Axir bu yerda yakka o'zingiz borishingiz kerak, deb yozilgan-ku!

– Haliyam bir o'zingiz borasiz, – javob qildi Emmanyuel, – men sizni Muzey ko'chasidagi muyulishda kutib tu-raman. Mabodo uzoq ushlanib qolgudek bo'lsangiz, dar-rov yetib boraman, biror kishi sizni xafa qilgan bo'lsa, rosa adabini berib qo'yaman!

– Shunday qilib, Emmanyuel, – dedi qiz ikkilanib, – tak-lif etilgan joyga boraveraymi?

– Boravering. Axir o'sha vakil, gap otangizni muhofa-za qilib qolish ustida boradi, debdi-ku.

– Nimadan uni muhofaza qilish kerak, Emmanyuel? Qanday xavfdan? – so'radi Jyuli.

Emmanyuel ikkilanib qoldi, biroq Jyulining ko'nglida jasorat uyg'otish uchun qanday xavf ekanini aytib berishga qaror qildi.

– Bugun beshinchi sentyabr-a, – dedi Emmanyuel.

– Ha, beshinchi sentyabr.

– Otangiz xuddi shu bugun soat o'n birda uch yuz ming frank qarzini to'lashi kerak.

– To'g'ri, buni bilamiz.

– Uning kassasidagi pul o'n besh ming frankka ham yetmaydi, – dedi Emmanyuel.

– Xo'sh, nima bo'lishi mumkin?

– Agar otangiz bugun soat o'n birda madad beradigan biror zotni topolmasa, u qoq tushda o'zini sinib xonavayron bo'lgan qarzdorman, deb e'lon qilmog'i shart.

– Yuring, boraylik! Tez boraylik! – dedi Jyuli Emmanyuelni qo'lidan tortib.

Ayni vaqtda, Morrel xonim hamma gapni oqizmay-to-mizmay o'g'liga aytib berdi.

Maksimilian, ketma-ket baxtsizlikka uchrash oqibatida oilasi hayotida ancha o'zgarish yuz berganini bilsada, ammo ahvolning bunday og'irlashib qolganidan bexabar edi.

Kutilmagan zarba uning ham ko'nglini vayron etdi.

So'ng u xonadan otilib chiqdi-da, zinadan chopqillab chiqib otasini uchratish niyatida eshikni taqillatdi.

Shu payt pastdagi eshik ochildi, Maksimilian o'girilib otasini ko'rdi. Janob Morrel ayollar xonasidan chiqib to'g'ri xonasiga bormay yotoqxonasiga tushgan va endigina yuqoriga ko'tarilayotgan edi.

Janob Morrel o'g'lini ko'rib taajjubdan qichqirib yubordi, o'g'lining kelganini hali u eshitmagandi. U qo'yniga yashirib olgan bir narsani qo'ltig'iga mahkam qisganча turgan joyida qotib qoldi.

Maksimilian zinadan yugurib tushdi-da, otasining bo'yniga osildi, ammo o'ng qo'li otasining ko'ksiga tekach, o'zini orqaga tashladi.

– Ota! – dedi u rangi o'chib, – nega qo'yningizda

to'pponcha olib yuribsiz?

– Men faqat shundan qo'rqqandim... – dedi shivirlab Morrel.

– Otajon! Xudo haqi, ayting! – dedi xitob bilan Maksimilian, – bu qurol nechun?

– Maksimilian, – dedi otasi, o'g'liga diqqat bilan tikilib, – sen nomusli yigitsan, yur, xonaga kiraylik, o'sha yerda senga hamma gapni aytib beraman.

Morrel shunday dedi-da, shahdam qadam tashlab, xonasi tomon yurdi. Maksimilian gandaraklab unga ergashdi.

Morrel kalit solib eshikni ochdi-da, oldin o'g'lini kiritib yuborib, orqasidan o'zi kirdi va eshikni ichidan qulflab oldi. So'ng yozuv stoli yoniga borib, to'pponchani stol chetiga qo'ydi-da, o'g'liga ochiq turgan ro'yxatni ko'rsatdi.

Ro'yxatda ishlar qanday ahvolda ekani juda ravshan qilib yozilgan edi.

Yarim soatdan so'ng Morrel ikki yuz sakson yetti ming besh yuz frank to'lashi kerak. Kassasida esa bor-yo'g'i o'n besh ming ikki yuz yetti frank bor, xolos.

– O'qi buni! – dedi Morrel.

Maksimilian o'qib chiqdi. U xuddi yashin urganga o'xshab, qotib qolgandi.

Otasi hech nima demadi: raqamlar hukmi oldida nima deya olardi u?

– Ota, halokatning oldini olish uchun hamma chora-tadbirlarni ko'rdingizmi? – so'radi Maksimilian.

– Ko'rmagan choram qolmadi, – dedi otasi.

– Kassaga endi hech qaerdan pul tushmaydimi?

– Yo'q.

– Sarmoyaning hammasi tugab tamom bo'ldimi?

– Hammasi tugadi.

– Demak, yarim soatdan so'ng, – dedi pichirlab dilgir holda Maksimilian, – sharmandayu sharmisor bo'lamizmi? Badnom bo'lamizmi?

– Ilojimiz bitta: badnomlikni qon bilan yuvmoq kerak,

– dedi Morrel.

– Haq gapni aytyapsiz, ota, men buni tushunib turibman.

U to'pponchaga qo'l uzatdi.

– Bittasi sizga, bittasi menga, – dedi u. – Rahmat.

Morrel o'g'lining qo'lidan tutdi.

– Onang nima bo'ladi? Singlingning holi nima kechadi? Ularni kim boqadi?

Maksimilian seskanib ketdi.

– Otajon? – dedi u. – Nahotki, siz mening yashashimni istasangiz!

– Ha, istayman, – javob qildi Morrel, – chunki bu sening burching. Maksimilian, sen irodali yigitsan. Es-hushing ham joyida. Men seni zo'rlayotganim yo'q, faqat «O'zingni begona kishi o'rniga qo'ygin-da, chetdan turib yuz bergan ahvolni o'ylab, mulohaza qilib, o'zing bir qarorga kel», deyapman.

Maksimilian o'ylab qoldi, ko'zida mardonavor ahd alo-matlari paydo bo'ldi, ma'yus holda epoletlarini yechib tashladi.

– Mayli, – dedi u otasiga qo'lini uzatib, – sizga Xudo yor bo'lsin. Men yashayman.

Morrel o'g'lining oyog'i ostiga o'zini tashlamoqchi bo'ldi, ammo Maksimilian bunga yo'l qo'ymay, uni quchoqlab oldi. O'ktam, olijanob hamdard ikkala yurak bir-biriga jo'r bo'lib ketdi shu payt.

– Bu kabi mushkul holga tushib qolishimizda mening begunoh ekanimni sen yaxshi bilarsan, o'g'lim? – dedi Morrel. Maksimilian iljayib qo'ydi.

– Bilaman, ota, siz halol, vijdoni pok odamsiz.

– Juda soz, hamma gapni gaplashib oldik, endi onang bilan singlingning qoshiga bor.

– Ota, – dedi tiz cho'kib yigit, – menga oq fotiha be-ring.

Morrel ikki qo'li bilan o'g'lining boshini ushlab pesho-nasidan o'pdi-da, fotiha berdi:

– O'z nomimdan va uch avlodning insof-diyonatli zot-

lari nomidan oq fotiha beraman senga – umring uzoq, qo'ling baland, martabang ulug' bo'lsin, bolam, ana shu uch avlodning mening tilimdan aytadigan so'zlariga quloq os: taqdir baxtsizlik oqibatida vayron bo'lgan binoni yana tiklab qo'yishi mumkin. Mening vijdon azobida halok bo'lganimni ko'rgan har qanday bag'ritosh ham senga achinar, ehtimol, senga muddatni cho'zib berishar, ana shunda sen bizning sha'nimizga isnod keltiradigan biror so'z aytilishiga yo'l qo'ymaslik uchun hamma choralarni ko'r. Ishni qo'lingga ol, kuching boricha ishla, g'ayrat bilan o'tday yonib kurash, tiyib-tejab yashanglar, toki men qarzdor bo'lgan kishilarning mulki sening qo'lingga o'tsin, ko'paysin. Shuni aslo unutmaginki, mening sha'ni-shuhratim tiklangan kun, xuddi mana shu idorada sen dadil turib: «Bugun men ado etayotgan ishlarni otam udalay olmagani uchun jonidan kechgan edi, ammo u ishlarni men mana shunday maromiga yetkazib qo'yishimni bilganim sababli xotirjam dunyodan o'tdi» deydigun kun eng go'zal, eng ulug' kun bo'ladi biz uchun.

– Eh, otajon! – xitob qildi Maksimilian, – qani endi siz ham biz bilan birga qola olsangiz edi!

– Mabodo men qolgudek bo'lsam, hamma ish chap-pasiga ketadi, odamlardagi bizga bo'lgan hamdardlik, rahmdillik – shubhaga, ishonmaslikka aylanadi, achinish, mehr-shafqat – ta'qibga aylanadi, men o'z majburiyatlarni bajarmagan subutsiz, beburd kishi, qisqasi, qarzlarini to'lashga ojiz bir maxluq bo'lib qolaman. Maksimilian, shuni uqib olginki, men o'lganda ham bir baxtsiz, lekin halol, vijdoni pok inson sifatida o'laman. Tirik bo'lsam, eng yaqin do'stlarim ham bizdan o'zini chetga tortishadi, ostonamizga qadam bosmay qo'yishadi, o'lsam-chi, butun Marsel ko'z yoshi to'kib go'rimga kuzatib qo'yadi, men tirik qolsam senga ham isnodim tegadi, seni ham

¹⁸ Amvroziya – qadim yunon afsonalarida xudolarga abadiy yoshlik bag'ishlagan ichimlik. (Tarj.)

uyatga qo'yaman, o'lsam sen ham ko'kragingni baland ko'tarib: «Hayotida birinchi marta so'zining ustidan chiqolmay, va'dasini buzgani uchun o'z joniga qasd qilgan zotning o'g'liman», – deya olasan.

Maksimilian qayg'uli oh tortdi, ammo aftidan, taqdirga tan berdi, shekilli, dilida bo'lmasa-da, fikran otasining dalillariga qo'shildi.

– Endi o'g'lim, – dedi Morrel, – meni yakka qoldir, onang va singlingni uzoqroqqa olib ketishga harakat qil.

– Jyulini yana bir marta ko'rishni istamaysizmi? – so'radi Maksimilian.

Maksimilianning so'nggi umidi ana shu uchrashuvda edi, ammo Morrel bosh chayqab, yo'q, dedi.

– Men uni ertalab ko'rdim, – dedi u, – xayrlashdim.

– Ota, yana boshqa topshirig'ingiz yo'qmi menga? – so'radi Maksimilian bo'g'i q ovozda.

– Bor, o'g'lim, yana bir muqaddas topshiriq bor.

– Qulog'im sizda, ota.

Faqat Bankir Tomson va French firmasi, shuhratparastlikdanmi yoki xudbinlikdanmi, har holda rahm-shafqat qilib meni qo'lladi. U firma vakilining o'zi men so'ramasdan oq qarz muddatini uch oyga uzaytirib berdi. O'n daqiqadan so'ng u veksel bo'yicha ikki yuz sakson yetti ming besh yuz frank olish uchun keladi. Shunday qilginki, o'g'lim, u haqini birinchi bo'lib olsin va sen uchun eng aziz, eng olijanob odam bo'lib qolsin.

– Xo'p bo'ladi ota, – dedi Maksimilian.

– O'g'lim, kechir otangni, – dedi Morrel, – bor endi, bor o'g'lim, men yolg'iz bo'lmog'im kerak, vasiyatnomamni yotog'imdagi stol tortmasidan topasan.

Maksimilian turgan joyida qotib qoldi, chiqib ketmoqchi bo'lar, ammo oyoqlarini o'rnidan qimirlatolmasdi.

– Bor, Maksimilian, bor, – dedi otasi, – meni ham o'zing singari soldat deb faraz qil, dushman istehkomini ishg'ol

¹⁹ Keksa Tog'lik – Hasan ibn Sabo – o'z «fidoyi»larini jangga jo'natganda, nasha chektirib, mast qilib yuborardi.

etish haqida buyruq oldi-yu, jangda dushman o'qidan halok bo'ldi, deb faraz qil. Rostdan ham men soldat bo'lib ana shunday buyruq olsamu ikkilanib tursam, nahotki sen: «Ota, boring, aks holda badnom bo'lasiz, sharmandayu sharmisor bo'lgandan ko'ra, dunyodan ko'z yumgan yaxshi!» demasding?

– To'g'ri, ota, – dedi Maksimilian, – to'g'ri.

U titrab cholni quchog'iga oldi.

– Boring, ota, – dedi Maksimilian cholni quchog'idan bo'shatib, so'ng xonadan yugurib chiqib ketdi.

Morrel yakka o'zi qolib, ancha vaqtgacha o'g'li chiqib ketgan eshikdan ko'zini uzolmay turdi, so'ng qo'lini uzatib qo'ng'iroq ipini topib, tortdi.

Kokles kirdi. Keyingi uch kun ichida u juda o'zgarib ketgan edi. Morrel firmasi butunlay xarob bo'lib, sinib, qarzlarini to'lay olmay qolarmish, degan fikr uni vahimaga solib yigirma yosh qaritib yuborgandi.

– Azizim, Kokles, – dedi Morrel, – sen qabulxonada tur, o'sha o'zing bilgan janob – Tomson va French firmasi-ning vakili kelganda, menga o'zing xabar qilasan.

Kokles un chiqarmay «xo'p» degandek boshini qimir-latdi-da, qabulxonaga chiqib stulga o'tirib oldi.

Morrel yumshoq kursiga shilq etib cho'kdi. U devordagi soatga qaradi: yetti daqiqa qolgandi. Soat mili niho-yatda tez yugurayotgandek tuyuldi shu payt.

Ehtimol, noto'g'ri bo'lsa-da, o'zicha haq ko'rinayotgan ahdiga amal qilib, ayni qirchillama paytida hamma shodliklari oilaviy hayotiga baxt-sodat baxsh etgan hayot bilan abadiy vidolashayotgan bu zotning dilidan shu so'nggi daqiqalarda nimalar o'tayotganini tasvirlab berishga har qanday so'z ham o'jizdir. Shu paytda bu odamning ichki kechinmalarini anglash uchun uning munchoq-munchoq ter bosgan va lekin taqdir oldida tiz

²⁰ «O'lganim yaxshi!» (Korel, Gorasiy).

²¹ «Baxus haqi, qasamyod qilaman!» (Ital.)

cho'kkanini aslo sezdirmayotgan manglayiga, jiqqa yoshga to'lgan va lekin pastga emas, yuqoriga tik qarab turgan ko'zlariga bir nazar tashlansa, kifoya.

Vaqt hamon yuguryapti, to'pponchalar o'qlanib taxt etib qo'yilgan, u qo'lini uzatib bitta to'pponchani tutdi-da, qizining nomini tilga olib pichirladi.

So'ng u o'lim qurolini qaytarib joyiga qo'ydi, qo'lga qalam olib bir necha so'z yozdi. U sevimli qizim bilan qoniqib xayrlasholmadim, deb sezardi o'zini.

U yana soatga qaradi, endi daqiqalarni emas, soniyalarni sanashga o'tdi.

Morrel qo'lga yana to'pponchani oldi-da, og'zini ochib soat miliga baqrayib qaradi, to'pponcha tepkisini ko'tardi-yu, shiq etgan ovozdan beixtiyor seskanib ketdi. Shu daqiqada uning yuzidan sharillab ter oqar, o'lim vahimasi yuragini ezardi; shu choq zina ostidagi eshik g'iyqilladi.

So'ng xonaning eshigi ochildi.

Soat mili o'n birga yaqinlashib boryapti.

Morrel orqasiga o'girilib qaramadi ham, u Kokles kelgan bo'lsa hozir: «Tomson va French firmasining vakili keldi» deb aytadi, deb o'yladi-da, to'pponchani chakkasiga olib bordi...

Orqadan qo'ng'iroqdek ovoz eshitildi: bu qizining ovozi edi. U orqasiga o'girildi. Eshik oldida Jyuli turardi. Morrelning qo'lidan to'pponcha tushib ketdi.

– Otajon! – dedi qizi hayajondan entikib, – siz xalos bo'ldingiz! Xalos!

Jyuli qo'lida qizil shoyi hamyonni ushlaganicha otasining quchog'iga otildi.

– Xalos bo'ldingiz dedingmi, qizim? – dedi Morrel. – Kim va nima meni xalos etdi?

– Ha, xalos bo'ldingiz! Mana, qarang, mana! – qichqirdi Jyuli.

Morrel hamyonni olib, yuragi «shig'» etib ketdi: bir vaqtlar bu hamyon o'ziniki ekanini esladi.

Hamyonning bir tomoniga ikki yuz sakson yetti ming besh yuz frankli veksel solingandi.

Vekseldagi qarz batamom to'lab qo'yilgandi.

Yana bir tomonida yong'oqday olmos solingan bo'lib, bir parcha pergamentga: «*Jyulining sepi*» deb yozib qo'yilgan edi.

Morrel peshanasini ushladi, bu xayolmi, chinmi deb o'yladi u.

Soat o'n birni sanay boshladi. Uning har bir zarbi Morrelning yuragiga to'qmoq urgandek tuyulardi.

– To'xta, qizim, – dedi u, – nima gap o'zi, tushuntir menga. Bu hamyonni qaerdan topding?

– Melyan ko'chasidagi o'n beshinchi raqamli bir kulbadagi tosh pech ustidan oldim.

– Bu hamyon seniki emas-ku, axir! – dedi xitob qilib Morrel.

Jyuli ertalab olgan xatini otasiga uzatdi.

– Sen u yerga yakka o'zing bordingmi? – so'radi Morrel xatni o'qib.

– Menga Emmanyuel hamroh bo'lib bordi. Muzei ko'chasi muvulishida kutib turaman, deb va'da qilgan edi, biroq chiqsam joyida yo'q ekan, hayron bo'lib kelaverdim.

– Janob Morrel! – kimdir qichqirdi zinada, – janob Morrel!

– Ana o'zi kelyapti! – dedi Jyuli.

Shu zahoti o'zida yo'q quvonchga to'lib Emmanyuel kirdi.

– «Faraon!» – qichqirdi u, – «Faraon!»

– Qanaqa «Faraon»? Esingiz joyidami, Emmanyuel? U kema g'arq bo'lib ketganini bila turib, nima deyapsiz o'zi!

– «Faraon» janob Morrel! «Faraon» portga kiriyapti deb signal berishdi.

Morrel yumshoq kursiga yiqilib tushdi, holdan toyib, bo'shashib ketdi. Bu gaplarga uning aqli bovar etmay qoldi.

Shu payt eshik ochilib Maksimilian kirib keldi.

– Ota! – dedi u, – siz «Faraon» halok bo'ldi degan edingiz, holbuki qorovul turadigan minoradan «Faraon» port-

ga kiryapti, deb e'lon qilishdi hozir.

– Do'stlarim, – dedi Morrel, – haqiqatan ham u kelayotgan bo'lsa, bu aqlga sig'maydigan mo'jiza, Xudoning karamati! Biroq bunday bo'lishi mumkin emas, aslo mumkin emas!

Biroq qo'lidagi to'lanib qo'yilgan veksels va yaltirab turgan olmos solingan hamyonning paydo bo'lishi ham aql bovar etmaydigan mo'jiza edi.

– Janob Morrel, – dedi xonaga kirgan Kokles, – nima gap o'zi? «Faraon» paydo bo'lib qoldi!..

– Do'stlarim, qani yuring, – dedi Morrel o'rnidan qo'zg'olib, – yuring, ko'raylik-chi, bu yolg'on gap bo'lsa, Xudodan ko'rdik.

Ular zinada Morrel xonimni uchratishdi. Sho'rlik ayol yuqoriga chiqishga jur'at etolmay turgan edi.

Bir necha daqiqada ular Kanneber ko'chasiga yetib borishdi.

Pristanda tumonat odam.

Odamlar Morrelga yo'l berdi.

– Hamma «Faraon!» «Faraon!» – deb qichqirardi.

Chindan ham son-sanoqsiz odamlarning ko'z oldida ko'z ko'rib quloq eshitmagan mo'jiza sodir bo'lmoqda edi. Muqaddas Ionn minorasi ro'parasida ilgarigi «Faraon»ning xuddi o'ziga o'xshagan, quyruq tomoniga oppoq harflar bilan «Faraon» (Morrel va o'g'li) degan so'zlar yozilgan, avvalgidek nil bo'yog'i va qizil bo'yoq ortilgan kema to'xtab, yelkanlarini tushirmoqda. Kemada kapitan Gomer farmoyish berib turibdi, Penelon esa Morrel janoblariga qarab nimalar to'g'risidadir imo-ishora qilardi. Endi hech qanday shubhaga o'rin qolgani yo'q edi: Morrel, uning oilasi, xizmatchilari va o'n minglab kishilar buni o'z ko'zi bilan aniq ko'rib turardi.

Morrel bilan o'g'li butun shahar aholisining quvonchli olqishlari ostida quchoqlashib turganda qorovul budkasi mazkur mo'jizaning sababchisi qora soqolli zot asta pichirlab dedi:

– E, olijanob inson, ilohim baxt qushi hamisha yor

bo'lsin senga! Qilgan va qiladigan hamma yaxshiliklarning uchun ming karra rahmat senga. Sen ko'rsatgan muruvvat, xayri-saxovat, olijanoblik qanchalik sir saqlangan bo'lsa, mening minnatdorligim ham shunchalik sir bo'lib qolsin.

U quvonchga to'lib jilmayib qo'ydi, so'ng pastqam joyni tashlab, bu kunning ajoyibotlariga maftun bo'lib qolgan kishilarga sezdirmay, kemalar oldidagi bir zinadan tushdi-da, uch marta:

– Djakopo! – deb chaqirdi.

Bir zumda eshakli qayiqcha kelib uni oldi-da, nihoyatda shinam kemacha yoniga keltirdi, u dengizchiga xos chaqqonlik, epchillik bilan irg'ib kemaga tushib oldi. U shu yerdan turib, Morrelga yana bir qarab oldi. Armator quvonchi ichiga sig'may, har tomondan uzatilgan qo'llarni do'stona qisib boshini qimirlatar va dilida bunchalik mehr-muruvvat ko'rsatgan noma'lum zotga ming-ming rahmatlar aytardi.

– Mana endi, – dedi notanish o'z-o'ziga, – alvido, odam-parvarlik, muruvvat, o'ktamlilik, alvido, endi sizga, e, xashta yuraklarga tasalli beruvchi his-tuyg'ular, alvido!.. Men hazrati Xizr bo'lib oldim, o'ktam, olijanob insonlarga muruvvat qildim, qo'llab-quvvatladim... Endilikda esa, qasos xudosi o'z martabasini menga bo'shatib bersin, endi zolimlarning jazosini beray!

U shu so'zlarni aytdi-da, ishora qildi, shu zahoti uning buyrug'ini kutib turgan kemacha yo'lga chiqdi.

X. ITALIYA. SINDBOD-DENGIZ SAYYOHI

1838 yilning boshida Florensiyada Parij oqsuyaklari jamiyatiga mansub ikki yosh yigit: vikont Alber de Morser va baron Frans d'Epine yashardi. Ular Rimda karnaval o'tkazishga ahd qilishdi. Qariyb to'rt yildan buyon Italiyada istiqomat qilib kelayotgan Frans karnavalda Alberning

maslahatgo'yi bo'lib xizmat qilmog'i kerak edi.

Rimda karnaval o'tkazish oson emas, chunki karnaval o'tkazaman deb yotishga joy topolmay Pyassa-del-Popolo yoki Kampo Vachchino ko'chalarida qolib ketish hech gap emas. Shu sababdan yigitlar Pyassa di Spanyoldagi «London» mehmonxonasining xo'jayini maestro Pastriniga yaxshi raqam olib qo'yishini so'rab xat yozib yuborishdi.

Maestro Pastrini faqat ikkinchi qavatdan ikki yotoqxon va qabulxona bera olishi mumkinligini va buning uchun ular kuniga bir luidordan to'lashlari lozimligini bildirdi. Yigitlar bo'laveradi bizga, deb javob qaytarishdi. Alber karnavalgacha qolgan vaqt behuda o'tmasin deb, Neapolga jo'nadi, Frans esa Florensiyada qoldi.

Frans dunyoga dong'i ketgan mashhur bankir Medichilar shahrini rohat-la tomosha qilib, Kashini deb atalmish jannatdek joyda ayshu ishratini surib, Florensiyaning qudratli hukmdorlarining ajoyib mezbon ekanlarini bilib oldi. Bonapartning kindik qoni to'kilgan joy Korsikaga bordi, so'ng Napoleonnig quvg'inda yurgan yeri – Elba orolini ko'rishga ahd qildi.

Shunday qilib, kunlardan bir kun u yelkanli qayiqni Livorno pristaniga bog'lab qo'ygan temir halqadan bo'shattirdi-da, plashiga o'ranib yonboshladi va matros-larga faqat uch so'z aytdi: «Elba oroliga jo'nadik». Qayiq inidan uchib chiqqan dengiz qushi singari joyidan dengiz sathiga otilib chiqdi-da, yeldek uchib ketdi. Ertasi kuni Frans Porto-Ferrayo qirg'og'iga tushdi.

Frans imperator orolini kesib o'tib, Marchanada yana dengizga tushdi.

Ikki soatdan so'ng, u Pianoza oroliga borib qirg'oqqa chiqdi, bu yer kaklikning koni deyishgan edi. Ovi yurmasdi, Frans zo'rg'a uch-to'rtta ori q kaklik otib oldi, xolos, ovi o'ngidan kelmaganidan xafalanib qayiqqa tushib qaytdi.

– Agar janob chindan ov ishtiyoqida bo'lsalar, – dedi qayiq egasi, – boplab ov qilsa bo'ladigan joy bor.

– Qayorda u joy?

Qayiq egasi janub tomonda ko‘m-ko‘k dengiz orqasida yuksalib turgan tepani ko‘rsatdi:

– Huv anavi cho‘qqini ko‘rdingizmi?

– Qanday orol u? – so‘radi Frans.

– Monte-Kristo oroli, – dedi qayiq egasi.

– Biroq u orolda ov qilishga ruxsat olganim yo‘q.

– Ruxsatning keragi yo‘q. U yerda odam yashamaydi.

– E, hali shunday deng! – dedi Frans. – O‘rta yer dengizida ham odam yashamaydigan orol bor ekan-da, ajabo!

– Bunda ajablanadigan hech narsa yo‘q, janob. Butun orol boshidan oxirigacha toshdan iborat, bir parcha ham unum beradigan yer yo‘q unda...

– U kimga qarashli?

– Toskanga.

– U yerda yovvoyi parrandalardan qanaqasi bor?

– Yovvoyi echkinging son-sanog‘i yo‘q.

– Ular toshni kavshab yurisharkan-da, – dedi Frans hamrohining so‘ziga ishonmaganday kulib.

– Unday emas, janob, echkilar archagul, mirta va xushbo‘y smolali daraxtlarni kemirib oziqlanishadi.

– Men u orolda qanday qilib tunayman?

– Orolidagi g‘orlarda, yoki qayiqning o‘zida plashga o‘ralib yotaverasiz. Istasangiz ov tugashi bilanoq qaytib ketaveramiz, ixtiyor sizda, bizga baribir: kechasiyam, kunduziyam yelkanlar ostida yurib o‘rganib qolganmiz, mabodo biror zarurat tug‘ilgudek bo‘lsa, eshkaklarni ishga solib suzaveramiz.

Jo‘rasi bilan uchrashuv muddatigacha hali ancha vaqt borligi va Rimda turadigan joy band qilib qo‘yilgani sababli Frans bu taklifni qabul qildi va yana boshqatdan ov qilishga ahd etdi.

U rozilik bildirganda, matroslar nimalar to‘g‘risidadir shivirlasha boshlashdi.

– Nima to‘g‘risida gapirishyapsiz? – so‘radi u. – Yoki biror monelik bormi?

– Hech qanday monelik yo‘q, – dedi qayiq egasi. – Faqat

biz orol nazorat ostida ekanidan sizni ogohlantirib qo'yishimiz lozim.

– Bu nimasi endi?

– Bu shundayki, Monte-Kristo orolida odam bolasi yashamaydi, biroq unda Korsika Sardiniyadan va Afrikadan kelgan kontrabandistlar va dengiz qaroqchilari yashirinib yurishadi, bordi-yu, bizning bu orolda bo'lganimizni bilib qolishsa, tutib olishadi-da, Livornoda olti kun karantinda saqlashadi.

– Obbo! Bunisi chatoq-ku. Olti kun-a! Xuddi mana shu olti kun muddat ichida Xudo olamni yaratgan-a! Bu ortiqcha, do'stlarim.

– Janob, Monte-Kristo orolida bo'lganingizni birovga kim ham aytardi?

– Har holda men aytmayman, – dedi Frans.

– Biz ham, – deyishdi matroslar.

– Shunday ekan, qani, ketdik Monte-Kristoga!

Qayiq egasi buyruq berdi. Qayiq Monte-Kristo oroli tomon yo'lga tushdi.

Frans qayiq burilib, yelkanlarini shamolga tutguncha va to'rt matros joy-joyiga turib olguncha sabr qilib turdi, so'ng suhbatni davom ettirdi.

– Muhtaram Gaetano, – dedi u qayiq egasiga murojaat qilib, – hali siz menga Monte-Kristo orolida dengiz qaroqchilari yashirinib yotishadi, degan edingiz-a, axir qaroqchilar yovvoyi echkilarga sira o'xshamaydigan xilidan-ku.

– To'g'ri aytasiz, janob, ular boshqacha nusxalardan.

– Men kontrabandist degan maxluqlar bo'lganini eshitganman, ammo Jazoir egallangandan so'ng va Berberi regentligi ag'darib tashlanganidan so'ng, dengiz qaroqchilari gumdon bo'lgan va endi ular faqat Kuper va kapitan Marietaning romanlaridagina bo'ladi, deb o'ylab yurardim.

– Janob, yanglishyapsiz, dengiz qaroqchilari xuddi yo'lto'sarlarga o'xshash maxluqlar, papa Lev XII yo'lto'sarlarni qirib tashladim, deb chuchvarani xom sanab yurgandi, yo'lto'sar o'g'rilar har kuni shundaygina Rimning

darvozasi oldida bosib talab ketishyapti. Axir bundan yarim yil muqaddam Fransiyaning muqaddas taxt qoshidagi ishonchli vakilini Velletridan atigi besh yuz qadam narida tutib, shilib olganlarini eshitmaganmidingiz?

– Eshitganman.

– Janoblari, biz singari Livornoda istiqomat qilgan bo'lsalar edi, yuk ortilgan biror kema yoki Bastiliyada kutishayotgan hashamatli ingliz yaxtasi Porto-Ferrayoda yoki Chivita-Vekkida daraksiz yo'qolgani va qoyaga urilib chilparchin bo'lgani haqidagi gaplarni eshitib turardilar. Qoya degani esa aslida qaroqchilarning pastak uzun yuk kemasidir, unda olti yoki sakkiz odam bo'ladi. Ana shular haligi «qoyaga urilibdi» deyishgan kemani notinch kechalardan birida huvillab yotgan orollardan biri oldida qaroqchilar pochta aravasini o'rmon yoqasida talaganlari kabi taqqa to'xtatishadi-da, talon-toroj qilishadi.

– Lekin, – dedi Frans plashiga o'rala turib, – nega o'sha talon-toroj etilganlar arz-dod qilishmaydi? Nechun ular Fransiya yoki Sardiniya hukumatidan, yo bo'lmasa Toskan hukumatidan bu qaroqchilarning adabini berib qo'yishni talab qilishmaydi? Nechun?

– Nechun dedingizmi? – so'radi kulib Gaetano.

– Ha, nechun?

– Shuning uchunki, dastavval tutib olingan kema hammasi yuklarni o'zlarining kemasiga tashib o'tkazishadi, so'ng ekipaj a'zolarining qo'l-oyoqlarini bog'lashadi, har qaysisining bo'yniga o'n to'rt qadoqli yadroni osishadi, kemani tagidan teshishadi, so'ng hamma eshikdarchalarni mahkam bekitib, o'z kemalariga qaytishadi. O'n daqiqa o'tar o'tmay haligi kema asta cho'ka boshlaydi, dod-faryod ko'tariladi, to'satdan gumburlagan ovoz eshutiladi – ya'ni kema sahni qamalgan havo zarbidan yorilib ketadi. Xuddi cho'kib borayotgan kishiga o'xshab kema tipirchilab-tipirchilab holdan toyadi. Ko'p o'tmay, kema ichidagi suv chiqishga yo'l topolmay tirqishlardan fontan bo'lib otib boshlaydi. Pirovardida, kema o'lim talvasasida xirillab yana bir karra to'ntariladi-da, suvga

batamom cho'kib, katta iz qoldiradi, so'ngra suv yuzida paydo bo'lgan iz ham tekislanadi-da, hammasi gumdon bo'ladi. Besh daqiqa o'tgach, g'oyib bo'lgan kemani faqat Xudoning o'zi ko'radi, xolos.

– Mana endi, – qo'shimcha qildi qayiq egasi, – kema nega portga qaytib kelmagani va ekipaji arz-dod qilmasligini tushungan bo'lsangiz kerak.

Agar Gaetano bu gaplarni Monte-Kristoda ov qilish to'g'risidagi taklifidan oldin aytganda, Frans u orolga o'ylab borardi. Biroq endi ular yo'lga chiqqan, qaytish qo'rqqoqlik bo'ladi, degan mulohazaga bordi Frans. U o'zi xavfning ketidan quvadigan odamlardan bo'lmasa-da, mabodo xavf-xatar duch kelib qolgudek bo'lsa, sarosimaga tushmay tik borib yoqa tutishadigan bu kabi odam xavfni dueldagi dushman deb hisoblaydi va dushmanning xatti-harakatini-yu kuchini chamalab ko'radi, shoshilmay asta harakat qilib, nafasini rostlab oladi-da, bir zarba bilan raqibini yer tishlatadi.

– Men butun Sisiliyani va Kalabriyani, – dedi u, – kezib chiqdim, arxipelag bo'ylab ikki marta suzdim, lekin birorta yo'l to'suvchi yoki dengiz qaroqchisining soyasini ham uchratmadim.

– Marhamatli janob, men bu gaplarni Monte-Kristoga borishdan sizni qaytarish uchun aytganim yo'q, aslo unday emas, faqat so'raganingiz uchun aytib berdim.

– To'g'ri, azizim Gaetano, sizning suhbatingiz meni juda qiziqtiriyapti, hikoyani davom ettiring, yana tinglayin, so'ng Monte-Kristoga ketaveramiz.

Bu orada ular manzilga tez yaqinlashib kela boshlashdi, sovuq shamol esyapti, qayiq soatiga olti va yetti mil tezlikda suzyapti. Ular yaqinlashgan sari Monte-Kristo oroli xuddi dengiz tagidan ko'tarilib chiqayotgandek tuyulardi kishiga, shafaq yog'dusida toshlar tizmasi aslahaxonadagi yadrolar singari qalashib ko'zga tashlanadi. Qoyalar o'rtalig'ida archa gullar qizarib, daraxtlar ko'karib yotibdi. Matroslar xavotirlanayotgan bo'lsalar-da, churq etmay oynadek yaltirab turgan sokin dengizdan ko'z

uzmay, mayda-chuyda baliqchi qayiqlar miltillab ko'rina-yotgan ufqqa diqqat bilan tikilishadi.

Quyosh Korsika orqasiga botayotganda, o'ng tomondagi tog'larning cho'qqilari osmonga bo'y cho'zganda, Monte-Kristoga o'n besh milga yaqin masofa qolganda, haybatli bu tog' asta-sekin quyoshni to'sib, qayiq qarshisida gigant Adamastro kabi qad ko'tarib, kishilarni vahimaga solyapti. Oqshom so'nib borayotgan kunning shaffof yog'dusini quvib dengiz ustiga qora chodirini yopyapti. Quyoshning so'nggi qizg'ish nurlari cho'qqilar boshida bir zum to'xtab, vulqon tepasidan uchib chiqadigan alanga singari lov etdi-da, o'chdi. Zim-ziyo tun chodiri asta ko'tarilib bordi-da, cho'qqilarni ham qoplab oldi, orol kulrang tusga kirdi. Yarim soat o'tar-o'tmas hamma yoqni zim-ziyo qorong'ilik bosdi.

Xayriyatki, bu yo'l eshkakchilarga tanish edi, ular Toskan arxipelagining hamma burchaklarini kezib chiqishgandi, shunday bo'lmaganda, Frans qayiqni o'rab olgan zulmat oldida vahimaga tushib qolgan bo'lardi. Korsika ko'zdan g'oyib bo'ldi. Monte-Kristo oroli ham ko'rinmay qoldi, biroq matroslar qorong'ida mushukdek yaxshi ko'rishar, darg'a esa qayiqni dadil haydab borar edi.

Kun botganiga bir soat bo'ldi. Shu payt Frans chorak mil narida allaqanday qop-qora uyumga ko'zi tushdi. Buning shakli noaniq edi, shu sababli uni bulutga o'xshatib matroslar oldida kulgiga qolishdan qo'rqib, Frans indamadi. Qirg'oqda to'satdan yorqin alanga ko'rindi, boyagi uyum yer bo'lib, bulutga o'xshab ko'rinishi ham mumkin, ammo alanga meteor bo'lishi mahol.

– Huv anavi alanga nima ekan-a? – so'radi Frans.

– Jim! – dedi qayiq egasi shivirlab, – gulxan.

– Siz, bu orolda odam yashamaydi, degan edingiz-ku!

– Men unda doim yashaydiganlar yo'q degan edim, ammo bu orol kontrabandistlar yashirib yotadigan joy deb aytgan edim.

– Dengiz qaroqchilari ham-a!

– To'g'ri, qaroqchilar ham yashirib yotishadi, – dedi

Gaetano, – yonlab o'tib ketilsin deb buyruq berganimning boisi ham shunda edi-da. Ana ko'rdingiz, gulxan orqamizda qolib ketdi.

– Menimcha, – dedi Frans, – gulxandan biz xavotir olmay, aksincha, xotirjam bo'lishimiz kerak, chunki u yerdagi odamlar, birov ko'rib qolmasin, deb yashirinib yurgan bo'lsa, gulxan yoqishmasdi.

– Buning hech ahamiyati yo'q, – dedi Gaetano, – qorong'ida orolni aniq ko'ra olmaysiz, agar aniq ko'ra olganingizda gulxanni qirg'oqdan ham Pianozadan ko'rib bo'lmasligini, uni faqat ochiq dengizdan ko'rish mumkinligini fahmlab olardingiz.

– Demak, sizningcha, bu gulxan atrofida yomon odamlar ham bo'lishi mumkinmi?

– Hozir bilib olamiz, – dedi Gaetano gulxandan ko'zini uzmay.

– Qanday qilib bilib olasiz?

– Hozir ko'rasiz.

Gaetano o'rtoqlari bilan shivirlasha boshladi va besh daqiqali kengashdan so'ng qayiq asta burildi-da, orqaga yurdi, bir necha soniya o'tgach, haligi gulxan allaqanday tepalik orqasida ko'rinmay qoldi.

Shundan keyin darg'a rulni burdi, qayiq sezdimay astasekin orolga yaqinlashdi, sal vaqt o'tgach, ellik qadam qoldi orolga.

Gaetano yelkanlarni tushirdi, qayiq to'xtadi.

Bu ishlarning hammasi chuqur sukunat ostida bajo etildi. O'sha qayiq burilgan daqiqadan boshlab, hamma jim bo'lib qolgan edi.

Bu sayrning tashabbuskori Gaetano butun mas'uliyatni o'z gardaniga oldi. To'rt matros xo'jayindan bir zum ham ko'zini uzmasdi. Ular biror voqea yuz bergudek bo'lsa, shartta yopishib qorong'ida ko'zdan g'oyib bo'lamiz, deb eshkaklarni taxt qilib turishdi.

Frans bizga ayon sovuqqonlik bilan qurollarini ko'zdan kechirardi, uning ikkita qo'shog'iz ov miltig'i va bitta kalta beshotari bor edi. U qurollarini o'qladi, tepkisini tek-

shirdi-da, kutib turaverdi.

Shu orada Gaetano kamzulini va ko'ylagini yechdi, cholvarini mahkam bog'ladi. U yalang oyoq edi. Shunday holda u barmog'ini lablari ustiga qo'ydi-da, irg'ib suvga tushdi, tovush chiqarmay qirg'oqqa qarab suzib ketdi. Uning ketida qolayotgan oq izga qarab uni kuzatish mumkin edi. Bir ozdan so'ng bu iz ham ko'rinmay qoldi. Aftidan Gaetano qirg'oqqa yetdi.

Rosa yarim soat qayiqda hamma qimir etmay turdi, so'ngra qirg'oqdan haligi suv yuzidagi iz ko'rina boshladi va yaqinlashib kelaverdi. Bir daqiqa o'tgach, Gaetano qayiq oldida hozir bo'ldi.

– Xo'sh, nima gap? – so'rashdi bir og'izdan Frans va matroslar.

– Ispan kontrabandistlari ekan, ular yonida faqat ikkita korsikalik qaroqchi bor.

– Korsikalik qaroqchilar nima qilib yuribdi ekan ispan kontrabandistlari orasida?

– Eh, hurmatli janob, – dedi Gaetano o'ta xudojo'y xristianga o'xshab, – axir ular bir-birlariga yordam berish-masa, ishlari bitarmidi? Ba'zan qirg'oqda qaroqchilar polisiya va karabinerlar ta'qibiga tushib qolishadi. Ulardan qochib qirg'oqqa kelishadi, bizga o'xshagan rahmdillarni topib suzuvchi kulbaga bekitishni so'rab yolvorishadi. Quvg'inda qolgan sho'rlikning iltimosini rad qilib bo'lar-midi? Biz ularni hali suzuvchi kulba deb atalgan qayiqqa olamiz-da, go'yo safarga chiqqan bo'lib dengiz tomon yo'l olamiz. Buning biz uchun hech qanday og'irligi yo'q, lekin yaqin kishimizni o'limdan xalos etamiz yoki kam deganda, hur yashashini ta'minlaymiz. Biror kun kelib u ham yaxshilikni qaytaradi va yuklarni xavf-xatarsiz tushiradigan pastqam joy ko'rsatib beradi.

– Shunday deng, do'stim Gaetano! – dedi Frans. – Demak, siz ham kontrabanda bilan shug'ullanar ekansiz-da?

– Ilojim qancha? – dedi Gaetano sirli bir tabassum-la.
– Bu qurg'ur hunarlarning hammasi bilan picha-pichadan shug'ullanmasa, kun kechirib bo'ladimi?

– Unday bo'lsa, bu Monte-Kristodagi odamlar sizga tanish ekan-da.

– To'g'risini aytsam, tanish, biz dengizchilar masonlar singari, bir-birimizni o'zimizga ma'lum belgilar bilan tanib olamiz.

– Demak, biz hech xavotir olmay qirg'oqqa tushaverishimiz mumkin ekan-da!

– Bunga imonim komil, kontrabandistlar o'g'ri emas.

– Korsika qaroqchilari-chi? – so'radi Frans uchrashi mumkin hamma xavf-xatarlarni oldindan ko'rib.

– Ular o'z aybi bilan qaroqchi bo'lib qolgani yo'q-ku, – dedi Gaetano, – bunga hukumat idoralari majbur etdi ularni.

– Nechun?

– Bo'lmasam-chi? Bo'lmaq'ur mayda-chuyda ishlarga ularni tutib jazolashadi, korsikaliklarni qasos ololmaydigan mo'min bandalar deb o'ylashsa kerak-da, chamam-da.

– Mayda-chuyda deganingiz nimasi? Odam o'ldirishmi? – so'radi Frans.

– Dushmanni qatl etish, – dedi qayiq egasi, – bu tamom boshqa gap.

– Unday bo'lsa, yuring, ketdik, – dedi Frans. – Yuringlar, kontrabandistlar va qaroqchilarga mehmon bo'laylik. Aytganча, ular bizni qabul qilisharmikin?

– Shubhasiz.

– Ular nechta?

– To'rt kontrabandist va ikki qaroqchi, jami oltita.

– Biz ham olti kishimiz. Mabodo u janoblarning fe'li buzuq bo'lsa, adabini berib qo'yishga kuchimiz yetadi. Demak, masala hal, Monte-Kristoga boramiz.

– Xo'p bo'ladi janob, lekin bir oz sabr qilib, bizga ham ehtiyotdan bir oz tayyorlanib olishga ruxsat eting.

– Albatta, azizim, albatta! Nestor kabi oqil va Uliss kabi quv bo'ling. Ruxsat etibgina qolmay, iltimos qilaman.

– Juda soz. Hamma jim bo'lsin! – dedi Gaetano.

Sukunat cho'kdi.

Hamma narsaga oqilona, sergaklik bilan qaraydigan Frans kabi kishilar hozirgi holni xavfli demasalar-da, har holda ancha qaltis deb o'ylashadi. Frans zimiston tun paytida, ochiq dengizda notanish dengizchilar orasida yuribdi, bularni Fransga sodiq deb faraz qilishga hech qanday sabab yo'q, buning ustiga dengizchilar Fransning karmonida bir necha ming frank borligini bilishadi, bir necha marta, hasad bilan bo'lmaganda ham, qiziqsinib uning qurol-aslahalarini olib ko'zdan kechirishdi. Buning ustiga u mana shu notanish odamlar bilan sirli orolga kelyapti. Bunga qo'shimcha o'laroq, cho'ktirib yuborilgan kemalar to'g'risidagi hikoyani Frans kunduzi haqiqatdan uzoq deb o'ylagan bo'lsa, endi zim-ziyo tun qo'ynida haqiqatga yaqin ekanida, degan fikrga keldi. Shunday qilib Frans o'zini ikki tomonlama xavfda qolgan kishi deb o'ylab, matroslardan bir zum ko'z uzmas, miltig'ini qo'li-dan tashlamasdi.

Matroslar esa yelkanlarni ko'tarib yana yo'lga tushishdi. Qorong'ilikka ancha ko'nikib qolgan Frans qayiq yonboshi tomonda qad ko'tarib turgan ulkan toshlarni aniq ko'rib turardi. Qayiq bir qoyani aylanib o'tgach, u yana ilgari-gidan yorqinroq alanga olgan gulxanni ko'rdi. Gulxan atrofida bir necha kishi davra qurib o'tirar edi.

Alanga shu'lasida dengiz sathida yuz qadamcha joyni yoritib turibdi. Gaetano qayiqni begona nazardan pana qilib ana shu yorug' joyga chap berib o'tdi, so'ng gulxanga ro'baro' kelganda rulni gulxanga to'g'rilab burdi-da, haligi yorug' chiziqqa dadil kirib oldi va baliqchilar qo'shig'ini jaranglatib tikka boraverdi. Matroslar qo'shiqqa jo'r bo'lishdi.

Qo'shiq eshitganlari hamono gulxan atrofida o'tirganlar o'rinlaridan turib, dengiz labiga kelishdi va qayiqni ko'zdan kechira boshlashdi, aftidan, ular qayiqning hajmini va nima maqsadda kelganini bilib olmoqchi bo'lishdi. Ko'p o'tmay ular ko'ngli tinchib, butun bir echki cho'g'da kabob bo'layotgan gulxan yoniga qaytishdi, qirg'oqda bittasi qoldi.

Qayiq qirg'oqqa yigirma qadam yaqinga kelganda, qirg'oqda qolgan odam xuddi patrulni kutayotgan soqchi kabi miltig'ini to'g'rilab sardiniya talaffuzida qichqirdi:

– Kelayotgan kim?

Frans bamaylixotir qo'shtig'ni otishga tayyorlab qo'ydi.

Gaetano qirg'oqdagi kishi bilan bir necha og'iz gaplashdi. Frans, so'z uning to'g'risida ketayotgan bo'lsa-da, hech narsa tushunmadi.

– Janoblari o'z nomlarini aytaveradilarmi yoki sir saqlamoqchilarmi? – so'radi Gaetano.

– Mening ismimdan hech kim hech nima anglab olmaydi, – javob qildi Frans, – ularga men fransuz ekanimni va shunchaki ko'ngilxushlik uchun sayohat qilib yurganimni aytib qo'ya qolayin.

Gaetano Fransning so'zlarini tarjima qilib bergandan so'ng soqchi gulxan oldidagilardan biriga qandaydir buyruq berdi, u esa irg'ib o'rnidan turdi-da, qoyalar orqasiga o'tib g'oyib bo'ldi.

Hamma jim turdi. Ko'rinishdan har kim o'z ishi bilan band edi: Frans orolga tushyapti, matroslar yelkanlarni tushirishyapti, kontrabandistlar echkini kabob qilishyapti. Biroq tashqaridan beparvo ko'ringan matroslar ham, sayohatchi fransuz ham bir-biriga yer ostidan hadeb ko'z tikishardi.

G'oyib bo'lgan odam ikkinchi tomondan chiqib keldi, u soqchiga imo qildi, soqchi esa qayiq tomonga o'girildi-da, quyidagi bir so'zni aytdi:

– S'accomadi.

Bu so'z italyanacha bo'lib, tarjima qilinmaydi. U bir yo'la bir necha ma'noni tushuntiradi: «Marhamat, marhamat, kiring, qadamlariga hasanot, o'z uyingizdek bimalol o'tiring». Bu Molerning turkcha jumlasiga o'xshaydi, o'sha jumla ham ko'p ma'noni anglatib, dvoryan oqsuyaklarini hayratga solardi.

Matroslar ikkinchi marta chaqirishni kutib o'tirishmadi, eshkaklarni to'rt marta eshdilar-da, qayiqni qirg'oqqa taqab qo'ydilar. Gaetano irg'ib yerga tushdi, ohista

ovozda soqchi bilan yana nimalarnidir gaplashdi, birin-ketin matroslar ham tushdi, navbat Fransga keldi.

U bitta miltig'ini yelkasiga osib oldi, ikkinchisi Gaetano qo'lida edi. Matroslardan biri beshotarni ushlab olgandi. Frans olifta rassomga o'xshab kiyingan edi. Buni ko'rgan xo'jayinlar hadiksiramay qo'yishdi.

Qayiqni qirg'oqqa bog'lashdi-da, qulay qo'noq joy axtarib ketishdi. Ular tanlagan tomon kontrabandistga yoqmadi, shekilli, Gaetanoga qarab qichqirdi:

– U yoqqa bormang!

Gaetano san-manga borib o'tirmay uzr so'radi-da, orqa tomonga yurdi. Ayni vaqtda ikki matros gulxandan mash'al yoqib olishdi.

Taxminan o'ttiz qadamcha yurib maydonchada to'xtashdi, uning atrofidagi qoyani kesib o'tirgichlar yasab qo'yilgandi, bu yerda o'tirib qorovullik qilsa bo'lardi. Atrofda pastak emanlar va qalin ko'm-ko'k o'tlar o'sib yotibdi. Frans mash'alini pastga tutib kullar uyumini ko'rdi-da, bu qulay joyda ilgari ham Monte-Kristo orolini sayr etgan odamlar bo'lganini fahmladi.

Frans qirg'oqqa tushib, xo'jayinlarining do'st bo'lmasa-da, har holda xayrixoh kayfiyatdaligiga ishonchi komil bo'lgach, tashvish, xavf-xatardan xalos bo'ldi. Endi hech qanday favqulodda hodisa yuz bermas, degan fikrga keldi. Gulxanda pishayotgan echki go'shtining hidi dimog'iga urgach, qorni ochganini sezdi.

Bu haqda Gaetanoga og'iz ochgan edi, qayiq egasi kechki ovqatni taxt qilish hech gap emas, qayiqda non, vino, oltita kaklik bor, bir lahzada o't yoqib yuboramiz, dedi.

– Mabodo, – qo'shib qo'ydi u, – janoblariga echki go'shtining hidi yoqib qolgan bo'lsa, aytsinlar, men qo'shnimizga bir juft kaklik olib borib, echki go'shtiga almashtirib kelaman.

– Juda soz bo'ladi-da, Gaetano, – dedi Frans. – Sizda muzokara yurgizishga tug'ma iste'dod bor ekan rostdam.

Shu orada matroslar quruq shoxlarni sindirib kelib gul-xan yoqib yuborishgan edi.

Frans echki go'shtining hidini hidlab, Gaetanoni sabr-sizlik bilan kutardi. Gaetano esa noxush bo'lib qaytdi.

– Xo'sh, nima deyishdi? – so'radi Frans. – Rozi bo'lish-madimi?

– Aksincha, – javob qildi Gaetano. – Ataman fransuz ekaningizni eshitib, sizni birga ovqatlanishga chaqirdi.

– Juda iltifotli odam ekan-da, – dedi Frans. – Rad etib bo'ladimi bunday taklifni, o'zim ham ovqatga ulushimni qo'shyapman-ku.

– Gap ulushda emas, unda ovqat keragidan ortiqcha, biroq u sizni g'alati bir shart bilangina qabul qilmoqchi o'zinikida.

– O'zinikida qabul qilmoqchi? – so'radi yigit. – O'ziga uy ham qurib olganmi?

– Yo'q, unday emas, faqat juda qulay joyi bor, deyishadi.

– Siz atamanni tanir ekansiz-da?

– Ovozasini eshitganman.

– Yaxshi tomondanmi yoki yomon tomondanmi?

– Yaxshiyam, yomonam.

– Tavba! Xo'sh, sharti qanaqa ekan?

– Ko'zingizni bog'lab qo'yishga ijozat berarkansiz, so'ng faqat o'zi aytganda yecharkansiz.

Bu taklifdan maqsad nimaligini bilib olish uchun Frans Gaetanoning ko'zlariga razm soldi.

Gaetano esa fransuzning fikrini fahmlab, dedi:

– Ha, xuddi shunday, buni o'ylab ko'rish zarurligini o'zim ham tushunib turibman.

– Mening o'rnimda o'zingiz bo'lganingizda nima qilardingiz?

– Mening qo'rqadigan joyim yo'q, boraverardim.

– Taklifni qabul qilarmidingiz?

– Ha, qiziqqanimdanam qabul qilardim.

– Uning qiziqadigan biror narsasi bormikin?

– Aytishlariga qaraganda... – dedi Gaetano ovozi pa-

saytirib... u birov quloq solmayaptimi deb atrofga alanglab qo'ydi.

– Nima deyishyapti?

– Aytishlariga qaraganda, shunday yerto'lada yasharmishki, Pitti saroyi uning oldida ip esholmasmish.

– Bu xom xayol-ku? – dedi Frans o'tirayotib.

– Yo'q, xom xayol emas, – dedi o'zinikini ma'qullab Gaetano, – rostdan ham shunday. «Muqaddas Ferdinand» kemasining darg'asi Kama bir gal u yerda bo'lib, hangmang bo'lib chiqqan ekan. U yerdagi qimmatbaho narsalar faqat ertaklarda bo'ladi, deydi.

– Shunday deng! Bu so'zlar bilan meni Ali Bobo g'origa tushishga majbur etib qo'yasiz-ku?

– Men, janoblariga, eshitganlarimni aytib beryapman, xolos.

– Men bunday deytoganim yo'q. Ixtiyor o'zingizda. Bunday hollarda maslahat berishga jur'at etolmayman.

Frans bir oz o'yladi-da, shunday boy odam mening bir necha ming frankimga ko'z olaytirarmidi, degan fikrni dilidan o'tkazdi va mazali ovqatdan voz kechmaslikka qaror qildi. Gaetano uning javobini yetkazish uchun kontrabandistlar oldiga jo'nadi.

Fransning ehtiyotkor, tadbirkor odamligini biz boshda bayon etgan edik, mana hozir ham u ajib va sirli xo'jayinning sarguzashtlarini mufassalroq bilib olishga harakat qilardi.

Gaetano bilan gaplashib turganida o'z ishidan mamnun kishiday gerdayib kaklik patini yulib turgan matrosdan, bu odamlar orolga qanday qilib kelishdi ekan, bu yerda birorta qayiq yo'q-ku, deb so'radi.

– Men uchun bunda ajablanadigan hech narsa yo'q, – javob qildi matros, – ularning kemasini ko'rganman.

– Kemasi zo'rmi?

²² Qadimiy Rim favvorasining nomi.

²³ Tibr daryosi orqasida yashovchi.

– Qani endi sizga ham Tangrim shunday kemani ato etsa, butun dunyoni kezib chiqardingiz.

– U juda kattami?

– Yuz tonna kelar. Biroq u kema havaskorga yasalgan, deyishadi, ammo shu qadar baquvvatki, har qanday bo‘ronga, to‘fonga chidash bera oladi.

– Uni qaerda qurgan ekanlar?

– Bilmadim, Genuyada qurgan bo‘lsalar kerak.

– Kontrabandistlarning boshlig‘i Genuya portida o‘ziga kema buyurishdan nahotki qo‘rqmagan bo‘lsa?

– U kemanding xo‘jayini kontrabandist deytoganim yo‘q, – javob qildi matros.

– Gaetano shunday dedi-ku.

– Gaetano ekipajni uzoqdan ko‘rdi, ammo ularning bi-rortasi bilan gaplashgani yo‘q.

– Bu odam kontarbandistlarning atamani bo‘lmasa kim o‘zi?

– U boy to‘ralardan, ko‘ngilxushlik uchun sayohat qilib yuribdi-da.

«Uning haqida har kim har xil gap gapiryapti; demak, juda sirli zot bo‘lsa kerak», degan fikrni ko‘nglidan o‘tkazdi Frans.

– Uning oti nima?

– So‘raganlarga, otim Sindbod-Dengiz sayyohi deb javob beradi. Biroq uning asli nomi boshqa bo‘lsa kerak.

– Sindbod-Dengiz sayyohi?

– Ha.

– Bu to‘ra qaerda yashaydi?

– Dengizda.

– Qaerlik ekan?

– Bilmadim.

– Uni ko‘rganmisiz?

– Ko‘rganman.

– Ko‘rinishi qanaqa?

– Janoblarining o‘zlari ko‘radilar-ku endi.

– Meni qaerda qabul qilarkin?

– Hali Gaetano aytgan yer osti saroyida qabul qilsa ke-

rak-da.

– Siz o‘sha sehrli qal‘aga kirishga hech urinib ko‘rmab-midingiz?

– E, janob, ko‘p urinib ko‘rdik, – dedi matros, – bir necha marta harakat qildik, biroq hammasi behuda bo‘ldi, hamma g‘orlarni tintib chiqdik, biroq hech yerda qal‘aga kiradigan yo‘lni topolmadik. Buning ustiga uning eshigi kalit bilan emas, balki allaqanday sehrli so‘z bilan ochilar emish.

– Bu «Ming bir kecha» ertaklarining xuddi o‘zginasi, – dedi pichirlab Frans.

– U janoblari sizga ko‘z tikib o‘tiribdi, – dedi orqadan bir ovoz. Bu haligi soqchi edi.

Fransni yaxtaning ikki matrosi kuzatib bordi.

Frans indamay cho‘ntagidan dastro‘molini oldi-da, soqchiga uzatdi.

Bizga firib bermasin bu zot deb uning ko‘zini juda yaxshilab bog‘lashdi. Shundan so‘ng uni ro‘molchani yechishni xayolimga keltirmayman, deb qasam ichishga majbur etishdi.

Frans qasam ichdi.

Faqat shundan so‘ng matroslar uni ikki qo‘ltig‘idan ushlab olib ketishdi, soqchi oldinda bordi.

O‘ttiz qadamcha yurgach, echki go‘shiti kabobining ishtahani qo‘zg‘ovchi hidi anqidi. Frans gulxan yonidan olib o‘tganlarini fahmladi, so‘ng yana ellik qadamcha yurib, boya Gaetanoga taqiq etgan tomonga olib ketishdi, nima uchun bu yoqqa yurish taqiqlangani endi ma‘lum bo‘ldi. Bir ozdan keyin Frans havoning o‘zgarib ketganidan uni yerto‘laga olib kirishganini angladi. Bir necha vaqtdan so‘ng tars etgan ovoz eshitildi, iliq xushbo‘y havo esdi, pirovardida oyoqlari qalin yumshoq gilamga tekkanini sezdi Frans. Kuzatuvchilar uning qo‘llarini qo‘yib yuborishdi. Sukunat cho‘kdi, kimdir sof fransuz tilida dedi:

– Marhamat qiling, endi ro‘molchani yechib tashlashingiz mumkin.

Frans bu taklifning yana qaytarilishini kutib o‘tirmay,

ro'molchani yechib tashladi, uning ro'parasida tunischa ko'k shoyi popukli qizil qalpoqcha, qora zarbof movut kamzul, to'q qizil cholvor, xuddi shunday rangda zar bilan tikilgan getr va sariq tufli kiygan, qirq yoshlarga borib qolgan kishi o'tirardi, u belidagi qimmatbaho shol bel-boqqa xanjar osib olgan edi.

Murda kabi rangpar bo'lsa-da, yuzi nihoyatda chiroyli, o'tkir ko'zlari yonib turibdi, bejirim burni toza qonli grek naslidan ekanidan dalolat berardi, qop-qora mo'ylovi tagidagi sadafdek tishlari yarqirab turibdi.

Yuzidagi rangparlikni tabiat ato etmagandi bu zotga, u umrining ko'p yillarini go'rda o'tkazganga o'xshardi, qizillik endi uning yuziga aslo qaytmasdi.

U uncha novcha bo'lmasa-da, qaddi-qomati barno va barcha janubiylar kabi qo'llari, oyoqlari jajji edi.

Fransni hammadan ham dabdabali zeb-ziyatlar hayratda qoldirdi.

Xonaning to'rt devoriga zarhal gullar solingan qip-qizil turk shoyisi tutilgan. To'rdagi keng divan ustida guldor g'ilofli miltiqlar osig'liq, ularning qo'ndoqlarida turli qimmatbaho toshlar yonib turibdi. Shiftda Venesiya shishasidan yasalgan go'zal lampa chiroq. Frans kirgan eshikka ham, yonboshdagi xonaga kiradigan eshikka ham kim-xob darparda osilgan.

Mezbon, mayli, rosa ko'rib olsin deb Fransga xalaqit bermadi va undan ko'zini uzmedi. Axiri dedi:

– Muhtaram janob, ehtiyotkorlik qilib ko'zingizni bog'latganim uchun uzr so'rayman. Ammo axborotingiz uchun aytib qo'yayki, bu orolda inson zoti yashamaydi, agarda biror zot meni bu makonimning sirlarini bilib olgudek bo'lsa, qaytganda makonimning holiga maymunlar yig'lagan bo'lib, ko'p narsalarimdan ajralib, hasrat-nadomatda qolgan va ba'zida yolg'iz bo'lish halovatidan mahrum etilgan bo'lur edim. Mana endi dilingizda paydo bo'lgan haligi noxushlikdan sizni xalos etishga urinaman va bu yerda topilmaydigan taomlar bilan mehmon qilaman, huzur etib hordiq chiqarishingiz uchun ixtiyoringizga

ko'rupa-to'shaklar beraman.

– Kechirasiz, – dedi Frans, – uzr so'rashga na hojat? Sehrli qal'alarga kirganda ko'zni bog'lab qo'yadilar, bu hammaga ma'lum tartib. «Gugenotilar»dagi Raulni esga oling, mening aslo nolishim mumkin emas, chunki menga ko'rsatayotgan narsalaringiz chindan ham «Ming bir kecha»dagi mo'jjizalarning xuddi o'zi.

– Ming afsus! Men bunga javoban sizga Lukullning quyi-dagi so'zlarini takrorlashim mumkin: sizning menikiga tashrif buyurishingizni ilgaritdan bilsaydim, tayyorgarlik ko'rib qo'ygan bo'lur edim. Shunday bo'lsa-da oddiy kulbam sizning ixtiyoringizda. Jindek ovqat hozirlangan, baham ko'rishlariga mushtoqman. Ali, ovqat suzildimi?

Shu zahoti eshik pardasi ikki tomonga tortilib, oppoq yaktak kiygan qop-qora habash paydo bo'ldi-da, xo'jayinni yemakxonaga taklif etdi.

– Bilmadim, siz qanday qaraysiz bu gapga, ammo men ro'paramda o'tirgan zoti-sharif bilan soatlab hamsuhbat bo'lsamu ammo nomi nishonlarini bilmasam, juda xunob bo'lib ketaman. Amin bo'lingki, mehmon hurmati, men sizning ismingizni ham, unvoningizni ham so'rab-surishtirishga jur'at etolmayman, faqat sizni kim deb atash sizga qulay va ma'qul, shuni aytsangiz bas. Mendan xijolat tortmasligingiz uchun o'z nomimni aytayin: meni Sindbod-Dengiz sayyohi deb atashadi.

– Aloviddin nufuzida bo'lish uchun, – dedi Frans, – faqat uning mashhur lampasi yetishmaydi, xolos menga, shuning uchun bugun Aloviddin deb nom olishimga hech qanday monelik bo'lmasa kerak. Xullas, bu Sharqning shononasida qoladigan bo'ldik, ming-ming shukrki, meni bu yerga qandaydir olijanob sehrli parizodlar keltirdi.

– Muhtaram Aloviddin, – dedi sehrgar mezbon, – ovqat suzilganini eshitgan edilar, qani yemakxonaga marhamat qilsinlar. Kamina qulingiz, sizga yo'lchi bo'lib, oldinda borishga majbur.

Sindbod shunday dedi-da, mehmonning oldiga tushib yo'l boshladi.

Fransning shavq-zavqi yana oshdi. Dasturxon juda boplab yasatilgan, ovqatlar «jannati». Bunga qoyil qolgan Frans atrofga alangladi. Emakxona ham bezakda hozirgina tashlab chiqishgan mehmonxonadan qolishmasdi. U butkul marmardan ishlangan, qadimiy uslubda naqshlangan cho'ziqroq zalning ikki tomoniga boshiga savat qo'ygan ikkita go'zal haykal o'rnatilgan, savatlarga shirin-sharbat mevalar: sisiliya ananaslari, malaga anorlari, balear apelsinlari, fransuz shaftolilari va tunis xurmolari solingan edi.

Oqshomgi bu ovqat – tustovuq va boshqa parranda go'shtlaridan qovurdoq, yaxna to'ng'iz go'shti, qaylali echki kabobi va boshqa noyob mazali taomlardan iborat edi. Kumush laganlar, yapon chinnilari yarqirab turardi.

Frans tushimmi bu, o'ngimmi, deb ko'zlarini ishqalab-ishqalab oldi.

Ali yakka o'zi xizmat qilar, vazifasini qoyil etib bajo keltirar edi. Mehmon uni maqtadi.

– To'g'ri, aytasiz, – dedi mezbon Fransni lazzatli ovqatlarga undab, – bechora menga nihoyatda sodiq va berilib xizmat qiladi. Men uni o'limdan qutqarib qolganimni hech unutmaydi, buning uchun mendan juda minnatdor.

Ali xo'jayini oldiga keldi-da, qo'lidan o'pdi.

– Noqulay bo'lsa-da, bir savolim bor, – dedi Frans unga, – siz qachon va qanday vaziyatda olijanoblik ko'rsatgan edingiz?

– Bu shunday bo'lgan edi, – javob qildi mezbon. – Bu sayoq qora tanlilar yurishi taqiqlangan joyda, ya'ni Tunis begining haramxonasi yonida sang'ib yurgan ekan, shu sababli uni bek tutib olib, tilini, qo'lini va kallasini kesib tashlashni buyurgan: birinchi kuni tilini, ikkinchi kuni qo'lini, uchinchi kuni boshini. Men hamisha gung xizmatchi olishni orzu qilib yurardim. Uning tilini kesgunga qadar sabr qilib turdim, so'ng habashni qo'shog'iz miltiqqa almashtirishni iltimos qildim. Bir kun ilgari shu miltiq bekka yoqib qolgan edi. U bek bir oz ikkilanib turdi: zero, bu

sho'rlikni u o'ldirib yuborishga juda ishtiyoqmand ekan. So'ng men yana inglizlarning ov pichog'ini ham qo'shdim. Shundan keyin bek habashning qo'lini va kallasini o'rnida qoldirdi, biroq u Tunisga bundan keyin hech qadam bosmasin, degan shart qo'ydi. Ammo bu talabga hojat qolmadi. Bu bechoraning ko'ziga Afrika qirg'og'i ko'rdimi, bas, kayfi uchadi-yu, kemanding tagxonasiga tushib, pusib oladi. To o'sha qirg'oq ko'zdan g'oyib bo'lmaguncha, uni urib ham yuqoriga chiqara olmaysan.

Frans mezbob bu voqeani nechun bu qadar berahmlik, beparvolik bilan hikoya qilib berganini tushunolmay xayolga cho'mdi.

– Demak, ismi jismiga mos qabilida, siz dengizda sayohatda hayot kechirishni ahd qilibsiz-da... – dedi u so'zni boshqa yoqqa burish uchun.

– Shunday. Men shunga ahd qilgan edim bir vaqtlar. O'shanda buni bajarish imkoniyatiga ega bo'larman deb hech o'ylamagan edim, – dedi iljayib mezbob. – Men yana bir qancha ishlar qilaman deb ahd etganman. Ularni ham o'z vaqtida bajo keltirishimga imonim komil.

Sindbod bu so'zlarni o'ta sovuqqonlik bilan aytgan bo'lsa-da, uning ko'zlarida nafrat uchqunlari yalt etib yonib o'tdi.

– Chamamda siz ko'p aziyat chekkan bo'lsangiz kerak? – so'radi Frans.

Sindbod bir seskanib tushdi-yu, Fransga qattiq tikildi.

– Nechun shunday deyapsiz? – so'radi u.

– Ovozingiz, qarashlaringiz, za'faron yuzingiz va turish-turmushingiz shundan dalolat berib turibdi.

– Meni-ya? Dunyoda hech kim menday baxtiyor hayot kechirmayotgan bo'lsa kerak. Men dunyo hokimiman, qaer menga yoqsa o'sha yerda qolaveraman, zeriksam ketaveraman. Men qush kabi erkinman, qanotim bor. Iz-mimdagi, atrof-tevarakdagi odamlar menga sodiq, har gapimga quloq qoqmay itoat qilishadi. Ba'zan odil sudning masxarasini chiqarib, u axtarib yurgan qaroqchini yoki ta'qibga olgan jinoyatchini o'g'irlayman. Mening o'z odil

sudim bor, u muddat ham bermay, shikoyatga yo'l qo'ymay, jazoga tortadi yoki oqlab yuboradi, bunga hech kim aralashmaydi. Agar siz mening hayotimning lazzatini bir marta bo'lsa ham tatib ko'rgudek bo'lsangiz, boshqacha yashashni aslo istamagan, jamiyat orasiga qaytmagan bo'lur edingiz, qaytganda ham biror muqaddas maslak yo'lidan qaytgan bo'lur edingiz.

– Masalan, qasos olmoq uchun, shundaymi?! – dedi Frans.

Mezbon Fransga fikrining va yuragining eng to'riga kirib boradigan qilib tikildi.

– Nechun aynan qasos olish uchun? – so'radi u.

– Shuning uchunki, – e'tiroz bildirdi Frans, – siz mening nazarimda jamiyatning quvg'iniga uchrayotgan va undan qandaydir dahshatli qasos olishga tayyorlanayotgan odamga o'xshaysiz.

– Yanglishyapsiz, – dedi Sindbod o'ziga xos g'alati kulgi bilan, tishlarining oqini ko'rsatib, – men o'z yo'lida bir saxovatpehadirman, balki, biror vaqt kelib, Parijga yo'l olarman va janob Apper hamda ko'k plashli Odam¹⁷ bilan raqobat qilarman.

– Bu sizning Parijga birinchi safaringiz bo'ladimi?

– Afsuski, shunday! Men har narsaga ortiqcha qiziqaveradiganlardan emasman, to'g'rimi? Biroq ishoningki, bunda men aybdor emasman. Buning ham vaqt-soati kelib qoladi.

– Qachon borasiz Parijga?

– Qachon borishimni aytolmayman. Bu sharoitga bog'liq.

– Siz borganda men ham Parijda bo'lsam deyman, Monte-Kristoda menga qilgan bu izzat-hurmatningizni qaytar-sam deyman.

– Men sizning taklifingizni bajonu dil qabul qilardim, biroq, – dedi mezbon, – men Parijga borganda ham yashirin nom bilan boraman.

Ovqatlanish davom etdi, u faqat Frans uchun tayyorlangandek ko'rinar, chunki mezbonning o'zi taomlarga

deyarli qo'l tegizmas, nuqul mehmonni «oling», «oling» deb qistardi.

Ali ovqat ketidan shirinlik keltirdi, to'g'risi, haykaldagi savatlarni olib stolga qo'ydi. Savatlar o'rtasiga qopqoqlik zarhal idish qo'ydi. Frans qiziqsinib qopqoqni ochdi, idishda sharbatga o'xshaydigan ko'kimtir suyuqlik bor edi. Bunaqasini Frans hozirgacha ko'rmagan edi. U hayron bo'lib qopqoqni bekitib qo'ydi-da, mezbonga qaradi. Mezbon iljayib turgan edi.

– Bu idishdagi narsa nimaligini bilolmay hayratda qoldingiz, shekilli?

– Xuddi shunday.

– Bu zangori sharbat, Tobaning Yupiter dasturxoniga qo'yg'an amvroziyasining¹⁸ xuddi o'zi.

– Biroq bu amvroziya, – dedi Frans, – inson qo'lga tushib qolgach, o'zining havoyi nomini tark etib, yerda boshqa nom olgan bo'lsa kerak? Menga uncha yoqinqiramayotgan anavi taomning nomi odam tilida nima deb aytiladi?

– Mana bu materializmimizning aslo inkor qilib bo'lmaydigan dalolati! – xitob qildi Sindbod. – Biz ko'pincha, baxtimiz qushi yonidan uni ko'rmay, unga nazar tashlamay o'tib ketaveramiz, nazar tashlasak-da tanimay o'tamiz. Agar siz oqil odam bo'lib, tilagingiz oltin bo'lsa bu sharbatni iching, darhol ko'z oldingizda Peru, Guzerata va Gokonda oltin sochlilari yalt etib jamol ko'rsatadi-qo'yadi, agar siz xayolparast, shoir bo'lsangiz, bu sharbatni ichishingiz hamono imkoniyat chegaralari gundon bo'ladi-da, ko'z oldingizda bepoyon bo'shliqlar paydo bo'ladi, unda sizning yuragingiz erkin qush kabi qanotlarini keng yoyib shirin o'y-xayollarning cheksiz sahrolariga uchadi-ketadi. Mabodo siz shuhratparastlikka berilib, yer yuzida hokim bo'lish ketidan quvib yurgan bo'lsangiz, u vaqtda bu sharbatni ichgach, bir soat o'tar-o'tmay Evropaning bir chekkasidagi Angliya, Fransiya yoki Ispaniya kabi kichkinagina mamlakatning emas, butun yer yuzining, butun dunyoning, butun koinotning hukm-

roni bo'lib qolasiz. Taxtingiz arshi a'loda bo'ladi va siz yer yuzidagi barcha shahanshohlarning eng oliy hokimi bo'lib olasiz. Bu juda jozibador narsa, buning uchun unga faqat bir nazar tashlab qo'ysangiz bas. Mana, qarang.

Shunday dedi-da, mezbon zarrin idishning qopqog'ini ochdi, kichik qahva qoshig'i bilan sharbatdan olib og'ziga soldi va ko'zlarini qisib, boshini orqasiga tashlab asta yuta boshladi.

Frans mazza qilayotgan mezbonga xalaqit bermadi, sal o'ziga kelgandan so'nggina so'radi:

– Bu qanaqa sehri taom?

– Keksa Tog'likni¹⁹ eshitganmisiz? – so'radi mezbon – anavini-da, Filipp Avgustning joniga qasd qilgan Keksa Tog'likni?

– Eshitganman, albatta.

– U tog'lar etagidagi go'zal vodiyni egallab olgan, uning laqabi ham ana shundan kelib chiqqan. O'sha vodiydagi bog'-rog'larni Hasan ibn Sabo yaratgan, bog'larning chekka-chekkalarida xoli shiyponchalar qurilgan edi. U ana shu shiyponchalarga mumtoz zotlarni taklif etib, ularni, Marko Poloning so'ziga qaraganda, allaqanday giyoh bilan siylarkan, bu giyoh ularni shu zahoti abadiy gullab yotadigan, mevalar hamisha pishib turadigan, yosh qizlar sayr etib yuradigan jannatga olib borarkan. Bu baxtiyor yoshlar voqelik deb faraz qilgan narsalar, aslida xayol edi, ammo oddiy xayol emas, o'ta shirin xayol, nihoyatda zavq-shavqli, lazzatli xayol bo'lib, ular shunday rohatijon gulistonni barpo etganlarga xuddi Xudoga sajda qilgandek, ularga bo'ysunib, tani-jonlarini berarkanlar, ularning amri vojib deb dunyoning u burchiga borib bo'lsa ham aytgan kishilarining boshini tanidan judo qilib keltarkanlar, ana shu giyoh va'da etgan kayfi-safolarga to'la hayotga o'tish niyatida ming-ming azob-uqubatlarga bardosh berib dunyodan o'tarkanlar.

– Ie, bu taryok-ku! – dedi xitob qilib Frans, – uning nomini eshitgandimu, lekin o'zini ko'rmagandim.

– Xuddi aytganingizning o'zi, muhtaram Aloviddin, bu

taryokning eng asili, Aleksandr taryoki, xotirasiga saroy qurib, devoriga: «Baxt mutasaddisiga minnatdor xalqdan» deb yozib qo'ysa arziydigan tengi yo'q omilkor usta Abdulg'orning taryogi.

– Bilasizmi, – dedi Frans, – o'zim sinab ko'rsamu maqtovlaringizga ishonchim komil bo'lsa deymen.

– Marhamat qiling, aziz mehmon, marhamat qilib o'zingiz sinab ko'ring, ammo bir martagina sinash bilan kifoyalanmaslik kerak. Hissiyotni kishi yangi-yangi turli taassurotga, nozik yoki kuchli taassurotlarga, qayg'uli yoki quvonchli taassurotlarga o'rgatishi lozim. Tibbiyot bu ilohiy giyohga qarshi kurashadi, chunki bu narsa quvonch uchun yaratilgan emas, u jabr-jafo uchun yaratilgan. Bu kurashda tibbiyot yengilib, yiqilmog'i kerak, voqelik xayolga ergashmog'i kerak, ana shunda xayol ustun bo'lib chiqadi, xayolning o'zi hayotga aylanadi, hayot esa – xayoldan iborat bo'lib qoladi. Ammo bu aylanish, o'zgarishlarning xili behisob! Haqiqiy hayot dardi-alamlarini xayoliy hayot lazzatlari bilan solishtirib ko'rgach, siz haqiqiy hayotdan yuz o'girasiz-da, xayolning abadiy quli bo'lib qolasiz. Boshqalarni deb o'z shaxsiy dunyoingizdan voz kechganda, Neapol bahorini Lapland qishiga almashtirdim, deb sezasiz o'zingizni, go'yo jannatdan yerga, osmondan do'zaxga o'zingizni irg'itganday his qilasiz. Tatib ko'ring bu taryokni, aziz mehmon, tatib ko'ring.

Frans indamay qoshiq solib, sharbatdan mezbon olguncha oldi-da, og'ziga tashladi.

– Obbo savil-e! – dedi u ajoyib doridan yutib, – bu keyin qanday lazzat berishini bilmaymanu ammo hozir siz aytganchalik shirin emas-ku.

– Chunki og'zingiz hali bu ajoyib mo'jizador dorining mazasiga ko'nikib olgani yo'q. Qani ayting-chi, ustrisa, choy, pivo, qo'ziqorinni birinchi gal og'zingizga solganingizda o'rganib qolmaganmisiz? Tustovuqlarning go'shtini assa-fetidaga qo'shib yeydigan rimliklarni yoki qaldirg'ochlarning uyasini yeydigan xitoylarning qanday lazzatlanishlarini bilasizmi? Shubhasiz, bilmaysiz. Bu taryok

ham xuddi shunday. Biror hafta sabr qiling, hozir shirasiz tuyulayotgan bu narsaning dunyoda hech tengi yo'q ekanini fahmlab olasiz. Qani, boshqa xonaga, sizga atalgan xonaga o'taylik. Ali trubka va qahva keltiradi.

Ular o'rinlaridan turishdi, o'zini Sindbod deb atagan va biz ham vaqti-vaqti bilan unga shunday nom berib kelayotgan zot xizmatkoriga topshiriqlar berish bilan band bo'lib turganda, Frans qo'shni xonaga kirdi.

Bu xona oddiygina, lekin boy jihozlangandi. U yuma-loq bo'lib, hamma tomoniga gir aylantirib katta divan o'rnatilgandi. Divan, devorlar, shift va poli mayin yumshoq gilam singari qimmatbaho mo'yna bilan qoplangan edi, bu – ajoyib yolli Afrika arslonlari, olachipor Bengal sherlariyu, qoplonlarning, Sibir ayiqlariyu, Norvegiya tulkilarining terisi edi. Ular juda ko'p, bir-biri ustiga qalab tashlangan, xuddi qalin maysa ustidan yurib borayotgandek yoki momiq to'shakda huzur qilayotgandek sezardi kishi o'zini.

Mehmon ham, mezbon ham divanga yonboshlashdi. Yonginalaridagi yasmindan yasalgan kahrabo chilimga tamaki tiqib qo'yilgan edi. Ular bittadan chilimni olishlari bilan Ali o't tutdi-da, qahva keltirgani chiqib ketdi.

Sukunat cho'kdi, Sindbod suhbat vaqtidagidek yana o'ygga cho'mdi, Fransni esa yaxshi tamaki shirin orzu-umidlar og'ushiga olib ketdi.

Ali qahva keltirdi.

– O'zlari qaysisini xohlaydilar, – deb so'radi mezbon, – fransuzlarnikinimi yoki turklarnikinimi, quyug'inimi yoki suyug'inimi, qandlisinimi yoki qandsizinimi, sovug'inimi yoki issig'inimi? Hamma xilidan bor. Istaganingizni tanlab oling, marhamat.

– Men turklarnikidan ichaman, – dedi Frans.

– Juda to'g'ri qilasiz, – dedi mezbon, – bu sizda sharqcha yashashga moyillik borligidan dalolat beradi. Menga kelsak, – dedi u g'alati bir tabassum bilan, – Parijdagi ishlarimni tugatgach, qolgan umrimni sharqda o'tkazishga ahd qildim. Janoblari, mabodo meni ko'rishni istab

qolsalar Qohiradan, Bag'doddan yoki Isfahondan topadilar.

– Bu juda oson bo'ladi menga, – dedi Frans, – chunki, chamamda, hozir menda burgut qanoti paydo bo'lyaptiyu, go'yo bir kecha-kunduzda butun koinotni kezib chiqadigandek his etyapman o'zimni.

– Ana! Bu taryokning ta'siri! Shunday ekan, qani, qanotingizni yozing-da osmonga uching! Xavotir olmang, sizni qo'riqlovchilar bor, qanotlaringiz mabodo Ikar qanoti singari oftob jazirasida erib ketgudek bo'lsa, biz sizni o'z quchog'imizga olamiz.

U Aliqa arabcha bir necha so'z aytdi, Ali ta'zim qilib chiqib ketdi.

Frans o'zida ajib bir o'zgarish yuz berayotganini sezib turardi. Butun kun bo'yi to'plangan hamma horg'inlik, kechki voqealarning hamma tashvishlari tarqalib yo'qola boshladi, uning butun vujudi yengil tortdi, aqli juda ravshanlashib ketdi, hissiyotlari ikki barobar o'tkirlashdi. Uning ufq doirasi tobora kengayib borardi, biroq bu o'ngidagi allaqanday xavf-xatarli ufq emas, aksincha ko'm-ko'k, yorqin, bepoyon ufq, lojuvard dengiz, zarrin quyosh, xushbo'y shabada qo'ynidagi ufq edi... So'ng o'z matroslarining qo'shig'i ohangida, agar yozib olish imkoniyati bo'lganda ilohiy bir kuy bo'ladigan ana shu ohang ostida ko'z oldida Monte-Kristo oroli qad ko'tarayotganini – to'lqinlar yelkasida dahshatli qoya bo'lib emas, cho'l-biyobonda go'zal vodiy bo'lib ko'tarilayotganini ko'rib turardi. Qayiq yaqinlashgan sari qo'shiq kuchayar, uzoq-uzoqlarga uchardi, chunki sehrli kuy qandaydir Loreleya baliqchini maftun etmoqchi bo'layotgandek, oroldan jaranglab chiqib osmoni-falakka ko'tarilib ketyapti.

Mana qayiq ham turtinmay-silkinmay, xuddi ikki tashna lab bir-biriga asta yopishganday, ohistagina qirg'oqqa tegdi, Frans g'orga kirdi, jozibador musiqa esa hamon jaranglardi. U nazarida go'yo zinadan tushib borayotir. Uirseyga g'orlari atrofida esadigan shabboda kabi toza havoda, kishi qalbini go'zal xayollarga ko'mib yuboradi-

gan, tuyg'ularni alangalantiradigan xushbo'y havoda rohatlanib nafas olayotir. Mana o'ngida nima ko'rgan bo'lsa, hammasi afsonaviy mezbon Sindboddan tortib, gung malay Aligacha hammasi yana uning ko'z oldidan o'tyapti. So'ng hammasi aralashib ketdi va sehrli fonusning so'nggi nuri kabi asta-sekin ko'zdan g'oyib bo'ldi. Frans o'zini haykallar qad ko'tarib turgan, g'ira-shira shamchiroq yoritib turgan zalda ko'rdi.

Bu o'sha naqshdor, go'zal, xumor ko'z haykallar bo'lib, jingalak sochlarini ko'z-ko'z qilib, sehrli tabassum-la, kishini maftun etmoqda edi. Mashhur uch ishratparast oyimchalar – Frina, Kleopatra, Messalina edi. Mana shu behayo, uyatsiz arvohtarlar o'rtasida yorqin nur kabi, ma'jusiyalar Olimpining farishtasi kabi iffatli, ma'sum jonon paydo bo'lib, marmar fohishalardan o'zining pok tanini yashirib turardi.

Shu asnoda haligi uch haykal birgalashib bittayu bitta oshiqqa zo'r hirs, ehtiros-la ko'z qadashdi. Bu oshiq Frans edi. Haykallar oppoq uzun ich ko'ylaklarda, ko'kraklarini ochib, sumbul sochlarini to'zg'itib oshiqning to'shagiga yaqin kelishdi. Ular Frans qarshisida o'zlariga zeb berib, chunon noz-karashma qilardilarki, bunga avliyolar ham chidolmay vasvasaga tushib qolishlari hech gap emasdi. Bu oyimchalar, xuddi ilon chug'urchiqni avrayotgandek, Fransga ko'zlarini javdiratib, o'ynatib ishva qilardilar. Yumshoq quchoq va totli bo'sa va'da qilayotgandek tiki layotgan bu qarashlarga bardosh bera olarmidi bechora Frans. U ko'zlarini bekitdi, so'ng oxirgi marta atrofga nazar tashladi-da, yana uyalib choyshabiga o'ralib olgan haykalni ko'rdi, shu on u iffatdan ko'z yumdi-da, hirs-lazzat tuyg'ulari quchog'iga o'zini otdi.

Ana shunda cheksiz aysh-ishrat, payg'ambarning o'zi tanlagan zotlarga va'da etgan beto'xtov hirs-shavq boshlanib ketdi. Marmar lablarga jon kirdi, ich ko'ylaklar harorat kashf etdi, shundan keyin birinchi marta taryak domiga ilingan Frans uchun hirs-shavq qiynoqqa, aysh-ishrat azobga aylandi. U titrab turgan lablariga muzdek marmar

lablar yopishayotganini his etib turardi, uning qo'llari bu dahshatli hirsni uloqtirib tashlashga urinsa-da, hissiyotlari sirli tushning jozibali aysh-ishlratlariga tamoman berilgan edi. Oxiri kurashdan – joni fido etsa arziydigan kurashdan keyin u marmar ma'shuqalarning bo'salariga va afsungar tushning lazzatlariga rosa qoniqdi-da, holdan toyib entikkancha muknasi bilan yiqildi.

XI. UYG'ONISH

Frans uyg'onib ko'zlarini ochganda, atrofdagi buyumlar tushning davomidek tuyuldi. Shu payt u qabrda yotgan xayol qildi o'zini, quyoshning xira nuri tushib turardi. Qo'lini uzatdi-da, paypaslab yap-yalang'och toshni topdi, o'rnidan ko'tarilib qarasa plashiga o'ralib yumshoq va xushbo'y quruq archagullar ustida yotibdi.

Sharpalar gumdon bo'lgan, tushida bamisoli go'rdan chiqib kelgan arvohlarga o'xshab turgan haykallar Frans uyg'onishi bilan ko'zdan yo'qolib ketgan edi.

Frans quyosh nuri tomon bir necha qadam tashladi. Dahshatli, jo'shqin tush o'rnini tinch, sokin borliq oldi. U g'orda ekanini angladi, yarim doira teshik oldiga borib tashqariga qaradi, ko'z oldida lojuvard osmon ko'm-ko'k dengiz quchoq yozib turardi. Tong quyoshi havoga harorat, to'lqinlarga zarrin nur sochayotir, qirg'oqda matros-lar davra qurib, xushchaqchaq suhbatlashib o'tirishibdi. O'n qadam naridagi qayiq asta-asta qalqib turibdi.

U peshonasini siypalab salqin havoda bir lahza huzur qilib turdi, qirg'oqqa urilib jimjima ko'piklar qoldirayotgan to'lqinlarning ohista shovillashiga quloq soldi, afsonaviy tushdan so'ng, xususan, kishini mahliyo etadigan tong pallasining shohona manzarasiga butunlayin maftun bo'lib qoldi. Frans sokin, pokiza ulug'vor tabiiy hayotga tikilib turdi-da, tushida ko'rganlari haqiqatdan uzoq ekanini his etdi.

U orolga qanday kelganini, kontrabandistlar atamani-

nikiga tashrif buyurganini, boy va shinam bezakli yer osti saroyini, ajoyib ovqatlarni va bir qoshiq taryokni esladi.

Biroq tush Fransning es-hushini shu qadar qattiq, chuqur qamrab olgan ediki, hozircha, yorqin kun yog'dusida bu hodisalarning bo'lib o'tganiga kamida bir yil o'tib ketgandek tuyulardi unga. O'tgan tunlarda uni erkalatib, ko'nglini xush etgan sharpalar ba'zan goh matroslar o'rtasida, goh qoyalar tepasida, goho qayiqda sayr etib yurgandek bo'lardi uning nazarida. Lekin Frans juda yaxshi dam olib, qushdek yengil tortib chiqdi. O'zida hech qanday og'irlik sezmas, kayfi chog' edi, toza havoda quvonch-la to'yib-to'yib nafas olar, quyoshning iliq nuri-ga yuzlarini tutib huzur qilardi. U dadil qadam tashlab matroslar tomon yurdi.

Uni ko'rib matroslar o'rinlaridan turishdi, qayiq egasi uning istiqboliga peshvoz chiqdi.

– Muhtaram Sindbod-Dengiz sayyohi, – dedi u Frans-ga, – siz janobga ta'zim etishni va xayrlasholmaganidan juda afsuslanganini aytishni menga topshirib ketdi. Muhim va shoshilinch bir yumush bilan Malagaga jo'nashga majbur bo'lganimni eshitgach, meni kechirurlar, deb ishonaman, dedi.

– Nahotki shularning hammasi bor narsa bo'lsa, do'stim Gaetano? – dedi Frans. – Meni shu orolda shohona qabul qilgan va uxlab yotganimda jo'nab ketgan zot chindan ham bormi o'zi?

– Bor janob, bor, huv anavi hamma yelkanlarini yoyib ketayotgan kema o'sha zotniki, siz bir durbiningizga qarang, shubhasiz, mezboningiz ekipaj orasida yurganini ko'rasiz.

Gaetano Korsikaning janubiy tomoniga suzib borayotgan kemani ko'rsatdi.

Frans durbini to'g'rilab ko'ziga tutdi-da, Gaetano aytgan tomonga qaradi.

Gaetano haq edi. Mezbon kema sahnida yuzini orolga o'girib, Frans singari qo'lida durbin ushlab turardi, u kecha qanday kiyimda bo'lsa hozir ham o'sha kiyimda edi,

ro'molchasini hilpiratib xayrlashardi.

Frans ham ro'molchasini olib hilpiratdi. Shundan so'ng kemadan yupqa tutun chiqdi-da, buralib osmonga ko'tarildi. Frans past o'q ovozi eshitdi.

– Eshitingizmi? – so'radi Gaetano. – Siz bilan xayrlashyapti.

Frans ham o'q ovozi mezbon kemasiga borib yetishiga ko'zi yetmasa-da, miltig'idan o'q uzdi.

– Endi, janob, nima qilaylik? – so'radi Gaetano.

– Avvalo mash'alni yoqingiz.

– Ha, tushundim, – dedi kema egasi, – sehrli saroyga kiradigan teshikni axtarmoqchisiz chamamda. Juda qiziqib qolganga o'xshaysiz janob, murodingizga yeting, hozir mash'al topamiz. Men ham ko'pdan o'ylab yuraman buni, hatto ikki-uch marta axtardim ham, bo'lmadi, hafsalam pir bo'ldi. Jovanni, – dedi qo'shimcha qilib Gaetano, – janobga mash'al yoqib ber.

Jovanni buyruqni darhol bajardi, Frans mash'alni olib g'orga kirdi. Gaetano uning ketidan bordi.

Uyqudan turgan joyini topdi, g'orning devorlarini juda diqqat bilan tekshirib chiqdi. Paydar-pay izlardan bu yerda oldin ham ko'p kishilar g'orga kiradigan joyni axtarganlarini bildi.

Shunga qaramay Frans tosh devorlarning bir qarichini ham qo'ymay tekshirib chiqdi. Jindak teshik ko'rsa ov pichog'ini tiqdi, do'ngroq joy uchrasa bosib ko'rdi, biroq bu urinishlaridan hech foyda chiqmadi, ikki soat vaqti behuda o'tdi.

Axiri u umidini uzdi, Gaetano shodlandi.

Frans qirg'oqqa qaytib kelganda, notanish mezbonning kemasi ufqda oppoq nuqtaga o'xshab ko'rinardi. U durbindan qaradi, ammo biror narsani aniq ko'rib bo'lmadi.

Gaetano orolga ov qilgani kelganini Fransning esiga soldi. Frans buni tamom unutib yuborgan edi. Miltig'ini olib orolni kezdi. U ko'rinishidan ov bilan zavqlanayotgan kishiga emas, aksincha, qandaydir vazifa bajarayot-

gan kishiga o'xshardi. Chorak soatda bitta echki va ikkita uloq otdi. Bu yovvoyi va chaqqon echkilar xonaki echkilarga juda o'xshab ketardi, shuning uchun Frans ularni yovvoyi hisoblamadi.

Buning ustiga uning xayoli tamom boshqa narsada edi. Kechadan boshlab u «Ming bir kecha» ertagidagi qahramon deb his etardi o'zini va uning miyasi hamon o'sha g'or bilan band edi.

Boyagi axtarishdan natija chiqmaganiga qaramay, u Gaetanoga echkini qovurishni buyurib, yana g'orni tinta boshladi. Ikkinchi qidirish juda cho'zilib ketdi, shunchalik cho'zildiki, to Frans qaytib kelguncha, echki qovurilib nonushta taxt qilib qo'yilgan edi.

Frans kecha mehmonga chaqirib ketishgan joyga o'tirdi va Korsika tomonga suzib borayotgan kemani ko'rdi, kema hamon to'lqinlar ustida chayqalib o'tirgan baliqchi qush singari suzib borardi.

– Bu qanaqasi? – dedi u Gaetanoga qarab. – Siz men-ga, janob Sindbod Malagaga ketdi, degan edingiz, hozir u, menimcha, to'g'ri Porto-Vikkioga ketyapti-ku.

– Axir uning ekipaji orasida, – dedi e'tiroz bildirib qayiq egasi, – ikkita korsikalik qaroqchi borligini unutilib qo'ydingizmi?

– Ha, to'g'ri! Ularni olib borib qo'ymoqchidir-da? – dedi Frans.

– Xuddi shunday. Aytishlariga qaraganda, bu odam hech kimdan va hech narsadan qo'rqmas ekan, biror baxtsiz kishining mushkulini oson qilish uchun har qancha yo'l bosishga ham tayyor u!

– Biroq bu bilan davlat arboblarning g'ashini keltirishi mumkin-ku? – dedi Frans.

– Nima bo'пти! – dedi kulib Gaetano, – davlat arboblari bilan nima ishi bor uning? Ularni bir chaqaga olmaydi Sindbod! Baribir uning ketidan quvib yetisholmaydi! Birinchidan, uning kemasi shunqor, tezlikda hech qanday kema belasholmaydi u bilan. Ikkinchidan, istagan qirg'oqqa tushsa, do'st-yoronlari o'rab olishadi uni.

Shulardan ma'lumki, Fransning xushchaqchaq mezboni Sindbod O'rta yer dengizining hamma qirg'oqlaridagi kontrabandistlar va qaroqchilar bilan aloqador ekan. Bu kishini taajjubga solardi.

Endi Fransning Monte-Kristoda hech qanday ishi qolgani yo'q. G'orning sirini ochish to'g'risidagi umidlari puchga chiqdi, shu sababli matroslarga qayiqni safarga tayyorlashni buyurib, o'zi nonushtaga o'tirdi.

Yarim soatdan so'ng u qayiqqa tushdi.

Frans oxirgi marta Sindbod kemasiga qaradi. Kema Porto-Vikkio ko'rfazida ko'zdan g'oyib bo'lib ketayotgan edi.

Frans yo'lga tushilsin deb imo qildi.

Qayiq yo'lga chiqqan daqiqada, kema ko'rinmay qolgan edi.

Kema bilan birga tungi mo'jizadan zarracha asar qolmadi: noz-ne'matlarga to'la dasturxon ham, Sindbod ham, taryok va haykallar ham – hammasi xuddi tush kabi yo'q bo'lib ketdi.

Qayiq kun bo'yi, tun bo'yi suzdi, ertanisi tongda, quyosh ko'tarilganda, Monte-Kristo oroli ham ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Frans qirg'oqqa chiqqani hamono vaqtincha bo'lsa-da, so'nggi paytlardagi sarguzashtlarini yodidan ko'tarib tashladi-yu, Florensiyadagi yumushlarini tezroq oxiriga yetkazib, Rimga jo'nash taraddudiga tushdi. Uni u yerda Alber de Morser kutardi.

Shundan so'ng u yo'lga chiqdi va shanba kuni kechqurun pochta izvoshida chegara maydoniga kirib keldi.

Boshda aytganimizdek, ikkisi uchun yotoqxona tayyor etib qo'yilgan edi, faqat maestro Pastrini mehmonxonasiga yetib olishsa bas, biroq bu oson emasdi, chunki ko'chalar to'la odam, Rimni og'ir va dahshatli to'lqinlar allaqachon qamrab olgan, bu to'lqinlar ulug' voqealar jarchisi edi. Rimda esa har yili to'rt xil ulug' voqea bo'ladi – karnaval, pasxadan bir hafta oldin bo'ladigan bayram, vojiban vujud va muqaddas Pyotr bayramlari.

Yilning boshqa vaqtlarida shahar hayot bilan o'lim

o'rtasidagi holatga kirib mudrab yotadi, ana shunda xuddi bu dunyo bilan u dunyo o'rtasidagi bir mazgilga o'xshab qoladi, bu shunday go'zal, nafosatga to'la, serjilo mazgilki, kishini tamomila maftun etib oladi, Frans ham shu mazgilda olti marta bo'lib, juda ko'p sehrli va jozibali narsalarning guvohi bo'ldi.

U urinib-surinib, olomon o'rtasini yorib mehmonxonaga yetib oldi. Uning birinchi savoliga bozori chaqqon izvoshchi va mehmonxonasi odamga to'la xo'jayinga xos qo'pollik bilan siz uchun «London» mehmonxonasida o'rin yo'q deb javob berishdi. Frans maestro Pastriniga tashrif qog'ozini yo'llashga majbur bo'ldi va Alber de Morserni pesh qildi. Bu ta'sir etdi. Maestro Pastrini o'zi yugurib kelib kuttirib qo'ygani uchun uzr so'radi, xizmatchilarini koyidi-da, yo'l ko'rsatuvchining qo'lidan shamdonni olib mehmonni Alber xonasiga kuzatib qo'ymoqchi bo'lib turgan payt Alberning o'zi chiqib qoldi.

Buyirilgan xona ikkita yotoqxona va qabulxonadan iborat edi. Yotoqxonaning derazalari ko'chaga qaragan, buni maestro Pastrini xonalarning juda bebaho afzalligi deb ta'rifladi. Shu qavatdagi boshqa hamma xonalarni Sisiliyadan yoki Maltadan kelgan bir boy band etgandi.

– Bularning hammasi juda soz, maestro Pastrini, – dedi Frans, – biroq biz uchun hozir eng zaruri kechki ovqat, erta va undan keyingi kunlar uchun izvosh.

– Ovqatni-ku, hoziroq keltirishadi, – dedi javob qilib xo'jayin, – biroq izvosh masalasi...

– Biroq deganingiz nimasi? – xitob qiladi Alber, – to'xtang, to'xtang, maestro Pastrini, bu hazilingizni qo'ying! Bizga izvosh kerak, izvosh!

– Muhtaram janob, – dedi mehmonxona xo'jayini, – sizga izvosh topish uchun butun chora-tadbirlarni ko'ramiz. Hozircha bundan ortiq va'da berolmayman.

– Javobni qachon olamiz? – so'radi Frans.

– Ertaga ertalab, – javob qildi xo'jayin.

– Shungayam g'amnok bo'lib o'tiramizmi?! – dedi Alber, – chorasi pul-da, kira haqini ko'proq to'laymiz,

vassalom. Ma'lumki, Dreka va Aronda oddiy kunlarda yigirma besh frank, yakshanba va bayram kunlari o'ttiz yoki o'ttiz besh frank olishadi, yoniga yana besh frank qo'shsangiz bo'ldi, hamma ish joyida bo'ladi.

– Janoblari ikki barobar oshiq haq to'lab ham biror fayton topishingiz amri mahol.

– Unday bo'lsa, otlarni yaxshisi mening faytonimga qo'sha qolishsin. Rost, fayton yo'lda bir oz shikastlangan, lekin buning zarari yo'q.

– Ot yo'q-da.

Alber xo'jayinning gapiga tushunolmay, Fransga qaradi.

– Bunisiga nima deysiz, Frans? Ot ham yo'q emish, – dedi u, – pochta otlaridan ham topib bo'lmaydimi?

– Pochtaning otlari ham ikki hafta oldin band qilib qo'yilgan; faqat pochtaning o'zi uchun zarurlari qolgan, xolos.

– Bunisi yana oshib tushdi-ku, Alber! – dedi Frans.

– Biror narsaga aqlim bovar qilmay qolsa, u haqda gapni bas qilib, boshqasiga o'tib ketaman, odatim shunaqa. Maestro Pastrini, kechki ovqat tayyormi?

– Tayyor.

– Keling, avval ovqatni urib olaylik.

– Izvosh va otlar-chi? – so'radi Frans.

– Azizim, tashvishlanmang. Topiladi. Faqat xasislik qilmasak bo'lgani.

Cho'ntakda pul bo'lsa, hammasi topiladi, degan falsafaga amal qiluvchi Morser ovqatni paqqos tushirdi-da, o'zini to'shakka tashlab, rosa uyquni urdi, tushida olti otlik faytonga tushib sayr qildi.

XII. RIM QAROQCHILARI

Ertanisi Frans birinchi bo'lib uyg'ondi va darhol qo'ng'iroqni chaldi. Qo'ng'iroqning ovozi tinmasdanoq maestro Pastrining o'zi kirib keldi.

– Mana, koʻrdingizmi, – dedi tantanali ohangda xoʻjayin, Fransning savolini ham kutib oʻtirmay, – kecha sizga vaʼda bermay toʻgʻri qilgan ekanman, siz juda kechikib soʻradingiz-da, butun Rimda, soʻnggi uch kun ichida birorta fayton topilmay qoldi.

– Ha, albatta! – javob qildi Frans, – kerak kunlari topilmay qoladi-da, oʻzi.

– Nima gap? – soʻradi Alber kirib. – Izvosh yoʻqmi?

– Topdingiz, azizim, yoʻq ekan, – dedi Frans.

– Dovruq taratgan shahringizning holi shumi hali, dunyo turguncha yashnab turadi deyishadi tagʻin bu shaharni.

– Janoblariga maʼlum qilyapmanki, – dedi maestro Pastrini dunyo xristianlari poytaxtining shaʼni-shuhratini kelgindilar oldida himoya qilish maqsadida, – yakshanba kuni ertalabdan seshanba kuni kechqurungacha izvosh boʻlmaydi. Yakshanbagacha istasangiz yuzta ham topiladi.

– Bunisi yana yaxshi! – dedi Alber. – Bugun payshanba, yakshanbagacha Xudo poshsho, ungacha nima boʻlishini kim bilsin?

– Yakshanbagacha yana oʻn-oʻn ikki ming kishi keladida, ish yana mushkullashadi, – dedi Frans.

– Aziz doʻstim, – dedi Morser, – keling, hozirning huzurini koʻraveraylik-chi, u yogʻi bir gap boʻlar.

– Hech boʻlmasa derazamiz boʻlar deyman? – soʻradi Frans.

– Deraza? Qanaqa deraza?

– Korso maydoniga qaragan deraza-da!

– Hazillashayapsizmi?! – xitob qildi maestro Pastrini. – Mumkin emas! Sira iloji yoʻq! Daria saroyida oltinchi qavatda bitta boʻshi qolgan edi, uni ham kuniga yigirma sexin toʻlash sharti bilan rus knyaziga berishdi.

Yigitlar hang-mang boʻlib bir-birlariga qarashdi.

– Azizim, – dedi Frans Alberga, – ilojimiz qancha? Karnavalni Venesiyada oʻtkazamiz, qoʻyamiz-da. U yerda izvosh topilmasa gondolalar boʻladi.

– Venesiyani xayolingizga ham keltirmang!? – dedi xitob qilib Alber. – Men Rim karnavalini ko‘rishga ahd qilganman, yog‘och oyoqda yurib bo‘lsa-da, ko‘raman uni.

– Bu juda ajoyib fikr! – dedi uning so‘zini ilib olib Frans, – yog‘och oyoqqa minib olsak shamchiroqlarni boplab o‘chiraveramiz, masxarabozning, go‘rdan chiqqan qonxo‘r murdalarning yoki Landi dashtlarining aholisi kiyimlarini kiyib olamiz-da, hammani qoyil qilamiz.

– Har holda, janoblari, hech bo‘lmaganda, yakshanbaga fayton olishni istasalar kerak?

– Albatta, albatta! – dedi Alber. – Nahotki biz allaqanday mirzolarga o‘xshab Rim ko‘chalarida yayov yursak?

– Janoblarining buyruqlari bajo etiladi albatta, – dedi maestro Pastrini. – Biroq ogohlantirib qo‘yay: faytonga har kuni olti piast to‘laysiz.

– Men, janob Pastrini, – dedi uning so‘zini ilib olib Frans, – qo‘shnimiz singari millioner bo‘lmasam-da, sizni ogohlantirib qo‘yayinki, Rimga shu bilan to‘rtinchi marta keliшим, faytonlarning oddiy kunlarda, bayramlarda va yakshanba kunlaridagi narxini yaxshi bilaman, sizga uch kunga: bugun, erta va indinga o‘n ikki piastrdan beramiz, shunda ham ancha foyda ko‘rasiz.

– Kechirasiz, janob! – dedi Pastrini e‘tiroz bildirmoqchi bo‘lib.

– Xohlasangiz shu, qadrli xo‘jayin, – dedi Frans, – yo‘q desangiz izvoshni beradigan ijarachi bilan o‘zim gaplashib qo‘ya qolaman, uni men yaxshi taniyman, u mendan juda ko‘p foyda ko‘rgan, yana foyda ko‘rish niyatida men sizga taklif qilayotgan puldan kamiga ham rozi bo‘ladi. Qaysarlik qilib foydadan ajralib qolasiz.

– Janob, o‘zingizni tashvishga solmay qo‘ya qoling, – dedi maestro Pastrini yengilgan italyan yulg‘ichi singari iljayib, – ko‘nglingizdagidek xizmat qilishga urinaman, siz albatta mamnun bo‘lasiz.

– Mana bu o‘g‘il bolaning gapi. Allaqachon shunday qilish kerak edi.

– Fayton qachon kelsin?

– Bir soatdan soʻng.

– Bir soatda darvoza oldida boʻladi.

Chindan ham izvosh bir soat oʻtar-oʻtmas eshik oldida yigitlarni kutib turgan edi, bu bayram munosabati bilan izvosh holiga keltirib yasatilgan aravacha edi, shunga qaramay, yigitlar karnavalning soʻnggi uch kunida shu aravachada yurishga ham rozi edilar.

– Muhtaram janob! – dedi yoʻl koʻrsatuvchi derazadan moʻralab. – Izvoshni saroyga kiritaylikmi?

Frans italyancha mulozamatga oʻrganib qolgan boʻlsa-da, atrofga bir alanglab qoʻydi. Biroq yoʻlchi undan soʻrayotgan edi.

Muhtaram janob uning oʻzi, izvosh degani esa haligi aravacha, saroy degani «London» mehmonxonasi edi.

Italyanlar har narsani boʻrttirib koʻrsatishga moyil ekanini yana shu iboradan koʻrinib turardi.

Frans va Alber pastga tushishdi. Izvosh saroy ostona-siga keldi. Muhtaram janoblar kerilib oʻtirib olishdi, yoʻl koʻrsatuvchi tik turib oldi.

– Muhtaram janoblar, qay tomonga yurishni buyuradilar?

– Avval muqaddas Pyotr cherkoviga, soʻngra Kolizeyga, – dedi Alber haqiqiy parijlik singari.

Biroq muqaddas Pyotrning bir oʻzini koʻrib chiqish uchun bir kun ketishini va uni oʻrganish uchun bir oy vaqt kerakligini Alber bilmasdi. Chindan ham kun boʻyi muqaddas Pyotr ibodatxonasini koʻrib chiqishga band boʻlishdi.

Doʻstlar kun qaytib, kech kirayotganini sezmay qolgan edilar.

Frans soatiga qaradi: toʻrt yarimga borib qolgan edi vaqt.

Mehmonxonaga qaytishga majbur boʻlishdi. Izvoshdan tushayotib Frans izvoshchiga soat sakkizda eshik oldida boʻlishini buyurdi. U Alberga muqaddas Pyotr ibodatxonasini quyosh nurida tovlanib turgan paytda koʻrsatgani kabi, Kolizeyni oydinga koʻrsatmoqchi boʻldi. Oʻzing il-

gari ko'rgan shaharni jo'rangga ko'rsatayotganda, xuddi bir vaqtlardagi xushtor ayoling bilan uni tanishtirayotgandek satanglik, nozu karashmalarni ko'pam joyiga keltirasan kishi.

Izvoshchiga marshrutni Fransning o'zi ko'rsatayotganining boisi ham shunda edi. Bu marshrut bo'yicha ular del-Popolo darvozasidan o'tib, tashqi devor yonidan borib San-Jovanni darvozasiga kirishlari lozim edi. Ana shunda Kolizey lop etib ular qarshisida gavdalanar, yo'ldagi Kapitoliy ham, Forum ham, Shimol Septimiya arkasi ham, via-Sakradagi Antonin va Faustina cherkovlari ham Kolizeyning ulug'vorligini zarracha kamsitolmasdilar.

Dasturxonga o'tirishdi. Maestro Pastrini juda mazali ovqat tayyorlanadi deb va'da qilgan edi. Rostdan ham ovqat durust bo'ldi, e'tirozga joy qolgani yo'q.

Ovqat oxirida xo'jayin kirdi. Frans xo'jayin ovqat uchun maqtovlarni eshitgani keldi, shekilli, deb o'ylab, maqtashga shaylangan edi, ammo Pastrini darhol uning so'zini kesib, dedi:

– Muhtaram janob, maqtovingizdan mamnunman, biroq men boshqa masalada keldim.

– Ehtimol bizga fayton topgansizu shuni xabar qilgani kelgandirsiz? – so'radi Alber papirosini tortib.

– Undan battarroq'ini, janoblariga men bu haqdagi xayollarini kallalaridan chiqarib tashlashlarini va boriga shukr qilishlarini maslahat berardim. Rimda narsalarning iloji boriyam bo'ladi, iloji yo'g'iyam. Sizga iloji yo'q dedilarmi, bas, demak, gap tamom – vassalom.

– Parijda qulayroq, sizga iloji yo'q, deganlarida ikki baravar to'laysiz va shu zahoti kerakli narsa muhayyo bo'ladi.

– Hamma fransuzlar shunday deyishadi, – javob qildi g'ijjiniga tekkan Pastrini, – shunday ekan, nega ular sayohatga chiqib o'zlarini qiynoqqa solib yurishadi.

– Shuning uchun, – dedi yumshoq kursida chayqalib o'tirgan Alber papiros tutunini shiftga puflab, – shuning uchun bizga o'xshagan tentaklar va ahmoqlargina

sayohat qilib yurishadi. Aqlli odamlar Elder ko'chasidagi, Gante bulvaridagi va Kafe-de-Paridagi hovli-joylarida huzur qilib yotishadi.

Alberning nomi tilga olingan ko'chada yashaganini, chiroyli bulvarda har kuni sayr etganini va ofisiant bilan yaxshi muomalada bo'lgan kishigagina ovqat beriladigan yagona kafeda ovqatlanib yurganini bu yerda aytib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak.

Maestro Pastrini hech nima demadi, Alberning javobi unga tushunarli bo'lmadi, shekilli, o'ylanib qoldi.

– Ammo, – dedi Frans xo'jayinning xayolini bo'lib, – siz bizning huzurimizga biror maqsadda kelgandirsiz. Xo'sh, qanaqa maqsad ekan u?

– Juda haq gapni aytdingiz, gap bunday: siz izvosh soat sakkizda kelsin degan edingizmi?

– Ha, shunday degan edim.

– Kolosseoni ko'rmoqchimisiz?

– Kolizeyni demoqchimisiz?

– Ikkovi bir narsa.

– Ha.

– Izvoshchiga del-Popolo darvozasidan kirib, tashqi devor yonidan borib, San-Jovanni darvozasi orqali qaytasan, deganmidingiz?

– Xuddi shunday.

– Bu marshrutdan yurishning iloji yo'q.

– Nega?

– Juda xatarli bu yo'l.

– Xatarli? Nechuk?

– Luidji Vampa tufayli.

– Kechirasiz, muhtaram xo'jayin, – dedi Alber. – Avvalo bizga tushuntiring: Luidji Vampa deganingiz kim o'zi? Ehtimol, u Rimda juda mashhurdir, biroq ishoningki, u odamni Parijda bilmaydilar.

– Nega bilmas ekanlar! Siz ham uni tanimaysizmi?

– Tanimayman.

– Uning nomini hecham eshitmaganmisiz?

– Hech eshitganim yo'q.

– Unday bo'lsa bilib qo'ying: Luidji Vampa mashhur qaroqchi, Dechezaris va Gasparone kabilar uning oldida ip esholmaydi.

– Diqqat, Alber! – xitob qildi Frans. – Pirovard natijada mana endi qaroqchi ham chiqib qoldi.

– Muhtaram xo'jayin, birorta so'zingizga ham ishonmayman. Shuning uchun istaganingizcha gapiravering, qulog'im sizda, qani, «Bor ekanu, yo'q ekan...» Qani, boshlang!

Maestro Pastrini jo'ralar ichida fahm-farosatli deb Fransga murojaat qildi. Qoyil qolish kerak bu odamga. Uning hayotida bu mehmonxonasida istiqomat qilgan fransuzlarning son-sanog'i yo'q, biroq ularning aqliga doir ba'zi xususiyatlar hamon Pastrini uchun jumboq bo'lib kelyapti.

– Muhtaram janob, – dedi u Fransga, – agar siz meni yolg'onchiga chiqarib qo'ygan bo'lsangiz, aytmoqchi bo'lgan gapimni aytmay qo'ya qolganim ma'qul. Men faqat sizning nafingizni ko'zda tutgandim.

– Aziz sinor Pastrini, Alber sizni yolg'onchi degani yo'q, – dedi Frans uning so'zini bo'lib, – u sizga ishonmayman, dedi xolos. Men esa sizga ishonaman, xotirjam bo'lib, gapingizni davom ettiravering.

– Biroq janoblari tushunadilarki, mening rostgo'yligim shubha ostiga olinarkan...

– Azizim, – so'zini kesdi Frans, – siz Kasandrigan ham serzarda ekansiz-u. Axir u ayol folbin edi, uning so'zlari-ga hech kim quloq osmasdi, sizga esa bu yerdagilarning yarmi diqqat berib, quloq solib o'tiribdi. Qani o'tiring, o'sha janob Vampa kim o'zi, aytib bering.

– Men hali aytganimdek, u bir battol qaroqchi, bunday battarin qaroqchini mashhur Mastrilya zamonidan buyon ko'rganimiz yo'q.

– Axir, izvoshchiga del-Popolo darvozasidan kirib San-Jovanni darvozasi orqali qaytish to'g'risida men bergan buyruqning bu qaroqchiga nima aloqasi bor?

– Aloqasi shundaki, – javob qildi maestro Pastrini, –

siz bir darvozaga tinchgina kirasizu, biroq ikkinchisidan qaytib chiqqa olasizmi, degan shubhadaman.

– Nima uchun?... – so‘radi Frans.

– Qorong‘i tushishi bilan hatto darvozadan ellik qadam narida bo‘lish ham xavfli.

– Yo‘g‘-e? – dedi Alber.

– Janob vikont, – dedi javoban maestro Pastrini Alberning ishonchsizlik bildirganidan hamon darg‘azab bo‘lib, – buni men sizga emas, yo‘ldoshingizga aytyapman: u Rimda bir necha marta bo‘lgan ekan, bunaqa masalalar bilan hazillashib bo‘lmasligini u yaxshi biladi.

– Azizim, – dedi Alber Fransga, – ajoyib hodisalar o‘z-o‘zidan yo‘limizda paydo bo‘larkan, bu juda soz. Izvoshimizni to‘pponchalar, mushket va ikki og‘izli miltiqlarga to‘ldirib olamiz. Luidji Vampa ro‘baro‘ kelgudek bo‘lsa, u bizni emas, biz uning yo‘lini to‘samiz, mashhur qaroqchini tutib olib borib, aziz-avliyo papaga topshiramiz, u bizdan bu xizmatimiz uchun tilang tilagingizni, deb so‘raydi, biz o‘ylab-netib o‘tirmay bitta fayton va papa otxonasidan ikkita ot so‘raymiz, shunday qilib, karnavalni faytonda tomosha qilamiz, himmatli Rim aholisi, shubhasiz, Kapitoliyda bizni gultojlarga ko‘mib yuborib, Kursiy va Gorasiy Kokles kabi vatan homiylari deb bizlarni boshlariga ko‘tarishlari turgan gap.

Alberning bu balandparvoz gaplarini eshitib turgan maestro Pastrinining vajohati o‘zgarib ketdi.

– Avvalo, – dedi e‘tiroz bildirib Frans, – to‘pponcha, mushket va qo‘shog‘iz miltiqlarni qaerdan olasiz?

– Menim arsenalimdan emas, albatta, chunki Terrachinedagi oxirgi xanjarimni ham tortib olishdi, xo‘sh, sizdan-chi?

– Mendan ham Akva-Pendentda yarog‘-aslahalarimni shilib olishdi.

– Bilasizmi, marhamatli xo‘jayin, – dedi Alber ikkinchi

²⁴ Albatta (frans.)

sigarani birinchisining cho'g'ida tutatayotib, – demak, bu chora-tadbirlar talonchilar uchun juda qulay bo'пти, chammamda bu ish qaroqchilarning o'zi bilan til birlashtirib qilingan.

Aftidan hazil xo'jayinga xatarli tuyuldi, shekilli, u Fransga murojaat qildi:

– Janob, ma'lumki, kishiga qaroqchilar hujum qilganda, u o'z-o'zini himoya qilishi odat emas-da.

– Nega endi! – xitob qildi Alber. – Talayotganda churq etmay turaver degan fikr bu mard yigitning jazavasini qo'zg'atib yuborgan edi. – Nega odat bo'lmas ekan?.. Nega?

– Chunki qarshilik ko'rsatishning foydasi yo'q. Ariq-zovurlardan, ko'rimsiz kulbalar yoki quvur-tarnovlardan guv etib chiqib, balodayin yopishadigan qaroqchilarga qarshi nima qila olardingiz?

– Astag'firullo! «G'iq» etmay turgandan ko'ra o'lganim yaxshi! – dedi Alber.

Maestro Pastrini Fransga qaradi, uning ko'zlari: «Janob, rostdan ham jo'rangizning aqli joyida emas», deb turardi.

– Azizim Alber, – e'tiroz bildirdi Frans, – juda soz javob qildingiz, buni Kornelning «gu'il mourut»²⁰ ga deng desa bo'ladi, biroq u yerda so'z Rimni himoya qilish ustida boradi, Rim esa himoya qilsa arziydigan shahar. Endi bizga kelganda, so'z faqat bema'ni bir havasni qondirish ustida boryapti, shu injiq havasni deb aziz jondan kechish kulgili bo'lur edi.

– Per Bacco!²¹ – xitob qildi Pastrini. – Mana gap bunday bo'пти!

Alber stakaniga lakrima-kristi quydi-da, ho'plab icha boshladi va nimalar haqidadir ming'irladi.

– Xo'sh, maestro Pastrini, – dedi Frans, – mana og'aynim hovuridan tushdi, mening tinchlikka moyil ekanimga ishonchingiz komil bo'ldi ham, endi haligi sinor Luidji Vampa kim o'zi, aytib bering. U podachimi yoki mansabdorlardanmi? Yoshmi yoki qarimi? Pakanami yoki novchami? Uni bizga to'la tasvirlab bering, olomon o'rtasida.

sida bexosdan uchratib qolsak tanib olaylik.

– Mendan bo‘lak uni hech kim sizga to‘la tasvir etib berolmaydi, chunki men Luidji Vampani bolalik chog‘idan bilaman. Kunlardan bir kuni Ferentinodan Alatriga ketayotib uning qo‘liga tushib qolganimda, xayriyatki, meni tanib qoldi-yu, bo‘shatib yubordi, men uchun to‘lov olish u yoqda tursin, aksincha, chiroyli soat taqdim etdi va o‘z tarixini hikoya qilib berdi.

– Qani, o‘sha soatni ko‘rsating, – dedi Alber.

Pastrini kamzuli cho‘ntagidan masterning nomi va graf toji surati chizilgan hashamli go‘zal soatni olib ko‘rsatdi.

– Mana u.

– O‘h-ho‘, juda ajoyib-ku! – dedi Alber. – Tabriklayman sizni! Tabriklayman. Meniki ham xuddi shunaqa, – u ham kamzuli cho‘ntagidan soatini olib ko‘rsatdi, – uch ming frank to‘lab olganman.

– Endi uning tarixini hikoya qilib bering, – dedi Frans kursini surib, maestro Pastrinini o‘tirishga taklif etib.

– Siz ruxsat etasizmi? – so‘radi xo‘jayin.

– Marhamat qiling, azizim, marhamat qiling, – javob qildi Alber, – o‘tiring, axir siz tikka turib va‘zxonlik qiladiganlardan emassiz-ku!

Xo‘jayin jo‘ralarga bir-bir ta‘zim qildi-da, o‘tirdi. Bu bilan u Luidji Vampa haqidagi hamma ma‘lumotlarni aytib berishga tayyor ekanini tasdiqlagan edi.

– To‘xtang, – dedi Frans endigina gap boshlamoqchi bo‘lib turgan maestro Pastrinini to‘xtatib. – Siz Vampani bolaligidan taniyman dedingiz, demak u hali juda yosh ekan-da.

– U yosh bo‘lsa kerak deyapsizmi? Yosh bo‘lganda qandoq. Bor-yo‘g‘i yigirma ikki yoshda, xolos. Ammo u istiqbolli yigit, ha, xotirjam bo‘ling, kelajakda ko‘p ishlar qiladi.

– Bunisiga nima deysiz, Alber? Yigirma ikki yoshda shuh-

²⁵ Mumkinmi? (ital.)

rat qozonish oson emas-da! – dedi Frans.

– Dunyoda mashhur Aleksandr, Uezar va Napoleon bu yoshda bunchalik muvaffaqiyat qozonmagan edi.

– Demak, – davom ettirdi soʻzini Frans xoʻjayinga murojaat qilib, – hikoyangiz qahramoni endigina yigirma ikki bahorni koʻrgan navqiron yigit ekan-da.

– Ha, xuddi shunday, hali aytdim-ku.

– U novchami yoki pakanami?

– Taxminan janoblaridek, oʻrta boʻyli, – dedi xoʻjayin Alberni koʻrsatib.

– Rahmat, oʻxshatganingiz uchun, – dedi taʼzim qilib Alber.

– Hikoyani boshlang, maestro Pastrini, – dedi Frans joʻrasining tegma nozikligidan kulib. – Jamiyatning qaysi sinfiga mansub u zot?

– Palestrina bilan Gabri koʻli oʻrtasida, graf San-Felichening yerlarida oddiy choʻpon edi. Pampinarda tugʻilib, besh yoshidan grafnikida xizmat qildi. Choʻpon otasining Ananiyada ozgina moli boʻlgan va Rimda qoʻy juni, pishloq sotib tirikchilik qilib kelgan.

Vampaning bolalik chogʻidayoq feʼl-atvori juda gʻalati edi. Kunlarning birida yetti yoshli Vampa Palestrin kashishi yoniga kelib oʻqishga oʻrgatishni soʻragan. Bu niho-yatda qiyin edi, chunki choʻpon bola mollarni tashlab ketolmasdi, shunga qaramay rahmdil kashish kambagʻallarning «Borgo» degan qishlogʻiga borib qorilik qilardi. U Luidjiga meni yoʻlda kutib turasan, shu yoʻl chekkasida oʻtirib dars olasan, dars juda qisqa boʻladi, oʻzing koʻproq harakat qilishingga toʻgʻri keladi, deb tayinlaydi.

Bola shodlanib rozi boʻladi.

Luidji har kuni podasini Palestrinadan Borgoga boradigan yoʻlga haydab boradi. Har kuni ertalab soat toʻqqizda kashish ham shu yerga keladi. Ikkisi zovur labida oʻtirib mashq qilishardi, ana shu yoʻsinda yosh choʻpon savod oʻrganardi.

Uch oyda u oʻqishni oʻrganib oldi.

Biroq bu bilan qanoatlanmadi, u yozishni ham oʻrga-

nishga ahd qildi.

Kashish Rimdagi husnixat o'qituvchisiga uch xil mashq xat buyurdi: birini yirik harflarda, ikkinchisini o'rtacha va uchinchisini mayda harflarda. Bolaga bu xatlarni tosh-taxtaga o'tkir temir bilan qanday qilib ko'chirish kerakligini ko'rsatib berdi.

Shu kuni kechqurun Vampa mollarni qaytarib keliboq, Palestrinadagi chilangar oldiga bordi, katta mixni olib qizdirib tobladi va qadimiy stilosga o'xshagan asbob yasab oldi.

Ikkinchi kuni u toshxatlar yig'ib, ishga tushdi.

Uch oy deganda u yozishni ham o'rganib oldi.

Bolaning zehniga qoyil qolgan va jonining boricha harakat qilayotganidan xursand bo'lgan kashish unga bir necha daftar, bir nechta qalam va qalamtarosh taqdim etdi.

Bola yangi fanni, ammo oldingisidan yengilroq fanni egallashi zarur edi. Bir hafta ichida qalamda yozishni ham juda yaxshi o'rganib oldi.

Kashish bolaning bu iste'dodini graf San-Felichega aytib berdi, graf yosh podachini huzuriga chaqirib o'qittirib va yozdirib ko'rdi, idora boshlig'ini chaqirib, bola xizmatchilar bilan birga ovqatlantirilsin va oyiga ikki piastr maosh tayinlansin, deb buyruq berdi.

Oylikdan tushgan pulga Luidji daftar va qalam sotib olardi.

Taqlid qilish qobiliyati Luidjida nihoyatda kuchli edi, u Jotto singari toshxatlar qo'ylarning rasmini, uylar va daraxtlarning suratini solardi.

Qalamtarosh bilan daraxtlarni yo'nib, ulardan turli narsalar yasay boshladi. Mashhur haykaltarosh Pineli ham ishni shunday boshlagan edi.

Luidjidan kichikroq, endigina olti bahorni o'tkazgan bir qizaloq ham Palestrina yaqinida mol qo'riqlab yurar-

²⁶ Janob fransuzlar (ital.).

di. Bu Valmontonda tug'ilgan Tereza nomli yetim qiz edi.

Kichkintoylar uchrashib turishar, yonma-yon o'tirib olib, gap sotishar edi, mollari esa aralashib ketib o'tlardi. Kechqurun ular graf San-Feliche podasini baron Cherverti podasidan ajratib olib, ertaga ko'rishguncha xayrlashar edilar. Bu qoidani ular hech qachon buzmadilar, xullas, birga o'sdilar.

Luidji o'n ikki yoshga, Tereza o'n bir yoshga kirdi. Shu bilan birga ularning tabiiy mayllari ham rivojlana bordi.

Yakkalikda Luidji imkoni boricha san'at bilan shug'ulandi, uning fe'li notayin edi: u goh sababsiz, g'amgin, goh shiddat-g'ayratli, goho fig'oni chiqib ketar, qaysar, ba'zan hazilkash-masxaraboz bo'lib qolardi. Pampinarda, Palestrinada va Valmontonda biror bola unga ta'sirini o'tkazolmas, hatto u bilan o'rtoqlasholmasdi. U o'zbo-shimcha, talabchan, hech kimga so'z bermasdi, shu sababli bolalar u bilan do'stona munosabatda bo'lolmasdilar. Birgina Tereza bir boqish, bir so'z, birgina imo bilan uni hovuridan tushirib qo'ya olardi. U ayol qo'li ishorasiga g'iq etmay itoat qilardi, erkak qo'li esa kimning qo'li bo'lishidan qat'i nazar, uni sindirsa sindirardi-yu, ammo bukolmasdi.

Tereza, aksincha sho'x, chaqqon, xushchaqchaq, biroq nihoyatda tantiq qiz edi. Ris qo'g'irchoqfurushlaridan mayda-chuyda bezaklar sotib olishga graf San-Felichening ish boshqaruvchisi beradigan ikki piastrni Luidji yasama marvariddan qilingan isirg'alar, shisha marjonlar va oltin to'g'nag'ichlarga sarf qilardi. Yosh do'stining hotamtoyligi tufayli Tereza Ris atrofida eng go'zal va bashang dehqon qizi bo'lib tanildi.

Bolalar kuni bo'yi birga shirin o'y-xayollarga cho'mib o'sib, ulg'ayib boraverishdi. O'zaro suhbat vaqtida, tilakorzular va shirin xayollarda Vampa hamisha o'zini xuddi kema kapitani deb, qo'shinlar sarkardasi yoki birorta vi-loyatning gubernatori deb faraz qilar, Terezani esa kanizaklar qurshovidagi bashang boyvuchcha deb his etardi. Ular butun kunni bo'lg'usi shirin hayotning lazzatlari

to'g'risidagi xom xayollar bilan o'tkazib, kechqurun qayg'uli va hazin borliqqa kirib kelardilar.

Kunlardan bir kuni cho'pon bola graf ish boshqaruvchisiga Sabin tog'laridan bir bo'ri tushib, poda atrofida izg'ib yurganini aytdi. Ish boshqaruvchi unga miltiq berdi. Vampaning niyati qurol olish edi.

Bu Breshiyada juda mohir usta tomonidan yasalgan ingliz karabinidan hecham qolishmaydigan miltiq edi. Biroq bir gal graf o'q yegan tulkinging ajalini oson qilaman deb, miltiqning qo'ndog'ini sindirib qo'ygan edi, shu sababli uni tashlab qo'yishgan edi.

Vampa kabi mohir o'ymakor uchun bu miltiqni tuza-tish hech gap emasdi. U miltiqning eski qo'ndog'ini o'lchab chiqdi, qaerini o'zgartirsa bo'yiga mos kelishini hisoblab oldi, so'ng o'ymakor yangi qo'ndog' yasab, rosa bezadi, mabodo sotmoqchi bo'lganda shaharda faqat guldor yog'ochning o'ziga o'n besh-yigirma piastr to'lashlari turgan gap edi.

Ammo u sotishni xayoliga keltirmasdi, miltiqni bo'lishni ko'pdan buyon orzu qilib yurardi. Mustaqillik erkinlikning o'rnini bosayotgan mamlakatlarning hammasida har qanday jasur kishining har qanday qudratli hamjihatlikning birinchi talabi qurolga ega bo'lishdir, bu qurol hujumda ham, mudofaada ham xizmat qiladi, egasiga bitmas-tuganmas kuch bag'ishlab, boshqalarni u bilan hisoblashishga majbur etadi.

Shu daqiqadan boshlab Vampa bo'sh vaqtlarida otishni mashq qildi, o'q-dori oldi, ko'ringan hamma narsa – Sabin tog'lari yonbag'rida o'sadigan zaytun daraxtining kulrang tani, oqshom paytlarida o'lja qidirib inidan chiqadigan tulki, osmonda parvoz etib yurgan burgut – hammasi Vampa uchun nishonga aylandi. Ko'p o'tmay u juda o'tkir mergan bo'lib qoldi, oldinlari har bir o'q ovo-ziga cho'chib yurgan Tereza ham endilikda yosh do'stining mo'ljalga aniq urayotganini ko'rib zavqlanadigan bo'lib qoldi.

Bir kuni chindan ham ular o'tiradigan joyga yaqin cha-

kalakdan bo'ri yugurib chiqib qoldi. Bo'ri besh qadam bosmay tip etib ag'darildi-da, jon berdi.

Vampa ovi yurishganidan xursand bo'lib, bo'rini yelkasiga tashlab qishloqqa keltirdi.

Mana shu voqea sabab Vampa ma'lum darajada dong chiqardi. Boshqalardan mavqei baland kishi qaerda bo'lmasin, darhol muxlislar orttiradi. Butun okrugda Vampani eng epchil, eng kuchli va qo'rqmas yigit deb ataydigan bo'lib qolishdi. Tereza Sabin qizlaridan eng go'zali bo'lsa-da, hech kim unga muhabbat izhor etishga jur'at etolmasdi, chunki hamma bu jononni Vampa yaxshi ko'rishini bilardi.

Lekin Luidji bilan Tereza muhabbat to'g'risida biror marta so'z ochishgani yo'q edi hali. Ular yer ostida tomirlari, yer ustida shoxlari chirmashib ketgan ikki daraxt kabi yonma-yon unib-o'sishdi, ularning bitta-yu bitta tilagi bor edi, u ham bo'lsa hamisha birga bo'lish, bu tilak bor-bora talabga aylanib ketdi va endilikda bu ikki yosh uchun bir-birini bir kun ko'rmay qolish o'limdan ham og'ir edi.

Tereza o'n oltiga kirdi, Luidji esa o'n yettiga.

Shu vaqtlarda Lepin tog'larida to'plangan qaroqchilar to'g'risida duv-duv gap tarqaldi. Rim atrofidagi qaroqchilarni hech tugatib bo'lmadi. Ba'zan ataman yetishmay qolardi, biroq u paydo bo'lishi bilan uning atrofida darrov shayka yig'ilardi.

Abruss tog'larida iziga tushilgan va to's-to'polonini chiqarib yurgan Nepolitaniyadan quvilgan mashhur Kukumetto, Manfred kabi Garilyanodan oshib o'tib Amazeno qirg'og'ida, Sonnino va Piperno o'rtasida makon topgan edi.

U shayka to'plab olib, Dechezaris va Gasporoni izidan borib ulardan o'tib ketishga harakat qildi. Palestrina, Frascati va Pampinarada bir nechta o'smirlar gumdon bo'ldi. Dastlab ularni rosa axtarishdi, so'ng Kukumetto galasiga qo'shilib ketganini bilib, xotirjam bo'lishdi.

Bir oz vaqt o'tgach, Kukumetto hammaning og'zida

doston bo'lib qoldi. Uning beqiyos jasorati va toshyuraligini hikoya qila boshlashdi.

Bir gal u frozinonlik tanobchining qizini o'g'irlab ketdi. Qaroqchilikning buzib bo'lmaydigan qonuni bor: qiz dastlab o'g'irlaganniki bo'ladi, so'ng qolganlar o'rtaga chek tashlashadi, shundan so'ng sho'rlik qiz to me'daga tekkuncha yoki ajali yetguncha butun shayka qo'lida ermak bo'lib qoladi.

Mabodo ota-onasi boy bo'lsa pul to'lab qizini ajratib olish uchun chopar yuboradi. Asira choparning xavf-xatarsiz bo'lishi uchun boshi bilan javob beradi. Agar pul to'lashmasa, qizning taqdiri hal bo'ladi.

Kukumetto galasida o'g'irlangan qizning ma'shuqi bor ekan, uning nomi Karlini ekan.

Qiz uni ko'rib, najot tilabdi va o'zini qutqarilgan deb bilibdi, biroq qizni tanigan sho'rlik Karlinining yuragi orqasiga tortib ketibdi; qizning holi nima kechishini u bilarkan.

Karlini Kukumettoning sevimli yigiti edi, uch yil barcha xavf-xatarlarni birga kechirishdi, hatto bir gal uning boshiga qilichini ko'tarib turgan karabinerni otib tashlab, Kukumettoni o'limdan qutqarib qolgan edi, shuning uchun Karlini, ataman bizga rahm-shafqat etar deb umid qildi.

Qiz o'rmon yalangligidagi uzun qarag'ay tagida Rim dehqon ayollariniki kabi rangdor durrasi bilan yuzini qaroqchilarning shahvatparast ko'zlaridan bekitib o'tirgan bir paytda Karlini atamanni chetga chaqirib oldi.

Karlini hamma gapni – qizga muhabbatini, vafodor bo'lish haqida ont ichganlarini, shayka bu joylarga kelgan kundan buyon vayronalar orasida diydor ko'rishib yurganlarini aytdi.

Biroq shu oqshom Karlinini qo'shni qishloqqa yuborishdi va shu sababdan u qiz bilan uchrashuvga borolmadi, biroq Kukumetto tasodifan u yerga borib qolib, qizni o'g'irlab keldi.

Karlini atamandan uning uchun istisno qilib Ritaga

shafqat qilishni o'tinib so'radi va uning otasi boy, qizini ajratib olish uchun katta haq to'laydi, dedi.

Kukumetto do'stining iltimosini bajarishga go'yo tayyorman degandek bo'ldi-da, Karliniga Frozinonga, Ritaning otasi oldiga yuborsa bo'ladigan bir podachi topishni topshirdi.

Karlini quvonib qizning oldiga yugurib bordi-da, sen xalos bo'lding, dedi va undan otasiga xat yozib, bo'lgan voqeani aytishni, bo'shatib yuborish uchun uch yuz pi- astr pul talab qilayotganlarini xabar etishni so'radi.

Otasiga ikkinchi kun ertalab soat to'qqizgacha – o'n ikki soat muddat berishdi.

Karlini xatni olib chopar qidirib vodiya yugurdi.

Hovliga podasini haydab kirayotgan yosh podachini topdi. Shahar bilan tog'lar o'rtasida vahshiy hayot bilan madaniy hayot o'rtasidagi chegarada yashovchi podachi odatda qaroqchilarning chopari rolini o'ynardi.

Podachi bola bir soatdayoq Frozinonga yetib borishga va'da berib jo'nadi.

Karlini bu quvonchli xabarni sevgilisiga yetkazish uchun qiz qoshiga yugurdi.

Shayka maydonda ovqat ustida qah-qahlashib o'tirgan edi. Ular o'lpon tariqasida qishloqilardan yig'ib olinadigan yemakliklarni rosa «changini chiqarib» urayotgan edi. Ammo ular orasida Kukumetto bilan Rita ko'rinmasdi.

Karlini, ular qaerda, deb so'radi. Banditlar bunga javoban qah-qah otib kulib yuborishdi. Karlinini qora ter bosdi, sochlari tik bo'ldi.

U savolini takrorladi. O'tirganlardan biri stakanga to'ldirib vino quydi-da, unga uzatdi.

«Jasur Kukumetto va go'zal Ritaning sog'ligi uchun!»

Shu on Karlini ayolning fig'onli ovozi eshitdi, hamma gapni fahmladi. Stakanni olib, uzatganning yuziga irg'itdi-da, ovoz chiqqan tomonga otildi.

Yuz qadamcha yugurib borib, buta tagida behush Ritani quchoqlab yotgan Kukumettoni ko'rди.

Kukumetto Karlinini ko'rib o'rnidan turdi-da, ikki to'pponchani o'qtaldi.

Qaroqchilar bir-biriga qarab olishdi: birining qarashida shahvoniy suq, ikkinchisidikida vahima mavj urib turardi.

Bu odamlar o'rtasida hozir qirg'in bo'ladi deb o'ylash mumkin edi. Ammo Karlini asta-sekin jahlidan tushdi-yu, to'pponcha ushlagan qo'li osilib tushdi.

Rita ikkisining o'rtasida yerda behush yotardi.

Shu manzaraga oy nuri tushdi.

«Xo'sh, nima bo'ldi? – dedi Kukumetto, – topshirig'imni bajardingmi?»

«Bajardim, ataman, – javob qildi Karlini, – ertalab soat to'qqizda Ritaning otasi pulni shu yerga olib keladi».

«Juda soz. Ungacha biz, tunni aysh-ishratda o'tkazamiz. Bu juda jonon qiz, sening diding durust ekan, Karlini. Bilasanki, men xudbinlardan emasman, hozir o'rtoqlarimiz qoshiga boramiz-da, chek tashlaymiz, chek kimga chiqsa, qiz o'shaniki bo'ladi».

«Demak, bunga ham odatdagi tartib-qoidani ishlatmoqchi bo'libsiz-da?» so'radi Karlini.

«Nega endi bu qoidadan mustasno bo'lishi kerak?»

«Mening iltimosimni hisobga olursiz deb o'ylagandim...»

«Nima, sening shoxing bormi?»

«Siz haqlisiz».

«Lekin xotirjam bo'l, – dedi kulib Kukumetto, – senga ham navbat kelib qoladi».

Karlini tishini-tishiga shunday qattiq bosdiki, qarsillab ketdi.

«Xo'sh, ketdikmi?» dedi Kukumetto o'rtoqlari tomon qadam tashlayotib.

«Ketingizdan boraman».

Kukumetto jo'nadi, ammo orqamdan hamla qilmasin tag'in, deb orqasiga qaradi. Biroq yosh qaroqchining vazohatida dushmanlikdan zarracha belgi sezilmasdi. U hamon behush yotgan Rita tepasida qo'llarini qovushti-

rib turardi.

Karlini qizni olib qocharmikin-a, degan fikr Kukumetoning xayolidan o'tdi. Ammo bundan endi u tashvishlanmasdi, chunki Ritadan keragini olib bo'lgan edi. Uch yuz piastr masalasiga kelganda, butun shaykaga taqsim etilsa, arzimagan pul tegishini bilib, e'tibor ham bermadi.

Kukumetto jo'ralar tomon boraverdi. Karlini u bilan deyarli bir vaqtda yetib kelganini ko'rib ataman taajjublandi.

«Chek! Chek!» qichqirishdi qaroqchilar atamanni ko'rib.

Hammasining ko'zi hirs bilan yonib turardi, gulxanning qizg'ish shu'lasidan iblisga o'xshab ketardi bu maxluqlar.

Ularning talabi haqli edi, shuning uchun ataman rozilik bildirib, boshi bilan imo qildi. Kishilarning, shu jumladan, Karlinining ham nomi yozilgan xatlarni shlyapaga solishdi, hamma shlyapadan xat oldi.

Bu xatda Dyavolachchoning nomi yozilgan edi.

Bu boya Karlinig atamanning sog'ligi uchun qadah ko'tarishni taklif qilgan va uning basharasiga Karlini stakan bilan urgan qaroqchi edi. Chakkasidan iyagiga cho'zilgan yaradan hamon qon oqib turardi.

Nomini o'qiganlarida Dyavolachcho qattiq kulib yubordi.

«Ataman, – dedi u, – Karlini ham sizning sog'ligingiz uchun ichsin endi, iltimos qiling unga, ehtimol, u sizning iltimosingizni iltifot qilib bajo keltirar».

Hamma Karlinining jazavasi qo'zib ketadi deb kutgan edi. Biroq aksincha, bir qo'lga stakan, ikkinchi qo'lga flyagani olib vino quydi, hamma hayron edi.

«Sening sog'liging uchun, Dyavolachcho», – dedi u xotirjam.

U qo'li sirayam qaltiramay, stakanni ko'tardi-da, vino ni ichib yubordi. So'ng gulxan oldiga cho'kib, dedi: «Mening ovqatimni bering! Yugurib-elib, och qoldim».

«Yashasin Karlini!» qichqirib yuborishdi qaroqchilar.

«Mana, o'ртоqchilik degan bunaqa bo'пти!»

So'ng hamma gulxan atrofiga cho'kdi. Dyavolachcho ketdi.

Karlini hech narsa bo'lmagandek, bemalol ovqatni yeb, ichib o'tiraverdi.

Qaroqchilar uning bunchalik beparvoligiga tushunolmay hayron o'tirgan edilar, birdan og'ir-og'ir qadam tovushlari eshitildi orqadan...

Hamma yalt etib orqaga qaradi: Dyavolachcho ikki qo'lida asirani ko'tarib kelayotgan edi. Zaifaning boshi shilq etib tushgan, sochlari yerga tegay-tegay deb kelyapti.

U gulxanga yaqinlashgan sari qizning murda kabi chehrasi va qaroqchining bo'zargan yuzi tobora ravshanroq ko'rinaverdi.

Bexosdan yuz bergan dahshatli va dabdabali bu voqea shaykani hayajonga soldi, hamma o'rnidan turib ketdi, faqat Karlini hech nimadan bexabardek, bamaylixotir ichib, ovqatini yega berdi.

Dyavolachcho og'ir sukunat ostida yaqinlashib kela-verdi, axiri Ritani atamanning oyog'iga qo'ydi.

Shundagina hamma Karlinining rangi dokadek oqarib ketganining boisi nimada ekanini bildi: qizning chap ko'ksi ostidan pichoq sopi ko'rinib turardi.

Hamma birdan Karliniga qaradi: uning kamaridagi pichoq qini bo'sh edi.

«E-e, – dedi ataman, – Karlini shuning uchun u yerda qolgan ekan-da».

Vahshiy tabiatli kishilar jasorat bilan qilingan ishga baho berishga tanti bo'ladi. Qaroqchilardan biron-tasi ehtimol Karlini qilgan ishni qilmagan bo'lur edi, shunday bo'lsa-da, ular o'rtog'ining qilmishini qoralamadi.

Karlini o'rnidan turib, murda oldiga bordi-da, to'pponchasing dastasini tutib dedi: «Qani, endi bu ayolga mendan boshqa ega bo'laman degan zot bormi?»

«Yo'q, – dedi ataman, – u endi o'zingga buyursin!»

Karlini qizning jasadini dast ko'tarib oldi-da, gulxan yoritib turgan davradan chiqib ketdi.

Kukumetto odatdagidek atrofga soqchilar qo'ydi, qaroqchilar esa plashlariga o'ralib gulxan yonida yotishdi.

Yarim kechada soqchilar bong urishdi, ataman ham, qaroqchilar ham darhol o'rinlaridan turishdi.

Hammani g'ulg'ulaga solgan Ritaning otasi ekan. U qizini ajratib olish uchun pul keltiribdi.

«Mana ol, – dedi u atamanga, bir qopchada kumush uzatib. – Uch yuz piastr. Qizimni ber».

Ataman pulni olmadi, bu yoqqa yur orqamdan, deb imo qildi. Chol itoat etdi. Ular yaproqlari orasidan oy mo'ralab turgan daraxtzor orqasiga o'tishdi. Kukumetto to'xtab, cholga ikki gavdani ko'rsatdi.

«Ana, qizingni Karlinidan talab qil, hammasiga shu javob beradi».

Shunday dedi-da, o'rtoqlari qoshiga qaytdi.

Chol boshiga nihoyatda og'ir kulfat tushganini sezib, turgan joyida qotib qoldi. Nihoyat o'rnidan qo'zg'alib daraxt tagida nima yuz berayotganini bilmoq uchun olg'a bir necha qadam tashladi.

Karlini oyoq tovushini eshitib boshini ko'tardi, ikki kishining gavdasi cholning ko'zlariga yaqqolroq ko'rina boshladi.

Erda ayol yotibdi, boshi uning ustiga egilib o'tirgan erkakning tizzasida edi, erkak boshini ko'targach, ayolning kallasi ko'rindi. Erkak uni ko'ksiga bosib olgan edi.

Chol qizini, Karlini esa cholni tanidi.

«Men seni kutib o'tirgandim», dedi qaroqchi Ritaning otasiga.

«Ablah! – xitob qildi chol. – Bu nima qilganing?»

Ko'kragiga pichoq sanchilgan, qonga bo'yalib qimir etmay yotgan qizini ko'rib kayfi uchib ketdi cholning. Oy nuri uning gavdasiga g'ira-shira yog'du tashlab turardi.

«Kukumetto qizingning nomusini barbod etdi, – dedi Karlini, – men uni sevardim va shuning uchun o'ldirib qo'ya qoldim. Shunday qilmasam Kukumettodan keyin mahbubam butun shaykaning qo'lida ermak bo'lib

qolardi».

Chol un chiqarmadi, biroq arvothga o'xshab oqarib ketdi.

«Men aybdor bo'lsam, – dedi Karlini, – qizing uchun qasd ol mendan».

U qizchanning ko'ragidan pichoqni sug'urib oldi-da, cholga uzatdi, ikkinchi qo'li bilan ko'ragini ochdi.

«Yaxshi qilibsan, – dedi chol bo'g'iq ovozd, – meni quch, o'g'lim!»

Karlini ho'ngrab yig'lagan cha sevgilisining otasi qucho'g'iga o'zini otdi. Bu qo'li odam qoniga bo'yalgan kishining hayotida birinchi yig'lashi edi.

«Kel endi, – dedi chol, – qizimni dafn etishga yordam qil».

Karlini ikkita belkurak keltirdi, chol qizining mahbubi bilan birga eman daraxti tagidan qabr qaziy boshladi.

Qabr qazilib bitdi, dastlab ota, undan so'ng mahbub qatl etilgan marhumani o'pdi, keyin birisi oyog'idan, ikkinchisi yelkasidan ko'tarib, qabrga asta tushirishdi.

Keyin ikkovi qabr chetiga cho'kka tushib, marhuma haqiga duo o'qishdi va qabrni ko'mishdi.

Chol Karlinig qo'lini cho'zdi.

«Sendan ko'p minnatdorman, o'g'lim, – dedi u, – endi bor, meni o'z holimga qo'y, yolg'iz qoldir».

«Nega endi...» – dedi Karlini.

«Ketaver meni qoldirib, ha, yolg'iz o'tirmoqchiman qizim qabrida».

Karlini xo'p, deb o'rtoqlari qoshiga keldi-da, plashiga o'ralib yotdi, sal o'tmay jo'ralari kabi qattiq uyquga ketdi.

Kechayoq qarorgohni o'zgartirishga qaror qilishgan edi.

Tong yorishuviga bir soat qolganda Kukumetto shaykasini uyg'otdi va yo'lga chiqilsin deb buyruq berdi.

Ammo Karlini Ritaning otasining holidan xabar olmay, o'rmondan ketishni istamadi.

U kecha xayrlashgan joyga bordi.

Chol qizi qabriga soya tashlagan eman shoxiga o'zini osib qo'ygan edi.

Otasining jasad va qizining qabri oldida Karlini tiz cho'kib, ikkovingiz uchun qasos olaman, deb ont ichdi.

Ammo u ontini bajarishga ulgurilmadi, ikki kun o'tgach, Rim karabinerlari bilan bo'lgan to'qnashuvda halok bo'ldi. U dushman bilan betma-bet turgan bo'lsa-da, nechundir yelkasidan o'q yeb yer tishlaganiga hamma taajublanib qoldi.

Lekin qaroqchilardan biri Karlini yiqilgan paytda Kukumetto uning orqasida o'n qadamcha joyda turganini aytganda, bu voqeadan hech kim shubhalanmay qo'ya qoldi.

Qaroqchilar galasi Frozinon o'rmonini tashlab chiqqan o'sha tong paytida Kukumetto qorong'ilikdan foydalanib Karlini ketidan poylab kelgan va uning ontini eshitgan edi, bu ehtiyotkor ataman chaqqonlik qilib, Karlinining kunini kalta qilib qo'ya qoldi.

Bu battol atamanning bundan boshqa ham tang qoladigan qilmishlarini hamma yerda hikoya qilishardi.

Shu sababli hamma Fondidan to Perujiga borguncha Kukumettodan qo'rqib, jonini hovuchlab yurdi.

Shu hikoyalarni Luidji bilan Tereza ham eshlashardi.

Terezani vahima bosib titrar, Vampa esa mo'ljalga aniq uradigan miltiq'ini silab, qizni tinchlantirardi, shunda ham yupanmasa, qizga yuz qadamcha naridagi quruq shoxda qo'nib turgan quzg'unni ko'rsatib, mo'ljalga olar va tepkini bosardi, qush tap etib yiqilib til tortmay o'lardi.

Vaqt esa juda tezlik bilan o'tib borardi, Luidjining yoshi yigirmaga, Tereza esa o'n to'qqizga kirganda oila qurishga qaror qilishdi.

Ikkisi ham yetim edi, shuning uchun nikohga faqat xo'jayindan ruxsat olishlari lozim edi, unga murojaat qilib ruxsat olishdi.

Kunlarning birida ikki yosh istiqbol haqida shirin xayollarga cho'mib o'tirgan payt, to'satdan o'qlar ovozi eshittiladi, so'ng yon-atrofdagi daraxtzordan bir odam chiqib, ular tomonga yugurdi va yaqinroq kelib, qichqirdi: «Meni quvib kelishyapti! Yashiring meni!»

Yoshlar bu qaroqchi ekanini darhol fahmlab olishdi, biroq Rim dehqoni bilan Rim qaroqchisi o'rtasida azaldan qolib kelayotgan qoida bor: birinchisi albatta ikkinchisiga hamisha yordam berishga tayyor turadi.

Vampa churq etmay yugurib borib, g'or og'zini bekita-digan toshni ag'darib tashladi-da, qochoqni ichkariga – hech kim bilmaydigan pastqam joyga kiritib bekitdi va yana qaytib kelib Tereza yoniga o'tirdi.

Shu zahotiy oq to'rt otliq karabiner daraxtzor oldidagi maydonda paydo bo'lishdi. Uchtasi qochoqni axtarar, to'rtinchisi esa qo'lga tushgan qaroqchini sudrab kelardi.

Karabinerlar tezda atrofga nazar tashlab, yoshlarni ko'rib qolishdi va otlarini yo'rttirib yelishdi-da, so'rab-suriqtira boshlashdi.

Ular hech kimni ko'rganimiz yo'q deyishdi.

«Attang, – dedi patrul boshlig'i, – biz qidirayotgan odam – ataman edi».

«Kukumettommi?» – beixtiyor qichqirib yubordi Luidji bilan Tereza.

«Ha, xuddi o'sha, – javob qildi boshliq, – uning kallasi-ga bir ming rim skudosi mukofot beriladi, agar siz uni tutishda bizga ko'maklashsangiz, besh yuzini olasiz».

Yoshlar bir-birlariga qarab olishdi. Karabiner, bular bi-ror narsa bilsa kerak degan fikrni ko'nglidan o'tkazdi. Besh yuz rim skudosi uch ming frankka teng, uch ming frank esa uylanmoqchi bo'layotgan ikkala yetim uchun juda katta davlat.

«Attang, – javob qildi Vampa, – afsuski, biz uni ko'rganimiz yo'q».

Karabinerlar turli tomonga ot choptirishdi, lekin uni topisholmadi.

So'ngra birin-ketin ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

Shundan keyin Vampa toshni ag'darib g'orni ochdi, uning ichidan Kukumetto chiqdi.

Kukumetto xarsang tosh tirqishidan mo'ralab, karabi-nerlar bilan yoshlar qanday tarzda gaplashganlarini, ular-

ning vajohatidan uni tutib bermaslikka qat'iy qaror qilishganini fahmlab olgandi. U cho'ntagidan oltin to'la hamyonini chiqarib yoshlarga uzatdi.

Vampa gerdayib oltindan bosh tortdi, biroq Tereza bu oltinga qanchadan-qancha qimmatbaho buyumlar va kiyim-kechaklar olsa bo'ladi-ya, deb o'ylab, ko'zlari chaqnadi.

Kukumetto iblisning xuddi o'zi, qaroqchi qiyofasidagi ilon edi. U Terezaning nigohini ko'rib qoldi, uning haqiqiy parizod ekanini angladi va xaloskorlari bilan xayrlashayotgan bo'lib, orqasiga o'girila-o'girila daraxtzorda g'oyib bo'ldi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Shu vaqt ichida Kukumetto ko'rinish bermadi va undan hech qanday darak ham bo'lmadi.

Karnaval vaqti yaqinlashmoqda edi. Graf San-Feliche katta dabdabali kostyumli bal-bazm tashkil etishga qaror qildi. Balga Rimning eng shukuhli, eng soz jamoasi taklif etildi.

Tereza bu balni tomosha qilish ishtiyoqi bilan yonardi. Luidji ish boshqaruvchidan balni Tereza bilan birga xizmatchilar orasida o'ralashib yurib bo'lsa-da, ko'rishga ruxsat so'radi.

Graf esa bu bazmi jamshidni sevimli qizi Karmelani xursand qilish uchun o'tkazayotgan edi.

Karmela Tereza bilan tengdosh, bo'y-basti ham baravar edi. Tereza husnu latofatda graf qizidan aslo qolishmasdi.

Bazmu jamshidga Tereza eng xushbichim, go'zal kiyimlarini kiyib, eng qimmatbaho to'g'nag'ichlarini qadab, bo'yniga cho'g'day yonib turadigan marjonlarini taqib keldi. U Fraskata dehqon ayollarining kiyimida edi.

Luidji esa Toskan qishloqlaridagi kishilar sayillarda kiyadigan rango-rang kiyim-boshda keldi.

Ikkalasi, boyagi shartga muvofiq xizmatkorlar va dehqonlar orasiga sho'ng'ib ketishdi.

Bal-bazm juda dabdabali bo'ldi. Faqat grafning uyigi-

na emas, hatto bog'dagi hamma daraxtlarda yuzlab chi-roqlar yonib turardi. Shuning uchun ham son-sanoqsiz mehmonlar boy jihozli xonalardan ayvonlarga, ayvonlardan bog' xiyobonlariga o'zini urardi.

Barcha muyulishlarda musiqa yangrar, hamma yerda shirinliklar va vinolarga to'la stollar qo'yilgan edi. Sayr-chilar istagan joyda juft-juft bo'lishib raqsga tushar, ko'ngil ochishardi.

Karmela esa Sonino qishlog'i dehqonlari kiyimini kiyib chiqqan edi. Qalpoqchasiga marvarid donalaridan gul tikilgan, oltin to'g'nag'ichlarida olmoslar yonib turar, yirik-yirik guldor turk shoyi belbog'i xipcha belini siqib turardi, ko'ylagi va yubkasi kashmirdan, fartugi hind muslinidan tikilgan, tugma o'rniga qimmatbaho toshlar qadal-gan edi.

Uning ikki dugonasi – biri Nettuno qishlog'i, ikkinchisi Richchia qishlog'i aholisining kiyimini kiyib kelgandi.

Rimning eng badavlat va dongdor oilasidan to'rt yigit hech tengi yo'q italyancha erkinlik bilan qizlarga hamroh bo'lib kuzatib yurishardi. Bu yigitlar A'bano, Vallettri, Chivita-Kastellana va Sora ham qishloqchasiga kiyinib olishgan edi.

Erkaklarning kiyimlarida ham oltin va qimmatbaho toshlar yarqirab yonib turardi.

Karmela bir xil kiyim kiyganlar juft-juft bo'lib raqsga tushishsin deb istak bildirdi, biroq to'rtinchi ayol kamlik qilayotgan edi.

Karmela atrofda to'planib turganlarni sinchiklab ko'zdan kechirib chiqdi, mehmonlardan birontasi ularni-kiga mos keladigan kiyim kiyib kelmagan edi.

Graf San-Felicha qiziga dehqonlar o'rtasida Luidjining qo'liga suyanib turgan Terezani ko'rsatdi.

«Ruxsat qilasizmi, dada?» – so'radi Karmela.

«Albatta, – javob qildi graf, – axir karnaval-ku!»

²⁷ Dide – V.Gyugoning «Mariya de Lorm» dramasi-dagi qahramon

Karmela yonidagi yigitiga engashib asta bir necha soʻz aytdi-da, yosh qizni koʻrsatdi. Yigit nozik qoʻllar uzatilgan tomonga qarab turdi-da, itoatkorona taʼzim etib, graf qizi istagini bajo keltirish uchun Tereza tomonga joʻnadi.

Taklifni eshitib Tereza qizarib ketdi. U Luidjiga qaradi: rad etishning iloji yoʻq edi. Luidji jononining qoʻlini asta boʻshatdi. Tereza esa butun vujudini titroq bosib olifta yigit bilan birga bordi-da, kazo-kazolar qatoridan joy oldi.

Rassomga Terezaning bichimi qomatiga oʻtirgan oddiy kiyimi Karmela va uning dugonalarinikidan koʻproq yoqqan boʻlur edi, biroq Tereza yengiltak va tantiq qiz edi. Boyvuchcha qizlardagi guldor harir hind dokasi, turkcha guldor kamar, dabdabali kashmir koʻylagi va yubkasi uning koʻzlarini oʻynatib yubordi, qimmatbaho toshlarni koʻrib es-hushini yoʻqotib qoʻydi.

Luidjida ham yangi, favqulodda bir tuygʻu paydo boʻldi-da, diliga ozor berib, qon tomirlaridan oʻtib borib, butun vujudini qopladi. U Tereza bilan yigitning har bir harakatini koʻz ostiga olib turdi, ular qoʻl ushlashganda Luidjining boshi aylanib, qoni qaynab ketdi, quloqlari ostida butxonaning qoʻngʻirogʻi chalingandek boʻldi. Ular gaplashayotganda va Tereza yigitning soʻzlarini boshini quyi solib tinglayotganda, Luidji yigit yuzidan Terezani rosa maqtayotganini sezib turdi. Ana shunda Luidjiga oyogʻi ostidagi yer oʻpirilib ketayotgandek, ins-jinslar oʻlim va oʻldirish toʻgʻrisida qulogʻiga shivirlayotgandek tuyuldi. Shaytonga hay berish uchun u bir qoʻli bilan devorni mahkam tutib, ikkinchi qoʻli bilan kamariga suqib qoʻygan xanjarining sopini siqib oldi.

Luidjining vujudi rashk oʻtida yonardi! U tantiq va iz-zat-nafs quli Terezadan ajralib qolmayin tagʻin deb, vahimaga tushgan edi.

Boshda iymanib, hayiqib turgan Tereza endilikda tezda oʻzini oʻnglab oldi. U nihoyatda goʻzal qizligini yuqorida aytgan edik. Terezaning tavsifiga bu kamlik qilardi. Uning tabiiy beqiyos nazokati oqsuyak oyimchalarimizning yasama noz-karashmali jilvalaridan ming karra jozi-

bador edi.

Tereza raqsning malikasi bo'lib qoldi, agarda u graf San-Feliche qiziga hasad qilayotgan bo'lsa, Karmela ham unga rashk qilmayapti deb aytoilmaymiz.

O'yin tugagach, maqtov so'zlarini to'qib sochayotgan olifta yigit Terezani Luidji kutib turgan joygacha kuzatib qo'ydi.

Tereza o'yin vaqtida bir necha marta Luidjiga qaragan va uning bo'zargan g'amgin yuzlarini ko'rgan edi. Bir gal dahshatli xanjarning tig'i ham qizning ko'z o'ngidan yalt etib o'tgan edi.

Tereza titrab turgan qo'li bilan mahbubini qo'ltiqlab oldi.

O'yin juda muvaffaqiyatli bo'ldi, hamma mehmonlar uni yana qaytarishni iltimos qilishdi. Faqat Karmela yo'q deb turib oldi, ammo graf San-Feliche juda o'tinib so'ragach, qizi xo'p deyishga majbur bo'ldi.

Yigitlardan biri darhol Terezani taklif qilish uchun yugurdi, chunki usiz o'yin qizimasdi, ammo Tereza g'oyib bo'lgandi.

Luidji ikkinchi safar chidab turolmasligini sezib, Terezani bog'ning boshqa bir chekkasiga ketishga zo'r-bazo'r ko'ndirgan edi. Tereza xohishsiz xo'p dedi. U Luidjining vajohati o'zgarganidan, damini chiqarmay turganidan va qo'llari qaltirab ketayotganidan kayfi buzuvchiligini fahmlagan edi. Terezaning o'zi ham hayajonda edi, garchi u biror xunuk ish qilmagan bo'lsa-da, Luidjining o'pkalashga haqi bor deb hisoblardi, nima uchunligini bilmasa hamki, shunday ta'naga loyiqman, deb o'ylardi.

Ammo Luidji Terezani hayratga solib kechaning oxirigacha negadir indamadi, birorta ham so'z aytmadi. Mehmonlar kechki sovuqdan qochib ichkari xonalarga kirgandagina Luidji Terezani uyiga kuzatib qo'yib, quyidagi so'zlarni aytdi:

«Tereza, graf qizi qarshisida o'yinga tushayotganingda nimalarni o'ylagan eding?»

«Men, – dedi rostini aytib qiz, – uning sarposi uchun

jonimni berardim, deb o'yladim».

«Anovi yigit nimalar dedi senga?»

«Bunday sarpoga ega bo'lish o'zingizga bog'liq, buning uchun birgina so'z aysangiz kifoya, – dedi».

«U juda haq gapni aytibdi, – dedi Luidji. – Demak, sen shunday sarpoli bo'lishni orzu qilasanmi?»

«Ha».

«Bu orzung ushaladi, albatta!»

Tereza taajjulanib boshini ko'tardi va savol bermoqchi bo'ldi, biroq yigitning avzoyi buzuqligini ko'rib indamay qo'ya qoldi.

Shundan so'ng Luidji darrov ketdi. Tereza uning ketidan qarab qoldi. U qorong'ida ko'zdan g'oyib bo'lgach, Tereza xo'rsindi-da, uyiga kirib ketdi.

Shu kecha falokat yuz berdi: xizmatkorlar ehtiyotsizlik qilib chiroqlarni o'chirmagan ekanlar, shekilli, San-Feliche uyida go'zal Karmela xonasi joylashgan binoga o't tushdi. Yarim kechada uyg'onib ketgan qiz alanga ko'tarilayotganini ko'rib irg'ib to'shakdan turdi-da, xalatini yelkasiga tashlab, eshikka yugurdi. Ammo u chiqadigan dahlizni o't olgan edi. Karmela xonasiga qaytib keldi-da, «Qutqaring», deb ovozing boricha qichqirdi. Shu payt yerdan yigirma fut balandlikdagi deraza birdan lang ochilib ketdi, xonaga bir dehqon yigit irg'ib tushdi va Karmelani dast ko'tarib, beqiyos kuch va epchillik bilan hovliga olib chiqdi. Karmela hushidan ketgan edi. U hushiga kelganda tepasida otasi o'tirgandi. Atrofdagi xizmatkorlar yugurib, unga yordam bermoqchi bo'lardi. Bino batamom kuyib kul bo'lgan, biroq hech kim buni o'ylamas, hamma Karmela tirik va sog' bo'lsa bas, derdi.

Uning xaloskorini rosa axtarishdi, biroq u ko'rinish bermadi. So'rab-surishtirishmagan odam qolmadi, ammo hech kim ko'rdim demadi. O'sha paytda qattiq hayajonga tushgan Karmela ham uni tanib olmagan edi.

Graf nihoyatda badavlat odam edi, Karmelaning xavf-ga tushganini hisobga olmaganda, yong'indan kelgan zarar uning xo'jaligiga jindek ham putur yetkazolmasdi,

qizimning salomat qolishi Xudoning yana bir marhamati bo'ldi deb quvonardi graf.

Ertasi kuni Tereza bilan Luidji odatdagidek o'rmondagi maydonchada uchrashishdi. Luidji oldinroq kelib, Terezani quvonch bilan kutib oldi. U kechagi gaplarni bata-mom unutib yuborganga o'xshab ko'rinardi. Tereza o'ychan edi, lekin Luidjini shod va beg'am ko'rib, qiz ham shodlanib ketdi, aslida bu qiz, biror orzu-tilak shaydosi, bo'lmasa, hamisha sho'x, shod bo'lib yuraverardi.

Luidji uni qo'ltiqqlab oldi va g'or oldiga borib, to'xtadi. Qiz favqulodda bir hol yuz berayotganini fahmlab yigitga ko'zlarini tikdi.

«Tereza, – dedi Luidji, – kecha sen, graf qizining sarposi menda bo'lsa, dunyodagi hamma narsadan voz kechardim, degan edingmi?»

«Ha, – dedi ajablanib Tereza, – ammo bu istak yengiltaklikdan edi».

«Men esa senga, shunday sarpoga ega bo'lasan, degan edim».

«To'g'ri-yu, – dedi e'tiroz bildirib Tereza, tobora taajjublanib, – sen shunchaki mening izzat-nafsimni qondirish uchun shunday deb qo'ya qolgan eding-da».

«Tereza, men senga behudaga va'da berganim yo'q, – dedi gerdayib Luidji. – G'orga kirib kiyinib ol».

Shunday dedi-yu, toshni nari surib qo'ydi va ajoyib toshoynaning ikki chetiga yoqib qo'yilgan sham yoritib turgan g'orni ko'rsatdi. Luidjining o'zi yasagan beso'naqay stolda marvarid-marjonlar va brilliant to'g'nag'ichlar turardi. Stul ustida boshqa hamma sarpolar muhayyo edi.

Tereza quvonchdan qichqirib yubordi, sarpo qaerdan kelganini surishtirmay va Luidjiga rahmat aytishni ham unutib g'orga otildi.

Luidji g'or og'zini darrov boyagi tosh bilan bekitdi, chunki Palestrina tomonni to'sib turgan baland tepaning

(1931), Antoni – A.Dyumaning shu nomdagi dramasi qahramoni

qoq ustida bir otliq ko'ringan va u to'xtab yo'l axtarayotgandek bo'lardi. Otliq ko'm-ko'k osmon fonida ko'zga juda yaqqol tashlanib turardi.

Otliq Luidjini ko'rib otini yo'rttirdi-da, uning oldiga keldi.

Chindan ham otliq Palestrinadan Tivoliga borayotib, yo'ldan adashgan ekan.

Luidji unga yo'l ko'rsatdi, biroq nariroqda yo'l yana har tomonga burilib ketgani sababli, otliq tag'in adashib yurmayin deb, Luidjidan o'sha chorsigacha kuzatib qo'yishni iltimos qildi.

Luidji plashini yechib qo'ydi, miltig'ini yelkasiga osdi va tez yurishda otdan qolishmaydigan tog'liklar kabi otliq yonida chopqillab ketdi.

O'n daqiqa deganda Luidji va otliq chorsiga kelishdi. Luidji viqor bilan qo'lini uzatib uch tomonga ketgan yo'ldan qaysinisiga yurish kerakligini otliqqa ko'rsatdi:

«Siz boradigan yo'l mana bu, – dedi u. – Janoblari endi adashmay boraveradilar».

«Mana bu senga xizmat haqing», dedi otliq yosh cho'ponga bir necha mayda chaqa uzatib.

«Rahmat, – dedi Luidji qo'lini tortib, – men xizmat qilishga qilamanu biroq uni sotmayman».

Qishloq aholisining g'ururi shahar fuqarosining xushomadgo'yligidan qanchalik farq qilishini yaxshi tushunadigan otliq:

«Haq olmas ekansan, ehtimol, hadya qilsam olarsan?» – dedi.

«Bu boshqa gap!»

«Mana, bu ikkita venesiya oltin tangasini olgin-da, qaylig'ingga isirg'a yasatib ber».

«Siz mana bu xanjarni oling, – dedi yosh cho'pon, – Albanodan to Chivita-Kastellanagacha axtarganda ham bunaqa go'zal sopli xanjarni topolmaysiz».

«Hadyangni qabul qilaman, – dedi otliq, – biroq endi men sendan qarzdor bo'lib qoldim, axir bu xanjar ikkala tangadan qimmat turadi-ku».

«To'g'ri, uni sotib olsangiz juda qimmatga olasiz, biroq buni men o'zim yasab oldim, u o'zimga bir piastrga tushdi».

«Oting nima?» – so'radi otliq.

«Luidji Vampa, – javob qildi cho'pon, go'yo men Aleksandr Makedonskiy degandek gerdayib. – Sizning ismingiz-chi?»

«Mening otim Sindbod-Dengiz sayyohi», javob qildi otliq.

Hikoya shu yerga kelganda Frans d'Epine hayron bo'lib qichqirib yubordi:

– Sindbod-Dengiz sayyohi dedingizmi?

– Ha, – dedi hikoyachi, – shunday deb atadi o'zini otliq.

– Xo'sh, nima bo'ldi? Bu nom nega sizga yoqmay qoldi? – so'z qotdi Alber. – Juda ajoyib, go'zal nom. Ochig'ini aytсам, bir vaqtlar haqiqiy Sindbodning sarguzashtlari meni juda maftun etgan edi.

Frans boshqa un chiqarmadi. Ma'lum sabablarga binonan Sindbod-Dengiz sayyohining ismi ko'p voqealarni xotiraga keltirdi.

– Hikoyangizni davom ettiravering, – dedi u mehmonxona xo'jayiniga.

– Vampa ikki tangani mensimay cho'ntagiga soldi-da, orqasiga qaytdi. G'orga uch yuz qadam qolganda u kimningdir qichqirig'ini eshitdi.

U qulog'ini ding qilib, turgan joyida qotib qoldi.

Bir daqiqadan so'ng uning nomini aytib qichqirayotganlarini eshitdi. Bu tovush g'or tomondan kelayotgan edi.

U tog' echkisiidek uchib ikki sakrashda tepalik ustiga yetdi. Tovush bu yerdan aniqroq eshitildi.

U pastga qaradi, qandaydir erkak, xuddi kentavr Deyanirani olib qochganday, Terezani o'g'irlab qochayotgan edi.

O'g'ri o'rmonga chopib borib qolgan edi.

Vampa oradagi masofani ko'zi bilan o'lchadi: u bilan o'g'ri o'rtasi kam deganda ikki yuz qadam kelardi, Vampa

quvib yetguncha o'g'ri Tereza bilan o'rmonga kirib g'oyib bo'lishi turgan gap, shuning uchun Vampa taq to'xtadida, miltig'ini olib to'g'riladi va tepkini bosdi.

O'g'ri birdan to'xtadi, tizzasi bukildi, so'ng Terezani ham tortib yiqitdi.

Ammo Tereza darhol irg'ib o'rnidan turdi, o'g'ri yiqilgan joyida qimirlamay qoldi. U o'lim talvasasida tipirchilab yotardi.

Vampa jonining boricha otilib Terezaning istiqboliga yugurdi. Qiz jon berayotgan o'g'ridan o'n qadamcha uzoqlashdi-da, cho'kka tushib qoldi. Luidjining kayfi uchdi: dushmanimni o'limga mahkum etgan o'q qaylig'imga ham tekkanmikin, deb o'yladi u.

Xayriyat, unday bo'lmagan edi, boshidan kechirgan dahshatli hol qizni holdan toydirib qo'ygan edi, Terezaga zarar yetmaganiga ishonch hosil etgach, Vampa o'q yegan o'g'ri oldiga bordi.

U allaqachon dunyodan ko'z yumgan edi, mushtlari siqilgan, og'zi qiyshayib ketgan, o'lim talvasasida sochlari to'zib, terdan ho'l bo'lgan edi.

Ko'zlari hamon ochiq va dahshatli edi.

Vampa tikilib qoldi: yer tishlab yotgan Kukumetto edi.

Yosh yigit va qiz bu qaroqchini o'sha qutqarib qolishgan kundan boshlab u Terezani yaxshi ko'rib qolgan va bu qiz albatta meniki bo'ladi, deb yurgan edi. U tinmay Terezani poylab yurardi. Luidji, otliqqa yo'l ko'rsataman, deb Terezani yolg'iz tashlab ketganini ko'rib, qizni o'g'irlagan va endi bu jonon o'zimmiki deb o'ylab ketayotganda, Vampa otgan o'q Kukumettoning bag'rini teshib o'tgan edi.

Vampa murdaga zarracha ham tashvishlanmay tikildi, ammo Tereza yaqinlashdi-da, sevgilisining yelkasi osha qarab titrab ketdi.

Vampa qizga o'girilib: «Sen allaqachon yasanib olibsan-da, – dedi. – Endi men ham kiyinib olay».

Chindan ham Tereza boshdan-oyoq graf San-Feliche qizining sarpolarini kiyib yasanib olgandi.

Vampa Kukumettoning jasadini ko'tarib bordi-da, g'orga olib kirdi. Tereza bu gal g'orga kirmadi.

Shu daqiqada haligi otliq yana o'tganda, g'alati bir manzara ustidan chiqardi: ajoyib libosda, zeb-ziynatga boy, brilliant isirg'a, yoqut tugmalar, marvarid-marjonlar taqqan qizning poda boqib yurganini ko'rib hayratda qolar-di.

U so'zsiz o'zini Florian zamonasiga kelib qoldim deb his etar va Parijga qaytganda, Sabin tog'lari yonbag'rida mashhur Alp Cho'pon qizini ko'rdim, deb hammani inon-tirishga uringan bo'lur edi.

Chorak soat o'tgach Vampa g'ordan chiqdi. U ham bashang kiyinib olgan edi. Ustida tugmalari oltin to'q qizil kamzul, ipakdan to'qilgan nimcha, bo'ynida Rim ro'moli, belida zarhal zangori ipak kamar, tizzagacha tushadigan kimxob ishtoniga brilliant munchoqlar qadalgan, oyog'ida rango-rang gulli getra, boshida turli rangda tasmalar taqilgan shlyapa. Kamarida ikkita soat osig'liq, yonboshida ajoyib xanjar.

Tereza quvonchdan qichqirib yubordi. Kukumetto ko-styumida Vampa xuddi Leopold Rober yoki Shnesning mashhur suratlarini eslatardi.

Libosi qaylig'iga juda yoqqanini ko'rib Vampa g'urur-la kulib qo'ydi.

«Mening taqdirimga, kelajagimga, u qanday bo'lishidan qat'i nazar, sherik bo'lishga tayyormisan?» so'radi u qiz-dan.

«Tayyorman!» – dedi xitob qilib Tereza.

«Men qayoqqa borsam, borasanmi?»

«Dunyoning narigi burchagiga bo'lsa ham boraveraman sen bilan!»

«Unday bo'lsa, ber qo'lingni, ketdik, vaqt o'tmasin».

Qiz mahbubiga qo'lini berdi, u qayoqqa boramiz, deb so'ramadi ham. Shu payt yigit juda go'zal, mag'rur va ilohiy kuchga ega bahodir bo'lib ko'rindi unga.

Ular o'rmonga yo'l olishdi va bir necha soniyadan so'ng daraxtlar orasida g'oyib bo'lishdi.

Vampa bu tog'lardagi so'qmoq yo'llarning hammasini bilardi, u iz solingan birorta yo'l bo'lmasa-da, hech ikkilanmay o'rmonning ichkarisiga kirib boraverdi, u daraxtlar va butalarga qarab yo'l topardi, shu tariqa ular bir yarim soatcha yo'l yurishdi. Pirovardida ular o'rmonning eng qalin joyiga, changalzorga yetib borishdi. Qurib qolgan ariq qorong'i g'orga olib borardi. Vampa ana shu odam oyog'i tegmagan, ikki tomonini qalin daraxtlar o'rab olgan yo'ldan boraverdi. Qiyani mustasno qilganda bu yo'lni Vergiliy aytgan Avern so'qmog'i desa bo'lardi.

Bu yovvoyi o'rmonda yana vahimaga tushib qolgan Tereza yo'ldoshi pinjiga kirib olgan edi, biroq yigit dadil qadam tashlab borayotganini va xotirjamligini ko'rib, vahimasini ichiga yutib kelardi.

To'satdan o'n qadam naridagi daraxt orqasidan bir odam chiqib Luidjiga miltiq o'qtaldi.

«Qo'y hazilingni!» – dedi Vampa mensimagansimon qo'l siltab, Tereza esa kayfi uchib qaltirab turardi. – «Nahotki qashqirlar bir-birining go'shtini yesa?»

«Kimsan o'zing?» – so'radi soqchi.

«Luidji Vampaman, San-Felichening cho'poni».

«Nima kerak senga?»

«Rokka-Bianka» maydonida o'rtoqlaring bilan gaplashib olmog'im kerak».

«Unday bo'lsa, yur ketimdan, – dedi soqchi, – yaxshisi, yo'lni bilarkansan, oldinda bora qol».

Vampa nafratomuz iljaydi-da, Tereza bilan oldinga o'tdi va ilgorigidek dadil va vazmin qadam tashlab boraverdi.

Besh daqiqadan so'ng qaroqchi ularni to'xtatdi. Ular itoat etib, qimir etmay turib qolishdi.

Qaroqchi uch marta qarg'aga o'xshab qag'illadi.

Unga javoban qag'illagan ovoz keldi.

«Mana endi, – dedi qaroqchi, – boraverishing mumkin».

Luidji va Tereza yo'lida davom etishdi.

Olg'a borgan sari Tereza mahlubining pinjiga mahkamroq qapishib olaverdi: chunki daraxtlar orasida miltiqlarning stvollari ko'zga tashlanardi.

Rokka-Bianka kichik bir tepalik ustidagi yalanglik edi, aftidan bu Romul va Rem Albani tashlab Rimni barpo qilganlaridan ilgari so'nib qolgan vulqon bo'lsa kerak.

Tereza bilan Luidji tepalikka chiqishdi va yigirmaga yaqin qaroqchilarga duch kelishdi.

«Bu yigit sizni axtarib kelibdi, siz bilan gaplashmoqchi ekan», – dedi soqchi.

«Nima gapi bor ekan uning bizga?» – so'radi vaqtincha yo'q atamanning o'rinbosari bo'lgan qaroqchi.

«Gapim shuki, podachilikdan juda bezor bo'ldim», – dedi Vampa.

«Tushunarli, – dedi ataman yordamchisi, – bizga qo'shilmochimisan?».

«Marhamat! Marhamat!» – deyishdi Ferruzino, Pampinari va ananyalik qaroqchilar Luidjini tanib qolib.

«Ammo men faqat oddiy o'rtog'ingiz bo'lmoqchi emasman».

«Unda, kim bo'lmoqchisan?» so'rashdi taajjublanib qaroqchilar.

«Atamangiz bo'lmoqchiman» – javob qildi Luidji Vampa.

Qaroqchilar qah-qah urib kulib yuborishdi.

«Bunday shuhratga munosib biror ish qildingmi?» so'radi ataman yordamchisi.

«Men Kukumettoni o'ldirdim, mana bu ustimdagi kiyimlar uniki, qaylig'imga to'y sarposini sovg'a qilish uchun San-Felichening uyiga o't qo'ydim».

Bir soatdan keyin Kukumetto o'rniga Luidji Vampani ataman qilib tayinlashdi.

– ... Azizim Alber, – dedi Frans do'stiga, – sinor Luidji Vampa to'g'risida endi nima deysiz?

– Menimcha bu afsona, cho'pchak, – dedi Alber, – bunday odam bo'lgan emas.

– Afsona nima? – so'radi Pastrini.

– Buni tushuntirishga juda ko'p vaqt kerak, himmatli xo'jayin, – dedi javoban Frans. – Demak, sinor Vampa hozir Rim atrofida ov qilib yuribdi, deng?

– Ov qilgandayam juda surbetlik bilan ov qilyapti, shu vaqtgacha Rim bunday battol qaroqchini tushida ham koʻrmagan edi.

– Polisiya hech tutolmayaptimi?

– Tutolmayapti! Chunki Luidji Vampa vodiydagi choʻponlar bilan ham, Tibr baliqchilari bilan ham va qirgʻoq qaroqchilari bilan ham juda inoq boʻlib olgan. Uni togʻlarda axtarishganda daryoda yallo qilib yuradi, daryoda taʻqibga olishsa, ochiq dengizga chiqib oladi, soʻng Jilo Jannutri yoki Monte-Kristo oroliga qochib ketdi, deb yurishsa, u Albanoda, Tivolida yoki Richchiyada paydo boʻlib qoladi.

– Yoʻlovchilar bilan muomalasi qalay?

– Juda oddiy. Shaharning uzoq-yaqinligiga qarab haq toʻlashga sakkiz yoki oʻn ikki soat, boʻlmasa bir kechakunduz muhlat beradi. Bu muhlat oʻtgach, yana bir soat vaqt beradi. Mana shu soatning oltmishinchi daqiqasida pul keltirilmasa, asirni peshanasidan otadi yoki koʻksiga xanjar uradi, tamom, vassalom!

– Xoʻsh, Alber, – dedi Frans, – siz hamon sirtqi xiyobon orqali Kolizeyga bormoqchimisiz?

– Albatta, – dedi Alber, – agar bu yoʻl goʻzal, koʻrkam boʻlsa.

Shu vaqt soat oʻn boʻlgandi. Eshik ochilib, izvoshchi kirdi.

– Janob, izvosh tayyor, – dedi u.

– Qani yoʻqsa, ketdik Kolizeyga, – dedi Frans.

– Janob, qay tomonga yurayin, del-Popolo darvozasi tomondanmi yoki koʻchalar boʻylabmi?

– Koʻchalar boʻylab, koʻchalar boʻylab yur! – dedi xitob qilib Frans.

– Doʻstim! – dedi Alber uchinchi sigarani tortib oʻrnidan turar ekan. – Ochigʻini aytsam, sizni mardlikda mendan oʻzib ketadi deb yurgan edim.

Yigitlar zinadan pastga tushib, faytonga oʻtirishdi.

XIII. UCHRASHUV

Frans Albarni Kolizeyga qadimiy yodgorliklarni chetlab o'tmasdan va Rodos orolidagi qadimgi greklar quyosh xudosi Gelios (Apollon)ning g'oyat ulkan mis haykalini ko'rishdan mahrum etmasdan olib borish yo'lini topdi. Buning uchun via-Sistindan borib, Santa-Maria – Majore oldida tikkasiga burilib, via-Urban va San-Petro-in-Vinkolidan o'tib, via-del-Kolossoga chiqish kerak edi.

Bu yo'ning yana bir afzal tomoni bor bo'lib, bunda Fransning Pastrini tilga olgan Monte-Kristo orolidagi mezbon to'g'risidagi o'y-xayollariga xalaqit beradigan hech nima yo'q edi. U faytonning burchagiga o'tirib olib xayolga cho'mdi, o'ziga-o'zi ko'pdan-ko'p savol berib, birortasiga qoniqarli javob topolmadi. Pastrining hikoyasidagi yana bir narsa qaroqchilar bilan dengizchilar o'rtasidagi maxfiy aloqa Fransga Sindbod-Dengiz sayyohini eslatardi. Maestro Pastrini, Vampa baliqchilar qayig'ida ham, kontrabandistlarnikida ham yashirilib yuradi, deganida Frans Korsika banditlarini qirg'oqqa tushirish uchun to'g'ri yo'ldan burilib Porto-Vekkioda to'xtagan kemachani va ana shu banditlar bilan kechki ovqatni baham ko'rgan matroslarni esladi. Monte-Kristo orolidagi mezbonning o'zi aytgan va «London» mehmonxonasining egasi tilga olgan nomdagi odam Korsika, Toskaniya va Ispaniya qirg'oqlarida odamlarga qanchalik muruvvat ko'rsatgan bo'lsa, Pombina, Chivita-Vekkiya, Ostiya va Gaeta qirg'oqlarida ham shunday yaxshilik qilgan edi kishilarga, Fransga u Tunis to'g'risida, Palermo to'g'risida ham ko'p gaplar aytgan edi, demak, u ko'p narsalarni bilsa kerak.

Bu fikrlar Fransni qanchalik chulg'ab olgan bo'lmasin, Kolizeyning ulug'vor qaddi ko'ringani hamono, hammasi xayolidan ko'tarildi ketdi. Fayton Meta Sudans²² dan bir necha qadam narida to'xtadi. Izvoshchi fayton eshiklarini ochdi, yigitlar faytondan tushishdi va xuddi yer ostidan paydo bo'lgandek qaqqayib turgan yo'l ko'rsatuvchiga ro'baro' kelishdi.

Ularni mehmonxonadan ham bir yo'l ko'rsatuvchi kuzatib kelayotgan edi, mana endi ular ikkita bo'lishdi.

Umuman olganda, Rimda son-sanoqsiz yo'l ko'rsatuvchilardan qochib qutulib bo'lmaydi. Mehmonxona ostonasiga qadam tashlashingiz bilan sizni zabt etib oladigan va shahardan ketganingizdagina qo'yib yuboradigan bosh yo'l ko'rsatuvchidan boshqa har bir yodgorlik yonida, hatto yodgorlikning har bir qismi yonida ham maxsus yo'l ko'rsatuvchi bo'ladi. Mana shundanoq Kolizeyni tomosha qilishda yo'l ko'rsatuvchi keragidan ortiq topiladi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Hamma yodgorliklar ichida eng mashhuri Kolizey to'g'risida Marsial shunday degan edi: «Memfis vahshiyona usul bilan bunyod etilgan mo'jizakor piramidalari bilan maqtanmay qo'ya qolsin, Vavilon ham ajoyibotlarini doston qilmay qo'ya qolsin, ularning hammasi ulug'vor Uezarlar amfiteatriga teng kelolmaydi, hamma maqtov sadolari jamuljam bo'lib, mana shu yodgorlika madhiya o'qimog'i kerak».

Frans bilan Alber Rim yo'l ko'rsatuvchilaridan qochib qutulishga aslo urinmadilar ham, chunki Kolizeyda faqat ana shu yo'l ko'rsatuvchilargina mash'al ko'tarib yurish huquqiga ega. Ikki jo'ra o'z ixtiyorini yo'l ko'rsatuvchilarga batamom berib qo'yishining boisi ham shunda edi.

Fransga bu joy tanish edi, chunki u bu yerda kamida o'n marta bo'lgandi. Ammo uning tajribasiz yo'ldoshi Flaviy Vespasian qurgan bu binoga birinchi marta qadam qo'yishi edi. Nodon yo'l ko'rsatuvchilarning bema'ni saf-satalariga qaramay Alber Kolizeydan nihoyatda katta taassurot oldi. Chindan ham bu manzarani, xususan, oying sirlil yog'dusi ostida yanada ulkanlashib, dabdabali tusga kirganda, o'z ko'zing bilan ko'rmay turib qadimiy vayronalarning ulug'vorligi haqida biror tasavvurga ega bo'lish qiyin, albatta.

Frans ichki peshayvon bo'ylab yuz qadamcha yurib bordi-da, Alberni sherlar turgan chuqurni, gladiatorlar makonini va Uezarlar toj-taxtini o'zimiz ko'rsatamiz, deb xiralik qilib yopishib olgan yo'l ko'rsatuvchilarga topshir-

di-da, o'zi bir tomoni qulab ketgan zinadan yuqoriga ko'tarildi, jo'rasi yo'lchilar bilan aylanib chiqquncha ulkan haykal ko'rinib turadigan teshik ro'parasidagi ustun soyasida o'tirib dam oldi.

Frans chorak soatcha ustun soyasida Alber bilan mash'al ko'tarib borayotgan yo'l ko'rsatuvchilardan ko'z uzmay o'tirdi. Alber Kolizeyning narigi chetidagi vomitoriyadan chiqdi-da, miltillab borayotgan mash'al ketidan soya kabi sudralib, kohinlar joyiga tushdi. To'satdan Frans o'zi chiqib kelgan zinaga yondosh zinadan bir tosh ajralib, Kolizey to'riga yumalab ketganini eshitdi. Vaqti-vaqti bilan bunday toshlar ko'chib jarga yumalab turadi bu qadimiy koshonada, biroq bu gal tosh xuddi kishi oyog'i ostidan ko'chib tushgandek tuyuldi. Fransning qulog'iga hatto notekis qadam tovushi ham chalingandek bo'ldi. Aftidan kimdir juda ohista qadam tashlab zinadan chiqib kelyapti.

Rostdan ham bir zum o'tar-o'tmas odam gavdasi ko'tarilib kelaverdi. Zinaning yuqori pillapoyasini oy sutdek yoritib turardi, pastki tomoni quyi tushgan sari qorong'ilashib boraverardi.

Bu odam ham Frans singari yo'l ko'rsatuvchining safatasini eshitib, miyasini achitib yurgandan ko'ra, yolg'iz tomosha qilishni ma'qul topganlardan bo'lsa kerak, shuning uchun uning paydo bo'lishidan hech taajjublanmasa ham bo'ladi. Biroq notanish kimsaning so'nggi zinaga xavotirlanib sekin chiqqani, qulog'ini ding qilib maydonchada to'xtab olganidan uning bu yerga bir maqsad bilan kelganini va kimnidir kutib turganini Frans angladi.

Frans beixtiyor ustun orqasiga yashirindi.

Erdan o'n fut balandda yumaloq teshik bor edi, undan yulduzli osmon ko'rinib turardi.

Asrlardan buyon oy nuri yog'ib turgan ana shu teshik atrofida o'sib chiqqan, mayda butalarning ko'm-ko'k mayin yaproqlari lojuvard osmon fonida yaqqol ko'rinib turibdi, yuqoridan pechakgul va chirmoviqning shoxlari osilib yotibdi.

Maxfiy ravishda chiqib kelgan odam o'zini qorong'iga oldi, shunday bo'lsa-da, uning libosi ko'rinib turardi, u keng qora plashga o'ralib olgan edi, plashining bir etagini yelkasidan oshirib yuzini ko'zigacha bekitib olgan, peshanasi va ko'zlari ustiga keng shlyapasini bostirib kiygan. Teshikdan tushib turgan xira yog'duda qora shimi va amirkon etigi ko'zga aniq tashlanib turibdi.

Bu odam aristokratlardan bo'lmasa ham, har holda jamiyatning oliy tabaqasiga mansub zotlaridan ekanligi ko'rinib turardi.

U yana bir necha daqiqa kutdi, ancha toqatsizlana boshladi ham, shu payt to'satdan tepada asta shov-shuv ko'tarildi.

Shu on allaqanday ko'lanka oy nurini to'sdi, teshik ustida odam gavdasi ko'rindi, u qorong'ilikka sinchiklab qarab chiqdi, plash yopinib turgan notanish kishini ko'rdi, shekilli, chirmoviqqa osilib pastga tushdi. U butunlay transteverinlik²³ libosini kiyib olgan edi.

– Janoblari, meni kechirsinlar, kuttirib qo'ydim, – dedi u Rim talaffuzida, – ammo bir necha daqiqaga kechikdim. Hozir San-Jovanni-in – Laterano minorasidagi soat o'nga zang urdi.

– Siz kechikkaningiz yo'q, men ertaroq keldim, – dedi notanish kishi sof Toskan shevasida. – Shuning uchun xijolat tortmay qo'ya qoling. Kechikkaningizda ham ayb sizda emasligini bilaman.

– Janoblari haq gapni aytyaptilar, hozir to'g'ri muqaddas Farishta qal'asidan kelyapman. Beppo bilan zo'rg'a gaplashdim.

– Beppongiz kim o'zi?

– Turma nazoratchisi, unga bir oz maosh to'layman, buning evaziga u qal'ada bo'layotgan barcha voqealardan meni xabardor qilib turadi.

– Tadbirkor odam ekansiz, bildim endi.

– Boshqa iloj yo'q, janob! Nima bo'lishini kim bilsin? Bir kun emas bir kun ehtimol meni ham sho'rlik Peppino singari tutib olishar, unda arqonni g'ajib tashlaydigan ka-

lamush kerak bo'ladi menga.

– Qisqasi, nimani bilib keldingiz?

– O'limga hukm qilinganlardan ikkitasi Rimdagi odat bo'yicha katta bayram oldidan seshanba kuni soat ikkida qatl etilarkan, birining kallasini boltaning muhrasi bilan majaqlashadi, bu o'zini tarbiyalab o'stirgan kashishni o'ldirgan nobakor, u zarracha e'tiborga arzimaydi, ikkinchisining boshi tanidan judo qilinarkan, mana shuni si bizning sho'rlik Peppinomiz.

– Xo'sh, azizim, nima qilmoq kerak? Siz faqat papa hukumatinigina emas, hatto qo'shni hukumatlarni ham vahimaga solib qo'ydingiz. Shu sababli hukumat boshliqlari uni albatta namunali qilib jazolamoqchilar.

– Peppino mening shaykamda bo'lgani yo'q-ku, u bechora bir cho'pon, xolos, aybi shuki, bizga oziq-ovqat keltirardi.

– Mana shuning o'zi bilan u sizga sherik bo'lib qolgan. Shunga qaramay unga shafqat qilishibdi... Biror kun sizni tutib olishsa bormi, kallangizni majaq-majaq qilib tashlashadi, uni esa boshini gilotinada kesib qo'ya qolishadi. Natijada bu jozibador tomosha rango-rang tusga kirib, ishqibozlarning hammasini qanoatlantiradi.

– Xaloyiq uchun men hech kutilmagan bir tomosha tayyorlayapmanki, bu hammasidan zavqli, jozibador bo'ladi, – dedi transteverinlik.

– Azizim, – dedi plash kiygan zot, – ko'nglingizga og'ir olmang-u, menimcha siz allaqanday bema'ni ishni o'ylab topganga o'xshaysiz.

– Menga xizmat qilib kelgan Peppinoni qutqarish uchun o'zimni o'tga ham, suvga ham urishga tayyorman. Shunday qilmasak nomardlik bo'ladi.

– Xo'sh, buning uchun nima qilmoqchisiz?

– Jallod kundasi atrofiga yigirmata odam qo'yaman, Peppinoni keltirganlarida signal beraman, soqchilarni xanjar bilan o'ldiramiz-da, cho'ponni olib qochamiz.

– Bu juda xavfli, mening rejam siznikidan yaxshi.

– Janoblarining rejasi qanaqa?

– Bir odamga ikki ming piastr pul beraman. U Peppinoni qatl etish muddatini bir yil keyinga suradi, ana shu bir yil mobaynida boshqa bir odamga yana ming piastr beraman, u esa Peppinoga turmadan qochishga yordam qiladi.

– Bu muvaffaqiyatli bo‘larmikin? Imoningiz komilmi?

– Rardieu²⁴, – dedi plash kiygan zot.

– Nima dedingiz? – so‘radi takroran transteverinlik.

– Deyapmanki, azizim, mening bir o‘zim oltinlarim ko‘magida xanjarlar, to‘pponchalar, miltiqlar bilan qurolangan siz va barcha jo‘ralaringizdan ham ko‘p ish qilaman. Shuning uchun bu ishni menga qo‘yib beravering.

– Marhamat qiling, mabodo siz ish chiqarolmay qolsangiz, bu yoqda biz tayyormiz.

– Xohlasangiz tayyor bo‘lib turavering, mening ish chiqarishimga, uni afv ettirib qutqarib olishimga shubha qilmasangiz ham bo‘ladi.

– Indinga seshanba-ya, unutmang, bir kungina vaqt qoldi.

– Nima bo‘pti? Bir kun yigirma to‘rt soatdan, soat oltmish daqiqadan, daqiqa esa oltmish soniyadan iboratdir. Sakson olti ming to‘rt yuz soniyada ichida juda ko‘p ishlarni bajo keltirish mumkin.

– Hammasini bajo keltirganingizni biz qanday qilib bilamiz?

– Bu juda oson. Men Rospoli qahvaxonasining eng chekka uch derzasini band qilib qo‘ydim. Men uni afv ettirishga muvaffaq bo‘lsam yonboshdagi ikki derzaga sariq kimxob, o‘rtadagisiga esa qizil salbli oq kimxob tortib qo‘yilgan bo‘ladi.

– Juda soz. Afv to‘g‘risidagi qog‘ozni bizga qanday topshirasiz?

– Odamlaringizdan birini dindor kiyimida mening oldimga yuboring. O‘sha kiyimi bilan jallod kundasi oldiga boradi-da, qardoshlar boshlig‘iga farmonni topshiradi, u esa jallodga beradi. Bundan Peppinoni ham xabardor qilib qo‘ying, u tag‘in o‘takasi yorilib o‘lib ketmasin yoki

jinni bo'lib qolmasin, aks holda behudaga pul sarflagan bo'lamiz.

– Men sizga, janob, jon-dilim bilan sodiq ekanimni o'zingiz yaxshi bilasiz.

– Men bunga ishonaman.

– Mabodo siz Peppinoni qutqarsangiz, sodiqqina emas, batamom izmingizda bo'lamiz.

– O'ylamay gapirma, azizim, ehtimol biror payti kelganda so'zlaringni esingga solarman, chunki sen ham menga kerak bo'lib qolishing mumkin.

– Bugun siz kelganingiz kabi, men ham zarur paytda huzuringizda hozir bo'laman, janoblari xotirjam bo'lsinlar. Dunyoning narigi burchida bo'lsangiz ham, «Falon ishni bajo keltir» desangiz bas, men darhol bajo keltiraman.

– Jim! – shivirladi plash kiygan zot. – Qadam tovushi eshitilyapti...

– Ular sayohatchilar, qo'llarida mash'al ko'tarib Kolizeyni tomosha qilib yurishibdi.

– Ular ikkimiz birga turganimizni ko'rmasin. Yo'l ko'rsatuvchilarning hammasi ayg'oqchi, izquvar, bizni tanib qolishlari mumkin. Siz bilan do'st bo'lish men uchun juda yoqimli, faxrli, ammo ikkimizning yaxshi tanish, inoq ekanimizni bilib qolishsa, mening nufuzimga zarar yetishi mumkin.

– Shunday qilib, siz Peppinoni qatl etilishi muddatini keyinga sura olsangiz...

– O'rtadagi derazaga qizil salbli oq kimxob tortib qo'yilgan bo'ladi.

– Mabodo keyinga surolmasangiz-chi?

– Uchala derazaga ham sarig'i tortiladi.

– Unda...

– Unda aziz do'stim, xanjarlaringizni ishga solasiz, hatto bu manzarani tomosha qilish uchun o'zim kelaman.

– Xayr, janob, men sizdan umidvorman, siz mendan.

Transteverinlik shunday dedi-da, zinada g'oyib bo'ldi, plash kiygan kishi shlyapasini yana pastroq bosdi-da,

Fransdan ikki qadam naridan o'tdi va vazmin qadamlar bilan pastga tushib ketdi.

Bir lahza o'tar-o'tmas qorong'idan bir ovoz Fransni tilga oldi: uni Alber chaqirayotgandi.

Frans haligi ikki suhbatdoshning so'zlarini eshitib turganini bildirmaslik uchun, ular uzoqlashib ketguncha indamay turdi.

O'n daqiqa o'tgach, Frans mehmonxonaga yo'l olgan faytonda borar edi. U har qanday odob-andishani unutilib qo'yib, Alberning Pliniy bilan Kalipuniyga tayanib vahshiy hayvonlar qamalgan temir qafas to'g'risidagi safsatalariga quloq solgisi kelmasdi.

Frans do'stiga e'tiroz bildirmadi. Faqat yakka o'zi qolib hozirgina qorong'ida eshitganlari to'g'risida fikr yurgizmoqchi edi.

Haligi ikkala odamdan biri unga mutlaqo tanish emasdi, ikkinchisiga kelganda gap boshqacha edi, goh qorong'ida, goho plashga o'ralib turgan yuzini ko'rolmagan bo'lsa-da, ovozi tanishday tuyulardi. Bu ovoz ayniqsa kulgi ohangiga o'tganda Frans seskanib ketdi va ko'zi oldida Monte-Kristo g'ori gavdalandi.

Frans bu odam Sindbod-Dengiz sayyohi ekaniga aslo shubha qilmasdi.

Boshqa har qanday sharoitda Frans uni juda qiziqtirib qo'ygan bu odam oldiga tikka borardi, ammo ular nuqul maxfiy, sirli masalalar ustida suhbatlashdi, shu sababli ko'rinsam ko'nglini noxush qilib qo'yarman deb, qo'rqdi. Sindbod ko'zdan uzoqlashguncha Frans qimir etmay turaverdi. Ikkinchi gal uchrashsam albatta oldidan tikka chiqaman, deb ahd qilib qo'ydi.

Frans tun bo'yi fikr-xayollarga botib ko'z yumolmadi. G'or xo'jayini va Kolizeyda ko'rgan notanish kishiga doir turli-tuman vaziyatlarning hammasini ko'z oldidan o'tkazdi, ko'p o'yladi va nihoyat Kolizeydagi plashli notanish o'sha g'ordagi zoti-sharif ekaniga imoni komil bo'ldi.

U tongga yaqin ko'z yumdi va kech uyg'ondi. Haqiqiy parijlik Alber esa bugun kechqurun vaqtni xursandchilik

bilan o'tkazish chorasini ko'rib, Arjentina teatrining lojasidan joy olish uchun biletga odam yubordi.

Frans Parijga xat yozishi kerak edi, shuning uchun u hech qayoqqa bormadi, faytonni kun bo'yi Alber minib yurdi.

Kech soat beshda Alber qaytib keldi: u tavsiya xatlarni tarqatib, hamma kechalarga taklifnomalar oldi va Rimning mashhur ko'rkam joylarini tomosha qildi.

Alber bularning hammasini bir kundayoq bajarib qo'ya qoldi. U hatto qanday pesa qo'yilayotgani va qaysi artistlar o'ynashligini aniqlab olishga ham ulgurdi.

«Parizina» pesasini qo'yarkanlar, unda Kozelli, Moriani va Shpex xonim o'ynarkan.

Yigitlarning ishi o'ngidan keldi: ular bugun «Lyuchiya Lammermurskaya» muallifining eng yaxshi operalaridan birini Italiyaning dongdor artistlari ijrosida tomosha qilishadi.

Alberning Buffada o'zining maxsus kursisi va operaning lojasida maxsus joyi bor, hamisha borsa o'z o'rinlari muhayyo bo'ladi. Bu yerda – Italiya teatrlarida esa balkonlar va ochiq lojalar yo'q, bundan Alberning ta'bi tirriq bo'ldi.

Shunga qaramay Alber har gal Frans bilan teatrga bor-ganda juda bashang kiyinib olardi. Ammo bu yasanish-lardan hech naf bo'lmadi. Parij oqsuyak yoshlaridan bo'lmish Alber Italiya bo'ylab to'rt oy sang'ib hech kimni maftun etolmadi.

Ba'zida bu haqda so'z ochilganda, Alber gapni hazilga yo'yib yuborsa-da, ichidan kuyardi. Nahotki ajoyib navqiron yigitlardan hisoblangan Alber de Morser hamon intizorlikda so'ppayib yuraversa! Axir u yoqimtoy zamondosh-larimizga xos soddadillik bilan Italiyada ko'pgina sohib-jamollarni shaydo qilaman, Parijga qaytgach, yutuqlarimni doston qilib butun Gant xiyobonini qoyil qoldiraman, deb o'ylagan edi-ku! Ovi yurmaganiga ortiq darajada jig'ibiyron bo'layotganining boisi ham mana shunda.

Ming afsuski, Alber bilmay xafa bo'lib yuribdi! Aslida

Genueziya, Florensiya va Rimning jonon oyimcha grafi-nyalari erlariga bo'lmasa-da, o'ynashlariga o'lgudek va-fodor edilar. Alber italyan xonimlari o'z bevafoqliklariga sodiq ekaniga ishonch hosil etdi, ularning fransuz ayol-laridan ustunligi ham mana shunda edi.

– Hamma yerdagidek. Italiyada istisno yo'q deb tas-diqlash qiyin, albatta.

Alber uchiga chiqqan oliftagina emas, shuningdek, tili o'tkir, burro yigit edi, buning ustiga u vikont, vikont bo'lganda ham yangidan chiqqan vikont edi. Botirliging-ni tasdiqlab o'tirishning keragi bo'lmay qolgan bizning davrimizda nasl-nasabing 1399 yildan boshlanganmi yoki 1815 yildanmi, buning ahamiyati yo'q. Qolaversa, Alber-ning har yili ellik ming livr kirimi bor. Xullas, Parijning man-man degan jamoatida erkatoiy, tantiq bo'lib yurish uchun zarur hamma narsa Alberda muhayyo edi. Shu sababli borgan shaharlaridan birortasida unga yaxshi e'tiroz ber-maganlariga iqror bo'lishdan bir oz uyalaradi ham.

Shunday bo'lsa-da, Alber Rimda ko'ngil ochmoqchi bo'ldi, chunki maqtovg'a sazovor bu odatni saqlab kela-yotgan barcha mamlakatlarda karnaval o'zini nihoyatda erkin tutadigan payt bo'lib, bu vaqtda tartib-qoidalarni juda qattiq tutadigan kishilar ham o'yinqaroqlikka, aysh-ishrat, kayfi-safoga mukkasidan ketadi. Karnaval ertaga boshlanajagi sababli Alber o'zini shu bugunoq bozorga solishi shart. Shu maqsadda u birinchi yarusdagi ko'zga yaqqol tashlanadigan o'rinlardan birini band etdi-da, juda bashang kiyinib bordi. Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, birinchi yarus oqsuyaklar o'tiradigan joy ham hisoblanardi.

Bemalol o'n ikki kishi sig'adigan bu loja Ambiqyu teat-ridagi to'rt kishilik lojadan arzon tushdi ikki og'ayniga.

Alber yana bir maqsadni ko'zlagandi: agarda Rim no-zaninlaridan birini o'ziga shaydo qila olsa, uni yaxshi iz-voshga taklif etishlari mumkin, bu holda karnavalni u oqsuyaklar ekipajida yoki knyaz balkonida tomosha qilishga muyassar bo'ladi.

Mana shu o'g'ayollar og'ushida shu kecha Alberning kayfi chog' edi. U devorga orqasini o'girib, qaddini beligacha lojadan oshirib katta durbinda jonon oyimchalarining hammasiga so'z tashlab o'tirardi.

Ammo Alberning bu urinishlaridan ish chiqmadi, biror go'zal unga hech bo'lmaganda shunchaki qiziqsinib ham qarab qo'ymadi.

Tomoshabinlarning hammasi o'zi bilan o'zi ovora edi: ish to'g'risida, oshiq-ma'shuqlik yo'lidagi sarguzashtlari haqida, mehmondorchiliklar, ertangi karnaval haqida gap sotishar, ashulachilarga, spektaklga e'tibor bermay, faqat juda yoqimli kuylar paytida sahnaga bir qiyo boqib qo'yishardi.

Birinchi parda oxirida hamon bo'sh turgan loja eshigi ochildi-da, bir ayol kirdi. Frans uni tanidi. Uni bu ayol bilan Parijda tanishtirgan edilar, Frans esa bu xonim Fransiya-da deb o'ylab yurgan edi. Alber jo'rasining bir oz sarosimaga tushganini sezib, undan so'radi:

– Bu ayol bilan tanishmisiz?

– Ha, tanishman, yoqadimi sizga?..

– Azizim, juda go'zal-ku oyimcha, oltin sochlarini qarang-a. Fransuzmi?

– Yo'q, fransuz emas, venesiyalik.

– Oti nima?

– Grafinya G.

– Men ismini bilaman, – dedi Alber, – u go'zalgina emas, aqlli ham deyishadi. Men u bilan de Vilfor xonimning so'nggi balida tanishib olishim mumkin edi-ya! Ahmoqlik qilib tanishmabman.

– O'sha xatoni men tuzatsam, xo'p deysizmi? – so'radi Frans.

– U bilan juda yaxshi tanishmisiz? To'g'ri lojasiga meni olib boraverasizmi?

– Men uch marta uning suhbatida bo'lganman. Lojaga to'g'ri kirib borishga shuning o'zi yetar.

Shu payt grafinya Fransni ko'rib, qo'lini ko'tarib salomlashdi. Frans esa ta'zim qildi.

– Jonon bilan aloqangiz juda quyuqqa oʻxshaydi, – dedi Alber.

– Yoʻq, yanglishyapsiz. Fransuzlar chet ellarda boʻlganda hammani parijliklarga oʻxshatib koʻp bemaʼni ishlar qilib qoʻyishadi. Ispaniya yoki xususan Italiyada boʻlganingizda kishilarning bir-biri bilan erkin muomala qilishayotganini koʻrib, bular juda koʻngilchan, qayoqqa bursang oʻsha yoqqa ketaveradigan odamlar ekan deb oʻylamang. Biz grafinya ikkimiz bir-birimizga yoqib qolganmiz.

– Yurakdanmi? – soʻradi kulib Alber.

– Aqldan, faqat aqldan, – dedi jiddiy tusda Frans.

– Bu qanday yuz berdi?

– Xuddi siz bilan birga boʻlgandek, Kolizeyni sayr qilib yurganda.

– Oydinda deng?

– Ha.

– Ikkalangizmi?

– Ha, shunday desa ham boʻladi.

– Suhbatingiz...

– Oʻlganlar haqida boʻldi...

– Bu juda qiziq, albatta, – dedi Alber. – Lekin ana shunday sayr paytida bu goʻzal grafinya bilan hamroh boʻlish menga nasib etganda, men u bilan faqat tiriklar haqida suhbat qilardim.

– Ehtimol pand yeb qolarsiz.

– Vaʼdangizga muvofiq hozir siz meni u bilan tanishtirasizmi?

– Parda tushgani hamono.

– Laʼnati birinchi parda qachon tamom boʻlarkin?

– Oxirini tinglang juda taʼsirli, Kozelli shu yerini juda boplab ijro etadi.

– Toʻgʻri, biroq qomatni qarang, qomatni!

– Shpex yuraklarni zabt etib oladi-da...

– 3ontag va Malibranni eshitgandan keyin boshqasi yoqarmikin kishiga...

– Morianing goʻzal maktabini inobatga olmaysizmi?

– Qora sochlar oltin soch boʻlib kuylaganda mening

g'ashim keladi, men buni yoqtirmayman.

– Azizim, – dedi Frans grafinya lojasidan ko'z uzmay o'tirgan Alberdan yuzini o'girib, – sizning ko'nglingiz bi-
ror narsani yoqtirishi juda qiyin ekan-da!

Nihoyat, vikont de Morserning orzusi ushalib, parda yopildi, Alber sochlarini, galstugini va yenglarining uchi-
ni tuzatib, shlyapasini oldi-da, Fransga men tayyorman,
dedi.

Fransning savol nazari bilan qarashiga grafinya, sizni kutyapman deb imo qilgan edi, shu sababli u Alberning istagini darhol bajo keltirib qo'ya qoldi. Frans jo'rasi bilan amfiteatrni aylanib o'tib, grafinya band qilib o'tirgan to'rtinchi loja eshigini taqillatdi. Eshik ochildi.

Grafinya yonida o'tirgan yosh yigit darhol joyidan tur-di-da, italyanlar odatiga rioya qilib, o'rmini mehmonga ber-di, mabodo boshqa biror kishi tashrif buyurgudek bo'lsa, mehmon ham o'rmini bo'shatib berishi shart edi.

Frans grafinyaga Alberni jamoatchilik o'rtasida yaxshi-gina nufuz qozongan va aqli raso yigitlardan deb tanish-tirdi. Chindan ham shunday edi: Parijda Alber o'ralashib yuradigan jamoa o'rtasida eng to'kis, benuqson oqsuyak oshiqlardan hisoblanardi. Frans yana qo'shimcha qilib, Alber siz bilan Parijda tanishib olmaganidan juda afsus-landi va mendan bu xatoni tuzatishni o'tinib so'radi, dedi. Uning bu jur'ati beadablikka yo'yilsa, grafinya kechirsin-lar, deb iltimos qildi Alber, dedi Frans.

Bunga javoban grafinya nazokatli egilib, salom berdi va Frans bilan qo'l berib ko'rishdi. Grafinyaning taklifi bilan Alber uning yonidagi bo'sh kursiga o'tirdi. Frans or-qadagi ikkinchi qatorga joylashdi.

Alber suhbat uchun jozibali mavzu topdi: u Parij to'g'ri-sida, umuman tanish-bilishlar to'g'risida gap boshladi. Frans do'sti to'g'ri yo'l topganini fahmlab, uning qo'li-dan katta durbinni oldi-da, tomosha zalini ko'zdan kechira boshladi.

Birinchi yarusning birinchi qatorida nihoyatda go'zal bir ayol o'tirardi, u sharq kostyumida, kostyum qaddi-

qomatiga juda quyib qo'yganday.

Uning ketida nim qorong'ida bir odam bor edi, uning yuzini aniq ko'rib bo'lmasdi.

Frans Alberning so'zini bo'ldi-da, grafinyadan erkaklarninggina emas, xotinlarning ham diqqat-e'tiborini tortoladigan o'sha alban ayolini taniysizmi, deb so'radi.

– Yo'q, tanimayman, – dedi grafinya, – faqat mavsum boshidan Rimda yurganini bilaman. Teatr ochilgan kuni ham u shu lojada o'tirgan edi, butun oy ichida qo'yilgan hamma spektakllardan bittasini ham qoldirmay tomosha qilib kelyapti. Unga ba'zan yonida o'tirgan zot hamroh bo'lib keladi, ba'zida xizmatchi-habash kuzatadi.

– Uning husni-jamoliga qoyilmisiz, grafinya?

– Qoyilman, juda go'zal ayol. Medora ham xuddi shunday latofatli bo'lgandir.

Frans va grafinya bir-biriga jilmayib qo'yishdi. Shundan keyin grafinya Alber suhbatini davom ettirdi, Frans esa durbinni ko'ziga tutib, alban ayolining jamolini tomosha qildi.

Balet boshlandi, bu ajoyib baletni butun Italiyada shuhrat qozongan mashhur Anri sahnaga qo'ygan edi. U kema(mada (suzuvchi teatrd) halok bo'lgan edi, bu baletda hamma birinchi raqqosdan oxirgi kichik roldagi artist ham jon-jahdi bilan o'ynaydi, hammasi bir xilda imo-ishora qilib, oyoq yoki qo'lini ham birga ko'tarishadi. Bu baletning nomi «Poliska».

Fransning butun es-hushi o'sha notanish jononda edi, balet qanchalik jozibador bo'lmasin, unga Frans sira qaramay qo'ydi. Jonon esa sahnadan ko'z uzmay baletni huzur etib tomosha qilardi, uning orqasida o'tirgan erkakka kulganda, u xoreografik san'atning sahnada o'ynalayotgan mo'jizasining boshidan oxirigacha parvo qilmay uyquni urardi.

Nihoyat balet tugadi va zavqqa to'lgan tomoshabinning gulduros qarsaklari ostida parda yopildi.

Operaga balet chiqishlari kiritish Italiyada odat tusiga kirgan, shu sababli tanaffus juda qisqa bo'ladi, shu mud-

dat ichida ashulachilar hordiq chiqarib, kiyimini almash-tiradi, raqqoslar esa mashq qilib olishadi.

Ikkinchi bo'limning kirish musiqasi boshlandi. Orkest-ning birinchi qo'sh ovozi ko'tarilishi bilan albankaning mudroq kavaleri asta qaddini rostlab xonimga yaqin su-rildi. Ayol orqaga qarab unga bir necha so'z aytdi-da, yana loja bareriga suyanib oldi.

Kavalerning yuzi hamon qorong'ida ko'rinmay qoldi. Frans uni yaxshi ko'rolmadi.

Par-da ko'tarildi. Frans notanish oyimchadan beixtiyor yuz o'girib, sahnaga, artistlarga qaradi.

Ikkinchi bo'lim, duet bilan boshlandi. Parizina tushi-da Ugoga oshiq ekanini Assoga aytib qo'yadi, aldangan er rashk qilib jizg'anagi chiqadi, nihoyat, xotining vafosizlik qilganiga amin bo'lgach, uni uyg'otadi-da, qasos olajagini bildiradi.

Bu mashhur Doniseti qalami bilan yozilgan eng ta'sir-li, eng dramatik duetlardan biri. Frans buni uchinchi marta eshitishi, u unchalik musiqaparast bo'lmasa-da, duet qattiq ta'sir etdi. Frans shu sababli ko'pchilikka qo'shilib chapak chalmoqchi bo'lgandi, birdan ko'tarilgan qo'llari tepada muallaq bo'lib qoldi va og'zidan chiqayotgan «Ofa-rin!» so'zi ham ichiga qaytib ketdi.

Boyagi nozanin lojasida o'zini orqaga, qorong'iga olib o'tirgan kishi o'rnidan ro'yi-rost turgan edi, uning yuzi chiroqda yaqqol ko'rindi, u Monte-Kristo orolida istiqo-mat qiluvchi sirli zot edi. Frans kechagina Kolizey vayro-nasida uni gavdasidan va ovozidan tanib olgandi.

Bu g'alati, sirli sayyohning Rimda istiqomat qilishiga endi hech shubha qilish mumkin emasdi.

Fransning xijolat tortgani yuzidan bilinib qoldi, shekil-li, grafinya unga qarab kulib yubordi va nima bo'ldi siz-ga, deb so'radi.

– Grafinya, – dedi Frans. – Men sizdan hozirgina alban-kani taniysizmi, deb so'ragan edim. Endi yana bir narsani so'ramoqchiman: uning erini taniysizmi?

– Xotinini qanchalik tanisam, erini ham shunchalik ta-

niyman.

– Unga e'tibor berdingizmi?

– Mana, chindan ham fransuzcha savol! Siz yaxshi bilasizki Italiya ayollari faqat sevganini inobatga oladi.

– Bu haq gap, – dedi Frans.

– Har holda, – dedi grafinya Alberning durbinini bilan o'sha lojaga qarab, – aftidan, u yaqinda go'rdan chiqqanga o'xshaydi. Bu odam go'rkovning ijozati bilan tobutdan chiqib kelgan murdaning xuddi o'zi. Qarang rangida jichcha ham qon yo'g'a.

– U hamisha shunaqa.

– Ie, siz hali uni taniysizmi? – dedi grafinya, – u vaqtda uning kimligini men sizdan so'rashim kerak ekan-da.

– Chamamda, men uni qaerdadir ko'rganman.

– Tushunarli, – dedi grafinya go'zal yelkalarini silkitib, – uni bir ko'rgan kishi hech unutmasa kerak.

Frans sirli notanish zot mendagina emas, boshqalarda ham katta taassurot qoldirayotgan ekan, deb o'yladi.

– Kim deb o'ylaysiz bu zotni? – so'radi Frans grafinya unga yana durbinni to'g'rilayotganda.

– Bu zot butun vujudi bilan lord Rutvenning xuddi o'zi.

Bayronning nomi yana tilga olinishi Fransni hayratda qoldirdi, biror kishi go'rdan chiqqan qonxo'rlar chindan ham borligiga ishonтира olsa, Frans o'sha qonxo'rlardan biri deb mana shu kishini hisoblardi.

– Men bu zotning kimligini bilishim kerak, – dedi Frans o'rnidan qo'zg'alib.

– Yo'q, yo'q! – dedi xitob qilib grafinya. – Ketmang, meni kuzatib qo'yasiz, ruxsat bermayman sizga.

Frans grafinyaning qulog'iga shivirladi:

– Siz hali, shunaqa qo'rqqimisiz?

– Menga qarang! – javob qildi grafinya. – Axir Bayron menga go'rdan chiqqan qonxo'rlar borligiga ishonaman deb ont ichgan, ularni o'z ko'zim bilan ko'rdim, deb ishon-tirgan. U menga bu qonxo'rlarning qiyofasini tasvir etib bergandi... Ular xuddi ana shu zotga o'xshaydi, qora soch, ko'zlari hamisha yonib turadi, murda kabi bo'zargan,

uning xotini ham boshqalarga o'xshamaydi, qarang... U qandaydir grek ayoli, yoki... uning o'zi kabi sehrgarga o'xshaydi... Bormang ular yoniga, iltimos qilaman. Juda zarurat bo'lsa ertaga axtarib toparsiz uni, bugun ruxsat berolmayman.

Grafinya o'rnidan turayotib, «men spektaklning oxirigacha turolmayman, ketishim kerak, mehmon chaqirganman, nahot meni kuzatib qo'yishni istamasangiz? Axir bu odobdan emas-ku», dedi.

Frans itoat etishga majbur bo'ldi, shlyapasini kiydi, loja eshigini ochdi-da, grafinyani qo'ltiqlab oldi.

Chindan ham grafinya juda vahimaga tushib qolgan edi. Fransning o'zi ham o'tgan voqealarni eslab beixtiyor seskanib ketdi. Qo'ltig'idan tutib izvoshga o'tqazganda grafinya dir-dir titrayotgan edi.

Frans grafinyani uyigacha kuzatdi, xonimnikida hech qanday mehmon yo'q edi, kutib turgan biror kishi ham ko'rinmadi. Frans, meni aldadingiz, deb koyindi grafinyadan.

– Rostdan ham tobim qochdi, – dedi grafinya, – yolg'iz bo'lishim kerak. O'sha kishini ko'rib, dilim vayron bo'ldi.

Frans kulgiga olmoqchi bo'ldi.

– Kulmang, – dedi grafinya, – siz kuladigan hech narsa yo'q bunda. Va'da bering..

– Nimaga?

– Avvalo menga siz aytganingizni qilaman, deb so'z bering.

– Barcha istaklaringizni bajo keltirishga va'da beraman, biroq o'sha kishining kimligini bilish istagidan voz kecholmayman. Men uning kimligini, qaerdanligini va qayoqqa borayotganini bilishim shart. Nima uchun albat-bilishim kerakligini ba'zi sabablarga binoan sizga ayto olmayman.

– Uning qaerdanligini bilmayman, ammo qayoqqa borayotganini aytishim mumkin: u to'ppa-to'g'ri do'zaxga boryapti.

– Qo'ying bu gapni, – dedi Frans, – hali, mendan nima-

ni talab qilmoqchi edingiz, ayting.

– Ha, aytmoqchi, hozir to‘g‘ri mehmonxonaga boring, bugun u odam bilan uchrashaman deb ovora bo‘lmang, xayrlashadigan kishi bilan uchrashadigan kishi o‘rtasida qandaydir bog‘lanish bo‘ladi. Men bilan o‘sha kishi o‘rtasida vositachi bo‘lib qolmang. Ertaga istaganingizcha uning ketidan quving, lekin agar meni qo‘rqib yuragi yorilmasin desangiz, uni menga zinhor ro‘para qilmang. Endi xayr, yaxshi uxlang, men esa mijja qoqmay chiqsam kerak.

Grafinya ichkariga kirib ketdi. Frans esa bu ayol hazil-lashdimi yoki rostakamiga qo‘rqdimi, deb tushunolmay qoldi.

Frans mehmonxonaga qaytganda Alber xalat, xonaki shim kiyib, og‘zida papiros, yumshoq kursida taltayib o‘tirgandi.

– E, o‘zlarimi, – dedi Alber, – men sizni ertalabgacha qaytmaslar, deb o‘ylagandim.

– Menga qarang, Alber, – dedi Frans, – men sizga quvonib shuni aytayinki, siz Italiya ayollari haqida mutlaqo noto‘g‘ri fikrda ekansiz. Mening fikrimcha, oshiq-ma‘shuqlik borasida ishingiz o‘ngidan kelmayotgani es-hushingizni joyiga keltirib qo‘ymog‘i kerak edi.

– Xo‘sh, nima qil deysiz? Bu xotinlarning ichidagini kim bilib o‘tiribdi? Qo‘lingizni olib mahkam siqishadi, shivirlashib gaplashishadi, kuzatib qo‘yishga sizni majbur etishadi-yu, shundan nariga o‘tishmaydi. Parij xonimi shularning o‘ndan birini qilsa tamom-vassalom, darhol obro‘yini bir pul qiladi, qo‘yadi!

– Hamma gap mana shunda. Ularning sir saqlaydigan hech narsasi yo‘q, ular go‘zal mamlakatda Dante aytgandek, quyoshning yorqin nuridan o‘zlarini panaga olmay yashaydilar. Shuning uchun ham ular na ishvani, na nozkarashmani biladilar. Buning ustiga grafinya juda qo‘rqib ketganini o‘zingiz ko‘rdingiz-ku.

– Kimdan qo‘rqdi, grafinya? Ro‘paradagi lojada bir nozanin grek ayoli bilan o‘tirgan janobdanmi?.. Men ham

ularning kimligini bilish istagida edim va dahlizda jo'rttaga to'qnash keldim. Sizning u odam haqidagi gaplaringiz meni taajjubga soldi! U juda qaddi-qomati kelishgan go'zal kishi, kiyimi bashang, aftidan, kiyimlarini bizning Blen yoki Yumani tiksa kerak. To'g'ri, uning yuzi bir oz bo'zargan, ammo bilasizki, oqsuyaklar rangpar bo'ladi.

Frans iljayib qo'ydi: Alber yuzim oppoq deb o'ylardi.

– Menimcha ham, – dedi Frans, – grafinya bo'lmag'ur narsalarni xayoliga keltirib u kishidan qo'rqib yuribdi. U biror narsa dedimi?

– Dedi, biroq yangicha grek tilida. Men buni buzib aytilgan bir nechta grekcha so'zdan fahmlab oldim. Azizim, shuni bilib qo'yingki, men kollejda o'qiganimda grekchadan hammadan o'zib yurardim.

– U yangicha grek tilida gapirdimi?

– Shunga o'xshadi.

– Shubhasiz, – shivirladi Frans, – bu o'sha zotning o'zi!

– Nima dedingiz?

– Hech nima. Siz bu yerda nima qildingiz?

– Sizga hadya tayyorladim.

– Qanaqa hadya!

– Izvosh topish qiyinligini o'zingiz bilasiz.

– Bilganda qandoq. Kishi qo'lidan keladigan hamma hunarni ishlatib ko'rdik, ammo birorta narsa topolmadik.

– Menda ajoyib bir fikr tug'ildi.

Frans Alberga inonmay qarab qo'ydi.

– Azizim, – dedi Alber, – siz menga ishonch bilan qaringiz, buning boisini bilsam bo'ladimi?

– Fikringiz mabodo aytganingizdek soz bo'lsa, aytishim turgan gap.

– Quloq soling.

– Ikki qulog'im sizda.

– Izvosh topolmaymizmi?

– Topolmaymiz.

– Otlar ham topib bo'lmaydimi?

– Topib bo'lmaydi.

– To'rt g'ildirakli aravani-chi?

– Ehtimol topib bo'lar.

– Ikkita ho'kizni-chi?

– Ehtimol.

– Demak, azizim, bizga mana shunisi kerak! Men aravani turli ranglarga bo'yattiraman, o'zimiz Neapol o'roqchilari kiyimini kiyib olamiz-da, xuddi Leopold Roberning mashhur suratining o'zi bo'lamiz-qo'yamiz. Agarda juda o'xshab tushishi uchun grafinya ham Possuolimi yoki Sorrento dehqon ayolining kiyimida chiqishga rozi bo'lsa maskaradimiz yana ham soz bo'ladi. Grafinya husni barkamol ayol, uni albatta «Go'dakli ayol» kartinasining originali deb qabul qilishlari turgan gap.

– Xudo haqi, – dedi Frans, – bu gal juda haq gaplarni aytyapsiz, chindan ham bu juda yaxshi fikr.

– Vatanparvarlikni ham uchiga chiqaradigan fikr, bu bilan biz dangasa, ishyoqmas qirollarimiz davri-davronini bir karra hammaning xotiriga solib o'tamiz! Rimlik janoblari! Sizlar otlarimiz, izvoshlarimiz yetishmaydi, shuning uchun lassaronlar kabi ko'chalarimizda yayov sang'ib yuraverasizlar-da, deb o'ylagan edingiz, unday bo'lsa, tashvishlanmay qo'ya qoling, biz izvoshni o'zimiz kashf etamiz.

– Bu dohiyona kashfiyotingizni allaqachon biror kishiga aytdingizmi?

– Xo'jayinimizga aytdim. Teatrdan qaytib uni bu yerga chaqirdim va unga bu tilagimni izhor etdim. U, bundan osoni yo'q, dedi. Ho'kizlarning shoxlariga zarhal surtish kerak dedim, u bunga uch kun vaqt kerak, dedi, bundan voz kechishga to'g'ri keladi.

– Qaerda u?

– Kim?

– Xo'jayin.

(1931).

²⁸ O'rta tabaqa.

²⁹ Endi italyan banditlari kim ekanini bildim (*Ingl.*).

- Aravaga ketdi. Buni ertaga qoldirib bo‘lmaydi.
- Bugunoq bizga javobini aytadimi?
- Men uni kutib o‘tiribman.
- Shu payt eshik qiya ochilib, maestro Pastrining kalasi ko‘rindi.
- Permesso?²⁵ – so‘radi u.
- Albatta mumkin! – deb xitob qildi Frans.
- Xo‘sh nima bo‘ldi? – so‘radi Alber. – Bizga arava va ho‘kizlar topib keldingizmi?
- Undan yaxshirog‘ini topib keldim, – dedi xo‘jayin o‘zidan juda mamnun holda.
- Qadrli xo‘jayin, ehtiyot bo‘ling, – dedi Alber, – yaxshilikdan yaxshilik axtarmaydilar.
- 3oti shariflari mendan umidvor bo‘laversinlar, – dedi gerdaygansimon maestro Pastrini.
- Xo‘sh, nima gap o‘zi? – so‘radi Frans.
- Siz bilan bir qavatda graf Monte-Kristo istiqomat qilayotganidan xabaringiz bormi?
- Nega xabarimiz bo‘lmas ekan, – dedi Alber, – u zoti shariflarining marhamati bilan ikkimiz xuddi lotin mahal-lasining talabasiga o‘xshab bu yerda tiqilishib yotibmizku.
- U ishlaring o‘ngidan kelmaganini eshitib, o‘z izvo-shidan ikki o‘rin va Rospoli saroyida band etgan derazalaridan ikki joy taklif qilyapti.
- Alber bilan Frans bir-biri bilan ko‘z urishtirib oldi.
- Hech tanimagan kishining taklifini qabul qilsak joiz bo‘larmikin? – dedi Alber.
- Graf Monte-Kristo deganingiz kim o‘zi? – so‘radi Frans.
- Aniq bilmayman, ammo sisiliyalik yoki maltalik dong-dor va badavlat to‘ralardan bo‘lsa kerak.
- Menimcha, – dedi Frans Alberga, – maestro Pastrini-ning gapi rost bo‘lsa, bu graf singlarilar bizni boshqacha taklif etgan bo‘lardi.
- Shu on eshik taqilladi.
- Kiring, – dedi Frans.
- Olifta kiyingan qarol kirib ostona oldida to‘xtadi.

– Graf Monte-Kristo meni baron Frans d’Epine va vikont Alber de Morser huzuriga yo’lladilar, – dedi qarol.

So’ng u xo’jayinga ikkita tashrif qog’ozi uzatdi, xo’jayin esa yigitlarga berdi.

– Graf Monte-Kristo, – dedi qarol, – qo’shni sifatida ertaga ertalab sizning huzuringizga tashrif buyurmoqchilar, ruxsat qilishingiz va o’zingizga bir vaqtni belgilashingizni iltimos qilyaptilar.

– Hech qanday e’tirozga o’rin qolmadi, – dedi Alber ohista Fransga, – hammasi joyida bo’layapti.

– Grafga ayting, – javob qildi Frans, – birinchi bo’lib biz tashrif etaylik janoblarning huzuriga.

Qarol chiqib ketdi.

– Nazokat borasida basma-basga o’tdik endi, – dedi Alber, – maestro Pastrini, haq gapni aytgan ekansiz, graf Monte-Kristo juda ra’y-andishali zot ekan.

– Demak, siz uning taklifini qabul qildingizmi? – so’radi Pastrini.

– Albatta, – javob berdi Alber, – biroq ochig’ini aytsam, aravamizga achinyapman. Agar o’sha Rospoli saroyining derazasidagi joy bo’lmaganda, men so’zsiz, ilgari fikrimda turgan bo’lardim. Siz nima deysiz bunga Frans?

– Meni ham faqat o’sha saroy derazasi tortyapti-da, – javob qildi Frans.

Rospodi saroyidan ikki joyning taklif etilishi Fransga Kolizeyda notanish zot bilan transteverinlik o’rtasidagi suhbatni eslatdi. Frans o’ylaganidek,plash kiygan odam Arjentina teatrida uni qiziqtirib qo’ygani odamning o’zi bo’lsa, uni ko’radi va so’zsiz hamma sirlarni bilib oladi.

Frans ko’p vaqtgacha uxlay olmadi, notanish odam va ertalabki uchrashish to’g’risida fikrlari chuvalashib hayajonga solaverdi uni. Haqiqatan ham ertalab hamma narsa ayon bo’lishi kerak, bu gal Monte-Kristo orolining sirli xo’jayini, agar unda Gigesning sehri uzugi bo’lmasa, Fransdan qochib qutulolmaydi.

Frans uyg’onganida hali soat sakkiz ham bo’lgani yo’q edi.

Ertalab turishga odatlanmagan Alber esa qattiq uyquda edi.

Frans xo'jayinni chaqirtirdi. U kelib odatdagicha ta'zim bilan salomlashdi.

– Maestro Pastrini, – dedi Frans, – yanglishmasam, bugun kimdir qatl etilsa kerak?..

– Ha, shunday, janoblari to'g'ri aytdilar. Bu qatlni ko'radigan derazani topgin dersiz, biroq endi topish qiyin, kechikdik.

– Men unday deytoganim yo'q, – dedi Frans. – Mabodo bu manzarani ko'rmoqchi bo'lganimda Monte-Pinchodan joy topardim.

– Yo'g'-e, nima qilasiz u yerni to'ldirib o'tiradigan yalangoyoqlarga qo'shilib.

– Juda to'g'ri aytasiz, men bormayman. U yerga bormasligim kerak, – dedi Frans, – lekin ba'zi ma'lumotlarni olishim kerak-da.

– Qanaqa ma'lumot?

– Jazoga hukm qilinganlar soni, ularning ismi va qay usulda qatl etilayotgani to'g'risidagi ma'lumotlarni-da.

– Bundan osoni yo'q, janoblari xotirjam bo'lsinlar. Menga hozir tavolette ni keltirishdi.

– Tavolette nima o'zi?

– Bu taxtalar, ularni qatldan bir kun oldin ko'chalarining burchaklariga osib qo'yishadi, ularda jinoyatchilarning ismi, jinoyati va qatl etish usuli yozib qo'yiladi, toki dindorlar Xudodan ularning gunohini kechirishini so'rab duo o'qisinlar.

– Sizga ham dindorlarga qo'shilib duo o'qisin deb olib keladilarmi tavoletteni? – so'radi Frans unga ishonmay.

– Yo'q, janob, unday emas. Men afishalarni yopishtirib yuradigan kishi bilan kelishib olganman, u teatr afishalari bilan birga o'sha e'lonni ham keltiradi, mehmonlarim orasida qatlni ko'rishga qiziqadiganlar chiqib qolsa, bu e'lonni ko'rib ma'lumot oladi, qo'yadi.

– Siz mulozamatni judayam joyiga qo'yarkansiz-da! – dedi Frans.

– Men, – dedi iljayib maestro Pastrini, – lutf aylab mehmonxonaga tashrif buyurgan olijanob xorijiy'larga o'ng'aylik tug'dirish uchun qo'limdan kelgancha hamma narsani taxt qilib qo'yaman.

– O'z ko'zim bilan ko'rib turibman bularni, qadrli xo'jayin, amin bo'ling, men buni hammaga aytaman, albatta. Endi o'sha tavolettedan bittasini olib keling, o'qib chiqayin.

– Hozir, – dedi xo'jayin eshigini ochib, – bittasi zina oldidagi maydonchaga osilsin, degan edim.

U xonadan chiqdi-da, mixga ilib qo'yilgan «tavolette»ni olib kelib Fransga berdi.

Mana u afishaning aynan tarjimasi:

«Hammaga ma'lum bo'lsinki, 22 fevral, seshanba, karnavalning birinchi kunida oliy tribunalning hukmiga muvofiq Pyassa-del-Popoloda quyidagi jinoyatchilar qatl qilinadi: Andrea Rondolo, u muqaddas Ioan lateranskiy cherkovining kashishi, hurmat-e'tiborli Chezare Torlinini o'ldirganlikda ayblanadi, Rokka Priori deb laqab berilgan Peppino: bu manfur qaroqchi Luidji Vampa va uning shaykasi bilan sheriklikda ayblanadi.

Birinchisi mazzolato qilinadi.

Ikkinchisi decapitato qilinadi.

Taqvodor zotlar Xudodan bu ikki qabih jinoyatchiga chin ko'ngildan tavba-tazarru qilishlarini tilab duo qilishga da'vat etiladi».

Bu ikki kun oldin Frans Kolizey vayronasida eshitgan gaplarning xuddi o'zi edi. Programmada hech qanaqa o'zgarish bo'lmabdi: jazoga tortilganlarning nomi, ularning jinoyati, qatl etish usuli o'sha yerda aytilgandek.

Xullas, transteverinlik Luidji Vampa, plash kiygan odam esa Porte-Vekio va Tunisdagidek Rimda ham xayri-ehson ulashishni davom ettirib yurgan Sindbod-Dengiz sayyohining o'zi bo'lsa kerak.

Soat ham to'qqiz bo'ldi, Frans do'stini uyg'otmoqchi bo'lib turgan edi, Alberning o'zi yotoqxonadan batamom

kiyinib chiqdi. Aftidan, karnaval haqidagi o'y-xayollar uni tinch qo'ymagan, shekilli, Frans o'ylaganidan ancha oldin turib shaylanib olgan.

– Sinor Pastrini, – dedi Frans xo'jayinga murojaat qilib. – Mana ikkimiz tayyor bo'lib oldik, endi graf Monte-Kristo huzuriga tashrif buyuraversak bo'larmikin?

– Albatta, – dedi xo'jayin, – graf Monte-Kristo sahar-mardonda o'rnidan turishga odatlangan, uyqudan turganiga ikki soatcha bo'lgandir, menimcha.

– Demak, sizningcha, borsak bezovta qilib qo'ymaymizmi u janoblarni?

– Aslo.

– Unday bo'lsa, qani Alber, tayyormisiz?

– Tap-tayyorman, – dedi Alber.

– Qani, boraylik, – qo'shnimiz bizga izzat-hurmat ko'rsatgani uchun minnatdorchilik bildiraylik.

– Ketdik!

Frans bilan Alber ayvonchadan bir qadam tashlasa, bas, graf ostonasida bo'lishadi. Biroq xo'jayin ulardan oldin borib qo'ng'iroq tugmachasini bosdi, qarol eshikni ochdi.

– I signori francesi²⁶, – dedi Pastrini.

Qarol ta'zim qildi-da, ichkariga taklif etdi.

Ular hashamdor ikki xonadan o'tib (maestro Pastrini mehmonxonasida bunchalik boy jihozlangan xona bo'lishini ikki og'ayni hech kutmagan edi), juda soz jihozlangan mehmon kutadigan xonaga kirishdi. Erga turk gilami to'shalgan, yumshoq, qulay kursilar mehmonlarni hordiq chiqarishga taklif etib, ko'ksini ochib turganday. Devorlarda mashhur rassomlarning suratlari va bezakli miltiqlar, eshiklarda esa rango-rang pardalar.

– Muhtaram mehmonlarga malol kelmasa, o'tirib hordiq chiqarsalar, men borib grafga xabar qilayin.

U ikkinchi eshikka kirib ketdi.

³⁰ «Ertalab soat oltida to'rt ming piastr menga keltirib berilmasa,

Eshik ochilishi bilan ichkaridan udning ovozi eshitildi, biroq shu on jimib qoldi. Mehmonxonada kutib o'tirgan yigitlar musiqaning faqat bir pardasini eshitishdi.

Frans va Alber ko'z urishtirib olishdi-da, yana xonadagi jihozlarni, suratlarni va yarog'-aslahalarni ko'zdan kechirishda davom etishdi. Ular qaragan sari buyumlar go'zal, ko'rkam ko'rinardi.

– Xo'sh, – murojaat qildi jo'rasiga Frans, – xo'sh, buni-siga nima deysiz?

– Mening o'ylashimcha, bu qo'shnimiz ispan fondi kasod bo'lganda nayrang ishlatib yutib chiqqan birja dallo-li yo bo'lmasa maxfiy ravishda sayohat qilib yurgan knyaz bo'lsa kerak.

– Jim! – dedi Frans. – Biz buni hozir bilib olamiz, ana o'zi ham kelyapti.

Eshik g'iyqillab ochildi, pardalari ikki tomonga yig'ildi, ostonada mana shu boyliklar egasi paydo bo'ldi. Alber uning istiqboliga chiqdi, Frans turgan joyida qotib qoldi.

Kirib kelgan kishi o'sha plashli, lojadagi notanish, Monte-Kristo orolidagi sirli mezbonning xuddi o'zi edi.

XIV. MAZZOLATA

– Muhtaram janoblar, – dedi graf Monte-Kristo, – ilgari-roq borib sizni taklif qilolmadim, uzr so'rayman, ammo juda erta borsam tashvishga solib qo'yamanmi, deb qo'rqdim. Buning ustiga, janoblar, o'zimiz tashrif buyu-ramiz, deganlari sababli istaklari bajo keltirilsin, deb qo'ya qoldim.

– Biz sizdan ming-ming karra minnatdormiz, graf, – dedi Alber, – siz chindan ham mushkulimizni oson qildingiz. Biz endi katta arava kashf etayotganimizda siz, muruv-vatli janoblarining taklifini oldik.

– Hamma ayb mana bu befarosat Pastrinida, – dedi graf yigitlarni divanga taklif qilib. – Sizning shuncha aziyat

chekkaningizni menga aytmabdi. Men esa yolg'iz zerikib, qo'shnilarim bilan qanday qilib tanishib olsam ekan, deb xit bo'lib yurgan edim. Biror yordam qilishim mumkinligini bilgach, darhol tanishib olishga harakat qildim.

Grafning bu iltifotli so'zlariga, yigitlar ta'zim-la tashakkur izhor etishdi. Frans sarosimaga tushib g'iq etmay turardi: aftidan, graf tanish ekanini bildirishni istamadi, buni ko'rgan Frans birinchi uchrashuvni esiga solaymi yoki yangi dalillarni kutib sabr qilaymi, deb ikkilanib qoldi. Buning ustiga agar kecha lojada ko'rgan odam shu ekaniga imoni komil bo'lsa-da, biroq undan bir kun ilgari Kolizeydagi odam ham shu ekanini tasdiqlay olishi qiyin edi, shu sababli u sabr etishga va grafga hech nima demay o'zini bilmaslikka olishga qaror qildi. Yana Frans Monte-Kristoning sirini bilgani uchun o'zini ustun deb bilar, graf esa yashiradigan hech nimasi yo'q Fransni tazyiq ostiga ololmasdi.

Har qalay Frans o'ziga shubhali tuyulgan ba'zi narsalarni aniqlab olishda yordam berishi mumkin bo'lgan masalada so'z ochishga ahd qildi.

– Siz bizga izvosh va Rospoli saroyi derazalaridan joy berib, himmat qildingiz, – dedi u, – endi Pyassa-del-Popolodan ham, italyanlar ta'biri bilan aytganda, biror «post», ya'ni kuzatish joyi olish yo'lini o'rgatib qo'yolmaysizmi?

– E, ha, – dedi beparvo ohangda graf Morserga qattiq tikilib, – aytgancha, bugun Pyassa-del-Popoloda qandaydir qatl bo'ladi, shekilli.

– Xuddi shunday, – dedi Frans grafning o'zi u istagan mavzuda so'z boshlayotganidan quvonib.

– To'xtang, men kecha boshqaruvchimga bu ish bilan shug'ullanishni topshiruvdim, shekilli. Ehtimol, bu masalada ham sizga yordam berish qo'limdan kelib qolar.

U kanopni tortib uch marta qo'ng'iroq chaldi.

– Siz biror marta o'z vaqtingizni to'g'ri taqsim etish va xizmatchilarning u yoq-bu yoqqa yugurishlarini kamaytirish yo'llari to'g'risida o'ylab ko'rganmisiz? – dedi u Fransga. – Men bu masalani o'rganib chiqdim: kamerdinerga

bir marta, eshik og'asiga ikki marta, ish boshqaruvchiga uch marta qo'ng'iroq chalaman. Shu yo'sinda bir zum ham ortiqcha vaqt sarf etmayman, bitta so'zni ham be-korga aytmayman. Mana boshqaruvchim keldi.

Xonaga Sindbod g'origa Fransni olib kirgan kontraban-distning xuddi o'ziga o'xshagan, qirq besh yoshlarga bo-rib qolgan kishi kirdi-da, o'zini tanimaslikka olib turaver-di. Frans grafning amri shunday bo'lsa kerak, deb tushun-di.

– Janob Bertuchcho, – dedi graf, – kecha Pyassa-del-Popologa qaragan deraza toping deganim esingizdami?

– Ha, esimda, janobi oliylari, – dedi boshqaruvchi, – biroq juda kechikib qolgan ekanmiz...

– Yo'g'-e! – dedi graf xitob-la qovog'ini solib. – Men sizga albatta deraza kerak menga degan edim-ku!

– Janobi oliylari, derazani olasiz albatta, biroq uni knyaz Lobanevga berib qo'yishgan ekan, shuning uchun yuzni to'lashga majbur bo'ldim...

– Mayli, mayli, janob Bertuchcho, mehmonlarimni may-da gaplar bilan boshini qotirmang. Derazani topibsiz, bo'пти, demak ish – joyida. Derazaning manzilini izvosh-chiga aytib, zinada kuting, bizni kuzatib qo'yasiz. Sizga ruxsat.

Boshqaruvchi ta'zim qildi-da, eshik tomonga burildi.

– Yana bir iltimos, – dedi graf, – marhamat qilib Past-rinidan so'rang – «tavoletta» olganmikan, agar mumkin bo'lsa qatl dasturini berib yuborsin menga.

– Tashvishga hojat yo'q, – dedi Frans cho'ntagidan yozuv daftarchasini olib, – uni men ko'rib yozib olgan edim, mana.

– Juda soz. Unday bo'lsa, janob Bertuchcho, siz keta-vering, boshqa gapim yo'q sizga. Tayinlang, nonushtani qachon keltirishlarini bizga xabar qilishsin. Men bilan no-nushta qilarsiz degan umiddaman, to'g'rimi? – dedi u meh-monlarga murojaat qilib.

– Axir graf, – dedi Alber, – sizni tashvishga solib qo'yamiz-ku.

– Hechqisi yo‘q, aksincha, meni xursand qilasiz. Axir vaqt-soati kelib Parijda meni, birontangiz yoki ikkovingiz mehmon qilarsiz. Janob Bertuchcho, ayting, uch kishiga ovqat keltirishsin.

U Fransning qo‘lidan daftarchani oldi.

– Aha, aha, – dedi graf beparvo ohangda go‘yo teatr afishasini o‘qiyotgandek, – «...22 fevralda... qatl qilinadi: Andrea Rondolo, u muqaddas Ioann Lateranskiy cherkovining kashishi hurmat-e‘tiborli don Chezare Torlinini o‘ldirganlikda ayblanadi. Rokka Priori deb laqab berilgan Peppino: bu manfur qaroqchi Luidji Vampa va uning shaykasi bilan sheriklikda ayblanadi...» Oho!.. «Birinchisi mazzolata qilinadi. Ikkinchisi decapitafo qilinadi». Ha, – dedi graf, – chamamda, hammasi xuddi shunday sodir bo‘lishi kerak edi, biroq kecha bu marosimning tartibi o‘zgargan bo‘lsa kerak.

– Shundaymi hali? – dedi Frans.

– Ha, men buni kecha kardinal Rospilozidan eshitgandim, jinoyatchilardan birining qatl muddati keyinga surilibdi.

– Qaysisiniki? Andrea Rondolonikimi? – so‘radi Frans.

– Yo‘q, – dedi graf, – ikkinchisiniki (u go‘yo ismini eslamayotgandek daftarchaga qaradi)... Rokka Priori laqabidagi Peppinoniki. Jinoyatchining kallasini kesadigan mashinani ko‘rishdan mahrum bo‘ldingiz, mazzolatani ko‘rasiz, birinchi gal ko‘rgandagina emas, hatto ikkinchi marta ko‘rganda ham bu juda zavqli manzara. Mashinada kallani shartta kesib tashlash (balki buni siz ko‘rgandirsiz) juda oddiy, zerikarli manzara, unda qo‘qqisdan, kutilmagan holda yuz beradigan hech narsa yo‘q, qatlning bu xilida jallod qo‘lida pichoq titramaydi, tegmasdan o‘tib ketmaydi, graf de Shale kallasini olish to‘g‘risida Risheledan alohida farmon olgan soldatga o‘xshab jallod pichog‘ini aybdorning bo‘yniga o‘ttiz marta tekkizib qaytib olmaydi. Qo‘ying, – dedi graf jirkanib, – aybdorga azob berish masalasiga kelganda yevropaliklaringizni menga pesh qilmang, ular bu borada juda go‘l, qahr-g‘azab ni-

maligini bilmaydigan go'dak.

– Graf, – dedi Frans, – yer kurrasining turli xalqlarida qatl etish usullarini bir-biriga solishtirib o'rganib chiqqansiz, shekilli.

– Men ko'rmagan usul kam bo'lsa kerak har holda, – dedi sovuqqonlik bilan graf.

– Nahotki siz shunday razil, dahshatli manzaralardan zavqlansangiz?

– Birinchi marta jirkandim, ikkinchi gal parvoyi falak o'tirdim, axiri borib qiziqadigan bo'lib qoldim.

– Qiziqadigan? Bu dahshat-ku!

– Nega endi? Turmushda eng muhim narsa – o'lim. Shunday ekan, jonning tanni qanday tark etishini va kishilar o'z xulqi-atvori, mijozi, hatto tub joyining urf-odatiga muvofiq borliqdan yo'qlikka ana shu oxirgi qadamni qanday tashlashini ko'rish zavqli, qiziqarli emasmi? Amin bo'lingki, o'layotganlarni qancha ko'p ko'rsangiz, o'lish shuncha yengil bo'ladi, shu sababli o'lim gunohni yuvish emas, qatldir.

– So'zlaringizga unchalik aqlim bovar qilmayapti, – dedi javoban Frans, – fikringizni aniqroq qilib tushuntirib bering, men judayam qiziqib qoldim.

Graf boshqa odamlarga o'xshab bo'riqib ketmadi, aksincha yuzidan zahar tomib:

– Menga qarang, – dedi. – Bordi-yu, biron kishi otangizni, onangizni yoki mahbubangizni, xullas biron-bir yaqin kishingizni issiq bag'ringizdan yulib olib, ko'z ko'rib quloq eshitmagan qiynoqda, beadam azob-uqubatda o'lishga majbur qilsa, qalbingiz manguga bo'sh bo'lib qoladi, yurak jarohatidan umrbod qon tomchilab turadi. Nahotki siz qotilning kallasini gilotin pichog'i sapchadek uzgani bilan jamiyat mening izzat-nafsimni qondirdi, deb hisoblasangiz? Axir siz o'sha qotilning kasru kasofatiga uzoq yillar davomida ruhiy iztirob chekkansiz, u bo'lsa bir zungina jismoniy azob chekdi, xolos.

– Bilaman, – dedi Frans, – insoniy odil sud kishiga ta-

salli berolmaydi. U faqat qonga qon, jonga jon olishi mumkin, uning qo'ldan keladigani shu, unga bundan ortiqcha talab qo'yib bo'lmaydi.

– Men bu yerda, – deb davom etdi graf, – o'z a'zolaridan birining o'ldirilishidan o'ta g'azabga mingan jamiyat qasosini, ya'ni jonga jon olishni taqdirlashini ko'rsatadigan bir voqea haqida gapiryapman. Aslini olganda, bizda kishi bag'rini ming pora qilayotgan azob-uqubatlarning son-sanog'i yo'q, ammo jamiyat bularni e'tiborga olmaydi va ular uchun hatto hozir biz tilga olgan osongina usulda qasos olishni xayoliga ham keltirmaydi. Axir bizda turklar qoziqqa o'tkazganidan, prokezlar tomirlarni o'yib olgandagidan batarroq, dahshatliroq qiynoqqa duchor etilishi ham qarz, ham farz bo'lgan jinoyatlar yo'qmi? Bor, biroq parvoyi-falak jamiyatimiz bu jinoyatlarni jazoga tortmay keladi... Qani, ayting-chi, bunday jinoyatlar yo'qmi?

– Bor, – dedi xitob qilib Frans. – Duelni shunga chiqarib qo'yishgan-da.

– Duel! – xitob qildi graf. – Maqsad faqat mo'ljal bo'lib qolganu, shu maqsadga erishish uchun topgan vositalarini qarang-a! Bir kimsa mahbubangizdan sizni judo etsa, xotiningizni yo'ldan ursa, qizingizning nomusini barbod etsa, hamma qatorida Xudodan baxt-saodat ato etilishini kutishga haqli hayotingizni ana shu odam butunlay qayg'u-alam, azob-uqubat girdobiga uloqtirib, abgor qilsayu, siz uning ko'ksiga bir qilich sanchish bilangina yoki peshonasiga bitta o'q otish bilangina nahotki qasosimni oldim deb qanoat hosil qilsangiz? Aslo! Buning ustiga, u kimsa ko'pincha g'olib chiqib, odamlar ko'z oldida o'zimni oqladim va Xudoning muruvvatiga sazovor bo'ldim, deb gerdayib yuradi. Yo'q, yo'q, – so'zini davom etdi graf, – mabodo menda ham qasos olish zaruriyati tug'ilib qolgudek bo'lsa, aslo bunday qilib qasos olmayman.

– Demak, siz duelni inkor etarkansiz-da? Yakkamayka jang qilishdan voz kecharkansiz-da? – so'radi grafning g'alati nazariyasidan taajjublangan Alber.

– Yo‘q, nega inkor qilarkanman? – e‘tiroz bildirdi graf.
– Mening so‘zlarimga to‘g‘ri tushuning: masxara qilsa, izzat-nafsimga tegib nufuzimga putur yetkizsa, yolg‘onchiga chiqarishga urinsa, shappati ursal, albatta, duelga chaqirib yakkama-yakka jang qilaman, chunki jismoniy tomondan chiniqib, juda ko‘p hunar orttirdim, ko‘p yillardan buyon xavf-xatarlarga tik qarashga odatlanib keldim, shu sababli dushmanimni yer tishlatishim muqarrar ekaniga aslo shubha qilmay jang qilaman. Ammo uzoq vaqt behad og‘ir azob-uqubatlarga solib kelgan kishidan men ham uni xuddi shunday uzoq, cheksiz qiy-noqlarga duchor etib qasos olgan bo‘lardim – hayotni tushga, o‘ngni jannatga aylantira olgan qadimiy ustozlarimiz Sharq kishilari aytganlaridek, qonga qon, jonga jon olgan bo‘lur edim.

– Menimcha, – dedi e‘tiroz bildirib Frans, – modomiki, siz o‘z xatti-harakatingiz bilan bir yo‘la ham sud, ham jal-lod rolini o‘ynamoqchi ekansiz, u holda qonun chegara-sidan chiqib ketib, ana shu qonun iskanjasiga o‘zingiz tushib qolishingiz hech gap emas. Nafratning ko‘zi ko‘r bo‘ladi, g‘azabga mingan payt kishi es-hushini yo‘qotib qo‘yadi, qasos kayfiga mahliyo bo‘lgan kishining o‘zi ham qon yutib qaqshab qolishi ehtimoldan xoli emas.

– To‘g‘ri, agar u qashshoq va ahmoq bo‘lsa shunday bo‘ladi, lekin million-million boylikning egasi va aqli raso kishi hech vaqt bunday holga tushmaydi. Juda borsa, u hozir biz tilga olgan osongina qatlga duchor bo‘ladi, xolos. Esingizda bo‘lsa kerak, insonparvar fransuz revolyusiyasi ilgarigi to‘rt nimta qilish va charxpalakka tortish jazolari o‘rniga mana shu jazoni joriy etgan edi. Qasos olingach, qatlning nima ahamiyati qoldi unga? Aftidan, bechora Peppinoni «decapitato» usuli bilan qatl etmasalar kerak, men bundan bir oz afsuslanyapman, chunki siz bu usul qancha vaqt olishini gapirishga arziy-digan narsami-yo‘qmi ekanligini o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rgan bo‘lur edingiz. Janoblar, karnavalning birinchi kunida bunaqa gaplar bilan boshimizni kotirib o‘tirgani-

mizni qarang-a! Nimadan boshlanib ketdi bu suhbat? Ha, esimga tushdi! Siz derazadan joy olishga istak bildirdingiz, bajonidil joyni muhayyo qilamiz, qani, avvalo dastur-xonga o'tiraylik, ovqatni keltirdilar, shekilli.

Chindan ham mehmonxonaning to'rt eshigidan biri ochildi-da, qarol kirib:

– Ovqat tayyor, – dedi.

Yigitlar o'rinlaridan turib yemakxonaga o'tishdi.

Ajoyib idishlarga solingan mazali ovqatlarni baham ko'rayotganda, Frans jo'rasi Alberdan ko'zini uzmasdan va mezbanning gaplari unga qanday ta'sir qilganini bilishga urinardi. Ammo Alber o'ziga xos beparvoligi tufayli mezbanning boyagi so'zlariga uncha e'tibor bermaganidanmi yoki duel masalasida graf Monte-Kristoga yon berib ko'ngli tinchigandanmi, yo bo'lmasa Kolizeydagi gap-so'zlar faqat Fransga ma'lum bo'lib, bu gaplar yolg'iz ana shu Fransning o'zi uchun chuqur ahamiyat kasb etganidanmi – har holda Alberning ko'zlarida hech qanday tashvish alomatlari sezilmasdi. Deyarli besh oydan buyon dunyoda eng bemaza hisoblangan Italiya taomlaridan bezor bo'lgan Alber zo'r ishtaha bilan ovqatni tushirmoqda edi. Graf esa ovqatlarga unchalik qaramas, mehmonlarga izzat-hurmat yuzasidan ahyon-ahyonda bir chimdim olib qo'yar, yigitlar ketgach, o'ziga allaqanday g'alati yoki maxsus ovqat keltirilishini kutayotgani sezilib turardi.

Shu payt Frans grafinya G.ning teatrda ro'paradagi lojada o'tirgan kishini ko'rib o'takasi yorilganini va bu odam qonxo'r murda deganini xotiriga keltirdi.

Nonushtadan so'ng Frans soatga qarab qo'ydi.

– Ha, nima bo'ldi? – so'radi graf.

– UZR, graf, – dedi Frans, – bizning hali bitmagan ishimiz ko'p.

– Qanaqa ish?

– Bizning hali karnavalda kiyadigan kiyimimiz yo'q, bugun busiz ko'chada yurib bo'lmaydi.

– Xotirjam bo'ling. Pyassa-del-Popoloda, chamamda, bizga alohida xona ajratilgan, xohlagan kiyim-boshni

o'sha yerga oldirib kelaman, o'sha xonadayoq kiyimimizni almashtirib olamiz.

– Qatl tamom bo'lgandan keyinmi? – so'radi Frans.

– Siz qay vaqtda desangiz, o'sha vaqtda: keyin desangiz keyin, oldin desangiz oldin yoki qatl vaqtida desangiz – o'sha vaqtda.

– Jallod kundasi ro'parasidami?

– Jallod kundasini tomosha qilish ham bayram dasturiga kirgan.

– Menga qarang, graf, men Pyassa-del-Popologa borishdan voz kechdim, muruvvatingiz uchun katta rahmat, menga izvoshingizdagi o'rin va Rospoli saroyining dera-zasi kifoya. Pyassa-del-Popolodagi joyni xohlagan kishiga bera qoling.

– Ammo ogoh bo'lingki, siz juda ajoyib-g'aroyib manzaradan o'zingizni o'zingiz mahrum etib qo'yyapsiz, – dedi graf.

– So'ng menga hikoya qilib berarsiz, – dedi e'tiroz bildirib Frans – sizning hikoyangiz o'sha manzarani o'z ko'zim bilan ko'rgandagidan kam ta'sir etmas. Men umuman, bu qatlni bir necha marta ko'rmoqchi bo'lib harakat qildimu, ammo jur'at etolmadim. Alber, siz-chi?

– Men Kastenni qatl etganlarini ko'rgan edim, – javob qildi vikont, – ammo ancha kayfim bor edi, shekilli, o'sha kuni kollejni tugatgan edik va butun tunni qandaydir qovoqxonada o'tkazgan edik.

– Mabodo siz biror ishni Parijda qilmagan bo'lsangiz, bundan ana shu narsani albatta yot o'lkalarda bajo keltirmaslik kerak degan xulosa chiqmaydi-ku, – dedi graf, – bilimni orttirish uchun sayohat qiladi kishi, yangi joyni ko'rmoq uchun o'rnidan qo'zg'aladi kishi. «Rimda qatl qanaqa bo'larkan?» deb so'rganlarida javob berishni ham o'ylash kerak. «Bilmayman» desangiz uyat bo'ladi. Yana shunisi ham borki, o'g'li qatorida tarbiya qilib, voyaga yetkazgan hurmatli kashishni tosh to'qmoq bilan urib o'ldirgan jinoyatchi juda uchiga chiqqan razil, ablah ekan. Axir, evi bilan-da! Din mansabdorini, ayniqsa u otang

qatori zot bo'lsa, tosh to'qmoqdan boshqa durustroq qurol ishlatish zarur. Bordi-yu, Ispaniyaga yo'lingiz tushib qolsa, albatta buqalar jangini tomosha qilardingiz-da, shundaymi? Hozir ham xuddi o'sha buqalar jangini tomosha qilgani boryapsiz, deb faraz qilavering. Qadimiy rimliklarning sirkini, uch yuz arslon va yuzlab odamlarni o'ldirgan ovlarni xotiringizga keltiring, qarsak chalib o'tirgan sakson ming tomoshabinni, kelinchak-qizlarini boshlab kelgan hurmatli matronalarni, «hoy, yalqovlik qilmay anavi maxluqning kunini kalta qilib qo'ya qolsangiz-chi, o'ziyam chala o'lik bo'lib qopti-ku, axir!» – deb nozik barmoqchalari bilan imo qiladigan oqbilak oyimchalarni eslang.

– Alber, siz borasizmi? – so'radi Frans.

– Men siz singari ikkilanib turgan edim, ammo grafning so'zlari meni maftun etdi, endi albatta boraman.

– Agar siz borar ekansiz, men ham boraman, – dedi Frans, – faqat Pyassa-del-Popologa borayotib, Korsoga kirib o'tsak bo'larmikin?

– Piyoda borsak bo'ladi, izvosh bormaydi u yoqqa.

– Men piyoda ham boraveraman.

– Siz albatta Korsoda bo'lishingiz shartmi?

– Shart, men u yerda ba'zi narsalarni ko'rishim kerak.

– Mayli, Korsoga piyoda boramiz, izvosh via-del-Babuno tomondan borib bizni Pyassa-del-Popoloda kutib turadi, men ham Korsoga borishga qarshi emasman, bir yo'la ba'zi topshiriqlarim bajarilganmi, yo'qmi, bilib olaman.

– Janobi oliylari, – dedi eshikni ochib qarol, – hoji libosidagi bir odam siz bilan gaplashmoqchi, iltifotingizga muntazir bo'lib turibdi.

– Ha, bilaman uni, – dedi graf. – Janoblar, mehmonxo-

soat yettida graf Alber tirik qolmaydi. Luidji Vampa».

³¹ Bu yoqqa chiqing! (*Ital.*)

³² Kompozitorlar

³³ Kaltabin ma'mur

naga kirasizlarmi? U yerdagi stolda a'lo sifatli gavan sigareti bor... Bir zum o'tar-o'tmay qaytaman.

Yigitlar o'rinlaridan turib eshiklardan biridan chiqib ketishdi, graf ham yana bir karra uzr so'rab, ikkinchi eshikdan chiqdi. O'tkir sigaralar muxlisi Alber stol yoniga bordi-da, rostakam «puros»ni ko'rib, quvonganidan qichqirib yubordi.

– Xo'sh, Alber, – so'radi Frans, – graf Monte-Kristo to'g'risida fikringiz qanaqa?

– Mening fikrimmi? – dedi javoban Alber jo'rasining bu savolidan taajjublanib. – Menim fikrimcha graf mehmondo'st mezbob, juda yoqimtoy, dilkash odam, ko'pni ko'rgan, ko'pni bilgan, ko'p mulohazali, Brut singari irodali, mard kishilar toifasidan, boz ustiga, – dedi u sigaradan shift tomonga halqa-halqa tutun chiqarib, – sigaralari ham juda soz.

Graf to'g'risida Alber ana shunday fikrda edi. U, men biror kishiga yoki biror narsaga yaxshilab o'ylab, mulohaza qilgach baho beraman, deb hamisha maqtanib yurardi, shuning uchun Frans uning gaplariga e'tiroz bildirmay qo'ya qoldi.

– Biroq siz g'alati, ajib bir vaziyatga e'tibor berdingizmi? – so'radi Frans.

– Qanaqa vaziyatga?

– U sizga tikilib o'tirganini sezdingizmi?

– Menga-ya?

– Ha, sizga.

Alber o'ylab qoldi.

– E, bunda, – dedi u xo'rsinib, – taajjublanadigan hech nima yo'q. Parijdan chiqqanimga rosa bir yil to'ldi, kiymim eskirib ketgandir, graf meni qishloqilardan deb o'ylagan bo'lsa kerak, xonasiga kelganda unday emas, deb noto'g'ri fikridan qaytarib qo'ya qolasiz-da.

Frans jilmayib qo'ydi. Bir zumdan so'ng graf qaytib keldi.

– Mana, janoblar, endi men butunlayin sizning ixtiyoringizdaman, – dedi u, – farmon berildi, izvosh o'z yo'li

bilan to'g'ri Pyassa-del-Popologa boraveradi, siz bilan biz ham sizga qulay ekan, Korso tomondan boramiz. Janob de Morser, sigaradan bir oz oling.

– Rahmat, graf, bajonidil, – dedi Alber. – Italyan sigaralari fransuzlarnikidan past bo'ladi, Parijga o'zlari tashrif buyursalar, men ham sizga bizning sigaralarni oldingizga qo'yaman.

– Roziman, biror kun Parijda bo'lish niyatim bor, ruxsat etsalar, huzuringizda bo'laman. Qani, janoblar, turdik, vaqt o'tib boryapti, soat o'n ikki yarimga yaqinlashib qoldi. Ketdik!

Uchovlon pastga tushishdi. Izvoshchi xo'jayinidan oxirgi farmoyishlarni oldi-da, via-del-Babuino bo'ylab yo'l oldi, graf bilan yigitlar esa via-Frattina bo'ylab Pyassa-di-Spanya tomonga jo'nashdi. Bu ko'cha Fiano saroyi bilan Rospoli saroyi oralig'idan Korsoga olib chiqdi.

Fransning ikki ko'zi bu saroyning derazalarida edi, Kozlizeyda maxfiy ravishda transteverinlik bilan plash kiygan kishi shartlashgan signalni Frans unutmagan edi.

Frans hayajonga tushayotganini sezdirmaslikka urinib, grafdan so'radi:

– Derazalardan qaysinisi sizniki?

– Oxirgi uchyasi, – dedi graf beparvolik bilan. U savolning tub ma'nosini anglamagan edi.

Frans derazalarni tez ko'zdan o'tkazdi. Burchak tomondagilariga sariq kimxob, o'rtadagilariga qizil salb surati solingan oq kimxob tortilgan edi.

Demak, plash kiygan zot so'zining ustidan chiqibdi, o'sha plash kiygan odam mana shu graf Monte-Kristoning o'zi, bunda endi hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas.

Uchala deraza hali bo'sh edi...

Hamma joyda karnavalga tayyorgarlik qizigan, stullar qo'yishyapti, sahnalar qurishyapti, derazalarni tayyorlashyapti. To qo'ng'iroq urilmaguncha niqoblar ko'zga ko'rinmasligi, izvoshlar qimir etmay turishi shart, biroq niqoblar derazalar orqasida, izvoshlar esa darvozalar or-

tida shaylanib turganini hamma bilardi.

Frans, Alber va graf Korso bo'ylab borishyapti. Ular Pyassa-del-Popologa yaqinlashgan sari olomon g'uj bo'la-verdi. Maydonning o'rtasida olomon boshi ustida salb tutgan haykal, Babunno, Korso va Rietta ko'chalari chorsida ikkita qatl ustuni qad ko'targan. Ular o'rtasida kamon nusxa gilotin pichog'i yaltirab turibdi.

Muyulishda grafning ish boshqaruvchisi xo'jayinini kutib turardi.

Juda qimmatga tushgan (graf buni mehmonlardan sir tutishga qaror qilgan edi) deraza ulkan saroyning uchinchi qavatida, via-del-Babuino bilan Monte Pincho o'rtasida edi. Xona esa yotoqqa tutash bo'lib, uning ichiga kirib olgan kishi o'zini go'yo o'z uyida deb his etardi. Stullarda masxarabozning ko'k va oq atlaslardan tikilgan ko'rkam kiyim-boshlari osig'liq.

– Siz kiyimlarni tanlashni menga havola qilgan edingiz, – dedi graf ikkala do'stiga, – mana oldirib keldik. Avvalo bu yil juda rasm bo'lib qolgan kiyimlar mana shular, qolaversa, maskarad uchun bular qulay.

Frans grafning so'zlariga unchalik quloq osmagan va uning iltifotiga ehtimol yaxshi e'tibor qilmagan edi, uning butun diqqat-e'tibori Pyassa-del-Popoloda bo'ladigan voqeaga va yana dahshatli qurol gilotin pichog'ida edi.

Bu razil qurolni Frans birinchi marta ko'rishi, buni biz gilotina deyapmiz, shuning uchunki, rimning mandaiasi fransuz ajal quroliga juda o'xshaydi. Bu o'shanaqa yarim oy nusxa bo'lib, uncha balandlikdan tushmaydi.

Aybdorni o'tqazadigan taxta ustida qatlni kutib o'tirgan ikki kishi kolbasa bilan non yeb o'tiribdi. Ulardan biri taxtani ko'tarib uning tagidan vino to'la flyagani oldida, bir simirib o'rtog'iga uzatdi. Bular jallodning yordamchilari edi.

Bularni ko'rib, Fransni qora ter bosdi.

³⁴ Pede Poena claudo – no'noq (ya'ni asta-asta) jazo berish qonu-

O'limga hukm qilinganlar kecha Yangi turmadan Santa-Mariya-del-Popolo degan kichkina cherkovga keltirilgan edi, tuni bilan ularni kashishlar o'limga tayyorlashdi.

Cherkov eshigi bilan jallod kundasi oralig'ini, maydon atrofini ikki qator karabinerlar, o'rtada yuz qadamcha bo'shliq qoldirib o'rab olishdi. Maydonning qolgan qismini olomon band etdi. Ko'p xotinlar bolalarini yelkasiga ko'tarib olgandi, ular onalarining yelkasidan jallod kundasini bemalol ko'rishlari mumkin.

Monte Pincho keng amfiteatrga o'xshardi. Uning hamma pillapoyalari liq to'la odam, via-del-Babuino va via-di Ripetta burchaklaridagi cherkovlarning ayvonlari yuqori tabaqa aholisi bilan band, devorning har bir do'ng joyi odam joylashsa bo'ladigan darajada keng va jonli haykallar uchun supacha rolini o'ynashi mumkin.

Grafning so'zlari haq bo'lib chiqyapti: haqiqatan qatldan ham zavqli tomosha bo'lmasa kerak.

Marosim tantanasi oldidan odob saqlab tinch turish o'rniga olomon orasida shov-shuv, kulgi, quvonch so'zlari jaranglardi. Aftidan bunda ham graf haq bo'lib chiqdi, olomon qatlni karnavalning boshlanishi deb bilardi.

To'satdan, go'yo sehrli tayoq bilan ishora qilgandek hamma jim bo'ldi, cherkov eshiklari ochildi. Birinchi bo'lib ko'z oldi teshilgan ko'k qop kiygan ziyoratchilar qo'llariga shamchiroq ushlab chiqishdi. Eng oldinda ularning boshlig'i. Ziyo-ratchilar ketidan devday erkak kelyapti. Kalta bo'z ishtonini hisobga olmaganda, u yalang'och edi. Chap biqinida qiniga solig'liq katta pichoq, o'ng yelkasida gurzi. Bu jallod edi. Oyog'ida to'pig'iga kanop bilan bog'lab qo'yilgan shippak.

Jallod ketidan qatl qilish navbatiga qarab Peppino bilan Andrea kelyapti.

Har birini ikki kashish kuzatib kelmoqda.

Ikkisining ko'zini bog'lashmagan.

Peppino dadil qadam tashlardi, aftidan bo'ladigan voqeadan uni xabardor etgan edilar.

Andreani esa kashishlar qo'ltiqlab kelishyapti.

O'linga hukm etilganlar bod-bod lablariga tutilayotgan butlarni o'pib qo'yishardi.

Ularni birinchi ko'rishdayoq Fransning kayfi uchib ketdi, u Alberga qaradi. Uning rangida qoni qolmagandi. Yarmini chekib tugatmagan bo'lsa-da, u beixtiyor sigarasini uloqtirdi.

Faqat graf pinagini buzmay o'tirardi. Uning devor kabi yuziga hatto bir oz qon ham yugurgan.

Monte-Kristoning burun parraklari xuddi qon hidi sezayotgan yirtqich hayvonniki singari kerildi, qashqirniki kabi oppoq o'tkir tishlari irjaydi.

Shularga qaramay, chehrasida mehr alomatlari ko'rinib turardi, bunday holni Frans ilgari unda hech sezmagandligi bois ko'zlari quvonib turishi Fransni ayniqsa taajjubga soldi.

O'linga hukm qilinganlar ajal kundasiga tobora yaqinlashib borishyapti, endi ularning chehrasini baralla ko'rsa bo'ladi. Peppino endigina yigirma besh bahorni ko'rgan, qorachadan kelgan go'zal yigit edi, uning qarashlari behayo, dag'al, boshini baland ko'tarib, go'yo xaloskorlar qay tomondan kelarkan, degandek atrofga alanglardi.

Andrea esa semiz, pakana, g'amgin chehrasidan yoshini aniqlash qiyin, o'ttiz yosh bersa bo'ladi. Turmada soqol qo'ygan edi. Bo'yni egilib, yelkasi ichiga kirib ketgan, oyoqlari bukilib-bukilib boryapti, butun vujudi o'z-o'zidan, beixtiyor harakat qilayotganday tuyulardi.

– Siz, bulardan faqat bittasining kallasini tanidan judo qilishadi degan edingiz, shekilli? – dedi Frans grafga.

– Men yolg'on gapni aytganim yo'q sizga, – dedi sovuq ohangda graf.

– Biroq ikki aybdorni keltiryaptilar-ku.

– To'g'ri, ammo birisining ajali yaqin, ikkinchisi esa hali uzoq umr ko'radi.

– Agar ikkinchisi afv qilinadigan bo'lsa, mana hozir e'lon qilishlari kerak.

– Xuddi aytganingiz keldi, ana, qarang, – dedi graf.

Rostdanam, Peppino kunda tagiga endi borgan edi,

boyagi ziyoratchi hech to'xtamay, soldatlar tizimi orasidan o'tib uyushma boshlig'i oldiga bordi-da, to'rt buklangan qog'oz uzatdi.

Peppinoning yonib turgan o'tkir ko'zlari bu manzarani mayda-chuydasigacha ko'rib turardi. Uyushma boshlig'i xatni ochib o'qidi va qo'lini ko'tardi.

– Xudo poshsho, uning aziz papasiga shon-sharaflar! – dedi u baland ovoz bilan dona-dona qilib, – aybdorlardan biri afv etildi.

– Afv etildi! – xitob qildi olomon bir ovozdan. – Biri afv etilibdi!

Andrea «afv etilibdi» degan so'zdan seskanib ketdi va boshini ko'tardi.

– Kimni afv etishibdi? – qichqirdi u.

Peppino harsillab turgan joyida qotib qoldi.

– Rokka Priori laqabli Peppinoni afv etishdi, – dedi boshliq va xatni karabinerlar boshlig'iga tutqazdi, u xatni o'qib qaytarib berdi.

– Peppino afv etilibdi! – qichqirib yubordi Andrea o'zini bosib olib. – Nega meni emas, uni afv qilishadi? Ikkimiz qatl qilinishimiz kerak edi; menga u sendan oldin o'ladi, deb va'da berishgan edi-ku. Bir o'zimni o'ldirishga haqingiz yo'q, bir o'zim o'lishni istamayman, istamayman!

U kashishlar qo'lidan chiqib ketaman deb o'zini har tomonga urib dod-faryod soldi, vahimaga tushib baqirdi, qo'llari bog'langan arqonni uzaman, deb urindi.

Jallod yordamchilariga imo qildi, yordamchilar kundan irg'ib turib Andreani mahkam tutib olishdi.

– Nima bo'lyapti u yerda? – so'radi Frans grafga murojaat qilib.

Hamma rim shevasida gapirganidan Frans nima bo'layotganini fahmlay olmayotgan edi.

– Nima bo'lyapti u yerda dedingizmi? – qaytardi savolni graf. – Fahmingiz yetmayaptimi nima bo'layotganiga? Hozir ajal sirtmog'iga tushadigan anavi maxluq ikkinchi odam u bilan birga o'ldirilmagani uchun g'alva ko'taryapti. Agar unga qo'yib berishsa Peppinoni tirik qoldirmaslik

uchun tirnoqlari va tishlari bilan tilka-pora qilib tashlardi. Eh, bu odamlar, Karl Moor aytganidek, timsohdan tarqalgan odamlar! – xitob qildi graf mushtlarini to'lg'ab. – Men sizlarni tanib turibman, hamma vaqt o'zingizga o'zingiz sodiqsiz, ha, hamma vaqt sodiqsiz!

Andrea va jallod yordamchilari chang yerda uymalani-shyapti. Andrea hamon «u ham o'lmog'i kerak. Men uning o'lishini istayman! Yakka o'zimni o'ldirishga haqingiz yo'q!» deb baqirardi.

– Unga qarang, – dedi graf yigitlarni qo'llaridan tutib. – Rostdan ham ko'z uzmay qarashga arziydigan voqea bo'lyapti. Hozirgina taqdirga tan berib, qarshilik qilmay, arz-dod etmay qo'rloqlarcha ajal kundasiga bosh egib kelayotgan edi u. Shu daqiqagacha qanday kuch bilan o'zini bosib kelgan edi u, bilasizmi? Nima tasalli berayotgan edi unga? Bilasizmi, nega u ajal kundasiga itoatkorona bo'yin egib kelayotgan edi? Chunki ikkinchi bir kishi ham unga o'xshab azob chekayotgan edi; chunki ana shu ikkinchi kishi ham o'lishi kerak edi, o'lganda ham undan oldin o'lishi kerak edi! Ikki qo'yni bo'g'izlashga, yoki ikki buqani so'yishga olib boring-da, biriga sherigi tirik qolishini anglatib ko'ring, qo'y quvonib ma'raydi, buqa suyunib bo'kiradi. Odam-chi? Xudoning o'zi yaratib qo'ygan odam, yaqinlariga mehribon bo'lish sen uchun eng birinchi, yagona oliy qonun deb Tangrining o'zi buyurib qo'ygan odam, o'z fikrini izhor etish uchun til ato etilgan ana shu odam o'rtog'i qutqarilajagini eshitib qolsa baqirib aytadigan birinchi so'zlari nima bo'ladi? Qarg'ish, la'nat. Qoyil! Tabiat toji, jonivorlar shohi – odamga ofarin-a!

Graf shunday dedi-yu, dahshatli qah-qah urib kulib yubordi. Faqat behad dard-alam chekkan insongina shunday kulgiga qodir bo'lsa kerak.

Bu orada gilotina yonida to's-to'polon davom etayotgan edi, bu manzaraga toqat qilib qarab turish aslo mumkin emas. Jallodning yordamchilari Andreani kunda yoniga sudrab borishyapti. Hamma uni baloday yomon

ko'rib qolgan edi. Shu sababli yigirma ming ovoz birdaniga «Qatl etilsin, qatl etilsin u!» deb qichqirardi.

Frans o'zini shartta chetga olgan edi, biroq graf uni yana qo'ldan ushlab deraza oldida tutib turdi.

– Nima bo'ldi sizga? – so'radi u Fransdan. – Unga achin-yapsizmi? Rahmingiz kelyaptimi? Shunday odamga ham achinadimi kishi! Siz mabodo derazangiz tagida quturgan it yugurib yurganini bilib qolsangiz, darhol miltiqni olib ko'chaga otilib chiqardingiz-da, hech achinib o'tirmay uni peshanasidan otib tashlardingiz. U bechora esa boshqa it tishlagani uchun quturgan edi. Aybi shu edi, xolos, bu yerda siz hech kimdan ozor chekmagan holda o'z rahnamosini bevaj o'ldirgan maxluqqa achinib, rahmingiz kelyapti. Mana hozir uning qo'llari bog'liq, hech kimni o'ldirolmaydi, lekin qamoqda birga bo'lgan, birga baxtsizlikka uchragan o'rtog'ining ham o'ldirilishini faryod urib talab qilyapti! Ana, unga qarang! Qarang!

Grafning bu talabiga hojat qolmagan edi: Frans dahshatli manzaradan ko'zini uzolmay qolgandi. Jallodning yordamchilari aybdorni kundaga sudrab chiqarishdi, do-faryodiga, tishlashlariga qaramay tiz cho'ktirishdi. Jallod cho'qmorni taxt tutib yon tomoniga o'tdi, imo qilib yordamchilarini nari jo'natdi. Aybdor qaddini ko'tarmoqchi bo'lgan edi, ulgurolmadi. Jallod cho'qmor bilan chap chakkasiga tarsillatib soldi. Andrea xuddi buqa kabi mukkasidan yiqildi, so'ng chalqancha tushib oldi. Shundan so'ng jallod cho'qmorni tashladi va pichoqni olib kekirdagini shart kesib tashladi-da, qorniga chiqib olib, oyoqlari bilan bosa boshladi. Har bosganida aybdorning bo'ynidan qon otilib chiqardi.

Frans toqat qilolmadi, yugurib uyning to'riga o'tdi-yu, hushidan ketib, kursiga gup etib yiqildi.

Alber esa ko'zlarini qisib darpardaga yopishib oldi.

Graf tantana qilayotgan yovuzlik geniysi singari boshini baland ko'tarib gerdayib turardi.

XV. RIMDA KARNAVAL

Frans hushiga kelganda, rangi devordek oqarib ketgan Alber suv ichayotgan edi, graf esa masxaraboz libosini kiyayotgan edi. Frans beixtiyor maydonga qaradi: kallani tanadan judo etadigan mashina ham, jallod ham, qatl etilgan shaxs ham – hammasi gumdon bo'lgandi. Faqat hayajonga to'lgan olomongina hamon shov-shuv solib turardi. Papaning o'limini-yu, karnaval ochilganini e'l'on qilish uchungina chalinadigan Monte Chitorio qo'ng'irog'i hamma yoqni boshiga ko'tarib jaranglayapti.

– Nima bo'lyapti? – so'radi Frans grafdan.

– Hech narsa bo'layotgani yo'q, ko'rib turibsiz-ku o'zingiz, hech gap yo'q, – dedi graf. – Karnaval, xolos. Tezroq kiyining.

– Tavba, – dedi Frans, – fojia xuddi tush kabi o'tdiketdi.

– Ko'z oldingizdan o'tgan dahshatli voqealar chindan ham faqat tush edi.

– Men uchun tush edi, bu to'g'ri, ammo qatl qilingan kishi uchun-chi?

– Uning uchun ham tush, farqi shuki, u abadiy uyquga ko'z yumdi, siz esa uyg'ondingiz, ikkingizdan qaysingiz baxtli ekaningizni kim bilsin?

– Peppino qani? – so'radi Frans, – unga nima bo'ldi?

– Peppino odobli, mulohazali, kamtarin yigit, uni unutilib qo'yganlaridan o'pkalab o'tirish u yoqda tursin, bundan foydalandi-da, olomon ichiga sho'ng'idi, ketdi, uni jallod kundasiga kuzatib kelgan muhtaram ziyoratchilarga minnatdorchilik bildirishni ham unutilib qo'yib, g'oyib bo'ldi. Odam haqiqatan ham hayvonga o'xshash noshukr va xudbin bo'ladi-da... Qani, kiyining tez, jo'rangiz allaqachon kiyinib oldi.

Rostdan ham Alber qora cholvori ustidan atlas chalvor va amirkon kavush kiyib olgandi.

– Xo'sh, Alber, – dedi Frans, – faqat to'g'risini ayting, masxarabozlik qilishni istaysizmi, yo'qmi?

– Yo‘q, istamaymiz, – dedi Alber, – biroq bu manzarani ko‘rishga muyassar bo‘lganimdan mamnunman. Men grafning fikriga qo‘shilaman: bir gal bunday dahshatli manzaraga chidab qarab turishga kuch yetgan ekan, demak, uning ta‘sir kuchi yagona va beqiyos ekan-da.

– Buning ustiga odamlar ham mana shunday paytlarda sinaladi, – dedi graf. – Ajal kundasining birinchi zinapoyasida o‘lim kishi yuzini umrbod to‘sib kelgan niqobni yirtib tashlaydi, ana shunda uning haqiqiy basharasi ko‘rinadi. Iqror bo‘lmoq kerakki, Andreaning basharasida jozibador hech narsa yo‘q edi... Qanday ablah ekan u maxluq!.. Qani, janoblar, kiyining!

Frans yalintirib o‘tirmay, hamrohlari ketidan kiyindi va niqob taqdi.

So‘ng pastga tushishdi. Eshik oldida rango-rang qog‘oz pistonlar va guldastalarga to‘la izvosh kutib turardi.

Ular izvoshlar qatoridan o‘z o‘rnini egallab olishdi.

Hamma narsa birdan o‘zgarib ketdi. Pyassa-del-Popolodagi mudhish qatl manzarasi bir zumda g‘oyib bo‘ldi-yu, uning o‘rniga hamma yoqni shodiyona kulgi, qiyqiriqlar qoplab oldi. Eshiklar va derazalardan turli xil niqob kiygan karnavalchilar yopirila boshladi, hamma ko‘chalardan masxarabozlar, ro‘dapolar, nozanin oyimchalar, risarlar va qishloqcha kiyinganlarga liq to‘la izvoshlar gurillab chiqa boshladi, hamma qichqirib yer-ko‘kni larzaga solar, minglab qo‘llar osmonga ko‘tarilib silkinar, bir-biriga tuxum, rango-rang qog‘oz parchalari irg‘itishar, tanishmi-notanishmi, qarindoshmi-yotmi farq qilmay bir-biriga paxtavon o‘q otishar va hazil-mazax gap tashlab kulishardi. Hech kim buni jichcha ham ko‘ngliga olmas, aksincha, zavq bilan kulib, shod bo‘lardi.

Frans bilan Alber xuddi ko‘ngilni ochish uchun qahvaxonaga keltirilgan va kayfi oshgan sari ko‘ziga o‘tmish qop-qora bulutlar ichiga kirib ketayotgandek sezilayotgan kishilarga o‘xshardi. Hozirgina yuz bergan mudhish voqea hali ularning ko‘z o‘ngidan nari ketganicha yo‘q, ammo shodiyona ularni ham asta-sekin o‘z girdobiga tor-

tardi, boshi aylanib, ko'zi tinar, qiyqirib hamma yoqni boshiga ko'tarayotgan olomon dengizga sho'ng'ib ketgisi kelardi ikkisining. Qo'shni izvoshdan Marselga otilgan bir siqim qog'oz tangachalar Alber va yo'ldoshlari ustiga sochilib tushdi. Alberning bo'yniga, yuzining niqob bekitmagan joyiga xuddi ignalar sanchilgandek bo'ldi, bu uni umumiy «ur-ur»ga qatnashishga majbur etdi, hamma singari u ham izvoshda tik turib oldi-da, bor kuchi va hunarini ishlatib qo'shinlar ustiga tuxum va mayda konfetlar yog'dira boshladi.

Keskin jang boshlandi. Yarim soat ilgari mudhish manzara ikki do'stning xotiridan batamom ko'tarildi. Ular ko'z oldidagi rango-rang manzara ikkisini butkul maftun etib oldi. Graf Monte-Kristoga kelganda, hali aytganimizdek, qatlning boshidan oxirigacha pinagini buzmay o'tirdi.

Hamma qavatlardagi ayvonlarga gilamlar osilgan. Barcha derazalariga qimmatbaho parda tutilgan dabdabali saroylar boshidan oxirigacha o'rab olgan go'zal Korso ko'chasini ko'z oldingizga keltiring. Ayvonlar va derazalarda uch yuz ming tomoshabin: rimliklar, italyanlar, oqsuyaklarning barcha xillaridan topiladi bu yerda, jozibador tomoshaga maftun bo'lgan nozanin xotinlar qavatlardagi ayvonlardan engashib, derazalardan boshini chiqarib, o'tib borayotganlar ustiga konfetlar yog'dirishsa, pastdagilar ularga guldastalar otishadi. Havoni yuqoridan tushayotgan mayda-mayda yaltiroq konfetlar, pastdan otilayotgan gullar qoplab olgan, yo'lkalarda turli xil bachkana kiyingan tumonat odam: birisi ulkan karamga o'xshaydi, ikkinchisi ho'kiz kallasini kiyib bo'kirib yuribdi, biri it bo'lib orqadagi ikki oyoqda irg'ib, shu to's-to'polon ichida go'zal parizodning o'n to'rt kunlik oydek jamoli yalt etib ko'rinadi-yu, unga qarab joningning boricha otilasani, biroq allaqanday shaytonlar lapanglab kelib yo'lingni shartta to'sib qo'yadi-da, ta'bingni xira qiladi. Mana shularning hammasini bir zum ko'z oldingizga keltirsangiz, Rim karnavali haqida bir oz tasavvur olgan bo'lasiz.

Ular Korso ko'chasini boshdan-oyoq ikki marta sayr etib chiqqach, graf izvoshlarining to'xtab qolganidan foydalanib, yo'ldoshlariga menga ruxsat beringlar, izvoshni sizlarning ixtiyoringizga qoldiraman, dedi. Frans boshini ko'tarib qaradi, ro'parada Rospoli saroyi qad ko'tarib turardi. O'rtadagi qizil salb surati solingan oq pardali derazadan ko'm-ko'k niqob kiygan odam ko'rindi. Frans bu niqob ichida o'sha Arjentina teatrida ko'rgan notanish jonon noz-karashma qilib turganini fahmladi.

– Janoblar, – dedi graf izvoshdan chiqayotib, – argentinalik joningizga tegib, tomoshabin bo'lishni istab qolganingizda derazam oldida ikki joy sizga muntazir bo'lib turganini unutmang, ungacha mening izvoshchim, izvoshim va xizmatkorlarim sizning izmingizda bo'lishadi.

Izvoshchi naq «Ayiq va Masha»dagi Odri singari qora ayiq bo'lib olganini, izvoshning orqasidagi taxtaga chiqib olgan qoralar esa zangori maymun tusiga kirib olganini aytib qo'yish yodimizdan ko'tarilgan ekan. Ularning niqobi o'zgaruvchan bo'lib, duch kelganlarga nayrang ko'rsatishardi.

Frans muruvvati uchun grafga minnatdorchilik bildirdi. Alber esa qo'shni faytonda noz karashma qilib o'tirgan qishloq oyimchalariga gul otish bilan band edi.

Baxtga qarshi izvoshlar karvoni yana joyidan qo'zg'olib, Pyassa-del-Popolo tomonga yo'l oldi. Alberni maftun etgan fayton esa Venesiya saroyi tomon jo'nadi.

– Siz ko'rdingizmi? – so'radi Alber Fransdan.

– Nimani? – so'radi Frans.

– Hu anavi qishloqi qizlar o'tirgan faytonni?

– Yo'q.

– Attang! Aminmanki, ular juda nozanin oyimchalar.

– Baxtga qarshi niqobdasiz-da, – dedi Frans, – bo'lmasa, shuncha vaqt ishq bobida chikka bo'lib kelgan oshig'ingiz olchi bo'ladigan payt kelgan ekan-a!

– Karnaval albatta menga biror narsa tuhfa qilar, degan umiddaman, – dedi Alber yarim hazil, yarim chin qilib.

Alberning orzusi ushalmadi, kun biror hodisasiz o'tib

ketdi, haligi fayton bir necha bor duch kelganini aytmasa, aytarli hech gap bo'lmadi. Uchrashuvlardan birida, o'z-o'zidanmi yoki jo'rttagami, Alberning niqobi yechilib tushdi.

Shunda Alber qolgan hamma gullarni tutamlab oldida, faytonga uloqtirdi.

Aftidan Alberning qarashlari bashang kiyingan qishloq ayollaridan birining jigaridan urgan edi. Fayton yigitlar izvoshiga yana yonma-yon kelganda o'sha ayol jo'ralarga bir dasta binafsha irg'itdi. Bu gul o'ziga emasligini bilgan Frans uni Alber olishiga aslo qarshilik ko'rsatmadi. Alber esa binafshani ko'ksiga taqib oldi-da, hammaga ko'z-ko'z qilib jo'nadi.

– Mana, oshiq-ma'shuqlik sarguzashti ham boshlandi!
– dedi Frans.

– Mazax qilib kulavering, – deb javob qildi Alber, – biroq bu oshiqlik rost, bu guldastani aslo tashlamay taqib yuraveraman.

– Albatta! – davom etdi kulgisini to'xtatmay Frans. – Busiz bir-biringizni taniy olarmidingiz? Rostdan ham hazil chinga aylanayotganga o'xshab qoldi. Frans bilan Alber o'sha faytonga yana duch kelishganda, guldastani yigitning ko'ksida ko'rgan ayol qarsak chalib yubordi.

– Ofarin, ofarin! – dedi Frans, – hamma ish o'ngidan kelyapti! Ehtimol, siz yakka o'zingiz qolishni istarsiz!

– Yo'q, yo'q, shoshilmaylik! U meni «gah» desa qo'lga qo'nadigan ekan, deb o'ylamasin. Bu qishloqi jonon o'yinni davom ettirish niyatida bo'lsa, biz uni, to'g'rirog'i, u bizni ertaga topib oladi, o'zini oshkora etadi, ana o'shanda o'zim bilaman nima qilishni.

– Qoyil, Alber, qoyil! Nestordek oqil va Ulissdek idroklisiz. Mabodo Uirseyangiz sehr ishlatib sizni biror hayvonga aylantirib qo'ysa, uni juda mohir sehrGAR yoki kuch-quvvatda tengi yo'q deb bilish kerak.

Alber haq bo'lib chiqdi: aftidan qishloq malikasi bugungi o'yinni bas etishga qaror qildi. Yigitlar yana bir necha bor aylanishdi, ammo qishloqi ayollar faytoni uch-

ramadi, u yonboshdagi ko'chalardan biriga burilib jo'nagan bo'lsa kerak.

Ular Rospoli saroyiga qaytganda, u yerda graf ham, zangori kiyimdagi odam ham gumdon bo'lgan edi: sariq kimxob darpardali deraza oldida graf taklif etgan tomoshabinlar turardi, xolos.

Shu payt karnavalning boshlanishida chalingan qo'ng'iroq yana jaranglab karnavalning tugaganini xabar qildi. Korsodagi izvoshlar darhol tarqalib, to'rt tomondagi ko'chalarda g'oyib bo'ldi.

Frans bilan Alber viadelle-Marattening naq ro'parasida turishgan edi.

Izvoshchi churq etmay muyulishga burilib Poli saroyi oldidan o'tdi-da, Pyassa-di-Spanya ko'chasi bo'ylab to'g'ri mehmonxonaga yo'l oldi.

Maestro Pastrini mehmonlarni ostonaga chiqib kutib oldi.

Frans dastavval vaqtida yetib kelolmagani uchun uzr so'ramoqchi bo'lib grafni axtardi. Biroq Pastrini, graf Monte-Kristo o'ziga boshqa izvosh buyurtirib keltirganini aytib, «Janoblari tashvishlanmasinlar, – dedi. – Buning ustiga graf Arjentina teatridagi lojasining kalitini ham sizlarga qoldirib ketdi».

Frans, kechqurungi rejalarangiz qanaqa deb so'radi jo'rasidan. Alberning xayoli tamom boshqa yoqda edi, shuning uchun Fransga javob qilish o'rniga maestro Pastrinidan, tikuvchi chaqirib berishni iltimos qildi.

– Tikuvchi? – so'radi xo'jayin. – Nechun?

– Ertagacha bizga qishloqcha kiyimlar tikib bersa, – dedi Alber.

Maestro Pastrini bosh chayqadi-da:

– Ertagacha ikki kostyum tikib bo'larmishmi? – deb xitob qildi. – Ko'nglingizga olmang, ochiq aytishim kerak: bu chindan ham fransuzcha istak. Ikki kostyum-a! Har bittasiga bir skudodan to'laganda ham oltita tugma qadab berish uchun karnaval kunlari bir hafta axtarib birorta tikuvchi topa olarmikinsiz?

– Demak, bunaqa kostyumlarni topish amri mahol deng?

– Nega topilmasin? Tayyorini topsa bo'ladi. Buni men- ga havola qiling, ertaga saharbordonda bir emas, bir ne- chta shlyapa, kamzul va chalvor taxt bo'lib turadi. Tash- vishlanmang, juda boplarini keltiramiz.

– Do'stim, – dedi Frans Alberga – Xo'jayinga topshira- miz bu ishni, topag'on ekanini bir karra u bizga ko'rsat- gan edi. Hozir ovqat qilib olaylik, so'ng teatrga borib «Ita- liyalik qiz Jazoirda» operasini tomosha qilamiz.

– Bo'пти, teatrغا borganimiz bo'lsin, – dedi Alber. – Biroq, maestro Pastrini, unutmangki, biz uchun eng mu- himi, ertaga o'sha kostyumlarning muhayyo bo'lishi.

Xo'jayin yana takrorlab, tashvishlanmasinlar, istakla- ringiz bajo etiladi, dedi, shundan so'nggina Frans bilan Alber ustlaridagi masxarabozlar kiyimini yechib tashlash uchun o'z xonalariga kirib ketishdi.

Alber boyagi guldastani ehtiyot qilib yashirib qo'ydi, mana shu gul orqaligina qishloq nozanini uni tanib oli- shi mumkin edi.

Do'stlar dasturxonga o'tirishdi. Alber Maestro Pastrini oshxonasining ovqati bilan graf Monte-Kristo das- turxonidagi ovqatlarni taqqoslab ko'rdi, grafni unchalik xush ko'rmayotgan Frans ham mehmonxona xo'jayini- ning ovqatlari grafnikidan ancha past ekanini inkor qilol- masdi.

Ichimlik keltirgan qarol, izvosh qachon kelsin, deb so'radi. Alber va Frans ikkilanib bir-biriga qarab oldi. Qarol ular nimani o'ylayotganini anglab dedi:

– Janobi oliylari, graf Monte-Kristo, izvoshni kuni bo'yi sizning ixtiyoringizga berilishini buyurdilar. 3oti shariflari hech tortinmay izvoshga xo'jayinlik qilishlari mumkin.

Yigitlar kiyinib teatrغا borishdi-da, graf lojasini egal- lab olishdi.

Birinchi parda boshlangach, o'z lojasiga grafinya G. kirib keldi-da, darrov kecha graf o'tirgan lojaga qaradi. Unda Frans bilan Alber o'tiribdi, grafinya G. kecha Frans-

ga rosa dahshatli gaplar bilan ta'riflagan kishisining lojasida ikki jo'raning o'tirganini ko'rib hayratda qoldi.

Grafinyaning durbini Fransga to'g'rilanganini ko'rib, yigitlar oyimchanning ko'nglini tinchitishga ahd qilishdi, shu sababli tomoshabinlarga zalni o'z uyidek qilib olishga huquq berib qo'ygan Italiya teatrlarining imtiyozlaridan foydalanib, ikkala og'ayni lojadan chiqib grafinya G. lojasiga yo'l olishdi.

Ular lojaga kirishi bilan grafinya eng faxrli joyga Fransni o'tkazdi.

Alber orqadagi stulga o'tirdi.

– Demak, – dedi grafinya Fransga u o'tirib ulgurmay, – vaqtini o'tkazmay darrov yangidan paydo bo'lib qolgan Lord Rutven bilan tanishibgina emas, hatto yaqin og'ayni bo'lib olibsiz-da?

– Unchalik yaqin bo'lmasa-da, har holda tanishib oldik, grafinya, – javob qildi Frans, – ammo rostini aytsam, kuni bo'yi uning mehr-iltifotidan foydalanib, ko'p maza qildik.

– Kun bo'yi dedingizmi?

– Ha, butun kun bo'yi, ertalab nonushtani unikida qildik, kunduzi uning izvoshida Korso bo'ylab rosa sayr etdik, mana endi, kechqurun uning lojasida o'tiribmiz.

– Siz uni taniysizmi?

– Ha desam ham bo'ladi, yo'q desam ham.

– Qanday qilib?

– Buning tarixi juda uzun.

– Menga aytib berasizmi uni?

– Vahimaga solib qo'yadi-da, sizni.

– Mayli, yaxshi bo'ladi.

– Jumboq yechilguncha sabr qiling.

– Bo'pti, o'zim ham nihoyasiga yetgan hikoyani yoqtiraman. Biroq siz boshdan-oyoq hammasini, qanday, qaerda uchrashganingizni, sizga uni kim tanishtirganini aytib berasiz-da?

– Hech kim tanishtirgani yo'q. O'zi biz bilan tanishdi.

– Qachon?

– Kecha kechqurun siz bilan xayrlashganimizdan keyin.

– Qanday qilib?

– Biz turgan mehmonxona xo'jayini orqali.

– Uyam «London» mehmonxonasida turarkan-da?

– Ha, o'sha mehmonxonada, hatto biz bilan bir maydonchada.

– Nomi nima ekan? Siz bilsangiz kerak uning nomini?

– Albatta bilamiz. Graf Monte-Kristo.

– Bu qanaqasi? Bu urug'doshlar ismi emas.

– To'g'ri, urug'doshlar nomi emas, o'zi sotib olgan orolning nomi.

– U grafmi?

– Toskan grafi.

– Bo'пти, bunisini ham ko'rarmiz, – dedi qadimiy venetsiya avlodlaridan biriga mansub grafinya. – Qanaqa odam o'zi?

– Buni vikont de Morserdan so'raysiz.

– Eshitdingizmi, vikont, – dedi grafinya, – mening savolimga siz javob berarkansiz.

– Uning juda ajoyib, dilbar odam ekanini tan olishimiz kerak, aks holda bizni o'ta injiqlar, aybsituvchilar qatoriga qo'shib qo'yishlari mumkin. O'n yillar mobaynida qil o'tmaydigan darajada do'st bo'lib kelgan kishi ham bizga graf qilgan marhamat-izzati, himmatining o'ndan birini qilmasdi! Bu ishlarni u qanchalik mehribonlik, nazokat, diqqat-e'tibor bilan qilganidan bu odamning chindan ham oqsuyaklar zotidan ekaniga hech shubha qilmasa bo'ladi.

– Meni aytdi deysiz, mening bu qonxo'rim, – dedi grafinya kulib, – millionlarim meni badnom qilmasa bo'ldi deb yurgan bir lo'ttiboz bo'lsa kerak. Shu sababli adashib Rotshild deb yurmasinlar meni deb Laraga o'xshashga urinib yuribdi. Siz oyimchasini ko'rdingizmi?

– Qanaqa oyimchasini? – so'radi Frans jilmayib.

– Kechagi go'zal grek ayolini?

– Yo'q. Biz ovozi sal-pal eshitgandek bo'ldigu, ammo

jamolini ko'rolmadik.

– Azizim Frans, – dedi Alber, – qo'ying, gapni sir-sino-atga aylantirmang. Oq darpardali deraza oldida o'tirgan ko'k libosli ro'dapo kim edi sizning-cha?

– Bu deraza qaerda edi? – so'radi grafinya.

– Rospoli saroyida.

– Rospoli saroyida grafning derazasi bormidi hali?

– Ha. Siz ham Korsoga borganmidingiz?

– Albatta, borgan edim.

– Demak, ikkitasiga sariq darparda, uchinchisiga qizil salb suratli oq kimxob darparda tortilgan derazalarga, ehtimol, ko'zingiz tushgandir? Ana shu uchala deraza grafniki.

– Unday bo'lsa, u haqiqiy badavlat odam ekan-da! Korsoning eng qulay, go'zal yeriga joylashgan Rosopoli saroyining uch derazasi karnaval vaqtida necha pul turishini bilasizmi?

– Ikki yoki uch yuz rim skudosini.

– Yo'q, ikki yo uch ming skudo deyavering.

– Obbo, shunaqami!

– Uning bu oroli shunchalik katta daromad keltirarkanda?

– Uning oroli? Bir chaqa ham foyda keltirmaydi.

– Bo'lmasa, nega sotib olibdi?

– Olifta, tantiq odam-da, hammaga «ko'z-ko'z» qilish uchun bo'lsa kerak.

– Demak, u o'ziga xos, boshqacha nusxa ekan-da?

– Ochig'ini aytsam, – dedi Alber, – uning xatti-harakatlari, qiliqlari menga juda g'alati ko'rindi. Agarda u Parijda bo'lib, aristokratlar orasida ko'rinib qolgudek bo'lsa, men uni yo komediya o'ynayotgan masxaraboz yoki adabiyot chalg'itgan firibgar, derdim. U bugun Dide yoki Antoni²⁷ dan qolishmaydigan monolog aytdi.

Lojaga yangi mehmon kirdi. Frans odob qoidalariga rioya qilib, o'rnini yangi mehmonga bo'shatib berdi. Suhbat, tabiiy ravishda, boshqa tomonga burilib ketdi.

Bir soatdan so'ng do'stlar mehmonxonaga qaytishdi.

Maestro Pastrini kostyum buyurganini aytdi va hech shu-bhasiz ko'nglingizdagidek kostyum keltirishadi, deb inon-tirdi.

Rostdan ham ertasi kuni soat roppa-rosa o'nda u Frans xonasiga Rim qishloqilarining kiyimlarini ko'targan tikuvchi bilan kirib keldi. Jo'ralar qaddi-qomatiga ancha bop bir xilda kiyim-bosh tanlab olishdi va har bir shlyapa-ga yigirma metrdan tasma tikib qo'yishni va ikkita ola-chipor sharf topishni buyurishdi. Bunday sharflarni bay-ram kunlari dehqonlar bellariga bog'lab olishadi.

Alber yangi libos o'tirishdimi yoki yo'qmi, tezroq bi-lishga intildi. Karnaval libosi ko'k duxoba kamzulcha va chalvordan, guldor paypoq, popukli kovush va shoyi nim-chadan iborat edi. Bu rango-rang libosda Alberning tashqi qiyofasi judayam jozibador bo'lib ketishi turgan gap edi, u belbog'ini mahkamroq tortib, tasmalari osig'liq shlya-pasini chakkasiga qo'yganda Frans, ayrim xalqlargagina mansub deb yurganimiz qomati rasolik aksari vaqt kiy-imga ham bog'liq ekan, degan fikrni dilidan o'tkazib qo'ydi. Masalan, turklar bir vaqtlar yarqiroq rangdor uzun choponlarida juda go'zal, bashang ko'rinardilar, endilik-da bo'yindan to etakkacha tugmalab kiyiladigan uzun, tor ko'k kamzul va grek feskasini kiyib qizil so'rg'ichli vino shishasiga o'xshab yurishibdi.

O'zini tosh oynaga solib mahliyo bo'lib turgan Alber-ga Frans bir nechta maqtov so'zlari aytdi.

Graf Monte-Kristo kirib kelganda, jo'ralar kiyim tanlash bilan band edi.

– Janoblar, – dedi graf, – vaqtichog' damlarni do'stlar bilan birga o'tkazish yoqimli, albatta, ammo yakka o'zing bo'lsang, tag'in yaxshi, shu vajdan men sizga bir narsani aytib qo'yay deb keldim: bugun ham va bundan keyingi kunlarda ham izvoshni butkul sizning ixtiyoringizga top-shirdim. Xo'jayinimiz uch yoki to'rt izvoshni band qilib qo'yganimni aytgandir sizga, demak menga jichcha ham xalaqit bermaysiz, izvoshdan ko'ngil ochishda ham, ishda ham xohlagancha foydalanavering, mabodo meni ko'rish

ehtiyoji tugʻilib qolsa, Rospoli saroyidan topasiz.

Yigitlar dastlab «Yoʻgʻ-e, qanday boʻlarkin» deb turishdi-yu, biroq rad etishga hech vaj topolmay, qaymoqday yoqib turgan taklifni qabul qilib qoʻya qolishdi.

Graf Monte-Kristo yigitlar bilan chorak soatcha u yoq-bu yoqdan gaplashib oʻtirdi. Bu zot hamma xalqlar adabiyoti bilan tanish ekanini aytgan edik. Uning mehmonxonasi devorlariga bir qaragandayoq Alber bilan Frans grafning rasmlarga ishqiboz ekanini bilgan edilar. Favqulodda hollarda aytilgan bir necha soʻzlari grafning fan olamidanda ham chetda emasligini tasdiqlab bergan edi. Aftidan, u kimyoga koʻproq qiziqardi.

Yigitlar grafning iltifotlariga javoban iltifot koʻrsataylik deb uncha urinmadilar, chunki Monte-Kristoning dabdabali laziz taomlari oldida maestro Pastrining bemaza ovqatlari koʻngilni xush qilolmas, ishtahani boʻgʻishdan boshqaga yaramasdi, shuning uchun grafga bu ovqatni taklif etish nojoʻya boʻlur edi. Ular buni grafning oʻziga ochiq aytishdi, graf buni maʼqul koʻrdi.

Grafning odatlaridan, xatti-harakatlaridan Alber zavqlanardi, bunchalik bilimdon boʻlmaganida, haqiqiy jentelmenlar qatoriga qoʻshib qoʻygan boʻlardi uni Alber. Alber koʻproq izvosh ixtiyoriga oʻtganidan shod edi. Bu nozanin qishloqlari oldida koʻz-koʻz qiladigan izvoshlardan, kecha ular yurgan hashamatli faytondan hech qolishmasligi kerak bu izvosh.

Soat bir yarimda yigitlar tashqi zinapoyaga chiqishdi. Izvoshchi va qarol ilgari hayvon terisi ustiga malaylar libosini kiyib olishgan edi. Natijada kechagidan battarroq masxaraboz boʻlib olib, Alber bilan Fransning maqtoviga sazovor boʻlishdi.

Alberning koʻksidagi binafsha soʻlib qolgan edi.

Birinchi qoʻngʻiroq ovozi eshinishi bilan yigitlar via-Vittori koʻchasidan Korsoga joʻnashdi.

Ikkinchi aylanishda ularning izvoshiga hozirgina uzilgan bir dasta binafsha kelib tushdi. Guldastani qoʻshni izvoshda masxarabozlar kiyimini kiyib olgan ayollar irgʻit-

gan edi. Alber kechagi qishloqilar ham kiyimlarini almashtirib, ularga o'xshab masxaraboz bo'lib olganini ko'rib taajjublandi.

U eski binafshani tashladi-da, yangisini qo'lida tutib turdi va haligi fayton yondosh kelganda lablariga tekki-zib qo'ydi. Bu, aftidan, gul tashlagan ayolgagina emas, sho'x sohibjamol dugonalarining hammasiga juda yoqib tushdi.

Korso ko'chasida shavq-zavq, qiyqiriq, shovqin-suron kechagidan kam emasdi. Sinchkov, zehqli kishi bugun ko'cha kechagidan kuchliroq jonlanib ketganini sezib olardi. Graf o'z derazasidan bir zum ko'rindi, ammo izvosh ikkinchi gal o'tganda, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Alber bilan binafsha otgan oyimcha o'rtasidagi hazil-mazax kun bo'yi davom etdi.

Kechqurun qaytib kelgach, Frans vakolatxonadan xat oldi. Unda hazrat ertaga uni o'z huzurida bo'lishga mu-sharraf etganini aytishgan edi. U Rimda bo'lganda har gal oliy hazrat qabul qilishini so'rardi, har safargidek bu gal ham odob va minnatdor-chilik yuzasidan xristianlar ola-mining poytaxtini aziz dargoh ostonasini tavof qilmay ke-tishni istamadi Frans.

Shu sababli ertangi karnavalda Fransning qatnashuvi to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas. Chunki haz-rat qanchalik oliyhimmat, rahm-shafqatli, xushfe'l bo'lma-sin, u zoti sharifning huzurida bo'ladigan har qanday kishi Grigoriy XVI nomli olijanob oyog'i ostida ikki bukilib ta'-zim etishga titroq bosmay tayyorlanmaydi.

Vatikandan chiqib Frans Korsoni chetlab o'tdi-da, to'g'ri mehmonxonaga keldi. U ilohiy fikr-zikrlar bilan bu-tunlay band bo'lib, karnavalda bularni bulg'ab qo'ymayin tag'in, deb qo'rqardi.

Soat beshdan o'n daqiqa o'tganda Alber qaytdi. U o'zida yo'q shod edi. Uning boyagi oyimchasi yana qish-loqi ayol libosida kelib, yuzidagi niqobini ochib, husni-jamolini namoyon qilibdi.

U nihoyatda sohibjamol ekan.

Frans Alberni samimiy tabrikladi, Alber esa do'stiga rahmat aytdi. Alber, ba'zi qiliqlaridan u oqsuyaklar tabaqasiga mansub jononga o'xshaydi, deb xulosa chiqardi.

Alber ertaga unga albatta xat yozishga ahd qildi.

Do'stining bu so'zlarini eshitib turgan Frans hamrohi undan biror narsa to'g'risida iltimos qilmoqchi-yu, biroq iymanib turganini sezdi, so'rab-surishtira boshladi, uning baxti yo'lida o'tga ham, suvga ham o'zini tashlashga tayyor ekanini aytdi. Alber odob yuzasidan birpas indamay turdi-da, so'ng ertaga izvoshni yakka o'zimga bersangiz, shunda juda katta yordam qilgan bo'lardingiz, dedi.

Alber, men yakka o'zim bo'lganim uchun qishloqi jonon niqobini ko'tarib, jamolini ko'rsatdi, deb o'yladi. Frans Alberning ishi o'ngidan kelib turgan bir paytda unga xalaqit beradigan xudbin nusxalardan emas edi. U yengiltak do'stining hayosiz ezmaligini juda yaxshi bilar va oyimcha bilan bo'ladigan oshiq-ma'shuqlik hangomalarini oqizmay-tomizmay aytib berajagiga aslo shubhalanmasdi. Fransning o'zi esa uch yil Italiyani boshidan-oyoq sang'ib chiqib, birorta oyimcha bilan ishqiy aloqa bog'lashga muyassar bo'lmadi, shu sababli bu aloqalar qanday bo'lishini bilishga qiziqardi.

U Alberga, menga karnavalni Rospoli derazasida o'tirib tomosha qilishning o'zi yetadi, dedi.

Frans so'zining ustidan chiqdi va ertasi kuni derazadan Alberning Korso ko'chasida izvoshni g'izillatganча u yoqdan-bu yoqqa yurganini tomosha qilib o'tirdi. Uning qo'lida katta guldasta, ichida oshiqlik xati bo'lsa kerak, deb o'yladi Frans. So'ngroq guldastani sohibjamol oyimchaning qo'lida ko'rib, boyagi taxmini to'g'ri chiqqaniga iqrор bo'ldi.

Alber mehmonxonaga o'zida yo'q shod qaytdi. Jonon xuddi shunday qilib javob qaytarajagiga uning imoni komil edi. Frans do'stining istaklarini bajo keltirib, to's-to'polonlardan juda charchaganini, ertasi kuni o'z albomi va yozuv-chizuvlari bilan shug'ullanmoqchi ekanini aytdi.

Alberning o'ylaganlari to'g'ri bo'lib chiqdi: ertasi kechqurun Fransning xonasiga otilib kirib xatni ko'rsatdi.

– Mana ko'rdingizmi! – dedi u xitob qilib. – Aytganim to'g'ri ekaniga inondingizmi endi?

– Oyimcha javob qaytaribdi-da, – dedi Frans.

– Mana, o'qing.

Bu so'zning qanday dabdabali aytilganini tasvir etishga qalam o'jiz. Frans xatni olib o'qidi:

«Seshanba kuni, kechqurun soat yettida via-dei-Pontetefichi qarshisida izvoshdan tushing va qishloqi ayol orqasidan boravering. U qo'lingizdan shamni tortib oladi. San-Jakomo cherkovi zinasining birinchi poyasiga qadam bosishingiz hamono masxaraboz libosingiz yengiga qizil tasma bog'lab olishni unutmang.

Seshanbagacha meni ko'rmaysiz.

Sadoqat va sir».

– Xo'sh, azizim, – dedi Alber xatni Frans o'qib tamom qilgach, – bunisiga nima deysiz endi?

– Ish juda ko'ngilli tusga kirib boryapti, deyman-da, do'stim, – dedi Frans.

– Menim fikrim ham xuddi shunday, – dedi Alber, – gersog Brachchano baliga yakka o'zingiz borishga to'g'ri keladimikin, deb tashvishga tushib qoldim.

Frans bilan Alber ertalab mashhur Rim bankiririkida bo'ladigan balga taklifnoma olishgan edi.

– Ehtiyot bo'ling, azizim Alber, – dedi Frans, – shaharning barcha oqsuyaklari gersognikida bo'ladi, sohibjamolingiz chindan aristokratlardan bo'lsa, albatta u yerga boradi.

– U yerga borsa-bormasa, menga baribir, uning haqidagi fikrimdan qaytmayman, – dedi Alber. – Xatni o'qidingiz-a?

– O'qidim.

– Italiyada mezzo cito²⁸ ayollar qanday ma'lumot olishligini bilasizmi?

– Bilaman, – dedi Frans.

– Unday bo'lsa xatni yana o'qib yozuviga e'tibor qiling

va birorta imlo va jumla xatosini topib bering.

Haqiqatan ham xat juda chiroyli yozilgan, birorta imlo xatosi yo'q edi.

– Omad keldi sizga, omad! – dedi Frans xatni Alberga qaytarib.

– Mayli, kulgiga olsangiz olavering, hazilga yo'ysangiz yo'yavering, – dedi Alber e'tiroz bildirib, – men oshiqu beqarorman.

– Yo tavba! Siz meni vahimaga solib qo'yyapsiz-ku, – dedi Frans, – men faqat gersog Brachchano baligagina emas, hatto Florensiyaga ham yolg'iz qaytadiganga o'xshab qoldim.

– Har qalay, u notanish jonon go'zalligi ustiga yana nazokatli chiqib qolgudek bo'lsa, men Rimda kam deganda olti hafta qolishim turgan gap, bu mening qat'iy ahdim. Men Rimga maftunman va buning ustiga arxeologiyaga ishqim baland.

– Shunaqangi ishqiy sarguzashtlardan yana ikki-uchtasi bo'lib qolsa, men sizni qadimgi yozuvlar va nodir ijodlar Akademiyasining a'zolari safida ko'raman, deb umid qila boshlayman.

Shu payt xizmatkor kirib, ovqat tayyor, demaganda Alber akademik stolini egallash huquqi masalasida jiddiy munozara yuritgan bo'lardi. Alber shaydo bo'lib yurgan vaqtlarida ham ishtahasini yo'qotmasdi, shu sababli u jo'rasi bilan darrov dasturxonga o'tirdi va akademiya haqidagi gaplarni keyinga qoldirib, ovqatning «changini chiqara» boshladi.

Ammo ovqatdan so'ng graf Monte-Kristo kelganini xabar qilishdi. Yigitlar uni ikki kundan beri ko'rmagan edilar. Maestro Pastrini, graf o'z ishlari bilan Chivita-Vekkiyaga ketganini xabar qilgan edi. U kecha kechqurun ketib bundan bir soat oldin qaytib keldi.

Graf bu gal juda yoqimtoy edi. U yo o'zini tutib olgan yoki zaharxanda gaplarga biror vaj yo'q edi. Bu kecha u boshqalarga o'xshab o'tirdi. Frans uchun bu zot hech yechib bo'lmaydigan jumboq edi. Graf esa Monte-Kristo

orolidagi mehmonning taniganini yaxshi bilardi, biroq ular ikkinchi uchrashgan kundan to hozirgi kungacha uni ilgari ham ko'rgani haqida bir og'iz so'z ochmadi. Frans esa ilgari uchrashganimizdan so'z ochsam bizga shuncha muruvvat ko'rsatayotgan odamni ranjitib qo'yaman, deb indamasdi. Shunday qilib, ikkalasi ham bu narsani sir saqladi.

Frans bilan Alber Arjentina teatri lojasidan bilet ololmaganini eshitib Monte-Kristo o'z lojasining kalitini olib kelganini aytdi.

Frans va Alber sizni tomoshadan mahrum qilish insofdan bo'lmas, deb kalitni olishmadi, biroq graf ko'nmay, o'zi Palli teatriga borayotganini va Arjentina teatridagi lojasini ular band etmasa, bo'sh qolajagini aytdi.

Shunday so'nggina yigitlar kalitni olishdi.

Birinchi uchrashganda grafning rangpar yuzi Fransni taajjubga solgandi, so'ng bora-bora u bunga ko'nikib, e'tibor bermay qo'ydi. Ammo graf yuzining tuzilishi – bichimi juda kelishgan, Frans bunga qoyil qolardi. Graf haqiqatan ham Bayronning qahramonlariga o'xshardi, Frans uni ko'rish u yoqda tursin, xayoliga keltirishi bilan oq, qarshisida Manfred yoki Lara gavdalanardi. Grafning peshonasini ajinlar burishtirib yuborgan, bu dard-alamli o'y-xayollar dalilidir. Chaqnab turadigan o'tkir ko'zlari yurakka o'qday sanchiladi, istehzoli va g'ururli lablari uning hamma gaplariga boshqacha ohang berib yuboradi, natijada har bir so'zi tinglovchining yodidan chuqur joy oladi.

Grafning yoshi qirqlarga borib qolgan bo'lsa kerak, ammo u o'zidan yosh har qanday yigitdan ustun chiqadigan zot. Ingliz shoiri Bayronning afsonaviy qahramonlariga o'xshashi ustiga, graf uchragan kishini o'ziga maftun qilib oladigan zo'r joziba kuchiga ega ham edi.

Alber baxti kelib bu bebaho kishi bilan tanishib qolganini tinmay gapirardi. Frans bu masalada o'zini vazmin tutar, lekin u ham atrofda singari bu tengi yo'q kishining ta'siriga tushib qolardi.

Grafning bir necha bor, Parijga tashrif buyurish niyatidaman, deganini Frans esga oldi va ajoyib fe'l-atvorli Monte-Kristo u yerda ham shuhrat qozonajagiga hech shubha qilmadi.

Ammo u Parijda graf bilan bir vaqtda bo'lishni istamasdi.

Kecha odatda Italiya teatrlarida qanday o'tsa shunday o'tdi: tomoshabinlar qo'shiqlarni tinglash o'rniga bir-birining oldiga o'tib gap sotish bilan ovora bo'lishdi. Grafinya G. graf to'g'risida so'z ochmoqchi edi, Frans bundan qiziqroq yangilik borligini aytdi va Alberning yasama e'tiroziga qaramay, ulug' bir voqea yuz berganini va uch kundan beri ikkisining butun o'y-xayoli mana shu voqea bilan band ekanini xabar qildi.

Sayyohlarning gapi rost bo'lsa, bunda taajjublanadigan hech narsa yo'q, chunki bunday voqealar Italiyada tez-tez uchrab turadi, shu vajdan grafinya, bunga ishonaman, dedi va Alberni natijasi ko'ngilxushlikka olib borishi ko'rinib turgan bu ishqi sarguzashtning muqaddimasi bilan tabrikladi.

Yigitlar butun Rim taklif etilgan gersog Brachchano balida ko'rishishga va'dalashib jo'nashdi. Binafsha gulli oyimcha so'zining ustidan chiqdi: ertasiga ham, indiniga ham u Alberga ko'rinmadi.

Axiyri shanba kuni ham keldi – bu karnavalning oxirgi, eng qizg'in shovqin-suronli kuni edi. Shu kuni teatrlar ertalab soat o'ndan ochiladi, chunki kechqurun soat sakizdan ro'za boshlanadi. Kimki puli, vaqti yetmay, yoki istagi bo'lmay bayramga qatnasholmagan bo'lsa, shu kuni to's-to'polonga qo'shilib, umumiy shodiyonaga o'z hissasini albatta qo'shadi.

Frans bilan Alber soat ikkidan beshgacha izvoshlar tizmasida ko'cha-maydonlarni rosa aylanishdi, duch kelgan faytonlarga, otlar oyog'i va izvoshlar g'ildiraklari orasida epchillik bilan yugurib yurgan piyodalar ustiga qog'oz

ni.

gullar yog'dirishdi, piyodalar xavf-xatarni hecham nazar-pisand qilmay, ot-aravalar tagida chindan ham shunday harakat qilardilarki, shunga qaramay bunday katta tantanada birorta baxtsiz hodisa yuz bermasdi. Italyanlar bu jihatdan juda ajoyib xalq. Ular uchun bayram haqiqatan bayram bo'ladi. Bu qissaning muallifi Italiyada olti yil turib, bu kabi tantanalarga dog' soladigan birorta voqea yuz berganini ko'rgani yo'q, bizning bayramlarimizda esa ko'ngilsiz hollar yuz berib turadi.

Alber masxaraboz kiyimida barno yigit bo'lib olgan, qizil bant yelkasidan to tizzasigacha osilgan, chalkashlik yuz bermasin deb Frans qishloqi libosini kiyib olgandi.

Kun og'a boshlagan sari shovqin-suron yanada baland ko'tarildi, ko'chada, izvoshlarda, derazalarda qichqirmagan odam, harakatsiz turgan qo'l yo'q. Bu chindan ham qiyqiriqlar, gul tangachalar va tuxumlar, apelsin va gullarni qor-yomg'irdek otayotgan ming-minglab odamlar to'dasi edi.

Soat uchda bu shovqin-suronni zo'r-bazo'r bosib Pyassa-del-Popol va Venesiya saroyidan qasira-qusur o'q ovozi yangrab poyga boshlanganidan darak berdi.

Poyga ham sham sotish kabi karnavalning oxirgi kuni-dagi dasturga kiradi. O'qlar ovozi eshitilishi bilan hamma izvoshlar qatoridan chiqib yaqindagi yonbosh ko'chalarga tarqalib ketdi.

Mana shu manevrlar polisiya yo'l ko'rsatib turmasa-da, juda epchillik va tezlik bilan bajo keltiriladi.

Piyodalar saroylarga yaqin kelib olishdi, ot tuyog'i va qilichlarning jarangi eshitildi.

Karabinerlar safi o'n beshtadan bo'lib, butun ko'chani qoplashdi-da, ot yo'rttirib, Korsoni poygaga bo'shatishdi. Saf Venesiya saroyiga yetganda yana o'q otilib ko'cha bo'shligini xabar qildi.

Shu daqiqada uch yuz ming tomoshabinning qiyqiriqlari ostida sakkizta otliq yashindek uchib o'tib ketishdi. Bir ozdan so'ng muqaddas Angel qal'asidan uch bor to'pdan o'q uzildi. Demak, uchinchi raqamli chavandoz

g'olib chiqibdi.

Shu zahoti, boshqa hech qanday signalni kutib o'tirmay, atrofdagi ko'chalardan izvoshlar, xuddi bir zum to'sib turilgan jilg'alardan otilib chiqqan toshqin suvdek g'uv etib chiqdi-da, marmar qirg'oqli katta daryo bo'ylab g'izillagancha ketdi.

Mana endi dahshatli shovqin-suron to'foniga yana bitta yangisi qo'shildi: sham sotuvchilar sahnaga chiqdi.

Ular turli xil katta-kichik shamlarni ko'z-ko'z qila boshlashdi, bular ichida pasxadagi ishlatiladigan eng yo'g'on shamdan tortib, to eng ingichkasigacha bor. Rim karnavalining oxirgi pardasida qatnashuvchilarga bu shamlar ikki narsa uchun kerak: o'z shamini o'chirishga yo'l qo'ymaslik va boshqalarning shamini o'chirish.

Bu jihatdan sham inson hayotiga o'xshab ketadi: inson hayot bag'ishlashning faqat bittagina yo'lini topgan, uni ham Xudodan olgan.

Ammo ana shu inson hayotni barbod etishning ming-ming usullarini o'ylab chiqargan, to'g'ri, bunda unga iblis ancha ko'maklashdi.

Shamni yondirmoq uchun uni o'tga tutish kifoya.

Ammo ana shu shamni o'chirish uchun o'ylab topilgan ming-minglab usullarni ham topishgan.

Mokko shamlarini talashib-tortishib sotib olishdi. Frans bilan Alber ham boshqalardan qolishmadi.

Tez qorong'i tushdi. Minglab shamfurushlarning «shamga kep qoling» degan qichqiriqlari ostida o'ralashib yurgan olomon ustidagi osmon ham shamchiroqlarini yoqdi. Bu signal rolini o'ynadi. O'n daqiqa o'tar-o'tmas Venetsiya saroyidan to Pyassa-del-Popologacha ellik ming chiroq shamaloqdek yonib ketdi.

Bu xuddi chiroqlar o'yiniga o'xshardi.

Bu kishi tasavvuri doirasiga sig'maydigan manzara edi.

Go'yo osmondagi hamma yulduzlar yerga qo'nganu sho'x o'yinga tushib ketgan. Er-ko'kni boshiga ko'tarayotgan bu kabi qiyqiriqlar, shovqin-suronlarni inson yer kurrasining hech yerida hech qachon ko'rmagandir.

Bunday vaqtlarda kishilar orasidagi hamma farqlar bekor etiladi. Fakkino knyazni, knyaz transteverenlikni, transteverinlik savdogarni ta'qib etadi, hammasi puflab shamni o'chirish payida bo'ladi, biri o'chiradi, boshqasi yondiradi. Shu payt qadimgi Eol paydo bo'lib qolsa bormi, sham qiroli deb, Akvilon esa merosxo'r shahzoda deb e'lon etilardi.

Bu olovlar jangi ikki soatcha davom etdi. Korso ko'chasi kunduzgidek charog'on edi. To'rtinchi va beshinchi qavatlarda deraza yonida o'tirib ko'chadan odamlarni yuz-ko'zidan tanib olsa bo'lardi.

Alber har besh daqiqada soatiga qarab qo'yardi. Mana soat yetti ham bo'ldi.

Bu paytda ikkala jo'ra via-del-Pontefichi yonidan o'tib borayotgan edilar. Alber qo'lida sham tutgan holda izvoshdan irg'ib tushdi.

Uni bir necha niqobli kishi o'rab olib, shamini puflay boshladi, ammo epchil bokschi Alber odamlarni o'zidan o'n metrcha nariga itarib tashladi-da, San-Jakomo cherkovi tomonga yugurdi.

Cherkov oldidagi maydon tomoshabinlar va bir-birining shamini o'chirish yoki tortib olishga zo'r berib urinib yurgan niqoblar bilan to'lib-toshgan edi. Frans Alberdan ko'zini uzmas va jo'rasining zinapoyaga qadam qo'rganini ko'rib turardi. Shu zahotiyuq tanish qishloqi libosidagi oyimcha qo'lini uzatdi, bu gal Alber hech qarshilik ko'rsatmay shamni berdi.

Frans ancha uzoqda bo'lib, ularning bir-biriga nima deganini eshitilmadi, ammo aftidan Alber bilan oyimcha bir-birini juda yoqimli, shirin so'zlar bilan qarshi oldi, bu ikkisinin qo'l ushlab jo'nashidan ko'rinib turardi. Frans yana bir daqiqa ular ketidan qarab turdi, ammo ko'p o'tmay oshiqlar ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

To'satdan qo'ng'iroqlar chalinib karnaval tugaganidan darak berdi, shu on go'yo sehrigar amri bilan qudratli shamol esdi-yu, barcha shamlarni birdan o'chirib qo'ydi.

Frans zimiston ichida qoldi.

Chiroqlar o'chishi bilan haligi shamol shov-shuvlarni o'chirib ketganday bo'ldi-yu, hamma yoqqa chuqur sukunat cho'kdi, faqat niqoblilarni uy-uyiga olib ketayotgan izvoshlarning taqir-tuqiri eshitalardi. Onda-sonda derazalardan milt-milt etib yonayotgan chiroqning yorug'i ko'rinardi.

Karnaval tugadi.

XVI. SAN-SEBASTIANO G'ORLARI

Ehtimol, Frans hayoti davomida hech mahal xursandchilikdan bu kabi tez xafachilik girdobiga tushib qolmagan bo'lsa kerak. Qandaydir sehrGAR bir ishora bilan butun Rimni ulkan zimiston go'rga aylantirib yuborgandek bo'ldi. Oy ham jamolini yashirib, zimistonlikka zimistonlik qo'shayotgan edi. Frans ko'chalarda bir qadam narida hech nimani ko'rolmayotganining boisi ham shunda. Biroq yo'l uzoq emasdi. O'n daqiqa o'tar-o'tmay uning, to'g'rirog'i, grafning izvoshi mehmonxona eshigi oldiga kelib to'xtadi.

Ovqat tayyor edi. Alber kechroq boraman, deb ogohlantirgani uchun Frans uni kutib o'tirmay ovqatlandi.

Ikkalasini hamisha birga ko'rib yurgan maestro Pastri ni Alberni so'radi. Frans Alber mehmonga ketdi, dedi. Birdaniga chiroqlar o'chib, yorug'lik o'rniga zimiston, shovqin o'rniga sukunat cho'kkani Fransning ko'nglini g'ash qilib, vahimaga soldi. Xo'jayin bir necha bor kirib, ovqatlar janob mehmonga yoqyaptimi-yo'qmi, deb so'rab-surishtirgan bo'lsa-da, Frans churq etmadi. Frans Alberni kutishga qaror qildi. Shu sababli u izvoshtni soat o'n birga chaqirishni va bordi-yu, Alber mehmonxonaga kelgudek bo'lsa, darhol unga xabar berishni iltimos qildi. Soat o'n birda ham Alber kelmadi. Frans xo'jayinga tunni gersog Brachchano balida o'tkazishini aytib, jo'nadi.

Gersog Brachchanoning uyi Rimda ko'ngillarni chog' qiladigan birinchi uylardan hisoblanadi. Uning rafiqasi

qadimgi Kolona urug'idan, ajoyib beka bo'lib, ular mehmon kutishda butun Evropaga dovruq tarqatishgan edi. Frans bilan Alber Rimga ana shu gersog nomiga yozilgan tavsiya xati bilan kelgan edilar, shu sababli Frans kirishi bilan uning yo'ldoshini so'rashdi. Frans jo'rasi bilan shamlar o'chgan damdayoq ajralishib ketganini va Alber via-Machello yaqinida ko'zdan g'oyib bo'lganini aytdi.

– Demak, u ham hozirgacha mehmonxonaga qaytmabdi-da? – so'radi gersog.

– Men soat o'n birgacha uni kutdim, – javob berdi Frans.

– Qaerga ketganini bilasizmi?

– Aniq bilmayman, chamamda uchrashuvga ketgan bo'lsa kerak.

– Yo tavba! – dedi gersog, – bugungi kun, to'g'rirog'i, tun uzoq sayr uchun xosiyatsizdir, shundaymi grafinya?

Gersogning so'nggi so'zlari hozirgina gersogning ukasi janob Torlonia bilan qo'ltiqlashib kirgan grafinya G.ga aytilgan edi.

– Menimcha, unday emas, aksincha, bu juda ajoyib tun, – dedi grafinya, – bu yerda to'planganlar kechaning juda tez o'tib ketganidan afsuslanadilar hali.

– Men bu yerdagilar haqida gapirayotganim yo'q, – e'tiroz bildirdi gersog iljayib, – bu yerda erkak kishi uchun birdan-bir xavf sizning husn-jamolingizga maftun bo'lib qolish, ayol kishi uchun esa latofatingizga hasad qilish dardiga muhtalo bo'lishdir, men hozir Rim ko'chalarida sang'ib yurganlar haqida gapiryapman.

– Balga taklif etilganlardan kim shu paytda ko'chalarida sang'ib yuribdi ekan? – so'radi grafinya.

– Do'stimiz Alber de Morser, – dedi Frans. – Men u bilan soat yettida ajralgan edim. U o'zining haligi notanish jononi ketidan ketgan edi, o'shandan beri ko'rganim yo'q.

– Iya, siz hali uning qaerdaligini bilmaysizmi?

– Mutlaqo.

– Yonida quroli bormi?

– U masxaraboz libosida edi.

– Uni yakka yubormaslik kerak edi, – dedi gersog. –

Rimni siz undan yaxshiroq bilardingiz.

– Uni yubormay bo‘larmidi?! Bugungi poygada g‘olib chiqqan uchinchi raqamli chavandozni to‘xtatish Alberni to‘xtatishdan yuz karra oson bo‘lur edi menga, – dedi Frans. – Xo‘sh, u biror ko‘ngilsiz holga uchrashi mumkinmi?

– Kim bilsin? Qop-qorong‘i tun, via-Machello bilan Tibr orasi besh qadam.

Gersog va grafinya ham xavflanayotganini ko‘rgan Fransning a‘zoyi badaniga muz yugurdi.

– Mehmonxonada siznikiga borajagimni aytdim, – dedi Frans, – u kelishi hamono menga xabar berishadi.

– Ana, – dedi gersog, – mening qarolim sizni axtarib yuribdi, shekilli.

Gersog yanglishmagandi. Qarol Fransni ko‘rib, yugurib keldi.

– Janob, – dedi u, – «London» mehmonxonasining xo‘jayini kimdir sizga vikont Morserdan xat keltirib kutib turganini aytib yuboribdi.

– Vikontdan xat keltiribdi?! – qichqirib yubordi Frans.

– Xuddi shunday.

– Qanaqa odam ekan u?

– Bilmadim.

– Xatni o‘zi nega bu yoqqa olib kelmadi?

– Chopar menga bu haqda hech nima demadi.

– Sizga xabar qilish uchun zalga kirayotganimni ko‘rgach u ketib qoldi.

– E, Parvardigori olam! – dedi grafinya Fransga qarab.

– Boring tezroq. Obbo sho‘rlik! U biror falokatga uchragan bo‘lsa-ya.

– Tezroq boray, – dedi Frans.

– Siz bu yoqqa qaytib, bo‘lgan voqeani aytib berasizmi? – so‘radi grafinya.

– Agar biror kor-hol yuz bermagan bo‘lsa, yo‘qsa holim nima kechishini kim bilib o‘tiribdi, deysiz.

– Har holda ehtiyot bo‘ling, – dedi grafinya.

Frans shlyapasini oldi-da, shoshib tashqariga chiqdi.

Balga kelgani zamon u izvoshga javob berib, kechasi soat ikkida kelishni tayinlagan edi. Yaxshiyamki, gersogning bir tomonda Korsoga, ikkinchi tomondan Muqaddas apostollar maydoniga tutash saroyi bilan «London» mehmonxonasining oralig'i ko'pi bilan o'n daqiqalik yo'l edi. Frans mehmonxona eshigi oldiga kelganda, ko'channing o'rtasida turgan odamga ko'zi tushdi. Bu shubhasiz Alber yuborgan kishi edi. U keng plashga o'ralib olgan. Frans u tomonga qadam tashladi, biroq plashdagi kishi birinchi bo'lib so'z boshladi, bu Fransni taajjubga soldi.

– Janob, menda biror gaplari bormi? – dedi u bir qadam orqaga tisarilib.

– Vikont de Morserdan menga xat keltirgan sizmi? – so'radi Frans.

– Janob Pastrini mehmonxonasida istiqomat qilyaptilarmi?

– Shunday.

– Vikont bilan birga sayohat qilib yurgan janob o'zlari mi?

– Shunday.

– Janoblarining ismi shariflari?

– Baron Frans d'Epine.

– Demak, xat janoblariga yozilgan.

Frans xatni choparning qo'lidan olib:

– Javob yozish kerakmi? – deb so'radi.

– Do'stingiz javob xatingizga mushtoq.

– Unday bo'lsa mening xonamga chiqaylik.

– Yo'q, yaxshisi, men shu yerda kutib turaman, – dedi kulimsirab chopar.

– Nega?

– Buni xatni o'qiganda fahmlab olasiz.

– Sizni shu yerdan topamanmi?

– Albatta.

Frans mehmonxonaga kirdi, zinada maestro Pastriniga duch keldi.

– Xo'sh, nima gap? – so'radi Pastrini.

– Nimani so'rayapsiz? – dedi Frans.

– Jo‘rangizning topshirig‘i bilan kelgan kishini ko‘rdingizmi? – so‘radi xo‘jayin.

– Ko‘rdim, – javob qildi Frans, – u xat keltirib berdi. Marhamat qilib chiroq keltirishni buyursinlar.

Xo‘jayin xizmatkorga sham keltirishni buyurdi. Fransga mehmonxona xo‘jayini juda tashvishli ko‘rindi, bu hol xatni tezroq o‘qishga bo‘lgan istagini yanada oshirdi. Xizmatchi shamni yoqishi bilan Frans xatni ochdi. Xatni Alberning o‘zi yozib, tagiga imzo chekkan edi. Frans xatni ikki marta o‘qib chiqdi, unda hech kutilmagan so‘zlar yozilgandi.

Mana o‘sha xatning so‘zma-so‘z bayoni:

«Qadrli do‘stim, xatni olgan zahotingiz yozuv stolidan mening hamyonimdagi akkreditivlarni oling, mabodo meniki yetinqiramasa, o‘zingiznikini ham qo‘shing. Sudlik bilan Torloniadan ham to‘rt ming piastr oling. Hammasini qo‘shib xatni olib borgan kishiga bering. Bu mablag‘ darhol menga yetkazilishi shart.

Shu bilan gapni bas qildim, chunki siz menga qanchalik ishonsangiz, men ham sizga shunchalik ishonaman.

P. S. I. believe now in italian banditte.²⁹

Do‘stingiz Alber de Morser».

Bu satrlar ostiga boshqa bir kishining qo‘li bilan quyidagilar yozilgan edi:

«Se alle sei della mattina le quattro mila piastre non sono nelle mie mani, alle sette il sonte Alberto avra cessato di vivere.

Luigi Vampa».³⁰

Ikkinchi imzo hamma narsani anglatib qo‘ya qoldi Fransga, choparning xonasiga chiqmaganining boisi ham shunda edi: ko‘chada tursam xavf-xatar kamroq bo‘ladi, deb o‘ylagandi u. Alber, bunaqasi bo‘lishi mumkin emas,

deb yurgan o'sha mashhur qaroqchining qo'liga tushgan edi.

Bir zum ham vaqtni o'tkazish mumkin emas. Frans yugurib borib yozuv stolining tortmasidan hamyonni olib ochdi, unda olti ming piastrga akkreditiv bor edi, uch mingini Alber xarajat qilib qo'ygan ekan. Fransning o'ziga kelganda, unda umuman akkreditiv yo'q edi, chunki u Florensiyada yashardi va Rimga faqat bir haftaga kelgandi, shu sababli bir yuz luidordan oshiq pul olmagan edi, bu yuzning ham yarmini sarflab qo'ygandi. Shunday qilib, Alber so'ragan summaga yana yetti yoki sakkiz yuz piastr yetmasdi. To'g'ri, bunday favqulodda hollarda Frans janob Torlonianing yordamiga umid bog'lashi mumkin edi.

Frans vaqtni o'tkazmay Brachchano saroyiga qaytmoqchi bo'lib turgan edi, ammo to'satdan unda ajoyib fikr tug'ildi. Fransning esiga graf Monte-Kristo tushib qoldi. U maestro Pastrinini chaqirish uchun qo'ng'iroq ipiga endi qo'l cho'zgan edi, shu payt xo'jayinning o'zi kirib keldi.

– Sinor Pastrini, – shoshib so'radi u, – sizningcha graf xonasidamikin?

– Ha, janob, u hozirgina keldi.

– Hali yotishga ulgurmagan bo'lsa kerak?

– Yo'q, albatta.

– Marhamat qilib, unga men huzuriga kirmoqchi ekanligimni ayting.

Pastrini topshiriqni darhol bajarishga kirishdi, besh daqiqadan so'ng qaytib keldi.

– Graf janoblarini kutib turibdi, – dedi u.

Frans maydonchadan o'tishi bilan qarol uni graf xonasiga boshladi. Graf haligacha Frans ko'rmagan kichik xonada o'tirgan edi. Xonaning to'rt tomoniga divanlar qo'yilgan. Fransni graf o'rnidan turib kutib oldi.

– Qanday shamol uchirib keldi menikiga janoblarini? – dedi u. – Kechki ovqatni birga baham ko'ramiz, rozi bo'lsalar?! Bu bilan meni juda xursand qilgan bo'lur edingiz.

– Rahmat, biroq men muhim bir ish bilan keldim huzu-

ringizga.

– Ish bilan? – dedi graf sinovchan nazar tashlab Fransga. – Qanaqa ish bilan?

– Bu yerda ikkimizdan boshqa hech kim yo'qmi?

Graf eshik oldiga borib qaytdi-da:

– Ikkimizdan boshqa hech kim yo'q, – dedi.

– O'qing, – dedi u.

Graf xatni o'qidi.

– Eh-e! – dedi u.

– Ilovasini ham o'qidingizmi?

– Ha, – dedi graf, – ko'rib turibman:

«Se alle sei della mattina le quattro mila piastre non sono nelle mie mani, alle sette il sonte Alberto avra cessato di vivere.

Luigi Vampa».

– Bunisiga nima deysiz? – so'radi Frans.

– Bu yerda ko'rsatilgan pul bormi sizda?

– Bor, faqat sakkiz yuz piastr yetmaydi.

Graf shkaf-stol oldiga borib tortmaga kalit solib, oltin-ga liq to'la yashikni ochdi.

– Boshqa kishiga bu haqda murojaat etmaysiz deb umid qilsam bo'ladimi? – dedi u Fransga.

– Mana, o'zingiz ko'rib turibsiz-ku, men to'g'ri janoblari-ga murojaat qilib keldim, – dedi Frans.

– Buning uchun sizdan minnatdorman. Mana keragi-cha oling, – dedi-da, graf Fransga yashikni ko'rsatdi.

– Nahotki Luidji Vampaga shuncha pulni yuborish shart bo'lsa? – dedi Frans o'z navbatida grafga tikilib.

– Albatta! Qo'shimcha xatda aniq yozib qo'yilibdi-ku.

– Chamamda, agar istasangiz bundan jo'nroq yo'l to-pib, Albarni qutqaradingiz, – dedi Frans.

– Masalan, qanday yo'l? – so'radi taajjub bilan graf.

– Agar ikkovimiz Luidji Vampaning oldiga borsak, u sizning iltimosingizni rad etmay Albarni so'zsiz qo'yib yuborardi. Men bunga aminman.

– Yo'g'-e! U qaroqchiga mening qanday ta'sirim bo'lishi mumkin?

– Axir siz unga bir gal hech unutib bo'lmaydigan yordam ko'rsatgan edingiz-ku?

– Qanaqa yordam?

– Peppinoni o'limdan qutqarib qolgan siz emasmi, axir?

– Ha-a! – dedi graf. – Kim aytdi sizga buni?

– Baribir emasmi? Men buni bilaman.

Graf qoshini chimirib anchagacha g'iq etmay turdi.

– Mabodo men Luidji oldiga borgudek bo'lsam, siz ham men bilan borasizmi?

– Agar xalaqit bermasam, borardim.

– Bo'pti, birga borsak boraylik, havo ochiq, bunday paytlarda Rim atrofida juda rohatlanib sayr qilish mumkin.

– Qurol olasizmi?

– Nima keragi bor?

– Pul-chi?

– Keragi yo'q. Xat keltirgan odam qaerda?

– Ko'chada.

– Javob kutib turibdimi?

– Ha.

– Har qalay, boradigan joyimizni bilib olishimiz kerak, men uni chaqiray.

– Foydasiz, u kirishni istamadi.

– Siznikiga kirmasligi mumkin, ammo menikiga kiradi.

Graf xonaning ko'cha tomondagi derazasi oldiga bordi-da, maxsus ohangda g'alati hushtak chaldi. Plashga burkangan odam devor tagidan ko'chaning o'rtasiga chiqdi.

– Salite!³¹ – dedi graf xuddi o'z qaroliga buyruq qila-yotganday.

Chopar sira ikkilanmay eshik tomonga yugurdi va mehmonxonaga kirdi. Bir lahza o'tar-o'tmay u xona ostonasida paydo bo'ldi.

– E-e, senmiding, Peppino? – dedi graf.

Javob o'rniga Peppino tiz cho'kib, grafning qo'lini ush-

ladi-da, qayta-qayta o'pdi.

– Eh-e! – dedi graf, – seni o'limdan qutqarib qolganimni haliyam unutganing yo'qmi? Ajabo, unga bir hafta bo'ldi-ku!

– Yo'q, muhtaram janob, unutganim yo'q va umr bo'yi hech qachon unutmayman bu olijanobligingizni, – dedi Peppino chuqur minnatdorchilik ohangida.

– Umr bo'yi, hech qachon? Yo'g'-e, bu juda uzoq-ku! Ammo shunday deb o'ylaganing uchun ham rahmat. Tur o'rningdan, javob ber.

Peppino Fransga tashvishomuz qarab qo'ydi.

– Bu janob oldida xavotir olmay gapiraver, u mening do'stim, – dedi graf. – Shunday deb atashga rozimilar janoblari? – qo'shimcha qildi fransuz tilida graf Fransga murojaat qilib. – Choparda ishonch hosil qilish uchun shunday qilmasak bo'lmaydi.

– Mening oldimda gapiravering, – dedi Frans, – men grafning do'stiman.

– Yaxshi, – javob qildi Peppino grafga qarab, – muhtaram janoblari savol bersinlar, men javob beraman.

– Vikont Alber qanday qilib Luidjining qo'liga tushib qoldi?

– Muhtaram janob, fransuzning izvoshi bir necha marta Tereza o'tirgan izvosh bilan uchrashdi.

– Atamanning mahbubasimi u?

– Shunday. Fransuz gap ota boshladi, Tereza hazilomuz jilvalar qildi, fransuz unga guldastalar otdi, Tereza ham gul irg'itaverdi, albatta buni Tereza o'sha aravada o'tirgan atamanning ruxsati bilan qildi.

– Nima, nima? – dedi xitob qilib Frans. – Luidji Vampa ham o'sha qishloqi oyimlarning faytonida o'tirganmidi?

– U izvoshchi kiyimida, otlarning jilovini ushlab olgandi, – dedi Peppino.

– Xo'sh, so'ng nima bo'ldi? – dedi graf.

– So'ng fransuz niqobini oldi, Tereza ham atamanning ruxsati bilan yuzini ochdi, fransuz yakka uchrashishni iltimos qildi. Tereza uchrashish vaqti va joyini aytdi. Faqat

San-Jakomo cherkovi oldida fransuzni Tereza emas, Beppo kutib oldi.

– Nima? – dedi yana Peppinning soʻzini boʻlib Frans. – Alberning qoʻlidan shamni tortib olgan qishloqi oyimcha emasmi?..

– Tortib olgan oʻn besh yoshli bola edi, – dedi Peppino. – Doʻstingiz bundan uyalmay qoʻya qolsin. Bepponing qoʻliga ilgari ham tushganlar koʻp.

– Alberni shahardan olib chiqib ketgan ham Beppo edi mi? – soʻradi graf.

– Ha, Beppo edi. Via-Machelloning oxirida fayton kutib turgan edi, Beppo irgʻib faytonga chiqdi-da, fransuzni ham taklif etdi. U ortiqcha tarang qilib oʻtirmay faytonga mindi-da, Beppoga oʻng tomonni boʻshatib, yoniga oʻtirdi. Shunda Beppo, Rimdan bir mil naridagi villaga olib borajagini aytdi. Fransuz dunyoning narigi burchagiga olib borsangiz ham boraveraman dedi. Izvoshchi via-di-Repettaga yoʻl oldi, muqaddas Pavel robotidan oʻtdi, biroq dalaga chiqqanlarida fransuz qoʻliga ortiqcha erk berib, yopisha boshladi, shundan keyin Beppo uning koʻksiga ikkita toʻpponcha taqadi. Izvoshchi ham otlarni toʻxtatdi-da, oʻgʻirilib toʻpponchasini oʻqtalib oldi. Shu payt Almo qirgʻogʻida pusib yotgan toʻrt yigitimiz fayton oldiga yugurib keldi. Fransuz oʻzini muhofaza qilishga urindi, hatto, Bepponi bir oz boʻgʻibdi ham. Lekin beshta qurolangan kishiga qaydan kuchi yetsin? Taslim boʻlishdan boshqa iloji qolmadi. Uni faytondan chiqarib, ariq boʻyiga, soʻng San-Sebastiano gʻorida kutib oʻtirgan Tereza bilan Luidji huzuriga olib borishdi.

– Hechqisi yoʻq, bunaqa voqealar boʻlib turadi, – dedi graf Fransga, – biroq menimcha bunisi ilgarigilaridan zoʻrroq boʻpti. – Xoʻsh, siz nima deysiz? Bunaqangi voqealarni juda koʻp koʻrgan boʻlsalar kerak?

– Fikrim shuki, – dedi Frans, – agar bu holga shoʻrlik Alber emas, boshqa birov tushganda, rosa qotib-qotib kulgan boʻlardim.

– Agar shu payt meni topolmaganingizda, bu ishqiy

sarguzasht do'stingizga juda qimmatga tushgan bo'lur edi. Endi xotirjam bo'ling. U bir oz vahima bilan xalos bo'ladi.

– Borib uni olib kelamizmi? – so'radi Frans.

– Albatta! Yana shunisi ham borki, u turgan joy juda xushmanzara joy. San-Sebastianodagi yer osti g'orlarini bilasizmi?

– Yo'q, men u yerga hech tushganim yo'q, biroq ko'pdan buyon tushmoqchi bo'lib yuruvdim.

– Mana bu tilakni bajo keltirishga vaj tayyor. Izvoshingiz shu yerdami?

– Yo'q.

– Mayli, hechqisi yo'q. Mening izvoshim kunduzi ham, kechasi ham taxt bo'lib turadi.

– Otlar qo'shiqlik turadimi?

– Albatta.

– Shuni aytib qo'yayki, men bir yerda uzoq o'tirolmayman. Ba'zida o'tirgan joyimdan yoki yarim kechasi to'shakdan irg'ib turib, qayoqqa bo'lmasin boshimni olib ketishga qaror qilaman-da, jo'nab qolaman.

Graf bir marta qo'ng'iroq qildi, xonaga kamerdiner kirdi.

– Ayting, izvoshni saroydan olib chiqsinlar, – dedi graf, – u yerdagi to'pponchalarni olib qo'ying, izvoshchini uyg'otmang, bizni Ali olib boradi.

Bir daqiqa o'tar-o'tmas eshik oldida izvoshning taraq-lagani eshitildi. Graf soatga qaradi.

– Bir yarim, – dedi u. – Ertalab soat beshda jo'nasak ham bo'lardi, vaqtida yetib borardik, ammo kechroq borsa do'stimiz butun tunni tashvishda qiyalib o'tkazishi mumkin, shuning uchun tezroq borib uni betavfiqlar qo'li-dan qutqarib olaylik. Siz haliyam men bilan borish ishti-yoqidamisiz?

– Borishga ishtiyoqim har qachongidan zo'r endi.

– Unday bo'lsa ketdik.

Frans bilan graf xonadan chiqishdi, Peppino ularga er-gashdi.

Eshik oldida izvosh turardi. Izvoshchi o'rnida Ali o'tiribdi. Frans Monte-Kristo g'orida ko'rgan soqov qulni tanidi.

Izvosh ikki o'rinli edi. Frans bilan graf izvoshga chiqdi. Peppino Alining yoniga joylashib oldi. Otlar yo'rtib ketdi.

Qaysi tomonga yurish to'g'risida ilgariyoq farmoyish olgan Ali Korso ko'chasiga yo'l oldi, Kampo Vachchindan o'tib Strada San-Grigorioga chiqdi-da, San-Sebastiano darvozasi oldida to'xtadi. Qorovul boshda kiritmadi, biroq graf Rim gubernatorining kechayu kunduz hech moneviz kirish va chiqish uchun bergan ruxsatnomasini ko'rsatgach, temir panjaralar darhol ko'tarildi, qorovul mehnati haqiga bir tilla oldi, shundan so'ng izvosh ichkari kirib ketdi.

Ular ikki tomoni qabriston bo'lgan qadimiy Appiy yo'lidan borardilar. Fransga ba'zan oying g'ira-shira nurida xarobalarda soqchilarning qorasi ko'rinar va ular Peppinoning imosi bilan qorong'ilikka sho'ng'ib ketgandek tuyulardi.

Izvosh Karakalla sirki yaqinida to'xtadi. Peppino izvosh eshigini ochdi, graf va Frans tushdi.

– O'n daqiqada yetamiz Vampa huzuriga, – dedi graf Fransga.

So'ng u Peppinoni chetga chaqirib oldi-da, shivirlab, qandaydir topshiriqlar berdi. Peppino esa izvosh yashigidan mash'alni oldi-da, g'oyib bo'ldi.

Yana besh daqiqa o'tdi, Peppino baland-past tepalikdagi ilon izi yolg'izoyoq yo'ldan ildam bordi. Frans uning ketidan qarab turdi. Bir oz o'tgach, Peppino qizg'ish o'siq o'tzorga kirib ketdi.

– Biz ham uning ketidan boraveramiz, – dedi graf.

Graf bilan Frans o'sha tor so'qmoqdan tepalik yonbag'ri bo'ylab yuz qadamcha yurgach, kichkina vodiyya chiqishdi. Saldan keyin qorong'ida bir-biriga gap sotib turgan ikki kishi ko'rindi.

– Boraveramizmi yoki kutganimiz ma'qulmi? – so'radi

Frans.

– Yuring, boraveramiz, Peppino soqchilarni ogohlantirib qo‘ygan bo‘lsa kerak.

Rostdan ham gaplashib turganlarning biri Peppino, ikkinchisi soqchilik qilib turgan qaroqchi ekan.

Graf bilan Frans ularning oldiga bordi, qaroqchi egilib salom berdi.

– Muhtaram janob, – dedi Peppino, – menim ketimdan boraverasizmi? Ikki qadam narida g‘orning og‘zi.

– Yaxshi, yo‘l boshla, – dedi graf.

Ko‘p o‘tmay butazor orqasidagi toshlar orasida bir odam zo‘rg‘a sig‘adigan teshik ko‘rindi.

Teshikka birinchi bo‘lib Peppino kirib ketdi, bir necha qadamdan so‘ng g‘or yo‘li kengaya boshladi. Shunda Peppino mash‘alni yoqdi-da, orqaga o‘girildi.

Teshikka avval graf, uning ketidan Frans kirdi.

Yo‘l tog‘ tagiga pastlab, kengayib borardi, shunga qaramay Frans bilan graf hamon engashib, oldinma-ketin qadam tashlashga majbur edi. Shu zaylda ular yana yuz ellik qadam yurishdi, so‘ng «Kim u?» degan ovozdanda to‘xtashdi.

Qorong‘ida miltiq quvuri mash‘al yog‘dusida yaltirab ko‘rindi.

– Do‘st, – javob qildi Peppino.

So‘ng u ilgarilab bordi-da, soqchiga bir necha so‘z aytdi, bu soqchi ham, birinchisi kabi salom berdi, o‘tib boraverishlarning mumkin, dedi imo bilan.

Soqchi yigirma zinapoyaning taxminan yigirmanchi pillapoyasida turardi, Frans va graf zinadan pastga tushib borib, sag‘anaga o‘xshagan joyga duch kelishdi. Shu yerda besh tomonga yoritilgan g‘or yo‘llari cho‘zilib ketgan edi. Tosh devorlarga tobut shaklida tokchalar o‘yib qo‘yilgan. Frans va graf yer ostidagi g‘orga kirganlarini anglashdi.

Uzunligini aniqlab bo‘lmaydigan ana shu g‘or yo‘llardan biriga kunduzi jindek-jindek yorug‘lik tushib turardi.

Graf qo‘lini Fransning yelkasiga qo‘yib so‘radi:

– Qaroqchilar qanday qilib dam olishini ko'rishni istaysizmi?

– Istaganda qandoq! – dedi Frans.

– Unday bo'lsa, qani, yuring ketimdan... Peppino, mash'alni o'chir.

Peppino buyruqni bajo keltirdi, Frans bilan graf zimiston ichida qolishdi. Faqat ellik qadam narida devorlarda qizg'ish yog'du nur parchalari miltillab turardi. Peppino mash'alni o'chirgach, nur parchalari yanada yorqinroq ko'rindi.

Ular tovush chiqarmay olg'a yurishdi, graf go'yo qorong'ida ham ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgandan dadil qadam tashlardi. Frans ham miltillab turgan nurlarga yaqinlashgan sari yo'lni aniqroq ko'ra boshladi.

Ular qarshisida uch peshtoq paydo bo'ldi, o'rtasidagi eshik vazifasini bajarardi. Bu peshtoqlar graf bilan Frans turgan dahlizni to'rt burchakli katta xonadan ajratib turardi. Bu xonaning to'rt tomoniga ham boya aytganimiz singari taxmon-tokchalar yasalgan. Xonaning o'rtasiga to'rt xarsang tosh qo'yilgan, bu toshlar bir vaqtlar mehrob rolini o'ynagan bo'lsa kerak, ular ustidagi salb ham shundan dalolat berib turardi.

Bir kishi peshtoqlarga orqasini o'girib, ustun tagida kitob o'qib o'tiribdi.

Bu to'da atamani Luidji Vampa edi.

Uning atrofida tosh o'rindiqlarda plashga o'ralib yigirmaga yaqin qaroqchi o'tiribdi. Hammasining yonida beshotar miltiq. Xonaning to'rida devordagi allaqanday tuy-nuk oldida xuddi ko'lankaga o'xshagan soqchi nafasini chiqarmay u yoqdan-bu yoqqa borib-kelib turibdi. Tuynuk zo'rg'a ko'rinardi.

Graf Fransga bu ajoyib manzarani rosa to'yib tomosha qilguncha qo'yib berdi. So'ng barmog'ini labiga qo'ydi-da, uch zinapoyani bosib, o'rtadagi peshtoqdan ichkari kirib Luidjiga yaqinlashdi. O'qishga juda berilib ketgan Luidji grafning qadam tovushini eshitmadi ham.

– Kelayotgan kim? – qichqirdi soqchi ataman orqasida

qad ko'tarayotgan ko'lankani ko'rib.

Bu tovushni eshitgan Vampa irg'ib o'rnidan turdi-da, kamaridagi to'pponchasiga yopishdi. Shu zahoti hamma qaroqchi irg'ib o'rnidan turdi. Yigirmata beshotar grafni mo'ljalga oldi.

Graf pinagini buzmay, xotirjam ohangda:

– Azizim Vampa, kishi do'stini ham shunaqa kutib oldimi? – dedi.

– Tushir qurollaringni! – deb buyruq berdi ataman bir qo'lini ko'tarib, ikkinchi qo'li bilan ta'zim qilib shlyapasini olar ekan.

So'ngra u hokimi mutlaqqa o'xshab gerdayib turgan grafga murojaat qildi.

– Kechiring, graf, siz mening kulbamga qadam ranjida qilasz, deb hech o'ylamagan edim, shuning uchun taniy qoldim.

– Aftidan, siz – Vampa ko'p narsani esdan chiqarib qo'yar ekansiz, odamlarni tanish u yoqda tursin, hatto ular bilan tuzilgan shartnomani tezda yodingizdan ko'tarib yuborgansiz.

– Qanaqa shartnoma yodimdan ko'tarilibdi mening, janob graf? – so'radi qaroqchi o'z xatosini darhol tuzatishga tayyor ekanini anglatadigan ohangda.

Bunga javoban graf:

– Axir, mengina emas, mening barcha do'stlarim siz uchun daxlsiz bo'ladi deb kelishgan emasmidik? – dedik.

– Men bu shartni nima qilib buzibman?

– Bugun siz vikont Alber de Morserni o'g'irlab bu yerga keltiribsiz, bu kishi esa... – dedi so'zini davom ettirib graf g'alati ohangda. Bundan Frans bexosdan seskanib ketdi.

– Mening do'stlarimdan biri bo'ladi, u men ko'rgan bir mehmonxonada istiqomat qiladi, butun hafta – mening izvoshimda Korsoni sayr etdi, shunga qaramay siz uni o'g'irlab bu yerga keltiribsiz va yana... – dedi graf cho'ntagidan xatni olib, – xuddi u oddiy kishidek uning uchun to'lov puli talab qilibsiz!

– Nega buni menga aytmadinglar? – dedi ataman uning nigohiga tob berolmay orqasiga tislangan yigitlariga, – nega grafdek aziz, muhtaram janobga bergan soʻzimni buzishga meni majbur etdingiz? Nega? Axir, har birimizning hayotimiz, taqdirimiz shu grafning qoʻlida ekanini bilmaysizmi? Xudo haqi, orangizda biror kishi bu yigitning muhtaram grafning doʻsti ekanini biladi degan fikr xayolimga kelganida uni oʻz qoʻlim bilan otib tashlagan boʻlardim!

Graf Frans turgan qorongʻi tomonga oʻgirilib dedi:

– Mana, aytmadimmi bu anglashilmovchilik deb.

– Sheringiz ham bormi? – soʻradi xavotirlanib Vampa.

– Siz xat yoʻllagan kishi ham men bilan birga keldi. Men unga Luidji Vampa ahdidan qaytmaydigan yigit ekanini isbotlab bermoqchi boʻldim. Beri keling, baron, – dedi u Fransga qarab. – Oʻz xatosidan oʻzi juda pushaymon boʻlayotganini Luidjining oʻziyam aytib beradi.

Frans yaqin keldi, ataman ham bir necha qadam tashlab unga yaqin bordi.

– Muhtaram janob, mehmonim boʻlishingizni iltimos qilaman, – dedi u. – Grafning gaplarini va mening javoblarimni eshitgandirsiz. Men yana shuni qoʻshishim mumkinki, bunday anglashilmovchilik yuz bermasligi uchun oʻzim jon deb toʻrt ming piastr toʻlov puli bergan boʻlur edim.

– Biroq asiringiz qaerda? – soʻradi Frans xavotirlanib atrofga alanglab. – U bu yerda koʻrinmaydi-ku.

– Unga biror shikast yetkazilmagan deb ishonsam boʻladimi? – soʻradi graf qoshlarini chimirib.

Bunga javoban Vampa soqchi yurib turgan tuynuk tomonga qarab:

– Asir anovi yerda, oʻzim borib ozod qilaman uni, – dedi.

Ataman Alber oʻtirgan gʻorga yurdi. Frans bilan graf uning ketidan bordi.

– Nima qilyapti asir? – soʻradi Vampa soqchidan.

– To‘g‘risini aytsam, asirning nima qilib o‘tirganidan bexabarman, – javob berdi soqchi, – bir soatdan ko‘proq vaqt o‘tdi, hech ovozi chiqmaydi.

– Marhamat, janoblar, – dedi Vampa.

Frans bilan graf ataman ketidan zina bo‘ylab yuqori ko‘tarilishdi. Vampa lo‘kidonni olib eshikni ochdi.

Boyagi sag‘anani yoritib turgan chiroqqa o‘xshagan lampa yog‘dusida Alber ko‘rindi. U qaroqchilardan biri bergan plashga o‘ralib dong qotib uyquni urib yotgan edi.

– Biroq, – dedi graf faqat o‘ziga xos tabassum-la, – ertalab soat yettida otib tashlanadigan kishi uchun ham bu yer juda huzur qiladigan joy ekan-ku!

Vampa miriqib uxlab yotgan Alberga zavqlanib tikilib qoldi. O‘limni ham pisand qilmay yotgan bu yigitning jasorati, aftidan, unga qattiq ta‘sir etgan edi.

– Graf, siz haq gapni aytgan ekansiz, bu kishi, hech shubhasiz, do‘stingiz ekan, – dedi Vampa. So‘ngra Alber oldiga borib, yelkasidan turtidi:

– Muhtaram janob! – dedi u. – Uyg‘onsalar ozor chekmasmikinlar?

Alber bir kerishib oldi, ko‘zlarini ishqalab, ochdi.

– Eh, sizmidingiz, ataman? – dedi u. – Tavba, nega meni uyg‘otdingiz, nihoyatda ajoyib tush ko‘rayotgan edim. Toshimda men Torlonianikida grafinya G. bilan maza qilib raqsga tushayotgan edim.

Cho‘ntagida vaqtni kuzatib turish uchun saqlab qolgan soatini olib unga qaradi.

– Soat endi bir yarim bo‘pti, – dedi u. – Nima sabab bo‘ldi-yu, siz meni yarim kechada uyg‘otdingiz?

– Sababi shuki, siz ozod bo‘ldingiz, shuni aytishim kerak edi sizga.

– Azizim, – dedi Alber nihoyatda sovuqqonlik bilan, – kelajakda ulug‘ Napoleonning quyidagi so‘zlarini esda tuting: «Shum xabar kelgandagina meni uyg‘oting». Meni hozir uyg‘otmaganingizda sohibjamol bilan oxirigacha raqsga tushgan va so‘ng sizdan umrbod minnatdor bo‘lib qolardim... Xo‘sh, menga to‘lov pulini keltirib berishibdi-

da?

– Yo‘q, muhtaram janob.

– Unday bo‘lsa, nega ozod etildim?

– Men hech bir iltimosini rad qila olmaydigan kishi sizni olib ketgani keldi.

– Bu yerga-ya?

– Ha, shu yerga.

– Xudo haqi, juda muruvvatli zot ekan-da, u.

Alber atrofga qaradi va Fransga ko‘zi tushdi.

– Yo tavba! – dedi u. – Hali sadoqat ko‘rsatgan sizmi-dingiz, Frans?

– Yo‘q, men emas, qo‘shnimiz graf Monte-Kristo, – javob qildi Frans.

– Ah-ha, graf deng, – dedi Alber galstugini va yengini to‘g‘rilab, – chindan ham bebaho odam ekansiz, graf, men avvalo izvoshingiz uchun, undan keyin – ozod etganingiz uchun butun umr sizdan qarzdorman! – shunday deb u grafga qo‘l uzatdi.

Graf seskanib ketdi, lekin shunga qaramay qo‘l berdi.

Hozirgi manzara Luidji Vampani hayratda qoldirdi, ak-sari tutqunlar hamisha uning oldida dag‘-dag‘ titrab, shaf-qat tilab turardi, Luidji shunga o‘rganib qolgan edi. Mana hozir hech pinagini buzmay hazil-mazax qilishini qo‘ymay-digani ham chiqib qoldi. Frans do‘sti Alber o‘z millati shon-shuhratiga isnod keltirmay mag‘rur turganidan ni-hoyatda xursand edi. U do‘stiga murojaat qildi:

– Azizim Alber, agar sal tez harakat qilsangiz, biz Torlo-nianikidagi bazmi jamshidning pirovardiga yetib boramiz, ana unda sinor Luidjini afv etib, tushdagi raqsni o‘ngin-gizda davom ettiraverasiz. To‘g‘risini aytganda, sinor Lu-idji bu ishlarning hammasida hotamtoylik ko‘rsatdi.

– Haq gapni aytdingiz, – dedi Alber, – soat ikkigacha Torlonianikiga yetib boramiz. Sinor Luidji, – dedi u so‘zi-ni davom ettirib, – siz janob bilan xayrlashish oldidan yana rasmoniyatga doir qanday majburiyatlarni ado etishim kerak?

– Hech qanaqa, – dedi qaroqchi, – to‘rt tomoningiz

qibla, xohlagan tomonga qanot qoqib ketaverishingiz mumkin.

– Unday bo'lsa xayr, sizga baxtli va shod-xurramlikka to'la hayot tilayman, qani janoblar, ketdik!

Alber shunday dedi-da, Frans va graf bilan birga katta xonadan o'tdi. Barcha qaroqchilar bosh yalang kuzatib turishardi.

– Peppino! – dedi ataman, – mash'alni ber menga.

– Nima qilmoqchisiz? – so'radi graf.

– Sizlarni kuzatib qo'ymoqchiman, – dedi ataman, – muhtaram janobga mening bu arzimas bir xizmatim bo'lsin.

Luidji yonib turgan mash'alni Peppinoning qo'lidan oldi-da, mehmonlar oldiga tushib, burchini ado etayotgan qarolga o'xshab emas, orqasidan elchilar kelayotgan qarolga o'xshab gerdayib olg'a yurdi.

Tashqi eshik oldiga borib ta'zim qilib xayrlashdi va dedi:

– Graf, men yana bir marta uzr so'rayman yuz bergan xato uchun, bundan keyin mendan nolimaysiz, deb ishonaman.

– Noliydigan hech narsa qolmadi, azizim Vampa, – dedi graf, – siz xatoyingizni juda qoyil qilib tuzatar ekansiz, buning uchun sizdan minnatdor bo'lmog'im kerak.

– Janoblar, – dedi qaroqchi yigitlarga murojaat qilib, – mening taklifim unchalik yoqmasa-da, biror vaqt menikiga tashrif buyurishga ahd qilsangiz, qaerda bo'lmayin, jon-dilim bilan kutib olishga tayyorman.

Frans va Alber ta'zim qilishdi. Birinchi bo'lib graf chiqdi. Uning ketidan Alber ergashdi, Frans to'xtab qoldi.

– Biror narsa so'ramoqchimidilar mendan, janoblari, – dedi iljayib Vampa.

– Ha, iqror bo'layinki, so'ramoqchi edim, – dedi Frans.

– Biz kirgan vaqtda qanaqa kitobni o'qib o'tirib edingiz?

– «Uezarning xatlari»ni, – dedi qaroqchi. – Bu mening sevgan kitobim.

– Frans, yurmaysizmi? – dedi tashqaridan Alber.

– Hozir, hozir, – dedi Frans.

Frans ham tashqari chiqdi.

Ular bir necha qadam bosishdi.

Alber qaytib bordi-da:

– Ruxsat qiling, – dedi Luidjiga va sigarasini qaroqchi mash'aliga tutib yondirib oldi.

– Endi, graf, vaqtini o'tkazmaylik, – dedi u. – Men tuning qolganini gersog Brachchanonikida o'tkazishni juda istardim. Izvosh ularni kutib turgandi. Graf arab tilida Aliga nimadir dedi, otlar chopa ketdi.

Soat naq ikki deganda, do'stlar raqs zaliga kirib boshirdi.

Ularning zalda paydo bo'lishi hammani hayratda qoldirdi, ammo birga kelishlari Alberdan xavotirlanib turganlarning ko'nglini tinchitdi.

– Grafinya, – dedi vikont de Morser grafinya G. oldiga borib, – kecha siz hotamtoylik ko'rsatib, men bilan raqs tushishga va'da bergan edingiz, bu va'dangizni sal kichikib eslatyapman, ammo bunda men aslo gunohkor emasman, rostgo'yliqi sizga ayon mening do'stim buni tasdiqlab berishi mumkin.

Shu payt musiqa chalindi, Alber paytdan foydalanib, grafinyaning belidan o'ng qo'li bilan quchdi-da, juft-juft bo'lib o'ynayotganlar orasida gir aylana ketdi.

Shu vaqt, Frans uni taajjubga solgan bir narsa to'g'risida, ya'ni Alberga istar-istamas qo'l uzatishga majbur bo'lganda graf birdan seskanib ketgani to'g'risida o'yga cho'mgan edi.

XVII. PISANDA

Ertanisi Alber o'rnidan turib, Fransga hammadan oldin grafnikiga tashrif buyurishni taklif etdi. Kechayoq unga minnatdorchilik bildirgan edi, ammo graf unga bir emas, bir necha marta rahmat aytishga arziydigan darajada yordam qilganini Alber tushunardi.

Grafga juda qiziqib qolgan, lekin hayiqib yurgan Frans taklifni qabul qildi. Ikkisi grafning mehmonxonasiga kirib bordi, besh daqiqa o'tib, graf chiqdi.

– Muhtaram janob, – dedi Alber grafga yaqinroq borib, – kecha unchalik o'xshatib aytmagan so'zlarimni bugun takrorlashga ruxsat eting. Qanday sharoitda mening qoshimga kelib, yordam qo'lini uzatganingizni va halokat jari yoqasidan tortib olganingizni umrbod unutmayman.

– Qadrli qo'shnim, – javob qildi graf kulib, – yordamimning bahosini juda oshirib yubordingiz. Men faqat yigirma ming frank aqchangizni cho'ntagingizda qoldirdim xolos. Ko'rib turibsizki, bu gapirib o'tirishga arziydigan narsa emas. Lekin o'zingizni u yerda shu qadar tetik, mardona tutdingizki, men bunga juda qoyil qoldim.

– O'sha paytda, shundan boshqa nima ham qila olardim, graf, – dedi Alber. – Men kim bilandir talashib-tortishib qoldim, shekilli, duelga tushsak kerak, deb o'ylagandim. Hamma mamlakatlarda duelga tushishadi, lekin hech yerda fransuzlarga o'xshab kulib turib duelga tushishmaydi. Buni o'sha qaroqchilarga ko'rsatib qo'ymoqchi edim. Biroq, mening bu gaplarim sizning menga qilgan yordamingizni zarracha ham kamsitmaydi, shuning uchun huzuringizga o'zimmi yoki do'stlarim orqalimi bir masalada sizga foydam tegadigan ish qila olarmikinman, deb so'ragani keldim. Otam graf de Morser ispanlar urug'idan, Fransiyada ham, Ispaniyada ham nufuzi juda baland, men va meni sevadiganlarning hammasi sizga butkul berilganligiga imoningiz komil bo'lsin.

– Janob de Morser, sizga ochig'ini aytsam, – dedi graf, – shunday taklifni men sizdan kutgan edim, men buni jon-dilim bilan qabul qilaman. O'zim ham bir katta iltimos bilan sizga murojaat qilmoqchiman.

– Qanaqa iltimos ekan u?

– Men shu vaqtgacha Parijda bo'lganim yo'q. Uni mutlaqo bilmayman...

– Rostdanmi? – xitob qildi Alber, – Parijni ko'rmay turib qanday yashab keldingiz hozirgacha? Bu aql bovar

qilmaydigan narsa-ku!

– Afsuski, shunday, men ham sizning fikringizga qo‘shilib, jahon madaniyatining markazini ko‘rish vaqti keldi, deb o‘ylayman. Bunga shuni ham qo‘shib qo‘yayinki, Parij jamoatchiligiga olib kiradigan biror tanishim bo‘lganda allaqachon borgan bo‘lardim.

– Sizdek zoti-sharif hozirgacha Parijni ko‘rmagan bo‘lsay! – xitob qildi Alber.

– Iltifotingiz uchun rahmat. Men millionlar borasida janob Aguado bilan yoki janob Rotshild bilan bahslashga olishga qurbim yetajagini bilganim va Parij birjasida nayrang ko‘rsatishga sirayam ehtiyojim yo‘qligi sababli u yerga borishdan tortinib turgan edim. Sizning taklifingiz endi bu fikrimni o‘zgartirib yubordi. Qadrli janob de Morser, mabodo men Fransiyaga borgudek bo‘lsam, u yerda men uchun mutlaqo yot jamoatchilikning eshiklarini ochib bera olasizmi? (Shu so‘zlarni aytganda grafning lablarida g‘alati bir tabassum paydo bo‘ldi.)

– Albatta, men buni, graf, hech shak-shubhasiz, zo‘r quvonch bilan, jon-dilim bilan bajo keltiraman! – javob berdi Alber. – Buning ustiga xuddi shu bugun ertalab Parijdan xat oldim, azizim Frans, mening bu so‘zlarimni kulgiga yo‘ymang, unda Parij jamoatchiligiga yaqin bir oilaning ajoyib qizi bilan bir yostiqqa bosh qo‘yagimni ma‘lum qilishdi. Shunga chaqirishibdi.

– Demak, uylanarkansiz-da? – so‘radi iljayib Frans.

– Yozishlariga qaraganda shunday bo‘lsa kerak. Xullas, siz Parijga qaytganingizda men uylangan, ehtimol, farzandning otasi bo‘lib qolarman. Mening tug‘ma savlat-salobatimga bu juda mos bo‘lib tushadi. Har holda, graf yana qaytarib aytaman, men va mening barcha qavmu qarindoshlarim sizning tashrifingizga mushtoq va butun joni-dili bilan xizmatingizga tayyor.

– Bo‘pti, taklifingizni qabul qilaman, – dedi graf, – sizga ishontirib yana shuni aytib qo‘yayki, ko‘pdan buyon o‘ylab yurgan ba‘zi rejalarimni amalga oshirish niyatida Parijga borish uchun biror sabab topolmay turgan edim.

Mana sabab topildi.

Bu Monte-Kristo g'orida graf ishora qilgan reja ekaniga Frans zarracha shubha qilmasdi, shuning uchun ham u grafni Parijga borishga da'vat etayotgan o'sha rejalarga oid biror belgi paydo bo'larmikin deb uning yuziga sinovchan nazar tashlab qo'ydi. Biroq uning ko'nglida nima borligini bilish (ayniqsa, u o'z o'y-xayollarini sirli tabasum-la yashirib turgan paytlarda) nihoyatda qiyin edi.

Bu ajoyib zotni Parij jamoatchiligiga tanishtirish zimmasiga tushganidan behad xursand bo'lgan Alber grafga murojaat qildi:

– Muhtaram graf, sizning bu niyatingiz sayohat vaqti-da xayolga zumda kelib, zumda ketadigan yuzaki niyat bo'lmasin tag'in?

– Yo'q, menga ishoning, unday emas, – dedi graf. – Men rostdan ham Parijga bormoqchiman, hatto u yerga borishim shart.

– Qachon?

– O'zingiz qachon u yerda bo'lasiz?

– Menmi? – dedi Alber, – ikki hafta, juda uzog'i bilan uch hafta ichida. Yo'lga qancha vaqt ketishiga qarab.

– Unday bo'lsa, – dedi graf, – sizga uch oy muddat beraman. Ko'rib turibsizki, men xasislik qilayotganim yo'q vaqt masalasida.

– Demak, uch oydan so'ng menikiga tashrif buyurasizmi? – dedi quvonib Alber.

– Xohlasangiz kunini va soatini ham aniq aytishim mumkin? – dedi graf. – Ogohlantirib qo'yay: men belgilangan vaqtdan bir daqiqa ham kechikmaydiganlardanman.

– Kunini va soatini aniq aytsangiz juda soz bo'ladi! – dedi Alber.

– Hozir ko'ramiz.

Graf oyna oldidagi kalendarga qo'l uzatdi.

– Bugun yigirma birinchi fevral, – dedi u va soatiga qaradi, – soat o'n yarim bo'пти. Yigirma birinchi mayda soat o'n yarimda meni kutib olishga rozimisiz?

– Juda soz! – xitob qildi Alber. – Nonushta sizga muntazir turadi.

– Qaerda turasiz?

– Elder ko'chasi, yigirma yettinchi uy.

– U uyda bir o'zingiz bo'ydoqchasiga yashaysizmi?.. Men sizga xalaqit bermaymanmi?

– Men otamning uyida turaman, biroq hovlida alohida uyim bor.

– Yaxshi.

Graf esdalik daftarini oldi-da, yozib qo'ydi: «Elder ko'chasi, 27, may oyining 21-kunida, soat o'n yarimda». Keyin daftarini cho'ntagiga soldi-da dedi:

– Endi xotirjam bo'lavering, men soatingiz milidek aniq bo'lishga harakat qilaman.

– Ketguncha sizni ko'ra olamanmi? – so'radi Alber.

– Bu sizning qachon ketishingizga bog'liq.

– Ertaga kechqurun soat beshda.

– Unday bo'lsa men siz bilan hozir xayrlashaman. Neapolga borishim kerak. Shanba kuni kechqurun yoki yakshanba kuni ertalab qaytaman. – So'ng u Fransga murojaat qildi, – siz-chi, siz ham ketasizmi, baron?

– Ha.

– Fransiyagami?

– Yo'q, Venesiyaga. Men Italiyada yana bir-ikki yil bo'lanman.

– Unday bo'lsa, Parijda ko'rishmas ekanmiz-da?

– Bunga muyassar bo'lolmasam kerak, deb xavotirlanypman.

– U holda, janoblar, sizga oq yo'l tilayman, – dedi graf ikkala qo'lini Fransga va Alberga uzatib.

Frans bu zotning qo'lini birinchi marta qisishi edi, u beixtiyor seskanib ketdi, chunki grafning qo'li murdani-kidek muzdek edi.

– Demak, gap bitta, – dedi Alber, – siz so'z berdingiz, bo'ldi. Elder ko'chasi, yigirma yettinchi uy, yigirma birinchi may, ertalab soat o'n yarim.

– Yigirma birinchi may ertalab soat o'n yarimda, Elder

ko'chasi, yigirma yetti, – takrorladi graf.

Shundan keyin yigitlar xayrlashib tashqariga chiqishdi.

– Sizga nima bo'ldi? – so'radi Fransdan Alber o'z xonasiga qaytib. – Juda tashvishli ko'rinasiz?

– Ha, – dedi Frans, – shuni aytib qo'yishim kerakki, graf nihoyatda g'alati, ajib odam. Parijdagi uchrashuvingizdan men juda xavotir olyapman.

– Nega xavotir olyapsiz?.. O'sha uchrashuvdan-a?.. Esingiz joyidami o'zi! – xitob qildi Alber.

– Ilojim qancha! Ehtimol esim joyidamasdir, biroq bu gapim haq.

– Menga qarang, – dedi Alber, – mana endi o'z fikrimni aytishga imkoniyat tug'ilganidan xursandman, men ko'pdan grafni nechundir xush ko'rmayotganingizni sezib yurgandim, u esa aksincha, bizga juda mehribonlik ko'rsatib kelyapti. Unga qarshi biror dalilingiz bormi?

– Kim biladi?

– U bilan siz ilgari ham uchrashganmidingiz?

– Ha.

– Qaerda?

– Mening gapimni hech kimga aytmaslikka va'da berasizmi?

– Va'da beraman.

– Chindanmi?

– Unday bo'lsa, aytib beray, quloq soling.

So'ng Frans Alberga Monte-Kristo oroliga borganini va u yerda bir to'da kontrabandistlarni uchratganini, ular orasida ikkita korsikalik qaroqchi ham bo'lganini aytdi. Graf o'sha oroldagi g'orda uni «Ming bir kecha» afsonalaridagidan o'tkazib mehmon qilganini, kechki mazali taomlar, taryok, haykallarni, tushi va o'ngida nimalar ko'rganini, ertalab uyg'onganida ularning hammasi gumdon bo'lib, ufqda faqat Porto-Vekkioga borayotgan birgina kemacha qolganini batafsil hikoya qilib berdi. Keyin Kolizeyda graf bilan Luidji o'rtasida bo'lgan gaplarni eshitganini, shunda graf Peppinoni qutqarib berishga va'da qilganini, so'ng

graf bu va'dasini bajarganini aytdi.

Oxirida Frans o'tgan kecha yuz bergan voqeani – to'lov haqiga yetti yuz piastr yetmay, juda og'ir ahvolga tushib qolganini, shu payt unda grafga murojaat qilish fikri tug'ilganini, natijada mushkuli oson bo'lib, ishlar joyida bo'lib ketganini so'zladi. Alber do'stining so'zlarini quloqlarini ding qilib eshitdi.

– Xo'sh, nima bo'пти? – dedi Alber do'sti hikoyasini tutatgach. – Xo'sh, siz bulardan biror qiyiqlik topdingizmi? Graf sayohat maftuni, u badavlat, shaxsiy kemaga ega bo'lishni istaydi. Portsmut yoki Sautgemptonga borsangiz gavan boy inglizlarning ajoyib, shinam kemalari bilan liq to'lib yotganini ko'rasiz. Graf hamisha, hamma yerda birorta boshpanaga ega bo'lmoq uchun, men to'rt oy, siz to'rt yildan buyon o'lganimizni kunidan tanovul qilib yurgan bemaza ovqatlarni yemaslik uchun, jonning azobi iflos to'shaklarda yotmaslik uchun Monte-Kristo orolida ham hashamatli uy yasab olgan. So'ng Toskaniya hukumati uyni tortib olib, qimmatbaho jihozlardan mahrum etib qo'yishidan qo'rqib, orolni sotib olgan va uning nomini o'ziga nom qilib olgan. Azizim, o'zingiz yana bir o'ylab ko'ring, o'zi hech vaqt ega bo'lmagan joylarning nomini qo'yib olgan tanish-bilishlaringiz ozmi, ayting-chi?!

– Uning guruhidagi korsikalik qaroqchilar-chi? Bunga nima deysiz? – dedi Frans.

– Bunda taajjublanadigan nima bor? Korsika qaroqchilari talonchilik bilan shug'ullanmasligini juda yaxshi bilasiz. Ular urug'chilik intiqomi tufayli tug'ilgan shahri yoki qishlog'idan badarg'a qilingan qochoqlar, xolos. Ular guringida o'z or-nomusiga putur yetkazmay bemalol yura-verish mumkin. Menga kelganda, shuni aytishim kerakki, qachondir Korsikaga borib qolgudek bo'lsam, gubernatorga va profektga borishdan oldin, meni Kolomba qaroqchilari bilan (agar ularni axtarib topishning iloji bo'lsa)

³⁵ Bir gunoh uchun ikki marta javob bermaydilar.

tanishtirishni iltimos qilaman. Men ularni ajoyib odamlar deb bilaman.

– Vampa va uning to‘dasi-chi? – dedi e‘tiroz bildirib Frans. – Axir ular talonchi, haqiqiy qaroqchilar-ku, bunga siz e‘tiroz bildirmasangiz kerak. Bunaqa maxluqlarga grafning ta‘siri qanday deb o‘ylaysiz?

– Azizim, men ana shu ta‘sir tufayli bir o‘limdan qoldim, shu sababli bu haqda biror yomon fikr aytishga qanday qilib jur‘at eta olaman? Men ham sizga o‘xshab, bunda grafning bo‘yniga ayb qo‘ya olmayman, lekin meni hayotimni saqlab qolmagan bo‘lsa-da, har holda to‘rt ming piastr aqchamni cho‘ntagimda qoldirgan qo‘shnimizning gunohlarini kechirdim. Bu bizning pulimizda roppa-rosa yigirma to‘rt ming frank bo‘ladi. Fransiyada mening bahomni hecham bunchaga chiqarmasdilar. Bu degan gap – mening vatanimda payg‘ambar yo‘qligidan dalolat beradi, – dedi Alber kulib.

– Vatan deganingizda esga keldi: grafning vatani qaerda ekan? Ona tili qanaqa ekan? Qanaqa sarmoya evaziga yasharkin u? Bu behisob boylikni u qaerdan oldiykin? Sirli hayotining birinchi yarmi qanday sarguzashtlar bilan o‘tdiykin, uni qanday sabablar hozirgi nursiz hayot girdobiga uloqtirib tashladiykin? Men sizning o‘rningizda bo‘lsam mana shularni aniqlab olishga uringan bo‘lardim.

– Azizim Frans, – javob berdi Alber, – mendan xat olganingizda va grafning yordami kerak bo‘lib qolganda siz borib unga: «Mening do‘stim Alber de Morserning hayoti tahlika ostida, uni qutqarib olishga yordam bering», dedingiz, to‘g‘rimi?

– To‘g‘ri.

– O‘shanda u sizdan, Alber de Morser o‘zi qanday odam, deb so‘radimi? Nomini qaerdan oldi? Boylikni qaerdan topdi? Vatani qaerda? Qaerda tug‘ilgan, deb sizga savol berdimi?

– Rosti, so‘ragani yo‘q.

– U o‘rnidan turganu, siz bilan ketavergan. Meni u Lu-

idjining changalidan qutqarib oldi. Siz, menga «O'zingizni juda dadil, erkin tutdingiz» dedingiz, ammo to'g'risini aytsam, u yerda o'zimni juda yomon his etib yotgan edim. U mendan arzimagan bir narsani, ya'ni Parij jamoatchiligi bilan tanishtirib qo'yishimni iltimos qilgan ekan, siz bu o'tinchini rad etishimni istaysizmi? Axir biz Parijga har kuni tashrif buyuradigan rus yoki italyan knyaziga ham yordam beramiz-ku. Qo'ying-e, Frans, esingizni yeb qo'yib-siz!

Iqror bo'lish kerakki, bu gal Alberning so'zlarida jon bor edi.

– Xullas, qadrli vikont, ixtiyoringiz o'zingizda, bilganingizni qilavering, – dedi xo'rsinib Frans. – Aytgan gaplaringizning hammasi asosli, ishonarli. Lekin shunga qaramay, graf Monte-Kristo g'alati odam.

– Graf Monte-Kristo anoyi emas. U Parijga nima uchun borayotganini sizga aytmadi, bilib qo'ying, Montion mukofotini olgani ketyapti. Agarda bu mukofotni olishi uchun unga mening ovozim va mukofot beruvchi biror tav'yaning yordami kerak bo'lib qolgudek bo'lsa, birinchi bo'lib o'zim unga ovoz beraman, ikkinchisini esa ko'ndiraman. Do'stim, shu bilan gap tamom. Ovqat qilaylik, so'ngra oxirgi marta muqaddas Pyotr jomesini borib ziyorat qilib kelaylik.

Endilikda Alberning aytgani bajarildi, ertasi kuni soat beshda do'stlar xayrlashishdi. Alber de Morser Parijga qaytdi, Frans d'Epine ikki haftaga Venesiyaga jo'nadi.

Ammo Alber mehmonim belgilangan uchrashuvni unutilib qo'ymasini tag'in, deb xavotir oldi va shu sababli izvoshga o'tirayotib, graf Monte-Kristoga berib qo'yish uchun uning xizmatkoriga tashrif qog'ozini berdi. Undagi «Vikont Alber de Morser» deb yozilgan so'zlar tagiga qalam bilan shu so'zlarni yozib qo'ydi:

«21 may, ertalab soat o'n yarim, Elder ko'chasi, 27».

I. ALBERNING MEHMONLARI

Elder ko'chasidagi uyda 21 may ertalabdan mehmonlarni yaxshilab kutib olish uchun tayyorgarlik ko'rishyapti. Ma'lumki, vikont de Morser graf Monte-Kristo bilan mana shu yerda uchrashishini Rimdayoq kelishib olgan edi.

Alber katta hovlining burchagidagi xizmatkorlar joylashgan uyning ro'parasidagi binoda istiqomat qilardi. Binoning ikki derazasi ko'chaga, uchta hovliga, qolgan ikkitasi boqqa qaragan edi.

Hovli bilan bog' o'rtasiga graf va grafinya de Morserning keng-mo'l shinam boshpanasi joylashgan. Bu bino Napoleon davrining ko'rimsiz, beso'naqay uslubida qurilgan. Hovli ko'cha tomondan hashamatli panjara bilan o'rab olingan, har bir ustun tepasiga gul solingan guldonlar qo'yilgan, panjara o'rtasida tantanali tashriflar uchun temirlari nayzanusxa maxsus zarnaqsh darvoza, darvozabon xonasi yonida xizmatchilar uchun alohida kichkina ko'cha eshigi. Uy egalariga ham maxsus eshik ochilgan, piyoda yurganlarida shu eshikdan kirib-chiqishadi.

Alberning uyini qurishda o'g'lidani ajralib turishni istamaydigan onaning mehribonligi sezilib turardi. Ana shu ona uyni qurdirganda o'g'li yoshidagi yigit to'la erkinlikka muhtojligini ham hisobga olgan. Ikkinchi tomondan olganda, erkin holda o'yin-kulgi bilan hayot kechirishni yaxshi ko'radigan vikontning xudbinligi ham binoni tiklashda ancha rol o'ynagan bo'lsa kerak. Aslida hamma badavlat zotlarning bolalari ana shunday erkin hayot kechirishadi.

Derazadan Alber ko'chada bo'layotgan voqealarni ko'rib o'tirishi mumkin, axir yoshlarning ko'z oldida hamisha jonon oyimchalar jilva qilmog'i shart-da! Mabodo

u biror narsani sinchiklab ko'zdan kechirishi kerak bo'lib qolsa, maxsus eshikdan chiqishi mumkin. Bu eshik bo-yagi darvozabon xonasi yonboshidagiga o'xshagan bo'lib, bu haqda alohida gapirib berish kerak bo'ladi.

Uy qurib bitkazilgan kundan boshlab bu eshikni unu-tib tashlab qo'yishdi, desa bo'ladi, chunki uni chang bosib ketgan edi. Biroq qulf va halqasining yaxshilab moylab qo'yilgani bu eshikdan yashirin ravishda tez-tez foydala-nib turayotganlaridan dalolat berardi. Bu eshik boshqa ikki eshik bilan raqobat qilib, qorovulning o'tkir nigohi-dan chetda, maxfiy ravishda ochilib-yopilar, xuddi afso-naviy tilsimotlarning eshigiga o'xshardi.

Eshikdan kiraverishdagi dahliz to'rida o'ng tomonda derazalari hovliga qaragan ovqatxona, chap tomonda de-razalar boqqa qaragan mehmonxona. Derazalar oldidagi butalar va bo'y berib, chirmashib ketgan o'simliklar bi-rinchi qavatdagi bu ikkala xonani yot ko'zlardan bekitib qo'ygan.

Ikkinchi qavatda xuddi shunday ikki xona va dahliz ustida yana uchinchi xona. Bu yerda mehmonxona, yotoqxona va xotinlar xonasi joylashgan.

Pastki qavatdagi mehmonxona Jazoir salomxonasiga o'xshatib, chekuvchilar uchun qurilgan.

Ikkinchi qavatdagi xotinlar xonasi bilan yotoqxona o'rtasiga eshik o'rnatilgan, u yerdan to'g'ri zinaga chiqa-digan eshik bor. Xullas, hamma yoqda ehtiyot choralari ko'rib qo'yilgan edi.

Uchinchi qavat rassomga yoki birorta olifta oqsuyak-ka taalluqli turli-tuman buyumlarga liq to'la edi. Unda bur-g'ular, kontrabaslar, fleytalar, butun boshli bir orkestrning musiqa asboblari uyulib yotardi. Alber bir vaqtlar musi-qaga havas qo'ygandi, lekin ko'p o'tmay, rassomlikka ishqiboz bo'lib, molbert uning xonasidan joy oldi, oxiri bulardan voz kechib rapira, bokschilarning qo'lqoplari, qilichlar, gurzilar uning ermagi bo'lib qoldi, chunki Alber ham o'sha davr oqsuyak yoshlari an'anasiga amal qilib, musiqa va tasviriy san'atdan ko'ra ko'proq boks, qilich-

bozlik va gurzi ishlatish bilan shug'ullanar va navbatma-navbat Grize, Kuks va Sharl Lebushe bilan kuch sinashardi.

Xonaning qolgan joylariga Fransisk I davrining javonlari qo'yilgan bo'lib, bu javonlarga xitoy chinnilari, yapon vazalari, Lukka della Robbianing guldor idishlari, Bernar de Palissini likopchalari to'ldirib tashlangan edi. Xonada chiroyli yumshoq kursilar ham bor. Kursilardan ikkitasiga o'ymakor ustaning mahorati bilan yasalgan gerbda uchta fransuz nilufari va qirol toji yaltirab turibdi. Shuning uchun ham bu kursilarda Genrix IV yo Syulli, Lyudovik XIII yoki Rishela savlat to'kib o'tirgan bo'lsa kerak, deb o'ylaydi kishi. Bu yerga ularning Luvr omboridan yoki boshqa biror qirol saroyidan keltirilgani shubhasiz. Ana shu hashamatli kursilar ustida Eron quyoshining nurini emgan yoki Kalkutta yo Chandernagor ayollarining mohir qo'llari bilan naqshlangan qimmatbaho rango-rang gazlamalar yoyib tashlangan. Bu gazlamalar nima uchun bu yerga tashlab qo'yilganini hech kim bilmasdi, buning sababi hatto egasining o'ziga ham ayon emasdi, faqat tovlanib turgan zarhal shohilar jilvasi xonaga nur sochib, ko'zlarni qamashtirib turardi.

Ko'zga yaqqol tashlanadigan joyda Roller va Blansheining rangdor royali turibdi, hajmi bizning hozirgi mo'jaz mehmonxonalarimizga to'g'ri keladigan bu royal ichiga butun bir orkestrni joylashtirib olib, Betxoven, Veber, Morsart, Gaydn, Gretri va Porporlarning³² noyob kuylari ostida nola qilardi.

Devorlarda, eshiklar tepasida, shiftda shamshirlar, xanjarlar, pichoqlar, gurzilar, boltalar, guldor zarrin yarog'aslahalar osig'liq. Bulardan tashqari son-sanoqsiz gerbariylar, ma'dan bo'laklari, yaltiroq qanotlarini yozib, og'izlarini manguga ochganacha qimir etmay turgan qushlar tulumlari...

Alberning eng sevimli xonasi shu.

Shunday bo'lsa-da, uchrashuv kuni Alber tonggi libosda pastki qavatning kichkina mehmonxonasida o'tirar-

di. Yumshoq divan oldidagi stolchada a'lo nav tamakilar – Peterburgning sarg'ish tamakisidan tortib to Sinayning kora tamakisigacha – hamma tamakilar solingan golland chinni ko'zalari, ular yonida xushbo'y qutichalarga qadr-qimmatiga yarasha purosalar, regaliyalar, gavanalar va manillar solingan. Ochiq javonda turli xil nemis trubkalari va kumush, yoqut, sadaflar bilan bezalgan go'zal chilimlar shinavanda kashandalarni kutib mahtal bo'lib turibdi. Bularni Alberning o'zi bosh bo'lib tashkil etdi. Zamona-viy mehmonlar mazali nonushtadan va bir piyola qahvadan so'ng ana shunday joyda taltayib olib, buralib-buralib shiftga ko'tarilayotgan tutunga tikilib xayol surishni yaxshi ko'rishadi.

Chorak kam o'nda mahram kirdi. Faqat ingliz tilida gapiradigan o'n besh yoshli jilovdor Jonnini hisobga olmaganda, bu Morserning yakkayu yagona xizmatchisi edi. O'z-o'zidan ma'lumki, oddiy kunlari ota-onasining oshpazi, tantanali kunlarda esa otasining qaroli ham Alberning itoatida bo'lardi.

Mahramning nomi Jermen. U yosh xo'jayinning to'la ishonchini qozongan. U stolga bir dasta gazeta qo'ydi, Alberga bir dasta xat uzatdi.

Alber xatlarga parishon holda nazar tashladi-da, husnixat bilan yozilgan, atir hidi anqib turgan ikki konvertni ochdi, shoyon diqqat bilan o'qidi.

– Bu xatlar qanday qilib olindi? – so'radi u.

– Bittasi pochadan keldi, ikkinchisini esa Danglar xonimning xizmatchisi keltirdi.

– Danglar xonimga xabar qiling, men hurmatli begoyimning lojasida bo'lish haqidagi taklifni qabul qilaman... To'xtang... So'ng Rozaning huzuriga borib ayting, men operadan so'ng unikiga boraman, siz Rozanikiga olti shisha eng soz kipo vinosidan, bir bochkachada ustrisa olib borib qo'yasiz... Ustrisani men uchun deb Boreldan oling.

– Nonushtani qay vaqtga tayyor qilaylik?

– Hozir soat necha?

– Chorakam oʻn.

– Oʻn yarimda keltiring. Ehtimol, Debre ministriligiga shoshayotgandir... Bundan tashqari (Alber yon daftarini olib qaradi) men grafga ham xuddi shu vaqtni – yigirma birinchi may soat oʻn yarimda kelasiz, deb aytgandim, uning vaʼdasiga unchalik ishonqiramay tursam-da, oʻzim aniq shu vaqtda tayyor boʻlib turmogʻim shart. Aytmoqchi, grafinya oʻrinlaridan turganmikinlar, xabaringiz bormi?

– Janob vikont shuni istar ekanlar, borib bilib kelishim mumkin.

– Yaxshi... Likyorlaridan ham bersin, ayting, menda kamroq ekan, yana aytib qoʻying, men soat uchda huzurlarida boʻlib, bir janob bilan tanishtiraman.

Mahram chiqib ketishi bilan Alber oʻzini divanga tashladi, gazeta ochib, teatrlarning repertuarlarini koʻzdan kechirdi, balet oʻrniga opera qoʻyayotganlarini koʻrib ijirgʻandi, kimdir tavsiya etgan tish dorisi toʻgʻrisidagi eʼlonni axtarib topolmagach, ensasi qotib mashhur uchta Parij gazetasini ulotqirib tashladi-da, choʻzib esnadi va:

– Gazetalar rostdanam borgan sayin odamni zeriktiradigan boʻlib ketyapti-da, – deb mingʻirlab qoʻydi.

Shu payt darvoza oldiga yengil izvosh kelib toʻxtadi, bir zum oʻtar-oʻtmay mahram Lyusen Debre kelganini aytdi. Xonaga novcha, sargʻish soch, rangpar, koʻk koʻz, yupqa lablari takabburona burilgan bir kishi qovogʻidan qor yogʻib kekkayib kirib keldi. U zarrin tugmali frak kiyib, oq galstuk taqqan, ingichka ipak ipli bir koʻzli koʻzoy-nagi fragining soat choʻntagidan osilib turibdi.

– Salom, Lyusen! – dedi Alber. – Siz vaqtdan oldin kelib odamni xijolat qilib qoʻyasiz-da! Men sizni hammadan keyin keladi deb oʻtiringandim, siz esa besh daqiqa kam oʻnda kirib keldingiz. Nonushta oʻn yarimga tayin etilgan edi-ku, axir. Ajabo! Xona agʻdarilmadimikin, ta-gʻin?

– Yoʻq, azizim, – dedi javoban yigit divanga choʻkayo-tib, – biz doim liqillab tebranib turamizu, ammo hech vaqt agʻdarilib tushmaymiz, xotirjam boʻl. Biz hecham oʻzgar-

maydigan bo'lib boryapmiz, degan fikrga kela boshladim men, yarim oroldagi ishlar bizning mavqeimizni batamom mustahkamlashi turgan gap.

– E, esim qursin, axir sizlar don Karlosni Ispaniyadan haydayapsizlar-ku.

– Aslo unday emas, adashmang. Biz uni chegaraning bu tomoniga jo'natyapmiz va Burjda shohona joy taklif etayotirmiz.

– Burjda?

– Ha, Burjda. U hech nimadan nolimasa ham bo'ladi, ishi besh! Burj – Karl VII ning poytaxti. Siz hali bundan bexabarmisiz? Kechayoq bu gap butun Parijga ma'lum bo'ldi, uch kun ilgari esa bu xabar birjaga yetgan ekan. Danglar garov o'ynab bir million yutib oldi (Bu odam hamma yangiliklarni qanday qilib biz bilan bir vaqtda bilib olarkin, hech aqlim bovar qilmaydi).

– Siz yangi tasma taqib oldingiz, shekilli? Kamaringiz to'qasida yangi chiziq paydo bo'lib qolibdi, ilgari yo'q edi-ku?

– Shunday. Menga Karl III yulduzini yuborishibdi, – dedi nazariga ilmagandek Debre.

– O'zingizni beparvolikka solmang, bu mukofotni olib quvongansiz, albatta.

– To'g'risi, quvondim. Bu yulduz frakka taqilganda juda ochib yuboradi odamni.

– Ya'ni Uels shahzodasiga yoki Reyxshtad gersogiga o'xshab ketadi odam, – dedi kulib Morser.

– Azizim, erta kelganimning boisi ana shunda.

– Ya'ni Karl III yulduzini olganingiz to'g'risidagi quvonchli xabarni menga bildirish uchun barvaqt keldingiz, shundaymi?

– Yo'q, buning uchun emas. Yigirma beshta diplomatiya xatini jo'natish uchun tun bo'yi ishladim. Uyg'a tong otganda qaytdim, uxlamoqchi bo'lib urindim, bo'lmadi, boshim yomon og'ridi, so'ng o'rmondan turdim-da, otga minib sayr etdim. Bulon o'rmoniga borganda zerikdim, qornim ochib qoldi. Bir-biriga dushman bu ikki hissiyot

kamdan-kam birga paydo bo'лади kishida, biroq bu gal ikkisi menga qarshi birlashib, karlist respublikachilar so-yuziga o'xshash uyushma tuzdilar. Ana shunda bugun siznikida ziyofatda bo'lajagimiz esimga kelib qoldi, mana kamina huzuringizda hozir bo'lib turibdi. Qornim och, ovqat bering, zerikib, siqilib ketdim, ko'nglimni chog'eting.

– Bu mezbon sifatida mening burchim, qadrdon do'stim, – dedi Alber, so'ng qo'ng'iroq qoqib mahramni chaqirdi. Bu payt Lyusen firuza ko'zli, oltin tutqali tayoqchasi bilan yoyilib yotgan gazetalarni irg'itib-irg'itib tashlay boshladi. – Jermen, bir ryumka xeres vinosi va biskvitlar keltiring. Hozircha, qadrdon Lyusen, mana bu sigaralardan tortib turing, bular kontrabanda yo'li bilan keltirilgan, albatta. Bir chekib ko'ring-da, ministringizga bizga mana shunaqalarini sotishni taklif eting. Hozir bizda u janobning muruvvati bilan aksari shahar fuqarosi chekayotgan qo'lansa tamaki hammaning me'dasiga tegdi.

– Bo'lmagan gap! Bu sigaralaringiz ochiq keladigan bo'lsa, darrov ulardan voz kechasiz va ularni bir ko'rish-dayoq ko'nglingiz ayniydigan bo'lib qoladi. Biroq bu ichki ishlar ministriligiga emas, moliya ministriligiga taalluqli gap. Soliqlar departamentida janob Yumanga murojaat qiling. Janobning manzili o'sha departament idorasining A dahlizidagi yigirma oltinchi xona.

– Siz hamma narsalardan xabardorsiz-a, qoyil! Qoyil! – dedi Alber. – Qani, sigaradan oling endi!

Lyusen manila sigarasidan birini olib zarrin shamdon-dagi qizg'ish sham o'tiga yondirib oldi-da, o'zini divanga tashladi.

– Siz juda baxtli zotsiz-da hech nima bilan ishingiz yo'q, yallo qilib yurasiz, – dedi Lyusen, – to'g'ri, bunga o'zingiz iqror bo'lishni istamaysiz.

– Qirollik tinchligini saqlovchi qadrli do'stim, xo'sh, bekor bo'lsangiz o'zingiz nima qilardingiz? – dedi bir oz kinoya bilan e'tiroz bildirib Morser. – Siz ministrning

shaxsiy kotibisiz, ayni vaqtda ulkan Evropa siyosati bo-rasidagi hamma hiyla-nayranglarning hamda Parijdagi mayda-chuyda fitna-ig'volarning ishtirokchisiz. Qirollar-ni himoya qilasiz, partiya tuzasiz, saylovga rahbarlik ham sizning qo'lingizda, xonangizda o'tirib olib, qalam va te-legraf yordamida jang maydonida qilich bilan Napoleon erishadigan g'alabadan ko'proq g'alabaga erishasiz. Siz yiliga yigirma besh ming livr daromad olasiz (bunga maosh kirmaydi), yana ajoyib arg'umog'ingiz ham bor, Shato-Reno uni to'rt yuz luidorga sotib olmoqchi bo'lgan-da siz ko'nmadingiz. Kiyimingizni juda qoyilmaqom qilib tikib beradigan maxsus tikuvchi ham hamisha xizmatin-gizga tayyor. Opera, Jokeyklub va Varete teatrining sho-hona lojalari ixtiyoringizda, shunday bo'la turib, ko'ngil ochadigan joyim yo'q, deb qoldingiz, azizim? Mana men bugun sizning ko'nglingizni xush qilaman.

– Nima bilan?

– Yangi tanishlar bilan.

– Erkak bilanmi yoki ayol bilanmi?

– Erkak bilan.

– Shundog'am erkak tanishlarim ko'p.

– Ammo bunaqasini hali ko'rganingiz yo'q.

– U qayoqdan kelgan? Dunyoning narigi burchagidan-mi?

– Ehtimol undan ham naridandir.

– Obbo! Har holda nonushtani o'sha zot keltirmasa kerak?

– Aslo, xotirjam bo'ling, nonushtani shu yerda tayyorlashyapti, uyda. Ha, juda ochga o'xshaysiz?

– Uyat bo'lsa-da, aytishga majburman: qornim juda och. Kecha tushlikni janob de Vilfornikida qilgan edim, siz ham sezgandirsiz, bu sud xodimlarinikida ovqat juda kam, bemaza bo'ladi. Ularni vijdon azobi qiynoqqa solsa kerak, degan fikr tug'ilishi mumkin kishida.

– Boshqalarning ovqatini yerga urasiz, lekin ministr-la-ringiznikida ovqat qanaqaligini bilasizmi?

– Bilaman, ammo biz ovqatga bama'ni odamlarni tak-

lif qilmaymiz, agar biz ezgu niyati xolis kishilarni va bizga ovoz beradigan kambag'allarni mehmon qilishga majbur bo'lmasak edi, uyda xavf-xatarsiz ovqatlana olmasdik.

– Unday bo'lsa, yana bir ryumka xeres ichib, biskvitdan yeng.

– Jonim bilan, bu ispan vinosi nihoyatda soz ekan, mana, ko'rib turibsizki, bu mamlakatda biz tartib o'rnatib, juda olijanob, haqqoniy ish qilgan ekanmiz.

– To'g'ri, biroq don Karlosning holi nima kechadi?

– Nima kechardi! Don Karlos qizil vinolarni ichib maza qilib yuradi, o'n yildan so'ng uning o'g'lini kichik qirolchaga uylantirib qo'yamiz.

– Buning uchun siz, mabodo o'sha vaqtgacha shu xizmatda bo'lsangiz, albatta Oltin Barra olasiz.

– Chamamda, Alber, bugun siz meni behuda gaplar bilan qornimni to'yg'izmoqchisiz, shekilli.

– Shunday bo'lsa nima bo'пти, nafsni aldashing eng yaxshi yo'li shu-da. Tashqaridan Boshanning ovozi kelyapti, u bilan bir bahslashing, ancha ovunasiz.

– Nima haqda bahslashaman u bilan?

– Gazetalarda nimalarni yozishayotganlari to'g'risida.

– Axir men gazetani qo'limga ham olmayman-ku? – dedi jirkangan ohangda Lyusen.

– Ana shunda bahslashishga asos ko'proq bo'ladi-da.

– Janob Boshan! – dedi mahram.

– Qani, marhamat, kirsinlar, ey zo'r adib, kirsinlar! – dedi Alber yangi mehmonning istiqboliga chiqib. – Mana Debre, o'zining aytishiga qaraganda, maqolalaringizni o'qimasa-da, bu gazetani ko'rgani ko'zim yo'q, deydi.

– Juda haq gap aytibdi-da u, – javob qildi Boshan, – men ham uning nima qilayotganini bilmaymanu, ammo so'kkanim so'kkan. Salom, komandor.

– O'h-ho', hali bunisidan ham xabardorman deng? – dedi ministrning shaxsiy kotibi tabassum-la jurnalistning qo'lini siqib.

– Bo'lmasam-chi?

– Jamiyatda bu haqda nima gaplar?

– Qaysi jamiyatda? Milodiy yil bilan hisoblaganda, ming sakkiz yuz o‘ttiz sakkizinchi yilga kelib, jamiyatlarning urug‘i juda ko‘payib ketgan. Qaysinisini aytyapsiz?

– Siz ham rahnamo bo‘lgan siyosiy-tanqidiy jamiyatni.

– Bu juda munosib ish, deyishyapti va sizni, bu odam tilida inqilob tarafdori bo‘lsayam, dilida baribir qirolni yoqlaydi, deyishyapti.

– Juda oqilona gap, – dedi Lyusen. – Siz nega bizning tarafimizda emassiz, qadrlı Boshan? Bu aql-zakovatingiz bilan bir-ikki yilda amaldor bo‘lib ketardingiz-da.

– Endi qilmaganim sizning gapingizga kirib, yarim yil-gina ag‘darilmay bardosh berib tura oladigan ministrlık-da ishlash qoldı. Endi sizga bitta so‘zim bor, Alber, sho‘rlik Lyusen damini olsın. Nonushta qilamizmi yoki tushlik-mi? Axir men tezroq Palataga borishim kerak-ku. Mana ko‘rib turıbsızki, bizning ishimiz nuqul huzur-halovatdan iborat emas.

– Faqat nonushta, yana ikki kishini kutib turıbmız, ular kelishi bilanoq dasturxonga o‘tiramız.

– Kimni kutyapmız? – so‘radi Boshan.

– Bir aristokratni va bir diplomatni, – dedi Alber.

– E-e, demak, aristokratni ikki soat, diplomatni esa undan ham ko‘proq kutarkanmız-da. Men dessertga yetib kelaman. Menga qulupnay, qahva va sigaradan olib qo‘ysangız bas. Ovqatni Palatada yeb olarman.

– Quying bu gapingızni, Boshan, aristokrat Monmors, diplomat Metternix bo‘lganda ham bizga baribir, naq soat o‘n yarimda nonushtani boshlaymız, hozırcha Debređan o‘rnak oling-da, vino ichib, biskvit yeb o‘tiring.

– Bo‘pti, qolganım bo‘lsın. Men bugun albatta kayf-safo qilishim shart edi.

– Mana siz ham xuddı Debređning o‘zi bo‘ldingız! Ministrlıkning ko‘nglı xira bo‘lib qolganda, oppozisiyaning vaqti chog‘ bo‘lmog‘ı kerak.

– To‘g‘rı, biroq boshimda qanday tashvish borlıgını siz bilmaysız hali! Bugun kunduzı deputatlar palatasıda Danğlarıning nutqını, kechqurun uning xotınınıkida Fransiya

perining fojiasini tinglashim kerak. Shayton olsin bu konstitusion tuzumni! Bizni, saylash huquqiga ega odamlar, deyishadi. Xo'sh, biz qanday qilib Danglarni sayladik?

– Tushunib turibman: siz juda xushchaqchaq bo'lib olishingiz kerak.

– Danglarning nutqini masxara qilmang, – dedi Debre.

– Axir u sizga ovoz beradi-ku, u ham oppozisiyada.

– Ana, butun balo shunda-da! Sizlar uni qachon Lyuksemburg saroyiga oborib qo'yarkansizlar, deb kutaverib toqatim toq bo'ldi. U o'sha saroyda gumdon bo'lsa yayrab kulib yurgan bo'lardim.

– Ispaniyada ishlar joyidaga o'xshaydi-ku, – dedi Alber Boshanga. – Bugun tilingizdan zahar tomib turibdi. Ammo Parij jamoatchiligida mademuazel Ejeni Danglar bilan mening to'yim haqida gap tarqalib ketganini unutmang. Axir kunlarning birida menga: «Vikont, qizim uchun ikki million berayotganimdan xabardormisiz?», deyidigan kishini masxara qilishim odobdan bo'lmaydi-ku.

– Bu to'y bo'lmaydi, – dedi uning so'zini bo'lib Boshan. – Qirol uni baron qilib ko'tarishi, per unvoni berishi ham mumkin, biroq uni aristokrat qilolmaydi. Graf de Morser esa o'taketgan aristokratlardan, shuning uchun u arziyasiz ikki million evaziga past tabaqa kishisi bilan quda bo'lishga aslo rozi bo'lmaydi. Vikont de Morser faqat markizaga uylanishi mumkin.

– Ikki million! Bu har qalay, chakana pul emas, – dedi e'tiroz bildirib Morser.

– Bu Bulvarlardagi birona teatrning yoki Botanika bog'i bilan Rape oralig'idagi temir yo'l shoxobchasining kapitali.

– Quloq bermang uning gaplariga, Morser, – dedi esnab Debre, – uylanavering. Axir siz bir qop pulni olib nikoh qilasiz-ku, baribir emasmi sizga! Keling, bir gerb va bir nol ko'p bo'lsa bo'pti-da, sizning gerbingizda yettita merletka bor, uchtasini xotiningizga berasiz, o'zingizda yana to'rttasi qoladi. Bu har holda gersog Giznikidan bitta ortiq. Giz esa Fransiya qiroli bo'lishiga sal qoldi, uning

amakivachchasi Germaniya imperatori bo'lgan.

– Gapingiz to'g'ri chog'i, – dedi parishon holda Alber.

– Bo'lmasam-chi? Buning ustiga bu qurg'ur millionerlarning hammasi xuddi haromzodalar singari asilzoda bo'ladi.

– Jim! Ovozingizni o'chiring, Debre, – dedi kulib Boshan, – Shato-Reno kelyapti, u sizni safsatabozlik balosidan xalos etish uchun bobosi Reno de Montobandan qolgan nayza bilan kuningizni kalta qiladi-qo'yadi.

– U shunday qilsa, o'z nufuziga putur yetkazgan bo'ladi, – dedi javoban Lyusen, – chunki men juda past tabaqalarga mansub odamman.

– Ana xolos! – xitob qildi Boshan. – Ministrlilik Beranje maqomiga kift qoqa boshladi-ku, janoblar, mana ko'rdingizmi qayoqqa yo'l o'laymiz!

– Janob de Shato-Reno! Janob Maksimilian Morrel, – dedi kirib mahram.

– Endi hamma keldi! – dedi Boshan. – Demak nonush-taga o'tiramiz, siz, Alber, faqat ikki kishini kutayotgan edingiz, to'g'rimi?

– Morrel! – dedi shivirlab taajjubga tushib qolgan Alber. – Morreli kim ekan?

U so'zini tamom etib ulgurmasdan janob de Shato-Reno kirib keldi. Janob Shato-Reno o'ttizlarga kirgan xushsurat yigit bo'lib, uchiga chiqqan aristokrat, ya'ni sirdan ko'rinishda Gisha va aql borasida Mortemarning o'zi edi. U Alberni qo'ltig'idan oldi-da, dedi:

– Alber, ruxsat eting, tanishtiray: bu kishi kapitan Maksimilian Morrel, mening do'stim va xaloskorim. Bu kishini tavsiya etib o'tirishning hojati yo'q. Vikont, qahramonimni qutlang.

Shato-Reno orqaga tisarilib o'rmini novcha va salobatli, manglayi keng, o'tkir ko'z va qora mo'ylov yigitga berdi. O'quvchilarimiz bu yigitni Marselda ma'lum dramatik holatda ko'rgan edilar. Hoynahoy unutmagan bo'lishsa kerak. Yarim fransuzcha, yarim sharqcha guldor kamzuli Faxriy Legion belgisi bezab turgan keng ko'ksiga va xipcha

beliga yopishgan, jussasiga husn bag'ishlagan edi. Yosh ofiser, juda maqomini keltirib salomlashdi. Uning barcha harakatlari latofatli edi, chunki u baquvvat edi. Alber quvonib ketib gap qotdi:

– Janob Morrel, siz bilan tanishish menga katta quvonch bag'ishlayajagini baron Shato-Reno ilgaridan bilardi. Siz uning do'sti ekansiz, aminman, bizning ham do'stimiz bo'lib qolasiz.

– Juda soz, – dedi Shato-Reno, – qadrdonim vikont, bu zot sizga qilgan yaxshiligini menga ham qilsin, deb umidvor bo'lavering.

– Qanday yaxshilik qildi u sizga? – so'radi Alber.

– Baron juda oshirib yubordi, – dedi Morrel, – gapirishga arziydigan narsa emas!

– Nega arziyas ekan? – xitob qildi Shato-Reno. – Nahotki hayot gapirishga arzimaydigan narsa bo'lsa?.. Ros-tdanam siz, qadrdon Morrel, ulkan faylasufsiz... Siz shunday deya olasiz, joningizni har kun tahlikaga solib yurasiz, ammo favqulodda shunday holga tushib men uchun...

– Baron, hamma gapdan men shuni tushundimki, kapitan Morrel sizni o'limdan qutqarib qolibdi.

– Bo'lgan hamma gap shundan iborat! – dedi Shato-Reno.

– Nima bo'ldi o'zi? – so'radi Boshan.

– Boshan, azizim, axir insof qiling, qornim ochib, ichagim uzilay deyapti! – dedi Debre.– Qo'ying, o'sha uzundan-uzoq hikoyalaringizni.

– Iya, axir men dasturxoniga o'tirishga xalaqit berayotganim yo'q-ku? – dedi Boshan. – Shato-Reno hamma gapni ovqat ustida ham gapirib beraveradi.

Morser gap qo'shdi:

– Janoblar, hozir o'ndan faqat chorak o'tdi, biz oxirgi mehmonni kutib turibmiz.

– Ha, aytganday, diplomatni-ya, – dedi Debre.

– Diplomatmi, boshqa birovmi, menga ayon emas. Men unga bir topshiriq bergan edim, buni u shunday qoyil qilib bajardiki, agar qirol bo'lganimda barcha ordenlarimni

ko'kragiga taqib qo'yardim.

– Unday bo'lsa, dasturxonga hali-veri o'tirmas ekan-miz, baron, qani, bizga o'xshab siz ham o'zingizga bir ryumka xeresdan quyding-da, qissani boshlang.

– Yaqinda, o'zingizga ma'lumki, Afrikaga borgim kelib qoldi.

– Bu yo'lni, qadrli Shato-Reno, sizga ota-bobolaringiz ko'rsatib ketgan, – dedi xushmuomalalik bilan Morser.

– To'g'ri, biroq siz ham ularga o'xshab Alayhissalomning maqbarasini xalos qilish uchun urinmasangiz kerak.

– Haq gapni aytdingiz, Boshan, – dedi yosh aristokrat, – men shunchaki ermak uchun to'pponcha otmoqchi bo'lgan edim. O'shanda ikki sekundantim eng yaqin do'stlarimdan biri – sho'rlik Frans d'Epining qo'lini majjablab qo'yishga meni majbur etganidan buyon duelni juda yomon ko'rib qoldim. Fransni hammangiz taniysiz.

– To'g'ri, siz u bilan qachondir duelga chiqqan edingiz... Sababi nima edi? – dedi Debre.

– O'lay agar, esimda yo'q, – javob qildi Shato-Reno. – Lekin shunisi esimdaki, bu boradagi iste'dodimni namoyish qilmoq uchun tuhfa qilishgan to'pponchani arablar-ga otib sinab ko'rmoqchi bo'ldim. Shu maqsadda Oranga yo'l oldim, Orandan o'tib Konstantinaga bordim, men borganda endi shahar qamaldan xalos etilayotgan ekan. Men ham boshqalar bilan chekinaverdim. Kunduzgi yomg'ir va tungi qorga ikki sutka chidash berdim, biroq uchinchi kuni otim sovuqda qotib harom o'ldi. Sho'rlik ot issiq og'ilxonaga o'rganib qolgan arab oti edi, lekin shu Arabistonda to'satdan o'n daraja sovuqqa duch kelib, o'z vatanini tanimay qoldi.

– Eh-e, mening ingliz tulporimni sotib olaman deb yurganingizning boisi shu ekan-da, – dedi Debre, – bu arab otiga qaraganda, sovuqqa chidamliroq bo'lsa kerak, deb umid qilyapsiz, shekilli.

– Aslo unday emas, men endi bundan keyin Afrikaga hech qachon bormayman, deb ont ichdim.

– Demak, qoʻrqoqlik qipsiz-da? – dedi Boshan.

– Toʻgʻri, qoʻrqib qoldim, – dedi Shato-Reno. – Ilojim qancha! Ha, qissani davom ettirayin. Shunday qilib, oʻtim tarashadek qotib qoldi, piyoda ketayotsam olti arab kalamni tanamdan judo qilish niyatida ustimga ot qoʻyib kelaverdi, ikkisini miltigʻim bilan otib tashladim, ikkisini toʻpponchadan oʻq oʻzib yer tishlatdim, biroq yana ikkitasi kelib, meni qurolsizlantirdi, bittasi sochimdan mahkam tutib oldi (endi sochimni juda kalta qilib qirqtirib yurganimning boisi ham shunda, yana shunday holga uchramayman deb boʻladimi), ikkinchisi egri qilichini kekirdagimga taqadi, muzdek poʻlat aʼzoyi badanimni qaqshatayotganini sezib turgan edi, birdan mana bu janob yugurib kelib arablarga hamla qildi, sochimdan tutib turganini bitta oʻq bilan yumalatdi, qilichi bilan meni soʻyib tashlamoqchi boʻlib turganining kallasini sapchadek uzib tashladi. U shu kuni kimnidir oʻlimdan saqlab qolishdek burchini bajo etishni niyat qilib yurgan ekan, taqdir taqozosi bilan bunga favqulodda ravishda men toʻgʻri kelib qoldim. Boyib ketganimda Kalagmanga yoki Marokettiga tasodif nomli haykal buyurtiraman.

– Bu voqea beshinchi sentyabrda, – dedi iljayib Morrel, – otam bir moʻjiza bilan oʻlimdan qutulib qolganiga rosa bir yil toʻlgan kunda yuz berdi. Har yili shu kunni iloji boricha biror ish bilan nishonlashga harakat qilaman...

– Albatta birorta qahramonona ish bilan, toʻgʻrimi? – dedi uning soʻzini kesib Shato-Reno. – Qisqasi, ishim oʻngidan keldi, biroq bu yogʻini eshiting. U meni pichoqdangina emas, sovuqdan ham qutqarib qoldi: u menga muqaddas Martin singari plashining yarmini emas, busbutun berdi, soʻng och qolishdan ham saqladi, nima bilan deb oʻylaysiz?

– Feliksning qiyma goʻshti bilanmi? – soʻradi Boshan.

– Yoʻq. Oʻz otining goʻshti bilan. Hammamiz huzur qilib bir parchadan yedik, bu oson emasdi, albatta!

– Otning bir parchasini yeyishmi? – soʻradi kulib Morser.

– Yo‘q, o‘z otini qurbon qilish, – javob qildi Shato-Reno.
– Ana, Debredan so‘rab ko‘ring, notanish bir zot uchun o‘z ingliz tulporini qurbon qilarmikin?

– Notanishga qurbon qilmayman, do‘stim uchun hech ayamay qurbon qilishga tayyorman, – dedi Debre.

– Siz, mening do‘stim bo‘lursiz, deb ilgari o‘ylab yurgan edim, baron, – dedi Morrel. – Mening o‘sha yerdagi yordamimni qahramonlik deysizmi yoki qurbon qilish deysizmi, mayli, lekin haligilarga qo‘shimcha qilay: o‘sha kuni men bir vaqtlar favqulodda boshimizga baxt qushi qo‘ndirgan bir yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytar-moqchi bo‘lgan edim.

– Morrel ajoyib bir voqeaga ishora qilyapti, – dedi so‘zini davom ettirib Shato-Reno, – siz u bilan juda inoq bo‘lib olganingizda hikoya qilib berar, albatta. Bugun esa esdaliqlarni yig‘ishtirib qo‘yaylik-da, qorin masalasini hal etaylik. Soat nechada nonushtaga o‘tirasiz, Alber?

– O‘n yarimda.

– Aniqmi? – so‘radi Debre soatini chiqarayotib.

– Yana besh daqiqa sabr etishingizni iltimos qilaman, – dedi Morser, – men ham xaloskorimni kutib turibman.

– Kimning xaloskori?

– Shaxsan mening xaloskorim, – javob qildi Morser. – Ehtimol siz, uni nimadan xalos qilish mumkin, axir bu yerlarda kallani shartta kesadigan arablar yo‘q-ku deb o‘ylayotgandirsiz? Bugungi nonushtamiz do‘stona nonushta, biz bilan bir emas ikkita valine‘mat nonushta qiladi, men bunga aminman.

– Endi nima bo‘ladi? – dedi Debre. – Axir bizda Montion mukofoti faqat bitta-ku?

– Nima qipti, uni shu mukofotga loyiq biror ish qil-magan kishiga berishadi-da, – dedi Boshan. – Odatda Akademiya qiynoqdan ana shu yo‘l bilan qutulib oladi.

– Xaloskoringiz qaerdan kelyapti? – so‘radi Debre, – juda xiralik qilayotganim uchun uzr, esimda, menga bu voqeaning bir oz uchini chiqargan edingiz, lekin juda pardali qilib aytganingiz uchun yana qayta so‘rashga jur‘at

etyapman.

– To'g'risini aytsam, o'zim ham bilmayman, – javob qildi Alber, – bundan uch oy muqaddam, men mehmonga taklif qilganimda Rimda edi. Biroq o'shandan buyon qaerlarda sayr qilib ulgurganini kim bilib o'tiribdi, deysiz.

– U belgilangan vaqtdan zarracha kechikmay hozir bo'lishga qobilmikin? Siz shunga ishonasizmi? – so'radi Debre.

– U hamma narsaga qobil odam.

– Besh daqiqalik intiyozdan so'ng yana faqat o'n daqiqa kutish mumkin ekanini hisobga olib qo'ying.

– Mana shundan foydalanib, kelayotgan mehmonim to'g'risida hikoya qilib beray.

– UZR, – dedi Boshan, – hikoyangizdan feleton yozsam bo'ladimi?

– Juda bo'ladi-da, – dedi Morser, – juda qiziqarli bo'ladi.

– Qani, boshlang hikoyangizni. Palatada bo'lolmas ekanman, hech bo'lmasa shu ishni bajo keltirib qo'yay.

– Men Rimda keyingi karnaval vaqtida bo'lgan edim.

– Biz bundan xabardormiz, – dedi Boshan.

– Ammo meni qaroqchilar o'g'irlab ketganidan xabaringiz bo'lmasa kerak.

– Qaroqchilar yo'q, – e'tiroz bildirdi Debre.

– Unday demang, qaroqchilar bor, bo'lganda ham juda dahshatli, ajiblari bor ekan, men sizga aytsam, ajoyiblari. Ular mening nazarimda nihoyatda go'zal odamlarga o'xshardi.

– Menga qarang, qadrdon Alber, – dedi Debre, – aftidan Maren yoki Ostendedan ustrisani hali keltirganlari yo'q, shu sababli oshpazingiz kechikib qolgan, shekilli, siz esa de Mentenon xonimdan o'rnak olib ovqat o'rniga bizni cho'pchak bilan to'ydirmoqchisiz, shundaymi? Iqror bo'lavering, biz afv etamiz va hikoyangizni, u qanchalik afsonaviy bo'lmasin, qunt qilib tinglaymiz.

– Lekin afsonaviy bo'lib tuyulsa-da, boshdan-oyoq haqiqiy voqea. Davom etay, qaroqchilar meni asir qilib

olishdi-da, ko'rimsiz, noqulay bir joyga San-Sebastiano g'orlariga olib borib qo'yishdi.

– Men u yerda bo'lganman, – dedi Shato-Reno so'z qotib, – o'shanda naq bo'lmasa bezgakka duchor bo'layozgan edim.

– Men chindan ham duchor bo'ldim, – davom etdi Alber. – Menga, asir tushdingiz, to'lovsiz qutulolmaysiz, deysindi. To'lov haqi arzimaydigan to'rt ming rim piastri, yigirma olti ming tur livri, xolos. Baxtga qarshi o'shanda yonimda bir yarim minggina aqcham qolgan edi, chunki sayohatim yakuniga yetib qolgan edi-da. Men Fransga xat yozdim... Ha, aytmoqchi, bu voqea tepasida Frans ham bor edi. Hikoyamda birorta yolg'on so'z yo'qligini undan so'rab olishingiz mumkin. Men Fransga, agar ertalab soat oltigacha to'rt ming piastri keltirmasang, oltidan o'n daqiqa o'tganda meni narigi dunyoga jo'natadilar, deb yozdim. Amin bo'lingki, qaroqchilarning atamani Luidji Vampa albatta so'zining ustidan chiqardi.

– Xo'sh, Frans to'rt ming piastri olib bordimi? – dedi Shato-Reno. – Albatta olib boradi-da! Frans d'Epine yoki Alber de Morser uchun bu hech gap emas.

– Yo'q, Frans pul keltirmadi, faqat hali sizga aytgan va hozir tanishtirmoqchi bo'layotgan odam bilan birga keldi.

– Demak, u janob Kakni o'ldirayotgan Gerkules yoki Andromedni xalos etayotgan Perest ekan-da?..

– Unday emas, bo'yi men bilan teng, oddiygina odam.

– Tish-tirnog'igacha qurollangandir-da?

– Hatto qalamtaroshi ham yo'q edi.

– Axir to'lov pulini bergandir-da?

– Atamanning qulog'iga ikki og'iz so'z aytdi, xolos, shu bilan meni bo'shatib yuborishdi.

– Seni tutib qolgani uchun uzr ham so'ragan bo'lsa kerak, – dedi qo'shimcha qilib Boshan.

– Xuddi shunday.

– Tag'in Ariosto bo'lmasin u?

– Yo'q, shunchaki graf Monte-Kristo.

- Bunaqa nom yo‘q bizda, – dedi Debre.
- Menimcha ham yo‘q bunaqa nom, – qo‘shimcha qildi Evropadagi hamma urug‘lar kitobini biladigan kishidek Shato-Reno, – qachondir Monte-Kristo graflarini eshitgan bormikin?
- Ehtimol, u muqaddas yerdandir, – dedi Boshan, – ota-bobolaridan birortasi Mortemar O‘lik dengizni egalab olgani singari Golgofaning egasi bo‘lgandir.
- Janoblar, uzr, – dedi Maksimilian, – chamamda, sizning jumbog‘ingizni men yechib bersam kerak. Monte-Kristo bir kichkina orol, otamda xizmat qilgan dengizchilar buni ko‘p tilga olishardi. O‘rta yer dengizida bir qumloq joy bor, unda atom serob.
- Haq gapni aytdingiz, – dedi Alber, – sizga aytayotganim u janob o‘sha orolning, o‘sha atomning xo‘jayini. Afritidan u graf unvonini Toskananing qaeqidandir sotib olgan bo‘lsa kerak.
- Grafingiz boymi?
- Menimcha, boy bo‘lsa kerak.
- Boyligi ko‘rinishidan bilinib tursa kerak?
- Xato qilyapsiz, Debre.
- Gapingizga tushunmadim.
- «Ming bir kechani» o‘qiganmisiz?
- Bu haqda so‘z bo‘lishi mumkin emas!
- Axir o‘sha ertaklardagi kishilarning qaysinisi boy, qaysinisi kambag‘alligini bilib bo‘ladimi? Ular nazaringizda bechora baliqchi, ammo sizni to‘satdan bir g‘orga olib kiradi, shunday ko‘z oldingizda butun Hindistonni sotib olishga yetadigan xazina paydo bo‘ladi.
- Xo‘sh, shunday bo‘lsa nima bo‘pti?..
- Graf Monte-Kristo o‘sha baliqchilardan biri, hatto uning nomi Sindbod-Dengiz sayyohi, oltinga liq to‘la g‘ori bor.
- G‘orni o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rdingizmi, Morser? – so‘radi Boshan.
- Men ko‘rganim yo‘q, Frans ko‘rgan. Biroq uning oldida bu haqda g‘iq etmaysiz! Fransni g‘orga ko‘zini bog‘-

lab olib kirganlar, gunglar va husnda Kleopatra ham oldiga tusholmaydigan jononlar Fransning xizmatida bo'lgan. Xotinlar masalasiga kelganda u ishonmayapti, chunki ular taryokni urib olgandan so'ng paydo bo'lgan, ehtimol haykallarni ko'rib xotinlar deb xayol qilgandir.

Yigitlar «aqlidan ozdimi bu, yoki bizni mazax qilyaptimi?» degandek Morserga angrayib qarab qolishdi.

– Rostdanam, – dedi o'ychan holda Morrel, – men ham Penelon degan bir kekxa dengizchidan janob Morser aytganga o'xshab ketadigan hikoya eshitgandim.

– Janob Morrel mening gaplarimni quvvatlayotganidan xursandman, – dedi Alber. – Biroq bu sizlarga yoqmadi chog'i?

– Qadrli do'stim, kechiring meni, – dedi Debre, – axir siz aqlga sig'maydigan voqealarni hikoya qilyapsiz-da, bizning unchalik ishonavermayotganimizning boisi ham shunda...

– Sizning aqlingizga sig'masligi turgan gap, chunki elchilaringiz va konsullaringiz bunaqa voqealarni sizga yozib yuborishmaydi, bunga ularning vaqti yo'q, ular faqat o'z vatanidan borgan sayohatchilarga azob berishdan boshqani bilishmaydi.

– Ana xolos, darrov jahlingiz chiqadi-da, bizning sho'rlik vakillarimizga hujum qilasiz. Axir ular qanday qilib sizning manfaatlaringizni himoya qilsin? Palata nuqul ularning oyliklarini qisqartirgani qisqartirgan. Pirovardida ahvol shu qadar og'irlashdiki, bu lavozimlarni istaydiganlar topilmay qoldi.

– Alber, elchi bo'lishni istaysizmi? Men sizga Konstantinopol elchisi lavozimini olib beraman.

– Faqat shu kam edi o'zi! Salgina Muhammad Aliga yon bosishim bilan sulton tomog'imdan xippa bo'g'ib narigi dunyoga jo'natib qo'ya qolsin, demoqchimisiz?

– Ana, shunday deysiz-da, – ming'irladi Debre.

– Ammo bularning hammasidan qat'i nazar, mening graf Monte-Kristom haqiqatan ham bor, yashaydi...

– Dunyoda hamma narsa bor, yashaydi! Topgan ajoyi-

botini qarang-a!

– Albatta hamma yashaydi, biroq qora badan qullar, knyazcha suratlar galereyasi, muzeybop qurol, olti ming frank turadigan otlar, grek jononlari hammada bo'lavermaydi.

– Grek jononini ko'rdingizmi?

– O'z ko'zim bilan ko'rdim, gaplarini qulog'im bilan eshitdim, Valle teatrda ko'rdim, bir gal grafnikida nonushta qilganda eshitdim.

– Hali u ajoyib zot ovqat ham yeydimi?

– Ochig'ini aytganda, u juda kam ovqat yeydi, gapirishga arzimaydi.

– Mana, ko'rasiz hali, u go'rdan chiqqan qon so'ruvchining xuddi o'zi bo'lib chiqadi.

– Kulgiga yo'ysangiz, yo'yavering, lord Rutvenning tanishi grafinya G. ham shunday degan edi.

– Tabriklayman, Alber, bu jurnalistika bilan shug'ullanmaydigan kishi uchun juda soz, – xitob qildi Boshan. – «Konstitusionalist»dagi dengiz ilonidan aslo qolishmaydi. Qon so'ruvchi murda – juda soz!

– Qorachiqlari istagan choqda kengayadigan yoki torayadigan qizg'ish ko'zli, – dedi Debre, – qirg'iy burun, peshanasi keng, yuzida zarracha qoni yo'q, qop-qora soqolli, o'tkir tishlari yaltirab turadi, qiliqlari ham shunga o'xshash.

– Xuddi shunday, Lyusen, – dedi Morser, – hamma belgilari juda o'xshaydi. Harakatlari keskin. U bilan birga bo'lganimda ustimdan muzdek suv quyib yuborgandek sezaman o'zimni. Bir gal, qatlni tomosha qilib o'tirganimizda, jallodning ishi va jazolanayotganlarning dod-faryodidan emas, ko'proq grafning vajohati va qatlning turli xillari to'g'risida beparvo hikoya qilishidan hushimdan ketib qolaman, shekilli, deb qo'rqib ketdim.

– Morser, qoningizni so'rish uchun Kolizey vayronasiga olib bormadimi sizni? – so'radi Boshan.

– Sizni bo'shatganda allaqanday olov rang pergamentga, jonimni sizga hadya qildim, deb yozdirib qo'l qo'ydi.

rib olmadimi? – deb kuldi Debre.

– Kulavering, xohlaganingizcha kuling, – dedi Morser bir oz nolib. – Gant bulvari va Bulon oʻrmonlarida doimo sayr etib yuruvchi siz ajoyib parijliklarga qarab turib oʻsha odamni esga olaman-da, turli nusxa odamlar ekanmiz-da, degan xayolga boraman.

– Men bundan faxrlanaman! – dedi Boshan.

– Har qalay, – qoʻshimcha qildi Shato-Reno, – graf Monte-Kristongiz Italiya qaroqchilari bilan aloqasini hisobga olmaganida, ishdan boʻsh vaqtlarida juda ajoyib zot boʻlsa kerak.

– Hech qanaqa italiya qaroqchilari yoʻq! – dedi Debre.

– Goʻrdan chiqib qon soʻradigan murdalar ham yoʻq! – dedi Boshan.

– Graf Monte-Kristoning oʻzi ham yoʻq, – davom ettirdi soʻzini Debre. – Alber, soat oʻn yarimga bong chalyapti.

– Dahshatli tush koʻrgan edim, deb qoʻya qoling, yaxshisi, yuring, nonushta qilaylik.

Biroq devor soatining jaranglashi tugamasdanoq eshik ochilib, Jermen paydo boʻldi.

– Janobi oliylari, graf Monte-Kristo!

Hozir boʻlganlarning hammasi beixtiyor seskanib tushdi va shu bilan Morserning hikoyasi yuraklariga naqadar chuqur kirib borganini koʻrsatib qoʻyishdi. Alberning oʻzi toʻsatdan yuz bergan hayajonini bosolmay anqayib qoldi.

Izvosh tovushini, dahlizda qadam ovozini hech kim eshitmagan edi, hatto eshik ham sezdirilmay ochilgandi.

Ostonada graf paydo boʻldi, u juda oddiy kiyimda, ammo oqsuyaklarning oliftasi ham uning kostyumidan kamchilik topolmasdi, hammasi eng nozik didga mos, kostyumi ham, koʻylagi ham, shlyapasi ham eng mohir ustalar qoʻlidan chiqqan edi.

U koʻrinishidan oʻttiz besh yoshlarga borib qolgan edi, Debre xayolida chizgan suratga juda oʻxshab ketgani ayniqsa hammani qoyil qildi.

Graf iljayib uning istiqboliga borayotgan Alberning oldiga keldi-da, qoʻlini mahkam siqib salomlashdi.

– Aniqlik qirollar nazokati, adashmasam monarxlarinigizdan biri shunday degan bo'lsa kerak, – dedi Graf Monte-Kristo, – ammo sayohatchilar qanchalik urinmasin, bunga hamisha amal qilishga muayassar bo'lolmaydilar, qadrlı vikont, aniq bo'lishni chin yurakdan istaganimni hisobga olib, ikki-uch soniya kechikkanım uchun kechirishinigizni iltimos qilaman. Besh yuz le masofani ayniqsa izvoshchılarnı kaltaklash taqiqlangan Fransiyada g'ovto'siqlarsiz bosib kelish kishiga hamma vaqt ham nasib qilavermas ekan.

– Graf, – javob qildi Alber, – sizning menikiga tashrif buyurishingizni do'stlarımga xabar qilib, ularni taklif qilgandım. Ruxsat eting, men sizga ularni tanishtiray: graf Shato-Reno – oliy tabaqa dvoryanlardan, ota-bobolari yumaloq stolda o'tirganlardan, janob Lyusen Debre – bu kishi Ichki Ishlar ministrining shaxsiy kotibi, janob Boshan – fransuz hukumatiga dahshat solib turgan xavfli jurnalist, u o'z vatanida dongdor, biroq siz Italiya haqda hech nima eshitmagandirsiz, chunki u yerda buning gazetasi taqiqlab qo'yishgan, bu esa janob Maksimilian Morrel – kavaleriya kapitani.

Hamma bilan quyuq, lekin inglizcha beparvo, beshavq salomlashib turgan graf so'nggi nomni eshitib beixtiyor oldinga bir qadam tashladi, so'ng rangpar yuziga jindak qon yugurdi va shu zahoti yo'q bo'lib ketdi.

– Siz g'olib fransuzlarning kiyimini kiyib olibsiz, – dedi u Morrelga. – Bu juda go'zal kiyim.

Qanday his-tuyg'u grafning ovozigı bu kabi chuqur ohang bag'ishlaganini va chiroyli ko'zlarini chaqnatib yuborganini bilish qiyin edi.

– Siz bizning afrikaliklarimizni hech ko'rmaganmidingiz? – so'radi Alber.

– Hech, – dedi javoban graf yana o'zini butunlay tutib olib.

– Mana shu kiyim tagida armiyamızning eng olijanob va eng botir yuraklaridan biri urib turibdi.

– Obbo, juda oshirib yubordingiz, vikont! – dedi Mor-

rel Alberning soʻzini kesib.

– Kapitan, ijozat eting, men soʻzimni oxiriga yetkazay...
– dedi Alber. – Biz hozirgina uning ajoyib qahramonlik koʻrsatganini eshitib, tasanno aytib turgan edik. Shuning uchun bugun uni birinchi marta koʻrib turgan boʻlsam-da, sizga doʻstim sifatida tanishtirishga ruxsat eting, graf.

Bu soʻzlar vaqtida grafning koʻzlari Morrelga tikilgani-cha qotib qoldi, yuzlariga yana qizillik yugurdi, qovoqlari pirpirab uchdi. Monte-Kristoning hayajonga tushgani shu-lardan sezilib qoldi.

– Shunday deng! – soʻz qotdi graf. – Demak, kapitan olijanob odam ekan. Bunisi yana soz!

Alberning soʻzlariga emas, koʻproq grafning oʻz fikr-xayoliga javob berayotgan bu xitob hammaga, ayniqsa, Monte-Kristoga ajablanib tikilib qolgan Morrelga gʻalati tuyuldi. Ammo graf bu soʻzlarni shu qadar yumshoq ohang-da va nazokatli izhor etdiki, xafa boʻlish uchun asos qol-madi.

– Bundan shubhalanishga unda qanday asos boʻlishi mumkin?– soʻradi Shato-Renodan Boshan.

– Rostdanam, qanday asos boʻlishi mumkin, – dedi Shato-Reno oʻzining aristokratlarga xos sinovchan koʻzla-rini grafga tikib, – Alber bizga toʻgʻri aytgan ekan, bu graf juda ajib zot. Siz qanday fikrdasiz, Morrel?

– Menim fikrim shuki, graf chehrasi ochiq, ovozi yoqimli odam, shu sababli, mening haqimda gʻalati gap-lar aytayotgan boʻlsa-da, men uni yoqtirib qoldim.

– Janoblar, – dedi Alber, – Jermen nonushta tayyor de-yapti, qadrli graf, ruxsat eting, oʻzim sizga yoʻldosh boʻlay-in.

Hamma sukut saqlab yemakxonaga oʻtdi va joy-joyiga oʻtirdi.

Graf oʻtirayotib:

– Janoblar, – dedi, – bir nuqsonimni eʼtirof etishga rux-sat bering. Men bu yerda begona bir odamman, bu ham oz: Parijga birinchi marta kelishim. Shu sababli fransuz-lar hayoti bilan mutlaqo tanish emasman, hozirgacha fran-

suz urf-odatlariga teskari bo'lgan sharqcha yashab keldim. Mabodo so'zlarimda, xatti-harakatimda turkcha, neopolitanacha yoki arabcha odatlar ko'proq ko'rinsa, kechiring meni. Endi nonushtani boshlaylik.

– Gapga usta ekan, – shivirladi Boshan. – Bu, hech shubhasiz, to'ralardan!

– Chet eldan kelgan to'ra, – qo'shimcha qildi Debre.

– Jahondagi hamma mamlakatlarning to'rasi, janob Debre, – dedi yakun yasab Shato-Reno.

II. NONUSHTA

Grafning kam, lekin tanlab ovqat yeyishini kitobxon unutmagan bo'lsa kerak. Alber shuning uchun ham boshdanoq Parij hayoti ishqilib grafga yoqmay qolmasin-da, deb tashvishlana boshladi.

– Qadrli graf, – dedi u, – Elder ko'chasining ovqatlari Pyassa-Spanyadagi ovqatlarchalik yoqmay qoladimi sizga deb xavotirga tushib qoldim. Ilgariroq dilingizga yoqadigan ovqatlarni bilib olib buyursam bo'larkan.

– Siz meni yaxshiroq bilganingizda bu kabi arzimas narsalardan tashvishga tushib yurmas edingiz, – dedi iljayib graf. – Sayohat vaqtida Neapolda makaron, Milanda polenta, Valensiyada ollapodrida, Konstantinopolda palov, Hindistonda karrik, Xitoyda qaldirg'och ini yeb qorin to'yg'azardim. Men kabi jahongashtalar ovqat tanlash imkoniyatidan mahrum. Qaerda bo'lmayin, to'g'ri kelgan ovqatni yeb ketaveraman, to'g'ri, oz-ozdan ovqatlanaman. Bugun esa ishtaham karnay, chunki kecha ertalabdan beri tuz tatiganim yo'q.

– Kecha ertalabdan beri-ya? Nega endi? – so'radi mehmonlar taajjulanib. – Nahotki kun bo'yi hech nima yemagan bo'lsangiz?

– Xuddi shunday, – javob qildi Monte-Kristo. – Nim atrofidan ba'zi ma'lumotlar yig'ib olish niyatida o'sha tomonga bir o'tib kelishga to'g'ri keldi, shuning uchun bir

oz kechikib qolib, hech yerda to'xtamay keldim.

– Demak, izvoshta ovqatlanibsiz-da? – so'radi Morser.

– Yo'q, men uxladim, juda zerikib qolsam, o'yin-kulgi-ga hafsalam bo'lmasa yoki qornim och bo'lsa-yu, ovqat yegim kelmasa, uyqu bosadi meni.

– Shunday paytlarda o'zingizni uxlashga majbur etar-kansiz-da? – dedi Morrel.

– Shunday desa ham bo'ladi.

– Bunga biror dori-darmoningiz bo'lsa kerak-da?

– Juda yaxshisi bor.

– Biz afrikaliklarga shunday dori juda asqotardi, – dedi Morrel. – Bizda hamma vaqt bo'lavermaydi, ichimlik esa kamdan-kam topiladi.

– Bunga shubha yo'q, – dedi Monte-Kristo, – lekin men-dek yashovchi kishiga juda yaxshi ta'sir qiladigan bu dori-darmonni armiyada qo'llash xavfli, askarlar zarur daqi-qalarda o'rnidan turolmay qoladilar.

– Qanaqa dori o'zi, bilsak bo'ladimi? – so'radi Debre.

– Bilishingiz mumkin, albatta, – dedi Monte-Kristo, – meni uni sir saqlamoqchi emasman: o'zim Kantondan tanlab olib kelgan asil afyun va Tigr bilan Evfrot o'rtaligi-dan yig'ib olinadigan a'lo sifatli nashaning qorishmasi. Ularni teng baravar qilib qo'shishadi, keyin dori tayyorla-shadi, kerak vaqtda yutiladi. O'n daqiqadan so'ng ta'sir eta boshlaydi. Baron frans d'Epinedan so'rasangiz ham bo'ladi, u bir marta buni sinab ko'rgan edi, shekilli.

– To'g'ri, – dedi Alber, – menga aytgan edi, bu dori unda juda yaxshi taassurot qoldirgan ekan.

Boshan, jurnalistlarga xos sinchkovlik bilan, ishon-qiramay so'radi:

– Bu gapingizdan shuni tushundimki, dori hamisha yoningizda bo'ladi, shundaymi?

– Hamisha, – dedi Monte-Kristo.

Mehmonni qo'lga tushiraman, deb Boshan yana so'z qotdi:

– O'sha dorini bizga ko'rsating, desam aybga buyur-massiz.

– Marhamat.

Graf shunday dedi-da, choʻntagidan buralib ochiladigan oltin qopqoqli zumrad quticha oldi. Qopqogʻi buralganda quticha ichidan moshday-moshday yumaloq, oʻtkir boʻyli soqqachalar chiqardi. Zumrad qutichada toʻrt-besh soqqa bor ekan, biroq unga oʻndan ortigʻi bemalol joylashadi.

Qutichani oʻtirganlarning hammasi bir-bir qoʻliga olib koʻrdi. Mehmonlarni doridan koʻra ajoyib goʻzal quticha qiziqtirib qolgan edi.

– Buni oshpazingizning oʻzi tayyorlaydimi? – soʻradi Boshan.

– Yoʻq, – dedi Monte-Kristo, – ishonchsiz kishilarga eng lazzatli narsalarni tayyorlashni topshirmayman. Oʻzim durustgina kimyogarman, bu dorini oʻzim tayyorlayman.

– Bebaho zumrad! – dedi Shato-Reno, – bunday yirik zumradni men birinchi koʻrishim, mening onamda ham meros qolgan ajoyib qimmatbaho buyumlar bor, lekin bunaqasi yoʻq.

– Bundan menda uchtasi bor, – dedi izoh berib Monte-Kristo, – bittasini podshoga hadya qildim, podsho u bilan shamshirini bezatdi, ikkinchisini dinimiz charogʻboni papaga tuhfa qildim. U kishi men bergan zumradni qalpoqʻiga oʻzidan ilgarigi Piy VII ga imperator Napoleon taqdim etgan, uncha goʻzal boʻlmasa-da, bahosi teng zumrad yoniga oʻrnatib qoʻyishni buyurdilar, uchinchisini oʻzimda qoldirib, oʻydirdim. Shundan soʻng uning qimmati teng barobar kamayib ketdi, biroq bir buyum sifatida foydalinishga qulay boʻlib qoldi.

Hamma hayron boʻlib Monte-Kristoga tikilib qoldi. Uning nihoyatda tabiiy ohangdagi bu soʻzlaridan kishi bu zot yo chin haqiqatni aytyapti, yoki tentak kishining safatasini sotyapti, degan xulosaga kelardi. Ammo Monte-Kristo qoʻlida tutib turgan nodir zumrad quticha birinchi fikrda qolishga majbur etardi.

– Ikki oliyhimmat hokim sizning ajoyib tuhfangiz evaziga nima berdi? – soʻradi Debre.

Graf javob qildi:

– Podsho ayolga ozodlik, papa esa erkakka hayot hadya etdi. Shunday qilib, hayotimda o‘zimni bir marta hokimi g‘olib deb his etdim.

– Xalos etgan kishingiz Peppino-da, to‘g‘rimi? – dedi xitob qilib Morser. – Afv etish huquqingizni o‘shanga bag‘ishladingiz-da.

– Ehtimol, shunday bo‘lgandir, – dedi kulib Monte-Kristo.

– Graf, so‘zlaringizni naqadar zavq-shavq bilan tinglab turganimni qani endi tasavvur qila olsangiz! – dedi Alber. – Men sizni do‘stlarimga oldindanoq hech o‘xshashi yo‘q, «Ming bir kecha»ning sehgari, o‘rta asr jodugari, deb tavsif etgan edim. Biroq parijliklar favqulodda voqealarga juda o‘ch, shu sababli ular shubhasiz, tabiiy narsalarni xayolga yo‘yib qo‘yishaveradi. Masalan, Boshan har kuni «Bulvarda Jokey-klubning kech qolgan bir a‘zosini to‘xtatib tunashibdi. Sen-Den ko‘chasida yoki shahar chekidagi Sen-Jermenda to‘rt kishini o‘ldirib ketishibdi, Tempel yoki Termax Yulian Bulvaridagi qahvaxonada o‘n, o‘n besh-yigirmata o‘g‘rini tutib olishibdi», deb yozadi, Debre esa bu xabarlarni miriqib o‘qiydi. Biroq ular Maremmida, Rim Kampanesida yo bo‘lmasa Pontiy botqoqlarida qaroqchilar bor ekan, desalar ishonmaydi. Graf, iltimos, meni qaroqchilar asir qilib olganini va siz olijanoblik ko‘rsatib yordam bermaganingizda men hozir bu yerda bularni ziyofat qilmay, San-Sebastiano g‘orlarida murdalar davrasida bo‘lishim muqarrar ekanini bularga so‘zlab bering...

– Qo‘ying, Alber, – dedi Monte-Kristo, – bu arzimaydigan voqeani hech esga olmayman, deb va‘da bergan edingiz menga.

– Va‘da berganim yo‘q, – xitob qildi Morser. – Adashyapsiz, men singari xalos etganlaringizdan biri shunday va‘da bergan bo‘lsa kerak. Men aksincha, bu haqda suhbat yuritishingizni iltimos qilaman. Ehtimol, siz men bilganlarnigina emas, hatto menga noma‘lum bo‘lgan voqealarni ham aytib berarsiz.

– Menimcha, – dedi iljayib graf, – bu voqeada siz juda muhim rol o‘ynadingiz, demak, mendan ko‘ra ko‘proq bilasiz nimalar yuz berganini.

– Mabodo men bilganlarimning hammasini aytib bersam, menga ayon bo‘lmaganlarini siz hikoya qilib berasizmi? – so‘radi Morser.

– Mana bu adolatli ish bo‘ladi, – javob qildi Monte-Kristo.

– Bo‘pti, – davom etdi Morser, – bu mening izzat-nafsimga tegadigan voqea bo‘lsa-da, hikoya qilib beraman. Uch kun surunkasiga bir niqobli oyimcha menga imoishora qilib, gul otdi, uni men oqsuyaklardan deb xayol qilib, rosa orqasidan quvib yurgan edim, aslida esa u oddiy bir dehqon ayoli, to‘g‘rirog‘i, o‘n besh yoshli bir bandit bola meni mayna qilib yurgan ekan. Jur‘at qilib, uning oq yelkasidan o‘pmoqchi bo‘lganimda u to‘pponchasini ko‘ksimga taqab oldi va yetti-sakkizta o‘rtoqlari ko‘magida San-Sebastiano g‘orlariga sudrab bordi. U yerda qaroqchilarning atamaniga ro‘baro‘ qilishdi. Ataman juda bilimli bo‘lib, u «Uezar xatlari»ni o‘qish bilan band ekan. Marhamat qilib o‘qishni to‘xtatdi-da, menga ertaga ertalab soat oltiga to‘rt ming piastr to‘lamasangiz, oltidan chorak o‘tganda kallangiz tanangizdan judo bo‘ladi, dedi. Fransga bu haqda xat yozdim, xatda maestro Luidji Vampaning izohi ham bor, xat Fransda, ishonmasangiz Fransdan tasdiqlatib olaman. Mening bilganlarim shu. Biroq, graf, siz qanday qilib Rim qaroqchilarining bu qadar chuqur izzat-hurmatini qozonib olganingizni bilmayman, axir qaroqchilar kishiga hurmat nimaligini bilmaydigan nusxalardan-ku! Ochig‘ini aytsam, Frans ikkimiz juda qoyil qolgan edik.

– Buning hech ajablanadigan joyi yo‘q. Men o‘sha mashhur Luidji Vampani o‘n yildan ko‘proq taniyman. U cho‘pon bola vaqtida menga yo‘l ko‘rsatgan edi, o‘shanda men unga bitta oltin tanga bergan edim, u qarzdor bo‘lib qolmayin sizdan deb, o‘zi yasagan guldor xanjarini bergan edi. Mening yarog‘-aslahalar kolleksiyam-

da o'sha xanjarni ko'rgandirsiz. So'ngroq u do'stlik ramzi – ana shu narsalarni almashish voqeasini unutib qo'yganidanmi yoki tanimay qolganidanmi meni asir qilib tutib olaman, deb harakat qilib qoldi. Lekin bu aksincha bo'lib chiqdi, uni va o'nta qaroqchini men tutib asir qilib oldim. Ularni Rim odil sudyasiga topshirishim mumkin edi (Rim sudyasi bilasizki, bunaqalarni juda boplab jazoga tortadi), lekin men bunday qilmadim, hammasini qo'yib yubordim.

– Bundan keyin bunaqangi ayb ish qilmaslik sharti bilan albatta, – dedi kulib jurnalist. – Men ham ularning o'z so'zlari ustidan chiqqaniga juda qoyil qoldim.

– Yo'q, unday emas, – e'tiroz bildirdi Monte-Kristo, – menga ham, mening do'stlarimga ham tegmaslik sharti bilan. Siz socialist, progressist va gumanist janoblarga mening so'zlarim g'alati tuyular, ammo shuni aytib qo'yayki, men jonimga ora kirmayotgan xesh-aqrabolar-ga yordam qilmayman, ayniqsa meni himoya qilmaydigan, pand beradigan vaqtdagina meni esga oladigan jamiyatga hech qachon jon kuydirmayman. Jamiyatni ham, yaqin kishilarimni ham izzat-hurmat qilishdan voz kechib, ularga nisbatan faqat betaraflik pozisiyasida turarkanman, ular shunisiga ham shukr deb, minnatdor bo'lib o'tiraversinlar.

– Xudoga shukr! – xitob qildi Shato-Reno. – Xudbinlikni chin ko'ngildan ochiqdan-ochiq targ'ib qilayotgan botir zotni mana mana endi ko'rishga muyassar bo'ldim. Ofarin graf, ofarin!

– Har holda ochiqdan-ochiq aytganiga qoyilmiz, – dedi Morrel, – graf hozirgina o'zi juda qat'iyat bilan izhor etib turgan o'z prinsiplariga bir gal xilof ish qilib qo'ygan edi, lekin ishonamanki, undan hech afsuslanmadi o'zi.

– Qanaqa xilof ish qilibman? – so'radi Monte-Kristo. U ahyon-ahyonda Morrelga diqqat bilan qarab qo'yardi, qo'rqmas yosh jangchi esa grafning o'tkir, tiniq nazari-dan ko'zlarini bir necha marta chetga oldi.

– Menimcha, siz mutlaqo notanish janob de Morserni

xalos etib, yaqinlaringizga va jamiyatga yordam berdingiz, – dedi Morrel.

– Janob de Morser esa ana shu jamiyatni gullatib yurganlardan, – dedi kekkayib Boshan va qadahdagi shampän vinosini bir ko‘tarib ichib yubordi.

– Graf, siz o‘z so‘zingizga o‘zingiz qarshi bo‘lib chiqyapsiz, – dedi Alber, – sizni men mantiqda tengi yo‘q deb bilaman, siz xudbinlikdan uzoq, aksincha, himmatli kishisiz, men buni tasdiqlab beraman sizga hozir. Siz, men sharq o‘g‘loniman, livantinlik, malayalik, hind, xitoyman, vahshiyman, deysiz. Nomingiz – Sindbod-Dengiz sayyohi, graf Monte-Kristo, mana endi Parijga kelishingiz bilanoq biz g‘alati parijliklarning asosiy fazilatlarini yoki asosiy illatlari sizga ta‘sir etyapti. Sizga hech xos bo‘lmagan, aslo yopishmaydigan nuqsonlarni o‘zingizga yopishtiryapsiz va shu bilan o‘z fazilatlaringizni xaspo‘shlab ketyapsiz.

– Aziz vikont, – e‘tiroz bildirdi Monte-Kristo, – so‘zlarimda va xatti-harakatlarimda bunchalik maqtovga arziydigan hech narsa yo‘q. Siz men uchun begona odam emasdingiz: tanish edik, ikkita xonamni bo‘shatib berdim o‘shanda, ertalab nonushta vaqtida mehmon qildim sizni, izvoshlarimdan birini ixtiyoringizga berib qo‘ydim, Korsodagi niqoblarni birga tomosha qildik, Pyassa-del-Popoloda qatlni derazadan birgalashib ko‘rdik, bu qatl sizga nihoyatda qattiq ta‘sir etib, naq bo‘lmasa, hushingizdan ketib qolay dedingiz. Mana shunday mehmonimni, siz aytgandek, o‘sha qabih qaroqchilar qo‘lida qoldira olarmidim men, qani ayting-chi? Buning ustiga o‘zingizga ma‘lum, sizni qutqarganda yana bir maqsadni ko‘zda tutgan edim: Fransiyaga borganimda siz ham menga yordam qilib, Parij jamoatchiligi bilan tanishtirasiz, deb o‘ylagandim. Oldin, bu bir gap-da, deb xayol qilib yurgan bo‘lishingiz mumkin, ammo endi ko‘rib turibsizki, bu haqiqatning o‘zginasi, demak, bu haqiqatga bo‘ysunib, so‘zingizning ustidan chiqishga majbursiz.

– Albatta so‘ziming ustidan chiqaman, – dedi Morser, – biroq, azizim graf, juda afsuslanib qolarmikinsiz, deb

qo'rqib turibman, axir, siz go'zal manzarali joylarga, favqulodda voqealarga, afsonaviy doiralarga odatlanib qolgansiz. Bizda esa siz hodisalarga boy hayotingizda uchratgan g'aroyib narsalar yo'q. Monmartr – bizning Chimborazomiz, Monvalerien – bizning Himolayimiz, Grenel tekisligi – bizning Sahroyi Kabirimiz, karvonlar uchun bu yerda artezian qudug'i ham qazishyapti. Bizda ham o'g'rilar bor, kam deyishadi, lekin ko'p, ammo bu o'g'rilar eng dongdor mansabdordan ko'ra, eng mayda ayg'oqchi-izquvardan o'lgudek qo'rqishadi. Xullas, Fransiya shu qadar oddiy, Parij esa shu qadar madaniylashib ketganki, bizning sakson besh departamentimizning (men bu yerda Korsikani Fransiya chekka o'lkalari qatoriga qo'shmayman) hammasida telegraf bor, barcha kattakichik qorong'i g'orlarga polisiya komissari gaz o'tkazib qo'ygan. Xullasi kalom, aziz graf, men sizga faqat bir narsada (bu masalada butunlayin ixtiyoringizdaman), ya'ni shaxsan o'zim yoki do'stlarim orqali sizni hamma yerga olib borib tanishtirishda yordam berishim mumkin. Ammo bu borada siz hech kimning yordamiga muhtoj emassiz: sizdek nomi mashhur, badavlat, oqil (shu payt Monte-Kristo kinoyaomuz iljayib qo'ydi) kishi yuqori tabaqa jamoatchiligi bilan tanishib olishda birovning ko'magiga muhtoj emas va hamma yerda uni quchoq ochib kutib olishadi. Aslini olganda, men faqat bir narsada – Parij hayoti bilan tanishishda, rohat qiladigan joylar masalasida, magazinlarni bilib olishda yordam ko'rsatishim mumkin, bunda meni butunlayin ixtiyoringizda, deb bilgaysiz. Siz Rimda, marhamat qilib bizga ikki xonangizni ajratib bergan edingiz, biroq men (xudbinlikni targ'ib etmasamda, o'lgudek xudbinman) mana hozir biz o'tirgan uyimdan sizga joy ajratib berishga jur'at etolmayman, zero, bu yerga mendan boshqa faqat xotin kishining ko'lankasigina sig'ishi mumkin.

– Bu gapingizdan boshingizni ikkita qiladiganga o'xshaysiz, – dedi graf. – Chindan ham, Rimda siz menga uylanish to'g'risida qandaydir bir rejangiz borligini ishora

qilgan edingiz, bo'lajak baxtli to'yingiz bilan tabriklasam bo'ladimi?

– Bu hali faqat reja, xolos.

– Hali juda noaniq reja bu, – so'z qotdi Debre.

– Aslo unday emas, – dedi Morser, – otam uylantirishni juda istab qolgan, men hozircha xotinim bo'lmasa-da, qaylig'im mademuazel Ejeni Danglar bilan sizni tanishtirarman, degan umiddaman.

– Ejeni Danglar, – dedi Morserning so'zini takrorlab Monte-Kristo, – to'xtang, uning otasi baron Danglarmi?

– Ha, – dedi Morser, – biroq baron bo'lganda ham yangi toifadagi baronlardan.

– Davlatga shu unvonga munosib xizmat qilgan ekan, baribir-da.

– Juda katta xizmat ko'rsatdi davlatga u, – dedi Boshan, – dilida liberal bo'lsa-da, ming sakkiz yuz yigirma to'qqizinchi yili Karl X uchun olti million zayom o'tkazib berdi, shu xizmati uchun qirol unga baron unvonini berdi va Faxriy legion kavaleri qilib qo'ydi, mana endilikda bu mukofotni kamzulining cho'ntagida olib yurmay, ko'kra-gi ustida taqib gerdaiyb yuribdi.

– Eh, Boshan, Boshan, – dedi kulib Morser, – bu iboralarni «Korsar» va «Sharivar» uchun saqlab qo'y og'ayni, hozir mening oldimda bo'lajak qaynatamga til tekkizma.

So'ng u Monte-Kristoga murojaat qildi:

– Siz hozir baronning nomini xuddi u bilan yaqin tanishdek tilga oldingiz.

– Men uni tanimayman, – dedi Monte-Kristo beparvo-lik bilan, – lekin yaqinda tanishib olsam kerak, chunki uning bankida Londondagi Richard va Blaunt bankirlar oilasi tomonidan Venadagi Arshteyn va Eskeles, Rimdagi Tomson hamda French bankirlar oilasi tomonidan kredit ochilgan.

Graf so'nggi ikki nomni tilga olganda Morrelga ko'z qirini tashlab qo'ydi. Bu bilan u Maksimilian Morrelni hayajonga solaman deb o'ylagan bo'lsa, adashmadi. Maksimilian go'yo elektr toki urgandek seskanib ketdi.

– Tomson va French? – dedi u. – Graf siz o’sha bankirlar oilasini taniysizmi?

– Xristian olamining poytaxtidagi bu kimsalar mening bankirlarim, – dedi graf xotirjamlik bilan. – Ularga biror ishingiz tushgan bo’lsa, yordam berishim mumkin?

– Ehtimol, siz bizga hech natija bermayotgan qidiruvlarimizda yordam berursiz. O’sha bankirlar oilasi bir vaqtlar bizning firmamizga juda katta yordam bergan edi, biroq nechundir hamisha buni inkor etib keldi.

– Men xizimatingizga tayyorman, – dedi egilib Monte-Kristo.

– Suhbatni Danglar janoblari tomonga burib, mavzudan juda chetga chiqib ketdik, – dedi Morser, – gap graf Monte-Kristoga durustroq joy topib berish ustida bora-yotgan edi. Xo’sh, azim shahar Parijning yangi mehmoni ni qaerga joylashtirsak ekan?

– Sen-Jermenda grafga bog’liq alohida uy topish mumkin, – dedi Shato-Reno.

– Siz o’sha befayz Sen-Jermenigingizni bozorga solganningiz solgan, – dedi Debre. – Uning gapiga quloq solmang graf, yaxshisi, Shosse d’Antendan joy oling. Haqiqiy Parij shu.

– Opera Bulvari, ikkinchi qavat, ayvonli uy, – dedi Boshan. – Ana o’sha yerda graf kumush rang kimxob yostiq-larga yonboshlab, chilim chekib yoki dorisini liq-liq yutib, ro’baro’sida jilvalanib yotgan poytaxtni tomosha qilib yotadi-da.

– Merrel, siz hech narsa taklif etmayapsiz-ku? Yoki durustroq joyni eslayolmayapsizmi? – so’radi Shato-Reno.

– Yo’q, aksincha, menda ham bir fikr bor, – dedi jilmayib yigit, – faqat, grafga sizning takliflaringizdan birortasi yoqib qolar deb turgandim. Unday bo’lmadi, shekilli, endilikda men jur’at etib, pampadurlarning³⁵ dang’illama uyidan bir kichikroq uy taklif qilaman. Mana rosa bir yildan buyon Meli ko’chasidagi o’sha uyda singlim tura-di.

– Singlingiz bormi? – so’radi graf.

– Ha, graf, go‘zal singlim bor.
– Turmushga chiqqanmi?
– To‘qqiz yil bo‘ldi.
– Baxtiyormi ishqilib? – yana so‘radi graf.
– Baxtiyor bo‘lganda qandoq! – javob qildi Maksimilian, – singlim sevgan yigitiga – boshimizga kulfat tushganda ham bizdan yuz o‘girmagan – Emmanyuel Erboga tegdi.

Monte-Kristo miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Ta‘tilga kelganimda ana shu singlimnikida turaman, – davom etdi Maksimilian, – sizga biror narsa kerak bo‘lib qolsa, kuyov ikkimiz yordam berishga tayyormiz.

– Bir daqiqa sabr qiling! – dedi Alber Monte-Kristoni javob berishga qo‘ymay, – nima deytganingizni bir o‘ylab ko‘ring, Morrel. Sayohatchi Sindbod-Dengiz sayyohini oilaviy muhitda kishanlab qo‘ymoqchisiz-ku! Parijni sayr etmoq uchun kelgan odamni avliyoga aylantirib qo‘ymoqchisiz-ku!

– Mutlaqo unday emas, – dedi iljayib Morrel, – singlim yigirma besh yoshda, kuyovim esa o‘ttiz yoshda, ular yosh, sho‘x, baxtiyor. Buning ustiga graf alohida xonada turadi va ular bilan istagan vaqtdagina uchrashib turishi mumkin.

– Rahmat sizga, rahmat, – dedi Monte-Kristo, – siz lozim topsangiz singlingiz va kuyovingiz bilan tanishib olishga tayyorman, ammo hech qaysingizning taklifingizni qabul qila olmayman, chunki menga joy allaqachon tayyor qilib qo‘yilgan.

– Qanday qilib! – xitob qildi Morser. – Nahotki siz mehmonxonada tursangiz? U yerda rohat qilolmaysiz!

– Rimdagi joyim yomonmidi? – so‘radi Monte-Kristo.

– Qanaqa qilib yomon bo‘lsin. Xonalaringizni bezash uchun ellik ming piastr xarajat qilasisu, tag‘in yomon bo‘lsinmi? Biroq har gal bunchalik xarajatga yo‘l qo‘yavermassiz?

– Meni bu cho‘chitgani yo‘q, – javob qildi Monte-Kristo, – lekin Parijda o‘zimga xususiy uy sotib olmoqchiman.

Oldinroq kamerdinerimni yuborgan edim, u allaqachon uy sotib olib jihozlatib qoʻygan boʻlsa kerak.

– Parijni biladigan kamerdineringiz ham bormi hali? – soʻradi Boshan.

– Uning ham menga oʻxshab Parijga birinchi kelishi, u habashlardan, gung, – javob qildi Monte-Kristo.

– Alimi? – dedi xitob qilib Alber hammani taajjubga solib.

– Xuddi oʻsha Alining oʻzi, mening nubiyalik soqovim, siz uni Rimda koʻrgan edingiz, shekilli.

– Toʻgʻri, koʻrgan edim, – dedi Morser, – hamon esimda u. Biroq Parijda uy sotib olishni nubiyalikka qanday qilib topshirdingiz? Soqovga uyni jihozlashni topshirib boʻladimi? Shoʻrlik hamma ishni chatoqlashtirib yuborgan boʻlsa kerak.

– Bu gapingiz behuda, u aksincha, hamma ishni mening didimdagidek qilib bajo keltirgan boʻlishi kerak, bilasizki, mening koʻnglimdagidek qilish oson emas. Uning bu yerga kelganiga rosa bir hafta boʻldi, shu vaqt ichida u butun shaharni aylanib, ovchi it singari hamma yoqni hidlab chiqqandir, balki. Mening injiq odatlarimni, didimni, taʼbimga nima yoqishini, istak-ehtiyojlarimni juda yaxshi biladi. U kerak narsalarning barchasini allaqachon taxt qilib qoʻygan. Bugun ertalab soat oʻnda kelishimni bilganidan soat toʻqqizdan Fonteneblo zastavasida meni kutib turgan ekan. Kelishim bilan mana bu qogʻozni qoʻlimga tutqazdi, bu mening yangi manzilim, mana oʻqing. – Monte-Kristo shunday deb bir parcha qogʻozni Alberga uzatdi.

Alber oʻqidi:

– «Elisey Maydoni, oʻttizinchi raqam».

– Mana bunisi ajoyib! – dedi toʻsatdan Boshan.

– Haqiqatan ham knyazchasiga boʻpti bu ish! – soʻz qotdi Shato-Reno.

– Iya, siz hali uyingiz qanaqaligini bilmaysizmi? – soʻradi Debre.

– Bilmayman, – javob qildi Monte-Kristo. – Men hali bel-

gilangan vaqtdan kechikmaslikka harakat qilganimni aytgandim. Kiyimimni izvoshda kiyib, vikont ostonasida tushdim.

Yigitlar bir-biriga qarab olishdi: ular, Monte-Kristo hazil-lashayaptimi, deb hayratda qolgan edilar, biroq bu zotning g'alati tuyulayotgan gaplari shu qadar oddiy, tabiiy ediki, ulardan birortasini yolg'on deyishga kishining tili bormasdi, to'g'risini aytganda, u nega yolg'on gapirsin endi?

– Xullas, – dedi Boshan, – endi biz grafga mayda-chuyda ishlardagina yordam ko'rsatish bilan qanoatlanar-kan-miz-da. Men, bir jurnalist sifatida grafga barcha Parij teatrlarining eshiklarini lang ochib qo'yaman.

– Rahmat, – dedi iljayib Monte-Kristo, – men ish boshqaruvchimga har bir teatrdan bittadan lojani band qilgin, deb buyurib qo'yg'an edim.

– Ish boshqaruvchingiz ham nubiyalik gungmi? – so'radi Debre.

– Yo'q, u sizga vatandosh (mabodo korsikalikni kimningdir vatandoshi deyish joiz bo'lsa), janob de Morser, siz uni taniysiz.

– E-e, derazalarni juda mohirlik bilan ijaraga oladigan sinor Bertuchchodir-da?

– Xuddi o'sha, menikida nonushta qilganingizda ko'rgan edingiz uni. Juda azamat yigit, soldat bo'lib ham xizmat qilgan, kontrabandist ham bo'lgan, umuman hamma ishlarga boshini suqib chiqqan. Men hatto birovga pichoq urgani vajidan polisiya bilan nari-beri bo'lmagan deb ham aytolmayman.

– Jahonda yagona o'sha halol kimsani, siz graf, o'zingizga ish boshqaruvchi qilib oldingizmi? – so'radi Debre.

– Yiliga qancha aqchangizni kissasiga uradi u?

– Menimcha, boshqalardan ko'p urmas, biroq u juda menbop, yo'qni yo'ndiradigan odam. «Iloji yo'q» degan gapni bilmaydi, shuning uchun ham uni saqlab turibman.

– Demak, – dedi Shato-Reno, – hamma ishlaringiz joyida: Elisey maydonida uyingiz bor, xizmatkoringiz, ish

boshqaruvchingiz – hammasi muhayyo, faqat ma'shuqa yo'q.

Alber kulib qo'ydi: u Valle teatri va Arjentina teatri-dagi graf lojasida ko'rgan jononni esladi, u yo alban yoki grek ayoli edi.

– Menda ajoyib jonon asira bor, – dedi Monte-Kristo. – Siz ma'shuqalaringizni Operadan, Vodevildan, Varetedan topasiz, men esa o'zimga Konstantinopoldan sotib oldim, bu menga qimmatga tushdi, lekin shunisi yaxshiki, endilikda bu borada tashvishim yo'q.

– Biroq, siz bir narsani unutyapsiz, – so'z qotdi Debre. – Biz erkin fransuzlarmiz, demak, asirangiz Fransiya tuprog'iga qadam qo'yishi bilanoq erkinlikka chiqadi, bilasizmi?

– Kim unga buni aytadi? – so'radi Monte-Kristo.

– Har bir kishi.

– Asira faqat yangicha grek tilida gapira oladi.

– Unda boshqa gap!

– Biroq biz uni ko'ramiz, deb ishonsak bo'ladimi? – dedi Boshan. – Yoki soqovdan boshqa yana bichilgan mahramlaringiz ham bormi?

– Yo'q, – dedi Monte-Kristo, – men sharq madaniyatini o'rganish borasida hali bungacha yetib borganim yo'q: atrofimdagilarning hammasi istagan daqiqada o'zini ozod hisoblab, «to'rt tomonim qibla» deb ketaverishi mumkin, shunday qilganda ular na mening, na boshqa birovning yordamiga muhtoj bo'lmaydi, meni tashlab ketmayotganlarining boisi ham shundadir.

Suhbatdoshlar ovqatni tugatib allaqachon shirinliklarni baham ko'rishga va sigaralar chekishga o'tishgan edi.

– Azizim, – dedi o'rnidan turayotib Debre, – soat ikki yarim bo'пти, mehmoningiz nihoyatda go'zal, jozibali ekan, ammo har qanday ajoyib, yoqimli jo'ralar gurungi bilan ham xayrlashmaslikka iloj yo'q, ba'zida esa shunday yoqimli gurdandan yoqimsiziga borishga to'g'ri keladi, men ministrlikka borishim kerak va u yerda ministr bilan graf to'g'risida gaplashib olaman, axir biz uning kimligini

bilib olishimiz kerak-ku.

– Ehtiyot bo'ling, – dedi Morser, – juda ziyrak, zehni odamlar ham bu jumboqni yechishning uddasidan chiqolmagan.

– Polisiya uchun bizga uch million ajratishgan, to'g'ri, bu sarmoya hamisha ilgaridanoq sarflangan bo'ladi, ammo bu ish uchun ellik ming frank topilib qolar har holda.

– Uning kimligini aniqlaganingizda, menga aytasizmi?

– Albatta. Xayr, Alber, janoblar, menga ruxsat, xayr.

Debre dahlizga chiqdi-da, baland ovoz bilan:

– Izvoshni chaqiring! – dedi.

– Aftidan, – dedi Boshan Alberga. Palataga borolmaydigan bo'ldim endi, ammo o'quvchilarimni janob Danglarning nutqidan ko'ra durustroq narsadan xabardor qilaman.

– Xudo haqqi, Boshan, bu haqda bir og'iz ham gap ochmang, iltimos qilaman, – dedi javoban Morser, – uni jamoatchilikka tanishtirish imtiyozidan meni mahrum etmang. Rostdanam juda qiziq, g'alati odam, to'g'rimi?

– Nihoyat ajib zot, – dedi so'z qotib Shato-Reno. – Bunday o'xshashi yo'q odamni shu vaqtgacha ko'rganim yo'q edi. Siz ham ketasizmi, Morrel?

– Hozir, grafga tashrif qog'ozimni beray, graf iltifot aytab, biznikiga, Mele ko'chasidagi o'n to'rtinchi uyimizga tashrif buyurishga va'da qildi.

– Imoningiz komil bo'lsin, albatta boraman, – dedi ta'zim etib graf.

Maksimilian Morrel va Shato-Reno chiqib ketishdi, mehmonxonada Monte-Kristo bilan Morser qoldi.

III. BIRINCHI UCHRASHUV

Monte-Kristo bilan yakka qolishganda Alber unga bunday dedi:

– Graf, ijozat etsangiz, yo'l ko'rsatuvchilik vazifamga

kirishsam-da, bo'yoqning namunali kulbasini ko'rsatib chiqsam. Italiya saroylarida yurib, u yerlardagi qulayliklar, hashamlarga o'rganib qolgan siz uchun, bu yerdagilarning fikricha, durust hayot kechirayotgan yosh Parij yigiti necha kvadrat fut maydonda istiqomat qila olishi mumkinligini bilish qiziqarli albatta. Nafasingiz bo'g'ilib qolmasin deb, xonadan xonaga o'tganda derazalarni ochib yuboramiz.

Monte-Kristo yemakxonani va pastdagi mehmonxonani ko'rgan edi. Alber uni dastlab studiyasiga olib kirdi. Bu uning eng sevimli xonasi ekanini o'quvchi biladi.

Monte-Kristo studiyada Alber yiqqan narsalarga baho berishga qobiliyatli zot: qadimiy xambalar, yapon chinnilari, sharq gazlamalari, venesiya shishalari, barcha mamlakatlarning miltiqlari... Grafga bularning hammasi tanish, shu sababli birinchi qarashdayoq u buyumlar qaysi asr, qaysi mamlakat mahsuli ekanini darhol aniqladi, Morser buyumlarga sharh berishim kerak bo'lur deb o'ylagan edi, amalda buning teskarisi bo'ldi. Alber grafning rahbarligi ostida arxeologiya-mineralogiya va tabiat tarixidan dars oldi. Ular ikkinchi qavatga tushishdi. Alber mehmonni mehmonxonaga boshlab kirdi. Bu xonaning hamma devorlariga zamondosh rassomlarning suratlari osilgan edi. Dyuprening peyzajlari, uzun-uzun qamishzorlar, qomati tik daraxtlar, ma'rayotgan sigirlar, ajoyib samo... Delakruaning uzun burnus kiygan, zarhal kamar bog'lagan qora miltikli arab suvoriylarining rasmlari... Otlar quturib bir-birini g'ajiyapti, odamlar esa gurzi tutib, jang qilishyapti. Bulanjening nihoyatda zo'r mahorat bilan ishlagan «Parij Momo havosining jomesi» deb nomlangan akvareli ham osib qo'yilgan. Diasning gullari yangi ochilgan gullardan go'zal, quyoshi samodagi haqiqiy quyoshdan ham kuchli nur sochib turgandek ko'rinadigan suratlari, Dekanning Salvator Rozanikidek yarqiroq, ammo samoviyroq suratlari ham osig'liq, Jiro va Myullerning mo'yqalami bilan vujudga kelgan polotnolar farishta go'daklarning va parizodlarning go'zal chehralarini tasvir etib turibdi. Doza-

ning sharq albomidan yirtib olingan varaqlar ham bor. Umuman, zamon san'atida o'tgan asrlarning yo'q bo'lib ketgan san'ati o'rniga nimani bera olgan bo'lsa hammasi mavjud edi.

Alber endi bu ajib xorijiyini hayratda qoldirdim, deb umid qilgan edi, ammo graf Alberni hayratda qoldirib, imzolarga (ba'zan faqat ismi va otasining ismining bosh harflarigina yozilgan) qaramasdanoq har bir suratning muallifini shartta-shartta aytib beraverdi, u rassomlarning familiyasini bilibgina qolmay, hatto, har bir mo'yqalam ustasining iste'dodini o'rganib, baho berishga ulgurgan edi.

Mehmonxonadan yotoqxonaga o'tishdi, bu xona yuqori darajada namunali, ko'rkam, shu bilan birga, jiddiy did-farosat bilan jihozlangan edi: bu yerga faqat zarh-al romda bitta surat osig'liq, lekin unga Leopold Rober imzo chekkan.

Surat darrov graf Monte-Kristoning diqqatini jalb qilib oldi, u shoshib bordi-da, uning ro'baro'sida to'xtadi.

Bu yigirma besh yoshlarga borib qolgan, qorachadan kelgan, chaqnoq ko'z, ko'zlari suzuk ayolning surati edi, ustida katalanilik baliqchi qizining rangdor kiyimi, belida qizil-qora belbog', sochlarida oltin to'g'nag'ichlar, xotin dengizga tikilgan, xushbichim qaddi-qomati osmon va dengiz to'lqinlari fonida ko'zga yaqqol tashlanib turardi.

Xona qorong'i bo'lmaganda, Alber mehmonining yuzlari birdan oqarib, yelkasi, ko'kragi titrab ketganini ko'rgan bo'lardi.

Bir zum sukunat cho'kdi. Monte-Kristo suratdan ko'zini uzmay qotib turardi. So'ng juda xotirjam ohangda:

– Vikont, qaylig'ingiz juda go'zal ekan, – dedi, – mas-karad kiyimi nihoyatda yarashibdi.

– Yonida qandaydir yana bir surat turganida, men bu xatongizni kechirmas edim. Siz, graf, mening onamni tanimaysiz, bu uning surati, bundan olti yoki sakkiz yil muqaddam uning o'z istagi bilan chizilgan edi, kiyim o'zini-ki emas, aftidan, yasama bo'lsa kerak, ammo surat onamning xuddi o'zi, bunga qarasam onam ming sakkiz yuz

o'ttizinchi yilda qanday bo'lsa, xuddi shunday gavgaladani ko'z oldimda. Grafinya bu suratni otam yo'qligida uni xursand qilmoqchi bo'lgan, biroq surat otamga nechukdir yoqmadi, rassomning mahorati ham uni maftun etolmadi, axir bu Leopold Roberning eng yaxshi asarlaridan biri ekanini o'zingiz ko'rib turibsiz. To'g'risini aytganda (bu gap ikkimizning oramizda qolsin), otam janob de Morser Lyuksemburg saroyidagi kengashlarning doimiy qatnashchisi, oliy mansab egasi, harbiy ishlarda bilag'on, ammo san'at borasida no'noq edi. Onam esa mo'yqalam san'atini yaxshi biladi, o'zi ham mohir rassom, mana shu ijod mahsuliga maftun, ammo u otamning ko'zidan uzoqda bo'lishi uchun uni menga hadya qildi. Gro ishlagan otamning surati bor: uni ham ko'rsataman sizga. Oilaviy ikir-chikirlar bilan tinkangizni quritib qo'yyapman, kechiring meni, biroq men sizni grafga tanishtirishim kerak, ana o'shanda tag'in onamning suratini maqtab qo'ymang deb, bu gaplarni sizga aytyapman. Bu onamga ham juda yomon ta'sir etadi, bechora volidam, xonamga kirganda ko'z yoshisiz qarolmaydi bu suratga. Graf bilan grafinya o'rtasiga faqat shu surat tufayligina sovuqlik tushdi. Uylanganlariga yigirma yildan ko'proq bo'lsa-da, bir-biriga juda suyanib qolishgan, bir-birini turmush qurgan kundagidek yaxshi ko'rishadi.

Monte-Kristo bu so'zida bir sir bormikin degandek, Alberga yalt etib qaradi, ammo yigitcha bu so'zlarni yurakdan, jiddiy ravishda aytayotgani ko'rinib turardi.

– Graf, mening hamma boyligimni ko'rdingiz, – dedi Alber, – endi arziqlik bo'lmasa-da, bularning hammasini sizning ixtiyoringizga havola qilishga ruxsat eting. Siz bu yerga yanada yaxshiroq ko'nikib olmog'ingiz uchun, janob de Morser huzuriga olib kiray. Menga qilgan yaxshiliklaringiz to'g'risida Rimdanoq yozib yuborgan edim va menikiga tashrif buyurmoqqa va'da qilganingizni ham aytgandim. Ota-onam sizga minnatdorlik bildirish onlarini sabrsizlik bilan kutib turishibdi. Graf, men sizning oq-qorani tanigan odam ekaningizni bilaman. Sindbod-

Dengiz sayyohi oilaviy ko'rinishlarga unchalik qiziqadiganlardan emas, biroq iltimos qilaman, mening taklifimni qabul eting va uni Parij hayotiga kirish deb hisoblayvering, Parij hayoti esa faqat iltifotlar, tashriflar va tanishtirishlardan iborat.

Monte-Kristo indamay ta'zim qildi, ko'rinishdan u bu taklifni quvonch-la, yurakdan emas, odob yuzasidan qabul qildi. Alber kamerdinerini chaqirib graf va grafinya de Morserga borib graf Monte-Kristo tashrif buyurmoqchi ekanini aytishni buyurdi.

Alber bilan graf uning ketidan jo'nashdi.

Grafning dahliziga kirishingiz bilan mehmonxona eshigi tepasidagi gerb qalqoniga ko'zingiz tushadi, chambaragi juda qimmatbaho bu gerb xonaning hamma bezaklariga mos qilib ishlangan, uy egasi bu gerbga katta ahamiyat bilan qarayajagi ana shundan ko'rinib turibdi.

Monte-Kristo qalqon oldida to'xtab uni shoyon diqqat bilan ko'zdan kechirdi.

– Qalqonning zangori tusdagi o'rtasida yettita oltin merletka bir-biriga bog'lab joylashtirilgan. Bu, vikont, oilaviy gerb bo'lsa kerak, shundaymi? – so'radi u, – Geraldik formulalar bilan tanish bo'lganim uchun gerblarni unchamuncha tushunishimni hisobga olmaganda, geraldikani yaxshi bilmayman, graf degan unvonni muqaddas Stefan komandorligini tuzganim uchun Toskanda berishgan, agar o'shanda, sayohatda ko'p bo'lgan kishi uchun bu juda asqotadi, deyishmaganda men bu unvonni qabul qilmasdim. Hech bo'lmaganda, bojxona chinovniklarining titib-tintishidan qutulish uchun ham izvosh eshikchalarida biror belgi bo'lmog'i kerak-ku axir. Men sizga yuqoridagi savolni berishimning boisi ham shunda, uzr so'rayman.

– Bu oddiy bir gerb, – javob qildi ishonch bilan Morser. – To'g'ri aytdingiz, bu bizning, ya'ni otamning oilaviy gerbi, biroq u boshqa bir gerb bilan qo'shib qo'yilgan, u onamning oilaviy gerbi. Ona tomondan men ispanman, ammo ota tomondan fransuzman, eshitishimga qaraganda, janubiy Fransiyaning eng qadimgi qavmlaridan ekan

u.

– To'g'ri, – dedi Monte-Kristo, – merletkalar ham shundan dalolat berib turibdi. Muqaddas yerga otlangan ziyoratchilarning deyarli hammasi o'z missiyalarining belgisi sifatida gerb o'rnida salbni yoki imon qanotida uzoq safar qilishlarining belgisi sifatida qushlarni tanlashardi. Otangiz tomondagi bobolaringizdan birisi, chamamda, ana shu salb yurishlaridan birida qatnashgan. Bu muqaddas Lyudovikning yurishi bo'lib chiqqan taqdirda ham ko'z oldimizda o'n uchinchi asr namoyon bo'ladiki, bunisi ham yomon emas.

– Ehtimol, ehtimol, – dedi Morser, – otamning xonasida qavmimiz shajarasi bor. Undan hamma narsani bilib olish mumkin. Bir vaqtlar men bunga hatto d'Oze va Jokur uchun ham saboq bo'ladigan izohlar tuzgan edim. Hozir qiziqmay qo'ydim, biroq yo'l ko'rsatuvchi sifatida sizga shuni aytmog'im kerakki, bizda, hozirgi demokratik hukumatimiz zamonida bu narsalar bilan nihoyatda qiziqqa boshlashdi.

– Unday bo'lsa hukumatimiz o'z o'tmishidan men ko'rgan yodgorliklar ustiga yozib qo'yilgan va hech qanday geraldik ma'no bermaydigan ikki lavhadan ko'ra durustroq narsani tanlab olmog'i lozim edi. Sizga kelganda, vikont, siz bu masalada hukumatimizdan ustunroq turasiz, chunki sizning gerbingiz nihoyatda go'zal va kishi tasavvurini jo'shqinlatib yuboradi. Siz provansal (janubiy fransiyalik), ha, ispan millatiga mansub ekansiz. Hali menga ko'rsatgan surat rostdan ham juda o'xshasa, onangizning qorachadan kelgan go'zal yuzi o'ktam katalankaga o'xshashining boisi ham shunda.

Grafning nihoyatda odob bilan aytilgan bu so'zlaridagi kinoyani fahmlab olish uchun yo Edip yoki eng o'tkir sehrGAR bo'lmoq kerak edi. Bunga aqli bovar etmagan Morser iljayib tashakkur izhor etdi, so'ng grafga yo'l ko'rsatish uchun oldinga o'tdi-da, gerb ostidagi mehmonxona eshigini ochdi.

Mehmonxonaning eng ko'zga ko'rinadigan joyida yoshi

o'ttiz besh-o'ttiz sakkizlarga borib qolgan, general forma-siga oliy unvon pogonlarini hamda Faxriy legion ordeni-ni taqib olgan kishining surati osilgan. Ko'kragida o'ng tomonda Xaloskor, chap tomonda Karl III ordeni, bu su-ratdagi zotning Gresiyada va Ispaniyada jang qilganidan yoki shu mamlakatlarda allaqanday diplomatik xizmatda bo'lganidan darak berib turardi.

Monte-Kristo boyagi birinchi suratni qanchalik sinchik-lab ko'zdan kechirgan bo'lsa, bunisini ham shunchalik chuqur nazardan o'tkazayotgan bir paytda, to'satdan yonboshdagi eshik ochildi-da graf de Morserning o'zi chiqib keldi.

Qirq besh yoshlardagi bu zotni ko'rinishdan kam de-ganda ellikka borib qolgan desa bo'ladi, sochlari oppoq, mo'ylovi va qoshlari esa nechundir qop-qora, u oddiy fuqaro kiyimida, ko'ksidagi rango-rang tasma juda xilma-xil ordenlar bilan mukofotlanganidan dalolat berib turardi. Qaddi-qomati ancha kelishgan, chehrasi ochiq edi. Monte-Kristo uning istiqboli sari bir qadam ham tashlamay, o'rnida tek turaverdi, uning oyoqlari go'yo polga qoqib qo'yilgandek, graf de Morserning chehrasiga tikilgancha qoldi!

– Ota, – dedi Alber, – boshimga og'ir musibat tushgan-da baxtim chopib uchrashib qolgan oliyhimmat do'stim graf Monte-Kristo bilan sizni tanishtirishga ruxsat eting.

Graf de Morser quyuq tabassum-la Monte-Kristo bilan salomlashdi.

– Graf biz uchun juda aziz mehmon, u oilamizning yagona merosxo'rini o'limdan saqlab qoldi, biz undan abadiy minnatdormiz.

Graf de Morser shunday dedi-da, Monte-Kristoni yumshoq kursiga o'tkazdi va o'zi deraza ro'parasiga o'tir-di.

Monte-Kristo taklif etilgan kursiga o'tirdi-da, keng du-xoba parda soyasida o'tirib grafning horigan va tashvish-larga to'la chehrasiga tikilib, bevaqt paydo bo'lgan ajin-larida iz qoldirgan sirli musibatlarini qissasini o'qishga ahd

qildi.

– Vikont sizning tashrif buyurganingizni xabar qilganda grafinya kiyinayotgan edi, – dedi Morser, – u oʻn daqiqadan soʻng keladi.

– Parijga kelishimning birinchi kuniyoq xizmatlari shonshavkati, dovrugʻiga teng, taqdir adolatiga muyassar boʻlgan zot bilan uchrashganim uchun oʻzimni baxtiyor deb bilaman, – dedi Monte-Kristo. – Bu adolatli taqdir, ehtimol, Mitiji sahrolarida yoki Atlas togʻlarida sizga yana qoʻshimcha marshallik unvonini tayyorlayotgandir.

– Hecham, – eʼtiroz bildirdi qizarib Morser, – men harbiy xizmatdan voz kechganman, graf. Qayta tiklash davrida oliy dvoryan unvoni olib, birinchi yurishlarda qatnashdim va marshal de Burmon boshchiligidagi xizmat qildim, yuqori qoʻmondonlik lavozimini talab qilishim mumkin edi, mabodo yuqori zinada qolganimda nimalar yuz berishini kim biladi, deysiz. Axir Iyul revolyusiyasi shu qadar zoʻr boʻldiki, imperator davriga mansub boʻlmagan hamma xizmatlarni inobatga olmadi. Shu sababli men harbiy xizmatdan voz kechishga majbur boʻldim. Pogonlarni jang maydonida jonbozlik koʻrsatib olgan men kabi kishilar mehmonxonalarining tiygʻonchiq parketlarida nayrang ishlatolmaydi. Harbiy xizmatni tashlab siyosat bilan, sanoat bilan shugʻullandim, amaliy sanʼatni oʻrgandim. Men hamisha bu narsalarga juda qiziqib kelganman, biroq yigirma yillik harbiy xizmat davrida bu ish bilan shugʻullanishga vaqt topolmadim.

– Xalqingizning boshqa xalqlardan afzalligi ham mana shunda, – dedi Monte-Kristo. – Siz dongdor qavmning avlodisiz, katta boylik egasisiz, lekin shunga qaramay, birinchi unvon uchun oddiy soldat boʻlib xizmat qildingiz, bundaylar kam boʻladi. General, Fransiyaning peri, Faxriy legion komandori sizdek odam mukofot uchun emas, yaqinlaringiz manfaati uchungina biror yangi narsa oʻrganishga harakat qila boshlaysiz... Bu juda goʻzal ish, hatto odamni hayratda qoldiradigan ish.

Alber bu soʻzlarni dong qotib tinglab oʻtirardi: u Mon-

te-Kristoning bu kabi shavq-zavq bilan suhbatlashganini hech ko'rmagan edi.

– Afsuski, biz Italiyada bunday fazilatga ega emasmiz, – davom etdi chet ellik Morser yuzida paydo bo'lgan o'ng'aysizlik belgilarini yuvib tashlash niyatida, – biz o'z naslimizga xos ravishda o'syapmiz, umr bo'yi o'sha odatni, o'sha qiyofani va ko'pincha o'sha loqaydlikni saqlab kelyapmiz.

– Biroq siz kabi zotlarga Italiya munosib vatan emas, – dedi e'tiroz bildirib graf de Morser. – Fransiya sizga quchoq'ini ochib turibdi, uning chaqirig'iga javob qiling. U hamisha beshafqat bo'lavermaydi, u o'z farzandlariga be-rahm, ammo chet elliklarni quvonch-la kutib oladi.

– Ota, graf Monte-Kristoni yaxshi bilolmayotganingiz sezilib turibdi, – dedi uning so'zini bo'lib Alber, – uni qanoatlantiradigan narsalar bizning dunyomizdan mutlaqo tashqarida, u obro', izzat-hurmat orqasidan quvadigan odamlardan emas, ulardan faqat pasportiga sig'adiganini oladi, xolos.

– Men o'zim to'g'rimda bunday to'g'ri bahoni mana endi birinchi marta eshityapman, – dedi Monte-Kristo.

– Graf o'zi istagan tarzda hayot kechirish uchun hamma imkoniyatlarga ega edi, – dedi graf de Morser xo'rsinib, – ammo u gullarga to'la hayot yo'lini tanlab oldi.

– Xuddi shunday, – dedi javoban Monte-Kristo hech bir rassom tasvir eta olmaydigan va hech bir fizionomist bayon qilib berolmaydigan ajoyib tabassum bilan.

– Sizni toliqtirib qo'yarmikanman deb hayiqib turibman, – dedi general mehmonning muomalalariga maf-tun bo'lib, – bo'lmasa sizni Palataga olib borardim, bugungi majlis bizning hozirgi zamon senatorlarimiz bilan tanish bo'lmagan kishi uchun juda qiziqarli.

– Agar, bu taklifingizni keyingi safarga qoldirsangiz be-nihoya minnatdor bo'lur edim, bugun esa grafinya bilan tanishmoq niyatimga yetarman degan umiddaman, ku-taman.

– Ana, onajonimiz chiqdilar! – dedi xitob qilib vikont.

Monte-Kristo darhol o'girildi-da, mehmonxona ostona-sida rangpar de Morser xonimni ko'rdi, u eri chiqqan eshikka qarama-qarshi eshik oldida nechundir oltin suvi yuritilgan chaspakka qo'li bilan suyanib turardi. Monte-Kristo o'girilib qaraganda, u qo'lini bo'shatib oldi. U os-tonada bir lahza to'xtab, mehmonning oxirgi so'zlarini eshitib olgan edi.

Mehmon o'rnidan turdi-da, grafinyaga egilib ta'zim qildi, grafinya ham takalluf bilan salom berdi.

– Sizga nima bo'ldi, grafinya, – so'radi graf de Morser.
– Tobingiz qochdimi? Yoki bu yer juda issiqdir?

– Onajon, mazangiz yo'qmi? – dedi vikont Mercedes iqboliga tashlanib.

Beka ularga tabassum-la minnatdorlik izhor etdi.

– Yo'q, – dedi u, – grafni ko'rib yuragim o'ynab ketdi, nega desangiz, axir bu zoti sharif yordam qilmaganda biz hozir qayg'u-alamda yonib, motam qilib o'tirardik-da Graf, – dedi u viqor bilan Monte-Kristoga yaqin kelib, – o'g'lim-ni o'limdan saqlab qolganingiz uchun men sizdan ming karra minnatdorman, tashakkurimni bildirishga muayassar bo'lganim uchun baxtiyorman.

Graf ilgarigidan yanada pastroq egilib ta'zim qildi, uning rangi Mercedesnikidan ham battarroq bo'zarib ket-gan edi.

– Siz menga ortiq darajada muruvvat izhor etyapsiz, grafinya, – dedi o'ta muloyimlik va ehtirom bilan Monte-Kristo. – Men hayratga soladigan ish qilganim yo'q. Inson bolasini falokatdan xalos etish, otani dard-alamidan, onani qon-qora qaqshashdan qutqarish olijanoblik emas, bu insonning burchi.

– Siz kabi do'st orttirib, o'g'lim nihoyat katta baxtga ega bo'libdi, – dedi beka de Morser chuqur mehr tuyg'u-lari bilan. – Bu himmati uchun Xudoga ming qatla shukr.

Mercedes shunday dedi-yu, tashakkurga to'la go'zal ko'zlari bilan osmonga tikildi, hatto bekaning ko'zlarida yosh paydo bo'lgandek tuyuldi grafga.

Janob de Morser grafinya oldiga borib:

– Men, – dedi, – grafni qoldirib ketishga majbur ekanimni aytib, uzr soʻradim. Siz ham men uchun undan uzr soʻraysiz deb umid qilaman. Palata majlisi soat ikkida ochilishi kerak edi, soat uch boʻldi, men soʻzga chiqishim zarur.

– Boravering, men mehmonni zeriktirib qoʻymaslikka harakat qilaman, – dedi grafinya yana Monte-Kristoga murojaat qilib, – shu bugun butunlayin biz bilan birga boʻlsangiz boshimiz osmonga yetgan boʻlur edi.

– Grafinya, ishoning menga, sizdan juda minnatdorman. Biroq yoʻldan toʻgʻri kelib ostonangizda izvoshdan tushdim. Hali Parijda meni qaerga joylashtirganlaridan bexabarman, bu qiyin ish boʻlmasa-da, bir oz tashvishlanib turibman.

– Boshqa bir kuni mehmonimiz boʻlishga vaʼda berasizmi? – soʻradi grafinya.

Monte-Kristo un chiqarmay taʼzim etdi, bu rozilik bergani edi.

– Shunday ekan, men sizni mahtal qilmayman, – dedi grafinya, – minnatdorligimni odobsizlikka va injiqlikka yoʻyishlarini istamayman.

– Aziz graf, – dedi Alber, – agar ruxsat etsangiz, men Rimdagi himmatingizni Parijda qaytarayin-da, izvoshimni, to bu yerdan izvosh topguningizcha, ixtiyoringizga berib qoʻyay.

– Tashakkurimni qabul qiling, vikont, – dedi Monte-Kristo, – ammo aminmanki, Bertuchcho oʻtgan toʻrt yarim soat vaqtini behuda oʻtkazmagan boʻlsa kerak, oʻylaymanki, ostonangizda meni qandaydir izvosh kutib turgandir.

Alber grafning qiliqlariga koʻnikib qolgan, u xuddi Ne-ron singari iloji yoʻq narsalarni bor qilishga oʻch ekanini yaxshi biladi, shuning uchun hech narsaga taajjublanmadi, faqat grafning buyruqlari qanday bajarilganini shaxsan bilib olmoqchi edi. Alber grafni eshikkacha kuzatib qoʻydi.

Monte-Kristoning gapi toʻgʻri chiqdi: u graf de Morserning dahlizida koʻrinish berishi bilanoq, qarol – Rimda

Alber bilan Fransga tashrif kartochna olib kirgan o'sha qarol otilib chiqib ketdi. Mashhur sayohatchi ostonaga chiqqanda rostdanam uni izvosh kutib turgan edi. Bu Keller yasagan ikki o'rinli qo'sh otli izvosh edi. Bu otlar Parijning hamma manman degan zotlariga ayon – kecha Drey o'n sakkiz ming frankka sotmagan otlar edi.

Graf Alberga murojaat qilib:

– Vikont, – dedi, – sizni men hozir o'zimmnikiga taklif qilolmayman, chunki hali u yerda shoshilib hamma zarur narsalarni taxt qilganlaricha yo'q: siz vaqtincha turadigan joyimni ham juda qulay qilib olishga moyil odam ekanimni bilasiz. Bir kun muddat bering, shundan so'ng sizni taklif etishga ruxsatingizni so'rayman. Ana o'shanda mehmondo'stlik qonunlariga xilof ish qilmagan bo'laman.

– Graf, bir kun muddat so'rayapsiz, aminmanki, shu bir kun ichida menga uy emas, butun bir saroy ko'rsata olishingizga imonim komil. Qandaydir oliyhimmat avliyo sizga madad berib tursa kerak-da.

– Mayli, shunday deb faraz qilaversinlar, – javob qildi Monte-Kristo ajoyib izvoshining baxmal yozilgan zinasiga qadam qo'yib, – bu jononlar oldida mening bahomni yana oshirib yuboradi.

Graf izvoshga o'tirdi, eshikchalar yopildi, otlar yugurib ketdi, biroq shunda ham graf beka Morser yakka qolgan mehmonxona derazasining pardasi salgina titrab ketganini ko'rib qoldi.

Alber qaytganda onasi o'z xonasida chuqur baxmal kursida o'tirgandi, xona nim qorong'i, faqat onda-sonda vazalar va burchaklarda zarhal romlar yiltillab turardi.

Alber grafinyaning harir ro'mol to'sib turgan yuzini ko'rolmadi, biroq unga onasining ovozi titrayotgandek tuyuldi. Atirgullar va binafshagullar hidiga hidlaydigan tuz dorining hidi aralashib ketgan edi, chindan ham grafi-nyaning flakoni shagren g'ilofdan olinib, pech ustidagi vazalardan biriga qo'yilgan edi.

– Tobingiz qochdimi? – dedi u onasi yoniga borib. – Men kelguncha behud bo'libsiz-da?

– Aslo unday emas, Alber, kunlar isib ketishi bilan mana bu gullarning hidi kuchayib, havoni og'irlashtiradi...

– Unday bo'lsa bu gullarni chiqarib tashlash kerak, – dedi Alber qo'ng'iroq ipini tortib. – Chindan ham tobin-giz qochibdi, mehmonxonaga kirgandayoq rangingizda qon qolmagan, oppoq edi.

– Judayam-a.

– Sizga bu yarashadi, biroq otam bilan ikkimiz qo'rqib ketdik sizni ko'rib.

– Otang senga shunday dedimi? – shoshilib so'radi Mercedes.

– Menga emas, o'zingizga aytgan edi, esingizdami?

– Esimda yo'q, – dedi grafinya.

Qarol kirdi.

– Gullarni dahlizga olib chiqib qo'ying, ular grafinya-ning ko'nglini behuzur qilyapti.

Qarol gullarni olib chiqib ketguncha sukunat davom etdi.

– Monte-Kristo degani qanaqa nom o'zi, joyning nomi-mi, yo unvonmi?

– Menimcha, unvon bo'lsa kerak. Graf Toskan tizma orollaridan bir orolni sotib olibdi, ertalabki so'zlariga qaraganda, komandorlik ta'sis etibdi. Bu Florensiyadagi muqaddas Stefan, Parmdagi muqaddas Georgiy, hatto Mal-tadagi krest ordenlari o'rnida joriy qilingan. U dvoryanligi bilan maqtanmaydi, o'zini tasodifiy graf deb ataydi, biroq bu zot juda mashhur to'ralardan ekanini butun Rim e'tirof etadi.

– Uning qiliqlari juda ajib ekan, – dedi grafinya, – u kishi bilan birga o'tkazgan o'sha bir necha daqiqa negadir shunday ko'rindi menga.

– O, uning xulq-atvorida jindek ham nuqson topolmay-siz, Evropada uchta eng g'ururli dvoryanlik – ingliz, ispan va nemis dvoryanlarining yuqori tabaqa zodagonlari orasida men ko'rgan olijanob zotlarning hammasidan ham o'tib ketadi bu kishining go'zal odatlari.

Grafinya o'yga botdi, so'ng bir oz ikkilanib, so'zini da-

vom ettirdi:

– Qadrdonim, men sendan... onang sifatida bir narsani so'ramoqchiman... sen graf Monte-Kristoning uyida ko'rgansan, zehning o'tkir, odamlar gurunglarida ko'p bo'lasan, yoshligingga qaramay muomalada odobli, nazokatli, xo'sh ayt-chi, bu graf haqiqatan ham biz faraz qilgan odammikin?

– Biz kim deb faraz qildik uni?

– Dongdor, mashhur to'ralardan, deb o'zing aytdingku.

– Hamma shunday deydi uni.

– O'zing-chi? O'zing qanday fikrdasan?

– Ochig'ini aytsam, hali uning haqida biror muqarrar fikrga kelganim yo'q, menimcha, u maltalik bo'lsa kerak.

– Men uning qaerda tug'ilganini emas, o'zi qanday odam ekanini so'rayapman.

– Bu boshqa gap, men uning juda ko'p g'alati, favqu-lodda ishlarini ko'rdim, uni Bayron asarlaridagi baxtsizlik hayotida chuqur iz qoldirgan qahramonlarga – allaqanday Manfredga, yoki Laraga, yo Verneriga o'xshataman, otasidan qolgan boy merosdan mahrum etilgan biror qadimiy avlodning so'nggi qoldiq vakili, ammo so'ngra tadbirkorlikda oqillik qilib yana boylik orttirgan va bu boylik uni jamiyat qonunlaridan yuqoriga ko'tarib qo'ygan zot bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

– Sen demoqchisanki...

– Men demoqchimanki, Monte-Kristo O'rta dengizda inson zoti istiqomat qilmaydigan, garnizonsiz bir orol, bu orol barcha millatlardan chiqqan kontrabandistlarning va butun jahondan keladigan dengiz qaroqchilarining qochib yashirinib yuradigan joyi. Kim bilsin, bu olg'ir kor-chalonlar xo'jayinlarining mehmondo'stligiga haq to'rlarlar.

– Ehtimol shundaydir, – dedi grafinya xayolchan.

– Graf kontrabandistmi yoki yo'qmi, bilmadim, – davom etdi Alber, – ammo u juda ajoyib zot. Aminmanki, siz ham mening bu fikrimga qo'shilasiz, chunki o'zingiz

ham ko'rdingiz uni. Parij mehmonxonalarida u zo'r nufuz qozonishiga aslo shubham yo'q. Shu bugun ertalaboq menikiga to'planganlarning hammasini, hatto Shato-Renoni ham hayratda qoldirdi.

– Yoshi nechaga borgan ekan uning? – so'radi Mercedes bu savolga zo'r e'tibor berayotganday bo'lib.

– O'ttiz besh-o'ttiz olti yoshda bo'lsa kerak.

– Juda yosh ekan-da! Bunday emasdir! – dedi Mercedes bir yo'la Alberning so'ziga ham, o'zining fikriga ham javob berib.

– Haqiqatan yoshi shundan oshgan emas. U bir necha marta menga atayin shunday dedi: «U vaqtda besh yoshda edim, unda o'nga borgandim, o'shanda o'n ikkiga kirgandim». Men qiziqsinib sanalarni taqqoslab ko'rdim, har gal raqamlar bir-biriga to'g'ri chiqdi. Yoshini belgilash qiyin, bu ajib zot rostdan ham o'ttiz besh yoshga kirgan bo'lsa kerak. Buning ustiga uning yonib turgan ko'zlarini va qopqora sochlarini o'zingiz ham ko'rdingiz. U rangpar, biroq peshanasida bitta ham ajin yo'q, u baquvvat bo'libgina qolmay, yosh ham.

Grafinya go'yo qayg'u-hasratga to'la o'ylar og'irlik qilgandek, boshini quyi soldi.

– Bu odam senga ham juda do'stona munosabatda bo'lyaptimi, Alber, – so'radi hayajonlanib Mercedes.

– Menimcha, shunday.

– Sen-chi... Sen ham unga mehr qo'ydingmi?

– Uni Frans d'Epine, narigi dunyodan kelib chiqqan iblis, deb rosa ishontirmoqchi bo'lsa-da, graf menga juda yoqib qoldi.

Shu payt grafinya seskanib ketdi.

– Alber, – dedi grafinya o'zgarib ketgan ovozi bilan, – men hamisha senga yangi tanishlar orttirishda ehtiyot bo'lgin deb maslahat berardim. Endi katta bo'lib qolding, menga maslahat berishing mumkin, biroq takror aytaman: ehtiyot bo'l.

– Onajon, maslahatingiz foydali bo'lishi uchun, har holda, men nimadan ehtiyot bo'lishim kerakligini bilsam

yaxshi bo'lar edi. Graf qarta o'ynamaydi, faqat ispan vinosi tomizilgan suv ichadi, ko'rinib turibdiki, juda boy odam, bordi-yu u mendan qarz so'ragudek bo'lsa, basharasiga qarab qah-qah urib kulib yuborardim. Xo'sh, nimasidan qo'rqishim kerak men uning?

– Gaping to'g'ri, – javob qildi grafinya, – men behudaga vahima qilyapman, axir u seni o'limdan qutqarib qoldiku. Aytmoqchi, Alber, otang uni yaxshilab kutib oldimi? Biz grafga juda zo'r izzat-hurmat bilan qarashimiz lozim. Otang ko'pincha band bo'ladi, butun fikr-xayoli ishda, shu sababdan u beixtiyor qo'pollik qilib qo'yishi mumkin...

– U nihoyatda zo'r hurmat ko'rsatdi grafga, grafning unga nisbatan aytgan maqtovlari juda yoqib ketdi, – dedi Alber, – oqibat-natijada ikkalasi juda inoq bo'lib do'st bo'lib xayrlashdi. Otam hatto mening nutqimni eshitsin, deb grafni Palata majlisiga olib bormoqchi bo'ldi.

O'g'lining bu gaplariga grafinya hech nima demadi, u juda chuqur o'yga botib ko'zlarini yumib olgan edi. Alber yosh va go'zal onasiga o'g'illik mehriga to'la ko'zlarini tikib olgan edi, onasining ko'zlarini yumib, tekis nafas olayotganini ko'rib, uxlab qoldi, shekilli deb o'yladi-da, oyoq uchida yurib chiqib ketdi.

– U odam emas, – shivirladi Alber boshini chayqab, – Rimdayoq bu zot jamiyatda hammani hayajonga soladi, deb o'ylagandim. Mana endi bexato termometr uning ta'sir darajasi qanchaligini ko'rsatayotir. Onam unga shunchalik e'tibor berdimi, demak, u shubhasiz ajoyib zot.

Alber otxonasiga yo'l oldi, graf jimjilog'ini ham qimir-latmay shunday izvoshga ega bo'lib oldiki, bu sohaning bilag'onlarining ko'zi oldida Alberning jiyronlari ikkinchi o'ringa surilib qoldi.

– Rost, odamlar orasida tenglik yo'q, – dedi u, – bu fikrni oliy Palatada rivojlantirishni otamdan iltimos qil-mog'im kerak.

IV. JANOB BERTUCHCHO

Bu orada graf uyga yetib keldi, faqat olti daqiqa yo'l yurishdi. Shu olti qisqa vaqt bu izvoshni sotib olishga qurbi yetmagan yigitlardan yigirmaga yaqinining ko'zini o'ynatishga kifoya qildi. Yigitlar har otga shartta o'n ming frankdan naqd to'lagan bu ajoyib to'raning diydoriga bir ko'z qirini tashlash niyatida otlarini choptirdilar.

Monte-Kristoning shaharda turishi uchun Ali tanlab topgan uy tepa tomondan borganda Elisey maydonining o'ng tomonida, hovli bilan bog' o'rtasiga joylashgan edi. Hovlining o'rtasida ko'kka bo'y cho'zgan bir to'p daraxt pesh-toqni to'sib qo'ygan. Ana shu daraxtlarning o'ng va so'l tomonida ikki xiyobon uzanib yotibdi, izvoshlar darvozaga kirib ana shu ikki xiyobon orqali to'g'ri qo'sh zinaga kelib to'xtardi. Ikkala zinaning burchaklarida gullarga liq to'la chinni vazalar o'rnatilgan. Uy keng maydon o'rtasida qad ko'targan. Undan Ponte ko'chasiga chiqadigan eshik ham bor.

Izvoshchi darvozabonni chaqirib ulgurmasdanoq og'ir eshiklar qanot yozib ochilib ketdi. Grafni uzoqdan ko'rib turishgan edi. Parijda ham Rimdagi kabi (umuman hamma yerda ham) grafga nihoyatda zo'r chaqqonlik bilan xizmat qilishardi, xullas, izvoshchi otlarning jilovini tortmay hovliga kirib izvoshni zinaga taqab bordi-da, shartta burib to'xtatdi, darvoza allaqachon bekilgan edi. Izvosh zina-ning chap tomonida to'xtagan edi, uning eshiklari oldi-da ikki odam paydo bo'ldi: bulardan biri Ali edi, u xo'jayinini chin yurakdan quvonib qarshi oldi, Monte-Kristo esa unga ko'z qirini tashlab qo'ya qoldi. Ikkinchisi hurmat bilan ta'zim qildi-da, go'yo izvoshdan tushishga yordam qilmoqchi bo'lib, qo'lini uzatdi.

– Rahmat, sizga Bertuchcho, – dedi graf zinadan irg'ib tushib. – Notarius qani?

– Kichik mehmonxonada kutib turibdi, janobi oliylari, – javob qildi Bertuchcho.

– Tashrif qog'ozlar-chi? Uy raqamini biliboq buyurtiri-

shingiz kerak edi-ku?

– Janobi oliylari, tashrif qog‘ozlar tayyor, men Pale-Royal­dagi eng mohir naqqoshnikiga bordim, u tashrif qog‘ozlarni mening oldimda yasab berdi, birinchi tashrif qog‘ozni buyrug‘ingizga binoan, darhol Shosse d’Anten ko‘chasidagi yettinchi raqamli uyda yashovchi deputat, baron Danglar janoblariga yetkazib berildi. Qolganlari janobi oliylarining yotoqxonasidagi pech ustida turibdi.

– Yaxshi. Soat necha?

– To‘rt.

Monte-Kristo qo‘lqopini, shlyapasini va hassasini boya graf de Morserning dahlizidan izvoshni chaqirish uchun otilib chiqib ketgan qarolga uzatdi-da, Bertuchcho ketidan kichik mehmonxonaga yo‘l oldi.

– Bu dahlizdagi haykallar judayam rasvo ekan-da, – dedi Monte-Kristo. – Bularni gumdon etishsin bu yerdan.

Bertuchcho un chiqarmay ta‘zim qildi.

Ish boshqaruvchi aytganidek, notarius kichik mehmonxonada kutib o‘tirgandi.

Ust boshi bashang bu kishi shaharlik idora xizmatchisiga o‘xshar, shahar chekkasida notarius lavozimidek soz o‘ringa ko‘tarilib olgan edi.

– Shahar tashqarisidan men sotib olmoqchi bo‘lgan uy to‘g‘risida muzokara yuritish sizga topshirilganmi?

– Shunday, janob graf, – javob berdi notarius.

– Sotish hujjati tayyormi?

– Tayyor, janob graf.

– Sizdami?

– Mana.

– Juda soz. Men sotib oladigan uy qaerda? – so‘radi beparvolik bilan Monte-Kristo. U bu so‘zni Bertuchchoga aytdimi, notariusgami – bilib bo‘lmadi.

Ish boshqaruvchi imo bilan, bilmayman, dedi. Notarius esa hang-mang bo‘lib Monte-Kristoga qaradi.

– Iya, qanday bo‘ldi? – dedi u, – sotib olayotgan uy qaerdaligini janob grafning o‘zlari bilmaydilarmi?

– To‘g‘risini aytсам, bilmayman, – javob berdi graf.

- Graf uni koʻrgani yoʻqmi?
- Qanday qilib koʻrishim mumkin? Kadiksdan shu bugun ertalab keldim, Parijda ilgari hech boʻlmaganman, umuman Fransiyaga birinchi kelishim.
- Shunday deng, – dedi notarius. – Graf sotib olmoqchi boʻlgan uy Oteylda.
- Bu soʻzni eshitib Bertuchchoning rangi oʻchib ketdi.
- Oteyl deganingiz qaerda oʻzi? – soʻradi graf.
- Bu yerdan sal narida, graf, – javob qildi notarius. – Passining shundaygina orqasida. Bulon oʻrmonining oʻrtasida, juda goʻzal joy.
- Juda yaqin ekan-da? – dedi Monte-Kristo. – Buni shahardan tashqaridagi uy deb boʻladimi? Bertuchcho, siz nega menga zastavaning yonginasidan uy tanladingiz?
- Men? – dedi Bertuchcho xitob-la shoshilib. – Kechirsinlar meni! Janobi oliylari, shahar tashqarisidan uy topishni menga topshirganlari yoʻq, janobi oliylari kimga topshirganlarini esga olsalar yaxshi boʻlur edi.
- Ha, toʻgʻri, endi esimga tushdi, – dedi Monte-Kristo, – gazetada eʻlon oʻqigandim, «Shahar tashqarisidagi uy» degan yolgʻon soʻzga uchibman-da.
- Hali vaqt bor, – dedi soʻzni ilib olib Bertuchcho, – janobi oliylari istak bildirsalar menga topshirsinlar, men boshqa yerdan Angendanmi, Fontene-Rozdami yoki Belvyudanmi, soz uy topaman.
- Boʻlgancha boʻldi, hechqisi yoʻq, – dedi eʻtiroz bildirib Monte-Kristo, – shu uy tanlangan ekan, boʻpti, olave-ramiz.
- Janobi oliylari juda haq gapni aytdilar, – dedi soʻz qotib xizmat haqidan quruq qolishidan qoʻrqib turgan notarius, – bu juda ajoyib hovli, ichidan oʻtadigan ariqdan hamisha suv oqib turadi, qalin oʻrmon ichida, koʻpdan tashlandiq boʻlib yotgan boʻlsa-da, juda qulay – shinam xonalar, eski boʻlsayam qimmatbaho mulk, eski buyumlar urfga aylanib, tansiq boʻlib qolgan bizning zamonamizda bunaqa uylarning narx-navosi juda oshib ketdi. Kechiring meni, chamamda janobi oliylari ham za-

monamiz didiga moyil bo'lsalar kerak.

– Tortinmay gapiravering, – dedi Monte-Kristo, – demak, sizningcha, bu durust uymi?

– Graf, durustgina emas, juda soz, shinam uy.

– Unday bo'lsa, uni qo'ldan chiqarmaslik kerak, – dedi Monte-Kristo, – janob notarius, qani vasiqani bu yoqqa keltiring.

Graf shunday dedi-da, darrov qog'ozga qo'l qo'ydi, uy turgan joyning nomi va uy egasining familiyalariga bir nazar tashlab qo'ydi.

– Bertuchcho, – dedi u, – janob notariusga ellik besh ming frank keltirib bering.

Ish boshqaruvchi asta qadam tashlab chiqdi-da, bir bog'lam qog'oz pul olib kirdi, o'zining gonorari ham shu summaga qo'shilganini bilgan notarius pullarni bitta-bit-talab sanab chiqdi.

– Endi hamma rasmiy ishlarimiz tugadimi? – so'radi graf.

– Hammasini tugatdik, janob graf.

– Kalitlar sizdami?

– Kalitlar uyni qo'riqlab turgan darvozabonda, mana bu buyruqqa binoan u sizni uyingizga olib kiradi.

– Juda soz.

So'ng Monte-Kristo notariusga: «Mening sizda boshqa ishim yo'q, ketaverishingiz mumkin», degandek boshi bilan imo qildi.

– Ammo, menimcha, – dedi jur'at etib vijdonli notarius, – janob graf adashdilar, menga, hamma xarajatlarni qo'shganda ellik ming bersangiz kifoya.

– Xizmat haqingiz-chi?

– Mana shu summaga kiradi, janob graf.

– Siz bu yerga Oteyldan keldingizmi?

– Xuddi shunday.

– Ko'p tashvish chekdingiz, uning haqini ham to'lash kerak-da, – dedi graf.

Shunday dedi-da, qo'li bilan imo qilib, notariusga javob berdi.

Notarius esa ikki bukilib orqasi bilan chiqib ketdi. Notariuslar ro'yxatiga tirkalganidan beri u birinchi marta bunday zotni ko'rishni edi.

– Janob notariusni kuzatib qo'ying, – dedi graf ish boshqaruvchiga.

Bertuchcho tashqariga chiqdi.

Bir o'zi qolgan graf cho'ntagidan qulflanadigan karmonini olib, kalit bilan ochdi (bu kalitni u hech tashlamay bo'yniga osib yurardi).

Karmonni titkilab, allaqanday xatlar yozilgan varaqni olib, stol ustidagi uy hujjatiga solishtirib ko'rdi.

– Oteyl, Fonten ko'chasi, yigirma sakkizinchi raqam, xuddi o'zi, – dedi u. – Endi bir savol tug'ildi: din ta'siri ostida Xudodan yoki o'limdan qo'rqib aytilgan so'zlarga qanchalik ishonsa bo'larkan? Ha, sabr qilaylik, bir soat o'tar-o'tmay hammasini bilib olaman.

– Bertuchcho! – qichqirdi u qo'ng'iroqni kichkina to'qmoqcha bilan urib. – Bertuchcho!

Ostonada Bertuchcho paydo bo'ldi.

– Janob Bertuchcho, – dedi graf, – siz menga bir vaqtlar Fransiyada bo'lganman, degan edingizmi?

– To'g'ri, janobi oliylari, ba'zi joylarda bo'lganman.

– Parijning atrof joylarini ham bilsangiz kerak?

– Yo'q, bilmayman, janobi oliylari, bilmayman, – javob qildi ish boshqaruvchi asabiylashib. Bunday narsalarga juda ziyrak Monte-Kristo bu – ichki hayajonning belgisi ekanini sezdi.

– Afsuski, Parijning atrof joylarini ko'rmagan ekansiz, – dedi graf, – men shu bugun kechqurunoq yangi uyimni ko'rib chiqmoqchiman, siz kuzatib borib menga ko'p narsalarni ko'rsatib berardingiz.

– Oteylga! – dedi Bertuchcho, uning qorachadan kelgan yuzi bo'zarib ketgan edi. – Men Oteylga boramanmi?!

– Oteylga borsangiz boribsiz-da, unda ajablanadigan biror narsa bormi o'zi, ayting-chi? Men Oteylda yashar ekanman, siz ham borib turishingiz kerak-ku axir!

Monte-Kristo unga ko'zlarini o'qday tikib oldi, Bertuchcho esa g'iq emay turardi.

– Bu nimasi? Bir gap bo'ldimi sizga? Ikki marta qo'ng'iroq chalib, menga izvosh chaqirishlarini buyurarsiz? – dedi Monte-Kristo Lyudovik XIV mashhur «Naq bo'lmasa kutib qolardim» iborasini izhor etgan ohangda.

Bertuchcho mehmonxonadan otilib dahlizga chiqqida:

– Janobi oliylariga izvosh keltirilsin! – dedi.

Monte-Kristo bir necha xat yozdi, oxirgi xatni konvertga solib yopishtirayotganda eshik oldida ish boshqaruvchi paydo bo'ldi.

– Janobi oliylarining izvoshi zina oldida kutib turibdi, – dedi u.

– Yaxshi! Shlyapa va qo'lqopni oling, – dedi Monte-Kristo.

– Janobi oliy, men ham siz bilan boramanmi? – dedi Bertuchcho xitob qilib.

– Albatta, o'sha yerda men turadigan bo'lsam, siz ba'zi bir farmoyishlarni berishingiz kerak-da.

Shu paytgacha grafning so'zini hech kim qaytarmagan, shu sababli ish boshqaruvchi itoat etib uning izidan bordi. Graf izvoshga o'tirdi-da, imo bilan Bertuchchoni o'tirishga taklif qildi.

Ish boshqaruvchi odob bilan oldingi o'rindiqqa cho'kdi.

V. OTEYLDAGI UY

Bertuchcho zinadan tushayotib boshmaldog'ini baland ko'tarib korsikachasiga cho'qindi, izvoshga o'tirayotganida shivirlab qisqa duo ham o'qib oldi. Buni Monte-Kristo ko'rib turgan edi. Hurmatli ish boshqaruvchi grafning shahar tashqarisiga qilayotgan bu sayohatidan nechundir ijirg'anayotganini, vahimaga tushayotganini, sinchkov bo'lmagan boshqa bir odam ko'rsa rahmi kelib uni qoldi-

rardi. Ammo Monte-Kristo juda qiziquvchan odam, shuning uchun Bertuchchoni bu sayohatdan ozod etmadi.

Yigirma daqiqa ichida Oteylga yetib borishdi. Ish boshqaruvchining vahimasi tobora zo'rayib boraverdi. Qishloqqa kirganda Bertuchcho izvoshning burchagiga suqilib oldi va titroq bosib uylardan ko'zini uzmad.

– Fonten ko'chasidagi yigirma sakkizinchi raqamli uy oldida to'xtasin, ayting, – buyruq berdi graf ish boshqaruvchidan ko'zini uzmay.

Bertuchchodan qora ter chiqib ketdi, biroq u itoat etib izvoshdan boshini chiqardi-da, izvoshchiga qichqirdi.

– Fonten ko'chasi, yigirma sakkizinchi raqam.

Bu uy qishloqning eng chekkasida edi. Ular yetib bor-guncha qorong'i tushib, osmonni qop-qora bulut qoplab olgan edi.

Izvosh to'xtadi, qarol irg'ib tushib izvosh eshigini ochdi.

– Xo'sh, Bertuchcho, nega tushmayapsiz? Yoki izvoshda qolmoqchimisiz? Sizga bugun bir gap bo'ldimi?

Bertuchcho izvoshdan tushdi-da, grafga yelkasini tutdi, graf uning yelkasiga suyanib asta-sekin pastga tushdi.

– Taqillating eshikni, – dedi graf, – mening kelganimni ayting.

Bertuchcho taqillatdi, eshik ochildi va darvozabon chiqdi.

– Nima kerak? – so'radi u.

– Yangi xo'jayiningiz keldi, – dedi qarol.

Shunday dedi-yu, darvozabonga notarius bergan guvohnomani ko'rsatdi.

– Uy sotildimi? – so'radi u. – Bu janob shu uyda yashaydimi?

– Xuddi shunday, do'stim, – javob qildi graf, – men ilgari xo'jayiningizga achinmasligingiz uchun harakat qilaman.

– Janoblariga ochig'ini aytsam, unga achinishga asosim yo'q, – chunki biz uni hech ko'rmadik desak ham bo'ladi. Besh yildirki, u bu yerga qadam bosgani yo'q,

sotib juda to'g'ri qilibdi, chunki bu uy unga bir tiyin ham foyda keltirmasdi.

– Xo'jayiningizni nomlari nima edi? – so'radi Monte-Kristo.

– Markiz de Sen-Meran. Aminmanki, uyni u o'zi olgan narxga sotmagandir.

– Markiz de Sen-Meran, – takrorladi Monte-Kristo. – Bu nom tanishga o'xshaydi. Markiz de Sen-Meran...

Graf go'yo esga olayotgandek o'yga botdi.

– Eski dvoryan, – davom etdi darvozabon, – Burbonlarning sodiq xizmatkori. Uning bitta-yu bitta qizi bor edi, uni janob Vilforqa berdi. Bu kishi dastlab Nimda, so'ng Versalda qirollik prokurori bo'lib ishladi.

Monte-Kristo Bertuchchoga qaradi: ish boshqaruvchining rangi quv o'chgan, zo'rg'a devorga suyanib turardi.

– Qizi vafot etdi, shekilli? – dedi Monte-Kristo. – Men shunday deb eshitgandim.

– Shunday, janob, bunga yigirma bir yil bo'ldi, lekin shu vaqt ichida sho'rlik markizni aqalli uch marta ham ko'rganimiz yo'q.

– Rahmat sizga, – dedi Monte-Kristo, u madori qurib borayotgan Bertuchchoni ko'rib: «Gapni cho'zsam falokat yuz berishi mumkin», deb suhbatni bas qildi. – Rahmat sizga. Endi chiroq bering bizga.

– Kuzatib borishni buyurarsiz?

– Yo'q, zarurati yo'q. Bertuchcho chiroqni tutib boradi.

Monte-Kristo shunday dedi-da, ikki tilla chiqarib unga uzatdi, darvozabon graf haqiga duo o'qib, ming-ming rahmatlar aytdi.

– Janob, – dedi hamma yoqni titib-tintib darvozabon, – birortayam sham topolmayapman.

– Bertuchcho, izvoshdan fonusni olib keling, xonalarni ko'rib chiqaylik, – dedi graf.

Ish boshqaruvchi g'iq etmay chiqib fonus keltirdi, biroq fonusning titrab turishidan bu vazifani ado etish uning uchun naqadar mashaqqatli bo'lganini sezish mumkin

edi.

Ular keng pastki qavatni aylanib chiqishdi, so'ng ikkinchi qavatga ko'tarilishdi. Ikkinchi qavat mehmonxonana, vanna va ikki yotoqxonadan iborat edi. Bu xonalardan biriga boqqa olib chiqadigan burama zina qurilgan edi.

– Qarang, bu yerda tashqariga chiqadigan alohida yo'l bor ekan, – dedi graf, – bu juda qulay. Bertuchcho, chiroqni bu yoqqa tuting. Oldinga o'ting, bu zina qayoqqa olib borarkin, ko'raylik-chi.

– Boqqa olib chiqadi, janobi oliylari, – dedi Bertuchcho.

– Siz qayoqdan bilasiz buni?

– Boqqa olib chiqsa kerak, demoqchi edim.

– Qani, tekshirib ko'raylik-chi.

Bertuchcho og'ir nafas oldi-da, olg'a yurdi. Zina Bertuchcho aytganidek to'g'ri boqqa olib chiqardi.

Ish boshqaruvchi tashqari eshik oldida to'xtadi.

– Xo'sh, nega to'xtadingiz? – dedi graf.

Dovdirab, quti o'chib ketgan Bertuchcho turgan joyida dong qotib qolgan edi. U ko'zlarining paxtasini chiqarib dahshatli voqealarning izlarini axtarar, titroq bosgan qo'llari esa allaqanday vahimali xotiralarni go'yo uloqtirib tashlardi.

– Xo'sh? – takrorladi graf.

– Yo'q, yo'q, – xitob qildi Bertuchcho va fonusli qo'lini osiltirib devorga suyandi, – yo'q, janobi oliylari, men bundan nariga o'tmayman! O'tmayman! Buning iloji yo'q!

– O'zi nima gap? – dedi qat'iy ohangda Monte-Kristo.

– Janobi oliylari, bu yerda qandaydir baloyi azim borligini o'zingiz fahmlab turibsiz-ku, axir! Parijda joy olishga qaror qilib, uni Oteyldan topdingiz, Oteyldan Fonten ko'chasidagi yigirma sakkizinchi raqamli uyni sotib oldingiz. Eh, bu gaplarni uydayoq aytib qo'ya qolsam bo'lmasmidi sizga! Unda siz meni bu yerga olib kelmasdingiz. Ammo siz sotib olgan uy bu bo'lmasa kerak deb o'ylagan edim. Oteylda bu uydan bo'lak – odam o'ldiril-

gan mana shu xosiyatsiz joydan bo'lak uy qurib qolgan-midi?

– Bu bema'ni gaplarni qayoqdan o'ylab topdingiz? – dedi Monte-Kristo birdan to'xtab. – G'alati odam ekan-ku bu! Haqiqiy korsikalikmish tag'in! Hamisha allaqanday sir va bid'atlarni topib yuradi! Qani, fonusni oling, bog'ni ko'rib chiqamiz. Men bor, hech narsadan qo'rqmasangiz ham bo'ladi.

Bertuchcho fonusni oldi-da, olg'a qadam tashladi. Eshik ochildi, qorong'i osmonda, oy bulutlar dengizi iskanjasidan qutulish uchun zo'r berib kurashmoqda.

Ish boshqaruvchi chapga burilmoqchi bo'ldi.

– Yo'q, yo'q, – dedi Monte-Kristo, – xiyobonda yurib nima qilamiz? Mana ajoyib maysazor bor ekan, to'g'ri shundan boraveraylik.

Bertuchcho yuzidan munchoq-munchoq bo'lib oqayotgan terni artib oldi, so'ng grafning buyrug'iga itoat etdi, shunday bo'lsa-da, chap tomondan bordi.

Monte-Kristo, aksincha, o'ng tomondan bordi-da, bir to'da daraxtlar oldida to'xtadi.

Ish boshqaruvchi ortiq o'zini tutolmadi.

– Janobi oliylari, qoching bu yerdan! Qoching! – xitob qildi u, – qoching, iltimos qilaman, o'sha mash'um joyning xuddi o'zida turibsiz.

– Qanaqa mash'um joy?

– U ag'darilib tushgan joy.

– Azizim Bertuchcho, – dedi graf kulib, – es-hushingizni yig'ib oling, axir bu joy Sarten yoki Kort emas-ku. Bu yer chakalakzor emas, inglizlar bog'i, juda xarob bo'lib qolgan bo'lsa-da, har holda bog'. Shuning uchun buni juda yomonlashga asos yo'q.

– U yerda turmang, janob, iltimos qilaman, qoching u yerdan!

– Aqldan ozganga o'xshaysiz, chamamda, maestro Bertuchcho, – dedi sovuq ohangda graf. – Shunday bo'lsa, ayting, kasalxonaga jo'natay sizni, tag'in biror baxtsizlik yuz bermasin.

– Eh, janobi oliylari, – dedi Bertuchcho boshini silkitib. U o'zini tamoman yo'qotib, qo'llarini siltardi, graf boshqa muhim o'y bilan band bo'lmaganida, Bertuchchoning holiga rosa kulgan bo'lar edi, – baxtsizlik yuz berib bo'ldi...

– Bertuchcho, – dedi graf, – sizni ogohlantirib qo'yishni burchim deb hisoblab, aytamanki, qo'llaringizni siltabgina qolmay, ularni xuddi jin joylashib olgan sirli narsadek joni-jahdingiz bilan burayapsiz va qayiryapsiz, jinlarning eng qaysari – sir ekanini allaqachon bilib olganman. Sizning korsikalik ekaningizni ham, hamisha g'amgin va qandaydir xun qasosi haqida o'yga botib yurganingizni ham bilardim, Italiyada men bunga e'tibor bermadim, chunki bu odat bo'lib qolgan, Fransiyada esa odam o'ldirishni juda xunuk ish hisoblashadi, bu yerda bunday qabih ishlar bilan qiziqadigan jandarm bor, sud qiladigan sudyalalar bor, qasos oladigan jallod kundasi bor.

Bertuchcho qo'llarini qovushtirib, iltijo qildi, qo'lida hamon ushlab turgan fonus yog'dusida uning vahimadan burishib, o'zgarib ketgan yuzlari baralla ko'rinib turardi.

Monte-Kristo Rimda Andreaning qatlini qanday hislar bilan kuzatgan bo'lsa, hozir Bertuchchoni ham xuddi shunday kuzatib turardi. So'ng u shivirlab quyidagi so'zlarni aytganda, sho'rlik ish boshqaruvchini yana titroq bosdi.

– Demak, abbat Buzoni ming sakkiz yuz yigirma to'qqizinchi yili Fransiya bo'ylab sayohatidan so'ng rosa maqtab yozilgan tavsiya bilan sizni huzurimga yuborganda meni aldagan ekan-da? Shunday ekan, abbatga xat yozib yuboraman, u o'z tavsiyanomasi uchun javob bermog'i kerak, o'shanda u bu yerda kim va qanday qilib o'ldirilganini bilib olurman. Ammo, Bertuchcho, shuni bilib qo'yingki, men biror mamlakatga borib yashaganda uning qonun-qoidalariga itoat qilishga odatlanganman, shu sababdan sizning kasringizga Fransiya odil sudi bilan janjallashib o'tirishni istamayman.

– Janobi oliylari, bunday qilmang, – dedi kayfi uchib Bertuchcho. – Axir sizga sidqidildan xizmat qilyapman-ku! Men umr bo‘yi vijdon bilan, halol yashab keldim, odamlarga qo‘limdan kelguncha yaxshilik qildim.

– Bunga e‘tirozim yo‘q mening, – javob qildi graf, – shunday ekan, axir siz necha bunchalik hayajonga tushyapsiz? Bu yaxshilik emas, yomonlik belgisi, vijdoni pok odamning rangi bunaqa bo‘zarib ketmaydi va qo‘llari bunday titramaydi...

– Janobi oliylari, – dedi xavotir-la, e‘tiroz bildirib Bertuchcho, – axir siz menga abbat Buzoni, Bertuchcho og‘ir gunoh qilgan odam, deb aytdi degan edingiz-ku! Nim turmasida unga men tavba-tazarru qilgan edim.

– Ha, to‘g‘ri, shunday degan edi, ammo u sizni juda ajoyib, mohir ish boshqaruvchi, deb tavsiya etgan edi, shuning uchun men, gunohingiz tungi bir o‘g‘rilikdan iborat bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandim.

– Qo‘ying-e, janobi oliylari! – xitob qildi Bertuchcho nafrat bilan.

– Yoki korsikaliklarning odatini qilib, o‘zingizni tutolmay, joyi rastoniga jo‘natdingizmi?

– Xuddi shunday, janobi oliylari, shunday bo‘lgan edi! – qichqirib yubordi Bertuchcho graf oyog‘i ostiga o‘zini tashlab, – bu o‘ch edi, ont ichamanki, shunchaki o‘ch olish edi.

– Men buni tushunib turibman, lekin nega mana shu uy sizni bunday ahvolga solayotganini tushunmayapman.

– Bu tabiiy bir hol, janobi oliylari, – javob qildi Bertuchcho, – chunki hamma voqea mana shu uyda yuz bergan.

– Nima? Mening uyimda-ya?

– U vaqtda bu uy sizniki emasdi, – dedi e‘tiroz bildirib Bertuchcho.

– Kimniki edi? Qorovul bu uy markiz de Sen-Meranniki, degandi shekilli, shundaymi? Axir siz markiz de Sen-Merandan qanday gunohi uchun o‘ch oldingiz?

– Janobi oliylari, men qasdimni undan olganim yo‘q, boshqa kishidan oldim.

– Ajabo, to'g'ri kelganini qarang-a, – dedi Monte-Kristo, aftidan mulohazaga borib, – tavba, sizni uqubatli tavba-tazarruga soladigan voqealar yuz bergan uyga tasodifan kelib qolganingizni qarang-a!

– Janobi oliylari, – dedi ish boshqaruvchi, – bilaman, bu taqdir taqozosi. Gap shundaki, Oteyldan siz sotib olgan uy tasodifan men odam o'ldirgan uy bo'lib chiqdi, siz o'sha zot qadam bosgan zinadan yurib boqqa chiqdingiz, men unga pichoq urgan joyning xuddi o'zida to'xtadingiz, bu yerdan ikki qadam narida chinor tagidagi o'raga u chaqaloqni ko'mgan edi. Yo'q, bularni favqulodda hol deb bo'lmaydi, atayin qilingan ish bu.

– Yaxshi, korsikalik janob, buni atayin qilingan ish deb faraz qilaylik, men nimaiki qulay kelsa uni tabiiy hol deyishga roziman, axir aqli ojizlarga yon berish kerak-ku! Endi es-hushingizni yig'ib olib, hamma voqeani aytib bering.

– Men buni hayotimda faqat bir marta abbat Buzoniga aytib bergandim. Bunday voqealarni faqat tavba-tazarru qilgan kishi aytib berishi mumkin.

– Unday bo'lsa, azizim, – dedi graf, – men sizni o'zingizning o'sha avliyo domlangizga yuboraman, siz unga o'xshab karteziyan yoki bernader bo'lib olasiz va ular bilan yashirin ishlar haqida suhbat qilasiz. Menga kelganda, men uy boshqaruvchidan xavotirlanyapman, kechqururlari bog'da yurishdan qo'rqadigan xizmatchi menga yoqmaydi. Buning ustiga, uyimga polisiyaning tashrif buyurishini istamayman. Janob Bertuchcho, shuni unut-mangki, Italiyada sudyalar bekor, pashsha qo'rib o'tirgani uchun ham pul olishaveradi, Fransiyada buning aksi: faqat ishlasa haq oladi. Men sizni qisman korsikalik, qisman kontrabandist, ammo juda mohir ish boshqaruvchi deb hisoblardim, hozir ko'rib turibmanki, janob Bertuchcho, siz ko'p narsalarga qobiliyatli kishi ekansiz. Endi menga keragingiz yo'q.

– Janobi oliylari, janobi oliylari! – qichqirib yubordi ish boshqaruvchi bu po'pisadan kayfi uchib. – Siz meni faqat shuning uchun ishdan bo'shatmoqchi bo'lsangiz,

men hammasini aytib beraman, hammasiga iqror bo'la-
man. Sizdan ajralgandan ko'ra kallamni jallod kundasiga
qo'yganim yaxshi.

– Mana bu azamatning gapi, – dedi Monte-Kristo, – biroq
ogoh bo'ling, yolg'on to'qiydigan bo'lsangiz, yaxshisi, ga-
pirmay qo'ya qoling.

– Qasamyod qilaman, bo'lgan voqelarning hammasi-
ni oqizmay-tomizmay aytib beraman. Abbat Buzoni ham
sirlarimning faqat bir qismini bilardi. Biroq, avval, chinor-
dan nari turing, iltimos qilaman. Ana oy bulutlarni yorib
chiqdi, siz esa plashga o'ralib shu yerda turibsiz, jussan-
gizni o'rab turgan ana shu plash janob de Vilforning pla-
shiga o'xshaydi...

– Iya, – dedi xitob qilib Monte-Kristo, – u Vilformidi...

– Janobi oliylari uni taniydilarmi?

– U Nimda qirollik prokurori edimi?

– Shunday.

– Markiz de Sen-Meranning qiziga uylanganmidi?

– Shunday.

– Eng odil, eng qattiqqo'l, hech kimni yuzxotir qilmay-
digan sudya deb hisoblanarmidi?

– Janobi oliylari, – dedi Bertuchcho, – benuqson hisob-
lanib kelgan ana shu zot... ablah edi.

– Rostdan-a? Bunga ishonib bo'lmaydi.

– Biroq bu haqiqat.

– Nahotki? – dedi graf, – Bertuchcho, qani hikoya qilib
bering buni menga, chindan ham juda ajoyib voqea ekan.

Graf shunday dedi-da, «Lyuchiya»dan bir kuyni ming'ir-
lab borib o'rindiqqa o'tirdi, Bertuchcho uning ketidan bo-
rar ekan, voqeani to'la esiga keltirishga urindi.

U graf qarshisida tik turardi.

VI. QASOS

– Qani, ayting janobi oliylari, hikoyani nimadan bosh-
layin? – so'radi Bertuchcho.

– Istagan narsangizdan, – dedi Monte-Kristo. – Men bu voqeadan mutlaqo xabarsizman-ku.

– Abbat Buzoni sizga aytib bergan bo'lsa kerak, deb o'ylab yurgandim...

– To'g'ri, ba'zi tafsilotlarni aytgan, biroq o'shandan buyon yetti yoki sakkiz yil o'tib ketdi, hammasini unutib yubordim.

– Demak, sizni zeriktirib qo'ymasam bo'lgani janobi oliylari...

– Hikoya qilavering, Bertuchcho, hikoya qilavering, kechki gazeta o'rnini bosar hikoyangiz.

– Voqea ming sakkiz yuz o'n beshinchi yilda boshlangan edi.

– O'h-ho'! – dedi Monte-Kristo, – demak, juda eski gap ekan-da.

– Shunday, janobi oliylari, lekin voqeaning hamma tafsilotlari xuddi kechagina yuz berganday ko'z oldimda turibdi. Akam bor edi, u imperator armiyasida xizmat qilardi, shu armiyadagi polkda u poruchik unvoniga ko'tarildi, polkovnik butun tarkibi korsikaliklardan iborat edi. Ana shu akam mening yagona mehribonim edi, u o'n sakkizga, men beshga kirganda yetim qoldik. Akam meni boshimni silab tarbiyaladi. Ming sakkiz yuz o'n to'rtinchi yili, Burbonlar davrida u uylandi. Elba orolidan imperator qaytishi bilan akam yana armiyaga ketdi, Vaterlooda yengil yarador bo'lib, armiya bilan birga Lauraga chekindi.

– Siz juda uzoqdan kelyapsiz-ku, Bertuchcho, so'zini bo'ldi graf, – bu voqealar allaqachon hammaga ma'lum.

– Kechiring, janobi oliylari, tafsilotlar hikoyaning kirish qismi uchun albatta zarur, siz sabr-toqat bilan quloq solishga va'da bergan edingiz-ku, axir.

– Bo'pti-bo'pti, gapiravering, va'damning ustidan chiqaman, qulog'im sizda.

– Kunlardan bir kun biz bir xat oldik (biz Kors bo'g'ozining oxiridagi kichkina Rolyano qishlog'ida yashardik). Xat akamdan ekan. U xatida armiyaning tarqatib yuborilganini, o'zi esa Shatora, Klermon-Ferran, Pyux va Nim

orqali qaytib kelayotganini yozgan edi, mendan, iloji bo'lsa Nimdagi tanish qovoqxonachiga bir oz pul yuborishni so'ragan edi, qovoqxonachi bilan aloqam bor edi.

– Kontrabanda bo'yichadir-da, – so'z qotdi Monte-Kristo.

– Janobi oliylari, tirikchilik-da.

– Albatta, qani, davom eting.

– Akamni jonimdan yaxshi ko'rishimni aytgandim. Men unga pulni yubormay o'zim olib borib berishga ahd qildim. Bir ming frankka yaqin aqcham bor edi, undan besh yuzini qallig'im Assuntega qoldirdim-da, qolgan pulni olib Nimga yo'l oldim. Bu qiyin emasdi menga: qayig'im bor edi, dengizda yuk ortib borishim zarur edi, hamma ishlarim o'ngidan kelaverdi. Ammo yukni qabul qilib olganimda shamol o'zgarib, to'rt kun Ronaga chiqolmay o'tirdik, oxiri Ronaga chiqishga muvaffaq bo'ldik-da, undan Arlga bordik. Qayig'imni Belgard bilan Boker o'rtasida qoldirib, o'zim Nimga jo'nadim.

– Asosiy voqeaga yaqinlashdik shekilli, to'g'rimi?

– To'g'ri, janobi oliylari, kechiring meni, men eng zarur joylarini aytib beryapman, buni o'zingiz ham fahmlab turibsiz-ku, o'sha vaqt Fransiyaning janubida qirg'in bo'layotgan edi. U tomonda uchta qaroqchi bor edi, ularning nomlari: Trestalon, Tryufemi va Graffan bo'lib, ular kimni bonapartizm tarafdori deb shubhalansa o'shani ko'chada chavaqlab ketishaverardi. Janobi oliylari buni eshitgan bo'lsalar kerak?

– Uncha-muncha eshitgan edim, u vaqtda men Fransiyadan ancha yiroqda edim.

– Nimda qon kechib yurishga to'g'ri keldi. Har qadamda murda, qotillar to'da-to'da bo'lib sang'ib yurishardi, odamlarni chavaqlab, talab, uylariga o't qo'yishardi. Bu qirg'inni ko'rib meni titroq bosdi, o'zimdanda qo'rqib emas, akamdan qo'rqib, korsikalik baliqchi – men uchun bu qirg'inning hech qo'rqadigan joyi yo'q edi, aksincha biz kontrabandistlar uchun bu oltin davr edi. Akamdan xavotir olganimning sababi shuki, u imperator soldati edi, Luar

armiyasidan harbiy kiyimda va epoletlarda qaytayotgan edi, xullas, katta xavf ostida qolgandi.

Men tanish qovoqxonachinikiga yugurdim. O'ylaganim to'g'ri chiqdi. Akam bir kun oldin Nimga kelib, qo'nmoqchi bo'lgan uyning bo'sag'asida o'ldirilgan ekan.

Men hamma vositalarni ishga solib akamni o'ldirganlarni bilishga harakat qildim, biroq hech kim qo'rqqanidan ularning nomini tilga olmadi. O'shanda hech narsadan qo'rqmaydigan, dovrug'i ketgan qirollik prokurori esimga tushib qoldi-da, uning huzuriga yo'l oldim.

– Qirollik prokurorining nomi Vilfor edimi? – so'radi mensimagansimon Monte-Kristo.

– Shunday, janobi oliylari, u Marseldan kelgan edi, u yerda qirollik prokurorining yordamchisi bo'lib ishlar ekan. O'zini xizmatda ko'rsatib, yuqori ko'tarildi. Napoleonning qirg'oqqa tushganini birinchi bo'lib Burbonlarga xabar etganlardan biri ekan.

– Xo'sh, siz oldiga bordingiz, – Bertuchchoning so'zini kesib Monte-Kristo.

«Janob prokuror, – dedim men unga, – kecha akamni Nim ko'chasida o'ldirishbdi, qotil kim ekan, bilmayman, biroq qotilni topish sizning burchingiz. Bu yerda siz adolat sudi tepasida turibsiz. Bu sud kimni himoya qilolmagan bo'lsa uning uchun qasos olmog'i zarur»

«Akingiz kim edi?» – so'radi qirollik prokurori.

«Korsika batalonining poruchigi».

«Demak, uzurpatorning soldati ekan-da?»

«Fransiya armiyasining soldati».

«Xo'sh nima bo'пти? – e'tiroz bildirdi u. – Birovga qilich ko'tarib qilichdan halok bo'пти».

«Janob, adashdingiz, u xanjardan halok bo'ldi».

«Menda nima talabingiz bor?» – so'radi prokuror.

«Talabimni aytdim-ku: uning uchun siz qasos olishingiz kerak, deb».

«Kimdan?»

«Qotillardan».

«Men ularni qaerdan bilay?»

«Buyruq bering, axtarib topsinlar».

«Nima uchun? Akangiz ehtimol biror kishi bilan «san-manga» borib duelda olishgandir. Bu urishqoq kekxa soldatlar to'polonchi bo'ladi. Imperator davrida ularning bu qiliqlariga uncha e'tibor berishmasdi, endilikda bunga boshqacha qaraladi, chunki bizning janubliklar urishqoqlarni ham, janjalchilarni ham yoqtirmaydilar».

«Janob prokuror, – dedim, – men o'zim haqimda gapirayotganim yo'q. Men qayg'u-alamda kuyib yurarman yoki qasos olarman. Mabodo men ham ana shunday musibatga uchragudek bo'lsam, sho'rlik ayolim ochdan o'ladi, chunki u faqat erining topganiga yashaydi. Unga ozgina bo'lsa-da, nafaqa belgilab bering».

«Hech bir inqilob qurbonsiz bo'lmaydi, – javob qildi Vilfor. – Akangiz keyingi to'ntarishning qurboni bo'пти, albatta bu oila uchun og'ir musibat, ammo buning uchun hukumat oilangizga nafaqa to'lash majburiyatini gardaniga ololmaydi. Agar biz uzurpatorga tarafdor bo'lgan va royalistlardan qasos olganlarning hammasini sud jazosiga tortganimizda, ehtimol sizning akangiz ham o'lim jazosiga hukm qilingan bo'lur edi. Akangizning o'ldirilishi taajjublanadigan voqea emas, bu tabiiy bir hol, qasos qonuni shunday».

«Bu nima deganingiz? – xitob qildim men, – siz odil sud vakili bo'la turib, shunday desangiz, endi dodimizni kimga aytamiz?..»

«Ajabo, bu korsikaliklarning hammasi tentak bo'ladi shekilli, ular hanuz imperatorni vatandoshimiz deb xayol qilishadi, – dedi Vilfor. – Azizim, u vaqtlar o'tib ketdi. Siz men bilan bundan ikki oy oldin bu tariqada gaplashsangiz joiz bo'lur edi. Endi juda kechikib qoldingiz. Qani tuyog'ingizni shiqillating bu yerdan, aks holda, aytaman, olib chiqib tashlaydilar».

Men unga tikilib turdim-da, umidimni uzmay yana iltimos qildim.

Ammo u bag'ritosh edi. Yaqinroq borib:

«Mayli, – dedim sekin, – siz korsikaliklarni yaxshi bilar-

kansiz, demak, ular o'z so'zidan qaytmaydigan odamlar ekanini ham bilib qo'yishingiz kerak. Sizningcha, siz royalist bo'lganingiz, akam bonapartchi bo'lgani uchun uni o'ldirgan qotillar haq ekan-da. Juda soz-ku! Men ham bonapartchiman, ogoh bo'ling, men ham sizni o'ldiraman, shu damdan boshlab men, sizda qasdim bor deb e'lon qilaman, shuning uchun ehtiyot bo'ling, bundan keyin birinchi uchrashuvdayoq dunyodan o'tdim deyavering».

U es-hushini yig'ib olishga ulgurmay men eshikni shartta ochib, chiqib ketdim.

– Shunday deng, Bertuchcho, – dedi Monte-Kristo. – Shunday vijdoni pok odam bo'la turib qirollik prokuroriga shunaqa gaplarni aytishingiz yaxshi emas, albatta! U qasos olish nimaligini fahmlarmikin?

– Juda yaxshi fahmlarkan, chunki shu kundan boshlab, eshigini ichidan qulflab olib, tashqariga mutlaqo chiqmay qo'ydi. Meni axtarib topilsin, deb buyruq berdi. Xayriyatki, men juda ishonchli joyga yashirinib olgandim, topolmadi. Shundan so'ng uni vahima bosdi. Nimda qolishdan qo'rqdi, boshqa joyga ko'chirishlarini iltimos qildi, nufuzli odam bo'lgani sababli Versalga ko'chirishdi. Biroq siz yaxshi bilasizki, dushmandan qasos olishga ont ichgan korsikalikka masofa hech gap emas. U qancha shoshilmasin uzoqqa ketolmadi. Men garchand piyoda bo'lsamda, uning izvoshi mendan yarim kunlik yo'ldan nari ketolmadi.

Uni shunchaki o'ldirmay (buni bajo etish uchun menda juda ko'p imkoniyatlar bo'lgan edi) shunday o'ldirish kerak ediki, toki meni ko'rolmay qolsinlar va tutolmasinlar, axir men endi o'zim haqimda emas, qallig'im haqida, uni boqish haqida o'ylashim kerak edi. Uch oy Vilforni poylab yurdim. Shu uch oy mobaynida u bir zum ham mening nazarimdan chetda bo'lmadi. Axiri uning yashirin ravishda Oteylga kelib turishini eshitdim. Bir gal kuzatib borib mana shu ikkimiz turgan uyga kelganini ko'rdim. Faqat u hamma singari katta darvozadan kirmas ekan. Otda yo izvoshda kelib, otini yoki izvoshini mehmonxo-

nada qoldirarkan-da, huv anavi eshikdan kirarkan. Ko'rdingizmi?

Monte-Kristo, eshikni ko'rib turibman, deb boshini qimirlatib qo'ydi.

– Versalda hech qanaqa ishim qolmagach, Oteylga ko'chib o'tdim-da, ma'lumotlar to'play boshladim. Uni tuzoqqa ilintirish uchun shu yer qulay deb qaror qildim.

Bu o'zingizga ma'lum, Vilfor qaynatasi Markiz de Sen-Meranning uyi edi. Markiz Marselda yashardi, bu uy unga kerak emasdi. Mish-mishlarga qaraganda, markiz uyni yosh beva baronessaga bergan ekan.

Bir kuni oqshom payti to'siq ortidan ayol kishining yakka o'zi sayr qilib yurganini va tez-tez haligi maxfiy eshikka qarab qo'yayotganini ko'rib qoldim. Shu kecha u Vilforni kutayotganini fahmladim. U juda yaqinlashib kelganda yuzini aniq ko'rib oldim, u o'n sakkizga borgan, qomati raso, yosh va go'zal nozanin ekan. U oddiy etik, keng ko'ylak kiyib olgan, oy-kuni yaqinlashib qolgan homilador ekani sezilib turardi.

Hiyla vaqtdan so'ng eshik ochilib, bir erkak kirib keldi, ular quchoqlashib o'pishishdi-da, uyga kirib ketishdi.

Erkak Vilfor edi. Men, u qaytayotib albatta bog'dan o'tadi, deb o'yladim.

– Siz so'ng ayolning nomini bilib oldingizmi? – so'radi graf.

– Yo'q, bilolmadim, janobi oliylari, – javob qildi Bertuchcho, – unga vaqtim bo'lmaganini hozir fahmlab olasiz.

– Davom eting.

– Shu oqshom qirollik prokurorini o'ldirishim mumkin edi, ammo bog'ni mufassal o'rganib chiqmagan edim. Bir urishda til torttirmay qo'ya olmasam uning qichqirganini eshitib birov kelib qolsa qochib ketolmay qolaman, deb qo'rqdim. Shuning uchun bu ishni ikkinchi uchra-shuvga qoldirdim. Hamma narsalarni yaxshi kuzatib borish uchun derazasi shu bog' tomondagi ko'chaga qaragan bir xonani ijaraga oldim.

Uch kundan so'ng, kechqurun soat yettilarda uydan xizmatchi chiqdi-da, Sevr yo'li tomon ot choptirib ketdi. U Versalga ketayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladim, o'ylaganim to'g'ri chiqdi. Uch soatdan so'ng u topshiriqni bajarib, changga botib qaytdi. Yana o'n daqiqa o'tgach, plashga o'ralib olgan bu odam piyoda boqqa kirdi-da, eshikni ichidan qulflab oldi.

Men uyimdan yugurib chiqdim. Vilforning yuzini ko'rmadim, ammo plashga o'ralib kirgan odam o'sha ekanini yuragim sezib turardi. Ko'chadan o'tib bog' devori burchagidagi ustun oldiga bordim, dastlab bog'ni mana shu ustunga chiqib ko'zdan kechirgandim.

Bu gal ko'zdan kechirish bilan kifoyalanib qolmay, pichog'imni cho'ntagimdan oldim-da, o'tkirmikan deb ti'g'ini tekshirib ko'rdim, so'ng devordan oshib tushdim.

Dastlab yashirin eshik oldiga yugurib bordim, u kalitni qulfdan qoldirgan ekan, faqat ehtiyot qilib, kalitni ikki marta burab qo'yibdi.

Shunday qilib, ishimni bitirib shu yo'lkadan qochib ket-sam, hech kim xalaqit bermaydi. Atrofga nazar tashlab chiqdim. Bog'ning o'rtasida kichkina maysazor, uning to'rt burgachida serbarg daraxtlar qad ko'targan, gullar o'tqazilgan. Uydan eshikka yoki eshikdan uyga Vilfor ana shu daraxtlar oldidan o'tib bormog'i kerak edi.

Sentyabrning so'nggi kunlari, qattiq shamol urib turibdi. Osmonda suzib yurgan qop-qora bulutlar hadab xira oynning yuzini to'sardi. Oy faqat uyga boradigan yo'lkadagi qumni yoritardi, daraxtlar osti zimiston, yashirinib olgan kishini har qanday o'tkir ko'z ham ko'rolmasdi.

Men Vilfor juda yaqinlashib o'tadigan joyga bekinib oldim. Yashirinib ulgurmagan ham edim, daraxtlarni egib-bukayotgan shamol g'uvurida qulog'imga kimningdir ingragan tovushi chalindi. Lekin janobi oliylari, siz bilasizki (yaxshisi, siz bilmaysiz deganim o'rinli bo'lar) odam o'ldirishga tayyor bo'lib turgan kishining qulog'iga har xil bo'g'i'q ovozlari eshitilayotgandek tuyulaveradi. Ikki soat o'tdi. Shu orada bir necha marta ingrash chalindi

qulog'imga, vaqt yarim kechaga borib qoldi.

G'amgin ovozning aks-sadosi hali o'chib bitmagan edi, birdan hozir ikkimiz tushib kelgan yashirin zina derazasida g'ira-shira yog'du paydo bo'ldi.

Eshik ochildi-da, boyagi plashga o'ralgan shaxs chiqdi.

Dahshatli daqiqa keldi, ammo ko'pdan tayyorlanib yuranimdan bo'lsa kerak, zarracha ham seskanmay pichoqni oldim-da, shaylanib turaverdim...

Plashga o'ralgan odam to'g'ri menga qarab kelaverdi, ochiq maydondan o'tayotganda uning o'ng qo'lida qandaydir qurol borgan o'xshab ko'rindi. Men jangdan emas, ishim chappa ketishidan qo'rqdim, biroq u yaqinroq kelganda ko'rdim: qo'lidagi qurol emas, belkurak ekan.

Men, nega bu odam belkurak olib yuribdi ekan, deb o'ylab o'yimga yetolmasimdan, Vilfor chetga o'tib, atrofga alanglab oldi-da, chuqur qazishga kirishdi. Ana shunda, xalaqit bermasin deb maysazorga qo'ygan plashi ostida nimanidir yashirib qo'yganini ko'rib qoldim.

To'g'risini aytsam, unga bo'lgan nafratimga shu payt qiziquvchanlik hissi qo'shilib ketdi, nima qilmoqchi ekanini bilmoqchi bo'ldim, men nafasimni ichimga yutib qimir etmay kutib turaverdim.

So'ng xayolimga bir fikr keldi, qirollik prokurori plashi ostidan uzunligi ikki fut va kengligi yetti dyum kichkina yashikni olganida haligi fikrim to'g'riligiga ishonchim komil bo'ldi.

U yashikni chuqurga tashlab, ustiga tuproq tortdi, so'ng izni xas-po'slash uchun nam tuproqni depsinib tekislay boshladi. Ana shu payt otilib borib ko'kragiga pichoq urdim va: «Men Giovanni Bertuchchoman! Akam uchun sendan qasos oldim, sen yashirgan oltinlar uning bevasiniki bo'ladi endi. Mana ko'rdingmi, mening qasosim o'ylaganimdan ham soz bo'ldi», – dedim.

Bilmadim, mening so'zlarimni eshitoldimikin u, eshita olmagan bo'lsa kerak. U g'iq etmay yiqildi. Issiq qoni qo'llarimga va yuzimga sachraganini sezdim, biroq

ko'zimga qon to'lgan, aqldan ozgan edim, bu qon tanimni kuydirmadi, aksincha xuddi muzdek suv sepilgandek hushyor etdi, belkurakni oldim-da, ko'z ochib yumguncha tuproqni ochib yashikni oldim. So'ngra qazib olganimni bilib qolmasinlar tag'in, deb chuqurni qayta ko'mdim, belkurakni devorning naryog'iga uloqtirib yubordim, tashqari chiqib eshikni qulfladim-da, kalitni olib ketdim.

– Eh-he, ish bunday ekan-ku, – dedi Monte-Kristo, – bu shunchaki o'g'irlikka bog'liq o'ldirish ekan-da.

– Yo'q, janobi oliylari, unday emas, – e'tiroz bildirdi Bertuchcho, – bu burchni ado etish, ya'ni o'ch olish edi.

– Har holda yashikdagi pul behisob bo'lgandir.

– U pul emas ekan.

– E-e, ha, – dedi Monte-Kristo, – siz chaqaloq to'g'risida gapirgan edingiz.

– Xuddi shunday, janobi oliylari. Men daryo tomonga yugurdim, qirg'oqda o'tirib olib, yashikni shoshilib pichog'im bilan ochdim.

Yashikda yupqa batisga o'ralgan, hozirgina dunyoga kelgan chaqaloq yotardi, yuzlari sarg'ayib, qo'llari ko'karib ketgan, kindigi bo'yniga o'ralib qolib bo'g'ib qo'ygan bo'lsa kerak. Biroq tanasi hali iliq edi, shu sababli uni shundaygina oyog'im ostida oqib turgan daryoga tashlab yuborishga ko'nglim bo'lmadi. Bir daqiqa o'tar-o'tmay yuragi asta urayotganday tuyuldi menga, bo'ynini o'rab olgan kindigidan bo'shatdim, bir vaqtlar Bastiliyadagi harbiylar kasalxonasida sanitar bo'lib ishlab xiyla tajriba o'ttirgan edim, bunday hollarda vrach qiladigan ishni qildim: o'pkasiga puflab havo kirgizdim, chorak soatdan so'ng bola nafas ola boshladi va qichqirdi. Men ham quvonib qichqirib yubordim. «Xudo birining jonini olib, ikkinchisiga jon kiritishimga yo'l qo'yib berdi, demak, mendan g'azablanmagan ekan», dedim o'z-o'zimga.

– Bolani nima qildingiz? – so'radi Monte-Kristo, – tez qochishi zarur kishiga bu yuk noqulay-ku.

– Shuning uchun ham men uni uyda bir zum ham qoldirmaslikka qaror qildim. Parijda shunaqa baxtsiz bola-

larni qabul qilib oladigan Tarbiya uyi borligini eshitgan edim. Zastavada, yoʻldan goʻdak topib oldim, deb eʼlon qildim va Tarbiya uyi qaerdaligini soʻrab oldim. Yashik soʻzlarimning dalili edi, batisdan yasalgan yoʻrgak bolaning boy oiladan ekanini koʻrsatib turardi. Menga sachragan qonni bolaning qoni deb faraz qilishlari turgan gap edi. Gaplarimga hech kim eʼtiroz bildirmadi. Anfer koʻchasining oxirida joylashgan Tarbiya uyini koʻrsatib berishdi. Yoʻrgakni kesib ikkiga boʻldim, shunday qilib boʻldimki, belgidagi ikki harfdan birisi bolaning ustida, ikkinchisi menda qoldi, soʻng uni ostonaga qoʻydim-da, qoʻngʻi-roqni bosib, qochdim. Ikki haftadan soʻng men Rolyanoga yetib borib Assuntaga:

«Xafa boʻlma, Izraele halok boʻldi, ammo men uning uchun qasos oldim», – dedim.

U, bu nima deganingiz, deb soʻradi, soʻng hamma voqeani unga aytib berdim.

– Jovanni, – dedi Assunta, – bolani bu yoqqa keltirish kerak edi, u ota-onadan mahrum etilgan ekan, biz ular oʻrniga ota-ona boʻlib, bagʻrimizga bosardik, unga Benedetto deb nom bergan boʻlardik, buning uchun Tangrimning mehr-shafqatiga sazovor boʻlardik».

Javob oʻrniga boyagi yoʻrgakning yarmini uzatdim, boʻyib olgach, istagan vaqtda buni koʻrsatib, bolani qaytarib olish mumkin edi.

– Yoʻrgakka qanaqa harflardan belgi qoʻyilgan edi, – soʻradi Monte-Kristo.

– Baron toji ostiga N va N harflari yozilgan edi.

– Bertuchcho, siz geraldikadan ham xabardormisiz? Gerbshunoslikdan qaerda taʼlim olgansiz?

– Sizda xizmat qilayotganimda, janobi oliylari, sizning dargohingizda hamma narsani oʻrganish mumkin.

– Hikoyangizni davom ettiring, men ikki narsani bilmoqchiman.

– Nimalarni, janobi oliylari?

– Bola nima bo‘ldi? Hali o‘g‘il bola devdingiz, shekilli, uni.

– Janobi oliylari, bunday deganim yo‘q, agar yodimdan ko‘tarilmagan bo‘lsa.

– Ehtimol, menga shunday eshitilgandir. Adashibmanda.

– Adashganingiz yo‘q, haqiqatan ham u o‘g‘il bola edi. Biroq janobi oliylari ikki narsani bilmoqchi edilar. Xo‘sh, ikkinchisi nima edi?

– Men yana siz kashish chaqirishni so‘raganingizda va Nim turmasida huzuringizga abbat Buzoni kelganda nimada aybdor etganlarini bilmoqchi edim.

– Buning hikoyasi juda uzundan-uzoq, janobi oliylari.

– Nima bo‘pti? Soat endi to‘qqizga bong urdi. Juda kam uxlashimni o‘zingiz bilasiz-ku. Menimcha, sizga ham hozir uyquning unchalik zarurati bo‘lmasa kerak.

Bertuchcho ta‘zim qildi-da, hikoyasini davom ettirdi.

– Bu dahshatli qilmishlarimni yodimdan ko‘tarish va sho‘rlik bevaning tirikligi uchun pul ishlash niyatida men yana kontrabanda bilan shug‘ullandim. Har revolyusiyadan keyin qonunlar yumshagani sababli kontrabanda ham yengillashdi. Goh Avinonda, goh Nimda, goho Yuzesda g‘alayon ko‘tarilib turgani tufayli janubiy qirg‘oqlar yaxshi muhofaza qilinmasdi. Hukumat bergan bu tinchlikdan foydalanib butun qirg‘oq aholisi bilan aloqa bog‘ladik. Akamni o‘ldirganlaridan keyin men Nim shahriga mutlaqo qadam bosmay qo‘ydim. Shu vajdan biz bilan ish olib borgan qovoqxonachi aloqa qilmay qo‘yganimizni sezib o‘zi biznikiga keldi-da, qovoqxonasining bo‘limini ochdi (Belgarddan Bokerga boradigan yo‘l ustida «Gar ko‘prigi» degan lavha bilan). Eg Mort Martig va Buk yo‘llarida o‘nlab omborlarimiz bor edi, mollarni o‘sha omborlarga yashirib qo‘yardik, zarur bo‘lib qolgan taqdirda bojxona nazoratchilari va jandarlardan bekinadigan joylarni ham topardik. Aql yuritib, g‘ayrat bilan ish olib borsang kontrabandistlik juda foydali hunar. Men tog‘larda yashardim, chunki endilikda jandarmlar va bojxona nazoratchi-

laridan ilgarigiga qaraganda yana ham puxtaroq bekinib yurishim kerak edi, zero meni tutib olishsa baxtsizlik yuz bergan bo'lardi, har qanday tergovda o'tmishingni albat-ta so'rab-surishtirishadi. Mening o'tmishimni tintib qolish-sa chetdan bojsiz keltirilgan sigaralardan yoki kontraban-da yo'li bilan olib kelingan bochka-bochka spirtlardan muhimroq narsalar topib olishlari mumkin. Shu vajdan qamoqdan ko'ra o'lim ming karra afzal, deb dadil harakat qilardim, axir o'ychi o'ylaguncha tavakkalchi ishini bitkazadi, deganlar-ku. Darhaqiqat, joningni ayamay harakat qilishga ahd qilsang, boshqalarga o'xshamay qolasan yoki boshqacha qilib aytganda, boshqalar senga o'xshamay qoladi, kimki shunga ahd qilsa, u kuchiga kuch qo'shilayotganini va ufq doirasi kengayib borayotganini shu zahotiyoyq sezadi.

– Juda falsafaga o'tib ketdingiz-ku, Bertuchcho! – dedi uning so'zini bo'lib graf. – Hayotingizda hamma sohalar bilan oz-mozdan shug'ullangansiz, shekilli.

– Kechiring meni, janobi oliylari.

– Marhamat, marhamat, biroq tungi o'n yarimda falsafa-fabozlik vaqti emas, mening bundan bo'lak e'tirozim yo'q, chunki falsafangiz juda haqqoniy falsafa, boshqa falsafiy sistemalar haqida bunday deyish joiz emas.

– Men juda uzoq safarlarga borib, ko'p foyda orttira boshladim. Assunta mohir beka edi, shu yo'sinda mol-mulkimiz ko'payaverdi. Bir gal safarga o'tlanayotganimda u menga: «Oq yo'l, men qaytishingga ajoyib sovg'a tayyorlab qo'yaman», – dedi.

Yalinib-yolvordim, nimaligini aytmadi, men jo'nab ketdim.

Bir yarim oydan ziyodroq safarda bo'ldim. Lukkadan moy, Livornodan ingliz chit gazmoli oldik. Yuklarni juda o'ng'aylik bilan tushirdik, katta foydaga sotdik va xushnud bo'lib uyimizga qaytdik.

Uyga kirishim bilan Assuntaning xonasidagi go'dakka ko'zim tushdi. Bola chamamda sakkiz oylik bo'lib, juda hashamatli belanchakda yotgandi. Quvonganimdan qich-

qirib yubordim. Qirollik prokurorini o'ldirganimdan buyon tashlab kelgan bolani o'ylab vijdon azobiga tushib yurardim. Shuni ham aytishim kerakki, prokurorni o'ldirganimdan aslo afsuslanmadim.

Sho'rlik Assunta hammasiga fahmi yetibdi, mening yo'qligimdan foydalanib, yarim yo'rgakni olibdi-da, Tarbiya uyi ostonasida bola qoldirilgan kun va soatni aniq yozib olib Parijga boribdi. Hech qarshilik ko'rsatmay bolani olib chiqib berishibdi.

Janobi oliylari, ochig'ini aytsam, belanchakda yotgan sho'rpushona go'dakni ko'rib ko'zimdan yosh chiqib ketdi.

«Assunta, – dedim, – sen ajoyib ayol ekansan, Tangrim tilagingga yetkazadi seni».

– Mana buningiz falsafangizdagidek haqqoniy emas, – dedi Monte-Kristo. – To'g'ri, bu e'tiqodga bog'liq.

– Haq gapni aytdingiz janobi oliylari, – dedi og'ir tin olib Bertuchcho. – Tangrim ana shu go'dakni menga qasos olish quroli qilib berdi, uni yaxshi tarbiyaladik, Assunta mehr bilan ardoqladi, g'amxo'rlik qildi. Bola ko'k ko'z, oq badan, barno edi, faqat oltin rang yaltiroq sochi yuziga monand emasday tuyulardi, bu u kulganda ayniqsa yaqqol sezilardi. Malla soch odamlar yo juda yaxshi yoki tentak bo'ladi, degan maqol bor. Baxtga qarshi bu maqol Benedetto timsolida to'g'ri bo'lib chiqdi, u bolalik chog'idan boshlaboq faqat tentaklikka moyil bo'lib o'sdi, tutingan onaning yuvoshligi, muloyimligi ham uning xarakteriga ta'sir etdi. Assunta bolani juda erka qilib o'stirdi, bozorlarga qatnab yangi chiqqan sarxil mevalar bilan boqdi.

Benedettoning yoshi endigina oltiga yetgan kunlarning birida qo'shnimiz Vasilio hamyonimdan bitta oltin tangamni yo'qotdim, deb shikoyat qildi. Bizning korsikaliklar hamyonni ham, qimmatbaho buyumlarini ham yashirib qo'yishmaydi, bu odat bo'lib qolgan, janobi oliylari, o'zingizga ma'lumki, Korsikada o'g'ri yo'q. Biz, yaxshi sanab chiqmagandirsiz, dedik, biroq u hech adashmay

sanab chiqdim, dedi. O'sha kuni Benedetto ertalab uydan chiqib ketganicha daraksiz ketdi, biz xavotirlanib o'tirgan edik, kechqurun bir maymunni yetaklab kirib keldi, maymun daraxtga bog'lab qo'yilgan ekan, yechib olib kelaverdim, dedi. Bu g'alati qiliqlar chiqarayotgan tantiq bola bir oydan buyon maymun olib ber, deb xarxasha qilardi. Rolyanoga bir nechta maymunlar yetaklab kelgan nayrangbozni ko'rib qiziqib qolgan bo'lsa kerak bola bechora. Nayrangbozning maymunlari juda ajoyib chiqishlar ko'rsatgan edi. Benedetto ulardan o'zida yo'q xushnud bo'lib, zavqlanib qaytgan edi.

«Bizning o'rmonlarimizda maymunlar yo'q, – dedim unga men, – ayniqsa, bunaqalari sirayam bo'lgan emas. Ayt to'g'risini, buni qaerdan olib kelding?»

Benedetto boyagi gapni qaytarib, shu gapda turib oldi va haqiqatdan ko'ra uydirmasi ko'p bir talay tafsilotlarni hikoya qilib berdi, jahlim chiqdi, u esa qah-qah urib kulib yubordi, men ta'zirini beray deb do'q ursam, tislandi.

«Meni urishga haqqing yo'q, – dedi u, – haqqing yo'q: sen mening otam emassan».

Biz bu sirni juda yashirin saqlar edik, unga kim oshkora qilganini hali-hali bilolmay garangmiz. Nima bo'lishidan qat'i nazar bolaning xarakterini butunlay ochib bergan bu so'zlardan qo'rqib ketdim. Urishga ko'targan qo'lim beixtiyor shalvirab osilib tushdi. U esa g'olibona gerdayib turardi, bu g'alaba unga dalda berdi, dadillik bag'ishladi. Shu ondan boshlab unga ortiq darajada mehr qo'ygan Assuntaning hamma pullari bolaning bema'ni orzu-tilaklari, talablarini bajarishga sarflanadigan bo'lib qoldi. Assunta uning so'zlarini rad etolmasdi. Men Rolyanoda yashayotgan chog'larda uni ancha bosib turardim, ammo u yerdan ketishim bilan Benedetto darhol uyning xo'jayini bo'lib olibdi, hamma narsa rasvo bo'libdi. U o'n ikki yoshga kirganda o'n sakkiz yoshlik yigitlar orasidan Bastiya va Kortaning uchiga chiqqan sayoqlari bilan inoq bo'lib oldi. Uning bir necha xunuk kirdikorlari uchun hukumat idoralaridan gap eshitdik.

Men vahimaga tushib qoldim, chunki har qanday tergov meni halokatga olib borishi hech gap emas edi. Muhim bir safarga chiqadigan bo'lib turgandim, uzoq o'ylab, Benedettoni ham birga olib ketsam katta falokatdan qutularman, degan qarorga keldim. Kontrabandistlarning og'ir va hamisha ish bilan band hayoti, kema-dagi qattiq intizom bolaning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatar, deb umid qildim.

Men Benedettoni chaqirib, birga borishni taklif etdim va o'n ikki yoshlik bolani qiziqтира oladigan turli narsalar va'da qildim.

U mening so'zlarimni qunt bilan tinglab turdi-da, so'zimga tugashi bilan xaxolab kulib yubordi va: «Aqldan ozibsiz, amaki, – dedi. Kayfi chog'ligida u meni shunday deb atardi. – Men hozirgi hayotimdan – ajoyib, bemehnat, taralabedod hayotimdan voz kechib, sizning o'sha qabih ishingizga borib jinni bo'pmanmi? Arzimaydigan pul ishlayman deb kechasi sovuqda qotib, kunduzi oftobda jizza bo'lib, hamma vaqt pisib yurishga toqatim bormi? Qolaversa, bitta o'q bilan yer tishlatishlariyam mumkin! Pulim yetib ortadi, Assunta so'raganimni berib turibdi. Mana o'zingiz ko'rib turibsizki, siz bilan birga borsam ahmoqona ish qilgan bo'laman».

Uning bu qadar surbetligini ko'rib hayratda qoldim. Benedetto qaytib o'rtoqlari yoniga bordi-da, ularga meni ko'rsatib masxara qildi.

– Juda ajoyib bola ekan-da, – shivirladi Monte-Kristo.

– Oh, qani endi u mening o'z bolam yoki aqalli tug'ishgan jiyanim bo'lsa, – dedi so'zini davom ettirib Bertuchcho, – huquqimdan foydalanib uni to'g'ri yo'lga solib olgan bo'lur edim. Ammo o'z qo'lim bilan o'ldirgan kishining bolasini kaltaklaymanmi, degan fikr ko'nglimdan o'tdi-yu, uni tarbiyalashdan voz kechishga majbur bo'ldim. Bola to'g'risida bahslashganda hamisha uning tarafini olib kelayotgan xotinimga yaxshi maslahatlar berdim, so'ng u bir necha bor menga, ancha-muncha pullari yo'qolib qolayotganini aytgandi, pullarimizni yashiradi-

gan joyni ko'rsatib berdim. Benedetto yaxshi o'qirdi, yozardi, hisoblardi, agarda hafsalasi kelib qolgudek bo'lsa, boshqalar bir haftada o'rganadigan narsani bir kunda o'rganib olardi. Shuning uchun uni uzoq safarlar-da yuradigan biror kemaga kotiblik vazifasiga joylashtirib qo'yishga ahd qildim. Buni unga bildirmay sahar-madonda shartta tutamanu, kemalardan biriga olib borib kapitanga topshiraman, deb o'ylagandim. Ana shunda uning istiqboli butunlayin o'ziga bog'liq bo'lib qoladi.

Shu qarorga keldim-da, Fransiyaga yo'l oldim.

Bu gal barcha operasiyalarimiz Lion ko'rfazida bajari-lishi kerak edi. Bu operasiyalar nihoyatda og'irlashdi, chunki ming sakkiz yuz yigirma to'qqizinchi yil boshlanib qolgan edi. Hamma joyda tinchlik, osoyishtalik tiklangan, qirg'oqlarda ilgari vaqtlarga qaraganda nazorat juda qattiq qilib qo'yilgan edi. Bokerda yarmarka ochilishi mu-nosabati bilan bu nazorat yanada kuchaytirildi.

Boshda hamma ishlarimiz yaxshi bordi. Tagi ikki qavat-li (bu mollarni yashirib qo'yadigan joy) qayig'imizni Bok-er bilan Arl o'rtasida Rona daryosining ikki qirg'og'ida to'xtagan boshqa ko'p qayiqlar orasiga qo'ydik. Kechala-ri kontrabanda mollarni tushirib, ularni aloqador kishi-lardan yoki qovoqxonachilardan shaharga omborlarimiz-ga jo'nataverdik. G'alabaga mahliyo bo'lib ehtiyotkorlik-ni unutib qo'yganimizdanmi yoki biror kishi sotqinlik qil-dimi, kechqurun soat beshlarda endigina kechki ovqat-ga o'tirmoqchi bo'layotgan edik, kichkina matrosimiz – shogird bola vahimadan quti o'chib yugurib kelib, bir to'da bojxona nazoratchilari biz tomonga kelayotganini aytdi. Biz nazoratchilar to'dasidan qo'rqmadik, chunki ayniqsa, o'sha kunlari to'da-to'da nazoratchilar Rona qir-g'oqlarida sang'ib yurishardi. Bolaning gapiga qaragan-da haligi nazoratchilar to'dasi hech kimga sezdirmaslik-ka urinib, ehtiyotkorlik bilan kelayotgan edi. Mana shundan vahimaga tushdik. Biz darhol oyoqqa turdik, biroq vaqt o'tgan edi. Tintuvga ko'zlangan bizning qayi-g'imiz allaqachon to'rt tomondan o'rab olingan edi. Boj-

xona nazoratchilari orasida jandamlarni ko'rib qoldim. Ularni ko'rganda men tang ahvolda qolardim, qo'shinlarni ko'rganda bunchalik qo'rqib kapalagim uchmasdi, shuning uchun bir zumda kema tagxonasiga tushdim-da, yuk soladigan teshikdan irg'ib daryoga tushdim. Faqat suv tagida suzib borar va ahyon-ahyonda havo olish uchun og'zimni suv betiga chiqarib olardim, shu asnoda Ronani kanal bilan bog'lash uchun qazilgan zovurga yetib oldim, bu kanal Bokerdan Eg-Mortgacha cho'zilgandi. Shu yerga yetganda, endi qutuldim deb ko'nglim tinchidi, chunki endi ko'zga ko'rinmaydigan joydan zovur bo'ylab suzib ketaverishim mumkin edi, shu yo'sinda hech xavf-xatarsiz kanalga yetib oldim. Bu yo'ldan yurishga qaror qilishimning sababi bor edi. Men janobi oliylariga hali Belgarddan Bokerga boradigan yo'l ustida mehmonxona ochgan nimlik qovoqxonachi tanishim borligini aytgandim.

– Ha, ha, esimda, – dedi Monte-Kristo. – Bu hurmatli zot, adashmasam sizni sherigingiz ham bo'lgan edi, shekilli.

– Ha, xuddi o'zi! Bundan yetti yil ilgari u o'zining mehmonxonasini ishlari yurishmay, kasod bo'lgan marsellik bir mashinachiga o'tkazib ketdi. Albatta ilgarigi xo'jayin bilan bo'lgan aloqani yangisi bilan ham davom ettiravdim. Ana shu odamnikida boshpana topmoqchi bo'ldim.

– Uning nomi nima edi? – so'radi Bertuchchoning hiko-yasining shu joyiga juda qiziqsingan graf.

– Gaspar Kadruss, u Karkonta qishlog'idan uylangan, hammamiz xotiniga shu qishloqning nomini qo'yib olgandik, sho'rlik xotin bezgak kasaliga muhtalo bo'lib, madori qurib asta-sekin adoyi tamom bo'layotgan edi. Kadrussning o'zi esa baquvvat, endi qirq beshga kirgandi. Bir necha marta og'ir ahvolga tushib qolgan damlarimizda u juda topag'onlik bilan jasorat ko'rsatib yordam qilgan edi.

– Qachon yuz bergan edi bu voqea? – so'radi Monte-Kristo.

– Janobi oliylari, bu voqea ming sakkiz yuz yigirma

to'qqizinchi yili.

– Qaysi oyda?

– Iyunda.

– Oyning boshidami, oxiridami?

– Uchinchi iyun kuni kechqurun.

– Shunday deng! – dedi Monte-Kristo, – ming sakkiz yuz yigirma to'qqizinchi yil uchinchi iyun... Davom ettiring hikoyangizni.

– Shunday qilib, ana shu Kadrussdan boshpana so'ramoqchi bo'ldim. Odatda tinch sharoitda ham biz unikiga yo'l tomondagi eshikdan kirmasdik, men bu gal ham o'sha qoidamizni buzmadim, bog' devoridan oshib tushdim-da, biror yo'lovchi bo'lishi mumkin degan xayoldan pastak daraxtlar tagidan o'rmalab borib yondosh xonaga yetib oldim, bu xonada bir necha marta maza qilib tunagandim.

Bu xona bilan pastki qavatdagi xona o'rtasida taxta devor bo'lib, unda kelganimizni bildirish uchun tirqishlar yasab qo'yilgandi. Agar Kadrussnikida hech kim bo'lmasa, kelganimni ana shu tirqishdan xabar qilib, bojxona nazoratchilari kelib qolgach, to'xtatilgan kechki ovqatni unikida tugallamoqchi va yaqinlashib kelayotgan momaqaldiroqdan foydalanib Ronaga qaytib borib qayiq va undagilarning holidan xabar olmoqchi edim. Shu xayol bilan asta yondosh xonaga bordim, bu juda joyida bo'ldi, chunki xuddi shu daqiqada Kadruss uyga bir notanish kishini boshlab qaytdi.

Men qovoqxonachining sirli so'zlarini eshitish uchun emas, noilojlikdan un chiqarmay kutib turaverdim. Bu o'zi odat bo'lib qolgan ham edi.

Kadrussnikiga kelgan kishi shubhasiz janubiy fransiyalik emas edi, u qimmatbaho buyumlar sotish uchun Boker yarmarkasiga kelib turadigan negosiantlardan edi. Bunday kishilar bir oylik yarmarka vaqtida (yarmarkaga Evropaning hamma shahar, rayonlaridan savdogarlar va xaridorlar kelar edi) ba'zan yuz va hatto ming frankka bitim tuzishardi.

Birinchi bo'lib jadal qadamlar bilan Kadruss kirdi. So'ng pastki xona bo'sh ekanini va odatdagidek uni kuchuk qo'riqlab yotganini ko'rib, xotinini chaqirdi.

«Hoy, Karkonta, kashish bizni aldamagan ekan, bu haqiqiy olmos ekan».

Quvonchli ovoz eshitildi va zinapoyalar madorsiz qadamlar ostida asta g'irchilladi.

«Nima deding?» – so'radi Karkonta.

«Olmos haqiqiy olmos ekan deyapman, mana bu janob Parijning eng mohir zargarlaridan, ellik ming frankka olmoqchi. Ammo u bu olmos chindan ham o'zimizniki ekaniga qat'iy ishonch hosil qilishim kerak deydi. Kel, sen ham men singari bu olmos bizning qo'limizga qanday qilib tushganini aytib ber. Janob, siz marhamat qilib o'tirib turing. Havo issiq, dim bo'lib ketdi, men sizga biror muzdek ichimlik keltiray».

Zargar qovoqxonani sinchkovlik bilan ko'zdan kechirib chiqdi. Bek-xonlar sandiqchasiga munosib olmosni sotib olishni taklif etayotgan kishining kambag'alligi bu yerdagi asbob-anjomlardan ham ko'rinib turardi.

Zargar, Kadruss xotiniga ta'sir etishi mumkin, shuning uchun u yo'qligida xotining hikoyasini eshitib olib, uniki bilan taqqoslab ko'raman degan niyatda: «Qani, beka, boshlang hikoyangizni», dedi.

«Biz bunaqa narsani hech kutmagan edik. Xudoyimning o'zi yetkazdi. Erim ming sakkiz yuz o'n to'rtinchi yildami yoki ming sakkiz yuz o'n beshinchi yildami, Edmon Dantes degan dengizchi bilan og'ayni bo'lgan ekan, erimning esidan chiqib ketgan o'sha sho'rpehona yigit buni unutmagan ekan va o'layotib, o'zingiz ko'rgan olmosni qoldirib ketibdi».

«Bu olmos uning qo'liga qanday qilib tushib qolibdi? – so'radi zargar. – Yoki Dantes turmaga tushguniga qadar ham bu olmos unda bo'lganmikin?»

«Yo'q, janob, unday emas, – dedi ayol, – turmada u bir boy ingliz bilan tanishibdi, ingliz xastalanibdi. Dantes uning atrofida xuddi o'z akasidek girdikapalak bo'libdi,

shuning evaziga ingliz ozodlikka chiqayotganda mana shu olmosni hadya qilibdi. Bechora Dantes baxtiga erisholmay turmada qazo qilibdi, olmosni esa jon berayotganda bizga meros qoldirib, hurmatli abbatdan berib yuboribdi, u bugun ertalab keltirib berdi».

«Karduss ham xuddi shunday degan edi, – shivirladi zargar. – Dastlab quloqqa yolgʻon gapday eshitilsa-da, lekin kim biladi, ehtimol toʻgʻridir bu hangoma, – soʻng u tovushini chiqarib: – unday boʻlsa, endi narxiga kelaylik, bu masalada ham kelishib olganimiz yoʻq» – dedi.

«Iya, nega endi kelishib olganimiz yoʻq deyapsiz? – xitob qildi kirib kelgan Kadruss. – Men aytgan narxga rozi boʻldingiz deb ishongandim».

«Men sizga qirq ming frank beraman dedim», – dedi eʼtiroz bildirib zargar.

«Qirq ming! – dedi jahлга minib Kadruss. – Bu bahoga sirayam sotmaymiz. Abbat, gardishidan tashqari, ellik ming frank turadi, degan edi».

«Abbatning nomi nima edi?»

«Abbat Buzoni».

«U chet ellikmi?»

«U italyan, Mantuyaning atrofidan boʻlsa kerak».

«Olmosni koʻrsating, – dedi zargar. – Men uni yana bir marta koʻrmoqchiman, baʼzan qimmatbaho toshlarni bir koʻrishda yaxshi bilib ololmay xato ham qilib qoʻyadi kishi».

Kadruss choʻntagidan shagren terisidan yasalgan qopqora qutichani olib ochdi-da, zargarga uzatdi. Kattaligi yongʻoqday olmosni (u hali-hali koʻz oldimda tovlanib turadi) koʻrib, Karkontaning och koʻzlari olayib ketdi.

– Xoʻsh, janoblari, bu gaplarni eshitib, nima fikrga keldilar oʻzlari? – soʻradi Monte-Kristo. – Oʻsha choʻpchakka ishondingizmi?

– Ha, janobi oliylari, ishondim. Men Kadrussni durust odam deb bilardim, shu sababdan jinoyat qilmaydi yoki birovning ignasini ham oʻgʻirlamaydi, deb oʻylardim.

– Janob Bertuchcho, tirikchilik borasidagi tajribakor-

likka qaraganda mana bu ishingiz sha'ningizga monand. O'sha yerda tilga olingan Edmon Dantesning kimligini bilib oldingizmi?

– Yo'q, janobi oliylari, bilib olganim yo'q, ilgari ham, so'nggi vaqtlarda ham men uning haqida hech narsa eshitganim yo'q, faqat bir marta turmada Buzonidan eshitdim.

– Yaxshi, davom eting.

– Zargar olmosni oldi-da, cho'ntagidan kichkina po'lat, mo'ychinak va jindak mis tarozi chiqardi, so'ng olmosni niginxonadan olib sekin taroziga qo'ydi.

«Qirq besh ming frank beraman, – dedi u. – Bir chaqa oshig'iga olmayman. Buning ustiga bu olmosning yuqori bahosi bo'lganidan ortiq pul ham keltirganim yo'q».

«Hechqisi yo'q, – dedi Kadruss, – siz bilan birga Boker-ga o'zim boraman, qolgan besh ming frankni o'sha yerda bera qolasiz».

Zargar uzuk bilan olmosni Kadrussga uzatib:

«Yo'q, – dedi, – eng baland narx shu. Men shunga baho qo'yganimga ham pushaymon yeb o'tiribman, olmosning kemtik joyi bor ekan, men ilgari buni ko'rmagan ekanman. Endi ilojim yo'q, so'zimdanda qaytmayman. Qirq besh ming frank beraman dedim – beraman».

«Hech bo'lmasa olmosni joyiga o'rnatib qo'ying», – dedi jahl bilan Karkonta.

«Gapingiz haq», – dedi zargar va olmosni joyiga o'rnatib qo'ydi.

«Mayli, olmasangiz olmang, – dedi Kadruss qutichani cho'ntagiga solayotib, – boshqa oladigan toparmiz».

«Topasiz, albatta, – javob qildi zargar, – ammo boshqa xaridor menchalik saxiylik qilmaydi va menga bergan ma'lumotlardan qanoat hosil qilmaydi. Siz kabi past marta-badagi kishi ellik ming frank turadigan uzukning haqiqiy egasi ekaniga ishonmaydi ham, u hukumat idoralariga xabar qiladi, abbat Buzonini axtarib topish kerak bo'ladi, ikki ming luidor turadigan olmoslarni tarqatib yuradigan abbatlarni axtarib topish juda mushkul ish. Odil sud

dastlab uni qo'lgaga tushirib, sizlarni qamoqqa oladi, bordi-yu, begunoh ekanligingiz aniqlansa, uch yoki to'rt oydan so'ng sizni ozod qilib yuborishganda ham bu uzuk bironta kishida qolib ketishi yoki o'rmiga bir chaqaga ham arzimaydigan soxta toshni sizga tutqizishlari hech gap emas. Yana shuni ham aytib qo'yayki, ellik ming, boringki, ellik besh ming turadigan olmosni sotib olish ham xavfli.

Kadruss va xotini bir-biriga qarab olishdi.

«Axir biz, – dedi Kadruss, – besh ming frankni nazarpisand qilmaydigan boylardan emasmiz-da».

«Azizim, ixtiyoringiz, – dedi zargar, – men naqd pul olib kelgan edim».

Zargar cho'ntagidan bir hovuch oltin tanga va ikkinchi cho'ntagidan bir dasta qog'oz pul chiqardi, qovoqxonachining ko'zlari olayib ketdi.

Kadruss ikkilanib qoldi: qo'lida o'ynatib turgan shagren teri qutiga joylashgan tosh uning ko'zi oldida turgan katta pulga arzimaydigan bir narsaga o'xshab ko'rindi.

U xotiniga qaradi.

«Xo'sh, sen nima deysan?» – so'radi sekin.

«Ber, bera qol, – dedi ayol, – agar biz unga sotmasak Bokerga borib ustimizdan ma'lumot beradi bu odam, u haq gapni aytyapti: abbat Buzonini qachon, qaerdan topardik».

«Keling, aytganingiz bo'la qolsin, – dedi Kadruss. – Oling qirq besh ming frankka, ammo xotinim oltin zanjir taqmoqchi, menga esa bir juft to'qa kerak».

Zargar cho'ntagidan uzun yapaloq quticha oldi, uning ichida Kadruss aytgan narsalarning bir necha xillari bor edi.

«Mana, oling, – dedi u, – ish bitirishda men bunaqa mayda-chuyda narsalarga e'tibor berib o'tirmayman».

Xotini besh luidor turadigan zanjir, eri esa o'n besh frank turadigan bir juft to'qa oldi.

«Endi mamnun bo'lgandirsiz?» dedi zargar.

«Abbat olmosning bahosi ellik ming frank degan edi-

da», – ming'irladi Kadruss.

«E-e, noshukr banda ekan-ku, bu, – dedi zargar uning qo'lidan uzukni olayotib, – qirq besh ming frank, ya'ni ikki yarim ming livr yillik daromadni beryapmanu, shunga ham rozi emas-a!»

«Qani qirq besh ming frank?» – so'radi Kadruss bo'g'i q ovozda, – qani u pulingiz?»

«Mana, marhamat qilib oling», – dedi zargar va o'n besh ming frank oltin pulni va o'ttiz ming qog'oz pulni sanab stol ustiga qo'ydi.

«To'xtang, chiroqni yoqayin, – dedi Kadruss, – qorong'i tushib qoldi, adashib ketmaylik tag'in».

Chindan ham ular talashib-tortishib, vaqtni o'tkazib yuborishgan edi. Qorong'i tushishi bilan havo aynib momaqaldiroq boshlandi. Uzoqda momaqaldiroq gumburladi, ammo mol-dunyo orttirishga mukkasidan ketgan zargarning ham, Kadrussning ham qulog'i kar edi shu payt.

Mening o'zim ham bu oltinlarni va qog'oz pullarni ko'rib maftun bo'lib qolganimni sezmadman. Bularni tushim deb faraz qilib turgan joyimda hang-mang bo'lib qotib qolgandim.

Kadruss pullarni qayta-qayta sanab chiqdi, so'ng ularni xotiniga uzatdi, xotini ham ikki-uch marta sanadi.

Shu orada zargar olmosni chiroqqa tutib aylantirar, olmos ming xil tovlanib, atrofga nayza-nayza nur otardi, u deraza orqasida momaqaldiroqdan darak berib, lovillab yalt-yult etayotgan chaqmoqdan bexabar edi.

«Xo'sh, to'g'ri sanabmanmi?» – so'radi zargar.

«To'g'ri, – dedi Kadruss, – Karkonta, hamyonni keltir, birorta xaltacha ham top».

Karkonta shkafdan eski charm hamyonni olib keldi, undan bir nechta eski sarg'ayib ketgan xatlarni olib, o'miga qog'oz pullarni solishdi, Karkonta xaltacha ham keltirdi, unda olti livrlik bir necha tanga bor ekan, aftidan, er-xotinning butun dunyosi shu bo'lsa kerak.

«Mana ish bitdi, – dedi Kadruss, – bizdan o'n ming frank urib qolgan bo'lsangiz ham birga ovqatlanaylik. Chin

ko'ngildan taklif qilyapman».

«Rahmat, – dedi zargar, – kech bo'lib qoldi, Bokerga tezroq jo'nayin, xotinim xavotir oladi. – U soatiga qaradi. – O'h-ho', soat to'qqiz bo'lay deb qolibdi-ku, uyga endi yarim kechada kirib borarkanman-da. Xayr, do'stlarim, abbat Buzoniga o'xshaganlardan yana sang'ib kelib qolgudek bo'lsa, meni eslang».

«Siz bir haftadan keyin Bokerdan jo'nab ketsangiz ke-rak, – dedi Kadruss, – kelasi hafta yarmarka bekiladi-ku».

«To'g'ri, bekiladi, ammo buning ahamiyati yo'q, xatni Parijga quyidagi manzilga yozavering: janob Joannesga, Pale-Royal, galereya Per, qirq beshinchi raqam; zarurat tug'ilsa ataylab kelaman».

Momaqaldiroq gumburlab, yashin juda zo'r kuch bilan yarqirab, hatto chiroq yog'dusini qorong'ilatib yubordi.

«O'h-ho', – dedi Kadruss, – shunday dahshatli tungi havoda qanday qilib borasiz?»

«Men momaqaldiroqdan qo'rqmayman», – dedi zargar.

«Bosqinchilardan-chi? Ulardan ham qo'rqmaysizmi? – so'radi Karkonta. – Ular yarmarka kunlarida yo'llarda day-dib yurishadi».

«Bosqinchilarga kelsak, – dedi Joannes, – ularning ada-bini berib qo'ymoq uchun men ba'zi kerakli narsalarni taxt qilib qo'rganman».

Zargar shunday dedi-da, cho'ntagidan bir juft to'la o'qlangan ikkita kichkina to'pponchasini chiqardi.

«Mana, – dedi u, – bu «kuchukchalar» ham vovillaydi, ham tishlaydi; bu olmosingizga ko'z olaytirgan dastlabki ikkisi uchun, Kadruss amaki».

Kadruss bilan xotini ma'yus holda bir-biriga qarab olishdi. Ikkisining dilidan bir yo'la qandaydir mudhish bir fikr o'tganday bo'ldi.

«Unday bo'lsa, oq yo'l sizga!» – dedi Kadruss.

«Tashakkur!» – javob qildi zargar va katta qutiga suyab qo'ygan qo'l tayog'ini oldi-da, eshik tomonga yurdi. U eshikni ochishi bilan uyga shamol kirib, sal bo'lmasa chiroqni o'chirib qo'yayozdi.

«Havo juda aynib ketibdi-da, – dedi u, – men ikki le piyoda yurishim kerak!»

«Qola qoling biznikida, – dedi Kadruss, – tunab, ertaga jo'naysiz».

«Qolavering, – dedi qaltiroq ovoz bilan Karkonta. – Qulay sharoit tug'dirib beramiz, tinch tunab, ertaga yo'lga chiqarsiz».

«Aslo ilojim yo'q. Tunda Bokerda bo'lishim kerak. Xayr!»
Kadruss asta ostonaga yaqinlashdi.

«Hech nimani ko'rib bo'lmaydi, – dedi zargar eshik tashqarisida. – Qaysi tomonga buriladi, o'nggami yo chapgami?»

«O'ngga, – dedi Kadruss, – adashmaysiz, yo'lning ikki tomoniga daraxtlar o'tqazilgan».

«Ko'rib turibman», – degan ovoz keldi uzoqdan.

«Bekit eshikni! – dedi Karkonta. – Momaqaldiraq gumburlab turganida eshik ochiq tursa meni vahima bosadi».

«Ayniqsa uyda pul bo'lganda, to'g'rimi?» – dedi Kadruss kalitni ikki marta burab.

U shkaf oldiga kelib, xaltachani va hamyonni oldi, ikkisi yana oltinni va qog'oz pullarini sanay boshlashdi.

Xira yonib turgan lampa chiroq yog'dusida ikkalasining yuzidan o'lgudek xasis maxluqlar ekani ko'rinib turardi. Men umrimda bunaqa ochko'zlarni ko'rmagan edim. Ayniqsa, xotinning vajohati jirkanchli bo'lib ketgan edi: shu on uni hamisha iskanjaga olib yurgan bezgak titrog'i avjga mindi. Uning hamisha qonsiz yuzi murdaning yuziga aylandi, ich-ichiga kirib ketgan ko'zlari yondi.

«Nima maqsadda sen unga yotib qolishni taklif etding?» – so'radi xotin bo'g'i ovozda.

«Ha... uni Bokerga boradigan og'ir yo'l azobidan qutqarish uchun», – dedi seskanib Kadruss.

«E-e, shunday degin, – dedi xotin anglab bo'lmaydigan ohangda, – men esa boshqa maqsadda deb o'ylabman».

«Eh, xotin, xotin! – Xitob qildi Kadruss. – Bunaqa fikrlar qaerdan keldi kallangga?»

«Nima desang deyaver, – to'ng'illadi Karkonta, – ammo haqiqiy erkak kishi emassan-da».

«Xo'sh, nima uchun erkak kishi bo'lmay qoldim?» – so'radi Kadruss.

«Agar haqiqiy erkak bo'lsayding, u bu yerdan ketmasdi».

«Xotin!»

«Yoki Bokerga yetib borolmasdi».

«Xotin!»

– Yo'l burilib ketadi, u boshqa yo'lni ko'rgan emas, kanal bo'ylab so'qmoq bor, bu yolg'izoyoq yo'l katta yo'lni kesib o'tadi».

«Xotin, Xudoning g'azabini keltiryapsan! Ana, eshityapsanmi?»

Shu on yashin butun xonani sutday yoritib yubordi, momaqaldiroq olamga dahshat soldi. So'ng gumburlagan ovozlar bu baloga duchor etadigan la'nati uydan behohish asta-sekin uzoqlashib ketdi.

«E Xudoyim!» – dedi cho'qinib Karkonta.

Hamma yoqni qo'rqinchli og'ir sukunat bosgan bir vaqtda eshik taqilladi.

Kadruss bilan Karkonta cho'chib tushdi-yu, kapalagi uchib bir-biriga qaradi.

«Kim?» – qichqirdi o'rnidan turayotib Kadruss va stol ustida sochilib yotgan oltinlar va qog'oz pullarni shoshib yig'di-da, ikkala qo'li bilan yopdi.

«Men!» – dedi kimdir.

«Kimsiz?»

«Men-men! Zargar Joannesman!»

«Mana ko'rdingmi! Yana meni Xudo g'azabga olyapti deysan!.. – dedi Karkonta razilona iljayib. – Xudoning o'zi uni bizga qaytarib yubordi».

Rangi devor bo'lib qolgan Kadruss stulga yiqildi.

Karkonta esa, aksincha, dadil qadam tashlab borib eshikni ochdi.

«Marhamat, qadrli janob Joannes», – dedi u.

«Darhaqiqat, – dedi yomg'irda hamma ust-boshi ivib

ketgan zargar. – Xuddi iblisning o‘zi mening Bokerga borishimga xalaqit berayotir deb o‘ylash mumkin. Ikki ofatdan birini tanlab olmoq kerak, janob Kadruss, siz mehmon bo‘lishni taklif etgan edingiz, men uni qabul qilib, siznikida tunash uchun qaytib keldim».

Kadruss peshana terini artib allanarsa deb ming‘irladi. Karkonta zargarni kiritib, kalitni ikki marta buradi.

VII. QONLI YOMG‘IR

Zargar kirdi-da, xonaga sinovchan nazar tashlab chiqdi, ammo uni shubhaga soladigan yoki ilgari shubhalangan bo‘lsa, o‘sha shubhani tasdiqlaydigan hech narsa ko‘rmadi.

Kadruss hamon oltin va qog‘oz pullarni ikkala qo‘li bilan bekitganicha qotib turardi. Karkonta esa mehmonni mumkin qadar xushnud kutib olishga urinardi.

«Eh-e, – dedi zargar, – men ketgach pulni yana sanashga tushibsiz-da, demak, ishonchingiz komil bo‘lmagan ekan-da?»

«Yo‘g‘-e, – dedi Kadruss, – bu pul xuddi osmondan tushganday bo‘ldi bizga, shu sababli tushimizmi yoki o‘ngimizmi, deb ishonmay turibmiz haliyam, pulning o‘zi dadil bo‘lib ko‘zimiz oldida turmasa, tush ekan deb qo‘ya qolardik-da».

Zargar iljayib qo‘ydi.

«Uyingizda tunaydiganlar bo‘ladimi?» – so‘radi u.

«Yo‘q, – javob berdi Kadruss, – bizda bunday odat yo‘q, shahar yaqin, hech kim tunamaydi».

«Demak, men sizga o‘ng‘aysizlik tug‘dirarkanman-da?»

«Yo‘q, janob, bemalol, – dedi iltifot bilan Karkonta. – Zarracha o‘ng‘aysizlik bo‘lmaydi, amin bo‘ling».

«Meni qaerga yotqizasiz?»

³⁶ Zaharlar haqidagi ilm.

³⁷ Antuan Gallan (1646–1715) – fransuz sharqshunosi, «Ming

«Yuqoridagi xonaga».

«U sizning xonangiz-ku?»

«Ahamiyati yoʻq, yondosh xonada yana bir karavotimiz bor».

Kadruss ajablanib xotiniga qaradi.

Zargar pechkaga qoʻlini tutib allaqanday kuyda qoʻshiq ayta boshladi. Karkonta, mehmon kiyimlarini quritib olsin, deb pechga bir tutam shox tashladi.

Shu orada Karkonta stolning bir chetiga sochiq yozdida, sarqit ovqat va tuxum quymoq keltirib qoʻydi.

Kadruss yana qogʻoz pullarni hamyonga, oltinni xaltachaga soldi-da, shkafga qulflab qoʻydi. U gʻamgin holda uyning u boshidan-bu boshiga borib kelar, dam-badam zargarga qarab qoʻyardi. Zargar esa kiyimlaridan koʻtarilayotgan bugʻ orasida pechga goh chap biqinini, goh oʻng biqinini tutib turardi.

«Mana, tayyor! – dedi Karkonta stolga bir shisha vino qoʻyib. – Xohishlari boʻlsa, kechki ovqatga oʻtirishlari mumkin».

«Sizlar-chi?» – soʻradi Joannes.

«Men kechki ovqatni yemayman», – dedi Kadruss.

«Biz tushlikni juda kech yegan edik», – shoshib soʻz qotdi Karkonta.

«Kechki ovqatni bir oʻzim yeymanmi?» – soʻradi zargar.

«Biz xizmatimizda boʻlamiz», – dedi Karkonta. U haq toʻlaydigan kishilarga ham bunday xushmuomalada boʻlmasdi.

Kadruss xotiniga tez-tez xoʻmrayib qarab qoʻyardi.

Momaqaldiroq hanuz davom etardi.

«Eshityapsizmi gumburlayotganini? – dedi Karkonta. – Qaytib, juda yaxshi qildingiz-da».

«Ovqatni yeb boʻlganimcha boʻron toʻxtasa, nima boʻlsayam, ketaman», – dedi zargar.

«Bu Rona vodiysining izgʻirin shamoli, ertalabgacha davom etadi», – dedi boshini chayqab Kadruss va xoʻrsinib qoʻydi.

Zargar stolga oʻtirdi-da: «Ilojim qancha, – dedi, – biroq

yo'ldagilarga qiyin-da».

«Haq gapni aytyapsiz, – dedi Karkonta, – yo'ldagilar tunni azob bilan o'tkazishadi».

3argar ovqatni yeya boshladi. Karkonta esa mezbondan shunday paytlarda nimaiki talab qilinsa, hammasini bajo keltirardi. Hamisha mijg'ov va o'jar bu xotin hozir nihoyatda nazokatli va sertakalluf bo'lib qoldi. 3argar Karkonta bilan ilgaridan tanish bo'lganda edi, uning ayni vaqtda bu qadar o'zgarib qolganini ko'rib taajjublangan bo'lar edi. Kadrossga kelsak, u hanuz g'iq etmas, mehmonga qarashga botinolmay, xonani gir aylanib yurardi.

Mehmon ovqatlanib bo'lgach, Kadross borib eshikni ochdi va:

«Momaqaldiraq nihoyasiga yetdi, shekilli», – dedi.

Biroq u so'zini tugatishi bilan, go'yo sen yolg'onni aytyapsan deganday, momaqaldiraq chunon gumburladiki, hamma yoq larzaga kelib, butun uy titrab ketdi, eshikdan ichkariga g'u villab yomg'ir aralash shamol urib kirdida, chiroqni o'chirdi. Kadross eshikni yana qulflab qo'ydi, xotini pechdan o't olib shamni yoqdi va zargarga:

«Juda charchadingiz, shekilli, – dedi, – toza to'shak sohib qo'ydim, yuqoriga chiqib bahuzur uxlang».

Joannes bo'ron to'xtamasmikin, deb yana bir oz o'tirdi, so'ng momaqaldiraq va yomg'ir tobora kuchayib borayotganini ko'rib, o'rnidan turdi-da, xo'jayinlarga xayrli kech tilab, yuqorigi qavatga yo'l oldi.

U mening ustimdagi zinadan chiqib borardi, uning oyoqlari ostida zinapoyalar g'ijirlaganini men baralla eshitdim.

Karkonta zargar ketidan xaris ko'zlarini tikib turardi, Kadross esa, aksincha, orqasini o'girib olib, unga qaramadi ham.

So'ng esga olgan bu tafsilotlarning barchasi ko'z ol dimda yuz berib turar va meni jindek bo'lsa-da, ajablan tirmasdi, umuman bo'layotgan ishlar tabiiy hol bo'lib, bir-biriga bog'liq edi (Faqat olmos voqeasi meni shubhaga

solardi).

Men nihoyatda charchadim, madorim quridi, yomg'ir va bo'ron to'xtashi bilan yotib, bir necha soat uxlab olib, tundayoq bu yerdan juftakni rostlamoqchi bo'ldim.

Yuqorida zargar boplab uyquni urish niyatida to'shaka yaxshilab o'rinishib olayotganini, so'ngra karavotning g'ijirlaganini eshitdim.

Ko'zlarim yumilib borardi, hech narsadan hech qanday shubham yo'qligi, xavotirlanishga hech qanday sabab bo'lmagani uchun uxlashga qaror qildim-da, qo'shni xonaga oxirgi marta nazar tashladim. Kadruss stol yonidagi o'rindiqa (qishloq joylardagi qovoqxonaga stol o'rniga o'rindiqlar qo'yilardi) menga orqasini o'g'irib o'tirardi, shuning uchun uning yuzini ko'rolmadim, bari bir, menga qarab o'tirganda ham ko'rolmasdim yuzini, chunki boshini quyi solib o'tirardi.

Karkonta bir oz vaqt unga tikilib turdi, so'ng yelkasini qisdi-da, ro'parasiga o'tirib oldi.

Shu payt o'chib borayotgan alanga quruq shoxni yondirib yubordi, nim qorong'i uy bir oz yorishdi. Karkonta eridan ko'zini uzmay tikilib turardi, eri boyagidek qimir etmay o'tirganidan ensasi qotgan Karkonta barmoqlari bilan uning peshanasidan ohista turtdi.

Kadruss cho'chib ketdi. Lablari qimirlayotganday tuyuldi menga, u juda sekin gapirdimi yoki uyqu bosib karaxt bo'lib qoldimmi, har holda uning ovozini eshitolmadim. Ko'zlarim ham xiralashdi, bu narsalar tushimdami yoki o'ngimda sodir bo'layotganining farqiga bormay qola boshladim. Pirovardida kipriklarim jiplashdi-da, uyquga ketdim.

Men qattiq uyquda edim, to'satdan otilgan o'q va uning ketidan qichqiriq uyg'otib yubordi meni. Tepamda asta-asta yurayotgan kishining qadami eshitildi, naq boshim ustidagi zinaga nimadir gursillab tushdi.

Hanuz o'zimga kelolganim yo'q. Fig'onli ovoz eshitildi, so'ng qaerdadir mushtlashayotgandek, qichqiriqlar qulog'imga chalindi.

Ilgarigilaridan cho'ziqroq so'nggi qichqiriq nola-fig'on-ga aylandi, shundan keyin hushimga keldim-da, tirsagimga tiralib, ko'zimni ochdim, biroq hech narsani aniq ko'rolmadim, peshonamga iliq yomg'ir tomchilari tomayotganday tuyuldi, qo'limni tekkizib ko'rdim.

Meni uyqudan mahrum etgan g'ala-g'ovurdan so'ng butun uyga og'ir sukunat cho'kdi. Tepamda erkak kishining qadami eshitildi, zina g'ijirladi. Erkak pastki xonaga tushdi-da, pech oldiga borib shamni yoqdi.

Bu Kadross edi, uning yuzi oppoq devorga aylangan, ko'ylaklari qip-qizil qonga bo'yalgan edi.

U shamni yondirib qo'ydi-da, zinadan yugurib chiqdi, men uning shoshilinch qadamlarini eshitdim yana.

Bir zum o'tar-o'tmas u yana pastga tushdi, qo'lida boyagi quticha, olmos quti ichida ekaniga imoni komil bo'lgach hovliqib qutichani dam bir cho'ntagiga, dam boshqa cho'ntagiga sola boshladi. So'ng, aftidan, cho'ntak unga ishonadigan joy emasligiga imoni komil bo'ldi, shekilli, qizil ro'molchasiga o'rab bo'yniga bog'lab oldi.

So'ng yugurib borib shkafdan oltinni va qog'oz pullarni oldi-da, bo'lib-bo'lib shimining cho'ntaklariga, kamzulinig kissalariga soldi, ikki-uchta ko'ylak olib, eshikdan otilib chiqib ketdi. Ana shundan so'ng menga hamma sir ayon bo'ldi, go'yo yuz bergan voqealarga aybdordek o'zimni koyiy boshladim. Ingragan tovush eshitilganday bo'ldi. Sho'rlik zargar tirikmikan hali, deb o'yladim. Ehtimol unga ko'mak bersam, o'zim qilmagan va lekin boshqalarning qilishiga yo'l qo'yib bergan jinoyatni ancha yengillashtirgan bo'larman, dedim o'z-o'zimga. Pastki xona bilan men yotgan xona o'rtasiga omonatgina o'rnatib, biriktirib qo'yilgan taxtalarni yelkam bilan itardim, taxtalar ikki tomonga ayrildi, ichkari kirdim.

Darrov shamni oldim-da, zinadan yugurdim, zinapoyada kimningdir tani ko'ndalang tushib yotardi. Bu Karkontaning jasadi edi.

Men eshitgan o'q shunga otilgan ekan. O'q Karkonta-

ning bo'ynidan teshib o'tibdi, ikki tomondagi yaradan qon oqyapti, og'zidan ham qon kelyapti.

Xotin dunyodan o'tgan edi.

O'lik ustidan irg'ib o'tib, yuqoriga chiqdim. Yotoqxonaga to's-to'polon bo'lib yotibdi. Ba'zi mebellar ag'dar-to'ntar qilib tashlangan. Sho'rpehana zargar jon talvasasida mahkam changallagan choyshablar uyning har tomoniga uloqtirib tashlangan, zargar boshini devorga tiragancha, ko'kragidagi uch yaradan oqayotgan qonga bo'yalib yotardi. To'rtinchi yaraga oshpichoq suqilganicha osilib turibdi, uning faqat sopi ko'rinardi.

Oyog'im ostida, dorisi namlanib qolganidan bo'lsa kerak, otilmagan to'pponcha yotar edi.

Zargar oldiga bordim, hali uning joni bor edi, qadimdan, ayniqsa, polning silkinishidan u xiralashib qolgan ko'zlarini ochdi-da, menga tikildi, lablarini qimirlatib biror narsa demoqchi bo'ldi, so'ng jon berdi.

Bu dahshatli manzaradan naq aqldan ozay dedim, hech kimga yordam berolmadimmi, demak, tezroq bu yerdan qochib gumdon bo'lish kerak, dedim o'zimga o'zim.

Kallamni ikkala qo'lim bilan mahkam siqdimu, qichqirib zinaga otdim o'zimni.

Pastki xonada bojxonaning oltita nazoratchisi va ikki uchta jandarm turgan ekan.

Meni tutib olishdi, men jindak ham qarshilik ko'rsatmadim, es-hushimni yo'qotib qo'ygan edim. Gapirmoqchi bo'ldim, biroq g'o'ldiragan ovoz chiqdi tomog'imdan.

Bojxona nazoratchilari va jandarmlar barmoqlari bilan meni ko'rsatishayotganini ko'rdim. O'zimga qaradim, kiyimlarim qip-qizil qonga bo'yalgan edi. Zinadan ustimga tomgan iliq yomg'ir Karkontaning qoni ekan.

Barmoqlarim bilan yashirinib yotgan joyni ko'rsatdim.

«Nima demoqchi u?» – so'radi jandarmlardan biri.

Bojxona xodimlaridan biri men ko'rsatgan tomonga bordi.

«O'sha yerdan kirib keldim demoqchi», – dedi u va men

kirgan teshikni ko'rsatdi.

Shunda men, ular meni qotil deb o'ylashayotganini tushundim. Shu payt tilim kalimaga kelib, kuch paydo bo'ldi menda, meni tutib turgan kishilar qo'lidan yulqinib chiqib oldim-da, qichqirdim:

«Men emas! Yo'q, yo'q! Men emas!»

Jandarmlardan ikkisi miltig'ini o'qtaldi.

«Qimir etsang, – asfalasofilinga ketasan».

«Axir sizga to'g'risini aytyapman-ku, – dedim chinqirib, – men emas!»

«Bu gaplaringning hammasini Nimda sudyaga aytasan, – javob qilishdi ular. – Hozir ketimizdan yur, nasihatimizga quloq solgin-da, hech qarshilik qilmay yuraver».

Men qarshilik ko'rsatishni xayolimga ham keltirmagan edim, vahima va hayajon ostida ruhim tushib, ezilib ketgan edim. Qo'limga kishan solishdi, ot dumiga bog'lashdi-da, Nimga olib ketishdi.

Ma'lum bo'lishicha, bojxona nazoratchilaridan biri meni ta'qib qilib kelgan ekan, kovoqxona oldida ko'zdan qochirib qo'yib shu yerda tunaydi bu, deb o'rtoqlariga xabar bergani ketgan va o'q otilgan vaqtda yetib kelishgan ekan. Meni shu paytda tutib olishdiki, endi o'zimning begunohligimni isbotlashim mushkul, deb o'yladim.

Men butun aql-idrokimni bir narsaga qaratdim: dastlab tergovchidan xuddi shu kuni «Gar ko'prigi» qovoqxonasiga kelib ketgan abbat Buzonini axtarib toptirishni iltimos qildim. Mabodo Kadrussning aytdanlari uydirma gaplardan iborat bo'lsa, mabodo bunaqangi abbatning o'zi yo'q bo'lsa, men halok bo'laman. Kadrussni topishsayu, u o'z qilmishlariga iqror bo'lsa, unda boshqa gap.

Ikki oy o'tdi, tergovchim abbatni topib kelish uchun qo'lidan kelgan hamma choralarni ko'rdi, ammo natija chiqmadi. Men umidimni batamom uzib qo'ya qoldim. Meni yaqinda bo'ladigan sessiyalardan birida sud qilish-

bir kecha»ning tarjimoni.

lari kerak edi. Biroq to'satdan sakkizinchi sentyabrda (qotillik yuz berganidan rosa uch oyu besh kun o'tganida) turmaga kelmaydi, deb umidimni uzib qo'ygan abbat Buzoni kirib keldi va mahbuslardan biri men bilan gaplashmoqchi ekan, dedi. So'ziga qaraganda, u buni Marselda eshitib kelibdi.

Men uning kelishidan o'zimda yo'q xursand edim. Ko'rgan, eshitgan, bilganlarimning hammasini oqizmaytomizmay unga aytib berdim, so'ng hayajonga tushib, olmos voqeasini hikoya qila boshladim. Kadruksning hikoyasi haqiqat ekan, abbat ham mening gaplarimga tamoman ishonchi, men ishonmas, deb o'ylagandim.

Men uning mehr-shafqatiga maftun bo'lib qoldim, va tanimning urf-odatlarini bilan uning juda yaxshi tanish ekanini ko'rib turardim, shu sababli bu mehribon zot gunohimni kechar, deb Oteylda yuz bergan voqeani ham butun tafsiloti bilan aytib berdim. Ochiq aytganim yaxshi bo'ldi. U gaplarimga ishonchi, ikkinchi o'ldirishda qatnashmaganimga ishonchi komil bo'ldi, shuning uchun ham u, sizning aybingiz yo'qligiga sudyani inontirish uchun qo'limdan kelgan hamma choralarni ko'raman, deb umidvor qilib ketdi.

Turma tartiblari menga nisbatan tobora yengillashtirayotganini ko'rib, abbat mening ishim bilan shug'ullanayotganini fahmladim, ishim kelasi sessiyaga qoldirilganini eshitdim.

Shu orada taqdir taqozosi bilan chet elda Kadruksni tutib olishib, Fransiya keltirishibdi. U hamma qilmishlarini bo'yniga oldi, aybni xotiniga ag'dardi. Kadruksni umrbod qamoqqa hukm qilishdi, meni esa ozod etishdi.

– Siz shundan keyin abbat Buzonining tavsiya xati bilan mening huzurimga keldingiz.

– Shunday, janobi oliylari, u menga yordam qildi.

– Kontrabandistlik kasb-koringiz sizni halokatga duchor etadi, – dedi u. – Bu yerdan chiqqach tashlang bu ishingizni.

– Ammo, otaxonim, – dedim men, – men tirikchilikni

qanday o'tkazaman. Sho'rlik qallig'imni qanday boqaman?

«Mening muridlarimdan biri meni o'z otasidek hurmat qiladi. U mendan ishonchli odam topib berishni iltimos qilgan edi. Agar o'shaning xizmatida bo'lishni istasangiz, tavsiya xati yozib beraman».

«Otaxonim! – xitob qildim men. – Sizday mehr-shafqatli zoti-sharifga jonni fido qilsam ham kamlik qiladi!»

«Ammo, meni uyaltirib, afsuslantirib qo'ymaslikka va'da berasizmi?»

Qasamyod qilish uchun qo'llarimni baland ko'tardim.

«Buning keragi yo'q, – dedi u, – men korsikaliklarni bilaman va yaxshi ko'raman, mana sizga tavsiya xati».

U bir parcha qog'ozga xat yozib berdi, xatni men sizga keltirib berdim, shu asosda janobi oliylari meni xizmatga oldilar. Endi men jur'at etib, biror ishimdan norozi bo'lganmisiz, deb so'rasam bo'lur.

– Yo'q, – javob qildi graf, – siz menga uncha ishonmasangiz-da, men sizdan juda xursandman, Bertuchcho, xizmatangizdan mamnunman.

– Men-a? Men sizga – janobi oliylariga ishonmas ekanmanmi?

– Ha, siz. Axir qallig'ingiz va asrandi o'g'lingiz bor ekanu, shu vaqtgacha menga aytmay keldingiz.

– E-e, janobi oliy, men hali hayotimning eng qayg'uli joyini sizga aytganim yo'q. Mana eshiting: o'shandan keyin Korsikaga jo'nadim, tezroq kelinni ko'rib, tasalli bermoqchi bo'ldim, ammo Rolyanoda baxtsizlikka duch keldim, mening uyimda shunday dahshatli voqea yuz berganki, qo'shnilarim hali-hali esga olganda seskanib ketishadi. Sho'rlik kelin mening maslahatlarimga amal qilib, Benedettoga pul bermay qo'ygan ekan! Bir kun ertalab u do'q urib, kun bo'yi yo'q bo'lib ketibdi. U nobakorni o'z o'g'liday sevib qolgan sho'rlik Assunta qon qaqshab yig'labdi. Kech kiribdi. U mijja qoqmay bolani kutibdi. Soat o'n birda u ikki hamtovoq jo'rasini ergashtirib kelibdi. Assunta o'g'lini bag'riga bosmoqchi bo'libdi, ammo ular

ayolni qo'lidan mahkam tutib olibdi, so'ng birisi: «Qani, keling, bir qiynoqqa solish o'yini qilaylik, ana shunda pul-larini qayoqqa qo'yganini aytib beradi», – debdi. Buni hoynahoy o'sha nonko'r, yaramas bola aytgan.

Qo'shnimiz Vasilio ham shu kuni yo'q ekan – Bastiya-ga ketgan ekan, uyida faqat xotini qolgan ekan. Kelin-ning uyida bo'lgan voqeani undan bo'lak hech kim ko'rmabdi va eshitmabdi. Ikkisi Assuntani mahkam tutib turibdi. Bechora ayol bu bolalardan biror jinoiy ish chiqi-shi mumkinligini tasavvur qilolmay, mehribon ko'zlarini mo'ltiratib, bo'lg'usi qotillariga tikilib kulib turaveribdi. Bolalardan uchinchisi eshik va derazani mahkam beki-tibdi-da, qaytib haligi ikkisining oldiga kelibdi. Bu qabih tayyorgarlikni ko'rgan Assunta qichqirib yuboribdi, oyog'i-dan sudrab, yonib turgan o'choqqa olib borishibdi. Ular, endi pul qaerga yashirilganini aytib beradi, deb o'ylash-gan bo'lsa kerak, biroq Assunta ularning qo'lidan qutulishga harakat qilayotganida ko'ylagi loyillab yonib ketibdi, ular o'zlari ham yonib ketishidan qo'rqib, baxtsiz kelinni o'z holiga tashlab qochishibdi. Ust-boshi yonib borayotgan Assunta tashqariga chiqishga harakat qilibdi, biroq eshik qulflangan, deraza qoqib tashlangan ekan.

Qo'shni ayol dod-faryod ovozini eshitibdi. Bu Assunta bo'lib, yordamga chaqirayotgan ekan. Uning ovozi bor-gan sari bo'g'ilib, pasayib ingrashga aylanibdi. Vahimali hodisalar bilan o'tgan shu kechadan so'ng, ertasi Vasili-oning xotini uydan chiqib, hukumat organlariga ma'lum qilgan, sud organlarining xodimlari kelib, eshikni sindirib ochganlarida Assunta kuyib, jizg'inak bo'lib yotgan ekan, ammo hali tirik ekan, bolalar shkaflarni buzib, pullarni olib ketishibdi. Benedetto Rolyanodan gumdon bo'lib ketdi, o'shandan buyon men uni ko'rganim, uning to'g'ri-sida biror xabar eshitganim yo'q.

Bertuchcho so'zini davom ettirib dedi:

– Bu qayg'uli voqeani eshitib, men siz – janobi oliylari huzuriga yo'l oldim. Sizga dom-daraksiz ketgan Benedet-to bilan o'lgan qallig'im to'g'risida gapirib o'tirishning

hojati yo'q, deb hisobladim.

– Bu voqea to'g'risida o'zingiz qanday fikrdasiz? – so'radi Monte-Kristo.

– O'z jinoyatim uchun Xudoning g'azabiga uchradim, – dedi Bertuchcho. – Oh, bu la'nati Vilforlar avlodi!

– Men ham shunday deb o'ylayman, – dedi g'amgin ohangda graf.

– Mana endi, – davom etdi Bertuchcho, – o'shandan beri qadam bosmaganim bu uy, o'shanda favqulodda kirib qolganim bu bog', men o'ldirgan bu joy meni hayajonga solib, ruhiy azob berayotganining sabablari sizga ma'lum bo'lgan bo'lsa kerak. Ochig'ini aytsam, mana shu yerda oyog'im ostida, o'z farzandi uchun qazilgan qabrda janob de Vilforning yotganiga ishonmayman.

– Shunday bo'lishi ham mumkin, – dedi o'rnidan tura-yotib Monte-Kristo, – qirol prokurori tirikdir balki. Abbat Buzoni sizni menga yuborib juda yaxshi qilgan ekan. Siz menga hamma voqealarni mufassal aytib berib yaxshi qildingiz, endi sizning haqingizda men yomon fikr aytolmayman. Beo'xshov nom berilgan Benedetto nima bo'ldi? Siz uning iziga tushmadingizmi? Uning taqdiri bilan qiziqmadingizmi?

– Hech qiziqmadim. Uning qaerdaligini bilgan taqdir-da ham, uni ko'rishga intilmasdim... Undan xuddi vabodan qochgandek qochardim. Xudoga shukrki, hech qachon, hech kimdan uning daragini eshitmadim, aminman, u dunyodan o'tgan.

– Amin bo'lmang, Bertuchcho, – dedi graf, – yovuz maxluqlar osonlik bilan jon bermaydi. Xudoning o'zi ham o'zining qasos quroli qilib olish uchun ularni o'z panohida asraydi.

– Asrasa asrayversin, – dedi Bertuchcho, – men endi uning basharasini aslo ko'rmayin, Tangrimdan tilagim shu. Mana endilikda, – dedi ish boshqaruvchi boshini quyi solib, – janobi oliylari hammasidan xabardor bo'ldilar. Osmonda Egamning o'zi-yu, yerda siz, mening pushtipanohimsiz, men sho'rlikka tasalli beradigan,

yupatadigan biror gap aytmasmikinlar?

– Bu gapingiz to‘g‘ri, men faqat abbat Buzoni aytgan gaplarini takrorlashim mumkin. Vilfor sizga va yana boshqa birovlariga qilgan yomonligi uchun qasos jazosiga mubtalo bo‘lishi kerak, albatta. Benedettoga kelsak, u tirik bo‘lsa, hali aytganimdek, Tangri qahrining quroli bo‘lib xizmat qiladi-da, so‘ngra o‘zi ham jazoga mahkum etiladi. Siz faqat bir narsada, ya‘ni go‘dakni o‘limdan qutqarib qoldimu, lekin uni onasiga olib borib bermadim, deb o‘zingizga ta‘na qilishingiz mumkin. Siz, Bertuchcho, mana shu borada gunohkorsiz.

– Haq gapni aytdingiz, janobi oliylari, men bunda aybdorman, qo‘rqoqlik qildim. Bolani o‘limdan qutqargan zahotim, siz aytgandek, uni onasiga bermog‘im kerak edi. Ammo buning uchun ba‘zi ma‘lumotlarni to‘plashim, boshqalarning e‘tiborini o‘zimga jalb qilishim, ehtimol sir-larimni ochib berishim kerak edi. Men esa o‘lishni istamadim, qallig‘im ham meni yashashga majbur etardi, buning ustiga korsikaliklarning qoniga singib ketgan odat g‘olibona, oxirigacha qasos olish odati ham bu yerda o‘z ta‘sirini o‘tkazdi, qolaversa, men yashashni, hayotni sevaman. Axir, men akamchalik dovyurak emasman-da.

Bertuchcho qo‘llari bilan yuzini yashirdi, Monte-Kristo esa unga uzoq, o‘ychan ko‘z tikib qoldi.

Bir soniyalik sukunatdan so‘ng graf o‘z odatiga mos bo‘lmagan g‘amgin ohangda dedi:

– Suhbatimizni maromiga yetkazish uchun, Bertuchcho, abbat Buzonidan bir necha bor eshitgan quyidagi so‘zlarimni esga oling: «Har qanday balodan qutulish uchun ikkita dori bor – vaqtu sukut». Endi bog‘ni aylanib chiqmoqchiman. Dahshatli voqealarda qatnashgan, siz uchun bu yerda og‘ir tuyulayotgan narsalarning hammasi menda yoqimli, xushnud tuyg‘u uyg‘otadi va bu joyning qadr-qimmatini ikki karra oshirib yuboradi. Bertuchcho, shuni anglab olingki, daraxtlar soya bergani uchun aziz, soyaning o‘zi esa shirin xayollar, umid-orzular uyg‘otgani uchungina azizdir. Mana men shu boqqa ega bo‘lib oldim,

men buni faqat atrofi o'rab olingan bir qarorgoh, deb o'ylagandim, ammo bu qarorgoh shartnomada ko'rsatilmagan, arvohtarlar daydib yuradigan bog' bo'lib chiqdi. Men arvohtarlarga juda hirs qo'yanman, tiriklar bir kunda qiladigan yovuzliklarni o'liklar olti ming yilda ham qilolmaydilar: har qalay bu to'g'rida hech qachon hech narsa eshitganim yo'q. Bertuchcho, endi siz uyga qayting, tunlari xotirjam uxlang. Mabodo so'nggi soatlarda ruhiy yo'ldoshingiz abbat Buzonidek muruvvat qilmay qo'ysa, meni chaqiring, tirik bo'lsam baqolik deb ataladigan og'ir yo'lga chiqish oldidan joningiz orom oladigan, tasalli beradigan so'zlar topib aytaman.

Bertuchcho izzat-ikrom bilan grafga ta'zim qildi-da, bir uhr tortib chiqib ketdi.

Monte-Kristo yakka o'zi qoldi, bir necha qadam tashladi.

– Mana shu yerda, chinor tagida go'r bo'lib, unga bolaning tani qo'yilgan, – dedi shivirlab u, – ana u yerda maxfiy eshik, boqqa shu eshikdan kirishgan, ana burchakda yotoqxonaga chiqadigan xufiya zina. Bularni qo'yin daf-taringa yozib o'tirishga hojat yo'q, chunki hammasi ko'z oldimda.

Graf shunday dedi-da, bog'ni yana bir aylanib chiqib izvosh tomonga yurdi. Bertuchcho grafni o'ychan holda ko'rib, sukut saqlab, izvoshchi yoniga o'tirdi.

Izvosh Parij tomonga g'izillagancha ketdi.

Shu kuniyoq graf Monte-Kristo Elisey maydonidagi qarorgohiga qaytdi-da, butun binoni xuddi ko'p yillardan beri bilgan kishidek, aylanib, ko'zdan kechirib chiqdi. U, hammadan oldinda borib, eshiklarni hech adashmay ochar, qaysi zina qaerga olib borishini bilib qadam tashlardi. Ali ham u bilan birga edi, Graf xonalarni bezash yoki taqsimlash to'g'risida bir necha farmoyish berdi-da, soatiga qarab, qulog'ini ding qilib turgan nubiyalikka:

– Soat o'n bir yarim bo'lib qolibdi, – dedi, – hali zamon Gayde kelishi kerak. Fransuz oqsochlari ogohlantirilganmi?

Ali alban jononiga ajratib qo'yilgan joyni ko'rsatdi, bu xufiya joy bo'lib, mabodo eshigi ustiga gilam osib qo'yilgan, butun binoni aylanib chiqqan kishi, uning orqasida yana bir mehmonxona va ikkita xona borligini payqab ololmasdi. Ali qo'li bilan o'sha eshikni ko'rsatdi-da, chap qo'lining uch barmog'ini ko'tardi va boshini shu qo'lga qo'yib, ko'zini yumdi-da, o'zini uxlaganga soldi.

– Tushundim, – dedi shu usulda gaplashishga odatlanib qolgan Monte-Kristo, – jononni uchalasi yotoqxona-da kutib turibdi demoqchisiz, shundaymi?

– Ha, shunday, – boshi bilan imo qildi Ali.

– Beka bugun juda horib keladi, – dedi davom etib Monte-Kristo, – darrov yotishni istar, uni hech gapga solmaslik kerak, oqsoch-fransuzlar yangi bekasini qarshi olib ta'zim etishsin-da, darhol chiqib ketishsin, kaniz-grek, fransuz ayollar bilan aloqada bo'lmasin, qarab tur.

Ali ta'zim qildi.

Ko'p o'tmay, kimdir darvozabonni chaqirdi, darvoza ochildi, bir izvosh xiyobondan yurib kelib ostonada to'xtadi.

Graf pastga tushdi, izvoshning eshikchalari darrov ochildi. U boshidan oyog'igacha zarhal libosga o'ralib olgan yosh qizga qo'lini uzatdi.

Qiz uning qo'lini olib mehr bilan o'pdi-da, bir necha yoqimli so'zlar aytdi, graf jiddiy tabassum bilan javob qaytardi, shu payt uning so'zlari kekxa Gomer asarlaridagi xudolar obrazlariniki kabi ohangdor edi.

So'ng qiz qo'lida qizil sham ko'tarib ketayotgan Ali ketidan o'z yotoqxonasiga kirib ketdi. Bu qiz Italiyada Monte-Kristoga hamroh bo'lib yurgan o'sha go'zal alban qiz edi. Graf ham o'z xonasiga kirib ketdi.

Tungi soat o'n ikki yarimda uyning barcha xonalarida chiroq o'chirildi, endi hamma uyquga ketdi, deb faraz qilsa bo'lar edi.

VIII. CHEKSIZ QAR3

Ertasi kunduzi soat ikkiga yaqin ikkita ingliz dulduki qo'shilgan izvosh kelib Monte-Kristo darvozasi oldida to'xtadi. Ko'k ipak tugmali ko'k kamzul, zarhal jiyakli oq nimcha, zangori cholvor kiygan, ellik beshni urib qo'ygan bo'lsa-da, o'zini qirq yoshdagi qirchillama yigit qilib ko'rsatishga urinib yurgan erkak kishi izvosh darchasidan boshini chiqarib qaradi. Uning peshanasini batamom qoplab, ko'zlarigacha osilib tushgan to'sdek qora sochlarini ko'rgan kishi bu sochlar o'ziniki ekanligiga shubhanmasligi mumkin emasdi. Izvosh eshiklariga baron tojining surati solingandi. U jilovbardor bolaga qorovuldan graf Monte-Kristo uydaligini so'rab kelishni buyurdi.

Bola qaytguncha uyning tashqi ko'rinishini, bog'ning ko'z ilg'aydigan yerini va devor orqasida ivirsib yurgan xizmatkorlarning kiyimlarini diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqdi. Uning ko'zlari ko'proq aqldan emas, quvlikdan darak berib, jovdirab turardi. Nihoyatda yupqa lablari tashqariga emas, ichkariga qayrilib ketgandi, keng va bo'rtiq yonoq suyaklari makkorligidan darak berar, tor peshanasi, shishib chiqqan besunaqay gardani, oqsuyaklarnikiga o'xshamagan cho'ziq quloqlari har qanday fizionomistni, bu zotning xulq-atvori jirkanchli bo'lsa kerak, deb o'ylashga majbur etardi. Ammo uning hashamatli izvoshi, ko'kragidagi yirik brilliant ordenlarning uzun qizil tasmasi sodda odamlarni hayratga solardi.

Jilovbardor bola qorovulning eshigini taqillatib so'radi:

– Graf Monte-Kristo shu yerda turadimi?

– Ha, janobi oliylari shu yerda yashaydilar, – dedi qorovul, – biroq...

U Aliga, nima deyin, deb imo qildi.

Ali yo'q deb yubor degandek imo qildi.

– Xo'sh?.. – so'radi bola.

– Biroq janobi oliylari qabul qilmaydilar, – dedi qorovul.

– Unday bo'lsa, mana xo'jayinim baron Danglarning tashrif qog'ozi. Buni graf Monte-Kristoga bering. Mening

xo'jayinim Palataga borayotib grafni ko'rib o'tay, deb kelgan edilar, shunday deb ayting unga.

– Men janobi oliylari bilan gaplashish huquqidan mahrumman, – dedi qorovul, – topshirig'ingizni kamerdiner bajo keltiradi.

Jilovbardor bola izvosh yoniga qaytdi.

– Xo'sh, bor ekanmi? – so'radi Danglar.

Ta'na-ta'zir yeb kelgan bola xo'jayiniga qorovulning javobini yetkazdi.

– O'h-ho', – dedi baron, – uni janobi oliylari deb atasalar va u bilan faqat kamerdiner gaplashish huquqiga ega bo'lsa, u juda baobro' zotga o'xshaydi, lekin mening bankim bilan aloqa bog'lab, pul qo'ygan ekan, unga pul kerak bo'lib qolganda albatta uchrashmog'im kerak.

Danglar shunday dedi-da, hammaga eshittirib, izvoshchiga:

– Deputatlar Palatasiga! – deb qichqirdi.

Vaqtida ogohlantirib qo'yilgan Monte-Kristo deraza chiy pardasi tirqishlaridan qarab baronni ko'rdi va ajoyib durbin bilan baronga sinchiklab nazar tashlab chiqdi.

– Bir qarashdayoq bu zot, – dedi u jirkanch ohangda durbinini g'ilofiga solib, – murdor bir maxluq. Yapaloq peshanasidan ilonning, do'mboq kallasi-yu, qiyg'ir burnidan kalxatning o'zi!

– Ali! – qichqirdi graf, so'ng mis qo'ng'iroqni bir urdi. Ali kirdi. – Bertuchchoni chaqir.

Shu zahoti Bertuchcho kirdi.

– Janobi oliylari, meni chaqirtirdingizmi? – dedi u.

– Ha, – dedi graf, – darvozam oldida hozir kelib ketgan otlarni ko'rdingizmi?

– Ko'rdim, janobi oliylari, juda ajoyib otlar ekan.

– Sizdan menga Parijning eng yaxshi otlarini sotib oling deb talab qilgan edim-ku, – dedi Monte-Kristo, – qanday qilib yana ikkita yaxshi duldul paydo bo'lib qoldi shaharda? Nega bu otlar mening otxonamda emas?

Grafning chimirilgan qoshlarini ko'rib va zardali ovo-zini eshitgan Ali boshini quyi soldi.

– Azizim Ali, bu ishda sen aslo gunohkor emassan, – dedi mehribonlik bilan arab tilida graf kutilmaganda, – sen ingliz otlarini bilmaysan-ku.

Alining chehrasi yana ochilib ketdi.

– Janobi oliylari, – dedi Bertuchcho, – siz koʻrgan bu duldullar sotilmaydi.

Monte-Kristo yelkasini qisdi.

– Bilasizmi, janob ish boshqaruvchi, agar yaxshi baho qoʻyilsa, sotilmaydigan narsa yoʻq.

– Janobi oliylari, u otlarni janob Danglar oʻn olti ming frank toʻlab oldi.

– Unday boʻlsa, siz oʻttiz ikki ming beraman deng, u bank xoʻjayini, bunday kishilar oʻz kapitalini ikki baravar oshiradigan savdodan aslo qaytmaydi.

– Hazillashayotganingiz yoʻqmi, janobi oliylari? – soʻradi Bertuchcho.

Monte-Kristo, bu odam menga bunday savol berishga qanday jurʻat etdi degandek, ajablanib qarab qoʻydi.

– Men bugun kechqurun, – dedi u, – mukallifman, haligi otlar mening izvoshimga qoʻshib qoʻyilishini istayman.

Bertuchcho taʼzim qildi-da, orqasiga tisarildi, eshik oldida toʻxtab:

– Janobi oliylari, soat nechada joʻnaydilar, – dedi.

– Soat beshda, – javob qildi Monte-Kristo.

– Kechiring meni, janobi oliylari, hozir soat ikki boʻlib qoldi-ku, – dedi mujmal qilib ish boshqaruvchi.

– Bilaman soat ikkiligini, – dedi Monte-Kristo gapni qisqa qilib.

Soʻng Ali tomonga oʻgirildi:

– Hamma otlarni xonimga roʻpara qiling, yoqqanini qoʻshdirsin oʻz izvoshiga, soʻragin-chi, men bilan birga ovqatlanishni istarmikin, xoʻp desa, ovqatni uning xonasiga olib borishsin. Bor, kamerdinerni chaqir...

Ali ketishidan bir zum oʻtmay kamerdiner kirdi.

– Batisten, – dedi graf, – menda xizmat qilayotganingizga bir yil boʻp qoldi, men xizmatkorlarimni sinamoq uchun bir yil muddat qoʻyaman. Siz sinovdan oʻtdingiz,

menda xizmat qilishga loyiqsiz.

Batisten ta'zim qildi.

– Endi faqat bir narsani bilishim kerak: men sizga loyiqmanmi?

– O, janobi oliylari, bo'lmasa-chi!

– Gapimga oxirigacha quloq soling, – davom etdi graf.

– Siz yiliga bir yarim ming frank olasiz, bu har kuni hayotini tahlika ostiga qo'yadigan jasur ofiserning maoshi, hamma havas qiladigan ovqat bilan ta'min etilgansiz. Siz xizmatkor bo'lsangiz-da, ixtiyoringizda usti boshingizni tayyorlab turadigan xizmatkoringiz bor. Bir yarim ming frank maoshdan tashqari, menga kiyim-bosh olganingizda yiliga taxminan bir yarim mingni o'marasiz.

– Aslo, janobi oliylari, aslo qilmayman bunday ishni!

– Men koyinayotganim yo'q, Batisten. Bu uncha ko'p emas, biroq bu summadan oshirib yubormang, men faqat shuni istayman. Ko'rib turibsizki, hech yerdan bundaqa joyni topolmaysiz. Men xizmatchilarimni kaltaklamayman, haqorat qilmayman, ulardan g'azablanmayman, hamma vaqt xatolarini kechiraman, ammo beparvolik yoki parishonlik qilsa, kechirmayman. Mening farmoyishlarim aniq va qisqa. Farmoyishlarimni tushunmayotganlarini ko'rgandan ko'ra, ularni ikki va hatto uch karra takrorlash yaxshi menga. Istagan narsamni bilib olishga qurbim yetadigan darajada boyman, ogoh bo'lingki, juda qiziquvchanman. Shu vajdan, menim haqimda, yaxshilabmi, yomonlabmi gapirganingizni, xatti-harakatimni muhokama qilganingizni, yurish-turishimga nazar tashlab, poylab yurganingizni sezib qolsam, o'sha zahoti ishdan bo'shatilasiz. Men xizmatchilarimni faqat bir marta ogohlantiraman. Siz ogohlantirildingiz, bo'ldi, boring!

Batisten ta'zim qildi-da, eshik tomonga bir necha qadam tashladi.

– Darvoqe, – dedi graf, – bir narsani unutibman. Har yili xizmatchilarim nomiga bankga ma'lum mablag' qo'yaman. Kimniki bo'shatib yuborsam, bu puldan mahrum bo'ladi, uning pulini men o'lgach, boshqa xizmat-

chilar oladi. Menga bir yildan buyon xizmat qilyapsiz, demak, sizga sarmoya qo'yila boshladi. Uni ko'paytirish o'zingizga bog'liq.

Bu so'zlar fransuz tilidan bexabar Aliga hech ta'sir qilmagan bo'lsa-da, Batistenga juda yoqib tushdi. Fransuz xizmatkorlarining psixologiyasini bilgan kishiga bu taajjublanadigan hol emas.

– Men hamma ishni siz istagandek qilib bajo keltirishga harakat qilaman, – dedi Batisten, – boz ustiga ishni o'rinlatishda janob Alidan ibrat olaman.

– Aslo unday qilmang, – dedi sovuq ovoz bilan graf. – Yaxshi fazilatlari bilan birga, uning ko'p kamchiliklari ham bor: undan namuna olmang, chunki Ali – o'ziga xos odam. U maosh olmaydi, bu xizmatkor emas, mening qulim, kuchugim, agar u o'z burchini ado etmasa, men uni haydamayman, o'ldiraman.

Batistenning ko'zlari olayib ketdi.

– Siz, aftidan, ishonmayapsiz, shekilli? – so'radi Monte-Kristo.

So'ng hozirgina fransuz tilida Batistenga aytgan gaplarini Aliga arabcha takrorladi.

Ali uning gapini eshitib, iljaydi, so'ng xo'jasining oldiga borib, bir tizzasi bilan cho'kdi-da, izzat-hurmat bilan qo'lini o'pdi.

Buni ko'rgan Batisten hang-mang bo'lib qoldi. Graf, imo bilan boraver endi, dedi unga. Ali xo'jasi izidan bordi. Ular xonaga kirib uzoq suhbat qilishdi.

Soat beshda graf uch marta qo'ng'iroq urdi. Birinchisi Aliga, ikkinchisi Batistenga, uchinchisi Bertuchchoga edi. Ish boshqaruvchi kirdi.

– Otlarni tayyor qiling! – dedi Monte-Kristo.

– Otlar qo'shilgan, janobi oliylariga mahtal! – dedi Bertuchcho. – Janobi oliylari bilan men ham boramanmi?

– Yo'q, faqat izvoshchi, Batisten va Ali boradi.

Graf zinaga chiqdi, Danglar kelgan izvoshdagi otlar uning izvoshiga qo'shig'lik turgan edi.

Graf otlar yonidan o'tayotib, ularga razm soldi.

– Chindan ham ajoyib otlar ekan, – dedi u, – bir oz kechikib bo’lsa-da, sotib olib yaxshi qildingiz.

– Janobi oliylari – dedi Bertuchcho, – menga bularni olish juda qiyin bo’ldi. Nihoyatda qimmatga tushdi bu otlar.

Graf yelkasini qisdi.

– Axir, bundan otlarning fazilati kamayib qolgani yo’q-ku.

– Janobi oliylari mamnun ekan, – dedi Bertuchcho, – demak, hamma ishni do’ndiribmiz-da. Qayoqqa buyuradilar?

– Shosse d’Anten ko’chasiga, baron Danglarnikiga. Ha, aytmoqchi Bertuchcho, – deb ilova qildi graf, – menga dengiz bo’yidan, masalan, Normandiyadan, Gavr bilan Bulon o’rtasidan bir hudud kerak. Men, bilasizki, tanlashda sizning shashtingizni hech qaytarayotganim yo’q. Siz oladigan hududda mening kemam turadigan kichkina gavan, ko’rfaz yoki qo’ltiq bo’lsin. U kun va tunning istagan vaqtida kema darhol suzib chiqadigan bo’lmog’i kerak. Mana shu shartlarga javob bera oladigan hudud to’g’risida hamma notariuslardan ma’lumotlar oling. Ma’lumotlarni to’plab olganingizdan keyin, borib ko’rasiz, mabodo birorta hudud yoqsa o’z nomingizga sotib olasiz. Kema Fekan yo’lida bo’lsa kerak, shundaymi?

– Biz Marseldan jo’nagan kun kechqurun men uning dengizga chiqqanini ko’rgandim.

– Yaxta-chi?

– Yaxta Martigda tursin, deb farmon berganmiz.

– Juda soz! Siz ahyon-ahyonda ikkala kapitan bilan uchrashib turasiz, tag’in uxlab qolmasin ular zarur vaqtda.

– Paroxodni nima qilaylik?

– Shalonda turganinimi?

– Ha.

– Ularga ham ikkala yelkanli kemaga berilgan farmoishni bering!

– Xo’p bo’ladi.

– Hududni sotib olish bilanoq shimol va janub tomondagi yo'llarda har o'n leda otlar tayyor qilib qo'yilishini ta'min eting.

– Hammasini bajo keltiraman janobi oliylari, xotirjam bo'ling.

Graf mamnun bo'lganini bildirib boshini qimirlatdi, irg'ib izvoshga mindi, duldullar shamoldek yelib, bankir uyi oldida to'xtadi.

Danglarga graf Monte-Kristo tashrif buyurganini aytganlarida u temir yo'l komissiyasining majlisida raislik qilayotgan edi. Majlis oxiray deb qolgan edi.

Grafning nomini eshitib, Danglar o'rnidan turdi-da, hamkasblariga murojaat qildi (ba'zilar yuqori yoki quyi Palataning faxriy a'zolari edi):

– Janoblar, kechiring meni, majlisni tashlab ketishga majburman. Rimdagi Tomson va French firmalari graf Monte-Kristo degan bir shaxsga cheksiz qarz ochibdi. O'sha firma uni menga yuboribdi, hozir ana shu noma'lum graf tashrif buyuribdi huzurimga. Men bilan muomalada bo'lganlar orasida bunaqangi bema'nigarchilikka yo'l qo'rganlarini hali-hanuzgacha uchratganim yo'q edi. Men bunga qiziqib qoldim-da, bugun ertalab ana shu soxta grafni ko'rib o'tay deb bordim. Sizga ayonki, mabodo u haqiqiy graf bo'lsa bunchalik boy bo'lmasdi. U janoblari meni qabul qilmadilar. Bu qilig'i yanayam ortib tushdi! Qarang-a! Juda oliy mansabdor yoki nozanin bunday muomala qilsa o'rinli bo'lardi. Elisey maydonidagi qarorgohi chindan uning o'ziniki ekan, durustgina uy. Ammo janob Monte-Kristo shuni bilib qo'ysinki, cheksiz qarz, – davom etdi Danglar razilona iljayib, – shu qarz ochilgan bank xo'jayinining talabchanligini juda oshirib yuboradi. Uni ko'rishga shoshilayotganimning boisi ham mana shunda, janoblar. Chamamda menga firib berib, dovdiratishyapti chog'i. Biroq ular kimga ishlari tushganini bilmay, chuchvarani xom sanab yurishibdi. Qani, ko'raylik-chi kim kimni boplarkan!

Janob baron bu so'zlarni zo'r kibr-havo bilan izhor etdi-

da, mehmonlarini qoldirib, zar bo'yoqli oq mehmonxonaga o'tdi. Bu mehmonxonaga Shosse d'Antenda mashhur edi. Danglar grafni birinchi daqiqalardayoq hayratda qoldirish niyatida shu xonaga olib kirishni buyurdi.

Graf kirdi-da, bankirga asl nusxa deb sotilgan Albani va Fatori suratlarining nusxalarini ko'zdan kechirib chiqdi. Bu ko'chirma nusxalar shiftdagi beo'xshov, jimjima, zarrin naqshlarga aslo mos kelmasdi.

Danglarning qadamini eshitib, graf orqasiga o'girildi.

Danglar boshini bilinar-bilinmas qimirlatdi-da, imo bilan grafni oltin suvi yuritilgan, zargul oq atlas qoplangan kursiga o'tirishni taklif etdi. Graf o'tirdi.

– Adashmasam, ism-shariflari janob de Monte-Kristo bo'lsa kerak?

– Men ham, yanglishmasam, – dedi javoban graf, – o'zlari Faxriy legion kavaleri deputatlar Palatasining a'zosi janob baron Danglar bo'lsalar kerak?

Monte-Kristo baronning tashrif qog'ozidagi hamma unvonlarni tilga oldi.

Danglar masxara qilinayotganini fahmlab labini tishladi.

– Uzr, uzr, – dedi u, – ism-shariflarini tilga olganda hamma unvonlaringizni sanab chiqolmagan bo'lsam, buni ma'zur tutsinlar, biroq o'zlariga ma'lumki, biz hozir demokratik hukumat davrida yashab turibmiz, men esa xalq manfaatlarini himoya qiluvchi vakillardanman.

– Demak, o'zingizni baron deb atash odatini saqlab qolibsizu, boshqalarni graf deb atashni unutib qo'yibsiz-da, – javob qildi Monte-Kristo.

– Biroq bunga o'zimning ham unchalik hushim yo'q, – dedi iltifatsizlik bilan Danglar, – ba'zi xizmatlarimni e'tiborga olib baron unvoni berishdi va Faxriy legion kavaleri qilishdi, biroq...

– Biroq siz bir vaqtlar Monmoranse va Lafayet voz kechgani singari, bu unvonlardan voz kechdingizmi? Bu juda ibratli ish.

– Butunlayin voz kechganim yo'q, albatta, – e'tiroz bil-

dirdi o'ng'aysizlanib Danglar, – bilasizmi bu xizmatkorlarim uchun...

– To'g'ri, xizmatkorlaringiz sizni «janobi oliy» deb atashadi. Jurnalistlar uchun «muhtaram janob»siz, saylovchilaringiz uchun esa fuqaro. Konstitusion tuzumda unvonlardagi bu juz'iy farqlarning bozori juda chaqqon bo'ladi. Men sizni juda yaxshi tushunib turibman.

Danglar tilini tishlab qoldi, bu borada Monte-Kristoga bas kelolmasligini angladi-da, suhbatni o'ziga yaqin, oddiy masalalarga burishga ahd qildi.

– Graf, – dedi u bosh egib, – men bankchi Tomson va French xonadonidan xat oldim.

– Juda soz, baron, ruxsat eting, xizmatkorlaringiz sizni qanday unvon bilan atab murojaat qilsa, men ham o'sha unvon bilan atay. Bu yangisini topolmagani uchun haliyam baron unvonini saqlab kelayotgan mamlakatlarning bema'ni odati. Yana takror aytamanki, men uchun bu juda qulay, o'zim ham birovga o'zimni tanishtirganda unvonlarni aytib o'ng'aysizlanib yurardim, endi bundan qutulaman. Shunday qilib, siz xat oldingizmi?

– Ha, – dedi Danglar, – ochig'ini aytsam, uning mazmuniga aqlim bovar etmayapti.

– Hali shunday deng?

– Shu sababli sizdan ba'zi joylarini aniqlab olay, deb uylariga borgan edim.

– Marhamat, so'rang, qulog'im sizda.

– Bildirish xati yonimda bo'lsa kerak, hozir, – dedi Danglar cho'ntagini tintib. – Mana bu hujjatda graf Monte-Kristoga mening bankimda cheksiz qarz ochiladi, deb yozilgan.

– Xo'sh, baron, shunday yozilgan bo'lsa, nima bo'пти? Buning nimasi tushunarli emas, sizga?

– Hammasi tushunarli, faqat manovi «cheksiz» so'zi bir oz...

– Nima, bu so'zda biror noaniqlik bormi? Buni inglizlar yozganini bilasiz-ku o'zingiz...

– Gap undamas, imlosida xato yo'q, ammo buxgalte-

riya masalasiga kelganda, bu oson emas.

– Hali, Tomson va French bankchi xonadonlari, sizning fikringizcha, uncha ishonchli banklardan emasmi? – so‘radi Monte-Kristo. – Obbo, unday bo‘lsa juda xijolatga qolamiz-ku, axir ularning bankida bir oz pulim ham bor.

– Yo‘q, unday emas, u xonadonlarning ishonchli ekana shubham yo‘q, – javob qildi bir oz kulgiga olib Danglar, – biroq «cheksiz» so‘zi moliyaviy tilda juda dudmal ibora...

– Ya‘ni oxiri yo‘q, shuning uchun tushunarli emasmi? – dedi Monte-Kristo.

– Ha, balli, shuni bir oz o‘ylantirib qo‘yyapti meni. Noaniqlik shubha tug‘diradi, sabr qil degan ekan bir do‘nishmand.

– Bundan shu kelib chiqadiki, – dedi davom etib Monte-Kristo. – Tomson va French bankirlar xonadoni yengiltaklik qilyapgan bo‘lsa, Danglar firmasi unga taqlid qilishni istamaydi.

– Ya‘ni?

– Ya‘ni janob Tomson va janob French uchun summaning hajmi miqdori ahamiyatga ega emas. Danglar janoblari uchun esa summaning miqdori chegaralanib qo‘yilgan. O‘zi hozirgina aytgani kabi u aqli raso zot.

– Janob graf, – dedi gerdayib bankir, – hali hozirgacha hech kim mening kassamdagi pullarimni sanab chiqqan emas.

– Unday bo‘lsa, – dedi sovuq ohangda Monte-Kristo, – aftidan, birinchi bo‘lib men sanab chiqarkanman-da.

– Nechun shunday deb o‘ylaysiz?

– Shuning uchunki, aniqlab berishni talab qilish – ikkilanishning bir turi.

Danglar qovog‘ini soldi, bu graf ikkinchi marta uni mot qilyapti, tag‘in o‘zi biladigan sohada-ya. U ulug‘ bankirni mazax qilyapti, beadablik ko‘rsatyapti. Monte-Kristo beadablik emas, sirtidan jilmayib, go‘yo zo‘r iltifot izhor qilyotganday bo‘lib, o‘zini soddadil qilib ko‘rsatishga uri-

nardi.

– Qisqasi, janob, – dedi Danglar, – mening gapim shuki, mendan olmoqchi boʻlgan summani ayting, iltimos qilaman.

Bu bahsda jindek ham boʻsh kelmaslikka qaror qilgan Monte-Kristo:

– Janob, – dedi, – axir menga qancha pul kerak boʻlishini bilmaganim uchun ham cheksiz qarz soʻraganman.

Bankir, boplaydigan payt keldi, deb oʻyladi-da, takaburona holatda kursiga taltayib oʻtirib oldi.

– Dadil aytavering keragini, – dedi u, – Danglar firmasi naqd sarmoyasi cheklangan boʻlsa-da, eng katta soʻrovlarni, hatto million boʻlsa-da... qondirishga qodir, bunga imoningiz komil boʻlsin.

– Kechiradilar, qancha dedilar, yanglish eshitmadim-mikin? – dedi Monte-Kristo.

– Million boʻlsayam, dedim, – takrorladi Danglar ahmoqona kekkayib.

– Nima boʻlardi millioningiz menga? – dedi graf. – Tava! Menga bir milliongina yetarli boʻlganda, shu arzimaydigan pul uchun qarz soʻrab yurarmidim? Million emish! Bunaqa millionni men hamisha hamyonimda yoki safar qutichamda olib yuraman.

Monte-Kristo shunday dedi-da, tashrif qogʻozi turadigan kichkina daftarchasidan har qaysinisi besh yuz ming frankli ikkita oltin zayom olib koʻrsatdi.

Danglar singari shaxslarning jigʻiga tegish kamlik qiladi, bundaylarni shunday boplash kerakki, xuddi boshiga gurzi urilganday boʻlsin. Monte-Kristo xuddi shunday qildi, gurzi darrov taʼsir etdi: bankir gandraklab qoldi, boshi aylandi, u koʻzlarining paxtasi chiqib Monte-Kristoga tikildi.

– Menga qarang, – dedi Monte-Kristo, – chamamda siz Tomson va French bankirlar xonadoniga ishonmayapsiz, iqror boʻla qoling, ishonmayapsiz. Men buni ilgariyoq fahmlagan edim va bu boradagi ishlar bilan uncha tanish boʻlmasam-da, baʼzi ehtiyot choralarni koʻrib qoʻygan

edim. Mana, menda sizning manzilingizga yuborilgan bildirish xatiga o'xshagan yana ikkita xat bor, bittasi venger Arshteyn va Eskoles bankirlar xonadonidan baron Rotshildga, bittasi Londondagi Bering bankir xonadonidan janob Laffitga. Bir og'iz so'zingiz bilan sizni tashvishlardan xalos etishim va mana shu banklardan biriga murojaat qilishim mumkin.

Masala shu bilan hal bo'ldi-ko'ydi: Danglar mag'lubiyatga uchradi. U sezilar-sezilmas vahimada graf jirkanib uzatgan London bildirish xatlarini ochdi, imzolarning haqiqiylikini diqqat bilan tekshirib chiqdi. Monte-Kristo bankining o'zini yo'qotib qo'rganini ko'rib turmaganda, bu tekshirishni o'zi uchun haqorat deb hisoblagan bo'lur edi.

Danglar ro'parasida o'tirgan kishida o'z in'ikosini topgan oltinning qudrati oldida ta'zim qilmoqchi bo'lgandek o'rnidan turdi-da:

– Qoyil, – dedi, – bu uchala imzoning qimmati ko'pdan ko'p millionga teng uchta chegarasiz qarzga hujjat. Kechiring meni, graf, shubham qolmadi endi, ammo hamon hayratda qolyapman.

– Aslo, – dedi graf mumkin qadar iltifotli ohangda, – sizdek bank xo'jayinini bunaqa summalar bilan hayratda qoldirib bo'larmidi? Demak, ishimiz maromiga yetdi, siz menga bir oz pul yubora olasizmi?

– Bajonu dil, graf, qancha yuboray?

– Endi, bitimga kelgan ekanmiz, – dedi Monte-Kristo, – shundaymi baron, kelishdikmi endi?

Danglar «ha» degandek boshini qimirlatdi.

– Endi shubhalanmay qo'ydingizmi? – yana so'radi Monte-Kristo.

– Aslo, graf, aslo! – xitob qildi bankir, – men hech vaqt shubha qilganim yo'q.

– Ha, siz faqat dalillar olmoqchi bo'ldingiz, to'g'ri. Xullas, – takrorladi graf, – bir bitimga kelgan ekanmiz, endilikda hech qanday shubha qolmagan ekan, keling, birinchi yil uchun umumiy summani belgilab qo'yaylik, ya'ni

olti million.

– Olti million? Juda soz! – dedi og‘ir nafas olib Danglar.

– Mabodo menga bundan ko‘proq pul kerak bo‘lib qolsa, – dedi mensimay Monte-Kristo, – ko‘proq belgilarmiz, biroq Fransiyada bir yildan ortiq turmoqchi emasman, shu bir yil mobaynida bu raqamdan ko‘p pul olmasman... keyin ko‘rarmiz bu yog‘ini... Birinchi marta, ertaga menga besh yuz ming frank yuborishingizni iltimos qilaman, tush paytigacha uyda bo‘laman. Mabodo o‘zim bo‘lmasam, tilxatni ish boshqaruvchimga qoldirib ketaman.

– Pulni ertalab soat o‘nda olib borib berishadi sizga, graf, – javob qildi Danglar. – Pulning qanaqasini istaysiz, oltinmi, qog‘oz pulmi yoki kumushmi?

– Yarmi oltin, yarmi qog‘oz pul bo‘lsin.

Shunday dedi-da graf o‘rnidan turdi.

– Ochig‘ini aytsam, graf, – dedi Danglar, – men o‘zimni Evropadagi hamma boyliklardan xabardor, bilag‘on deb yurardim, biroq sizning ulkan boyligingizdan mutlaqo be-xabar ekanman, bu boylikni yaqinda orttirgan bo‘lsalar kerak?

– Unday emas, janob, – e‘tiroz bildirdi Monte-Kristo, – eskidan qolgan boylik, bu oilaviy jamg‘arma bo‘lib, tegish taqiqlanib qo‘yilgan, bora-bora miqdori ko‘payib, kapital uch barobar oshib ketgan, vasiyatchi belgilagan muddat bundan atigi bir necha yil ilgari tugadi, men bundan yaqindagina foydalana boshladim. Vasiyatchini siz bilmasligingiz tabiiy bir hol, aytmoqchi, siz u bilan yaqin orada tanishib olasiz. Shu payt graf bir vaqtlar Frans d‘Epine-ning kayfini uchirib yuborgan xilda iljayib qo‘ydi.

– Bu didingiz va niyatlaringiz bilan, – dedi Danglar, – poytaxtimiz beqiyos zebi ziyonatlarga ega bo‘lib olib, biz boyaqish millionerlarni soyangizda qoldirib ketasiz. Biroq siz, chamamda, san‘at muxlisi bo‘lsangiz kerak (buni mening qadam ranjida qilganlarida, uyimdagi suratlarni diqqat bilan ko‘zdan kechirganingizda fahmlagan edim),

ruxsat eting, galereyamni ko'rsatay janoblariga, hammasi mashhur rassomlarning qadimiy asl nusxalari, yangilarini xush ko'rmayman.

– Juda haq gapni aytyapsiz, ularning hammasida bitta katta kamchilik bor: ular hali eskirishga ulgurгани yo'q.

– Men sizga Torvaldsenning, Bartoloni va Kanovanning bir necha haykallarini ko'rsataman, hammasi chet el haykaltaroshlari. Men Fransuz ustalarining muxlisi emasligimni shulardanoq bilib turgandirsiz.

– Siz fransuz ustalariga adolatsizlik qilibsiz-da, axir ular vatandosh-ku sizga.

– Yaqinroq tanish bo'lib olgach, bu gaplarga o'tamiz, bugun men sizni, agar ruxsat etsalar, faqat baronessa Danglar bilan tanishtiraman, shoshilayotganim uchun uzr so'rayman, ammo siz kabi mijoz oila a'zosiday bo'lib qoladi bizda.

Monte-Kristo bankirning xushomadomuz taklifini qabul qilganini bildirib, ta'zim etdi.

Danglar qo'ng'iroq chaldi, bashang kiyingan qarol kirdi.

– Baronessa o'z xonasidami? – so'radi Danglar.

– Ha, janob baron.

– Yakka o'zimi?

– Yo'q, mehmonlar bor.

– Graf, mehmonlar huzurida tanishtirsam aybga buyurmaslar? Ism-sharifingizni maxfiy tutmoqchi emasmissiz?

– Yo'q, baron, – dedi iljayib Monte-Kristo, – bunday qilishga haqqim yo'q.

– Baronessa oldidagi mehmon kim o'zi? Janob Debre-mi? – so'radi soddadillik bilan Danglar. Baron oilasi hayotidagi sirlardan xabardor Monte-Kristo ichidan kulib qo'ydi.

– Shunday, janob baron.

Danglar boshini qimirlatib qo'ydi. So'ng Monte-Kristoga murojaat qildi:

– Janob Lyusen Debre, – dedi u, – bizning ko'pdan buyon qarddon do'stimiz, ichki ishlar ministrining shax-

siy kotibi, xotinin masalasiga kelsak, noteng nikohga rozi bo'lib menga erga chiqdi, chunki u juda qadimgi qavmlardan, qizlikdagi familiyasi de Server, birinchi nikohi bo'yicha markiza de Nargon.

– Men baronessa Danglar bilan hali tanishishga muassar bo'lganimcha yo'q, ammo janob Lyusen Debreni uchratgan edim.

– Shundaymi? – dedi Danglar, – qaerda?

– Janob de Morsernikida.

– Siz vikont bilan tanishmisiz?

– U kishi bilan Rimda, karnaval vaqtida ko'rishgan edik.

– E, ha, – dedi Danglar, – qandaydir qaroqchilar va bosqinchilar bilan allaqanday g'orda bo'lgan favqulodda hodisalar to'g'risida ba'zi gaplarni eshitgan edim. Janob de Morser favqulodda bir holda qutulib chiqqan ekan. U Italiyadan qaytganda xotinin va qizimga bu voqeani hikoya qilib bergan.

– Baronessa marhamat qilishlarini so'rayapti, – dedi qarol.

– Men oldinda yo'l ko'rsatib boray, – dedi ta'zim qilib Danglar.

– Men ketingizdan boraveraman, – javob qildi Monte-Kristo.

IX. BIR JUFT ARG'UMOQ

Baron grafni ergashtirib xunuk, dag'al usulda, didsizlik bilan naqshlangan uzun dahlizdan o'tdi-da, Danglar xonimning mehmonxonasiga keldi, sakkiz burchakli bu kichkina xonaning devorlari pushti rang atlas bilan qoplangan va derazalariga hind dokasidan yasalgan pardalar osilgan, qadimgi zamonning kimxob jildli zarxal kursilari qo'yilgan. Eshik tepasiga Bushe uslubidagi cho'ponlar surati solingan, medalon shaklidagi ikki go'zal pastel boshqa jihozlarga juda mos tushgan va butun xonada yagona hisoblangan bu xonaga ko'rk bag'ishlagan,

xayriyatki, bu xona Danglar va uning Imperiyada mashhur arxitektori tuzib chiqqan umumiy reja kirmay qolgan, bu xonaning zeb-ziynati, hashami bilan baronessa bilan Lyusen Debre shug'ullanardi. Eskilik muxlisi (uni Direktoriya vaqtida shunday deb atashgan) Danglarning bu olifta xonaga hushi yo'qligining boisi ham shunda edi. Ochig'i, Danglarni faqat biror sabab bo'lsa, ya'ni u bittayarimtani olib kelsagina, bu xonada qabul qilishardi. U olib kelgan mehmonning tashqi ko'rinishi baronessaga yoqish-yoqmasligiga qarab, uni yo iltifot bilan, yoxud iltifotsiz qabul qilishardi.

Yoshi o'ttiz oltiga borib qolsa-da, haliyam go'zallikda og'izlarda doston bo'la oladigan Danglar xonim san'atning kichkina mo'jizasi marketri royali oldida, Dyusen Debre esa ish stoli oldida albom varaqlab o'tirardi.

Graf kelmasidanoq Lyusen uni baronessaga mufassal ta'riflab bergan edi. Albernikiidagi nonushta vaqtida Monte-Kristo mehmonlar orasida katta taassurot qoldirgani kitobxonga ma'lum. Umuman Debreni biror narsada hayratda qoldirish juda qiyin, biroq shunga qaramay, o'shandagi taassurot hanuz uning yodidan ko'tarilgani yo'q edi, bu boronessaga qilgan ta'rif-tavsifida sezilib turardi. Morserning ilgarigi hikoyasi va Lyusendan eshitgan so'nggi tafsiloti Danglar xonimning bu mehmonga bo'lgan qiziqishini juda oshirib yuborgan edi. Royal ham, albom ham ikkisiga yuragidagi hayajonni sezdirmaslikka xizmat qilishi kerak edi. Shu mahalgacha biror marta Danglarni xushnud kutib olmagan baronessa bu gal uni tabassum bilan qarshi oldi. Grafning salomiga esa tantanavor ravishda tannoqlik bilan ta'zim bajo etdi baronessa.

Lyusen esa graf bilan yaqinda tanishgan kishi sifatida salam-alik qildi, Danglar bilan esa do'stona so'rashdi.

– Baronessa, – dedi Danglar, – Rimdagi muxbirlarim zo'r berib tavsiya etgan graf Monte-Kristoni tanishtirishga ruxsat eting. Men shaxsan faqat bir narsani ilova qilishim mumkin, lekin bu bir zumda go'zal oyimchalarimiz-

ni maftun etib qo'yishi mumkin. Graf Parijga bir yil o'ynab-kulgani, shu davr ichida olti millionni sarf etgani kelibdi. Bu bir necha ballar degan gap, tushki va kechki ziyofatlarda rosa huzur qilamiz, graf bu borada bizni unutib qo'ymas, deb umid qilaman, bizning uyimizda biror kichik tantana qilingudek bo'lsa, biz ham grafni albatta taklif etamiz.

Bu gaplardan soxta xushomadgo'ylikning hidi kelib turardi, ammo Parijda bir yil turib, butun bir knyaz mulkini sarf qilmoqchi bo'lgan zotlar juda kamdan-kam uchraydi, shu sababdan Danglar xonim grafga ancha qiziqib, suqlanib tikildi va so'z qotdi:

– Graf, bu yerga siz...

– Kecha ertalab keldim, baronessa.

– Odatingizga ko'ra olis bir o'lkadan kelgandirsiz, to'g'rimi, buni eshitgandim.

– Bu gal faqat Kadiksdan.

– Yilning eng yomon vaqtida tashrif buyuribsiz. Yozda Parij juda zerikarli bo'lib ketadi: na bal, na ko'ngil ochish kechalari, na bayram bo'ladi. Italiya operasi Londonga ketdi, fransuz operasi har yoqlarda daydib yuribdi, fransuz teatri esa, o'zingizga ma'lum, yo'q bo'lib ketdi. Xursandchilik uchun bizda faqat bir narsa: Sars Maydoni bilan Satorida bo'ladigan poyga qoldi, xolos. Graf, sizning otlaringiz poygada qatnashadimi?

– Fransuz urf-odatlaridan menga zarur saboqlar beradigan birorta zotni uchratishga muyassar bo'lsam, – dedi Monte-Kristo. – Parijda nima qabul etilgan bo'lsa, hammasini bajo keltiraman.

– Siz otlarga juda ishqibozsiz, shekilli?

– Umrinning yarmini sharqda o'tkazdim, baronessa, sharq xalqlari esa dunyoda faqat ikki narsani qadrlashadi: otlarning sadoqatini-yu, xotinlarning go'zalligini.

– Iltifot yuzasidan, xotinlarni oldin aytishingiz lozim.

– Mana ko'rdingizmi, baronessa, fransuz odatlarini o'rgatib qo'yadigan birorta murabbiy kerak menga deganim haq bo'lib chiqdi.

Shu payt baronessa Danglarning kanizi kirdi-da, beka-si yoniga kelib, qulog'iga nimalarnidir shivarladi.

Danglar bekaning quti o'chdi.

– Yo'g'e!

– Bu, bekam, haqiqatning xuddi o'zi, – e'tiroz bildirdi kaniz.

Danglar xonim eriga qaradi.

– Nahotki bu to'g'ri bo'lsa?

– Nima gap o'zi? – so'radi aftidan tashvishga tushgan

Danglar.

– Kaniz aytgan gap...

– U nima dedi sizga?

– Izvoshchim otlarni izvoshga qo'shish uchun otxo-naga borsa, u yerda otlardan nishon ham yo'q emish. Nima gap o'zi, ayting-chi?

– Bekam, – dedi Danglar, – quloq soling menga.

– Qulog'im sizda, janob, qani, nima der ekansiz? Bu meni juda qiziqtiradi, men esa hamma gapni bir chekka-dan aytib beray, xulosasini mana shu yerda o'tirgan ja-noblarga havola qilamiz. Janoblar, – davom etdi baronessa, – baron Danglarning og'ilxonada o'nta oti bor, bu-lardan ikkita dulduli meniki, bu ikkalasidan zo'r ot Parij-da topilmaydi. Siz, Debre, mening to'riqlarimni yaxshi bi-lasiz. Ana o'sha ikki duldulimni Vilfor xonim ertaga Bu-lon o'rmonida sayr qilish uchun so'ragan edi va men unga xo'p deb va'da bergan edim, shunday nozik paytda otlar gumdon bo'пти! Janob Danglar, aftidan, bir necha ming frank boylik orttirib olish uchun otlarimni sotib yubor-gan ko'rinadi. E, Parvardigor, buncha jirkanch bo'ladi-a, bu savdogarlar.

– Bekam, – javob qildi Danglar, – otlaringiz juda o'ynoqi, o'ta chopqir, endigina to'rt yoshga kirgan otlar edi, men hamma vaqt sizdan xavotirlanib yurardim.

– Axir, – dedi baronessa, – bir oydan buyon Parijning eng mohir izvoshchisi menga xizmat qilayotganidan xa-bardorsiz-ku, yoki uniyam otlarga qo'shib sotib yubordin-gizmi?

– Azizim, men iloji boricha, bulardan yaxshi ot bera-man sizga, biroq ular meni xavotirga solmaydigan yuvosh otlar bo'ladi.

Baronessa nafrat bilan yelkasini qisdi.

Danglar, xotining g'azab to'la ishorasini go'yo sez-magandek, Monte-Kristoga yuzlandi.

– Graf, siz bilan ilgariroq tanishib olmaganimdan af-suslanyapman, – dedi u, – siz hozir joylashib olish bilan bandsiz, shundaymi?

– Shunday, – dedi graf.

– Burunroq tanishganimda sizga sotardim. Buni qarang-a, men ularni juda arzon sotdim. Ammo shunday bo'lsa-da, ulardan qutulganimga ming bor shukr qildim. Bun-day otlarni faqat yoshlarga chiqargan, ular qo'rqmaydi bunaqasidan.

– Men sizdan juda minnatdorman, – dedi e'tiroz bildi-rib graf, – men bugun bir juft durustgina ot sotib oldim. Uncha qimmat emas. Janob Debre, siz ham ishqibozlar-dan bo'lsangiz kerak. Mana, otlar shu yerda, bir qarang-chi.

Debre deraza tomonga yurganda Danglar xotining oldiga bordi-da, shivirladi:

– Bilasizmi, bu qo'sh otga hech aqlga sig'maydigan pul to'lashdi. Pulni bu kabi osmonga sovuradigan kim ekan, bilmadim, u bugun ish boqaruvchisini yuborgan edi, men o'n olti ming frank foyda qildim, g'azablanmang, sizga to'rt mingini, Jeniga ikki mingini hadya qilaman.

Danglar xonim eriga darg'azab ko'z tashladi.

– Yo tavba! – xitob qildi Debre.

– Nima gap? – so'radi baronessa.

– Yo'q, yo'q adashmayman, mana sizning otlaringiz, ular grafning izvoshiga qo'shib qo'yilibdi.

– Mening tulporlarim-a! – xitob qildi Danglar xonim va deraza tomon yugurdi.

– Rostdanam mening tulporlarim, – dedi u.

Danglar hang-mang bo'lib qoldi.

– Nahotki! – dedi yasama taajjub bilan Monte-Kristo.

– Yo tavba! Bu qanday gap! – ming'irladi bankir.

Baronessa shivirlab Debrega ikki og'iz so'z aytgan edi, u Monte-Kristo oldiga keldi.

– Baronessa bu otlarni eri qanchaga sotganini so'ra-yapti.

– Ochig'ini aytsam, bilmayman, – dedi graf, – bularni ish boshqaruvchim topib keldi... adashmasam, o'ttiz ming frankka tushdi, shekilli.

Debre grafning javobini borib baronessaga sekin aytdi.

Danglarning rangida qon qolmagan edi, graf achinganday bo'ldi unga.

– Mana ko'rdingizmi, – dedi graf unga, – xotin zoti mana shunaqa noshukr bo'ladi. Siz shuncha jonkuyarlik qilyapsiz-u, u pinagini buzmaydi. Buni noshukrlik deyish kam, bu tentaklik. Ilojimiz qancha? Hamma xavfli narsalar jozibali bo'ladi. Muhtaram baron, yaxshisi, ularni o'z ixtiyoriga qo'yib berish kerak, istaganini qilsin, mabodo kallasi devorga taq etib urilsa o'zidan ko'rsin.

Danglar hech nima demadi, u hademay baloga qolishini fahmlagan edi, baronessaning qoshlari chimirilib, g'azab o'tida yonib boryapti. G'alva yaqinlashayotganini sezgan Debre ishini bahona qilib, juftakni urib qoldi. Monte-Kristo mavqeiga putur yetkazmaslik uchun Danglar xonimga ta'zim qildi-da, baronni xotinining g'azabiga duch qilib, jo'nab qoldi.

– «Juda soz bo'ldi! – deb o'yladi ketayotib Monte-Kristo. – Men nimani istagan bo'lsam, hammasi ro'yobga chiqdi, endi oilada totuvlikni tiklash va bir yo'la erining ham, xotinining ham dilini zabt etish mening ixtiyorimda. Ishim juda o'ngidan keldi! Biroq meni mademuazel Jeni Danglar bilan tanishtirmadilar, men u jononning jamoliga mushtoq edim. Hechqisi yo'q, – davom etdi graf o'ziga xos tusda iljayib, – Parijdamiz-ku, hali vaqt bor... U bizdan qochib qayoqqa borardi!..».

Graf shu fikrlarni dilidan o'tkazdi-da, izvoshga o'tirib uyiga jo'nadi.

Ikki soatdan so'ng Danglar xonim graf Monte-Kristo-dan ajoyib bir xat oldi. U xatida, Parijdagi hayotining birinchi kunida go'zal xonimni xafa qilishni aslo istamaganini aytgan va baronessadan otlarni qaytib olishni iltimos qilgan edi.

Otlar kunduzi qanday bo'lsa, xuddi shunday yasatilgan edi, faqat quloqlaridagi bezaklariga bittadan olmos taqib qo'yilgandi.

Danglar ham xat oldi. Graf undan baronessaga millionerning iltimosini qondirishga ruxsat etishni va uning sharq odatiga amal qilib, otlarni qaytarib yuborgani uchun afv etishni iltimos qilgan edi.

Kechqurun graf Alini ergashtirib Oteylga ketdi.

Ertasi, kunduz soat uchlarda graf Alini xonasiga chaqirdi.

– Ali, – dedi graf, – sen menga bir necha bor lasso irg'itishga juda mohirman deb maqtangan eding.

Ali boshini irg'itib, gerdayib qo'ydi.

– Juda soz!.. Demak, lasso bilan buqani tutib olish qo'lingdan keladi, to'g'rimi?

Ali yana boshini irg'itdi.

– Yo'lbarsni-chi?

Ali boshini qimirlatdi.

– Arslonniyam-a?

Ali lasso irg'itgan kishini va sirtmoqqa tushib bo'kirayotgan hayvonning harakatlarini qilib ko'rsatdi.

– Tushundim, – dedi Monte-Kristo, – arslon ovlagan ekansan.

Ali gerdayib bosh irg'atdi.

– Asov otlarni to'xtata olasanmi?

Ali jilmayib qo'ydi.

– Unday bo'lsa quloq sol, – dedi Monte-Kristo, – bir ozdan so'ng kecha men minib yurgan uchqur otlar qo'shig'lik izvosh bizning yonimizdan o'qday uchib o'tadi.

³⁸ Antuan-Fransua Deryu – zaharlovchi, 1777 yilda Parijda qatl

Sen yanchib tashlashiga ham qaramay o'sha izvoshni darvozam oldida to'xtatasan.

Ali ko'chaga chiqdi-da, darvoza oldidan ko'chaning narigi tomoniga tikka chiziq tortdi, so'ng qaytib uyga kirdi va uni kuzatib turgan grafga chiziqni ko'rsatdi.

Graf Alining yelkasiga asta qoqib qo'ydi. U Alidan minnatdor bo'lganida shunday qilardi. Shundan so'ng Ali yana tashqariga chiqdi-da, burchakdagi tumbaga o'tirib, tamaki trubkasini torta boshladi, Monte-Kristo xotirjam bo'lib o'z xonasiga kirib ketdi.

Ammo soat beshga yaqin, izvosh kelishini kutayotgan paytda grafning xatti-harakatida sabrsizlik, betoqatlik alo-matlari ko'rina boshladi. U derazasi ko'chaga qaragan uyni u boshidan-bu boshiga yurar, goh-goh quloqlarini ding qilib, ko'chaga ko'z tikar, Ali esa ko'chada trubkasi-dan tutun burqirاتب o'tirardi, uning butun o'y-xayoli faqat shu tamaki tortishga qaratilgandek tuyulardi.

To'satdan g'ildiraklarning taraqlashi eshitildi, u yashin-day yaqinlashib, zum o'tmay izvosh ko'rindi, izvoshchi gijinglab kelayotgan uchqur otlarni zo'r berib to'xtatish-ga harakat qilardi.

Izvoshda yosh juvon bilan yetti yoshlarga borib qol-gan bola o'tirardi. Ikkisi bir-birining pinjiga kirib ketgan, vahimaga tushib, qichqirish u yoqda tursin, tili kalimaga ham kelmay qolgan edi. Izvosh gumburlab kelyapti, agar falokat bosib, g'ildirak toshga tegib ketsa yoki daraxtga urilsa bormi, izvosh chilparchin bo'lib ketishi hech gap emas. U tosh yo'lning o'rtasidan borar, har tomondan va-himaga tushganlarning qichqiriqlari eshitilardi.

Ali trubkasini bir chekkaga qo'ydi-da, cho'ntagidan las-soni olib uloqtirdi va chap tomondagi otning oldingi oyoqlariga uch sirtmoq solib tortdi, ot uni bir necha qadam sudrab bordi, so'ng gurs etib yiqildi-yu, izvosh-ning shotisini sindirib yubordi, tik turgan ot esa yurol-may to'xtab qoldi. Izvoshchi bundan foydalanib, o'zini yerga otdi, Ali esa otning burni parraklarini temirday bar-moqlari bilan qattiq siqdi, ot og'riqqa chidamay kishnab

sherigi yoniga gursillab yiqildi.

Bularning hammasi ko'z ochib yunguncha sodir bo'ldi

Ammo shu ozgina vaqt ichida bu voqealarni kuzatib turgan kishi bir necha xizmatchilari bilan yugurib chiqqan edi. Izvoshchi faytonning eshigini ochishi hamono u bir qo'li bilan yostiqni mahkam tutib turgan, ikkinchi qo'li bilan hushidan ketib qolgan o'g'lini bag'riga bosib olgan xotinni ko'tarib mehmonxonasiga olib kirdi-da, divanga yotqizib qo'ydi.

– Endi ko'rqmasangiz ham bo'ladi, bekam, – dedi Monte-Kristo, – qutqarildingiz.

Ayol o'ziga kelib, javob o'rniga ko'zi bilan o'g'lini ko'rsatdi. Bola hamon behush edi.

– Bekam, bilib turibman, – dedi graf bolani ko'zdan kechirib, – biroq xotirjam bo'ling, bolaga hech gap bo'lga-ni yo'q, qo'rqibdi xolos.

– Xudo haqqi, – dedi ona, – rostmi yoki meni yupatish uchun shunday deyapsizmi? Uni qarang, rangida qon qolmabdi-ku! Qo'zichog'im! Eduar! Ko'zingni och, do'mbog'im! Darhol doktor chaqiring, o'g'ilchamni qutqarib qolsa bas, hech narsamni ayamayman.

Monte-Kristo xonimni tinchitishga urinib qo'li bilan imo qildi, so'ng bir qutini ochdi-da, a'lo nav billur idishdagi qip-qizil suyuqlikdan bolaning labiga tomizdi.

Rangi devor bo'lib yotgan bola darrov ko'zini ochdi.

Buni ko'rgan ona o'zida yo'q quvonib ketdi.

– Bu qaer o'zi, axir ayting? – xitob qildi u. – Bu falokatdan meni qutqazgan va baxtiyor etgan kim? Meni minnatdor qilgan kim?

– Sizni falokatdan xalos eta olgani uchun o'zini baxtiyor hisoblagan kishining uyidasiz, bekam, – javob qildi Monte-Kristo.

– Havas qilmay o'lay men! – dedi ayol. – Butun Parij Danglar xonimning ajoyib tulporlarini maqtangani maqtagan, men ham esimni yeb, bir sayr qilay deb chiquvdim.

– Iya? – dedi xitob bilan graf go'yo taajjublanganday. – Hali bular baronessaning otlarimi?

– Ha, baronessaning otlari, siz uni taniysizmi?

– Danglar xonimnimi?.. Ha, taniyman u kishini, endi yana behad xursandman, sizni bu falokatdan qutqarganimdan, chunki baxtsizlik yuz berganda siz aybni mening bo‘yningga qo‘yar edingiz, bu otlarni kecha men barondan sotib olgan edim, biroq baronessa juda qattiq xafa bo‘ldi, shundan keyin kechani o‘zidayoq mendan qabul qilishlarini iltimos qilib qaytarib yuborgandim.

– Ermina rosa maqtagan graf Monte-Kristo sizmi hali?

– Men, beka, – dedi graf.

– Men Eloiza de Vilforan.

Graf go‘yo tamom notanish kishining nomini eshitayotgandek ta‘zim qildi.

– Janob de Vilfor sizga behad minnatdorchilik bildiradi buni eshitib! – dedi Eloiza. – Axir siz ikkimizni ham bir o‘limdan xalos etdingiz, siz uning ham xotinini, ham o‘g‘lini qutqarib qoldingiz. Agar jasur qarolingiz bo‘lmaganda ikkimiz halok bo‘lardik.

– Bekam siz yo‘liqqan bu dahshatli xavf meni ham ancha vahimaga soldi.

– O‘sha fidokor kishini mukofotlashga ruxsat berarsiz?

– Unday qilmang, – javob qildi Monte-Kristo, – maqtatib, mukofot berib, mening Alimni yo‘ldan ozdirib qo‘ymang, o‘tinaman. Uni bunaqa narsalarga o‘rgatishni istamayman, Ali mening qulim, u sizni qutqarib menga xizmat qildi, menga xizmat qilish esa uning burchi.

– Axir u o‘z hayotini xavfga soldi-ku, – dedi e‘tiroz bildirib Vilfor xonim.

– Uning hayotini men saqlab qolganman, – javob qildi Monte-Kristo, – demak, hayotiga men xo‘jayinman.

Vilfor beka jim bo‘lib qoldi, ehtimol, u nega bu odam birinchi qarashdayoq kishilarda juda kuchli taassurot qoldirarkan, deb o‘ylayotgandir.

Ana shu qisqa sukunat paytida graf onasi tinmay cho‘lpillatib o‘payotgan bolani ko‘zdan kechirib chiqdi. Bola kichkina, nozik, badani malla soch bolalarniki singari oppoq, sochi, aksincha qalin sochi qop-qora bo‘lib, do‘ng

peshanasini qoplab, yuzi va yelkasiga osilib tushgan edi, ko'zlarida ayyorlik va g'azab alomatlari ko'rinib turardi, og'zi katta, yupqa lablari sal qizargan. Bu sakkiz yoshli bolaning chehrasiga razm solgan kishi o'n ikki yosh berishi mumkin. Bola hushiga keliboq onasining quchoq'idan bir siltanib chiqdi-da, hali graf dori olgan quti oldiga yugurib bordi, so'ng hech kimdan so'ramay shishalarini ocha boshladi.

– Tegma unga, azizim, – dedi shoshib graf, – bu suyuq dorilarning ayrimlarini ichish u yoqda tursin, hidlash ham juda xavfli.

Vilfor xonim qo'rqib ketdi va o'g'lini qo'lidan tortib bag'riga oldi, so'ng ko'ngli tinchigach, quticha yalt etib qaradi, graf buni ko'rib qoldi.

Shu payt Ali kirdi.

De Vilfor xonim mehribonlik, minnatdorlik bilan Aliga qaradi va bolasini yanada qattiqroq bag'riga bosdi.

– Eduar, – dedi xonim, – mana bu hurmatga sazovor xizmatchini ko'rib qo'y, o'g'lim, bu juda jasoratli odam ekan, o'z jonidan kechib quturgan otlarimizga o'zini tashlab, ularni to'xtatdi, bizni halokatdan qutqarib qoldi. Rahmat ayt unga. Agar u bo'lmaganda, ehtimol, tirik qolmasdik.

Bola labini cho'chchaytirib tumshaydi-da, jirkanib orqasini o'girdi.

– Judayam badburush ekan! – dedi u.

Graf, bola xuddi uning o'ylaganini qilgandek, iljayib qo'ydi. De Vilfor xonim esa o'g'lini bir oz koyib qo'ydi.

– Ko'rdingmi, – dedi graf Aliga arab tilida, – xonim bolasidan ikkisini o'limdan xalos etganing uchun senga rahmat aytishni so'rayapti. Bola esa seni juda badburush ekan deyapti.

Ali oqil chehrasini o'girib bolaga tikildi. Ammo arabning ko'ngli siyoh bo'lganini Monte-Kristo fahmlab turgan edi.

– Graf, – dedi de Vilfor xonim o'rnidan turayotib, – siz bu uyda ko'pdan beri turasizmi?

– Yo‘q, beka, – dedi graf, – bu yerga ahyon-ahyonda kelib turaman. Elisey maydonida, o‘ttizinchi uyda turaman. Chamamda, siz endi o‘zingizga keldingiz, ketmoqchi bo‘lib turibsiz, shekilli. O‘sha otlar mening izvoshimga qo‘shilsin, deb farmoyish berdim, Ali – mana shu badburush, – dedi bolaga qarab iljayib graf, – sizlarni olib borib qo‘yadi, sizning izvoshchingiz esa faytonni ta‘miriga qarab turadi. Ta‘mir tugagan zamon mening otlarimdan bir juftini qo‘shib, Danglar xonimga olib borib berishadi.

– Men bu otlarda ketishga endi ko‘nglim chopmayapti, – dedi de Vilfor xonim.

– Alining qo‘lida bu otlar qo‘yday yuvosh bo‘lib qoladi, aslo xavotir olmang, – javob qildi Monte-Kristo.

Shu orada Ali zo‘r-bazo‘r oyoqqa turg‘izilgan haligi otlar oldiga bordi. Qo‘lida xushbo‘y sirkaga botirib olingan gubka bilan otlarning burun teshiklarini va ter bosgan chakkalarini artdi, otlar shu on pishqira boshladi, aslo xavotir olmang, – javob qildi Monte-Kristo va o‘rmidan turdi.

So‘ngra Ali izvosh va otlar voqeasini eshitib, to‘plangan odamlarning ko‘z oldida otlarni grafning izvoshiga qo‘stirdi, tizginni qo‘liga oldi va irg‘ib izvoshchining joyiga o‘tirib oldi. Hali to‘fondek hayqirib uchib kelgan otlarni Ali endi qamchilab-qamchilab zo‘rg‘a yurgizdi, buni ko‘rgan xaloyiq hang-mang bo‘lib qoldi. Bo‘shashib, holdan toygan otlar tuyoqlarini zo‘rg‘a ko‘tarib bosardi. De Vilfor xonim Sent-Onoredagi uyiga ikki soatda yetib bordi.

Uyiga kirib, oilaning hayajoni bosilishi bilan Eloiza Danglar bekaga quyidagi xatni yozib jo‘natdi:

«Azizim Ermina!

Meni va o‘g‘limni kecha kechqurun ikkimiz rosa «ig‘vo» qilgan graf Monte-Kristo mo‘jizakorlik bilan o‘limdan qutqardi (Men uni bugun uchratishni xayolimga ham keltirmagan edim). Siz kecha uni juda maqtab gapirganingizda, men masxara qilib kulgan edim, biroq bugun sizning

o'sha maqtovlaringiz bu zotning fazilatlarini tavsif etishga ojiz, juda kam deyishga majburman. Ranelagda otlar jilov bermay olib qochdi bizni, shubhasiz yo'lda duch kelgan birinchi daraxtga yoki qishloqdagi birinchi ustunga urilib majaq-majaq bo'lib ketardik. Biroq shu payt nubi-yalik bir habash, xullas, qandaydir qora badan, ya'ni grafning xizmatchisi, uning buyrug'i bilan o'z hayotini tahlikaga qo'yib, uchib borayotgan otlarni to'xtatdi, o'zi ham qandaydir bir mo''jiza bilan tirik qoldi, shu zahoti graf yetib keldi-da, bizni uyiga olib kirdi va murda bo'lib qolgan o'g'limni tiriltirdi. Bizni grafning izvoshida keltirib qo'yishdi, sizning izvoshingizni ertaga keltirib berishadi. Shu baxtsiz hodisadan so'ng otlaringiz holdan toyib, eshushini yo'qotib qo'ydi. Go'yo otlar odamga bo'y bergani uchun o'kingandek edi. Graf, otlar og'ilxonada ikki kun faqat arpa berib boqilsa, yana sag'risi yaltirab, kechagi holiga keladi, dedi.

Xayr! Sayr uchun rahmat, otlaringizning asovligi uchun sizdan xafa bo'lish men tomonimdan noshukrlik bo'lur edi, chunki otlarning bu qilmishi natijasida men graf Monte-Kristo bilan tanishib oldim. Chamamda, bu chet ellik zot, millionlab boylikka ega bo'libgina qolmay, juda ajoyib, sirli xislatlarga egaki, men uning bu sirlarini, qanday bo'lmasin, bilib olishga harakat qilaman.

Eduar bu hodisa paytida hayratda qoldiradigan darajada matonat ko'rsatdi. Pirovardida u hushidan ketib qolsa-da, biroq oxirgi daqiqagacha biror marta qichqirmadi, bir qatra ham ko'z yoshi to'kmadi. Siz yana onalik mehri ko'zingizni moy bostirib qo'ygandir, deyishingiz mumkin, biroq bu nozik, zaif tanda temir iroda mavjud.

Valentina latofatli Ejeniga samimiy salom yo'llaydi, men esa sizni butun qalbim bilan quchoqqa olib o'paman.

Eloiza de Vilfor.

P. S. O'sha graf Monte-Kristo bilan siznikida uchra-

shishga menga imkon tug'dirib bering, men uni yana ko'rish ishtiyoqi bilan yonmoqdaman. Aytgancha, janob de Vilforni ham tashrif buyurishga ko'ndirib qo'ydim. U bu iltimosimni bajo keltirishiga imonim komil».

Kechqurun Oteylda yuz bergan voqea hammaning og'zida edi: buni Alber o'z onasiga, Shato-Reno Jokey-klub-dagilarga, Debre ministr xonasidagilarga hikoya qilardi. Hatto Boshan ham grafga o'z gazetasining hodisalar bo'limidan o'rin berib, bu voqeaga bir necha satr bag'ishlagan edi, bu oliy tabaqa xotinlari orasida Monte-Kristoning nufuzini juda ko'tarib yubordi. Ko'p odamlar bu favqulodda voqea to'g'risidagi hikoyani yana bir karra eshitish uchun tashrif qog'ozini de Vilfor xonimnikiga qoldirib ketdi.

Janob de Vilforga kelsak, Eloizaning yozishicha, qora kamzul, oq qo'lqopini kiyib, qarollarini ham yasantirib, tantanali bayram kunlari qo'shiladigan izvoshiga minib, shu oqshomoq Elisey Maydonidagi o'ttizinchi uyga ravona bo'libdi.

X. FALSAFA

Graf Monte-Kristo Parij jamoatchiligiga ko'proq aralashib yurganda janob de Vilforning xatti-harakatiga munosib baho bergan bo'lar edi... Saroyda janob de Vilforni – qirol qaysi xesh-aqrabolardan bo'lmasin, birinchi ministr qaysi partiyadan bo'lmasin, baribir, quchoq ochib qabul qilishardi, uni juda usta-uddaburon, deb bilishardi, chunki u odatda siyosatda sira muvaffaqiyatsizlikka uchramaydigan, ko'plar yomon ko'rsa-da, ba'zi zotlar panohida gerdayib o'z ishlarini bitirib yuradigan kishilardan edi. Vilfor adliya bobida yuqori mansabga minib olgan va shu oliy mansabning jilovini XVII asr Parij parlamentining raislari Arle yoki Mole kabi mahkam ushlab turar edi. Uning mehmonxonasida to'planadigan zotlar davrasi garchi yosh rafiqasi va birinchi xotinidan bo'lgan o'n sak-

kiz yoshlik qizining ishtiroki tufayli zavq-shavqli tus olib tursa-da, Parijning eng jiddiy an'analar va diniy odob tartib-qoidalari hukmron davra hisoblanardi. Sovuq mulozamatlar, hukumat prinsiplariga to'la sodiqlik, hamma nazariyalar va nazariyotchilarga, har qanday falsafachilarga nafrat – janob de Vilfor shaxsiy va ijtimoiy hayotining mazmuni shulardan iborat edi. Vilfor adliya arbobi bo'libgina qolmay, hatto deyarli diplomat ham edi. Ilgarigi saroy a'yonlarini u hamisha hurmat bilan tilga olar, shu sababli hozirgi a'yonlar ham uni hurmat qilishardi. U juda ko'p narsani bilardi, shuning uchun uning bilan hisoblashibgina qolmay, undan ba'zida maslahat olishardi. Vilfordan qutulishning iloji topilsa, ehtimol ahvol tamom o'zgarib boshqacha bo'lib ketarmidi, biroq u obrazli qilib aytganda, vassallar boshlig'iga bo'ysunmaydigan feodal hokimlari singari, zabt etib bo'lmaydigan qal'a ichiga yashirib olgan edi. U egallab olgan qirollik prokurori lavozimi ana shu qal'a bo'lib, uning imtiyozlari, ustunliklaridan Vilfor juda mohirlik bilan foydalanardi. Bu lavozimni u faqat deputat kursisiga almashtirishi mumkin, u vaqtda betaraflikdan oppozitsiyaga o'tish imkoniyati tug'iladi.

Odatda Vilfor bordi-keldilarga juda kam qatnashardi. Bu vazifani u xotini bilan zimmasiga yuklab qo'ygan edi. Jamoatchilik bunga ko'nikib qolgan va buni muhim sud ishlari bilan bandlikka yo'yar edi. Aslida Vilfor kibr-havo bilan ataylab: «O'z qadringni o'zing bilishingni ko'rsata olsang, o'zgalar ham seni qadrlaydi», degan gapga amal qilar, bu bilan o'zini yuqori darajada aristokrat qilib ko'rsatmoqchi bo'lar edi. Bizning zamonda bu gap greklarning «O'z qadringga o'zing yet» degan hikmatiga qaraganda ko'proq foyda keltiradi. Vilfor o'z do'st-yoronlarining qudratli homiysi, g'animlarining maxfiy va rahm-shafqatsiz dushmani edi, betaraf befarqlar uchun jonli kishi emas, shunchaki qonunni tasvir etadigan haykalning o'zi edi. Takabbur, basharasi tund, qarashlari mo'ltoni, lekin makkor – mana shunaqa nusxalardan edi Vilfor. Biri ustiga biri bosib kelgan to'rt revolyusiya bu nusxaga avval

baland martaba kursisini tayyorlab berdi, so'ng mahkam o'tkazib qo'ydi.

Vilforni Fransiyada har narsaga qiziqavermaydigan kam-suxan zotlardan deb bilishardi. U har yili uyida katta ziyofat, bal berar, lekin o'zi chorak soatcha ko'rinish berardiyu, g'oyib bo'lardi, saroy ballarida qirol bundan qirq besh daqiqa ko'proq bo'lardi. U teatrlarda, konsertlarda, umuman jamoat to'planadigan joylarda ko'rinmasdi. Onda-sonda karta o'ynar va shunda ham munosib kishini – biror elchini, arxiepiskopni, knyazni, prezident yoki beva ger-soginyani tanlab o'ynardi.

Graf Monte-Kristoning eshigi oldida izvoshi to'xtagan zot ana shunaqa nusxa edi.

Kamerdiner janob de Vilfor tashrif buyurganini kirib aytganda, graf Sankt-Peterburgdan Xitoyga boradigan yo'lni xaritadan o'rganib o'tirgan edi.

Qirol prokurori sud zaliga kirayotgandek vazmin, salmoqli qadam tashlab kirdi. Bu odam bir vaqtlar biz Marselda uchratgan prokuror yordamchisining xuddi o'zi. Hamisha izchil tabiat bu zotga nisbatan ham o'z hukmini o'tkazgan edi. Uning ingichka qomati qoq suyakka aylangan, qonsiz oppoq rangi sarg'ayib, zahil bo'lib ketgan, chuqur ko'zlari ich-ichiga kirib, oltin gardishli ko'zoynagi ko'zlarining kosasiga tushib, go'yo yuzining bir bo'lagiga o'xshab qolgandi, oq galstugidan boshqa butun kiyimi qop-qora, bu motam libosiga petlisasidagi ko'za zo'rg'a tashlanadigan qizil tasmagina xalaqit berib turardi.

Monte-Kristo o'zini tutishga qanchalik urinmasin, bo'lmadi. U salomlashayotib prokurorga ochiqdan-ochiq taajjub bilan qiziqsinib qarab qoldi. Vilfor esa odamlarga ishonmaydigan, hayotda yuz beradigan mo'jizalardan zavqlanmaydigan odam, shu sababdan u kishilar olijanob deb atagan bu xorijiy zotga papa toj-taxtining knyazi, yoki «Ming bir kecha»dagi sulton emas, balki kasbini o'zgar-

etilgan.

³⁹ Fransuz fiziologlari.

tib, niqoblanib olgan avantyurist, firibgar yoki qochoq jinoyatchi deb qarashga moyil edi. Prokuror odatda sudlarda nutq soʻzlaganda ishlatadigan va oddiy suhbatlarda ham qoʻymaydigan chiyildoq ovozi bilan:

– Muhtaram janob, – dedi, – kecha xotinim va oʻgʻlimga bergan beqiyos yordamingiz uchun minnatdorchilik bildirish mening burchim. Men ana shu burchimni ado etish va sizga minnatdorchilik izhor etish uchun huzuringizga keldim.

Shu soʻzlarni aytayotganda ham Vilfor oʻz odaticha xoʻmrayib, gerdayib turishini, haykalga oʻxshab gʻoʻddayishini, bosh prokurorga xos talaffuz ohangini qoʻymadi.

– Muhtaram janob, – dedi graf ham oʻshandek sovuq ohangda, – ona uchun bolasining hayotini saqlab qolganimdan gʻoyatda baxtiyorman. Chunki onalik mehri eng muqaddas tuygʻu hisoblanadi. Menga shunday baxt nasib qildiki, sizni atayin kelib, hali oʻzingiz burch deb atagan narsani bajo etish zaruratidan xalos qildi, ayni choqda siz uchun faqat burch sanalgan vijdon amri, nomus ishidir, shu bois uni behad qadrlayman, boz ustiga yana shundan ham xabarim borki, janob de Vilfor burchini oʻtash uchun hammanikiga ham qadam ranjida qilavermaydi, shunday boʻlsa-da, men bu iltifotni qancha yuqori qoʻymay, baribir u mening nazarimda qanoat hissidan past turadi.

Oʻzi uchun kutilmagan bu hamladan de Vilfor hayron boʻlib, sovutiga toʻqmoq tekkan jangchidek seskanib tushdi, uning lablari chetida nafrat ajinlari paydo boʻldi, bu bilan men sizni graf Monte-Kristo, odob, nazokat qoidalariga rioya qiladiganlar qatoriga hech mahal qoʻshgan emasman, demoqchi edi. Vilfor suhbatni davom ettirish niyatida gapni boshqa yoqqa burish uchun atrofga alan-gladi. Uning koʻzi, xonaga kirganida Monte-Kristo oʻrga-

⁴⁰ Burjua jamiyatida pastki tabaqa oilasidan uylanish.

⁴¹ Migren – qattiq bosh ogʻrigʻi va koʻngil aynishga olib boradigan

nib o'tirgan xaritada tushdi-da, beixtiyor so'z qotdi:

– Geografiya bilan shug'ullanasizmi? Bu, ayniqsa, siz uchun juda keng soha, aytishlariga qaraganda siz bor-magan mamlakat qolmagan bo'lsa kerak?

– Ha, – javob qildi graf, – siz har kuni ayrim kishilar ustida olib boradigan tadqiqotni men butun insoniyatga tatbiq qilmoqni, ya'ni fiziologik tadqiqot o'tkazmoqni o'z oldimga maqsad qilib qo'yganman. Algebra aksiomasi ma'lumdan noma'lumni, so'ng noma'lumdan ma'lumni topib olishni talab qiladi... Qani, marhamat qilib, o'tirsinar.

Monte-Kristo qirollik prokuroriga yumshoq kursi ko'rsatdi. Vilfor kursini o'z qo'li bilan stol yoniga surib o'tirishga majbur bo'ldi. Monte-Kristo esa Vilfor kirganda tizzasini tirab turgan kursiga cho'kdi, xullas, graf mehmoniga yarim burilgan holda, derazaga orqasini qilib, hozirgina tilga olingan geografik xaritada tirsaklarini tiragancha o'tirardi. Suhbat Morser va Danglarnikidagi kabi muhitga qarab emas, qatnashchilarning nufuziga mos xarakterda bordi.

– Siz falsafa to'qishga usta ekansiz, – dedi Vilfor bir oz sukunatdan so'ng so'z boshlab. Shu payt u xavfli dushmanga duch kelib qolgan va butun kuchini to'playotgan polvonga o'xshardi. – To'g'risini aytsam, men ham siz kabi qiladigan ishim bo'lmaganida edi, zerikarliroq hunar bilan shug'ullangan bo'lur edim.

– Haq gapni aytyapsiz, – javob qildi Monte-Kristo, – kishi tabiatini quyosh nuriga solib tekshirsang u juda qabih, razil ko'rinadi. Ammo siz meni qiladigan ishi yo'q odamga chiqarib qo'ydingiz, shekilli? Qani, ayting-chi, o'zingiz biror ish qilyapman deb o'ylaysizmi? Soddaroq tilda aytganda, siz qilayotgan yumushni ish desa bo'ladimi o'zi?

Bu g'alati dushmanning dag'allik bilan qilgan yangi hamlasi Vilforni dong qotirib qo'ydi. Prokuror ko'pdan beri bunaqa dadil dakkini eshitmagan edi, to'g'risi, birinchi eshitishi edi.

Qirol prokurori javob berishga qaror qildi.

– Siz chet elliksiz, – dedi u, – soʻng, adashmasam, hayotimning bir qismi Sharqda oʻtdi, degan ekansiz, demak, oʻsha vahshiylik mamlakatlarida shiddat bilan harakat qiladigan insoniy odil sud bizda qanchalik ehtiyotkorlik bilan tartib joriy qilayotganini bilmaysiz, bilishingiz mumkin ham emas.

– Nega endi bilmas ekanman, bu pede claudo³⁴ qadimiy xalqlar qonuni. Bularning hammasini bilaman, chunki har bir mamlakatga borganda koʻproq ana shu odil sud qanday joriy qilinganini oʻrgandim va har bir millatning jinoyat sud ishlarini tabiiy odil sud bilan solishtirib koʻrdim. Shuni aytishim kerakki, ibtidoiy xalqlarning qasos olishi, jazolash qonuni Tangrining xohishi, uning amr-farmoniga juda muvofiq.

– Agar shu qonun joriy etilsa, – dedi qirollik prokurori, – jazo berishda bizning ahvolimizni juda soddalashtirib, ishlarimizni osonlashtirib yuborgan boʻlur edi, bunday sharoitda siz aytganingizdek, bizning sudyalarimizning qiladigan ishi qolmasdi.

– Ehtimol, shunday sharoit tugʻilar bora-bora, – dedi Monte-Kristo, – kishilar murakkab ixtirodan oddiy ixtiroga oʻtajagini siz yaxshi bilasiz, oddiylik hamisha mukammallik demakdir, buni siz yaxshi bilasiz.

– Hozircha, – dedi prokuror, – bir-biriga qarama-qarshi boblar bilan toʻla qonunlar amalda, bu bobda gall odatlaridan, Rim huquq-qonunlaridan, frank anʼanalaridan terib olingan. Siz eʼtirof etmogʻingiz kerakki, ana shu qonunlarning hammasini bilish oson emas, buning uchun juda zoʻr zakovat kerak.

– Men ham xuddi shunday fikrdaman, ammo siz fransuz qonunlari borasida qanchalik bilimga ega boʻlsangiz, men ham ingliz, turk, yapon, hind qonunlari borasida – barcha millatlar qonunlari borasida shunchalik bilimga egaman. Shu vajdan, siz mening qilganimga

asabiy kasal.

nisbatan (dunyoda hamma narsa nisbatli ekanini yaxshi bilasiz) juda kam ish qilgansiz, mening o'rganib chiqqanimga nisbatan siz ham juda ko'p narsa o'rganib chiqishingiz zarur.

– Axir, siz bularning hammasini qanday maqsadni ko'zlab o'rganib chiqdingiz? – so'radi Vilfor.

Monte-Kristo iljayib qo'ydi.

– Bilasizmi, – dedi u, – ma'lum bo'lib turibdiki, siz tengi yo'q odam deb nom chiqarganingizga qaramay, voqealarga inson bilan boshlanib, inson bilan tugallanadigan ijtimoiy nuqtai nazar bilan, ya'ni juda tor va nihoyatda chegaralangan nuqtai nazar bilan qarar ekansiz.

– Bu bilan nima demoqchisiz? – e'tiroz bildirdi Vilfor yanada taajjublanib. – Men sizga... tushunolmayapman.

– Men shuni demoqchimanki, xalqlarning ijtimoiy tashkilotiga nazar tashlaganda, siz mashina mexanizmini harakatga keltiradigan ustani ko'rmaysiz, faqat mashinaning o'zini ko'rasiz, siz faqat ministr yoki qirol tomonidan mansabga qo'nqaytirib qo'yilgan va atrofingizda o'ralashib yuradigan mansabdor to'ralarnigina ko'rasiz, ammo Xudoning o'zi o'sha to'ralar, ministrlar va qirollardan yuksakka qo'yib mansabni emas, muqaddas burchni ado etish vazifasini topshirib qo'ygan haqiqiy insonlarni ko'rmaysiz, ularni nazar-pisand qilmaysiz. Bu zaif kishining xislati. Toviyo ko'r ko'zini ochish uchun kelgan farishtani oddiy o'smir deb qabul qilgan ekan. Xalq, hammani yo'q qilish uchun kelgan Atillani ham, boshqa istilochilar kabi, bosqinchi deb bilgan ekan. Ana shu ikkisi bizni xaloyiq tanib olsin deb, Xudoning vakili ekanini ochiq aytib berishga, ya'ni birisi: «Men Xudoning to'qmog'i» deyishga, ikkinchisi esa: «men Xudoning farishtasi» deyishga majbur bo'lgan ekan. Shunday qilib ilohiylik siri ochib tashlangan.

Vilfor, bu yo mutaassib yo telba bo'lsa kerak, deb o'ylab, taajjublangan holda gap qotdi:

– Siz ham o'zingizni ana shu o'zingiz tilga olgan favqulodda odamlar zotidan hisoblaysizmi?

– Ha, nima bo‘pti shunday deb hisoblasam? – so‘radi sovuq ohangda Monte-Kristo.

– Kechiring meni, – dedi e‘tiroz bildirib kalavaning uchini yo‘qotib qo‘ygan Vilfor, – men siznikiga tashrif buyurganda, aqli, zakovati, bilimi oddiy insonning bilimi va aqldan nihoyatda baland kishi bilan tanishaman, deb o‘ylamagan edim aslo. Ujivilizasiya buzib qo‘ygan biz baxti qarolar orasida sizga o‘xshagan mashhur davlatmand zotlar (shunday deb meni ishontirmoqdalar: mana, ko‘rib turibsizki, men hech narsa to‘g‘risida savol bermayapman, faqat aytganlarini takrorlayapman) qimmatli vaqtlarini ijtimoiy masalalarga, bu dunyoning huzur-halovatlaridan mahrum etilganlar uchun yaratilgan falsafiy aqidalarga sarflashi rasm emas.

– Aytinch, – dedi graf, nahotki siz istisno bo‘lishi mumkinligi haqida hech o‘ylamay va istisnoga uchramay hozirgi mansabga minib olgan bo‘lsangiz, nahotki o‘tkir, bir qarashda kishining dilidagini bilib olishi kerak bo‘lgan shu ko‘zlaringiz insonning mohiyatini bilib ololmagan bo‘lsa? Axir sudya faqat qonunni juda boplab ijro qilibgina qolmay, qonun boblarini uddaburonlik bilan izohlabgina qolmay, kishi yuragini, dilini tekshiradigan mohir psixolog bo‘lishi kerak emasmi?

– Ochig‘i, siz meni juda gangitib, boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘ydingiz, – dedi Vilfor, – men shu vaqtgacha hech kimdan bunaqangi gaplarni eshitmagan edim.

– Bu shuning uchunki, siz oddiy turmush sharoitlari doirasidan hech mahal chetga chiqmagansiz va Tangrim ko‘zga ko‘rinmaydigan odamlarni va favqulodda maxluqlarni chiqarib qo‘ygan yuqori muhitga parvoz qilmoqqa jur‘at etmagansiz.

– Siz shunday muhit borligiga va bizni favqulodda ko‘rinmas maxluqlar o‘rab olganiga ishonasizmi?

– Nega ishonmasligim kerak ekan? Axir o‘zingiz nafas olayotgan va shunisiz yashay olmaydigan havoni ko‘ra olasizmi?

– Demak, siz aytgan maxluqlarni biz ko‘rmay ekanmiz-

da?

– Yo‘q, Xudo xohish bildirib, ular muayyan shaklga kirganda siz ularni ko‘rasiz, siz ularga tegasiz, ular bilan to‘qnashasiz, gaplashasiz, ular ham sizga gap qotadi.

– Ochig‘ini aytsam, – dedi iljayib Vilfor, – o‘sha maxluqlardan biri menga to‘qnash kelganda meni ogohlantirib qo‘yishlarini juda istardim.

– Istagingiz bajo keltirilgan: sizni allaqachon ogohlantirib qo‘yishgan, men sizni takroran ogohlantiraman.

– Demak, o‘zingiz...

– Ha, o‘sha favqulodda zotlardan biri o‘zim, shu vaqtgacha dunyoda hech kim hozir men erishgan cho‘qqiga chiqolmagan bo‘lsa kerak. Shohlar hokimiyati yo tog‘lar, yoki daryolar bilan, yo bo‘lmasa urf-odatlar, yoki chet tillar bilan chegaralangan. Mening hokimiyatim esa jahon kabi bepoyon, chunki italyan ham emasman, fransuz ham emasman, hind ham, amerikalik ham emasman, ispan ham emasman, men kosmopolitman – ya‘ni bewatanman. Hech bir mamlakat meni farzandim, deya olmaydi, qaysi mamlakatda dunyodan o‘tishimni faqat Ollo-taoloning o‘zi biladi. Men barcha urf-odatlarni qabul qilaveraman, hamma tillarda gaplashaveraman. Siz meni fransuz deb faraz qilasiz, chunki men fransuz tilida siz kabi erkin va ravon gapirayotirman, to‘g‘rimi? Ali esa meni arab, ish boshqaruvchim – Bertuchcho esa rimlik deb biladi. Tutqunim Gayda meni grek deydi. Aslida men bu mamlakatlarning hech qaysinisiga mansub emasman, hukumatlarning birortasidan madad so‘ramayman, hech kimni akam-ukam deb hisoblamayman. Shuning uchun ham kuchlilarni qiynoqqa soladigan shak-shubhalardan va hadik-gumonlardan birontasi, o‘jzlarning yo‘lini to‘sadi-gan g‘ovlardan hech qaysisi meni to‘xtatolmaydi, qiynoqqa sololmaydi. Mening faqat ikkita dushmanim (men ularni g‘oliblar deyolmayman, chunki sabot-matonat tu-fayli ular ustidan ham g‘olib chiqaman) bor, bu – vaqt va masofa. Uchinchi va eng dahshatli dushmanim – o‘lim, o‘limga mahkumligim. Meni maqsadimga erishish yo‘lida

faqat o'lim to'xtata oladi, ana shu o'lingina maqsadimga yetmasdan ilgariroq olib keta oladi, boshqa ishlarimning hammasi boplab rejalab qo'yilgan. Odamlar taqdir taqozosi deb ataydigan narsalarning hammasini – xonavayronlik, o'zgarishlar, tasodiflarni men oldindan ko'rib, mo'ljallab qo'yanman, bulardan ba'zilarini meni turtib o'tishi mumkin, biroq hech biri ag'darib tashlay olmaydi. To ajalim yetguncha hozirgidek yashayveraman, sizga qirolidan ham eshitmagan gaplarni aytayotganimning boisi ham shunda, chunki qirollar sizdek zotlarga muhtoj, boshqalar esa sizdan hayiqadi. Axir kulgili suratda tuzilgan bizning bu jamiyatimizda o'z-o'ziga: «Ehtimol bu qirollik prokuroriga mening ham ishim tushib qolar!» demaydigan mard bormikin?!

– Xo'sh, bu sizning o'zingizga ham taalluqli emasmi? Siz Fransiyada yashayotgan ekansiz, Fransiya qonunlariga bo'ysunishingiz tabiiy-ku!

– Bu menga ayon, – javob qildi Monte-Kristo, – lekin shuni aytib qo'yayki, men biror mamlakatga borishga otlangudek bo'lsam, o'zimgagina ma'lum yo'llar bilan biror narsada menga yordami tegadigan yoki xavf solishi mumkin bo'lgan odamlarni o'rgana boshlayman, pirovard-natijada men ularni o'zlaridan ham yaxshiroq bilib olaman. Bu shunga olib keladiki, mening ishim tushadigan qirollik prokurori, u qanday zot bo'lmasin, menga qaraganda qiyinroq ahvolga tushib qoladi.

– Bu bilan siz, inson tabiatan zaif, shu sababli hayotida... xato qilmagan kishi yo'q demoqchisizmi? – e'tiroz bildirdi Vilfor bir oz ikkilanib.

– Xato... yoki jinoyat qilmagan kishi yo'q, – javob qildi beparvo Monte-Kristo.

– Demak, siz, birortasini ham ukam-akam demaydigan hamma kishilardan o'zingizni to'kis deb bilarkansiz-da?

– To'kis emas, – javob qildi graf, – faqat sir-asrorli kishiman, xolos. Bu gaplar sizga xush kelmayapti, shekilli, keling, tugataylik. Sizning odil sudingiz meni unchalik xavf ostiga sololmaydi, ammo mening ziyrakligim sizni

ancha gangitib qo'yishi mumkin.

– Yo'q, yo'q, – dedi shoshib Vilfor, graf bu mavzudan meni qochyapti deb o'ylamasin deb xavfsirab, – nega? Nega endi? Ajoyib va ilhombaxsh suhbatingiz menga ko'tarinki ruh bag'ishladi, saviyamni oshirdi, biz endi so'zlashayotganimiz yo'q, fikr yurityapmiz. Aqoidchilar sorbon kafedrasida yoki faylasuflar munozaralarida bir-birlariga achchiq haqiqatlarni aytishadi, biz ham ijtimoiy aqoidlar yoki aqoid falsafasi bilan shug'ullanyapmiz, deb faraz qilaylik. Men sizga quyidagi haqiqatni, u qanchalik achchiq bo'lmasin, aytib berayin: «Birodarim, sizni g'urur-kibr asir etibdi, siz boshqalardan yuqoridasiz, ammo tepangizda Xudo bor».

– Hammadan yuqorida, – dedi Monte-Kristo, u bu so'zni shunday ta'sirli qilib aytdiki, Vilfor beixtiyor seskanib ketdi, – men o'zidan yuqorida turganlarni va boshqalarni oyoq osti qilmaydigan kishilarga qarshi hamla qilishga hamisha tayyor odamlar oldida – ana shu razil maxluqlar oldida g'ururlanib, kibrga minib olaman. Ammo meni nochorlikdan hozirgi mavqega ko'targan Xudo oldida g'ururimni uloqtirib tashlab sajda qilaman.

– Unday bo'lsa, graf, men qoyilman sizga, – dedi Vilfor butun suhbat davomida birinchi marta Monte-Kristoning unvonini tilga olib, – rostdan ham siz shunday kuchga ega bo'lsangiz, rostdan ham hammadan yuqorida turgan zot bo'lsangiz, chindan ham vali yoki sehrlil zot bo'lsangiz, g'ururlanishga, kibrga minib olishga haqlisiz, bu tushunarli hol, chunki hukmronlik shunga asoslanadi, ana shunga suyanadi. Sizning bulardan boshqa yana yetisholmay yurgan birorta orzuvingiz bormi?

– Bor edi.

– Qanday orzu edi u?

– Hammaning hayotida bir marta bo'ladiganidek, mening hayotimda ham shunday hodisa yuz berdi, iblis jahonning eng baland tog'iga olib chiqdi-da, o'sha yerdan dunyoni ko'rsatdi va bir gal Xristosga aytganidek, quyidagilarni aytdi: «Qani inson bolasi, ayt-chi, menga sajda

qilmoq uchun nimani tilaysan mendan?» Shunda men uzoq xayolga botdim, chunki dahshatli bir orzu ko'pdan buyon yuragimni o'rtab yurardi. Oxiri unga shunday deb javob berdim: «Menga qara, hamma vaqt, butun dunyoning jilovini tutib turadigan qandaydir ilohiy kuch borligini aytishadi, biroq men uni va unga o'xshash biror narsani ko'rganim yo'q, shu vajdan bu yo'q narsa, deb o'ylay boshladim, men o'shanaqa ilohiy kuch bo'lishini istayman, chunki dunyoda kishilarni mukofotlash jazolashdan ham yuksak, go'zal va mukammal narsa borligini bilmayman». Ammo iblis boshini quyi soldi-da, uh tortdi. «Xato gapni aytyapsan, – dedi u, – ilohiy kuch bor, faqat sen uni ko'rmaysan, chunki u Xudoning kashfiyoti bo'lgani uchun o'zi ko'zga ko'rinmaydi. Sen unga o'xshash biror narsani ko'rmaganingning boisi shuki, u sirli harakat qiladi. Mening qo'limdan faqat bir narsa, ya'ni seni ana shu ilohiy kuchning qurollaridan biriga aylantirib qo'yishgina keladi». Bitim tuzdik, ehtimol, jonimga jabr qilgandirman. Ammo baribir, – davom etdi Monte-Kristo, – agar yana bitim tuzishga to'g'ri kelsa, yana tuzardim.

Vilfor Monte-Kristoga anqayib qarab qoldi.

– Graf, ota-onangiz bormi? – so'radi u.

– Yo'q, dunyoda yakka-yu yagonaman.

– Bunisi yana yomon!

– Nega? – so'radi Monte-Kristo.

– Chunki, ehtimol popugingizni pasaytirib, gardaninigizni egib qo'yadigan hodisaning guvohi bo'larmidingiz? Siz, faqat o'limdan qo'rqaman, dedingizmi?

– Men o'limdan qo'rqaman deyotganim yo'q, faqat o'lim xalaqit beradi menga, deyapman.

– Qarilik-chi?

– Qarilik yetib kelguncha burchimni ado etib bo'laman.

– Aqldan ozish-chi?

– Men bir karra aqldan ozayozgan edim, siz non bis in idem³⁵ degan qoidani bilasiz, bu jinoyat qonuni qoidasi, demak, sizning ishingizga taalluqli qoida.

– Faqat o'limgina, qarilik yoki aqldan ozishgina dah-

shatli emas, – dedi Vilfor, – dahshatli narsalardan yana apopleksiya, bu momaqalldiroq kabi zarba berib sizni yo'q etmaydi, ammo ishdan chiqarib, falaj qilib tashlaydi, undan keyin tamom-vassalom! Siz o'zlingizcha qoldingizu, lekin ayni chog'da o'zingiz emassiz. Siz deyarli Arieldek farishta edingiz, bu zarbadan so'ng esa Kalibandek hayvonga o'xshab qolasiz, odam tili bilan aytganda, buni shunchaki apopleksiya deyishadi. Graf, mabodo sizni angldaydigan va sizni rad etish qobiliyatiga ega dushman bilan uchrashishni istagudek bo'lsangiz, biznikiga keling, u yerda bu suhbatni davom ettiramiz, men sizga otamni – janob Nuarte de Vilforni ko'rsataman, u birinchi revolyusiya davridagi ashaddiy yakobinchilardan, botir va zardast odam. U sizga o'xshab dunyodagi barcha mamlakatlarni ko'rmagan bo'lsa-da, biroq ana shu mamlakatlardan biridagi, eng qudratli davlatlardan birini ag'darib tashlashda qatnashgan. U siz singari, o'zini Xudoning elchisi deb bilmasa-da, oliy mavjudotning vakili, taqdirning quli deb bilardi. Endilikda qarabsizki, miyasiga qon quyildi-yu, bir zumdayoq ularning hammasini barbod etdi-qo'ydi. Kechagi yakobinchi, sobiq senator, gilotina pichog'ini ham, zambarakni ham, xanjarni ham nazar-pisand qilmaydigan sobiq karbonariy Nuarte, revolyusiyalarni ermak qilib yurgan Nuarte, Fransiyani faqat bir ulkan shaxmat taxtasi-yu, undagi piyodalarni ham, ruhlarini ham, otlarni ham, farzinni ham yo'q etib, shohni mot qilish kerak deb yurgan ana shu dahshatli Nuarte ikkinchi kuni «baxti qaro Nuarte»ga, oilaning eng zaif a'zosi – o'z nevarasi Valentinaning izmiga tushib qolgan tilsiz, majolsiz jasadga – moddaning asta-sekin chirib tugashini kutayotgan muzdek jasadga aylanib qoldi.

– Afsuski, – dedi Monte-Kristo, – bu manzarada ko'zimga ham, aqlimga ham hech qanday yangilik yo'q. Mening vrachlikdan jindek xabarim bor, binobarin, men va mening hamkorlarim tirik moddadan yoki o'lik moddadan bir necha marta jon axtardik, biroq, u arvoq kabi menga ko'rinish bermadi. Suqrotidan, Senekadan so'ng, avliyo

Avgustin yoki Gallendan keyin yuzlab mualliflar she'rlarida va qissalarida siz aytgan muqoyasalarni tilga olganlar. Ammo, men ota azobi o'g'ilning fikrlash usulini kuchli darajada o'zgartib yuborishi mumkinligini tushunaman. Modomiki, siz meni hurmat qilib taklif etarkansiz, men boraman, oilangizni og'ir qayg'uga solib qo'ygan o'sha xunuk manzaradan ibrat olib itoatgo'ylikni o'rganish uchun boraman.

– Tangrim menga oliyhimmatlik bilan madad berib, ota o'rnini bosadigan ikki farzand hadya etdi. Bir oyog'i go'rda turgan ana shu chol yonida endigina hayotga qadam qo'yayotgan ikki bolam – birinchi xotinim mademuazel Rene de Sen-Merandan bo'lgan qizim Valentina va siz o'limdan qutqarib qolgan o'g'lim Eduar yugurib yuribdi.

– Xudoning bu hadyasidan siz qanday xulosaga kelypsiz? – so'radi Monte-Kristo.

– Xulosa shuki, – javob qildi Vilfor, – otam hirs yo'lida iztirob chekib shunday bir xatoga yo'l qo'ydiki, bunday xatolar insoniy odil suddan qochib qutilsa-da, ilohiy suddan qochib qutulolmaydi!.. Xudo birgina kishiga jazo berishni istab, faqat uning bir o'zini qahriga duchor etdi.

Hamon iljayib turgan Monte-Kristo ichida yuragining eng to'ridan chunonam hayqirdiki, buni mabodo Vilfor eshitib qolgudek bo'lsa, orqasiga qaramay qochardi.

– Xayr endi, janob, – davom etdi qirol prokurori, u allaqachon o'rnidan turib olgan edi, – sizga juda hurmatim oshgan holda chiqib ketyapman, men bilan yanada yaqinroq tanishgach, siyqa surbet odam emasligimni yaxshi bilib olasiz. Janob de Vilfor bilan ajralmas do'st bo'lib qoldingiz endi.

Graf ta'zim qildi va Vilforni faqat xona eshigigacha kuzatib qo'ydi. Qirol prokurori izvoshi oldiga bordi-da, ikki qarolga imo qildi, ular shoshilib izvosh eshigini ochishdi.

Qirol prokurori ko'zdan g'oyib bo'lgach, Monte-Kristo zo'rg'a nafasini rostlab oldi-da, iljaydi.

– Bas, – dedi u, – yetar shuncha zahar-zaqqum, yuragim

qonga to'ldi bu la'nati zahardan, endi bunga qarshi malham topish zarur.

U qo'ng'iroqni chaldi.

– Men malika huzurida bo'laman, – dedi u kirib kelgan Aliga, – yarim soatdan so'ng izvoshni taxt qilishsin.

XI. GAYDE

Kitobxon graf Monte-Kristoning Mele ko'chasida yashagan yangi, to'g'rirog'i, eski tanishlari – Maksimilian, Jyuli va Emmanyuelni esidan chiqarmagandir, albatta.

Ana shu ko'ngilli uchrashuv ishtiyoqida yonayotgan Monte-Kristoning, Vilfor daf bo'lgach, chiroyi ochilib ketgan edi. Qo'ng'iroqni eshitib yugurib kelgan Ali beqiyos quvonch-la yonib turgan chehrani ko'rdi-da, xuddi zavqli fikrlarni qochirib yuborishdan qo'rqqandek oyoq uchida asta yurib chiqib ketdi.

Tush payti edi, graf Gayde bilan birga bo'lish uchun bir soat vaqt ajratgan edi, har qanday dil kuchli tuyg'ular, hissiyotlarga tayyorlanmog'i zarur bo'lgani kabi, aziyat chekib qon yutgan dil ham shirin, lazzatli hissiyotlarga hozirlanmog'i kerak edi, ammo bunday dilni quvonch darhol qamrab ololmaydi.

Yosh grek qizi, boya aytganimizdek, graf xonalaridan tamom ajralib turadigan xonalarda yashardi. Bu xonalarining hammasi sharqcha jihozlandi: parketga qalin turk gilami to'shaldi, devorlarga kimxoblar osildi, hamma xonalarining devorlari ostiga divanlar o'rnatildi, ular ustiga bolishlar betartib tashlab qo'yildi.

Gaydening uchta fransuz va bitta grek kanizi bor edi. Uchala fransuz ayoli birinchi xonada oltin qo'ng'iroqchani ovozini kutib o'tirar va fransuz tilini juda yaxshi egallab olgan kanizak-grek xonimning buyrug'ini bajo keltirish uchun taxt bo'lib turardi. Graf xizmatkor ayollarga

⁴² Pul va avliyolik – yarimning yarmi (ital.)

Gaydeni xuddi qirolicha kabi hurmat qilishni buyurgandi.

Yosh grek qizi eng to'rdagi xonasida edi, bu xonaga kunduzi faqat yuqoridagi rangdor oynadan yorug' tushardi. U divanga suyangancha yerga solingan zarhal kashtali ko'k atlas bolishlar ustida yonboshlab yotardi. O'ng qo'lini boshiga qo'ygan, chap qo'li bilan chilimning uzun trubkasiga o'rnatilgan mushtukni og'ziga olib kelmoqda.

Uning saxt-sumbati shu payt shunday ediki, agar uning o'rnida fransuz ayoli bo'lganida sharq ayollari uchun tabiiy bu holatni noz-karashmaga yo'yishlari mumkin edi.

Ustida grek tog'lik ayollarining oddiy engil-boshi, qizil kashtali oq atlas lozimi bolalarniki singari nozik oyoqlarining to'pig'iga tushib turibdi, oyog'ida zar va marvarid gullar tikilgan shippak, oq va havo rang yo'l-yo'l ko'ylagining yenglari keng, tugmalari kumush va marvarid edi, ko'ylagi ustidan uchta brilliant tugmasi soliqlik nimcha. Nimchanning uch burchakli o'mizidan bo'yni va ko'ksi ko'rinib turardi. Xipcha belida uzun shoyi shokilali guldor kamar. Parij urfparastlari bunaqa kamar desa jonini berishga tayyor.

Gayde gavharlar bilan bezangan zarrin qalpoqchasini chekkasiga bosiqroq kiyib, qop-qora sochiga qirmizi atirgul taqib olgan.

Yuzi grek ayollariga xos zebolikning eng mukammal namunasi edi: xumor qora ko'z, tik burun, qip-qizil lablar, sadafday tishlar. Mana bu beqiyos go'zallikni yoshlik bahori o'zining butun latofati bilan porlatib turardi: Gayde endigina o'n to'qqiz yoki yigirma bahorni ko'rgan edi.

Monte-Kristo oqsoch grek ayolini chaqirib Gaydedan huzuriga kirish uchun ruxsat so'rashni buyurdi.

Gayde javob o'rniga imo bilan oqsochga eshik pardasini ko'tarishni buyurdi, shu on ajoyib surat kabi, yonboshlab yotgan yosh qiz paydo bo'ldi.

Monte-Kristo xonaga kirdi.

Gayde chilim trubkasini tutgan holda qaddini bir oz ko'tardi-da jilmayib, grafga bo'sh qo'lini uzatdi.

– Nechun, – dedi u Sparta va Afina ayollariga xos qo'ng'iroq ovozda, – nega mendan kirishga ruxsat so'ray-siz? Nima bo'ldi? Endi siz mening xo'jayinim emassizu men sizning asirangiz – qulingiz emasmanmi?

– Gayde, – deb gap boshladi graf, – bilasizmi...

– Nega meni «senlab» gapirmayapsiz? – dedi yosh xonim grafning so'zini kesib. – Yoki men biror ayb qilib qo'ydimmi? Agar shunday bo'lsa meni «siz»lab o'tirmay, darhol jazolash kerak.

– Gayde, – davom etdi graf, – bilasanki, biz hozir Fransiyadamiz, shunday bo'lgach, sen ozodsan.

– Nimadan ozodman? – so'radi qiz.

– Meni tashlab ketaverishing mumkin, demak, mendan ozodsan.

– Sizni tashlab-a?.. Nega endi sizni tashlab ketishim kerak?..

– Bilmadim? Biz odamlar o'rtasida bo'lishimiz kerak.

– Men hech kimni ko'rishni istamayman.

– Agar sen uchrashuving lozim bo'lgan yosh, chiroyli yigitlardan birortasi senga yoqib qolsa men unchalik g'azablanmayman.

– Men sizdan chiroyli kishini ko'rganim yo'q, dunyoga kelib, otamu sizni sevdim.

– E, qo'zichog'im, – dedi Monte-Kristo, – axir shu mahalgacha meni va otangni mustasno qilganda hech kim bilan, hech qaerda gaplashganing yo'q-ku.

– Xo'sh, nima bo'пти! Men sizlardan bo'lak hech kim bilan gaplashishni istamayman. Otam meni «quvonchim» derdi, siz «sevgilim» deysiz, ikkalangiz meni yana «qo'zichog'im» deb ataysizlar.

– Otang hamon yodingdami, Gayde?

Yosh qiz jilmaydi.

– U mana bu yerda, mana bu yerda, – dedi u qo'lini ko'ziga va ko'ksiga qo'yib.

– Men qaerdaman? – so'radi iljayib Monte-Kristo.

– Siz, – dedi qiz, – butun vujudindasiz.

Monte-Kristo Gaydening qo'lini olib o'pmoqchi bo'ldi,

ammo soddadil qiz qo'lini siltab tortib oldi-da, peshanasini tutdi.

– Bilasanmi, Gayde, – dedi Monte-Kristo, – endi sen ozodsan, endi sen bekasan, malikasan, endi ilgariydek o'z kiyimlaringni kiyib yuraverishing yoki tashlab qo'yi-shing mumkin, bu o'z ixtiyoringda, istasang uyda qol, ket-ging kelsa ketaver, sening uchun hamisha izvosh tayyor, Ali va Mirto hamma yerda senga hamroh bo'ladi va far-monlaringni bajaradi, mening sendan faqat birgina ilti-mosim bor...

– Qulog'im sizda.

– Qaerda tug'ilganingni sir tut, o'tmishning to'g'risida hech kimga hech nima dema, mashhur otangni va baxti qaro onangning nomini aslo tilga olma.

– Axir sizga, hech kim bilan uchrashuvni istamayman, dedim-ku.

– Gayde, menga qara, sharqqa xos zo-hidlik, ya'ni ja-miyatdan ajralib yashashga ehtimol Parijda imkon bo'lmas; Rimda, Florensiyada, Milanda va Madridda qil-ganingdek, shimoliy mamlakatlarning urf-odatlarini o'rgan, buning hamma yerda, Sharqqa qaytganingda ham senga nafi tegadi.

Yosh qiz katta-katta ko'zlarini graf-ga tikib turdi-da, ja-vob berdi.

– Yoki sharqqa qaytamiz, demoqchimisiz, begim?

– Ha, qo'zichog'im, – dedi Monte-Kristo, – bilasanki, men sendan aslo ajralolmayman. Aslida, daraxt guldan emas, gul daraxtdan ajraladi.

– Men sizni hecham tashlab ketmayman, begim, – dedi Gayde, – bilamanki, sizsiz yashay olmayman.

– Qo'zichog'im! O'n yildan so'ng men qarib qolaman, sen esa o'n yildan so'ng ham yasharib, guldek ochilib turaverasan.

– Otamning uzun, oppoq soqoli bor edi. Shunday bo'lsa-da, men uni sevardim, otam oltmishga kirgan edi, lekin baribir, u men uchratgan hamma yoshlardan go'zal ko'rinardi.

– Biroq, ayt-chi, bu mamlakatga ko'nikib keta olasanmi?

– Men sizni ko'rib turamanmi?

– Har kuni.

– Unda, tag'in nega mendan buni so'rayapsiz?

– Zerikib qolasanmi, deb qo'rqyapman.

– Yo'q, zerikmayman, chunki ertalab sizning kelishingizni o'ylab o'tiraman, kechqurunlari esa kelib ketganingizni eslab, ovunaman. So'ng yakka o'zim qolganimda ko'z oldimda ulkan manzaralar va ufqlar gavdalanadi, ularni esga olaman, yuragimdan uch tuyg'u hech arimaydi. Bu g'am-anduh, muhabbat va minnatdorlik tuyg'ulari.

– Gayde, sen Epir o'lkasining go'zal, nazokatli munosib qizisan, aftidan sen ona yering yaratgan farishtalardan biri bo'lsang kerak, xotirjam bo'l, qo'zichog'im, guldek yoshliging behuda o'tmasligi uchun nima kerak bo'lsa hammasini bajo keltiraman, sen meni otang kabi sevar ekansan, men seni o'z farzandimdek sevaman.

– Begim, yanglishyapsiz, otamga bo'lgan muhabbatim sizga bo'lgan muhabbatimga aslo o'xshamaydi. Mening sizga qo'ygan muhabbatim o'zgacha. Otam o'ldi, men tirik qoldim, ammo siz o'lsangiz, men ham o'laman.

Graf mehr to'la tabassum-la qizga qo'lini uzatdi, qiz, odatdagidek, grafning qo'liga labini tekkizdi.

Graf shu yo'sinda Morrel oilasi bilan uchrashuvga tayyorlanib, Pindarning quyidagi she'rini shivirlab o'qib chiqib ketdi:

– «Yoshlik – gul, muhabbat esa uning mahsuli... Uzumi yetilib pishgan bog'bon – baxtiyor!»

Izvosh uning farmoniga muvofiq kutib turgan edi. U chiqib o'tirishi bilan otlar yeldek uchib ketdi.

XII. MORRELY OILASI

Bir necha daqiqadan so'ng graf Mele ko'chasiidagi 7-

uyga yetib keldi. Bu ko'zni quvontiradigan oq uy. Uy oldida gulxonalar bor. Darvozani ochgan qorovul o'sha Kokles edi. Uni graf tanidi. Biroq bir ko'zi g'ilay, ikkinchi sog'lom ko'zi ham o'tgan to'qqiz yil ichida ancha xiralashib qolgan Kokles grafni tanimadi.

Izvosh darvoza yoniga kelmoq uchun chetlariga chig'anoq va toshlar terilgan hovuzdan otilib turgan kichik favvorani aylanib kelishi lozim. Bu favvora ortiqcha dabdaba bo'lib, qo'shnilarida ancha hasad tuyg'ulari qo'zg'atgan va bu uyning «Kichkina Versal» deb nom olishiga sabab bo'lgan edi. Hovuzda ko'plab qizil va sariq baliqchalar suzib yurardi.

Oshxona va yerto'ladan iborat pastki qavatni hisobga olganda, uy uch qavat edi. Yigitlar bu uyni ulkan ishxona va ikki ayvonli bog' bilan qo'shib olgan edilar. Binoning bunday tuzilishidan uncha-muncha foyda ko'rish mumkinligini Emmanyuel darhol fahmlab olgan edi. U uyni va bog'ning yarmini devor bilan ajratib oldida, ishxonani, haligi ayvonlarni hamda bog'ning yarmini ijaraga qo'ydi. Shu zaylda, Sen-Jermen dahasining eng injiq fuqarosidan sirayam qolishmaydigan darajada arzonigina alohida uyga joylashib oldi.

Oshxona butunlayin emandan, mehmonxona qizil qarag'aydan yasalgan, mehmonxona devorlariga duxoba qoplangan, yotoqxona esa limon daraxtidan tiklanib, devorlariga zangori mato qoqilgan. Bulardan bo'lak Emmanyuel hech qanday ish bilan shug'ullanmasada, o'ziga bir xonani ish xonasi qilib qo'ygan, yana hech qanaqa musiqa asbobini chalmaydigan Jyulining musiqa xonasi ham bor.

Uchinchi qavat butunlay Maksimilianning ixtiyorida edi, bu singlisining xonasiga o'xshardi, faqat ovqatxona jo'ralari kelib turadigan bilyardxonaga qaratib qurilgan edi. Maksimilian otini shaxsan o'zi qashlab tozalardi, grafning izvoshi darvoza oldida to'xtaganda, bog' eshigi oldida sigareta chekib turgan edi.

Hali aytganimizdek, Kokles darvozani ochdi, Batisten

irg'ib izvoshdan tushdi-da, «Graf Monte-Kristo janob Erbo bilan Erbo xonimni va janob Maksimilian Morrelni ko'rgani keldi», – dedi.

– Graf Monte-Kristo! – dedi qichqirib Morrel va sigare-tani uloqtirdi-da, mehmon istiqboliga yugurdi. – Bu zotni ko'rish bizga quvonch bag'ishlaydi. Rahmat graf, ming-ming rahmat, va'dangizga vafo qilganingiz uchun rahmat.

Yosh ofiser grafning qo'lini mahkam siqib so'rashdiki, bu mehmon kelishini juda intizorlik bilan kutganlaridan va uning kelishidan nihoyatda quvonganlaridan dalolat berib turardi.

– Yuring, Yuring, – dedi Maksimilian, – sizni o'zim ta-nishtiraman. Siz kabi qadrli mehmonni xizmatkorlar emas, o'zim tanishtirishim kerak. Singlim bog'da gulning qariganlarini qirqyapti, kuyov undan olti qadam narida o'zining «Pressa» va «Munozara» nomli gazetalarini o'qib o'tiribdi. Zero, Erbo xonim qaerda bo'lmasin, uning yonida Emmanyuelni uchratishingiz tabiiy.

Oq ko'ylak kiyib, sariq atir gullarning so'lg'in barglari-ni qirqib yurgan yosh ayol bularning qadamini eshitib, boshini ko'tardi.

Bu bizga tanish kichkina Jyuli. Tomson va French fir-masining vakili uning o'ziga bashorat qilib aytganidek, Jyuli endilikda Emmanyuel Erbo xonim bo'lib qolgan. Yot kishini ko'rib, u qichqirib yubordi. Maksimilian kuldi.

– Qo'rqma, singlim, qo'rqma, – dedi u, – graf Parijga kelganiga endigina uch-to'rt kun bo'lganiga qaramay ma-relik sudxo'r qanaqaligini allaqachon bilib olgandir, yo'qsa seni ko'rqach bilib oladi.

– O-ho janob, kechiring meni, – dedi Jyuli, – shunday ahvolda yurganimda sizni to'g'ri olib kirganini qarang, bu akamda uyat yo'q-da. Penelon!.. Penelon!..

Bengal atir gullarining tagini kavlab yurgan chol bel-kuragini yerga sanchdi-da, ular oldiga keldi, to og'zidagi saqichini bildirmaslikka urinib, jag'ining to'riga surib oldi. Cholning sochlariga endigina oq tushgan edi. Sarg'ish yuzi va tik qarashi ekvator oftobida kuyib pishgan va

to'fonlardan xabardor dengizchi ekanidan darak berib turardi.

– Mademuazel Jyuli, meni chaqirdingizmi?.. – so'radi u. – Xizmat?

Penelon xo'jayinining qizini Erbo xonim deb atashga tili kelmay, hamon eskichasiga mademuazel Jyuli, deb atardi.

– Penelon, – dedi Jyuli, – janob Emmanyuelga aziz mehmon kelganini xabar qiling, grafni mehmonxonaga Maksimilian boshlab boradi.

So'ngra u Monte-Kristoga:

– Meni kechiring, – dedi, – hozir chiqaman.

Shunday dedi-da, u gulzorni gir aylanib, yonboshdagi yo'lkadan yugurib uyga kirib ketdi.

– Qadrli janob Morrel, – dedi Monte-Kristo, – oilangizni tashvishga solib, behuda ish qildim, shekilli.

– Uni qarang, uni qarang, – dedi Maksimilian kulib, – eriyam yasanib chiqay deb yugurib ketdi! Axir sizni bu Mele ko'chasi dagilar bilishadi, intizorlik bilan kutishadiyu, siz bunaqa deysiz.

– Chamamda, oilangiz baxtiyor, – dedi graf xuddi o'z fikrini tasdiqlayotgandek.

– Shubhasiz, graf, shubhasiz. Baxtiyor bo'lish uchun nimaiki kerak bo'lsa, hammasi bularda muhayyo: ular yosh, quvnoq, bir-birlarini sevishadi, garchi katta boylikni ko'rgan bo'lsalar-da, yigirma besh ming frank daromadlari bilan ham o'zlarini Rotshild kabi boy deb hisoblashadi.

– To'g'risi, yigirma besh ming frank unchalik ko'p daromad emas, – dedi Monte-Kristo. U bu so'zlarni shunday mehribonlik bilan aytdiki, Maksimilian xuddi sevimli otasining ovozini eshitgandek quvonib ketdi, – biroq bu yosh kelin-kuyovimiz uchun oxirgi chegara emas, ular ham, shubhasiz, millioner bo'lib qolishadi. Kuyov advokatmi yoki doktormi?

– U, graf, yirik savdogar edi, marhum otamning ishini davom ettirdi. Janob Morrel qazo qilganda undan ellik

ming frank kapital qolgan edi, buning yarmi singlimga, yarmi menga tegdi, chunki biz ikkita merosxo'r edik. Singlimga uylanganda kuyovning sofdilligi, aqlliligi va halolligidan boshqa hech nimasi yo'q edi. Xotini qancha boylikka ega bo'lishni xohlagan bo'lsa, u ham shunga qanoat qildi. U to ikki yuz ellik ming frank to'plaguncha ishladi, bunga olti yil ketdi. Bularning xatti-harakatini ko'rgan odam zavqlanardi: mehnatsevar, inoqlikda bularga teng keladiganlar kam topiladi! Ajoyib qobiliyati bilan bu ikkisi ancha boylik orttirishlari mumkin edi, biroq ota firmasi ishida odatdagi tartiblarni o'zgartirishni istamadilar, shuning uchun ham hozirgi zamon kishilari ikki yoki uch yilda bajaradigan ishga olti yil vaqt ketkazishdi, ikkisining jasorati, fidokorligini ko'rgan butun Marsel qoyil qolardi. Kunlarning birida Emmanyuel majburiyatlar bo'yicha qarzlarni to'lab tugatayotgan xotini oldiga kelib dedi: «Jyuli, mana oxirgi yuz frank, buni menga Kokles berdi, bu ikkimiz oxirgi chegara deb hisoblagan ikki yuz ellik ming frankka qo'shimcha. Endilikda sen shu bilan qanoatlanasanmi yoki yo'qmi? Firmamiz yiliga bir million daromad qiladi va qirq ming frank foyda bera oladi. Agar biz istasak klienturamizni uch yuz ming frankka sotishimiz mumkin: mana janob Delonening xati, u firmamizni ana shu summaga sotib olib, o'zinikiga qo'shmoqchi. Ixtiyor senda, o'zing hal qil bu masalani».

«Azizim, – dedi javoban singlim, – Morrel firmasini faqat Morrel idora qilishi mumkin. Axir otamizning nomini pok saqlab qolish uchun ana shu uch yuz ming frankdan voz kechganimiz afzal emasmi?»

«Mening fikrim ham xuddi shunday, – dedi Emmanyuel, – biroq sening fikringni ham bilmocqchi edim».

«Fikrim shu. Biz o'zimizga tegishlisini to'la oldik, hamma qarzlirimizni to'ladik, endilikda kassani bekiteshimiz mumkin, kel, yakun yasaylik-da, kassani yopaylik».

Darhol shunday qilishdi ham. Shunda soat uch edi, uchdan chorak o'tganda ikki kemani sug'urta qilish

uchun mijoz kirib keldi, bu o'n besh ming frank sof foyda edi.

«Marhamat qiling, – dedi Emmanyuel unga, – bu sug'urta masalasida bizning sherigimiz janob Delonega murojaat qiling. Bizga kelganda, biz ishimizni tugatdik».

«Qachon?» – so'radi ajablangan mijoz.

«Bundan chorak soat muqaddam».

– Shu tariqa, – dedi Maksimilian iljayib, so'zini davom ettirar ekan, – singlim bilan kuyovimning yillik daromadi yigirma besh ming frank bo'lib qoldi.

Maksimilian grafni tobora quvontirayotgan hikoyasini endigina tamom qilishi bilan Emmanyuel yasanib chiqdi. U mehmonni hurmat qiladigan kishilardan ekanligini namoyish qilib, egilib ta'zim qildi-da, grafni bog'idan aylantirib, uyga olib kirdi.

Mehmonxonada ulkan yapon vazasidagi gullarning hidi anqib turardi. Yasanib, bashang bo'lib olgan Jyuli grafni eshik oldida kutib oldi. Qafasda qushlar chirillayapti. Akas va tolbutaning shoxlari ko'k baxmal pardali derazadan eshilib turibdi, xullas, bu ajoyib xonadonda qushlarning xonishi-yu, xonadondagilarning kulgisi, inoqlik, totuvlikdan darak berib turardi.

Graf uyga kirishi bilan bu zotlarning baxti o'ziga ham taalluqli ekanini sezdi. U un chiqarmas, xayolga cho'mgan, birinchi salom-alikdan so'ng boshlangan suhbatni davom ettirishni ham unutib qo'ygan edi.

To'satdan u yuz bergan o'ng'aysiz vaziyatni sezib qoldida, zo'r-bazo'r o'y-xayollarini uloqtirib tashladi.

– Malika, – dedi nihoyat, – hayajonga tushib qolganim uchun sizdan uzr so'rayman. Bu sizga g'alati tuyulgan bo'lsa kerak, chunki siz bu baxtiyor, osoyishta turmushga o'rganib qolgansiz, ammo men uchun bunday xotirjam, totuvlik, osoyishtalik shunday bir yangilikki, sizdan va zavjangizdan ko'zimni hech uzolmayotibman.

– Chindan ham biz juda baxtlimiz, – dedi Jyuli, – biroq biz juda ko'p vaqtlar jafo chekib keldik va bunday baxtli, quvnoq hayotga yetish yo'lida ko'p kulfatlar chekkanmiz.

Grafning yuzida qiziquvchanlik alomatlari paydo bo'ldi.

– Bu uzundan-uzoq oilaviy tarix. Buni Shato-Reno ham sizga aytgan edi, – dedi Maksimilian. – Graf, siz falokatlarining kattalarini, baxt-saodatning ulkanlarini ko'rishga odatlangansiz, shu sababli bu oilaviy tashvish sizni uncha qiziqitirmaydi. Ammo Jyuli haq gapni aytdi: tor oilaviy doirada bo'lsa-da, biz ko'p musibatlarini kechirdik boshimizdan...

– Xudo hamishagidek, sizga madad bergan bo'lsa kerak? – so'radi Monte-Kristo.

– Ha, graf, – javob qildi Jyuli, – biz bunga iqror bo'lishimiz kerak, chunki, u bizga o'zining aziz bandalari kabi rahm-shafqat qilib farishtasini yo'lladi.

Graf qizarib ketdi, yuragi sanchib ketayotganini bildirmaslik uchun yo'taldi-da, ro'molchasini labiga bosdi.

– Arzanda, tantiq kishilargina turmushning lazzatini bilmaydi, – dedi Emmanyuel, – uning qadriga ham yetolmaydi.

Monte-Kristo, ovozi hayajonini oshkora qilib qo'yishidan qo'rqib hech nima demay o'rnidan turdi, mehmonxonaning u boshidan bu boshiga vazmin qadam tashlay boshladi.

Monte-Kristodan ko'zini uzmay turgan Maksimilian:

– Bizning hashamatlarimizdan kulayotgandirsiz? – dedi.

– Yo'q, nega kularkanman, – javob qildi Monte-Kristo. Uning rangi o'chgan, bir qo'li bilan gupillab urayotgan yuragini mahkam bosib olgan, ikkinchi qo'li bilan esa billur qalpoq ostida ehtiyot qilib qo'yilgan shoyi hamyonni ko'rsatib turardi. – Men anovi hamyonga qiziqib qoldim: uning bir tomonida qandaydir qog'oz, ikkinchi yog'ida nodir olmos turibdi shekilli.

– Bu yerda, – dedi u, – oilaviy xazinamizning eng qimmatbaho buyumi saqlanadi.

– Haqiqatan ham juda soz olmos ekan u, – dedi Monte-Kristo.

– Gap olmosda emas, bu qimmatbaho toshning narxi

yuz ming frank bo'lsa-da, Maksimilian bu haqda gap yuritayotgani yo'q, u hamyondagi buyum sizga aytgan o'sha farishtadan qolgan yodgorlik, demoqchi.

– So'zingizga tushunmadim, bekam, shunday bo'lsa-da, tushuntirib berishni so'rashga jur'at etolmayman, – dedi ta'zim qilib Monte-Kristo. – Qo'pollik, beodoblik qilib qo'ymayin degan mulohazaga boryapman.

– Beodoblik dedingizmi, graf? Yo'q, biz, aksincha, o'zimiz jon deb hikoya qilib beramiz sizga bu olmosning voqeasini. Bu hamyon eslatadigan o'sha zotning olijanob muruvvatini sir saqlamoqchi bo'lganimizda uni bundayin ko'z-ko'z qilib qo'ymasdik. Aksincha, bu haqda butun dunyoga jar solib, o'sha xaloskorni hamma bilsin, degan umiddamiz.

– O'ho', hali shunday deng! – dedi Monte-Kristo bo'g'iq ovozda.

– Graf, – dedi Maksimilian va billur qopqoqni ko'tarib hamyonni mehr bilan o'pib qo'ydi. – Bu mo'jizakor hamyonni mening otamni halokatdan qutqarib qolgan, bizni xonavayron bo'lishdan xalos etgan, Morrellar nomini sharmanda-yu sharmisorlikdan asragan kishi o'zining tabarruk qo'llarida ushlagan, o'sha aziz odamning mehri-muruvvati tufayli g'am-alamga, qashshoqlikka mahkum etilgan baxti qaro biz bolalar baxtiyor bo'ldik, bizning quvonchlarga to'la hayotimizga endilikda hammaning havasi keladi. Bu xatni, – Maksimilian hamyondan xatni olib grafga uzatdi, – bu xatni u kishi mening otam o'z jonidan kechishga qaror qilgan kuni yozgan, bu olmosni esa olijanob notanish zot singlimga to'yona qilgan.

Monte-Kristo xatni ochdi-da, zo'r quvonch bilan o'qib chiqdi, bu Sindbod-Dengiz sayyohi imzo chekkan va Jyuliga yozilgan, o'quvchilarimizga ayon xat edi.

– Notanish dedingizmi? Demak, sizga shunday muruvvat ko'rsatgan odamni hali tanimaysizmi?

– Xuddi shunday, graf, biz zotning tabarruk qo'llarini siqish sharafiga muyassar bo'lolmadik, – javob qildi Maksimilian, – biz Xudodan ming karra tilasak ham bo'lmadi.

Bu voqeadada sirli narsalar shu qadar ko'pki, biz hali-hozirgacha tushunolmay garangmiz, allaqanday bir qudratli mo'jizakor qo'l bor bu ishlarning hammasida.

– Ammo men mana shu hamyonni o'payotganim kabi u mo'tabar qo'lni ham o'pishga muyassar bo'lurman, degan umiddaman, – dedi Jyuli. – Bundan to'rt yil muqaddam Penelon Triestda bo'lgan edi. Graf, siz qo'lida belkurak ushlab turgan holda ko'rganingiz keksa dengizchi, bosmanlik kasbini tashlab, bog'bon bo'lib olgan. Triestda Penelon yaxtaga tushib jo'nayotgan bir inglizni uchratibdi, uni Penelon tanibdi: u bir ming sakkiz yuz yigirma to'qqizinchi yilning beshinchi iyulida otam huzuriga kelgan va beshinchi sentyabrda menga mana shu xatni yo'llagan o'sha zot ekan. Penelonning bu gapi to'g'ri, notanish kishi o'sha, biroq Penelon u bilan gaplashishga jur'at etolmabdi.

– Ingliz! – dedi o'ychan Monte-Kristo, Jyulining qarashlari uni ancha tashvishga solayotgan edi. – Ingliz deyasizmi?

– Ha, – dedi Maksimilian, – Tomson va French Rim firmasining vakili bo'lib biznikiga kelgan ingliz. Siz Morsernikida Tomson va French mening bankirlarim, deganinigizda seskanib ketganimning boisi ham shunda. Hali aytganimizdek, bu voqea bir ming sakkiz yuz yigirma to'qqizinchi yilda sodir bo'lgan edi, graf, siz o'sha inglizni tanimaysizmi?

– Biroq siz Tomson va French firmasi bizga yordam qilganini gardaniga olmadi, dedingiz-ku, to'g'rimi?

– To'g'ri.

– Unday bo'lsa, o'sha ingliz otangizdan biron narsada juda minnatdor bo'lganidan yordam qilgandir?

– Bu yerda ming xil mulohazalarga borish mumkin, hatto buni mo'jiza deyish ham mumkin.

– Uning oti nima edi? – so'radi Monte-Kristo.

– U ismi sharifini aytmagan. Sindbod-Dengiz sayyohi deb xatga imzo chekkan, – dedi Jyuli diqqat bilan grafga tikilib.

– Bu ismi sharifi emas, taxallusi bo'lsa kerak.

Graf unga Jyuli qattiq tikilib qolganini va ovozigga sinchiklab quloq osayotganini sezib, qo'shimcha qildi:

– Menga qarang, uning bo'yi taxminan mening bo'yimdek yoki bir oz balandroq, qotmaroq emasmidi? Yoqasi tikka, galstugini qisib bog'lagan, kamzulining hamma tugmasini solib, qo'lida hamisha qalam ushlab turadigan zot emasmidi?

– Demak, siz uni tanirkansiz-da? – dedi quvonchdan ko'zlari chaqnab ketgan Jyuli.

– Yo'q, – dedi Monte-Kristo, – tanimayman, faqat shunchaki taxmin qilyapman. Mana shunaqa narsalarda juda qo'li ochiq bir lord Uilmor degan kishini bilaman.

– Kim edi u zot?

– U kishilar tomonidan izhor etiladigan minnatdorchilikka ishonmaydigan g'alati odam edi.

– E, Tangrim, – xitob qildi Jyuli, – u bechora nimaga ishonarkan?

– Har qalay men bilan uchrashgan vaqtida, bunga ishonmasdi, – dedi Monte-Kristo o'z og'zidan otilib chiqqan bu so'zlardan cheksiz hayajonlanib. – Ehtimol, shuncha vaqt o'tib, endilikda minnatdorchilik bor narsa ekaniga ishonch hosil qilgandir.

– Graf, siz o'sha kishi bilan tanishmisiz? – so'radi Emmanyuel.

– Mabodo siz u bilan tanish bo'lsangiz, – dedi Jyuli, – uni bizga ko'rsata olasizmi, qaerdaligini aytib bera olasizmi? Maksimilian, Emmanyuel menga qaranglar, agar vaqt-soati kelib uchrashib qolsak, u yuragimiz xotirasiga ishonmasligi mumkin emas.

Monte-Kristo ko'zlariga yosh to'lib kelayotganini sezdi-da, uyni aylana boshladi.

– Graf, Xudo haq, – dedi Maksimilian, – agar siz u odam to'g'risida biror narsa bilsangiz, hammasini aytib bering bizga!

– Hayhot, – javob qildi Monte-Kristo ovozdagi hayajonni sezdirmaslikka urinib, – sizning xaloskoringiz chindan

ham lord Uilmor bo'lsa, u bilan mutlaqo uchrasholmas-siz, deb qo'rqaman. Men Uilmor bilan bundan uch yil muqaddam Palermoda xayrlashgandim, u esa juda ajoyib bir mamlakatga jo'nayotgan edi, shu sababli uning qachondir qaytib kelishi mumkinligiga ishonmayman.

– Sizlarning bu gaplaringiz biz uchun juda og'ir, – dedi qayg'urib Jyuli, uning ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan edi.

– Agar men hozir shu yerda ko'rib turganlarimni lord Uilmor ko'rganda, – dedi ta'sirli ohangda Monte-Kristo, – ko'zini Jyulining yuzlaridan oqib tushayotgan marvarid yoshlardan uzmay, – hayotga yana oshiq bo'lur edi, chunki, siz to'kayotgan bu yoshlar uni insoniyat bilan murasa qilishga majbur etgan bo'lur edi.

U Jyuliga qo'lini uzatdi, grafning qarashi va ovozig a maftun bo'lib qolgan Jyuli unga qo'lini berdi.

– Axir, lord Uilmorning vatani, oilasi, qavm-qarindoshi bo'lgandir? – dedi Jyuli hamon umidini uzmay, – uni tanigan odam bordir? Nahotki biz uni...

– Uni axtarib ovora bo'lmang, – dedi graf, – mening og'zimdan chiqib ketgan so'zlardan shirin xayolga borib, sizlar umidvor bo'lmay qo'ya qoling. Siz axtarib yurgan kishi lord Uilmor ekani ham dargumon. Biz juda inoq edik, men uning hamma sirlarini bilardim, u sizga muruvvat qilgan zot bo'lganida, menga buni aytib bergan bo'lur edi.

– U sizga bu haqda hech nima demaganmidi? – so'radi Jyuli.

– Hech nima.

– Hatto bunga ishora qilib biror so'z ham aytmaganmidi?..

– Hech mahal.

– Biroq boya hamyon tarixi haqida gap ketayotganda siz darrov uning nomini tilga oldingiz-ku.

– Bilasizmi... ba'zan kallaga turli fikrlar keladi.

– Singlim, – dedi Maksimilian grafga yordam berishni istab, – mehmonimiz haq gapni aytyapti. Otamning qayta-qayta «bu baxtni bizga keltirgan ingliz emas» deganini

esla.

Monte-Kristo seskanib ketdi.

– Otangiz, janob Morrel shunday deganmidi? – dedi qiziqsinib graf.

– Otam bu voqeani bir mo'jiza, karomat derdi. Otam, xaloskorimiz go'rdan chiqib kelgan farishta ekaniga ishonardi. Bu ishonch shu qadar kuchli, ta'sirli ediki, bunga ishonmasam-da, otamning aziz diliga ozor berishni aslo ep ko'rmasdim o'zimga! U ko'pincha uzoq o'yga botib, halok bo'lgan do'stini tilga olardi! O'limi oldidan bu taxmini butunlayin ishonchga aylandi, so'nggi daqiqada u quyidagilarni aytdi: «Maksimilian, u Edmon Dantes edi!»

Grafning tobora bo'zarib borayotgan yuzi dahshatli tus oldi, yuragi qonga to'ldi, u churq etolmay qoldi, go'yo vaqt esiga tushgandek, soatiga qaradi-da, shlyapasini olib Erbo xonim bilan to'satdan va xijolatomuz xayrlashdi-da, Emmanyuel va Maksimilianning qo'lini siqdi.

– Xonim, – dedi u, – ba'zan huzuringizga tashrif etib turishga ruxsat eting. Sizing oilangiz gurungida bo'lish menga hamisha quvonch bag'ishlaydi, bu gal meni izzat-ikrom bilan qarshi olganingiz uchun minnatdorman, siz bilan maroqli suhbatga berilib ketib, vaqt o'tib ketganini sezmay qolibman.

Graf shunday dedi-yu, yugurib chiqib ketdi.

– Bu graf Monte-Kristo juda g'alati, tushunib bo'lmaydigan odam ekan-da, – dedi Emmanyuel.

– To'g'ri, – dedi Maksimilian, – ammo, menimcha, u yuragi pok odam, biz ham unga yoqib qoldik, bunga imonim komil.

– Uning ovozlari yuragimni jizillatdi, – dedi Jyuli, – bu ovozni ilgari ham eshitgandekman.

XIII. PIRAM VA FISBA

Shahar chekkasidagi Sent-Onore dahasining uchdan ikki qismini bosib o'tsangiz, dang'illama ajoyib uy orqa-

sida sahni keng boqqa ko'zingiz tushadi. Bu bog' shu boy-boyvachchalar mavzesidagi dabdabali koshonalar orasida ham ko'zga yaqqol tashlanib turadi, uning baland devorlari uzra qad ko'targan qalin kashtan daraxtlari har bahor Lyudovik XIII zamonining temir panjarasi o'rnatilgan to'rt qirrali ustunlardagi ikkita tosh guldonga oq va pushti rang gullarni to'kadi.

Guldonlardagi ajoyib yorongullar shabada esganda qirmizi barglarini hilpillatib atrofga xushbo'y hid sochib tursa-da, koshona egalari o'zlariga faqat daraxtlar bilan o'ralgan uyni, dahaga va atrofiga panjara tutilgan boqqa chiqadigan hovlinigina olib qolishgan burungi vaqtdan beri bu dabdabali darvozadan hech kim kirmasdi. Burungi vaqtlarda bog' orqasida shu hovliga qarashli juda soz poliz bo'lardi.

Nima bo'ldi-yu, bir shayton chayqovchi paydo bo'ldida, poliz yonida Parijning Sent-Onore nomli ulkan ko'chasi bilan raqobat qila oladigan ko'cha ochishga ahd etdi. Bu yangi ko'chani ikki tomoniga imorat qurilishi muqarrarligini sezgan xo'jayinlar polizni sotib yuborishdi.

Biroq ish chayqovchilikka taqalib borganda, kishi o'yini o'ylaguncha, kapital ishini bitirib qo'ya qoladi. Endigina nom berilgan ko'cha «yo'rgagida»yoq go'rga ko'mildi. Polizni naqd pulga sotib olgan chayqovchi uni mo'ljallagan narxga pullay olmadi, so'ng narxlarning oshuvini xo'p kutdi, bo'lmadi, oxiri hovlini polizchilarga yiliga besh yuz frankka ijaraga berish bilan qanoatlandi.

Shunday qilib, u o'z aqchasi evaziga faqat yarim foiz oladi, xolos. Ko'plar besh foiz foydani ham juda kam hisoblayotgan bu zamonda bunday qiymat juda oz.

Xullasi kalom, bog'ning bir vaqtlar polizga chiqadigan eshiklari bekilib, halqalari zanglab ketgan. Bu ham kamlik qilgandek, manfur polizchilar aristokratik boqqa suq

nazarlarini tashlamasin, deb darvozalarga uzunligi olti fut taxta qoqib tashlashgan. To'g'ri, taxtalar sira ko'z tashlanmaydigan qilib zich qoqilmagan, ammo bu muhtasham koshona yot nazarlardan qo'rqmaydi.

O'sha polizda karam, sabzi, rediska no'xat va qovun o'rnida endi bo'ydor beda o'sib yotibdi, bu bo'm-bo'sh maydonni kimdir haliyam unutmaganidan dalolat berib turardi. Atrofi devor bilan o'rab olingan ana shu hovlining pastak ko'cha eshigi bor edi. Hosil bermagani tufayli yaqinda ijarachilar bu joyni tashlab ketishdi. Xullas, bir haftadan beri hovli ilgariqi yarim foiz u yoqda tursin, bir tiyin ham foyda bermay qo'ydi.

Koshona tomondan boyagi kashtanlar devor ustiga egiilib turibdi, bundan foydalanib seravj boshqa daraxtlar ham havoga intilyapti. G'ovlab ketgan shoxlar orasidan zo'rg'a ko'zga chalinayotgan burchakda tosh o'rindiq va bir nechta bog' kursilari qo'yilgan, aftidan bu uchrashuvlar yoki yot ko'zlardan qochish joyi bo'lsa kerak. Bu jazirama issiq tushmaydigan uy va ko'cha tashvishlari-yu, shovqin-suronlardan ancha yiroq, hamisha qushlar sayrab turadigan orombaxsh, soya-salqin joy edi.

Bahorning parijliklarga tuhfa etgan eng issiq kunlaridan birining oqshom paytida ana shu tosh o'rindiqda bita kitob, soyabon, ish savati va hali kashtasi tugatilgan batist ro'molcha yotardi. Sal nariroqda, taxta qoqib tashlangan darvoza oldida yosh qiz enkayib tirqishdan haligi tashlandiq polizga qarayapti.

Xuddi shu daqiqaning o'zida poliz eshigi ochildi-da, dag'al surpdan tikilgan uzun duxoba shapka kiygan novcha, zabardast yigit kirib keldi. Uning bu oddiy xalq kiyimi yaltirab turgan qop-qora sochlari, mo'ylovi va soqoliga mos tushmas edi, u birov ko'rib qolmasin tag'in, deb atrofga alangladi-da, eshikni berkitdi-yu, darvoza tomonga chaqqon qadam tashladi.

Kutgan kishisini bunday kiyimda ko'rgan qiz qo'rqib o'zini orqaga oldi.

Biroq yigit devor tirqishidan oppoq ko'ylak va uzun zangori kamarni ko'rib qoldi, yugurib darvozaga bordida, tirqishga lablarini qo'yib:

– Qo'rqmang, Valentina, men – dedi.

Qiz yaqinroq keldi.

– Namuncha kechikdingiz bugun? – so'radi qiz, – ovqat vaqti yaqinlashib qolganini bilasiz-ku, axir har bir qadamimni tekshirib turadigan o'gay onam, ayg'oqchi oqsochdan va bezor etadigan ukamdan qutulib, bu yerga ish ko'tarib kelish uchun ming xil hiyla ishlatishga majbur bo'laman har gal, ishimni hali-veri tugatolmasman degan xavotirdaman. Nega kechikkaningizni tushuntirganingizda nega mana bu kiyimni kiyib kelganingizni ham aytib berasiz, bu libosda sizni boshda tanimay qoldim.

– Sevimli Valentina, – dedi javob qilib yigit, – mendek oshiqu beqaror shaydo uchun siz shunday bir falak yulduzisizki, bu haqda so'z ochishga ojizman, lekin sizni ko'rganda o'zimni tutolmay, sizga maftunman deyishga majburman. Ana shu so'zlarimning aks-sadosi hijron paytlarida ham dalda berib turadi menga. Tanbehingiz uchun qulluq, bu yoqimli tanbeh, bu shuni ko'rsatadiki, siz meni (kutibsiz deyishga tilim bormaydi) eslabsiz. Nechun kechikkanimning va nega bunaqa libosda kelganimning sababini bilmoqchisiz, shekilli? Hozir aytib beraman va meni afv etarsiz deb umid qilaman: men bir kasb tanladim o'zimga.

– Kasb!.. Bu bilan nima demoqchisiz, Maksimilian? Ikimiz uchun mo'tabar narsani hazil-mutoyibaga oladigan darajada baxtiyormizmi?

– Xudo saqlasin, jonimdan ham aziz narsa ustida hazil qilishdan Xudo saqlasin! – dedi yigit, – ammo shuni ochiq aytaiki, chaldivorlarda chang'iyverib va devorlardan oshaverib, charchadim, buning ustiga, otangiz bir emas birda meni o'g'ri deb sudga berib yuboradi, deb vahimaga tushib yuraman, bordi-yu, shunday bo'lsa butun fransuz

armiyasining sharmandasi chiqqan bo'lur edi! Ayni bir vaqtda qurshovda qolgan birorta qo'rg'on va himoya qilish zarur birorta qal'a bo'lmagan bu joylarda armiya kapitanining doim sang'ib yurganini ko'rganlar shubhalanishi mumkin. Ana shu sabablarga binoan men polizchi bo'lib olib, shunga munosib libos kiyib oldim.

– Bu tentaklik-ku!

Aksincha, men buni hayotimda eng oqilona qilig'im, deb hisoblayman, chunki bu bilan men o'zinning xavfsizligimni ta'minlab oldim.

– O'zi nima gap, tushuntirib bering.

– Marhamat! Men bu poliz xo'jayinining huzurida bo'ldim, ilgari ijarachi bilan tuzilgan shartnomaning muddati tugabdi, endi uni men ijaraga oldim. Mana bedaning hammasi endilikda meniki bo'lib qoldi, mana shu o'tlarning o'rtasiga bitta chayla qurib olib, sizdan atigi ikki-uch qadam berida yashayveraman, hech kim hech nima deya olmaydi! Baxtiyorman, boshim osmonda! O'zingiz bir o'ylab ko'ring, Valentina, bularning hammasini pulga sotib olish mumkin bo'lsa-da, kishining aqli bovar qilmaydigan hol-ku, to'g'rimi! Aslida bu o'n yillik hayotimni hadya qilsam ham arziydigan rohat, baxt, quvonch menga qanchaga tushdi deb o'ylaysiz-a? Boryo'g'i yiliga besh yuz frankka, yana hammasini birdan emas, uchga bo'lib to'lash sharti bilan-a! Mana ko'rib turibsizki, endi qo'rqadigan joyim qolmadi. Men o'z yerim-daman, devorga shoti qo'yib olib bog'ingizni bemalol tomosha qilaveraman, hech qanaqa yot nazarlardan qo'rqmay sizga ishqimni, muhabbatimni izhor etaveraman, faqat ishchi libosidagi kambag'al mardikordan siz hazar qilmasangiz bo'lgani.

Quvonchdan hayajonga tushgan Valentina nozik ovoz-la qichqirib yubordi. So'ng, go'yo hasadchi qora bulut uning yuragida yongan quyosh nurini to'sib qo'ygandek bo'ldi-yu, qiz qayg'uli ohangda dedi:

– Endi biz, Maksimilian, ortiq darajada erkin bo'lib olarkanmiz-da. Ikkimizning baxtimiz shunchaki havas yo'li-

dagi vasvasa emasmikin deb qo'rqaman, mabodo biz xavfsiz erkinlikni suiiste'mol qilsak halokatga mahkum bo'lishimiz hech gap emas.

– Shunday deyishga qanday jur'at qildingiz-a! Sizni tanigan kundan buyon men har kuni o'y-xayollarim va hayotimni sizning hayotingiz va o'y-xayollaringizga tobe ekanini isbotlab kelyapman. Sizning ishonchingizga meni muvassar etgan narsa nima o'zi, bilasizmi? Mening vijdonim. Shunday emasmi? Siz menga, qandaydir xavf tahdid solayotganini aytdingiz, men esa sizdan xizmatigingizda bo'lish baxtiga musharraf bo'lishdan boshqa hech narsa ta'ma qilmay yordam qo'limni cho'zdim. O'shandan beri sizga bo'lgan cheksiz sadoqatimga shubha tug'diradigan biror so'z, biror imo-ishora qildimmi? Siz menga janob d'Epine bilan unashib qo'yilganingizni, buni otangiz hal etganini, bu nikoh muqarrarligini aytdingiz, chunki janob de Vilforning qarori qat'iy bo'ladi. Shu zaylda men chekkada qoldim, butun orzu-umidimni o'z irodamga emas, sizning irodangizga ham emas, vaqtga, taqdirga, Xudoga havola qildim... Ammo bilaman, Valentina, siz meni sevasiz, menga achinasiz, o'zingiz shunday degansiz, bu bebaho so'zlaringiz uchun ming-ming rahmat sizga, faqat bir iltimosim bor: ahyon-ahyonda bo'lsa ham, shu so'zlarni takrorlab turing, shunisi yetadi, dunyoning boshqa hamma tashvishlarini xayolimdan ko'tarib tashlash uchun kuch bag'ishlaydi bu aziz so'zlar!

– Sizni dadil etib qo'ygan ham ana shu, Maksimilian, meni baxtiyor etgan ham shu, baxtsiz etgan ham ana shu. Men o'zimga-o'zim tez-tez shunday savol beraman: menga nima yaxshi – o'gay onamning dag'alligi va o'g'liga cheksiz muhabbati tufayli chekayotgan g'am-g'ussami yoki siz bilan birga bo'lganda xavf-xatarlarga to'la baxtiyorligimmi?

– Xavf-xatar! – dedi qichqirib Maksimilian. – Bunday dahshatli, adolatsiz so'zlarni aytishga qanday jur'at etdingiz. Nahotki men hamma itoatgo'y qullarning eng itoatlisi bo'lmasam? Siz menga, Valentina, ba'zida so'zla-

shishga ijozat berdingiz, ammo uchrashishning payiga tushishni man etdingiz, bungayam itoat qildim. Mana shu polizga kirish va siz bilan darvoza tirqishidan gaplashish, xullas, jamolingizni ko'rolmay faqat ovozingizni eshitib turish yo'lini topganimdan buyon jilla bo'lmaganda ko'ylagingizning etagiga qo'l tekkizishga ruxsat so'radimmi? Biror marta yosh va kuchga to'la yigit uchun zarracha to'siq bo'lolmaydigan mana shu devordan oshib tushishga urindimmi? Biror marta sizga berahm deb ta'na qildimmi? O'z istaklarimni izhor etdimmi? Ertaklardagi bahodirlar singari so'zimda qattiq turdim. Hech bo'lmasa mana shuni e'tirof eting, toki men sizni adolatsiz deb o'ylayman.

– Bu haq gap, – dedi Valentina ikki taxta orasidagi teshikdan barmoqlarining uchini chiqarib Maksimilianning lablariga tekkizar ekan: – Bu haq gap, siz chindan ham vijdoni pok do'stsiz. Biroq siz o'z shaxsiy manfaatingiz uchun shunday qildingiz, Maksimilian, chunki qul haddidan oshgan kuni hamma narsadan mahrum bo'ljagini juda yaxshi bilasiz. Siz menga – birorta do'st-g'amxo'riga ega bo'lmagan, o'z otasi ham unutib qo'rgan, o'gay onasi esa ming-ming musibatlarga duchor qilayotgan men sho'rlikka – jigarband akalarcha do'st-g'amxo'r bo'lishga va'da qilgan edingiz. Men bechoraning yagona ovunchog'im – qimir etmay yotgan, til-zabonsiz, muzdek qotib qolgan bobomdir. U hatto menga qo'lini uzatishdan ham o'qiz, faqat ko'zlari bilangina imo-ishora qiladi, demak uning yuragida oz bo'lsa-da, menga mehr-shafqat saqlanib qolgan. Ilojim qancha, taqdirning amri shu ekan! Men sho'rlikka do'st va madadkor qilib yagona murdani hadya etgan ham ana shu taqdir! Men, Maksimilian, haqiqatan ham baxti qaroman, siz menga muhabbat bag'ishlab, o'zingizni o'ylamay, menga g'amxo'rlik qilyapsiz, bu juda soz, azizim, juda soz.

– Valentina, – dedi Maksimilian hayajonga to'lib, – men dunyoda faqat birgina sizni sevaman deya olmayman, chunki singlimni ham, kuyovimni ham sevaman, ammo bu ularga bo'lgan muhabbatimga sira o'xshamaydi. Siz-

ni o'ylaganda qonim ko'pirib, butun vujudim yonib ketadi, yuragim tipirchilab, nafas olmay qolaman, ana shu kuch, g'ayrat, ichki tug'yonni, beqiyos qudratning hammasini sizga bo'lgan muhabbatimga berganman. Qaysi kun aytasangiz, o'sha kuni hammasini sizga bag'ishlashga tayyorman. Aytishlariga qaraganda, Frans yana bir yil bo'lmas ekan bu yerda, bir yilda qanchadan-qancha quvonchli voqealar, qulay fursatlar kelishi mumkin! Umidvor bo'laylik, yaxshi niyat qilaylik, «yaxshi niyat – yarim davlat» dey dilar! Siz, Valentina, meni xudbinlikda ayblab, ta'na qilyapsiz, siz kim edingiz men uchun, kim? Iffatli Veneraning go'zal va sovuq haykali! Sadoqatim, itoatim, sipoligim evaziga menga biror narsa va'da qildingizmi? Yo'q. Nima hadya qildingiz menga? Deyarli hech narsa. Menga qaylig'ingiz janob d'Epine haqida gapirasiz-da, bir kun emas, bir kun uning izmida bo'lish xayolingizga kelib, uh tortasiz. Menga qarang, Valentina, nahotki qalbingizda shundan boshqa hech nima bo'lmasa? Bu qanday hol! Men sizga o'z hayotimni, jonimni bag'ishlasam, yuragim ham faqat sizni deb ura, sizdan ajrash menga o'lim deb yursamu siz pinagingizni buzmay siz, boshqaga tegish to'g'risidagi fikr jillagina hayajonga solmaydi sizni! Yo'q, agar men sizning o'rningizda bo'lsaydim, sizni men sevganim kabi sevganlarini bilsaydim, mana shu teshiklar orqali yuz marta sho'rlik Maksimilianning qo'lini siqib: «Men, Maksimilian, siznikiman, faqat sizniki bo'lam, bu dunyoda ham, u dunyoda ham siznikiman», deb takror-takror aytgan bo'lur edim.

Valentina hech nima demadi, biroq Maksimilian uning xo'rsinib yig'layotganini eshitib turardi. U darhol es-hushini yig'ib xitob qildi:

– Valentina, Valentina! Mening so'zlarim sizni ranjitgan bo'lsa, Xudo haqi, unuting ularni, iltimos qilaman, unuting?

– Yo'q, – dedi qiz, – aytgan hamma gaplaringiz haqiqat, ammo ko'rib turibsizki, kimsasiz bir baxti qaro mushti-parman, yot bir kishining uyida turaman, chunki otam

ham menga yetti yot kishidek, mana o'n yildirki o'gay onam har kun, har soat, har daqiqa menga o'z hukmini o'tkazib, churq etkizmay ezib keladi, men chekayotgan azob-uqubatlarni hech kim bilmaydi, faqat sizga aytdim ularni. Yuzaki qaraganda hamma menga rahmdildek, hamma meni sevgandek ko'rinadi, haqiqatda esa hammasi mening dushmanim. Odamlar: «Janob de Vilfor qattiqqo'l va jiddiy odam, shu sababli u qizini erkatlab qo'ymaydi, ammo de Vilfor xonimdek o'gay ona qo'lida Valentina baxtiyor bo'lsa kerak» deyishadi. Lekin odamlarning bu gaplari noto'g'ri. Otam menga aslo e'tibor bermaydi, o'gay onamning esa ko'rmoqqa ko'zi yo'q meni, iljayib tursa-da, ich-ichidan nafratlanadi mendan, yomon ko'radi meni.

– Sizni-ya? Sizni qanday qilib yomon ko'rish mumkin, Valentina?

– Azizim, – dedi Valentina, – bu tabiiy bir hol, u o'z o'g'lini, ukam Eduarni jonidan ham yaxshi ko'radi.

– Yaxshi ko'rsa nima bo'пти?

– Bu masalaga pulni aralashtirish g'alati tuyulishi mumkin, ammo, har qalay uning menga nafrati ana shundan kelib chiqadi. Uning hech qancha boyligi yo'q, men esa onam qazo etgandan so'ng katta meros oldim, buning ustiga bir kun borib janob de Sen-Meran va malika de Sen-Merandan ham boy meros qoladi menga, unda haligi boylik ikki barobar ko'payadi. Menimcha, ana shunga onamning hasadi kelyapti. Qani endi o'sha boylikning yarmini berolsamu otamning uyida o'zimni chin tug'ishgan qiz his etsam, ming-ming shukr qilardim Xudoga!

– Eh, mening sho'rlik Valentinam!

– Ha, men o'zimni oyoq-qo'lga kishan urilgandek his etaman, ammo shu qadar zaif, shu qadar beholmanki, kishan meni suyab turibdi-yu, uni tashlab yuborsam yiqilib tushamanmikin deb qo'rqaman. Buning ustiga otam gapiga quloq osmaganlarni jazosiz qo'yadiganlardan emas. U menga hokim, sizni ham, hatto qirolni ham o'z amr-farmoni ostida tuta oladi, chunki pok o'tmishi, nu-

fuzi bilan beqiyos kuchli. Sizga, Maksimilian, ont ichib aytamanki, o'zim bilan sizni halok etib qo'ymayin tag'in, deb ularga qarshi kurashmayapman.

– Valentina, axir, – dedi e'tiroz bildirib Maksimilian, – nega bunchalik umidsizlanasiz, nechun istiqboldan umid uzasiz?

– Azizim, o'tmishga qarab shunday xulosaga kelaman.

– Menga qarang, aristokratik nuqtai nazardan juda bop kelmasam-da, har holda ko'p jihatdan men ham o'sha siz yashab kelayotgan jamoatga mansub kishilardanman. Fransiyada bir vaqtlar ikki Fransiya bo'lardi: monarxiya davrining asilzodalari Fransiyasi va Imperiya aslzodalari-ning Fransiyasi. U zamonlar o'tib ketdi. Monarxiya aslzodalari imperiya asilzodalari-ga tutashib, birlashib ketdi, qilich aristokratiyasi zambarak aristokratiyasi bilan qavm-qarindosh bo'lib qoldi... Men esa so'nggisiga mansubman: mening porloq istiqbolim armiyada, oz bo'lsa-da, faqat o'zimga tegishli boyligim – mulkim bor, nihoyat bizning o'lkamizda otamni hurmat bilan esga olishadi va eng oli-janob savdogarlardan deb ulug'lashadi. «Bizning o'lkamizda» deganimning boisi shuki, Valentina, siz ham de-yarli Marseldansiz.

– Menim huzurimda, Maksimilian, Marselni aslo tilga olmang, bu nom menga onajonimni – hammaning ko'z yoshini to'kib dunyodan o'tgan, yerda qizini ozgina vaqt qo'riqlay olgan (aminmanki, u hozir ham meni qo'riqlab, himoya qilib turibdi) farishtamni eslatadi. Eh, Maksimili-an, qani endi sho'rlik onam tirik bo'lsaydi, hech narsadan qo'rqmagan, xavotirlanmagan bo'lur edim. Men unga, mana shu yigitni – Maksimilianni sevaman, deb aytib qo'ya qolardim, u bizning ikkimizni himoya qilardi.

– U tirik bo'lganida, – dedi e'tiroz bildirib Maksimilian, – men sizni bilmagan bo'lur edim, axir o'zingiz, «unda men baxtiyor bo'lur edim» dedingiz, baxtiyor Valentina esa menga qayrilib boqmas ham edi.

– Azizim, – xitob qildi Valentina, – mana endi siz men-ga adolatsizlik qilyapsiz... biroq ayting-chi...

– Xo’sh, siz nima deyishimni istaysiz? – so’radi Maksimilian qizning ikkilanib turganini sezib.

– Bitta savolim bor, shunga javob bering, – dedi qiz, – Marselda o’sha vaqtda sizning otangiz bilan mening otam o’rtasida biror ko’ngilsiz voqea o’tganmidi?

– Bilmadim, bundan xabarim yo’q, – dedi Maksimilian, – faqat shunisi ayonki, sizning otangiz ko’proq Burbonlarga tarafdor edi, mening otam esa imperatorga sodiq edi. Menimcha, ikkisi shu masalada bir-biri bilan kelisha olmas edi. Siz nega buni surishtirib qoldingiz?

– Hozir tushuntirib beraman, – dedi qiz, – siz hammasini bilishingiz kerak. Bu sizga Faxriy legion kavaleri unvoni berilgani gazetalarda e’lon qilingan kuni yuz bergan edi. Biz hammamiz buvam Nuartenikida edik, Danglar ham o’sha yerda edi. Uni tanisangiz kerak, o’zi bankir, uning otlari bundan uch kun oldin o’gay onamni va ukamni naq bo’lmasa o’ldirayozgan edi. O’shanda men buvanga gazeta o’qib berayotgan edim, boshqalar mademuazel Danglarning nikohi haqida gap sotishayotgan edi. Gazetaning sizga taalluqli yeriga kelganimda (men bu yoqimli xabarni bir kun avval ertalab o’zingizdan eshitgan edim) o’zimni nihoyatda baxtiyor his etdim, chunki sizning nomingizni tilga olish meni hayajonga soldi, agar turli bema’ni gap qilishlaridan qo’rqmaganimda nomingizni aytmay o’tib ketardim, lekin bo’lmadi, irodamga kuch berdim-da, o’qib yubordim.

– Oh, azizim Valentina!

– Shunday qilib, nomingizni tilga olishim bilan otam yalt etib menga qaradi. Sizning nomingiz hammaga yashin urgandek ta’sir etishiga imonim komil edi (qarang, men qanaqa tentakman), otam xuddi seskanib ketganday tuyuldi, janob Danglarning vujudida ham xuddi shunday hol yuz berganini sezdim.

«Morrel, – dedi otam, – to’xtang! (U qovog’ini soldi.) Bu o’sha bir ming sakkiz yuz o’n beshinchi yilda bizni ko’p ovora qilgan Marseldagi ashaddiy bonapartchi Morrellardan emasmi?»

«Xuddi o'shalardan, – javob qildi Danglar, – menimcha bu o'sha armatorning o'g'li bo'lsa kerak».

– Eh-e, shunday deng hali! – dedi Maksimilian. – Otangiz nima dedi o'shanda?

– Shunday dahshatli so'z aytdiki, uni takrorlashga tilim bormayapti.

– Mayli, aytavering, – dedi iljayib Maksimilian.

«Ularning imperatori, – dedi u qoshlarini chimirib, – mu-taassiblarning hammasini boplab ta'zirini bergandi. U muxlislarini zambarakka go'sht deb haq gapni aytgan edi. Yangi hukumat yana o'sha najotbaxsh prinsipni qo'llayotganidan juda shodman. U Jazoirni, bizga qimmatga tushayotgan bo'lsa-da, faqat shuning uchun saqlayotgan bo'lsa, men hukumatni olqishlayman».

– Bu chindan ham juda qo'pol siyosat, – dedi Maksimilian. – Qo'ying, janob de Vilforning so'zlaridan xijolat tortmang, mening otam bu masalada sizning otangizdan hech qolishmasdi va doim: «Hech tushunolmayman, nega imperator sudlar va advokatlardan bir polk tuzib, har gal jang maydonining oldingi pozisiyalariga yubormaydi?» degan so'zlarni takrorlardi. Mana, azizam, ko'rib turibsizki, so'zamollikda ikki tomon ham bir-biridan qolishmaydi. Qirollik prokurorining hujumiga Danglar nima deb javob berdi?

– U odatdagicha o'ziga xos zaharxanda qilib qo'ya qoldi. Bir daqiqa o'tar-o'tmas ular turib chiqib ketishdi. Faqat shunda men buvam nihoyatda hayajonga tushib qolganini ko'rdim. Sizga, Maksimilian, shuni aytishim zarurki, bechora falajning hayajonlanib, og'ir qayg'uga tushganini birgina men ko'raman. Umuman bu so'zlar unga og'ir ta'sir etishini darrov anglagan edim. Axir sho'rlik buvamga hech kim e'tibor bermay qo'ygan, uning imperatorini ayblab, qoralab tashladilar, u esa, aftidan imperatorga juda sodiq bo'lgan ekan.

– Imperiya davrida, – dedi Maksimilian, – u juda mashhur zotlardan edi, senator edi, buni ehtimol bilsangiz kerak, Valentina, Restavrasiya davridagi bonapartchilar-

ning hamma fitnalarida qatnashgan edi.

– To‘g‘ri, ba‘zan shu haqda shivirlashib gapirayotganlarini eshitib qolaman, bu menga juda g‘alati tuyuladi: buvam – bonapartchi, otam – royalist, chindan ham taajjublanadigan hol, to‘g‘rimi?.. Shunday qilib, buvam menga yalt etib qaradi-da, gazetaga imo qildi.

«Buva sizga nima bo‘ldi? – so‘radim men. – Siz bundan mamnunmisiz?»

U ko‘zi bilan «ha» deb ishora qildi.

«Otamning aytganlaridanmi?» – so‘radim.

Imo bilan «yo‘q» dedi.

«Janob Danglarning so‘zlaridanmi?»

U yana «yo‘q», deb ishora qildi.

«Demak, janob Morrel (men Maksimilian deya olmadim)ning Faxriy legion kavaleri unvoni olganidan xursand ekansiz-da?»

U «ha» dedi imo bilan.

– O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, Maksimilian, u sizni tanimsayam, Faxriy legion kavaleri bo‘lganingizdan mamnun. Ehtimol, u aqldan ozib aljigandir, chunki chol injiq bolaga o‘xshab qoladi, deyishadi, biroq u ana shu «ha» iborasi bilan meni baxtiyor etdi.

– Qiziq, – dedi o‘yga cho‘mib Maksimilian, – otangiz meni o‘lgudek yomon ko‘radi, buvangiz esa... Bu siyosatdagi tarafma-taraflik juda g‘alati ekan-da!

– Jim! – dedi hayajonlanib Valentina. – Yashirining, qoching! Kimdir kelyapti bu yoqqa!

Maksimilian belkurakni oldi-da, zo‘r berib bedazorni o‘ya boshladi.

– Mademuazel! Mademuazel! – deb qichqirdi allakim daraxtlar orqasidan, – de Vilfor xonim sizni chaqiryaptilar, mehmon kutib o‘tiribdi.

– Mehmon? – dedi tashvishga tushgan Valentina. – Kim ekan u?

– Nomdor mehmon? Graf Monte-Kristo emish.

– Hozir, hozir boraman, – dedi ovozi baland ko‘tarib Valentina.

Darvozaning narigi tomonidagi zot uchun «hozir, hozir» soʻzlari xayr azizim, degani edi. U buni eshitib badani titrab ketdi.

«Ana xolos! – oʻy surib ketdi belkuraka suyanib turgan Maksimilian, – graf Monte-Kristo Vilforni qaerdan tanirkin?»

XIV. TOKSIKOLOGIYA³⁶

Bu rostdan ham graf Monte-Kristo edi. U Vilfor xonim huzuriga qirollik prokurorinikiga tashrif buyurish maqsadida kelgan edi, tabiiyki, uning nomini eshitib uydagilarning barchasi dovdirab qoldi.

Mehmon kelganini xabar qilganlarida de Vilfor xonim mehmonxonada edi, u darrov, grafga yana minnatdorlik bildirsin, deb oʻgʻlini chaqirtirdi. Oʻtgan ikki kun mobaynida dongdor kishi haqida juda koʻp gaplar eshitgan Eduar, onasining gapiga quloq solish yoki grafga minnatdorlik izhor etish uchun emas, qiziqsingani uchun, biror soʻzni ilib olib luqma tashlash va ona bechorani: «E-eh, juda jonga tegdi bu bola! Ammo juda aqlli-da, uni gʻazabga sololmaganimning boisi ham shu!» deb javratish uchun shu onda yugurib keldi.

Odatdagi salom-alikdan soʻng graf janob de Vilforni soʻradi.

– Erim yustisiya ministrinikida mehmonda, – dedi yosh juvon, – u hozirgina ketdi, aminmanki, siz bilan bu yerda boʻlish sharafiga muyassar boʻlolmaganidan juda achinib qoladi.

Graf kirganda mehmonxonada ikki kishi oʻtirgan edi. Ular bir oz grafga tikilib oʻtirishdi-da, soʻng chiqib ketishdi.

– Aytgancha, opang Valentina nima qilib yuribdi? – soʻradi de Vilfor xonim Eduardan. – Bor, ayt, uni chaqirib kelishsin, grafga tanishtirib qoʻyay.

– Malika, qizingiz bormi? – soʻradi graf. – U juda yosh

bo'lsa kerak?

– Janob de Vilforning birinchi xotinidan, bo'yi yetib qolgan go'zal qiz.

– Lekin juda hazin, diqqinapas, – so'z qotdi Eduar chiroyli to'tiqushni chirqiratgancha patini yulib, shlyapasi-ga taqib olarkan.

Vilfor xonim:

– Ovozingni o'chir, Eduar! – deb qo'ya qoldi. So'ng u qo'shimcha qildi: – Bolaning gapida jon bor, bu tirmizak, men ko'p mahal qayg'urib aytgan gaplarimni qaytardi, mademuazel de Vilfor juda odamovi, indamas, «ichimdagini top»lardan. Biz uning ko'nglini ochish uchun ko'p urindik, ammo bo'lmadi. Uning bu xislati kishini maftun etadigan husniga dog' bo'lib tushyapti. Nechundir kelmayapti u, Eduar, nima gap o'zi, bor, bilib kel.

– Uni yo'q joydan axtarib yurishibdi-da.

– Qaerdan axtarishyapti?

– Nuarte buvanikidan.

– Seningcha, u yerda yo'qmi mademuazel?

– Yo'q, yo'q, yo'q, u yerda yo'q, – dedi qiroat bilan Eduar.

– Yo'qsa, qaerda u? Bilsang ayt.

– Katta kashtanlar oldida, – dedi tajang bola onasining qichqirig'ini ham nazar-pisand qilmay, to'tiqushning tumshug'iga pashsha tutib.

Vilfor xonim oqsochga Valentinaning qaerdaligini aytmoqchi bo'lib qo'ng'iroqqa qo'l uzatayotganda uning o'zi xonaga kirib keldi.

Qiz haqiqatan ham juda g'amgin edi, diqqat bilan qaragan kishi yaqindagina ko'z yoshi to'kkanini fahmlab olardi.

Hali biz Valentinaning tashqi qiyofasini shoshib bir oz tasvirlab bergan edik kitobxonlarimizga. Ana shu nozain qiz sarviqomat, bo'ydor, o'n to'qqiz bahorni endigina ko'rgan qiz edi, sochlari qo'ng'ir, ko'zlari quralay, yurishi ham onasiniki kabi chiroyli, qo'llari oppoq, bo'yni marvariddek oq, yuziga ozgina qizil yugurgan, birinchi ko'rish-

da hamma uni shishadek suvga qarab pardoz qilayotgan oqqushga o'xshatadigan go'zal angliyalik qiz deb o'ylashi mumkin.

Qiz kirgach, o'gay onasi yonida o'tirgan xorijiy kishiga ko'zi tushdi, kibru havo qilmay, ko'zini uzmay turib nazokat bilan ta'zim etdi, bundan foydalangan graf qizni diqqat bilan ko'zdan kechirib oldi.

Graf o'rnidan turdi.

Vilfor xonim divandagi yostiqqa suyanib.

– O'gay qizim mademuazel de Vilfor, – deb qo'li bilan grafga qizni ko'rsatdi.

– Bu kishi esa graf Monte-Kristo, Xitoy qiroli, Koxinxan imperatori, – dedi bidirlab yer ostidan opasiga razm solib turgan jinqarcha.

Bu gal o'g'lining beadabligidan de Vilfor xonimning jahli chiqib, bo'zarib ketdi, beboshni g'azabiga olmoqchi ham bo'ldi, biroq kutilmagan holda graf iljayib bolaga mehr bilan qaradi, buni ko'rib ona behad shod bo'lib ketdi.

– Malika, – dedi graf suhbatni davom ettirib, u goh Vilfor xonimga, goh Valentinaga qarardi. – Chamamda, men sizni va mademuazel de Vilforni qaerdadir ko'rgandekman? Men eslab o'tirgan edim, mademuazel kirib kelgach, bu taxminim ravshanlasha boshladi.

– Bunday bo'lishi mahol, mademuazel de Vilfor ko'pchilik gurungini yoqtirmaydi, biz esa safarlarda juda kamdan-kam bo'lamiz, – dedi yosh ayol.

– Mademuazel de Vilforni ham; sizni va mana bu ajoyib jinqarchani ham ko'pchilik gurungida – jamoat orasida ko'rganim yo'q. Buning ustiga Parij jamoatchiligi bilan men mutlaqo tanish emasman, chunki Parijga kelganimga besh-olti kun bo'ldi, xolos. Ruxsat etsangiz, esga solay qaerda uchrashganimni...

Graf uchala barmog'ini peshanasiga qo'yib o'ylab qoldi.

– Bu ochiq havoda... bog'-rog'li joyda... bo'lgan edi... bilmadim... negadir buni o'ylasam oftob yarqirab turgan

kun, qandaydir diniy bayram esiga tushadi. Mademuazel de Vilforning qo'lida bir tutam gul bor edi o'shanda, bola esa bog'da qip-qizil tovusni quvib yurgandi, siz esa tok taralgan shiyponda o'tirgan edingiz... Yordam qilsangizchi, malikam! Nahotki, mening bu gaplarim hech narsani eslatmasa sizga?

– Chindan eslayolmayapman, – javob qildi de Vilfor xonim, – agarda men sizni biror yerda ko'rganimda, sizdek zotning qiyofasi aslo yodimdan ko'tarilmasdi.

– Ehtimol, graf bizni Italiyada uchratgandir, – dedi asta Valentina.

– Rostdan ham Italiyada... bo'lishi mumkin, – dedi Monte-Kristo, – siz Italiyada bo'lganmisiz, mademuazel?

– Bundan ikki yil muqaddam biz malika de Vilfor bilan u yerda bo'lgan edik. Doktorlar o'pkamdan xavotirlanib, Neapolda yashashni maslahat berishgan edi. Yo'l-yo'lakay Boloneda, Perudjada va Rimda to'xtagan edik.

– Endi esimga tushdi! – dedi xitob qilib Monte-Kristo, bu ishora go'yo xotirasini ravshanlashtirgandek. Perudjada vojibal vujud bayrami kuni Pochta mehmonxonasi-ning bog'ida, men tasodifan sizni, mademuazel de Vilfor va o'g'lingizni uchratib qolgandim, ana o'sha yerda sizni ko'rish sharafiga muyassar bo'lgan edim.

– Perudja, Pochta mehmonxonasi, u yerda bo'lgan bayram – hammasi xuddi kechagidek esimda, graf, – dedi de Vilfor xonim, – biroq shuncha o'ylasam-da sizni ko'rganimni hech eslayolmayapman.

– Ajabo, men ham shunday, – dedi Valentina maftunkor ko'zlarini Monte-Kristoga tikib.

– Men juda yaxshi eslab turibman, – dedi Eduar.

– Hozir esingizga solaman, – davom etdi graf. – O'shanda oftob jazillatib turgan edi, siz izvosh kutayotgandigiz, sayil kuni edi, hadeganda izvosh kelavermadi. Mademuazel bog'ning to'riga o'tib ketdi, o'g'lingiz esa tovusni quvib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

– Oyi, esingizdami, men o'shanda tovusni tutib, – dedi Eduar, – dumidan uchta patini yulib olgandim.

– Siz, malika, tok taralgan shiyponchada o'tirib qoldingiz, qizingiz va o'g'lingiz kelguncha allakim bilan uzoq suhbatlashdingiz, esingizdami?

– Esimda, to'g'ri, – dedi de Vilfor xonim qizarib, – esimda, u uzun plash kiygan kishi edi... chamamda doktor bo'lsa kerak.

– Xuddi shunday. O'sha odam men edim, mehmonxonada ikki haftadan buyon turardim. Kamerdinerimni bezgakdan davoladim, mehmonxona xo'jayinini sariq kasalidan qutqardim. Meni mashhur doktorga chiqarib qo'yanlarining boisi ham shunda. Ikkimiz turli mavzularda: Perudjino to'g'risida, Rafael to'g'risida, urfodatlar, kostyumlar, akva tofan to'g'risida (buning sirini biladiganlar Perudjada haliyam bor deyishadi) uzoq so'zlashdik.

– To'g'ri, to'g'ri, – dedi shoshib va bir oz tashvishlanib Vilfor xonim, – esimga tushyapti.

– Sizning so'zlarinigzni batafsil eslayolmayapman, – davom etdi vazmin ohangda bamaylixotir graf, – biroq mademuazel de Vilforning sog'lig'i masalasida mendan maslahat so'raganingiz yodimda.

– Siz bir necha kasallarni davolagan bo'lsangiz, demak, chindan ham doktor ekansiz-da.

– Moler va Bomarshe bo'lganida bu doktor bo'lmagani uchun shunday bo'ldi, deb javob berardi sizga. Kasallarni men sog'aytirganim yo'q, o'zlari tuzalib ketishdi. Men sizga faqat shuni bayon etishim mumkinki, kimyo va tibbiyot bilan juda chuqur shug'ullanganman, biroq bir havaskor sifatida, albatta...

Shu payt soat oltiga bong urdi.

– Soat olti bo'libdi, – dedi aftidan juda qattiq hayajonga tushgan de Vilfor xonim, – Valentina, buvangiz ovqatlanmoqchidir, borib biling-chi.

Valentina o'rnidan turdi-da, grafga ta'zim qilib, indamay chiqib ketdi.

– Tavba, nahotki, xonim meni deb mademuazelni chiqarib yuborgan bo'lsangiz? – so'radi graf Valentina chi-

qib ketgach.

– Aslo unday emas, graf, – dedi shoshib yosh juvon. – Ayni shu paytda janob Nuarteni ovqatlaniramiz, zig'irdak ovqat adoyi-tamom bo'lib qolgan cholga bir oz madad berib turadi. Erimning otasi qanday nochor ahvolda ekani sizga ma'lumdir?

– Janob de Vilfor aytgandi, uni falaj yiqitgan shekilli, to'g'rimi?

– Ha, falaj yiqitdi. Sho'rlik chol qimir etolmay yotibdi. Faqat yuragi so'nib borayotgan chiroq piligi kabi titrab turibdi, xolos. Oilamizdagi baxtsizlik to'g'risida ezmalik qilganim uchun kechiring meni, graf. Mohir kimyogarman deyotganingizda so'zingizni bo'lib qo'ygan edim.

– Men bunday deganim yo'q, – dedi javoban jilmayib graf. – Men kimyoni, ko'proq sharqda yashamoqchi bo'lganim sababli, shoh Mitridatdan o'rnak olish niyatida o'rgangan edim.

– Mithridates, rex Ponticus, – dedi tirmizak bola rangdor albomdan suratlarni qirqayotib, – u odam har kun nahorga bir piyola zaharga qaymoq qo'shib icharkan.

– Eduar, beodoblik qilma! – dedi de Vilfor xonim o'g'lining qo'lidan dabdalasi chiqqan albomni tortib olib, – juda jonga tegding-da. Yo'qol bu yerdan, opangning oldiga – buvang Nuartening xonasiga, bor.

– Albom... – dedi Eduar.

– Nima albom?

– Albomni bering...

– Nega suratlarini qirqib tashlading?

– Qirqqim keldi, qirqdim-da, nima bo'пти.

– Yo'qol ko'zimdan, yo'qol.

– Albomni olmaguncha ketmayman, – dedi bola va qaysarligi tutib, chuqur kursiga o'tirib oldi.

– Ol albomni, tinch qo'y bizni, – dedi de Vilfor xonim va Eduarga albomni uzatdi-da, bolani eshikkacha kuza-tib qo'ydi.

Graf de Vilfor xonimdan ko'zini sira uzmay o'tirardi.

– Qani ko'ramiz, xonim o'g'lini chiqarib yuborib eshik-

ni bekitib qo'yarmikin, – dedi ming'illab graf.

Vilfor xonim o'g'li chiqib ketgach, eshikni mahkam bekitib qo'ydi, graf esa o'zini ko'rmaganga soldi.

So'ngra yosh juvon yana atrofni ko'zdan kechirib chiqdi-da, qaytib o'rniga o'tirdi.

– Kechirasiz, ammo aytishga majburman: siz bolani juda qattiq ushlarkansiz, – dedi graf o'zini soddalikka solib.

– Shunday qilmasa bo'lmaydi, – e'tiroz bildirdi de Vilfor xonim.

– Eduar shoh Mitridat haqida gapirganda Korneliy Neopotdan dalil keltirayotgandi, – dedi graf, – siz uni eng o'tkir joyda so'zini kesib qo'ydingiz, ko'rinib turibdiki, o'qituvchi vaqtni behuda o'tkazmabdi, o'g'lingiz yoshiga qaramay juda zehnlil bola.

– To'g'ri aytasiz, graf, – javob qildi maqtovgga mahliyo bo'lgan ona, – juda iqtidorli bola, istagan narsasini esida juda mahkam saqlab qoladi. Uning faqat bitta kamchiligi bor: juda taltayib ketgan... biroq uning aytganiga qaytaylik: – Graf, siz Mitridat ehtiyoti shart haligiday chora ko'rganiga ishonasizmi? Chindan ham o'sha qaymoqqa qo'shib ichilgan dori yaxshi ta'sir qiladimi?

– Men bunga batamom ishonaman, chunki bu usulni o'zim ham Neapolda, Palermoda va Smirnada qo'llab, shu dorini ichib uch marta o'limdan qoldim.

– Yordam qildimi?

– Juda yaxshi yordam berdi.

– To'g'ri, esimga tushdi; Perudjada ham menga shunga yaqin bir narsa aytgan edingiz.

– Rostdanmi? – dedi graf o'zini juda ustalik bilan ajablangan kishiga o'xshatib, – nima deganim esimda yo'q.

– Men sizdan zahar shimolliklarga ham, janub kishilariga ham bir xilda ta'sir qiladimi, deb so'ragan edim, siz sovuqqon shimolliklarga zahar, qiziqqon va serg'ayrat janubliklarga qaraganda kamroq ta'sir etadi, deb javob bergan edingiz.

– Bu gapingiz to'g'ri, – dedi Monte-Kristo, – ruslar gi-

yohlardan yasalgan turli narsalarni, sog'liqqa hech zarar yetkazmay yeb yurganlarini ko'rgan edim, mabodo o'sha narsalarni neapolitanlik kishi yoki arab yesa til tortmay o'lishi hech gap emas.

– Siz, bu borada Sharqqa qaraganda bizda yaxshi natijalarga erishish mumkin, tuman va yomg'irlar qurshovida yashovchi kishiga, issiq havoda yashovchiga qaraganda zahar yutishni o'rganish oson, deb o'ylaysizmi?

– Shubhasiz, biroq shuni unutmaslik kerakki, kishi o'z tanini qanday zaharga o'rgatgan bo'lsa o'sha zahar unga foyda beradi, o'limdan saqlaydi.

– Tushunarli, siz o'zingizni bunga qanday qilib o'rgatgan bo'lur edingiz? To'g'risi, qanday qilib o'rgatdingiz?

– Bu juda oson. Avval sizga qanaqa zahar bermoqchi ekanlarini faraz qiling... sizga masalan, brusin degan zahar bermoqchilar, deb chamalang...

– Brusinni yasama angustur qobig'idan oladilar, shekilli, – dedi de Vilfor xonim.

– Xuddi shunday, – javob qildi Monte-Kristo, – biroq bu borada sizga mening o'rgatib o'tirishimning hech hojati yo'q ekan, bu sohadagi bilimingiz bilan sizni tabriklayman, xonim. Bunday bilimga ega kishilar xotinlar orasida kamdan-kam topiladi.

– E'tirof etishim kerakki, – dedi de Vilfor xonim, – okkult fanlarni juda yaxshi ko'raman, bu fanlar, xuddi poeziya kabi fikr-xayollarni jo'shqinlashtirib yuboradi va algebradagi tenglamalar singari raqamlar bilan yechiladi, iltimos qilaman hikoyangizni davom ettiring, gaplaringizga juda qiziqib qoldim.

– Shunday qilib, – dedi so'zini davom ettirib Monte-Kristo, – sizga beriladigan zaharni brusin deb faraz qiling, birinchi kuni undan bir milligramm, ikkinchi kuni ikki milligramm qabul qildingiz, shu zaylda o'n kunda bir sentigrammga yetasiz. Yigirma kundan keyin, kuniga yana bir milligrammdan qo'shib borib uch sentigrammgacha qabul qilasiz, ya'ni hech zarar-zahmatsiz, zaharni ko'proq

yeydigan bo'lib olasiz. Ehtiyot choralarini ko'rmagan boshqa biror kishi bunchalik ichsa hayotini tahlikaga solib qo'ygan bo'ladi. Oxirida bir oydan keyin bu shungacha borib yetadiki, siz bilan birga grafindan bir stakan suv ichgan kishi shu zahoti til tortmay o'ladi, siz esa faqat sal tobingiz qochganidan suvga zahar qo'shilganini his qilasiz.

– Bunga qarshi yana qanaqa chora bor, bilasizmi?

– Yo'q, bilmayman.

– Mitridat to'g'risidagi o'sha hikoyani men qayta-qayta o'qib chiqqan edim, – dedi xayol so'rgan holda de Vilfor xonim, – lekin men uni ertak deb bilardim.

– Yo'q, ertak emas, tarixchilarning odatlariga qarshi o'laroq, u hikoya chin haqiqat. Ko'rib turibmanki, suhbatimizning mavzusi siz uchun kutilmagan narsa emas ekan. Bundan ikki yil muqaddam siz menga xuddi hozirgi kabi savollar bergandingiz, o'zingiz ham Mitridat haqidagi hikoya ko'pdan buyon meni qiziqtirib keladi, dedingiz.

– Graf, haqiqatan ham shunday, yoshligimda men ko'proq botanika va minerologiya bilan qiziqardim. Shifobaxsh giyohlardan yasaladigan dorilar bilan davolanish tarixini o'rganishim sharq xalqlarining tarixini, sharqliklarning turmushini o'rganishning kaliti ekanini bilgach, Flamel, Fontana yoki Kabanisga o'xshagan odam bo'lish uchun erkak bo'lib tug'ilmaganimga achindim.

– Yana shunisi ham borki, malika, – dedi Monte-Kristo. – Sharqda kishilar zahardan o'zlariga Mitridat singari qalqongina emas, hatto xanjar qilib ham foydalanishadi, fan ularning qo'lida muhofaza quroli bo'libgina qolmay, hujum quroli bo'lib qolayotir, birinchisi bilan tan azobidan saqlanishsa, ikkinchisi bilan o'z dushmanlariga qarshi kurashayaptilar. Afyun, belladonna (zaharli o'simlik), ljeangustura, tafron daraxti ularga ko'zlarini ochib qo'ymoqchi bo'lganlarni uxlatishiga yordam beryapti. Bu yerda siz ko'ngli ochiq deb ataganingiz Misr, Turk yoki Grek ayollari orasida kimyo sohasidagi bilimi bilan har qanday vrachni hayratda qoldirmaydigani yo'q,

psixologiya sohasidagi ilmi bilan har qanday dindorni dahshatga soladi sharq ayollari.

– Shundaymi hali! – dedi de Vilfor xonim. Shu soʻzlar aytilgan paytda uning koʻzlari gʻalati chaqnab ketdi.

– Shunday, – davom etdi Monte-Kristo, – Sharqning barcha sirli dramalari ishq-muhabbat borasida chigallashadi-da, ajal giyohi yoki sharobda tamomatiga yetadi. Inson tabiatida qanchaki jismoniy va maʼnaviy qiliq-odatlar boʻlsa, bu borada ham shunchalik xilma-xilliklar mavjud. Yana qoʻshimcha qilib shuni ham aytish kerakki, bu mohir kimyogarlar kasal va uning dori-darmoni masalasini oʻzlarining muhabbat yoʻlidagi sarguzashtlariga va qasos olish istaklariga juda boplab bogʻlab yuborishadi.

– Biroq, graf, – eʼtiroz bildirdi yosh juvon, – siz hayotinigizning yarmini oʻtkazgan oʻsha Sharq jamiyati, menimcha, u ajoyib mamlakatlarning ertaklaridek, afsonafiy jamiyat boʻlsa kerak, toʻgʻrimi? U yerlarda odam oʻldirgani jazoga tortmasalar kerak, shundaymi? Demak, Gallan³⁷ asarida tasvir etgan Bagʻdod va Bassora haqiqatan ham bor ekan-da? Demak, oʻsha jamiyatni idora qilayotgan va Fransiyada hukumat deb ataladigan yuqori mahkamani boshqaradigan sultonlar va vazirlar chindan ham oʻsha Xorun-ar-Rashid va Jaʼfarlar ekan-da. Ular zaharlovchining gunohini kechish bilan kifoyalanib qolmay, juda quvlik, ustalik va makkorlik bilan jinoyat qilgan boʻlsa, zerikkan vaqtlarida koʻngil ochish uchun uni birinchi ministr qilib qoʻyishadi va bu jinoyatni tarix sahifasiga oltin harflar bilan yozib qoʻyish haqida farmon berishadi, toʻgʻrimi?

– Yoʻq, malika, favqulodda hodisalar zamoni Sharqda ham oʻtib ketdi, u yerlarda boshqacha nomda va boshqacha libosda polisiya komissarlari, tergovchilar, qirollik prokurorlari va ekspertlar mavjud, u yerlarda ham jinoyatchini juda boplab osadilar, kallasini tanasidan judo qiladilar, qoziqqa oʻtqazadilar, biroq u yerdagi abjir firibgar jinoyatchilar jazodan juda ustalik bilan qutulib olib oʻz rejalarining muvaffaqiyat bilan amalga oshishini taʼminlaydilar. Bizda esa nafrat va ochkoʻzlikka mukkasi-

dan ketgan tentak dushmanining kunini kalta qilish uchun yoki keksayib qolgan qarindoshini o'ldirish uchun farmasevtga murojaat qilishadi (shu vaqt u o'ziga uydirma nom qo'yib ham oladi) va «kalamushlar uyqu bermayapti» degan bahona bilan besh-olti gramm margimush sotib oladi. Bordi-yu, u juda quv bo'lsa, birin-ketin bir necha farmasevtning oldiga boradi, biroq bu bilan tentak, tutib olishlarini besh-olti marta yengillashtirib qo'yadi. Yasama nom bilan borganda ham uni tutib olish osonlashadi. Zarur dori – margimushni olib borib, hatto filni joyida qotirib qo'yadigan miqdorda dushmaniga yoki keksa qarindoshiga yediradi, bechoralar og'riqqa chidolmay yer-ko'kni boshlariga ko'tarib dod-faryod soladilar, butun mahalla larzaga keladi, shundan keyin polisaylar va jandarmlar yopirilib kelib, doktor chaqirishadi, u murdani yorib, qornidan va ichagidan qoshiq-qoshiq margimush olishadi. Ertasiga bu voqea haqida yuzta gazetada xabar bosiladi, qurbon bo'lganlar va qotillarning nomlari sanab chiqiladi. Kechqurun bitta yoki bir necha farmasevtni kelib «margimushni u mendan sotib olgan edi» deb xabar berishadi. Zahar sotib olgan tentak jinoyatchini tutib olishadi-da, turmaga tiqishadi, so'roq qilishadi, guvohlarni chaqirib yuzma-yuz gapirtirishadi, gunohini bo'yniga qo'yib, jazoga tortishadi va jallod kundasiga bosishadi, mabodo u zodagonlar oilasidan bo'lsa, umrbod qamoqqa hukm qilishadi. Mana, ko'rdingizmi, sizning shimolliklaringiz kimyoga ana shunday munosabatda bo'lishadi. Biroq Deryu⁵⁸ ancha aqlli bo'lgan edi.

– Iloji qancha, – dedi kulib de Vilfor xonim, – odamlar qo'lidan kelganini qiladi. Medichi va Bordjia bilgan sirlarni kamdan-kam kishi biladi.

– Endi, – dedi graf yelkasini qisib, – bu bema'niliklar nimadan kelib chiqishini aytib beray istasangiz? Shundan kelib chiqadiki, sizning teatrlaringizdagi qo'yiladigan pesalarda (men ularni o'qib chiqib, shunday deyapman) kishilar tez-tez shishachalarda dorilarni bir ho'plab ichib

yuborishadi yoki uzukka joylashtirilgan zaharni yutishadi-da, til tortmay qolishadi, besh daqiqadan so'ng parda tushadi, tomoshabinlar uy-uyiga jo'nab ketadi. Qotillikning oqibati sir bo'lib qoladi: siz hech vaqt polisiya komissarini ham, to'rt soldatni yetaklab kelgan kapralni ham ko'rmaysiz, shu sababli befahm kishilar hayotda shunaqa bo'larkan-da, deb yuraveradi. Lekin Fransiyadan tashqariga chiqsangiz, Halabga, Qohiraga yoki, hech bo'lmasa, Neapolga, yo Rimga borsangiz, ko'chalarda sayr etib yurgan yuzlari qirmiz, qaddi raso kishilarni ko'rasiz, mabodo bexosdan to'qnashib qolsangiz: «Bu janobning zaharlanganiga uch hafta bo'ldi, bir oydan so'ng muzdek murdaga aylanib qoladi», deyishadi.

– Xullas, – dedi de Vilfor xonim, – ular mashhur akvato fanning sirini topishibdi-da? Perudjada buni yo'q bo'lib ketgan degan edilar-ku?

– Dunyoda biror narsa batamom yo'q bo'lib ketarmidi, xonim? San'at butun jahonni kezadi, buyumlar boshqa nom kasb etib oladi, xolos, bunga faqat johil kishilargina tushunmasligi mumkin, biroq oqibat bitta: zahar tanning a'zolaridan birini ishdan chiqaradi – bir xili oshqozonga, boshqasi miyaga, uchinchisi ichakka zarar yetkazadi. Zahar yo'taltiradi, yo'taldan so'ng o'pka jarohatlanadi yoki boshqa bir ajal yoqasiga olib boradigan kasal paydo bo'ladi. Mabodo bu kasal bemorni go'rga tiqqudek kuchga ega bo'lmasa, kimyo bilimi ko'chasining bir chekkasidan o'tib qo'ya qolgan nodon doktorlarimiz beradigan dorilardan bechora bemor yorug' jahon bilan xayrlashishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, hunarni ishga solishadi-da, kishini u dunyoga jo'natishadi. Qonun esa, mening eng qadrdon do'stlarimdan biri – Sisiliyaning mohir kimyogar taorminalik oliyhimmat Adelmonte aytganidek, bu borada zaif.

– Bu ham dahshatli, ham qiziq, – dedi grafning so'zlaridan dong qotib qolgan de Vilfor xonim. – Iqror bo'lal-yinki, men shu mahalgacha bu mojarolar o'rta asrdagilarning uydirmasi, deb yurardim.

– Ha, shubhasiz, biroq bizning zamonamizda bular yana murakkablashib ketdi. Vaqt oqimi, turli xil rag‘batlantirish chora-tadbirlari, medallar, ordenlar, Montiono mukofotlari ham faqat jamiyatni kamolotning eng yuqori bosqichiga ko‘tarish uchun xizmat qiladi. Inson, Tangriga taassub qilib, istagan narsasini yaratuvchi va barbod qiluvchi bo‘lib olgandagina kamolotga yeta oladi. Inson bu vazifadan birini – ya‘ni barbod etishni o‘rganib oldi. Demak, kamolot cho‘qqisiga yetish yo‘lining yarmi bosib o‘tildi.

– Shunday qilib, – dedi de Vilfor xonim yana o‘z niyatiga qaytib, – Bordjia, Medichi, Rene, Rudjeri, so‘ngroq baron Trenkning hozirgi zamon dramalarida va romanlarida haddan tashqari tasvir etilayotgan zaharlari...

– San‘at mahsuli edi, – javob qildi graf. – Nahotki haqiqiy olim o‘ziga zarur kishini shunchaki jo‘ngina tutib oladi, deb o‘ylasangiz? Aslo unday qilmaydi. Fan og‘ishlarga, hiyla-nayrangga, fantaziyalarga o‘ch bo‘ladi. Mana, haligi aytganim – azimiz abbat Adelmonteni olaylik: u bu borada juda ajoyib tajribalar o‘tkazdi.

– Rostdan-a?

– Rostdan, sizga bir misol keltiray. Uning gulga, meva-ga, sabzavotga to‘la go‘zal bog‘i bor edi, ana shu sabzavotlar ichidan bir oddiyginasini, aytaylik, bitta karamni tanlardi. Ana shu karamga uch kun suyuq kuchala quyardi, uchinchi kuni karam zaharlanib, sarg‘ayib qolardi. Uni endi kesib olsa bo‘lardi, uni ko‘rganlar pishib qolibdi, deb o‘ylardi, lekin bu karamning zaharlanganini faqat abbat bilardi. Shundan so‘ng u karamni uyiga keltirib quyonga (abbat Adelmontening uyida quyonlar, mushuklar, dengiz to‘ng‘izlari ko‘p edi) yegizardi, quyon birpasda qotib qolardi. Qaysi tergovchi bundan biror jinoyatning izini topa oladi? Ayting-chi! Quyonlarni, mushuklarni va dengiz to‘ng‘izlarini o‘ldirgani uchun Majending yoki Fluransning³⁹ ustidan ish qo‘zg‘ash kerak degan fikr qaysi qirollik prokurorining xayoliga kelishi mumkin? Hech qaysining xayoliga kelmaydi bu fikr. Shu

zaylda quyon odil sudning nazar-e'tiboridan chetda dunyodan o'tib ketaveradi. So'ng abbat Adelmonte xizmatchi ayoliga o'lik quyonni so'yib, ichak-chavog'ini axlatlar uyumiga tashlatadi. Axlat uyumini tovuq titkilab yurgan bo'ladi, u haligi quyon ichak-chavog'ini cho'qilab-cho'qilab yeydi-da, og'rib qoladi va ertasiga tirishib o'ladi. Tovuq o'lim talvasasida tipirchilab yotganda tepadan qirg'iy uchib o'tib qoladi (abbat Adelmonte o'lkasida qirg'iy ko'p), u tovuqni ko'rib otilib tushib changaliga oladi-da, tepaga olib chiqib yeydi. Sho'rlik qirg'iy uch kecha-uch kunduz xastalanib, azob chekadi, birdan boshi gir aylanib, bulutlar orasidan shalob etib bog'ingizdagi ko'lga yiqiladi. Ma'lumki, baliqlar juda badnafs, ular qirg'iyga guv etib yopishib, to'rt tomonga torta boshlaydi. Mana endi faraz qiling: to'rtinchi jonivordan zaharlangan baliqlardan birini pishirib dasturxonigizga keltirib qo'yadilar, mehmoningiz ham zaharlanadi-da sakiz yoki o'n kundan so'ng ich og'riq, yurak siqilish, oshqozon yallig'lanishi kabi kasallikdan o'ladi. Murdani doktor yorib ko'rib «jigari shishib yoki tif bilan og'rib o'libdi» deb qo'ya qoladi.

– Ammo, – dedi de Vilfor xonim, – zarur o'sha paytda qirg'iy uchib o'tmasa yoki ko'ldan yuz qadam nariga tushsa bu gaplaringizning hammasi behuda vasvasa bo'lib qolishi hech gap emas.

– Hamma gap shunda-da, o'sha kimyogarlarning san'atida, Sharqda ulug' kimyogar bo'lmoq uchun tasodiflarni boshqara bilmoq kerak, u yerda bunga qobiliyatli kishilar oz emas.

Vilfor xonim grafning so'zlarini xayol surib, tinglardi.

– Biroq, – dedi u, – kuchalaning izi yo'qolmaydi. U kishi taniga qanday yo'l bilan kiritilmasin, uni topib olishadi, buning uchun u kishini o'ldira oladigan miqdorda yedirishi kerak, albatta.

– Xuddi shunday, – dedi Monte-Kristo, – men ham aziz Adelmontega shunday degan edim.

U bir oz o'ylab turdi-da, iljayib sisiliyaliklarning quyi-

dagi maqoli bilan javob qildi (bu maqol fransuzlarda bo'lsa kerak): «O'g'lim, dunyo bir kunda yaratilgan emas, yetti kunda yaratilgan: yakshanba kuni keling».

Yakshanba kuni bordim uning huzuriga, karamga suvultirilgan kuchala o'rniga, namakob quyayotgan ekan. Bu gal karam hech kasallanganga o'xshamasdi, uni yegan quyon ham sog'lom ko'rinardi, biroq besh daqiqa o'tmay quyon o'ldi, quyonni cho'qigan tovuq ikkinchi kuni tarashadek qotdi. Shunda o'zimiz tovuqni olib borib, qornini yorib ichak-chavog'ini ag'dardik. Uning biror a'zosidan hech qanaqa belgi topolmadik: asablar ishdan chiqqan va miyaga qon quyilgan, vassalom. Tovuq zahardan emas, qon quyilishidan o'lgan ekan. Tovuqlarda bunday hollar juda kamdan-kam uchraydi, odamlarda esa, bu oddiy voqea bo'lib qolgan.

Vilfor xonim tobora o'yg'a cho'mib borardi.

– Bunday dorilarni faqat kimyogarlargina tayyorlay olishi biz uchun bir baxt, aks holda kishilik jamiyatining yarmi ikkinchi yarmiga zahar berib o'ldirardi.

– Kimyogarlargina emas, kimyo bilan qiziqadiganlar ham, – dedi qo'pol ohangda Monte-Kristo.

– Bundan tashqari, – dedi de Vilfor xonim o'y-xayollaridan zo'rg'a ajralib, – jinoyat qancha ustalik bilan qilinmasin, baribir jinoyatligicha qoladi va insoniy odil sudga chap berib qutulgani bilan Tangrining jazosidan qochib qutulolmaydi. Sharq xalqlari bizga o'xshab hissiyotga mukkasidan ketadigan xalq emas, shuning uchun ham ular aqllilik qilib, do'zaxni yo'q etishdi, hamma gap ana shunda.

– Sizniki kabi pok dilda bunday shubhalarning paydo bo'lishi tabiiy, biroq chuqurroq o'ylasangiz bu shubhalaringizni o'zingiz uloqtirib tashlaysiz. Kishi fikrining qorong'i tomonlari Jan-Jak Russoning «Mandarinni besh ming mil uzoqdan turib bir chertishda o'ldiradilar», degan ma'lum iborasida to'la ifoda etilgan. Kishining butun hayoti mana shunaqa qilmishlarga to'la, uning aqli ham shu boradagi istaklarini ro'yobga chiqarish bilan band,

o'ziga yaqin kishining ko'ksiga bamaylixotir pichoq sanchadigan yoki yorug' dunyodan badarg'a qilish uchun hali siz bilan ikkimiz aytgan miqdorda kuchala beradigan kishi kam. Bu chindan g'alati va tentaklik bo'lur edi. O'z yaqin kishisiga pichoq urish yoki zahar berish uchun kishining qoni qaynab, yuragi hayajon bilan urishi va butun tan-joni larzaga kelishi kerak. Biroq, filologiyada qilganlari singari bu dahshatli so'zlarni yumshoq sinonim bilan almashtirsangiz, oddiygina «yo'qotish» degan ibora yaratiladi, razilona o'ldirish o'rniga sizga xalaqit berayotgan shaxsni yo'lingizdan olib tashlaysiz va bu ishni asta-sekin, zo'rlik ishlatmay, qiynoqqa solmay, dushmaningizga odamlar aziyat chekkan sho'rlik deb achinmaydigan, sizni esa odamlar qonxo'r, yirtqich hayvon deb g'azabga ololmaydigan qilib bajo keltirasiz. Qon to'kilmasa, dod-faryod qilinmasa, jon talvasasiga tushilmasa, eng muhimi, oxirgi dahshatli daqiqa shubha tug'dirmasa, unda siz «Jamoatchilik tinchligini buzma!» deb xitob qiladigan insoniy o'ch olish qonunlarini chetlab o'tib ketasiz. Mana, odamlari jiddiy, sovuqqon, gap muhim voqea to'g'risida borayotganda vaqtini ayamaydigan Sharqda ana shu yo'sinda ish ko'rishadi va niyatlariga yetishadi.

– Vijdon-chi? – so'radi hayajon-la de Vilfor xonim entikib.

– Ha, – dedi javoban Monte-Kristo, – baxtimizga vijdon bor, aks holda bizning sho'rimizga sho'rva to'kilgan bo'lur edi. G'azab ustida qilingan xatti-harakatdan so'ng har gal bizni vijdonimiz shaytonga hay berishga, ming-ming bor uzr so'rashga chaqiradi. Bunda sudya o'zimiz-ku. Bu dalillar tinch uyqumizga qalqon bo'lgani bilan, jinoyat sudining hukmidan bizning hayotimizni muhofaza qila olmagan bo'lur edi. Eduard IV ning ikkala o'g'li o'ldirilgandan keyin vijdon Richard III ni juda boplab xotirjam qilib qo'ygan bo'lsa ajab emas. Darhaqiqat, u o'z-o'ziga: «Berahm, quvg'inchi qirolning bu farzandlari otasining illatlarini meros qilib olganlar, ular yosh chog'laridanoq johillik, shafqatsizlikka mayl qo'yganlarini mendan bo-

shqa hech kim bilmasdi, bu bolalar menga ingliz xalqiga xos yaxshilik, mehr-shafqat muhiti o'rnatishga xalaqit berdi, ular bu xalqni baxtsizlikka olib borishi turgan gap edi». Shekspirning nima deyishidan qat'i nazar ledi Makbet vijoniga tasalli berib, taxtga erini emas, o'g'lini o'tqazmoqchi bo'lgandi. Ona mehri shunday ulug' nar-saki, u shunday qudratli harakatlantiruvchi kuchga ega-ki, ko'p gunohlarni kechib yuboradi. Ledi Makbet vijdon-siz bo'lganda Dunkanning o'limidan keyin katta baxtsiz-likka uchragan bo'lur edi.

Graf kinoya ostida aytayotgan bu dahshatli xulosalar-ni de Vilfor xonim churq etmay eshitib o'tirardi.

Bir zungina davom etgan sukunatdan so'ng xonim so'z qotdi:

– Bilasizmi graf, sizning dalillaringiz juda vahimali, af-tidan, butun dunyo ko'zingizga zimiston bo'lib ko'rinar-kan! Yoki insoniyatga kolba va retortalar orqali qaraga-ningizdanmi, kishilik jamiyati haqida bu qadar yomon fik-rdasiz? Axir siz haqiqatan ham ulug' kimyogarsiz-ku! Siz bergan dori o'g'limni birpasda tiriltirib qo'ydi...

– U doriga ortiqcha ishonavermang, malika, – dedi Mon-te-Kristo, – o'lib borayotgan bolani tirik qoldirish uchun bu doridan bir tomchisi kifoya, biroq uch tomchisi yurakka qon quyilishini juda tezlashtirib yuborib, yurakka zarar yetkazishi mumkin, olti tomchi uning nafasini bo'g'ib, ilgarigisidan kuchliroq darajada shaytonlatib qo'yadi, o'n tomchisi turgan joyida qotirib qo'ya qoladi. O'g'lingiz dori solingan shishachaga qo'l urmoqchi bo'lganda men shoshib uni tortganim esingizdami?

– U juda kuchli zaharmi?

– Aslo unday emas! Avvalo shuni bilib olingki, zahar-ning o'zi yo'q narsa: tibbiyot eng kuchli zaharlardan foy-dalanadi, faqat mohirlik bilan tatbiq qilinsa kishini davo-laydigan, o'limdan saqlab qoladigan doriga aylanadi.

– Bo'lmasam nima edi u?

– U aziz do'stim abbat Adelmonte ixtiro etgan dori edi, buni qanday qilishni ham menga uning o'zi o'rgatgan edi.

– U tutqanoqqa qarshi juda o'tkir dori bo'lsa kerakda? – dedi de Vilfor xonim.

– Ha, juda ajoyib dori ekanini o'z ko'zingiz bilan ko'rib ishingiz, – javob qildi graf, – o'zim ham ko'pincha shu doridan foydalanaman, nihoyatda ehtiyotkorlik bilan, albatta, – dedi qo'shimcha qilib Monte-Kristo.

– Ehtiyot bo'lmay bo'ladimi, – dedi de Vilfor xonim. – Menga o'xshash asabiy va har narsaga hushidan ketib qolaveradiganlarga o'sha Adelmonte kabi doktor juda asqotardi-da. Erkin nafas olib yurishga imkon beradigan va nafas bo'g'ilib, o'lib qolish xavfidan xalos etadigan birorta dori ixtiro qilib bergan bo'lur edi u. Biroq bunaqa doktorni Fransiyadan topish amrimahol, sizning abbatin-giz esa Parijga sayohat qilishga unchalik qiziqadigan zotlardan bo'lmasa kerak, shu sababdan men janob Planshning dorilari bilan qanoatlanishga majburman. Men odatda ezilgan va gofman dorilarini tomizib ichaman. Mana bu xapdorilarni qarang, bularni menga maxsus tayyorlashadi: bularda ikki me'yor bor.

Monte-Kristo yosh juvon uzatgan toshbaqa kosasidan yasalgan qutichani ochdi va bunaqa dorilarni biladigan havaskor singari hidlab ko'rdi.

– Bular juda soz dorilar ekan, – dedi u, – biroq bularni har qanday holatda yutish mumkin, lekin kishi hushidan ketib qolganda yutish qiyin bo'ladi. Men o'zimning dorilarimni bulardan afzal deb bilaman.

– Shubhasiz, men ham siznikini afzal deb bilaman, uning ta'siri qanchalik kuchli ekanini o'z ko'zim bilan ko'rdim, biroq siz uni sir saqlaysiz, shekilli, so'rash noqulaymi, deb o'ylayapman.

– Men, marhamat qilib sizga aytib berishim mumkin, – dedi Monte-Kristo o'rnidan turayotib.

– Qani endi, graf, marhamat qilib aytib bersangiz.

– Ammo shuni aslo unutmangki, bu oz miqdordagina – dori, ko'p miqdorda – zahar. Bir tomchisi o'limdan qutqaradi, buni o'zingiz ko'rdingiz, besh yoki olti tomchisi o'ldiradi, o'ldirganda ham bexosdan, birdan o'ldiradi. Bir

shisha vinoga qo'shilsa, vinoning ta'mi hech o'zgarmaydi. Tag'in meni maslahat beryapti deb o'ylamang, malika, yaxshisi indamay qo'ya qolay.

Soat oltidan o'ttiz daqiqa o'tganini bildirib bong urganda de Vilfor xonimning dugonasi kelganini aytishdi, u bugun Vilfor xonimnikida ovqatni birga baham ko'rishi kerak edi.

– Agar men sizni ikkinchi marta emas, uchinchi yoki to'rtinchi marta ko'rishga muyassar bo'lganimda edi, – dedi de Vilfor xonim, – sizdan minnatdor bo'libgina qolmay, do'stingiz ham bo'lganimda, o'zimni baxtiyor sanab sizni hech qo'ymay menikida ovqatlanishga majbur etgan bo'lur edim.

– Juda minnatdorman, – dedi Monte-Kristo, – ammo bir kishiga so'z bergan edim, so'zimning ustidan chiqishim kerak. Bir tanish grek bekani teatrga kuzatib borishga va'da berganman, u hali hozircha operani ko'rmagan ekan, men bilan borib ko'rish umidida, kutib o'tiribdi.

– Unday bo'lsa, xayr graf, mening dorimni unutib qo'ymang, tag'in.

– Hecham unutmayman, malika, shiyponchada siz bilan o'tkazgan o'sha ajoyib rohatbaxsh soatlarni unutib bo'lmagani kabi, buni ham unutib bo'lmaydi.

Monte-Kristo ta'zim qilib chiqib ketdi.

De Vilfor xonim o'yga cho'mdi.

– Bu juda g'alati odam ekan, – dedi u o'z-o'ziga – menimcha Adelmontening o'zi shu bo'lsa kerak.

Monte-Kristoga kelganda, suhbatning natijasi uning kutganidan o'tib ketdi. «Lekin, – dedi ketayotib, – o'zimga bop zamin tayyorladim, unga sochilgan urug' zoe ketmasligiga ishonchim komil».

Ertasiga u so'zining ustidan chiqib, va'da qilgan dori-ni yubordi.

XV. ROBERT – IBLIS

Monte-Kristoning operani bahona qilishi asosli edi, haqiqatan ham shu kuni kechqurun qirollik Musiqa akademiya teatrida katta tantana bo'ladigan edi: ko'p vaqt kasal yotgan Levasser ilk bor Bertram rolida chiqadi. Dovrug'i ketgan kompozitorning asari Parij jamoatchiligining eng tanlangan zotlarini jalb etgan edi.

Aksari boyvachchalarda bo'lganidek, Alberning orkestrda maxsus joyi bor. Bundan tashqari yaqin do'stlarining o'nlab lojalarida ham unga joy hamisha tayyor. 30-dagonlarning arzandalari lojasidan joy olishga haqi bor Alberning.

Qo'shni loja Shato-Renoniki edi.

Boshan esa, jurnalist, butun zalda o'ziga xon o'ziga bek – u istagan joyda o'tira oladi.

Shu kecha ministr lojasini ixtiyoriga olgan Lyusen Debre uni graf de Morserga taklif qildi, biroq Mercedes rad qilgach, u lojani Danglarga berib, agar xonimlar qarshilik ko'rsatmasa, keyinroq kelib baronessa va qizi bilan hol-ahvol so'rab ketajagini aytdi, xonimlar qarshilik ko'rsatishmadi. Hech kim millionerlardek tekin lojaga o'ch bo'lmasa kerak.

Danglarga kelganda, u: «Mening siyosat borasidagi prinsiplarim va oppozisiya deputati lavozimim ministr lojasida o'tirishimga monelik qiladi», dedi. Shu sababli baronessa: «Meni o'zingiz bilan birga olib keting, operaga Ejeni bilan borolmayman», deb Lyusenga xat yozib yubordi.

Haqiqatan, ikkala xonim lojada o'tirib olishsa aybsitishlari mumkin, lekin mademuazel Danglar teatrda onasi va uning mahbubi bilan borsa, bunga, hech kim monelik ko'rsatolmaydi. Jamoatchilikning urf-odatlariga bo'ysunishga majbur-da kishi.

Parada odatdagidek zal deyarli bo'sh vaqtidayoq ko'tarildi. Mana bu ham oliy tabaqamiz odatining oqibati – ular, albatta, tomosha boshlangandan so'ng zalga kirib kelishadi, natijada vaqtida yetib kelganlar spektaklni bamaylixtir ko'rolmay, kelganlarni ko'zdan kechirish va eshiklarning taraqturug'ini eshitish bilan band bo'ladilar.

– Ana xolos! – dedi Alber yonboshdagi pastki lojalar-dan birining eshigi ochilayotganini koʻrib. – Ana xolos! Grafinya G.

– Kim u, grafinya G. deganing? – soʻradi Shato-Reno.

– Iya, baron, shuyam savolmi? Uyat-ku, nahotki grafi-nya G.ni tanimasangiz?

– Ha, esimga tushdi, – dedi Shato-Reno, – bu oʻsha venesialik nozanin boʻlsa kerak-da?

– Xuddi oʻshaning oʻzi.

Shu payt grafinya G. Albarni koʻrib qoldi va uning sa-lomiga jilmayib javob berdi.

– Uni taniysizmi? – soʻradi Shato-Reno.

– Ha, – javob berdi Alber, – menga uni Rimda Frans tanishtirgan edi...

– Fransga oʻxshab meni u bilan tanishtirib qoʻyolmay-sizmi?

– Jonim bilan.

– Jim! – dedi tomoshabinlar orasidan kimdir.

Yigitlar parterda oʻtirganlarning musiqani eshitish tila-gida bildirgan eʼtirozini nazar-pisand qilmay suhbatni da-vom ettiraverdi.

– Bu jonon Mars maydonida boʻlgan poygada qatnash-di, – dedi Shato-Reno.

– Bugunmi?

– Ha, shu bugun.

– Aytganicha, bugun poyga boʻlgan edi. Siz ham pul tikdingizmi?

– Ha, tikdim, atigi ellik luidor.

– Kim yutdi?

– «Nautilus». Men oʻshanga tikkandim.

– Axir, uchta poyga boʻlishi kerak edi-ku?

– Ha, uchta edi. Jokey-klubning mukofoti, oltin kubok bor edi. Hatto juda gʻalati bir hodisa yuz berdi.

– Qanaqa hodisa?

– Hoy, jim boʻlsalaring-chi? – yana qichqirishdi ularga qarab.

– Qanaqa hodisa? – takrorladi Alber.

– Bu poygada tamoman notanish chavandoz minib chiqqan noma'lum ot yutib chiqdi.

– Qanday qilib?

– Shunday bo'ldi: ro'yxatda nomi Vampa deb yozib qo'yilgan otga va ro'yxatda nomi Iova deb yozilgan chavandozga hech kim e'tibor bermagan edi, biroq to'satdan ajoyib duldulni va kichkina chavandozni ko'rib hamma hang-mang bo'lib qoldi, uning cho'ntagiga yigirma funtcha qo'rg'oshin solib qo'ysalar ham bo'lmadi, u «Ariel» va «Barbaro»dan ancha o'tib ketdi.

– Shunday qilib u kimning oti ekanini bilisholmadimi?

– Bilisholmadi.

– Uning nomi ro'yxatda Vampa deb yozilgan dedingizmi?

– Ha, Vampa.

– Unday bo'lsa, – dedi Alber, – men sizga qaraganda, ko'proq xabardorman bundan, u kimning oti ekanini bilaman.

– Ovozlaringni o'chirsalaring-chi, axir! – uchinchi karr qichqirdi kimdir parterdan qattiq g'azablanib. Yigitlar bu so'zlar ularga qaratib aytilayotganini anglab, shaddodlik qilayotgan kim ekan o'zi deb zalga qayrilishdi, biroq hech kim boyagi so'zni takrorlamagach, yigitlar sahna tomonga o'girilishdi.

Shu payt ministr lojasining eshigi ochildi-da, Danglar xonim, qizi va Lyusen Debre o'rinlariga joylashib oldilar.

– Ana, vikont, tanishlaringiz ham kelishdi, – dedi Shato-Reno. – Nega o'ng tomonga qarab qoldingiz? Sizni qidirishyapti.

Alber o'girilib, baronessa Danglarning ko'ziga ko'zi tushdi, baronessa yelpig'ichni ko'tarib salomlashdi. Mademuazel Ejeniga kelganda, xushyoqmaslik bilan katta-katta qora ko'zlarini orkestr kursilariga bir qur yugurtirdi, xolos.

– Azizim, to'g'risini aytganda, – dedi Shato-Reno, – mezalyansni⁴⁰ istisno qilsak (bunday hol sizni aslo tashvishga solmas deb o'ylayman) nechun mademuazel Dan-

glar sizga yoqmay qoldi: axir u juda go'zal-ku!

– Haq gap, juda go'zal, – dedi Alber, – men bundan nozikroq, muloyimroq, qisqasi, latofatliroq'ini go'zal deb hisoblardim.

– Hozirgi zamonning yoshlari mana shunaqa-da, – dedi e'tiroz bildirib Shato-Reno, – ularga biror narsani ma'qul qilish juda qiyin. Bundog' o'ylab ko'rsangiz-chi: axir ovchi Diana shakli-shamoyilida yaratilgan ajoyib go'zal nozanni qo'yningizga solib qo'ymoqchilaru siz yana noz qilasiz-a?

– Xuddi shunday, men Venera Miloskaya yoki Kapuanskaya kabi go'zalni afzal ko'raman. Hamisha nimfalari qurshovidagi ovchi Diana esa meni bir oz vahimaga soladi. Boshimga Akteonaning kuni kelmasin tag'in, deb qo'rqaman.

Chindan ham bu qizni ko'rgan kishi Alberning yurak so'zlariga tasanno aytishi shubhasiz edi. Mademuazel Danglar sohibjamol edi, lekin uning turqi-tarovatida Alber aytgandek dag'allik bor edi, sochlari qop-qora to'sdek edi. Qulf urib turuvchi shu sochlarning jingalasida ularni silamoqchi bo'lgan qo'lga bo'y bermaslik nishonalari bordек tuyulardi: ko'zlari ham sochlaridek tim qora, qoshlari qayrilma edi. Lekin shu qoshlar ba'zan chimirilib ayollarning nigohiga xos bo'lmagan mustahkam irodani ifoda etardi, burni haykaltarosh qo'li bilan yasalgan Yunonaning burnidek bejirim edi; faqat og'zi bir oz katta, tishlari sadafday, qirmizi lablari rangpar chehrasida yana-da ko'zga tashlanar, tabiat bu jononning labi burchiga xol o'rnatib qo'ygan, qizning xarakteri qat'iy ekanini ana shu xol ham ta'kidlab turardi, Alberni bir oz cho'chitgan narsa ham ana shu.

Ejenining qomati ham uning biz qo'limizdan kelguncha tasvir etgan chehrasiga mos edi. Shato-Reno aytganidek, uning qaddi-qomati ovchi Diananing sarvi qomatini eslatib turardi, biroq qizning go'zal husn-qomatida qat'iylik va kuch yanada kuchliroq aks etib turardi.

Qiz bilimda erkaklardan qolishmasdi. Mohir rassom edi.

Bir necha tillarni bilardi, she'r yozib, kuy bastalardi. San'atning bu turiga u ayniqsa havas qo'ygan, uni ajoyib tabiiy ovozga ega bir kambag'al maktabdosh dugonasi bilan o'rganardi. Aytishlariga qaraganda, qandaydir kompozitor Ejenining o'sha dugonasiga musiqa san'atini otalarcha g'amxo'rlik bilan o'rgatar va bu qizning ovozi qachondir unga boylik, shon-shuhrat keltiradi deb umid bog'lagan emish. Luiza d'Armili (haligi qizning nomi) bora-bora sahna artisti bo'lib ketish ehtimolidan xoli emas edi, shu sabab mademuazel Danglar dugonasini uyida qabul qilsa-da u bilan jamoatchilik gurungida bo'lishdan o'zini tortardi. Luiza esa dugonasining xonadonida mustaqil mavqedan foydalanmasa-da, juda soddadil o'qituvchilardan emasdi.

Danglar xonim lojada paydo bo'lganidan keyin bir necha soniya o'tgach, parda yopildi, yarim soatlik tanafus paytida dahlizda sayr etish yoki lojalardagi tanish-bilishlar bilan suhbatlashib olish mumkin. Ana shuning uchun ham orkestr kursilari deyarli bo'shab qoldi.

Alber va Shato-Reno hammadan oldin o'rinlaridan turib ketishdi. Danglar xonim bir daqiqa, Alber men bilan so'rashib-salomlashish uchun shoshilib kelyapti deb o'yladi-da, qizini ogohlantirish uchun unga o'girildi, biroq qizi boshini chayqab, iljayib qo'ydi, shu payt xuddi Ejenining shubhasini tasdiqlayotganday, Alber birinchi yarusning yonboshidagi lojada paydo bo'ldi. Bu grafinya G.ning lojasi edi.

– Ana, ana, o'zlari ham kelib qoldilar, janob sayyoh! – dedi grafinya eski qadrdon do'stlardek Alberga qo'lini uzatib. – Uzoqdan meni tanib olganingiz va ayniqsa, hammadan oldin mening oldimga kelganingiz uchun juda minnatdorman sizdan.

– Grafinya shunga imoningiz komil bo'lsinki, agar Parijga kelganingizni bilganimda va manzilingiz ma'lum bo'lganda, bunchalik uzoq kutib o'tirmagan bo'lur edim. Dastlab ruxsat eting, do'stimni tanishtiray sizga: baron Shato-Reno, Fransiyada kamdan-kam saqlanib qolgan ari-

stokratlardan. U hozirgina menga sizning Mars Maydonida poygada qatnashganingizni aytdi.

– Shato-Reno ta’zim qildi.

– Siz ham poygada bormidingiz? – so’radi qiziqib grafinya.

– Shunday, xonim.

– Unday bo’lsa bir savolimga javob bera olasizmi: Jockey-klub mukofotini yutgan ot kimniki?

– Bilmayman, – javob qildi Shato-Reno, – o’zim ham xuddi shunday savolni hozirgina Alberga bergandim.

– Buni bilish juda zarurmi sizga? – so’radi Alber.

– Nimani?

– Ot egasining nomini?..

– Albatta. Faraz qilingki... Biroq siz uni tanirsiz, vikont?

– Grafinya, siz biror narsani aytib bermoqchi edingiz shekilli. «Faraz qilingki...» deb to’xtab qoldingiz.

– Ha, faraz qilingki, o’sha ajoyib duldul va barno yosh chavandoz birinchi qarashdayoq meni maftun etib oldi, men unga, xuddi boyligimning yarmini tikkandek, chin ko’ngildan yutib chiqishini tiladim, so’ng marraga birinchi bo’lib kelganini ko’rgach, jonim boricha chapak chalib olqishladim. Yana shunisi kishini hayratda qoldiradiki, uyga qaytib kelganimda haligi kichkina chavandoz zinada turibdi! Men avvaliga g’olib yigitcha ham men bilan birga shu uyda turarkan-da deb o’yladim, biroq mehmonxonamga kirsam notanish ot va notanish chavandoz yutib olgan oltin kubokka: «Grafinya G. ga lord Rutven» degan xat solib qo’yilgan edi.

– O’shaning xuddi o’zi, – dedi Alber.

– Xo’sh, nima demoqchisiz bu bilan?

– Xuddi o’sha lord Rutvenning o’zi demoqchiman.

– Qaysi lord Rutven?

– Arjentina teatrida ko’rganimiz Vampir-da.

– Nahotki o’sha bo’lsa? – dedi xitob qilib grafinya. – U ham shu yerdami?

– Ha, shu yerda.

– Siz u bilan uchrashib turasizmi? Siznikida bo’ladi-

mi? Siz unikiga borib turasizmi?

– U mening yaqin do‘stim, hatto janob de Shato-Reno ham uni taniydi.

– Nega endi sovrinni olgan o‘sha deb o‘ylaysiz?

– Chunki uning oti Vampa nomi bilan ro‘yxatga tushgan edi.

– Tushgan bo‘lsa nima bo‘pti?

– Axir meni asir qilib olgan mashhur qaroqchining nomini unutib qo‘ydingizmi, hali?

– Ha, to‘g‘ri.

– Uning qo‘lidan meni graf juda ustalik bilan qutqarib olgan edi-ku, esingizdami?

– Ha, ha.

– Uning nomi Vampa edi. Mana endi bu o‘sha Vampa ekanini fahmlagandirsiz.

– Biroq nega u kubokni menga yuboradi?

– Birinchidan, shuning uchundirki, men unga sizning to‘g‘ringizda, grafinya, ko‘p gapirgandim, ikkinchidan, u vatandoshini uchratganidan va vatandoshi unga juda qiziqib qolganidan shunday qilgan.

– Aminmanki, uning haqida ikkimiz vaysagan bema‘ni gaplarni unga aytib bermagandirsiz.

– Ochig‘ini aytsam, u gaplar haqida biror narsa dedimmi-yo‘qmi, esimda emas. Ammo bu kubokni u sizga lord Rutven nomidan taqdim etishi...

– Bu dahshat! U meni yomon ko‘rib qoladi-ku!

– Uning bu ishi dushmanlikdan darak beradimi?

– Ochig‘ini aytsam, unday emas.

– Mana, ko‘rdingizmi, behuda tashvishlanib o‘tiribsiz.

– Demak, u Parijda ekan-da!

– Ha, Parijda.

– U kishilarda qanday taassurot qoldiryapti?

– Uning ta‘rif-tavsifi, – dedi Alber, – rosa bir hafta og‘izdan-og‘izga o‘tib yurdi, so‘ng ingliz qirolichasini taxtga ko‘tarish marosimi va mademuazel Marsning brilliantrlari o‘g‘irlanishi voqealari o‘rtaga tushib, hamma shu haqda gapira boshladi.

– Eh, azizim, – dedi Shato-Reno, – bunaqa muomalangizdan grafga do'st ekaningiz ko'rinib turibdi-da. Grafinya, ishonmang bunga, Parijda hammaning og'zida faqat graf Monte-Kristo. U Parijga kelgan kuniyoq hammani hayratda qoldirdi, o'ttiz ming frank turadigan ikki otini Danglar xonimga tortiq qildi, so'ng de Vilfor xonimni o'limdan saqlab qoldi. Mana endi, chamamda, Jokey-klub mukofotini ham shu oldi. Morser nima desa deyaversin, menimcha, hozir graf hammani maftun etib oldi, yana u shunaqa ishlarni qilaversa oylab jamoatchilikning og'zidan tushmaydi. Bunaqangi ishlar, aftidan, unga odat bo'lib qolgan, shekilli.

– Ehtimol, shundaydir, – dedi Alber, – Aytmoqchi, sobiq rus elchisining lojasini kim band qilib oldi?

– U qaysi loja edi? – so'radi grafinya.

– Birinchi yarusda, stunlar o'rtasidagi loja. Uni tamoman yangidan bezashdi, shekilli.

– Xuddi shunday, – dedi Shato-Reno. – Birinchi bo'lim o'ynalayotganda hech kim bormidi?

– Qaerda?

– O'sha lojada.

– Yo'q edi, – javob qildi grafinya, – men hech kimni ko'rmadim u yerda, demak, sizningcha, – dedi grafinya ilgari mavzuga o'tib, – mukofotni graf Monte-Kristo oldimi?

– Bunga imonim komil.

– Kubokni menga yuborgan ham o'sha, deb o'ylaysizmi?

– Shubhasiz.

– Biroq men u bilan tanish emasman-ku, – dedi grafinya, – kubokni tezroq qaytarib bersam yaxshi bo'lardi.

– Unday qilmang aslo, unda sizga u butun bir yoqutdan yasalganini yuboradi. U hamisha shunday qiladi.

Shu payt qo'ng'iroq chalinib, ikkinchi bo'lim boshlanishidan darak berdi. Alber o'rnidan turdi.

– Men sizni yana ko'ra olamanmi? – so'radi grafinya.

– Agar ruxsat etsangiz, tanaffus vaqtida kelaman,

o'shanda Parijda biror yordam kerak bo'lsa aytasiz.

– Janoblar, – dedi grafinya – shanba kunlari kechqurun do'stlarni qabul qilishga tayyorman. Rivoli ko'chasi, yigirma ikki. Marhamat qiling.

Yigitlar ta'zim qilib, chiqib ketishdi.

Ular parterga kirganda, tomoshabinlarning hammasi zalning bir nuqtasiga qarab tik turgan edi. Yigitlar ham o'sha yoqqa qarab, sobiq rus elchisining lojasiga tikilib qolishdi. U lojaga hozirgina qora libos kiygan o'ttiz besh-qirq yoshlardagi janob sharq kiyimidagi yosh qiz bilan kirib kelgan edi. Qiz nihoyatda go'zal, kiyimlari shu qadar bashang ediki, bu hali aytganimizdek, hammaning diqqatini o'ziga tortgan edi.

– Bu o'sha Monte-Kristo, yonidagi alban nozanini, – dedi Alber.

Rostdanam lojaga kirgan graf bilan Gayde edi.

Bir zum o'tar-o'tmas parterdagilargina emas, butun zal-dagilar Gaydedan ko'z uzolmay qolishdi, ayollar lojalarda boshini chiqarib, qo'shchiroqlar yog'dusida ko'zlarni qamashtirib yaltirayotgan olmoslarga tikilishardi.

Ikkinchi akt guv-guv ovozlari ostida o'tdi, bu esa olomonning hayajonda ekanidan dalolat berib turardi. Hech kim tinchlikni tiklashni xayoliga ham keltirmay qo'ydi. Go'zal qiz hammani maftun etib olgandi.

Danglar xonim imo bilan ikkinchi tanaffusda o'z lojasida Albarni ko'rishni istaganini bildirdi.

Bunday narsalarda yaxshi ta'lim olgan Alber kuttirib o'tirmay, spektaklning ikkinchi bo'limi tugashi bilan oq yugurib literli lojaga chiqdi.

Ikkala xonimga ta'zim qildi-da, Debre bilan qo'l berib so'rashdi.

Baronessa uni xushro'y jilmayib kutib oldi, Ejeni esa o'z odaticha sovuqqina boqib qo'ya qoldi.

– Azizim, – dedi unga Debre, – men juda tashvishga tushib o'tiribman, yordamingizga muhtojman. Baronessa graf to'g'risidagi savollari bilan meni ko'mib tashladi. Mendan grafning kim ekanini, qaerdan kelganini va

qayoqqa ketayotganini bilib berasiz, deb kekirdagimdan xippa bo'g'ib o'tiribdi. Ochig'i, Kaliostro emasman, lekin bu tashvishdan bir amallab qutulib chiqish uchun: «Morserdan so'rab qo'ya qoling, Monte-Kristoni besh barmog'iday biladi» dedim. Sizni shuning uchun chaqirishdi.

– Bu aql bovar qilmaydigan hol, – dedi baronessa, – yarim million maxfiy fondning egasi bo'lsa-yu, shu kabi muhim hodisadan bexabar qolsa!

– Baronessa, amin bo'lingki, – javob qildi Lyusen, – agar mening yarim millionim bo'lganda uni graf to'g'risida ma'lumot to'plashga emas, boshqa biror narsaga sarf qilardim. Monte-Kristoning hammani hayratda qoldirayotgan xususiyati shundaki, u har qanday nabobdan ham badavlat. Bu yog'ini endi do'stim Morserdan so'ray bering, u hammasini biladi.

– Nabob menga bahosi o'ttiz ming frankli, quloqlariga har biri besh ming frank turadigan to'rtta brilliant taqilgan bir juft duldulni o'lsa ham yubormas edi.

– U brilliantga juda hirs qo'yganga o'xshaydi, – dedi kulib Alber. – Chamamda, Potemkin singari, uning cho'ntagi hamisha brilliantga to'la, u, xuddi yosh bolalar tosh o'ynashganidek, brilliantlarni hamma yerda sochib yuradi.

– U qaerdadir, olmos koni topib olgan, – dedi Danglar xonim. – Baronning bankida uning hisobsiz puli bor, bilasizmi shuni?

– Yo'q, bilmayman, – javob qildi Alber, – biroq men bundan ajablanmayman.

– U janob Danglarga, Parijda bir yil turajagini va olti million frank sarflayajagini aytibdi.

– Bu maxfiy suratda sayohat qilib yurgan Eron shahanshoi bo'lsa kerak.

– Uning yonidagi xotinning go'zalligini aytmaysizmi? – dedi Ejeni. – Siz uni ko'rdingizmi?

– Ayollar o'rtasida boshqa ayolning husn-jamoliga tan beradigan faqat sizsiz, qoyil!

Lyusen durbinni ko'ziga tutdi.

- Juda go‘zal jonon, – dedi u.
- Bu ayolning kimligini biladilarmi, janob de Morser?
- Sirli shaxslarni boshqalar qanchalik bilsalar, men ham shunchalik bilaman, – dedi Alber, – chamamda u alban ayoli bo‘lsa kerak.
- Bu, siz aytmasangiz ham libosidan ma‘lum bo‘lib turibdi.
- Bundan mening o‘zim ham achinib, afsuslanib yuribman, – dedi Alber, – men bundan ortiq hech narsa bilmayman, deb iqrор bo‘lishga majburman, yana, faqat shuni bilamanki, u jonon musiqachi-sozanda, kunlarning birida grafnikida nonushta qilib o‘tirganimda ud ovozini eshitdim, buni shu qiz chalayotgan edi.
- Demak, graf uyida mehmon qabul qilarkan-da? – so‘radi Danglar xonim.
- Qabul qilganda ham hamma narsani to‘kib qo‘yib qabul qiladi.
- Danglarni uning sharafiga tushki ovqat yoki ball tashkil qilishga majbur etmoq kerak, so‘ng u bizni o‘zinikiga taklif qiladi.
- Siz, u taklif qilsa borasizmi? – dedi kulib Debre.
- Nega bormas ekanman? Erim bilan birga, albatta!
- Biroq sirli graf bo‘ydoq-ku!
- Bo‘ydoq emasligini ko‘rib turibsiz-ku! – dedi baronessayam kulib, go‘zal alban qizini ko‘rsatib.
- Bu asira qiz, Morser esingizdami, siznikida nonushta paytida o‘zi shunday degan edi.
- Azizim Lyusen, e‘tirof etingki, – dedi baronessa, – ko‘rinishda u ko‘proq malikaning o‘zginasi.
- «Ming bir kecha»dagi malikalardan, – so‘z qotdi Alber.
- To‘g‘ri, biroq, azizim, malikalarni nima bor qiladi? Brilliantlar, bu jonon esa ana shu brilliantlarga ko‘milib yuradi.
- Brilliantlarni juda ortiq darajada taqib olibdi, – dedi Ejeni, – qaytaga, ularsiz qiz yanada chiroyliroq ko‘ringan bo‘lur edi, chunki bezaklar bo‘lmasa uning go‘zal bo‘yni

va qo'llari ko'rinib turardi.

– Bu rassomlarning ko'zlari juda o'tkir bo'ladi-da, – dedi Danglar xonim, – qarang, darrov ko'zlari porlab ketdi-ya buning!

– Men go'zal narsalarning hammasini sevaman, – javob qildi Ejeni.

– Unday bo'lsa, graf haqida qanday fikrdasiz? Uyam ancha kelishgan yigit, menimcha.

– Grafmi? – dedi Ejeni, xuddi shu mahalgacha unga nazari tushmagan kishidek. – Graf o'ta rangpar.

– Ha, haqiqatan ham uning rangida qon yo'q, bizni qiziqtirgan narsa ham ana shu. Bilasizmi, uni grafinya G. qon so'radi, qonxo'r deydi.

– Grafinya G. qaytib kelibdimi? – so'radi baronessa.

– Oyi, u yonboshdagi lojada o'tiribdi, – dedi Ejeni, – ro'paramizda. Huv ana, ajoyib oltin sochli ayol.

– Ha, ko'rdim, – dedi Danglar xonim. – Morser, bilasizmi, siz nima qilishingiz kerak?

– Buyuring, baronessa.

– Graf Monte-Kristo huzuriga tashrif buyurib, so'ng uni bizning oldimizga olib kelishingiz kerak.

– Nega endi? – so'radi Ejeni.

– Shunchaki so'zlashib o'tirish uchun, sen uni ko'rishga qiziqmayapsanmi?

– Hecham.

– G'alati qiz-da bu! – dedi ming'irlab baronessa.

– Menimcha, o'zi keladi, – dedi Alber. – Ana, qarang baronessa, u sizni ko'rib ta'zim qilyapti.

Baronessa ham iljayib javob qildi.

– Mayli, – dedi Alber, – og'irlikni o'z bo'ynimga olib, boraman, ilojini topsam gaplashaman.

– Lojasiga borasiz-qo'yasiz-da.

– Biroq meni tanishtirganlari yo'q.

– Kim bilan?

– Go'zal alban nozanini bilan.

– U asira, deb o'zingiz aytdingiz-ku.

– Biroq siz uni malika deyapsiz-ku... Keling, boravera-

man, meni ko'rib o'zi chiqar.

– Shunday bo'lishi ham mumkin. Boravering.

– Ketdim.

Alber ta'zim qildi-da, chiqdi. Chindan ham u graf lojasi yonidan o'tib borayotganda eshik ochilib, Monte-Kristo chiqdi. U dahlizda turgan Aliga bir necha so'z aytdi-da, Alberning qo'ltig'idan oldi. Ali eshikni bekitib ostona oldida tik turib qoldi. Arabning atrofini odamlar o'rab olgandi.

– Haqiqatan ham Parijingiz juda g'alati shahar-da, – dedi Monte-Kristo, – hamshaharlaringiz ham qiziq odamlar. Ular habashni go'yo birinchi marta ko'rayotgandek sho'rlik Alini o'rab olishdi, uni qarang. Ali esa nima gap ekaniga tushunolmay garang bo'lib qoldi. Sizga shuni aytishim kerakki, parijliklardan birortasi Tunisga, Konstantinopolga, Bag'dodga yoki Qohiraga borib qolgudek bo'lsa, hech qaerda uning atrofida olomon to'planmaydi.

– Shuning uchunki, Sharqda kishilar idrokli bo'ladi va faqat arziydigan narsagagina ko'z tikishadi, ammo amin bo'lingki, Ali sizning odamingiz bo'lgani sababdangina shunchalik nazar-e'tiborga sazovor, siz esa hozir Parijda hammani maftun qilib olgan bir zotsiz.

– Rostdanmi? Bunga sabab nima ekan?

– O'zingiz sabab. Bir qarasalar bahosi ming luidor ikki otlik izvoshni hadya qilib yuboryapsiz, bir qarasalar qirollik prokurorining xotinini o'limdan qutqarib qolyapsiz, mayor Blek nomi ostida dulduingizni va jinqarcha chavandozingizni poygaga jo'natib, oltin kubokni yutib olasiz va yana bu kubokni nozanin xonimlarga yuboryapsiz...

– Bu cho'pchaklarni sizga kim aytdi?

– Birinchisini Danglar xonim, u sizni bir ko'rsam, deb huv anovi lojada intizor bo'lib o'tiribdi (ko'proq u sizni o'z lojasida bo'lganingizni hamma ko'rsin degan niyatda bo'lsa kerak). Ikkinchisini Boshan gazetasidan bildim, uchinchisini esa o'zim fahmlab oldim. Sir saqlamoqchi ekansiz, nega otingizga Vampa deb nom qo'yasiz?

– Ha, rostdanam, – dedi graf, – men ehtiyotsizlik qildim. Graf de Morser operada bo'lmaydimi? Men hamma yoqni qarab chiqdim, biroq u ko'rinmadi.

– Bugun bo'ladi.

– Qaerda?

– Menimcha, baronessaning lojasida.

– Baronessaning yonidagi go'zal jonon – qizimi?

– Ha.

– Sizni tabrik etishga ruxsat eting.

Alber jilmayib qo'ydi.

– Bu haqda boshqa vaqt mufassal gaplashib olamiz. Qalay, musiqa yoqdimi sizga?

– Qanaqa musiqa?

– Hozir eshitganimiz.

– Marhum Diogen tili bilan aytganda, musiqani odam yozgan, uni ikki oyoqli va qanotsiz qushlar ijro etayotgani e'tiborga olinsa, juda ajoyib musiqa.

– O'ho', hali shundaymi, aziz graf? Etti farishta xoriga qo'shiq aytirib, eshitishga qodirsiz, shekilli?

– Shunday, vikont. Ajoyib musiqani, ya'ni inson bolasi eshitmagan musiqani tinglaganda, uyqu bosadi meni.

– Unday bo'lsa juda bop joyni topib olibsiz, qadrlı graf, rohat qilib uxlayvering, opera shuning uchun yaratilganda.

– Yo'q, ochig'ini aytganda, sizning orkestringiz juda ko'p shovqin soladi. Sizga aytganimdek, uyquga ketish uchun menga osoyishtalik va tinchlik bo'lishi lozim, undan keyin ba'zi tadbir-choralarni ham ko'rib qo'yish kerak...

– Mashhur taryokmi?

– Xuddi shunday. Vikont, mabodo musiqa tinglashni istab qolsangiz, kechqurun menikiga ovqatlangani keling.

– Men, siznikida nonushta qilganda eshitgan edim.

– Rimdami?

– Shunday.

– Ha. U kuyni Gayde udda chalgan edi. Vatanidan quvg'in qilingan sho'rlik mazluma ba'zan menga o'z xalqi-

ning qo'shiqlarini chalib beradi.

Alber so'rab-surishtirib o'tirmadi, graf ham jimib qoldi.
Shu payt qo'ng'iroq chalindi.

– Kechiring, meni, – dedi graf o'z lojasiga yo'l olib.

– Marhamat qiling.

– Iltimos qilaman, grafinya G.ga uning Vamperidan salom ayting.

– Baronessaga-chi?

– U kishiga ayting: agar ruxsat qilsalar shu oqshom huzurlarida bo'lish sharafiga muyassar bo'lurman.

Uchinchi bo'lim boshlandi. Grafe de Morser, va'dasiga vafo qilib, Danglar xonim lojasiga kirdi.

Graf zaldagilarni iztirobga soladiganlardan emas edi, shu sababli lojadagilardan boshqa hech kim uning kelganini ko'rmadi.

Ammo Monte-Kristo uni ko'rdi va ohistagina iljayib qo'ydi.

Gayde esa parda ochilishi bilan atrofda hech narsaga qaramay, sahnaga tikildi-qoldi.

Uchinchi bo'lim odatdagicha o'tdi, raqqosalardan Noble, Jyulia va Leru har vaqtdagidek oyoqlarini ko'tarib, xo'p dikillashdi, Robert-Mario prins Grenadskiyni duelga chaqirdi. Pirovardida ulug'vor qirol, kimxob kamzulini ko'z-ko'z qilish uchun qizini yetaklab chiqdi, shundan keyin parda tushdi-da, tomoshabinlar tarqalib ketdi.

Graf o'z lojasidan chiqdi-da, xiyla vaqtdan so'ng baronessa Danglar lojasida paydo bo'ldi.

Baronessa shodlikdan o'zini tutolmay xitob qildi:

– Oh, graf, sizni ko'rib boshim osmonga yetdi! Sizga yo'llagan xatimga qo'shimcha, tezroq o'z og'zimdanda ham minnatdorchilik bildirish istagi bilan yonib yurgandim.

– Baronessa, nahotki o'sha arzimasa narsani hamon esingizda saqlab yurgan bo'lsangiz? Men allaqachon unutilib yubordim uni.

– Ammo o'sha kunning ertasiga ana shu otlar solgan dahshatli xavfdan mening qadrdon dugonam de Vilfor xonimni qutqarib qolganingizni unutilib bo'ladimi axir.

– Buning uchun ham, malika, sizning minnatdorchiligingizga sazovor bo'lishga mening haqim yo'q, de Vilfor xonimga bunday yordamni berishga muyassar bo'lgan mening qulim Ali edi.

– Rim qaroqchilarining changalidan ham o'g'limni Ali qutqarib olganmidi? – so'radi graf de Morser.

– Yo'q, graf, – dedi Monte-Kristo generalning uzatgan qo'lini qisib. – Yo'q, bu gal minnatdorchilikni o'zim qabul qilaman, biroq buni bir marta eshitgan edim, ikkinchisi ortiqcha, meni o'ng'aysiz holga solib qo'yyapti. Baronessa, meni qizingiz bilan tanishtirishingizni iltimos qilaman.

– U sizni biladi, nomingizni eshitgan, chunki bir necha kundirki, ismi-shariflari og'zimizdan tushmaydi. Ejeni, – davom ettirdi so'zini baronessa qiziga murojaat qilib, – bu kishi graf Monte-Kristo!

Graf ta'zim qildi, mademuazel Danglar ohistagina boshini qimirlatdi.

– Graf, lojada siz bilan ajoyib go'zal qiz o'tiribdi, – dedi u, – qizingiz bo'lsa kerak?

– Yo'q, mademuazel, qizim emas, – dedi Monte-Kristo manmanlik bilan berilgan savoldan ajablanib, – u shunchaki sho'rlik bir alban qizi. Men unga faqat vasiy.

– Uning oti nima?

– Gayde, – javob qildi Monte-Kristo.

– Alban qizi! – dedi to'ng'illab graf de Morser.

– Shunaqa deng, – dedi Danglar xonim, – xo'sh, aytinch-chi, graf, sharaf bilan xizmat qilganingiz Ali-Tebelin saroyida siz qachon bo'lmasin, shu Gayde ustidagi kabi hayratga soladigan kiyim-bosh ko'rganmidingiz?

– Graf, siz Yaninda xizmat qilgan ekansiz-da? – so'radi Monte-Kristo.

– Men shoh qo'shinlarining general-inspektori edim, – javob qildi Morser, – ochig'ini aytsam, hozirgi uncha ko'p bo'lmagan boylikka ham, o'sha mashhur alban hokimi yordamida ega bo'ldim.

– Bir qarasangiz-chi u qizga, – deb qistadi Danglar xo-

nim.

– Qaerda u? – to'ng'illadi Morser.

– Ana, – deb Monte-Kristo qo'lini grafning yelkasiga qo'ydi, so'ng ikkovlon lojadan pastga qarashdi.

Shu on Gayde alanglab grafni axtarib turgan edi, uni Morserni quchoqlab turgan holda ko'rdi-yu, kayfi uchib, bexosdan qichqirib yubordi. Buni atrofdagilar va Ali eshitdi. Ali darrov eshikni ochdi.

– Unga qarang, – dedi Ejeni, – qizchangizga bir gap bo'ldi shekilli, graf?

– Ha, to'g'ri aytyapsiz, – dedi graf o'z lojasiga qarab, – biroq xavotir olmang. Gayde juda asabiylashib qolgan, o'ziga yoqmagan har qanday hiddan ko'ngli behuzur bo'laveradi, hatto hushidan ham ketib qoladi, biroq menda, – davom etdi graf cho'ntagidan shishacha chiqarib, – uning davosi bor, mana.

Shunday dedi-da, graf baronessa bilan qiziga ta'zim etdi va Debrening qo'lini qisdi-da, Danglar xonim lojasi-dan chiqib ketdi.

U o'z lojasiga qaytganda Gaydening yuzida qondan asar ham yo'q edi. U kirishga ulgurmasdanoq Gayde qo'li-dan mahkam tutib oldi.

Yosh qizning qo'li nam va muz bo'lib qolganini Monte-Kristo sezdi.

– Kim bilan gaplashdingiz, janob? – so'radi Gayde.

– Graf de Morser bilan, – dedi javoban Monte-Kristo, – u sening jasur otang qo'lida xizmat qilgan ekan, boylikni otangning ko'magi bilan orttirgan ekan.

– Muttaham! – xitob qildi Gayde. – Otamni turklarga sotgan shu ablah-da. U sotqinlik qilib boylik orttirgan. Nahotki, bundan xabaringiz bo'lmasa, aziz himoyachim?

– Men bu haqda Epirda ba'zi gaplarni eshitgandek bo'lgandim. Biroq bu voqeaning hamma tafsilotlarini bilmayman. Yur, qizalog'im, sen menga hamma voqeani to'la-to'kis aytib berasan, bu juda qiziq bo'lsa kerak.

– Ha, ketdik, bu odamga yaqinroq joyda yana bir oz qolsam yuragim yorilib, o'ladiganga o'xshayman.

Gayde o'rnidan tez turdi-da, marvarid shodasi va marjonlardan gul tikilgan oppoq kashmir libosiga o'ralib lojadan chiqdi. Shu mahal parda ko'tarilgan edi.

– Anovini qarang, – dedi grafinya G. uning oldiga qaytib kelgan Alberga, – u odam hech kim qilmagan qiliqlar qiladi! «Robert»ning uchinchi bo'limini ixlos bilan tomosha qildi-da, naq to'rtinchi bo'lim boshlangan asnoda jo'nab qoldi.

XVI. BIRJA NAYRANGI

Shu uchrashuvdan bir necha kun o'tgach, Alber de Morser graf Monte-Kristoning Elisey Maydonidagi uyiga tashrif buyurdi. Bu dang'illama hovli-joyini behisob boylik egasi graf shohona saroyga aylantirib yuborgan edi. Alber ikkinchi marta Danglar xonim nomidan minnatdorchilik izhor etgani kelgan edi. (Birinchi marta qizlikdagi familiyasi Ermini de Server bo'lgan baronessa Danglar xatda minnatdorchilik bildirgan edi.)

Alber bilan birga kelgan Lyusen Debre ham do'stiga qo'shimcha qilib lutfan bir necha so'z aytdi: uning bu so'zlari rasmiyat uchun aytilmagan bo'lsa-da, o'tkir zehinli graf kosaning tagida nim kosa borligini fahmlagan edi. Hatto graf Lyusen o'zini qiziqtirgan ikki narsani bilib olishga kelgan va bunda Shosse d'Anten ko'chasida istiqomat qiluvchilarning qo'li bo'lsa kerak deb o'yladi. Haqiqatan ham graf, bahosi o'ttiz ming frankli ot-izvoshini tekinga hadya qilgan va son-sanoqsiz brilliantlar taqqan asira bilan teatrga borgan zot qanday yashashini o'z ko'zi bilan ko'rish imkoniyatidan mahrum Danglar xonim bu vazifani boshqa ishonchli ko'zlarga topshirgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilsa, adashmagan bo'ladi.

Biroq graf, Lyusen ana shu maqsadni ko'zlab tashrif buyurganini fahmlaganini bildirmadi.

– Siz baron Danglar bilan tez-tez uchrashib turasizmi? – so'radi u Alberdan.

– Albatta, graf, sizga aytgan edim-ku, esingizda bo'lsa kerak.

– Demak, hamma gap o'sha siz aytgancha, hech o'zgarish yo'qmi?

– Ilgarigisidan ham oshib ketdi, – dedi so'z qotib Lyusen, – bu masala endi hal etilgan.

Lyusen suhbatga shunchalik aralashganim yetar, deb o'yladi shekilli, monoklini taqdi-da, qo'l tayog'ining oltin sopini tishlab, xonadagi yarog'-aslahalar va suratlarini tomosha qila boshladi.

– Biroq sizning so'zingizdan hali qat'iy qarorga kelishga ancha vaqt bor, shekilli, deb o'ylab yurgan edim, – dedi Monte-Kristo Alberga.

– Ilojim qancha? Ish shunchalik tezlashib ketdiki, nima bo'layotganiga aqlim bovar qilmayapti, o'ylashga fursat bo'lmayapti: sening uchun ham ularning o'zlari o'ylashyapti, mundoq qarasang, o'-ho', ishni pishirib qo'yishibdi-yu, deb hayratda qolasan. Mening otam va janob Danglar Ispaniyada birga xizmat qilishgan, otam qo'shinlarda, janob Danglar esa oziq-ovqat qismlarida. Revolyusiya davrida xonavayron etilgan otam ana o'sha yerda durustgina siyosiy va harbiy mansablarga ega bo'la boshladi, jindak ham davlatga ega bo'lmagan janob Danglar esa siyosat va moliya borasida hayratda qolarli darajada tez ko'tarila boshladi.

– Darhaqiqat, – dedi Monte-Kristo, – janob Danglar huzurida bo'lganimda, bu haqda hikoya qilib bergan edi.

– Graf albomni varaqlayotgan Alberga bir qarab oldi-da, qo'shimcha qildi: – Haqiqatan ham, mademuazel Ejeni juda nozanin qiz! Adashmasam, uning nomi Ejeni bo'lsa kerak, to'g'rimi?

– Juda yaxshi qiz yoki juda go'zal qiz, – dedi javoban Alber. – Biroq men bunaqangi go'zallarga ishqiboz emasman. Bunga loyiq emasman!

– Xuddi Ejeni allaqachon sizning xotiningiz bo'lib qolgandek gapirasiz-a!

– Obbo, – dedi xo'rsinib Alber va o'z navbatida Lyus-

enning nima bilan shug'ullanayotganini nazaridan o'tkazib.

– Menimcha, – dedi Monte-Kristo ovozi pasaytirib, – siz bu nikohdan unchalik mamnun emassiz.

– Nazarimda, mademuazel Danglar juda boy, meni ana shu vahimaga solyapti.

– Topgan bahonasini qarang-a! – javob qildi Monte-Kristo, – axir sizning o'zingiz ham boy emasmisiz?

– Otamning yillik daromadi ellik ming livrga borsa kerak: men uylansam, u menga o'n yoki o'n ikki ming ajrati-shi mumkin.

– Buni uncha ko'p deb bo'lmaydi, albatta, – dedi graf, – ayniqsa Parijda yashash uchun yetarli emas, ammo hamma gap pulda emas. Jamiyatda dong, shuhrat, nufuz ham ancha rol o'ynaydi. Sizning nomingiz mashhur, jamiyatda ajoyib nufuzga, mansabga ham egasiz, buning ustiga graf de Morser – soldat, bunda Bayyarning sadoqati bilan Dyugesklenning qashshoqligi mujassam bo'lganini ko'rib qoyil qolasan, kishi. Beg'arazlik – keskir shamshirni yarqiratib turadigan quyosh nuri. Men, aksincha bu nikohni juda o'rinli, munosib deb hisoblayman, mademuazel Danglar sizga boyluk ato etadi, siz esa uni shonli ismga muyassar etasiz!

Alber xayol surgan holda boshini chayqab qo'ydi.

– Yana bir jihati bor bu nikohning, – dedi u.

– Ochig'ini aytsam, – dedi graf, – bu boy va nozanin qizdan nechun jirkanayotganingizga hech tushunolmayapman.

– Bilasizmi, – dedi Morser, – mabodo buni jirkanish deb atash joiz bo'lsa, jirkanayotgan birgina men emas.

– Yana kim? O'zingiz, otam bu nikohga tarafdor, degan edingiz-ku!

– Onam xohlamayapti. U juda zehnli ayol, unga bu nikoh yoqmayapti. Unda Danglar oilasiga nisbatan qandaydir noto'g'ri fikr tug'ilgan.

– Ha, tushunarli, – dedi graf ovozi sal cho'zib, – zodagonlikka xos urf-odatlarni o'zida mujassam etgan, na-

zokat va nozik did, o'tkir zehnlı grafınya de Morserni plebeyning past tabaqa og'ir va dag'al qo'li cho'chıtayotgan ekan, bu tabııy hol.

– Bılmadım, shundaymıkan, – dedi javoban Alber, – ammo amınmankı, bu nıkoh amalga oshsa, baxt emas, baxtsizlık keltıradı. Bu masalaning amalıy tomonını hal etısh uchun maslahat qılısh to'g'risıda bundan bır oy burun qaror qabul qılınan edı, o'shandan so'ng menda hech chıdab bo'lmaydıgan mıgren⁴¹ boshlandı.

– Rostdanam mıgrenmı? – so'radı ıljayıb graf.

– Haqıqıy mıgren, bu vahımadan bo'lsa kerak... shu tufaylı maslahat yig'ilıshını ıkkı oyga kechıktırıshdı. Bılasızımı, bunda shoshılıshga asos ham yo'q: men endıgına yıgırma bır yoshga kırıb boryapman, Ejenı esa o'n yettı yoshda, ıkkı oylik muhlat ham kelası hafta tugaydı. Taqdirga tan berıshga to'g'rı keladı. Bu menı shunday xıjolatga solyaptıkı, astı qo'yaverıng... Mana siz uylanmay ajab qılansız-da! Siz ozod kıshısız!

– Ozod yurıshga bırov xalaqıt beryaptımı sızga?

– Agar men mademuazel Danglarga uylanmasam, otam hamma narsadan umıdını o'zıb qo'ya qoladı.

– E-e, uylanaverıng-da unga, sızdan nıma ketdı, – dedi graf allaqanday ma'noda kıftını uchırıb.

– Lekın menıng uylanıshım onamni qayg'uga ko'mıb qo'yadı, – dedi e'tıroz bıldırıb Alber.

– Unday bo'lsa, uylanmang, – dedi graf.

– Bır o'ylab, urınıb ko'raman, siz ham maslahat berasız-da, shundaymı? Ehtımol, qo'llab yuborasız. Onamni qayg'uga duchor etmaslık uchun otam bılan janjal qo'zg'ayman.

Monte-Krısto orqaga o'gırıldı, u hayajonga tushgandek ko'rıardı.

– Nıma qılyapsız? – dedi graf Debrega murojaat qılıb. Debre esa mehmonxonanıng narıgı yog'ıda o'ng qo'lıda qalam, chap qo'lıda yon daftar tutıb o'tırgandı. – Pussen suratıdan ko'chırma olyapsızımı?

– Ko'chırma olyapsızımı, deyapsızımı? Hech-da! Hech-

da! – dedi xotirjam Debre. – Men bu tasviriy san’atning shaydosi bo’la turib, ko’chirmachilik qilarmidim?! Yo’q, men uning aksini qilyapman, ya’ni hisoblayapman.

– Hisoblayapman?

– Ha, hisoblab chiqyapman, buning, vikont, sizga ham daxli bor. Gaitining narxi so’nggi marta oshganda Danglarning banki qancha foyda olganini hisoblayapman. Aksiyalar uch kun mobaynida ikki yuz oltidan to’rt yuz to’qqizga ko’tarilib ketdi, ehtiyotkor bankir aksiyalarning ko’pini ikki yuz oltidan sotib olgan edi. Mening hisobimda u uch yuz ming foyda oldi.

– Bugina emas, bundan boshqa u yana ispan zayomlarida ham shu yil bir millionni o’mardi, – dedi Alber.

– Azizim, menga qarang, – dedi Lyusen, – graf Monte-Kristo italyanlar bilan birgalashib shunday javob bergan bo’lur edi:

*Danaro ye santita –
Mela della meta.*⁴²

Bu ham juda ko’p, menga shunga o’xshash voqeani hikoya qilganlarida yelkamni qisib qo’ya qolaman.

– Gaiti haqidagi hikoyani o’zingiz aytib berdingiz-ku, – dedi Monte-Kristo.

– Gaiti boshqa gap; Gaiti – bu birja ekartesi. Bulotni sevish mumkin, qarta o’yiniga berilib ketish mumkin, bo’stonga mahliyo bo’lib qolish mumkinu, biroq borib-borib ko’ngil bulardan sovushi mumkin, ammo ekarte o’z jozibadorligini aslo yo’qotmaydi. Demak, shunday qilib, Danglar kecha to’rt yuz oltidan sotib, uch yuz ming frankni o’maribdi-da, agar u bugungacha to’xtab turganida aksiyalar yana ikki yuz beshga tushib qolardi, u holda bankir uch yuz ming frank foyda o’rniga yigirma-yigirma besh ming zarar ko’rgan bo’lur edi.

– Nega ular to’rt yuz to’qqizdan ikki yuz beshga tushib ketdi ekan? – so’radi Monte-Kristo, – uzr, men bunaqa birja nayranglari borasida g’irt savodsizman.

– Tushib ketganining sababi shuki, axborot navbatmanavbat eʼlon qilinadi va bir-biriga toʻgʻri kelmay qoladi, – javob qildi Alber kulib.

– Obbo! – xitob qildi graf. – Demak, Danglar janoblari bir kunning oʻzida uch yuz ming frank yutib chiqishi ham yoki yutqizib qoʻyishi ham mumkin ekan-da? Demak, uning boyligi son-sanoqsiz ekan-da?

– Bu oʻyinni u emas, Danglar xonim olib boradilar, – dedi Lyusen, – bu ayoldagi jasorat, dadillik kishini hayratda qoldiradi.

– Biroq siz, Lyusen, farosatli, oqil kishisiz, bosh manbada turib, axborotlarning qiymatini, toʻgʻri-notoʻgʻriligini bilasiz; Danglar xonimning hovurini bosib turishingiz zarur edi, – eʼtiroz bildirdi iljayib Alber.

– Erining qoʻlidan kelmagan ish mening qoʻlimdan kelmamidi? – dedi Lyusen. – Siz baronessaning xarakterini bilasiz-ku. Unga hech kimning gapi taʼsir qilmaydi, faqat istaganini qiladi.

– E-e, agar men sizning oʻrningizda boʻlsaydim... – dedi Alber.

– Xoʻsh, nima qilardingiz?

– Men uning dardiga davo topar edim, bu boʻlgʻusi kuvovning katta xizmati boʻlur edi.

– Qanday qilib?

– Bu juda oson. Men unga saboq berib qoʻyardim.

– Saboq?

– Siz ministrning shaxsiy kotibi sifatida har qanday yangiliklar borasida juda katta obroʻga egasiz: ogʻzingizni ochishingiz bilan hamma soʻzlaringizni birjachilar darhol stenografiya qilib yozib olishadi, biror marta baronessani yuz ming frank yutqazishga majbur eting, u darrov hovuridan tushib, ehtiyotkor boʻlib qoladi.

– Men tushunmadim gapingizga, – dedi Lyusen.

– Lekin bu juda ravshan gap, – dedi Alber chin koʻngildan, – kunlarning birida, ertalab bir dabdabali xabarni – telegramma kelganini ayting, masalan, Gabrielning huzurida Genrix IV ni koʻribdilar, bu birjada aksiyalarning

bahosini ko'taradi: baronessa bundan foydalanishga harakat qiladi, biroq Boshan ertanisiga o'z gazetasida quyidagi xabarni bosib chiqqach, yutqazadi:

«Xabardor kishilarning qirol Genrix IV ni o'tgan kuni Gabrielnikida ko'ribdilar, degan xabari haqiqatga xilofdir. Bunday fakt bo'lgani yo'q. Qirol Genrix IV yangi joyidan hech qayoqqa jilgani yo'q».

Lyusen noxush kulimsirab qo'ydi. Bu so'zlarga o'zini e'tibor bermayotganga solib o'tirgan Monte-Kristo hamma gapni, biror so'zni qoldirmay tinglab o'tirgandi, hatto shaxsiy kotibning sirli suratda ichdan xijolat tortganini ham sezib olgan edi.

Alber sezolmagan bu xijolat natijasida Lyusen tezroq jo'nab qolishning payiga tushib qoldi. U juda o'ng'aysiz holga tushib qolgandi. Graf uni kuzata borib, ohistagina bir necha so'z aytgandi, Lyusen:

– Jonim bilan graf, bo'пти, – deb javob qildi.

Graf yosh Morser oldiga qaytdi.

– Janob Debre oldida qaynanangiz haqida bunday gaplarni aytish joiz emasligiga o'zingiz ham iqror bo'lsangiz kerak, shundaymi?

– Graf, iltimos qilaman, – dedi Morser, – qaynana so'zini tilga olishga shoshilmang.

– Nahotki grafinya bu nikohga shunchalik qarshi bo'lsa? Bu mubolag'a emasmi?

– Uning qarshiligi cheksizligini shundan ham bilsa bo'ladiki, baronessa biznikiga kamdan-kam keladi, onam esa menimcha, hayotida Danglar xonimnikiga bir-ikki marta borganmi-yo'qmi, Xudo biladi.

– Shunday ekan, – dedi graf, – men jur'at qilib siz bilan ochiqchasiga gaplashay: janob Danglar mening bankirim, janob de Vilfor esa unga ko'rsatgan yordamim evaziga rahmatlarga ko'mib yubordi meni. Shuning uchun ham qator-qator mehmondo'stliklar va tantanali xursandchilik kechalari bo'lishini kutyapman. Mensimayapti, kibrlanyapti, demasliklari uchun men Oteyldagi hovlimga janob Danglarni va Danglar xonimni, janob de Vilfor

bilan Vilfor xonimni taklif qilaman. Mabodo ana shu mehmondorchilikka graf va malika de Morserlar qatorida sizni ham taklif qilsam, bu to'y oldidan bo'ladigan uchrashuvlardan birortasiga o'xshab qolmasmikin? Ayniqsa, baron Danglar, marhamat qilib, qizini ham birga olib kelsa, grafinya de Morser haligiday fikrga kelmasmikin? Unda grafinya meni juda yomon ko'rib qoladi, men esa buni aslo istamayman; aksincha, men sizdan mening u kishiga bo'lgan hurmatimni o'rni kelganda aytib qo'yishingizni iltimos qilaman, u kishining mening to'g'rimdagi yaxshi fikrlari men uchun juda azizdir.

– Graf, ishoning menga, – javob qildi Morser, – ochiq gapirganingiz uchun minnatdorman sizdan va sizning mehmondorchiligingizda qatnashmaslikka roziman. Onangizning fikri men uchun juda aziz dedingiz, lekin shuni bilib qo'yingki, onam sizni juda hurmat qiladi.

– Siz shunday deb o'ylaysizmi? – so'radi qiziqsinib Monte-Kristo.

– Bunga imonim komil. Siz biznikida bo'lganingizdan so'ng biz bir soat sizning haqingizda suhbatlashdik. Asosiy gapga qaytaylik. Shunday qilib, mening onam, sizning unga e'tibor berayotganingizni bilsa (men buni unga yetkazishni o'z gardanimga olaman), aminmanki u sizdan nihoyatda minnatdor bo'ladi. To'g'ri, bundan otam g'azabga minadi.

Graf kulib yubordi.

– Mana endi, – dedi u Alberga, – hamma gap sizga ayon. Shunisi ham borki, bundan faqat otangizgina g'azablanib qolmay, janob Danglar bilan Danglar xonim ham meni, juda behayo kishi ekan deb, ayblashlari turgan gap. Ular ikkimiz tez-tez uchrashib turganimizni, Parijda siz mening juda eski tanishim ekaningizni biladilar, shunday bo'la turib menikidagi mehmonlar ichida siz bo'lmasangiz, juda g'alati tuyulishi mumkin. Ular mendan, nega Alberni taklif qilmadingiz, deb so'raydilar. Shunda noqulay ahvolga tushib qolmasligim uchun o'zingiz yordam berishingiz kerak: boshqa biror yerga taklif etilganingizni bahona qilib

ishonarli xat yozasiz. Bilasizki, bankirlar uchun faqat yozma dalil ahamiyatga molik.

– Graf, men bundan ham yaxshiroq yo‘l topdim, – dedi Alber. – Onam dengiz havosida hordiq chiqarish uchun qaergadir bormoqchi. Siz mehmonlarni qaysi kunga chaqirdingiz?

– Shanba kuniga...

– Juda soz. Bugun seshanba. Biz ertaga kechqurun ketamiz, indinga Treporda bo‘lamiz. Bilasizmi, graf, siz odamlarning tortinmay bemalol muomala qilishlariga yo‘l qo‘yib berasiz, bu meni g‘oyat darajada shod etdi.

– Siz meni juda ortiqcha maqtab yuboryapsiz, men faqat sizning vaqtingizni chog‘ etmoqchiman.

– Taklifnomalaringizni qachon yuborgan edingiz?

– Shu bugun.

– Juda soz! Men hozir Danglarning oldiga borib, onam bilan birga ertaga Parijdan jo‘nab ketamiz, deb e‘lon qilaman. Men sizni ko‘rganim yo‘q, mehmon chaqirganingizni eshitganim ham yo‘q.

– Esingizni yig‘ing! Sizni hozirgina menikida ko‘rgan Debre-chi?

– Ha, aytganday.

– Aksincha, men sizni ko‘rdim, mana shu yerda, rasmiyatni yig‘ishtirib qo‘yib, taklif etdim, siz esa chin yurakdan tashakkur bildirib, kelolmasligingizni, Treporga ketajagingizni aytib, uzr so‘radingiz.

– Juda to‘g‘ri, shunday qilishga ahd etdik. Onam ketguncha uni bir ko‘rib kelarsiz?

– Ketgunlaringgacha borishim qiyin: buning ustiga, borsam ketishga tayyorlik ko‘rishingizga xalaqit beraman.

– Yo‘qsa, bundan ham yaxshiroq bir ish qiling! Hozirgacha siz biz uchun faqat o‘ktam odam edingiz, endi maftun etib ham oling.

– Bunday kamolotga yetmoq uchun nima qilmog‘im zarur?

– Nima qilmog‘im kerak, dedingizmi?

– Ha, men bilmoqchiman.

– Siz bugun erkin qushsiz, tushki ovqatni biznikida yeymiz. Faqat uchalamiz – siz, onam va men bo‘laman. Siz grafinyani bir marta ko‘rgan edingiz, xolos, endi yaqinroq tanishib olasiz. U juda ajoyib ayol, men dunyoda yoshi yigirmalarda bo‘lgan yana shunday bir ayol yo‘qligidan afsuslanib yuraman, qasamyod qilamanki, agar shunday jonon uchraganda, ko‘p o‘tmay grafinya de Morserdan boshqa yana vikontessa de Morser maydonga kelgan bo‘lur edi. Otamni ko‘rolmaysiz: u bugun komissiya majlisida, tushlikni ham o‘sha yoqda yeydi. Yuring, borib sayohat haqida gaplashamiz. Siz butun dunyoni kezib chiqqan jahongashtasiz, o‘z sarguzashtalaringizni hikoya qilib berasiz, tengi yo‘q go‘zal alban qizning tarixini, operada siz bilan birga bo‘lgan va siz asiram deb atab, malikaday muomala qiladigan nozaninning hayot daftarini o‘qib berasiz. Biz italyan tilida, ispan tilida gaplashamiz. Xo‘p, deyavering! Grafinya sizdan minnatdor bo‘ladi.

– Rahmat, minnatdorman sizdan, – javob qildi graf. – Taklifingiz menga juda yoqib tushdi; shu sababli qabul etishga ilojim yo‘qligidan afsuslanaman. Siz meni bo‘sh deb bekor aytdingiz, aksincha, juda bandman: bugun muhim uchrashuvim bor.

– Endi o‘zingiz qo‘lga tushdingiz: hozirgina menga noxush tushlikdan qanday qilib qutulish yo‘lini o‘rgatgan edingiz. Menga dalil kerak. Yaxshiyamki, men Danglarga o‘xshab bankir emasman: ammo ogoh bo‘lib qo‘ying, men unga o‘xshagan quruq gapga ishonavermayman.

– Ha, xo‘p, dalil ko‘rsataman, – dedi graf va qo‘ng‘iroq chaldi.

– Ammo shuni aytib qo‘yayki, siz shu bilan ikkinchi marta onam huzurida tushlikni baham ko‘rish to‘g‘risidagi taklifni rad etyapsiz, – dedi Morser, – Aftidan siz bormaslikka qat‘iy qaror qilganga o‘xshaysiz.

Monte-Kristo seskanib ketdi.

– Aminmanki, siz bunday fikrda emassiz, – dedi graf, – mana mening dalilim kelayotir.

Batisten kirib eshik oldida to‘xtadi.

– Men sizning tashrif buyurishingiz haqida oldindan xabardor etilganim yo‘q-ku, to‘g‘rimi?

– Kim bilsin! Siz shunday ajoyib zotsizki, bunga kafil bo‘lishim qiyin.

– Har qalay, meni tushlikka taklif etishingizni oldindan bilolmagan edim.

– Ha, bu gapingiz to‘g‘ri.

– Juda soz. Menga qarang Batisten, bugun ertalab xonamga chaqirganda sizga nima degandim?

– Janobi oliylarining huzuriga soat beshdan keyin kim kelsa ham qabul qilinmasin, degan edingiz.

– So‘ng?

– E-e, graf... – so‘z qotmoqchi bo‘ldi Alber.

– Yo‘q, sabr qiling, siz tomondan menga to‘nkalgan o‘ta sirli obro‘dan o‘zimni soqit etib olmoqchiman, vikont. Hamisha Manfredning aksi bo‘lib yurish nihoyatda og‘ir, kishiga malol keladi. Men hammaning nazarida, ko‘z oldida yashashni istayman. Batisten, davom ettiring: so‘ng nima degandim?

– Faqat janob mayor Bartolomeo Kavalkanti o‘g‘li bilan qabul qilinsin, dedingiz.

– Ana, eshitdingizmi? Italiyadagi eng qadimiy urug‘lardan qolgan nasllardan mayor Bartolomeo Kavalkanti, bu urug‘ning nasabnomasini yozish vazifasini Dantening o‘zi gardaniga olgan edi: esingizdami (ehtimol unutgandirsiz) «Do‘zax»ning o‘ninchi qo‘shig‘ida, uning vikont, yoshi siz bilan teng yuradigan o‘g‘li, otasining unvoni bilan padari buzrukvorining millionlariga tayanib Parij jamoatchiligi orasiga kirib oladi. Mayor bugun menikiga o‘g‘lini birga olib keladi-da, menga topshiradi. Agar u loyiq bo‘lsa, men uni ko‘taraman. Siz menga ko‘maklashasiz, yaxshimi?

– Albatta! Mayor Kavalkanti sizning eski do‘stingiz ekan-da? – so‘radi Alber.

– Yo‘q, ammo u juda hurmatga sazovor, nihoyatda xushmuomala, kamtar, odobli odam. Bunaqalarning Italiyada son-sanog‘i yo‘q, bular nom-nishoni yo‘qolib boyotgan qadimgi qavmlarning avlodi. Men u bilan Flo-

rensiyada va Boloneda, Lukkada bir necha marta uch-rashganman, bu yerga kelganidan meni o'zi xabardor etdi. Safarda tanishganlar juda talabchan bo'ladilar, bir gal ta-sodifan do'stona munosabatda bo'ldingizmi, bas, balo-ga qolasiz, u hamma joyda sizdan xuddi shunday izzat-hurmat bilan kutib olishni talab qiladi. Olijanob Kaval-kanti Parijni yo'l-yo'lakay, Imperiya davrida muzlash uchun Moskvaga o'tib ketayotganida ko'rgan ekan, mana endi yana tashrif buyuryapti. Men uni ajoyib noz-ne'matlar bilan mehmon qilaman: u o'g'lini menga topshiradi, unga ista-ganicha o'ynab-kulib yurish uchun imkon tug'dirib beraman, shunday qilib, ikkimizning oramiz ochiq bo'la-di.

– Juda soz! – dedi Alber. Ko'rinib turibdiki, siz tengi yo'q murabbiy ekansiz. Xayr, yo'qsa, biz yakshanba kuni qaytamiz. Aytganча, men Fransdan xat oldim.

– Shundaymi? – dedi Monte-Kristo. – Unga Italiya juda yoqib qoldi, shekilli?

– Shundayga o'xshaydi, biroq sizning yo'qligingizga achinib yuribdi ekan... U sizni Rimning quyoshi edi va ketishi bilan hamma yoq zimiston bo'ldi-qoldi, deb yozib-di. U, Italiyada yomg'ir quyayotibdi deyishdan ham tap tortmaydimi, deb o'ylab qoldim.

– Demak, do'stingiz mening haqimdagi ilgariqi fikridan qaytibdi-da?

– Yo'q, qaytmabdi, u sizni haliyam g'ayri tabiiy, afsona-viy odam deydi, ketib qolganingizga achinayotganining boisi ham shunda.

– Juda yoqimtoy odam! – dedi Monte-Kristo. – Birinchi uchrashuvimizda, kechki ovqat taraddudida yurganida va marhamat qilib, men bilan ovqatlanishga rozilik bil-dirganidayoq menga yoqib qolgandi. Adashmasam, u ge-neral d'Epining o'g'li bo'lsa kerak, to'g'rimi?

– Juda to'g'ri.

– Bir ming sakkiz yuz o'n beshinchi yili razilona o'ldi-rilgan generalning-a?

– Ha, bonapartchilar o'ldirdi uni.

– Ha, xuddi o’sha. Frans menga juda yoqib qolgan. Uni ham uylantirmoqchi emasmikinlar?

– Ha, uylantirishadi, mademuazel de Vilforqa.

– Bu hal bo’lganmi?

– Mening mademuazel Danglarga uylanishim qanday hal qilingan bo’lsa, uniki ham shunday hal qilingan.

– Hazil qilyapsizmi?

– Ha.

– Nechun?

– Shuning uchunki, mademuazel Danglar bilan ikkimizning oshiq-ma’shuqligimiz qay darajada bo’lsa, ularning bir-biriga muhabbati ham shu darajada. Biroq, graf, erkaklar haqida xotinlar qanday vaysasalar, ikkimiz ham xotinlar haqida xuddi shunday vaysayapmiz. Bu uyat!

Alber o’rnidan turdi.

– Ketyapsizmi?

– Shuncha vaqtingizni oldim, yetar, himmatingizga balli! Yana «ketyapsizmi» deb so’raganingizni qarang-a! Graf, siz haqiqatan ham dunyoda eng nazokatli, xushfe’l odam-siz! Xizmatkorlaringizdagi odobni qarang-a! Ayniqsa Batisten. Men hech bunaqalarini topolmayman. Mening xizmatkorlarim hamisha fransuz teatrlaridagi malaylarga taqlid qilayotganga o’xshab yurishadi. Mabodo Batistendan ajralmoqchi bo’lib qolsangiz, menga bering uni.

– Bu, vikont, hal bo’lgan.

– To’xtang, hali gapim tamom bo’lgani yo’q. Lukkadan keladigan kamtarin mehmoningiz sinor Kavalkanti dei Kavalkantiga mendan salom ayting, iltimos qilaman, mabodo u o’g’lini uylantirishga ahd qilgudek bo’lsa, unga juda badavlat boyvuchcha, hech deganda xotini tomondan asilzoda, ota tomondan baronessani topib bering. Men sizga ko’maklashaman.

– Biroq, – dedi xitob qilib Monte-Kristo, – nahotki ish shunday bo’lsa?

– Ha, shunday.

– Ammo siz shunday deb so’z beravermang, nima bo’lishini kim bilib o’tiribdi hali.

– Eh, graf, – dedi Morser, – agar shunday qilsangiz men-
ga behad yordam bergan bo‘lur edingiz! Sizning ko‘ma-
gingiz bilan hech bo‘lmasa yana o‘n yil bo‘ydoq bo‘lib
yurardim, sizni bundan yuz karra ortiqroq sevgan bo‘lar-
dim!..

– Ehtimol, shunday bo‘lishi ham mumkin, – dedi Mon-
te-Kristo jiddiy ohangda.

Graf Alber bilan xayrlashdi-da, xonasiga qaytib, uch
marta qo‘ng‘iroq chaldi. Bertuchcho kirdi.

– Bertuchcho, – dedi graf, unutmangki, shanba kuni
men Oteyldagi hovlimda mehmonlar qabul qilaman.

Bertuchcho bilinar-bilinmas seskanib tushdi.

– Qulog‘im sizda, janobi oliylari, – dedi u.

– Hamma narsani boplab tashkil qilish sizning garda-
ningizga yuklanadi, – dedi graf. – U juda go‘zal dargoh
yoki go‘zal dargoh bo‘lmog‘i zarur.

– Janobi oliylari, buning uchun uni tamoman yangila-
moq kerak, devorlarini yangidan qoplash zarur.

– Unday bo‘lsa hammasini boshqatdan ishlating, faqat
qizil gazlama bilan qoplangan yotoqqa tegmang – uni
shundayligicha qoldiring.

Bertuchcho ta‘zim qildi.

– Bog‘dayam hech narsaga tegmang, hovlida istaga-
ningizni qiling, qani endi hovlini tanib bo‘lmaydigan da-
rajada o‘zgartib yuborsangiz, juda xursand qilardingiz
meni.

– Hammasini sizning ko‘nglingizga yoqadigan qilib bajo
keltirish uchun qo‘limdan kelgan hamma ishni qilaman.
Biroq janobi oliylari, ovqat tayyorlash to‘g‘risida farmon
bersalar, ko‘nglim tinchirdi.

– Azizim Bertuchcho, – dedi graf, – haqiqatan ham Pa-
rijga kelganimizdan buyon kayfingiz nochog‘, qandaydir
shubhalarga cho‘mib yurasiz, nahotki menga tushunol-
may qolgan bo‘lsangiz!

– Janobi oliylari, kimni mehmonga chaqirayotganin-
gizni, ehtimol aytarsiz menga?

– Hali o‘zim ham bilmayman, sizning ham bilishingiz

shart emas.

Bertuchcho ta'zim qilib, chiqib ketdi.

XVII. MAYOR KAVALBKANTI

Lukkalik mayorning tashrifi to'g'risida grafning ham, Batistenning ham Alberga aytganlari to'g'ri edi. Tushlikka taklifni Monte-Kristo shuning uchun ham rad etdi.

Soat yettiga bong urganida va Bertuchcho grafning farmonini bajarmoq uchun Oteylga ketganiga ikki soat bo'lganda darvoza oldida izvosh to'xtadi va xuddi xijolat tortgandek, ellik ikki yoshlardagi bir kishini tushirdida, darrov jo'nab ketdi. U Evropada abadiy urf bo'lib qolgan qora bog'ichli ko'k libosga o'ralib olgan edi, bundan tashqari ko'k movut cholvor, tagcharmi juda qalin, uzun qo'njli etik, zamsha qo'lqop, jandarmnikiga o'xshash shlyapa kiygandi. Bo'ynidagi oq hoshiyali qora yoqani u o'z ixtiyori bilan taqmagandi, uni temir bo'yinbog' deb o'ylash mumkin edi. Ana shunday rango-rang kiyimdagi shaxs eshik qo'ng'irog'ini chalib, Elisey Maydonidagi zangori raqamli uyda graf Monte-Kristo yashaydimi, deb so'radi-da, darvozaabonning tasdig'idan so'ng ichkariga kirdi.

Mehmonning tashqi qiyofasi to'g'risida oldindan xabardor etib qo'yilgan va uni dahlizda kutib turgan Batisten uni guvala boshidan, oq tushgan sochidan, oppoq qalin mo'ylovidan tanib oldi: mehmon nomini chaqqon kamerdinerga aytib ulgurmasdanoq, uning kelganini Monte-Kristoga xabar qilgan edilar.

Xorijiy zotni eng oddiy mehmonxonalaridan biriga olib kirishdi. Graf uni o'sha xonada kutib turgandi, u iljayib mehmonning istiqboliga chiqdi.

– Marhamat, azizim mayor, marhamat, – dedi graf, – sizni kutib o'tirgan edim.

– Rostdanmi? – so'radi Lukkadani kelgan zot. – Janobi oliylari meni kutganmidilar?

– Ha, sizni bugun soat yettida keladi, deb ogohlantirib qoʻygan edilar meni.

– Meni siznikiga keladi, deb-a?

– Ha, shunday deb.

– Juda soz: ochigʻini aytganda, bu ehtiyotkorlikni unutilib qoʻymasmikinlar, deb xavotirlangan edim.

– Qanaqa ehtiyotkorlikni?

– Sizni ogohlantirib qoʻyishni.

– Buni unutilib boʻladimi?

– Adashmaganingizga aminmisiz?

– Aminman.

– Janobi oliylari, bugun soat yettida chindan ham mening kelishimni kutganmidingiz?

– Ha-da. Yana tekshirib koʻrishimiz ham mumkin.

– Rostdanam meni kutgan boʻlsangiz, – dedi mehmon, – tekshirishga hojat yoʻq.

– Nega endi? – eʼtiroz bildirdi Monte-Kristo.

Lukkalik mehmonning bir oz tashvishlangani sezildi.

– Menga qarang, – dedi Monte-Kristo, – axir siz markiz Bartolomeo Kavalkanti emasmisiz?

– Xuddi oʻzi, – dedi quvonib Lukkadan kelgan mehmon, – Bartolomeo Kavalkanti.

– Avstriya armiyasining isteʼfoga chiqqan mayori-da?

– Men mayor boʻlganmidim? – dedi xavotirlanib keksa jangchi.

– Ha, siz mayor edingiz, – dedi Monte-Kristo. – Sizning Italiyadagi unvoningizni Fransiyada mayor deb atashadi.

– Durust, – javob qildi Lukkadan kelgan mehmon, – bilasizmi, mening uchun buning ahamiyati yoʻq.

– Biroq, siz bu yerga oʻz ixtiyoringiz bilan kelmagan boʻlsangiz kerak? – davom etdi Monte-Kristo.

– Albatta.

– Menikiga yubordilarmi sizni?

– Toʻgʻri.

– Olijanob abbat Buzoni...

– Ha, oʻsha kishi, – dedi quvonib mayor.

– Xat olib keldingizmi?

– Mana.

– Ana koʻrdingizmi! Bering bu yoqqa xatni.

Monte-Kristo xatni ochib oʻqidi. Mayor taajjublangan holda baqrayib tikilib turardi, u qiziqsinib bir xonani koʻzdan kechirar, bir uyning egasiga tikilardi.

– Xuddi aytganim boʻlib chiqdi... abbat yozibdi...

«Mayor Kavalkanti Lukkaning atoqli zodagoni, Florensiyadagi Kavalkantilar avlodidan, – oʻqishni davom ettirdi Monte-Kristo, – yiliga yarim million daromad qiladi...» – xat ustida koʻzlarini yugurtib Monte-Kristo boshini koʻtardi-da, taʼzim qildi.

– Yarim million! – dedi u. – Qadrli Kavalkanti, yarim million-a.

– Rostdanam yarim million deb yozilganmi? – soʻradi Lukkadan kelgan odam.

– Oq qogʻozga qora siyoh bilan xuddi shunday deb boplab yozib qoʻyibdi: bu haqiqat, albatta. Evropadagi yirik boyliklardan abbat Buzoni yaxshi xabardor.

– Xoʻp, yarim million degan boʻlsa yarim million-da, – dedi lukkalik, – biroq toʻgʻrisi, men raqam bunaqa katta boʻladi deb oʻylamagan edim.

– Chunki, ish boshqaruvchilaringiz sizning pullaringizni oʻgʻirlashadi, nachora, qadrli janob Kavalkanti, bu ham-mamizning boshimizga bitgan balo!

– Siz mening koʻzimni ochib qoʻydingiz, ablahning dumini tugish kerak, – dedi lukkalik jiddiy ohangda.

Monte-Kristo davom etdi:

– «Butunlayin baxtiyor boʻlish uchun unga bir narsa kamlik qilyapti».

– Yo tavba! Faqat birgina narsa-ya! – dedi xoʻrsinib lukkalik.

– «Yaʼni sevimli qoʻzichogʻini – oʻgʻlini topib olish».

– Sevimli qoʻzichogʻini!

– «Olijanob oilaning dushmani yoki loʻlilar oʻgʻlini bolalik chogʻida oʻgʻirlab ketgan edi».

– Besh yoshlik chogʻida! – dedi ogʻir xoʻrsingan holda osmonga koʻz tikib lukkalik.

– Ey, shoʻrlik ota! – dedi Monte-Kristo. Soʻng oʻqishni davom ettirdi.

– «Siz oʻn besh yildan buyon axtarib topolmay yurgan oʻgʻlingizni topishga graf yordam bera oladi deb ishontirdim, hayotga qaytardim uni».

Lukkalik tashvishli holda Monte-Kristoga qaradi.

– Bu ish mening qoʻlimdan keladi, – dedi Monte-Kristo.

Mayor qaddini rostlab oldi.

– Iya, – dedi u, – xatdagi gaplar rost ekan-da?

– Ishonmayapsizmi, qadrlı janob Bartolomeo?

– Yoʻq, yoʻq, ishondim! Dinimiz arbobi abbat Buzonidek zoti-sharif nohaq gapni aytarmidi, biroq janobi oliylari, hali xatning hammasini oʻqib boʻlganlari yoʻq.

– Ha, – dedi Monte-Kristo, – ilovasi ham bor.

– Ha... – takrorladi lukkalik, – ilovasi bor...

– «Mayor Kavalkanti bir bankdan ikkinchi bankka pul oʻtkazib qiynalib yurmasin, deb men unga yoʻl xarajatlari uchun ikki ming frankka chek yubordim va yana siz qarz boʻlib qolgan qirq sakkiz ming frankni ham uning nomiga oʻtkazdim».

Mayor xavotirlanib qarab turardi.

– Xoʻsh, – dedi graf.

– U menga, – dedi mingʻirlab lukkalik, – ilovani... graf...

– Ilovani. Xoʻsh? – soʻradi Monte-Kristo.

– Yaʼni ilovani ham, graf juda yaxshi qabul qiladi, degan edi.

– Toʻgʻri. Abbat bilan ikkimizning hisob-kitobimiz boshqacha; unga rostdanam qirq sakkiz ming livr qarz ekanim yodimdan koʻtarilibdi, ammo ortiqcha bir necha assignasiya birimizdan-birimizga oʻtib qolishi mumkin, biz bundan aslo tashvishlanmaymiz. Xatning ilovasiga siz, qadrlı janob Kavalkanti, katta eʼtibor berganmidingiz?

– Sizga ochigʻini aytsam, – javob qildi lukkalik, – abbat Buzonining imzosiga ishonib, men boshqa pul olganim yoʻq edi, shuning uchun men umid qilgan ana shu summa boʻlmay qolsa, Parijda juda qiyin ahvolga tushib qolgan

bo'lur edim.

– Qo'ying, bu gapingizni, sizdek zot biror joyda qiyin ahvolga tusharmidi, – dedi Monte-Kristo.

– Agar biror kishini tanimasangiz... – dedi lukkalik.

– Siz tanimaysizu, ammo sizni hamma taniydi.

– Ha, meni tanishadi... demak...

– Gapiravering, janob Kavalkanti.

– Demak, siz menga ana shu qirq sakiz ming livrni be-raverasizmi?

– Talab qilishingiz bilan tutqizaman qo'lingizga.

Mayor hang-mang bo'lib, baqraygancha qoldi.

– Keling, o'tiring, marhamat, – dedi Monte-Kristo, – men-ga nima bo'ldi o'zi... chorak soatdan buyon sizni tik tur-g'izib qo'yibman-a.

– Zarari yo'q! – dedi-da, mehmon kursini oldiga tortib o'tirdi.

– Ruxsat eting, biror narsa keltiray sizga, – dedi graf, – xeresmi, portveynmi, alikantemi?

– Mumkin bo'lsa, alikante, men shu vinoni yoqtiraman.

– Menda bu vinoning juda zo'ri topiladi, xotirjam bo'ling. Bir bo'lak biskvit ham keltiray, maylimi?

– Ha, mayli.

Monte-Kristo qo'ng'iroq chaldi. Batisten kirdi.

Graf uning yoniga bordi.

– Xo'sh?.. – sekin so'radi u.

– Yosh yigit shu yerda, – javob qildi kamerdiner, ohis-ta.

– Juda soz, uni qaerga olib kirib qo'ydingiz?

– Farmoningizga muvofiq ko'k mehmonxonaga.

– Juda boplabsiz. Bir shisha alikante vinosi va biskvit keltiring.

Batisten chiqib ketdi.

– Janob, – dedi lukkalik, – sizni juda tashvishga solib qo'ydim, uzr so'rayman.

– Nega endi, hech unday emas-da! – dedi Monte-Kristo.

Batisten vino, qadahlar va biskvit keltirdi.

Graf birinchi qadahni to'ldirdi, ikkinchisiga esa ko'p

yillik vinodan faqat bir necha tomchi tomizdi.

Mayor to'la qadahni va biskvitni oldi.

Graf Batistenga barkashni mehmonning oldiga qo'yishni buyurdi, mehmon avval vinoni tatib ko'rdi-da, so'ng ma'qul deb qadahga asta biskvitni botirib oldi.

– Shunday qilib janoblari, – dedi Monte-Kristo. – Lukkada yashagan badavlat asilzodalardan ekanlar-da, hammaning hurmatiga sazovor bo'lib, baxtiyor hayot uchun nimaiki zarur bo'lsa – barchasi sizga muhayyo bo'lgan ekan-da, shundaymi?

– Hammasi muhayyo edi, – dedi mayor biskvitni yutib, – hammasi.

– Mukammal baxtga erishish uchun faqat birgina narsa yetishmasdi, shundaymi?

– Ha, faqat birgina narsa.

– U ham bo'lsa o'g'ilni topish-da?

– Oh, – dedi mayor ikkinchi biskvitni olib, – eng katta kamchilik ana shu edi.

U osmonga qaradi-da, zo'rma-zo'raki xo'rsinmoqchi bo'ldi.

– Endi, azizim Kavalkanti, – dedi Monte-Kristo, – aytingchi, sog'inib qolgan o'sha o'g'lingiz kim edi o'zi? Axir menga sizni bo'ydoq degan edilar-ku.

– Hamma shunday deb o'ylardi, – javob qildi mayor, – o'zim ham...

– Ha, o'zingiz ham bu mish-mishlarni rad etmay yura-verdingiz, – dedi so'zini davom ettirib Monte-Kristo. – Siz yoshlikdagi aybni bekitmoqchi bo'ldingiz.

Lukkalik o'tirgan kursisida qaddini rostladi-da, gerdayib oldi: so'ng o'zini dadil tutish uchunmi yoki tasavvurini aniqlash uchunmi – ko'zlarini yerga tikdi: ayni paytda u zimdan grafga qarab qo'ydi.

– To'g'ri, janobi oliylari, – dedi u, – bu xatoyimni yashirmoqchi edim.

– O'zingiz uchun emas, – dedi Monte-Kristo, – buni erkaklar uchun ayb sanamaydilar.

– To'g'ri, o'zim uchun emas, albatta, – dedi mayor il-

jaygan holda boshini chayqab.

– Onasi uchun, – dedi graf.

– Ha, onasi uchun! – xitob qildi lukkalik uchinchi biskvitni olib, – uning bechora onasi uchun!

– Qani, marhamat qilib iching, qadri janob Kavalkanti, – dedi Monte-Kristo, mehmonning qadahini yana to‘ldirib, – hayajon nafasingizni bo‘g‘yapti.

– Uning bechora onasi uchun! – dedi pichirlab lukkalik, ko‘zidan yolg‘ondan yosh chiqarishga zo‘r berib urinar ekan.

– U ona adashmasam, Italiyadagi bir oqsuyaklar oilasidan bo‘lsa kerak, shundaymi?

– Graf, u Fezoldagi zodagonlar oilasidan!

– Uning nomi nima edi?

– Nomini bilmoqchimisiz?

– Tavba, – dedi Monte-Kristo, – mayli, aytmay qo‘ya qoling, menga ma‘lum uning nomi.

– Janobi oliylari hamma narsadan xabardorlar, – dedi ta‘zim qilib lukkalik.

– Oliva Korsinari, to‘g‘rimi?

– Ha, Oliva Korsinari!

– Markizami?

– Ha, markiza.

– Oiladagilarning zo‘r berib qarshilik ko‘rsatishlariga qaramay, siz unga uylanib oldingiz.

– Axiyri borib uylanib olishga muvaffaq bo‘ldim.

– Siz zarur hujjatdarning hammasini olib keldingizmi?
– davom etdi Monte-Kristo.

– Qanaqa hujjatlarni? – so‘radi lukkalik.

– Nikoh haqidagi hujjat va o‘g‘lingizning tug‘ilganlik haqidagi guvohtomasini.

– O‘g‘limning guvohtomasi?

– Ha, o‘g‘lingiz Andrea Kavalkantining guvohtomasi, uning nomi Andrea bo‘lsa kerak, shundaymi?

– Ha, shunday bo‘lsa kerak, – dedi lukkalik.

– Nega shunday bo‘lsa kerak, deyapsiz?

– Men buni tasdiqlashga jur‘at etolmayman, u allaqa-

chonlar yo'q bo'lib ketgan.

– Haq gapni aytdingiz, – dedi Monte-Kristo. – Biroq hujjatlar yoningizdami?

– Graf, afsuski, ogohlantirilmaganim sababli o'sha hujjatlarni olib kelishni xayolimga keltirmabman.

– Obbo! Ish chatoq bo'пти-da! – dedi Monte-Kristo.

– Ular juda zarurmidi?

– Juda zarur-da!

Lukkalik peshanasini qashlab qoldi.

– Ana xolos, nahotki, shunchalik zarur bo'lsa?!

– Shubhasiz, axir bu yerda nikohingiz va bolaning tug'ilishi qonuniymi, degan shubha tug'ilib qolsa-chi?

– To'g'ri aytasiz, shubha tug'ilishi mumkin.

– Bu o'g'lingizni yomon xijolatga solib qo'yadi-ya.

– Buni eshitsa u o'limga ham rozi bo'ladi-da.

– Ajoyib qayliqdan ham ajralib qoladi.

– E, attang!

– Fransiyada bu masalaga juda jiddiy e'tibor berishadi, bu yerda Italiyadagi kabi to'g'ri domlanning oldiga bo'rib: «Bizga nikoh o'qib yuboring», deb bo'lmaydi, Fransiyada fuqaro nikohi joriy etilgan, fuqarodan nikohidan o'tish uchun shaxsning kimligini tasdiqlaydigan hujjat kerak.

– Obbo, ish rasvo-ku, menda unaqa hujjat yo'q.

– Yaxshiyamki, menda bor, – dedi Monte-Kristo.

– Sizda?

– Ha, menda.

– Bu hujjatlar sizda bormi?

– Bor.

Lukkalik bu hujjatlarning yo'qligi uning bu safardan kutgan maqsadlarini puchga chiqarayotganini va qirq sak-kiz ming masalasini ham og'irlashtirib qo'yajagini sezib, qo'rqib ketdi.

– Mana bu chindan ham, – dedi u, – men uchun baxt, axir men buni hech esimga keltirmagan edim.

– Albatta, so'zingizga ishonaman, haqiqatan hamma narsani o'ylab, ulgurib bo'larmidi. Lekin baxtingizga abbat

Buzoni buning ham chorasini ko'rib qo'yg'an.

– Abbat nihoyatda olijanob ekan-da!

– Juda tadbirli odam.

– Oltin odam ekan, – dedi lukkalik, – u sizga hujjatlarni ham jo'natib yuboribdimi?

– Ha, mana.

Lukkalik qoyil qolib qo'llarini ko'ksiga bosdi.

– Siz Oliva Korsinari bilan Monte-Kattindagi muqaddas Pavel cherkovida nikoh qilingansiz, mana kashish bergan shahodatnoma.

– Qarang-a, rostdanam uning shahodatnomasi, – dedi mayor taajjub-la qog'ozga qarab.

– Mana bu Andrea Kavalkantining cho'qintirilgani to'g'risida Saravessada kashish bergan guvohnoma.

– Hammasi joyida, – dedi mayor.

– Shunday ekan, mang, oling bu qog'ozlarni, ular menga kerak emas, o'g'lingizga olib borib bering, unda bo'lsa yo'qolmaydi.

– Bo'lmasam-chi!.. Agar u hujjatlarni yo'qotib qo'yg'anda...

– A? Agar u yo'qotib qo'yg'anda? – so'radi Monte-Kristo.

– Unda u yoqqa xat yozishga to'g'ri kelardi, – dedi lukkalik, – yangilarini olish uchun ko'p vaqt kerak bo'lardi-da.

– Rostdanam bu juda qiyin bo'lardi, – dedi Monte-Kristo.

– Olib bo'lmasdi ham, – dedi lukkalik.

– Bu hujjatlarning qadriga yetolganingizdan benihoya mamnunman.

– Men ularni bebaho deb bilaman.

– Endi, yigitchanning onasi masalasiga kelganda... – dedi Monte-Kristo.

– Yigitchanning onasiga kelganda... – takrorladi tashvishlangan holda mayor.

– Markiza Korsinariga kelganda...

– E, Tangrim! – dedi lukkalik, g'ov ustiga g'ov paydo bo'layotganini ko'rib, – u ham kerak bo'larmikin bizga?

– Yo‘q, – dedi Monte-Kristo. – Aytgancha axir u...
– Ha, ha... u...
– Dunyodan o‘tgan-ku...
– Ha, shunday, – dedi lukkalik.
– Men uning bundan o‘n yil burun o‘lganini eshitgan edim.

– Men esa hanuz aza tutib, ko‘z yoshi to‘kaman, – dedi lukkalik va cho‘ntagidan rangdor ro‘molchasini olib, avval chap ko‘zini, so‘ng o‘ng ko‘zini artdi.

– Ilojimiz qancha, – dedi Monte-Kristo, – o‘lim hamma-mizning boshimizda bor. O‘g‘limni o‘n besh yildan buyon ko‘rmadim, deb Fransiyada nolib o‘tirishingizning hech hojati yo‘q ekanini endi tushungan bo‘lsangiz kerak, qadrli janob Kavalkanti. Bolalarni o‘g‘irlab ketadigan lo‘lilar haqidagi afsonalarga bizda e‘tibor berishmaydi, o‘g‘lingiz provinsiyadagi kollejda tarbiya olgan edi, endilikda siz uning Parij jamoasi orasida kamolotga yetishini istaysiz. Xotiningizning vafotidan so‘ng yashab turganinigiz Via-Rejoni tashlab chiqib ketishingizning boisi ham shu. Mana shuning o‘zi yetarli.

– Siz shunday deb o‘ylaysizmi?

– Albatta.

– Unda hamma ishimiz soz bo‘pti.

– Mabodo bu hijron haqida allaqayoqdan mish-mish gaplar tarqalgudek bo‘lsa...

– U vaqtda men nima deb javob beraman?

– Unda siz, oilangizning dushmanlariga sotilgan murabbiy...

– Ya‘ni Korsinarilargami?

– Albatta... nasl-nasabingizni yo‘q qilib yuborish niyatida bolangizni o‘g‘irlab ketdi.

– Juda to‘g‘ri, axir u yakka-yu, yagona o‘g‘il-ku.

– Mana biz siz bilan hamma masalalarda kelishib, til birlashtirib oldik, hammasini xotiringizga yana bir solib oladigiz, endilikda bu gaplar esingizdan chiqmaydi. Endi sizga bir hadya tayyorlab qo‘yganimni fahmlab turgan bo‘lsangiz kerak?

- Quvontiradiganmi? – so‘radi lukkalik.
- Otaning ko‘zi va dilini aldash mumkin emasligini ko‘rib turibman, – dedi Monte-Kristo.
- Hm! – dedi ming‘irlab mayor.
- Sizga birortasi aytib qo‘yganmidi yoki o‘zingiz uning shu yerdaligini payqab qoldingizmi?
- Kim shu yerda?
- O‘g‘lingiz, farzandingiz Andrea.
- Fahmlagan edim, – dedi beparvolik bilan lukkalik, – u shu yerdami?
- Mana shu yerning o‘zida, – dedi Monte-Kristo. – Hali kamerdinerim kirganda aytdi buni menga.
- Juda soz! Juda soz! – dedi mayor petliskasini tuzata turib.
- Qadrli janob Kavalkanti, – dedi Monte-Kristo, – siz hayajonga tushayapsiz, sezib turibman, o‘zingizni bosib olish uchun sizga vaqt berish kerak. Bundan tashqari, quvonchli uchrashuvga yigitchani ham tayyorlamoqchiman, u ham buni sabrsizlik bilan kutyapti.
- Shubhasiz, – dedi Kavalkanti.
- Mana endi, chorak soat o‘tar-o‘tmas huzuringizda hozir bo‘lamiz.
- Demak, uni mening oldimga olib kelasizmi? Uni, marhamat qilib, o‘zingiz tanishtirasizmi menga?
- Yo‘q, men ota bilan o‘g‘il o‘rtasida bo‘lishni istamayman, ammo xotirjam bo‘ling, u mana bu eshikdan kirib keladi, adashmay o‘g‘lingizning xuddi o‘zini qarshi olasiz. U malla rang, istarasi issiq, go‘zal yigitcha, mana, o‘zingiz ko‘rib qoyil bo‘lasiz.
- Aytgandek, – dedi mayor, – bilasizmi, men faqat ikki ming frank pul bilan kelgandim (uni ham oliyhimmat abbat Buzoni orqali oldim), uning bir qismini yo‘ldayoq sarfladim, endilikda...
- Ya‘ni, sizga pul kerak... bu tabiiy hol, qadrli janob Kavalkanti. Mana to‘ppa-to‘g‘ri hisob-kitob uchun sakkiz ming frankli biletlar.
- Mayorning ko‘zlari chaqnab ketdi.

– Menda yana qirq ming frank qoldi, – dedi Monte-Kristo.

– Ehtimol, janobi oliylari tilxat olishni istarlar? – soʻradi mayor pulni kamzulining ichki choʻntagiga yashirib.

– Tilxatning nima keragi bor? – dedi graf.

– Abbat Buzoni bilan hisob-kitob qilganda kerak boʻlib qolar.

– Qolgan qirq ming frankni olganingizdan keyin bira-toʻla tilxat berarsiz. Halol, vijdoni pok odamlar oʻrtasida bu kabi ehtiyotkorlik ortiqcha.

– Ha, toʻgʻri, halol kishilar orasida bunday boʻlmasligi lozim, – dedi mayor.

– Yana bir iltimos bor, markiz.

– Xizmatlariga hozirman.

– Bitta maslahat bersam mumkinmi?

– Nega mumkin boʻlmas ekan! Marhamat qiling!

– Shu ustingizdagi kamzul bilan xayr-maʼzur qilsangiz soz boʻlardi-da.

– Rostdanmi? – dedi mayor gʻurur-la libosini koʻzdan kechirib.

– Bunaqa kiyimlarni Via-Rejoda hanuz kiyadilar, ammo Parijda bu allaqachon urfdan chiqib ketgan.

– Attang, – dedi lukkalik.

– Agar bu sizga juda yoqib qolgan boʻlsa, qaytganda kiyib ketarsiz.

– Xoʻsh, nima kiyaman?

– Chamadoningizda nima boʻlsa, oʻshani.

– Qanaqa chamadonim bor ekan meni? Faqat safar xaltasi bilan kelgandim-ku.

– Toʻgʻri. Ortiqcha yuk koʻtarib yurishni kim istardi, buning ustiga tajribali jangchi, qushdek yengil boʻlib, safar qilishni yaxshi koʻradi.

– Ha, ana shunday ekan, menda chamadon nima qiladi.

– Biroq ehtiyotkor odamsiz, shuning uchun buyumlar-ingizni ilgariroq joʻnatib yuborgansiz. Buyumlaringiz kecha Rishela koʻchasidagi shahzodalar mehmonxonasi-ga kelib tushibdi.

– Demak, chamadonda ekan-da buyumlar?

– Men kamerdinerigizga chamadonga zarur narsalarning hammasini: fuqaro oddiy kiyimlarini, mundirlarni joylashtiringlar deb farmoyish bergansiz, deb faraz qilaman. Maxsus tantanali hollarda mundirlar kiyimi zoʻr salobat bagʻishlaydi. Ordenlarni taqib olishni unutib qoʻymang tagʻin. Fransiyada ulardan kulishadi, lekin taqib yurishadi.

– Juda soz! Juda soz! – dedi mayor borgan sari ajablanib.

– Mana, – dedi Monte-Kristo, – yuragingiz chuqur hayajonga bardosh beradigan darajada chiniqdi, endi, janob Kavalkanti, oʻgʻlingiz Andreani koʻrishga tayyor turing.

Monte-Kristo shunday dedi-yu, qoyil qolib turgan mayorga jozibali jilmayib chiqib ketdi.

XVIII. ANDREA KAVALKANTI

Graf Monte-Kristo hali Batisten aytgan koʻk mehmonxonaga kirdi. U yerda bashang kiyingan yosh yigit uni kutib oʻtirar, uni yarim soat ilgari yollangan arava keltirib tashlagan edi.

Batisten uni darrov tanib oldi. Bu xoʻjayini Batistenga tashqi qiyofasini tasvirlab bergan oʻsha novcha, malla soch, soqoli sargʻish, qora koʻz, oq badan yosh yigitcha edi. Graf mehmonxonaga kirganda u keng divanda taltayib yotib olib, hassasining oltin sopi bilan kavushini parishonxotir toʻqillatib oʻtirgan edi.

Monte-Kristoni koʻrdi-da, yigit irgʻib turdi.

– Graf Monte-Kristomisiz? – soʻradi u.

– Ha, – javob qildi graf. – Men vikont Andrea Kavalkanti bilan gaplashayotgan boʻlsam kerak?

– Ha, vikont Andrea Kavalkanti bilan, – takrorladi yigitcha bir oz gililib.

– Siz menga xat keltirgan boʻlsangiz kerak?

– Men buni aytmayotganimning sababi shuki, unga juda g'alati imzo chekilgan.

– Sindbod-Dengiz sayyohi, debmi?

– Xuddi shunday. Men «Ming bir kecha»dagi Sindbod-Dengiz sayyohidan boshqa nomni eshitmaganman-da...

– Bu o'sha «Ming bir kecha»dagining avlodlaridan biri, mening og'aynim juda badavlat odam, o'zi ingliz, juda g'alati, tentak, haqiqiy nomi lord Uilmor.

– Mana endi menga hammasi ravshan bo'ldi, – dedi Andrea. – Demak, hammasi joyida ekan. Bu o'sha men... haligi... yerda tanishgan... juda soz... Graf, mana endi xiz-matingizga tayyorman.

– Mabodo bu gapingiz rost bo'lsa, – dedi graf iljayib, – endi o'zingiz va ota-onangiz haqida menga ba'zi tafsilot-larni aytib bering.

– Jonim bilan, graf, – dedi darhol yosh yigit. – Men o'zingiz aytgandek, mayor Bartolomeo Kavalkantining o'g'li, Florensiyaning oltin kitobiga yozib qo'yilgan o'sha Kavalkantilar avlodi vikont Andrea Kavalkantiman. Oilamiz hanuz behad boy, chunki otamning yillik daromadi yarim million, biroq oilamiz boshiga ko'p mushkul ishlar tushgan, mening o'zimni besh yoki olti yoshimda sotqin murabbiy o'g'irlab ketgan, mana o'n besh yildirki, otamni ko'rolmayman. Yoshim ulg'ayib esimni tanib, erkim o'z qo'limda bo'lgandan buyon uni axtaraman, lekin natija chiqmayapti. Endilikda do'stingiz Sindbodning xatida u Parijda ekani bildirilgan va bu masalada sizga murojaat etish tavsiya qilingan.

– Haqiqatan ham juda ajoyib gaplarni aytyapsiz, – dedi graf surbet yigitchaga tikilib. – Do'stimning maslahatiga kirib juda yaxshi qilibsiz, rostdanam otangiz shu yerda, sizni axtarib yuribdi.

Graf mehmonxonaga kirgan vaqtdan buyon yigitchadan ko'z uzmas edi. U yigitning qarashlaridagi dadillik, ovozlaridagi qat'iyatga qoyil bo'lib turgandi, biroq yigitcha «otangiz shu yerda, sizni axtarib yuribdi» degan oddiy so'zlarni eshinishi bilan oq u o'rnidan sapchib turdi-

da qichqirib yubordi:

– Mening otam! Mening otam shu yerdami?

– Ha, shu yerda, – javob qildi Monte-Kristo. – Otangiz mayor Bartolomeo Kavalkanti.

Yosh yigitning yuzidagi vahima bir zumda yo‘q bo‘ldi.

– Ha, to‘g‘ri, – dedi u, – mayor Bartolomeo Kavalkanti.

Demak, gapingizga qaraganda, graf, mening aziz otam shu yerda ekan-da.

– Ha, shu yerda. Men hozirgina u bilan gaplashdim, allaqachonlar yo‘qotib qo‘ygan farzandi to‘g‘risida uning yonib-kuyib aytgan gaplari meni behad hayajonga soldi. Darhaqiqat, uning qayg‘u-alamlari, xavotirlari, umid-orzulari ta‘sirli doston bo‘la oladi. Kunlarning birida o‘g‘lini o‘g‘irlab, katta pul to‘lasangiz farzandingizni qaytarib beramiz yoki qaerdaligini xabar qilamiz, debdilar. Mehribon ota hech narsaga qaramay ana shu pulni Pemont chegarasiga yuboribdi, pul bilan birga Italiyaga borish uchun pasport ham jo‘natibdi. Siz o‘sha vaqtda Fransiyaning janubida edingiz, shekilli?

– Ha, graf, – dedi bir oz xijolat tortgan Andrea, – to‘g‘ri, men u vaqtda Fransiyada edim.

– Sizni Nissada izvosh kutib turgan-a?

– Juda to‘g‘ri, o‘sha izvosh meni Nissadan Genuyaga olib keldi, Genuyadan Turinga, Turindan Shamberiga, Shamberidan Pon-de Bovuazenga, Pon-de-Bovuazendan Parijga keltirdi.

– Juda soz bo‘pti-da! Otangiz sizni yo‘lda uchrataman, deb ko‘p umid qildi, chunki u ham o‘sha siz yurgan yo‘ldan keldi, sizga o‘sha marshrutni tanlanishining boisi ham shunda edi-da.

– Ammo, – dedi Andrea, – qadrdon otam meni yo‘lda uchratganida, baribir taniy olmasdi, men bir-birimizdan ajralganimizdan buyon ancha o‘zgarib ketdim.

– Turq-tarovatdagi o‘xshashlik-chi! – dedi Monte-Kristo.

– Ha, aytgancha, – dedi yigitcha, – buni o‘ylamabman!

– Markiz Kavalkantini, – deb gapida davom etdi Mon-

te-Kristo, – mendan ajratilgach, o'g'lim shuncha vaqt nima bilan shug'ullandi ekan? Uni o'g'irlab ketgan zolimlar unga qanday muomala qildi ekan? Nasl-nasabiga munosib muomalada bo'lishdimikin? Jismoniy azobdan ming karra og'ir ruhiy azob-uqubatlar uning ajoyib zehninga shikast yetkazmadimikin? Hozir ham u haq-huquqiga loyiq yuksak mavqeni egallay olishga o'zini qodir deb bilarmikan? – degan tashvishlar bezovta qilyapti.

– Aminmanki, janob, – dedi sarosimaga tushib qolgan yigitcha, – har qanday yolg'on-yashiq ma'lumotlar...

– Qo'ying, unday deb o'ylamang! Men sizning haqingizda birinchi marta saxiy do'stim Uilmordan eshitdim. U menga sizni og'ir ahvolga tushib qolgan paytda uchratgan ekan, ammo qanaqa og'ir ahvolligini aytmedi, men ham so'rab o'tirmadim, hamma narsaga qiziqsinadigan odatim yo'q. U sizga hamdard bo'lgan ekan, demak, siz hurmatga sazovor kishisiz. Uilmor, sizni yana ilgari ma'vqega qaytaraman, otasini topib beraman, degan edi. U aftidan otangizni axtarib topibdi, chunki otangiz mana shu yerda, nihoyat kecha u sizning kelishingizni aytdi va buyumlaringiz to'g'risida ba'zi bir topshiriqlar berdi. Mana, hamma gap shu. Do'stim Uilmor juda qiziq, g'alati odamligi menga ayon. Shu bilan bir vaqtda u rostgo'y, behad davlat egasi bo'lgani sababli, hech narsadan qo'rqmay dadil turib, odamni hayratga soladigan ajib ishlar qilaveradi, uning farmoyishlariga amal qilayotganimning boisi ham shunda. Endi, afandim, men bir savol beraman, ko'nglingizga olmag, men sizga homiylik qilishim kerak ekan, oldindan shuni bilib olishim kerak: o'z aybingiz bilan emas, boshqalarning xiyonati bilan boshingizga tushgan baxtsizlik davlatingiz va nasl-nasabingizga munosib jamiyatdan sizni yiroqlashtirib qo'ymadimikin?

– Bu masalada, janoblari, mutlaqo xotirjam bo'laversinlar, – dedi yigitcha yana kekkayib, – o'g'rilar, aftidan, so'ngroq borib meni unga sotish niyatida edilar, shunday qildilar ham. Mendan ko'proq foyda olish uchun narximni

kamaytirishga emas, mumkin qadar oshirishga harakat qilishga urindilar. Shuning uchun men durustgina bilim oldim, bolalar o'g'rilari ham men bilan xuddi Kichik Osiyo quldorlariga o'xshab muomala qilishdi, ma'lumki, Kichik Osiyo quldorlari o'z qullarini qimmatroq sotish uchun ularni o'qitib tilshunos olimlar, faylasuflar, vrachlar qilib tayyorlashardi.

Monte-Kristo mamnun bo'lib iljayib qo'ydi, aftidan u Andrea Kavalkantidan bunchalik oqilona gaplar chiqadi deb o'ylamagan edi.

– Lekin, – dedi Andrea, – mening tarbiyamda, xulqimda biror nuqson ko'ringudek bo'lsa, bolalik va o'smirlik chog'larimda qismatinga tushgan baxtsizlikni hisobga olib, kechirarlar, deyman.

– Nima ham derdim, – dedi beparvolik bilan Monte-Kristo, – istaganingizni qiling, bu sizning shaxsiy ishingiz va faqat o'zingizga taalluqli. Biroq men sizning o'ringizda bo'lganimda sarguzashtlar haqida lom-mim demasdim, chunki sizni hayot yo'lingiz romanga o'xshaydi, sariq muqovali romanlarga maftun jamiyat sizga o'xshagan ongli kishilar hayotiga, garchi u zarhal muqovali bo'lsa-da, shubha bilan qaraydi, inonmaydi. Men sizning e'tiboringizni mana shu qiyin tomonga jalb etishga jur'at qilyapman, vikont, hayotingizdagi birorta ta'sirli voqeani biror kishiga aytib ulgurmasingizdanoq bir zumda Parijga tarqaladi- ketadi, tarqalgandayam astari ag'darilib buzilib tarqaladi. Siz Antoni qiyofasiga kirib olishga majbur bo'lasiz, bunaqangi Antonilarning davri allaqachon o'tib ketgan. Ehtimol, siz hammani qiziqtirib, maftun etib olasiz, bu sizga ayrim yutuqlarni qo'lga kiritishga imkon berar, ammo g'iybat manbai bo'lishga kimning tobi bor. Bu sizga tinkani quritadigan narsaga o'xshab ko'rinishi mumkin.

– Menimcha, graf, siz haq gapni aytyapsiz, – dedi Andrea o'qrayib qarab turgan Monte-Kristo oldida rangi o'chib, – bu ortiqcha dahmaza-ku.

– Ammo, mahovat qilish ham yaramaydi, – dedi Monte-

Kristo, – xatodan qochaman deb bema’nilik qilib qo’yish mumkin. Faqat har bir qadamni o’lchab bosish kerak, sizdek oqil kishi uchun bu hech gap emas, qaytaga bu o’zingizga foyda. O’tmishingizda qoralanadigan nima bo’lsa, siz oqlashga urining, dalillar bilan, sodiq do’stlaringiz shohidligida oqlashga urinavering.

Andrea, aftidan, xijolat bo’ldi.

– Men sizga kafil bo’lishim mumkin edi, – dedi so’zini davom ettirib Monte-Kristo, – biroq men eng yaxshi do’stlarimdan shubhalanishga va boshqalarda ham shubha tug’dirishga odatlanganman. Shuning uchun sizga kafil bo’lishim qiyin, juda o’ng’aysiz holga tushib, masxara bo’laman, xolos.

– Biroq, graf, – dedi Andrea e’tiroz bildirishga jur’at etib, – lord Uilmorning hurmati uchun.... axir meni o’sha zot tavsiya qilgan edi-ku...

– To’g’ri, – dedi Monte-Kristo, – biroq lord Uilmor siz yoshlikda ancha sho’xlik, beboshlik qilganingizni mendan sir saqlagani yo’q. Yo’q, yo’q – dedi graf Andreaning qimirlayotganini ko’rib, – men sizdan tavba qilishni talab etayotganim yo’q. Aytgancha, otangizni Lukkadandan siz bu yerda boshqa hech kimga muhtoj bo’lib qolmang, deb chaqirtirdik. Hozir uni ko’rasiz, u bir oz dag’al, g’o’dayganroq, ammo bunga parvo qilmang, bu unvonning ta’siri, Avstriya armiyasida o’n sakkiz yil xizmat qilganini bilgach, uning bu qiliqlarini aybga buyurmaysiz: biz umuman avstriyaliklarga nisbatan talabchan emasmiz. Amin bo’ling, har holda otangiz odamshavanda, durust zotlardan.

– Graf, siz meni tinchlantiryapsiz, men u bilan ajrashib ketganimga ko’p vaqt bo’ldi, ko’rsam tanimasman.

– Bilasizmi, odatda davlatmand kishilar ko’p narsalarga takabburlik bilan qaraydi.

– Otam chindan ham boymi?

– U millioner... yillik daromadi besh yuz ming livr.

– Demak, mening ishlarim joyida bo’lar ekan-da?

– Juda joyida bo’ladi, azizim. Parijda turadigan vaqtin-

gizga siz uchun yiliga ellik ming livr ajratib qo'ydi.

– Unday bo'lsa men bu yerdan hech qayoqqa ketmay yashayveraman.

– Hm! Aziz vikont, kelajakda nima bo'lishini kim bilib o'tiribdi? Bandaning aytgani emas, Xudoning aytgani bo'ladi.

Andrea xo'rsinib qo'ydi.

– Ammo, har holda, – dedi u. – Men Parijda bo'lsam... va biror sabab bilan ketishga majbur bo'lmasam siz aytgan haligi pul cho'ntagimda bo'ladimi?

– Albatta.

– Otam beradimi uni?

– Ha, lekin lord Uilmor kafillik bersa, otangizning iltimosiga muvofiq Uilmor Parijning eng ulkan bankirlaridan biri – janob Danglarning bankidan sizga oyiga besh ming frankdan kredit ochib qo'ydi.

– Otam Parijda ko'p turarmikin?

– Faqat bir necha kun, – javob qilib Monte-Kristo. – U ikki, uch haftadan oshiq turolmaydi. Xizmatga qaytishi kerak.

– Oh, otajonim! – dedi Andrea, otasining tez qaytishidan shodlanib.

– Shu sababdan, – dedi Monte-Kristo, o'zini bu gaplarning ohangiga tushunmaganga solib, – ikkingizning uch-rashuingizni bir zum ham kechiktirishni istamayman. Xo'sh, hurmatli janob Kavalkanti bilan quchoq ochib ko'rishishga tayyormisiz?

– Bunga shubha qilmassiz, degan umiddaman.

– Unday bo'lsa, qani mehmonxonaga kiring, otangiz o'sha yerda sizni kutib turibdi.

Andrea grafga ta'zim qildi-da, mehmonxonaga ketdi.

Graf uning ketidan nazar tashlab turdi, u chiqib ketgach, suratlardan biriga yashiringan prujinani bosdi, surat romidan oldinga surilib chiqdi-da, bir tuynuk paydo bo'ldi, bu tuynukdan mehmonxonada nima bo'layotgani baralla ko'rinib turardi.

Andrea mehmonxonaga kirib eshikni bekitib qo'ydi.

da, mayor tomonga qadam tashladi. Mayor esa oyoq tovushini eshitiboq o'rnidan tugan edi.

– Oh, otajonim! – dedi ovozi baland qilib Andrea, buni graf ham eshik naryog'idagi xonada aniq eshitib turdi, – nahotki siz mening otam bo'lsangiz? O'ngimmi yoki tushimmi?

– Salom qo'zichog'im, salom o'g'lim, – dedi jiddiy ohangda mayor.

– Uzoq yillar davom etgan hijrondan so'ng mana baxtimizga yana topishib oldik, – dedi Andrea, eshikka bir qarab qo'yib.

– Haqiqatan ham juda uzoq hijron azobini chekdik.

– Quchoqlashib ko'rishamizmi?

– Ha, keling, o'g'lim, quchoqlashaylik.

So'ng ular, fransuz teatrlaridagiga o'xshatib, ya'ni betlarini bir-biriga qo'yib, o'pishishdi.

– Mana endi biz yana topishib oldik! – dedi Andrea.

– Yana birgamiz, – takrorladi mayor.

– Endi bundan keyin hech ajrashmaymiz-a, to'g'rimi?

– Aksincha, qadrdon o'g'lim: menimcha, Fransiya endi sizning ikkinchi vataningiz bo'lib qoldi, shundaymi?

– Ochiq iqrar bo'layki, – dedi yosh yigit, – Parijdan ketish menga o'limdan ham og'ir bo'lur edi.

– Men esa Lukkadan uzoq yashay olmasam kerak, qulay fursat kelishi bilanoq Italiyaga qaytaman.

– Biroq, otajon, ketishdan oldin siz o'g'lingiz ekanimni tasdiqlaydigan hujjatlarni menga berasizda?

– Bu tabiiy: axir shu hujjatlarni sizga berib qo'yish niyatida men sizni rosa axtardim, ko'p mashaqqat chekdim, yana qaytadan axtarishga, hayotimning oxirgi kunlarini sarf qilishga toqatim yo'q.

– O'sha hujjatlar...

– Mana.

Andrea otasining nikoh shahodatnomasini va o'zining guvohnomasini shartta oldi-da, farzandga xos toqatsizlik bilan ochib, tez ko'z yugurtirib chiqdi.

O'qib tugatganda uning yuzlari shodlikdan lovillab

yonib ketgan edi, u g'alati iljaydi-da, mayorga qaradi.

– Ana xolos! – dedi u haqiqiy toskan shevasida. – Juda qiziq-ku! Italiyada endi katorgaga yuborish yo'q qilinganmi?

Mayor qaddini rosladi.

– Bu nima deganingiz?

– Ya'ni Italiyada mana shunaqangi soxta hujjatlar yasab yuraverish mumkin bo'lib qolibdi-da, demoqchiman. Fransiyada mana shu kabi yolg'ondan to'qilgan hujjatlarning yarmi uchun besh yilga Tulonga toza havo olish uchun jo'natishar edi-da, otajon.

– Nima, nima? – so'radi mayor gerdayib.

– Qadrli janob Kavalkanti, – dedi Andrea mayorni tirsagidan tutib, – menim otam bo'lganingiz uchun sizga qancha to'lashyapti?

Mayor javob bermoqchi bo'ldi.

– Jim, – dedi Andrea ovozini pasaytirib, – men sizga ishonib sirni ochib qo'ya qolay: o'zimni sizning o'g'lingiz qilib ko'rsatganim uchun menga bir yilga ellik ming frank beryapti, shuning uchun sizni otam emas, deb inkor etishni aslo istamayman.

Mayor tashvishlanib atrofqa qarab qo'ydi.

– Xavotirlanmang, bu yerda ikkimizdan bo'lak hech kim yo'q, – dedi Andrea, – buning ustiga ikkimiz italyancha gaplashyapmiz.

– Menga esa, – dedi lukkalik, – bir yo'la ellik ming frank berishyapti.

– Janob Kavalkanti, siz sehrli ertaklarga ishonasizmi? – so'radi Andrea.

– Ilgari ishonmasdim, endi ishonishga to'g'ri keladi.

– Iya, nima bo'ldi, ularga ishonish uchun biror dalil topoldingizmi?

Mayor cho'ntagidan bir siqim luidor oldi.

– Mana, ko'rdingizmi buni?

– Demak, sizningcha, men berilgan va'daga ishonsam bo'laveradimi?

– Menimcha, ishonsa bo'ladi.

- Bu oliyhimmat graf buni bajararmikin?
 - Albatta, bajaradi, biroq bunga erishmoq uchun ikkimiz rolimizni juda boplab o'ynashimiz kerak.
 - O'ynaganda qandoq!
 - Men mehribon ota rolini...
 - Men esa, odobli o'g'il rolini...
 - «Ular»ingiz kim?
 - O'sha sizga yozganlar-da: axir, siz xat oldingizmi?
 - Oldim.
 - Kimdan?
 - Abbat Buzoni degan bir kishidan.
 - Uni taniysizmi?
 - Mutlaqo ko'rgan emasman.
 - U xatda nima deyilgan edi?
 - Siz meni aytdi, demaysizmi?
 - Buning menga nima keragi bor? Ikkimizning manfaatimiz bir.
 - Unday bo'lsa, mana o'qing, – dedi-da, mayor yigit-chaga xatni uzatdi.
- Andrea ovozini salgina chiqarib o'qidi:

«Siz kambag'alsiz, baxtsiz qarilikka duchor bo'lasiz. Boy bo'lmasangiz ham, hech kimga muhtoj bo'lmaydigan kishi bo'lishni istaysizmi?»

Istasangiz darrov Parijga, graf Monte-Kristo huzuriga boring, manzili: Elisey Maydoni, № 30. Siz undan markiza Korsinaridan tug'ilgan va besh yoshidan o'g'irlangan o'g'lingizni so'rang.

O'g'ilning nomi Andrea Kavalkanti.

Xatga imzo chekkan kishidan shubhalanib yurmang tag'in deb quyidagilarni ilova qildim:

1. Florensiyadagi Gossa shahri bankiga yozilgan ikki ming to'rt yuz toskan livriga chek.

2. Graf Monte-Kristo nomiga tavsiyanoma, u kishi mening kafilligimda, sizga qirq sakkiz ming frank to'laydi.

Graf huzuriga 26 may, kech soat 7 da borasiz.

Abbat Buzoni».

- Xuddi o‘zi.
- «Xuddi o‘zi» deganingiz nimasi? Bu bilan nima demoqchisiz? – so‘radi mayor.
- Men ham xuddi shunday xat oldim.
- Sizmi?
- Ha, men.
- Abbat Buzonidanmi?
- Yo‘q.
- Bo‘lmasa kimdan?
- Lord Uilmor degan inglizdan, u o‘zini Sindbod-Dengiz sayyohi deb atabdi.
- Men abbat Buzonini tanimaganimdek, siz ham uni tanimaysiz, shundaymi?
- Yo‘q, men sizdan ko‘proq xabardor ekanman.
- Siz uni ko‘rganmidingiz.
- Bir marta.
- Qaerda?
- Buni sizga aytolmayman, agar aytib qo‘ysam, u vaqtda men bilganni siz ham bilib olasiz, bu ortiqcha bo‘ladi.
- U xatda nima deb yozilgandi?..
- Mana, o‘qing.

«Siz kambag‘alsiz, istiqbolingiz ayanchli. Dongdor nomga, ozodlikka, boylikka ega bo‘lishni istaysizmi?»

– Tavba, – dedi Andrea, – shuniyam so‘rab o‘tiribdi-ya.

«Nissadan chiqaverishda Genuya darvozasi oldida sizni kutib turgan izvoshga tushing-da, Turin, Shamberi va Ponde-Bovuazen orqali jo‘nang. Yigirma oltinchi mayda, kechqurun soat yettida Elisey Maydonidagi 30-uyga – graf Monte-Kristo huzuriga borib, undan otangizni so‘rang.

Siz markiz Bartolomeo Kavalkanti va markiza Oliva Korsinarining o‘g‘lisiz, sizga markiz beradigan hujjatlar buni tasdiqlaydi va shu nom bilan Parij oqsuyaklari jamiyatiga bermalol qo‘shilib yurishingizga imkon beradi.

Har yilgi ellik ming livr daromadingiz baland nufuzin-

gizda suyanchiq bo'la oladi.

Xatga Nissadagi Ferrea shahri bankiga yozilgan besh ming livrlik chek va graf Monte-Kristoga tavsiyanoma qo'shimcha qilindi. Grafga sizning ehtiyojlaringizni ta'minlab turishni topshirdim.

Sindbod-Dengiz sayyohi»

- Juda soz-ku! – dedi mayor.
 - Rostdanam-a?
 - Siz grafni ko'rdingizmi?
 - Hozir uning oldidan chiqdim.
 - Xatdagilarni u tasdiqladimi?
 - Hammasini tasdiqladi.
 - Siz biror narsa tushundingizmi bu gaplardan?
 - Ochig'ini aytsam, yo'q.
 - Bu yerda kimgadir firib berishyapti.
 - Har holda siz bilan menga bo'lmasa kerak?
 - Yo'q, albatta.
 - Unday bo'lsa...
 - Bizga baribir emasmi, to'g'rimi?
 - Men ham shu fikrdaman: rolimizni oxirigacha inoqlik bilan o'ynay beraylik-chi.
 - Bo'pti, men sizga juda sodiq jo'ra ekanimni amalda ko'rasiz.
 - Qadrli ota, men bunga shubha qilmayman.
 - Qadrdon o'g'lim, siz menga cheksiz muruvvat izhor etyapsiz, minnatdorman.
- Monte-Kristo mehmonxonaga kirish uchun paytni kutib turgan edi. Uning qadamlarini eshitib hamsuhbatlar bir-birini quchoqlay ketishdi, graf xuddi ana shu vaziyatda ular oldiga kirgan edi.
- Xo'sh, markiz, qalay? – dedi Monte-Kristo, – ko'rinib turibdiki, o'g'lingizdan mamnun bo'libsiz, shundaymi?
 - Oh graf, shodlikdan entikib ketyapman.
 - Siz-chi yigitcha?
 - Oh, graf, xursandlikdan o'zimni yo'qotib qo'ydim, gangib qoldim.

- Baxtiyor ota! Baxtiyor farzand! – dedi graf...
- Faqat bir narsa meni qayg'uga solyapti, u ham bo'lsa Parijdan tez chiqib ketish zaruriyati.
- Ammo, qadrdon janob Kavalkanti, – dedi Monte-Kristo, – ba'zi bir do'stlarim bilan tanishtirmagunimcha ketmaysiz deb umid qilaman!
- Xizmingizga hamisha tayyorman, janobi oliylari! – javob qildi mayor.
- Endi, yigitcha ahvolingizni ochiq aytib iqror bo'ling.
- Kimga?
- Otangizga, cho'ntagingiz qanday ahvolda ekanini unga ayting.
- Obbo, – dedi Andrea, – siz yaramga tuz sepayapsizda.
- Eshitdingizmi, mayor? – dedi Monte-Kristo.
- Ha, eshitib turibman.
- Nima deyayotganiga tushundingizmi?
- Juda yaxshi tushundim.
- Bu yigitcha pulga muhtojman, deyapti.
- Men nima qilishim kerak?
- Pul bering.
- Men-a?
- Ha, siz.
- Monte-Kristo ikkisining o'rtasida turib oldi.
- Mana oling, – dedi u Andreaning qo'liga bir dasta pul berib.
- Bu nima?
- Otangizdan.
- Otamdan?
- Ha. Axir, unga siz, menga pul kerak, deb ishora qildingiz-ku, hozir.
- Ha, ishora qilsam nima bo'пти?
- U buni sizga berishni menga topshirdi.
- Mening daromadlarim hisobigami?
- Yo'q, mayda-chuyda xarajatlar uchun.
- Otajonim!
- Sekinroq!.. – dedi Monte-Kristo. – Axir bu pulni u be-

ryapti deyishimni istamayotganini ko'rib turibsiz-ku.

– Nazokat borasida unga teng keladigan odam yo'q, – dedi Andrea pulni cho'ntagiga solib.

– Yaxshi, – dedi graf, – endi ruxsat sizlarga.

– Siz janobi oliylari bilan yana qachon uchrashamiz? – so'radi Kavalkanti.

– Ha, aytgancha, – dedi Andrea, – qachon uchrashuvga musharraf bo'lamiz?

– Istasangiz mana shu shanbada... Ha, juda soz, xuddi shu shanba kuni, mening Oteylda, Fonten ko'chasidagi hovlimda. Tushlikka mehmonlar keladi, ular orasida sizning bankiringiz janob Danglar ham bo'ladi. U bilan sizni tanishtirib qo'yaman: sizga pul beradigan kishi ikkingizni tanib olishi lozim-da.

– Parad liboslarida kelaylikmi? – so'radi ovozini pasaytirib mayor.

– Parad libosida: mundir, ordenlar, kalta shim...

– Men-chi? – so'radi Andrea.

– Siz oddiygina kiyinib oling: qora cholvor, amirkon kavush, oq nimcha, qora yoki ko'k frak, uzun galstuk, libosni Blenga yoki Veronikka buyurtiring. Ularning manzilini bilmasangiz Batisten aytib beradi. Siz davlatingizga qarab qanchaki tamanno bilan olifta kiyinsangiz, shuncha yaxshi bo'ladi. Ot sotib olishda Devedyoga murojaat qiling, faytonni Batistenga buyurtma qiling.

– Biz soat nechada huzuringizga kelaylik? – so'radi Andrea.

– Soat olti yarimlarda.

– Bo'пти, – dedi mayor shlyapasini ola turib.

Ikkala Kavalkanti bosh egib xayrlashdi-da, chiqib ketdi.

Graf deraza oldiga bordi va ikkisining qo'ltiqlashib hovlidan o'tib borayotganiga tikilib turdi.

– Ikkisi chindan ham muttaham! – dedi graf. – Bularning rostdanam ota va o'g'il bo'lmaganiga attang deysan kishi!

U picha og'ir xayolga cho'mib turdi-da:

– Morrellarnikiga boraman, – dedi. – Meni nafratdan ko‘ra jirkanish tuyg‘usi vijdon azobiga solyapti.

XIX. BEDA3OR

Hozir biz janob de Vilfor hovlisiga tutash bedazorga borib, kashtan daraxtlari shoxlariga ko‘milib yotgan panjara oldida yana do‘stlarimiz bilan uchrashamiz.

Bu gal hammadan oldin Maksimilian keldi. U yuzlarini devor taxtalariga qo‘yib, bog‘ to‘rida o‘sha tanish ko‘lanka ko‘rinib qolmasmikin, xiyobonning qumlari atlas kavushlar ostida g‘ijirlab tovush chiqarmasmikin, deb intizor turibdi. Axiyri oyoq tovushlari eshitildi, ammo bir emas, ikki ko‘lanka paydo bo‘ldi, Danglar xonim va mademuazel Ejeni kelib qoldi, Valentina belgilangan soatda uchrashuvga kelolmay qolgan edi. Bunda o‘zi aybdor emasligini Maksimilianga ko‘rsatib qo‘yish uchun Valentina mademuazel Ejeni Danglarga bog‘da bir oz sayr etishni taklif qildi.

Morrel oshiqqlarga xos fahm-farosat bilan buni tushundi va ko‘ngli tinchidi. Buning ustiga Valentina yaqinlashib kelmasa-da, faqat Maksimilian ko‘rib turadigan joydan yurib, yaqinidan o‘tayotganda yer tagidan qarab, «azizim, sabr qiling, mana ko‘rib turibsiz-ku, ayb menda emas», degandek bo‘lardi.

Maksimilian ham sabr etishga ahd qildi. U ikkala qizning bir-biriga sira o‘xshamay yaratilganiga qoyil qolardi: biri nozik qomat, xumor ko‘z, malla soch, ikkinchisi sarviqomat, ko‘zlari g‘urur bilan boqadi, qoramag‘iz, qora soch. Albatta, Morrelning ko‘ziga Valentinaning husn-jamoli beqiyos ko‘rinardi.

Qizlar yarim soatcha sayr qilib, uzoqlashib ketishdi. Maksimilian Danglar xonim uyiga qaytadigan vaqt kelgan bo‘lsa kerak, deb taxmin qildi.

Haqiqatan ham bir zum o‘tar-o‘tmas Valentina yakka o‘zi chiqdi. U birov ketimdan qarab turmasin tag‘in, deb

sekin-asta qadam tashlab kelardi, qiz to'g'ri darvoza tomonga bormay, o'rindiqqa o'tirdi-da, tevarak-atrofga asta ko'z tashlab chiqdi. Ana shu ehtiyotkorlikni bajo keltirgachgina, u darvoza tomonga yugurdi.

– Valentina, – ovoz eshitildi devor orqasidan.

– Salom, Maksimilian. Men sizni ancha kutdirib qo'ydim, biroq nega shunday bo'lganini o'zingiz ko'rdingiz.

– To'g'ri, men mademuazel Danglarni tanidim, sizlar bunchalik do'st ekaningizni bilmasdim.

– Bizni do'st deb kim aytdi?

– Hech kim, faqat o'zim, ikkingiz qo'ltiqlashib sayr qilganingizni, maktabdagi dugonalar singari sirdosh suhbatlashganingizni ko'rib shunday deb o'yladim.

– Haqiqatan ham ikkimiz ochiq, sirdoshlardek gaplashdik, – dedi Valentina, – u janob de Morserga erga chiqishga xohishi yo'qligini menga ochiq aytdi, men esa janob d'Epinega tegish baxtimni qaro etadi, dedim.

– Oh, dilbarim Valentina!

– Sizga ikkimizning juda inoq bo'lib ko'ringanimizning boisi ham shunda, – so'zini davom ettirdi qiz. – Axir sev-magan kishi haqida gapirayotganimda sevgan kishim qalbimda edi.

– Valentina, siz shunday go'zal, oqilasizki, sizdagi ajoyib fazilatlar – latofat, maftunkorlik mademuazel Danglarda yo'q va aslo bo'lmaydi ham.

– Siz menga oshiqsiz, shuning uchun shunday go'zal ko'rinaman ko'zingizga.

– Yo'q, Valentina, ont ichib aytamanki, go'zallikda sizga teng keladigan qiz yo'q. Hozirgina ikkingizga razm solib chiqdim va ont ichib aytamanki, mademuazel Danglarning go'zalligini e'tirof qilsam-da, biroq uni qanday qilib sevish mumkin, bunga aqlim bovar etmaydi.

– Uning yonida men turgandan keyin, albatta, shunday deb o'ylaysiz-da.

– Unday emas... biroq menga shuni aytib bering-chi... men mademuazel Danglar haqidagi fikrim tufayli, shun-

chaki qiziqib qolganimdan bu savolni beryapman...

– Gap nima ustida boryapti, tushunmadim, ammo mademuazel Danglar haqida fikringiz noto‘g‘ri bo‘lsa kerak. Siz, erkaklar, biz sho‘rlik xotinlar haqida hukm chiqarganingizda adolat, rahm-shafqat kutolmaymiz.

– Ikkingiz o‘zaro suhbatlashganingizni ko‘rgan kishi, bular bir-biriga juda xolis munosabatda ekan, deb o‘ylashi mumkin!..

– Chunki, bizning suhbatimiz deyarli hamma vaqt juda qizg‘in, shavqli bo‘ladi. Ha, aytgancha, nima so‘ramoqchi edingiz?

– Mademuazel Danglar janob de Morserga tegmoqchi emas ekan, bundan chiqdi, biror boshqa kishini sevsa kerak-da?

– Ejeni mening dugonam emas, dedim-ku axir sizga.

– Ammo qizlar dugona bo‘lmasa-da, bir-biriga o‘z sirini aytishaveradi-ku, – dedi Morrel. – Siz undan kimni sevganini so‘rab-surishtirgan bo‘lsangiz kerak albatta. Ana, yuzingizda paydo bo‘lgan jilmayish buni tasdiqlab turibdi!..

– Aftidan bu taxta devor sizga hech xalaqit bermayapti, shekilli.

– Xo‘sh, Ejeni nima dedi sizga?

– Hech kimni sevmayman, erni o‘ylasam vahima bosadi meni, dedi, erkin va mustaqil yashashni istayman, dedi. Koshki otam tezroq xonavayron bo‘lsa-yu, dugonam Luiza d‘Armili kabi artist bo‘lib olsam, deydi.

– Ana ko‘rdingizmi!

– Bu nimadan dalolat beradi? – so‘radi Valentina.

– Hech narsadan. – dedi iljayib Maksimilian.

– Bo‘lmasa nega kulyapsiz?

– Ana ko‘rdingizmi, – dedi Maksimilian, – siz ham bu yoqqa qarayapsiz-ku.

– Nariroq turay bo‘lmasa?

– Yo‘q, yo‘q! Sizning haqingizda gaplashaylik.

– To‘g‘ri aytdingiz, o‘n daqiqacha vaqtimiz qoldi.

– Bu dahshat! – dedi qayg‘uli ohangda Maksimilian.

– Haq gapni aytdingiz, mendan yaxshi do‘st chiqmaydi,
– dedi Valentina qayg‘uli ohangda, – meni deb siz bechora qanchadan-qancha aziyat chekyapsiz, axir siz baxtiyor hayot uchun yaratilgansiz-ku! Buning uchun juda pushaymonman, bilsangiz!

– Valentina, baribir-ku: mening baxtim ana shunda-ku!

– Sizning yoningizda bir lahza tursam, ikki og‘iz so‘z-ingizni eshitsam, bu intizorlik azoblari bir zumda yodim-dan ko‘tariladi-ketadi! Aminmanki, Xudoyim bir-biriga shu qadar hamohang bu ikki dilni hijron o‘tida yondirib yuborish uchun yaratmagan.

– Rahmat, Maksimilian. Ikkimiz uchun umidvor bo‘lavering, bu menga ozmi-ko‘pmi baxt-saodat bag‘ishlaydi.

– Uyingizda biror gap bo‘ldimi Valentina, muncha tez ketyapsiz?

– O‘zimam bilmayman, de Vilfor xonim birrov kirib o‘tsin, deb iltimos qilibdi, u menga nimanidir aytmoqchi ekan, boyligimning bir qismi shunga bog‘liq emish. E, Tangrim, o‘zing rahm qil menga! Butun boyligidan kechdim, kim olsa olaversin, faqat osoyishta turmush bo‘lsa bas menga! Axir, siz meni kambag‘al bo‘lsam ham sevasizku, shundaymi, Maksimilian?

– Men sizni bir umrga sevaman! Menga kambag‘allik nima-yu, boylig nima – baribir, Valentina bo‘lsa bas! Aminmanki, uni mendan hech kim tortib ololmaydi, hech kim! Biroq, ayting-chi, bu xabar sizning erga chiqishingiz haqida emasmikin?

– Bu haqda bo‘lmasa kerak.

– Menga qarang, Valentina, qo‘rqmang, men borman, tanimda jonim bor ekan, men aslo boshqani demayman.

– Bu bilan siz mening ko‘nglimga tasalli berdim, deb o‘ylayapsizmi, Maksimilian.

– Kechiring meni! Rost aytasiz, bu gapim o‘rinsiz bo‘ldi. Ha, aytgandek, yaqinda men Morserni ko‘rdim.

– Rostdan-a?

– Frans uning do‘sti ekanini bilasizmi?

– Ha, nima bo‘pti?

- Fransdan xat olibdi, yaqinda qaytib kelar ekan u. Valentinaning rangi o'chdi, u darvozaga suyanib qoldi.
- E, Tangrim, – dedi u. – Rostdanmikin-a? De Vilfor xonim menga shuni xabar qilarmikin? Yo'q, mumkin emas.
- Nega?..
- Negaligini o'zim ham bilmayman... Biroq, de Vilfor xonim bu nikohga ochiq qarshilik ko'rsatmasa-da, dilida unga rozi emas.
- Bilasizmi, Valentina, de Vilfor xonim meni maftun eta boshlayapti!
- Maksimilian, shoshmang, sabr qiling, – dedi Valentina jilmayib.
- Bu nikoh unga yoqmayotgan ekan, buni yo'qqa chiqarish uchun boshqa birorta taklifga rozi bo'lar, u?
- Umidvor bo'lmay qo'ya qoling, Maksimilian, de Vilfor xonim erlarni emas, umuman erga chiqishni rad etyapti.
- Erga chiqishni? Unday bo'lsa nega o'zi erga chiqdi?
- Siz, Maksimilian, tushunmayapsiz. Men bundan bir yil muqaddam monastirga ketaman, deganimda, de Vilfor xonim, rasmiyat yuzasidan qarshilik ko'rsatish zarur deb hisoblasa-da, mening fikrimni quvonch bilan qabul qildi, bunga hatto otamni ham ko'ndirdi, faqat sho'rlik buvamni deb, ketmadim. Dunyoda mendan boshqa hech kimni sevmaydigan bu cholning mo'ltillab turishini ko'rgan kishining yuragi eziladi, uni ham faqat men yaxshi ko'raman. Mening monastirga ketishga qaror qilganimni eshitganda u ta'na-ta'zirga to'la ko'zlari bilan menga shunday tikildiki, sal bo'lmasa o'zimni yo'qotib qo'yay dedim, tovushsiz, oh-vohsiz fig'on yoshlarini ko'rib chidolmadim. O'zimni oyoqlari ostiga tashlab qichqirdim: «Kechiring meni! Buvajonim, kechiring! Boshimga osmon qulab tushsa-da, sizdan ajralmayman!» Ana shunda u ko'zlarini osmonga ko'tardi... Maksimilian, ehtimol, men behad azob-uqubatlarga duchor bo'lurman, biroq hamma g'am-g'ussalarim bobomning ana shu mehrga to'la bir qarashi bilan ko'nglimdan ko'tarilib ketadi.

– Azizim, Valentina, siz farishtasiz, rostini aytganda, badaviylarni qirg'inga solganimni Xudoyimning o'zi inobatga olganmidi, bilmadim, qayoqdandir boshimga baxt qushi qo'ndi-yu, sizni uchratib qoldim, behad baxtiyor bo'ldim. Ammo men bir narsaga tushunolmayapman: nega endi de Vilfor xonim sizning erga chiqishingizni istamayapti?

– Eshitmadingizmi axir, hozirgina, men boyman, juda katta boylikka egaman, dedim-ku! Onam dunyodan o'tganidan so'ng menga har yili ellik ming livr daromad meros bo'lib qoldi, buvam va buvim markiz de Sen-Meran va markiza de Sen-Meran ham menga shuncha meros qoldirishadi. Janob Nuarte ham meni o'zining yagona merosxo'ri qilib tayinladi. Demak, inim Eduar menga qaraganda kambag'al, de Vilfor xonimdan unga hech narsa tegmaydi. Xonim o'g'lini jonidan ham yaxshi ko'radi. Bordi-yu, men monastirga ketgudek bo'lsam butun boyligim otamga qoladi, demak, u markizning, markizaning va mening merosxo'rim bo'lib qoladi, so'ng borib butun meros uning o'g'liga o'tadi.

– Ajabo, shunday go'zal yosh ayolda tamagirlik qayoqdan paydo bo'lib qoldi ekan?

– Lekin bilib qo'yingki, u o'zini emas, o'g'lini o'ylaydi, o'g'lining g'amini yeydi, buni siz aybga yo'yyapsiz, lekin bu onalik mehridan kelib chiqayotgan jonkuyarlikdir.

– Valentina, menga qarang, – dedi Morrel, – siz uning o'g'liga mulkingizdan bir qismini berib qo'ya qolsangiz nima bo'larkin?

– Hamisha o'zini tamagir emasman deb yurgan bu ayolga buni qanday qilib taklif etish mumkin?

– Valentina, mening muhabbatim menga bir umr muqaddas bo'lib qoladi, men uni qalbim to'rida sir saqlab kelyapman, dunyoda hech kim hatto singlim ham, bundan bexabar, hech kimga yuragimni ochganim yo'q haligacha. Valentina, bundan do'stimni xabardor qilsam maylimi? Ruxsat etasizmi?

Valentina seskanib ketdi.

– Do‘stimga? – dedi Valentina, – Maksimilian, bu gapni eshitib, a‘zoyi badanim titrab ketdi. Kim u do‘stingiz?

– Valentina, siz biror kishini birinchi ko‘rishdayoq uni qaerda, qachon ko‘rganingizni eslolmasangiz-da, uni yoqtirib, xuddi ko‘p vaqtdan buyon tanishdek yaqin tutganmisiz o‘zingizga?

– Ha.

– Menda ham o‘sha ajoyib odamni ko‘rganda xuddi mana shunday hissiyot paydo bo‘ldi.

– Ajoyib odam dedingizmi?

– Ha.

– Siz u bilan ko‘pdan buyon tanishmisiz?

– Bir hafta yoki o‘n kundan buyon.

– Bir haftalik tanishni do‘stim deyapsizmi? Maksimilian, men sizni «do‘st» degan ajoyib sifatni berishda bunchalik saxiylik qilmaydigan kishi, deb o‘ylagandim.

– Mantiq yuzasidan qaraganda, siz haq gapni aytdingiz, biroq nima desangiz deyavering, men bu ixtiyorsiz hissiyotdan voz kechmayman. Bu odam kelajakda mening hamma yaxshi kunlarimning sababchilaridan bo‘lishiga aminman, ba‘zan, bu odam ana shu kelajakka teran nazar tashlab o‘zining hukmron qo‘llari bilan uni yo‘naltirayotgandek tuyuladi menga.

– Demak, u karomat qiluvchi «avliyo» ekan-da? – so‘radi iljayib Valentina.

– To‘g‘risini aytganda, – dedi Maksimilian, – ba‘zan bu zot faqat yaxshilikni karomat qiluvchi, deb ishongim keladi.

– Meni u bilan tanishtiring, shuncha musibatlar evaziga men sho‘rlik muhabbatda baxtimni topamanmi-yo‘qmi, aytib bersin!

– Eh, soddadil, do‘stim! Axir siz u kishini taniysiz-ku.

– Men-a?

– Ha, siz.

– O‘gay onangiz va uning o‘g‘lini o‘limdan xalos etgan kishi-da.

– Graf Monte-Kristomi?

– Ha, o’sha.

– Yo’q, – dedi xitob qilib Valentina, – u hech mahal menga do’st bo’lolmaydi, chunki u o’gay onam bilan inoq.

– Valentina, graf o’gay onam bilan inoq, dedingizmi? Yo’q, unday bo’lmasa kerak. Siz adashyapsiz.

– Eh, Maksimilian, shunday voqealar bo’lyaptiki, hech qo’yaverasiz! Endi bizning uyimizda Eduar emas, graf hukmron. O’gay onam unga sajda qiladi va uni inson aql-idroki, zakovatining cho’qqisi deb ko’kka ko’taryapti. Otam ham unga qoyil qolyapti, eshitdingizmi, ajoyib fikrlar haqida bunchalik burro so’zlagan kishini hech ko’rmaganman, deydi. Eduar unga butunlayin maftun va uning katta-katta qora ko’zlaridan qo’rqsa-da, u paydo bo’lishi bilan istiqboliga uchib boradi va har safar uning qo’lidan hayratga soladigan qo’g’irchoq sovg’a oladi. Uyimizda graf Monte-Kristo endi otamning yoki de Vilfor xonimning mehmoni emas, mezbon ham. U o’zini biznikida xuddi o’z uyidagidek his qiladi.

– Agar hammasi siz aytgandek bo’lsa, demak, siz allaqachon uning sehrli ta’siriga berilib ketgan bo’lishingiz kerak, yoki tezda berilasiz. U Italiyada Alber de Morser bilan tanishadi va uni qaroqchilar qo’lidan qutqarib oladi. U Danglar xonim bilan tanishib, shohona tuhfa etadi, o’gay onangiz va ukangizni o’limdan qutqaradi. U odam atrofdagilarga ta’sir qilish qobiliyatiga ega. U kishidagi oddiy did bilan ulkan zebolikning bu qadar ajoyib uyg’unligini hech kimda ko’rganim yo’q. U menga qarab jilmayganda yuzida nazokat barq urib turadiki, boshqa ba’zilar buni zaharxandaga yo’yishlariga aslo tushunolmayman. Ayting-chi, Valentina, sizga ham u shunday jilmayib qaraganmidi? Agar shunday qilgan bo’lsa, siz baxtiyor bo’lasiz.

– Men! – dedi xitob qilib qiz, – Maksimilian, menga u qiyo ham boqmaydi, ochiqrog’i, yonidan o’tib qolgudek bo’lsam teskari qarab oladi. Yo’q, u oliyhimmat emas, unda siz aytgandek kuchli zehn, idrok yo’q va kishilarning dilidagini bilib oladigan qobiliyatga ega ham emas. Agar u oliyhimmat bo’lganda bu oilada yakkalanib qo’yilgan

men shoʻrlikni gʻamgin holda koʻrib, madad qoʻlini choʻzgan va oʻz taʻsiri, obroʻyiga tayanib meni himoya qilgan, oʻz panohiga olgan boʻlur edi, u siz aytgandek chindan ham quyosh rolini oʻynayotgan boʻlsa, nurlari bilan qalbimni ilitgan boʻlur edi. Maksimilian, siz, u meni sevadi deyapsiz, xoʻsh, buni siz qayoqdan bila qoldingiz? Boʻyi besh fut va olti dyuym keladigan, shop moʻylov, ulkan shamshirli ofiserga izzat bilan iljayib taʻzim qilishadi-yu, qon qaqshab yurgan shoʻrlik qizni, oʻylab-netib oʻtirmay, oyoq ostiga olib yanchib tashlashadi.

– Valentina, ont ichib aytamanki, yanglishyapsiz!

– Oʻzingiz oʻylab koʻring, Maksimilian, agar men aytgandek boʻlmasa, agar u oilamizga kirib olish uchungina men bilan diplomatik munosabatda boʻlayotgan boʻlsa, oʻsha siz aytgan ajoyib maftunkor jilmayishini menga bir marta ham ravo koʻrmadi-ku. U esa mening baxti qaro shoʻrlik qiz ekanimni koʻrib mendan zarracha naf ololmasligini bilib menga eʼtibor ham bermaydi, koʻrib turib, oʻzini koʻrmaganga soladi. Kim biladi, ehtimol, otamga va Vilfor xonimga yoki ukamga yaxshi koʻrinish uchun u ham qoʻlidan kelsa meni taʻqib qila boshlar? Keling, ochiq-chasiga gaplashaylik: men bevaj, shundaygina nafrat ostiga olsa boʻlaveradigan ayollar toifasidan emasman, oʻzingiz ham shunday degan edingiz. Kechiring meni, – dedi Valentina soʻzlari Maksimilianga qanday taʻsir etayotganini koʻrib, – men tentak, sizga oʻzim ham hozirgacha oʻylab koʻrmagan fikrlarni aytib oʻtiribman. U kishi, siz aytgandek kuchga ega ekanini inkor qilmayman, bu kuch hatto menga ham taʻsir etyapti, biroq yomon taʻsir etayotibdi, lekin yaxshi, olijanob tuygʻularni mahv etyapti.

– Mayli, – dedi xoʻrsinib Morrel, – bu haqda gapirmaymiz. Men unga bir soʻz ham aytmayman.

– Men sizni, azizim, xafa qilib qoʻydim, shekilli, – dedi Valentina, – nega endi qoʻlingizni siqib uzr soʻrolmas ekanman, nega? Ammo siz graf Monte-Kristo sizga qanday yaxshilik qilganini aytib bersangiz, ehtimol men ham xur-

sand bo'lardim?

– Ochig'ini aytsam, bu savolni berib meni juda qiyin ahvolga solib qo'ydingiz, graf men uchun ma'lum bir muruvvat qilganini o'zim ham bilmayman. Mening unga bo'lgan tuyg'ularim beixtiyor, ularning tagida biror oqilona asos yo'q. Axir quyosh menga biror yordam berdimi? Yo'q. U menga nur sochadi, ana shu nur yog'dusida men sizni ko'rib turibman, mana bo'lgan-turgani shu. Yoki xushbo'y hidni olaylik, undan menga qanday naf bor? Hech qanday. U faqat yoqimli. Mabodo mendan nega bu hidni yaxshi ko'rasan, deb so'rasalar, «yoqimli bo'lgani uchun», deyishdan bo'lak so'z aytolmayman. Grafga bo'lgan do'stona tuyg'ularimda va uning menga munosabatlarida allaqanday anglab bo'lmaydigan sir bor. Dildan sezib turibmanki, bu kutilmagan inoqlikning biror sababi bo'lsa kerak. Uning ba'zi qiligi, eng sirli fikrlari bilan mening qiliqlarim va fikrlarim o'rtasida qandaydir bog'lanish borligini sezib turaman. Valentina, siz meni kulgiga olishingiz mumkin, ammo u bilan tanishganimdanda buyon, menda yuz beradigan har bir yaxshilik o'sha kishidan kelyapti, degan bema'ni fikr miyamga mahkam joylashib oldi. Axir men bunday homiylikka hech ehtiyoj sezmay o'ttiz yil yashadim, bu foniyl dunyoda to'g'rimi? Mana sizga bir misol: u meni shanba kuni tushlikka taklif etdi, bu bizning o'zaro aloqalarimizda tabiiyl bir narsa, to'g'rimi? Biroq so'ng nima ma'lum bo'ldi deng? Shu tushlikka sizning otangiz va o'gay onangiz ham taklif qilingan ekan. Demak, men ular bilan uchrashaman, albatta, ammo bu uchrashuv nimalarga olib kelishini kim bilib o'tiribdi, deysiz? Bu oddiy bir voqea deb o'ylash mumkin, biroq men bunda ajib bir narsa borligini sezib turibman, bu menga allaqanday umid, ishonch bag'ishlayapti. Men, hamma narsadan xabardor, hamma narsani biladigan bu o'xshashi yo'q zot janob de Vilfor va Vilfor xonimni men bilan uchrashtirish uchun shunday qilyapti, dedim o'z-o'zimga. Meni kechiring, Valentina, ba'zan hatto u mening muhabbatimni fahmlab qolmaganmikin, deb ko'zla-

riga tikilaman.

– Azizim, – dedi Valentina, – agar sizdan faqatgina shunday gaplarni eshitganimda, sizni avliyo ekan bu odam deb, vahimaga tushgan bo‘lur edim. Bu shunchaki tasodifiy uchrashuv emasmikin? Yaxshilab o‘ylab ko‘ring yana. Hech qaerga bormaydigan otam o‘gay onamni, o‘n marta bo‘lsa kerak, grafnikiga borishdan voz kechishga undab, ko‘ndirolmadi, ammo xonim u ajib nabobnikiga borish ishtiyoqi bilan yonib yuribdi, oxiri maqsadiga yetib erini ko‘ndirdi. Yo‘q, yo‘q, Maksimilian, ishoning menga: bu dunyoda mening sizdan bo‘lak madadkorim yo‘q!

– Chindan ham haqsiz, Valentina, gaplaringizda mantiq bor, – dedi Maksimilian, – ammo hamisha meni rom etadigan nozik ovozingiz, ba‘mani mulohazalaringiz bugun meni ishontira olmayapti.

– Ochig‘ini aytsam, agar boshqa misolingiz bo‘lmasa, siz ham meni ishontirolmayapsiz?.. – dedi Valentina.

– Menda yana bir misol bor, – dedi Maksimilian jur‘at-sizgina, – lekin bunisi birinchisidan bema‘niroq ekanini o‘zim ham sezib turibman.

– Unda yanayam chatoq, – dedi iljayib Valentina.

– Har qalay, – dedi so‘zini davom ettirib Morrel, – men bunisiga ishonaman, chunki his-tuyg‘uga berilgan kishi-man, armiyada o‘n yillik xizmat davrimda meni qandaydir ichki bir tuyg‘u bir necha bor o‘limdan qutqardi; ajal o‘qi kelayotganidan darak berib, o‘ngga yoki chapga burilishga undab turdi.

– Azizim, Maksimilian, nega siz, ana shu o‘qlar mening duo-ibodatlarim natijasida mo‘ljaldan chetga burilib ketganini tan olmaysiz? Siz u yoqda bo‘lgan kunlarda o‘zimni emas, sizni deb Xudoga sig‘inaman.

– To‘g‘ri, bir-birimizni tanigach, shunday qila boshladigiz, – dedi kulib Morrel, – ilgari-chi? Men sizni Valentina, tanimagan vaqtlarda-chi?

– Bo‘pti, bo‘pti, siz bag‘ritoshsiz, mabodo menga minnatdorlik bildirish ko‘nglingizda bo‘lmasa, gapni cho‘zmay, haligi ta‘biringiz bo‘yicha bema‘ni misolga

o'taylik.

– Ha, o'tdik misolga: tirqishdan huv anavi yoqqa qarang, daraxt tagidagi otni ko'rdingizmi? Men o'sha otni minib keldim.

– Judayam ajoyib ot ekan-da! Uni nega bu yoqqa olib kelmadingiz?.. Men u bilan gaplashardim.

– Ko'rib turibsizki, bu juda qimmatbaho ot, – dedi Maksimilian, – Valentina, siz mening puldor emasligimni bilasiz, men tadbirkor odamman. Kunlarning birida bu ajoyib Medeani (otga men shunday nom berdim) bir savdogarda ko'rib qoldim. Narxini so'radim. U to'rt yarim ming frank dedi. O'z-o'zidan ma'lumki, damim ichimga tushib ketdi-yu, tuyog'imni shiqillatib qoldim, lekin ko'nglim cho'kdi, chunki ot meni ko'rib erkalanib suykaldi, minganimda gijingladi... O'sha kuni kechqurun jo'ralarim Shato-Reno, Debre va boshqalar uyimga kelib qarta o'ynaymiz, deyishdi, yutqazadigan bekorchi puli bor boy kishi ham emasman, yutib olishni niyat qiladigan kambag'al ham emasman, shu sababli bu o'yinga qiziqmayman. Biroq o'yin mening uyimda bo'layotgani sababli, uni tashkil etishga majbur bo'ldim.

O'yinni boshlaganimizda graf Monte-Kristo kirib keldi. U stolga o'tirdi-da, o'ynay boshladi, men besh ming frank yutib oldim. Mehmonlar yarim kechada tarqalishdi. Men chidab turolmay, haligi savdogarnikiga jo'nadim. Hayajonla qo'ng'iroq ipini tortdim, eshikni ochgan kishi meni jinni, deb o'ylagan bo'lsa kerak, chunki men uchib otxonaga bordimu, og'ilga qaradim. Quvonchimdan terimga sig'madim. Medea ohistagina pichan kavshab turardi. Egarni shartta olib otni o'zim egarladim, yugan urdim. Medea g'iq etmay turaverdi. So'ng dong qotib qolgan savdogarning qo'luga to'rt yarim ming frankni tutqizdim-da, qaytdim, tun bo'yi Elisey Maydonining u boshidan bu boshiga ot yo'rttirdim. Bilasizmi? Grafning uyida chiroq yonib turardi, darpardada uning soyasi ko'ringandek tuyuldi menga. Demak, angladimki, men shu otga juda ishqivoz bo'lib qolganimni graf bilib qolgan va shu otni

sotib olsin, deb menga boyagi pulni yolg'ondan yutqizgan ekan.

– Aziz, Maksimilian, – dedi Valentina, – siz judayam xayolparast ekansiz... Sizning menga bo'lgan muhabbatinigiz uzoqqa cho'zilmaydi, chunki sizga o'xshagan kishilar shirin xayollarga cho'mib yuradilar va ikkimizniki singari shavqsiz muhabbat mushkilotlariga uzoq bardosh berolmaydilar... Sho'rim quridi, meni chaqirishyapti... ana, eshi tyapsizmi?

– Valentina, – dedi Maksimilian – iltimos, jimjilog'ingizni teshikdan o'tkazing, bir o'pib olay...

– Maksimilian, axir bir-birimiz uchun faqat ikki ovoz, ikki ko'lanka bo'lib qolamiz, deb shartlashganmiz-ku!

– Mayli, aytganingiz bo'lsin, Valentina.

– Istagingizni bajarsam xursand bo'lasizmi?

– Bo'lmasam-chi!

Valentina o'rindiqqa chiqib oldi-da, devor ustidan jimjilog'ini emas, butun qo'lini uzatdi.

Maksimilian oh urib irg'ib g'o'laga chiqdi-da, sevimli qo'lni mahkam ushlab olib, unga yonib turgan lablarini bosdi, biroq jajji qo'l shu zahotiyoq uning qo'lidan chiqib ketdi. Morrel ilk bor tuygan tuyg'udan qo'rqib, qochib borayotgan Valentinaning oyoq tovushlarini eshitib turdi, xolos.

MUNDARIJA

BIRINCHI QISM

I. MARSEL. TASHRIF	4
II. OTA VA O'G'IL	14
III. KATALANILIKLAR	21
IV. FITNA	33
V. NIKOH	41
VI. QIROLLIK PROKURORINING YORDAMCHISI	55
VII. SO'ROQ	67
VIII. IF QAL'ASI	79
IX. NIKOH KUNINING OQSHOMI	92
X. TYUILBRIDAGI MO'BJAZ OROMGOH	98
XI. KORSIKA ODAMXO'RI	108
XII. OTA VA O'G'IL	117
XIII. YU3 KUN	125
XVI. TELBA MAHBUS BILAN DARG'AZAB MAHBUS	136
XV. 34-RAQAM BILAN 27-RAQAM	149
XVI. ITALIYA OLIMI	167
XVII. ABBATNING XONASI	178
XVIII. ABBAT FARIANING XAZINASI	199
XIX. UCHINCHI TUTQANOQ	213
XX. IF QAL'ASINING GO'RISTONI	224
XXI. TIBULEN OROLI	229

IKKINCHI QISM

I. KONTRABANDISTLAR	244
II. MONTE-KRISTO OROLI	251
III. SEHRLI JILVA	259
IV. NOTANISH ODAM	269
V. «GAR KO'PRIGI» QOVOQXONASI	275
VI. KADRUSNING HIKOYASI	289
VII. TURMA RO'YXATI	305
VIII. MORREL SAVDO XONADONI	312
IX. BESHINCHI SENTYABR	327
X. ITALIYA. SINDBOD-DENGIZ SAYYOHI	344
XI. UYG'ONISH	370

XII. RIM QAROQCHILARI	376
XIII. UCHRASHUV	409
XIV. MAZZOLATA	433
XV. RIMDA KARNAVAL	449
XVI. SAN-SEBASTIANO G'ORLARI	470
XVII. PISANDA.....	488

UCHINCHI QISM

I. ALBERNING MEHMONLARI	498
II. NONUSHTA	520
III. BIRINCHI UCHRASHUV	534
IV. JANOB BERTUCHCHO	548
V. OTEYLDAGI UY	553
VI. QASOS	561
VII. QONLI YOMG'IR	585
VIII. CHEKSI3 QAR3	598
IX. BIR JUFT ARG'UMOQ	612
X. FALSAFA	624
XI. GAYDE	636
XII. MORREL5 OILASI.....	641
XIII. PIRAM VA FISBA	651
XIV. TOKSIKOLOGIYA36	662
XV. ROBERT – IBLIS	680
XVI. BIRJA NAYRANGI	696
XVII. MAYOR KAVAL5KANTI	709
XVIII. ANDREA KAVAL5KANTI	721
XIX. BEDAZOR	734

Adabiy-badiiy nashr

ALEKSANDR DYUMA

GRAF MONTE-KRISTO

(Ikkinchi nashr)

Muharrir

Feruz QUVONOVA,

Ma'mura QUTLIEVA

Musahhih

Navro'z BEKMURODOV

Badiiy muharrir

Uyg'un SOLIHOV

Sahifalovchi

Feruz BOTIROVA

Bosishga 12.02.2013y.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 23,375. Shartli bosma tobog'i 38,03.

Garnitura «Benguiat Cyr+Uzb». Gazeta qog'ozi.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 42.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» nashriyotida tayyorlandi.

Lisenziya raqami: AI №198, 2011 yil 28.08 da berilgan.

«SHAMS-ASA» bosmaxonasida bosildi.

Toshkent, Bunyodkor shoh ko'chasi, 28-uy.

«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida muqovalandi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-36-89; Marketing bo'limi – 128-78-43

faks — 273-00-14; ye-mail: yangiasravlodi@mail.ru